

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

**MILLIY QADRIYATLAR VA
MA'NAVIY MEROSNING JAMIYAT
TARAQQIYOTIDAGI O'RNI**

(mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman
materiallari to'plami)

O‘UK: 316.752(575.1)+17.022.1(575.1)

KBK: 60.56(5O')

Z 22

ISBN 978-9910-09-481-1

“Zayniyev, S.X. **Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni** [Matn]: to‘plam / S.X. Zayniyev. – Toshkent viloyati: Sharq nashr, 2025.-747 b.

Mas’ul muharrir:

Olimjon Davlatov

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:

B.Qodirov, R.Rashidov, M.Musayev, A.Atayev,

L.Eshonqulov, N.Xusanova

Ushbu to‘plamda “**Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni**” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. Shuningdek, to‘plam “O‘zbekiston-2030” strategiyasi, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 50-son yig‘ilish bayonida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan amalga oshirilayotgan ALM-202403110247 sonli “Yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish va ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bo‘yicha o‘quv va ilmiy-metodik qo‘llanmalar, uslubiy tavsiya, ma’rifiy adabiyot va media mahsulotlar majmuasini yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi (2024-2025 y.y.) doirasida bajarilgan.

HASANOV OTABEK ABDURASHIDOVICH,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari

KIRISH SO'ZI

Bugungi globallashuv jarayonlari jadal kechayotgan, axborot maydoni kengayib, dunyoqarashlar torayib borayotgan bir davrda har bir xalqning o'z milliy qadriyatlariga tayana olishi uning ma'naviy mustaqilligi va milliy yuzini saqlab qolishining eng muhim kafolatidir. Zero, millatning qudrati nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy soha yutuqlarida, balki uning ma'naviy olami, qadriyatlari, madaniyati va tarixiy xotirasining tirikligida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni chuqur o'rganish, ularni zamon talablariga mos ravishda asrab-avaylash va rivojlantirish masalasi har doim dolzarb bo'lib kelgan.

Milliy qadriyatlar xalqning asrlar davomida shakllangan tajribasi, turmush tarzi, urf-odatlari va an'analarida namoyon bo'ladi. Ular xalqning ma'naviy qiyofasini belgilaydi, jamiyat a'zolarining axloqiy me'yorlari va dunyoqarashini tartibga soladi. Milliy qadriyatlar har bir insonning qalbida vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, insoniylik va bag'rikenglik tuyg'ularini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillaridan boshlab milliy o'zlikni anglash, ma'naviy merosni tiklash va qadriyatlarni jamiyat hayotiga singdirish yo'nalishida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek, "milliy qadriyatlarimizni tiklamasdan turib, jamiyatda ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirish, zamon talabiga javob beradigan yangi avlodni tarbiyalash mumkin emas."

So'nggi yillarda mamlakatimizda ma'naviy merosni himoya qilish, milliy urf-odat va an'analarni qayta tiklash, xalq og'zaki ijodi, klassik adabiyot, milliy me'morchilik, amaliy san'at va diniy ma'rifiy ta'lim sohalarida keng ko'lamli davlat dasturlari qabul qilindi. Shu bilan birga, madaniy merosni raqamlashtirish, yodgorliklarni muhofaza qilish, milliy bayram va marosimlarni zamonaviy jamiyat talablariga mos holda tashkil etish ishlari ham izchil davom etmoqda.

Jamiyat taraqqiyotida iqtisodiy va siyosiy barqarorlik bilan bir qatorda ma'naviy barkamollik ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy ma'naviyat yuksalmagan joyda barqaror rivojlanishga erishib bo'lmaydi. Millat o'z ma'naviyatini asrab, uning asosida yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgandagina haqiqiy taraqqiyot sodir bo'ladi.

Shu bois, milliy qadriyatlarni tiklash, ma'naviy merosni izchil o'rganish, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash, yoshlarni milliy g'urur va yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash — bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi "Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni" mavzusida tashkil etilgani bejiz emas. Uning asosiy maqsadi — milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat hayotidagi rolini ilmiy asosda tahlil qilish, bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarni o'rganish va ularni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Qo'lingizdagi ushbu to'plamda jamlangan ilmiy maqolalar, tahlillar va mulohazalar milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni asrash hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildirish yo'lidagi muhim ilmiy qadamlardan biridir. Ushbu konferensiya materiallari mamlakatimizda ma'naviy muhitni yanada boyitish, milliy o'zlikni mustahkamlash, ma'naviy merosni kelajak avlodga etkazish va jamiyat taraqqiyotini ma'naviy asoslarda ta'minlashga munosib hissa qo'shadi, deb ishonamiz.

MILLIY QADRIYATLARNING TARIXIY VA FALSAFIY ILDIZLARI.

MILLAT QADRI VA “MILLIY QADRIYATLAR” TUSHUNCHASI

Qiyom Nazarov,

falsafa fanlari doktori, professor.

Mamlakatimizda Yangi O‘zbekiston shitob bilan barpo etilayotgan keyingi yillarda, jamiyatimiz hayotining barcha jabhalari kabi, umuminsoniy qadriyatlarni qadrlash sohasida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda, inson qadriga munosabat o‘zgardi, milliy qadriyatlarga e’tibor tobora kuchayib bormoqda.

2016 yil so‘nggidan boshlab hozirgacha o‘tgan tarixan qisqa bu davrni xalqimiz uchun davlat va jamiyat qurilishi sohasida ham, milliy qadriyatlar amaliyoti va ma’rifiy jabhalarda ham barqaror o‘zgarishlar davri bo‘ldi, deyish uchun barcha asoslar etarli.

Bu davrda milliy qadriyatlarni jamiyat taraqqiyotini belgilovchi tayanch omillardan biri sifatida idrok qilish, inson manfaatlari, erkinligi va farovonligini to‘la ta’minlash bilan bog‘liq faoliyatning qadri va ahamiyatini to‘g‘ri anglash borasida muhim natijalar qo‘lga kiritildi.

Qadriyatlar sohasida millat, unga xos belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularni vujudga kelish jarayonlariga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan hudud va u bilan bog‘liq tuyg‘ular, millatning ishi madaniyati, u yaratgan madaniy boyliklar va ma’naviy meros bilan bog‘liq qadriyatlar ham muhim o‘rin egallaydi. Bu qadriyatlar biror millat kishilari uchun umumiy bo‘lib hisoblanadi. Ular alohida shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lovchi halqalardan biridir. Muayyan kishi yoki shaxs umuminsoniy qadriyatlarni anglashda, o‘z faoliyatini ushbu qadriyatlar mezoniga moslashtirishda milliy qadriyatlarni hisobga oladi, ular bilan bog‘liq jihatlarini nazarda tutadi.

Ilmiy adabiyotlarda millat tushunchasi bilan birga demos, etnos, nufus, xalq kabi tushunchalar ham ishlatiladi. Bu tushunchalar, bir xil ma’no

anglatmasalar ham, muayyan joyda yashaydigan kishilarning tarixiy birliklarini ifodalaydi. Sobiq ittifoq davridagi manbalarda millatga turli-tuman yondashish, uni xilma-xil ta'riflash mavjud edi. Bu turli-tumanlik va xilma-xillik orasidan umumiylik -ya'ni, sinfiy, partiyaviy, mafkuraviy yondashish sezilib turadi. Millatni "kelajakda tez barham topishi", "bir-biri bilan qo'shib ketishi" ta'kidlanadi. Bunday umumiylikni hisobga olmaganida quyidagilarni ta'kidlash mumkin: millat tabiiy-tarixiy rivojlanish jarayonida, moddiy va ma'naviy hayot sharoitlari ta'siri natijasida, muayyan hududda vujudga kelgan, o'tmish, milliy tarix, madaniy-ma'naviy meros, milliy ruh, milliy til va muomala, yashash tarzi kabi umumiy jihatlar bilan tavsiflanadigan va o'ziga xos tarzda shakllangan kishilarning ijtimoiy-tarixiy birligidir.

Dunyodagi xalqlar orasida aynan shu millatning borligi, mavjudligi, betakrorligi, "ko'hna tarix shodasida bitta marjon" sifatidagi zohirligi, har qanday kishi uchun muayyan ahamiyatga ega bo'lishi tabiiy. Millat — har qanday milliy qadriyatning obyekti, milliy qadriyatlar tizimining eng asosiy bo'g'inidir. Millat tushunchasi qadriyat sifatida tushunilganda, bir-biri bilan qon-qarindosh xalqlarga nisbatan ishlatiladigan "Osiyoliklar", "Yevropa xalqlari", "slavyanlar", "roman xalqlari" kabilarga umummilliylik, "dunyo xalqlari" tushunchasiga esa — umuminsoniylik darajasi mos keladi. U yoki bu millat qadriyat sifatida e'tirof etilganida, ushbu qonuniy bog'lanishga e'tibor berish, uni hisobga-olish lozim.

Millat — bir tomondan, o'zining qadriyatlarini vujudga keltiradi, o'tmishdan kelajakka tomon rivojlanish jarayonida ularni takomillashtirib, yangi-yangi jihatlarni muttasil shakllantirib turadi, ikkinchi tomondan esa, qadriyatlar tizimi ta'siri ostida uning o'zi ham o'zgarib va rivojlanib boradi. O'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularni yangi-yangi qirralarini va jihatlarni sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida takomillashtirib turishi ma'nosida millat — o'z qadriyatlarini egasi, makon va zamondagi o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishdan kelajakka tomon etkazib beruvchi asosiy obyektidir.

Millatning tanazzuli milliy qadriyatlar tanazzulidir, bu oqibat natijada ushbu qadriyatlarni egasiz qolish xavfini tug'diradi. Insoniyat tarixi

muayyan etnoslarning vujudga kelishi, taraqqiyoti va tanazzuli, ularni o'rniga boshqalari vujudga kelishi bilan boradigan jarayondir. Bunday fikr esa o'z navbatida g'oyat muhim va dolzarb masalaga, millat o'z qadriyatlarining obykti sifatida, o'z-o'zini saqlab turmog'i lozim,- degan masalaga olib keladi.

Insoniyat tarixida Bobil, Vizantiya, Mayya imperiyalarini vujudga keltirgan buyuk etnoslar bo'lganligi ma'lum. "Antik sivilizatsiyalar" nomi bilan yuritiladigan bu etnoslar keyinchalik turli xalq, millat, elatlarga aylanib ketganlar, o'zlarini umumiy-tarixiy birligini yo'qotganlar yoki tarixiy tanazzul jarayonlari, urush va qirg'inlar oqibatida kamayib ketganlar. Amazonka bo'ylarida va Meksika o'rmonlarida o'z davrining vayronalarini qoldirgan maya xalqi to'g'risida shunday fikrni aytish mumkin. Qadimgi zamonning eng buyuk madaniyatlaridan birini yaratgan bu xalq tanazzulga uchragan, uni yozuvi unutilgan, ulardan 100ga yaqin shaharlarni vayronalari qolgan va shu tariqa buyuk madaniyat beshiklaridan birining chirog'i so'ngan.

Millatni milliy qadriyatlarning obykti va subyekti sifatida tushunish, u bilan bog'liq milliy qadriyatlar tizimini ilmiy tahlil qilish, avvalo, millatning o'zini ijtimoiy qadriyat sifatida qarash imkonini beradi. Bu esa milliy qadriyatlarni namoyon bo'lishi, tarixiy rivojlanish jarayonida, o'tmishdan kelajakka tomon, — o'tib turishi, ya'ni ijtimoiy harakatini tahlil qilishga imkon yaratadi.

Milliy qadriyatlar: millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadigan, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo'ladi, kishilarning ongiga, hayot-tarziga o'ziga xos reallik sifatida ta'sir qiladigan;

- millatdoshlarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko'zga tashlanib turadi, bu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asos bo'ladigan;

- millatning moddiy, ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy va boshqa hayotida muayyan natija sifatida yuzaga keladigan, kishilar uchun zaruriyat tarzida o'ziga xos ahamiyat kasb etadigan;

- millatning ijtimoiy rivojlanishi jarayonida o'zgarib, takomillashib, rang-barang jihatlar kashf etib boradigan va doimiy yangilanib turadigan, shu bilan birga, vorislik orqali avloddan-avlodga o'tadigan, meros qoladigan qadriyatlarni ifodalaydigan tushunchadir.

Milliy qadriyatlar va ularni aloqadorligini ifodasi bo'lgan qadriyatlar tizimi, millatni o'zi bilan birga tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy, siyosiy jarayonlar orasidan o'tmishdan kelajakka tomon o'tib turadi. Bu qadriyatlar ko'proq millatning etnik xususiyatlari va etnik makoni bilan bog'liq. Xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularni milliy-etnik qadriyatlarining ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etadi, Har bir xalq yoki millat o'ziga xos, rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning turli qirralarini rivojlantirib boradi.

Milliy qadriyatlar umuminsoniy va mintaqaviy qadriyatlar bilan birgalikda mavjud bo'ladi. Biroq ular millat paydo bo'lgandan so'ng shakllanadi. Umuminsoniy va mintaqaviy qadriyatlar milliy qadriyatlarning ko'p tomonlarini o'z ichiga oladi. Milliy qadriyatlar umuminsoniy va mintaqaviy qadriyatlar ta'sirida keng rivojlanish, takomillashish imkoniga ega bo'ladi. Ular o'rtasidagi muntazam davom etib boradigan dialektik munosabat jahon sivilizatsiyasi rivojlanishining muhim omillaridan biridir.

Milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi har bir millatning o'ziga xos tarixi, madaniyati, axloqi va psixologik fazilatlari, yashash sharoiti, turmush tarzi, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'langan. Milliy qadriyatlarning har bir shaklini millat tarixi, taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish orqaligina to'g'ri tushunib olish mumkin.

Millat mavjud ekan milliy qadriyatlarning ahamiyati aslo kamaymaydi. Millatlarning ma'naviy jihatdan bir – biriga yaqinlashib borishi ham milliy qadriyatlarning rivojlanishi va amal qilish imkoniyatlarini kamaytirmaydi, balki kengaytiradi. Milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy etnik birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir.

Albatta, millatning sotsial tarkibida o'zgarish bo'lishi, turli xalqlar o'rtasida aloqalar yaqinlashib borishi milliy qadriyatlar o'sib, kengayib

borishiga xizmat qiladi. Lekin yangi sharoitlarda, yangicha talab va ehtiyojlar asosida shakllanayotgan qadriyatlarda ham milliylik shakli saqlanib qola beradi. Yangi vaziyatlarda shakllanayotgan qadriyatlar milliylik jihatlarini o'zida aks ettirgandagina hayotga kengroq, tezroq singish imkoniga ega bo'ladi. Har bir millat o'z qadriyatlarini rivojlantirish va ularga amal qilishda milliy ong, milliy birdamlik tuyg'usining ahamiyati kattadir. Milliy ruhiyat va ma'naviyatdan mahrum bo'lgan kishilardagina o'z tili, tarixi, an'alariga nigilistik munosabatda bo'lishi mumkin. Agar shunday ahvol ma'lum siyosat ta'sirida kengayib borsa, millat birligi va kamoloti uchun nihoyatda xatarli bir hol yuzaga keladi.

Albatta, har bir xalq o'z milliy qadriyatlari qobig'idagina o'ralib qolmasligi kerak. Bunday yo'ldan borilganida millatning taraqqiyoti sur'atlari pasayadi. Milliy maxdudlik va milliy kalondimog'lik hech vaqt ma'naviy, ijtimoiy kamolot omili bo'lgan emas. Boshqa millatlarning qadriyatlarini o'rganish hamma vaqt ham taraqqiyotning omillaridan biri bo'lib kelgan.

Qadriyatlar qanchalik bir-biriga yaqinlashib, ta'sir ko'rsatmasin, har bir millat uchun ma'naviy kamolotning asosiy yo'li va mezoni milliy qadriyatlar bo'lib qoladi. Biron millatning yaxshi urf odatlari, marosimlari qachonki boshqa millat ruhiga, milliy ma'naviy ehtiyoji va talablariga mos kelgandagina shu millat hayotida chuqur tomir otish imkoniga ega bo'ladi.

Har bir millatning o'z qadriyatlari, madaniyati, tili, an'analari, urf-odatlari, marosimlari va odob normalari bor. Dunyoda aholisi son jihatidan ko'p yoki kamroq xalq bo'lishni mumkin, ammo madaniy va ma'naviy sohada bir-biridan kam yoki ortiq millat yo'q. Ayni paytda sotqin millat ham, qoralash huquqiga ega bo'lgan millat ham yo'q. Ammo har bir millatning o'ziga xos o'tmishi, madaniy va ma'naviy qadriyatlari, milliy qahramonlari, boshqa millat tomonidan tahqirlanishi aslo mumkin bo'lmagan urf-odatlari, turmush tarzi va qon-qardoshlik belgilari mavjud. Hech qaysi millatning o'zga millat faoliyatini baholovchi bo'lishga hakam haqqi yo'q. Biror bir ta'limot, davlat shakli yoki yashash usulini qabul qila olmaganligi uchun hech qachon u yoki bu millat aybdor emas. Shu ma'noda umuminsoniylik bir millat qadriyatlarini butun olamga yoyish yo'li bilan

emas, balki hamma millat va elatlar qadriyatlarini asrab-avaylash, tarix saqlab qoladigan qadriyatlarini hurmat qilish va odamdagi milliy rang-baranglikni tabiiy rang-baranglik bilan uzviy aloqada ekanligini anglash yoʻli bilan boyib boradi.

Milliy qadriyatlar — xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon boʻladi, oʻziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qiladi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni taʼminlovchi qadriyatlar qon-qardoshlik, madaniy-maʼnaviy yaqinlik, oʻtmish va maʼnaviy meros, ona yurt, tuygʻusi va boshqalar — nisbatan barqaror boʻgʻinlar hisoblanadi. Bunday boʻgʻinlar milliy qadriyatlar tizimida tarixiy jarayonlar davomida tez oʻzgarib turadigan baʼzi kundalik yoki amaliy ahamiyatga molik boʻlgan qadriyatlarga nisbatan oʻz oʻrnini va ahamiyatini uzoqroq saqlab qolishi bilan ajralib turadi. Millatning tarixiy-etnik xususiyatlari va belgilarining ijtimoiy ahamiyatini va shu millat kishisi uchun qadrini saqlab qolishi tabiiy zaruriyat boʻlib hisoblanadi.

"Milliy qadriyatlar" — muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va maʼnaviy boyliklar, yashayotgan hudud, madaniy-maʼnaviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, yashash tarzi, milliy umrguzaronlikni tartib-qoidalar hamda ular bilan bogʻliq xususiyatlar, jihatlar va boshqalarning ijtimoiy ahamiyatini ifodalaydigan tushunchadir. U umum-ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi xususiy boʻgʻin, yaʼni millatga xos boʻlgan qadriyatlarning eng umumiy jihatlarini aks ettiradi.

Milliy qadriyatlar tizimini nisbatan barqaror holatida uning asosiy boʻgʻinlari millatning quyidagi belgilari bilan bogʻliq holda namoyon boʻladi: Yaʼni: millatning tabiiy betakrorligi, oʻziga xosligi, tarixiy oʻzgaruvchanligi va ijtimoiy rang-barangligi (genofondi); millatning tarixi, oʻtmish, kelajagi va maʼnaviy merosi; milliy hudud va yashash sharoitlari, iqtisodiy asos, ijtimoiy ustqurma bilan bogʻliq milliy tuygʻular, gʻoyalar, maqsadlar; urf-odatlar, anʼanalar, marosimlar, turmush tarzi va boshqalardagi milliylik bilan bogʻliq xususiyatlar; milliy til, milliy madaniyat va maʼnaviyat, milliy ong va milliy ruh.

Ushbu tizim, milliy qadriyatlar umuminsoniy va shaxsiy qadriyatlar o'rtasidagi aloqa jarayonida o'ziga xos bog'lovchi "halqa", ya'ni umumiy qadriyatlar tizimining xususiy tarkibiy qismi sifatida tahlil qilinayotganida maqsadga muvofiq bo'ladi. U ana shunday tahlil nuqtai nazaridangina nisbiy barqaror holatida bo'lishi mumkin.

Milliy qadriyatlar tizimi tahlilida, avvalo millatni vujudga kelishi, o'tmishi, buguni va kelajagi bilan bog'liq tabiiy tarixiy qadriyatlarga e'tibor berish lozim. Har bir millat — o'zini tashkil qilgan kishilar uchun avvalo tabiiy-tarixiy birlik sifatida qadrlidir, u olamdagi boshqa turli-tuman xalq, elat va millatlarga o'xshamaydigan o'ziga xos, betakror xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, har qanday millat tarixiy taraqqiyot va rivojlanish jarayonida yangilanib, o'zgarib boradigan rang-barang qatlamlar, sinflar va boshqalarni dialektik uyg'unligini ifodalaydigan ijtimoiy birlik hamdir.

Xalqimiz ma'naviy merosi, an'analari urf – odatlari bizlar uchun faqat o'tmishdan qolib kelayotgan yodgorliklarga emas, balki ma'naviy boyliklarning tarkibiy qismi, inson aql – idroki va tafakkurining buyuk yutug'i hamdir.

Daraxt o'z ildizlari bilan zamindan suv, oziq olib voyaga etganidek, inson ham avlod – ajdodlaridan qolib kelayotgan bebaho boyliklaridan ma'naviy oziq, kuch- quvvat oladi, ularga tayanadi.

Har bir millat va elat ajdodlari yaratgan bilim boyliklaridan, tajriba va tarixiy saboqlaridan, axloq – odob, ta'lim – tarbiyaga oid o'g'itlari va yo'l – yo'riqlaridan foydalanadi, ularsiz yashay olmaydi. Xalqimizning madaniy, jumladan ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarni to'la va ijodiy egallash, rivojlantirish hozirgi avlodlarning muhim vazifasidir.

O'zbek xalqida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf – odatlar mavjud. Masalan, oila – a'zolarining barcha to'plamaguncha ovqat emay turish, oila boshlig'ini odob saqlab kutish, ota – onani o'rindan turib kutib olish, ularga har doim iltifot ko'rsatish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr – shafqat, qo'ni – qo'shnilarga, mahalladoshlarga, tanish – bilishlarga yordamni ayamasklik, o'zidan kattalarni, birinchi galda keksa bobolar – otalarni, nuroniy onalarni hurmat qilish, e'zozlash o'zbek xalqining an'anaviy qoidasidir. Ular o'zbek

oilalarida yoshlikdan bolalari ongiga, qoni – qoniga, vujud – vujudiga chuqur singdirilib boriladi. Ota – bobolarimiz an’analarga ko‘ra, yoshlar o‘zidan kattalarni ko‘rganda tanish – tanimasligidan, millati va jinsidan qat’iy nazar salom berishlari lozim. Milliy qadriyatlarimizdan biri ota – onani qadrlash, ularning beqiyos xizmatiga bir umr sodiq bo‘lish, duolarni olish bolalarning farzandlik burchidir.

Millatning ruhiyati, tarixiy an’analari, ma’naviy ehtiyojiga mos kelmaydigan begona qadriyatlarni unga zo‘rlab singdirish mumkin emas. Ayniqsa, boy tarixiy merosga ega bo‘lgan xalqlar ma’naviy hayot borasidagi zo‘ravonlikni ruhan qabul qilmaydilar.

Xalqlarga yangi ma’naviy qadriyatlarni singdirish uchun avval, ularga nisbatan ehtiyoj tug‘dirmoq kerak. Ma’naviy ehtiyojsiz, tarixiy an’analarni e’tiborga olmay singdirmoqchi bo‘lgan qadriyatlar millatning hayotida ma’lum o‘rin olsa ham, uning ruhiyatiga singmaydi, binobarin qalbidan o‘rin olmaydi.

Har bir xalq qadrlagan narsa yoki hodisa, birinchi navbatda, uning milliy ma’naviyati bilan bog‘liq bo‘ladi.

Milliy qadriyatlar ham qandaydir o‘zgarmas hodisa emas. Millat taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlari o‘zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi.

Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar, urf-odatlarining yosh avlod, shu jumladan talabalarni tarbiyalashdagi ijtimoiy — siyosiy, ma’naviy — mafkuraviy, madaniy — ma’rifiy, hamda xush-xulqlilik, axloqiy, ruhiy va jismoniy etuklik borasidagi ulkan tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bu ularning ijtimoiy-pedagogik, ommaviy-maishiy hayoti, yuksak orzu-umidlari-yu ideallari bilan chambarchas bog‘liqligidir. Milliy qadriyatlarni xalq ijod qiladi, demak ular xalqning bebaho oltin merosi hisoblanadi.

Qadriyatlarni saqlovchisi ham, hayotga joriy qiluvchisi ham, eskilarining ma’no-mazmunini yanada sayqallashtiruvchisi va boyituvchisi ham, zamon hamda davrlar, ajdod-avlodlar talab-ehtiyojlari va tajribalari asosida asta-sekin yangidan-yangilarini yaratuvchisi va turmushga tatbiq

etuvchisi ham ana shu — ijodkor xalq. Ayrim shaxslar (ular qanchalik zukko, bilimdon va donishmand bo'lsin) tomonidan o'ylab chiqilgan qadriyat xalq tomonidan qabul qilinmasligi, e'tirof etilmasligi tabiiy bir hol. Xalqimiz yaratgan o'zbekona qadriyatlar, rang-barangligi va beqiyosligi bilan ajralib turadi. Ularning sanovi taxminan besh-o'n mingdan oshadi. Ularning mukammalligi, nafosati va o'ziga xos xarakterli xususiyatlari yillar o'tsa-da yo'qolmay sayqallashib borishida. Bizningcha qadimiy va zamonaviy yangi o'zbekona qadriyatlarni shartli ravishda bir necha turlarga bo'lish mumkin: to'rt unsur - er, suv, olov, havo bilan bog'liq xalq an'anaviy madaniy qadriyatlari; insonning ona qornida paydo bo'lishi, dunyoga kelishi, uni tantanali ravishda ro'yxatga olish, ism qo'yish (aqiqa), unib-o'sishi bilan bog'liq qadriyatlar; inson va uning ijtimoiy faoliyati sa'y-harakatlari bilan bog'liq rang-barang qadriyatlar, madaniyat an'analari; mehnat va mehnatsevarlikka oid ma'naviy an'ana, madaniyat; zamon, jamiyat, Vatan va vatanparvarlik, millat va millatparastlikka oid xalq an'anaviy qadriyatlar; dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, bog'dorchilik madaniyatiga oid qadriyatlar; hayvonlar, parranda, darranda, ekinlar, o'simliklar, o'rmonlar, tog'lar, soylar, ko'llar, daryolar, tepaliklar, qiradirlar, cho'qqilar, buloq chashmalar, so'lim joylar, xushmanzara manzillar, ziyoratgohlar bilan bog'liq qadriyatlar; yigitlar sha'ni, qizlar iffati, inson or-nomusi bilan bog'liq; nikoh, sunnat to'yi va shunga o'xshash marosimlar bilan bog'liq; keksalik qadriyatlari; o'lim va dafn, avlodlar yodi va shunga o'xshash ma'rakalar bilan bog'liq; madaniyat, tasviriy va amaliy san'atga oid xalq an'anaviy madaniyati; an'anaviy xalq pedagogikasi, og'zaki ijod, elshunoslik va boshqa ilm-fan va madaniyatga doir xalq an'anaviy madaniyati; ta'lim-tarbiya va axloq — odob, pand-nasihatlar, o'g'itlar bilan bog'liq qadriyatlar — xalq an'anaviy madaniyati; atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat va ekologiya bilan bog'liq; muqaddas joylar, tabarruk qadamjolar, aziz-avliyolar va atoqli tarixiy shaxslar maqbaralari, mozorlar bilan bog'liq xalq an'anaviy madaniyati. Ko'rinib turibdiki, yuqorida sanab o'tilgan qadriyatlarning xalq ma'naviy madaniyati manbalari: islom dini bilan bog'liq rasm-rusumlar, odatlar, xalq og'zaki ijodi, etnografiya, xalqona udumlar, marosimlar, an'analar, yozma

adabiyot, tasviriy va amaliy san'at, ilm-fan, tabiat, jamiyat, ta'lim-tarbiya, tarix, ijtimoiy hayot va xalq orzu- umidlari va xalqona ideallardir. O'zbek qadriyatlari, xalq an'anaviy madaniyati har biri o'zicha muqaddas, mo'tabar, ayni choqda, mustaqildir. Har birining umumiylikdan tashqari o'z maqsad-vazifalari, yo'nalishlari, uslubiy xususiyatlari, o'ziga xos fazilatlari va tabiati bor.

Gap, qadriyatlarning qanchalik ko'p-ozligida emas, balki ma'no-mazmunining teranligi, jamiyat, hayotda avlodlar tarbiyasida tutgan o'rni, ta'sir kuchi va shunga o'xshashlardadir. Shunisi hayratlanarliki, qadriyatlarning har biri mustaqil tarixiy badiiy — estetik, falsafiy — badiiy mukammal asar, deb atalishga haqli. Ular ko'proq ilm-fan, mumtoz adabiyot, allomalar, mutafakkirlar, aziz-avliyolarning hayotlari, amaliy sa'y-harakatlari, san'at, maorif, xalq og'zaki ijodi va an'anaviy pedagogikasi hamda din va ma'naviy-ruhiy holatlar, oila va mahallada shakllangan, kamol topgan. Shu boisdan ham ularning ta'sir kuchi, tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda buyuk. Xalqimizning kimligi, nechog'lik kuch-qudratga egaligi, uning ma'naviyat-ma'rifati, axloq-odobi, o'zini anglashi, fe'l-atvori qandayligini, o'zbekona tabiati, milliy g'ururi, oriyati, qisqasi tarbiya tizimining nechog'lik hayotiy, milliy va umumbashariy ekanligidan tasavvur qilish mumkin. Demak, yoshlar tarbiyasi uchun uning qadriyat qatlamlaridagi boy va betakror axloqiy-ruhiy, rasm-rusumlar, odatlar, udumlar, marosimlar, an'analardan ko'ra ishonchliroq manba yo'q. Bundan tashqari, biz yashab turgan hudud g'oyat xilma-xil diniy e'tiqodlar, dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan mintaqa hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston hududi nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biridir.

Millatning o'ziga xosligi, betakrorligi, rang-barangligi va ijtimoiy jarayonda o'zgarib borishi bilan bog'liq eng asosiy qadriyati — uning genofondidir. Genofond — faqat irsiyat orqali o'tadigan tabiiy o'ziga xoslik emas, balki tarixiy belgilar, ijtimoiy xususiyatlar, milliy rang-baranglik va o'zgaruvchanlikni ham o'zida ifodalaydi. Aynan biror xalq, millat, elatni yo'qotish uchun qilingan tajovuz — "genotsid" deb atalishi bejiz emas. Millat genofondi -uni eng asosiy tarixiy, milliy qadriyatlaridan biridir.

Genofond — to‘g‘risidagi tushuncha ayniqsa qon-qardosh millatlardan tarkib topgan xalqlarni tarixiy birlik sifatida ijtimoiy taraqqiyotni nisbatan uzoq davrida mavjud bo‘lishi mumkinligini isbotlaydi. Millat — tarixiy va ijtimoiy o‘zgarishlar, urush va qirg‘inlar natijasida asta-sekin o‘zgarishi, kamayib ketishi mumkin. Ammo uning genofondi o‘zgarishi millatni nihoyatda tez o‘zgarishiga, avlodlaridan meros qolgan tabiiy-tarixiy xislatlarni ham tez yo‘qolib ketishiga olib keladi.

Istiqlol yillarida O‘zbekistonda bu masalaga alohida e’tibor berilayotgani, sog‘lom avlodni tarbiyalash, xalq genofondini sog‘lomlashtirish umumdavlat miqyosidagi vazifaga aylangani bejiz emas. Millat genofondi uning betakrorligini anglatadi, bu betakrorlik esa ushbu millatni tarixiy rivojlanishning muayyan davrlari bilan bog‘langanligini ko‘rsatadi, xolos. Bu betakrorlikni umum-insonlik jihatidan baholash, o‘z millati qadriyatlarini xolisona targ‘ib qilish, o‘zga millat qadriyatlarini hurmat qilish, milliy g‘ururiga putur etkazmaslikka asoslanadi. Zero, O‘zbekistondagi “Sog‘lom avlod uchun” harakat shu hududda istiqomat qilayotgan xalq farzandlari kamoloti uchun faol ishlash lozimligini anglatadi.

Milliy qadriyatlar kishilarni yashash joylari, turmush sharoitlari bilan bog‘liqlikda ham shakllanadi. Ana shunday qadriyatlarni eng asosiysi tug‘ilgan vatan va ona-yurtni sevish tuyg‘usidir. Vatanni sevish tuyg‘usi – inson tug‘ilib voyaga etgan, u mansub bo‘lgan tarixiy o‘tmishi bilan bog‘langan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, hududiy muhitga nisbatan bo‘lgan muhabbatdir. Bu tuyg‘u butun insoniyatga xos umumiy tuyg‘udir. U hamma millat vakillari uchun xos, uni biror xalqda ko‘proq, boshqasida kamroq rivojlangan deyish uchun asos yo‘q.

Vatan tuyg‘usi – muayyan tarixiy birlikni (“podulyatsiya”ni) vujudga keltirgan va saqlab turadigan joyga nisbatan dunyoga kelgan tabiiy-ijtimoiy tuyg‘udir. Podulyatsiya o‘zbek tilida xalq ma’nosini anglatganini hisobga olsak, masala yanada oydinlashadi. Bu tushuncha har qanday millatga mansub kishini tabiat bilan chambarchas bog‘langanligiga va bashar farzandi ekanligini isbotlaydi. Kishilarni o‘z etnik makoniga tabiiy-tarixiy

bog‘langanlar. Ammo dunyoda o‘z vatanini yo‘qotgan yoki undan judo qilingan millatlar ko‘p.

Vatan tuyg‘usi — tabiiy-tarixiy, ijtimoiy va ma’naviy tuyg‘udir. Shu bilan birga unda kishilarning o‘zi mansub bo‘lgan tarixiy birlik shakllanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan hududga nisbatan ma’naviy qarzдорlik, burch va mas’uliyati bilan bog‘liq ijtimoiy tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi. Vatan — ana shunday tuyg‘uni uyg‘ota olgani uchun ham qadriyatdir.

Eng asosiy milliy qadriyatlardan biri — millat uchun umumiy muomala vositasi bo‘lgan milliy til bilan bog‘liq. Mutaxassislar olamda 5000 ga yaqin til borligini qayd qiladilar, ularni 15 ta katta oilaga bo‘lib o‘rganadilar, tillar takomillashuvi bilan birga, ular egallagan hudud maydoni ham o‘zgarib borishini ta’kidlaydilar. Masalan, UP asrgacha Arabiston yarim orolining bir qismida tarqalgan arab tili, undan keyingi bir necha asr orasida, Afrika va Osiyoni boshqa qismlariga ham tarqaldi. Xuddi shunday turkiy tillar ham Kichik Osiyodan Shimoliy Sharqiy Sibirgacha bo‘lgan keng hududda tarqalgan. Shu bilan birga qadimda Osiyoda keng tarqalgan xatlar va tili esa butunlay yo‘qolib ketgan..

Qardosh xalqlarimiz tillari — biz, uchun umummilliy qadriyatdir. Ana u guruhga kirgan tillarni sanab chiqishgina uni mukammal bilish Yevro Osiyoni juda katta qismida bemalol gaplashish imkonini berishini ko‘rsatadi. Turkiy tillarda: chuvashlar, turklar, ozarbayjonlar, afsharlar, kashkayliklar, turkmanlar, tatarlar, boshqirdlar, no‘g‘oylar, qumiqlar, qorachoylar, bodqor, qozoqlar, qoraqalpoq, o‘zbeklar, uyg‘urlar, qirg‘izlar, oltoyliklar, yoqutlar, tuvalar, tofalar, hakaslar va boshqalar so‘zlasha oladilar.

Darhaqiqat, millatlarni madaniy rivojlanish sohasidagi qadriyatlari, ularni ma’naviy merosi, an’analari, urf-odatlar, milliy adabiyoti, san’ati va boshqalar umuminsoniy qadriyatlarni milliy darajadagi namoyon bo‘lish shakllaridir. Ularning asosida har bir millat, xalq yoki elatni tarixiy rivojlanish jarayonida avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan madaniy xususiyatlari va jihatlari yotadi. Millat faqat muayyan hududda yashaydigan va bir xil tilda so‘zlashadigan kishilardangina iborat emas,

balki umumiy madaniy-ma'naviy jihat va xususiyatlar asosida mavjud bo'lib turgan tarixiy-ijtimoiy birlik hamdir.

Millatni madaniy birligi bilan bog'liq jihatlar tarixiy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot davomida takomillashib va sayqallanib boradi. Hamma davrlarda bo'lgani kabi, o'ziga xos milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog'liq jarayonlarda ham, esdalik o'rniga yangilik vujudga kelishi, uzluksiz yangilanish bilan birga, muqarrar va zaruriy "vorislik" namoyon bo'ladi. Bunda innovatsiya (lotincha yangilanish) va traditsiya (lotincha — o'tish, uzatish) alohida o'rin tutadi. An'analar, marosim va urf-odatlar o'ziga xos shaklda ifodalanadi, moddiy va ma'naviy hayot bilan bog'liq jihatlar, xususiyatlar avlodlardan-avlodlarga o'tish va uzatish orqali-saqlanadi. Urf-odatlar esa, mazkur tarixiy birlikni ichki munosabatlarini tartibga soluvchi, bu munosabatlarning biror faoliyat yoki xatti-harakatida ifodalanishini namoyon qiladigan talablar va qonun-qoidalar katta ahamiyat kasb etadi. Har bir millat umuminsoniy an'analar, urf-odatlar, marosimlarni saqlash, asrab-avaylash, barqaror qilish ularga xos talablarni bajarishda bir qator juz'iy xususiyatlar va betakror jihatlar ega bo'ladi. Ana shu jihat va o'ziga xos xususiyatlar muayyan millatni umuminsoniylikni tashkil qiluvchi rang-baranglikka qo'shgan hissasi bo'lib hisoblanadi.

Qadriyatlar to'g'risida so'z yuritilganda albatta muayyan millat kishilari tomonidan tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat sohasidagi boyliklar, ularni jahon madaniyatiga qo'shgan hissalar ham nazarda tutiladi. Madaniyat insoniyat tarixi ilk davrlaridan beri uni ajralmas hamrohi, insonning o'zi kabi qadimiydir. Olamda madaniyatsiz el, millat va xalq yo'q. Har qanday xalq yoki millat tarixiy rivojlanish va taraqqiyot darajasiga mos keladigan o'ziga xos madaniyatga, bu borada ham umuminsoniy rivojlanishda o'z o'rnini va xususiyatlariga ega. Misrliklar fir'avnlarni zamonidan qolgan piramidalari, xitoyliklar Buyuk Xitoy devori, Yevropaliklar Ellarda va Rim tarixi bilan bog'liq yodgorliklari, ilmiy va kashfiyotlari bilan umuminsoniy madaniyatga hissa qo'shganlari kabi, boshqa xalqlarni ham bunda o'z o'rnini va hissasi bor. Bu borada muayyan xalqning o'ziga xosligi, uni hozirgi davrdagi rivojlanishini ilgarigi ijtimoiy holati bilan solishtirilishi to'g'risida

nihojatda ehtiyotkorlik bilan fikr yuritish balki mumkindir, ammo bu masalaga boshqa millat nuqtai nazaridan yondashib bo'lmaydi.

Har bir xalqning madaniyati o'ziga xos va betakror bo'lsa-da, u rivojlanadi, takomillashadi. Bu ayniqsa qon — qarindosh xalqlar bilan bog'liq madaniy qadriyatlar rivojida katta ahamiyat kasb etadi. Arablar, xitoylar, slavyan xalqlarining umumiy madaniy qadriyatlari bor. Shu bilan birga bu xalqlar mansub millatlarga xos xususiy madaniy qadriyatlari ham mavjud. Bu boradagi farqlarning ozligi, avvalo ularning asosiy etnos — ona xalqdan ajralish jarayoni tarixan kam davom etayotganligi bilan bog'liq. Ammo o'z navbatida, bu farqlar mavjudligi esa ana shu jarayonning realligini ham aks ettiradi.

Madaniy — ma'naviy soha bilan bog'liq milliy qadriyatlar amal qilishida uchta jihatni ajratib ko'rsatish mumkin: a) kishilarning ijtimoiy ongi bilan bog'liqlik; b) kishilar munosabati va faoliyati orqali amalga oshish; va) moddiy va ma'naviy sohadagi biror natija tarzida namoyon bo'lishi.

a) Milliy qadriyatlarning madaniyat va ma'naviyat bilan bog'liq shakllari kishilar ongida aks etadi, ularda muayyan his-hayajon qo'zg'aydi, turli xil tuyg'ular, ehtiyoj va maqsadlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ular bundan tashqari ijtimoiy ongda biror bilim yoki haqiqat sifatida saqlanib qoladi, avloddan avlodga (ularning ahamiyati va qadri to'g'risidagi fikrlar xabar yoki informatsiya tarzida uzatiladi) meros qoldiriladi. Kishilar tabiatga, ijtimoiy muhitga, boshqalarga, hatto o'ziga nisbatan munosabatida ham madaniy qadriyatlarni ahamiyatiga e'tibor beradilar. Bir tomondan, ular bilan bog'liq voqelik qonunlariga, talab va qoidalariga amal qiladilar, ikkinchi tomondan esa, o'z faoliyat va hatta-harakatlarida ular bilan bog'liq talablar, odat va an'analarni bajarishga harakat qiladilar. Vorislik orqali uzatilgan va meros qoldirilgan madaniy-ma'naviy qadriyatlar shu ma'noda kishilar faoliyati va xatti-harakati orqali o'zligini topadi, voqelikka aylanadi.

b) Madaniy qadriyat shakllari, ko'p hollarda u yoki bu millat kishilari o'rtasidagi munosabatlar, faoliyati va hatto-harakatlarda namoyon bo'ladi. Madaniy boyliklar yaratish, an'ana yoki urf — odatlarni qadrlash

dunyodagi hamma millat, xalq, elatlarga xos umuminsoniy jihatlardir. Ammo ularni asrash, avlodlarga meros qoldirish, ularga munosabatni tarbiyalash va bu jarayonlardagi faoliyat va hatto-harakatlarda milliy "o'ziga xoslik" bor. Bu boradagi milliylik ana shunday o'ziga xoslik bilan belgilanadi. Masalan mehmondo'stlik hamma xalqlarga xos umuminsoniy xususiyatdir, ammo bir millat uyiga kelgan mehmondan: "ovqat eysizmi?"- deb so'rashni odat hisoblasa, boshqa millat uchun mehmonga bunday murojaat qilish nojoiz, yoki bir xalqda mehmon kelishi bilan dasturxon bezatilsa, doimo shamol esavergani va qumlar ovqatga zarar etkazishi mumkinligini hisobga oladigan sahroyi xalqlarda esa mehmon ijozat bermagunicha dasturxon ochilmaydi va hokazo.

v) Milliy qadriyatlar makon va zamonda madaniy sohadagi biror natija tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Xalq dahosi, ma'naviy-aqliy etukligi, bilimlari, ilm-fandagi erishgan yutuqlari ana shu "natija"larda yashirinib yotadi. Biz eslatgan Misr ehromlari, Buyuk Xitoy devori, Rim va Afina, Samarqand va Buxorodagi osori-atiqalar buyuk alloma va mutafakkirlar kashfiyotlari ana shunday natijalarga misol bo'ladi.

Umuman olganda, har qanday millat – ijtimoiy — tarixiy birlik sifatida o'ziga xos, betakror jihatlarga ega. O'z milliy qadriyatlarining obykti va subyekti sifatida har bir millat qadriyatlarini rivojlantirib, takomillashtirib boradi. Shu bilan birga o'zi ham ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib yangilanib, rang — barang jihatlari kashf qilib boradi, bu ikkala xususiyat ham milliy qadriyatlarda aks etadi;

- milliy qadriyatlar milliy makonda shakllanadi, rang-barang tarzda namoyon bo'ladi, kishilar ongiga ta'sir qiladi, ular uchun ma'naviy mezonlar rolini o'ynaydi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida doimiy yangilanib, avloddan-avlodga o'tib boradi;

- milliy qadriyatlar kishilarning o'zaro munosabatlari, ijtimoiy faoliyati, xatti-harakatlari hamda ular bilan bog'liq bo'lgan maqsad, ehtiyoj, qiziqish va intilishlar uchun asos bo'ladi, moddiy va ma'naviy sohalarda muayyan natijalar, ya'ni milliy-madaniy boyliklar, yutuqlar sifatida namoyon bo'lishlari ham mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston deb ataluvchi Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi va ma'naviy qadriyatlarining ilk ildizlari yuzaga kelgan qadimiy makonlardan biridir.

Keyingi yillardagi islohotlar barqaror taraqqiyotimizni, qadriyatlarni qadrlash darajasining yangi bosqichga ko'tarilishini va milliy qadriyatlar sohasi rivojining davomiyligi hamda natijadorligini ta'minlamoqda.

Bularning barchasi, keyingi yillarda jamiyatimizni yangilash va islohotlarni samarali amalga oshirish borasidagi faoliyatning qadriyatlar sohasidagi samarasini belgilaydigan jarayonlar bilan bog'liq asoslari vujudga kelganini yaqqol ko'rsatadi.

O'ZBEK PEDAGOGIKASIDA XULQNI MODELLASHTIRISH MASALASI: XVIII VA XXI ASRLAR KO'ZGUSIGA BIR NAZAR

Muhammadjon Quronov,

pedagogika fanlari doktori, professor,

Sherzod Jumanov,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa (PhD)doktori,

Toshkent kimyo xalqaro universiteti Samarqand filialining dotsenti v.b.

Shavkat Ahrolov

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti.

2025 yil – o'zbek milliy tarbiyasi nazariyasi va metodikasi taraqqiyotida alohida o'rin tutadigan buyuk milliy pedagoglarimizdan biri – Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tavalludining 300 yilligi. Bu sana nafaqat u zotning ilmiy merosini yangicha tahlil qilish imkonini, balki milliy tarbiyaning ilmiy manbalarini qayta kashf etish imkoniyatini ham beradi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy 1725 yilda Qoshg'ar shahrida ma'rifatparvar ulamolar sulolasidan bo'lgan Mulla Shoh A'lam Oxund oilasida dunyoga kelgan. U o'z davrining etuk murabbiy olimi, pedagog va adibi sifatida tan olingan. Qoshg'ariy Homidiya madrasasida arab va fors tillari, adabiyot, tarix, matematika, geografiya, axloq va diniy ilmlarni chuqur o'rganib, o'z zamonasining etakchi mutafakkirlaridan biri sifatida

tanilgan. U ilmda, xususan, tarbiya va axloq sohasida mukammal bilimga ega bo‘lib, madrasalarda ustoz sifatida dars bergan va shogirdlar tayyorlagan.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy va “Odob as-solihiy” asari – milliy tarbiya nazariyasi manbai. XVIII asrda Markaziy Osiyoda naqshbandiya tariqati keng tarqaldi va u insonni ma’naviy va axloqiy jihatdan kamolga etkazish masalalariga alohida e’tibor berdi. Tasavvuf maktablari odob va xulq qoidalarini nafaqat diniy, balki dunyoviy, ijtimoiy-madaniy me’yor sifatida keng yoritdi. Ana shu an’ana xalq turmushiga chuqur singib, shaxs madaniyatining tarkibiy qismiga aylandi. Shu muhitda vujudga kelgan Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihiy” asari nafaqat diniy-axloqiy qo‘llanma, balki milliy pedagogik va sotsiomadaniy dasturnoma sifatida ham katta ahamiyat kasb etdi.

Asar Turkiston hududida katta shuhrat qozongan, madrasalarda asosiy ta’lim manbai sifatida o‘qitilgan. “Odob as-solihiy” axloqshunoslik fani nuqtai nazaridan M. Abdullayeva tomonidan ilmiy tahlil etilgan va unda insonning kundalik turmushidagi barcha xatti-harakatlari ma’naviy tarbiya nuqtai nazaridan izohlangan.

Asarning birinchi bobi “Isti’zon, salom, musofaha va taqbili aydo bayonida” deb nomlanib, ijtimoiy muloqotning asosi bo‘lgan salomlashish madaniyatiga bag‘ishlangan. Muallif salomlashishning 27 qoidasini bayon etadi: boshqa inson huzuriga izn so‘rab kirish, salom berish, ko‘rishish, muloqot qilish, qo‘l siqish kabi harakatlarning ma’naviy mohiyatini tushuntiradi. Bu jarayonlar orqali insonning odobi, hurmati va ichki kamoloti namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi.

Asarda inson hayotining barcha sohalarini qamrab olgan boblar mavjud bo‘lib, ular har bir holatda to‘g‘ri xulqni shakllantirishga qaratilgan:

- “Uxlamakning bayoni” faslida uxlashdan oldingi ruhiy tayyorgarlik, poklik va tartib masalalari bayon etiladi.

- “Libos kiyimak odoblari” faslida kiyim rangi, uzunligi va munosibligi inson shaxsiyati bilan bog‘lanib izohlanadi.

- “Yo‘l yurmak odoblari” faslida piyoda va otliq harakatda bo‘lish madaniyati, yo‘lda ehtiyotkorlik, keksalarga hurmat va jamoat joyida o‘zini

tutish qoidalari keltiriladi. Bu faslni hozirgi davr pedagogikasi nuqtai nazaridan qaraganda “jamoat xulqi etikasi” deb ta’riflash mumkin.

- “Marizning o‘ziga xos odoblari” faslida insonning sinov va og‘riq paytidagi sabr, shukr va ruhiy barqarorlik fazilatlari ko‘rsatiladi.

- “Ahli musibat odoblari” faslida insonning musibat oldida o‘zini to‘g‘ri tutishi, ehtirom va sabotni saqlashi, hadislar bilan asoslangan 7 qoida bayon etilgan.

Asarda qabristonga borish odoblari, ziyorat etish madaniyati ham alohida “Ziyorati qubur odoblari” faslida yoritilgan bo‘lib, u insonni hayot va o‘lim haqida tafakkur qilishga, hurmat va ehtirom ruhini saqlashga o‘rgatadi.

Asarning eng katta bo‘limi – “Ziyofat va aklu shurb, ya’ni emak va ichmak odobi” – 61 qoidani o‘z ichiga oladi. Unda mehmondorchilik, ovqatlanish, mehmon bilan munosabat va dasturxon madaniyati batafsil yoritilgan. Muallif mehmondorlikda ikrom, ehtirom va kamtarlikni birlashtirgan holda “isrofdan yiroq, samimiyatga yaqin” xulqni tavsiya qiladi. Shuningdek, mehmon sifatida borgandagi axloqiy me’yorlar – chaqiruvga hurmat, orttirilgan odob, mulohazalilik va rioyati bayon etadi.

Asarda ovqatlanish odobi ham g‘oyat nozik ifodalangan: taom oldidan va keyin qo‘l yuvish, kattalarga ustuvorlik berish, oz-ozdan, shoshilmay eyish, nonni qadrlash, barmoqni tozalash va duo qilish – bularning barchasi nafaqat gigiyena, balki ma’naviy poklik ramzi sifatida talqin etilgan.

Muallif suv ichishning odobini ham tarbiyaviy ahamiyatga ega holda tushuntiradi: suvni o‘tirib ichish, unga nafas urmaslik, uch martada ichish, idishni singan joyidan foydalanmaslik – bular insonning hayotga ehtirom va shukronalik bilan munosabatini anglatadi.

Asarning yakunlovchi bo‘limi “Safarning odobi va unga mutaalliq ishlar” deb nomlanib, safarga tayyorgarlik, yaqinlar bilan xayrlashish, yo‘ldagi hamjihatlik, safardagi odob va qaytishdagi mulohazalik kabi 50 ta qoidani o‘z ichiga oladi. Bu fasldagi fikrlar zamonaviy ma’rifat pedagogikasi nuqtai nazaridan qaralganda, insonning ijtimoiy muvofiqlashuv (sotsial adaptatsiya) ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihiy" asari — bu faqat axloq qoidalari majmuasi emas, balki milliy tarbiya tizimi uchun bazaviy ilmiy manbadir. Unda har bir xatti-harakat orqali inson kamolotiga olib boruvchi ma'naviy qonun yotadi. Asardagi har bir fasl pedagogik nuqtai nazardan "qadriyatlar ta'limi", "qadriyatlar mashqi" va "qadriyatlar refleksiya" bosqichlariga mos keladi. Shu bois, bu asarni o'zbek milliy tarbiyasi nazariyasida qayta o'rganish, uni uzluksiz ta'lim tizimida "Tarbiya" fani blogiga integratsiya qilish — yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ilmiy asoslangan va madaniy jihatdan yangi echim bo'ladi.

Asar mazmuni XXI asr milliy tarbiya konsepsiyasi uchun ham dolzarbdir. Qoshg'ariy inson xulqini tarbiyalashda "bilim — niyat — amal" uchligiga asoslanadi, bu esa zamonaviy pedagogikada "kognitiv — affektiv — bixevioral" (bilish — hissiy — xulqiy) model bilan uyg'unlik, demakdir.

Bugungi ta'lim tizimida "Odob as-solihiy" g'oyalarini o'rganish, ma'naviy-axloqiy modullariga integratsiya qilish, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishda samarali metodik yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihiy" asari o'zbek milliy tarbiyasi nazariyasi va metodikasining tarixiy poydevorlaridan biridir. Unda axloq, odob, mehr-shafqat va ijtimoiy munosabat madaniyati tizimli ravishda bayon etilgan bo'lib, bu asarni zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llash milliy tarbiyaning ilmiy va amaliy samaradorligini oshiradi. Asar insonni har bir hayotiy vaziyatda to'g'ri va go'zal xulq orqali ma'naviy etuklikka etkazishni maqsad qiladi.

XXI asr xulq tarbiyasining dolzarb masalalari

Bugungi kunda global axborot oqimi va mafkuraviy raqobat kuchayib borayotgan bir paytda, yosh avlodning ma'naviy immunitetini mustahkamlash — jamiyat barqarorligi va milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biriga aylandi. Shunday sharoitda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi nafaqat axloqiy me'yorlarni o'rgatish vositasi, balki yoshlarning fikrlash, munosabat va xatti-harakat madaniyatini shakllantiruvchi ilmiy-pedagogik platforma sifatida namoyon bo'lmoqda.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya yoshlarimizni hayotda o'z oldiga to'g'ri, yaxshi niyat, maqsadlarni qo'yishni (ma'naviy) va shu niyat-maqsadlarni amalga oshirishning go'zal xulqlarini (axloqiy) o'rgatmoqda. Kuchli ma'naviyat shaxsning o'z maqsadlarini anglashiga, axloq ana shu maqsadlarga erishishiga inson kapitali bo'lib xizmat qiladi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya o'quvchining xulqning ichki loyihasini, asosini yaratadi, o'rgatish esa ana shu ichki loyihani qo'l-oyoq, motorika bilan bog'lashga o'rgatadi. Bu aslida qadimiy ma'naviy-axloqiy "Ezgu so'z, ezgu so'z, ezgu ish" triadasining pedagogik diskursidir. Uzluksiz ma'naviy tarbiya shuning uchun ham tushuntirish, ko'rsatish va o'rgatish metodik triadasining qo'llanishini shart qilib qo'yadi. Zero odamning jamiyatda yaxshi yoki yomon, deb aytilishi sabablari uning qo'l-oyog'i, ko'zlari, tili, gavdasi, kiyimi qandayligida emas, balki uning axloqiy substansiyasi – ma'naviyatidadir.

"Tarbiya" darsligi o'qituvchi, murabbiy, ota-onalar va tarbiyalanuvchilarni ana shu pedagogik jarayonga olib kiradi. "Tarbiya" darslarining boshqa fan darslardan farqi – har bir o'quvchi uchun zavqli, qiziqarli va ahamiyatli bo'lishi; har bir o'quvchiga individual yondoshish imkoniyatini yaratish; ijobiy fazilatlarining kundalik hayotda namoyon bo'lishini ta'minlash; har bir sinf o'quvchilarida yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish va o'z xulqida ixtiyoriy amal qilish odatlarini shakllantirishdan iborat.

"Tarbiya" fani darsligi nafaqat insoniy fazilatlar mazmuni, shakli haqida bilim olish, o'z mustaqil fikrlarini shakllantirish, balki o'z illyustrativ-instruktiv mohiyati bilan ajralib turadi. Bu o'ta muhim. Ayni vaqtda "5, 15 yoshli bola, o'smir, 20 yoshli o'spirin o'zidan kattalarni qayerda, qanday hurmat qilishi kerak?", "5, 15 yoshli bola, o'smir, 20 yoshli o'spirin Vatanni qanday sevish kerak?", "Buning tartibi, qoidasi, metodikasi bormi? Uyda, mehmonda, avtobusda, ayvonda, oshxonada, hojatxonada, "temir daftar"da, kasal ko'rishda, taksida, chatda, yigit va qiz uchrashuvida, teatrdan, ijtimoiy tarmoqda o'zini tutish qoidalari qanday? Ular yoshlarga tushuntirib, ko'rsatib, o'rgatilyaptimi? Qanday baholanyapti?, degan pedagogik savollar tug'ilishi tabiiy.

Masalan, Xalqimiz orasida 2022 yilning boshlarida “Yor yor” teleko‘rsatuvi mashhur bo‘lib ketdi. (Boshlovchi jurnalist Muhabbat Hamroyeva). Ushbu ko‘rsatuvda oilasi buzilgan erlarda eng ko‘p tanqid qilingan illat – mustaqil fikri yo‘qligi ekanligi tanqid qilindi. Yigit(er)larda mustaqil fikr yo‘qligi uchinchi shaxsni jalb qilgan. Natijada er oilasini, xotinini uchinchi shaxs zug‘umidan himoya qilolmasligi natijasida yuzlab oilalar buzilmoqda. “Mustaqil fikrlamaslik” illati faqat oilani kemirmaydi. Jamiyatni, davlatni ham kemiradi. Chunki o‘z fikri yo‘q odam birovning etoviga tushadigan, gapiga ko‘r ko‘rona amal qiladigan o‘lja. “Birov” kim bo‘lishini esa xudo biladi. Xullas, oilaviy ajrimlarning eng ko‘p sababi er(yigit)da mustaqil fikr yo‘qligi ekan. Bu esa bizga “Bo‘lajak erga bolalik, o‘smir, o‘spirin, yigitlik, bo‘ydoqlik yillarida mustaqil fikrlash o‘rgatilmagan”, degan pedagogik tashxisni ko‘rsatib turadi.

Uyda, ishda, maktabda, ijtimoiy tarmoqda, oilada, biznesda, choyxona-gapda, konferensiyada, ijodda mustaqil fikrlashning foydasi, fikrsizlikning ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy zararlari ilmiy-eksperimental asoslanib, uyda, ishda, maktabda, ijtimoiy tarmoqda, oilada, biznesda, choyxona-gapda, konferensiyada, ijodda mustaqil fikrlash kompetensiyasi tushuntirish, ko‘rsatish va o‘rgatish samarali qo‘llanmagan. “Tarbiya” tushunchasi ma’nosini “tarbiyalanuvchiga rol-situativ kompetensiyalarni o‘rgatish”, tarzida tushunilsa, har bir yigit qizimiz hamma joyda o‘zining statusini biladi va o‘zidan taqozo qilinuvchi rol-situativ kompetensiyalarni to‘g‘ri, tartibli(chiroyli) bajaradi.

Bunda rol-deyilganda, bir xil hayotiy vaziyatda, tadbir, jamoat joyida odam kim sifatida, qaysi statusda qatnashishi nazarda tutilmoqda. Masalan, avtobusda: yo‘lovchi rolida; to‘y, ma’rakada: mehmon, mezbon rolida; supermarketda: xaridor rolida; oilada: aka, uka, opa, singil, rollarida harakat qilishadi. Chiroyli + foydali xulq = madaniyatli xulq. Yaxshilab mashq qildirilib, o‘rgatilgan to‘g‘ri va tartibli ish, xulq chiroyli ko‘rinadi va egasiga iqtisodiy va ma’naviy foyda keltiradi. Chunki uyda, ishda, to‘y-ma’rakada, avtobusda, oilada, supermarketda o‘zining chiroyli xulqini namoyon qilgan yigit, qizni odamlar maqtab, duo qilishadi.

Madaniyatli xulq bolalarimizning kapitaliga aylanib, ularning o‘zlariga bir umr moddiy va ma’naviy foyda, dividend keltiradi. Bu diniy tomondan qaralganda ham marg‘ub. Ya’ni “Ota ona bolalariga yaxshi tarbiyadan ortiq meros qoldira olmaydi”, degan muborak hadisga chiroyli amal bo‘ladi.

Ko‘pincha o‘zimizning yigit qizlarimizdan mustaqil fikr bildirish so‘ralsa, “uyalaman”, degan so‘zni eshitamiz. Bu uyalishni biz ko‘pincha ijobiy baholaymiz. Ha, baraka topsin, iboli yigit, hayoli qiz ekan, deb alqab qo‘yamiz. Lekin uyalish biror ishni xato, noto‘g‘ri bajarib qo‘yib, sharmanda bo‘lish oldidagi qo‘rquvdan, ikkilanishdan ham paydo bo‘ladi. Shuning uchun yigit qizlarimizning dunyoning peshqadam yoshlaridan bo‘lishi uchun ularni hayotning turli tuman vaziyatlarida o‘zini chiroyli, munosib tutish modellarini o‘rgatishimiz kerak. Chunki har bir hayotiy vaziyatda o‘zini chiroyli tutishning namunalari bor. Ana shunda ular hech kimning oldida uyalib, qizarib, erga qarab, qimtinib qolishmaydi. Aksincha, boshqalarga model, namuna bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: A.Navoi nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. – B. 175.
2. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy. Odob as-solihin. UzR FASHI toshbosmasi. № 4982. – Toshkent, 1889.
3. Abdullayeva M.Z. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” asarida axloq mezonlarining tasnifi. – Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti. 2012. – 78 bet.
4. Quronov M. Milliy tarbiya. Monografiya. “Ma’naviyat”, 2014.280b.

MILLIY AXLOQNING MOHIYATI VA GLOBAL KONTEKSTDAGI O'RNI

Lalixon Muxamedjanova,

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti professori.

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy axloqning mohiyati va uning globallashuv sharoitidagi o'rni tahlil qilingan. Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlari asosida milliy qadriyatlarning global kontekstda tutgan o'rni ochib berilgan. Tadqiqotda taqqoslash, tahliliy va aksiologik metodlar qo'llanilgan bo'lib, zamonaviy axloqiy muammolar va ularning echimlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: milliy axloq, globallashuv, qadriyatlar, madaniyatlararo muloqot, Sharq falsafasi, G'arb falsafasi.

Kirish. Globallashuv jarayonida milliy axloqiy qadriyatlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Milliy axloq nafaqat shaxsning ichki dunyoqarashini belgilash, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligi, ijtimoiy birdamligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashda ham hal qiluvchi o'rin tutadi. Bugungi sharoitda esa turli tashqi ta'sirlar, global axborot oqimlari va iste'molchilik madaniyatining kuchayishi milliy qadriyatlarning zaiflashishi, o'zgarishi va ma'lum darajada transformatsiyaga uchrashi xavfini kuchaytirmoqda.

Sharq mutafakkiri Alisher Navoiy "odobi komil kishilar jamiyatni obod etar" deya odobni jamiyat taraqqiyotining tayanch omili sifatida talqin qilgan.[1] Ushbu fikr milliy axloqning ijtimoiy barqarorlikdagi o'rnini yaqqol ko'rsatadi. G'arb faylasufi Immanuil Kant esa axloqiy qonunlarni universallik tamoyiliga asoslab, inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida belgilaydi.[2] Bu qarashlar Sharq va G'arb tafakkurining turlicha shakllangan bo'lsa-da, umumiy ma'noda milliy qadriyatlar va global tamoyillar uyg'unlashuvining zarurligini anglatadi.

O'zbek milliy axloqshunoslik ilmda ham bu masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Q. Nazarov milliy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini tahlil qilib, "milliy axloq jamiyatning ma'naviy immunitetini mustahkamlovchi eng asosiy kuchdir" deya ta'kidlaydi.[3] A.Sher esa

odob va ma'naviyatning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini ochib berib, uni shaxsiy va jamoaviy burch sifatida talqin etadi.[4]

Shuningdek, I.Saifnazarov milliy axloqiy qadriyatlarni Sharq falsafasi kontekstida o'rganib, ularni jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishi sifatida ko'rsatadi.[5] M.Qahhorova esa o'z tadqiqotlarida zamonaviy globallashtirish sharoitida milliy axloqning o'zgarish jarayonlarini tahlil qilib, "milliylikni saqlash va uni global qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish bugungi davrning eng muhim vazifasidir" deya ta'kidlaydi.[6]

Demak, globallashtirish sharoitida milliy axloqiy qadriyatlarning saqlanishi va rivojlanishi ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy uyg'unlikning zaruriy shartidir. Sharq va G'arb mutafakkirlarining merosi hamda o'zbek olimlarining ilmiy qarashlari birgalikda shuni ko'rsatadiki, milliy axloq global tamoyillar bilan uyg'unlashgan holda insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sharq falsafasi tarixida milliy axloq masalalari doimo markaziy o'rin tutgan. Milliy axloq ma'naviy komillik, ruhiy poklik va jamiyat barqarorligining asosiy mezon sifatida talqin etilgan. Ibn Sino "Kitob al-axloq" asarida axloqiylikni inson ruhiy salomatligining ajralmas qismi sifatida ko'rsatib, axloqsiz insonda ruhiy uyg'unlik mavjud bo'la olmasligini ta'kidlaydi.[7] Uning fikricha, insonning axloqiy kamoloti nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy hayot uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Konfutsiy ta'limotida esa odob va mehr-oqibat jamiyat barqarorligi va uyg'unligining asosiy tamoyili sifatida belgilangan. U o'zining "Lun Yuy" ("Analektlar") asarida "insoniylik" (jen) tamoyilini jamiyatdagi tartib va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi axloqiy mezon sifatida sharhlagan. [8] Bu qarash Sharq falsafasining axloqiylikni jamiyat barqarorligi bilan chambarchas bog'liq holda talqin etganini ko'rsatadi.

G'arb falsafasida axloq ko'proq huquqiy va universal tamoyillar bilan birga o'rganilgan. Masalan, J. Lokk tabiiy huquqlarni insonning axloqiy qadr-qimmatini bilan uzviy aloqada deb bilgan.[9] Immanuel Kantning nazariyasi esa axloqiy qonunlarning universalligini asoslab, milliylik va umumiylikni uyg'unlashtirish imkoniyatini beradi.[10] Zamonaviy davrda

esa Appiah (2006) kosmopolitizm nazariyasi doirasida milliy axloq va global qadriyatlarning uygʻunlashuvini ijtimoiy barqarorlikning eng muhim sharti sifatida talqin qiladi.

Oʻzbek milliy axloqshunoslik ilmda ham bu masalaga alohida eʼtibor qaratilgan. Q. Nazarov oʻzining Oʻzbek falsafasi asarida milliy qadriyatlarni xalqning tarixiy-madaniy xotirasi va maʼnaviy taraqqiyotining asosiy poydevori sifatida talqin etadi. Unga koʻra, “milliy axloqiy qadriyatlar millatning maʼnaviy immunitetini taʼminlaydi va uni global oʻzgarishlarga moslashtiradi”. [11]

A. Sherning Axloqshunoslik asarida esa milliy axloqiy qadriyatlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi oʻrni keng tahlil qilinadi. U axloqni “insonning nafaqat shaxsiy kamoloti, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ijtimoiy institut” sifatida izohlaydi. [12]

M. Qahhorova oʻzining Etika boʻyicha ilmiy tadqiqotlarida globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarning oʻzgarish dinamikasini chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, “milliy axloqning global qadriyatlar bilan uygʻunlashuvi barqaror taraqqiyotning zaruriy sharti boʻlib, bu jarayon ijtimoiy adolat va maʼnaviy uygʻunlikni taʼminlashga xizmat qiladi”. [13]

Demak, Sharq va Gʻarb mutafakkirlari hamda oʻzbek olimlarining qarashlari umumiy xulosaga olib keladi: milliy axloqiy qadriyatlar shaxsiy va ijtimoiy hayotning poydevori boʻlish bilan birga, global qadriyatlar bilan uygʻunlashib, zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun muhim mezon sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ilmiy yondashuvlar uygʻunligiga asoslanib olib borildi. Unda bir nechta metodlardan foydalanilib, milliy axloqning mohiyati va global kontekstdagi oʻrnini har tomonlama yoritish maqsad qilingan.

Birinchidan, taqqoslash usuli qoʻllanildi. Ushbu metod yordamida Sharq va Gʻarb mutafakkirlarining axloqiy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi. Sharq mutafakkirlari, jumladan, Ibn Sino, Alisher Navoiy va Konfutsiy axloqni ruhiy kamolot, odob-axloq va maʼnaviy uygʻunlik mezoni sifatida izohlagan boʻlsalar, Gʻarb faylasuflari — Kant, Lokk va Hobbs uni

universal qonunlar, huquqiy tamoyillar va inson huquqlari bilan bog'lagan. Bu qiyosiy yondashuv milliy qadriyatlarning umumiy insoniy qadriyatlar bilan qaysi jihatlarida uyg'unlashishini hamda qaysi nuqtalarda farq qilishini aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, tahliliy yondashuvdan foydalanildi. Globallashuv jarayonida milliy axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi, zamonaviy axloqiy muammolar va ularning oqibatlari tahlil qilindi. Xususan, raqamli axborot makonining kengayishi, iste'molchilik madaniyatining kuchayishi, korrupsiya, ijtimoiy adolatsizlik va yolg'on axborot kabi muammolar milliy axloqiy qadriyatlarga qanday ta'sir ko'rsatayotgani o'rganildi. Ushbu metod milliy axloqning transformatsiya jarayonlarini aniqlash, mavjud muammolarning ildizini tahlil qilish va ularning jamiyat barqarorligiga ta'sirini ochib berishga xizmat qildi.

Uchinchidan, aksiologik tahlil amalga oshirildi. Bu metod orqali qadriyatlar tizimida milliy axloqning global qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi, madaniyatlararo muloqotdagi o'рни va ahamiyati baholandi. Inson huquqlari, erkinlik, adolat, bag'rikenglik kabi global tamoyillar bilan milliy qadriyatlarning qanday mutanosiblikda bo'lishi mumkinligi ko'rsatildi. Shuningdek, aksiologik yondashuv yordamida milliy axloqning universallashtirish jarayonidagi imkoniyatlari va xavf-xatarlariga e'tibor qaratildi.

Umuman olganda, ushbu metodlar uyg'unligida olib borilgan tadqiqot milliy axloqni tarixiy, falsafiy, psixologik va sotsiologik jihatdan chuqur o'rganish imkonini berdi. Bu yondashuvlar milliy qadriyatlarning globallashuv jarayonidagi o'rnini aniqlash, ularning saqlanishi va rivojlanish yo'nalishlarini belgilash uchun nazariy va amaliy asos yaratdi.

Nazariy tahlil. Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, milliy axloq globallashuv sharoitida ikki asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Bir tomondan, u millatning tarixiy an'analari, madaniy merosi va qadimiy ma'naviy tajribasiga asoslanib, milliy o'zlikni saqlashga xizmat qiladi. Milliy axloq xalqning tarixiy xotirasini, urf-odatlarini va o'ziga xos dunyoqarashini mujassamlashtirgan holda, jamiyatning ichki birligini ta'minlaydi. Shu ma'noda, u milliy identitetning eng muhim asoslaridan

biri sifatida qaraladi. Ikkinchi tomondan, milliy axloq global qadriyatlar bilan uyg'unlashib, madaniyatlararo muloqot jarayonida universal tamoyillarga moslashadi. Bunda inson huquqlari, adolat, tenglik, bag'rikenglik kabi umumiy insoniy qadriyatlar bilan integratsiya jarayoni ro'y beradi.

Sharq falsafasida axloq ko'proq ruhiy komillik, odob va ilohiy burch sifatida talqin qilingan. Masalan, Alisher Navoiy odobni inson va jamiyat barqarorligining mezon sifatida ko'rsatgan bo'lsa, Ibn Sino axloqni ruhiy salomatlik va shaxsiy kamolot bilan chambarchas bog'liq holda talqin etgan. Konfutsiy esa "insoniylik" (jen) tamoyilini jamiyat barqarorligi va tartibining asosiy sharti sifatida ta'riflagan.

G'arb tafakkurida esa axloq universal qonun va huquqiy normalar bilan bevosita bog'langan. Masalan, Jon Lokk tabiiy huquqlarni axloqiy qadriyat bilan uzviy aloqada deb bilgan, [14] Immanuil Kant esa "insoniyatga vosita sifatida emas, balki faqat maqsad sifatida qarash kerak" deya axloqiy qonunlarning universalligini ta'kidlagan.[15] Har ikki yondashuv uyg'unlashganda, milliy axloq global kontekstdagi yashovchanlikka ega bo'ladi.

Milliy axloqning mohiyatini shu millatga mansub kishilar to'laroq va to'g'riroq tushunadi. Chetdan turib milliy axloq normalariga baho berish uchun, avvalo, shu xalqning ruhi, tarixiy taraqqiyoti va turmush tarzini chuqur bilish zarur.[16] Tarixiy tajriba ko'rsatadiki, Turkiston xalqlari o'z tarixining barcha davrlarida axloqiy qadriyatlar va odob qoidalariga qat'iy rioya qilishni muqaddas burch deb bilgan.

O'tmishda axloq va huquq o'rtasidagi chegara hozirgiga qaraganda ancha kichik bo'lgan: axloq normalaridan chiqish oddiy xato emas, balki muqaddas burchdan voz kechish, hatto jinoyat sifatida baholangan. Jamiyat boshqaruvida ham axloq ko'pincha huquq normalaridan ustun ahamiyat kasb etgan. Qadimda yaratilgan ko'plab huquqiy normalar axloq va odob mezonlari asosida belgilangan.

Ota-bobolarimiz nafaqat o'z xalqi, balki istilo qilingan yurtlarning xalqlari bilan bo'lgan munosabatlarda ham ma'lum axloqiy qadriyatlarga tayangan. Masalan, Amir Temur o'zining "Kuch — adolatdadir" degan

g'oyasini (Temur, 1991) boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarda ham izchil qo'llagan.[17] Bu adolat yuksak axloqiy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshgan.

Globallashuv davrida milliy axloqni tushunish va baholash faqat ichki tajriba bilan cheklanmay, balki madaniyatlararo muloqot orqali ham boyitilishi mumkin. UNESCO (2013) qayd etganidek, turli madaniyatlarning axloqiy qadriyatlarini tushunish — global tinchlik va o'zaro hurmatning asosi. Biroq bu jarayonda milliy axloqiy mezonlar o'z mohiyatini yo'qotmasligi, aksincha, umumiy insoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib, global axloqiy boylikka aylanishi lozim.[18]

Zamonaviy sharoitda esa axloqiy muammolar tobora murakkablashib bormoqda. Korrupsiya, iste'molchilik madaniyatining kuchayishi, yolg'on va manipulyativ axborot oqimining kengayishi, ijtimoiy adolatsizlik kabi illatlar milliy axloqiy qadriyatlarni zaiflashtirmoqda. Bu holatlar milliy axloqning global kontekstda o'z o'rnini mustahkamlash jarayoniga jiddiy tahdid solmoqda. Shu bois, nazariy tahlil shuni anglatadiki, milliy axloqni global qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish barqaror taraqqiyot, ijtimoiy adolat va ma'naviy uyg'unlikning zaruriy sharti hisoblanadi.

Umuman olganda, milliy axloqning global kontekstdagi mohiyati uning ikki tomonlama vazifasida namoyon bo'ladi: u bir tomondan milliylikni saqlab qoladi, ikkinchi tomondan esa universal qadriyatlarga moslashish orqali madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi. Shu jihatdan, milliy axloqning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va uni zamonaviy globallashuv jarayonlariga moslashtirish bugungi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy vazifalaridan biridir.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan tadqiqot milliy axloqning globallashuv sharoitidagi o'rne va ahamiyatini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Natijalar quyidagi asosiy yo'nalishlarda o'z ifodasini topdi:

1. Psixologik jihat. Milliy axloq shaxsning dunyoqarashini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir inson bolalikdan ota-ona, mahalla, maktab va jamiyat orqali milliy qadriyatlarni o'zlashtirib boradi. Bu qadriyatlar uning hayotiy pozitsiyasi, jamiyatdagi roli va shaxsiy o'zligini anglashida tayanch vazifasini bajaradi. Masalan, o'zbek xalqida

“kattaga hurmat, kichikka izzat” tamoyili shaxsning ijtimoiy muloqotini tartibga soluvchi axloqiy mezonlardan biridir. Ushbu qadriyat orqali inson jamiyatda o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilaydi, boshqalarga nisbatan mehr-oqibat va hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganadi.

Globallashuv sharoitida esa milliy axloqning psixologik vazifasi yanada kengayadi va yangi mazmun kasb etadi. Chunki turli millat, din va madaniyat vakillari bilan aloqa qilish, ularning qadriyatlari bilan yuzmayuz kelish jarayoni shaxsni madaniyatlararo kompetensiyaning egallashga majbur qiladi. Masalan, xorijda ta‘lim olayotgan o‘zbek talabasi milliy odob va tarbiya asosida shakllangan bo‘lsa-da, boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot jarayonida bag‘rikenglik, hamkorlik va murosa qilishni o‘rganadi. Bu esa uni psixologik jihatdan yanada moslashuvchan, ochiq va global dunyoqarashga ega inson sifatida tarbiyalaydi.

Madaniyatlararo kompetensiyaning shakllanishi nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy darajada ham katta ahamiyatga ega. Masalan, bugungi kunda ko‘plab xalqaro tashkilotlar va transmilliy kompaniyalarda faoliyat yuritayotgan o‘zbek mutaxassisleri milliy qadriyatlarni saqlagan holda, turli xalqlar vakillari bilan samarali muloqot olib bormoqda. Ularning muvaffaqiyatida milliy axloqiy tarbiya bilan bir qatorda global psixologik tayyorgarlik ham muhim o‘rin tutmoqda.

Demak, milliy axloqning psixologik vazifasi shaxsni faqat milliy doirada tarbiyalash bilan cheklanmaydi. U global miqyosda ham insonning to‘laqonli rivojlanishini, bag‘rikenglik, hamkorlik va turfa qarashlarga hurmat kabi ijobiy psixologik fazilatlar bilan boyishini ta‘minlaydi. Shu bois milliy axloqiy qadriyatlarni yoshlar ongiga chuqur singdirish, ularni global jarayonlarda faol ishtirok etishga tayyorlash zamonaviy tarbiyaning eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

2. Aksiologik jihat. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar global qadriyatlar bilan uyg‘unlashganda, insoniyat uchun universal bo‘lgan tushunchalar – inson huquqlari, erkinlik, adolat, tenglik – yanada mustahkamlanadi. Milliy qadriyatlar mazkur tushunchalarga o‘ziga xos milliy ruh va ma‘naviy mazmun qo‘shib, ularning mohiyatini boyitadi.

Natijada ular xalqaro darajada yanada ishonchli, amaliy va barqaror mazmunga ega bo'ladi.

Masalan, Sharq falsafasida qadimdan ustuvor bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat va halollik qadriyatlari G'arb tamaddunida shakllangan huquqiy me'yorlar, shartnomaviy munosabatlar va normativ tamoyillar bilan uyg'unlashganda, universal adolat tushunchasining yanada mukammallashuviga olib keladi. Sharq xalqlarida halollik va so'zga sadoqat shaxsiy obro' va ijtimoiy ishonchning mezoni sifatida qaralgan. G'arb jamiyatida esa bu tamoyil huquqiy tartib va qonuniy javobgarlik bilan mustahkamlangan. Demak, bu ikki qadriyat birlashganda nafaqat individual, balki institutsional darajada ham adolat va ishonch kafolatlanadi.

Misol tariqasida, o'zbek xalqining qadimiy qadriyatlaridan biri bo'lgan "qo'shnidan qo'ni qidir" tamoyili ijtimoiy birdamlik va yordamchanlikning ifodasi hisoblanadi. Bu qadriyat xalqaro gumanitar yondashuvlar bilan uyg'unlashganda, global miqyosda hamjihatlik va o'zaro yordamni mustahkamlaydi. Shuningdek, "mehmondo'stlik" qadriyati madaniyatlararo muloqotda xalqlar o'rtasida do'stona aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy kontekstda ham bu uyg'unlikning yorqin misollarini ko'rish mumkin. Masalan, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangan "inson huquqlari, adolat va teng imkoniyatlar" tamoyillari milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashganda, ularning amaliy hayotga tatbiqi samarador bo'ladi. O'zbekistonda olib borilayotgan "Yangi O'zbekiston – yangi qadriyatlar" siyosati milliy axloqiy qadriyatlarni xalqaro tamoyillar bilan uyg'unlashtirish orqali inson huquqlarini himoya qilish, adolatli jamiyatni barpo etish yo'lida muhim qadamdir.

Umuman olganda, aksiologik tahlil shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar global qadriyatlar tizimiga qo'shilganda ular faqat boyib qolmay, balki insoniyat taraqqiyotining mustahkam poydevoriga aylanadi. Bu jarayon xalqaro ishonchni kuchaytiradi, millatlararo hamkorlikni rivojlantiradi va umumiy tinchlik hamda taraqqiyotga xizmat qiladi.

3. Amaliy jihat Milliy axloq va global qadriyatlarning uyg'unlashuvi amaliy hayotda madaniyatlararo muloqot uchun mustahkam asos yaratadi. Bunday muloqot, eng avvalo, turli millat va elatlar vakillari o'rtasida o'zaro tushunishni mustahkamlab, barqaror jamiyat qurishga xizmat qiladi. Chunki axloqiy qadriyatlar bir-biriga zid emas, balki to'ldiruvchi xarakter kasb etganida, ijtimoiy ziddiyatlar kamayadi, mojarolar murosasida hal etiladi va global tinchlikni ta'minlash imkoniyati kengayadi.

Birinchidan, yosh avlod tarbiyasida bu masalaning o'rni beqiyosdir. Milliy axloqiy qadriyatlarni singdirish orqali ularning o'zligini anglashiga, milliy ildizlariga sodiq qolishiga erishiladi. Shu bilan birga, global qadriyatlar – inson huquqlari, adolat, bag'rikenglik va erkinlik – yoshlarni zamonaviy dunyoga moslashishga tayyorlaydi. Masalan, ta'lim tizimida milliy adabiyot va tarix bilan bir qatorda global axloqiy tamoyillarni o'qitish, yosh avlodni nafaqat o'zligini anglovchi, balki turli xalqlar qadriyatlariga hurmat bilan qaraydigan shaxs sifatida shakllantiradi.

Ikkinchidan, amaliy jihat xalqaro aloqalarda ham yaqqol ko'rinadi. Masalan, O'zbekistonning BMT, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi milliy qadriyatlarni global miqyosda targ'ib etishga xizmat qilmoqda. Navro'zning YUNESKO tomonidan insoniyat nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilishi milliy qadriyatlarning global tamoyillar bilan uyg'unlashgan holda insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasining amaliy isbotidir.

Uchinchidan, amaliy natijalar jamoaviy hayotda ham namoyon bo'ladi. Masalan, milliy qadriyat sifatida qaraladigan mehmondo'stlik xalqaro turizm sohasida ijobiy natijalar bermoqda. Bu qadriyat global miqyosda xalqlar o'rtasida do'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Yana bir misol sifatida, o'zbek xalqining qadimiy "hashar" an'anasi global ijtimoiy birdamlik tamoyillari bilan uyg'unlashib, ekologik muammolarni hal qilish, jamoaviy tashabbuslarni amalga oshirishda samarali model sifatida tatbiq etilmoqda.

Umuman olganda, milliy axloq va global qadriyatlar uyg'unligi amaliy natijalarda ijtimoiy taraqqiyotning strategik yo'nalishini belgilaydi. Bu uyg'unlik nafaqat ma'naviy uyg'unlikni, balki ijtimoiy barqarorlikni ham

mustahkamlaydi. Natijada, milliy ildizlariga sodiq, ammo global dunyo tamoyillarini qabul qilishga tayyor avlod shakllanadi, xalqaro hamkorlik rivojlanadi va insoniyat umumiy taraqqiyot yo'lida barqaror qadamlarga ega bo'ladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy axloq globallashuv sharoitida shaxsiy, ijtimoiy va global darajalarda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. U psixologik darajada insonni bag'rikenglikka yo'naltiradi, aksiologik darajada universal qadriyatlarni boyitadi, amaliy darajada esa tinchlik va barqarorlikka xizmat qiladi. Shu bois milliy axloqni global qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish – zamonaviy taraqqiyotning eng muhim shartlaridan biridir.

Xulosa. Milliy axloqning mohiyati uning shaxsiy, ijtimoiy va global darajadagi ko'p qirrali ahamiyatida namoyon bo'ladi. Shaxsiy darajada u insonning ichki dunyoqarashini, o'zini anglashini va hayotiy qarorlarini belgilab beruvchi mezon vazifasini bajaradi. Ijtimoiy darajada esa milliy axloq jamiyatning ma'naviy barqarorligini, ijtimoiy birdamlikni va hamjihatlikni ta'minlaydi. Global darajada u boshqa xalqlar qadriyatlari bilan uyg'unlashib, insoniyat taraqqiyotiga, tinchlik va hamkorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan birga, ularni global qadriyatlar tizimi bilan uyg'unlashtirish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Chunki biryoqlama milliylik jamiyatni global jarayonlardan chetlatib qo'yishi mumkin, biryoqlama globallashuv esa milliy o'zlikni yo'qotish, ma'naviy bo'shliq va qadriyatlar inqiroziga olib keladi. Shu bois muvozanatli yondashuv — milliy qadriyatlarni saqlagan holda, global tamoyillarga ochiqlikni ta'minlash — zamonaviy taraqqiyotning eng muhim shartlaridan biridir.

Sharq va G'arb mutafakkirlarining merosi chuqur o'rganilganda, rostgo'ylik, halollik, adolat va insonparvarlik kabi qadriyatlarning universal ahamiyatga ega ekani yaqqol ko'rinadi. Sharqda ular ko'proq ruhiy poklik, ma'naviy komillik va ilohiy burch sifatida talqin etilgan bo'lsa, G'arbda ular universal axloqiy qonun va huquqiy tamoyillar sifatida qaralgan. Har

ikkala yondashuv bir-birini to'ldirib, milliy va global qadriyatlar o'rtasida uyg'unlik yaratadi.

Amaliy jihatdan esa milliy axloq va global qadriyatlarning uyg'unlashuvi yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Milliy ildizlariga sodiq, ammo global dunyo tamoyillarini qabul qilishga tayyor avlodni tarbiyalash nafaqat ma'naviy uyg'unlikni, balki ijtimoiy barqarorlikni ham mustahkamlaydi. Shu tariqa, milliy axloq va global qadriyatlar uyg'unligi barqaror jamiyat qurish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va umumiy taraqqiyotga erishish uchun strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, milliy axloqni asrab-avaylash, uni global qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish va yosh avlod ongiga chuqur singdirish zamonaviy jamiyatning ustuvor vazifasidir. Bu nafaqat milliy taraqqiyot, balki insoniyatning umumiy istiqboli uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. (1499/2005). Mahbub ul-qulub. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Kant, I. (1785/1996). Groundwork of the metaphysics of morals (M. Gregor, Trans.). Cambridge: Cambridge University Press.
3. Nazarov, Q. (2005). O'zbek falsafasi. Toshkent: O'zbekiston.
4. Sher, A. (2010). Axloqshunoslik. Universitet Toshkent.
5. Saifnazarov, I. (2010). Falsafa Toshkent: Sharq.
6. Qahhorova, M. (2018). Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar transformatsiyasi. Toshkent: Ma'naviyat.
7. Ibn Sino. (1980). Kitob al-axloq. Tehron: Donyo Kitob.
8. Confucius. (1997). The Analects (A. Waley, Trans.). New York: Vintage Books.
9. Locke, J. (1689/1988). Two treatises of government (P. Laslett, Ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
10. Kant, I. (1785/1996). Groundwork of the metaphysics of morals (M. Gregor, Trans.). Cambridge: Cambridge University Press.

11. Nazarov, Q. (2000). Milliy qadriyatlar va ma'naviy tarbiya. Toshkent: O'zbekiston.
12. Sher, A. (2010). Axloqshunoslik. Universitet Toshkent.
13. Qahhorova, M. (2018). Etika va ma'naviyat: Globallashuv sharoitidagi muammolar. Toshkent: Ma'naviyat.
14. Locke, J. (1689/1988). Two treatises of government (P. Laslett, Ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
15. Kant, I. (1785/1996). Groundwork of the metaphysics of morals (M. Gregor, Trans.). Cambridge: Cambridge University Press.
16. Habermas, J. (2001). The postnational constellation: Political essays (M. Pensky, Trans.). Cambridge: Polity Press.
17. Temur, A. (1991). Temur tuzuklari. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
18. Giddens, A. (1999). Runaway world: How globalization is reshaping our lives. London: Profile Books.

QADIMGI TURKIY XALQLAR LISONIY MANZARASIDA ALP ER TO'NGA SHAXSIYATI

Omonov Qudratulla Sharipovich,
filologiya fanlari doktori, professor

Zamonaviy tilshunoslikda “olamning til manzarasi” yoki “olamning lisoniy qiyofasi” degan tushuncha keng tarqalgan. Bu tushunchaga ko'ra muayyan tilda ifodalanadigan va o'z aksini topgan olam hamda insoniyat haqidagi barcha bilimlar yig'indisi tushuniladi.

Bunda ma'lum bir etnik guruh va madaniyatga xos bo'lgan tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy, madaniy voqeliklarni idrok etish hamda tilda aks ettirish masalasi tushuniladi.

Tilda aks ettirish tilning lug'at boyligi, grammatik qurumi va boshqa birliklarida o'z ifodasini topib, har bir til uchun o'ziga xos lingvistik dunyoqarashni shakllantiradi.

Lingvistik dunyoqarash universal emas, u turli xalqlarda farq qiladi, chunki har bir ulusning faoliyati, turmush tarzi, madaniyati, mentaliteti, bosib o'tgan tarixiy voqeliklari o'ziga xos bo'ladi.

Har bir xalqning o'ziga xos bosib o'tgan tarixiy faoliyati natijasida o'sha ulusning o'ziga xos lingvistik stereotiplari, konseptlari va milliy mentaliteti shakllangan bo'ladi.

Shu jihatdan har bir xalqning olam lisoniy manzarasidagi muayyan bir tarixiy voqelikka, shaxsga yoki hodisaga munosabati boshqa ellarnikidan ajralib turadi. Tarixning muayyan davrlarida va turli bosqichlarida xalqning olam lisoniy manzarasi ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy ta'sirlar natijasida o'zgarib borishi mumkin. Biroq qadim kezlarda yaratilgan asarlarda o'sha davrning olam lisoniy manzarasini yaqqol ko'rish mumkin. O'tmish yozma yodgorliklarda aks ettirilgan voqealar, tarixiy shaxslar, qahramonlar, tarixiy lug'atlardan o'rin olgan leksik birliklar bularning bari o'tmishda yashab o'tgan bobolarimizning olam lisoniy manzarasining manbalardagi in'ikosi bo'lib hisoblanadi.

Tillar qancha bo'lsa, olamning shuncha milliy lisoniy manzarasi mavjud, bu tillarning har biri xalq tafakkurining ko'p asrlik faoliyatining noyob natijalarini aks ettiradi.

Shu o'rinda yozma manbalarda Alp Er To'nga to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirilganligi. Ayniqsa, eski turkiy tildagi yodgorliklarda uning shaxsiyatini chuqur ehtirom bilan tilga olinishi uning ulug'vor turkiy davlatchilikning tamalidagi Turon-Turkiston davlatchiligi asoslarini qurgani, yuksaltirgani, turklarning yovqur o'g'lonlarini boshini biriktirgani, buyuk davlat arbobi va siyosiy iqtidor egasi o'laroq ulkan saltanatga asos solgani bilan bog'liq. Muhimi, qoraxoniylar davrining noyob asarlari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" kitoblarida unga nisbatan ijobiy stereotiplarni aks etishi mingyillar davomida turkiy milliy tafakkurda, turkiy ulusning olam lisoniy manzarasida Alp Er To'nganing xalq qahramoni sifatida chuqur o'rnashgani bilan bog'liq. Shu bois qoraxoniylar davri manbalarida To'nga bilan bog'liq voqealar, unga tegishli epetitlar, uning tilidan hikmatli so'zlar va xalq poetik ijodida uning o'limi bilan bog'liq marsiyalarning mavjudligi

turkiy ulus tafakkurida Alp Er To'nga davrug'li qahramon ekanidan darak beradi.

Shu o'rinda Er To'nga bilan bog'liq ayrim lisoniy stereotiplarni ko'rib chiqsak.

1. Alp Er To'nganing turkiy ulus lisoniy manzarasida uning yurtga egalik fenomini Yusuf Xos Hojibning davlat boshqaruviga doir nodir asari "Qutadg'u bilig" kitobida yorqin aks etgan. Asarda To'nga **atı belgölüg va qutı belgölüg** birliklari yordamida tasvirlangan. Bu bilan Xos Hojib xalq orasidagi turk beklari, ya'ni hukmdorlari orasida eng taniqlisi va siyosiy iqtidori oydin ko'rinib turgani Alp Er To'nga ekani haqidagi xalq tafakkuridagi tasavvurlarni aks ettiradi. Mana o'sha uzundi:

bu türk beglerinde atı belgölüg

toña alp er erdi qutı belgölüg

Türk beglari orasida oti belgilik,

To'nga Alp Er edi, quti (siyosiy hukmdorlik) belgilik [1]

Bundan tashqari asarda Er To'nga shaxsiyatiga nisbatan o'sha davrda keng tarqalgan ***taqtı eg*** – "yanada yaxshisi", "eng zo'ri" degan ifoda qolipi yordamida tavsiflanadi.)

Manbalarda Alp Er To'nganing mohir sarkarda, yovqur o'g'lon ekanligi to'g'risidagi stereotiplar ham keltiriladi. Ayniqsa, Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'atit turk" kitobida To'ngani mohir sarkarda, janglardagi qahramonligi, dushmanlarga zarba berishdagi mahorati, bahodirligini ta'riflaydi. Xususan, Devonda Alp Er To'nga otidagi To'nga so'zi tavsifida uning bahodirligi quyidagicha izohlanadi: "To'nga – yo'lbars jinsidan bo'lgan bir xil hayvon. U filning kushandasidir. Bu so'zning asosiy ma'nosi shudir. Lekin bu so'z turklarda ma'nosi o'zgargan holda qo'llanadi. Bu so'z, ko'pincha, odamlarga laqab o'rnida ishlatiladi. Chunonchi, To'ngaxon, To'nga tegin va shuning kabilar. Turklarning ulug' xoni Afrosiyobni To'nga Alp Er deb atar edilar. Yo'lbars kabi kuchli bahodir odam, demakdir"[2]. Bu izohdan ko'rinadiki, To'nga Alp Erning xalq lisoniy tafakkuridagi epitetidir.

Er To'nganing bilga (mutafakkir) ekani ham xalqning milliy tafakkurida saqlanib kelgan. U bilan bog'liq, uning tilidan aytilgan

hikmatlarning mavjudligi shundan darak beradi. Bu hikmatlarni aksari davlat boshqaruvi bilan bogʻliq. Ular Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida keltirilgan. Adib ularni keltirganda quyidagi lisoniy qolipdan foydalanib beradi. Mana oʻsha hikmat berish tartibi:

negü tér eşitgil toña alp erig

bilip sözlemiş kör bu öt saw erig

et ol bu kişi köñli artar yıdır

anı ked küdezgü ey qılqı qadır

neçe ked er ersa yoñağ tıñlamas

ozunçı ara kirse sernü umas

neçe ked beg ersa uquşluğ oduğ

yoñağçı yaqın bolsa tegrür yoduğ

Alp Er Toʻngani eshitgin, u nima deydi.

U oʻgit, pand, nasihatni bilib soʻzlabdi, koʻrgin:

Kishi koʻngli etdir, u hid bilan buziladi,

Etni juda avaylash kerak, ey feʻli qodir

Qanchalik yaxshi, chaquvni tinglamaydigan odam boʻlsa ham,

Gʻiybatchi oraga kirsas, u sabr qila olmaydi (yaʼni chaquviga quloq beradi).

Qanchalik yaxshi, chaquvni tinglamaydigan odam boʻlsa ham,

Chaqimchi yaqin boʻlsa, unga malollik keltiradi ”[3].

Bu hikmatda hukmdorlarga oʻzi xohlamasa ham turli xil gap tashuvchi, gap chaquvchi kishilar mavjud boʻladi. Qanchalik yaxshi, gap chaquvni tinglamaydigan hukmdor boʻlsa ham alaloqibat uning gaplariga kirib boshqaruvda muammoga duch keladi degan hikmatni keltirgan.

Manbalarda Toʻnganing farzandlari bilan ham bogʻliq axborotlar xalqning lisoniy xotirasidan olib keltiriladi. Shu oʻrinda Devondagi ayni masala bilan bogʻliq ayrim oʻrnaklarga toʻxtalsak. Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk” asari maʼlumotlariga qaraganda, Alp Er Toʻnganing Qoz ismli qizi boʻlgan va u hozirgi Eron hududidagi Qazvin va Qum shaharlarini barpo qilgan. Turkiylarning chegara shahri boʻlgan Qazvin shahrida malika Qoz gʻoz oʻynar edi. Shahar nomi Qazvin – Qoz soʻzining qisqargan shakli boʻlib, shahar oʻzining bunyodkori

bo'lgan xoqon qizi malika Qoz nomiga qo'yilgan va u Qoz shahri ma'nosini ham anglatadi. Koshg'ariyning ma'lumotlariga qaraganda, Alp Er To'nganing Baqan va Barsag'an degan ikki o'g'li bo'lib, ular Farg'ona vodiysida hukmronlik qilishgan. Barsag'on bu hududda Barsag'on va Bormon shaharlarini qurdirgan. "Devon"da yozilishicha, Tarim so'zi Alp Er To'nga avlodidan bo'lgan xotinlarga nisbatan qo'llanilgan. Qatun so'zi Alp Er To'nganing qizlaridan bo'lganlarning nomidir"[4].

Alp Er To'nganing o'limi bilan bog'liq ma'lumotlar ham yozma manbalarda ko'plab uchraydi. Koshg'ariy Devonida Alp Er To'nganing o'limi xalqning katta qayg'usiga sabab bo'lgani haqidagi marsiyani keltirgan:

Alp Er Tönga oldimu,

Esiz ajun qaldimu.

O'zlak öchin aldimu,

Emdi yurak yirtilur

Manbalarda keltirilgan dalillarga asoslanilsa turkiy xalqlarning lisoniy manzarasida Alp Er To'nga tarixiy shaxs o'laroq turkiy ellarni birlashtirgan qahramon hamda Turon davlatining quruvchisi va xoqoni, Markaziy Osiyodagi asosiy kentlarning bunyodkori ekanligi ko'rinadi. Ayniqsa, Alp Er To'nga obrazi turkiy xalqlarning elsevarlik ruhiyati, bir ildizdan o'sib chiqqanlik g'oyasi, umumtarix, mushtarak qadriyatlar, umumiy dunyoqarash, turkiy dunyo yoshlari tafakkurini tarixiy ildizlari birligi g'oyasini singdirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] <https://cyberleninka.ru/article/n/patriotizm-ponyatie-ividy/> viewer

[2] Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. Toshkent, 1961-1963. 3 tom. 379 bet.

[3] Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent, 1969. 234 bet

[4] Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. Toshkent, 1961-1963. 1 tom. 493-494 betlar.

MILLIY, UMUMINSONIY VA DINIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGINI ANGLASHNING MOHIYATI

Shahlo Ahrorova,

*Falsafa doktori(PhD), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi*

Yoshlarda milliy qadriyatlarga nisbatan ma'rifiy va ma'naviy ongning boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlarsiz amal qilmasligi, shuningdek, diniy qadriyatlarda ham albatta milliy omillar ishtirokini anglash yoshlar ijtimoiy hayotida asosiy o'rin tutmog'i lozim. Shuni inobatga olib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlikda amal qilishi, milliy qadriyatlar tarixi va ularning diniy qadriyatlar bilan uyg'unlashuv jarayoni to'g'risida quyida fikrlarimizni bayon etamiz.

Ijtimoiy siyosat tamoyillarining umuminsoniy va milliy qadriyatlar bilan aloqadorligi qadriyatlarning boshqa shakllarida ham milliy elementlarning namoyon bo'lishi, boshqacha aytganda, har qanday umuminsoniy qadriyat milliy unsurlardan ayro holda amal qilmasligini nazarda tutish lozim. Shulardan biri diniy qadriyatlardir.

Milliy qadriyatlar to'g'risida gapira turib, mazkur paragrafda diniy qadriyatlar xususida ham bayon qilishimizning asosi – birinchidan, diniy qadriyatlar milliy qadriyatlar elementlarisiz, sof holda amal qilmasligi; ikkinchidan, diniy qadriyatlarning o'z navbatida milliy qadriyatlar shakllanishiga ta'siri, uchinchidan, diniy qadriyatlarning aksari azaldan muayyan urug'-qabilalar orasida an'anaga aylangan odatlarning ilohiy tus berib, aqidaga aylantirilgan ko'rinishi ekanligi; to'rtinchidan, diniy ta'limot qaysi hududda yaralgan bo'lsa, mazkur ta'limotga oid diniy amallar, qoidalarda o'sha hududda yashayotgan xalqlarning milliy amal va qoidalarining namoyon bo'lishidir.

Mustaqillik davrida e'tiqod erkinligi berilishi bilan bir qatorda diniy qadriyatlar amal qila boshlaganini xalqimiz mamnuniyat bilan kutib olganining sababi ham bu qadriyatlar zahirida milliy o'zlik elementlarining mavjudligi edi. Bir dinga e'tiqod qiladigan, ammo turli makonda yashaydigan, turli millatga mansub xalqlarda diniy marosimlar mazmun-

mohiyati jihatidan bir xil bo'lsa-da, turlicha ko'rinishda, ya'ni o'sha xalqlarga xos milliy unsurlar asosida amalga oshiriladi. Bu unsurlar mana shu tariqa diniy qadriyatlar shakllanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur masalaning siyosiy jihati shunda-ki, diniy va milliy qadriyatlardagi aynan mana shu uyg'unlik milliy-diniy tarbiyaga asos soladi, milliy o'zlik va milliy birlik mustahkamligida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda milliy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlik xususiyatlarini ham alohida e'tiborga olish lozim. Bu millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik tamoyillarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Buzg'unchi g'oyalarning turli diniy oqimlar yoki missionerlik harakatlari ko'rinishida kirib kelishi va o'z maqsadlarini amalga oshirishda ana shu uyg'unlikdan foydalanishlari mumkinligini unutmazlik lozim.

Ijtimoiy siyosat va milliy qadriyatlar dialektikasida quyidagi xususiyatlar namoyon bo'ladi:

- milliy qadriyatlarni takomillashtirishda ijtimoiy siyosatning aralashuvi muhimligi. Bu bilan ayrim nomaqbul urflar, xususiyatlarning qadriyatlashuvi va millatchilik kabi salbiy hodisalarning oldi olinadi;

- xalqaro darajadagi yangi qadriyatlarning shakllanishi, ijtimoiy siyosatda globallashtirish xususiyatlari, madaniyatlar almashinuvining ayrim milliy qadriyatlarga putur etkazishi, uni "yeb borishi" mumkinligi. Bu ijtimoiy siyosat va milliy qadriyatlar o'rtasida ichki qarama-qarshilik, ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Ijtimoiy siyosat bu borada muvofiqlikni ta'minlash barobarida o'zi ham takomillashib boradi.

- ijtimoiy siyosat o'z g'oya va maqsadlarini jamiyat ongiga singdirishda, ijtimoiy va milliy birlikni ta'minlashda, tarbiyaviy funksiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlardan foydalanish barobarida, g'oya va maqsadlarning ham qadriyatlashuviga erishadi.

Xulosa qilganda:

- milliy qadriyatlar millatning o'tmishi, milliy xarakteri; ko'nikma, an'ana, urf-odatlar; millatga xos belgi va xususiyatlar bilan bog'liq madaniy boylik va ma'naviy meroslari; o'zaro aloqa va munosabatlardagi, maqsad, manfaat, ideallardagi o'ziga xosliklarni ifodalaydi;

-ijtimoiy siyosat milliy qadriyatlar bilan uyg'unlikda diniy qadriyatlarning takomillashuvini ham hisobga olishi lozim. Chunki, birinchidan, diniy qadriyatlar milliy qadriyatlar elementlarisiz amal qilmaydi; ikkinchidan, ular o'z navbatida milliy qadriyatlar shakllanishiga ta'sir qiladi, uchinchidan, ularning aksari azaldan muayyan urug'-qabilalar an'analariga ilohiy tus berib, aqidaga aylantirilgan ko'rinishidir, to'rtinchidan, diniy ta'limot qaysi hududda yaralgan bo'lsa, diniy qoidalarda o'sha hudud xalqlari milliy amal va qoidalarining namoyon bo'lishidir;

-zardushtiylikdan boshlab diniy qadriyatlar milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashib, milliylik kasb etgan. Diniy qadriyatlarning yashovchanligi, bir jihatdan e'tiqod, imon bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tarafdin ularning milliylashganligi bilan bog'liq;

-ijtimoiy siyosat va milliy qadriyatlar dialektikasida quyidagi xususiyatlar namoyon bo'ladi: a) milliy qadriyatlarni takomillashtirishda ijtimoiy siyosatning aralashuvi muhimligi. Bu bilan ayrim nomaqbul urflar, xususiyatlarning qadriyatlashuvi va millatchilik kabi salbiy xodisalarning oldi olinadi; b) xalqaro darajadagi yangi qadriyatlarning shakllanishi, ijtimoiy siyosatda globallashtirish xususiyatlari milliy qadriyatlarga putur etkazishi mumkinligi. Bu ijtimoiy siyosat va milliy qadriyatlar o'rtasida ichki ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Ijtimoiy siyosat bu borada muvofiqlikni ta'minlash asnosida o'zi ham takomillashib boradi; v) ijtimoiy siyosat o'z g'oya va maqsadni jamiyat ongiga singdirishda, ijtimoiy va milliy birlikni ta'minlashda, tarbiyaviy funksiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlardan foydalanibgina, g'oya va maqsadlarning ham qadriyatlashuviga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirov A. "Avesto"dan meros qolgan marosimlar. T. 2001 y. B-5.
2. Ashurov A. «Avesto» zardushtiylik kitob. –T.: A.Qodiriy, 2001. – B. 48.
3. Boboyev H., Hasanov S. "Avesto" – ma'naviyatimiz sarchashmasi. –T.: Adolat, 2001. –B. 460.

4. Jabborov I. O‘zbeklar turmush tarzi va madaniyati. –T.: O‘qituvchi, 2003. –B. 208.
5. Mahmudov T. «Avesto» haqida. –T.: Sharq, 2000. –B. 64.
6. Nazarov K. Falsafa asoslari. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2012. B.462
7. Otamurotov S. Milliy rivojlanish falsafasi. -T.: Akademiya, 2005. – B.63.
8. Ochildiyev A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. –T.: O‘zbekiston, 2004. –B. 134.
9. Ochilova B., Turovov Yo. Qadriyatlar falsafasi. T., Vneshinvestrom. B-444.
10. Ochilova B. Milliy-ma’naviy yuksalishda mos qadriyatlar va vorisiylik. T., Istiqlol, 2009. B.-117.

ISTE’MOL MADANIYATI – MADANIY SAVIYAMIZ IN’IKOSIMI?

Gulnoza Nurtoyeva,

*Jizzax viloyati Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish
jamiyatlari birlashmasi raisi*

Bugun dunyoda “iste’mol madaniyati” degan tushuncha bot-bot yangrayapti. Ma’naviyat va mafkura sanoat darajasiga chiqayotgan bugungi davrda iste’mol madaniyatini tarbiyalash, uni inson madaniy saviyasining asosiy qismi sifatida shakllantirish masalasi asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xo‘sh, iste’mol madaniyati nima o‘zi? Iste’molning o‘zi nima? Ular ehtiyojlarimizni qondirish mahsuli xolosmi?

Shu kabi savollar iste’mol mahsulotlarining turlari va shakllari ko‘payib borayotgan, nomoddiy ehtiyojlar turi va hajmi kengayib borayotgan bir davrda bot-bot tug‘iladi. Masalan, siz bugun gazetada ushbu maqolani o‘qiyapsiz. Demak, bunga ehtiyojingiz bor va shu tufayli bu erda keltirilgan ma’lumotlar va fikrlarni iste’mol qilmoqdasiz. Ha, shunchaki

o'qimayapsiz, tom ma'noda iste'mol qilyapsiz. Bu erda ehtiyoj va iste'mol fenomeni yuzma-yuz chiqyapti.

Hech o'ylab ko'rganmisiz: bugun siz nimalarni iste'mol qildingiz? Ularning hammasi ehtiyojingiz doirasidamidi? Iqtisodiyotda "iste'mol savatchasi" degan tushuncha bor. Mayli, biz buni siz uchun kundalik iste'mol dasturxoni, deb ataylik va sizning bugungi dasturxoningizga nazar solaylik. Albatta, ko'pchilik bu dasturxonga birinchi bo'lib moddiy mahsulotlarini qo'yadi, zero birlamchi va asosiy iste'mol turlari bor-kim, bu tur insoniyat yaratilganidan beri uning tirik organizm, biologik mavjudot sifatida yashab qolishi, sog' bo'lishi, issiq-sovuq va boshqa tabiiy moslashuvlar bilan bog'liq ehtiyojni qondirish mahsulotlaridan tashkil topgan: demak, oziq-ovqat, kunlik kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak bilan bog'liq bir martalik va ko'p-martalik mahsulotlar dasturxonning markaziga joylashadi. Bundan tashqari, tibbiyot xizmatlari, sartarosh yoki boshqa maishiy xizmat sohalari xizmatlarini sotib olib iste'mol qilasiz.

Endi dasturxoningizga funksional iste'mol tovarlarini qo'yamiz: endi siz qulaylik va komfortni istaysiz, ya'ni, ovqatni chiroyli likopga solib eyishni xohlaysiz, noningizning xamiri qaymoq bilan qorib pishirilgan bo'lsa yana yaxshi. Kiyimingiz ustingizni yopishining o'zi kifoya emas, u qimmatbaho bo'lsa yana yaxshi. Xushbo'y atir ham zarar qilmaydi. Kiringizni kirmashina, idishingizni idishmashina yuvgani ma'qul. Bundan tashqari, telefoningiz ma'nan eskirgan. Uni ko'p funksiyali, zamonaviy, sizning qaysidir amaliyotingizda foydalanish imkonini beradigan qulayliklari bor telefon olishingiz kerak. Xullas, shu kabilarning qaysidan foydalangan bo'lsangiz, dasturxonga kiritamiz. Fanda fan-texnika yutuqlari bilan bog'liq mahsulotlar ham iste'molning shu turiga kiritiladi.

Bugun ishdan horib qaytдингiz. Qaysi musiqani eshitgingiz keldi yo qaysi filmni ko'rgingiz keldi? Axir ular ham san'at mahsulotlari va o'z shinavandalarining iste'moli uchun ishlab chiqariladi. Xuddi novvoy o'z mijozlarining ta'bi va talabgorlari safiga qarab non va non mahsulotlari ishlab chiqargani kabi. Bular emotsional iste'mol turiga kiradi, zero bularga ham ehtiyoj baland. Masalan yosh farzandingiz bir narsani bahona qilib xarxasha qilib turibdi, siz esa chiroyli erkalab quchib qo'ydingiz va u

ovunib, yana o'ynab ketdi: u sizning mehringizni iste'mol qildi, zero shunga uning ehtiyoji bor edi. Aslida mehrga kimning ehtiyoji yo'q, deysiz.

Hamkasbingiz tushkun kayfiyatda ishga kelgan, ishlashga ham, birov bilan so'zlashishga ham hushi yo'q. Hatto tushlik payti ham ochilmadi. Siz unga nima bo'lganini albatta so'raysiz. Agar yaqin olsa yoki "to'lib turgan" bo'lsa, u sizga albatta dardini to'kib-soladi. Ehtimol oilasida yaqin insoni kasaldir, ehtimol ishi yurishmayotgandir, ehtimol biror sohada adolatsizlikka uchragandir. Xullas, uning ikki og'iz shirin so'zga, yupanchga, boshqacha aytganda, e'tiborga ehtiyoji bor. Siz uning muammolarini echib bermaysiz, chunki echib berolmaysiz, biroq, bardamlik va kuch tilab, hammasi yaxshi bo'ladi, deb yupatasiz. Uning yaxshiliklarga loyiq inson ekanligini uqtirasiz va u sizning e'tiboringizni, oqibatingizni iste'mol qiladi. Uning dasturxoniga, bolangizning dasturxoniga mana shu mahsulotlar – mehr va oqibat, e'tibor ham tushadi.

Men iste'molning har biri turiga bir-bir to'xtalib o'tmoqchi emasman, biroq, g'oyaviy iste'mol haqida so'zlash bugunning masalasi. Bugun nafaqat insonni, balki dunyoni g'oyalar boshqarmoqda. Aslida insoniyat hech qachon g'oyasiz yashamagan: tafakkur bor ekan, g'oya ham tug'iladi va insonni o'z yo'nalishida faoliyatga undaydi. Inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun iste'mol dasturxonini yozar ekan, unga mahsulotlarni o'zi ergashgan g'oya asosida ham tanlashi mumkin. Aytaylik, siz hayvonlarni o'ldirishni jinoyat, deb hisoblaysiz, demak, ularning go'shtini iste'mol qilishdan ham ana shu g'oyangiz tufayli voz kechasiz va vegetarianga aylanasiz. Demak, sizning birlamchi mahsulotlaringiz safida go'shtli iste'mol tovarlari ishtirok etmaydi.

Bu iste'mol turiga ayrim radikal g'oyalarga ergashganlar iste'molini ham kiritish mumkin. Masalan, yangilikni zalolat, deb biluvchilar televizorni iste'mol tovarlari safidan chiqarib tashlashlari mumkin. Iste'mol dasturxonimizda me'yor chegaralaridan kam yoki ko'p mahsulotlar ham to'planishi mumkin ekan. Bizning bu to'plamimiz madaniyatimizning mahsuli sifatida ham namoyon bo'ladi. Aytaylik, biz kunlik iste'molimizni haddan oshirib yuborishimiz mumkin. Buni bemalol biz suyardigan ziyofatlar-u, mehmondorchilik misolida qarasak bo'ladi. Demak, iste'mol

turlaridagi tanlovimiz va ularning biz belgilagan me'yorlari bizning madaniy saviyamiz mahsullari hisoblanadi.

Umuman olganda, bugungi kunda iste'mol qaysidir tovarni ehtiyojni qondirish maqsadida sotib olish, o'zlashtirish bilangina ifodalanmaydi, balki, muloqotning ma'lum shakli hisoblanib, barcha tovarlar va xabarlarning virtual yaxlitligini namoyon qiladi. Faraz qiling, iste'mol turlarining barchasiga ozuqa bo'luvchi tovar va mahsulotlarning ommaviy bozori mavjud bo'lib, bu bozorda birlamchi va ikkilamchi mahsulotlar, moddiy va ma'naviy tovarlar, ommaviy madaniyat mahsulotlaridan tortib, media-mahsulotlarning barcha turi, kino sanoati mahsulotlari, yangi texnologiyalar mahsulotlari va boshqalar jamlanadi. Negaki, ehtiyoj cheksiz, moddiy resurslar esa chegaralangan. Inson ehtiyoji esa o'sgandan o'sib boryapti, gohi haddini yo'qotib qo'yyapti. Ana shu bozordan mazmun va mohiyatiga qarab, moddiy ne'mat va mahsulotlar iste'molini asosiy maqsad sifatida belgilamay va birlamchi o'ringa qo'ymay, ularni o'zining ma'naviy ehtiyojlarini qondirish va salohiyatini yuzaga chiqarib, o'zini shaxs sifatida namoyon qilishining vositasi sifatida tanlab olishi – insonning iste'mol madaniyatidan kelib chiqadi.

Iste'mol madaniyatida esa jamiyat tomonidan muayyan shaklga solingan, insonning tovar-mahsulotlar hamda xizmatlarni sotvolib, iste'mol qilish sohasidagi o'lcham va munosabatlarini, xatti-harakatlarini tartiblashtiruvchi me'yorlar, qadriyatlar tizimi aks etadi. Boshqacha aytganda, iste'mol madaniyatida iste'molning ma'naviy mohiyati namoyon bo'ladi. Biz xalqimizning go'zal ibratlarida, naqlarida xalqimizning azaliy me'yorlardagi iste'mol madaniyatini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, xalqda "uvol", "isrof", degan tushuncha bor. Ajdodlarimiz bolalikdan farzandlarda uvol qilmaslik, birovning mehnati va xizmatini hurmat qilish, eyayotgan taomini yomonlamaslik kabi ibratlar bilan iste'molning sharqona madaniyatini shakllantirib, tarbiyalab kelganlar. Shu bilan birga, "izzat topay desang ko'p dema, sihat topay desang ko'p ema", "so'z uvoli – kaltabinlik, non uvoli – qahatchilik" keltirishini bot-bot ta'kidlab, nafaqat moddiy, balki ma'naviy ne'matlarni iste'mol qilishda ham me'yorni

saqlash lozimligi sabog'ini berganlar. Suv va nonga nisbatan avlodlarda azizlik tuyg'usini shakllantirib, meros qoldirib kelganlar.

Xizmat iste'molida ham donishmand xalqimizda ajoyib o'gitlar hikmatini ko'rish mumkin. Xususan, ular tikuvchi, kashtachi va boshqa hunarmandlarga qo'l haqi, sartaroshga soch haqi albatta berilishi lozimligi, aks holda bu xizmat buyurmasligi va bundan tashqari, xizmat ko'rsatgan odamning qo'li og'rishi mumkinligini uqtirib kelganliklarida xizmatlar iste'moli madaniyatining o'ziga xos ijtimoiy shakli yuzaga kelganini ko'rish mumkin. Ushbular bilan birga sharqona iste'mol xulqidan ham saboq berilgan. Xulosa shuki, bugun dunyo lazozatlariga berilib, mol-mulkka, izzat-ikromga hirs qo'yish, to'yu-ma'rakalarda isrofgarchilikka yo'l qo'yish, ommaviy madaniyat ortidan quvib, yangiliklar, xushvaqtliklarga me'yordan ortiq o'ch bo'lish orqali sharqona iste'mol madaniyatining buzilishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

MILLIY QADRIYATLARNING JAMIYATDA SOG'LOM IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Alisher Atayev Rizoqulovich.

*Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi.*

Milliy qadriyatlar jamiyatni ichkaridan boshqarib turuvchi "kod"dir. Ularga chuqurroq nazar tashlasak, avvalo insonning shaxsiy hayotida oddiy kundalik odatlarga aylanadi, keyin tashkilot va muassasalarda tartib-qoida sifatida namoyon bo'ladi, shu bilan birga jamoada ishonch, hurmat va hamjihatlik shaklida ko'rinadi. Shu tarzda ular asta-sekin jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit shakllanishining poydevoriga aylanib boradi.

Ijtimoiy-ma'naviy muhit deganda faqat rasmiy qonunlar emas, balki odamlar bir-biriga qanday munosabatda bo'lishi, jamoada qanday kayfiyat hukm surishi, ishonch darajasi, hurmat va hamdillik qay holda ekani

nazarda tutiladi. Ana shu ichki muhitning asosiy ma'naviy tayanchi esa milliy qadriyatlardir.

Endilikda tabiiy savol tug'iladi: bu qadriyatlar insonning o'zida qanday paydo bo'ladi, qay yo'l bilan odatga aylanadi? Bu zanjirning mantiqiy boshlanishini yunon faylasufi Aristotel o'zining «Nikomax etikasi» asarida juda aniq tushuntiradi. U qadriyatning asoslaridan biri bo'lgan axloqiy fazilatning qanday hosil bo'lishini sharhlar ekan, shunday yozadi: «...axloqiy (etik) fazilat esa odatlar orqali shakllanadi; o'z nomini ham shu odatlardan olgan, chunki bu atama “xulq, odat” ma'nosini anglatuvchi *etos* (ἔθος) so'zidan kichik bir o'zgarish orqali yasalgan».[1] Demak, qadriyat faqat shior yoki qog'ozdagi gap emas — u qayta-qayta bajariladigan xulq-atvor orqali shakllanadigan odatdir. Masalan, odam odamlar o'rtasida adolatli munosabatni muntazam tanlab borsa, vaqt o'tishi bilan u haqiqatan ham adolatparvar insonga aylanadi; qo'lidan kelganda beg'araz yordam berib turishni odat qilgan kishi esa tobora saxovatli, ochiqqo'l inson sifatida shakllanib boradi. Shunday fazilatli insonlar jamiyatda ko'paygan sari, “odamlar bir-biriga ishonadigan, yordam beradigan, hurmat qiladigan” ijtimoiy-ma'naviy muhit vujudga keladi. Ya'ni yakka shaxsning kundalik odatlari millionlab kishilar miqyosida yig'ilganda, butun jamiyatning ma'naviy kayfiyati va umumiy ruhini belgilar ekan.

Shaxsda shakllangan bu fazilat faqat ichki sifat bo'lib qolmasdan, jamoa hayotida ham ishlashi uchun u hamma tan oladigan umumiy qoidaga aylanishi kerak. Mana shu bosqichda asosiy mezon — adolat bo'ladi. Amerika faylasufi Jon Rolz buni quyidagicha ifoda qiladi: «Adolat — ijtimoiy institutlarning birinchi va eng asosiy fazilatidir; qanday qilib haqiqat tafakkur tizimlari uchun birinchi fazilat bo'lsa, adolat ham ijtimoiy institutlar uchun xuddi shunday fazilatdir».[2] Ya'ni, agar qonunlar, ichki nizomlar, tanlov va qabul qilish tartiblari, baholash mezonlari va xizmat ko'rsatish standartlari adolat mezoniga tayansa, odamlarda tabiiy savol tug'iladi: “Bu qoida menga ham teng ishlayaptimi?” Agar javob “ha” bo'lsa, insonda ishonch paydo bo'ladi. Bu ishonch esa to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy-ma'naviy muhitga ta'sir qiladi: odamlar o'zlarini qadrlangan,

himoya qilingan, kamsitilmagan his qiladilar; ichki qarshilik, norozilik va shubhalar kamayadi.

Agar aksincha, qoidalar qog‘ozda adolatli, amalda esa nohaq qo‘llansa, noadolat holatlar ko‘paysa, muhitda ishonchsizlik, sovuqlik, asabiylik va “baribir foydasi yo‘q” degan kayfiyat kuchayadi. Shu ma’noda, adolatli institutlar ijtimoiy-ma’naviy muhitni asrab turadigan “qalqon”, adolatsiz va ikkiyuzlamachi institutlar esa uni zaiflashtiradigan “sust bo‘g‘in” vazifasini bajaradi.

Adolatli qoidalar jamiyatda ishlay boshlagach, yana bir savol tug‘iladi: bu qadriyat va qoidalar faqat hozirgi avlod bilan cheklanib qolmasdan, qanchalik uzoq davr saqlanadi? Muhitning barqaror bo‘lishi uchun qadriyatlar bir avlod hayoti bilan tugamasligi, balki avloddan-avlodga uzluksiz o‘tib borishi kerak. YuNESKO Konvensiyasi aynan shu mantiqiy bog‘lanishni huquqiy tilda quyidagicha ta’riflaydi: «Nomoddiy madaniy meros — bu jamoalar, guruhlar va ayrim hollarda shaxslar o‘z madaniy merosining bir qismi sifatida tan olgan amaliyotlar, ifodalar, bilim va ko‘nikmalardir; aynan shu orqali ular o‘zlariga “o‘zlik” va “uzluksizlik” hissini bag‘ishlaydilar».[3] Bu erda ta’kidlanayotgan “o‘zlik” va “uzluksizlik” hissi — ijtimoiy-ma’naviy muhitning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri. Agar inson “men kimman?”, “qaysi xalqning farzandi man?”, “biz nimaga ishonamiz va neni qadrlaymiz?” degan savollarga musbat va aniq javob topa olsa, jamiyatda ma’naviy barqarorlik, ichki butunlik va ruhiy osoyishtalik kuchayadi.

Til, urf-odat, mehmondo‘stlik, qo‘shnichilik, hunarmandchilik, marosim va bayramlar kabi “tirik odatlar” doimiy ravishda asrab-avaylansa, farzandlarga o‘rgatib borilsa, jamiyatning “ruhi” uzilmaydi. Shu tarzda ijtimoiy-ma’naviy muhit har bir yangi avlod uchun ham tanish, ishonchli va ma’noli bo‘lib qoladi — qadriyatlar esa jonli meros sifatida yashashda davom etadi.

Avloddan-avlodga o‘tayotgan qadriyat va meroslar nazariy tushuncha bo‘lib qolmasdan, albatta, har kuni muayyan joyda va muayyan sharoitda “ishlashi” kerak. Ana shu erda qadriyatlar bilan, hozirgi dunyoda ko‘plab jamiyatlar tayanadigan asosiy siyosiy-ijtimoiy tuzum — demokratiya

o'rtasidagi bog'lanish namoyon bo'ladi. Jon Dyui nazaricha, demokratiyaning o'zi ham qadriyatlarga asoslangan birga yashash tarzi hisoblanadi. U shunday yozadi: «**Demokratiya faqat boshqaruv shakli emas; u, avvalo, birga yashash va birgalikda tajriba almashish tarzi hisoblanadi**»[4] Bu erda “birga yashash” deganda, aslida, qadriyatlar amalda namoyon bo'ladigan hayotiy maydonlar nazarda tutiladi. Dyui fikridan kelib chiqsak, ijtimoiy-ma'naviy muhit qog'ozdagi qonunlar yoki shiorlarda emas, balki odamlarning kundalik birgalikda yashash tajribasida — qadriyatlar ishlayotgan holatlarda shakllanadi. Ya'ni qadriyatlar quyidagi sohalarda jonlanadi:

Mahallada — qo'shnichilik, bir-biriga qarashish, muammolarda elkadosh bo'lish, bayram va motamni birga o'tkazish, keksaga hurmat, kichikka mehr kabi odatlarda;

Maktabda — o'qituvchi, ota-ona va o'quvchi o'rtasidagi ishonchli, ochiq va hurmatli munosabatlarda; bolaga faqat dars emas, balki odob, hamkorlik va hurmat muhitida tarbiya berilishida;

Ishxonada — adolatli rahbarlik, shaffof qarorlar, ochiq muloqot, mehnatga yarasha munosib baholash va bir-birini qo'llab-quvvatlash madaniyatida.

Ko'rinadiki, bu maydonlarning barchasida markazda aynan **qadriyatlar** turadi: adolat, hurmat, ishonch, hamkorlik. Agar odamlar birgalikda yashash jarayonida bir-birini eshitsa, hurmat qilsa, fikrlar adolatli muhokama qilinsa, kelishmovchiliklar haqgo'ylik va insof bilan hal etilsa, tabiiy ravishda jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit ham iliq, ishonchli va sog'lom tus oladi. Demak, qadriyat, adolat va meros haqidagi barcha nazariy qoidalar o'z qiymatini aynan shu qadriyatlarga tayangan birga yashash tajribasida, ya'ni Dyui ta'kidlagan ma'nodagi “demokratik” ijtimoiy muhitda namoyon qiladi.

Dyui ta'kidlagan qadriyatlarga tayangan “birga yashash tarzi” demokratik ijtimoiy muhitning umumiy manzarasini beradi. Lekin bunday muhit faqat g'oya sifatida emas, **amalda qanday ishlaydi**, degan savol ham muhim. Endi shu hamkorlikning amaliy mexanizmini ko'rib chiqamiz. Buni Robert Putnam “ijtimoiy kapital” tushunchasi orqali izohlaydi. U

shunday ta'rif beradi: «**Ijtimoiy kapital — bu tarmoqlar, me'yorlar va ijtimoiy ishonchdan iborat bo'lib, ular o'zaro manfaat uchun birgalikda harakat va hamkorlik qilishni engillashtiradi**»[5] Ya'ni hamkorlik qilib yashash uchun faqat shiorlar emas, balki uchta amaliyoti ustun kerak:

tarmoqlar — qo'shni, qarindosh, hamkasb, mahalla va fuqarolik uyushmalari kabi aloqalar tizimi;

me'yorlar — odob, navbatga rioya, kattani hurmat qilish, so'zda turish, va'daga vafo kabi umumiy qoidalar;

ijtimoiy ishonch — “menga ham xiyonat qilishmaydi, qoida menga ham teng ishlaydi” degan ichki ishonch.

Agar shu uch omil — tarmoq, me'yor va ishonch — kuchli bo'lsa, ijtimoiy-ma'naviy muhit shunchalik iliq, ochiq va hamkorlikka moyil bo'ladi: odamlar oson kelishadi, yordam so'rashdan ham, yordam berishdan ham qochmaydi, “men yolg'iz emasman” degan hissi mustahkamlanadi.

Agar aksincha, ishonch past, aloqalar tarmog'i zaif, me'yorlar esa yo'l-yo'rg'ada buzib yurilsa, muhitda gumon, qo'rquv, befarqlik kuchayadi; jamiyat “sovuq, bir-biriga ishonmaydigan, tarqoq” holatga kelib qoladi. Shunday qilib, **ijtimoiy kapital — milliy va umuminsoniy qadriyatlarni jamoaviy hayotga ulab turadigan “ishchi mexanizm”** bo'lib, aynan shu orqali ijtimoiy-ma'naviy muhit yo sog'lom va ishonchli ruh bilan, yoki aksincha, jabrdiyda va ishonchsiz kayfiyat bilan to'lib boradi.

Ijtimoiy kapital — tarmoq, me'yor va ishonch orqali qadriyatlarni hayotga ulab turuvchi mexanizm ekan, endilikda savol tug'iladi: bu tizimning o'zi qanday qilib barqaror va sog'lom holatda qoladi? Bu jarayon barqaror va sog'lom bo'lishi uchun yana bir muhim sharoit — so'z bilan ishning mosligidir. Bu fikrni Konfutsiy juda aniq ifoda qiladi: «Agar nomlar to'g'ri bo'lmasa, til narsalarning haqiqiy mohiyatiga mos kelmaydi»[6] Ya'ni atamalar, lavozimlar va mas'uliyatlar to'g'ri va aniq nomlanmasa, til voqelikni to'g'ri aks ettirmaydi; til haqiqatni to'g'ri aks ettirmasa, amaldagi ishlar ham to'g'ri yo'lga qo'yilmaydi. Ijtimoiy-ma'naviy muhit nuqtai nazaridan qarasak, agar qonun va nutqda “odillik”, “qonun ustuvorligi”, “o'quvchi manfaati”, “fuqaro manfaati” degan so'zlar

ko‘p ishlatilib, amalda esa bunga zid harakat qilinsa, muhitda ikkiyuzlamachilik, ishonchsizlik va sinizm kuchayadi.

Aksincha, qoidalar oddiy va tushunarli tilda yozilib, har bir vazifa va javobgarlik aniq belgilab qo‘yilsa va eng muhimi, amalda ham shu qoidalarga rioya qilinsa, so‘z bilan ish o‘zaro mos keladi. Bu esa ijtimoiy-ma’naviy muhitda ochiqlik, halollik va ishonch kayfiyatini kuchaytiradi, ijtimoiy kapitalni mustahkamlaydi, qadriyatlarning haqiqiy “ishlash”iga sharoit yaratadi.

So‘z bilan ishning mosligi qadriyatlar “rostdan ham ishlayapti”mi yoki yo‘qmi, degan savolga javob bersa, endi navbat shu qadriyatlarni avlod ongiga qanday joylashtirish masalasiga keladi. Qadriyatlarni hayotga kiritish va mustahkamlashning eng ishonchli infratuzilmasi — **ta’lim tizimi**dir. Jon Dyui ta’limning ahamiyatini aynan qadriyat nuqtai nazaridan quyidagicha izohlaydi: «**Ta’lim — bu hayotning o‘zi, kelajakdagi hayot uchun quruq tayyorgarlik emas**»[7] Bu fikrdan kelib chiqsak, maktabdagi tarbiya faqat test va imtihonga tayyorlash emas, balki **hayotning o‘ziga** tayyorlashdir. Hayot esa mehnat, muloqot va jamoa ichida yashashdan iborat. Demak, ta’lim jarayonida shunday xulqlar har kuni mashq qilinmog‘i kerak: navbatga rioya qilish; rost gapirish; bir-birini tinglash; bahsda ham hurmatni saqlash; o‘z haqini talab qilish bilan birga, boshqalar haqqiga ham hurmat bilan qarash.

Agar shu odatlar maktabda shakllansa, oila va mahallada davom etsa, axloqiy normalar tabiiy ravishda jamoa doirasiga kengayadi. Keyin, vaqtincha emas, balki butun umr davom etadigan **kasbiy hayot**ga o‘tamiz: ishxona, muassasa, tashkilot va davlat xizmatlarida aynan shu odatlar “kasbiy madaniyat” sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, vaqtga rioya qilish, mas’uliyat bilan ishlash, odamlarga hurmat bilan murojaat qilish, korrupsiyaga qarshi ichki immunitet — bularning barchasi bolalikdagi oddiy “tarbiya”dan boshlanadi.

Shuning uchun ta’lim tizimi eng ishonchli vosita hisoblanadi: u qadriyatlarni bolalikdan o‘rgatib, keyin kattalarning kundalik xulqiga aylantiradi va oxir-oqibat butun jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitga singdiradi.

Ta'lim qadriyatlarni bola ongiga singdirib, ularni kundalik odatga aylantirsa, keyingi bosqich — kasbiy maydondir. Aynan shu erda qadriyatlar “g‘oya” yoki “shior” emas, balki **amal** sifatida ishlay boshlaydi. Alasder Makintayr “amal” tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi: **«Men “amal” deganda jamiyatda shakllangan, birgalikda bajariladigan va tuzilishiga ko‘ra murakkab bo‘lgan insoniy faoliyat turini nazarda tutaman; ana shu faoliyat doirasida unga xos bo‘lgan ichki yaxshiliklar — masalan, mas’uliyat, e’tibor, halollik, mehr — doimiy ravishda ro‘yobga chiqadi»**[8] Bu ta’rifdan ko‘rinadiki, kasb — faqat “ish joyi” emas, balki **qadriyatlar har kuni sinab ko‘riladigan makondir**. Masalan: shifokorning bemorga faqat “kasal” sifatida emas, balki **inson** sifatida mehribon va mas’uliyatli munosabati; o‘qituvchining har bir o‘quvchiga insof va e’tibor bilan yondashishi; huquqshunosning shaxsiy manfaatdan ustun qilib qonun va vijdonni qo‘yishi — bularning barchasi faqat ayrim odamning shaxsiy fazilati emas, balki butun kasbiy muhitning **ma’naviy yuzi va kayfiyatini** belgilaydi.

Ushbu “ichki yaxshiliklar” — mas’uliyat, e’tibor, halollik, mehr — qanchalik ko‘p mashq qilinsa, xizmat sifati shunchalik oshadi, odamlarda adolat va ishonch hissi kuchayadi. Ishxonadagi iqlim esa iliq, qo‘llab-quvvatlovchi va barqaror tus oladi. Boshqacha aytganda, qadriyatlar kasbiy maydonda amal sifatida ishlaganda, **ijtimoiy-ma’naviy muhit kasbiy darajada ham sog‘lomlashadi**, va bu yaxshilik keng jamiyat muhitiga ham qayta ta’sir ko‘rsatadi.

Qisqasi, aytganda, jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit shakllanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri milliy qadriyatlarga tayanadi. Qadriyatlar avvalo insonning o‘zida odatga aylanadi: Aristotel ta’kidlaganidek, yaxshilikni ko‘p takrorlasak, u fazilatga aylanadi. Shaxsdagi bu fazilatlar jamoa hayotiga chiqqach, Rolz aytganidek, adolat mezoniga asoslangan qonun va qoidalarga aylansa, odamlar o‘zini teng va himoyalangan deb his qiladi, ishonch ortadi. YuNESKO ta’rifiga ko‘ra, til, urf-odat, marosim, mehmondo‘stlik kabi nomoddiy meroslar avloddan-avlodga uzluksiz o‘tib borsa, inson “o‘zlik” va “uzluksizlik” hissini saqlaydi; bu esa ma’naviy barqarorlikning o‘zi demakdir.

Dyui ko'rsatganidek, jamiyat faqat rasmiy boshqaruv shakli emas, balki birga yashash va birgalikda tajriba almashish tarziga tayanadi. Shu birga yashash jarayonida Putnam ta'riflagan ijtimoiy kapital — tarmoqlar, me'yorlar va ishonch — qanchalik kuchli bo'lsa, muhit shunchalik iliq, ochiq va hamkorlikka moyil bo'ladi. Konfutsiy eslatganidek, so'z bilan ish mos kelmasa, "odillik", "qonun ustuvorligi" kabi shiorlar ishonchsizlikka aylanib ketadi; aksincha, qoidalar aniq va oddiy bo'lib, amalda ham bajarilsa, muhitda ochiqlik va halollik ruhi kuchayadi.

Bu zanjirning eng ishonchli amaliy maydoni — ta'lim va kasbiy faoliyatdir. Ta'lim bolaga hayotning o'zi uchun kerak bo'lgan odatlarni o'rgatadi; bu odatlar oila, mahalla va ishxonada davom etsa, Makintayr ta'kidlagan "ichki yaxshiliklar" — mas'uliyat, e'tibor, halollik, mehr — kasbiy va jamoaviy me'yorga aylanadi. Shu holatda milliy qadriyatlar shunchaki gap emas, balki har kuni amal qiladigan odat va qoida sifatida yashaydi; natijada jamiyatda ishonch, adolat, hurmat va hamjihatlik barqaror o'sib boradi. Ana shu jarayon — milliy qadriyatlarning jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit shakllanishidagi eng asosiy va uzviy ta'siridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аристотел. *Никомахова этика* / тарж. Э. Л. Радлова. — Москва; Берлин: Директ-Медиа, 2020. Кн. II, §1, с. 24.

2. Rawls J. *A Theory of Justice*. Revised Edition. — Cambridge (Mass.): The Belknap Press of Harvard University Press, 1999. — B. 3.

3. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. — Paris, 2003. — Art. 2. URL: <https://ich.unesco.org/en/convention>

4. Dewey J. *Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education*. — New York: Macmillan, 1916, P. 90).

5. Putnam R. D. Bowling Alone: America's Declining Social Capital // *Journal of Democracy*. — 1995. — Vol. 6, No. 1. — P. 65–78.

6. Confucius. The Chinese Classics: Vol. 1. Confucian Analects, The Great Learning, and The Doctrine of the Mean / transl. by James Legge. — Hong Kong : Legge; London : Trübner, 1861. — 512 p.

7. Dewey J. My Pedagogic Creed // The School Journal. — 1897. — Vol. 54, No. 3. — P. 78

8. MacIntyre A. After Virtue: A Study in Moral Theory. — 2nd ed. — Notre Dame (Ind.) : University of Notre Dame Press, 1984. — P. 187.

IBRATNING MA'NAVIY YUKSALISHGA OID QARASHLARI- JADIDCHILIK VA MODERNIZATSIYA

Abdullaxo'jayev Adxamxo'ja Isaxo'ja o'g'li

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Turkiston uyg'onishiga turki bera olgan tarixiy olim, islomshunos, adab va til ilmlari sohibi, sayohatlarda har tomonlama taraqqiy va rivoj xususida etarlicha tajribalar yig'ib ularni hammasi avlodlar uchun bir dasturul amal qilgan faylasuf, mutasavvif, tilshunos, geograf -Is'hoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibratning o'z davrida ilgari surgan yuksak insonparvarlik g'oyalari, qoldirgan boy tarixiy-ilmiy yodgorliklari, xotiralari va o'zi bosh bo'lib ochgan kutubxonasi, yangi usul maktabi-Turkiston milliy taraqqiyotining asosi ekanligini boshqa hurfikrlar singari to'liq anglab etgan va asos solgan jadid maktabi, milliy ong va milliy taraqqiyot har zamon shaxsiy manfaat va xohishlardan ustun bo'lishi lozimligi mutaraqqiy etgan jamiyatlar bilan bellashmoqlik uchun esa til va madaniyatdan boxabar bo'lmoqlik lozimligi va uni adab va ilm ila yorituvchi bir yo'l esa milliy va mustaqil matbuot ekanligi, yillab madrsada ilm va ziyodan uzoq mutaassib olimlarni tortishuv va nizolaridan boshqa hech narsani o'rganmagan yosh avlodga Qrim ma'rifatparvarlari ijodiyotidan ruhlangan holda nashriyot(bosmaxona) tashkil etib adabiyotlar chiqarganligi tahsinga sazovor bo'lgan ishlardan hisobladi.Ibrat ijodiga oid maqolalar, risolalar paydo bo'lguniga qadar u haqda XX — asrning dastlabki o'ttiz yilligiga oid o'zi tomonidan qoldirilgan tarixiy-ilmiy,

lingvistik, pedagogik, she'riy asarlari, vaqtli matbuotda e'lon qilgan maqolalari, uning qalamiga mansub qo'lyozma holida saqlanib qolgan, hamda zamondoshlari, qarindoshlari tomonidan yozib qoldirilgan manbalar dastlabki manbalar hisoblanadi[1,23]. Bizgacha etib kelgan, muarrix tomonidan 1916 — yilda yozilgan “Tarixi Farg‘ona”[2,12] asari uning hayoti va faoliyatining dastlabki davrlari haqida mukammal ma'lumot beruvchi tarixiy manbadir. Asarning “Muqaddima” qismida u Turkiston iqlimiga qarashli Farg‘ona vodiysi Qo‘qon xonligi qasabodlaridan biri To‘ra qo‘rg‘onda tug‘ilganligini yozib qoldirgan. Bu ma'lumotlar uning 1905 — yil “Turkiston viloyatining gaziti”da e'lon qilingan “Tarixi hammom”[4,21] she'rida, “Ilmi Ibrat” nomli 1909 — yilda yozgan she'riy to‘plamida[5,15] berilgan. Ibratning tug‘ilgan joyi va tavallud yili haqidagi ma'lumotlar keyinchalik davriy manbalarda tilga olingan[6,102].

Zamondoshlaridan biri P.D.Qayumovning 1960 — yilga qadar yozilgan, 1998 — yilda chop etilgan “Tazkirayi Qayumiy” asarida Ibrat tug‘ilgan 1862 — yil sanasi 1876 – yil[7,120] deb, yanglish ko‘rsatilgan. Shunga qaramay, Ibratni Farg‘onalik olimlar qatorida tazkiraga kiritilganligini e'tiborga loyiq. “Ilmi Ibrat” she'riy to‘plamida berilishicha, olimning asli ismi Is'hoqxon, otasining ismi Junaydullohxo‘ja, Ibrat esa uning taxallusidir[8,15]. P.D.Qayumov ma'lumotiga ko‘ra, Ibrat to‘ralar avlodidan bo‘lib, “Umarxon davrida bo‘lmish mashhur shoir Afsusning nabirasidir”[9,120]. Tazkiraning Vasfiyga bag‘ishlangan qismida Buxorolik Vasfiy emasligi P.D.Qayumov tomonidan aniqlangan uning Is'hoqxonga qarindosh bo‘lganligi, Ibratning Vasfiy haqidagi marsiyasi borligi ta'kidlangan. Bu marsiya bugungi kunda O‘zR FF ShI qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Manbalarda ko‘rsatilishicha, Ibrat shajara jihatidan Ahmad Yassaviy avlodlaridan hisoblanadi. Bunga uning avlodlari qo‘lida saqlanib qolgan “Nasabnoma” dalil bo‘la oladi[10,30]. Unda keltirilishicha: “Junaydullohxo‘ja shubhasiz vorisdir, taqvodor Said Olim Sultonxo‘ja Ahmad Yassaviyning avlodlaridandir”[11,10]– deb yozilgan.

Avlodlari qo‘lida saqlanib qolgan yodgorlikda Ahmad Yassaviydan to Ibratga qadar shajaralar ro‘yxati nomma-nom keltirilgan hamda o‘z davrining qozilari tomonidan uchta muhr bosib isbotlangan[13,2].

Nasabnomaning bir qismi “Guvohnoma” deb nomlangan ikkinchi hujjatda Ibratning ota-bobolari A.Yassaviy avlodlaridan ekanligi, ularning xalq orasidagi e’tiborlari haqida ma’lumot berilgan, bu so‘zlarga dalil sifatida qozilar tomonidan 40 dan ortiq muhr bosilgan[14,2].

Ibratning faoliyatini o‘rganish davomida uning oilasi, ota-onasi hamda u voyaga etgan muhitni tadqiq qilish ahamiyatlidir. Ota-onasi haqidagi ma’lumotlar uning “Mezon ul-zamon”[15,1-4], “Jome ul xutut”[16,125] asarlarida, tarix-marsiyalarda[17,125] uchraydi. Bu manbalar uning ota-onasigagina tegishli bo‘lmay, Ibrat hayotining ayrim jihatlarini ochib berishda muhim o‘rin tutadi. Jumladan, uning “Mezon ul-zamon”, “Jome ul xutut” asarida keltirilgan ma’lumotlar bevosita Ibratning yoshlik yillariga oid faktlarni bersa[18,36-37] tarix marsiyalari ota-onasining vafotiga oid bo‘lib, Ibratning shu davrdagi kechinmalari bilan bog‘liqdir. Bu haqida P.D.Qayumovning tazkirasida Ibratni “...nomi Is’hoqxon bo‘lib, Junaydullohxo‘ja to‘raning o‘g‘lidir”[19,20] – deb ko‘rsatilgan.

Manbalarda keltirilishicha, 1871-yilda Is’hoqxon otasi Junaydullohxo‘ja Sunnatullohxo‘ja o‘g‘li vafotidan so‘ng dastlabki ma’lumotni onasi Huribibidan olgan[20,120]. Bu haqdagi “Mezon ul-zamon”[21,120] asarida Ibrat tomonidan keltirilgan faktlar o‘sha davrdagi Huribibi kabi ilmli otinbibilar maktablarining saviya jihatidan maktabdor domlalar maktablaridan yuqori darajada bo‘lganligini ko‘rsatgan[22,5]. Huribibi ona hayoti bilan bog‘liq manbalar jumlasiga Ibrat tomonidan onasining vafotiga bag‘ishlab yozilgan marsiyasini kiritish mumkin[23,5]. Marsiyaning xarakterli jihati shundaki, Ibrat abjad hisobi[24,48] bilan onasining vafot yilini tarix qilib qoldirgan[25,23]. Unga ko‘ra, “Huri g‘ilmon, dedi” misrasi tarixiy sana bo‘lib, unda olim onasining vafot etgan yili 1891 — yil ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bu manba 1994 — yilda U.Dolimovning Is’hoqxon Ibrat nomli risolasida berilgan bo‘lib, unda muallif abjad hisobidan foydalanib 1309 — hijriy, 1981 — milodiy yiliga aylantirgan[26,12]. Manba faqat uning onasi vafot etgan yilini aniqlab beruvchi bo‘lib qolmay, Ibratning xorijiy Sharqqa sayohatini davom ettirishga turtki bo‘lgan benihoya kata vosita sanaladi. Shuningdek, Ibratning nabirasi J.Nizomova bilan olib borilgan suhbatda

berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Ibrat onasi vafotidan so'ng 6 oy mobaynida Jidda shahrida qolib ketgan va shundan so'ng Sharq mamlakatlariga sayohatini davom ettirishga qaror qilgan[27,12]. Is'hoqxon tomonidan yozilgan, hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beradigan yana bir manba, uning "Jome ul xutut"[28,12] ya'ni "Xatlar majmui" risolasidir. Unda olimning maktab yoshida me'morlikka ixlosi baland bo'lganligi, naqshning turli yo'llarini o'rganish uchun uzoq vaqt mobaynida umrini sarflaganligi, buning natijasida u olami islom yozuvlarini, ya'ni finkiya, Suriya, yunon, ingliz xatlarini Hindistonning Bombay shahrida o'rganganligi kabi ma'lumot berilgan[29,12].

Binobarin, asarda Is'hoqxonning yozuvlarga bo'lgan qiziqishi yoshlikdan borligi hamda bu mehr bora-bora iste'dodga aylanib, uning "Yozuvlar tarixi" risolasining yozilishiga olib kelganligini, bu esa uni xattotgina emas, naqqosh sifatida ham shuhrat topishida o'z ta'sirini ko'rsatganligini ko'ramiz mumkin bo'ladi[30,12].

Ibratning yoshlik yillari haqidagi keyingi ma'lumotlar U. Dolimov ishida[31,12] hamda olimning "Is'hoqxon Ibrat"[32,12] nomli risolasida keltirilgan. Ishdagi mulohazalar masalaga yondoshishning kommunistik mafkura hukmronlik qilgan sovet tuzumidagi biryoqlama qarashlardan xoli emasligini ko'rsatsa-da, asarlar Ibrat haqida ma'lumot beruvchi yirik manba sifatida ulkan ahamiyatiga ega.

Ma'lumki, madrasalarda ta'lim olgan olimlar qadimdan fanning bir necha sohasida ish yuritganlar, XIX — asrning so'nggi choragida Qo'qonda yashab ijod etgan ilm ahllari ham masjid va madrasalarda tahsil olganlar. Ibrat ham o'z navbatida onasi Huribibi maktabida mukammal savodga ega bo'lgach, o'qishini davom ettirish maqsadida Qo'qonning Siddiq Tunqator madrasasida o'qigan. Bu haqida Po'latjon Domullo Qayumov "Tazkirayi Qayumiy" asarida Is'hoqxon Qo'qon madrasalaridan birida tahsil olgan[33,23] ligini aniq dalillar bilan keltirgan. Keyinchalik davriy manbalarda ham aynan shu fikr qisman o'zgartirishlar bilan berilgan[34,24]. To'liqroq ma'lumot esa U.Dolimov va Z.Qobulovlar hamkorlikda e'lon qilgan "Erk va ma'rifat kuychilari" hamda U.Dolimovning "Is'hoqxon Ibrat" nomli risolasida keltirilgan. Is'hoqxon

o'z ustida ko'p ishlagan, madrasada berilgan saboqlarni, sharq klassiklari asarlarini qunt bilan o'rgangan[35,89]. Mahalliy manbalardan biri bo'lgan "Turkiston viloyatining gaziti" sahifalaridan o'rin olgan Furqatning "Sarguzashtnoma"[36,34] maqolasida keltirilishicha, Ibrat madrasada tahsil olgan vaqtlarda, ya'ni XIX asr 80 yillarida O'rta Osiyoning boshqa shaharlariga nisbatan Qo'qonda ijtimoiy hayot va madaniyat birmuncha taraqqiy etgan.

Ya.Gaffarov boshchiligidagi BARS-51 guruhi tomonidan to'plangan materiallarda ko'rsatilishicha, Ibratni bilgan, Qo'qon va Namanganda uyushtirilgan ko'p ilmiy yig'inlarda u bilan bo'lgan shogirdlaridan biri Iskandar domla Abduvahob o'g'li olimning Qo'qondagi Siddiq Tunqator madrasasida o'qib yurgandayoq Muqumiy, Furqat, Nodim, Haziniylar bilan yaqindan aloqada bo'lganligini e'tirof etgan[37,12]. Mulla Yo'ldosh To'robboy o'g'li Xilvatiy, Is'hoqxon Junnaydulloho'ja o'g'li Ibrat, mulla Shamsiy Shavqiy Namongoniy[38,12], Muhammad Sharif So'fizoda kabi qalamkashlar va Nizomxon[39,13], Abdulla Taroq kabi sozanda va xonandalar ko'pincha Nodim uyida to'planganlar. Bunda Samarqandlik Xo'ja Abdulaziz Rasul o'g'li, Toshkandlik Mulla Toshmuhammad o'g'li Shobarot, xo'jandlik Sodirxon va boshqa mashhur hofiz va bastakorlar ham qatnashganlar[40,26]. Bundan ma'lum bo'ladiki, Ibrat madrasa talabasi bo'lib yurgan davridayoq bu ilmiy yig'in ishtirokchilari bilan muntazam aloqada bo'lgan, ularning Ibrat dunyoqarashining shakllanishidagi ta'siri uning keyingi ijodiy faoliyatida aniq ko'ringan. Bunday ilmiy muhit Ibrat hayotida maktab bo'lib, ilm-fanga, yangilikka va taraqqiyotga bo'lgan qiziqishning yanada ortib borishida muhim rol o'ynagan. Ibrat zamondoshlari, qarindosh-urug'lari, avlodlari bilan suhbat asosida yig'ilgan manbalarda hamda o'g'li R.Is'hoqov [41,56] bergan ma'lumotga ko'ra, u jadid maktabini Siddiq tunqator madrasasini tugatib qaytgach, xorijga ketguniga qadar ochgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, Ibratning 1886 — yilda Siddiq Tunqator madrasasini tugatganligini hamda 1887 — yilda xorijga safarga borganligini e'tiborga olsak, shu vaqt oralig'ida jadid maktabi ochgan[42,56]. Ibrat 1878 — 1886 yillari, madrasada talabalik vaqtlarida Bog'chasaroyda nashr etiladigan "Tarjumon" gaziti bilan

muntazam tanishib borgan. Bu nashrlar orqali yangi usul maktabining afzalliklari, ta'lim usullari, darsxonalarning tuzilishi va darsliklari haqida ma'lumotga ega bo'lgan va madrasani tamomlagach, To'raqo'rg'onga qaytib, 1886 — yilda jadid maktabi ochgan.

Ibratning jadid maktabi ham chor amaldorlari tomonidan tazyiqqa uchragan va yoptirib tashlangan[43,120]. Bu maktab Turkiston jadidlarining I. Gaspirali g'oyalarini amalga oshirishdagi dastlabki urinishlaridan bo'lgan. Keyinroq esa, 1900 — yilda Andijon shahrida jadid maktabi ochgan tatar ma'rifatparvari Shoazim Qodirov 1909 — yilda Qo'qonda 12 ta, To'raqo'rg'onda 1 ta, Namanganda 2 ta, Andijonda 5 ta jadid maktabi ochgan[44,120]. Ibratning yangi usul maktabi uning ma'rifatparvarlik faoliyatida alohida bosqich bo'lib, Farg'ona vodiysi jadidlarining ma'rifatparvarlik harakatini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etgan.

Bundan tashqari, Ibrat tomonidan yozilgan maqolalar “Sadoyi, Turkiston”, “Sadoyi Farg'ona”, “Turkiston viloyatining gaziti” sahifalarida chop etilgan[45,34]. Uning qalamiga mansub maqolalarning aksariyati “Turkiston viloyatining gaziti” ro'znomasida chop etilgan. U.Dolimov Ibratning 45 dan ortiq maqolasidan 35 tasi “Turkiston viloyatining gaziti” sahifalarida bosilganligini ta'kidlagan[46,47]. Biroq bugunga qadar Ibratning mamlakatimiz kutubxonalarida “Turkiston viloyatining gaziti”, “Sadoyi Farg'ona” ro'znomalari va “Al-Isloh” jurnalida 21 ta maqolasi saqlanib qolgan. O'z ilmiy va ijodiy faoliyati bilan yangi zamon ruhiga mos yoshlarni etishtirish lozimligini teran anglagan millat oydinlaridan biri Ibrat chinakam ibrat-namuna ramzi sifatida milliy ta'lim tizimida atroflicha yoritilishi kerak. Uning tarbiya, adabiyot, texnika, pedagogika singari sohalarda ilgari surgan g'oyalar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi Uchinchi Renessansning poydevori ilm-ma'rifat, izlanish va zamona bilimlari bilan hamnafas bo'lish, millat erki va taqdiri yosh avlodni egallangani intellektual salohiyatiga uzviy bog'liq ekanligini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrat I. Turli marsiya va fikriyot masalalariga oid jamlangan turkum qo‘lyozmalar. Bu qo‘lyozmalar shaxsiy kutubxonalarda, Ibrat avlodlari qo‘llarida saqlanadi.

2. Ibrat I. “Tarixi Farg‘ona” O‘zR FA ShI. Q. inv. 11616. -B.1.

3. O‘sha joyda. -B.1.

4. Ibrat I. Tarixi hammom//Turkiston viloyatining gaziti. -1905. 10iyul.

5. Ibrat I. Ilmi Ibrat. Matbaai Is’hoqiya. To‘raqo‘rg‘on. 1909. O‘zR FA ShI. T. inv. № -9987.-B.15.

6. Ibrohimov M. Hosil uchun. To‘raqo‘rg‘on. 8 dek.; Usmon O. Zulmat ichra nur//

Sharq yulduzi. -1961. -№ 1-2. -B.102.

7. Qayumov P.D. Tazkirayi Qayumiy. II qism. -T., 1998. -B.420.

8. Ibrat I. Ilmi Ibrat. To‘raqo‘rg‘on. Matbaayi Is’hoqiya. 1909. O‘zR FA ShI. T. inv. № 9987. -B.15.

9. Qayumov P.D. Tazkirayi Qayumiy. II qism. -B.420.

10. Ibrat I. Turli marsiya, iborat va fikriyot masalalari. O‘zR FA ShI. Q. inv. №-11620.

11. Nasabnoma (arab tilida). Asl nusxasi Ibratning avlodlari qo‘lida, ko‘chirma nusxasi qo‘limizda saqlanadi.

12. O‘sha joyda. -B.2.

13. O‘sha joyda.

14. Guvohnoma. Ibrat avlodlari qo‘lida saqlanadi. -B.1-4.

15. Ibrat I. Mezon ul-zamon. O‘zR FA SHI. Q. № 11618.

16. Ibrat I. Jome ul hutut. O‘zR FA SHI. Q. № -621.

17. Ibrat I. Turli marsiya va fikriyot masalalari. Bu marsiyalar Ibratning qarindosh urug‘lari qo‘llarida, ayrim shaxslar qo‘llarida saqlanadi.

18. Ibrat I. Mezon ul zamon... -B. 36-37; Jome ul xutut... -B.4.

19. Qayumov P.D. Tkirayi Qayumiy. II qism. -B.420.

20. Qarang. Ibrohimov M. To‘raqo‘rg‘onlik matbaachi//Hosil uchun. - To‘raqo‘rg‘on. 1860. 8 dek;

21. Usmon O. Zulmat ichra nur//Sharq yulduzi. – 1961. № 1-2. -B.132.

22. O‘sha muallif. Is’hoqxon Ibrat. -T., 1994. -B.420.

23. Qayumov P.D. Tazkirayi Qayumiy. -T., 1998. -B.420.
24. Ibrohimov M. To'ra qo'rg'onlik matbaachi//Hosil uchun. To'ra qo'rg'on. 1960. 8 dek.; Usmon O. Zulmat ichra nur//Sharq yulduzi. - 1961. -1-2 son. B. 132.
25. Dolimov U. Jizn I tvorchestvo uzbekskogo poeta-prosvetitelya Ibrata. Avtoref. Diss. Kand. Fil. nauk. -T., 1971. C.26.
26. Furqat. Sarguzashtnoma//Turkiston viloyatining gaziti. 1891. №16.
27. BARS-51 ortyadi a'zolarining Iskandar Abduvahob o'g'li bilan olib borilgan suhbat qo'lyozmasi. To'ra qo'rg'on. O'smirlar saroyi. 1963.
28. Karimov G'. Shavqiy poeziyasining realistic kuchi//Sharq yulduzi. -1963. 2-son. -B. 143-149.
29. 1868-1937 yillarda Namanganning Shamsiko'l qishlog'ida yashagan, mashshoq va bastakor bo'lgan.
30. .Abdullaxo'jayev, A. J. (2024). Is'hoqxon to'ra ibrat faoliyatiga ijtimoiy-falsafiy nazar. *Interpretation and researches*.
31. Isaqova, Z., & Abdullaxo'jaev, A. (2023). Is'hoqxon to'ra ibrat-milliy tafakkur me'mori. *iqro indexing*, 1(1), 41-71.
32. O'sha muallif. Is'hoqxon Ibrat. -T., 1994. -B.420.
33. Qayumov P.D. Tazkirayi Qayumiy. -T., 1998. -B.420.
34. Ibrohimov M. To'ra qo'rg'onlik matbaachi//Hosil uchun. To'ra qo'rg'on. 1960. 8 dek.; Usmon O. Zulmat ichra nur//Sharq yulduzi. - 1961. -1-2 son. B. 132.
35. Dolimov U. Jizn I tvorchestvo uzbekskogo poeta-prosvetitelya Ibrata. Avtoref. Diss. Kand. Fil. nauk. -T., 1971. C.26.
36. Furqat. Sarguzashtnoma//Turkiston viloyatining gaziti. 1891. №16.
37. BARS-51 ortyadi a'zolarining Iskandar Abduvahob o'g'li bilan olib borilgan suhbat qo'lyozmasi. To'ra qo'rg'on. O'smirlar saroyi. 1963.
38. Karimov G'. Shavqiy poeziyasining realistic kuchi//Sharq yulduzi. -1963. 2-son. -B. 143-149.
39. 1868-1937 yillarda Namanganning Shamsiko'l qishlog'ida yashagan, mashshoq va bastakor bo'lgan.
40. Halilbekov A. Ko'rsatilgan asar. O'sha bet.
41. Rotifxon Is'hoqov. Ibratning o'g'li. 1995 yil 21 martda vafot etgan.

42. BARS-51 guruhi tomonidan to'plangan ma'lumotlardan. To'ra qo'rg'on. O'smirlar saroyi.

43. Dolimov U. Is'hoqxon Ibrat. ...-B.12.

44. O'zR MDA F-I-1. Ro'yxat. 31. 540-ish. V.179.

45. H.Bobobekov. Ibratning "Tarixi Farg'ona" asariga yozilgan so'zboshi. -T,: Kamalak. 1991. -B.268.

46. Dolimov U. Is'hoqxon Ibrat B.46.

MILLIY QADRIYATLARNING TARIXIY VA FALSAFIY ILDIZLARI

Sodiqova Malika Kzimjon qizi

TDIU Andijon fakulteti

Buxgalteriya yo'nalishi talabasi

Milliy qadriyatlar har bir xalqning ma'naviy hayotini, dunyoqarashini va ijtimoiy ongini belgilovchi muhim falsafiy tushunchadir. Ular xalqning tarixiy xotirasi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar, tili, san'ati va hayot tarzida o'z ifodasini topadi [1:1]. Qadriyatlar tizimi inson va jamiyat o'rtasidagi ruhiy, madaniy va axloqiy bog'liqlikni ifodalab, millatning o'zligini saqlab turuvchi ma'naviy tayanch sifatida namoyon bo'ladi. Inson hayotining mazmuni ham qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular orqali inson o'zining jamiyatdagi o'rnini anglaydi, atrofdagi voqelikni baholaydi hamda hayotiy maqsadlarini belgilaydi [1:2]. Shu sababli, milliy qadriyatlar nafaqat ma'naviyatning ifodasi, balki xalqning ma'naviy mustaqilligi, barqarorligi va birligi ramzidir. O'zbekiston hududida qadim zamonlardan buyon shakllangan sivilizatsiyalar — Sug'd, Baxtriya, Xorazm, Marg'iyona va Parfiya madaniyatlari milliy qadriyatlarning dastlabki manbalarini tashkil etadi [2:1]. U davrlarda tabiatga ehtirom, ota-bobolarga hurmat, mehnatsevarlik, adolat va ezgulik kabi qadriyatlar xalq tafakkurining ajralmas qismi bo'lgan [2:2]. Zardushtiylik davrida bu qadriyatlar falsafiy mazmunga ega bo'lib, "Asha" g'oyasi — ezgulik, poklik, adolat va haqiqatni inson hayotining eng oliy mezon sifatida targ'ib

etgan [3:1]. Keyinchalik islom dini kirib kelishi bilan qadriyatlar tizimi yangi mazmun bilan boyidi. Qur'oni karimda ilmga intilish, halollik, sabr, adolat va inson huquqlariga hurmat kabi fazilatlar eng oliy qadriyatlar sifatida e'tirof etilgan [3:2]. Shu tariqa, qadimiy e'tiqodlar va islomiy qadriyatlarning uyg'unlashuvi milliy tafakkurning asosini yaratdi, xalqimiz ma'naviyatining poydevoriga aylandi.

O'rta asr Sharq mutafakkirlari milliy qadriyatlarning falsafiy asosini yaratgan buyuk allomalar hisoblanadi. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil shahar" ta'limotida inson baxt-saodatga faqat axloqiy poklik va bilim orqali erishishini ta'kidlagan [4:1]. Unga ko'ra, adolatli jamiyat qadriyatlar tizimiga asoslangan bo'lishi lozim, chunki ma'naviy jihatdan barkamol shaxs jamiyatni barqarorlik sari olib boradi. Ibn Sino "Donishnoma" asarida inson ruhiy dunyosi, axloqiy mas'uliyati va ma'naviy kamolotini qadriyat sifatida izohlab, inson tafakkurining yuksakligini eng muhim fazilat sifatida ko'rsatgan [4:2]. Alisher Navoiy esa "Mahbub ul-qulub" asarida sadoqat, saxovat, halollik, sabr-toqat va insonparvarlikni milliy va umuminsoniy qadriyatlar sifatida ulug'lagan [5:1]. Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"ida esa insonni nafsni engishga, poklanishga va Allohga yaqinlashishga da'vat etuvchi ruhiy qadriyatlar tizimi ilgari surilgan [5:2]. Ushbu g'oyalar xalqimizning ma'naviy dunyosida asrlar davomida yashab, avloddan avlodga o'tib kelayotgan bebaho meros sifatida qadrlanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, qadriyatlar insonning mavjudlikdagi o'rni va mohiyatini belgilovchi tushunchadir [6:1]. Ular inson tafakkurining mahsuli bo'lib, axloq, din, san'at, siyosat va ijtimoiy ongning barcha shakllarida o'z ifodasini topadi. Qadriyatlarning falsafiy mohiyati shundaki, ular insonning maqsad sari yo'naltirilgan ongli faoliyatini, jamiyatdagi o'zaro munosabatlarni va axloqiy me'yorlarni tartibga soladi. Qadriyatlarning ijtimoiy funksiyasi esa insonni komillikka, jamiyatni uyg'unlikka chorlashdan iboratdir [6:2]. Shu bois, qadriyatlar faqat tarixiy an'ana emas, balki jamiyat taraqqiyotini belgilovchi, inson hayotiga ma'no bag'ishlovchi kuchdir. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng qadriyatlar tizimiga yangicha falsafiy yondashuv shakllandi. Endilikda qadriyatlar nafaqat o'tmish merosi, balki kelajak

taraqqiyoti, ma'naviy yuksalish va milliy g'urur timsoli sifatida baholanmoqda [7:1]. Mustaqillik davrida xalqimizning qadriyatlar tizimi yangicha mazmun bilan to'ldi: erkin fikrlash, inson huquqlarini hurmat qilish, Vatanga sadoqat, bag'rikenglik va millatlararo totuvlik kabi qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoniga aylandi. "Yangi O'zbekiston" g'oyasining falsafiy asosida ham milliy qadriyatlarni tiklash, ularni yoshlar ongiga singdirish va ularni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish g'oyasi mujassam [7:2].

Ma'naviyat va qadriyatlar bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalardir. Ma'naviyat qadriyatlarning ichki mohiyatini, ularning inson tafakkuridagi mazmunini belgilaydi [8:1]. Agar qadriyatlar inson hayotining tashqi ko'rinishi, amaliy ifodasi bo'lsa, ma'naviyat uning ichki ruhidir. Jamiyat ma'naviy jihatdan boy bo'lsa, uning qadriyatlar tizimi ham mustahkam bo'ladi. Aksincha, ma'naviy inqiroz davrida qadriyatlar zaiflashadi, natijada milliy o'zlik yo'qolish xavfi yuzaga keladi. Bugungi globallashtirish davrida ma'naviyatning zaiflashuvi, g'arb madaniyatining haddan tashqari ta'siri milliy qadriyatlar tizimiga jiddiy tahdid solmoqda [8:2]. Shu sababli, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yosh avlod tarbiyasiga chuqur singdirish masalasi belgilangan [9:1]. Globallashtirish jarayoni insoniyat taraqqiyotini tezlashtirayotgan bo'lsa-da, u bilan bir qatorda milliy o'zlikni saqlash masalasini yanada murakkablashtirmoqda [9:2]. Turli madaniyatlarning o'zaro aralashuvi, internet va ommaviy axborot vositalari ta'sirida yoshlarning tafakkurida g'arbona hayot tarziga intilish kuchaymoqda. Bu holat milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish, ularni zamonaviy talablarga mos shaklda rivojlantirish zaruratini tug'diradi [10:1]. Shu bois, O'zbekiston Respublikasida "Ma'naviyat va ma'rifat" siyosati hamda "Yangi O'zbekiston — yangi qadriyatlar makoni" g'oyasi orqali milliy qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashtirish, ularni globallashtirish sharoitida mustahkamlash choralari ko'rilmoqda [10:2]. Milliy qadriyatlar — o'tgan avlodlardan meros bo'lib, kelajak avlodlarga etkaziladigan ma'naviy ko'prikdir [11:1]. Ular xalqning tarixiy xotirasi, madaniy genetikasi va ijtimoiy birdamligining kafolati sifatida xizmat

qiladi. Shu bois, qadriyatlarni asrash, ularni yangilash, yoshlar ongida mustahkamlash har bir fuqaroning burchidir. Milliy qadriyatlar faqat o'tmishning yodgorligi emas, balki kelajakni barpo etuvchi kuch, millatning ruhiy ustuni, ma'naviy mustaqillikning asosi hisoblanadi [11:2]. Ularni asrash orqali biz milliy o'zligimizni himoya qilamiz, millat ravnaqini, ma'naviyat yuksalishini va insoniylik qadriyatlarini kelajak avlodlarga meros qilib qoldiramiz.

Milliy qadriyatlar — har bir xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, ijtimoiy ong va milliy tafakkurining mahsulidir. Ular asrlar davomida shakllanib, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, axloqiy me'yorlari, diniy e'tiqodlari va falsafiy dunyoqarashida o'z ifodasini topgan. Milliy qadriyatlarning falsafiy ildizlari esa inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, ezgulik va yovuzlik, haqiqat va adolat, vijdon va burch kabi universal tushunchalar bilan uzviy bog'liqdir. Tarixiy manbalarga murojaat qilinganda, O'rta Osiyo zaminida qadimdan shakllangan falsafiy maktablar — Zardushtiylik, qadimgi Turk dunyoqarashi, Islom falsafasi, tasavvuf ta'limotlari va Sharq mutafakkirlarining g'oyalari milliy qadriyatlar tizimining poydevorini yaratganini ko'rish mumkin. Masalan, **Zardusht "Avesto"** asarida insonni ezgulik yo'lida yashashga, yovuzlikka qarshi kurashishga da'vat etadi. Bu g'oyalar keyinchalik islomiy axloq, adolat, mehnatsevarlik va mehr-oqibat tamoyillari bilan uyg'unlashib, o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlariga singib ketgan.

Shuningdek, buyuk mutafakkirlar — **Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy** kabi allomalar asarlarida ham milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligining yuksak falsafiy ifodasi namoyon bo'lgan. Ular inson kamoloti, ma'naviy poklik, ilmga intilish, axloqiy barkamollik kabi tushunchalarni asosiy g'oya sifatida ilgari surganlar. Shu sababli, milliy qadriyatlar nafaqat tarixiy meros, balki falsafiy tafakkur va ijtimoiy ong taraqqiyotining ifodasidir. Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari sharoitida milliy qadriyatlarning ahamiyati yanada ortmoqda. Chunki axborot oqimlari va g'arbona madaniy standartlarning kuchayishi fonida milliy o'zlikni saqlash, tarixiy ildizlarga sodiq qolish va ma'naviy mustaqillikni ta'minlash dolzarb masalaga aylangan. Shuning uchun milliy

qadriyatlarni chuqur falsafiy tahlil qilish, ularni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirish zarur. Falsafiy yondashuv milliy qadriyatlarni nafaqat o'tmish merosi, balki bugungi ijtimoiy rivojlanishning ma'naviy omili sifatida tushunishga imkon beradi. Bu qadriyatlar insonni barkamollikka, jamiyatni esa uyg'unlik va taraqqiyot sari etaklaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy o'zligining ildizidir. Ular o'tgan avlodlarning hayot falsafasi, iymoni, e'tiqodi va orzu-umidlarini o'zida mujassam etadi. Milliy qadriyatlarning falsafiy mohiyati insonni komillikka, jamiyatni esa barqarorlik va adolat sari etaklovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. **Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch.** — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Jo'rayev M., Rahimov A. **O'zbekiston madaniyati tarixi.** — Toshkent: Universitet, 2017.
3. **Avesto.** — Tarjima va izohlar bilan. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2001.
4. Forobiy A.N. **Fozil shahar aholisining fikrlari.** — Toshkent: Fan, 1993.
5. Navoiy A. **Mahbub ul-qulub.** — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
6. Ibn Sino A. **Donishnoma.** — Toshkent: Fan, 1980.
7. Yassaviy A. **Hikmatlar.** — Toshkent: Movarounnahr, 2014.
8. G'afurov B. **Falsafa va ma'naviyat asoslari.** — Toshkent: O'zbekiston, 2019.
9. Mirziyoyev Sh.M. **Yangi O'zbekiston strategiyasi.** — Toshkent: O'zbekiston, 2022.
10. Rasulov A., Tursunov R. **Globalashuv va milliy o'zlik.** — Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
11. Ergashev M. **Ma'naviyat va qadriyatlar tizimi.** — Toshkent: Akademiya, 2021.

QORAQALPOQ MILLIY QADRIYATLARINING TARIXIY VA FALSAFIY ILDIZLARI

Qutlimuratov Baxitbay Xojabaevich

Nukus davlat texnika universiteti Katta o'qituvchi

Abdiev Jenisbay Genjebaevich

Nukus davlat texnika universiteti Assistent o'qituvchi

Har bir xalqning milliy qadriyatlari uning tarixiy taraqqiyoti, dunyoqarashi va ma'naviy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Qoraqalpoq xalqining qadriyatlari asrlar davomida shakllanib, xalqning ijtimoiy va madaniy hayotini belgilab kelgan. Ushbu qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, diniy e'tiqodi, urf-odatlar hamda hayot falsafasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ularni o'rganish nafaqat tarixiy jarayonlarni anglash, balki milliy o'zlikni saqlash va yosh avlodni ma'naviy barkamollikka etaklashda muhim ahamiyatga ega.

Ma'naviy boylik deganda qadim zamonlardan buyon ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy meroslar: siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, odob-axloq mezonlari, ilm-ma'rifat va tarixiy yutuqlar, badiiy san'at, adabiyot boyliklari, urf-odat, an'anaviy qadriyatlar nazarda tutiladi. Bu keyingi avlodlar uchun ijtimoiy tuzumning barcha bosqichlarida ehtiyotlab saqlanib, abadiy ozuqa sifatida meros bo'lib hisoblanadi. Ma'naviy boylikni tiklash milliy ongning o'sishiga, xalqning o'z qaynar bulog'iga ega bo'lishiga, uning tub ildiziga qaytishiga imkon beradi. [1:518]

Insoniyat jamiyatining hozirgi globallashuv sharoitida insonning o'z tomonlari bo'lgan madaniyat va axloq-odob me'yorlariga bo'lgan munosabati o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda haqiqiy umuminsoniy madaniyat va axloqiy qadriyatlar bilan birga soxta "psevdoqadriyatlar"da yashamoqda. Bugungi kunda madaniyatning axloqiy me'yorlarga munosabati o'zgarib bormoqda. Madaniyat va axloq haqidagi qarashlar falsafiy fikrlardan biri sifatida qaralib, madaniyat va axloqqa oid fikrlarning tug'ilishi va qayta o'zgarishi qadimgi davrda boshlanib, hech qachon to'xtamaydi. Insoniyat oldida turgan yangidan yangi muammolarni hal etishda bunday yondashuvlarning o'ziga xos jihatlarini bilishimiz g'oyat muhimdir.[2:38].

1. Tarixiy ildizlar. Qoraqalpoq milliy qadriyatlarining ildizlari qadimgi Orolbo‘yi madaniyatiga, turkiy xalqlarning umumiy ma’naviy merosiga borib taqaladi. Qadimiy ajdodlarimizning tabiatga, suv va erga bo‘lgan e’tiqodi, mehnatsevarlik va jamoaviylik an’analari xalq hayotining asosini tashkil etgan. Bu qadriyatlar xalqning yashash sharoiti, tabiat bilan uyg‘un munosabati orqali shakllangan.

XV–XVII asrlarda qoraqalpoqlar Movarounnahr va Xorazm madaniy doirasida shakllanib, islom dini qadriyatlari bilan uyg‘unlashgan. Qur’on, hadis va tasavvuf ta’limotlari xalqning axloqiy va ruhiy mezonlarini belgilab bergan. Shu davrda milliy qadriyatlar diniy-falsafiy g‘oyalari bilan boyib, xalqning dunyoqarashida sabr, kechirimlilik, halollik va mehr-oqibat tushunchalari mustahkam o‘rin egallagan.

2. Falsafiy mazmun. Qoraqalpoq qadriyatlarining falsafiy asosida inson, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik yotadi. Xalq og‘zaki ijodi – dostonlar, afsonalar, maqollar va qo‘shiqlarda insonning ezgulikka intilishi, mehnatni ulug‘lash, tabiat bilan hamjihat yashash g‘oyalari o‘z ifodasini topgan.

Masalan, “Qirq qiz”, “Qoblandi botir” kabi xalq eposlarida vatanparvarlik, sadoqat, jasorat va mehnatsevarlik g‘oyalari asosiy falsafiy mazmunni tashkil etadi. Qoraqalpoq xalq falsafasi insonni tabiatning bir qismi sifatida ko‘radi va uni yurt, oila, jamiyatga sadoqatli bo‘lishga undaydi.

Qoraqalpoq xalqining dostoni "Qirq qiz" bugungi kunda butun dunyo folklor tadqiqotchilari orasida mashhur. Dostonning o‘ziga xosligi — unda amazonkalar, qadimgi To‘maris davrining motivlari bilan XVIII asr voqealari chigallashib, bog‘lanib ketgan. Dostondagi xalqning bosqinchi dushmanga qarshi turish g‘oyasi botir qirq qiz va ularning sarkardasi Guloyim botir qiz atrofidagi voqealar orqali berilgan. [3:155]

Qoraqalpoq xalqi juda boy folklor merosiga ega. O‘tgan o‘n yilliklarda nashr etilgan "Qoraqalpoq folklori" ko‘p jildligi bunga dalil bo‘la oladi. Unda xalq maqol-matallari, tarixiy va urf-odat qo‘shiqlari, ertak va dostonlar va h.k. o‘rin olgan. Qozoq xalqining mashhur farzandi, olim

Sh.Valixonov qoraqalpoq xalqini sahroning birinchi shoir-qo'shiqchilari sifatida baholaganligi xalqimizning qo'shiqchilikka, dostonchilikka bo'lgan munosabat darajasini ko'rsatib turibdi. [4:154]

3. Zamonaviy davrda qadriyatlarning ahamiyati. Bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlarni asrash va ularni yosh avlod ongiga singdirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qoraqalpoq xalqining qadimiy urf-odatlarini – mehmondo'stlik, hurmat, hamjihatlik, kattalarga ehtirom, halollik va sabr-toqat bugungi kunda ham ijtimoiy barqarorlikning asosiy omilidir.

Zamonaviy inson ongining ma'naviy holatiga ta'sir ko'rsatadigan hozirgi zamonning navbatdagi muammosi ekologik va antropologik inqirozlardir. Bu inqirozlar madaniyatda shunday o'zgarishlarga olib keladiki, ular yangi g'oyalarning shakllanishiga turtki bo'ladi. Bu g'oyalar "kelajakdagi sivilizatsion rivojlanishning yangi hayotiy ma'nolari va qadriyatlari uchun asos bo'lishi mumkin".[5:22]

XX asr boshlarigacha ilmiylikning asosiy mezonlari bilimlar obyektivlik va foydalilik bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda axloqiylik eng muhim o'lchovga aylanmoqda. Jamiyat ma'naviyatining hozirgi holati "sayyora miqyosidagi muammo" – axloqiy degeneratsiyani tan olishga majbur qilmoqda. [6:39]

Qoraqalpoq milliy qadriyatlari bugungi davrda nafaqat tarixiy meros, balki xalqning ma'naviy birligi, madaniy o'zligini saqlash va kelajak avlodni tarbiyalash vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ularni asrab-avaylash, zamon ruhiga mos ravishda rivojlantirish va yoyish – bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Qoraqalpoq milliy qadriyatlari hozirgi davrda xalqning ma'naviy hayoti, madaniy o'zligini saqlab qolish va yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Qadriyatlar tizimi xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini, an'analarini, e'tiqodini, badiiy ijodi va ijtimoiy hayot tajribasini o'zida mujassam etadi. Bugungi globallashuv sharoitida qoraqalpoq milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Qoraqalpoq xalqining qadriyatlari, avvalo, oila, mehmondo'stlik, hurmat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi. Ota-onaga ehtirom ko'rsatish, yoshi ulug'larga izzat qilish, mahalla yoki qishloq hayotida o'zaro yordam va hamjihatlik qadimdan muhim axloqiy me'yorlar sifatida shakllangan. Bunday qadriyatlar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, jamiyatda birdamlikni mustahkamlash vositasiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasida milliy qadriyatlarni tiklash, madaniy merosni asrash, xalq og'zaki ijodini o'rganish hamda targ'ib etish borasida ko'plab ilmiy va madaniy dasturlar amalga oshirilmoqda [7]. Bu jarayon qoraqalpoq xalqining ma'naviy yangilanishi va milliy o'zligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Qoraqalpoq milliy qadriyatlari xalqning ko'p asrlik tarixiy tajribasi, diniy-falsafiy dunyoqarashi va ijtimoiy hayotining mahsulidir. Ular xalqni birlashtiruvchi, ma'naviy mustahkamlikni ta'minlovchi kuch sifatida qadrlanadi. Milliy qadriyatlarni o'rganish, asrash va avloddan avlodga etkazish – qoraqalpoq xalqining ma'naviy merosini saqlashning eng muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қарақалпақстан XIX әсирдің екінші ярымынан XXI әсирге шекем. Нөкис., Қарақалпақстан., 2003 ж. 1:518., 3:155., 4:154.

2. O.Joldasbev. Jamiyettiń progressive rawajlanıwında mádeniyattıń roli. International scientific journal global science and innovations 2020: central asia

3. Nur-Sultan, Kazakhstan, feb-march., 2020., 2:38.

4. Проблема человека в современной философии: монография / Под ред. д-ра филос. наук, проф. Л.М. Никитина / Донец. нац. ун-т экономики и торговли им. Михаила Туган-Барановского. – Донецк: Доннуэт, 2008. – 5:22., 6:39.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'atni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2022.

MA'NAVIY MEROS YOSH AVLODNI TARBIYALAB, JAMIYATNING IJTIMOIIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLAYDI

Matkarimova Sayyora Shavkatbek qizi,
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d., (PhD),

Har bir xalqning milliy o'zligini saqlab qolish va taraqqiyotga erishishda ma'naviy merosning o'rni beqiyosdir. Ma'naviy meros — bu avloddan-avlodga o'tadigan qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, urf-odatlar, diniy e'tiqodlar va madaniy boyliklar to'plami bo'lib, u xalqning ruhiy va madaniy o'zligini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Ushbu meros nafaqat tarixiy tajribani, balki jamiyatning axloqiy-ruhiy muhitini ham ifodalaydi. Shu sababli, ma'naviy meros nafaqat madaniy meros sifatida, balki jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy dunyo globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va madaniy almashinuv jarayonlari ta'sirida o'zgarib bormoqda. Bu jarayonlar insonlarning qadriyatlar tizimida muhim o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin, shuningdek, yosh avlodning milliy ruhiyati va ma'naviy barkamolligiga ta'sir ko'rsatadi. Tezkor axborot oqimi, zamonaviy texnologiyalar va g'arb madaniyatining keng tarqalishi yoshlar orasida an'anaviy qadriyatlar va ma'naviy me'yorlarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, hozirgi davrda milliy ma'naviy merosni saqlab qolish va uni yoshlar ongiga singdirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yosh avlod ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalanmasa, jamiyatda ijtimoiy muvozanat va barqarorlik muammolari yuzaga kelishi ehtimoli oshadi. Boshqa tomondan, ma'naviy merosga asoslangan tarbiya tizimi yoshlarning ma'naviy barkamolligini, milliy o'zlikni anglashini mustahkamlaydi, ularda vatanparvarlik, halollik, hurmat va mas'uliyat kabi ijobiy xislatlarni shakllantiradi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydi.[1:3]

Shu sababli, milliy ma'naviy merosni yosh avlodga etkazish, ularni ma'naviy barkamollikka erishish yo'lida tarbiyalash hozirgi zamon

jamiyati uchun muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayon orqali nafaqat milliy o'zlik saqlanib qoladi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi ham mustahkamlanadi. Shu tariqa, ma'naviy meros jamiyat taraqqiyotining, yoshlar tarbiyasining va ijtimoiy muvozanatning negizini tashkil etadi.

Ma'naviy meros deganda, avvalo, xalqning o'ziga xos ma'naviy qadriyatlari, tarixiy tajribasi, axloqiy tamoyillari, diniy e'tiqodlari, folklori, adabiyoti va boshqa madaniy boyliklari tushuniladi. Bu meros xalqning butun tarixiy rivojlanishi davomida shakllangan ruhiy va madaniy qimmatbaho jihatlar majmuasidir. U insonlarning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari, hayotga bo'lgan munosabatini ifodalaydi va jamiyatning ruhiy olamining ko'zgusi vazifasini bajaradi.

Ma'naviy meros – bu faqat tarixiy yoki madaniy asarlar yig'indisi emas, balki u xalqning o'zligini anglashiga, milliy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim vositadir. U xalq a'zolarining o'zaro hurmat, bag'rikenglik, mehr-oqibat va birlik kabi insoniy xislatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, ma'naviy meros asosida shakllangan qadriyatlar ijtimoiy hayotda adolat, halollik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi muhim tamoyillarni mustahkamlaydi.

Ma'naviy meros o'z ichiga quyidagi asosiy elementlarni oladi:

- **Badiiy asarlar:** Milliy adabiyot, she'riyat, proza, drama va boshqa san'at shakllari xalqning fikr va tuyg'ularini, tarixiy voqealar va axloqiy g'oyalarni ifodalaydi. Badiiy asarlar orqali avlodlar o'rtasida ma'naviy qadriyatlar uzluksizligi ta'minlanadi.

- **Xalq og'zaki ijodi:** Afsonalar, ertaklar, qo'shiqlar, maqollar, hikoyalar kabi og'zaki ijod namunalari xalqning tarixiy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiradi. Bu ijod namunalarida axloqiy qadriyatlar, hayot saboqlari va madaniy an'analar mujassamlashgan.

- **Diniy-ma'rifiy qadriyatlar:** Diniy e'tiqodlar, urf-odatlar va marosimlar ma'naviy hayotning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular insonlarning axloqiy ongini shakllantirishda, ruhiy dunyosini boyitishda, shuningdek, jamiyatda birlik va bag'rikenglikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

• **Urf-odatlar va an'analar:** Har bir xalqning o'ziga xos madaniy qadriyatlari, turmush tarzi, bayram va marosimlari mavjud bo'lib, ular milliy o'zlikni ifodalaydi va avloddan-avlodga etkaziladi.

• **Tarixiy xotira:** Milliy tarix, qahramonlik dostonlari, muhim voqealar haqidagi xotiralar jamiyatning o'zligini anglashida va tarixiy ongini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.[2:5]

Shunday qilib, ma'naviy meros xalqning ruhiy va madaniy boyligini tashkil etuvchi juda keng va murakkab tushuncha bo'lib, u milliy o'zlikni saqlash va mustahkamlashda, yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bu merosni saqlash va rivojlantirish har bir jamiyatning muhim vazifalaridan biridir, chunki u milliy birdamlik, ijtimoiy barqarorlik va madaniy rivojlanishning asosidir.

Yosh avlod har qanday jamiyatning eng muhim va asosiy kelajagi hisoblanadi. Ular – millatning davomchilari, jamiyatning intellektual va ma'naviy poydevori bo'lib, kelajakni yaratish, rivojlantirish va saqlash mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi. Shu sababli, yoshlarni ma'naviy meros bilan boyitish, ularni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash juda muhimdir. Ma'naviy meros yoshlarning shaxsiyati va qarashlarini shakllantirib, ularni ma'naviy barkamollikka, ya'ni axloqiy va ma'naviy etuklikka etaklaydi.

Ma'naviy meros orqali yoshlar vatanparvarlik, halollik, insonparvarlik, hurmat, mehnatsevarlik, fidoyilik va mas'uliyat kabi muhim fazilatlarni o'zlashtiradilar. Bu fazilatlar nafaqat ularning shaxsiy hayotida, balki jamiyatda ham barqaror va sog'lom muhit yaratishda asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, ma'naviy qadriyatlar yoshlarni ijtimoiy muammolarga ongli yondashishga, madaniy merosga hurmat bilan qarashga, o'z tarixini chuqur anglashga undaydi.

Yosh avlodni tarbiyalash jarayonida ta'lim muassasalari – maktablar va oliy o'quv yurtlari katta ahamiyatga ega. Bu muassasalarda nafaqat zamonaviy bilim beriladi, balki milliy va ma'naviy qadriyatlarni singdirish, yoshlarni milliy madaniyatga qiziqtirish, ularning ruhiy dunyosini boyitish ishlari olib boriladi. Ta'lim jarayonida ma'naviy meros asosida tayyorlangan darsliklar, o'quv dasturlari, tarixiy va badiiy adabiyotlar keng qo'llaniladi.

Bundan tashqari, oilaviy tarbiya ham yoshlarni ma'naviy jihatdan shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ota-ona tarbiyasi, oiladagi qadriyatlar, o'zaro hurmat va mehr-oqibat yoshlarning kelajakdagi shaxsiyati va jamiyatdagi o'rni uchun muhim zamin yaratadi.[3:1]

Madaniy tadbirlar, masalan, ko'rgazmalar, adabiy kechalar, folklor o'yinlari, tarixiy joylarga sayohatlar yoshlarning milliy merosga bo'lgan hurmatini oshiradi, ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini kuchaytiradi. Bunday tadbirlar yoshlarni o'z millati va madaniyatiga bog'laydi, ular orasida ijtimoiy birdamlik va bag'rikenglik tuyg'usini rivojlantiradi.

Shuningdek, san'at va adabiyot yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish va shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Milliy adabiyot, teatr, kino va musiqa orqali ma'naviy qadriyatlar oson va samarali tarzda yoshlar ongiga etkaziladi.

Shunday qilib, ma'naviy meros yosh avlod tarbiyasining asosi bo'lib, u orqali yoshlar milliy qadriyatlarni chuqur egallab, jamiyatning ma'naviy barkamolligiga xizmat qiladigan mustahkam poydevor yaratadilar.

Jamiyatda ijtimoiy barqarorlik — bu turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlar va shaxslar o'rtasida tinchlik, uyg'unlik va hamjihatlikning ta'minlanishi, shuningdek, kelib chiqadigan nizolarni qonuniy va tinch yo'llar bilan hal eta olish qobiliyatidir. Ijtimoiy barqarorlik jamiyatning rivojlanishi, xavfsizligi va farovonligini kafolatlaydigan muhim omil hisoblanadi. U ijtimoiy muhitdagi beqarorlik, ziddiyat va keskinliklarning oldini oladi hamda jamiyat a'zolari o'rtasidagi ishonch va o'zaro hurmatni mustahkamlaydi.

Ma'naviy merosning jamiyat hayotidagi roli aynan shu ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda o'z ifodasini topadi. Ma'naviy meros jamiyatda umumiy qadriyatlar tizimini yaratadi, odamlarni bir maqsad va tamoyillar atrofida birlashtiradi. Bu qadriyatlar nafaqat axloqiy normalar, balki insonparvarlik, adolat, hurmat va bag'rikenglik tamoyillarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun, milliy ma'naviy meros asosida shakllangan qadriyatlar jamiyatda birdamlik va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.[4:2]

Birdamlik va bag‘rikenglik tuyg‘ulari jamiyatdagi turli etnik, ijtimoiy va madaniy guruhlar o‘rtasida o‘zaro hurmatni rivojlantiradi, shu bilan birga, ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytirishga yordam beradi. Ijtimoiy adolat esa barcha fuqarolarning teng huquqliligi va imkoniyatlarini ta‘minlashga xizmat qiladi, bu esa jamiyatning barqaror va sog‘lom rivojlanishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, ma‘naviy qadriyatlar jamiyatda huquqiy ongning shakllanishiga hissa qo‘shadi. Fuqarolarning huquq va burchlarini anglashlari, qonunlarga hurmat bilan qarashlari, fuqarolik mas‘uliyatini his qilishlari ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ma‘naviy qadriyatlar madaniy rivojlanishni ta‘minlab, jamiyat a‘zolarining ma‘naviy salohiyatini oshiradi. Madaniyat va ma‘naviyat o‘sishi bilan jamiyatda intellektual va ruhiy sog‘lomlik kuchayadi, bu esa yanada barqaror ijtimoiy muhit yaratadi.

Shunday qilib, ma‘naviy meros ijtimoiy barqarorlikning poydevori sifatida jamiyatda uyg‘unlik, birdamlik va adolatni ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishi ma‘naviy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning saqlanishi va rivojlantirilishi har bir xalq va davlat uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Ma‘naviy merosni yosh avlod ongiga etkazish bugungi jamiyat uchun eng dolzarb vazifalardan biridir. Yoshlarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni o‘z tarixiga va madaniyatiga hurmat bilan qarashga o‘rgatish kelajak avlodning ma‘naviy barkamolligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun turli samarali yo‘llar va usullar mavjud.

Avvalo, ta‘lim jarayonida milliy qadriyatlarni o‘rgatishning samarali tizimini yaratish zarur. Tarix, adabiyot, ona tili va boshqa fanlar orqali xalqning madaniy merosi, tarixiy voqealari, milliy urf-odatlar va an‘analari keng yoritilishi lozim. Bu fanlar yoshlarning milliy ongini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta‘lim muassasalarida milliy ma‘naviy meros bilan bog‘liq maxsus darsliklar, qo‘llanmalar va interaktiv metodlar qo‘llanilishi yoshlarning qiziqishini oshiradi.

Madaniy tadbirlar va badiiy kechalar, folklor o‘yinlari, xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish ham yoshlarning ma‘naviy merosga bo‘lgan

qiziqishini kuchaytiradi. Bunday tadbirlar orqali ular o'z millatining tarixiy va madaniy boyliklarini jonli ravishda his qiladi, ular bilan faol muloqotda bo'ladi. Bu usullar yoshlarning milliy qadriyatlar bilan chuqurroq tanishishiga va ularni qalbiga singdirishiga xizmat qiladi.[5:5]

Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari – televizor, radio, internet va ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish juda muhimdir. Yoshlar bugungi kunda axborotni asosan raqamli platformalardan oladi, shuning uchun bu vositalar yordamida milliy madaniyat, tarix va ma'naviyatni keng targ'ib qilish samaradorligi oshadi. Mazkur platformalarda ma'naviy meros haqida ma'lumotlar, videoroliklar, interaktiv loyihalar tashkil etilishi yoshlarni bu yo'nalishda faol ishtirok etishga undaydi.

Oilaviy muhitda ham ota-ona tarbiyasi juda katta ahamiyatga ega. Ota-onalar bolalariga milliy qadriyatlar, tarixiy voqealar, madaniy an'analar haqida so'zlab berib, ularda milliy g'urur va hurmat tuyg'usini shakllantirishi lozim. Oilada ma'naviy merosga hurmatni targ'ib qilish, farzandlarning axloqiy-ruhiy tarbiyasiga doimiy e'tibor berish yoshlarning to'g'ri tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ma'naviy merosni yosh avlodga etkazish ko'p qirrali va kompleks jarayon bo'lib, ta'lim, madaniyat, ommaviy axborot vositalari va oilaviy tarbiya orqali amalga oshiriladi. Bu yo'llar birgalikda yoshlarni o'z tarixiga, madaniyatiga hurmat bilan qarashga, milliy o'zlikni anglashga, va jamiyatga foydali shaxs bo'lib etishishga etaklaydi.

Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir paytda, axborot oqimining ko'pligi va turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri yoshlar orasida milliy ma'naviy qadriyatlarning susayishi, so'nishi xavfini yuzaga keltirmoqda. Dunyo bo'ylab yagona madaniy maydon paydo bo'lishi, zamonaviy texnologiyalar va internetning keng tarqalishi yoshlar e'tiborini global tendensiyalar tomon jalb qilmoqda. Natijada, ularning milliy o'zlikni anglashlari, milliy qadriyatlarni qadrlashlari sustlashishi mumkin.

Shu bois, milliy ma'naviyatni saqlash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Milliy

qadriyatlar – bu xalqning tarixiy tajribasi, madaniy boyliklari, axloqiy tamoyillari va ruhiy salohiyatining asosidir. Ularni yo‘qotish yoki zaiflashtirish jamiyatning barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, milliy birdamlik va o‘zlik tuyg‘usining zaiflashishiga olib keladi.

Bunday holatni oldini olish uchun ta’lim tizimini yangilash zarur. Ta’limda nafaqat zamonaviy bilimlar berilishi, balki milliy-ma’naviy qadriyatlarni singdiruvchi dasturlar va metodlar joriy etilishi kerak. Bu orqali yoshlar milliy o‘zligini saqlagan holda, global jarayonlarga ham moslashishni o‘rganadilar.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. O‘quv muassasalari, madaniyat va san’at markazlari, jamoat tashkilotlari doirasida milliy meros, tarix va ma’naviyatga bag‘ishlangan turli tadbirlar, seminarlar, musobaqalar tashkil etilishi lozim. Bu ishlar yoshlarni milliy qadriyatlarni chuqur anglashga va ularga sodiq qolishga rag‘batlantiradi.

Shuningdek, yoshlar bilan doimiy muloqot o‘rnatish va ularning fikrlarini inobatga olish jamiyatning ma’naviy muhitini sog‘lomlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Yoshlarning zamonaviy hayot, madaniyat va texnologiyalar bilan bog‘liq ehtiyojlari va qiziqishlari o‘rganilib, ularga moslashtirilgan ta’lim va tarbiya usullari ishlab chiqilishi lozim. Yoshlar o‘z fikrlarini bildirish imkoniga ega bo‘lishlari, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishlari ma’naviy barkamollikning shakllanishiga yordam beradi.

Global madaniyat ta’sirida milliy ma’naviyatni yo‘qotib qo‘ymaslik uchun ta’lim tizimini takomillashtirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish, yoshlar bilan samarali muloqot o‘rnatish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarur. Bu yo‘llar orqali yoshlar milliy qadriyatlarni qadrlashni davom ettirib, o‘z xalqining sharaflı an’ana va madaniyatini kelajak avlodlarga etkazishlari ta’minlanadi.

Ma’naviy meros yosh avlodni tarbiyalashda ajralmas vosita hisoblanadi. U millatning tarixiy tajribasi, axloqiy tamoyillari, madaniy qadriyatlari va ruhiy boyliklarini o‘z ichiga oladi. Yoshlar bu meros orqali nafaqat o‘z milliy o‘zligini anglaydi, balki ma’naviy barkamollikka erishadi, ya’ni axloqiy jihatdan etuk, madaniyatli va vatanparvar shaxs

sifatida shakllanadi. Shu sababli, ma'naviy meros yoshlarni tarbiyalash jarayonining poydevori vazifasini bajaradi.

Jamiyatning ijtimoiy barqarorligi esa bevosita ma'naviy merosga bog'liq. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, axloqiy normalar va an'analar jamiyatdagi turli guruhlar o'rtasida uyg'unlikni yaratadi, birdamlik va o'zaro hurmatni ta'minlaydi. Ma'naviy meros yoshlarni jamiyatga mas'uliyat bilan yondashishga, qonunlarga hurmat bilan qarashga, ijtimoiy adolat va hamjihatlik tamoyillarini qadrlashga o'rgatadi. Natijada, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi, bu esa jamiyatning rivojlanish va taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Ma'naviy merosni saqlash va yoshlar ongiga singdirish orqali milliy o'zlikni yo'qotmaslik, yoshlarni vataniga, millatiga sodiq, axloqiy etuk shaxslar qilib tarbiyalash mumkin. Bu borada har bir jamiyat o'zining tarixiy va madaniy xususiyatlarini inobatga olib, ma'naviy merosni rivojlantirish va targ'ib qilish ishlarini ustuvor vazifa sifatida belgilashi zarur.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy meros nafaqat yosh avlod tarbiyasining asosi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shuning uchun uni asrab-avaylash, rivojlantirish va targ'ib qilish har bir davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, S. (2018). Milliy qadriyatlar va ma'naviyat. Toshkent: Sharq.
2. Karimov, O. (2020). Ma'naviy meros va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: Fan va ta'lim.
3. Qodirov, N. (2019). Ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy qadriyatlar. Toshkent: Ilmiy nashrlar.
4. Tolipov, D. (2021). Milliy madaniyat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent: Universitet nashriyoti.
5. Yusupova, M. (2022). "Ma'naviy merosning yosh avlod tarbiyasidagi roli", O'zbekiston ilmiy jurnali, 4-son, 45-52-betlar.

MILLIY QADRIYATLARNING TARIXIY VA FALSAFIY ILDIZLARI IBN SINO TALQINIDA

Adilova Rayxon Xamidovna,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi

tayanch doktoranti

Hozirgi globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamda uni to'raligicha keyingi avlodga etkazish uchun ilmiy-falsafiy merosimizni ilmiy o'rganish juda muhimdir.

Xalqning dunyoqarashini, ma'naviy qiyofasini hamda hayot falsafasini milliy qadriyatlar belgilab beradi. Milliy qadriyatlar asrlar davomida shakllangan xalqning tarixiy tajribasi, hayot tarzi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar, axloqiy qarashlari hamda an'alarining ifodasidir. Milliy qadriyatlarning tarixiy va falsafiy ildizlariga nazar tashlar ekanmiz, uning naqadar chuqur tarixiy ildizlarga borib taqalishiga guvoh bo'lamiz. Masalan, qadimgi Turon hamda Sug'd sivilizatsiyasi davrida mehnatsevarlik, mehmondo'stlik va tabiatni ardoqlash kabi qadriyatlar paydo bo'lgan. Islom madaniyati rivojlanayotgan davrda odob-axloq, halollik, insonparvarlik va adolat kabi qadriyatlar mustahkamlana boshlagan. Uyg'onish davri, Birinchi Renessans davrida esa ilm-ma'rifat, insonni ulug'lash va qadrlash, kelajakka ishonch, hamjihatlilik, ilg'or insonparvarlik kabi xususiyatlar namoyon bo'ldi. Darhaqiqat, milliy qadriyatlar makon va zamonda madaniy sohadagi biror kashfiyot, yutuq, natija yoki ma'naviy boylik tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Xalqning dahosi, ma'naviy-aqliy etukligi, bilimlari, ilm-fanda erishgan yutuqlari ana shu natijalarda yashirinib yotadi. Misr ehromlari, Buyuk Xitoy devori, Rim va Afina, Samarqand va Buxorodagi yodgorliklar, alloma va mutafakkirlarning kashfiyotlari ana shunday natijalarga misol bo'ladi. Demak, har qanday millat ijtimoiy birlik sifatida o'ziga xos, betakror qadriyatlarni yaratadi.[1]

Har bir xalqning o'z milliy qadriyatlari ya'ni tarixiy merosi, urf-odatlar, an'alari va ma'naviy dunyoqarashi mavjud. Bu millatning asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlari hisoblanib, inson va jamiyat

munosabatlari, ma'naviyat va axloqning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Milliy qadriyatlarimizning bizgacha etib kelishi hamda avloddan-avlodga uzatilishida mutafakkirlarimiz — buyuk allomalar, olimlar va ma'naviyat peshvolarining roli beqiyosdir. Ular o'z asarlari, ta'limotlari va ilmiy-amaliy faoliyatlari orqali xalqning dini, tili, urf-odatlarini, axloq-odobi, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini asrab-avaylab, rivojlantirib kelganlar. Ularning bizgacha etib kelgan asarlarida inson qadri va komilligi, odob-axloq farosat ilmi va ma'rifat haqidagi fikr hamda mulohazalari milliy qadriyatimizning asosini tashkil qiladi. Jumladan, milliy qadriyatimizning taraqqiyotiga o'zining katta hissasini qo'shgan buyuk mutafakkir, barhayot donishmand Abu Ali ibn Sino ham insonning ma'naviy etuklikka intilishi, bilim va axloq orqali “komil inson” darajasiga ko'tarilish g'oyasi milliy qadriyatlarimizning muhim asoslaridan biri hisoblanadi.

Ibn Sinoning falsafasi insonning ma'naviy kamoloti, aql va ilm orqali haqiqatga etishish g'oyasiga tayanadi. Uning ta'limoti quyidagi qadriyatlarni mustahkamlagan:

Ilm va bilimga hurmat – “Ilmsiz inson jonsiz tan kabidir”, deb ta'kidlaydi.

Axloq va poklik – axloqni insonni inson qiladigan eng oliy sifat sifatida ko'radi.

Adolat va insof – jamiyat tinchligi uchun adolat asos ekanini ta'kidlaydi.

Inson qadri – u insonni olamning markazi deb biladi, uning aql-idrokini eng katta ne'mat sifatida ko'radi.

Ibn Sinoning ilmiy-amaliy faoliyati Sharq mamlakatlarining ma'naviy muhitida shakllangan. Shuning uchun uning falsafasi milliy ruhga suyangan bo'lib, o'z xalqining ilm-u ma'rifatga bo'lgan muhabbati, adolat va axloqqa sadoqati uning fikrlarida namoyon bo'lgan. Bu g'oyalar keyinchalik milliy qadriyatlarimizda — Umar Xayyom, Navoiy, Farg'oniy, Temuriylar davri madaniyatida va hatto hozirgi zamon ma'naviy merosimizda o'z ifodasini topgan.

Uning bizgacha etib kelgan bebaho asarlarida inson buyuk mavjudot va u jamiyatning markazida bo'lishi kerakligi ta'kidlangan.

Ibn Sinoning Ash-Shifo asarining “al-Xitoba” bo‘limida milliy qadriyatlarimizni belgilab beruvchi notiqlik san’ati, inson xulq-atvori, undagi turli-tuman ko‘rinishlar, do‘stlik, uning turlari, vafodorlik, qo‘rqoqlik, dovyuraklik, uyalish va uning turlari, insondagi muruvvat kabi xususiyatlarga to‘xtaladi.[2]

Biz bilamizki, Ibn Sino nafaqat tabib, astronom, matematik va buyuk faylasuf, u davlat arbobi ya’ni vazir lavozimida ham faoliyat olib borgan. Shu sabab, alloma o‘z asarlarida davlat boshqaruvida ish olib boradigan shaxslarga murojaat qilib, davlat rahbarlariga insoniylikning eng xayrli va yuksak xislatlari, jumladan, aqllilik va donolikning yuqori sifatlarini o‘zida mujassam etmog‘i lozimligini uqtirgan. Shu bilan birga va el-yurt boshlig‘i davlat va uning qonunlarini tartibga soluvchi shaxs bo‘lganligi sabababli, boshqalarga nisbatan zakovatli, aqlliroq, vatanparvar va adolatli bo‘lishi shart deb hisoblaydi.

Ibn Sino “Siyosat” risolasida barcha darajadagi boshqaruvchilarni aql va odob sohibi, adolatli va bilimli inson bo‘lishi lozimligini ta’kidlagan. Ibn Sinoning yana bir asari, ya’ni “Al-Axloq” (Etika) yoki “Axloqiy risolalar” kitobi ham inson axloqi, adolat va rahbarning ma’naviy mas’uliyatiga bag‘ishlangan. Ibn Sino davlatni inson tanasiga qiyoslab, rahbarni – aql, xizmatchilarni qo‘l va oyoqlar deb hisoblagan. Buyuk mutafakkir qat’iy: Agar “aql” yaxshi ishlamasa, butun “tan” kasal bo‘ladi, deya ta’kidlagan. Shuningdek, Ibn Sinoning “Ishorot va tanbeh” (Ishoralar va ogohliklar) kitobi to‘laligicha rahbarning aqli, fahm-farosati, siyosiy va axloqiy tarbiyasi, bir so‘z bilan aytganda, boshqaruv jarayonlarining ichki mohiyatiga e’tibor qaratilgani bilan e’tiborlidir.

Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, har tomonlama fozil jamiyat – ilm va ma’rifat asosiga qurilgan, insofli va ta’lim darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar tomonidan boshqariladigan mamlakatdir. Uning fikriga ko‘ra, aql va ilmga asoslangan boshqaruv odamlar hayotini tinch, farovon va ma’rifatli qiladi. Aql ustuvorligi o‘rnatilgan davlatda ziyolilar, ilmi rahbarlar va mutaxassislar alohida e’zoz va ehtiromga molik bo‘lishlari shart. [3]

“Biz aytamizki – yozadi Ibn Sino, — endi bu shubhasiz haqiqatdirki, inson boshqa hayvonlardan shunday sifat bilan farq qiladiki, u yolg‘iz

holda, o‘z kuchiga tayana turib, yordamchilarsiz, o‘z ehtiyojlarini qondirishda yordam beruvchilarsiz yashay olmaydi”[4]

Darhaqiqat, insonning yolg‘iz yashay olmasligi haqidagi g‘oya — jamiyat, hamjihatlik va o‘zaro yordam g‘oyalariga asoslanadi. Bu esa sharq milliy qadriyatlarining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Masalan, hamjamiyatlik va qo‘ni-qo‘shnichilik an‘analari — xalqimizda “Qo‘shnichilik ming yilchilik” degan maqol bor. Bu insonning boshqalar bilan hamjihat yashashi, bir-biriga yordam berishi lozimligini ko‘rsatadi. Mehmondo‘stlik va birodarlik ya‘ni insonning boshqalarga mehr va e‘tibor ko‘rsatishi, bir-biriga suyangan holda yashashi milliy qadriyat sifatida qadrlanadi. Oilaviy va jamoaviy hayot tarzi, bunda sharq madaniyatida inson faqat o‘zi uchun emas, balki oilasi va jamoasi uchun ham javobgar ekanligi ko‘zda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar insoniyatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta‘minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo‘ladi hamda kishilarning ongiga, hayot tarziga o‘ziga xos tarzda ta‘sir qiladi. Jamiyatda kishilarning o‘zaro munosabatlarida, yurish-turishida, ijtimoiy faoliyatlarida ko‘zga tashlanib turadi va ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma‘naviy asos bo‘ladi. Shu sabab, buyuk mutafakkirlarimizning milliy qadriyatimizni asrab avaylab, bizgacha etkazgan noyob asarlari va g‘oyalarini o‘qib,amal qilib, kelajak avlodga albatta etkazishimiz lozim. Shundagina xalqimizning milliy qadriyatlari o‘tmishdan kelajakka tomon harakatlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qiyom Nazarov Qadriyatlar falsafasi. Toshkent Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti – 2004 45 bet
2. A.Irisov Ibn Sinoning hayoti va ijodiy merosi. Toshkent O‘zbekiston SSR “FAN” nashriyoti 178-179 betlar
3. Mansur Bekmurodov, Rayxona Adilova. “Ibn Sinoning “Siyosat” risolasi boshqaruv mahorati sohasidagi muhim tadqiqot» Jamiyat va Boshqaruv jurnali 2025y 2 son 171 bet

4. Ibn Sina. Shifo. Glava”o dokazatelstve prorochestva...” sit po kn Muxammeda Yusufa Musi. Sotsiologiya i politika v filosofii Ibn Sino. Kair. 1952 8b

O‘ZBEK XALQ MUSIQA IJODIDA MILLIY QADRIYATLARNING TARIXIY-FALSAFIY TALQINI: MAQOM SAN’ATI MISOLIDA

Ashurov Ma’rufjon Abdumutalibovich,

Andijon davlat pedagogika instituti

Tasviriy san’at va musiqa ta’limi kafedrası professori.

O‘zbek xalqining musiqiy tafakkuri, avvalo, uning milliy qadriyatlari, tarixiy tajribasi va ma’naviy dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu qadriyatlar asrlar davomida xalq og‘zaki ijodi, kuy va qo‘shiqlar, maqom san’ati orqali avloddan-avlodga o‘tib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, maqom san’ati — nafaqat musiqiy hodisa, balki xalq ruhiyatining falsafiy ifodasi sifatida qadrlanadi.

Maqomlarda ifodalangan ohang, ritm va lad tizimlari o‘zida inson hayoti, tuyg‘ulari va ichki kechinmalarining badiiy modelini mujassam etadi. Shu bois maqom san’ati o‘zbek xalqining tarixiy tafakkurini, axloqiy qadriyatlarini, estetik mezonlarini va ma’naviy kamolot tamoyillarini o‘zida mujassamlashtiradi [2]. Mazkur tadqiqotda maqomlarning tarixiy ildizlari, falsafiy mazmuni hamda ularning jamiyat ma’naviy taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi.

O‘zbek xalq musiqa ijodida milliy qadriyatlarning shakllanishi va tarixiy ildizlari. O‘zbek xalq musiqa ijodi asrlar davomida xalqning ruhiy olami, turmush tarzi, urf-odatları, e’tiqodi va estetik qarashlarini o‘zida mujassam etgan holda shakllangan. Musiqa xalq hayotining ajralmas qismi sifatida milliy qadriyatlarning uzviy ifodasiga aylangan. Qadimdan musiqaning ijtimoiy va ma’naviy hayotdagi o‘rni nihoyatda muhim bo‘lgan: u inson ruhiyatini yuksaltirish, ijtimoiy birlikni mustahkamlash,

ma'naviy poklanish va estetik tarbiyaning eng ta'sirchan vositasi sifatida qadrlangan.

Xalq musiqasining eng qadimiy manbalari zardushtiylik davriga borib taqaladi. "Avesto"da keltirilgan madhiyalar, marosim ohanglari va kuylari orqali inson bilan tabiat, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi muvozanat g'oyalari musiqiy shaklda ifodalangan [5]. Keyinchalik bu an'analar islom madaniyati, tasavvuf falsafasi va turkiy og'zaki ijod bilan boyib, o'zbek xalq musiqasiga chuqur ma'naviy qatlam olib kirdi. Ayniqsa, IX–XII asrlarda yashab ijod etgan allomalar — Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Najmiddin Kubro kabi mutafakkirlar musiqani inson kamoloti, ruhiy tarbiya va kosmik uyg'unlikni anglash vositasi sifatida talqin qilganlar. Bu davr musiqaning nafaqat san'at, balki falsafiy va axloqiy qadriyat sifatidagi o'rnini belgilab berdi.

Xalq musiqasi xalqning dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq. U inson va tabiat, hayot va o'lim, muhabbat va sadoqat, mehnat va g'alaba kabi tushunchalarni badiiy obrazlar orqali ifodalaydi [7]. O'zbek xalqining kuy va qo'shiqlarida insoniy tuyg'ularning sof shakli, hayotga bo'lgan muhabbat, or-nomus va vatanparvarlik g'oyalari aks etgan. Bu jarayon musiqani milliy tafakkurning shakllanishi va xalq ruhiyatining ifodasi sifatida qarash imkonini beradi.

Shuningdek, xalq musiqasining shakllanishida diniy marosimlar, xalq bayramlari, urf-odatlar ham muhim rol o'ynagan. Navro'z, hosil bayrami, to'y va marosimlarda ijro etilgan kuylar inson hayotidagi eng muhim bosqichlarni musiqiy tarzda ifodalab, ularning ma'naviy mazmunini boyitgan. Shu tariqa o'zbek xalq musiqasi qadimiy davrlardan boshlab insonning ruhiy kechinmalari va ijtimoiy tajribalarini ifodalovchi, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan madaniy hodisaga aylandi.

Natijada, o'zbek xalq musiqa ijodi xalqning tarixiy xotirasi, falsafiy tafakkuri va estetik qarashlarining badiiy in'ikosi sifatida shakllandi. Bu jarayon davomida musiqa milliy o'zlikni anglash, ma'naviy birlikni mustahkamlash va qadriyatlarni avlod-dan-avlodga uzatishning eng samarali vositasiga aylandi. Shu bois o'zbek xalq musiqasi, ayniqsa maqom

san'ati, milliy qadriyatlarning tarixiy ildizlarini chuqur anglashda bebaho manba hisoblanadi.

Maqom san'atining falsafiy talqini va ma'naviy qatlamlari. O'zbek xalqining musiqiy merosida alohida o'rin tutgan maqom san'ati — bu nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki inson va borliq, ruh va ong, go'zallik va ma'naviyat o'rtasidagi falsafiy uyg'unlikni ifodalovchi murakkab madaniy tizimdir [3]. Maqomlarning tub mohiyatida Sharq falsafasiga xos bo'lgan komillikka intilish, ichki uyg'unlik va inson ruhiyatining yuksaklik sari harakati mujassamdir. Har bir maqomda insonning borliqqa munosabati, uning ruhiy kechinmalari, quvonch va iztiroblari musiqiy shaklda ifodasini topadi. Shu jihatdan maqom san'ati insonning ichki olami bilan tashqi dunyo o'rtasidagi uyg'unlikni tiklovchi, ruhiy muvozanatni saqlovchi estetik va falsafiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Sharq falsafasida inson va tabiat o'zaro uyg'unlikda mavjud bo'lgan ikki bir butun unsur sifatida qaraladi. Maqomlarda ham bu g'oya musiqiy tovushlar tizimi orqali aks etadi. Har bir lab, ohang, intonatsiya tabiatdagi ritmik harakat, fasllarning almashinuvi, hayot va o'lim, yorug'lik va zulmat kabi qarama-qarshi kuchlarning muvozanatini ifodalaydi. Masalan, "Buzruk", "Rost" yoki "Navo" maqomlarida inson ruhining tinchlik, yuksalish va uyg'unlik holatlari musiqiy tarzda aks ettirilgan bo'lsa, "Segoh" yoki "Chorgoh" maqomlarida his-tuyg'ularning dramatik, iztirobli qirralari ifodalanadi [6]. Bularning barchasi inson ichki dunyosidagi murakkab kechinmalar va ularning tabiat qonuniyatlari bilan uyg'unlashgan holatini ko'rsatadi.

Maqom san'atining ma'naviy qatlamida inson ruhining poklanish jarayoni markaziy o'rin tutadi. Maqomni tinglash yoki ijro etish jarayonida shaxs o'z qalbini sof holatga keltiradi, ruhiy orom topadi. Bu holat tasavvuf falsafasidagi "tazkiyatun-nafs" — ya'ni nafsni poklash, komillikka erishish g'oyasi bilan uyg'unlashadi [4]. Maqomlarning ichki ohang tuzilmasi, ohista o'suvchi ritmik oqimi tinglovchini chuqur tafakkurga, ichki tinchlik va ruhiy uyg'unlikka undaydi. Shu bois maqomlar asrlar davomida nafaqat san'at asari, balki ruhiy davolanish, meditatsiya va estetik tarbiya vositasi sifatida ham qadrlanib kelgan.

Maqom san'atining falsafiy mohiyatida inson kamoloti, go'zallikka intilish, muvozanat, samimiyat va haqiqatni anglash tamoyillari yotadi. Bu qadriyatlar orqali maqom o'z tinglovchisini hayotning chuqur ma'nolari ustida o'ylashga, insoniy fazilatlarni qadrlashga, ichki uyg'unlikka erishishga chorlaydi. Shu tariqa maqom san'ati o'zbek xalqining musiqiy tafakkurida inson, tabiat va borliq o'rtasidagi falsafiy bog'liqlikni badiiy shaklda ifoda etuvchi, ma'naviy kamolotga etaklovchi ulug' san'at turi sifatida namoyon bo'ladi.

Maqom san'atida milliy qadriyatlarning hozirgi zamon musiqiy ta'limidagi o'rni. Bugungi globallashuv davrida milliy madaniyat va qadriyatlarni asrash, ularni yosh avlod ongiga singdirish musiqiy ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maqom san'ati zamonaviy ta'lim jarayonida milliy o'zlikni shakllantirish, ma'naviy kamolotga etaklash va estetik didni yuksaltirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki maqom — bu nafaqat musiqiy shakl, balki xalqning asrlar davomida shakllangan hayot falsafasi, ruhiy kechinmalari va axloqiy ideallarining musiqiy ifodasidir [1].

Hozirgi musiqa ta'limida maqomlardan foydalanish yoshlarning milliy o'zini anglash jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Maqomlarni o'rganish orqali talabalar xalqning tarixiy xotirasiga, urf-odatlariga, estetik didi va tafakkur tarziga yaqinlashadi. Bu jarayonda maqom ohanglari insonni ruhiy tinchlikka, mulohazaga, go'zallikni his etishga undaydi, bu esa o'z navbatida shaxsning ma'naviy shakllanishini ta'minlaydi. Maqomlarni kuylash yoki tinglash jarayonida yoshlar sabr-toqat, izchillik, uyg'unlik, ichki intizom kabi milliy fazilatlarni o'zlashtiradilar. Shu bois maqomlar musiqiy tarbiya vositasi sifatida insoniy fazilatlarni kamol toptiruvchi estetik maktab rolini bajaradi.

Zamonaviy musiqa ta'limi jarayonida maqom san'atini o'qitishda innovatsion va interaktiv yondashuvlardan foydalanish, uni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, maqom asarlarini tahlil qilishda kompyuter dasturlari (MIDI Clef, Sweet MIDI, Synthesia va VanBasko's Karaoke kabi) yordamida kuy tuzilmasi, ritmik asoslar va lab tizimlarini o'rganish talabalarda nafaqat nazariy

bilimni, balki musiqiy tafakkurni ham rivojlantiradi. Shuningdek, virtual maqom darslari, audio-video tahlil platformalari, interaktiv o'quv dasturlari yoshlarni maqom merosini zamonaviy shaklda o'rganishga rag'batlantiradi.

Maqomlar orqali yosh avlodda milliy o'zlikni shakllantirish texnologiyalari, avvalo, qadriyatga yo'naltirilgan yondashuvga tayanadi. Bu yondashuvda musiqiy ta'lim shunchaki kuy yoki nazariya o'rganish jarayoni emas, balki ma'naviy dunyoni kengaytirish, milliy g'urur va madaniy merosga sadoqatni tarbiyalash jarayoni sifatida qaraladi. Talabalar maqomni o'rganar ekan, undagi ohang, ritm va badiiy obrazlar orqali milliy tafakkurning nozik qatlamlarini his etadilar, xalqona estetik mezonlarni chuqur anglaydilar.

Demak, maqom san'atini hozirgi zamon musiqa ta'limi tizimiga kiritish — bu nafaqat milliy merosni asrash, balki uni yangicha mazmunda talqin qilish, yoshlarni o'z milliy ildizlariga, ruhiy manbalariga qaytarish demakdir. Bunday yondashuv o'z navbatida ijodiy fikrlaydigan, estetik didi yuqori, ma'naviy etuk va milliy g'ururga ega yosh avlodni tarbiyalashning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan maqom san'ati hozirgi musiqa ta'limining nafaqat o'quv material, balki **milliy qadriyatlarni singdiruvchi tarbiyaviy-psixologik maktab** sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Maqom san'ati o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosi, milliy tafakkuri va ma'naviy dunyoqarashining eng yuksak namunasidir. U xalqning asrlar davomida shakllangan axloqiy, estetik va falsafiy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Maqomlarda inson ruhining nozik kechinmalari, hayot falsafasi, sabr, go'zallik, uyg'unlik va muhabbat g'oyalari badiiy ifodasini topgan.

Bugungi globallashuv davrida maqom san'atini o'rganish, uni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish nafaqat musiqiy saviyani oshiradi, balki yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, o'zlikni anglash va ma'naviy barkamollikka etaklashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois maqom san'ati milliy qadriyatlar tizimida o'zining tarixiy-falsafiy ahamiyatini saqlab qolgan holda, zamonaviy musiqiy ta'limning ajralmas qismiga aylanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al-Farobiy. Kitob al-Musiqa al-Kabir. – Qohira, 1967.
2. Ashurov M. Musiqa ta’limida milliy qadriyatlar asosida ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi. – Andijon, 2023.
3. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1991.
4. Ibn Sino. Kitob ush-shifo: Musiqa risolasi. – Toshkent: Fan, 1980.
5. Rajabov Y. Maqomlar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot, 2006.
6. UNESCO. The Art of Shashmaqom: Intangible Cultural Heritage of Humanity. – Paris, 2021.
7. Xo‘jayev R. Maqom va milliy tafakkur. – Toshkent: San’at, 2015.

VATANNING MA’NAVIY ISTEHKOMLARI

G‘ulom Bobojonov,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,

Yangi asr universiteti dotsenti

Yurtimizning har bir qarichi tabarruk, har bir manzili muqaddas qadamjo. Ayniqsa, xorijlik sayyohlarni o‘ziga ohanrabodek tortadi. Tarixiy shaharlarimiz orasida Samarqand, Buxoro va Xiva o‘zgachaligi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Ularni umumlashtirib turuvchi jihatlar bilan birga qator o‘ziga xosliklari ham bisyor.

Xiva qariyb uch ming yillik tarixga shohid. Quloch etmas qal’a devorlari tarixning ne-ne kunlariga tilsiz guvoh bo‘lib turishibdi. Davlat muhofazasiga olingan Ichan qal’a yodgorlik majmuasi qadimiy va hamisha navqiron shaharning yuragi, desak mubolag’a bo‘lmaydi. Ichan qal’a hammani birday o‘ziga maftun etgan. Ichan qal’aga har gal borganimda ikki qal’a haqidagi mashhur hikmatlar xayolimda jaranglayveradi.

Xivada qal’a bor qal’a ichinda,

Biri – Ichon qal’a, birisi – Dishon.

Mashhurdir birining nomi ochunda,
Biri nurab yotar benazar, beshon... [1]

Sayyohlar Xivaga turli zaminlardan, olis-olislardan qadam ranjida qilishgan. Ular orasida fransuzu arabni ham, ispanu portugalni ham, inglizu nemisni ham, yaponu koreysni ham, qo'yingki, yana olamjahon ajnabiy sayyohlarni uchratish mumkin. Ular o'zlari bilan o'z yurtining sog'inchi bilan birga vataniga oid ayrim xabarlarni ham olib kelishi turgan gap. Masalan, kalta shimcha kiyib olgan sayyoh boboy o'z yurtida chollar shunday kiyimda bemalol yuraverishini bizga ham namoyish etyapti. Bu bilan bizga ham shu taomilni olib kelyapti. Dunyoning turli burchaklaridan kelayotgan insonlar o'zlari bilan o'z yurtining turli urf-odat va qadriyatlarini olib kelishi tabiiy. Ularning bizga «eksport» qilinishini kim qanaqa tushunadi, bu – ma'lum. Darvoqe, xivalik mehmonxona bekasi bizda hali misli ko'rilmagan ishga qo'l urgani haqida xabar tarqaldi. Mehmon kutishda o'sha beka butkul yangicha yo'l tutib, hammani hayron qoldirib, olamshumul yangilik kiritibdi. O'sha xonim mehmonlarga o'z yurtlaridagiday tik turib ovqatlanish uchun sharoit yaratib bergan ekan...

Ular shu erga kelib hech bo'lmasa ovqatlanish odobini o'rganib ketishar, degan ilinjda ota-buvalarimiz necha yillardan beri ularni o'tirib ovqatlanishga taklif etishar, bu bilan ularning xulq-atvoriga ham, salomatligiga ham rahm-shafqat ko'rsatishardi. Endi esa, o'zimizning o'sha ming yillik an'ana va qadriyatlarimiz yana tashi yaltiroq ajnabiy urfga almashtirilayotgani g'alati emasmi?!

Ichon qal'adagi barcha mehmonxonalar, do'konlar, xizmat ko'rsatish shoxobchalari ajnabiy tilda sayyohlarni o'ziga chorlab turadi. Kezi kelganda bir haqiqatni izhor etib qo'yay: uchinchi sinf ma'lumotiga ega bo'lgan bola sayyohlar bilan ingliz tilida bemalol gaplasha oladi. Balki institut talabasi ham bunchalik ravon bidir lay olmas. Bu yoqda tilning murakkab qonuniyatlari: infinitivu gerundiylardan bahs qiladigan ta'lim tizimimiz qo'lga biron kitob ushlamagan bozorchi bolaning tilbilgich zakovati oldida hayron qolishi shubhasiz. Sayyohlar biron do'kon, muzey, emakxona yo ziyoratgoh yoniga yaqinlashsa, bas! Eshik oldida muntazir turgan xivalik ishbilarmon xuddi ming yillik ota qadrdonlarini uchratib

qolganday, mehmonlarga quchoq ochib, ularga o‘z ona tilida gapirib, hol-joniga qo‘ymay, jinday «mehmon qiladi». O‘zga el, o‘zga millat, o‘zga din vakili bo‘lsa-da, mehmon xuddi o‘zining katta bobosi qabri poyiga kelib qolganday, Xivadagi aziz-avliyolarning maqbarasini-da hayrat va taajjub og‘ushida «ziyosat» etadi.

Insoniyat bir ota-onadan tarqaganini hamma e’tirof etadi. Shuning uchun ham insoniyatning asliy taomillari bir-biriga juda o‘xshash. Masalan, inglizlar Shekspirni alohida hurmat-ehtirom bilan ulug‘lashadi. Sevib mutolaa qilishadi. Har bir epizodi yod bo‘lib ketgan bo‘lsa ham «Otello»ni, «Qirol Lir»ni, «Gamlet»ni takror-takror ta’sirlanib tomosha qilishadi. Shunday buyuk inson bizning bobokalonimiz, deya faxrlanib yurishadi...

Bizda esa Polvon pir, Ulli pir kabi minglab pir buvalarimiz bor. Ularning hayoti, faoliyati, ijodiy merosi haqida hech narsa bilmasak ham to‘y kuni maqbarasi qoshiga ziyoratgohga borib rasmga tushishni, maqbara oldidagi quduqdan niyat qilib suv tortib ichishni, avliyoning hoki qo‘yilgan qabr ustiga pul sochishni, is chiqarib, o‘tganlar ruhiga atab bo‘g‘irsog‘u qatlama pishirib borishni, chiroq yoqishu daraxtga latta bog‘lashni kanda qilmaymiz. Bu rasm-rusumlarni kim o‘ylab topganiga hech kimning aqli etmaydi. Kim bo‘lsa ham bu behudagarchiliklarni xalqning turmush tarziga shu qadar chuqur singdirganki, mana, necha o‘n yillardan beri kurashib, olomonni bu bema’ni xatti-harakatlardan ajratib olishning imkoni bo‘lmayapti.

Sayyohlar hazrat Pahlavon Mahmud maqbarasiga kirganida odamlarning bunday ishlariga har gal ajablanib qarashadi. Quduqdan suv ichib murod-maqsadiga etish hatto ular uchun ham hayron qolarli! Maqbara joylashgan hujra eshigiga naqshinkor yozuvlar bitilgan. Oyatu hadislar arabiy, duo va abyot forsiyda yozilgan. Sayyohlar bu naqshinkor yozuvlar qarshisida bir dam tin olishadi, hayratlarini o‘zlari bilan baham ko‘rishadi, keyin sharaq-shuruq qilib tasmaga muhrlashadi. Maqbara eshigi peshtoqiga hazratning ruboiylaridan biri bitilgan.

Uch yuz Ko‘hi Qofni kelida tuymoq,
Dil qonidan bermoq falakka bo‘yoq.
Yoinki bir asr zindonda yotmoq

Nodon suhbatidan ko‘ra yaxshiroq [2].

Insoniyatning yana bir mushtarak jihati shundaki, urug‘i toshloqqa yoyilgan nodonlar hamma joyda bor. Ehtimol, shu sababdir bu ruboiy ziyoratchilarning ko‘zi tushadigan joyga naqshlangan. Hayotning eng muhim qonuniday ovozsiz jaranglab turadi...

2021-yil 9-fevralda esa O‘zbekiston Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni e‘lon qilindi[3]. Bu hujjatda yurtimizning dunyoga doston bo‘lgan obidalari, ziyoratgohlariga xalqimiz ko‘proq borishini ko‘zlab, bir qator yangiliklar joriy etilgan. Endi gap faqat odamlarimizda sayohat qilish xohishi va imkoniyati teng bo‘lishida qoldi.

Xivaning qal‘a devorlari bu kabi hodisalarning necha-nechasiga guvoh bo‘lgan. Sinovli kunlarda ham, shodlikda ham insoniyatni o‘z bag‘riga chorlab turaveradi. Bu erlarni bir ko‘rgan kishi yana kelish orzusida yashaydi. Deshon qal‘aning metin-mustahkam devorlari nima sababdan bunchalar nurab ketganiga aql bovar qilmaydi. Mashhur hikoyatda keltirilishicha, Deshon qal‘a istehkomi shaharning asosiy qismi bo‘lgan Ichan qal‘a va u erdagi aholini tarixdagi balo-ofatlardan himoya qilib turgan. Dushman zarbidan o‘zi abgor holga kelgan bo‘lsa-da, ichkariga yovni doritmagan. Aqlu zakosi bizdan ancha baland bo‘lgan ajdodlarimiz «ichkari»ni omon saqlab qolish uchun shunday tashqi istehkomlar barpo etishgan. Xivadagi Deshon qal‘a atrofini kuzata turib, tobora globallashib borayotgan bugungi kunimiz uchun ham xuddi shunday ma‘naviy istehkomlar zarurligini chin qalbdan his qila boshlaysiz. Bunday istehkomlardan maqsad avvalo ichkaridagi xalqni asrab-avaylashdir.

...Inson ichidagi qalb va ong kabi asliy boyliklarni asrab-avaylash uchun ham ana shunday qo‘shqavatli istehkomlar kerak aslida.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Omon Matjon. Iymon yog‘dusi. She‘rlar, dostonlar. – T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1995. – B.168.
2. Pahlavon Mahmud. Ruboiylar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979. – B. 33.

3. O‘zbekiston Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni. <https://lex.uz/docs/-5283956>

O‘ZBEK XALQINING AN‘ANAVIY MAROSIM VA URF-ODATLARINING TARIXIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH FALSAFIY TAHLILI

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o‘g‘li

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali
o‘qituvchisi*

O‘zbek xalqining an‘anaviy marosim va urf-odatlari milliy madaniyatning eng qadimiy va barqaror qatlamini tashkil qiladi. Ularda xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, ijtimoiy tuzumi, ma‘naviy madaniyati o‘z aksini topadi. Har bir marosim inson, jamiyat va tabiatning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiruvchi madaniy hodisa bo‘lib, asrlar davomida shakllangan ma‘naviy meros hisoblanadi.[2] Binobarin, urf-odat va marosimlarning tarixiy taraqqiyotini o‘rganish milliy o‘zlikni anglash, uning madaniy taraqqiyotini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston xalqi sovet mafkurasi hukmron bo‘lgan siyosiy-ijtimoiy tuzumda yashagan XX asrda diniy va an‘anaviy qadriyatlar qattiq cheklandi. Bu davrda ko‘plab urf-odatlar va marosimlar rasmiy taqiqlarga qaramay, xalq orasida yashirincha saqlanib qolgan. Mustaqillik yillarida bu qadriyatlar qayta tiklanib, davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xususan, Navro‘z, Qurbon hayiti, sunnat kabi marosimlarning qayta tiklanishi xalqni ma‘naviy uyg‘otish, milliy o‘zlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda o‘zbek xalqining an‘anaviy marosim madaniyati tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Sovetlar davridagi cheklovlar va ularning ijtimoiy ongga ta‘siri, mustaqillik yillarida marosimlarning tiklanishi va madaniy o‘zgarishi jarayonlari o‘rganiladi. Bu esa xalq madaniyatining barqarorligi, milliy o‘zlikni saqlash, ma‘naviy yangilanish mexanizmlarini ochib beradi.

Sovet davridagi urf-odatlar, an'analarning cheklanishi va o'zgarishi. 20-asrda o'zbek jamiyati Sovet Ittifoqi tarkibida siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlarni boshdan kechirar ekan, an'ana va marosimlar rivojida ham murakkab jarayonlar sodir bo'ldi. Hech kimga sir emaski, sovet tuzumi (1917–1991) mafkurasi din va an'anaviy qadriyatlarga nisbatan tanqidiy, ko'pincha dushmanona munosabatda bo'lgan. "Ateistik" siyosat, birinchi navbatda, ko'plab diniy bayramlar va marosimlarning senzura qilinishiga yoki ularning rasmiy bayramlar taqvimidan chiqarilishiga olib keldi. Masalan, 1920-yillardan boshlab Qurbon hayit, Ro'za hayit kabi bayramlarni nishonlash taqiqlangan; Navro'z o'zining rasmiy mavqeyini ham yo'qotib, odamlarga "eskilik sarqiti" sifatida taqdim etilgan. Yana bu bayramlarning xalq orasida yashirin bo'lsa-da davom etish holatlari ko'p bo'lgan. [5] Sovet davlati yangi kommunistik jamiyat qurar ekan, "yangi to'y va bayramlar"ni targ'ib qildi: 1-may – Mehnat kuni, 7-noyabr – Oktyabr inqilobi kuni, 8-mart – Xotin-qizlar kuni kabi bayramlar davlat miqyosida nishonlanib, "bayram qilinadigan milliy bayramlar"ga aylandi. Natijada, an'anaviy marosimlar ikkinchi darajaga tushib qoldi yoki oilaviy doirada chegaralandi.

Sovet ma'muriyati milliy an'analarni bostirish bilan birga ularni "zamonaviylashtirish"ga ham harakat qildi. Shaxsiy marosimlar "modernizatsiya qilindi". Masalan, nikoh marosimlari: sovet nikohlari faqat davlat fuqarolik holati organlarida (ZAGS) qayd etilgan, diniy nikohlar (mulla chaqirish) qat'iyan man etilgan. Garchi ko'p oilalar yashirincha nikoh tuzgan bo'lsalar ham, rasmiy nikoh marosimi ko'pincha "qizil to'y" tarzida, ya'ni kommunistik ruhdagi ssenariy asosida o'tkazilgan. To'yda kelin va kuyovning komsomol qo'ng'irog'iga raqs tushish odati paydo bo'ldi va kommunistik tabriklar aytiladi. [6] Sovet namunalari shakllangan bunday marosimlar mustaqillik yillarida milliy ruhga qaytdi — ularning qayta ko'rib chiqilishi va keyingi shakllari qiyoslandi, marosimlarning o'zgarishi tiklandi. Jumladan, tadqiqotchilar sovet davri va hozirgi nikoh marosimlarini fotohujjatlar orqali solishtirib, qonuniy tartib-qoidalar qanday o'zgarganini ko'rishdi: 1980-yillardagi fotosuratlarda kelin fotiha namozisiz FHDYO da turmushga chiqayotgan bo'lsa, 2000-yillardagi

fotosuratlarda diniy marosimlar tiklangan holda turmushga chiqayotgani ko'rsatilgan.

Sovet davrida shuningdek, bolalar tug'ilishi va ism qo'yish marosimlari ham sekulyar tarzda o'zgartirildi. "Beshik to'yi" o'rniga "Oktyabrina" deb nomlangan yangi tug'ilgan chaqaloq bayrami targ'ib qilindi – unda chaqaloqqa kommunistik liderlar ismini qo'yish, sovetcha tabriknomalar topshirish kabi unsurlar bo'ldi. Bunday tajribalar xalq orasida sust qabul qilindi, aksar oilalar baribir o'z bosiqlicigicha bola tug'ilganda azonga solib ism qo'yish, beshikka solish odatini yashirinchalar bajaraverdilar. Sunnat marosimi ham rasman taqiqlangandi, ammo xalq uni er ostiga o'tgan holda saqladi – ko'pincha do'xti xonalarda "operatsiya" nomi ostida o'tkazishdi, keyin oilada kichik tantana qilishdi. [7]

Sovet mafkurachilari nazarida milliy an'analar eski jamiyat qoldig'i sifatida yangi sotsialistik hayotga xalaqit berishi mumkin edi. Shu bois 1920-30 yillarda maxsus "Hujum" kampaniyalari o'tkazilib, xotin-qizlarning paranji yopinish odati, bolalarni maktabga bermay qo'shchanoq ishlatish odati, poligamiya (ko'p xotinlilik) kabi "ziyonli urf-odatlar" qattiq tanqid ostiga olindi va qonunan taqiqlandi. Jumladan, musulima ayollarning paranji o'rash odati ayol huquqlarini poymol qiluvchi yovuz odat deb e'lon qilindi va 1927-yilda O'zbekistonda ommaviy "Paranjiyechon" – ro'molni tashlash kampaniyasi boshlandi. Ushbu kampaniya davomida ayollarni jamoat joylarida ro'mollarini echishga va ularni yoqishga da'vat etilgan, buning natijasida bu odat sezilarli darajada kamaydi (ayniqsa, shaharlarda). Shuningdek, bolalarni unashtirish, kelin olish (qalin) kabi qadimiy odatlar Sovet qonunlari bilan taqiqlangan. Qizlar uchun majburiy ta'lim joriy etilishi bilan erta turmushga berilayotgan qizlar soni keskin kamaydi.

Biroq, sovet tuzumi mahalliy xalq urf-odatlarini butunlay yo'q qila olmadi — ularning aksariyati yashirin yoki niqoblangan shaklda davom etdi. Davlat hokimiyati organlari hatto ba'zi urf-odatlarni o'z mafkurasiga xizmat qiladigan shaklga aylantirishga harakat qilishdi. [2] Masalan, Navro'z bayrami uzoq yillardan buyon rasman nishonlanmagan bo'lsa-da, 1960-yillarga kelib uni "Bahor bayrami" yoki "Dehqonlar sayli" nomi bilan O'rta Osiyo respublikalarida qaytadan joriy etishga urinishlar bo'ldi.

Buxoro, Samarqand, Farg‘ona kabi viloyatlarda 80-yillarning oxiridan boshlab Navro‘z bayramini o‘tkazishga ruxsat berila boshlandi – bu, aslida, sovet tuzumi o‘zining quruq g‘oyaviy bayramlari (masalan, 7-noyabr) bilan xalq ruhini to‘liq qondira olmaganidan dalolat edi. Shunday qilib, Sovet Ittifoqi davrida "yangi urf-odatni an‘anaviylik bilan birlashtirish" siyosati paydo bo‘ldi — hatto rasmiy hujjatlarda "sovet xalqi hayotida yangi urf-odatning an‘anaviylik bilan uyg‘unligi" haqida yozildi. Boshqacha aytganda, sovet tuzumi milliy urf-odatlarni butunlay yo‘q qilishga qodir emasligini anglab, ularni nazorat ostida o‘zgartirish yo‘lini tanladi. Natijada 70 yillik sho‘rolar davri mahalliy an‘analarda ma‘lum iz qoldirdi: diniy marosimlar rasmiylashtirishdan mahrum bo‘lib, oilaviy-diniy doirada cheklangan holda yashadi; dunyoviy urf-odatlar mafkuraviy ruhda qayta talqin qilingan (masalan, “Sovet to‘yi”, “Oktyabr bolasi”).

Bu davrning qiziqarli jihatlaridan biri shundaki, Sovet hukumati milliy folklor va an‘analarni siyosiy zarari bo‘lmasa, “xalq og‘zaki ijodi” sifatida o‘rganishga qarshi emas edi. 1970-1980-yillarda folklorshunoslar o‘zbek marosim folklorini (to‘y qo‘shiqlari, laparlar, afsunlar va boshqalar) to‘plash va nashr etishni boshladilar. Eslatib o‘tamiz, 1980-yillarda olim B.Sarimsoqov ilk bor o‘zbek marosim folklorini ilmiy jihatdan tasniflagan: u marosim folklorining janrlarini ajratib, ularning jamiyatdagi o‘rnini ko‘rsatgan. Bu ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sovetlar davri oxirida milliy an‘analarga munosabat ancha yumshoq bo‘lganligiga guvoh bo‘ladi.

Shunday qilib, sovetlar davrida O‘zbekistonning urf-odat va marosimlari qisman cheklangan va qisman isloh qilingan bo‘lsa-da, butunlay yo‘qolmadi – aksincha, yashirin hayot orqali xalq xotirasida saqlanib qoldi. Jumladan, ko‘pgina qishloqlarda qattiq qatag‘on yillarida ham hayit namozi, Ramazon ro‘zasi kabi diniy urf-odatlar to‘xtatilmagan; to‘y va dafn marosimlari ham o‘ziga xos an‘analarga ega bo‘lsa-da, qarindoshlar davrasida o‘tkazildi. Sovet imperiyasining qulashi bilan ana shu “yer osti” hayoti yana yuzaga chiqdi.

Mustaqillik davrida milliy marosimlarning tiklanishi. O‘zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishgach, milliy madaniyat va qadriyatlarga munosabat tubdan o‘zgardi. Yangi davrda urf-odat va an‘analarni tiklash

davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylandi. Birinchidan, tarixan cheklangan bayramlar va marosimlar rasman tiklandi: 1992-yildan boshlab Navroʻz davlat miqyosida umumxalq bayrami sifatida nishonlana boshladi va 21-mart rasman dam olish kuni deb eʼlon qilindi. Shuningdek, Qurbon hayit va Ramazon hayitlari 1990-yillarning boshlarida rasmiy davlat bayramlari (dam olish kunlari) sifatida qonuniy maqomga ega boʻldi – bu islom sivilizatsiyasi qadriyatlariga qaytishning muhim ramzi boʻldi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridanoq milliy maʼnaviyatni tiklash tashabbuslarini ilgari surdi, “ajdodlarimizning boy merosi, urf-odat va anʼanalarini tiklash” [1] masalasini qayta-qayta taʼkidladi. 1990-yillarda xalq oʻrtasida milliy qadriyatlarni targʻib qilish maqsadida Maʼnaviyat va maʼrifat markazlari tashkil etildi. Xususan, har bir mahallada maʼnaviyat maslahatchisi lavozimi joriy etilib, ularning vazifalariga mahalla urf-odatlarini tiklash, yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash kabi masalalar kiritilgan.

Natijada, istiqlol yillarida koʻplab milliy marosimlarimiz asl koʻrinishida tiklandi. Masalan, ilgari yashirin nikohlar oq fotiha bilan omma oldida (masjidda yoki uyda) oʻtkazilgan; sunnat toʻylari katta bayram sifatida ochiq oʻtkazila boshlandi; mavlud oʻqish, yaʼni paygʻambar tavalludlarini nishonlash kabi anʼanalar qayta tiklandi. Oʻtgan yillar davomida milliy marosimlarning ijtimoiy-huquqiy asoslari ham shakllandi: “Toʻy va maʼrakalarni oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida”gi maxsus qaror va farmoyishlar qabul qilinib, marosimlarni ortiqcha dabdaba va dabdabalarsiz, balki milliy ruhda oʻtkazishga xizmat qilmoqda. Davlat rahbariyati tashabbusi bilan 1997-yilda Alisher Navoiy tavalludining 556 yilligi bahonasida respublika boʻylab “Navroʻz – milliy qadriyat” shiori ostida tadbirlar oʻtkazilib, Navroʻz madaniy merosimiz ramzi sifatida dunyoga namoyish etildi. [9] Shuningdek, har yili noyabr oyida “Oʻzbek xalqi qadriyatlari haftaligi” kabi tadbirlar oʻtkazilib, unda milliy liboslar koʻrgazmasi, milliy taomlar festivali, xalq oʻyinlari musobaqalari tashkil etiladi. Bularning barchasi mustaqillik davrida milliy anʼanalarni asrab-avaylash, ulardan jamiyatni jipslashtirish maqsadida foydalanish madaniyat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlganini koʻrsatadi.

Mustaqillik yillarida milliy marosimlar xalqaro miqyosda ham tan olindi. 2001 yilda UNESCO Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi “madaniy makon”ni Insoniyatning nomoddiy madaniy merosining durdona asari deb e’lon qildi. [8] Boysun tumani misolida o‘zbek xalqining qadimiy marosim va udumlari (Boysundagi “Boysun bahori” bahor bayrami, marosim qo‘shiqlari, doston an’analari va boshqalar) jahon ahli e’tiboriga havola etildi. Ushbu yutuqdan so‘ng O‘zbekiston o‘zining nomoddiy merosining boshqa elementlarini UNESCO ro‘yxatiga kiritish tashabbuslarini faollashtirdi. Natijada Shashmaqomning mumtoz musiqa janri, Katta askiya san’ati (o‘zbek xalq yumorchilarining og‘zaki bahslari), palov tayyorlash an’anasi, lazgi raqsi kabi qator urf-odat va madaniy elementlar UNESCO ning Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. 2009-yilda Navro‘z bayrami xalqaro miqyosda ham tan olindi va UNESCO tomonidan Markaziy va Janubiy Osiyo xalqlarining umumiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi (2010-yildan esa BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi bilan 21-mart Xalqaro Navro‘z kuni deb e’lon qilingan). Bunday xalqaro e’tirof mustaqillik davri madaniyat siyosatining muhim natijasi – milliy marosimlarimiz jahon maydoniga kirib, butun dunyo e’tiborini tortdi, o‘zbek xalqining boy ma’naviyati timsoliga aylandi.

Milliy marosimlarning tiklanishi nafaqat ma’naviy-ma’rifiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham o‘z samarasini berdi. Xususan, bu turizm sohasida juda yaqqol sezildi: boy milliy an’analari xorijlik sayyohlar uchun katta qiziqish omiliga aylandi. O‘zbekistonga kelgan sayyohlar nafaqat tarixiy obidalarni ko‘rish, balki xalqimizning o‘ziga xos an’analariga guvoh bo‘lishga intiladi. Masalan, Xiva va Buxoro shaharlarida teatrlashtirilgan to‘y marosimlari, xalq o‘yinlari ko‘rgazmalari tashkil etilmoqda – bu davrda sayyohlar o‘zbek to‘yining barcha bosqichlarini (non sindirish, kelin olib kelish, fотиha, kelinga salom berish va hokazo) ko‘z o‘ngida tomosha qilishlari mumkin. Shuningdek, har ikki yilda Samarqand shahrida o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida milliy marosim qo‘shiqlarimiz jahon sahnasiga olib chiqilmoqda. Bunday tadbirlar milliy an’alarimizni nafaqat ichkarida, balki tashqi tomondan

ham targ'ib qiladi, O'zbekistonning ijobiy madaniy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik davrida milliy marosimlarni rivojlantirish jarayonida ularning ayrim salbiy jihatlariga chek qo'yish masalasi ham e'tibordan chetda qolmadi. To'y-hashamlarda ortiqcha dabdaba, dabdababozlik kabi masalalar xalq orasida muhokama etilib, natijada 2018-yilda O'zbekiston hukumatining to'y-hashamlarga oid maxsus qarori qabul qilinib, marosimlarni ixcham va tartibli o'tkazishga chaqirdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan isrofgarchilik kabi illatlarning oldini olish, marosimlarning asl ma'naviy ahamiyatini asrab-avaylash edi. Yana bir jihati shundaki, globallashuv davrida marosim madaniyatimizga turli yot unsurlar ham kirib kelmoqda: masalan, ayrim to'ylarda G'arb uslubidagi "kelin-kuyov raqsi"ga o'xshash Xellouin kabi xorijiy bayramlarni nishonlashga urinish holatlari uchrab turibdi. Biroq xalqimiz o'zining tabiiy aql-zakovati bilan bunday holatlarga jiddiy qarshilik ko'rsatib, milliy an'analar ruhini asrab-avaylashga intilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mustaqillik davri O'zbekiston milliy an'ana va marosimlarining yuksalishi va gullab-yashnashi davri bo'ldi. Asrlar davomida turli bosqinlar, istibdodlar ostida yo'q bo'lib ketish arafasida turgan qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Ular davlat miqyosida qo'llab-quvvatlanib, milliy g'urur va iftixor manbaiga aylantirildi. Milliy an'analarning tiklanishi jamiyatimizda milliy o'zlikni anglash jarayonini tezlashtirdi – xalqimiz o'zining kimligini, qanday boy madaniyatga ega ekanini yanada teranroq anglay boshladi. Shu bilan birga, o'zbek urf-odatlarini jahon miqyosida tan olinib, umumbashariy madaniy merosning bir qismi sifatida e'tirof etildi. Bu an'analарimiz nafaqat o'zimiz, balki boshqa xalqlar uchun ham qadrli ekanini ko'rsatadi.

Xulosa. O'zbek xalqining an'anaviy marosim va udumlari asrlar davomida xalq hayotining ajralmas qismi sifatida shakllanib, milliy o'zlikni ifodalovchi muhim ma'naviy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har qanday siyosiy tuzum va mafkuraviy tazyiqlarga qaramay, xalq o'z urf-odatlarini, marosimlari va diniy

an'analariga sodiq bo'lib kelgan. Xususan, mustaqillik yillarida sovetlar davrida mafkuraviy tazyiq ostida yashirincha saqlanib qolgan marosimlarning qayta tiklanishi milliy o'zlikni anglash kuchini yaqqol namoyon etdi.

Mustaqillik davrida an'ana va marosimlarni tiklash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Navro'z, Qurbon hayiti, Ramazon hayiti kabi bayramlarga rasmiy maqom berilishi, to'y-hashamlarning milliy ruhda o'tkazilishi, xalq og'zaki ijodi va marosim folklorining tiklanishi milliy ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Ayni paytda o'zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi elementlarining UNESCO tomonidan xalqaro miqyosda e'tirof etilishi milliy qadriyatlarimizning jahon miqyosidagi ahamiyatini namoyon etdi. [1]

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy marosim va urf-odatlar shunchaki tarixiy hodisa emas, balki jamiyatning ma'naviy, falsafiy va ijtimoiy hayotini belgilab beruvchi jonli madaniy tizimdir. Ular xalq ruhi, birdamligi, milliy g'urur ifodasidir. Binobarin, bugungi globallashuv davrida milliy urf-odatlarni asrab-avaylash, ilmiy o'rganish va yosh avlodga etkazish o'zbek milliy madaniyati kelajagini ta'minlovchi eng muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B. 103.
2. Karimov I.A. *O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.* – Toshkent: O'zbekiston, 1992. –B. 96.
3. Abdurahmonov A. *O'zbek xalqining urf-odat va marosim madaniyati.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2001. –B. 205.
4. Qosimov B. *O'zbek xalqining madaniy merosi va an'anaviy qadriyatlari.* – Toshkent: Fan, 2012. –B. 295.
5. Sarimsoqov B. *O'zbek xalq marosim folklori: tadqiqotlar.* – Toshkent: Fan, 1988. – B. 245.
6. Saidov A. *O'zbekiston madaniy hayoti: tarix va zamonaviylik.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. –B. 100.

7. Yusupov A. *Milliy qadriyatlarimizning tiklanish bosqichlari*. – Toshkent: Ma’rifat, 2005. –B. 98.

8. UNESCO. *Intangible Cultural Heritage Lists – Uzbekistan Entries* (Navruz, *Shashmaqom*, *Askiya*, *Palov*, *Lazgi*). – Paris: UNESCO, 2001–2023.

9. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘y va marosimlarni tartibga solish to‘g‘risida”gi qarori*. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018.

AHMAD TOSHKO‘PRIZODA MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI

Ergashev Urolbek Berkinovich,
*falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti (DSc) mustaqil izlanuvchisi,
TIFT universiteti katta o‘qituvchisi.*

Yirik astronom, matematik, tarixchi va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek va uning maktabi erishgan tabiiy-ilmiy, falsafiy yutuqlari Markaziy Osiyodan tashqarida Hindiston, Eron, Turkiyada, G‘arbiy Yevropada esa XVI asrdan boshlab davom ettirilgan [1:94].

Mirzo Ulug‘bek vafotidan so‘ng uning shogirdi Ali Qushchi turk sultoni Muhammad Fotihning taklifiga binoan Istanbulda doimiy yashaydi, Aya-Sofiya madrasasiga bosh mudarris etib tayinlanadi. Ali Qushchi Ulug‘bek kutubxonasidagi mavjud barcha asosiy ilmiy qo‘lyozma va kitoblarni o‘zi bilan olib ketadi va u erda Ulug‘bek hamda uning Samarqanddagi rasadxonasi haqida, shuningdek Samarqand olimlarining riyoziyot ilmidagi yutuqlari va tabiiy-ilmiy qarashlarini keng yoyadi. Natijada bu keyinchalik Usmoniylar davlatida ham yirik olimlarning etishib chiqishiga sabab bo‘lgan ilmiy muhitni yuzaga keltiradi.

Bunday olimlar sirasiga o‘z zamonasining etuk va nomdor vakili hisoblangan Abul Xayr Isomiddin Ahmad ibn Muslihiddin Mustafo Xayriddin Xalil Toshko‘prizoda ham kiradi [2:48]. Toshko‘prizoda uning

taxallusidir. Toshko‘prizoda ajdodlarining asli kelib chiqishi Markaziy Osiyoga borib taqaladi. Olimning ajdodlari XIII asr boshlarida Chingizxonning G‘arbga qilgan yurishlaridan qochib, dastlab Afg‘oniston va Eronga, keyinchalik esa Anadoliga kelib, Toshko‘pruga kelib joylashishgan [3:154].

Ahmad Toshko‘prizodani har jihatdan ko‘p qirrali ensiklopedik olim deb tariflasak noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki, faylasufning til, mantiq, diniy ilmlar, tarix, fanlar tarixi, tib, fanlarning falsafiy tasnifi, matematika, etika, kalom falsafasiga oid 40 ga yaqin asarlari, 30 ga yaqin risolalari mavjud [4:122]. Ayniqsa, uning axloqqa oid asarlarida ilgari surilgan fikrlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Toshko‘prizoda o‘zining asosiy axloqiy qarashlarini “Sharh-ul axloq al-adudiyya” asari orqali ilgari surgan bo‘lib, mazkur asarda keltirilgan fikrlar nafaqat o‘z davrida balki, keyingi davrlarda ham ahamiyatini yo‘qotmadi. Olim asarda insonning xulqi, yurish-turishi va fe‘l-atvoridagi muhim masalalarga keng e‘tibor qaratgan. Uning “Adab ul-bahs va al-munozara” nomli risolasi munozara qilish etikasi haqida yozilgan eng muhim asarlardan biri hisoblanadi [5:204]. Mazkur risola orqali Toshko‘prizoda bahs-munozara yuritishning shartlari, qoidalari va boshqa e‘tibor berish zarur bo‘lgan jihatlari haqida fikr yuritgan. Ushbu asarni o‘rganish asnosida ilmiy bahs-munozara qilishning Sharqona an‘analari haqida aniq tasavvurlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

Faylasuf ushbu risolasida “Munozara to‘g‘rilik va haqiqatni yuzaga chiqarish uchun ikki tomonning ikki narsa o‘rtasidagi nisbatga diqqat-e‘tibor bilan qarashlari, u mavzu yuzasidan foydali jihatlarni o‘ylashlari kerak. Har ikki tomonning bu munozarada bir qancha vazifalari bo‘lishi barobarida, munozara qilishning ham bir qancha odoblari bordir”[5:205] deb yozadi.

Toshko‘prizoda munazora qilish odobi haqida so‘z yuritar ekan, uning to‘qqizta muhim jihatini ko‘rsatib beradi:

Inson munozarada gapni qisqaroq gapirishi, o‘z qarashlarining to‘g‘riligini boshqalarga majburiy o‘tkazmaslik;

- bahsda qaloq va ko‘p eshitilmagan so‘zlardan foydalanmaslik;

- mavhum va tushunarsiz soʻzlarni ishlatmaslik;
- qarshi tomonning gaplarini toʻliq tushunmasdan turib, uning fikrini boʻlmaslik;
- munozara mazmuniga uygʻun tushmaydigan fikrlardan qochish;
- bahs-munozarada kulmaslik;
- bahs-munozarada ovoz tovushni baland qilmasdan gapirish;
- hurmatli, eʼtiborli va aziz kishilar bilan koʻproq munozara qilish;
- munozarada koʻr-koʻrona oʻylab gapirmaslik [5:207].

Toshkoʻprizoda insonning xulqi, yurish-turishi va feʼl-atvoridagi muhim masalalarga keng eʼtibor qaratgan. U inson ilmni boylikdan afzal koʻrishi lozimligini uqtiradi. Har bir kimsa oʻzi egallagan bilimlarini boshqalarga ham oʻrgatishi kerak. Olimning ilmiy saboqlaridan xalq foydalansa va unga ehtiyoj sezsa, shundagina olim doimo izzat-hurmatda boʻladi. “Kichiklarga aqli etadigan darajada dars berish kerak” deydi olim. Faylasuf ilm-fan bilan shugʻullanishni inson uchun qadrli va munosib ish deb hisoblagan. U kishilarni yoshlikdan tarbiya qilishga, ularga kasb-hunar egallashga qiziqish uygʻotishga daʼvat etgan. Olim johillik, nodonlik, magʻrurlik, ilmsizlik, razolat, oʻz boyligi bilan maqtanishni qattiq qoralagan.

Toshkoʻprizodaning fikricha, har qanday olijanoblik, xayrli ishlar, ezgu amallar xudoning mohiyatidan kelib chiqadi. Xudo insonlarni yomon xulq-atvordan tiyilib turishga chorlaydi. Yomon xulqlar, feʼl-atvor, gunohlar va dinsizlik insonga xos emas. Ular faqat kishilarni sinash uchun yaratilgan narsalardir. Inson sharaflı umr kechirishi, ijobiy faoliyat olib borishi yoki nomaqbul ishlar bilan gunohga botishi mumkin. Gunohga botish esa jazoga tortilishga olib keladi. Faylasufning taʼkidlashicha, xudo tomonidan koʻproq insonlarga xayrli va savob ishlar qilish, gʻayrishaʼiy ishlarni esa qilmaslik buyurilgan. Xudo yomon xulq-atvorli insonlarni jazolaydi.

Olim tijorat qilish etikasini tushuntirar ekan, sotuvchi molini ortiqcha maqtamasligi kerak, chunki uning maqtab aytgan sifatlari molida boʻlmasa, u yolgʻon gapirgan boʻladi deydi. Shuningdek, u xaridorga ochiqchasiga gapirib, molining kamchiligi va aybini aytib sotishi zarur. Agar aybini aytib

sotmasa, o'ziga va xaridorga hiyonat qilgan bo'ladi. Bu esa insonlar o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashiga olib keladi.

Undan tashqari faylasuf ovqatlanish etikasi to'g'risida ham fikr-mulohaza yuritgan. Unga ko'ra, inson taom iste'mol qilishda har doim ettita o'ta muhim jihatga rioya etishi shart: ovqat halol yo'l bilan orttirilgan bo'lishi lozim; ovqatlanishdan oldin va keyin qo'llarni yuvish kerak; taomni dasturxon ustiga qo'yish darkor; qulay shaklda o'tirib eyish kerak; inson taomlanayotganda ibodat va toat uchun quvvat berishini niyat qilishi darkor, qo'ldan kelganicha kam ovqatga ham qanoat qilishi lozim; tayyor taomga rozi bo'lib, qanoat qilish zarur; taomni ko'pchilik bilan eyishga harakat qilish kerak.

Toshko'prizoda parhez qilishning ham foydali xususiyatlari ko'pligini aytib o'tgan. Uning fikricha, parhez qilish qalbning tozalanishiga sabab bo'lib, inson qalbi ibodat va zikrning lazzatini tuyishga tayyor bo'ladi. Ochlik dunyo va oxirat azoblarini unutmasligimizni eslatib turadi va barcha gunohlarga sabab bo'ladigan shahvat, istak va orzularni cheklab turadi. Parhez qilish insonni kam uxlashga va kechasi ko'proq uyg'oq bo'lib ko'p ishlar bilan shug'ullanishiga yordam beradi. Agar biron kimsa to'q bo'lsa, juda ko'p suv ichadi. Ko'p suv ichsa, uyqusi ham ko'p bo'ladi. Uyqusi ko'p bo'lgan kimsaning umri behuda bo'ladi. Inson parhez qilish natijasida o'z tanasini sog'lomlashtiradi, chunki ko'p eyish deyarli barcha hastaliklarning sababchisi hisoblanadi. Inson parhez qilish asnosida tejagan ozuqani faqirlarga va etimlarga edirishdek savob oladi [6:43].

Toshko'prizoda axloqiy qarashlarini Qur'on va hadislar asosida asoslashga harakat qiladi. Nafaqat axloqiy qarashlarini, balki falsafiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohalaridagi fikrlarini ham Islom dini nuqtai nazaridan asoslab bergan. Buni Toshko'prizodaning ko'p yillar davomida qozilik vazifasida faoliyat olib borganligi, shariat qonunlari, hadis ilmi va diniy ilmlarni yaxshi bilganligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatov N., Hojiboyev A., Yuldasheva S. Falsafa. –Toshkent: “Toshkent moliya instituti”, 2005. –B. 94.

2. Duman Ali. Taşköprüzade Ahmed efendi ve Mevzu'atı'l-ulum'da er alan usul ve fikh ile ilgili ilimler // Gazi Üniversitesi Çorum İlahiyat Fakültesi Dergisi, 2004. –S. 48.

3. Ipşirli Mehmet. Taşkoprizadeler (Bir Osmanlı ülema ailesi), TDV İslam Ansiklopedisi. –Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı, 2011. –S. 154.

4. Ahmed Efendi Taşköprülü-zade. Yaşamları ve yapıtlarıyla Osmanlılar ansiklopedisi, cild 1. –İstanbul, 1999. –S. 122.

5. Güzel Abdurrahim. Taşköprülüzadenin 'Adab'ul-Bahs ve'l-Münazara' isimli risalesi (Tanıtım-Tercüme-Tahkik). Erciyes üniversitesi İlahiyat fakültesi, Öğr. Üyesi. –S. 204.

6. Taşkoprizade Ahmed Efendi. Ahlak-ı Adudiyye Şerhi. –İstanbul: Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı, 2014. –S. 43.

MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROSNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

G'afforova Ismigul Nurillo qizi

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

Ma'naviy meros haqida gapirar ekanmiz avvalo bu tushuncha har bir xalqning ma'naviy dunyosiga bevosita bog'liq ekanini anglashimiz zarur. Chunki ma'naviy qadriyatlar ham ma'naviyatning negizida shakllangan bo'ladi. "Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir"[1]Ushbu fikrlardan kelib chiqib ayta olamizki har bir xalqning ma'naviyati qanchalik yuksak bo'lsa, ma'naviy meroslari ham shunchalik boy bo'ladi. Milliy qadriyatlarimizning shakllanish bosqichiga qaraydigan bo'lsak, eng dastlabki ibtidoiy davrlardan boshlab zaminimizda qadimgi odamlar turli xil yumushlar bilan shug'ullanib kelishganligini ko'rishimiz mumkin. Bizning mintaqamiz qadim zamonlardanoq eng dastlabki sivilizatsiyalar boshlangan zamin bo'lib kelgan.Eng qadimgi davrlarda esa qadriyatlarning shakllanishi

odamlarning ovchilik va termachilik bilan shug'ullanish jarayonlarida ularning jamoa bo'lib harakat qilishlari, shuningdek jamoada har bir ovchining bir birini turli yovvoyi hayvonlardan himoya qilishga va o'ljani birgalikda iste'mol qilishlari jarayonlarida bir-biriga g'amxo'rlik ko'rsatishlari negizida paydo bo'lgan

Tarix kitoblaridan ma'lumki ular ov jarayonlariga chiqishdan oldin tayyorgarlik ko'rishganligi va yosh bolalariga ham ushbu mashg'ulotlarni o'rgatishgani ortidan vaqt o'tib hammamiz sevib o'ynagan, etnomadaniyatimiz tizimida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan va hozirgi kunda ba'zi turlari sport turi sifatida dunyo tomonidan e'tirof etilib, ko'plab musobaqalar uyushtirilayotgan xalq o'yinlarimiz kelib chiqqani barchamizga ma'lum. Bugungi kunda jahon e'tirof etayotgan asli kelib chiqishi xalqimizning boy tarixiga borib taqaladigan sport turlariga hech shubhasiz milliy kurash sport turini albatta kirita olamiz. Milliy kurashimiz nafaqat yoshlarning baquvvat va zabardast bo'lishlari, irodalari va mushaklarining mustahkam bo'lishi uchun eng ko'p foydali bo'lgan mashg'ulotlardan biri hisoblanadi va hozir ushbu o'yin jahon sporti sifatida Osiyo chempionatlari, Jahon chempionatlarida chiqayotgani, shuningdek dunyo arenalarida "yonbosh", "halol" singari o'zbekcha so'zlar yangrayotgani bizga o'zgacha g'urur, faxr va iftixor beradi. Shu bilan birgalikda asli kelib chiqishi qadim o'tmishga borib taqaladigan, mard va jasur yigitlarning jang-u jadallarda raqibni engishlariga katta yordam bergan ot-uloq yugurtirish o'yini bugungi kunda nafaqat o'zbek xalqi, balki butun Markaziy Osiyoda sevib o'ynaladigan, to'y-u hashamlar, bazmlarning o'zgacha husni bo'lgan ko'pkarining shakllanishiga xizmat qilgan. Ko'pkari ham hozirgi kunda sport turi sifatida ayniqsa qadriyatlarimizning bebaho ko'rinishi bo'lgan Navro'z sayillarida barcha mard o'g'lonlar tomonidan o'ynaladigan xalq o'yini hisoblanadi. "Erkaklarning kuch-qudrati, chavandozlik, hamda epchillik mahoratini sinovchi ushbu milliy sport turi ming yillardan beri o'zbekning ajralmas va o'ziga xos ot musobaqasidir. Ushbu o'yin o'zbeklarda "ko'pkari" yoki "uloq", qirg'izlarda "ko'kbo'ru", qozoqlarda "ko'kpar tortu", tojiklar va afg'on o'zbeklarida "bo'zkashi" deb yuritiladi"[2]

Ma'naviy qadriyatlarimiz haqida qancha gapirsak ham shuncha ozdir. Negaki bizning milliy o'zligimizni, xalqimizning eng ezgu niyatlari va urf-odatlarini o'zida mujassam etgan qadriyatlarimiz ming yillardan buyon o'zining bahosini yo'qotmagan holatda kelgani va jamiki o'zbek xalqi uchun ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib qolgan an'alarimizning buyukligi va bizdan keyingilar uchun ham nafaqat tariximizning buyukligini ko'rsatuvchi, shuningdek ma'naviy dunyomizning qanchalik boyligini ko'rsatadigan yaqqol misol ekanligini barchamiz anglashimiz shart va zarurdir. Chunki bizning ma'naviy qadriyatlarimiz asrlar osha turli bosqinchilar zulmlaridan o'tib, yo'qolib ketmay aksincha yanada sayqallanib, yanada ko'proq boyib borgani hech kimga sir emas. Masalan, sobiq sho'ro davrida eng sevimli bayramlarimizdan biri hisoblangan "Navro'z"ning o'tkazilishiga turli ta'qiqlar qo'yilganligi, bu kunni xalqimizning eng ezgu niyatlarini o'zida mujassam etgan ulug' kun sifatida, yangilanish bayrami va qishning sovuq nafasidan bahorning iliq kunlariga etishilgani uchun shukronalik aytadigan shodiyona sifatida o'tkazilmay, oddiygina bir kun sifatida o'tkazilishi uchun bor kuchlarini ishga solishgani albatta ko'ngilni xira qiladi. Chunki ushbu bayram o'zbek xalqi uchun eng muqaddas bayramlardan biri va bu kun uchun bobolarimiz va momolarimiz qishning nafasi hali ketmasidanoq bug'doy boshloqlarini ekishganiga va har yili ushbu kunda "esonlik-u omonlik, hech bo'lmasin yomonlik, yanagi oy-yillarga o'ynab-kulib etaylik" deya duo qilishgani va yangi yilning boshlanish kuni sifatida e'tirof etishganiga tarix guvoh. Ammo shunday bayramning bizning ma'naviy merosimizni boyitishga hissasining ko'pligini anglagan zulmkorlar tufayli bizdan oldingilar yashirincha bayramni o'tkazishga majbur bo'lishgan. Mustaqillik tufayli esa bu bayram bizga qaytdi va yana erkin bo'lib mahallalarda ushbu bayramni birgalikda nishonlashga ruxsat berilgani shukronalik aytishimizga sabab bo'ldi. "Xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish "Navro'z" bayramining xalqimizga qaytarib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo'ldi. 1991-yildan boshlab Prezident farmoniga ko'ra 21-mart - Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Qadimiy xalq bayrami-Navro'zning tiklanishini respublikamizning butun aholisi mamnuniyat

bilan ma'qullab, ko'tarinki ruhda kutib oldi va hozirda ham ardoqli bayram sifatida nishonlab kelmoqda"[3] Shu bilan birgalikda mustaqillik yillarida ma'naviy qadriyatlarimizning eng dastlabki taraqqiyot bosqichiga guvoh bo'lgan qadimgi tosh bitiklar, xalq dostonlari va milliy bayramlarimiz, shuningdek ma'naviy boyliklarimizning eng go'zal ko'rinishlari bo'lgan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Furqat, Nodirabegim, Uveysiy va boshqa ijodkorlarning ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlangan izlanishlar tufayli asrlar osha kitobxonlarning qo'liga etib bora olmayotgan g'oyat katta ma'naviy meros xalqimizning nafaqat qo'liga etib bordi, balki ularning qalbida yanada ko'proq o'rin egalladi. Ma'naviy qadriyatlarimizning va milliy merosning bugungi kundagi ahamiyati shundan iboratki, hozirgi globallashuv sharoitida boshqa xorij mamlakatlaridan "ommaviy madaniyat" ning turli ko'rinishlari kirib kelayotgan va ayniqsa jamiyatning ertasi uchun eng muhim ahamiyat kasb etadigan yoshlar ongini turli mafkuralar bilan zaharlayotgan sharoitda har bir inson uchun yot g'oyalarga qarshi turadigan mafkuraviy immunitetning shakllanishiga eng avvalo yordam ko'rsata oladigan mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni bo'lib o'tgan ma'naviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselekr davomida "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisod bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi-bozor munosabatlariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi-ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" deb aytganlari ham ma'naviy merosimizning ahamiyati borasida juda katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. – Toshkent. Ma'naviyat. 2016. –B. 19.

2. Jumanioyozova F., Nuriddinova M. O'zbeklarda ulq-ko'pkari o'yinining tarixi xususida. 2024.

3.O'zbekiston tarixi (Mustaqillik davri). Toshkent G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. 2018.

4.<https://qalampir.uz/uz/news/prezident-ma-naviyatni-yuksaltirish-buyicha-yigilish-utkazdi-31829>.

MILLIY QADRIYATLARNING TARIXIY VA FALSAFIY ILDIZLARI

Mavlonova O'g'iloy Hamdamovna

ZARMED universiteti Buxoro kampusi

Tillar kafedrası mudiri f.f.f.d. (PhD), professor

Insoniyat tarixida jamiyatning ma'naviy hayotini belgilaydigan eng muhim tushunchalardan biri qadriyatlar hisoblanadi. Qadriyatlar — insonning ruhiy-axloqiy dunyosini tashkil qiluvchi, uning ijtimoiy hatti-harakatiga yo'naltiruvchi me'yoriy tamoyillar majmuidir. Ayni paytda milliy qadriyatlar millatning o'ziga xosligini, tarixiy xotirasini, ruhiy-ma'naviy mohiyatini belgilovchi asosiy kategoriyadir. Olimlarning ta'kidlashicha, qadriyatlar “jamiyatning o'zini anglash darajasi va ma'naviy saviyasining mezoni” sanaladi [4:12].

Milliy qadriyatlar tarixiy taraqqiyot jarayonida avloddan-avlodga o'tib, xalqning hayot tarzi, rasm-rusumlari, diniy e'tiqodlari, turmush madaniyati, mahalla hayoti, oilaviy an'analar orqali shakllanib keladi. Ular o'zbek xalqining turmush tarzi, diniy-ma'naviy e'tiqodi, madaniy merosi bilan uzviy bog'liq bo'lib, “milliy o'zlikning ildizlari” sifatida namoyon bo'ladi [3:49].

Maqolaning maqsadi — milliy qadriyatlarning tarixiy ildizlarini, falsafiy asoslarini hamda zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini ilmiy manbalar asosida chuqur tahlil qilish.

Qadriyat tushunchasi falsafaning aksiologiya bo'limida o'rganiladi. Aksiologiya qadriyatlarning mohiyati, turlari, jamiyatdagi funksiyasi,

tarixiy o'zgarishi bilan shug'ullanadi. Talapov B. qadriyatlarni "jamiyatning axloqiy, ruhiy, madaniy me'yorlarini aks ettiruvchi kategoriya" sifatida tariflaydi [5:33].

Falsafada qadriyatlar quyidagi yondashuvlar asosida talqin qilinadi:

Obyektiv aksiologik yondashuv. Bu yondashuvga ko'ra, qadriyatlar jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotidan tashqarida mavjud bo'ladi. Masalan, adolat, vijdon, haqiqat kabi umumiy kategoriyalar jamiyatdan qat'i nazar qadriyat sifatida mavjud [4:44].

Subyektiv-psixologik yondashuv. Bu qarash qadriyatlarni inson ongida shakllanadigan individual baholash tizimi sifatida ko'radi.

Madaniy-tarixiy yondashuv. Bu yondashuv eng to'g'ri modeli bo'lib, milliy qadriyatlar aynan madaniyat, tarix, urf-odatlar orqali shakllanishini tasdiqlaydi [4:14].

Milliy qadriyatlarning shakllanish manbalari

Milliy qadriyatlar bir necha omillar ta'sirida shakllanadi. Ular quyidagicha guruhlanadi:

Urf-odatlar va xalq an'analari. Urf-odatlar – xalqning ko'p asrlik tajribasi, ma'naviy xotirasi. Masalan, "Ota-onani ulug'lash", "Mehmondo'stlik", "Mahalla birdamligi", "Qo'ni-qo'shnichilik hurmati". Bu qadriyatlar o'zbek xalqining hayot tarzidan kelib chiqadi va tarix davomida barqaror saqlanib keladi [3:27].

Diniy-ma'naviy omillar. O'zbek xalqi qadriyatlari Islom dini bilan chambarchas bog'liq. Halollik, mehr-shafqat, sadaqa, saxovat, poklik kabi qadriyatlar diniy manbalarda keng ta'riflangan [4:20].

Tarixiy xotira va tarixiy shaxslar merosi. Amir Temur, Alisher Navoiy, Imom Buxoriy, Beruniy, Xorazmiy kabi allomalar merosi milliy g'urur va qadriyatlar tizimini shakllantirgan [5:73].

Madaniyat va san'at. Milliy kiyimlar, amaliy san'at, xalq og'zaki ijodi (ertaklar, maqollar), marosimlar milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga etkazib kelgan [3:51].

Milliy qadriyatlarning tarixiy bosqichlari. Milliy qadriyatlar asrlar davomida quyidagi bosqichlarda rivojlangan:

Qadimgi turkiy davr qadriyatlar. Qadimgi turkiy bitiklarda (Orxon-Yenisey yodnomalarida) vatanparvarlik, mardlik, adolat, birlik kabi qadriyatlar asosiy o‘rin tutgan [6:49].

Islom uyg‘onishi davri (IX–XII asrlar). Imom Moturidiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi mutafakkirlar ilm-ma‘rifat, aql, adolat, halollik qadriyatlarini falsafiy asoslab bergan [6:50].

Temuriylar renessansi. Amir Temurning “Temur tuzuklari”da tartib, intizom, adolat, davlatga sadoqat, ilmga hurmat qadriyat sifatida belgilangan [5:82].

XIX–XX asr ma‘rifatchilik davri. Munavvarqori, Fitrat, Avloniy kabi ma‘rifatchilar milliy uyg‘onish g‘oyasi bilan milliy qadriyatlarni tiklashga intilgan [1:102].

Mustaqillik davri qadriyatlar. 1981 yildan boshlab milliy o‘zlikni tiklash, tarixiy xotirani qayta anglash, ma‘naviy merosni asrash ustuvor vazifa sifatida qaraldi [3:89].

Milliy qadriyatlarning falsafiy mohiyati. Milliy qadriyatlarning falsafiy ildizlari uch asosda yotadi:

1. Ontologik asos. Qadriyatlarning mavjudligi jamiyatning tarixiy borlig‘i bilan belgilanadi.

2. Aksiologik asos. Har bir milliy qadriyat ma‘lum axloqiy, ruhiy yoki ijtimoiy baho bilan bog‘liq.

3. Epistemologik asos. Qadriyatlar bilimlar, e‘tiqodlar, qadimiy manbalar orqali ongda shakllanadi. Masalan, “mehmondo‘stlik” qadriyati — axloqiy tamoyil (aksiologik), tarixiy shakllangan an‘ana (ontologik) va madaniy bilimlar orqali ongga singdirilgan (epistemologik) birlikdir [5:56].

Globalizatsiya sharoitida milliy qadriyatlar. Zamonaviy dunyoda global jarayonlar milliy qadriyatlarga ham ijobiy, ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Ijobiy tomonlar

Milliy qadriyatlarni dunyoga targ‘ib qilish imkoniyati;

Madaniy almashinuv;

- Milliy brendlar shakllanishi.

Salbiy tomonlar

G'arbona madaniy standartlarning o'sishi;
Internet orqali madaniy bosim;
Mahalliy qadriyatlarning arzonlashuvi xavfi.

Shu bois milliy qadriyatlarni asrab-avaylash uchun ta'lim tizimida qadriyatlar darslarini kuchaytirish; ommaviy axborot vositalarida targ'ibot; oilada qadriyatlar tarbiyasini kuchaytirish zarur [4:21].

Xulosa. Milliy qadriyatlar millatning ruhiy-ma'naviy poydevorini tashkil etuvchi, tarixiy taraqqiyotda shakllangan va jamiyatni birlashtiruvchi asosiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida ko'rib o'tilganidek, qadriyatlar nafaqat madaniy va ijtimoiy me'yorlar majmui, balki milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va jamiyatning ma'naviy yuksalishini ta'minlaydigan muhim tamoyillardir. Milliy qadriyatlarning shakllanishi uzoq tarixiy bosqichlarni o'z ichiga oladi: qadimgi turkiy davrning mardlik va birlik g'oyalari, islom uyg'onishining ilm-ma'rifatga asoslangan qadriyatlari, Temuriylar davrining adolat va intizom tamoyillari, ma'rifatchilik davrining milliy uyg'onish g'oyalari — bularning barchasi hozirgi milliy tafakkur tizimining poydevorini yaratdi.

Shuningdek, milliy qadriyatlar zamonaviy falsafiy yondashuvlar nuqtayi nazaridan ham chuqur mohiyat kasb etadi. Aksiologiya nuqtai nazaridan ular jamiyatning axloqiy mezonini belgilasa, ontologik yondashuv qadriyatlarning tarixiy mavjudligini asoslaydi, epistemologik yondashuv esa qadriyatlarning ongda shakllanish jarayonini yoritadi. Bu birlik milliy qadriyatlarning nafaqat tarixiy, balki ilmiy-nazariy jihatdan ham mustahkam asosga ega ekanini ko'rsatadi.

Globalizatsiya sharoitida milliy qadriyatlarning barqarorligini ta'minlash o'ziga xos strategik vazifaga aylanmoqda. Dunyoqarashlar to'qnashuvi, madaniy standartlarning ommaviylashuvi, internet makonining cheksizligi milliy qadriyatlarning o'zgarishi va transformatsiyasiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli milliy qadriyatlarni saqlash faqat an'analarni takrorlash emas, balki ularni zamonaviy talablarga mos ravishda qayta talqin qilish, yosh avlod ongiga zamonaviy va milliy uyg'unlik asosida singdirish bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'lim tizimida

qadriyatlar pedagogikasini rivojlantirish, madaniy-ma'rifiy loyihalarni kuchaytirish, oilada ma'naviy tarbiya mexanizmlarini mustahkamlash — milliy qadriyatlarning barqaror rivojini ta'minlaydigan asosiy omillardandir.

Umuman olganda, milliy qadriyatlarni o'rganish, saqlash va rivojlantirish inson kapitalining ma'naviy sifatini oshirish, jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlash, milliy o'zlikni asrash va kuchaytirishning eng muhim vositalaridan biridir. Shu bois ushbu masala nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy, madaniy va tarbiyaviy jihatdan ham ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: 2020 yilgi akademik nashr. – 210 b.
2. Ikromova S.A. Milliy va diniy qadriyatlarning inson tarbiyasidagi o'rni. – 2022. – 112 b.
3. “Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2023. – 156 b.
4. Muhammadjonova L.A. “Jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasi.” Darslik. – Toshkent: TDIU, 2024. – 235 b.
5. Talapov B. Qadriyatlar falsafasi. Darslik. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2024. – 210 b.
6. Umarov H. Historical Roots of National Values. American Journal of Business Management, Economics and Banking. Vol. 33, 2025. – pp. 49–52.

MAHALLANING INSONLAR HAYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

(ijtimoiy-falsafiy tahlil)

Teshaboyev Abbas Xoldorjon o‘g‘li

falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),

Namangan davlat universiteti

Mahalla milliy qadryatlarimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki, insonlar o‘rtasidagi barcha ijtimoiy munosabatlar avvalo mahalladan boshlanadi. “Mahalla”ning shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvi xalqimizning uzoq tarixi, ma’naviyati va turmush kechirish jarayonlari bilan uyg‘unlashib ketgan.

XX asrning oxirgi o‘n yili va XXI asrning boshi mustaqil O‘zbekistonda milliy davlatchilikni shakllantirish, demokratik institutlarni rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilgan davr bo‘lib tarixda qoladi.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni kechayotgan ekan, mamlakatimiz aholisining turli qatlamlari manfaatini ifoda etuvchi nodavlat-notijorat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ma’lumki, o‘zbek xalqi jahon xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar orasida birinchilardan bo‘lib o‘troqlashgan qadimiy madaniy xalqlardandir. Shaharlarimiz ham, katta qishloqlarimiz ham azal-azaldan mahallalarga bo‘lingan. Chunki daryo bo‘ylaridagi serhosil erlar, tabiiy sharoit shunday hayot tarzini taqozo qilgan. Qadimgi turkiy tilda mahalla iborasi o‘rnida “kuy” so‘zi ishlatilgan. Bu so‘z mahalla-kuy juft so‘zi tarkibida qo‘llanadi. Toshkentda bir so‘z ikki o‘rinda - mahalla va turar joy ma’nolarini ifodalagan holatlarni uchratamiz. Birinchisi, Sobir Rahimov tumanida Xofizkuy (xofiz - Qur’oni Karimni to‘liq yod olgan qori) mahallasi bor. Ikkinchisi, Shayxontoxur tumani, Ko‘kcha dahasidagi Shayx Zayniddin bobo qabristoni atrofidagi joylar qadimda Kuyi Orifon - oriflar (yetarli diniy va dunyoviy bilim egalari) mahallasi deyilgan. Kuy iborasi Turonning boshqa hududlarida va bir qator turkiy xalqlarning tillarida ham saqlanib

kelmoqda. Qrimdagi tumanlardan biri “Jonkuy” deb ataladi. Jumhuriyatida “kuy” iborasi mahalla atamasi o‘rnida rasman qo‘llanadi: Bakirkuy, Otakuy, Xo‘jakuy va hokazo.

O‘tmishda katta shaharlarimiz avvalo dahalarga, dahalar esa mahallalarga bo‘lingan. Mahallalardagi hokimiyatni ellikboshi boshqargan, diniy ishlarga mahalla masjidining imomi etakchilik qilgan. Mahallalarga bo‘lingan katta qishloqlarni amin boshqargan, kichik qishloqlarni qishloq oqsoqoli idora qilgan.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash va har jihatdan barkamol avlod va komil inson tarbiyasiga bog‘liqdir. Bugungi globallashuv davrida yoshlarimizni ma’naviy tahdidlardan himoya etishda ularni milliy ma’naviy qadriyatlarimizni va sharqona madaniyat asosida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi va shu bilan birga yurtimizda juda qadim zamonlardan buyon tarbiya maskani sifatida oilani muqaddas hisoblab kelgan. Azaldan yurtimizda oila mustahkam, uning a’zolari tinch, farovon va sog‘lom bo‘lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga kelishini bilganlar. Bugungi kunda jamiyatimizni har qanday sohasida globallashuv jarayoni yuzaga kelmoqda. Jahonda kechayotgan globallashuv va integratsiya jarayonlari bir tomondan, xalqlar va madaniyatlarning bir-biriga yaqinlashishiga, umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishiga imkon berayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, milliy madaniyatlar va etnoa’nalarning unifikasiyalashuviga, assimilyasiyalashuviga sabab bo‘lmoqda. O‘zbek oilasi esa o‘z etnoan’analari, tarixiy-madaniy tajribalarini ustun qo‘yadi, ularga tayanadi. Mazkur paradigmalar farq bir-birlarining yashash tarzini qabul qilavermaslikni keltirib chiqaradi. Globallashuv tushunchasi ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, kengroq ma’noda – bu milliy va mintaqaviy muammolarning umumjahon muammolariga o‘sib o‘tishi va yangi xo‘jalik, ijtimoiy va tabiiy-biologik global muhitning shakllanishidir. Aniqroq ma’noda esa – bu iqtisodiy va xo‘jalik tuzilmalarining transformasiyasi bo‘lib, yaxlit va yagona jahon geoiqtisodiy voqeligiga aylanishidir.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida ko‘rsatilishicha “mahalla” atamasi arabcha bo‘lib, “o‘rin-joy” degan ma’noni anglatgan. U turli

mintaqalarda mahallot (joy) guzar, jamoa, elat, elod nomlarda atalib kelingan. Adabiyotlarda mahallalarning ko'p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Alisher Navoiy o'zining "Hayrat ul-abror" asarida mahallani "mahalla shahar ichidagi shaharcha"dir deb ta'riflaydi. Hirot shahri yuz shaharcha ahamiyatiga ega bo'lgan mahallalardan tashkil topganligini aytib o'tadi. Mahallalar ayniqsa, Amir Temur davrida ravnaq topgan. Mahallalar fuqorolarning kasb-kori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Masalan, zargarlik, misgarlik, ko'ncilik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi va h.k.[1].

Ba'zi bir ma'lumotlarda, mahalla milloddan avvalgi II asrda paydo bo'lgan bo'lib, u asosan katta tepaliklarni himoya devorlari bilan o'ralgan qo'rg'on shaklida mavjud bo'lgan. Qo'rg'onning quyi qismida aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'illangan. Kichik mahalla shaklidagi aholi istiqomat qiluvchi maskanlar ishlab chiqarish sur'atining rivojlanishi tufayli keyinchalik katta shaharlarga aylangan ta'kidlanadi.

Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Farobiy, Mahmud Qoshg'ariy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida mahalla to'g'risidagi ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Masalan, Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Beruniyning "Uy xo'jaligini yuritish to'g'risida", Mahmud Qoshqariyning "Devoni lug'ati turk" asarlarida mahalla aholisi, ularning kasbi-kori, urf-odatlar, an'analari, diniy e'tiqodi, xo'jalik yuritishi va umuman o'ziga xos turmush tarzi haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tganlar[2].

Demokratiyaning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi hisoblanadi. O'zbekistonda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish tizimining asosiy bo'g'inini mahallalar tashkil qiladi. Demak, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishini yaxshi bilishimiz uchun, avvalambor, uning asosiy bo'g'ini bo'lmish mahallalarning tarixini o'rganishimiz lozim, zero haqqoniy tarixni bilmasdan turib o'zlikni anglash mumkin emas[3].

Shunday ekan, biz fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining asosiy bo'g'ini bo'lmish mahallalar tarixiga murojaat qilamiz. Holbuki qadimda bizning yurtimizda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi mahalla

shaklida namoyon bo'lgan va shakllangan, shuning uchun biz ko'proq mahalla institutiga e'tibor qaratamiz.

Eng qadimiy qadriyatlarimizdan hisoblangan, xalqimizning qon-qoniga singib ketgan, o'zbek xalqining yashash tarzini o'zida to'la-to'kis mujassam etgan mahalla jamiyatdagi munosib o'rniga tiklab qo'yildi. O'zbek mahallasi — xalqimizga xos donishmandlik timsoli. U tarixda ham o'z jozibasi, hayotiyligi, xalqchilligi, betakrorligi bilan dunyo ahli tafakkurini o'ziga jalb qilib kelgan. Moziydan tortib hozirgacha davlatlar o'zining ko'pgina ezgu amallarini, xosiyatli, barakatli tadbirlarini, hayotiy muhim masalalarini mahallada oqsoqollar, faollar aql-zakovati, adolatli nazorati bilan amalga oshirib, hal qilib keladilar[4].

Chindan ham o'zbek mahallalari uzoq yillik tarixga ega bo'lib, hozirgi O'zbekiston hududida o'zini-o'zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli — mahalla azaldan mavjuddir. Odamlar to'da-to'da yashay boshlaganlarida bir-birlarining issiq-sovug'idan, hol-ahvoli, g'am-kulfati-u, xursandchilik — shodliklaridan doimo xabardor bo'lib kelganlar[5].

Tarixdan ma'lumki, mahallalar ezgulik beshigi, tarbiya o'chog'i, milliy udumlar, urf-odatlar va an'analar, shakllangan maskan bo'lib, odamlarni o'zaro mehr-oqibatli, saxovatli qilib tarbiyalashda, o'ziga xos jamoaning shakllantirilishida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Fuqarolarning o'zini-o'zi idora qilishi qadimgi Sharq mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston hududida vujudga kelgan ilk davlatlar va ularning boshqaruv faoliyatida ham yorqin ifodasini topgan. O'zbek mahallalari o'zida jamoatchilik ruhi, insonparvarlik o'zaro yordam, insof, diyonat, rahmdillik kabi insoniy tuyg'ular bilan sug'orilgan holda shakllangan katta oiladir. Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida qarindosh-urug'chilik asosida tashkil topgan jamoalar o'rniga kelgan mahallalar jamiyat hayotida asosiy o'rin tuta boshlagan. Shu bilan birga, Mahalla xo'jalik yuritishni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tashkil qilishning asosini tashkil eta boshladi, negaki sug'oriladigan erlarda dehqonchilik sharoitlarida jamoa bo'lib harakat qilish talab etilardi va iqtisodiy maqsadlarga erishmoq uchun guruhliy birdamlikning zarurligi anglana boshlandi.

Manbalarni o'rganish, tahlil etish jarayonida tug'ilgan mantiqiy xulosaga ko'ra, odamlar ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi ko'chmanchilikdan o'troq hayotga o'tib, jamoa bo'lib yashay boshlaganlarida mahalla tizimining ibtidoiy unsurlari, qadriyatlari, kasb-hunar malakalari, ro'zg'or tebratish, o'zaro mol ayirboshlash, topilgan ne'matlarni o'rtada baham ko'rish asoslari shakllana boshlagan[6].

Sharqshunos olim M.G.Malliskiyning yozishicha keyinchalik mahallalarning nomi nafaqat kasb-kori, shuning bilan birga mahalliy xalqning o'ziga xos udumlari bilan ham atalib kelingan[7].

Osiyo qit'asi va musulmon Sharqida davlat qurilishi va boshqaruv tajribasi muayyan xususiyatlarga va o'ziga xos an'anlarga ega. Arablar istilosi va islom dini qabul qilishidan ancha ilgari paydo bo'lgan mahalla muayyan kichik hududda istiqomat qiluvchi odamlar birlashmasi bo'lib, unda odamlar faqat qo'shnichilik rishtalari bilan emas, balki yuzlab yillar davomida yaratilgan ichki tartib-qoida, ma'naviy-axloqiy normalar, urf-odatlar va an'analar bilan bog'langandir[8]. U — shahardagi ancha murakkab, jipslashib ketgan, hatto ma'lum darajada o'z qobig'iga o'ralashgan o'ziga xos kichik bir olamdir.

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda mahallaga bo'lgan e'tiborning kuchayishi uning mas'uliyatini yanada oshirdi. Bularning hammasi mahallalar funksiyasini, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar mohiyatini o'zgartirdi. Har bir yordamga muhtoj inson bormi, davlat arbobi bormi, oddiy xodimmi hamisha mahallaga yuzlangan va muammolarining osongina echimini topa olgan. Ammo ba'zi bir qo'shtirnoq ichidagi mahallalar borki, ular fuqarolarning ishonchini suiiste'mol qilib kelmoqda va qanchadan qancha fuqarolarning haqqiga xiyonat qilishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2003. B. 548–550.
2. G'ulomov M. **Mahalla – fuqarolik jamiyatining asosi**. T.: “Adolat”, 2003. – B. 23.
3. **Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q**. *Muloqot*, 1998, № 5, 16–6-b.

4. Jalilov Sh.I. **Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari: tajriba, tahlil, amaliyot.** “O‘zbekiston”, 2001. 11-b.

5. Qodirov D. **Mahalla tarbiya maskani.** T.: *Hayot va qonun*, 1999, № 8, 19–216-b.

6. Rahmonov R. **Istiqlol va mahalla.** T.: *Demokratlashtirish va inson huquqlari*, 2001, № 1, 4–6-b.

7. Mallitskiy M.G. **Toshkent mahalla va mavzelari.** (ruschadan Usmon Qo‘chqor tarjimasi) Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1996. B. 3–9.

8. Vahobov A. **Davlat hokimiyatining mahalliy boshqaruv va o‘zini o‘zi boshqarish organlari.** A.X. Saidov tahriri ostida chiqarilgan “O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat” to‘plami. T.: “Adolat”, 1995. B. 142–143.

SO‘FI OLLOYOR MA‘NAVIY MEROSIDA TASAVVUFIY-RUHIY HOLATNING AKS ETTIRILISHI

Tojiyev F.H.,

*Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti, o‘qituvchisi
O‘zimdek xastalar bo‘lg‘aymu deb shod,
Nasoyihdin ham andak ayladim yod[1].*

Bu ikki misra “Sabotul-ojizin” asarining ruhiy markazi hisoblanadi. U qisqa bo‘lsa ham, tasavvuf, axloq falsafasi va ma’naviy pedagogika jihatidan nihoyatda boy ma’noga ega.

“O‘zimdek xastalar” — ruhiy xastalik metaforasi bo‘lib, “xasta” so‘zi jismoniy emas, ruhiy-ma’naviy kasallik ma’nosida ishlatilgan. Shoir o‘zini “xasta” deb ataydi, ya’ni ruhiy jihatdan ojiz, gunohkor, dunyo g‘amlariga chalingan inson sifatida tasvirlaydi. Tasavvuf falsafasida “xastalikka” ikkita asosiy ma’no yuklanadi:

a) Qalb xastaligi — insonning nafs, hasad, kibr, riyo kabi ichki illatlar bilan zaharlanishi.

Qur'oni Karimda ham bu holat shunday ifodalangan **“Qalblarida kasal bor. Alloh kasallarini ziyoda qildi. Va yolg'on gapirganlari uchun ularga alamli azob bor.”** (Baqara, 10-oyat)[2].

b) Ilohiy sevgi xastaligi — Haqning visoliga etolmagan oshiqning dardi. Bu majoziy emas, ma'naviy dard.

Olim “o'zimdek xastalar” degani — “men kabi Haqni izlab, ammo ojizlik domida qolgan, ruhiy dard chekayotgan insonlar” degan ma'noni bildiradi. Bu qarash Jaloliddin Rumiy, Ahmad Yassaviy, Imom G'azzoliylarning “Ruhiy tazkiya” (qalbni poklash) falsafasiga asoslanadi: insonning “xastaligi” — bu ilohiy haqiqatdan uzoqlashish; davosi esa nasihat, zikr va muhabbatdir.

“Bo'lg'aymu deb shod” -ruhiy birdamlik quvonchi. Shoir “o'zimdek xastalar bo'lg'aymu deb shod” deydi. Bu erda shodlik sababi- ruhiy birdamlik, ya'ni o'z holini tushunadigan, unga o'xshash “dardmand” insonlar borligidan quvonishdir. Tasavvufda “dardmandlar majlisi” degan tushuncha mavjud: faqat “dard” (ruhiy iztirob, Haqqa intilish) egalarigina bir-birini tushunadi. Shoir ham shundan quvonadi, u o'z dardini angelaydigan “xastalar”ni topish umidida. Bu holat Hujviriyning “Kashf al-mahjub” asarida shunday ifodalangan: “Oshiqning shifosi o'xshash dardmand bilan suhbatdadir.”

Ilmiy nuqtai nazardan, bu, aslida, egzistensial psixologiyada ham muhim tamoyildir. Inson o'z iztirobini tushunadigan boshqa insonni topganda, “ma'naviy yolg'izlik”dan chiqadi. Shunday qilib, shoirning “shodligi” — bu ruhiy hamjihatlik quvonchidir.

“Nasoyihdin ham andak ayladim yod” nasihatning o'zi ham darddan tug'iladi.

Shoir o'z asarini yozish sababini shunday izohlaydi: “Men o'zim ham ojiz va xastaman, ammo o'zimdek dardmandlarga ozgina bo'lsa ham foydam tegsin, deb ba'zi nasihatlarini yodga oldim.” Bu — ma'naviy pedagogika falsafasining markaziy g'oyasidir: Haqiqiy nasihatni faqat dardni his qilgan kishi bera oladi.

Falsafiy asos: Tasavvufda “nasihat” — bu faqat og'zaki pand emas, ruhiy tajriba almashinuvidir. Shoirning “andak” (ya'ni ozgina) deb aytishi

— bu tavozu va ilohiy hayoning belgisi. U oʻzini ustoz emas, balki dardli yoʻldosh sifatida koʻradi. Imom Gʻazzoliy “Ihyo ulumiddin”da shunday deydi: “Kimki oʻz nafsini tarbiya qilgan boʻlsa, boshqalarga nasihat qilishga haqli boʻladi.” Demak, bu misra — “ilm orqali emas, balki, dard orqali oʻrgatish” tamoyilini ifodalaydi.

Ruhiy-falsafiy sintez: Quyidagi jadval bu misralarning ilmiy-falsafiy qatlamlarini jamlaydi:

Bu ikki misra tasavvuf falsafasining uch asosiy yoʻnalishini oʻzida mujassam etadi:

1. Ruhiy dard falsafasi: insonning Haqqa intilishi dard bilan boshlanadi.

2. Tavozi falsafasi: haqiqatni bilgan kishi oʻzini “andak” deb biladi.

3. Maʼnaviy hamjihatlik falsafasi: dardmandlar bir-birini anglaganda, haqiqat jamiyatga singadi.

Shoir bu satrlar orqali shunday deydi: “Men ham ojizman, ammo dardimni yashirmayman — balki shu dard orqali boshqalarga ozgina boʻlsa ham nur etkazaman.” Bu misralar tasavvufiy antropologiya nuqtai nazaridan, yaʼni inson mohiyati, ruhiy tuzilishi va Haq bilan munosabati kontekstida tahlil qilamiz.

Tasavvufiy antropologiya nima? Tasavvufiy antropologiya — bu insonning zohiriy (jismoniy) va botiniy (ruhiy–ilohiy) qatlamlarini oʻrganadigan falsafiy taʼlimotdir.

U Qurʼoni karimdagi “Bas, uni tiklab, ichiga Oʻz (dargohimdagi) ruhimdan kiritganimda, sizlar unga sajda qilgan holingizda yiqilingiz!” — dedi.” (Hajr, 29)[4]. Demak, inson ikki qutbdan tarkib topgan mavjudot:

- jism — tuproqdan yaralgan,
- ruh — ilohiy manbadan kelgan.

Insonning hayoti shu ikki qutb oʻrtasidagi ichki kurashdir. Olimning “xastaligini” aynan shu ichki kurashning ogʻrigʻi sifatida tushunish mumkin.

Tasavvufda insonning “xastaligi” — bu ruhning tan zindonida iztirob chekishidir. Ruh aslida ilohiy manbadan kelgan va Haqqa qaytishni istaydi, ammo jismiy nafs uni erga tortadi. Soʻfi Olloyor “xasta” deyish bilan shuni

his qilganini bildiradi: Ruh Haqqa talpinmoqda, ammo nafsiy cheklanishlar uni qiynamoqda.

Bu tasavvufiy antropologiyada “nafs va ruhning muvozanatsizligi” deb ataladi. Ahmad Yassaviy, Fariduddin Attor va Jaloliddin Rumiy shunday deydilar: “Dard — bu ruhning Haqdan ayrilganini his etishidir.” Shuning uchun “xasta”- ruhiy zaif emas, aksincha ruhiy sezgir insondir. Xastaligi ilohiy yaqinlikni yo‘qotganini his etish, ya’ni ma’naviy hushyorlik alomatidir.

“Bo‘lg‘aymu deb shod” — ruhiy uyg‘onish holati. Shoir bu holatdan “shod” quvonchli. Nega? Chunki dardni his etishning o‘zi ruhiy tiriklik belgisidir.

Tasavvufiy antropologiyada insonning eng xavfli holati “g‘aflat”, ya’ni ma’naviy uyqu, befarqlik. Dardni sezgan qalb endi uyquda emas. Demak, “xasta” bo‘lish bu ruhiy o‘lim emas, balki ruhiy hayotga kirish. Olimning “shodligi” shundan: u dardni tan oldi, demak, o‘zi bilan uchrashdi. Bu “ma’rifatning boshlanishi” inson o‘zini bilishga kirishgan nuqtadir.

Tasavvuf antropologiyasi ta’limotida: “Kim o‘zini bilsa, Robbini bilur.”

(Man ‘arafa nafsahu, faqad ‘arafa robbahu.) Shuning uchun shoirning dardi — o‘z “men”ini bilish, shodligi esa Haq bilan aloqani his etishdir.

“Nasoyihdin ham andak ayladim yod” — ruhning o‘zini davolashi. Bu satrda inson o‘z “xastaligini” davolash jarayoniga kirishgan. U nasihatni “dori” sifatida ko‘radi. Ammo bu dori tashqaridan emas o‘z ichidan chiqadi: “Men o‘zimga davo bo‘lishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni yodga oldim.”

Tasavvufiy antropologiya nuqtayi nazaridan, ruhning shifosi — Haqni eslash (zikr), nasihat esa Haqning kalomi orqali o‘zini eslatishdir. Shoirning “yodga olish”i ham tasavvufdagi “zikr” amaliyotiga yaqin. Bu aql bilan emas, qalb bilan eslashlikdir. Shuning uchun bu satrda insonning ichki o‘zini davolash mexanizmi ifodalangan. Ruh Haqni eslash orqali o‘z xastaligini kamaytiradi.

Tasavvufiy antropologiyada bu holat qaysi bosqichga to‘g‘ri keladi?

Tasavvufiy antropologiya inson kamolotini olti bosqichda tasvirlaydi:

1. Nafs ammora — yovuzlikka buyuruvchi nafs
2. Nafs lavvoma — oʻzini ayblovchi nafs
3. Nafs mulhima — ilhomlangan qalb
4. Nafs mutmainna — orom topgan qalb
5. Nafs roziya — Allohdan rozi boʻlgan hol
6. Nafs marziya — Alloh rozi boʻlgan hol

Olimning “xastalik” holati — nafs lavvoma bosqichiga toʻgʻri keladi: yaʼni, u oʻzidagi kamchilikni tan olgan, lekin hali toʻliq orom topmagan. Uning shodligi bu ichki oʻzgarish boshlanishining belgisi. Demak, bu ikki misra inson ruhining oʻzini tanishdan orom topishgacha boʻlgan ichki yoʻlini koʻrsatadi.

Bu misralarda insonning ikki jihati bir vaqtning oʻzida ochilgan:

- Ojiz, xasta, gunohkor inson (ontologik zaiflik),
- Tafakkur va oʻzini bilish orqali Haqqa intiluvchi ruh (metafizik qudrat).

Tasavvufiy antropologiyada bu ikki qirrani birlashtirish — insonga sobitlik (sabot) beradi.

Shoirning asari ham bejiz “Sabotul-ojizin” deyilmaydi: faqat oʻz ojizligini tan olgan inson sobit boʻladi. Bu, aslida, inson tabiatiga oid eng chuqur tasavvufiy xulosa.

Bu ikki misra shuni anglatadi:

- Inson — xasta, chunki u Haqdan uzoqlashgan;
- Inson — shod, chunki u bu xastaligini angladi;
- Inson — najot yoʻlida, chunki u Haqni yodga olib, oʻzini davolamoqda.

Demak, insonning haqiqiy fazilati — gunohsizligida emas, balki anglash va qaytish qobiliyatida. Bu — tasavvufiy antropologiyaning eng oliy gʻoyasi.

“Oʻzimdek xastalar boʻlgʻaymu deb shod,

Nasoyihdin ham andak ayladim yod.” bu, tasavvufiy antropologik nuqtayi nazardan:

- insonning oʻzini ruhiy mavjudot sifatida tanishi;
- dardni ilohiy uygʻonish belgisi sifatida qabul qilishi;

- o‘z ruhini eslash (zikr) orqali sog‘aytirish jarayonini ifoda etadi.

Olimning nigohida inson ruhiy jarohat va ilohiy shifo o‘rtasidagi mavjudotdir. U Haqdan uzoqlashganligi uchun xasta, ammo Haqni eslagani uchun shod.

Xulosa. So‘fi Olloyor tasavvufda ruhiy holat insonning ma‘naviy etuklik sari intilishida markaziy o‘rin tutishini ta’kidlamoqda. Ruhiy holat solikning qalbida kechadigan ilohiy muhabbat, tavba, sabr, shukr, tavakkul kabi kechinmalar orqali namoyon bo‘ladi. Ruhiy holat Alloh bilan yaqinlikni his etish, nafsni poklash va qalbni nur bilan to‘ldirish vositasidir. Tasavvuf ta’limotida “hol” — vaqtincha, ilohiy inoyat sifatida beriladigan holat, “maqom” esa ruhan barqaror daraja sifatida talqin qilinadi. Demak, ruhiy holatlar insonning ichki dunyosini yorituvchi, uni komillikka etaklovchi bosqich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rashid Zohid. “So‘fi Olloyor. Sabotul ojizin”sharhi, T.: 1991. B.44
2. Qur’oni Karim. Baqara surasi, 10-oyat.
3. Al-Hujviriyy. “Kashf al-mahjub”, L.: 2003.
4. Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi.-:T.:1998. 163-b.

TURKIY XALQ DOSTONLARIDA OILAVIY, AHLOQIY MUNOSABATLAR VA QADRIYATLARNING O‘RNI

Ro‘ziyev Navro‘z Ixtiyor o‘g‘li,

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti o‘qituvchisi

Ro‘ziyev Navro‘z Ixtiyor o‘g‘li 2-bosqich talabasi

Ma’lumki, mamlakatimiz hududida ming yillar davomida shakllangan qadimiy xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘ziga xosligi, avvalo, bu milliy qadriyatlar tizimining har bir hududda mavjud bo‘lgan folklor ijrochiligini o‘zida ifoda etgani bilan belgilanadi. Shu jihatdan olganda, xalq og‘zaki ijodi namunalarining janrlar tarkibi, undagi turli-tuman dostonlar, ertaklar,

topishmoqlar, qo‘shiqlar, laparlar, to‘y marosimlardagi aytimlarning rang-barangligi bilan ajralib turadi. O‘ziga xos turmush tarzi va milliy an‘analariga ega bo‘lgan xalqimiz qadim zamonlardan buyon xilma-xil janrlardan iborat og‘zaki badiiy ijod namunalarini yaratgan. Ajdodlarimizning badiiy iqtidori va ijodiy salohiyati keng qamrovli bo‘lgani tufayli g‘oyat ulkan folklor merosi yuzaga kelganki, bu bebaho qadriyatlar silsilasi ma‘naviyatimizning taraqqiy etishini ta‘minlagan muhim omillardan biri vazifasini o‘tagan. Zero, “folklor xalq ommasining maishiy hayoti, ijtimoiy-siyosiy turmushi, kundalik faoliyati bilan mahkam bog‘langan, o‘ziga xos g‘oyaviy-estetik tizimga ega bo‘lgan ijod sifatida yuzaga kelgan va rivojlanishda davom etgan. O‘zbek folklori xalqimiz badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, so‘z san‘atining og‘zaki turi hisoblanadi. U uzoq tarixga, murakkab taraqqiyot bosqichlariga ega” [1]. Darhaqiqat, bevosita xalqning kundalik mehnat faoliyati va turmushi bilan bog‘liq holda shakllangan folklor ijrochiligi an‘analari uzoq davrlarni o‘z ichiga qamrab olgan izchil tarixiyfolkloriy jarayon natijasida muttasil takomillashib, taraqqiy etib keldi. Natijada, xalq ijodiyotining u yoki bu namunalarini (masalan, qo‘shiq, doston, rivoyat, ertak va boshqa) aytishga, ijro etishga ixtisoslashgan professional ijrochilar tipi yuzaga kelgan. Xalq ijodiyotida voqelikni badiiy idrok etish va talqin qilish usullarining takomillashib borishi jarayonida hayotiy-maishiy funksiyasi va qamrovining o‘ziga xosligi, muayyan poetik tizimga egaligi hamda badiiy ifoda usulining originalligi bilan bir-biridan farqlanib turuvchi folklor janrlari tarkibi ham doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib boravergan. Ayniqsa, xalqimizning milliy o‘zligini ifodalovchi urf-odat va marosimlari bilan bog‘liq xilma-xil folklor janrlarining shakllanishi xalq ijodiyotining tarixiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan.

Chunki marosim folklori benazir nomoddiy madaniy meros namunasi bo‘lishi bilan bir qatorda, yosh avlodning badiiy-estetik didini o‘stirish hamda millatning ma‘naviy birligini ta‘minlashga xizmat qilishi bilan ham xarakterlanadi [2].

O‘zining shakllanish tarixi va genetik asoslariga ko‘ra marosim folklori janrlari badiiy tafakkurning eng qadimiy namunalari sirasiga mansub

boʻlib, unda oʻtmishda yashagan ajdodlarimizning mifologik qarashlaridan tortib, turli rasm-rusumlari va ibtidoiy rituallarigacha boʻlgan etnomadaniy qatlamning izlarini uchratish mumkin. Shuning uchun ham xalq ogʻzaki janrlaridan biri – marosim folklorini oʻrganish, ayniqsa, tarixan urf-odat va rasm-rusumlarning verbal komponenti sifatida yuzaga kelib, anʼanaviy tarzda ijro etib kelingan marosim qoʻshiqlarini turli hududlar materiallari asosida qiyosiy-tarixiy va lokal xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda oʻrganish, oʻzbek xalqi badiiy tafakkurining shakllanishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Marosim folklori nima? U qanday holatlarda yuzaga keladi va tashkil etiladi? – degan savollarga aniq va ilmiy tahlil qilgan holda javob berishimiz lozim.

Marosim – 1) diniy yoki anʼanaviy urf-odatlar munosabati bilan oʻtkaziladigan maʼraka, yigʻin: diniy marosimlar, toʻy marosimlari, dafn marosimi va boshqalar; 2) tantanalar bilan oʻtkaziladigan rasmiy yigʻin: yubileylar, mukofot berish marosimi, haykalning ochilish marosimlari va boshqalar kiradi [3]. . Folklor marosimining oʻrganilishi va tadqiq qilinishining oʻziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat. Bizga maʼlumki folklor asarlarini ijro etish jarayonida unda ijro etilayotgan lapar, oʻlan, alla, yalla , aytishuv, aytimlar, qiqillamalar, erkalamalar asosida maʼlum bir voqea va hodisani yotishi tabiiy holat. Undagi misralar, soʻzlarning mazmun va mohiyati voqealarni ifodalab berishi bilan ajralib turadi, bu esa umumlashgan folklor marosim jarayonini tashkil etadi. Oʻzbek xalq ogʻzaki badiiy ijodiyoti janrlar tarkibining shakllanish tarixi va tarixiy-tadrijiy rivoji masalalari fundamental asnoda tadqiq etilmagan boʻlsa-da, u yoki bu janrga oid matnlar qadimiy yozma manbalari namunalari aniqlash, xalq ogʻzaki ijodiyoti namunalari yozib olinishi, ommalashtirilishi va yoshlar ongiga singdirishga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan [4].

Jamoaviy marosimlarga xalq bilan hamkorlikda oʻtkaziladigan nikoh toʻy, sunnat toʻy, qiz uzatish kabi marosimlar kiradigan boʻlsa, mahalliy marosimlarga hududga xos boʻlgan marosimlarni oʻz ichiga qamrab oladi. Ushbu marosim turiga koinot va tabiat bilan bogʻliq mavsumiy marosimlar yaʼni yilning toʻrt fasli bahor, yoz, kuz va qish fasllarida nishonlanadigan

marosimlar kiradi. Ushbu jarayonning mahalliy marosimlar tipiga kirishini e'tirof etishimizdan maqsad, har bir hududda turli tarzda o'tkazilishi yohud ba'zilar keyingi vaqtda o'tkazilmay qolganligi bilan belgilanadi.

Alpomish" dostoni xalqimiz orasida juda keng tarqalgan va asrlar davomida baxshilar tomonidan sevib kuylab kelingan. "Alpomish" dostonining tarixiy-madaniy ahamiyati tengsizdir. U xalqimizning o'ziga xos badiiy tarixidir. Unda xalqimizning asrlar bo'yi qilgan orzu-umidlari, porloq kelajak haqidagi o'y fikrlari mujassamlashgan. "Alpomish" dostoni – o'zbek xalqi madaniy turmushi tarixining badiiy oynasi. U o'zbekning o'zligini, uning mard va tantiligini, mehmondo'stligini, bolajonligini namoyon etadigan va bu tuyg'ularni avloddan avlodga o'tkazib kelayotgan mumtoz epos namunasidir. Dostonda qahramonlik, jasurlikni ulug'lash, mardlik, do'stlik tuyg'ulari vatanparvarlik g'oyasi el-u yurtga, oilaga muhabbat motivlari bilan birlashib ketadi. Unda xalqimizning asrlar bo'yi qilgan orzu-umidlari, porloq kelajak haqidagi o'y-fikrlari mujassamlashgan. "Alpomish" dostoni syujetini to'liq anglash uchun o'zbek xalq marosimlarini, urf-odat va an'analarini yaxshi bilish talab etiladi. Aks holda, doston mazmunini to'liq anglash iloji bo'lmaydi. "Alpomish" dostonida oilaviy-maishiy marosimlarning ham to'y, ham aza turi bilan bog'liq urf-odatlari talqin etilgan. Dostonda xalqimizning motam marosimiga oid ayrim tushunchalari azador Barchinoyning etti yillik tutqunda qolib ketgan Alpomishni o'ldi gumon qilib, aza ochishi, aza kiygancha "va to'ram"lab yig'i qilishi misolida yorqin tasvirlangan.

"Alpomish" dostonida turli-tuman o'zbek urf-odatlari va oilaviy-maishiy marosimlari muayyan badiiy ifoda etilgan. Ushbu doston o'zbek qahramonlik eposining eng yorqin va badiiy barkamol namunasi bo'lib, uning syujeti, asosan, o'zbek xalq marosimlari tasviridan tashkil topganligi bilan alohida e'tiborni tortadi. Jumladan, unda oilada farzand tug'ilishi, tug'ruq jarayonida momo doylarning xizmat ko'rsatishi, farzandga ism qo'yish, uni etakka solmoq, beshik to'yi qilish, to'ydan oldin maslahat uyushtirish, to'yga jarchi qo'yish, sunnat to'yi, to'yda to'ychiga to'yona berish, o'g'il-qiz chaqaloqlarni bir-biriga atashtirib beshikkerti qilish yoki ro'mol o'rab atashtirish, bolaga ikkinchi ism berish, sovchilik, sovchilarni

kutish va kutish, ularga rozilik berish alomatlar, nikoh to'yidan oldin qallicqa bormoq (qallic o'yini qilish), kuyovga shart qo'yish, kuyov uchun to'qqiz tovoq, kuyov tovoq qilish, kelin-kuyovni olovdan aylantirish, qiz yashirdi, chimildiq ildi, kuyov navkar va vakil otalarni belgilash, it irillar, oyna ko'rsatar, soch siypatar, qo'l ushlatar, kuyov uloq, yuz ochdi, baqan (tayoq) tashlamoq, solim bermoq, o'lan aytmoq, to'yga dasturxon qilib borish kabi turlituman o'zbek urf-odatlar va oilaviy-maishiy marosimlar muayyan badiiy ifoda etilgan. Asosiysi shundaki, ana shularning tasviri doston syujetidagi voqealarni, uning motivlar strukturasi vujudga keltirgan. "Alpomish" dostoni syujetida aks ettirilgan qaysidir bir marosim hozirgacha maishiy hayotda o'z o'rniga ega bo'lsa, qaysinisidir hozirgi maishiy turmushda mavjud emas, ya'ni o'tkazilmaydi. Shu jihatdan, dostonda o'z ifodasini topgan marosimlarni uch tipga bo'lib o'rganish mumkin:

1) hozirgi maishiy turmushda o'z o'rniga to'la ega bo'lgan marosimlar (bunga sovchi qo'ymoq, oyna ko'rsatar, to'qqiz tovoq, olovdan aylanmoq kabi va h.k.);

2) hozirgi maishiy turmushda o'z o'rnini qisman saqlab qolgan marosimlar (bunga beshikkirti qilmoq, it irillatar, kampir o'ldi, kuyovga kelin tomonidan shartlar qo'yilishi kabi va h.k.

3) hozirgi maishiy turmushda o'z o'rnini batamom yo'qotgan marosimlar (bunga farzand tug'ilishidan oldin otaning ovga jo'nab ketishi, tushni ta'birlash marosimi va h.k.).

"Alpomish" dostonida badiiy aks ettirilgan marosim va urf-odatlar bunday tasniflab o'rganish hozirgi kunda xalqimiz hayotida saqlanib qolgan va qolmagan marosimlar haqida bilib olish imkonini yaratadi. Shuni alohida ta'kidlash ham kerakki, dostonda marosimlar tasviri berilar ekan, hech qachon ular to'liq va batafsil bayon etilmaydi. Faqat unga xos eng muhim qirralar u yoki bu obraz faoliyatiga bog'lab, u yoki bu badiiy detal vositasida ifoda etiladi, xolos. Ma'lumki, insonning tug'ilishi, uning hayotidagi har bir muhim yutug'i, kamoloti, hatto vafoti oilada maxsus marosimlar orqali qayd etiladi. Bunday oilaviy maishiy an'analar barcha

xalqlar orasida keng tarqalgan. Inson hayotiga aloqadorligiga ko'ra oilaviy-maishiy marosimlar ikki katta guruhga bo'linadi.

1. To'y marosimlari.

2. Motam marosimlari.

To'y va motam marosimlari ma'lum bir oila hayotiga, insonlarning maishiy turmush sharoitiga daxldorligi tufayli oilaviy-maishiy marosimlar sirasiga kiritiladi. Ular rang-barang bo'lib, kattagina qismi to'y marosimlarini tashkil qiladi. To'y tadbirlari inson hayotidagi quvonchli daqiqalarni qayd etsa, aza marosimlari esa, aksincha, inson turmushidagi ayriliq, yo'qotish, g'amli lahzalarni qayd etadi.

“Alpomish” dostonida bu oilaviy-maishiy marosimlarning har ikkalasi bilan bog'liq urf-odatlar talqin etilgani kuzatiladi. Masalan, dostonning ikkinchi qismida amakisi Boysarini qalmoqshoh Toychaxonning zulmidan qutqarishga otlangan Alpomishning alamzada Surxayl qo'llagan hiyla tufayli bandilikka giriftor bo'lishi sabab yurtiga etti yil qaytolmagani odamlar o'rtasida u haqda “o'ldi” degan ovoza yoyilishiga olib keladi. Oradan ancha vaqt o'tgach, Alpomishning yaqinlari uning qaytmaganini ko'rib, vafot etganiga ishonib, aza ochadilar. Dostonda bu voqelik shunday ifoda etiladi: “O'lib ketgan deb yurtga necha martadan ovoza bo'lib ketdi. Endi o'lganini aniq bilib, umidini uzib, ko'nglini buzib, qora kiyib, bularning qarindoshlari aza tutib qoldi. Aza bilan bir yil o'tdi, bir yildan keyin yil oshi berib, azasini ochdi”. “Alpomish” dostonida uchraydigan bu qaydlar aza tutish behad qadimiy an'analardan bo'lganligini dalillay oladi. Marhum xotirasiga bag'ishlab o'tkaziladigan motam marosimi “aza tutdi” va “azadan chiqdi” yoki “aza ochdi” singari ikki katta uzvdan tashkil topadi. Xotin- qizlar orasida motam marosimida turli mavzulardagi yig'i va yo'qlovlar keng ijro qilinishi kuzatiladi. Odatimizga ko'ra, oilada er o'lsa, uning beva qolgan ayoli “va, to'ram” deb yig'i beradi. Shu an'anaga muvofiq “Alpomish” dostonida azador Barchinoyning eriga yig'i qilib, unga bag'ishlab aytgan quyidagi aytimi keltirilgan: Men yig'layman, to'ram deyman mug'oyib, Hozirgi ketishi tiriklay g'oyib, Kecha-kunduz men yig'layman sarg'ayib, Buning mol-u mulki hozir besohib. To'ram o'lib unda qolgandir g'arib, Kimga aytib yig'lay dardimni yorib. “Alpomish”

dostonida odob-axloq bilan bog'liq urf-odatlar talqini ham uchraydi. Masalan, Barchinning Alpomishga yuborgan choparlaridan biri Qo'ng'irot eliga Boybo'rining davlatxonasiga etgach, Boybo'rini ko'rib, unga ot ustidan turib salom beradi. Bularni ko'rib, Boybo'ri: "Bular qanday odam ekan, beadablik bilan salom berdi menga", – deya jahli chiqadi. Choparlar Boybo'riga Barchinning arizasini chiqarib beradi. Boybo'ri arizani o'qib ko'rib, kelganlar Barchinning chopari ekanini biladi. Shundan so'ng jahlini unutib, o'n mahramiga buyurib, choparlarni bitta-bitta otdan ko'tarib tushirtiradi.

Turkiy xalqlar og'zaki ijodi — bu xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlari va axloqiy qarashlarining eng boy manbalaridan biridir. Ayniqsa, xalq dostonlari, qo'shiqlari va marosim folklori nafaqat badiiy-estetik jihatdan yuksak ahamiyatga ega, balki oilaviy va axloqiy munosabatlarni, insoniy fazilatlarni targ'ib etuvchi ma'naviy xazinadir. Dostonlarda oilaviy sadoqat, ota-onaga hurmat, vatanparvarlik, do'stlik, sabr-toqat kabi qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Shu boisdan, turkiy xalq dostonlari yosh avlodni ezgulikka, halollikka, fidoyilik va mehr-oqibatga chorlovchi o'lmas ma'naviy maktab sifatida qadrlanadi. Marosim folklori esa xalq hayotining ajralmas qismi bo'lib, nikoh, to'y, sunnat, mavsumiy va diniy marosimlar orqali oilaviy birdamlik, jamoaviy hamkorlik, insoniy mehr-muhabbat kabi qadriyatlarni mustahkamlaydi. Ushbu og'zaki meros turlarining barchasi xalqning o'z milliy o'zligini anglashida, madaniy birligini saqlashda va yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda beqiyos o'rin tutadi. "Alpomish" dostonida Qo'ng'irot qabilasida patriarxal-urug'chilik alomatlari emirila boshlagan davrlarda oila uchun kurashning jamiyat ijtimoiy munosabatlarida muhim rol o'ynaganligi real ko'rsatilib berilgan. Bunda oilaning barpo bo'lishida, uning mustahkamligini ta'minlashda oilaviy-maishiy marosimlarning o'rni va ahamiyati Alpomish va Barchin obrazlari munosabati misolida badiiy yoritilgan. Jamiyat va inson hayoti, maishiy turmush masalalarini o'ziga xos reallikda badiiy aks ettirgan. "Alpomish" dostonida qahramonlik va go'zallik haqidagi xalq ideallari kuylangan. Doston maishiy hayot detallariga juda boy. U real hayot epizodlarini keng

qamrab olganligi bilan ajralib turadi. “Alpomish” dostoni xalqimizning maishiy hayotini juda keng ko‘lamda badiiy ifoda etganligi jihatidan alohida e’tiborni tortadi. Unda oilaviy-maishiy marosimlarning turli ko‘rinishlari tasvirlangani kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O. Madayev, T. Sobitova xalq og‘zaki poetik ijodi marosim folkloridan namunalar 206-b.
2. T.Mirzayev. Kirish // O‘zbek folklori ocherklari. Uchtomlik. 1-tom. – Toshkent: “Fan”, 1988. 3-b.
3. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori- 1986 216 b.
4. Safarov O. O‘zbek bolalar poetik folklori 1985- 175 b.
5. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq poetik ijodi- 1990 304 b.

NIZOMULMULKNING “SIYOSATNOMA” ASARIDA TURKIY DAVLATCHILIK FALSAFASI

Baxtiyorov Mansurbek Botir o‘g‘li,
ISFT (International school of Finance Technology and Science) talabasi

Abu Ali Hasan ibn Ali Tusi, tarixda Nizom ul-Mulk (“mulkning nizomi”) nomi bilan mashhur bo‘lgan mutafakkir 1018-yilda hozirgi Eron hududida Tus shahrida tug‘ilgan. U yoshligidan dinga va fanga qiziqib, Nishopurda ta’lim olgan va keyinchalik saljuqiylar sultonlari Alp-Arslon (1063-1072) va Malik-shoh (1072-1092) davrlarida vazirlik lavozimida faoliyat yuritgan. Nizom ul-Mulkning vazirlik faoliyati davri Saljuqiylar davlatining eng kuchli va gullab-yashnagan davriga to‘g‘ri keladi. U 1063-yildan 1092-yilgacha, ya’ni 29 yil davomida vazir bo‘lib, bu muddat

mobaynida davlat boshqaruvida jiddiy islohotlar amalga oshirdi. Uning eng muhim xizmatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

1. “Nizomiya” madrasalari tizimini yaratish – Bag‘dod, Nishopur, Balx va boshqa shaharlarda oliy o‘quv yurtlarini tashkil etish;
2. Iqto‘ (er-mulk berilishi) tizimini tartibga solish va davlat daromadlarini oshirish;
3. Diniy-g‘oyaviy birlikni mustahkamlash va ilm-fan rivojiga ko‘maklashish;
4. Ma‘muriy apparatni tashkil etish va davlat xizmatchilarini tayyorlash tizimini joriy qilish.

1092-yil 14-oktyabrda Nizom ul-Mulk Bag‘doddan Isfahonga qaytish yo‘lida ismoiliylar tomonidan o‘ldirildi. Uning o‘limidan so‘ng saljuqiylar davlati asta-sekin tanazzulga yuz tutdi, bu esa Nizom ul-Mulkning davlat boshqaruvidagi muhim rolini yaqqol ko‘rsatadi [2].

Nizom ul-Mulk “Siyosatnoma”da davlat boshqaruvining asosiy tamoyillarini quyidagicha ifodalaydi:

Nizom ul-Mulkga ko‘ra, sulton hokimiyati Allohdan berilgan bo‘lib, u o‘z vakolatlarini Alloh oldida mas‘uliyat bilan bajarishi kerak. Bu g‘oya islom siyosiy falsafasining markazi bo‘lib, hukmdorni mutlaq hokimiyatga ega qilish bilan birga, uni axloqiy va diniy javobgarlikka ham majbur etadi.

“Siyosatnoma”da ta’kidlanishicha: “Sulton – Allohning er yuzidagi soyasi bo‘lib, u adolat o‘rnatishi va zulm-zulmatdan saqlanishi zarur” [3]. Bu konsepsiya turkiy davlatchilik an‘analarida muhim o‘rin tutadi va keyinchalik Usmonli imperiyasida ham qo‘llanilgan.

“Siyosatnoma”ning eng muhim g‘oyalaridan biri adolat tushunchasidir. Nizom ul-Mulk adolatni davlat barqarorligining asosi deb hisoblaydi va sultonni doimo adolatli bo‘lishga chaqiradi. U yozadi: “Adolat davlatning poydevoridir. Agar adolat bo‘lmasa, davlat ham bo‘lmaydi” [4].

Asarda huquqiy tartib masalalariga katta e’tibor berilgan. Nizom ul-Mulk sudlov tizimining mustaqilligini, qozilarning adolatli bo‘lishini va qonunlarning barcha uchun bir xil qo‘llanilishini ta’kidlaydi. U shuningdek,

hukmdorning o‘zi ham qonunga bo‘ysunishi kerakligini eslatadi, bu esa huquqiy davlat g‘oyasining ilk shakllaridan biri hisoblanadi.

Nizom ul-Mulk samarali davlat boshqaruvini ta‘minlash uchun yaxshi tashkil etilgan ma‘muriy apparatning zarurligini uqtiradi. U vazirlik institutini alohida ta‘kidlab, vazirning sultonning eng yaqin maslahatchisi va davlat ishlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqaruvchisi ekanligini yozadi.

“Siyosatnoma”da davlat xizmatchilari uchun qat‘iy talablar belgilangan: ular bilimli, adolatli, halol va xalqqa xizmat qilishga tayyor bo‘lishlari kerak. Nizom ul-Mulk davlat xizmatchilarini muntazam tekshirish va nazorat qilish zarurligini ham ta‘kidlaydi [5].

Asarda davlat iqtisodiyoti va soliq tizimiga alohida bob ajratilgan. Nizom ul-Mulk adolatli soliq yig‘ish tizimini yaratish, dehqonlar va hunarmandlarni himoya qilish, savdo-sotiqni rag‘batlantirish zarurligini ta‘kidlaydi. U yozadi: “Agar raiyat (xalq) boy bo‘lsa, davlat ham boy bo‘ladi” [6].

Iqto‘ tizimi haqida ham batafsil ma‘lumot berilgan. Nizom ul-Mulk iqto‘ni harbiy xizmat evaziga beriladigan er va undan olinadigan daromad deb tushuntiradi. Bu tizim Saljuqiylar davlatida asosiy harbiy-ma‘muriy mexanizm bo‘lgan [6].

“Siyosatnoma”da qo‘shin tashkili, harbiy xizmat va jang san‘ati masalalari ham yoritilgan. Nizom ul-Mulk kuchli va tartibli qo‘shinning davlat mustaqilligining garovi ekanligini ta‘kidlaydi. U harbiy rahbarlarning tanlovi, askarlarning ta‘limi va ularning moddiy ta‘minoti masalalariga alohida e‘tibor beradi [7].

Turkiy davlatchilik an‘analarida "Siyosatnoma" asari muhim jihatlardan hisoblanadi, ulardan saljuqiylar tarixiga doir qator ma‘lumotlar bor. Saljuqiylar turkiy qabila bo‘lib, ularning davlatchilik an‘analari qadimiy turkiy siyosiy madaniyatga asoslangan edi. “Siyosatnoma”da bu an‘analar islom siyosiy falsafasi bilan uyg‘unlashtirilgan va yangi shakl olgan.

1. Turkiy davlatchilik g‘oyalarining kelib chiqishi:

Turkiy xalqlarning davlatchilik g‘oyalari Markaziy Osiyo cho‘llarida shakllangan va quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lgan:

- Markazlashtirilgan hokimiyat: Xon yoki sultonning mutlaq hokimiyati, lekin u qabila oqsoqollari va beklari bilan maslahatlashib ish ko'radi;

- Harbiy tashkilot: Barcha erkin erkaklar harbiy xizmatga majbur, qo'shin davlatning asosiy kuchi;

- Turar-joy va er egaligi: Ko'chmanchi hayot tarziga mos ravishda er umumiy mulk hisoblangan, lekin keyinchalik o'troq hayotga o'tish bilan xususiy mulkchilik rivojlandi;

- Qonun va tartib: "Töre" yoki "Yasaq" deb ataladigan an'anaviy qonunlar majmuasi mavjud bo'lgan.

2. "Siyosatnoma"da turkiy-islom sintezi

Nizom ul-Mulk "Siyosatnoma"da turkiy davlatchilik an'alarini islom shariat qonunlari bilan uyg'unlashtirgan. Bu sintez quyidagi jihatlarida yaqqol ko'rinadi:

- Hokimiyat tushunchasi: Turkiy an'anada xon "Tangri"ning (Xudoning) er yuzidagi vakili hisoblangan. Islomda esa sultonlik va podsholik faqatgina Alloh tomonidagina beriladi deb e'tirof etiladi [8]. "Siyosatnoma"da bu ikki g'oya birlashtirilgan va ilohiy hokimiyat konsepsiyasi yaratilgan.

- Ma'muriy tuzilma: Turkiy davlatlarda "bek" va "begi" unvonlari mavjud bo'lgan. "Siyosatnoma"da esa islom davlatchiligiga xos vazir, amir, qozi kabi lavozimlar ta'riflangan, lekin ular turkiy harbiy-ma'muriy tizim bilan uyg'unlashtirilgan.

- Huquq tizimi: Shariat va tore qonunlarining birgalikda qo'llanilishi "Siyosatnoma"ning muhim xususiyatidir. Nizomulmulk shariat qonunlarini asosiy qo'llanma deb tan oladi, lekin ayrim masalalarda mahalliy turkiy an'alar va odatlarga ham rioya qilinishini tavsiya etadi [9].

"Siyosatnoma" asari nafaqat Saljuqiylar davlatida, balki keyingi turkiy-islom davlatlarida ham katta ta'sir ko'rsatgan. Uning g'oyalari Xorazmshohlar, Ilxoniylar, Temuriylar va ayniqsa Usmonli imperiyasida keng qo'llanilgan.

Usmonli sultoni Mehmed II Fotih (1451-1481) "Siyosatnoma"ni o'qigan va uning g'oyalaridan davlat boshqaruvida foydalangan deb

hisoblanadi. Usmonli davlatchilik tizimidagi ko‘plab qarashlar “Siyosatnoma”dan olingan bo‘lib, ayniqsa:

- Devoni Humoyun (Oliy kengash) tashkil etish – Nizom ul-Mulkning vazirlik va kengash tizimi g‘oyalariga asoslangan;
- Timar va Zeamet tizimi [10] – “Siyosatnoma”dagi iqto‘ tizimining davomi;
- Qozi va Qoziaskar institutlari – islom huquq tizimini tashkil etishda “Siyosatnoma” g‘oyalarining qo‘llanilishi;
- Ilmiya sinfi – Nizom ul-Mulk yaratgan madrasalar tizimining rivojlanishi.

XV-XVI asrlarda Usmonli davlatida “Siyosatnoma” bir necha bor turk tiliga tarjima qilingan va davlat amaldorlari uchun majburiy o‘qish kitobi bo‘lgan [11].

Amir Temur (1336-1405) va uning avlodlari ham “Siyosatnoma”ning g‘oyalaridan foydalangan, garchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri havola qilmagan bo‘lsalar ham. Temur o‘zining “Tuzuklar” asarida davlat boshqaruvi, harbiy tashkilot va huquq masalalarida Nizom ul-Mulkka o‘xshash fikrlarni bayon etgan.

Temuriylar davlatida:

- Markazlashtirilgan ma‘muriy tizim yaratilgan;
- Vazirlik instituti kuchaytirilgan;
- Madrasalar va ilmiy muassasalar tizimi rivojlantirilgan;
- Adolatli soliq yig‘ish tizimi joriy etilgan.

Bu barcha tadbirlar “Siyosatnoma”ning asosiy g‘oyalariga mos keladi va turkiy davlatchilik an‘analarining davomiyligidan dalolat beradi.

XXI asrda “Siyosatnoma”ning g‘oyalari o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganmi? Bu savol zamonaviy turkiy davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Nizomulmulkning “Siyosatnoma”da hukmdorning ham qonunga bo‘ysunishi kerakligini ta’kidlagan. Bu g‘oya zamonaviy huquqiy davlat konsepsiyasining asosi hisoblanadi. Garchi o‘rta asrlarda to‘liq huquqiy davlat mavjud bo‘lmagan bo‘lsa-da, “Siyosatnoma”dagi qonun ustunligi g‘oyasi bugungi kun uchun ham dolzarbdir.

Zamonaviy turkiy davlatlar – Turkiya, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Ozarbayjon va boshqalar – o‘z konstitutsiyalarida huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlagan. Qonun ustunligi, hokimiyat tarmog‘ining bo‘linishi, sud mustaqilligi kabi tamoyillar “Siyosatnoma”dagi adolat va huquq tartib-intizomi g‘oyalarining zamonaviy shaklda ifodasidir.

“Siyosatnoma”da ta’kidlangan ijtimoiy adolat va xalqning farovonligi g‘oyalari bugungi kunda ham muhim. Nizom ul-Mulk yozgan: “Hukmdor raiyatning (xalqning) ahvolini yaxshi bilishi va ularning ehtiyojlarini qondirishi kerak” [12]. Bu g‘oya zamonaviy ijtimoiy davlat konsepsiyasiga mos keladi.

Zamonaviy turkiy davlatlar iqtisodiy islohotlar o‘tkazayotganda, “Siyosatnoma”dagi adolatli soliq tizimi, dehqonlar va hunarmandlarni himoya qilish, savdo-sotiqni rag‘batlantirish g‘oyalaridan foydalanishlari mumkin.

“Siyosatnoma”da ma’muriy apparatning samaradorligi, davlat xizmatchilari uchun yuqori talablar va nazorat tizimi masalalari batafsil yoritilgan. Bu masalalar bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, ko‘plab turkiy davlatlar ma’muriy islohotlar o‘tkazmoqda.

Nizomulmulk taklif qilgan tamoyillar:

- Davlat xizmatchilari bilimli va malakali bo‘lishi kerak;
- Korrupsiyaga qarshi kurash zarur;
- Ma’muriy nazorat tizimi samarali ishlashi kerak;
- Xalq shikoyatlarini eshitish va ularga javob berish muhim.

Bu tamoyillar zamonaviy davlat boshqaruvida ham qo‘llaniladi va “Siyosatnoma”ning hozirgi kun uchun ham ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

“Siyosatnoma” asari XI asrda yozilgan bo‘lsa-da, uning g‘oyalari hozirgi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan. Nizomulmulk yaratgan davlatchilik falsafasi turkiy-islom davlatlarining asosiy tamoyillarini ifodalaydi va keyingi asrlar davomida turkiy xalqlarning siyosiy madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

“Siyosatnoma”ning asosiy yutuqlari:

1. Ilohiy hokimiyat konsepsiyasini turkiy-islom davlatchiligiga moslashtirilishi;
2. Adalat va huquqiy tartib tamoyillarini asoslash;
3. Samarali ma'muriy boshqaruv tizimini tavsiya etish;
4. Ijtimoiy adolat va iqtisodiy rivojlanish g'oyalari rivojlantirish;
5. Harbiy tashkilot va davlat xavfsizligi masalalarini hal qilish.

Zamonaviy turkiy davlatlar o'z tarixiy merosiga qarab, "Siyosatnoma"dagi g'oyalardan zamonaviy sharoitda foydalanishlari mumkin. Huquqiy davlat, ijtimoiy adolat, samarali ma'muriy boshqaruv va iqtisodiy rivojlanish – bu barcha masalalar "Siyosatnoma"da o'z aksini topgan va bugungi kun uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda "Siyosatnoma" asarini chuqurroq o'rganish, uning boshqa klassik asarlar – "Qutadg'u bilig", "Devoni Hikmat", "Hibbat ul-haqoyiq" va boshqalar bilan qiyosiy tahlil qilish turkiy davlatchilik falsafasining boy merosini ochib beradi va zamonaviy davlatchilik nazariyasini boyitadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bosworth C.E. The Political and Dynastic History of the Iranian World (A.D. 1000-1217). – Cambridge: Cambridge University Press, 1968. – P. 89-112. <https://share.google/WhQbODv815DndC1q2>
2. Nizomulmuluk. Siyosatnoma ("Siyar ul-muluk"). Qayta to'ldirilgan nashri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. B. 8-10.
3. Nizam al-Mulk. Siyasatnama. Persian text edited by H. Darke. – Tehran: Bongah-e Tarjomah va Nashr-e Ketab, 1962. – P. 7.
4. Nizomulmuluk. Siyosatnoma. Tarjimon: S. Rahimov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1997.
5. Nizomulmuluk. Siyosatnoma ("Siyar ul-muluk"). Qayta to'ldirilgan nashri. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025. B. 31-43.
6. Nizomulmuluk. Siyosatnoma ("Siyar ul-muluk"). Qayta to'ldirilgan nashri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. B. 43-54.

7. Nizomulmulk, “Siyosatnoma” (“Siyar ul-muluk”). Qayta to‘ldirilgan nashri. “Yangi asr avlodi”, 2025. B. 121-123.
8. Qur’oni Karim, Oli Imron surasi, 26-oyat.
9. Nizomulmulk. “Siyosatnoma” (“Siyar ul-muluk”). Qayta to‘ldirilgan nashri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025. B. 54-59
10. Timar tizimining inflyatsiyasi va pasayishi
<https://share.google/ZIVm9Jlfc97fHsREI>
11. Political Literature and the Development of an Ottoman Imperial Culture in the Fifteenth Century on JSTOR
<https://share.google/E3Sfgt65RSLvMxOOI>
12. Nizomulmulk. Siyosatnoma (“Siyar ul-muluk”). Qayta to‘ldirilgan nashri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. B. 75-78

O‘ZLIKNI ANGLASH VA IJTIMOIIY MAS’ULIYAT: HAYDEGGER FALSAFASIDA “DAS MAN” VA “QARORLI BO‘LISH”

Soliyeva Zarina Botirovna

Samarqand davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi.

Martin Xaydeggerning falsafiy merosi uning murakkablik va chuqurlik bilan yo‘g‘rilgan olami inson mavjudligining fundamental savollariga javob izlaydi. Men Xaydeggerning ijtimoiy-falsafiy qarashlariga nazar tashlar ekanman, uning jamiyatdagi mavjudlik (Dasein) tahlili, ayniqsa, “Das Man” va “Qarorli bo‘lish” tushunchalari meni hayratga soladi. Bu tushunchalar insonning ijtimoiy muhit bilan munosabatini, o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishini va jamiyat oldidagi mas’uliyatini tushunishda nechog‘lik muhim rol o‘ynashini anglayman.

Xaydeggerning “Das Man” (“U”, “Hamma”) tushunchasi meni o‘yga toldiradi. Bu shunchaki odamlar to‘dasi yoki “omma” emas, balki insonning kundalik mavjudligining o‘ziga xos uslubi ekanligini idrok etaman. Bu insonning o‘zini o‘zi emas, balki “hamma”ning xohishi, fikri va qoidalariga ko‘ra yashaydigan holati.

“Das Man” individual o‘zlikni eritib yuboradi. Unda men kimman? “Men” emas, balki “U”dirman. Har qanday shaxs boshqa bir shaxs bilan almashtirilishi mumkin. Fikrlar, hislar va harakatlar o‘rtacha darajaga qadar pasayadi, hech kim o‘ziga xos tarzda ajralib turmaydi.

“Hamma shunday qiladi”, “shunday qilinadi” kabi iboralar shaxsiy javobgarlikni anonim kollektivga yuklashga xizmat qiladi. Natijada, men o‘z harakatlarim uchun bevosita mas’uliyatni his etmayman, chunki “hamma” kabi harakat qilgan bo‘laman.

“Das Man” insonning mavjudlikdagi asosiy tashvishi o‘zining o‘limligi va yakka ekanligi haqidagi dahshatli haqiqatdan qochishga yordam beradi. U turli xil chalg‘ituvchi faoliyatlar, bema’ni gaplar va yuzaki xatti-harakatlar bilan meni band qilib, o‘zligimni chuqur mushohada qilishimga yo‘l qo‘ymaydi.

Haqiysizlik “Das Man” hukmronligi ostida yashash meni o‘zining haqiqiy “Men”idan uzoqlashtiradi. Men o‘zining noyob imkoniyatlarim va tanlovlarimni amalga oshirmay, ommaviy model bo‘yicha yashayman. Bu Xaydegger ta’biri bilan aytganda, Daseinning "tushib qolishi" holati ekanligini anglayman.

Qarorli bo‘lish" bu "Das Man"ning ko‘rinmas panjaralarini buzib o‘tishga bo‘lgan dadil intilishdir. Bu, insonning o‘zligiga qaytish, haqiqiy mavjudlikni kashf etish yo‘lidagi fundamental qadam. O‘limlikni anglashdan kelib chiqadigan qaror: "Qarorli bo‘lish"ning eng muhim manbai insonning o‘zining cheklanganligi, o‘limga mahkumligi (mortality) haqidagi shaxsiy va chuqur anglashidir. Bu anglash meni o‘z hayotimga jiddiyoq yondashishga, qolgan vaqtini o‘z maqsadlarim yo‘lida sarflashga undaydi.

"Qarorli bo‘lish" meni o‘z harakatlarim va tanlovlarim uchun to‘liq mas’uliyatni o‘z zimmamga olishga undaydi. Bu o‘z hayotining yagona sohibi ekanligimni tan olish demakdir.

Qarorli inson o‘zining "Das Man"dan o‘rganilgan, haqiysiz qadriyatlari va e’tiqodlarini qayta ko‘rib chiqadi. U o‘zining shaxsiy, noyob qadriyatlarini topadi va ularga sodiq qoladi. U o‘zining "tashlanib

qo'yilganligi" (Geworfenheit)ni tan olgan holda, o'z imkoniyatlarini o'zi yaratadi.

Xaydegger falsafasidagi ijtimoiy o'zgarishlar va etakchilikning ildizlari har bir insonning "qarorli bo'lish" qobiliyatiga borib taqalishini anglayman. Bu shunchaki shaxsiy tanlov emas, balki butun jamiyat taqdiriga ta'sir etuvchi fundamental kuchdir. Xaydeggerning nigohida haqiqiy etakchi – bu "Das Man"ning o'rtacha fikrlar, yuzaki qadriyatlar va anonimlik qafasidan ozod bo'lgan, o'zining ichki erkinligini topgan shaxsdir. Menimcha, bunday etakchi o'zining o'limligi bilan yuzma-yuz kelib, mavjudligining chuqur imkoniyatlarini anglagan, o'zining shaxsiy va noyob qadriyatlarini shakllantirgan inson. U ommaviy e'tiqodlarning girdobida emas, balki o'zining chuqur anglashiga, ichki vijdoniga tayangan holda yo'l ko'rsatadi. Uning shaxsiy misoli – nur sochuvchi mayoqdek, boshqalarni ham o'zlikni topishga, haqiqiylikka intilishga va "Das Man"ning sayoz dunyosidan chiqib, chuqur ma'noga ega hayot kechirishga ilhomlantiradi.[3]

Jamiyat oldidagi mas'uliyatning yangicha talqini va mening o'rnim: "Qarorli bo'lish" insonni shunchaki jamiyatning passiv a'zosi bo'lishdan, balki faol, ongli va mas'uliyatli fuqaroga aylantirishga chorlaydi. Men o'zimni shunday tasavvur qilaman – nafaqat o'z shaxsiy mavjudligim uchun, balki o'zim yashayotgan jamiyatning ahvoli, uning kelajagi uchun ham javobgarlikni his etuvchi bir zot. Bunday inson "Das Man"ning salbiy ta'siriga qarshi turadi, jamiyatning taraqqiyoti uchun jonkuyarlik bilan ishtirok etadi va o'zining harakatlari bilan boshqalarga haqiqiylik sari intilishga namuna bo'ladi. U jamiyatdagi muammolarni o'rtacha, yuzaki fikrlar bilan emas, balki chuqur tahlil va shaxsiy, dadil qarorlar asosida hal etishga intiladi.[7]

Xaydeggerning "qarorli bo'lish" va "Das Man" tushunchalari uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarining tamal toshlari ekanligini chuqur his etaman. Ular bizni, insoniyatni, o'zimizning ijtimoiy muhitdagi o'rnimizni qayta ko'rib chiqishga, ommaviy shablonlar va haqiysiz mavjudlikning soxta ko'zgusidan voz kechishga undaydi. Xaydegger insonni o'zining o'limligi va erkinligini anglash orqali "qarorli bo'lish"ga chaqiradi bu esa haqiqiy

o'zlikni topishga, mas'uliyatli etakchiga aylanishga va jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishga zamin yaratadigan yagona yo'ldir. Uning falsafasi shaxsning o'z-o'zini anglash, o'ziga xosligini himoya qilish va ijtimoiy mavjudlikda haqiqiylikka intilish borasidagi uzluksiz kurashini yoritadi. Men bu kurashda o'z o'rnimni topishga intilaman, Xaydeggerning donishmandligi meni yangi ufqlar sari chorlaydi.

"Qarorli bo'lish"ning chuqur ildizlari: "Qarorli bo'lish" shunchaki bir lahzalik tanlov emas. Bu, insonning mavjudligining chuqur strukturasidan, ya'ni "tashlab qo'yilganlik" va "oldinda bo'lish" kabi tushunchalardan kelib chiqadi. Inson o'zini dunyoga tashlab qo'yilganini, ya'ni o'zining boshlanishini tanlamaganini tushunishi, ammo shu bilan birga o'zining o'limga mahkumligini anglash orqali o'z mavjudligini o'zi belgilashi mumkinligini idrok etishi "qarorli bo'lish"ga undaydi. Bu xuddi oldindan yozilgan ssenariysiz, lekin tugash sanasi ma'lum bo'lgan bir spektaklni ijro etishga o'xshaydi – inson o'z rolini qanday ijro etishi uning ixtiyorida.[6]

"Yangi mavjudlik ufqlariga intilish"ning ma'nosi: Bu yangi ufqlar shunchaki martaba cho'qqilari yoki boylik orttirish emas. Bu, Xaydegger nazdida, o'zining "o'ziniki bo'lgan eng o'z imkoniyatlari"ni amalga oshirish demakdir. "Das Man" dunyosida inson umumiy, o'rtacha imkoniyatlar bilan yashaydi. "Qarorli bo'lish" orqali esa, inson o'zining betakrorligini, boshqalar takrorlay olmaydigan imkoniyatlarini kashf etadi va ularni hayotga tatbiq etishga intiladi. Bu o'z-o'ziga berilgan, boshqalarning bahosidan xoli bo'lgan ichki erkinlikdir.

Ijtimoiy oqibatlarining dialektikasi: Xaydeggerning falsafasi ko'pincha individualistik deb tanqid qilinadi. Biroq, sizning tahlilingizda ta'kidlanganidek, "qarorli bo'lish" ning chuqur ijtimoiy oqibatlari mavjud. Haqiqiy o'zlikni topgan shaxs jamiyatga passiv munosabatda bo'la olmaydi. Uning har bir harakati ongli va mas'uliyatli bo'ladi. U "Das Man"ning yuzaki normalariga qarshi turib, haqiqiy qadriyatlarni o'rnatishga harakat qiladi. Bunday shaxs atrofdagilarni ham haqiqiylikka intilishga ilhomlantiradi. Demak, jamiyatning o'zgarishi har bir insonning o'z ichki erkinligini topishi va o'ziga xos mavjudligini yaratishi bilan

bevosita bog‘liqdir. Bu — jamiyatning haqiysizligiga qarshi individual ruhning kuchli isyonidir.[6]

"Qarorli bo‘lish" bir lahzalik shon-sharaf yoxud oson g‘alaba emas, balki inson ruhining uzluksiz, teran va bitmas-tuganmas safaridir. "Das Man"ning ko‘rinmas, ammo kuchli tortishish maydoni doimiy ravishda insonni o‘z iskanjasiga tortishga intiladi. Shu bois, har bir on, har bir lahza insoniyat o‘zini haqiysiz mavjudlikning nozik, sirg‘alib kiruvchi, ammo nihoyatda qudratli ta’sirlaridan himoya qilishi, o‘z qarorlarini vijdon tarozisiga solishi, tafakkur chig‘irig‘idan o‘tkazishi va o‘zining asliyatiga, betakror mohiyatiga so‘zsiz sodiq qolishi lozim. Bu inson mavjudligining abadiy va ulug‘vor dramasidir, ruhning cheksiz jangidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Visser, V. *Marten Heidegger with Conversations*. New York: Yale University Press, 2011.
2. Žižek, S. *Heidegger and Contemporary Philosophy*. Moscow: Logos, 2012.
3. Dreyfus, H. L. *Heidegger on the Move*. Oxford: Oxford University Press, 2014.
4. Young, J. *Heidegger's Philosophy of Art*. Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
5. Malpas, J. *Heidegger's Topology: Being, Place, World*. Cambridge: MIT Press, 2012.
6. Krell, D. F. *Out of the Dark: Heidegger's Art and Thought*. London: Routledge, 2017.
7. Badiou, A. *Heidegger and the Moderns*. London: Verso, 2005.
8. Harman, G. *Object-Oriented Ontology: A New Theory of Everything*. London: Pelican, 2018.
9. Botirovna, S. Z. (2023). Socio-philosophical aspects of M. Heidegger fundamental ontology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 26, 3-5.

10. Soliyeva, Z. (2024, April). M. XAYDEGGER FALSAFADAGI “BORLIQ”TUSHUNCHASI (“BORLIQ VA ZAMON”). In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 563-565)

ЗНАЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА СУФИ АЛЛАЕРА В РАЗВИТИИ ДУХОВНОСТИ ОБЩЕСТВА

Закиров Шакирджан Мамажанович,

доцент Ангренского Университет

Джураев Аваз Ахмеджанович,

доцент Ангренского Университета

Развитие общества является результатом взаимодействия двух взаимосвязанных сфер, материальной и духовной. Источники духовности содержатся в богатом идейном наследии народа, поэтому глубокое изучение исторического наследия каждого народа позволяет найти многие ответы на современные вызовы.

Среди многих ученых и мыслителей, внесших достойный вклад в национальное и духовное наследие узбекского народа, особое место занимает суфийский ученый и великий правовед, поэт-мыслитель Суфи Аллаёр. От него мы унаследовали такие великие произведения, как «Маслак ул-муттакин» («Совет благочестивых»), «Сабот ул-оджизин» («Твердость слабых»), «Махзун ул-мутейнён» («Сокровище немых»), а также множество лирических произведений и поэм.

Одним из важных аспектов творчества Суфи Аллаёра для истории просвещения нашего народа является то, что в старометодных школах преподавались четыре книги: «Хафтияк», «Чор Китаб», «Суфи Аллаёр» и «Хафиз». Эти трактаты, пропагандирующие совершенствование человека, полны научного, философского и социально-этического содержания. В них глубоко анализируются такие общечеловеческие вопросы, как сущность человека, благороднейшего из созданий, и его

место в жизни, а также естественная связь человека с миром, построенном на справедливых порядках.

В своих стихах Суфи Аллаёр призывает людей следовать заповедям Священного Корана и хадисов. Они – единственное средство и путь к достижению источника чистоты и бессмертия. Шариат, основанный на заповедях Бога и Сунне Пророка, – это набор инструментов, необходимых человеку для достижения праведности.

Великие представители суфийского мира Центральной Азии своими знаниями, трудом, богатой духовностью и мудростью достигли в своё время высокого уровня совершенства и снискали огромный авторитет в народе. Они оказали огромное влияние на общественную мысль и художественное творчество, особенно поэзию, того времени. Суфи Аллаёр также продолжил свое творчество, изучая и следуя традициям своих великих предшественников: Ахмада Яссави, Бахауддина Накшбанда, Алишера Навои, Сулеймана Бакиргани и Боборахима Машраба. В частности, просветлением, озарившим сердце мыслителя, стало учение Накшбанда. Здесь следует также отметить, что это учение было поистинно народным, сумевшим подняться до уровня национальной идеологии народов, населявших Туран на протяжении веков. Основу этого учения можно понять из того, что лозунг «Дил ба ёру, даст ба кор» («Сердце устремлено к богу, руки к труду») был созвучен душе поэта, который, прежде всего, своими стихами стремился всесторонне развить благородные чувства и убеждения людей. [2]

Суфи Аллаёр — не только поэт и шейх суфийского ордена, но и великий правовед, учёный и пропагандист наук шариата. Все его труды направлены на то, чтобы разъяснить людям истинный ислам, приобщит их к религии и вере, научит их этикету и нравственности, а также направит их на путь чистого суфизма. Продолжая славные традиции предков в облагораживании духовного мира человека, и, выступая на 72 сессии генеральной Ассамблеи ООН Президент Узбекистана Ш.М.Мирзиёев, отметив бесценный вклад в развитие исламской и мировой цивилизации целой плеяды ярких

представителей Централноазиатского Ренессанса, подчеркнул в качестве важнейшей задачи «довести до широкой мировой общественности подлинно гуманистическую сут Ислама», а также обратился к участникам сессии с предложением принять специальную резолюцию Генеральной Ассамблеи «Просвещение и религиозная толерантность».[1]

Взгляды Суфи Аллаёра были направлены на «перевоспитание общества, излечение его тела от различных болезней и открытие глаз на источники духовности». Изучение творчества и деятельности Суфи Аллаёра приводит нас к выводу, что он работал с четкой программой, стремясь перевоспитать общество, излечит его тело от различных болезней, открыт его духовные источники, очистит и реформирует идеологию народа от чужеродных элементов, воспитат совершенного человека с твердыми убеждениями и чистой нравственностью. Актуальность этих мыслей приводит в восторг современного читателя, ибо проблемы того времени с новой силой беспокоят и современный социум.

Общество может достичь истинного совершенства, только освободившись от пороков. Единственный выход — познать Бога. Это качество, в свою очередь, защищает человека от высокомерия и подталкивает его к истинному совершенству, так считает мыслитель.

Стихи Суфи Аллаёра — это выражение человеческого духа и мышления. Читающий их словно бы ясно ощущает человеческую психику, её сут.

Мы уверены, что человек испытывает моменты счастья, преодолевая внутренние конфликты, и что усилия, прилагаемые им для достижения стадии совершенной человечности, принесут ему радость, утверждал мыслитель. Воспитание совершенного человека было благородной целью поэта Суфи Аллаёра. Независимо от того, видел ли он в жизни людей, являвшихся воплощением чистоты и добра, он сумел создать образы таких людей в своём творчестве.

С древних времен великие мыслители создавали определенные образы «совершенного человека», и Суфи Аллаёр в свое время также смог внести свой вклад в это благородное дело.

Своими стихами он помогал современникам избегать бедствий, являющихся следствием эгоизма, низменных поступков и безнравственных действий, пытался объяснить им бренность реального мира и тщетность всех усилий по достижению богатства и власти.

Труд учёного «Сабот ул-оджизин» – один из лучших образцов философско-дидактической литературы. В нём рассматриваются взаимоотношения пира и его учеников. Описываются обязанности учителя по отношению к ученикам и обязанности ученика по отношению к пиру.

Главная тема произведения — воспитание совершенного человека. По мнению мыслителя, человеку необходимы определённые убеждения. Человек без веры, без ясной цели проживает жизнь напрасно, впустую. Ему нужно указать верный путь, а, именно – жить праведно, избегая тяготы и невзгоды жизни. Праведность очищает человека и позволяет ему занять достойное положение среди людей.

Труды Суфи Аллаёра служат великим духовным и образовательным источником в воспитании новой, зрелой личности в духе национальной идеологии [3].

Работа Суфи Аллаёра «Сабот ул-Оджизин» — произведение духовного просветления. Оно обладает огромной силой, способной пробудит ум современного ученика, сделает его живым, бодрым, чистым. Он предостерегает человечество от беспечности [4].

Главной идеей Суфи Аллаёра было «воспитание совершенного человека с крепкой верой», а её реализация, по сути, заключалась в том, чтобы определить воспитание совершенного человека как задачу всего общества.

Взаимосвязанные произведения Суфи Аллаёра «Маслак ул-муттакын» и «Сабот ул-оджизин» были созданы как последовательные руководства для тех, кто воплощал в жизнь эту самую идею

совершенной личности, и представляли собой наставления, имеющие и сегодня огромное воспитательное значение.

Литература :

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева 19 сентября 2017 года на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций.
<https://president.uz/ru/lists/view/1063>
2. Baratova N.A. Soʻfi Ollohyorning badiiy-maʼnaviy qarashlari. – Samarqand, 2002. – B. 22.
3. Suvonqulov I. Qalb gavhari. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2006. -B. 35.
4. Adizova I. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: “Fan”, 2006. – B. 94-95.

OʻZBEKISTONDA MILLIY QADRIYATLARNING SHAXMAT TARIXI VA FALSAFIY OʻRNI

Xoliqov Umidjon Qoʻchqarovich,
Guliston davlat pedagogika instituti

v.b. dotsenti

Oʻzbekiston mustaqilligi boshqa sohalar qatori maʼnaviy merosimizni oʻrganish uchun ham katta imkoniyat yaratib, tarixiy, sivilizatsion oʻzgarish va yangilanishlarni ochib berdi. Milliy qadriyatlar tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlash, maʼrifiy yuksalish uchun xizmat qilib, bu jarayonda uygʻonish davri mutafakkirlarining qoldirgan ilmiy, falsafiy adabiy merosining oʻrni beqiyosdir.

Har bir millat oʻz kelajak avlodida komillikni koʻrishni orzu qiladi. Oʻzbek xalqi oʻz madaniyati va maʼnaviyatida komil insonlar tarbiyasiga alohida eʼtibor bergan va bunday komillik dargʻalarini etishtirish har bir zamonda muhim sanalgan. Inson kamolotida esa jismoniy va maʼnaviy goʻzallik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bugungi kunda yurtimizda

zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan, intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz boshchiligida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan 5 ta tashabbusi ilgari surildi.[1]

O'zbekiston sporti milliy madaniyatimizning uzviy qismi hisoblanadi. U keng xalq ommasini yuksak axloqiy ruhda tarbiyalashda va salomatligini mustahkamlashda muhim vositalardan biri bo'lib qoldi. Mamlakatimizda yashovchi xalqlar asrlar davomida xilma-xil jismoniy mashqlar va milliy musobaqalar turlarini yaratdiki, bu o'z navbatida yoshlarning jismoniy va ma'naviy tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Ikkinchi tashabbus yuzasidan tayyorlangan yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish, sport inshootlari quvvatini oshirishga qaratilgan dastur loyihasida yaqin ikki yilda har bir tumanda kichik sport zallari qurish belgilandi.

Davlatimizning e'tibor markazida sog'lom avlod uchun olib borilayotgan uzluksiz sa'y-xarakatlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida so'nggi yillarda qizlar sportining jadal rivojlanayotganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Shaxmat birinchi marta qaerda paydo bo'lgan? Jahonning juda ko'p olimlari bu masalani hal qilish uchun bir necha asrlar davomida urinib keldilar. Hozirgacha saqlanib kelgan ko'pgina afsonalar shaxmatning birinchi vatani Hindiston ekanligidan dalolat beradi. Shaxmat donalari orasida Hindistonga hos fillarning bo'lishi, qadimiy qo'l yozmalarda «radja» shoh «anga» qo'r kabi hindcha so'zlarning qo'llanilishi bu o'yinning tarixi bilan shug'ullanuvchilarni yuqoridagi fikrga olib keldi. Shaxmatning boshlang'ich shakli – chaturanga eramizning dastlabki asrlarida Panjob va Kashmir viloyatlarida paydo bo'lgan deyishga etarli

asos bor. Chaturanga hozirgi shaxmatga ancha o'xshasa ham, lekin undagi donalar soni va o'yin taxtasining ko'rinishi jihatidan farq qilardi Eng katta farqi shunda ediki, hind shaxmatida maxsus shashqol bo'lib, o'yinda yutish bu shashqolning qay holatda tushishiga bog'liq edi. [3.5]

Faktlarni yaxshi o'rganish va taqqoslash – O'rta Osiyoning Panjob va Kashmirga yaqin viloyatlarda, taxminan, 4-5 asrlarda hind chaturangasining qandaydir formasi asosida bu o'yinning takomillashgan turi – shatrang paydo bo'ldi, degan xulosaga keladi. Shatrang takomillasha borib, donalarning soni jihatidan ham, bu donalarning taxtaga terilish tartibi jihatidan ham hozirgi shaxmat tusiga kiradi. Shoh, ruh va otni xuddi hozirgidek yuritiladigan bo'lib qoladi: lekin farzin bilan diagonal bo'yicha bir xona tashlab, ikkinchisiga sakragan; piyodalar ikki xonaga surilmagan; rokirovka bo'lmagan. Shunday qilib, bu farqni nazarga olmaganda, shatrang hozirgi zamon shaxmatiga juda yaqin bo'lib qolgan. Shatrang o'yinida shashqol bora-bora qo'llanilmaydigan bo'ldi, unda kurash raqib donalarining barchasini qirib tashlaguncha emas, balki shohni mot yoki pot qilguncha davom ettiriladigan bo'ldi. [2]

Darhaqiqat uyg'onish davri mutafakkirlari o'z davrlari uchungina emas, balki kelgusi avlodlar, kelajak zamon va davrlar uchun ham ma'naviy kuch-quvvat manbasi, bebaho meros qoldirib, Abu Nasr Forobiyning falsafaga doir, al-Xorazmiyning hisob ilmiga doir, Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot ilmiga doir, Abu Rayxon Beruniyning aniq fanlar va tarixga doir, Alisher Navoiyning adabiyot sohasiga doir va yana ko'plab olim-u fozil ajdodlarimizning ilmiy, adabiy va falsafiy meroslari o'z davrlaridan keyin ham dunyo xalqlariga yo'l ko'rsatib kelayotganligini butun jahon jamoatchiligi e'tirof etadi. [3]

Ajdodlarimiz aqlni peshlashda shaxmat o'yinining ahamiyatini yaxshi bilganlar. U paytlarda ko'pincha 100 katakli shaxmatda o'ynash nufuzli hisoblanardi. Abubakr as-Suli X asrda eng kuchli shaxmat ustasi bo'lgan. Boshqa kuchli uyinchi-Abulfatx Ahmad XI asrda shaxmat bo'yicha qo'llanma yozadi, bu risola bir necha asrlar davomida qayta-qayta ko'chirilib unga qo'shimchalar kiritiladi. Firdavsiyning "Shoxnoma"sida shaxmat o'yinlari mahorat bilan ifodalangan edi.

Qadim zamonlardan beri shaxmat o'zining go'zalligi, mazmundorligi bilan ulkan so'z san'atkorlarini adabiy ijodga ilhomlantirib kelayotganligining boisi ham ana shundadir. Buyuk Firdavsiy o'zining "Shohnoma"sida shaxmatga katta o'rin bergan. Buning sababini so'raganlarida u: "Maqsad – shaxmatni kuylab, uning poeziyasidan ilhomlanish, lazzatlanishdir", degan. Butunlay yoki bir qismi shaxmatga bag'ishlangan badiiy asarlar oz emas. Bu haqda ilmiy risola va tadqiqotlar yozib qoldirilgan. [5]

Shaxmatni kuylagan asarlardan juda ko'p na'muna, parchalar keltirish mumkin-ku, lekin biz bu erda o'shalarining ayrimlari bilan chegaralanamiz. Gapni "Shoxnoma"dan boshlaymiz. Unda shaxmatning paydo bo'lishi haqidagi bir afsona kuylanadi. Emish, bu o'yinni donolar o'ylab topishgan bo'lib, ular shaxmat vositasida Hasan-Husan shahzodalar – Talxand va Gav o'rtasidagi jangda Talxand o'limini onalariga tasvirlab berishgan. Poemadan parcha keltiramiz:

Talxand haqida so'ylabon bir-bir,
Shaxmatga yo'l ochdim Gav bahodir...
Shaxmatga boqqancha ona bechora,
Ko'zidan yoshlari oqar shashqator.
Shusiz ham shaxmatga tikilgan oni,
Qalbim emiradi dardlar to'foni.
O'y, fikrin chulg'agan shaxmat o'yini,
Zil ketib xotirlar Talxand o'g'lini.
Zor-zor ko'z yoshlari oqar beshafqat,
U taskin topar shu shaxmatdan faqat.
Hech narsa tatimay so'ldi so'ng behold,
To kelmaguncha eshik qoqib ajal.
Kor-holda shu ekan bu ko'hna dunyo,
Qayg'u har qadamda, baxtku bevafo.
Bu uzun hikoyat tugadi endi,
Qadim rivoyatdan eshitgandim uni.
Oqil shaxmat o'yini-yu, shohu mot,
Huv o'shal damlardan qolgan xotirot. [3]

Ozarbayjon xalqining iste'dodli shoirasi Mahsatiy Ganjaviyning shaxmat bo'yicha asosiy raqibi – eri Amir Ahmad bo'lgan. Ular o'rtasidagi shaxmat janglari shunday maroqli o'tganki, bu hatto shoiraning ijodida o'z aksini topgan.

Taxminan XV asrda yozilgan “Mahsatiy va Amir Ahmad” dostonida ularning mohir shatranjchilar ekani haqida batafsil so'z boradi. Shoir “ruh” ma'nosida ajoyib so'z o'yini yasagan. Ruboiyning qisqacha mazmuni bunday: Amir ruhi bilan o'z raximni ro'baro obo'lishdan xursand bo'lardim. Uning ruhiga qarshi o'z raximni qo'yganimda mot bo'lmasdim: men mot bo'lsam ham hushbaxtman, chunki raxim ruxingga qarshi turmasa-da, ko'zlarim doim sening ruxingga (yuzingga) bo'lib turibdi...

Mahsatiy ruboiylarini atroflicha o'rganib, izohlagan professor Meyer, sharq shoirlarining shaxmatdan kuchli badiiy vosita sifatida foydalanish mahorati G'arbda o'z ta'sirini ko'rsatdi, deb yozadi.

Ozarboyjonlik mashhur so'z san'atkorlaridan Afzaliddin Ho'niy (XI-XII asrlar) ham o'z asarlarida shaxmatni ulug'lagan va nozik iboralar yordamida undan barakali foydalangan. “Shaxmat taxtasidagi kurash tasodiflarga emas, balki insonning aql-zakovatiga asoslanadi” deydi u.

Uning shaxmatdan mantiqiy natija chiqargan mana bu she'ri ham diqqatga sazovordir:

Bir piyoda bo'lib to'g'ri yurmoq afzaldir

Bir vazir bo'lib egri yurmoqdan. [4]

Bu ikki misra ma'no jihatdan toshkentlik kekxa shaxmat muhlisi hurmatli Arslon Qori Valiyavdan yaqinda eshitganim mana bu forsiy she'rga juda o'xshab ketadi:

Rux ki rost roh meravad dar peshi shoh shoyi nadod

Fili ki kajraftari dar peshi shoh joyi dod.

Ma'nosi: Rux to'g'ri yuradi, shuning uchun shox yonidan joy ololmadi, fil qing'ir yurgani uchun shohning pinjiga kirib olgan. Ha, taxtada ruhlar ikki chetda, fillar esa shohga yaqin joyda turadilar...

Shu xildagi baytlar Muhammad Rizo Ogahiyda (1809-1874) ham bor:

Rostravlik, Ogahiy, ruxdek sani solmish yiroq,

Qurbi shoh topgay eding kajrav esang farzin kabi.

Yana:

Rux kabi shahdin yiroq o'lmay desang bu arsada
Har tarafga moyil o'l, andoqqi, farzin, ey ko'ngil.

Farzin zi kajravi shuda bo shoh hamnishin,
Bechora rux zi rostravi andar kanoraho. [3]

Yuqoridagidek ma'noga ega bu baytning ajib tarixi bor. qo'qon xoni Umarxonning jiyani Hakimxon To'ra o'z zaminasining eng madaniyatli, ilg'or kishilaridan bo'lgan. Shuning uchun Umarxonning o'g'li Madalixon hukmdorlik davrining (1822-1842) dastlabki yillarida uni Farg'onadan badarg'a qiladi. To'ra Rossiyaning ko'pgina shaharlarini aylanib, so'ng Kuban orqali Sharq mamlakatlariga safar qiladi. U safar xotiralarini o'zining "Muntaxab at-tavorix" (Tarixlar xulosasi) asarida aks ettirgan.

Hakimxon To'ra Misrda 22 yashar turk yigiti Mohir Afandi bilan do'stlashib qoladi. Bir kuni bu yigit shahardan dabdaba bilan o'z chorbog'iga ketayotgan Misr podshosi Muhammad Alining go'zal qizi Oftob xonimni ko'rib, unga oshiq-u beqaror bo'lib qoladi. Qizning yuragidan ham uradi. Hakimxon To'ra bu voqeadan xabardor etiladi. Qiz ming xil hiyla-yu nayrang bilan Mohir Afandi va Hakimxon To'rani pinxoniy yo'llar bilan chorbog'idagi o'z xonasiga olib keltiradi. Malika go'zal yigitga yonidan joy berib, Hakimxon To'rani xonaning burchagidagi kursiga o'tqizadi. Oftob xonim bazm orasida yonidagilarga so'z qotar, javoblardan keyin xonanda va sozandalarga gap berib turardi. Suhbat paytida turk yigitining turli ilmlardan bexabarligi, uning bilimi husniga monand emasligi bilinib qoladi. Vaqtiki kelib, malika Hakimxon To'rani ham suhbatga tortadi. U xonimning yoniga kelib Hofiz, Sa'idiylardan baytlar aytib beradi, savollarga o'ta bilimdonlik bilan batafsil javoblar qaytaradi. Ba'zan Oftob xonim yonidagi kitoblarni mutolaa qilgani tushar, goho shatranj taxtasiga qarab qo'yardi. Bir vaqt u Hakimxonga yuzlanib, "shatranjni bilasanmi", deb so'rab qoladi. Hakimxon To'ra "bu ilmlardan juda yaxshi xabarim bor", deydi. Xonim xazinachisi – shatranjda tengi yo'q kanizakni chaqiradi. Shatranj taxtasiga donalar teriladi. Hakimxon To'ra ustma-ust ikki marta g'olib chiqadi va malikaga yuqorida keltirilgan baytni

o‘qib beradi. Bu bilan Hakimxon ko‘rinishi bashang, lekin saviyasi past Mohir Afandi malika yonidan joy oldi-yu, mendek to‘g‘ri, ammo jafo chekib ilmlarga etishgan odam kanoralarga tikildi, deb Oftob xonimni mot qiladi. [2]

Bu hikoyada haqiqat izlari borligi muqarrar. Shunday ekan, O‘rta Osiyo, jumladan, qadimgi Farg‘onada madaniyat ma‘lum darajada yuksak bo‘lmaganida, madaniyatning bir bo‘lagi shaxmat rivoj topmaganida Hakimjon To‘ra bunchalik bilimdon va mohir shaxmatchi bo‘lib etishmas, bu voqeani “Tarixlar xulosasi” nomli kitobiga kiritishga botina olmas edi, albatta.

Buyuk Nizomiy shaxmat kurashi motividan badiiy vosita sifatida ko‘p foydalangan. Bu ilk bor uning “Xisrav va Shirin” poemasida aks etgan:

Zamona Xisrav bo‘lmadi panoh

Bahrom qarshisida mag‘lub bo‘ldi shoh.

Poemaning so‘ngida shoir:

“Dunyo bir shatranjdir, unutmabuni”, deydi.

Nizomiyning “Yetti go‘zal” va “Iskandarnoma” asarlarida ham shaxmat ko‘p joyda tilga olinadi.

Ish-muhabbatni kuylab, durdonalar yaratgan Muhammad Fuzuliy sevgi olamida o‘zini “mudarrisi ilmi junun”, ya’ni oshiqlik – devonalik ilmining muallimi deb hisoblaydi. [3]

Shoir shaxmat donalarining yurish-turishi qoidasidan foydalanib: “Majnun zamon e’tibori bilan mendan oldin dunyoga kelgan bo‘lsa ham, u ishq olamining piyodasidir, men esa shohiman”, deydi. Fuzuliy bu erda shaxmat taxtasini “ishq maydoni”ga o‘xshatgan bo‘lsa, “Layli va Majnun” poemasida uni “Jang maydoni” deb, Navfal bilan Layli qabilasining qo‘shinlari saf tortishini bunday ifodalaydi:

Shatranjsifat ul ikki lashkar

Bir-biriga turdi barobar.

XIV asrning ikkinchi yarmida yashagan va hayotining ko‘p qismini Eron va Ozarbayjonda o‘tkazgan Xo‘ja Ali Tabriziy mohir shaxmatchi sifatida mashhurdir.

XVI asrda Xondamir taxallusi bilan ijod etgan mashhur tarixchi Gʻiyosiddin ibn Humomiddin al-Husayniy “Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar” (“Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi doʻst”) asarida Xoʻja Ali Tabriziyni oʻz davrini shuhrat qozongan mohir shaxmatchisi sifatida tasvirlab, “U shaxmat ilmidan shu qadar voqif ediki, boshqalar uni ustod, deb bilardilar. Hatto “gʻoyibona” (yaʼni taxtaga qaramasdan) ham ajoyib oʻynardi. Amir Temur majlislarida u hamisha shatranj oʻynardi” deb yozadi.

Manbalarga koʻra, Xoʻja Ali shaxmat taxtasiga qaramasdan bir yoʻla toʻrt kishi bilan oʻynay olgan, holbuki, u davrda Gʻarbiy Yevropada hammani hayron qoldirganlar ikki, koʻpi bilan uch taxtada bir yoʻla qaramay oʻynay olganlar.

Ozərbayjonlik professor, atoqli navoiyshunos Hamid Oraslining koʻrsatishicha, XIII-XIV asrlarda Ozarbayjon ziyolilarining madaniy mashgʻulotlaridan biri – shaxmat boʻlgan, kuchli shaxmatchilar shuhratga sazovor etildilar. Ularga sanʼatkor, deb qaralgan.

Ulugʻ oʻzbek shoiri, mutafakkiri Alisher Navoiy shaxmatni sevgan, oʻzi ham anchagina durust oʻynagan. Buni Zahiriddin Muhammad Bobur ham koʻrsatib oʻtadi. Navoiy “Lison ut tayr” dostonidagi hikoyalaridan birida bu oʻyinning tafsilini ajoyib chizib bergan. Hikoyadan maʼlum boʻlishicha, sipohlar orasida shohdan tashqari bir vazir, bir farzin, ruhlar, fillar, otlar, ayiqlar, jirafalar, tuya va piyodalar boʻlgan. [3]

Birinchi qatorga piyodalar, ikkinchi va uchinchi qatorlarga sipohlar terilgan. Yurish otdan boshlangan. Ayrim manbaalarga qaraganda oʻsha paytlarda shaxmatning boshqa turlari, jumladan, Navoiy taʼriflagan katta shaxmat ham oʻynalgan. Amir Temur 100 xonalik shaxmatda jang qilgan, deyiladi baʼzi rivoyatlarda.

Alisher Navoiy yashagan davrda Samarqand va Buxoro qatori Hirot ham shaxmat maʼdaniyatining markazlaridan boʻlgan. Uzoq vaqt davomida Navoiyning qoʻlida xizmat qilgan Mavlono Fasixiddin Sohib etuk olim va durustgina shoir boʻlib qolmay, shatranjda ham mahorati zoʻr edi. U shaxmat taxtasiga qaramay ham juda yaxshi oʻynay olgan. Oʻsha davrda Hirotida shaxmat sanʼat qatoriga qoʻshilib shoirlar, rassomlarga oid tarixiy

ma'lumotlar atoqli shaxmatchilarning biografiylarini ham o'z ichiga oladi...

Shohmotning Sharqda paydo bo'lgani va uning taraqqiyotiga O'rta Osiyo xalqlari katta hissa qo'shgan isbot talab qilmaydigan haqiqat. 1882 yilda Toshkentda birinchi shaxmat to'garagi ochildi. 1885 yilda shaxmat to'g'risida qo'llanma kitobcha nashrdan chiqarildi.

Yurtimiz shaxmat jonkuyarlari haqida gap ketganda, O'zbekistonning birinchi chempioni(1930 yilda) Azmiddin Xo'jaev(1892-1946)ni eslashimiz lozim. U shaxmatga bog'liq barcha tashkilotchilik ishlarida etakchilik qildi: to'garaklar ochdi, yig'ilishlar, musobaqalar o'tkazdi. Xullas, yurtimizda shaxmatchilarning yangi avlodi yetuklikga etishiga uchun umrini bag'ishladi. [7]

O'zbekiston shaxmat taraqqiyotining keyingi davrini Mamajon Muhiddinov(1927-2002)siz tasavvur etib bo'lmaydi. U to'rt bor O'zbekiston chempioni, respublikada xizmat ko'rsatgan murabbiy, xalqaro toifadagi hakam unvonlariga erishdi, shaxmat tarixiga oid nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi, sehrli o'yinga bag'ishlangan besh mingdan ziyod maqola, ellikka yaqin kitob yozdi. Shu bilan birga, 40 yildan ortiq davrda Respublika shaxmat federatsiyasini boshqardi, yurtimizda yuzlab musobaqalarni uyushtirdi. Aynan uning qo'llab-quvvatlashlari tufayli Georgiy A'zamov (1954-1986) O'rta Osiyoda birinchi bo'lib, xalqaro grossmeyster unvoniga erishdi.

Shaxmat insoniyat kashf etgan eng qadimiy, qiziqarli, jozibali hamda go'zal o'yindir. Shaxmat qiziqarli va maroqli o'yin. Bola yoshligidan shaxmatda yuzaga keladigan variantlarni isbotlay boshlaydi. Ularni solishtiradi, yaxshisini tanlaydi, vaziyatga baho beradi, har doim band bo'ladi. Uning vaqti miya uchun kerakli va foydali mashg'ulot bilan to'ldiriladi.

Shaxmat insoniyat kashf etgan eng qadimiy, qiziqarli, jozibali xamda go'zal o'yindir. Uning asosiy xususiyati shuki shaxmatda sport va san'at uyg'unlashib ketgan. Shaxmat qiziqarli va maroqli o'yin. U bilan shug'ullanish organizmning umumiy jismoniy rivojlanishiga, fikrlash

doirasining o‘shishiga, o‘shib kelayotgan yosh avlod ruhiyatiga ijobiy ta’sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 yanvardagi “Shaxmatni yanada shakllantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4954-son qarori.
2. Xoliqov U.Q “Shaxmatni o‘qitish nazariyasi va amaliyoti” darslik. Toshkent, “Bookmany print”, 2024–yil. 310 b.
3. Nosir Muhammad “Shaxmat mo‘jizasi” T 2014 y 5-9 bet
4. Muhiddinov M. O‘n to‘qqiz chempion. –T.: Yulduzcha, 1998. 9 bet.
5. Muhiddinov M. Katalarda yashiringan olam. -T.: O‘zbekiston, 1976. 66 bet.
6. UK Khalikov Pedagogical value of developing playing chess among primary schoolchildren Bulletin of Gulistan State University 2021 (2), 17-23
7. UK Xoliqov Yoshlar tafakkurini shakllantirishda shaxmatning o‘rni. Academic research in educational sciences 2 (CSPI conference 3), [538-541]

MILLIY QADRIYATLARNING ASOSLARI VA EVOLYUSIYASI

Sharifjon Ibrohimov Adhamjon, o‘g‘li

ISFT (International school of Finance Technology and Science) talabasi

Milliy qadriyatlar har bir xalqning ma’naviy-axloqiy qiyofasini belgilaydigan, uning tarixiy tajribasi va madaniy merosini ifodalaydigan murakkab ijtimoiy-falsafiy tushunchadir. Jamiyatning barqaror va uyg‘un rivojlanishi, milliy o‘zligini saqlab qolishi ko‘p jihatdan qadriyatlar tizimining mustahkamligiga bog‘liqdir. Qadriyatlar inson faoliyatining

barcha sohalarida-axloq, huquq, siyosat, iqtisodiyot, san'at-o'z aksini topadi va jamiyat ahvolini belgilovchi asosiy me'yorlarni tashkil etadi.[1]

Hozirgi zamon globallashuv jarayonlari milliy qadriyatlarga yangicha munosabatni talab etmoqda. Bir tomondan, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi, axborot oqimining jadallashuvi insoniyatni umumiy qadriyatlar sari birlashtirmoqda. Ikkinchi tomondan, milliy o'ziga xoslik, an'analar va qadriyatlarning saqlanishi masalasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Shu bois, milliy qadriyatlarning tarixiy va falsafiy o'rganilishi zamonaviy fan uchun muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "milliy qadriyatlarimiz bizning eng qimmatli boyligimiz, kelajak avlodlarga qoldiradigan eng ulug' merosimizdir".[2] Bu fikr milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishning davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi milliy qadriyatlarning shakllanish jarayonini tarixiy va falsafiy kontekstda o'rganish, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ochib berishdan iboratdir.

Milliy qadriyatlar deganda ma'lum bir xalqning tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan, uning dunyoqarashi, turmush tarzi, axloqiy me'yorlari va madaniy an'analarini aks ettiruvchi qadriyatlar majmui tushuniladi. Amerikalik sotsiolog T. Parsonsning fikricha, qadriyatlar jamiyatning madaniy tizimining asosiy elementi bo'lib, ular ijtimoiy faoliyatning yo'nalishini belgilaydi.[3]

Milliy qadriyatlarning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ular uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi va avloddan-avlodga o'tadi. Qadriyatlar mustahkamlanishi uchun asrlar kerak bo'ladi, ular xalqning ijtimoiy xotirasida saqlanadi va ma'naviy genofondini tashkil etadi.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlar birlamchi ijtimoiy institutlar-oila, mahalla, ta'lim muassasalari orqali uzatiladi. O'zbek jamiyatida oila milliy qadriyatlarni shakllantiruvchi asosiy institut hisoblanadi, bu erda bobolar-boboho, kattalar hurmati, urug'-aymoq birligi kabi qadriyatlar singdiriladi.

Uchinchidan, qadriyatlar nisbiy barqarorlikka ega bo'lsa-da, ular o'zgaruvchan xarakterga ham egadir. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlari qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatadi, lekin asosiy, markaziy qadriyatlar uzoq davrlar mobaynida saqlanib qoladi.

Falsafiy nuqtai nazardan qadriyatlar mavjud emas, balki ahamiyatga egadir. Nemis faylasufi G. Rikkertning ta'kidlashicha, qadriyatlar alohida borliq emas, balki voqelikni anglash va baholash usulidir.[4] Bu yondashuv qadriyatlarning subyektiv va obyektiv tomonlarini birlashtiradi: ular inson ongi mahsuli bo'lishiga qaramay, obyektiv ijtimoiy voqelik sifatida mavjud bo'ladi.

O'rta Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlari qadimiy davr sivilizatsiyalaridan boshlanib, o'rta asrlar islom madaniyati davrida yanada boyib, zamonaviy davrda yangi mazmun kasb etgan. Bu jarayon bir necha tarixiy bosqichlarga ajratish mumkin.

Qadimgi davr (miloddan avvalgi ming yilliklardan eramizning VII asrigacha). Bu davrda zardushtiylik dini O'rta Osiyo xalqlarining qadriyatlar tizimiga katta ta'sir ko'rsatgan. Zardushtiylikning asosiy qoidalari-yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi amal (humata, huxta, huvarshta) - keyinchalik o'zbek xalqining axloqiy me'yorlariga singan.[5] Ko'hna shaharlar-Afrosiyob, Marv, Xorazm-madaniyat va ilm markazlari bo'lib, bu erda insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik qadriyatlari shakllangan.

Islom madaniyati davri (VII-XIX asrlar). Islom dinining qabul qilinishi bilan O'rta Osiyo xalqlarining qadriyatlar tizimi yangi mazmunga ega bo'ldi. Islom ta'limoti-e'tiqod, ibodat, axloq, muomala sohalaridagi qoidalar-xalqning turmush tarzi va dunyoqarashining ajralmas qismiga aylandi. Buyuk mutafakkirlar-Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek ilm-fan va ma'rifatning oliy qadriyatlar ekanligini asoslagan.[6]

Sharq Uyg'onish davri namoyandalari-Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy-o'z asarlarida insoniylik, mehr-oqibat, adolat, ilm-ma'rifat qadriyatlarini ulug'lagan. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida davlatchilik, adolat, xalqqa xizmat qilish muhim qadriyatlar sifatida bayon etilgan.[7]

Zamonaviy davr (XX-XXI asrlar). Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy qadriyatlarni qayta tiklash va rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Milliy g'oya ishlab chiqilib, unda tarixiy meros, milliy an'analar va zamonaviy taraqqiyot talablari uyg'unlashtirildi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlarda milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilandi.[8]

Milliy qadriyatlarning falsafiy tahlili ularning ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Ontologik jihat. Milliy qadriyatlar obyektiv ijtimoiy voqelik sifatida mavjud bo'lib, ular jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotining barcha sohalarida o'z aksini topadi. Qadriyatlar inson faoliyatining natijasi bo'lishga qaramay, ular mustaqil mavjudlik kasb etadi va keyingi avlodlarga ta'sir ko'rsatadi. Rus faylasufi V.S.

Solovyovning fikricha, qadriyatlar absolyut va nisbiy, umumiy va xususiy tomonlarga ega bo'lib, ular jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.[9]

Gnoseologik jihat. Qadriyatlar insonning dunyoni bilish va anglash jarayonida muhim o'rin tutadi. Ular voqelikni idrok etish, baholash va talqin qilishning mezonlarini tashkil etadi. Nemis faylasufi M. Shelerning fikricha, qadriyatlar appriori xarakterga ega bo'lib, ular tajriba oldidan mavjud bo'ladi va tajribani shakllantiradi.[10]

Aksiologik jihat. Qadriyatlar inson va jamiyat uchun muhim va ahamiyatli narsalarni belgilaydi. Ular inson faoliyatining maqsadlari, moddalari va usullarini aniqlash uchun asos bo'ladi. Amerikalik psixolog A. Maslouning ehtiyojlar piramidasi nazariyasiga ko'ra, inson rivojlanishining oliy bosqichi o'zini-o'zi anglash va ma'naviy qadriyatlarni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq.[11]

O'zbek xalqining milliy qadriyatlari O'rta Osiyoning geografik o'ri, tarixiy tajribasi, ko'p asrlik madaniy an'analari bilan shakllangan. Ularning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Oila qadriyatlari. O'zbek jamiyatida oila muqaddas institut sanaladi. Ota-onalarni hurmat qilish, kattalarni e'zozlash, farzandlarni e'tibor bilan

tarbiyalash, qarindosh-urug'larni qadrlash-bu qadriyatlar o'zbek oilasining asosini tashkil etadi. Oila ichida avloddan-avlodga milliy an'analar, urf-odatlar, til va madaniyat uzatiladi.

Jamoatchilik va mahalla an'analari. Mahalla o'zbek jamiyatida muhim ijtimoiy institut bo'lib, u nafaqat turar-joy birligi, balki ma'naviy birlik va o'zaro yordam markazidir. Hashar (ko'pchilik mehnati), xayrixohlik, qo'shnilarga hurmat va qayg'usini bo'lishish mahalla qadriyatlarining asosini tashkil etadi.

Mehmondo'stlik va saxovat. O'zbek xalqi mehmondo'stligi bilan mashhur bo'lib, mehmon-Xudoning mehmoni, degan hikmat xalq orasida keng tarqalgan. Mehmonni hurmat bilan qabul qilish, unga eng yaxshisini taqdim etish milliy qadriyatning ajralmas qismidir.

Ilm-ma'rifatga intilish. O'rta Osiyoning buyuk alloma va mutafakkirlari merosidan kelib chiqqan holda, ilm va bilim olish o'zbek xalqining asosiy qadriyatlaridan biridir. "Ilm Xitoyda bo'lsa ham, borg'in va o'rgang'in" mazmunidagi hadis musulmon ma'rifati orasida ilm-ma'rifatning muhimligini ta'kidlaydi.

Vatanparvarlik va milliy g'urur. O'z Vataniga muhabbat, milliy tarixga hurmat, ona-tilni asrash o'zbek xalqining qadriyatlar tizimida alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida vatanparvarlik tuyg'ulari yanada mustahkamlandi.

Hozirgi zamon globallashuv jarayonlari milliy qadriyatlarga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi turli xalqlarning qadriyatlari bilan tanishish imkoniyatini yaratmoqda. Bu jarayon insoniyatni umumbashariy qadriyatlar sari birlashtirishga xizmat qiladi-tinchlik, demokratiya, inson huquqlari, ekologik barqarorlik kabi qadriyatlar butun dunyo xalqlari uchun umumiy bo'lib bormoqda.

Ikkinchi tomondan, globallashuv milliy madaniyatlarga unifikatsiya xavfini tug'dirmoqda. Kuchliroq iqtisodiy va madaniy ta'sirga ega bo'lgan davlatlarning qadriyatlari kuchsizroq madaniyatlarni bosib chiqarish havfi mavjud. Bu jarayon madaniy xilma-xillikning yo'qolishiga, milliy o'ziga xoslikning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi bu muammolarga ongli ravishda yondashib, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirmoqda. Ta’lim tizimini takomillashtirish, milliy madaniyatni targ‘ib qilish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bu borada asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi.[12]

Fransiyalik sotsiolog P. Burdyoning “madaniy kapital” tushunchasi milliy qadriyatlarning zamonaviy sharoitda saqlanishini anglashga yordam beradi. Madaniy kapital-bu bilim, ko‘nikma, madaniy an‘analar va qadriyatlar majmui bo‘lib, u oila, ta’lim muassasalari va jamiyat orqali uzatiladi. Madaniy kapitalning boyligi jamiyatning ma’naviy salohiyatini belgilaydi.

Milliy qadriyatlar har bir xalqning ma’naviy-axloqiy asosini tashkil etuvchi, uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan murakkab ijtimoiy-falsafiy tizimdir.

Ular jamiyatning barqaror rivojlanishi, milliy o‘zligini saqlab qolishi, kelajak avlodlarning etuk shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur asosni yaratadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, milliy qadriyatlar tarixiy jarayonning mahsuli bo‘lib, ular har bir xalqning o‘ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va geografik sharoitlarida shakllanadi. O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari qadimgi O‘rta Osiyo sivilizatsiyalaridan boshlab, islom madaniyati davrida boyigan va zamonaviy sharoitda yangi mazmun kasb etgan.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlarning falsafiy tahlili ularning ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlarini ochib beradi. Qadriyatlar obyektiv ijtimoiy voqelik sifatida mavjud bo‘lib, insonning dunyoni anglash va baholash jarayonida muhim o‘rin tutadi. Uchinchidan, globallashtirish sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Madaniy xilma-xillikni saqlash, milliy o‘ziga xoslikni qadrlash insoniyatning ma’naviy boyligini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularga tarixiy meros, madaniy an‘analarni etkazish ta’lim tizimining

ustuvor vazifasi bo'lishi kerak. Oila, maktab, oliy o'quv yurtlari, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar bu borada muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar—bu xalqning ma'naviy genofondi, uning tarixiy xotirasi va kelajak umididir. Ularni anglash, qadrlash va kelajak avlodlarga etkazish biz hammamizning muqaddas burchimizdir. Milliy qadriyatlar asosida qurilgan jamiyatgina barqaror taraqqiyotga erishishi va global o'zgarishlar sharoitida o'z o'zligini saqlab qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch. — T.: Ma'naviyat, 2008. — 176 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. — T.: O'zbekiston, 2017. — 592 b.
3. Parsons T. The Social System. — New York: Free Press, 1951. -575 p.
4. Риккерт Г. Науки о природе и науки о культуре. — М.: Республика, 1998. — 413 с.
5. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. — СПб.: Центр «Петербургское Востоковедение», 1994. — 301 с.
6. Xayrullaev M.M. Farobiy va uning falsafiy merosi. — T.: Fan, 1975. — 246 b.
7. Navoiy A. Maxbub ul-kulub / Tanlangan asarlar. — T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. — 352 b.
8. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.09.2020 y.
9. Соловёв В.С. Оправдание добра. Нравственная философия. — М.: Республика, 1996. — 479 с.
10. Шелер М. Формализм в этике и материальная этика ценностей. — М.: Гнозис, 1994. — 490 с.
11. Маслоу А.Х. Мотивация и личность. — New York: Harper & Row, 1970. — 369 п.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr, PF-5847-son.

MA'NAVIY MEROSNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI.

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROS UYG'UNLIGI MASALASIGA DOIR

Mavrulov Abduxalil,
tarix fanlari doktori, professor

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida, Yangi O'zbekiston sharoitida barcha sohalarda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, islohotlar barchaning ertangi kunga bo'lgan ishonchini tobora orttirmoqda. Jonajon yurtimiz bugun jahon hamjamiyatiga jadal kirib borayotgani, ochiq davlatga aylanayotganligi tufayli ham qo'lga kiritayotgan yutuqlarimizni e'tirof etayotganlar safi tobora ko'payib bormoqda. Bularning barchasi muhim fenomen hodisa, xalqimizning uzoq yillar davomida orzu qilib kelgan qadriyati – mustaqillik tufaylidir.

Ayni paytda, keyingi sakkiz-to'qqiz yil ichida mamlakatimiz taraqqiyotini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, xalqimiz farovonligini oshirish, inson qadrini yuksak darajaga olib chiqish borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Yangi O'zbekistonda demokratiya, inson huquq va erkinliklari bo'yicha xalqaro me'yor va tamoyillarga qat'iy amal qilingan holda, xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot kechirishni ta'minlash uchun avvallari tasavvur qilib bo'lmaydigan munosib ishlar olib borilmoqda.

Mazkur tadbirlar, mamlakat rahbari tomonidan ishlab chiqilgan yangidan yangi dasturlar, konsepsiyalar, taraqqiyot yo'nalishlari Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessansni barpo etish yo'lidagi muhim qadamlar sifatida e'tirof etilmoqda.

Ayni paytda boshlangan islohotlarning bardavomligi, ularning kelajakda yangi jamiyat barpo etishdagi ahamiyatini yanada oshirish ko'p jihatdan fuqarolar, ayniqsa yoshlar tarbiyasi, ular samaradorligiga bevosita bog'liqdir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yoshlar siyosatining amalga oshirilishi, mamlakat va jamiyat kelajagi bo'lgan yigit-qizlar mavqeyi,

shubhasiz ularning tarbiyalanganlik darajasi, turli ichki va tashqi tahdidlarga munosib javob bera olishiga bog'liqdir.

Darhaqiqat, bugun jahonda jiddiy globallashuv jarayonlari yuz berayotgan, turli g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan, qator davlatlarning o'z milliy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida barcha vositalardan keng foydalanishga avj berish sharoitida xalqimizda yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, milliy birlikni mustahkamlashdan ham muhimroq vazifa yo'q.

Ushbu o'ta muhim strategik vazifalarni ado etishda milliy qadriyatlar va milliy ma'naviy meros alohida o'rin egallaydi. Ana shularni e'tiborga olgan holda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday yozadi: "Bolalarning ongi va qalbiga Vatanga muhabbat hissini, oilaga, milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlarimizga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tuyg'usini singdirish borasida tizimli ishlarni yo'lga qo'ydik. Ularning badiiy-estetik, musiqiy didi va ta'lim darajasini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda". (Shavkat Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. -Toshkent, "O'zbekiston", 2024. - 143-bet).

Ha, haqiqatdan ham bugungi bo'ronli dunyodan omon qolishning imkoniyatlari yo'qqa o'xshaydi. Biroq, milliy qadriyatlar, milliy madaniy-ma'naviy merosimiz, xalqimizning tinchlik va xotirjamlikni har doim yuksak qadriyat sifatida e'zozlab kelishi barchamizni kelajakka ishonch bilan qarashimiz lozimligidan dalolat beradi.

Shu ma'noda milliy qadriyatlarimiz haqida ayrim fikrlarni bayon etishni lozim topdik. O'zbek milliy davlatchiligining har bir bosqichi xalqimizning o'z milliy qadriyatlarini tiklashi, ularni yangi mazmun bilan boyitib, takomillashtirib borishi tarixidir, desak to'g'ri bo'ladi. Milliy qadriyatlarimizni asliga keltirish va rivojlantirish, xalqimizning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlar, turli bayramlari, marosimlari, boy madaniy-ma'naviy merosini o'rganish alohida o'ringa ega. Shu nuqtai nazardan, sovet mustabid tuzumi sharoitida milliy-ma'naviy qadriyatlarimizning xalqimiz ma'naviy olamida, ijtimoiy tafakkur tarzida tutgan o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish muayyan ilmiy-nazariy ahamiyat

kasb etadi. Avvalo, shu o‘rinda “qadriyat”, “milliy-ma’naviy qadriyat” atamaları xususida ayrim fikrlarni bayon etishni lozim topdik.

Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’rifiy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan falsafiy-sotsiologik va akseologik tushuncha hisoblanadi. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsa, hodisa va voqealar, erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma’rifat, madaniyat, moddiy va ma’naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go‘zallik, axloqiy fazilatlar, an’ana, urf-odat, udumlar qadriyat hisoblanadi. (Falsafa: qomusiy lug‘at. -Toshkent, 2004. -476-bet).

“Qadriyatlar”, “milliy qadriyatlar”, “milliy-ma’naviy qadriyatlar”, “umuminsoniy qadriyatlar” kabi tushunchalar bo‘yicha na jahonda, na O‘zbekistonda birorta umume’tirof etilgan tushuncha yo‘q. Bu esa ushbu tushunchalar, umuman qadriyatlar evolyutsiyasini ilmiy talqin etish bo‘yicha hali ko‘p izlanishlar olib borish lozimligidan dalolat beradi. “Qadriyatlar, – deydi taniqli olim Abdurahim Erkaev, – inson, jamiyat uchun ahamiyatli, ularning turli ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan, hayotini engillashtirishga, yuksaltirishga, ijtimoiy muhitni va munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan narsalar, predmetlar, ijobiy g‘oyalar, me’yorlar, ideallar, tamoyillar, mezonlardir.

Ularni moddiy va ma’naviy qadriyatlarga bo‘lish mumkin. Moddiy qadriyatlarga tabiat, tabiiy boyliklar, mehnat vositalari, zavod va fabrikalar, moddiy mahsulotlar, shahar va qishloqlar va shu kabilar kiradi. Ma’naviy qadriyatlarga dunyoqarash va e’tiqod asoslarini tashkil etuvchi ilmiy-falsafiy, diniy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, badiiy, konkret ilmiy g‘oyalar, bilimlar va qarashlar, ta’limotlar va nazariyalar kiradi. Ular ilmiy, badiiy, diniy asarlarda, osori atiqalarda, me’morchilik, urf-odatlarda mujassamlanadi va aksini topadi. Xalq og‘zaki ijodi va amaliy bezak san’ati ham ma’naviy qadriyatlarning yuzaga chiqishi va mavjudlik shakllaridir”. (Erkaev A. Ma’naviyatshunoslik. – Toshkent, “Ma’naviyat”, 2018. -76-77-betlar).

Ma’lumki, milliy-ma’naviy qadriyatlar tizimida, insoniyat tarixining muhim bosqichlarida ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy-mafkuraviy omillar tufayli

o'zgarishlar bo'lib turadi. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, mafkuraviy mo'tadillik milliy va ma'naviy qadriyatlarning yanada rivojlanishiga, takomillashuviga ta'sir qiladi, uning xalqchilligini oshiradi. Tarixda bunga misollar juda ko'p. Shu bilan birga, har bir millatning milliy-ma'naviy qadriyatlari tarixida inqirozli holatlar, tushkunlik davrlari ham bo'lib turadi. Mazkur jarayonning yuzaga kelishiga turli omillar ta'sir ko'rsatsada, uning asosiy sababi o'sha davrdagi hukmron siyosiy kuch, mafkuraviy muhit ta'siri bilan bog'liqdir.

O'zbek milliy-ma'naviy qadriyatlariga misli ko'rilmagan darajada katta ziyon etkazgan davrlardan biri – bu sovet mustabid tuzumidir. Ayniqsa, 1917 keyingi davr o'zbek xalqi milliy ma'naviy qadriyatlarining inqirzga uchrashi, qadsizlanishi, ayni paytda, “yangi sotsialistik ma'naviy qadriyatlar”ning paydo bo'lishi, shakllanishi bilan ajralib turadi. Bolsheviklar o'zga millatlarni, shuningdek, o'zbek xalqini “ushlab turish”ning eng maqbul yo'li sifatida “sotsialistik qadriyatlar”ga asosiy e'tibor qaratdi.

Ayniqsa, bu davrda o'zbek xalqi milliy-ma'naviy qadriyatlari tizimida alohida o'ringa ega bo'lgan diniy qadriyatlarga qarshi kurash kuchaytirildi. Aslida, diniy qadriyatlar o'zbek xalqi xarakterini shakllantirishda, madaniy olamini yuksaltirishda, milliy urf-odat, marosimlar tizimini mustahkamlashda ustuvor ahamiyat kasb etar edi. Shuning uchun ham sovet mustabid tuzumi o'z zug'umini diniy qadriyatlarga qarshi kurashdan boshladi. “Yangicha turmush” shiori ostida o'tkazilgan qator tadbirlarda evropacha turmush tarzi targ'ib qilinib, o'zbekona urf-odatlar, oilaviy munosabatlar, diniy marosimlar “xurofot” deb e'tirof etildi.

Rasmiy hokimiyat islom dinini mustamlakachilikka, butun o'zbek jamiyatini ruslashtirishga qarshi jiddiy kuch sifatida qabul qildi. Shuning uchun ham 20 asrning 20-yillari o'rtalaridan ruhoniylarga qarshi kurash boshlandi. “Eski” qadriyatlarga qarshi kurashishda sovet davlat turli yo'llardan foydalandi. Bunda ayniqsa, o'zbek xotin-qizlari uchun turli imtiyozlar berish, “sharq ayollarini ozodlikka chiqari” bahonasida islomiy qadriyatlarga qarshi kurashda ularning o'zlaridan foydalandilar. Masalan, 1927 yil 28 sentyabrda ochilgan birinchi Butun o'zbek ishchi va dehqon

xotin-qizlari s'ezdida Abdurahmonova sotsialistik udumlarimiz, yangi qadriyatlarimiz shakllanishiga bizning ichki dushmanlarimiz bo'lgan boylar, eshonlar, mullalar jiddiy qarshilik ko'rsatmoqdalar, deb ma'ruza qildi.

Milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, ayniqsa, diniy qadriyatlarimizga qarshi kurashishda sovet mustabid tuzumi tomonidan o'ylab topilgan "kurashchan xudosizlar" tashkiloti alohida rol o'ynadi. Tashkilotning bosh g'oyasi reatsion diniy fanatizmga, "eski qadriyatlar"ga qarshi kurash bayrog'i ostida amalga oshirildi. 1928 yili O'zbekiston bo'yicha "kurashchan xudosizlar" tashkilotida 3500 xotin-qiz faoliyat ko'rsatdi. 1931 yilga kelib ularning soni 27 mingga etdi. Shuningdek, respublikada islom diniga qarshi kurash ommaviy tus oldi, turli to'garaklar tashkil etila boshlandi. Birgina Toshkent shahrining o'zida dinga qarshi 17 ta to'garak faoliyat olib bordi, shaharning Oktabr tumanida 60 nafar xotin-qiz dinga qarshi kurashish metodikasini o'rgandilar. (Mavrulov A. O'zbekiston madaniyati tarixi. -Toshkent, "Shafolat nur fayz", 2025. -417-bet).

Shuni alohida qayd etish lozimki, milliy-ma'naviy qadriyatlarga qarshi kurash sovet mustabid tuzumining barcha davrlarida tinimsiz ravishda davom etdi va kuchayib boraverdi. Milliy-ma'naviy qadriyatlar, ayniqsa axloqiy qadriyatlarning qadrsizlanish jarayoni o'tgan asrning 70-80-yillarida avj oldi. Jamiyatda, xususan ma'naviy hayotda demokratiyaning cheklanganligi, axloqiy qadriyatlarga nisbatan bepisandlik munosabati asta-sekin odamlarda siyosiy hayotdan begonalashuv jarayonini yuzaga keltirdi. Bunday begonalashuv esa odamlarni ijtimoiy sustlikka olib keldi. Ijtimoiy sustlik har doim ijtimoiy boqimandalik bilan uyg'un holda o'zini ko'rsatadi. Bu davrda avvallari burjua axloqi, deb talqin qilingan "jamiyatga oz berib, undan ko'proq olish" tamoyili avjiga chiqa boshladi.

Axloqiy qadriyatlarning qadrsizlanishiga o'tgan asrning 70-80-yillarida avj olgan o'z xizmat lavozimini suiiste'mol qilish, tanqid uchun tahdid qilish, qo'shib yozish, davlat mulkini talon-taroj qilish, ko'zbo'yamachilik, jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga beparvolik kabi illatlar ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu davrda kishilarning muayyan qismida u yoki bu masalada bir xil gapirish va

boshqacha fikrlashdan iborat ruhiy kechinmalar shakllandi. (Lixachev D. Trevogi sovesti. –“Literaturnoe gazeta”, 1987, 1 yanvar).

Mustaqillik, ayniqsa so‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida milliy qadriyatlarimiz yanada takomillashib bormoqda, avvallari inkor etilgan milliy ma‘naviy merosimiz tiklana boshladi. Jumladan, muayyan ma‘noda kishilarimiz tafakkuridagi hafsalasizlik, ma‘naviy hayotdagi mudroqlik, ijtimoiy jabhadagi ishonchsizlik holatlari bartaraf etila boshlandi. Bugungi vatandoshimizning o‘z kuchiga ishonchining ortishida davlat rahbari tomonidan ilgari surilayotgan ilg‘or g‘oyalar, ilmiy asoslangan xulosalar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mening nazarimda, milliy qadriyatlarimizning yanada tiklanishi, ularning zamon ruhiga mos kelishi, shuningdek, milliy-ma‘naviy merosimizning boyligi, uning jamiyat va shaxs taraqqiyotida muhim o‘rniga egaligi mamlakat rahbari tomonidan belgilab berilayotgan strategik maqsadlarga uyg‘unligi bilan ham ahamiyatlidir. Shu o‘rinda keyingi yillarda hayotimizga tobora chuqur kirib borayotgan, xalqimiz tafakkur tarzida mustahkam o‘rin egallayotgan “Yangi O‘zbekiston”, “Uchinchi Renessans”, “Shaxs-jamiyat-davlat” kabi tamoyillarning o‘rni katta bo‘lmoqda. Ta‘kidlash lozimki, mazkur tamoyillarning ro‘yobi milliy-ma‘naviy merosni jiddiy o‘rganishsiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Mazkur tamoyillarning shakllanishi esa uzoq asrlar davomida yuz bergan bo‘lib, bu hol yurtimizda birinchi va ikkinchi Renessans davrlarida ilm-fan, madaniyat va ma‘naviyat sohalarida erishilgan va qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan bog‘langandir.

Agar biz bugun tom ma‘noda milliy-ma‘naviy merosimizni asramoqchi, uni keyingi avlodlarga bus-butun etkazmoqchi bo‘lsak, shubhasiz, milliy mutafakkirlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan buyuk ilmiy-ma‘naviy merosga suyanishimiz lozim. Xo‘sh, o‘rta asrlarda ham tabiiy, ijtimoiy-gumanitar, falsafiy fanlar, ham diniy va diniy-ma‘rifiy ilmlarni, madaniyat va san‘atni ayni bir paytda shakllantirib, rivojlantirgan mutafakkirlarimiz faoliyatining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat edi, ular tomonidan yaratilgan buyuk kashfiyotlarning butun jahonda keng

e'tirof etilishining sabablarini nimalarda ko'rish mumkin? Bugungi milliy-ma'naviy merosimizning tub ildizlari qachon va kimlar tomonidan shakllantirilgan?

Birinchidan, ilk Uyg'onish davri mutafakkirlari o'z kashfiyotlarini eng avvalo inson, uning baxtu saodati, odamlar kelajagi, jamiyat taraqqiyoti yo'lida amalga oshirdilar. Chunki, insonni ulug'lash, uning aqliy-intellektual, tabiiy, adabiy-badiiy, an'anaviy fazilatlarini yuzaga chiqarish, komil insonni tarbiyalash, unda yuksak vatanparvarlik xislatlarini shakllantirish ilk Renessans davri mutafakkirlari ilmiy-madaniy merosining tub mazmun-mohiyatini tashkil etar edi.

Ikkinchidan, buyuk mutafakkirlarimiz ijodiy faoliyatining muhim jihatlaridan biri – ulardagi qomusiylik, universallik edi. Ilm-fanda, madaniyat va san'atda ular shug'ullangan sohalarni sanab chiqishga qaraganda shug'ullanmagan yo'nalishlarni sanab chiqish osonroq edi. Yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarimizning deyarli barchasi bir paytning o'zida ham ilmiy-ijodiy faoliyatda, ham amaliyotda ishtirok etishdi, qaynoq hayot markazida bo'lishdi, so'zni ish bilan, harakat bilan bog'lab olib borishdi, har doim halq bilan hamnafas bo'lishdi.

Uchinchidan, Birinchi va Ikkinchi Renessans davri allomalarining ilmiy kashfiyotlari ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga ega edi. Yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, ularning asarlarida ilmiy asoslab berilgan ta'limotlar faqat o'sha davr uchungina emas, ayni paytda, keyingi avlodlar, hozirgi zamon va insoniyat istiqboli uchun ham juda muhim va zarurdir. Vatandosh mutafakkirlarimiz ilm-fanning qaysi sohasi bilan shug'ullanishgan bo'lsalar, o'sha sohada buyuk kashfiyotlar qilishdi, fan va madaniyat, ma'rifatda mutlaqo yangi yo'nalishlarni ixtiro qilishdi, yangicha tafakkur uslubini yaratishdi.

To'rtinchidan, o'sha davr allomalarimizning eng ulug' fazilatlaridan yana biri ularning hamma sohalarda etukliklari, etakchiliklari, til bilishda tengsiz ekanliklarida edi. To'rt-besh va hatto undan ham ko'proq tillarda gaplashmagan bitta ham mutafakkir bo'lmagan, degan xulosamizda xato bo'lmasa kerak. Qolaversa, buyuk allomalarimiz hech qachon o'z qobig'larida qolib ketmadilar. Ular ilm izlab, kitob istab dunyoning barcha

ma'naviy-ma'rifiy markazlarini o'zlariga maskan qilganlar. Shuning uchun ham 9-12 asrlarga kelib jahon ilmiy-ma'naviy yuksalish markazi Bog'doddan Movarounnahr va Xurosonga ko'chadi.

Ana shu buyuk milliy-ma'naviy meros bugun, dunyoning tobora globallashib borishi davrida milliy taraqqiyotimizga muhim, mustahkam poydevor bo'lishi zarur. Shuni afsuslar bilan aytish kerakki, bugun davlatlarning parchalanishi va hokimiyatning milliy hukumatdan dunyo hukumatiga bosqichma-bosqich o'tish davri yaqinlashib kelayotganga o'xshaydi. Tadqiqotchi Patrik Jozef Byukenenning ta'kidlashicha, hozirgi vaqtda milliy davlatlarning o'z o'rnini dunyo hukumatiga bo'shatib berishi masalasi Uolter Kronkayt, Stroub Telbott singari siyosiy arboblari, Federalistlarning jahon assotsiatsiyasi, hatto Birlashgan Millatlar Tashkilotida ham ochiq-oshkora muhokama qilinmoqda. Globallashuv jarayonining asosiy subyekt va harakatlantiruvchi kuchlari manfaatlariga xizmat qiladigan bunday sa'y-harakatlardan ko'zlangan maqsad – milliy manfaatlar va azaliy qadriyatlarga tayangan an'anaviy tafakkur tarziga zarba berib, butun dunyoda g'arbana andozalarga asoslangan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda ma'naviy-madaniy jihatdan yagona tamaddunning hukmronligini o'rnatishdir. (Patrik Jozef Byukenen. G'arbning o'limi. - Toshkent, "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2021. -7-bet).

Haqiqatdan ham, bugungi dunyoning shiddat bilan rivojlanishi, qadriyatlarning transformatsiyasi, milliy o'zlikni anglash jarayonining kamayib borishi, bularning bari milliy qadriyatlarni kamsitish, milliy-ma'naviy merosni inkor qilish asosida olib borilmoqda.

Shuningdek, milliy qadriyatlar va milliy-ma'naviy merosga bo'lgan munosabatning sustlashuviga to'rtinchi sanoat inqilobi va uning ayrim salbiy jihatlari ham ta'sir etmoqda. Turli xildagi shaxs va jamoalarni ruhlantiruvchi, oldimizda turgan fundamental o'zgarishlarga javoban ommaviy qarshiliklarning oldini olish juda zarur bo'lgan, to'rtinchi sanoat inqilobining ehtimoliy imkoniyatlari va muammolari haqida izchil, ijobiy va umum tan olingan qarashlar yig'indisining yo'qligi ham bugun o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Darhaqiqat, yuqorida ta’kidlangani kabi, bugun barchani o‘ylantiradigan vazifalar hajmi tobora ko‘payib bormoqda. Shu haqda mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: “Xo‘sh, biz hozirgi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beradimi?”. (Shavkat Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. -Toshkent, “O‘zbekiston”, 2024. -264-bet).

Mazkur savollar bugun har bir O‘zbekistonlikning vijdonini qiynashi kerak, deb o‘ylaymiz. Ana shu savollarga javobni, fikrimizcha, milliy ma’naviy qadriyatlarimizni asrab qola olsak, milliy madaniy merosimizga suyansak, shubhasiz, topa olamiz.

O‘ZBEK AYOLLARINING MILLIY QADRIYAT VA MA’NAVIY MEROSIMIZNI BOYITISHGA QO‘SHGAN HISSALARI

Qo‘chqorov Rahmon O‘rmonovich

TDYuU dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

Men ishlayotgan Toshkent davlat yuridik universiteti o‘quv dasturiga ko‘ra, birinchi kurs talabalariga “Huquqiy ko‘nikmalar va metodologiya” modulidan amaliy mashg‘ulotlar o‘tiladi. O‘rganiladigan masalalar orasida “Huquqshunosning shaxsiy rivojlanish rejasi” mavzusi ham bo‘lib, uning doirasida har bir talaba o‘zining shaxsiy SWOT hamda PEST tahlillarini amalga oshirmog‘i lozim. Jumladan, SWOT shaxsning kuchli va zaif tomonlarini (Strengths and Weaknesses) ochib beradi hamda mavjud imkoniyat va uni kutayotgan xatarlarni (Opportunities and Threats) aniqlaydi [1]. Yaqinda mazkur moduldan tayyorlangan oraliq nazorat ishi taqdimotida talabalar, xususan, shu vazifani ham bajarishdi. Taqdimotlar jarayonida shohidi bo‘lganim bir nadomatli holat meni anchadan buyon qiynab kelayotgan muhim muammoni qayta eslashga majbur qildi.

Taqdimotga chiqqan aksariyat talaba qizlar (ularning ko‘pchiligi nihoyatda tirishqoq, ilmga intiluvchan ekanini ham alohida aytay!) o‘zlarining kuchli jihatlari, real shaxsiy imkoniyatlarini qat’iy ishonch bilan

sanab talqin etganlaridan so‘ng, his qiladiganlari zaif tomonlar hamda yaqin va olisroq kelajakda kutayotgan xavflar masalasiga kelganda birdan ma’yus tortib qoldilar. Zaif jihatlar sifatida “ortiqcha tortinchoqlik”, “sababsiz uyalish”, “kattalarning har qanday gapi va topshiriqlariga “yo‘q” deya olmaslik” singari javoblar aytilgan bo‘lsa, oldinda kutayotgan xavflarning eng birinchilari sifatida “o‘z taqdirini o‘zi hal qilish imkoniyati yo‘qligi”, “erta va o‘zidan so‘ramasdan turmushga berib yuborish”, “uydagilar ixtiyoriga bo‘ysunish majburiyati” holatlari sanaldi. Kelajagidan umidim ulkan talabalarimning birinchisi, ikkinchisi... beshinchisidan ham mazmunan o‘xshash shu xavotirli javoblarni eshitgach, boya aytganim – ancha vaqtdan buyon meni toliqtirayotgan afsusli o‘ylar, alamli savollar qarshimdan chiqdi:

Biz kimmiz o‘zi? Nimalar qilyapmiz? Maqsad-muddaomiz nima, axir? Hech qursa besh yildan keyinni, o‘n yildan keyinni o‘ylaymizmi-yo‘qmi?

Qachongacha o‘zbek dehqoni to‘qqiz oy tuproq titib etishtirgan paxtani, millionlab tonna tosh-metin ichidan misqollab ajratib olingan tillani chetga sotib, evaziga Xitoydan tish kavlagich-u quloq tozalagich, Pokistondan kartoshka va piyoz olib kelib kun ko‘ramiz?..

Olis-yaqin o‘tmishga nazar solsak shohidi bo‘lamizki, aksariyat daholar, ilm va ijodning ulug‘ namoyandalarini tug‘ib tarbiya qilgan onalar zamonasining bilimli, oqila, tafakkuri va orzu-niyatlari yuksak ayollar bo‘lishgan. Biz mansub Sharq dunyosi ham bundan mustasno emas. Haliga qadar muborak ismini bila olmaganimiz Navoiy hazratlarining onasi savodsiz yoxud chalasavod, omi ayol bo‘lishi mumkin emas, menimcha. Boshqa barcha ulug‘larimiz, ularning volidalari xususida ham bunday badgumonlik – borib turgan gunohdir.

Ovrupa deymizmi, Xitoy-u Singapur yoxud Amriqo taraqqiysi zamirida ham xotin-qizlarning beqiyos, o‘rnini boshqa biror narsa to‘ldira olmaydigan ulkan ulushi turibdi.

Uzoqqa bormaylik: Ikkinchi jahon urushida Olmoniyaning to‘qqiz milliondan ortiq yigiti – ayni ishlaydigan, ilm qiladigan, zavod-fabrikani yuritadigan, yo‘l va fermalar quradigan, minglab chaqirim elektr simlarini tortib, millionlab tonna ko‘mir qazishi, vagon va samolyotlar, traktor va

stanoklar ishlab chiqarishi, metro va vokzallar bunyod etishi, qolaversa, vayronaga aylangan mamlakatni qayta tiklashi lozim bo'lgan navqiron avlodi nest-nobud bo'ldi. Ana shunday sharoitda bu mamlakatni kimlar qayta oyoqqa qo'ydi-yu, bugungi taraqqiyotining mustahkam asosini yaratdi?

Javob aniq va bitta: olmonning xotin-qizlari, fidoyi ayollari!

Sal oldinroq ketib bir narsani aytamizki: o'sha xalq vakillari yaratgan, nomini ham suyukli ayoli sha'niga atagan "Mercedes" rusumli zamonaviy avtoullovni yuqorida eslaganimiz – bizdagi g'alati savdolar orqasidan topilgan bebiliska pul hisobidan sotib olib, minib yurgan, o'zicha taqvodor qiyofani yuziga taqib mahmadanalik qiladigan kimsalar nazarida o'zbek xotin-qizlarining o'zni faqat uyda – o'choq va tandir boshida, kir tog'ara va axlat o'ra yoqasida. Aytadigan gapining ham mazmuni keyingi to'rt asrdan buyon o'zgargan emas: "Qiz bola o'qib, hunar o'rganib nima qilib berardi? Undan ko'ra erining, qaynona-qaynotaning xizmatini qilsin!"

O'sha kimsalarning o'zi hayotga kelib koshki bir quti gugurt yasashning ilmini o'rgangan, qo'lidagi ayfon telefoni nimalar hisobiga ishlashini tushunib etgan bo'lsa! Savdo ishlari "nihoyatda toliqtirib" yuborganidan "zagorodga otdixga" ketar ekan, oyog'ining chigalini yozish bahonasida mashinasidan tushib ko'rgani – yo'l yoqasida o'sib yotgan ziroatning nomi bug'doyzormi yoxud sholipoya ekanini farqlay bilmaydigan bu vallomatlar yarim soatdan keyin etib boradigan manzilida o'ziga o'xshaganlarga "lyuboy masalada" bemalol va'z o'qiydi. Aslida, o'zining ismini ham to'g'ri yoza olmaydigan bu singari zamona "pir"lari kimning nima qilishi ma'qulligi xususida masala so'qishining o'zi hozirgi tushib qolgan holimizdan jiddiy darak, desak, noto'g'ri bo'lmas...

Sharq ayollari dedik, aziza opa-singillarimizni esladik.

"Mening erim ham kitob, baxtim ham kitob, hatto jannatim ham kitobdir" deya insoniyatni ilmu urfonga, tafakkur va taraqqiyga da'vat etgan Zebunniso begim chakana oilaning, chakana shavkatli sulolaning vakilasi edimi? Aslida bemehnat, bemashaqqat ham hayotdan lazzatlanib yashash, hamma tayyor narsalarga egalik qilib umr o'tkazish, yarashsa, shu insonga – huri g'ilmonga yarashmasmidi?

Yo‘q, Zebunniso ham bobokaloni Mirzo Boburdek, katta onalari Gulbadanbegimdek bir marotaba kelgani hayotda Allohning, olam va odamning mo‘jizasini chuqur idrok etishni o‘zining insoniy qismati, musulmalik mehnati, deb bildi:

Men ilon og‘zidan shakar talabman,
O‘rgumchak inidan men par talabman,
Erkak sher ko‘ksidan sut talab qilsam,
Oyoqyalanglardan siym-zar talabman. [2]

(Sh. Shomuhamedov tarjimasi.)

Bu talabgorlik zamirida tiriklikning eng teran qa’rlariga kirib borish, inson jism-u joni, aqli va ruhi quvvatlarini uyg‘otish, jamiki yaralmish fitratida jo bo‘lgan ilohiy qudratni bor bo‘yicha idrok etishga bo‘lgan ulug‘vor istak namoyon emasmi? Million yillik hayot oldiga, jami insoniyat qarshisiga shu yanglig‘ – mutlaqo kutilmagan, ayni pallada g‘oyat o‘rinli talablar ila chiqish uncha-muncha erkakning xayoliga kelmagani shoironing aybi yoxud ojizaligimi?

Kamdan-kam ayol o‘ziga taxallus etib tanlashga jur‘at etgan, Uvaysiylikni boshi uzra azot ko‘tarib ijod qilgan boshqa bir shoira yaratgan ijodiy muhit, uning an‘analari dunyoga qanday zakiiy ayollar pleyadasini berdi!

Jahon otin Uvaysiy xitoblari, shoironing qayda dard eli bo‘lsa eng yaqin oshnoligi o‘z davri va keyingi avlod ne-ne xotin-qizlari qalblariga madad, dardlariga malham, orzulariga qanot bo‘lmadi, deysiz:

Ki bulbul nola, afg‘on aylamakni mendin o‘rgandi,
Vujudin sham‘i so‘zon aylamakni mendin o‘rgandi.
Borib sahrog‘a, qon bag‘rimdin izhor ayladim bir kun,
Falak bag‘rin qizil qon aylamakni mendin o‘rgandi... [3]

Ayol ilhomining, ijodiy fantaziyasining bu kuchini, miqyosini, kosmik darajadagi kengligini idrok qilish kishiga qanchalar hayrat baxsh etadi!

Uning beminnat tarbiyasini olgan, ko‘plab masalalarda bamaslahat ish ko‘rgan malika Nodirabegim nafaqat ijodiy jabhada, balki davlat va jamiyat boshqaruvida ham nodir iste’dodini namoyon qila olgani bilan minnatdor avlodlarga o‘lmas o‘rnakdir.

Shoira qalamiga “Maqsad na edi jahona kelding? Kayfiyati(ng)ni bayon etib ket” degan da’vat kelmog‘i uchun uning fitratida, qalbida qanaqa quvvat jo bo‘lmog‘i kerak edi? [4] Axir to odamzod yaralibdiki, uning boshiga tushgan jamiki ko‘rguliklar – qirg‘in-barot urushlar, xunrezliklar, nomiki kirdikorlar juvonmarg odamning shu – eng asosiy savolni o‘ziga berib ko‘rmagani, uning javobi xususida o‘ylamagani tufayli maydonga kelmadimi? O‘zini erkakman, deb yurgan bir nomard qo‘lidan ellik yoshida o‘lim topgan malika qismati, agar vijdonan qaraydigan bo‘lsak, qiyomatda ham millatimiz javob bermog‘i kerak bo‘lgan hodisalar sirasiga kiradi!..

Boshqa bir muhim tarixiy faktni esa g‘urur-la esga olsak, arziydi. Agar e’tibor bilan qarasak, o‘zbek adabiyotida bir necha asrlar muntazam kuzatilgan noyob hodisa – ayol ijodkorlarning erkaklar bilan ham son, ham sifatda tengma-teng badiiy yuksak asarlar yaratish hodisasi dunyoning boshqa mintaqalarida, hatto qo‘shni xalqlar tarixida ham deyarli uchramaydi. XX asr sho‘ro adabiyotida-chi? Qolgan respublikalarda, hatto, rus tilida ijod qilgan shoira-adibalar ham qo‘l bilan sanoqli bo‘lgani holda, o‘zbek milliy adabiyotida yuzlab ijodkor ayollar o‘zlaridan yorqin izlar qoldirdilar.

Xuddi shunday yana bir noyob hodisani biz nafaqat Sharq, balki dunyo adabiyoti, ijtimoiy-siyosiy fikr tarixida ham kamdan-kam topamiz. U ham bo‘lsa, yillar davomida og‘ir xasta – vujudi majruh holda yashagan bo‘lsa-da, nafaqat zamonasi, balki insoniyat o‘tmishidagi murakkab qonuniyatlar ildiziga teran nazar tashlay olgan Anbar Otin shaxsiyati, ijodiyotidir.

Hatto katta va kichik zamondoshlari – Muqimiy, Furqat, Maxmur, Avaz O‘tar, Zavqiy ijodiyotida u qadar yorqin ko‘zga tashlanmaydigan davrning chuqur ijtimoiy-siyosiy tahlili aynan Anbar Otinda shunchalik kuchli namoyon bo‘ladiki, bu fikrlar egasi – to‘rt devor ichida, to‘shakka mixlanib yotgan ayol ekaniga dabdurustdan ishonishi qiyin kishining. O‘zini davolayotgan, tan-jonidagi og‘riqni engillatish payida turgan rus hamshiralariga qarata (mazmuni): “Garchi senlar mening dardimga malham qo‘yayotgan bo‘lsang-da, erlaring – erkaklaring xalqimning qonini zulukdek so‘rmoqda” deya barala ayta olish uchun insonda qanaqa ichki quvvat, shijoat, fidoyilik bo‘lmog‘i kerak edi? [5]

Yoxud Anbar Otinning zamonasi adabiyotida boshqa deyarli hech kimda uchramaydigan, ovrupocha janrda yaratilgan, “Risolai falsafai siyohon – Qoralar falsafasi” deb nomlangan falsafiy traktatini bir qayta o‘qiylik. Ham shakliy tuzilishi, ham mavzuiy-mazmuniy tizimliliigi, ham etib kelgan odil xulosalari bilan mukammal darajaga erishgan bu asar odamizodni to mahshar kuniga qadar qiynab boradigan irqchilik balosining tarixi, tadriji, yovuz natijalarini shu qadar xolis, keng va chuqur tahlildan o‘tkazadiki, ular boyagi – o‘zbek ayoliga o‘choq boshidan boshqa joyni ravo ko‘rmaydigan kimsalarning shang‘i xurragi-la kechayotgan tushlariga aslo kirmagan, kirmayajak ham!

Endi XX asr o‘zbek ilm-fanining, adabiyoti va san’atining, madaniyati va ma’rifatining natijalarini birrov esga olaylik. Sho‘roviy va milliy cheklovlar, kamsitishlar, xo‘rlov va tazyiqlar ostida bo‘lmasin, xalqimiz ro‘shnoligi, ilm-ma’rifati, madaniyati rivoji yo‘lida o‘zni chin ma’noda fido qilgan millionlab xotin-qizlar mehnati, ilmiy-ijodiy faoliyati, kashfiyotlarisiz bu asrdagi hayotimizni tasavvur qilib bo‘ladimi?

Jumladan, dunyo tarixida birinchi bo‘lib mamlakat Oliy sudini boshqargan ayol – Xadicha Sulaymonovanning umr va ilm yo‘li qay bir erkak huquqshunos faoliyatidan nursizroq? Bir zum bo‘lsin qatli om uskunasi bekor qolmasligi payidan bo‘lgan sho‘ro davlatining xavfsizlik idorasidagilar akademik shoir, Yozuvchilar uyushmasi raisi Oybekni o‘z qalamkash do‘stlarining yurish-turishi haqida xufya ma’lumot berib turishga majbur qilmoqchi bo‘lganlarida aynan Xadicha Sulaymonova adib joniga oro kirgan, ulug‘ yozuvchining qalbi va iymoni zamona kirdikorlariga aralashishga yo‘l qo‘ymasligini chuqur his qilgan edi. [6]

Qolaversa, Oybek domlanning turmush o‘rtog‘i – turkistonlik Saidnosirboyning olim qizi Zarifa Saidnosirova tomonidan o‘rta maktablar uchun kimyo fanidan yaratilgan darsliklar o‘rnini, zahmatkash bu ayolning yozuvchi hayotida tutgan beqiyos rolini (“Oybegim mening” kitobini eslaylik!) nima bilan almashtirib bo‘ladi? [7]

O‘zbek sahna san’atining Nurxon, Tursunoy, Ma’suma Qoriyeva, Tamaraxonim, Gavharxonim Rahimova, Sora Eshonto‘rayeva, Zaynab Sadriyeva, To‘ti Yusupova, Rimma Ahmedova, Rixsi Ibrohimova,

Gulchehra Jamilova, Oybarchin Bakirova singari yuzlab ustalari, milliy adabiyotimizning Zulfiya, Saida Zunnunova, Halima Xudoyberdiyeva, Gulchehra Nurillaeva, Oydin Xojiyeva, Farogʻat Kamolova, Qutlibeka Rahimboyeva kabi – har biri alohida estetik hodisa boʻlgan vakilalari va ular anʼanalarining bugungi yuzlab davomchilari yaratgan va yaratayotgan badiiy kashfiyotlarni toʻla hamda ixlos-la idrok etsa, xalq zakosi, dunyoqarash va tafakkuri ne-ne maʼvolarga yuksalmasmidi?!

Taniqli bastakor Anor Nazarovning keyingi oʻn yilliklar milliy musiqa sanʼatiga qoʻshgan hissasini (masalan, “Hech kimga bermaymiz seni, Oʻzbekiston!”, “Yur, muhabbat, ketdik bu erdan” qoʻshiqlari) toʻla eʼtirof etgan holda, hatto Anor aka jilovlay olmagan ohanglarni nozik qoʻllari-la notaga tergan Dilorom Amonullayeva (“Yomgʻir yogʻdi mayda-maydalab...”, “Men seni hech kimga bermayman...” singari dilbar navolari), Oydin Abdullayeva (oʻnlab librettolari!) singari kompozitorlar ijodisiz sanʼat gulshanimiz ancha kemptik koʻrinishini ham tan olmoq kerak...

Soʻnggi hisob-kitoblarga koʻra, bugun mamlakatimiz aholisining deyarli teng yarmini moʻtabar xotin-qizlarimiz tashkil etadi. Shunday ekan, qariyb 19 million nafar, toʻrt muchasi sogʻ, har biri boshqa birortasinikiga oʻxshamagan orzu-umidlar bilan yashayotgan, Alloh taolo tomonidan ibodatdan keyinoq taqdirini qidirmogʻi amr etilgan, beistisno barcha paygʻambarlar, ayniqsa, Muhammad mustafo sollallohu alayhi vasallam tomonidan cheksiz muhabbat-la siylangan qizlarimiz, opa-singillarimiz, onalarimiz taqdiri millatni befarq qoldirishi mumkinmi?

Axir, ilm-fan, taʼlim-tarbiya, tibbiyot, engil sanoat, ziroatchilik, adabiyot va sanʼat, madaniyat va maʼrifat jabhalarining yuzlab sohalarida faqat xotin-qizlar zakosi, uquvi, idroki va farosati, sezimi va echimlari talab qilanadigan masala-muammolar toʻlib-toshib yotibdi!

Yer yuzining barcha qitʼalaridagi rivojlangan, taraqqiyotning yuksak pogʻonalarini zabt etayotgan mamlakatlar muvaffaqiyatida xotin-qizlarning ulushi beqiyosdir. Ular ishtirokida yaratilayotgan texnika va texnologiyalar, ilmiy-amaliy ishlanmalar, kashfiyotlar, millionlab xil mahsulotlar, adabiyot va sanʼatning badiiy mumtoz namunalaridan butun olam ahli bahramand boʻlmoqda, mehnati – mashaqqati engillashib, hayoti farovonlashyapti.

Agar bu ko‘rinib turgan haqiqatga ko‘z yumib, u ma’lum qilayotgan ulkan resurslarga bepisand qaraydigan bo‘lsak, uncha uzoq bo‘lmagan kelajakda bizni kamida Afg‘onistondagidek holat kutadi. Boya eslaganimiz – o‘zi na ilm va na hunar bobida biror ishni qoyillatgan, tirikchiligini uning do‘ppisini bunga kiydirib, buning omonatini unga oshirish yo‘li bilan o‘tkazib o‘rgangan vallomatlarga qo‘yib berilsa, hech bir o‘ylanmay xalqiga, millati va mamlakatiga shunday ko‘rguliklarni ravo ko‘raveradi. Ularga suv qancha loyqalansa, shuncha yaxshi, yurtdagi ahvol qancha chigallashsa, ularning chirog‘i shunchalar ravshanroq yonadi. Tug‘ilganidan buyon yurt dasturxoniga ikkita non qo‘ymagani etmaganidek, bu dasturxonda borini ham har turli yo‘llar bilan o‘marish payida yuradigan bu kishilar uchun Vatan, Xalq, Millat tushunchalari, ularning ertangi taqdiri masalalari har kun topmasa uyqusi o‘chadigan xarom-xarish pulicha ham qimmatga ega emas.

Holbuki, oddiy odamlar – qo‘li qadoq dehqon-u hunarmand, zahmatkash o‘qituvchi va shifokor, olim-u ulamo, kunni tunga ulayotgan yurt qo‘riqchilari mehnati evaziga dunyo xaritasidan o‘chmay turgan bu yurt nimalar hisobiga yashayotgani, kelajak taqdiri ne kechishi ozgina mulohaza qiladigan biror vatandoshimizni befarq qoldirmasligi kerak. Biz dunyo xalqlari, ayniqsa, ilg‘or millatlarga solishtirganda ilmda, fanda, iqtisodda, siyosatda, madaniyat va ma‘rifatda qay darajadamiz? Shu ahvol bizni qoniqtiradimi, qoniqtirishi mumkinmi?

Ko‘plab xalqlar mustaqilligini qo‘lga olgach, qisqa muddatlarda o‘sinh-o‘zgarish, avval hech ko‘rilmagan taraqqiyotga erishishning epini qilgani holda, biz hali hanuz “rivojlanayotgan davlatlar” atalmish ro‘yxatning ham quyi pog‘onalaridan ko‘tarila olmayotganimizning asosiy sabablari nimada? Suhbat asnosida eslaganimiz – ming mashaqqat evaziga topayotganimiz paxtani, g‘allani, pillani va tillani, tabiiy gaz va neftimizni qachongacha aksariyat xom ashyo sifatida dunyoga talatamiz? Axir er osti va usti boyliklari deyarli bo‘lmagan mamlakatlardagi xalqlar biz singari qo‘l uchida bir amallab tirikchilik o‘tkazmay, nimalar evaziga bu qadar to‘q va farovon yashayotgani, insondek umrguzaronlik qilayotgani bizni ham qiziqtirishi kerakmi-yo‘qmi? Nega ular ayollariga atab maydonlarga tosh

haykallar qo‘ymay ham opa-singillarini bu qadar e‘zozlashadi? Norvegiya, Daniya, Shotlandiya singari, ajdodlari vikinglar qavmidan bo‘lgan Skandinaviya mamlakatlarida so‘ramasidan turib ayolga yordam taklif qilish, likillab borib yukini ko‘tarishvorish ularni “ojiza” deya haqoratlash bilan barobar ekanini hech mulohaza qilamizmi?..

Ko‘pchiligimiz guvohi bo‘lganimiz bir hayotiy dalilni esga olaylik: maktab davrida sinfdagi 30-35 nafar o‘quvchi ichida eng a‘lochi, har sohada eng ilg‘orlari aksariyat qizlar bo‘lishadi. Jumladan, algebra fani o‘rta maktablarda endigina joriy etilgan yillari sinfdoshimiz Aziza (mashhur o‘zbek matematigi No‘mon Sotimovning jiyan) o‘qituvchimiz Mamajonov domla echishga qiynalgan qancha masalalarni echib berar, domlaning hurmatini ham chiroyli joyiga qo‘yar edi. Fan olimpiadalarida, san‘atga oid ko‘rgazma va tanlovlarda, sport musobaqalarida, hatto, sho‘ro davrida boshlang‘ich harbiy ta‘lim (NVP) fanidan o‘tkaziladigan konkurslarda ham maktabining, tuman yoxud shahrining, viloyati va respublikaning sha‘nini himoya qiladiganlarning ko‘pchiligi ham qizlar bo‘lganini tan olamizmi-yo‘qmi?

Bugungi maktablar, litsey va kollejlarda, oliy o‘quv yurtlaridagi holat ham deyarli shunday: fanlarni o‘zlashtirish, ilmiy to‘garaklar va konferensiyalardagi ishtirok, jamoat ishlaridagi faollik, madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil qilib o‘tkazish singari aksariyat jabhalardagi fidoyilar ham – qizlar!

Xudoyim mana shuncha insoniy salohiyat bilan yaratgan qizlar – talabalarimning ko‘pchiligi esa maqola avvalida keltirganim javoblari bilan mening, sizning – millatning ko‘nglini, umidlarini xiralashtiradi, bo‘lg‘usi nadomatlardan, hatto, fojialardan sovuq mujda beradi...

Bular-ku, hech qursa, talabalik bosqichiga etib kelishgan, oz bo‘lsa ham o‘zini tanishga, haqqini bilishga ulgurgan. Qolgan qizlar – hali maktabni bitirmayoq erga berib yuborilayotgan, “o‘qiyman” desa orzusi, “ishlayman” desa niyatlari er bilan bitta qilinayotgan singillarimizning yozug‘i ne?

Yigirmaga kirib-kirmay uchta bola tuqqan, go‘daklari kasal bo‘lsa ulardan oldin o‘zi yig‘lashga tushadigan, na biror ilm, na biror hunarni

egallab ulgurganidan faqat erining, undan hayiqib so‘rolmasa, qizlik uyidagilarning qo‘liga qarab o‘tishga umrbod mahkum etilgan bu mushtiparlarning ko‘rgan kunini hur tug‘ilgan odamdek yashash, deb bo‘ladimi?

“Kuzgi rayhondayin ma’yus o‘sgan” (Abdulla Oripov. “Yuzma-yuz” she’ridan) [8] bu azizalarimizning xonlar davrida, chor va sho‘ro zulmi ostida ko‘rgan-kechirganlari etmaganidek, bugun – XXI asrda ham har turli xo‘rlklarga duchor etilayotgani millat erlariga sharaf, xalq sha’niga maqto‘v keltiradimi?

Umuman, ma’ruzamiz davomida necha bor so‘raganimizdek – ularning ulug‘, o‘rnini boshqa hech bir narsa bilan to‘ldirib bo‘lmas hissalarisiz kuchli millat o‘zidan o‘zi shakllanib, olomon bir imo ila xalqqa do‘nib qoladimi?..

Afsuski, ma’ruzamizda javobsiz savollar juda ko‘payib, o‘zimiz-da xijolatli holatga tushib o‘tiribmiz.

Biroq, o‘ylaymizki, millatimiz, xalqimiz, bobo va momolarimizdan meros Vatanimiz taqdiri shu savollarga, hali kech bo‘lmasidan, ochiq va mardona javoblar topishimizga chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mualliflar jamoasi. Huquqiy ko‘nikmalar va metodologiya. Darslik. – T.: TDYuU nashriyoti, 2021. 54-61-betlar.
2. Sharq klassiklari merosidan. Zebunniso, Dilshod va Anbar Otinlar she’riyatidan. – T.: 1981. 8-bet.
3. Uvaysiy. Mazmun ma’dani. She’rlar. – T.: “Akademnashr”, 2010. 166-bet.
4. Nodira–Komila. Devon. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – T.: 2001. 83-bet.
5. Sharq klassiklari merosidan. Zebunniso, Dilshod va Anbar Otinlar she’riyatidan. – T.: 1981.90, 93, 94-95-betlardagi g‘azallar.
6. M.Hakimov, G‘.Ahmedov, A.Saidov. Hadicha Sulaymonova: huquqshunos, olim, davlat arbobi (hayoti, faoliyati, xotiralar). – T.: “O‘zbekiston”, 1993. 67-bet.

7. Zarifa Saidnosirova. Oybegim mening. Xotiralar. "Sharq" nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati. – T.: 1994.

8. Abdulla Oripov. Yillar armoni. She'r va dostonlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. 75-83-betlar.

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING ASOSLARI

Suvanov Ilhom Abdixalilovich,

falsafa fanlari doktori(DSc)

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi

huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

O'zbek xalqi mentalitetidagi bag'rikenglik, o'ziga xosligi va o'zligini saqlab qolishga intilish, ajdodlar dini va e'tiqodiga sodiqlik, boshqa millatlar, xalqlar bilan inoq bo'lib, integratsiyada yashash, baymalmilallik tuyg'ulari, innovatsiyaga moyillik asosida yuqoridagi etnogenetik jarayonlarga borib taqaladi, desak to'g'ri bo'ladi.

Xalqlar va milliy madaniyat birligini saqlashga ajdodlar merosini boyitib, umumpsixologik vaziyatni mustahkamlashga temuriylar sulolasi katta hissa qo'shgan. Ma'lumki, Amir Temur mo'g'il bosqinchilarini tormor qilib, savdogarchilik, hunarmandchilik, me'morchilik, diniy va dunyoviy ilm-fan taraqqiy etgan kuchli davlat barpo etish bilan diniy-madaniy merosni rivojlantirdi. Turg'unlik davrida temuriylar haqida salbiy fikrlar hukm surgan bir paytda Javoharlal Neru, Zahiriddin Boburni hurmat bilan tilga olib, uning faoliyatini yuqori baholagan edi. Ushbu sarkardalarning savobli ishlaridan biri millatni e'zozlash, milliy va diniy merosni qadrlab, ma'naviy boyitish va ko'z qorachig'idek asrash bo'ldi. Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda siyosiy va etnik holat barqarorlashdi. Bu haqda akademik A.Asqarov to'g'ri qayd etganidek, "barqaror jamiyatda ilm-fan va ma'naviy hayot rivojlanadi. Samarqand va Hirotida aniq va gumanitar fanlar yo'nalishida ilmiy maktablar tashkil etilib, olamga mashhur olimu fuzalolar etishib chiqdi.

Bugungi kunda o'zbek millati deb atalgan xalqning milliy mushtaraklik, o'zlikni anglash, o'zbekka xos milliy mentalitet asoslari qurildi"¹.

O'tmish merosimiz, ajdodlarimiz diniy qadriyatlari, milliy madaniyatimiz, xalqimiz tarixi adolatli yoritilayotgan hozirgi kunda ajdodlarimiz, buyuk daholar, donishmandlar, aziz-avliyolar erishgan yutuqlar, ular qoldirgan ma'naviy boyliklarni, diniy merosni, me'morchilik yodgorliklarini, ma'naviy qadriyatlarini xalqimiz orasida keng yoyish bugungi kunning muhim talabi bo'lib qolmoqda.

Millatning psixologik xususiyati o'z ichiga: milliy xarakter, milliy g'urur, milliy o'z-o'zini anglash, milliy hissiyotni ifodalaydi. Bu hissiyot, milliy hamda diniy urf-odatlar, an'analar, ehtiyoj va qiziqishlar, o'tmish merosimizni ham qamrab oladi. Barcha davrlarda xalqimizning milliy ma'naviyati ajdodlarimizning dini va diniy merosi bilan uyg'un holda rivojlanib kelgan. Din va diniy meros hamisha uning tarkibiy qismini tashkil etgan. Ularning o'zaro uyg'unligi millatning botiniy salohiyatining rivojlanishiga ta'sir o'tkazgan. Professor S.Otamuratov yozganidek, "...milliy o'zlikni anglashning rivojlanishi diniy qadriyatlar bilan uyg'un holda kechadi. Ular o'rtasidagi uyg'unlik muvozanati buzilsa, birining ikkinchisidan ustuvorligi yuzaga kelib, milliy yoki diniy biryoqlamalikka olib kelishi mumkin"². Olimning yuqoridagi fikrlariga qo'shilgan holda ta'kidlash zarurki, bugungi globallashuv jarayonlarida xalqlarning ma'naviy hayotiga dinning ta'siri tobora kuchayib borayotganligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Shuning uchun milliy o'zlikni anglashning rivojlanishi jarayonini chuqurroq o'rganish, milliy va diniy merosni uyg'unlashtiruvchi, ularning o'zaro muvozanatini ta'minlovchi omillarni keng targ'ib qilishning samarali amaliy yo'llarini topish bugungi kunning muhim vazifasidir. Millatning ruhiy psixologik xususiyati o'z ichiga urf-odat va an'analarni ham qamrab olishini e'tiborga olish zarur. N.Nazarovning fikrlarini qo'llab-quvvatlab professor U.Qoraboyev "an'anaviy xalq madaniyati (etnokultura) faqatgina oddiy insonlarning ma'naviy faoliyatini

¹ Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. — Тошкент: Ўзбекистон, 2015. - Б.540. (480-б.)

² Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. 2-нашр. — Тошкент: Ўзбекистон, 2015. -456 б. (364-б.)

aks ettiribgina qolmasdan, balki mutaxassislar, madaniyatning atoqli xodimlari, daholarning xalq ommasi ijtimoiy-madaniy merosiga hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga tayangan ijodini ham qamrab oladi"³, — deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, madaniyat millatning, xalqning umrboqiyiligini ta'minlash vositasi bo'lganligi uchun ham qadrlidir. Bizning fikrimizcha, xalq, millat madaniyatda nafaqat o'zining ehtiyojlarini qondirish manbaini, shuningdek, kelgusi avlodlar bilan aloqalarini, ushbu aloqalarining uzviyligini, davom etishini ko'radi.

Ushbu merosga, vorisiylikka borib taqaladigan urf-odat va an'analarsiz milliy o'zlikni anglash o'z mohiyatini yo'qotadi. Shu sababli ham milliy o'zlikni anglashning rivojlanishida ajdodlarimizning diniy merosi, urf-odat va an'alaridan zamon ruhiga mos holda foydalanish va ularni kelgusi avlodlarga etkazish uchun amaliy ishlarni kuchaytirish bugungi kun talabidir.

Keltirilganlardan ko'rinadiki, urf-odat va an'analar xalqning, millatning, madaniyatning, milliy psixologik xususiyatlarini milliy o'zligini anglashning muhim belgilari sifatida qadrlidir.

Olimlarning milliy ruhiyat bu tarix va ijtimoiy muhitning mahsuli bo'lib, o'tmish avlodlarning tajribalari bilan shakllanadi, degan fikriga qo'shilamiz. Milliy psixologiyaning o'ziga xos xususiyati va tomonlarini belgilab beradigan tarixiy va ijtimoiy muhitga quyidagilar kiradi deb hisoblaymiz: xo'jalik yuritish tajribasi; jamiyatdagi hukmron ijtimoiy-sinfii mafkura; tabiiy muhit va iqlim; ijtimoiy hayot shakliga ta'sir qiluvchi demografik omil; boshqa xalqlar bilan bo'ladigan muloqotdagi o'ziga xos belgilari; urf-odat va an'analardagi maxsus tomonlari; diniy e'tiqodlarning namoyon bo'lishining shakllari va boshqalar.

Milliy psixologiyaning o'ziga xos xususiyatlari belgilari ichida ajdodlarimizning diniy e'tiqodlari va meroslari barcha davrlarda xalqimiz ma'naviy hayotida muhim o'rin egallab, xalqimiz, millatimiz o'ziga xosligini saqlash va milliy o'zligini anglashida muhim omil bo'lgan va bugungi kunda ham o'zining ijodiy, ma'naviy-mafkuraviy, tarbiyaviy funksiyasini bajarmoqda, deb o'ylaymiz.

³ Карабаев У. Этнокультура (Традиционная народная культура). —Тошкент: Шарк, 2005.—с. 23

Xulosa qilib aytganda, din, etnos, milliy psixologiya, etnik o'zlikni anglash, milliy o'zlikni anglash to'g'risidagi ilmiy-nazariy yondashuvlar va konsepsiyalar diniy meros va milliy o'zlikni anglashning o'zaro aloqadorligini o'rganish imkoniyatini beradi.

Etnosning barcha ijtimoiy hodisalariga munosabati (din, millat, milliy psixologiya va boshqalar) dialektik birlikda kechgandagina o'zaro ta'sir kuchini ko'rsatadi. Bu holat har qanday tarixiy jarayonni tadqiq qilishda tarixiylik uslubini qo'llashni taqozo etadi. Shundagina etnos, milliy psixologiya, etnik o'zlikni anglash, milliy o'zlikni anglash tushunchalari va aloqadorligi haqida to'g'ri xulosa chiqarish, har qanday jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

Milliy o'zlikni anglash etnogenez bilan chambarchas bog'liqdir. Ya'ni, etnogenezni bilmasdan turib, milliy o'zlikni anglashning xususiyatlarini idrok etib bo'lmaydi. Chunki, ko'pgina ilmiy konseptual qarashlarda milliylik, o'zlikni anglash to'g'risidagi tushunchalar ma'lum bir xalq, millat yoki elatning kelib chiqish tarixi, urf-odati va madaniyatining yorqin aks etishi bilan belgilanadi.

O'tmish merosimiz, ajdodlarimiz diniy qadriyatlari, milliy madaniyatimiz, xalqimiz tarixi adolatli yoritilayotgan hozirgi kunda ajdodlarimiz, buyuk daholar, donishmandlar, aziz-avliyolar erishgan yutuqlar, ular qoldirgan ma'naviy boyliklarni, diniy merosni, me'morchilik yodgorliklarini, ma'naviy qadriyatlarini xalqimiz orasida keng yoyish bugungi kunning muhim talabi bo'lib qolmoqda. Buyuk davlat arboblari, mashhur allomalar, shoir va yozuvchilar nomlarining tiklanishi respublikamiz mustaqilligining mevasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. — B.540. (480-b.)
2. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. 2-nashr. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. -456 b. (364-b.)
3. Карабаев У. Этнокультура (Традиционная народная культура). – Тошкент: Шарк, 2005. – С. 23

MILLIY – UMUMBASHARIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI – VATANIMIZ TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORINING KAFOLATI

Xolikov Ishkabil,

tarix fanlari doktori, professor,

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma‘no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglash, o‘z atrofida sodir bo‘layotgan voqealar haqida haqqoniy ma‘lumotlarga, eng muhimi, o‘z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo‘lishiga erishish ta‘lim-tarbiya va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezonini bo‘lishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning 2005-yil 28-yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir” degan mavzudagi ma‘ruzasida yurtimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonlarining eng asosiy va ustuvor jihatlarini yana bir bor ta‘kidlab o‘tdi. “Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo‘lidan og‘ishmay, izchil va qat‘iyat bilan borishdir”[1], deb ta‘kidladi.

O‘zbekiston rahbariyati mamlakatimiz aholisining ko‘pmillatlilikini hisobga olib, mustaqillikning ilk yillaridan boshlab millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratmoqda. Davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bayon etilgan bo‘lib, ular avvalo, butun dunyoda e‘tirof etilgan umumbashariy qadriyatlarga, tamoyillarga asoslangan.

Dunyoda e‘tirof etilgan umumbashariy qadriyat va tamoyillar quyidagilardan iborat:

- inson huquqlarining ustuvorligi;

- insonning o‘z xohish-irodasi erkin bildirishi;
- barcha fuqarolarning teng huquqliligi, ya’ni qonun oldida teng ekani;
- davlatning asosiy vakillik organlariga saylanish, ya’ni hokimiyat organlarining erkin va adolatli saylovlar asosida saylanishi;
- ochiq va hisob beruvchi hukumat.

Davlat hokimiyati organlarining bo‘linish prinsipi:

- qonun chiqaruvchi, ijroiya, sud hokimiyatlarining va ommaviy axborot vositalari (“to‘rtinchi hokimiyat”)ning mustaqilligi;
- so‘z, matbuot, vijdon erkinligining Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanishi;
- davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi;
- fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarining mavjudligi hamda tengligi;
- tayinlash yo‘li bilan shakllangan davlat organlarining saylab quyiladigan organlar oldida hisob berib turishi;
- jamiyatda ko‘ppartiyaviylik tizimining mavjudligi;
- davlat va jamiyat hayotiga daxldor bo‘lgan umumiy masalalarning hal etilishida referendumlarning o‘tkazilishi;
- mulk shakllarining xilma-xilligi va ularning tengligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi;
- siyosiy muxolifatning ochiq faoliyat ko‘rsatishi;
- jamiyatda plyuralizm, ya’ni fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi hamda ularning amaliy hayotga joriy etilishining ta’minlanishi va h.k.

Ushbu umumbashariy qadriyat va tamoyillar O‘zbekistonning Konstitutsiyasi, asosiy qonunlari va huquqiy-me’yoriy hujjatlarida o‘z ifodasini topgan hamda ular shaxs, jamiyat va davlat faoliyatiga, amaliyotga joriy etilmoqda.

Milliy ma’naviy qadriyatlar – muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo‘lgan, uning ezgu manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma’naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g‘oyalar va me’yorlar milliy ma’naviy qadriyatlardir.

Ma'naviy qadriyatlarning tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

milliy qadriyatlar – badiiy-estetik qadriyatlar;

umuminsoniy qadriyatlar – demokratik qadriyatlar;

axloqiy qadriyatlar – diniy qadriyatlar;

ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar – urf-odat va madaniyatlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarning quyidagi tamoyillari ta'minlandi:

- xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruhiyatining ustuvorligi;
- xalq ongida ustuvor bo'lgan fikr: do'st va yaxshi qo'shni bo'lib, tinchlik va totuvlikda, yaqin hamkorlikda yashash;
- oila, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hukumat – e'tiborning butun jamiyatni hurmat qilish bilan uyg'unligi;
- millatning o'lmas ruhi, millat ma'naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat uni sevish bilan uyg'unlashib ketgan;
- kattaga hurmat, kichikka izzat;
- ayol zotiga ehtirom, ya'ni muhabbat, go'zallik va nafosat timsoli, abadiy hayot ramzi bo'lgan ayolni qadrlash;
- sabr-toqat va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr-oqibat;
- azaliy qadriyatlar, urf-odatlar, milliy-ma'naviy merosni qayta tiklash, rivojlantirish.

Umumbashariy qadriyatlar sifatida inson, Vatan, intellektual mulk, demokratik saylovlarni ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida, ta'kidlaganidek, "xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalikda hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda". Masalan, har yili Navro'z va Mustaqillik bayramlari arafasida o'tkaziladigan umumxalq hasharlari buning tasdig'idir.

Mamlakatimizda millatlararo totuvlik g'oyasi milliy istiqlool g'oyasi va mafkurasining asosiy ustunlaridan biri bo'lib, u umumbashariy qadriyat sanaladi. U turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilab beradigan muhim omilga aylanmoqda, tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Milliy o'zlikni anglashni tiklash mustaqillik bilan uzviy aloqadorlikda bo'lgan jarayondir. Milliy o'zlikni anglashning tiklanishi esa, o'z navbatida, mustaqil jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy zaminlarining mustahkamlanishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham milliy o'zlikni tiklash masalasi O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan keyin mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz", – degan edi I.A.Karimov[2]

Tarix saboqlari milliy o'zligini, milliy manfaatlarini, taraqqiyoti istiqbollari chuqur, xolisona, odilona anglagan xalq va millatgina keng rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lishi mumkinligini har doim isbotlab kelgan.

Milliy o'zlikni anglashni tiklash va milliy o'z-o'zini anglash o'zaro mantiqiy aloqadorlikdadir.

Milliy o'zlikni anglashni tiklash milliy uyg'onishning, jamiyat taraqqiyotining muhim sharti, jamiyat hayotida ro'y beradigan madaniy-ma'naviy o'zgarishlarning asoslaridan biridir.

Milliy o'zlikni anglash mazmun-mohiyatiga ko'ra keng va chuqur ma'noli, ko'p qirralidir. Uning mohiyati millatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy maqsad va manfaatlarini, o'tmish tarixi, tarixiy merosi, milliy tili, urf-odatlarini, qadriyatlari, odob-axloqini bilish

bilangina bog‘liq bo‘lmay, muayyan tarixiy sharoitlar bilan ham belgilanadi.

Milliy o‘z-o‘zini anglash – bu, eng avvalo, milliy manfaatlar nimalardan iboratligini tushunib etish, chuqur idrok etishdir. Milliy manfaatlar – millat tarixini to‘g‘ri tushunish, uning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini, ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy manfaatlarini hozir va kelajakda himoya qilish yo‘llarini bilish va ana shu maqsadlar asosida birlashishdir.

Milliy manfaatlarni anglash millatning o‘z-o‘zini anglashiga, millatning birlashishiga olib keladi.

O‘z-o‘zini anglash – bu xalqning, millatning o‘z tarixiy o‘tmishini, nasl-nasabi, bobo va bobokalonlarining kimligini bilib, chuqur anglab olishdir. Yurt-boshimiz ta‘biri bilan aytganda, “Har qaysi inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo‘lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanishi, shakllanish jarayoni qanday kechgan, degan savollarni o‘ziga berishi tabiiy... Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, bir kun, mana shunday savollarga duch keladi va, aminmanki, to‘g‘ri xulosalar chiqaradi. Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson, takror aytaman, irodali inson”[3]

Avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini bilish – milliy o‘zlikni anglashning muhim omilidir. Har bir odamzod millatidan qat‘i nazar, eng avvalo, nasl-nasabi bilan faxrlanishi, ota-bobolarining muborak nomlariga dog‘ tushirmaslikka, o‘z mehnati, bilimlari bilan buyuk ajdodlarining obro‘cini ko‘tarishga harakat qilmog‘i lozim.

Milliy o‘zligimizni anglash o‘zbek xalqi jahondagi eng qadimiy xalqlardan bo‘lib, uning tarixi bir necha ming yilliklardan iboratligini bilib olish demakdir. O‘zbeklar tarixida kuni kecha paydo bo‘lgan xalq emas.

O‘zini o‘zbek va o‘zbekistonlikman, deb hisoblaydigan har bir inson va fuqaro qadimgi Turoni Turkiston azal-azaldan jahonshumul ilmiy kashfiyotlar, betakror me‘morlik, san‘at va madaniyat namunalari, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, tijorat, ishbilarmonlik an‘analari yuzaga kelgan va taraqqiy etgan maskan ekanligidan behad quvonadi. Allohning nazari tushgan ana shu tabarruk zamindan ne-ne

allomalar, olim-u fuzalolar, buyuklar ichra buyuk hisoblanmish ulamolar, nomlari kurrayi zamin uzra ma'lum-u mashhur bo'lgan sohibqironlar, siyosatchilar, sarkardalar, donishmand shox-u sultonlar saf-saf bo'lib etishib chiqqan[6].

“Milliy o‘z-o‘zini anglash, zikr etib o‘tilganlardan tashqari yana jamiyati va Vatanining porloq istiqbolini ta’minlash uchun o‘zida kuch va imkoniyatlar mavjud ekanligini, uning o‘zi qanday vazifalarni amalga oshirishi, nima ish qilishi lozim va zarurligini ongli ravishda tushunib etishdan ham iboratdir. Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat er osti va usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda, o‘zining yuksak ma’naviyati va madaniyati bilan kuchlidir”[5].

“Qadriyat” tushunchasining mazmuni va namoyon bo‘lish shakllari to‘g‘risida fikr yuritishdan oldin uning mohiyatini anglab olmoq lozim. Xo‘sh, qadriyat nima? Biz nimaga asoslanib, biror kishi, narsa voqea, hodisa, munosabat, faoliyat va boshqalarni qadrlaymiz? Bu savollarning birinchisi qadriyatni ta’riflash, uning mohiyatini ochib berish, ikkinchisi esa uning mazmuni va tuzilishini tahlil qilishni anglatadi[7].

Qadriyatlarning eng muhimlaridan biri bu milliy qadriyatlardir.

Milliy qadriyatlar – bu muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar, yashayotgan hudud, madaniy-ma’naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, yashash tarzi, milliy umrguzaronlikning tartib-qoidalari hamda ular bilan bog‘liq xususiyatlar, jihatlar ijtimoiy ahamiyatini ifodalaydigan tushuncha. U umum-ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi xususiy bo‘g‘in, ya’ni millatga xos bo‘lgan qadriyatlarning eng umumiy jihatlarini aks ettiradi.

Mazkur tushunchada ma’naviy qiyofa, tafakkur va turmush tarzi, mentalitet, urf-odatlar, an’analar, Vatan va xalqqa, o‘zgalarga nisbatan munosabat, tinchlik va totuvlik, barqarorlik va bunyodkorlikka intilish va hokazolarning qadr-qimmati yaqqol namoyon bo‘ladi. bunda inson tarbiyasi va kamolotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, jamiyat va shaxs ma’naviyatini yuksaltiruvchi, tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadigan qadriyat shakllari tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. -Toshkent, 2021.
- Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O‘zbekiston, 2005. -34-b.
- 2 I.A. Karimov. O‘zbekiston XXI bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.– Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 137-bet.
- 3 I.A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998.
- 4 Rahmonov R., G‘ofurov Z. Mustaqillik va milliy o‘zlikni anglashning tiklanishi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – 13-15-betlar.
- 5 Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1999. -10-bet.
- 6 Qiyomiddin Nazarov. Aksiologiya (qadriyatlar falsafasi). Tajribaviy qo‘llanma. – Toshkent: “Akademiya”, 2011. – 51, 62-b.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA MILLIY MA’NAVIY MEROSNING FALSAFIY AHAMIYATI

Abdullayev Temur Bobir o‘g‘li,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Jamiyat taraqqiyoti inson tafakkurining yo‘nalishi, qadriyatlar tizimi va ma’naviy asoslariga tayanadi. Har bir millatning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, axloqiy qarashlari hamda dunyoni anglash shakllari milliy ma’naviyatni shakllantiruvchi muhim omillardandir. Shu ma’noda, milliy ma’naviyat – bu xalqning o‘zligini anglash, o‘z tarixiga, tiliga va ruhiy olamiga sadoqat orqali namoyon bo‘ladigan ma’naviy butunlikdir. Yuksak ma’naviyat jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki inson ongi va tafakkurini yuksak maqsadlarga yo‘naltiradi. Chunki inson tafakkuri – milliy ma’naviy merosni idrok etish, uni anglash va zamon talablari asosida yangilashning muhim vositasidir.

Tafakkur va ma'naviyat o'rtasidagi bu ichki dialektika jamiyat taraqqiyotining falsafiy mazmunini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, milliy ma'naviyatning tarkibiy asosini tashkil etuvchi milliy meros jamiyat taraqqiyotining uzviy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Zero har bir millatning o'ziga xos rivojlanish yo'li, tarixiy xotirasi va ma'naviy tajribasi uning milliy merosida mujassam bo'ladi. Ushbu fikrni quyidagi mulohaza yanada yaqqol ifodalaydi: "Tarixiy taraqqiyotning o'tmishga aylangan bosqichida milliy meros – muayyan millatning ajdodlari aql-zakovati, qobiliyati, va mehnati bilan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar majmui hisoblanadi. Har bir millatning milliy-ma'naviy merosi o'sha millat tomonidan yaratilgan moddiy-ma'naviy va boshqa barcha turdagi merosni qamrab oladi". [1:207] Demak, milliy meros o'tmish tajribasining oddiy in'ikosi emas, balki xalq tafakkuri, ongi va qadriyatlar tizimi orqali uzluksiz yangilanib boruvchi ma'naviy manbadir. U jamiyat hayotida davomiylik va o'zlikni saqlash tamoyillarini mustahkamlab, hozirgi taraqqiyot yo'nalishlariga ma'naviy asos yaratadi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy ma'naviy merosdan oqilona foydalanish masalasi alohida falsafiy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki milliy o'zlikni anglash va uni yangilangan tafakkur bilan uyg'unlashtirish orqali inson o'z jamiyatining ma'naviy kelajagini belgilaydi. Shu bois milliy ma'naviyat va tafakkur uyg'unligi – jamiyat yuksalishining g'oyaviy va ma'naviy poydevoridir.

Milliy ma'naviyat xalqning davr talablariga mos o'zgargan zamon talablarini o'zida aks ettirgan tafakkur va ongning samarasi hisoblanadi. Milliy tafakkur darajasi xalqning og'zaki ijodida xalqni ongi, qarashlarida tarixiy yozma manbalari, adabiyot namunalarida ifodalanadi va davr o'tgani sayin o'zining qadrini ko'rsatib boradi.

"Ma'naviyat – jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir, chunki ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda millat taraqqiy etadi".[2:4] Ma'naviy meros ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan ma'naviy boyliklar – falsafiy, siyosiy va diniy qarashlar majmuidir. Ma'naviy boyliklar jamiyat

taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi. Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, mavjud ma'naviy merosga tayanadi, ammo uni qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilaverish yaramaydi.

Inson ongi va tafakkuri o'zgargani dunyoqarashi kengaygani sayin, ongi va tafakkurini muhitga bog'liqlik darajasi kamayib boradi. Bunda, an'ana – inson tizimidan inson an'analari tizimiga o'tish boshlanishini aytish lozim. Inson ongi va tafakkuri o'zgarishi bugungi bozor munosabatlarini ma'nosini anglab etish, insonlarda bugunimizda bizga to'g'ri kelmaydigan an'analarni ma'nan eskirganini, ularni insonga foydali jihatlarini nazarda tutilgan holda ularga yondashuvlarni o'zgartirishimiz lozim. Aslida har bir qadriyat, urf-odat va an'analarni shu xalqning idroki natijasi ekanligini inobatga olsak bu ish mantiqan to'g'ri ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Qadriyatlarni ta'riflashda uni madaniyat bilan aynanlashtirish yoki "xalqning ma'naviy madaniyatini shakllantirish manbai sifatida qadrlanib kelingan ma'naviy-ruhiy xatti-harakatlar, narsa va hodisalar majmui" sifatida ta'riflash qadriyatlar to'g'risida aniq tasavvur hosil qilishga imkon bermaydi. [3:66] Rus tadqiqotchi olimi N.S.Rozov "qadriyat" tushunchasiga xuddi "haqiqat", "aql", "inson", "madaniyat" tushunchalari kabi uzil-kesil va to'la ta'rif berib bo'lmasligini to'g'ri ta'kidlaydi va falsafiy jihatdan qadriyatlarni "inson ongi va xulqining oxirgi normativ asoslari" sifatida tushunishni taklif etadi. [4:113]

Qadriyatshunos olimi O.Musulmonovning fikriga ko'ra, ba'zi olimlar qadriyatlarni vujudga kelishini insonlarning ishlab chiqarish va mehnat faoliyati bilan bog'laydilar. [5:67] "Qadriyatlar – borliq, jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish" [6:510] uchun ishlatiladigan tushuncha ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, uning ahamiyatini anglab olish uchun insonda shunga monand ong va tafakkur bo'lishi kerak bo'ladi. Bunda, qadriyatlarning bir shakli bo'lgan milliy qadriyatning o'рни kattadir.

Bizning fikrimizcha, milliy qadriyat deyilganda muayyan xalq yoki millatning tarixiy taraqqiyoti davomida yaratgan moddiy va ma'naviy

boyliklar majmui tushuniladi. Keng ma'noda olganda, inson hayot tarzi hamda ong va tafakkuridagi o'zgarishlarda qadriyatlar hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki boshqa qadriyat shakllari bilan bir qatorda milliy-ma'naviy qadriyatlar ham xalq va insoniyatning ma'naviy kamoloti, ijtimoiy taraqqiyot darajasi mezoni sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi, uning faoliyat jarayonidagi takomillashuvi ham aynan qadriyatlar ta'sirida amalga oshadi. Bugungi islohotlar jarayonida shaxs va jamiyat o'z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichini – bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va takomillashtirish davrini boshdan kechirmoqda. Bu davr insonning ma'naviy hayotida qadriyatlarning o'rnini yanada ravshanroq namoyon etmoqda.

Bozor iqtisodiyoti nafaqat iqtisodiy munosabatlarni, balki ularga asoslangan barcha ijtimoiy munosabatlar tizimini, xususan, inson ongi va tafakkurining o'zgarish jarayonini ham qamrab oladi. Shu bois iqtisodiy islohotlarning falsafiy mazmuni – inson tafakkuridagi qadriyatlar tizimini yangilash, milliy ma'naviyatni zamonaviy ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyot va turmush farovonligi – Renessans davri poydevorining moddiy asosini tashkil etgan omillardir. Mutaxassislar, ijodkorlar, yuksak malakali kadrlar hamda o'rta mulkdorlar sinfi esa ushbu jarayonning ijtimoiy asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, ilm-fan, adabiyot, san'at, madaniyat va umuman qadriyatlar tizimi mazkur jarayonning ma'naviy poydevorini hamda ijtimoiy mazmunini belgilovchi muhim omillardandir.

Jamiyat taraqqiyoti, bunyodkorlik jarayoni va erkinlik muhitining shakllanishi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik mavjud bo'lganda yuzaga kelishi mumkin. Barqaror jamiyatda davlatning adolatli siyosati, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi, mulkning barcha shakllarining teng huquqliligi hamda ularning huquqiy jihatdan muhofaza qilinishi ta'minlanadi. Shu bilan birga, qonun ustuvorligi, demokratiya tamoyillarining amalda qaror topishi va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi – Uchinchi Renessans davrining falsafiy, siyosiy va ijtimoiy poydevorini tashkil etadi.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratishining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-demokratik, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy asoslari mavjud. Bu asoslarning har biri bo'yicha puxta o'ylangan tizimli, ilmiy asoslangan ishlar olib borilmog'i lozim. [7:19] Kishilarning butun hayot tarzi o'zgarib borayotgan bir davrda milliy ma'naviy meros shaxsning jamiyat manfaatlari va o'z millatining rivoji uchun bozor iqtisodiyoti qoidalarini hayotida to'g'ri tatbiq etish masalasini olib kirmoqda.

Milliy o'zlikni anglash yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. Chunki milliy o'zlikni anglash jarayoni nafaqat tarixiy xotirani tiklash, balki jamiyatning hozirgi va kelajak taraqqiyotini belgilovchi ma'naviy-axloqiy mezon sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon jamiyat ehtiyojlarining insonning ichki ma'naviy ehtiyojlari bilan uyg'unlashuvini, insonning o'z tarixiy ildizlariga, urf-odatlariga va madaniy qadriyatlariga ongli munosabat bildirishini taqozo etadi.

Yangi O'zbekiston strategiyasida xalqimizni, uning uzoq yillik tarixiy yo'lini, mashaqqatli o'tmishini va matonatini hisobga olib, biz uchun o'rnak bo'la oladigan xalqimiz, uning samimiy insonlari ekanligi ta'kidlanadi. Albatta bu tajriba uzoq o'tmishda ham amal qilgan bo'lib, yangi yo'lni tanlash uchun xalq tajribasiga tayanish, uni ustoz sifatida tan olish muhim hisoblangan. Buning natijasi o'laroq odamlar o'zligiga aylangan jamiyat me'yorlarini his etgan holda har bir xatti-harakatiga bo'lgan mas'uliyatini his etishi, o'zi qilayotgan ishi, ilgari surgan ya'ni oldiga qo'yilgan maqsadning to'g'ri yoki noto'g'riligi, haq yoki nohaqligini nazorat qila bilishdir.

Milliy ma'naviy meros haqida gapirganda yana bir jihat haqida to'xtalishimiz lozim. Ulug' ajdodlarimiz yaratgan boy rang-barang ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy, madaniy merosning tiklanib, xalqimiz hayotiga kirib borishi insonlarning tarixiy xotirasini mustahkamlab, uning ongi va tafakkurida burilish yasay oladi. Ayniqsa, jahon ilm-fani tarixida muhim o'rin egallovchi ilmiy-falsafiy meros moddiy ma'naviyatimizning nodir namunalari o'ziga xos bo'lgan o'zgarishlar qilishda muhim ahamiyatga

ega. Ma'naviy qadriyatlar ajdodlarimiz to'plagan tarixiy tajriba va barcha qarashlarni o'zida mujassam etadi.

Milliy ma'naviy merosimizning quyidagi xususiyatlarining mavjudligi uni inson ongi va tafakkurini o'zgarishi jarayoni bilan aloqadorligini belgilab beradi:

- xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligini kafolatlovchi omil bo'lib kelayotgani;

- inson hayotining asosiy tushunchalari bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligini saqlashga xizmat qilib kelayotgani;

- jamiyatga yuksak hurmat-e'tiborni shakllanishiga omil bo'lib kelayotganligi;

- milliy ruh hisoblanmish ona tiliga muhabbatni har bir meros namunasi o'zida aks ettirishi;

- sabr-bardosh va mehnatsevarlikni har doim aks ettirishi va insonlarda uning timsollarini ko'rsata olishi va h.k.

Jamiyatimizda milliy tiklanish bosqichida ko'proq milliy ma'naviy meros va umuminsoniy, demokratik qadriyatlarni bu jarayonga singib borishiga tayanilgan bo'lsa, milliy yuksalish davrida esa, demokratik ongning shakllanish va zamonaviy tendensiyalarga insonni munosabatini demokratik prinsiplar asosida shakllantirib borish vazifasi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonning falsafiy mohiyati shundaki, milliy tiklanish bosqichida qadimiy ma'naviy merosning ichki mohiyatini zamonaviy ijtimoiy ong bilan uyg'unlashtirish orqali jamiyatda o'zini anglash, tarixiy xotirani tiklash va madaniy identifikatsiyani mustahkamlashga erishildi.

Milliy yuksalish esa, mazkur jarayonning yangi bosqichi sifatida, inson tafakkurida erkinlik, mas'uliyat, tanqidiy fikrlash va tolerantlik kabi demokratik fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tariqa, milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar o'rtasidagi dialektik uyg'unlik insonning ijtimoiy ongida yangicha ma'naviy-ma'rifiy paradigmalarni shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida, ijtimoiy ongning transformatsiyasi, milliy tafakkurning modernizatsiyasi va insonning global sivilizatsion jarayonlarga faol subyekt sifatida qo'shilishiga zamin yaratadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, milliy yuksalish davrida jamiyat taraqqiyoti shunchaki iqtisodiy yoki siyosiy o'zgarishlar bilan emas, balki inson tafakkurining ma'naviy yangilanishi va milliy ongning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi orqali namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, milliy ma'naviy meros endilikda faqat tarixiy xotira emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning falsafiy-metodologik tayanchi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati, – Toshkent: G'.G'ulom, 2016. –B.207.
2. Isroilov B., Masharipova G. Ajdodlar merosi va ma'naviy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015. –B.4.
3. Musulmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent.: O'qituvchi, 1996. –B. 66.
4. Розов Н.С. Ценности в проблемном мире. –Новосибирск.: 1998. –С. 113.
5. Musulmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi. 1996. –B. 67.
6. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at . –Toshkent: Sharq, 2009. –B.510.
7. Erkayev A. Yangi O'zbekiston: mo'ljal – Uchinchi Renessans. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. –B.19.

ISLOM OLAMINING BUYUK MUHADDISI IMOM BUXORIYNING YOSHLARGA QOLDIRGAN MA'NAVIY DURDONASI

M.X.To'xtayeva,

*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
University of management and future technologies*

Islom dinining muqaddas kitobi – Qur'oni karimda g'oyalar, qarashlar, falsafiy, ma'naviy axloqiy qoida va o'gitlar o'rin olgan Islom dini asoslarida shariat, qonun - qoidalar bilan bir qatorda, axloqiy kamolot, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat, qadriyat, halollik, poklik, imon e'tiqod, [1] ishonchu ixlos va vijdon bilan bog'liq bironta ham masala e'tibordan chetda qolmaganligini ko'ramiz. Islomda dunyodagi har bir mamlakat va xalq har kun duch keladigan, insonni tarbiyalash, jamiyatni yuksaltirish uchun xizmat qiladigan dunyoviy masalalar asosiy o'rinni egallaydi[2] Imom Buxoriyning shoh asari bo'lmish «Sahihi Buxoriy» yoki «Jome'us sahih» kitobi butun islom ummatining ittifoqi ila Allohning kitobi – Qur'oni karimdan keyingi eng to'g'ri, eng sahih kitob deb e'tirof qilingan. Imom Buxoriy mashhur «Jome'us sahih» kitobining «Kitabul adab» nomli bobida odob-axloqqa oid hadisi shariflarni keltirganlar. Albatta, hadisi shariflar Muhammad Payg'ambarning muborak og'izlaridan chiqqandan so'ng sahobalar tomonidan katta e'tibor va ehtirom bilan qabul qilib olingan va undan so'ng ulardan keyin kelgan avlodlarga ishonchlik asosda naql qilingan.

Imom Buxoriy hadislarni kitoblariga yozganlaridan so'ng kitobni oddiy odamlarga, tengdoshlarga, shogirlariga va boshqalarga o'qitganlar. Imom Buxoriy Buxoroga kelganlarida u erda juda katta «Masjidi Kalon» bo'lgan. Dars o'tganlarida ma'lum bir masofada muballig'lar (yetkazuvchilar) turib, Imom Buxoriyning gaplarini xalqqa etkazib turgan. Hamma ularni eshitib, yodlab, yozib borgan. Ana shu tariqa Imom Buxoriy o'z kitoblarini o'qitganlaridan so'ng shogirdlaridan kim bu kitobni yozgan yoki imom qo'lidagi nusxadan ko'chirgan bo'lsa, uning oldilarida o'tirib, muhaddislarning muqobala deb ataydigan uslubini qo'llab, solishtirib chiqqan.

Har bir soʻzi soʻziga toʻgʻrimi, yoʻqmi, solishtirib chiqib, xato boʻlsa, bir belgi qoʻyib, chetidan toʻgʻri variant yozilgan. Agar biror soʻz yoki biror qator notoʻgʻri koʻchirib yoki takror yozilgan boʻlsa, uni oʻchirib yuborish mumkin boʻlmagan. Agar, qaysi bir qoʻlyozmada biron narsa oʻchirilgan boʻlsa, bu erda xiyonat bor ekan, deb hech kim qabul qilmagan. Yaʼni, ehtimol kerakli narsa oʻchirilgandir, degan shubha bilan u qabul qilinmagan. Oʻsha xatoning ustiga chizib qoʻyish bilan toʻgʻrilangan. Ustiga chizilganning tagida nima borligini hamma biladi. Shuning uchun oʻsha koʻchirib olingan nusxani ustozning oʻzi oxirigacha oʻtirib, koʻrgan. Solishtirish paytida shogirdning nusxasini ustoz qoʻliga oladi, ustozning nusxasini shogird qoʻliga oladi-da, solishtiriladi. Oxirgi harfigacha toʻgʻri boʻlgandan keyin ustoz «Men shogirdim Falonchi oʻgʻli Fistonchiga falon kunlari, shuncha muddatda oʻzimning kitobimni oʻqitdim. U koʻchirib oldi, tekshirdim, hech qanday xatosi yoʻq, bunga ijozat beraman», degan ijozatnoma yozib bergan. Bu boradagi kitoblarni oʻqitish, oʻsha qoʻlyozma kitobni uyda saqlashning ham qonun-qoidalari boʻlgan. Shogird uni qanday holatda saqlaydi? Sandiqning ichida kitobdan boshqa narsa boʻlmasligi kerak. Oʻzidan boshqa odam sandiqni ochmasligi kerak. Sandiq qulfli turishi kerak va shunga oʻxshash boshqa bir qancha shartlari bor. Oʻsha shartdan birortasiga amal qilinmasa – tamom, oʻsha qoʻlyozmaning qadri ketadi, birov unga ishonmaydigan boʻlib qoladi.

Demak, qoʻlyozmalar shu tarzda birin-ketin oʻtib, Imom Buxoriydan bizga qarab kelavergan. Chop qilingan boʻlsa, qaysi qoʻlyozmadan qilinganligi ochiq-oydin yozib qoʻyilgan. Xullas, har bir hadis oʻquvchiga, har bir hadis eshituvchiga oʻzining silsilasi paydo boʻladi. Hadis toʻgʻrisida gap ketayotganda hadisning bu tarafida hadis oʻrganayotgan tolibi ilm tursa, u tarafida Muhammad Paygʻambar turishlarini unutmaslik kerak boʻladi. Mana shu biz oʻrganayotgan «Al-adab al-mufrad»[3] kitobi boshida ham oʻsha narsaga ishora bor.

Har qanday xalqning, jumladan, oʻzbek xalqining ham maʼnaviy qadriyatlaridan biri, madaniyati va tamaddunining namoyandasi til boʻlib, uni oʻrganish Alloh taolo qoʻshiqlari, sheʼr va erkalash qoʻshiqlari shaklida ona mehridan boshlanadi. Oʻzbek xalqining qadimiy anʼanalaridan biri ona

tilini o'rganishdir. «Alla» qo'shig'ida onalar farzandlariga o'z tilaklari, ezgu niyatlarini o'zgacha ohang bilan ifodalaydi, kundalik hayotda ularning so'zlarini o'rgatadi. Ona qo'shig'ining ovozi va ohangi bola e'tiborini tortadi. Bolalar o'z nutqida avval tovush va so'zlarni, so'ngra ibora va jummalarni qo'llaydi, asta-sekin maktabgacha yoshdagi davrda ona tilini, tilning boyligi, nozikligi, tuzilishini amaliy jihatdan o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda, rang-baranglikda uyg'unlik bo'lgan bag'rikenglik o'zbek xalqining milliy-diniy boyligidir. Amerikalik olim Semyuel Xantington «sivilizatsiyalar to'qnashuvi» deb atagan global voqelik, birinchi navbatda, dinlar orasida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, bugungi kunda diniy qadriyatlarga munosabat va bu munosabatlar asosida yuzaga keladigan muammolarga echim izlash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning davlat va din munosabatlarida barkamollik, bag'rikenglik va multikul'turalizm modelining mantiqiy davomi va mafkuraviy yanada rivojlanishi uning islom birdamligi namunasidir. O'zbekistonda dinlararo va millatlararo munosabatlardan namuna olsa bo'ladi. Barcha millat va din vakillari bir oiladek do'stona yashaydi, bundan keyin ham yashaydi. Jahon hamjamiyatiga ayon bo'lgan haqiqat shuki, O'zbekistonni dinlararo muloqot markaziga aylantirish jarayoni bugun ham muvaffaqiyatli davom etmoqda. O'zbekistonda milliy qadriyatlarga sodiqlik va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish tendentsiyalari respublikani modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, bugungi globallashuv keskinlashayotgan bir paytda yosh avlodni ana shu qadriyatlar doirasida tarbiyalash juda muhim. Zero, yoshlarning diniy axloqiy qadriyatlardan uzoqlashishi ularning urf-odat va an'analarimizda to'g'ri kelmaydigan xatti harakatlarni qabul qilishiga, zararli oqim va odatlar tuzog'iga tushib qolishga sabab bo'lmoqda. Shu ma'noda, kelajagimiz bo'lgan yoshlarimizni milliy, ma'naviy-madaniy qadriyatlarga moslab voyaga etkazish barcha – ota-onalar, pedagoglar, jamiyatning burchidir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Imom Buxoriy ta'rifi /G'oya muallifi Sh.Umarov – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2018. – 320 b.
2. Imom Buxoriy «Al-adab al-mufrad» / Tarjimonlar Sh.Boboxonov, N.Abdumajid – Toshkent: Movarounnahr, 2006
3. Imom Buxoriy «Al-adab al-mufrad» (Odob-axloqqa oid hadislar. Saylanma)//Tuzuvchilar: Z.Islomov, A.Abdullayev – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2008.
4. Imom Buxoriy Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – Toshkent, O'zbekiston, 1990.

MA'RIFATPARVAR-TURKISTON JADIDLARINING SIYOSIY QARASHLARI

Kuraxmedov Azamat Erkinovich
SamDCHTI dotsenti

Qadim-qadimdan bu muqaddas Vatanimiz tuprog'ida buyuk ajdodlarimiz millat istiqloli, mustaqilligi, farovonligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy turmushi yo'lida kurashib kelgan. Ayniqsa, XIX asr oxiri XX asr boshlarida chor hukumati mustamlakachilik siyosati va Turkistonda hukm surayotgan feodal qoloqlikka qarshi kurashga otlangan hamda usha davr tuzumiga qarshi chiqqan taraqqiyparvar-ma'rifatparvar kuchlar – “jadidlar kurash maydonida harakat kilganlar”.

XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik kundan-kunga avj ola boshladi. Jadidlar o'zlarining ma'rifatparvarlik maqsadlarini amalga oshirish bilan birga siyosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish yo'lida kurashdilar. Birinchidan, chor hukumati mustamlakachilik siyosati avjiga mingan, ikkinchi tomondan sotsial-demokratlar siyosiy maydonda tobora yaqqolroq ko'rinayotgan, Turkiston xalqlari qaysi yo'ldan borishi to'g'risida o'ylaydigan o'ta murakkab bir tarixiy sharoitda jadidchilar o'zlarining asl ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy maqsad va

vazifalarini nazariy jihatdan ishlab chiqdilar. Shunday qiyin bir vaziyatda avvalo zamonaviy ilmlar bilan qurollanish shart, binobarin, milliy o'ziga xoslik, urf- odatlar, qadriyatlar, diniy aqidalarning eng ilg'or va muhim nuqtalarini puxta egallash va shu bilan birga o'zligini yo'qotmaslik, iymon-e'tiqodda mustahkam turish, chor hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash, mustakillik va istiqbolga erishish masalalarini keskin kilib qo'yadi. Jadidlar bu maqsad va vazifalarni amalga oshirmasdan milliy mustaqillikni qo'lga kiritish mumkin emasligini alohida uqtiradilar. Agar zamonaviy ilmlar bilan qurollanilmasa ayni kunlarda barcha etakchi ishlarni o'z qo'llariga kiritib olgan mustamlakachilardan qutulib bo'lmaydi, degan fikr bilan jadidlar harakat qildilar. Misol uchun, usha davr matbuotida yozilishicha, "XX asr boshidagi rus-yapon urushidan keyin mahalliy xalqlarda o'z ahvollarini yaxshilash uchun umidlari kuchaydi, shu bilan birgalikda jadidlarning siyosiy faoliyati ham kuchaya bordi"[1:379].

Jadidlar chor hukumatining mustabid va mustamlaka boshqaruvi usuliga qarshi kurashda faollik ko'rsatdilar. Shu maqsadlar yo'lida turli xil guruxlardan iborat jadidlar uyushmasini tashkil etdilar. Ma'lumotlarda yozilishicha, yashirin ayg'oqchilar tekshirgan guruhlar ichidan siyosiy mafkura bilan qurollangan yosh milliy ziyolilarni aniqladilar [2:298] (O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi, fond-461, ro'yxat-1, ish-1820, varaq-298). O'zlarining ma'rifatparvarlik g'oyalarini amalga oshirib, yangi usuldagi maktablar ochib, unda zamonaviy va diniy fanlar o'qitish, mahalliy xalqning madaniy-ma'naviy saviyasini oshirish uchun kurashgan jadidlar endilikda siyosiy muammolar bilan tarix maydoniga kirdilar.

Jadidlar Turkiston matbuoti saxifalarida siyosiy chiqishlar qila boshladilar, misol uchun, "Shuhrat" gazetasining 1908-yil 10-yanvar 5-sonida Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan "Toshkent 8-yanvarda" (O'RMDA, f.-1, r.-4, ish-1216, v.-2) nomli siyosiy maqolasida Rossiyaning siyosiy tartiblaridan norozi bo'lganligini hamda oxirgi uch yil davomida ishlayotgan III Davlat Dumasi xalqniki emasligini uqtiradi. Jadidlar Turkistonning siyosiy, milliy va madaniy-ma'naviy sharoitlarini, kelajagini o'zlari tomonidan chikarilayotgan gazeta va jurnallarda

maqolalar bilan e'lon kilganlar. Ular chorizmning mustamlakachilik zulmi, milliy mustakillikka erishish uchun astoydil kurash olib borganlar.

Misol uchun, jadidlar o'zlarining fikrlari, g'oyalari va maqsadlarini xalqqa etkazish, bir birlari bilan fikr almashish borasida kechalari yashirin uylarda yig'ilishib suhbatlar, savol-javoblar o'tkazib turganlar. 1917-yilga qadar bu yig'ilishlar "Gap" [3:57) nomi bilan ma'lum bo'lib, ularda ijtimoiy-siyosiy mavzularda suhbatlar, gazeta va jurnallar uqilar va davrning asosiy muammolari to'g'risida fikrlar almashinar edi. Toshkentda bunday "Gap"larning rahbari Munavvarqori Abdurashidxonov bo'lib, o'z atrofiga mahalliy ziyolilardan Avloniy, Asqarov, Shokirjon, Ubaydulla Xo'jayev va usha davrning buyuk taraqqiyparvarlarini birlashtirgan edi. Bunday ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy g'oyalar ostida o'tkazilgan "Gap"larni chor mustamlakachilik hukumati ta'qib ostiga olgan, natijada jadidlar ularni tuxtatishga majbur (O'RMDA, f.-i.-461, r.-1, ish-2144, v.-89) bo'lganlar.

Jadidlar o'z faoliyatlarida siyosiy Dasturni ham belgilab olganlar. Zaki Validi To'g'on o'z xotiralarida "Jadid taraqqiyparvarlari" partiyasining Dasturi 19 banddan iborat ekanligini ta'kidlab (Zaki Validi To'g'on "Xotiralar", Qarang: Sharq Yulduzi, 1993-yil, №7-8, 176-177 betlar) unda asosiy e'tibor mustaqillik, milliy ozodlik, milliy siyosiy xuquqlar, vijdon, matbuot, nashriyot erkinligi, tinchlik-totuvlik va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'daniy masalalarni qamrab olgan edi. Eng asosiysi Turkiston jadidlarining siyosiy Dasturi xalq mustaqilligi, xalq manfaati va o'lkaning ravnaqi, rivojlanishi g'oyalariga asoslanib tuzilgan edi.

Ma'rifatparvar jadidlarning siyosiy qarashlarini Maxmudxo'ja Behbudiy faoliyatida ko'rishimiz ham mumkin. Misol uchun, 1906-yil noyabrida "Xurshid" gazetasida "Felyeton" maqolasida Behbudiy davlat Dumasi tarafdori bo'lgan Rossiyadagi kadetlar partiyasini g'oyaviy jihatdan qo'llab - quvvatlaydi (M.Vahobov. Jadidizmning sotsial mohiyati. O'zbekiston kommunisti. 1960 yil, №1, 83 bet).

Behbudiy vaqtli matbuotdagi o'z chiqishlarida chor hukumati mustamlakachilik siyosatini tankid qilar va nafaqat Turkiston o'lkasida balkim Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy xayotga ham e'tibor qaratar

edi. Uning 1917 yil “Xurriyat” gazetasi 1 may sonida “Buxoro voqealari va dafg’i tuxmat” maqolasida Turkiston vakillari Buxoro ijtimoiy-siyosiy axvolini bilish, yordam ko’rsatish, xalq ommasi bilan suhbat qurish masalasida tashrif buyurganligini ta’kidlaydi. Turkiston vakillari orasida shaxsan Maxmudxo’ja Behbudiy ham ishtirok etgan bo’lib, Buxoroning iktisodiyotiga, siyosatiga alohida e’tibor bilan qaraydi (Ibrohim G’ofur “Amir nega Behbudiyga qo’l bermadi”. O’zbekiston adabiyoti va san’ati, 1994 yil, 6 may, №16-17.). Umuman, Behbudiy Turkiston jadidlari ichida harakatlari bilan ajralib turganligi, intiluvchanligi, ma’rifatparvarligi uchun Turkiston jadidlarining otasi nomini olgan edi. Manbalardan “Siyosiy kurashdan Behbudiy uzoq emas. Mustahkam, aniq xalqning tarafdori Turkiston taraqqiyparvar o’zbek ziyolilarining dohiysi”, deb ta’kidlanganligini bilishimiz mumkin (№1, avgust-sentyabr, 24 bet). [5:220].

Turkistonda jadid namoyandalarining mustaqillik, ozodlik, istiqlol uchun kurashlarida siyosiy faoliyatlari alohida ajralib turgan. Jadidlar 1905-1917 yillar davomida o’lkada o’zlari rahbarligida “Taraqqiy” 1906-yil, “Xurshid” 1906 yil, “Shuxrat” 1907 yil, “Tujjor” 1907-yil, “Samarkand” 1913 yil, “Oyina” 1913 yil, “Sadoyi Turkiston” 1914 yil, “Sadoyi Farg’ona” 1914 yil chiqarilgan gazeta va jurnallarida Turkiston mustaqilligi, ozodligi, mamlakat ravnaki, rivoji va taraqqiy etish uchun chiqishlar qilganlar va ana shu yo’lda jonlarini fido ham etganlar. Turkiston jadidlarining tabarruk nomlari qayta tiklandi. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi jadidlarning siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatlari haqqoniy, ilgari yoritilmagan sahifalari olimlarimiz tomonidan tarix zarvaraqlariga kiritilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayniy Sadriddin. Ta’rixi inqilobi Buxoro. - Dushanbe, 1987. – b.31
2. Abdurrauf. Hind sayyohining hikoyalari ("Buxara"). Samarkand, Mahmudxoja Begbudi, – 1913. – b.79.
3. O’zR MDA, F. I-47. -Ruyx.1.-Ish. 955. - Varak, 250

4. M.F. Maxmudxoja Begbudi //Hayka. -1922. - avgust -sentyabr -№1. - b.23.

5. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan // akad. M. M. Xayrullayev tahriri ostida, T.: O‘zbekiston, 1995. – b. 224.

JAMIYATNING BARQAROR TARAQQIYOTINI TA’MINLASHDA MA’NAVIY TAMOYILLARNING HUQUQIY INTEGRATSIYASI

Rustamaliyev Mirjalol Hayrullo o‘g‘li,

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Ma’naviy tamoyillar har bir millat madaniyati, tarixi, an’analari hamda ma’rifiy qarashlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular avvalo insonda axloqiy tushuncha va qadriyatlarni shakllantiradi. Davlat boshqaruvida mazkur tamoyillar amal qilishi uchun, eng avvalo, ular huquqiy asosda mustahkamlanishi zarur. Bu huquqiy asosni esa, bir tomondan, mamlakat Konstitutsiyasi, ikkinchi tomondan esa turli sohaviy qonunlar, etika kodekslari va qonunosti hujjatlari tashkil etadi. Davlat boshqaruvida ma’naviy jihatlar qanchalik mustahkam qonuniy asos bilan rivojlansa, jamiyatda xalq bilan mansabdor shaxslar o‘rtasidagi ishonch mustahkamlanadi, davlat siyosatining ustuvor maqsadlaridan biri sifatida adolat tamoyili amalda ro‘yobga chiqadi. Shu bois ma’naviy tamoyillarning huquqiy asosini yaratish jarayonida ularni puxta huquqiy mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi[1].

Ma’naviy tamoyillarni yuridik norma sifatida qabul qilish yoki ularni huquqiy jihatdan tartibga solish juda nozik jarayon bo‘lib, unda siyosiy iroda, huquqiy siyosat, milliy g‘oya hamda xalq ongida qaror topgan an’anaviy qadriyatlar birlashishi lozim. Chunki ma’naviyat bilan bog‘liq tushunchalar ba’zan subyektiv, ba’zan esa norasmiy axloq qoidalari shaklida namoyon bo‘lib, ularni aniq bir huquqiy qoida sifatida chiqarish sira ham oson ish emas. Davlat boshqaruvida rahbar va xodimlar axloqi,

jamoatchilik bilan munosabat, xizmat bilangina cheklanib qolmaydigan, balki mamlakat kelajagini belgilaydigan siyosiy qarorlar qabul qilishda ham ma'naviy mezonlarga amal qilish muhim ekanligi ushbu jarayonning naqadar ahamiyatli ekanini ko'rsatadi. Shu maqsadda maxsus tartib bilan ishlab chiqilgan qonunlar, etika kodekslari yoki davriy ravishda qabul qilinadigan dasturlar orqali ma'naviy prinsiplar mustahkamlanadi, shu bilan birga ularni buzganlik uchun mas'uliyat mexanizmlari ham yaratiladi. Bunda huquqiy sanksiyadan ko'ra ko'proq targ'ibot, taqdimot, tarbiya, tushuntirish va motivatsiya kabi choralar muhim rol o'ynaydi, chunki ma'naviyat huquqdan avval inson qalbida qaror topishi lozim bo'lgan tushuncha sifatida e'tirof etiladi.

Davlat boshqaruvida ma'naviy tamoyillar deganda ko'p hollarda adolat, halollik, insof, vijdonlilik, xalq manfaatini birinchi o'ringa qo'yish, kamtarlik, saxovat kabi tushunchalar nazarda tutiladi. Biroq ularni huquqiy normalar orqali mustahkamlash jarayoni umumiy odob qoidalarini qabul qilish bilan cheklanmay, har bir sohada aniq axloqiy mezonlarning belgilanishi va uning qay darajada buzilishi huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi lozimligini ham nazarda tutadi. Masalan, davlat xizmatchilari etika kodeksida mansabdor shaxslar jamoatchilik oldida o'zini tutish, murojaatlarga munosabat bildirish, huquqlar yoki manfaatlarni tiklashda shaffoflikni ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvidan qochish kabi axloqiy normalar o'zi aks etishi kerak. Shu bilan birga ushbu normalar huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmasa yoki ularni amalda ta'minlash mexanizmi bo'lmasa, ayrim paytlarda ma'naviy tamoyillar faqat shior bo'lib qolishi mumkin. Shu sababli davlat boshqaruvida ma'naviyatni huquqiy qat'iyat bilan mustahkamlash, bir tomondan, huquqni muhofaza qilish idoralari va nazorat organlari tomonidan bu borada aniq tavsiyalar hamda jazo mexanizmlari joriy etilishini talab qilsa, ikkinchi tomondan, ta'lim-tarbiya tizimi orqali shaxsiy axloqni shakllantiruvchi masalalarga e'tibor qaratish kerakligini ko'rsatadi.

Ma'naviy tamoyillarni huquqiy tartibga solishda hokimiyat tarmoqlari o'rtasida munosabatlar mutanosibligini ham e'tiborga olish zarur. Chunki parlamentda qonunlar qabul qilinganda, asosiy maqsad jamiyatda tartib

o'rnatish, adolat va huquqiy kafolatni ta'minlash bo'lsada, qabul qilinadigan har bir huquqiy norma bir vaqtning o'zida jamiyatda mavjud axloqiy qarashlar bilan ham hamohang bo'lishi kerak. Aks holda, yuridik norma aholi tomonidan tushunarsiz yoki ma'naviyatga zid deb qabul qilinsa, bu uning amalda ishlamasligiga yoki kutilgan natijani bermasligiga olib keladi. Shu bilan birga ijro hokimiyati organlari qabul qilingan qonunlar va qonunosti hujjatlarini amalga oshirish jarayonida huquqiy normalarni bajarish bilan birga, ularni ma'naviy birlikka yo'naltiruvchi siyosiy, mafkuraviy ishlar bilan ham shug'ullanishi kerak bo'ladi. Sud hokimiyati esa adolatni qaror toptirish asnosida ko'rib chiqilayotgan har bir ishda nafaqat qonun talablarini, balki axloqiy mezonlarni ham e'tiborga oladigan, inson qadr-qimmati, milliy an'analar va umume'tirof etilgan ilmiy qarashlar bilan uyg'un mexanizmlarni shakllantirishi maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan sudyalarning etikasi, ularning mustaqilligi, xolisligi, shaffofligi davlat boshqaruvida ma'naviy tamoyillarni huquqiy tartibga solishda alohida ahamiyat kasb etadi[2].

Davlat boshqaruvida ma'naviy tamoyillarni huquqiy tartibga solish masalasida har bir sohada tegishli institutlar hamda mexanizmlar tashkil etilishi zarurligini kuzatish mumkin. Chunki ma'muriy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarda qonunlar qabul qilingan taqdirda ham, ma'naviy jihatdan etuklikka erishmagan mas'ul shaxslar yoki tashkilotlar bu me'yorlarni formal qabul qilib, amalda bajarmay qo'yishi ehtimoli mavjud. Bu esa, aqidaviy jihatdan, davlat boshqaruvida ma'naviyatni kuchaytirish maqsadiga ziddir. Shu sababli axborot siyosati, ta'lim muassasalaridagi tarbiya jarayonlari, jamoat tashkilotlari va OAV bilan hamkorlik qilish kabi bir necha yo'nalishda kechadigan chora-tadbirlar majmuasi orqali ma'naviy prinsiplar mustahkamlanishi lozim. Masalan, har bir davlat idorasida jamoaviy muhit yaratilishining o'zi xodimlar o'rtasida axloqiy-estetik munosabatlarning qaror topishiga xizmat qiladi. Bunda huquqiy nazorat bilan bir qatorda ma'naviy rag'batlantirish ham o'ta muhim bo'lib, fikrlar xilma-xilligiga ehtiyotkorlik bilan yondashib, inson qadrini ulug'lash tamoyili amalga oshadi.

Milliy madaniyat va an'analar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'naviyat tushunchasi xorijiy huquqiy tajribalarda ham yuqori baholanadi. Davlat boshqaruvida har bir mamlakat o'ziga xos an'ana va qadriyatlarga tayanishi muqarrar. Shu jumladan, mamlakatimizda ham ma'naviy tamoyillar fuqarolar orasida taraqqiy topishi uchun siyosiy iroda bilan birga huquqiy o'lchamga ega bo'lgan normalar yaratilgani kuzatiladi. Biroq o'zaro tajriba almashinuvi jarayonida huquqiy asoslar qonunchilikda belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, ma'naviy mezonlar boshqaruvda o'zgacha ahamiyat kasb etishini e'tiborga olish lozim. Sababi, bugungi globallashuv sharoitida mafkuraviy kurashlar, axborot xurujlari orqali jamiyatda axloqiy tushuncha va qadriyatlarning buzilishi yoki muhokama qilinishini kuzatish mumkin. Bunday hollarda huquqiy me'yorlar saqlab qoladigan jihatlar chegaralangan bo'lishi mumkin, ma'naviy immunitet esa odamlarning ongini ma'lum bir yot g'oyalardan asraydi. Shu jihatdan qaraganda, davlat boshqaruvida ma'naviy tamoyillar uzluksiz targ'ib qilinish barobarida, huquqiy tizim orqali ham qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Ma'naviy tamoyillarni huquqiy tartibga solishda aholining huquqiy madaniyati va ma'naviy dunyoqarashi darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki huquqni qo'llash amaliyotida har bir fuqaro o'z huquqlari bilan birga burchlarini anglab etishi, axloqiy me'yorlarga amal qilishi, vijdon bilan ish yuritishi kutilgandek ko'rinishi uchun, oldindan mustahkam axloqiy tarbiya lozim. Bu esa davlat boshqaruvida ma'naviy tamoyillarni ilgari surgan holda huquqiy baza yaratish orqali birlamchi maqsad hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun aholi bilan muntazam ravishda ochiq muloqotlar olib borish, davra suhbatlari, seminar-treninglar, davriy nashrlar, ommaviy axborot vositalarida maqolalar e'lon qilish, televideniye va radio ko'rsatuvlari, internet tarmog'i orqali tushuntirish ishlarini keng yo'lga qo'yish zarur bo'ladi. Bunday choralar ma'naviy tamoyillarni aholi ongida hayot tarzi sifatida qaror toptirishda huquqiy asosga ko'maklashadi.

Davlat boshqaruvida ma'naviy tamoyillarni huquqiy tartibga solish davomida mansabdor shaxslar, davlat xizmatchilari, deputatlar va boshqa vakolatli organ xodimlarining etikasi alohida e'tiborga loyiq. Chunki ular

jamiyatda huquqiy qarorlar qabul qilish jarayonining asosiy ishtirokchilari bo'lib, o'sha qarorlarning ma'naviy asoslarini ham bevosita ta'minlaydi. Agar davlat boshqaruvida ishtirok etuvchi shaxslar ma'naviy jihatdan barkamol bo'lmasalar yoki axloqiy me'yorlarga rioya qilishda shaxsiy namuna ko'rsata olmasalar, hatto eng puxta ishlab chiqilgan huquqiy me'yorlar ham kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu bois davlat xizmatchilari etikasi mavzusida maxsus me'yoriy hujjatlarni qabul qilish, ularga muntazam ravishda amal qilishni monitoring qilish, tizimli ravishda o'quv kurslari va malaka oshirish dasturlarini joriy etish orqali ma'naviyatni har bir xodim ongida qaror toptirish lozim. Bu jarayonda xizmat jarayonidagi muvaffaqiyatlarga erishgan shaxslarni moddiy yoki ma'naviy rag'batlantirish, o'z burchini vijdonan bajarmayotganlarni esa tegishli huquqiy vositalar bilan tartibga solish usullaridan foydalanish kerak[3].

Davlat boshqaruvida ma'naviy tamoyillarni huquqiy tartibga solishni samarali amalga oshirish uchun har bir fuqaro o'z burchini anglashdan tashqari, davlat xizmatlari sifati, oriyativ madaniyat, axborot transparentligi hamda qonuniylikni ta'minlash borasidagi mas'uliyatni ham his qilishi lozim. Zero, davlat boshqaruvida yuridik normalar bilan bir qatorda ma'naviy axloq normalariga amal qilish jamoatchilik ongini shakllantiradi va fuqaro bilan davlat o'rtasida hamjihatlikka olib keladi. Natijada har bir fuqaro o'z huquqlarini talab etish bilan birga, boshqa fuqarolar huquqlarini ham tan oladi, jamiyatdagi axloqiy muhit susayib ketishiga yo'l qo'ymaydi, qonunbuzarliklarni ko'rib turib, befarq qolmaydi. Bu esa milliy taraqqiyot samarasi sifatida ko'rsatiladigan ahamiyatli ko'rsatkichlardan biridir.

Davlat boshqaruvida ma'naviy tamoyillarni huquqiy tartibga solish, aslida, huquqni tizimli isloh qilish bilan ko'p jihatdan birga olib borilishi kerak. Chunki agar huquq tizimida ayrim haq-huquqlar belgilab qo'yilgan bo'lsa-yu, biroq axloqiy chegaralar aniq ifodalanmagan bo'lsa, bu normalar turli talqinlarga yo'l ochib, qolaversa, suiiste'molchilikka ham sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli amaldagi barcha qonunlar, qonunosti hujjatlari va protseduralar ma'naviy mezonlarga moslashtirilishi mumkin. Masalan, har qanday iqtisodiy loyihaaning mohiyatida iqtisodiy manfaat

bilan birga aholining ma'naviy ehtiyojlarini ham e'tiborga olish maqsadida maxsus moddalar kiritilishi mumkin. Bunday yondashuv vositasida jamiyatda har qanday iqtisodiy islohot ham inson qadrini ulug'lash, insof, adolat tamoyillari bilan birga olib boriladi. Natijada iqtisodiy o'sish bilan birga ma'naviy rivojlanish ta'minlanadi.

Davlat boshqaruvida ma'naviy tamoyillar ahamiyatini anglash uchun, avvalo, tarixiy manbalardagi g'oyalardan boshlash lozim. Sharq dunyosida ma'naviyat tushunchasining ilk nazariy asoslarini Abu Nasr Farobiy kabi mutafakkirlar tomonidan ma'lum bir tartibda ishlab chiqilganini ko'rish mumkin. Binobarin, "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyatda ma'naviyatni targ'ib qilishda boshqaruvchilarning rol olishi lozimligi qayd etiladi[4]. Bu fikrda davlat rahbarining axloqli, adolatli bo'lishi jamiyat taraqqiyoti uchun bevosita ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Farobiy ta'kidicha, haqiqiy ma'naviyat axloq bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aynan axloqiy qadriyatlar davlat turmushi va uning boshqaruv uslubini belgilab beradi. Ushbu mulohaza zamonaviy taraqqiyot sharoitida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shu bois, ma'naviy tamoyillarning huquqiy asoslarini yaratish, ularni amalda tartibga solish eng dolzarb vazifalardan biri sifatida ko'ndalang bo'lmoqda[5].

Ma'naviy tamoyillarning huquqiy tartibga solinishi, eng avvalo, Konstitutsiya darajasida o'zi aks etishi kerak. Chunki Konstitutsiya – har bir davlat uchun bosh mezon sifatida xizmat qiladigan asosiy huquqiy hujjatdir. Konstitutsiyada davlat tizimida shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni belgilash asnosida ma'naviyatga oid me'yorlar ham qamrab olinishi, jumladan, davlat idoralari, mansabdor shaxslar va fuqarolar o'rtasida axloqiy javobgarlikni ta'minlovchi normalar aks etishi maqsadga muvofiqdir. Quyidagilari shunday bir qarashni taqozo qiladiki, "ma'naviylik" tushunchasini huquq bilan uyg'unlashtirish orqali jamiyatda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlar shakllanadi. Zero, ma'naviyatni tartibga soluvchi huquqiy normalar qabul qilingan taqdirda, shaxsning axloqiy burchi jamiyat oldida belgilanadi, mansabdor shaxslar zimmasiga esa nafaqat huquqiy, balki ma'naviy

mas'ullik ham yuklanadi. Shu bois, ma'naviyatga asoslangan huquq ahamiyatini talqin qilishda, birinchi navbatda, jamiyatda individlar o'rtasida tenglikni ta'minlaydigan, adolat tamoyillariga rioya etilishini kafolatlaydigan, eng muhimi, odamlar o'rtasida ochiq muomalani ta'minlaydigan hayotiy mexanizm sifatida ko'rish lozim.

Ma'naviy tamoyillar huquq bilan birlashganda jamiyatda qadriyatlar manzarasi yanada ravshan bo'ladi. Muammolar huquqiy normalar bilan hal etilishi mumkin, biroq huquqni pirovardida axloq bilan uyg'unlashtirish, huquqiy ongni yuksaltirish orqali insonlarda vijdoniy yondashuv shakllanadi. Bu har bir fuqaroga jamiyat ravnaqi uchun mas'ullik hissini beradi, davlat idoralarining faoliyatiga ishonchni orttiradi. Davlat boshqaruvida, ayniqsa, rahbarlik lavozimida bo'lgan shaxslar ma'naviy tamoyillarga sodiq bo'lsalar, milliy taraqqiyot konsepsiyalarida ilgari surilayotgan adolat, shaffoflik, jamoaviy birdamlik kabi tushunchalar hayotda namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonni mustahkamlash uchun huquqiy monitoring tizimini rivojlantirish ham muhim o'rin tutadi. Ya'ni qabul qilingan qonunlar, qarorlar, farmonlar qay darajada ma'naviyat me'yorlariga mos kelayotganini, aholi ongida axloqiy qadriyatlar qanchalik mustahkamlanib borganini aniqlash uchun ilmiy-amaliy tahlillar, sotsiologik so'rovlar, monitoring olib borish kerak bo'ladi. Bu esa jamiyat rivojida mamlakat rahbariyati, siyosatchilar, olimlar va keng jamoatchilik hamkorligidagi sa'y-harakatlarni talab qiladi.

Bunda huquqiy islohotlarni amalga oshirishda ma'naviy tamoyillar targ'ibotiga oid maxsus dasturlarga ehtiyoj bor. Masalan, axborot makonida ma'naviyat mavzusida turli teledasturlar, ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etish, huquqiy savodxonlikni yuksaltirish bilan birga axloq odoblarini tushuntirish ko'nikmalarini joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki jamiyatda huquqiy ong mustahkam bo'lmasa, ma'naviy tamoyillarning qonunchilikda qayd etilishi formal ko'rinishda qolib ketishi mumkin. Qolaversa, huquqiy madaniyat faqat huquqiy bilimlarga ega bo'lish bilan cheklanmaydi, balki bu bilimlarni hayotda qo'llash, axloqiy pozitsiyani olib borish orqali amalda namoyon bo'ladi. Shunday ekan, ma'naviy qadriyatlarga uyg'unlashgan huquq bir tomondan shaxs

huquqlarini kafolatlasa, ikkinchi tomondan uning burchlarini ham eslatib turadi, oq-qorani ajrata olish, adolatni ta'minlash yo'lida shaxsiy manfaatlardan yuqori tura olishni sharoit yaratadi.

Jamiyatda ma'naviy qadriyatlar buzilishining oldini olish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi idoralar ham ma'naviy tamoyillarga asoslangan islohotlar olib borishi lozim. Zero, ish joyida, xizmat davrida yoki turar joylardagi axloqqa oid huquqiy tartiblar aniq belgilab qo'yilmagan bo'lsa, hamda bu tamoyillar haqida umumiy ko'rsatmalar bilan cheklanilsa, huquqbuzarliklar profilaktikasida samaradorlik past bo'lishi ehtimoli mavjud. Bu borada bir galda mustahkam qonunchilik bazasi, ikkinchi galda huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning aniq reglamenti va axloq kodeksi, shuningdek, jamoatchilik nazorati mexanizmi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yevropa mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashda huquqiy kuchli normalar bilan bir qatorda, "shaxsiy vijdon monitoringi" kabi tushuncha ham rivojlangan. Ya'ni har bir mansabdor shaxs hayoti mobaynida yozma yoki elektron shaklda "axloqiy hisobot" yuritadi, unda manfaatlar to'qnashuvi holatlarini tasvirlaydi, bu esa jamoatchilik tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin. Shu tariqa huquqiy norma ma'naviy nazorat bilan birlashadi, natijada huquqbuzarliklar soni kamayadi. Davlat boshqaruvida shunday bir uyg'unlikni ta'minlash muhim, chunki huquqiy tartibda cheklanmagan axloq normalari ko'p holda deklarativ chiqib qoladi[6].

Ma'naviy tamoyillarni huquqiy tartibga solish orqali davlat boshqaruvida adolatni ta'minlashni zamonaviy faylasuflar ham e'tirof etishadi. Masalan, Jon Roulz adolat konsepsiyasida huquqiy tenglikni ta'minlash bilan bir qatorda jamoat axloqi muhim omil sifatida qayd etilishi kerakligini ko'rsatadi[7]. Chunki xolis huquq qonunlarida adolat ta'minlanishini talab qiladi, biroq shu qonunlarni tatbiq etish jarayonida inson omili kamsitilsa, turli xil mafkuraviy yoki shaxsiy manfaatlar ustunlik qilsa, amalda adolat ta'minlanmay qolishi mumkin. Shu tufayli Roulz ta'kidlaganidek, davlat idoralarida insoniy munosabatlar, siyosiy jarayonlarda esa umumiy axloqiy talablar asos qilingan taqdirdagina "asl adolat" amalga oshishi mumkin. Demak, ma'naviy tamoyillar – bu

shunchaki axloqiy indeks emas, balki adolatni ta'minlashda muhim bo'g'in, undan ayrilgan huquqiy tizim esa oddiy rasmiy-yuridik hujjatlar yig'indisiga aylanib qolishi tayin.

Ijtimoiy-falsafiy tahlil nuqtai nazaridan, ma'naviy tamoyillar ahamiyatini hatto turli jabhalarda ko'rish mumkin. Masalan, iqtisodiy rivojlanishda ham axloq elementlari katta rol o'ynaydi. Davlat boshqaruvi iqtisodiyotni erkinlashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli qonunlar qabul qilishi mumkin, ammo ularni amalga oshirish jarayonida mansabdor shaxslar huquqiy-normativ hujjatgagina emas, balki o'zlarining yuksak ma'naviy tuyg'usi, vijdoni, insof tuyg'usi orqali yo'l tutishlari lozim. Shu bois, iqtisod siyosatda ham "davlat boshqaruvida ma'naviy tamoyillar" tushunchasi keraksiz tushuncha bo'lmay, balki real jarayonlarga ta'sir qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Buni misollar orqali sharhlaydigan bo'lsak, tadbirkorga ma'muriy to'siqlar yaratish yoki sun'iy byurokratiya yuzaga keltirish, pora evaziga "tezkorlik"ni ta'minlash kabi holatlar ma'naviy tamoyillar huquq orqali mustahkamlanmagan muhitda avj oladi. Vaholanki, inson ongida axloqiy tarbiya mustahkam bo'lsa, bu illatlardan o'zini tiyishi mumkin, shu bilan birga huquqiy normalar ham bu harakatni jazo bilan ta'minlaydi. Binobarin, ikkala mezon — ma'naviy tamoyil va huquq talablari birgalikda ishlasa, iqtisodiy siyosatlar samarasini beradi.

Davlat boshqaruvida ma'naviy tamoyillarni huquqiy tartibga solish, shuningdek, geosiyosiy munosabatlarda ham muhim ahamiyatga ega. Davlatlar o'rtasida tinchlik, hamkorlik, o'zaro hurmat kabi munosabatlar shakllanishi uchun xalqaro huquqiy me'yorlar bilan bir qatorda, umuminsoniy axloq normalari ham e'tiborda tutilishi talab etiladi. Bu borada turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNESKO, YEXHT kabi tuzilmalar ma'naviy asoslarga tayangan huquqiy shartnomalarni ishlab chiqadi. Masalan, inson huquqlariga oid xalqaro paktlar yoki madaniy merosni muhofaza qilish haqidagi konvensiyalarda ilg'or umuminsoniy qadriyatlar, mamlakatlarning huquqiy burchi sifatida ko'rsatiladi. Natijada davlat boshqaruvi global miqyosda ham axloqiy boshqaruvni ilgari suradi, har bir davlat o'zi qabul qilgan xalqaro

shartnomalar asosida ma'naviy burchlarga ega bo'ladi. Shu tariqa, ma'naviy tamoyillarning huquqiy tartibga solinishi nafaqat milliy, balki xalqaro munosabatlarga ham daxldor jarayonga aylanadi.

Izoh sifatida tushuntirish mumkinki, ma'naviy qadriyatlarini huquqiy jihatdan takomillashtirishda misollar orqali faoliyat yuritish eng samarali usuldir. Masalan, bir davlat idorasida mansabdor shaxs pora oldi, lekin u huquqiy normani buzdi, degan tamoyildagina emas, balki jamiyat ishonchi, jamoatchilik oldida vijdonan mas'ullikni ham poymol qildi. Demak, aql-idrok bilan yondashadigan inson huquqiy jazodan tashqari, axloqan ham javobgar ekanini his qiladi. Shu bilan birga, huquq axloq normasi bilan uyg'unlashgan bo'lsa, jamiyat tomonidan ta'na-qoralash, ma'naviy impichment kabi choralar ham ishga tushadi, natijada bu illatlar profilaktikasi kuchayadi. Ya'ni huquqni buzgan shaxs faqat ma'muriy yoki jinoiy jazo bilan kifoyalanmasdan, axloqan ham maftunkorlik mavqeini yo'qotadi. Bu jamoatchilikda salbiy munosabatni kuchaytiradi, ko'proq aqlan-ruhan tazyiqlar ham yuzaga kelishi mumkin. Shunday qilib, ma'naviy tamoyillar huquq bilan mustahkamlangani tufayli huquqbuzarlikka qarshi kurash kompleksli ko'rinish kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, "Davlat boshqaruvida ma'naviy tamoyillarni huquqiy tartibga solish" – bu ham huquqshunoslik, ham siyosatshunoslik, ham ma'naviyat ilmi, hamda falsafa ilmi kesishadigan keng ko'lamli masala. Bu jarayonda bir vaqtni o'zida huquqiy doirani mustahkamlash, jamiyatda axloq normalariga amal qilishni targ'ib etish, mansabdorlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, shaffoflikni oshirish, individlar ongida vijdonan yondashuvlar shakllanishi uchun munosib mafkuraviy muhit yaratish lozim bo'ladi. Birgina huquq yoki birgina axloq bilan cheklanib qolmasdan, ularni birlashtirish orqali samarali natijaga erishish mumkin. Jamiyatda ma'naviy qadriyatlar yuksalgan sari huquqiy madaniyat ham yuqori bo'ladi, o'z navbatida, huquqiy madaniyat kuchaygan sari ma'naviyat uchun ko'proq sharoitlar yaratiladi. Zero, ma'naviyat va huquq bir tizim bo'lib, biri ikkinchisini boyitadi, kamol toptiradi. Davlat boshqaruvi esa ana shu ikki tushunchaning uyg'unligi asosida shakllangandan keyingina xalq farovonligi, adolat va demokratiya

oliy maqsad sifatida ta'minlanishi mumkin. Shu tariqa, ma'naviyatni huquq bilan mustahkamlash, huquqni esa ma'naviyat bilan boyitish munosabati mamlakatda har tomonlama taraqqiyot, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xusanov B. E. Milliy estetik tarbiya taraqqiyotining ma'naviy tamoyillari //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 16. – B. 160-165.

2. Xusanov B. E. Milliy estetik tarbiya taraqqiyotining ma'naviy tamoyillari //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 16. – B. 160-165.

3. Axmedov A. T. Davlat boshqaruvida zamonaviy yondashuv //Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy qarashlar: muammo va echimlar. – 2024. – T. 13. – B. 34-38.

4. Axmedov A. T. Davlat boshqaruvida zamonaviy yondashuv //Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy qarashlar: muammo va echimlar. – 2024. – T. 13. – B. 34-38.

5. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Fan, 1968, - B. 112.

Ismatov Sh. Sharq ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlari mazmunidagi ma'naviy-axloqiy tarbiya talqini //Ekonomika i sotsium. – 2022. – №. 4-1 (95). – B. 291-294.

6. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (aksiologiya) – T.: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004. –B. 39.

7. Raxmonova G. Sh. Axloq-shaxs taraqqiyotining yuqori ma'naviy poydevori //Boshqaruv va etika qoidolari onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2. – B. 160-165.

8. Davidov U. X. Jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishning zamonaviy metodlari va texnologiyalari rivojlantirish //Vestnik KGU im. Berdaxa. №. – 2022. – T. 2. – B. 239.

9. Rashidova B. Yuksak ma'naviyat avvalo inson odobida namoyon bo'ladi //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 12. – B. 351-355.

10. Rawls J. A theory of justice //Cambridge (Mass.). – 1971. – p. 41.

JAMIYAT MA'NAVIY RIVOJLANISHINING STRATEGIK YO'NALISHLARI

Manzura Ibragimova Marat qizi,
*O'zbekiston ISFT (International school of
Technology and science) institut talabasi*

Zamonaviy jahon taraqqiyoti globallasuv jarayonlarining chuqurlashuvi, madaniy plyuralizm va texnologik inqilob bilan belgilanmoqda. Bunda milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni saqlab qolish, ularni zamonaviy taraqqiyot ehtiyojlariga moslashtirish muhim strategik vazifaga aylanmoqda. Amerikalik taniqli sotsiolog Ronald Inglehart ta'kidlaganidek, “iqtisodiy rivojlanish madaniy qiymatlarni yo'q qilmaydi, balki ularni transformatsiya qiladi va yangi sharoitlarga moslashtiradi” (Inglehart, 2018). Bu fikr milliy qadriyatlarning dinamik tabiati va ularning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi moslanuvchanligini ko'rsatadi.

XXI asr millatlarning ma'naviy-madaniy potentsiali asosida raqobat davri deb qarash mumkin. Garvard universitetining professori Samyel Xantington o'zining “Madaniyatlar to'qnashuvi” asarida ta'kidlaganidek, “kelajakdagi global siyosatda madaniy identiklik markaziy ahamiyatga ega bo'ladi” (Huntington, 1996). Bu tadqiqot milliy qadriyatlarga asoslangan taraqqiyot modelining dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar milliy qadriyatlarni saqlab qolish va zamonaviy taraqqiyot imperativlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy modernizatsiyani, balki ma'naviy-madaniy sohani rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Milliy qadriyatlar deganda jamiyat a'zolari tomonidan umumiy qabul qilingan, avloddan-avlodga o'tadigan ma'naviy-axloqiy me'yorlar, urf-odatlar, e'tiqodlar va madaniy an'analar tizimi tushuniladi.

Nemis faylasufi Maks Veber o'zining “Protestant etikasi va kapitalizm ruhi” asarida ta'kidlaganidek, “madaniy qadriyatlar iqtisodiy tizim va ijtimoiy strukturalarning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi” (Weber,

1905). Bu konsepsiya milliy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi sistemali rol o'ynashini ko'rsatadi. Milliy qadriyatlar quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

Ma'naviy-axloqiy me'yorlar jamiyatda qabul qilingan yaxshilik, adolat, sadoqat, mehr-oqibat, hurmat kabi universal qadriyatlarni ifodalaydi. Milliy madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlariga qaramay, barcha jamiyatlarda umumiy qadriyatlar ierarxiyasi mavjud. Biroq bu qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllari va ustuvorlik darajalari turlicha bo'lishi mumkin.

Tarixiy ong va madaniy xotira xalqning o'tmishi, qahramonlari, muqaddas joylari va tarixiy voqealariga nisbatan his-tuyg'ulari va munosabatlarini aks ettiradi. Ijtimoiy guruhlarining o'ziga xos xotirasi ularning identikligini shakllantiradi va kuchaytiradi.

Til va adabiy meros millat madaniyatining asosini tashkil etadi. Til inson fikrlash tarzini va dunyo qarashini shakllantiradi. Ona tilini saqlash va rivojlantirish milliy identiklikning asosiy omillaridan biridir.

Milliy qadriyatlarning funksional ahamiyati integratsion funksiya – jamiyat a'zolarini birlashtirish va ularning birlik tuyg'usini mustahkamlash; me'yoriy funksiya – ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini belgilash; motivatsion funksiya – shaxs va jamiyatning rivojlanishiga turtki berish; adaptatsion funksiya – yangi sharoitlarga moslashishda yo'l boshchilik qilish.

Ma'naviy meros deganda o'tmish avlodlar tomonidan yaratilgan va bugungi kunga etib kelgan barcha moddiy va nomoddiy madaniyat namunalari tushuniladi. YUNESKO ta'rifiga ko'ra, "ma'naviy meros jamoalar, guruhlar va ba'zan alohida shaxslarning o'z madaniy merosining bir qismi sifatida tan oladigan turli amaliyotlar, tasavvurlar, ifodalar, bilimlar va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi" (UNESCO, 2003).

Ma'naviy merosni saqlash va rivojlantirish zamonaviy jamiyatlarning barqaror rivojlanishida muxim omil hisoblanadi. Madaniy meros nafaqat o'tmishning yodgorligi, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim resursi hamdir". Ma'naviy merosga asoslangan iqtisodiyot turizm, hunarmandchilik, ijodiy industriyalar kabi sohalarni rivojlantirishga olib keladi.

Jahon bankining tadqiqotlariga ko'ra, ma'naviy kapital va madaniy merosni saqlash jamiyatning ijtimoiy barqarorligini 30-35% gacha oshiradi. Yangi Zelandiyaning maori madaniyatini tiklash dasturi natijasida bu xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari sezilarli yaxshilanganini misol qilib keltirish mumkin. 1980-yillardan boshlab amalga oshirilgan madaniy tiklanish dasturi maori tilini o'rganuvchilar sonini 10 barobar oshishiga, ishsizlik darajasining pasayishiga va jamoa rivojlanish ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga olib keldi.

Ma'naviy merosni rivojlantirish: Ta'lim va ilm-fan – ma'naviy merosni o'rganish, tadqiq etish va yangi avlodlarga o'tkazish; Madaniy industriyalar – an'anaviy san'at va hunarmandchilikni zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirish; Turizm – madaniy ob'ektlarni va ma'naviy merosni turistik destinatsiya sifatida targ'ib qilish; Axborot texnologiyalari – raqamli muhitda ma'naviy merosni saqlash va tarqatish.

Globallashuv jarayoni milliy qadriyatlar va ma'naviy merosga nisbatan ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, u turli madaniyatlar o'rtasida aloqa va almashinuvni kuchaytiradi, ikkinchi tomondan esa, madaniy gomogenlashuv va milliy o'zigaligini yo'qotish xavfini yuzaga keltiradi.

Globallashuv mahalliy madaniyatlarni yo'q qilmaydi, balki ularni yangi shakllarda qayta tuzilishiga olib keladi.

Yaponiyaning modernizatsiya tajribasi milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy rivojlanishga erishishning yaqqol misolidir. XX asrning ikkinchi yarmida Yaaponiya G'arb texnologiyalarini qabul qilish bilan bir qator o'z an'anaviy qadriyatlari – ishonchlilik, jamoaviylik, mehnatga hurmat, uzluksiz takomillashuv (kaydzen) – ni saqlab qoldi. Bu strategiya Yaaponiyani iqtisodiy qudratga aylantirdi.

Janubiy Koreya ham o'z taraqqiyot modelida konfutsiychilik qadriyatlarini zamonaviy innovatsion iqtisodiyot bilan muvofiqlashtirishga erishdi. Ta'lim, mehnatsevarlik, oila qadriyatlariga ustuvorlik berish mamlakatni global texnologik liderlaridan biriga aylantirdi.

Milliy qadriyatlarga asoslangan taraqqiyot

Ijtimoiy tarmoqlar, o‘zaro ishonch va mushtarak me‘yorlar iqtisodiy samaradorlik va demokratik boshqaruv uchun muhimdir. Milliy qadriyatlar – hamjihatlik, o‘zaro yordam, jamoaviylik – ijtimoiy kapitalning asosini tashkil etadi.

Milliy madaniyatga asoslangan kreativlik yangi g‘oyalar, mahsulotlar va xizmatlar yaratish manbai bo‘ladi. Kreativ sinf zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy kuchi hisoblanadi, va bu sinfning rivojlanishi madaniy muhit bilan uzviy bog‘liqdir.

Ta‘lim tizimi milliy qadriyatlarni yangi avlodga o‘tkazishning asosiy mexanizmidir. Singapurning ta‘lim tizimi milliy qadriyatlar (meritokratiya, ko‘p madaniyatlilik, pragmatizm) va global kompetensiyalarni muvofiqlashtirish orqali yutuqlarga erishdi. PISA (Programme for International Student Assessment) baholashiga ko‘ra, Singapur talabalari doimiy ravishda eng yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda.

Milliy qadriyatlarni rivojlantirishda davlat siyosatining roli muhimdir. Inklyuziv institutlar barqaror iqtisodiy o‘shishning asosidir. Madaniy institutlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lishi kerak.

Ma‘naviy merosni zamonaviy texnologiyalar yordamida saqlash va tarqatish muhimdir. Estoniyaning raqamli madaniy meros dasturi (digitallashtirish, onlayn platformalar) xalqaro miqyosda e‘tirof etilgan. Mamlakat o‘zining madaniy merosini to‘liq raqamlashtirdi va global kirish imkonini ta‘minladi.

O‘zbekiston boy tarixiy-madaniy merosga ega davlat bo‘lib, bu erda Markaziy Osiyoning eng buyuk allomalari, mutafakkirlari va siyosatchilari etishib chiqqan. Imom Buxoriy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk shaxslarning merosini saqlash va rivojlantirish O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga egadir.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu jarayon quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: Ma‘naviyat va ma‘rifat sohasini rivojlantirish:

Ma'naviyat va ma'rifat masalalariga davlat darajasida e'tibor qaratilmoqda. 2017-2021 va 2021-2026 yillarga mo'ljallangan "Ma'naviyat va ma'rifat" davlat dasturlari qabul qilindi [1]. Bu dasturlar kitobxonlik madaniyatini oshirish, tarixiy yodgorliklarni tiklash, milliy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan.

Ta'lim tizimini isloh qilish: Ta'lim tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish ustida ishlar olib borilmoqda. Yangi davr talablariga javob beradigan, global kompetensiyalarga ega, shu bilan birga milliy qadriyatlarni hurmat qiladigan yosh avlodni tarbiyalash maqsad qilib qo'yilgan.

Madaniy merosni saqlash va targ'ib qilish: Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarning me'moriy yodgorliklari tiklanmoqda. YUNESKO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan ob'ektlar xalqaro darajada targ'ib etilmoqda.

Turizmni rivojlantirish: Madaniy merosga asoslangan turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'iga aylanmoqda. O'zbekiston Buyuk Ipak yo'lining markazi sifatida o'z pozitsiyasini mustahkamlamoqda.

Biroq globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish qator chaqiriqlarni ham yuzaga keltirmoqda. Bu chaqiriqlarning asosiylari: yosh avlod orasida G'arb madaniyatining ta'siri ortishi; an'anaviy kasblarning yo'qolish xavfi; shaharlashuv jarayonida qishloq madaniyatining susayishi; raqamli texnologiyalarning an'anaviy qadriyatlarga ta'siri.

Milliy qadriyatlar va ma'naviy meros zamonaviy jamiyat taraqqiyotining mustahkam asosidir [2]. Globallashuv sharoitida milliy identiklikni saqlash va zamonaviy rivojlanish o'rtasida muvozanatni topish muhim strategik vazifadir. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, eng muvaffaqiyatli taraqqiyot modeli milliy qadriyatlarni saqlagan holda innovatsiyalarni qabul qilgan mamlakatlarda amalga oshirilgan. O'zbekiston uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

Ta'lim tizimida milliy qadriyatlar va global kompetensiyalarni integratsiyalashtirish: Ona tili, adabiyot, tarix fanlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o'qitishni takomillashtirish kerak.

Raqamli texnologiyalar orqali ma'naviy merosni saqlash: Virtual muzeylar, raqamli kutubxonalar, onlayn platformalar orqali ma'naviy merosni keng ommaga etkazish zarur.

Kreativ industriyalarni rivojlantirish: Milliy madaniyatga asoslangan kreativ bizneslarni qo'llab-quvvatlash, yosh ijodkorlarni rag'batlantirish kerak.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: Madaniy merosni xalqaro darajada targ'ib qilish, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish: Milliy qadriyatlar va ma'naviy meros bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni kengaytirish, ilmiy maktablarni shakllantirish muhimdir. Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosga asoslangan taraqqiyot modeli nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy taraqqiyot va milliy identiklikni mustahkamlashni ta'minlaydi. Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar O'zbekistonning barqaror rivojlanish yo'lidagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-evraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ILOVA

3. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). "Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty". New York: Crown Business.

4. Florida, R. (2002). "The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure, Community and Everyday Life". New York: Basic Books.

5. Giddens, A. (2000). "Runaway World: How Globalization is Reshaping Our Lives". New York: Routledge.

6. Halbwachs, M. (1950). "La mémoire collective". Paris: Presses Universitaires de France. 1. Huntington, S. P. (1996). "The Clash of

Civilizations and the Remaking of World Order”. New York: Simon & Schuster.

7. Inglehart, R. (2018). “Cultural Evolution: People’s Motivations are Changing, and Reshaping the World”. Cambridge: Cambridge University Press.

8. Putnam, R. D. (2000). “Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community”. New York: Simon & Schuster.

9. Sacco, P. L. (2011). Culture 3.0: A new perspective for the EU 2014-2020 structural funds programming. “European Expert Network on Culture Paper”.

10. Schwartz, S. H. (2012). An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values. “Online Readings in Psychology and Culture”, 2(1), Article

MA`NAVIY MEROSNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Turg'unboyeva Madina Xolmurza qizi,
Guliston Davlat Pedagogika Insituti magistranti.

Bugungi shiddatli globallashuv davrida insoniyat, asosan, moddiy yutuqlar, texnologik inqilob va iqtisodiy o'sish ortidan quvmoqda. Ammo, har bir qulaylik, har bir yangi texnologiya ortida ko'pincha jamiyatning ma'naviy ildizlari zaiflashishi xavfi yashirinadi. Moddiy farovonlikni ta'minlay olgan, ammo ichki qadriyatlari buzilgan jamiyat xuddi poydevori chirigan qasrga o'xshaydi – u har qanday kichik zarbadan qulashi mumkin. Shu nuqtai nazardan, bizning maqsadimiz – o'zbek xalqining boy ma'naviy merosi nafaqat tarixiy boylik, balki bugungi va kelajak taraqqiyotining mustahkam poydevori ekanligini anglatishdir.

Ma'naviy meros deganda, odatda, qadimiy qo'lyozmalar yoki muzeylardagi buyumlar tushuniladi. Biroq, bu tushuncha bundan ancha keng. U bizning axloqiy me'yorlarimiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, tilimiz, ilm-fan an'analарimiz va hatto turmush tarzimizni belgilovchi umumiy "ruhiy kod"dir[5]. Bu bizni boshqa millatlardan ajratib turadigan,

qonimizga singib ketgan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan ulkan madaniy kapitaldir. Bu meros shunchaki o'tmishga hurmat emas, balki jamiyatni ichidan sog'lomlashtiruvchi, uni yot g'oyalardan himoyalovchi va doimo oldinga chorlovchi kuchdir[3:45-bet]. Ushbu maqola orqali biz ma'naviy merosning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bevosita va bilvosita ta'sirini tahlil qilishni, uni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish yo'llarini ko'rsatib berishni maqsad qilganmiz.

Tarixiy xotira va milliy g'urur: Millatning kelajagi uning o'tmishga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Ma'naviy merosning eng muhim funksiyalaridan biri – bu tarixiy xotirani tirik tutish va milliy g'ururni shakllantirishdir. Al-Xorazmiyning algebrasi, Ibn Sinoning tib ilmi, Mirzo Ulug'bekning astronomik jadvallari yoki Alisher Navoiyning so'z mulkidagi beqiyos xazinasi – bular shunchaki ma'lumot emas. Bu – yosh avlodning o'z Vataniga, ajdodlariga bo'lgan ishonchini, o'zlik g'ururini oshiruvchi, "biz ham buyuk ishlarni qila olamiz" degan ruhiy kuchni beruvchi ulkan manba[1:15-bet]. O'zining tarixiy ildizlarini bilmagan avlod osonlikcha begona madaniyatlar ta'siriga tushib qoladi. Meros esa bu xavfga qarshi mustahkam ma'naviy "qalqon" vazifasini o'taydi.

Qadriyatlar tizimi: Ma'naviy meros, ayniqsa, oila va mahalla institutlari orqali jamiyatning asosiy axloqiy qoidalarini shakllantiradi. Bizning "mehr-oqibat", "saxovat", "oila muqaddasligi", "kattaga hurmat" kabi an'analarimiz shunchaki chiroyli odob qoidalari emas. Ular jamiyatdagi ijtimoiy kapitalning, o'zaro ishonchning asosidir. O'zbekistonda mavjud bo'lgan mahalla tizimi butun dunyo uchun noyob ijtimoiy birdamlik modelidir. Ma'naviy meros orqali shakllangan bu qadriyatlar jamiyatda totuvlik, o'zaro yordam va nizolarni kamaytirish muhitini yaratadi, bu esa har qanday demokratik va rivojlangan jamiyatning asosiy shartlaridandir.

Til va Adabiyot merosi: Til — bu shunchaki muloqot vositasi emas, balki millatning butun tafakkur tarzini, dunyoqarashini va ruhini o'zida mujassam etgan yagona omildir. O'zbek tili va uning boy adabiy merosi (Navoiy, Bobur, Furqat, Cho'lpon asarlari) ajdodlardan qolgan eng katta ma'naviy ne'matdir[7]. Bu merosni asrash – milliy o'zlikni saqlashning

asosiy shartidir. Zero, tili boy, adabiyoti kuchli millatning ma'naviyati Barqaror Taraqqiyotning Ma'naviy Omillari

1. Axloqiy Kapital: Ko'pchilik iqtisodiy rivojlanishni faqat moddiy resurslar bilan bog'laydi. Aslida, barqaror iqtisodiy o'sishning tagida yuqori axloqiy kapital yotadi. Ma'naviy meros orqali shakllangan halollik, mehnatsevarlik, mas'uliyat va so'zga turish kabi fazilatlar har qanday biznes etikasining asosini tashkil etadi. Korrupsiyadan xoli, shaffof va o'z ishiga vijdonan yondashadigan jamiyatgina uzoq muddatli iqtisodiy yutuqlarga erisha oladi[2]. Bu fazilatlar esa bizning ma'naviy merosimizda qadimgi Sharq hikmatlari va islomiy qadriyatlar shaklida mustahkam o'rin topgan.

2. Fuqarolik madaniyati: Demokratik jamiyat qurishning asosiy sharti – bu fuqarolik madaniyatidir. Ma'naviy merosimizdagi adolat, insonparvarlik, erkinlik va tenglik g'oyalari (masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ahmad Yassaviy asarlarida) bugungi fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda beqiyos ahamiyatga ega. Meros bizga shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirishni o'rgatadi[4:112-bet]. Ma'naviyatda mustahkam bo'lgan shaxs o'z huquqlarini biladi va o'z burchlarini sidqidildan ado etadi.

3. Ma'naviy xavfsizlik: XXI asrning eng katta tahdidlaridan biri – bu ma'naviy tahdid, ya'ni yot g'oyalar, ekstremistik mafkuralar va madaniy agressiya. Ma'naviy merosimiz – bu tashqi ta'sirlarga qarshi turish uchun eng kuchli immunitetdir. Ma'naviyatiga, qadriyatlariga va tarixiga sodiq bo'lgan xalq osonlikcha aldov va yolg'onlarga uchmaydi. Diniy-ma'rifiy merosimizdagi bag'rikenglik, ilmga intilish va mutaassiblikdan yiroqlik tamoyillari ekstremizmga qarshi eng samarali choradir[6].

Ma'naviy Merosni Zamoniylilik bilan Uyg'unlashtirish

Ma'naviy merosni avlodlarga uzatishning asosiy kanali ta'lim tizimidir. Lekin merosni o'qitish quruq faktlarni yodlashdan amaliy hayotga tadbiiq etishga o'tishi lozim. Talabalarga Ibn Sinoning tibbiy etikasini bugungi shifokorlar ishida, Al-Xorazmiyning mantiqini dasturlashda, Navoiyning insonparvarlik g'oyalarini esa rahbarlik san'atida qanday qo'llash mumkinligini o'rgatish kerak. Merosni faol bilim, ijodiy ilhom manbai sifatida qo'llash tizimi shakllantirilishi lozim.

Raqamli targʻibot: Axborot texnologiyalari ma'naviy merosni targʻib qilish uchun beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Qadimiy qoʻlyozmalarni raqamlashtirish, buyuk allomalar hayotini zamonaviy podkastlar va hujjatli filmlar orqali yoshlarga etkazish, milliy qadriyatlarga asoslangan mobil ilovalar va oʻyinlar yaratish zarur. Bu merosni yoshlarga ular tushunadigan tilda va ular foydalanadigan platformalarda taqdim etish imkonini beradi.

Mahalla va Oila instituti: Ma'naviy merosning mustahkamligi eng avvalo oiladan boshlanadi. Davlatning vazifasi — oila va mahalla institutini mustahkamlash, ularni ma'naviyat uzatuvchi asosiy maskan sifatida qoʻllab-quvvatlash[3:88-bet]. Oilada hikoyalar, ertaklar, urf-odatlar va bayramlar orqali beriladigan tarbiya hech qanday rasmiy ta'lim oʻrnini bosa olmaydi. Merosni asrash – bu avlodlar oʻrtasidagi aloqani mustahkamlashdir.

Xulosa: Maqolamiz davomida chuqur tahlil qilganimizdek, ma'naviy meros har qanday jamiyatning shunchaki oʻtmishdagi yodgorligi emas, balki uning bugungi va ertangi kuni uchun eng muhim strategik boylik hisoblanadi.

Birinchidan, ma'naviy meros milliy oʻzlikni anglashning mustahkam ildizi vazifasini bajaradi. Ajdodlarimizdan meros qolgan bebaho bilimlar, yuksak axloqiy me'yorlar, noyob madaniy amaliyotlar va til boyligi har bir fuqaroni yagona tarix, yagona Vatan atrofida birlashtiradi. Bu esa ichki birlikni, jipslikni va milliy gʻururni ta'minlashning asosiy kalitidir.

Ikkinchidan, ma'naviy meros jamiyatning axloqiy va ijtimoiy poydevorini shakllantiradi. Uning tarkibidagi insonparvarlik, adolat, mehnatsizlik va bagʻrikenglik kabi fundamental qadriyatlar yosh avlodni toʻgʻri yoʻlga boshlaydigan, ularning ongi va qalbiga ezgu niyatlarni singdiradigan kompas boʻlib xizmat qiladi. Ushbu qadriyatlarga asoslangan jamiyatda esa ijtimoiy barqarorlik, tartib va oʻzaro hurmat doimo ustun boʻladi.

Uchinchidan, merosdagi ulugʻ ajdodlarning ilm-fan, madaniyat va san'at sohasidagi buyuk yutuqlari hozirgi kunning innovatsion rivojlanishi uchun beqiyos ilhom manbaidir. Oʻz tarixiy ildizlarini chuqur anglagan va oʻz merosiga suyangan jamiyatgina oʻtmishdagi tafakkur yuksakligini

bugungi zamon talablari bilan uyg'unlashtirib, dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimov B. Milliy g'oya va ma'naviy yuksalish masalalari. – T.: Ma'naviyat, 2021.
2. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. – T.: Ma'naviyat, 2009.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022.
5. Quronov M. Ma'naviyat asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2017.
6. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimai va tafsiri. – T.: Sharq, 2004.
7. To'rayev B. Milliy meros va yoshlar tarbiyasi. // Ma'rifat gazetasi. – 2024 yil 15 mart.

MILLIY MEROS VA MA'NAVIY YUKSALISHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Eshankulova Ma'mura Davlatovna,

Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi

Milliy meros har bir xalqning tarixiy tajribasi, madaniy yodgorliklari, san'ati, urf-odatlarini, tili va yozuvi, xalq og'zaki ijodi, shuningdek, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan murakkab tizimdir. Bu meros millatning tarixiy xotirasi, o'zligini anglash manbai, hamda kelajak avlod uchun ma'naviy tayanch vazifasini bajaradi.

Globalashuv, raqamli texnologiyalar va madaniy xilma-xillikning kuchayishi sharoitida milliy merosni asrab-avaylash masalasi nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

UNESCO, ICOMOS, ICCHS kabi xalqaro tashkilotlar madaniy merosni “insoniyat sivilizatsiyasining umumiy mulki” sifatida e’tirof etib, uni asrash va yosh avlodga etkazishni barqaror taraqqiyotning ajralmas qismi deb biladi [9].

Prezident Sh.M. Mirziyoyev o‘z asarlarida bu masalaga alohida e’tibor qaratib, “Ma’naviyatni yuksaltirmasdan turib, hech bir jamiyatda haqiqiy taraqqiyot bo‘lmaydi”, deb ta’kidlaydi [2]. Shu nuqtai nazardan, milliy merosni o‘rganish va uni ma’naviy yuksalishning poydevori sifatida tadqiq etish zamonaviy O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega.

Milliy meros tushunchasining nazariy asoslari. Milliy meros tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, u moddiy (me’morchilik yodgorliklari, arxeologik topilmalar, san’at asarlari) va nomoddiy (til, marosim, urf-odat, xalq og‘zaki ijodi, diniy-ma’naviy qadriyatlar) shakllarni o‘z ichiga oladi. UNESCO 2003-yilda qabul qilgan “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konvensiyasi”da ushbu meros “avloddan avlodga o‘tadigan, xalqning ijodiy salohiyati va identitetini belgilovchi ma’naviy boylik” deb ta’riflanadi [6]. Milliy merosning falsafiy mohiyatini aniqlashda Aksiologiya (qadriyatshunoslik) yondashuvi muhim. Bu yondashuvga ko‘ra, ma’naviy qadriyatlar inson hayotining mazmunini belgilaydi, milliy meros esa bu qadriyatlarning tarixiy shaklga kirgan ifodasidir. Shu sababli, merosni asrash — bu nafaqat moddiy obidalarni saqlash, balki xalq ruhiyatini, ma’naviy kodini saqlashdir.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullar qo‘llanildi: Tahlil va sintez usuli – milliy merosning mazmuni, ma’naviy yuksalish bilan aloqasi haqidagi ilmiy adabiyotlar o‘rganildi. Tarixiy-tipologik tahlil – turli davrlarda merosning ijtimoiy funksiyasi va ma’naviy ahamiyati solishtirildi. Aksiologik yondashuv – qadriyatlarning milliy identitet va ma’naviy o‘rishga ta’siri aniqlanib, ularning tarbiyaviy roli tahlil qilindi. Empirik kuzatuv va sotsiologik tahlil – ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan so‘rovlar orqali yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabati o‘rganildi. Komparativ (taqqoslash) yondashuv – O‘zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan qiyoslandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari milliy meros va ma'naviy yuksalish o'rtasidagi o'zaro ta'sirni quyidagicha ifodalash imkonini berdi: Milliy meros — ma'naviy o'sishning asosi. Xalq o'z tarixini, tilini, madaniyatini chuqur anglagan sari, unda milliy iftixor, vatanparvarlik, ruhiy barqarorlik va o'zlikni anglash kuchayadi. Bunday anglash ma'naviy immunitetni shakllantiradi. I.A. Karimovning “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch” asarida qayd etilganidek, “milliy o'zlikni saqlagan xalqni hech qanday tashqi kuch enga olmaydi”[4]. Ta'lim tizimida milliy merosning o'rnini. Bugungi ta'limda milliy qadriyatlarni singdirish, ularni fanlararo integratsiya orqali o'qitish dolzarbdir. Masalan, tarix, adabiyot, musiqa, san'at, texnologiya fanlarida milliy meros namunalaridan foydalanish yoshlarning estetik didi va ma'naviy tafakkurini rivojlantiradi. 2022-yilda tasdiqlangan “Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish konsepsiyasi”da aynan shu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilgan [8]. Raqamlashtirish jarayonida merosni asrash. So'nggi yillarda O'zbekistonda “Merosimiz jahon e'tirofida” loyihasi, “Virtual muzeylar” platformasi va “Madaniy meros ob'ektlarini raqamlashtirish” dasturi orqali yuzlab tarixiy manbalar elektron shaklga o'tkazilmoqda. Bu nafaqat saqlash, balki global maydonda O'zbekiston madaniy boyligini targ'ib qilishga xizmat qilmoqda. Ma'naviy yuksalish – milliy o'zlikning natijasi. Ma'naviy yuksalish milliy merosga tayanadi. Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug'bek, Beruniy, Ibn Sino, Bobur singari allomalar asarlari xalqimiz ma'naviy tafakkurining ildizidir. Ularning merosini o'rganish yoshlar ongida ezgulik, tafakkur erkinligi, ilmga muhabbat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi [7].

Bugungi kunda milliy merosni asrash faqat tarixiy majburiyat emas, balki ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy zaruratdir. Chunki milliy meros – bu xalqning brendi, davlatning xalqaro nufuzini oshiruvchi omil. Masalan, Buxoro, Xiva, Samarqand kabi shaharlarning YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgani nafaqat tarixiy yodgorliklarni asrash, balki O'zbekistonning global madaniy muloqotdagi o'rnini mustahkamladi.

Ta'lim tizimida milliy merosni targ'ib etishning innovatsion shakllari (interfaol darslar, loyiha-metod, media-madaniyat, milliy qadriyatlar

festivallari) yoshlarni ijtimoiy faollikka undaydi. Shu orqali yosh avlodda “milliy meros – bu bizning kelajagimiz” degan tushuncha shakllanadi.

Bundan tashqari, raqamli madaniyat sharoitida merosni himoya qilishning yangi shakllari – “madaniy texnologiyalar”, “raqamli arxiv”, “interaktiv muzeylar” kabi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalishlarda xalqaro hamkorlik ham kengaymoqda.

Xulosa qilib aytganda, milliy meros xalqning o‘zligini saqlovchi, ma’naviy yuksalishning poydevorini tashkil etuvchi, jamiyatni birlashtiruvchi asosiy omildir. Uni o‘rganish, asrash va zamonaviy shaklda targ‘ib qilish – bu millatni ma’naviy yuksaltirishning eng muhim sharti.

Shunday ekan, har bir o‘qituvchi, olim, ziyoli va fuqaro milliy merosni qadrlash, uni yoshlar ongiga singdirish va xalqaro miqyosda tanitish yo‘lida faol bo‘lishi kerak. Bu orqali “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi faqat iqtisodiy emas, balki ma’naviy renessans shaklida ham ro‘yobga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev M. Milliy qadriyatlar va ma’naviyat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – B. 42–47.

2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 15–18.

3. Tursunov A. O‘zbek xalqining ma’naviy merosi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – B. 67–72.

4. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 28–33.

5. Qodirova N. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – B. 91–95.

6. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. – Paris, 2003. – P. 12–16.

7. Yusupov R. Sharq allomalari merosi va zamonaviy tafakkur. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 110–118.

MUSTAHKAM MA'NAVIY RISHTA JAMIYAT TARAQQIYOTINING POYDEVORIGA AYLANADI

Norqulov Aziz O'ktamqulovich,
*Alisher Navoiy nomidagi
O'zbek tili va adabiyoti universiteti
magistranti.*

Bir qarasang ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotida u qadar ahamiyati yo'qdek tuyuladi. Bundan 500 yil, hatto ming yil avval yashagan insonning mulohazalari qanday qilib, bugungi kunga mos kelsin. "Tezkor" zamonda kechagi gap bugungi kunga to'g'ri kelmay qolayotgan bo'lsa.

Dunyo ko'rgan tanishlarimdan birining o'xshatishicha: "Neksiyadagi qurilma jiguliga to'g'ri kelmaydi yoki aksincha. Bugungi kun bilan yashash kerak..."

Do'ppini boshdan olib, ozgina mulohaza yuritsak, bu fikrning qanchalar xato ekani yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuqoridagi kabi o'xshatishlar bilan asosiy tayanchni, poydevorni, o'zakni ajratib, uzib qo'yayotganga o'xshaymiz. Zotan, biz fikran qamchilamasak ham oramizda ma'naviy merosdan ayro yashayotgan muayyan avlod paydo bo'ldi. Turgan gapki ular jamiyat taraqqiyotini jadallashtirish tugul tushovga aylanishi ehtimoli katta.

Shuning uchun bolani yoshligidan maqsadli yo'naltirish muhim. Besh yashar jiyanim televizorda ko'rsatilayotgan serialning qaerda tugaganini tushuntirish uchun boshdan oyoq gapirib berganida, rosti, ajablandim. Alifbeni, karra jadvalini o'rganishdan avval xorijiy seriallarning ta'siriga tushib qolgan, ularga qiziqish bilan yondashayotgan yosh o'g'il-qizlar bilan bolaligimiz orasida sezilarli tafovut bor. Bu kabi hayrat avlodlar silsilasida biridan ikkinchisiga o'tib kelayotgandek tuyuladi.

Taraqqiyotga esh bo'lib, insonlarning dunyoqarashi, o'ziga xos "matematikasi" (hisob-kitobi) o'zgarib turishi sir emas. Shu bois, yoshlardan nolish balki eramizdan avval boshlangan, deya taxmin qilishga asos bordek. Katta avlod vakillari bizdan, biz esa yoshi kichiklardan o'rtada nomuvofiqlik paydo bo'layotganini ta'kidlab yashaymiz.

Bu xususda umumta'lim maktabidagi ustozim Abdusalom Qo'shboqovning mulohazalari meni yana yangi savollarga javob qidirishga undadi: "Insoniyat tarixini ramzan bir butun daraxtga qiyoslasak bo'ladi. Zero, ajdodlar qoldirgan meros biz uchun ildiz vazifasini o'taydi. Shu ulkan ma'naviy boylikdan bahra olib, unib-o'samiz, ulg'ayamiz. Muhimi, komillikka erishishimiz darajasi shu xazinadan qanchalik bahra olishimizga bog'liq. Bu jihatdan o'qituvchi-murabbiylar, ota-onalar, nuroniy keksalarning vazifasi yanada mas'uliyatli. Ular novdayu yaproqlarga ildizdagi quvvatni etkazib beruvchi tana vazifasini bajaradi. Yosh avlod kamoli shunga vobasta. Shu o'rinda bu vazifa qanchalik darajada ado etilayotgani bizga mas'uliyat yuklab turganini hech qachon unutmasligimiz kerak".

Aslida, ILDIZlarimiz faxrlansak arziydigan darajada baquvvat! Ulug'allomalarimizni sanaydigan bo'lsak, ming urinmang biri olinsa, ikkinchisi qolib ketaveradi. Biroq, yurak yutib bir ko'z oldimizga keltirib ko'raylikchi, ulardan qaysi birining siymosi, ijodi va faoliyatining hech qursa xayolimizdagi eskizini yarata olamiz. Qaysi biridan o'rnak olib, nuqsonlarimizni bartaraf etishga harakat qilayapmiz.

Xitoyliklarda "Eshikning zanjiri qimirlab turgani uchun zanglamaydi", degan naql bor. Bu so'zning zamirida doimiy faoliyatga undovchi hikmat yashirin. Shu o'rinda ilm o'rganayotgan, izlanishdan charchamaydigan, mutolaaga muhtalo bo'lgan yoshlarimizning yutuqlarida ma'naviy zahiramiz jilolanib turishini ta'kidlash lozim. Ular istiqloldan so'ng bir necha yillardan buyon qatlanib yotgan ulkan ilmiy, tarixiy va ma'naviy merosimizni tadqiq etishga astoydil kirishganlar.

Hazrat Alisher Navoiy bobomizning "Nasoyim ul-muhabbat" asarini olaylik, birgina shu asarning o'zi agar sidqidildan mutolaa qilib, qalbimiz va ongimizga singdirib, amal qilsak, jamiyat taraqqiyotining poydevori bo'lishga kifoya qiladi.

Ma'naviy kamolot, so'fiylik va muhabbat falsafasiga bag'ishlangan tazkirada 770 dan ziyod avliyo, shayx va so'fiylarning hayoti va ma'naviy faoliyati haqida ma'lumot berilgan. Ular bilan yuzma-yuz kelayotgan kitobxon satrlarosh o'zini topib, o'zligini anglab boradi. Ko'rib turganimiz

real hayotdan ma'naviy olamga yo'l ochiladi. Taqvoni saqlagan holda o'qigan har qanday o'quvchi poklanib, nafaqat jinoyat va turli noxush ishlardan saqlanadi, balki beixtiyor ezguliklar qilishga oshiqadigan, duch kelgan muhtoj odamga nima qilib bo'lsa ham yodram berishga intiladigan chin insonga aylanib boradi.

Asar ALLOH taoloning nazdida qul bilan podshohning bir qiymatda ekanini, taqvodor bo'lsa qulning darajasi yuqoriligini qalbingizga singdirib boradi. Xoja Xayrcha bir qul edi. Ul o'qisa, har kim shifo topardi. Uning mashhur so'zi bor: "Sen ko'nglingni tuzat!" Ya'ni kaloming ta'sirli bo'lishi uchun avvalo qalbing pokiza bo'lishi lozim. [1]

Asarni o'qirkansiz, qalban dunyoni tark etib, O'zini topayotgan avliyolar bilan birga ilohiyot olamida sayr qilasiz. Dunyoning o'tkinchi tashvishlaridan chekingandek, ALLOH taologa qurbat hosil qilgandek bo'lasiz, bora-bora sizga ham ilohiy imkoniyatlar bo'y ko'rsata boshlaydi.

Tazkirani o'qimay qo'ysangiz yuraverasiz, toki mutolaani boshlasangiz ulug' bir ne'matdan mahrumiyatda, uloqib yurganingizni his qilasiz. Sahifalar ma'naviy olamga, ilohiy dunyoga tortqilayveradi. Undagi har bir hodisaning mag'zini chaqqaningiz sari olamni, odamni kashf qilaverasiz.

Qahramonlarning birortasi badiiy asar mahsuli emas. Ularning har biri shu hayotda yashab o'tgan, uning iztirob va mashaqqatlarini el qatori tortgan. Ko'p riyozatlar mahsuli o'laroq komil inson, ulug' avliyo bo'lib etishgan. Aksariyat hollarda oddiy insonlar dosh bermaydigan mashaqqatlarga sabr qilgan.

Tazkira har doim ham o'zini, sirlarini ochavermaydi. Buning uchun inson ma'nan pok bo'lishi, qalban tayyorgarlikdan o'tishi kerak. Ana undan keyin sinoatlar birin-ketin bo'y ko'rsatadi.

Gapimiz isboti uchun, Navoiyshunos olima, professor, O'zbekiston Qahramoni Suyima G'anieva(marhum)ning fikrlarini yodga olaylik: "Ilmiy merosimiz va qadriyatlarimizni tiklash davlat masalasi darajasiga ko'tarilganligi ziyolilarimiz zimmasiga yanada mas'uliyatliroq vazifalarni yukladi. O'tmishni bilish hozirgi kunni idrok etish, kelajakka qanday umid bog'lash kerakligini o'rgatadi. Kitoblardan, me'moriy obidalarimizdan,

olimlarimizning pandu nasihatlaridan biz shuni uqamiz. Bobokalonimiz Alisher Navoiy salaflarining yozganlarini, ular qoldirgan ulkan ma'naviy merosni o'zida mujassamlashtira olganligi bois, adabiyotda, madaniyatda, ilmda nihoyat darajada yuqori mavqeda bo'ldilar. Ahamiyatlisi, o'zidan keyingilarga ham juda katta ta'sir ko'rsatdi. Sharqning biron shoiri yo'qki, 16 xil lirik janrda ijod qilgan bo'lsa. Nazarimda, Navoiy ijodida aytilmagan so'z, qalamga olinmagan masala, muammo qolmagan.

Maqsud Shayxzoda "She'rsiz yurakka men achinaman", deya bot-bot takrorlardilar.

Erkin Vohidov yozgandiki: "Navoiy ijodidan faloncha g'azalni yod bilmagan yosh bo'lmasligi kerak bizda". Bu mulohazalar shoirlarning shoirona shuur bilan aytgan gapi emas, aksincha, mumtoz adabiyotdan bahra olib, dard bilan, armon bilan aytganlaridir. Navoiydek, Boburdek, Ibn Sinodek, Forobiydek adib, shoir, olimlarimizning asarlarini yil davomida o'rganib borishimiz, targ'ib va tashviq qilishimiz shart. Maktab darsliklarimizda mumtoz adabiyotga ko'proq soatlar ajratilgani quvonchli hodisa bo'ldi. [2]

Kanadadan kelib Navoiyni, Angliyadan kelib Ahmad Yassaviyni o'rganishayotgan bir paytda, "Den Valentin"ni nishonlayotganlarni uchratsam, ranjib ketaman. Boburdagi muhabbat yuz mingta Valentinning muhabbatidan ustun. Shunday ekan, nega biz Boburning muhabbatini unutib, allaqanday Valentinnikini nishonlaymiz. Yoshlarning intilishlarini qo'llab-quvvatlash, harakatlarini rag'batlantirish kerak, shunday bo'lsa-da Boburni surib tashlab Valentinga ergashadigan yoshlarni ma'naviy ildizlardan uzilib qolgan deyish mumkin.

Turli yoshlilar orasidagi ma'naviy tafovut, yoshlikni behuda ishlarga sovrish to'g'risida gap ketganda I.Krilovning "Ninachi va chumoli" to'g'risidagi masali yodga tushadi:

... Ninachi sho'x
o'ynab, chaldi soz,
Sayllarda o'tdi
go'zal yoz,
Gulzorlardan

kelay demadi,
Qish g'amini
sira emadi...

Vaqt o'tib qish eshik qoqqanda, keksalik etib kelganida, bosh devorga urilganida mulohaza yurita boshlashimiz behuda bezovtaliklarni keltirib chiqaradi, xolos. Chunki, bu fursatda vaqt allaqachon o'z hukmini chiqarib qo'ygan bo'ladi. Shunday ekan, ildizdagi zahiralarini etkazib berish VAZIFAlari qanchalik darajada ado etilayotganligi xususida ko'proq bosh qotirishimiz kerak.

Bu xususda, adabiyotshunos Sultonmurod OLIM quyidagicha fikr bildirgan: "Milliy meros va unga munosabat masalasi murakkab va ko'pqirrali. Mirzabahrom Soliev degan tarjimon bo'lar edi. O'zbek mumtoz adabiyotidagi lirik janrlar taraqqiyoti haqidagi doktorlik dissertatsiyasida keltirilgan she'riy parchalarni rus tiliga o'girishda juda qiynalibdi. Eski o'zbek tilini yoshi ulug' kishilar yaxshi biladi, deb hisoblab, keksa qalamkashlarning bir nechasidan yordam so'rabdi, hammalaridan «tishimiz o'tmayapti» degan javob olib, hafsalasi pir bo'libdi. Kimdir: «Siz bilan bir xonada o'tirib ishlaydigan falonchidan o'tadigani yo'q bu masalada», — debdi. «Axir u hali o'ttizga ham kirmagan yigit bo'lsa, eski o'zbek tilini qaerdan bilsin?» — debdi tarjimon. Sinash uchun ko'rsatgan ekan, baytlar mazmunini, ulardagi nozik ifodalar ma'nosini shart-shart aytib tashlayveribdi...

Demak, meros merosligicha turaveradi. Uni o'rgansang, seniki bo'ladi. O'sha yosh yigit maxsus o'rgangan, lug'at titgan.

Milliy meros bizga kamida ikki ma'noda kerak.

Birinchisi. Dunyo xalqlarining obro'yi bashariyat tamadduniga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi. Shu ma'noda, biz hech kimdan kam emasmiz. Ochig'i, boshqalar har qancha havas qilsa ham arziydi. Tabiiy fanlar, adabiyot, san'at, ma'naviyat, din, davlatchilik bo'yicha ham shu qadar katta merosga egamiz. Bu bizga faxr va g'urur bag'ishlaydi, yana o'sha darajalarga ko'tarilishga undaydi.

Ikkinchi. Shu merosni o'qib, o'rganib, bugunning koriga yaratish kerak. Jahon maydonida bo'y ko'rsatib turgan xalqlarning aksariyati

taraqqiyotini milliy merosi poydevoriga qurgan. Bunga alohida urg‘u berayotganimiz bekorga emas. Mustamlaka davrida millatni o‘z ildizlaridan uzib qo‘yish uchun ko‘p harakatlar bo‘ldi. Yutqizgan erimiz ham oz emas. Endi ikki-uch hissa kuch sarflab, o‘zlikni anglashimizga to‘g‘ri kelayapti.

Bu ikki masala bo‘yicha ham mustaqillik yillarida juda katta burilish yuz berdi. Biroq hali qilinadigan ishlar ko‘p. Aytaylik, Alisher Navoiy — eng buyuk shoirimiz, millatning ma’naviy piri. Umumta’lim maktablarida uning hayoti va ijodini o‘rganishga ham eng ko‘p soat ajratilgan. Ommaviy axborot vositalarida bu ulug‘ zot haqida so‘z yuritilmagan kun kam. San’atimizning biror turini uning ijodi ta’sirisiz tasavvur eta olmaymiz. Shunga qaramay, tan olaylik: Navoiy haqida nimalar bilishimiz so‘ralsa, necha varaq yozib berishimiz mumkin? Yoxud hammamiz Ibn Sino, Beruniy, Bobur bilan faxrlanishimiz kerakligini bilamiz, biroq ularning deylik qabri aynan qaerda ekani haqida hammamiz ham aniq ma’lumotga egamizmi? Ularning asarlarini o‘qigan ko‘pmi yoki o‘qimagan? [3]

Xulosa shuki, millatning o‘zlik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, uning boshqalarga ko‘r-ko‘rona ergashishi, ayniqsa, yot g‘oyalarga berilish darajasi shuncha pasayadi.

Adabiyotshunos olim, O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurovni ham shu kabi xavotir bezovtalikka solgan: “Rostdan, hozir Vergiliyni kim o‘qiydi? Kim o‘qiydi hozir Xomerni? Danteni o‘qiyotgan bironta mardi maydon bormi? Ularmi? Faqat ularmi? Navoiyni kim o‘qiydi hozir?”

Ichimda o‘tirgan allakim menga shunday noxush savollar beradi. Uning savollarining o‘zida javob borga o‘xshaydi. Haqiqatdan ham, ularni hozir birov qidirib o‘qiydimi? Shularni o‘qimasam, bilmasam, dunyoda tirik yurganim bekor degan o‘z-o‘ziga pisanda bilan qo‘lga oladimi? Ichimda o‘tirgan shubhakor shaxs bilan tortisha boshlayman...” [4]

Ibrohim G‘afurov “Xamsa”ni uchinchi marotaba mutolaa qilib chiqqanini yozibdi. Nega biz shoshilmayapmiz?! Axir, yosh o‘tgandan keyin nadomatda qolishimizni, o‘zgalar tilidan, boshidan kechirganlar iqrorida anglab turibmizku. Mana ellik yoshdan oshib, oltmishni qoralayotgan yana bir ahli ilmning iqrori: “Shu paytgacha faqat Navoiyni

o'qiyversak ham bizga etar ekan. Bebaho xazinadan quruq qolganligimni ana endi anglab turibman".

Masalaning mohiyati ana shu erdaga o'xshayapti. Toki biz tarixiy merosimizni o'qib, o'rganib, o'zlashtirib, hayotimizga tatbiq etib borar ekanmiz, uzoqlashish emas, yaqinlik hosil bo'laveradi. Chunki ularning ma'naviy asosi, ildizi yagona nuqtada umumlashib, uyg'unlikni ta'minlaydi. Vaqt, e'tibor, mehr-muhabbatimizni buyuk maqsadlar sari yo'naltira olsak, qiziqish va intilishlarimiz maqsadlar manziliga eltadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. – T.: Fan, 1983.
2. G'aniyeva, S. Navoiyning badiiy mahorati. — Toshkent: Fan, 1983.
3. Olim S. M. «Naqshband va Navoiy». — Toshkent: O'qituvchi, 1996.
4. G'afurov I. «Dil erkinligi: hikoyalar, mansuralar, badialar, adabiy maqolalar». — Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2022.

MA'NAVIY TARBIYA VA SUN'IY INTELLEKT: MA'NAVIY TARBIYA UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION ASOSI

Saodatova Lola Musurmonovna,
Mustaqil tadqiqotchi

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotining eng muhim belgilaridan biridir. U inson faoliyatining barcha jabhalariga – ishlab chiqarish, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, kommunikatsiya, hatto ma'naviy tarbiya sohasiga ham chuqur kirib keldi. Dastlab inson mehnatini engillashtirish va texnik jarayonlarni avtomatlashtirish maqsadida yaratilgan sun'iy intellekt bugungi kunda ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuchga aylangan. Virtual muhit, algoritmik fikrlash tizimlari va raqamli axborot oqimlari orqali insonning dunyoqarashi, qadriyatlari va axloqiy me'yorlariga bevosita ta'sir ko'rsatib,

sun'iy intellekt tizimlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual qobiliyatlariga mos ravishda bilim berish, interaktiv muloqotni tashkil etish hamda shaxsiy rivojlanish monitoringini olib borish imkonini yaratdi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar tarbiyaviy jarayoniga ham yangi yo'nalishlar va g'oyalarni olib kirdi. Sun'iy intellekt yordamida insonparvarlik, halollik, mas'uliyat kabi qadriyatlarni virtual muhitda modellashtirish, axloqiy tanlovlarni o'rgatuvchi raqamli platformalar yaratishni oson jarayonga aylantirdi.

Biroq bu jarayonning ikkinchi tomoni ham mavjud – sun'iy intellekt tizimlari inson ongiga sun'iy standartlarni singdirish, individual tafakkurni chegaralash, axloqiy relativizm va iste'molchilik ruhiyatini kuchaytirish xavfini tug'diradi. Shuning uchun sun'iy intellektning ijtimoiy ong va ma'naviy qadriyatlarga ta'sirini baholash falsafiy jihatdan chuqur tahlilni talab etadi. Natijada, bu texnologiyalarni inson ma'naviyatiga moslashtirish, ularni tarbiyaviy jarayonlarda konstruktiv tarzda qo'llash zamonaviy ijtimoiy falsafa oldida turgan dolzarb masalaga aylandi. Ma'naviy tarbiya – bu inson ongida axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, ezgulik, vatanparvarlik, bag'rikenglik, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlash jarayonidir. U shaxsni jamiyatning ma'naviy-axloqiy me'yorlari asosida kamol toptirish, uning ichki dunyosini boyitish va hayotiy qarashlarini yuksaltirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik, ijtimoiy hamda madaniy faoliyat tizimini anglatadi. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, ma'naviy tarbiya insonning “ichki olami”ni, ya'ni ong, tafakkur va e'tiqodning uyg'unligini rivojlantiruvchi asosiy omildir.

Jamiyat hayotida ma'naviy tarbiyaning o'rni beqiyosdir, chunki u shaxsni faqat bilim bilan emas, balki maqsadli, mas'uliyatli va g'oyaviy jihatdan barkamol inson sifatida shakllantiradi. “Inson o'z hayot faoliyatini nafaqat moddiy manfaatlar asosida, balki ma'naviy-axloqiy tamoyillar orqali yo'naltira olganida, jamiyatda barqarorlik, o'zaro ishonch va ijtimoiy uyg'unlik qaror topadi”[1]. Shu boisdan ma'naviy tarbiya milliy mafkura va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi, jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ma'naviy tarbiya jarayonida

uchta asosiy yoʻnalish muhim ahamiyat kasb etadi: birinchidan, axloqiy ongni shakllantirish, yaʼni insonning yaxshilik va yomonlikni farqlash qobiliyatini rivojlantirish; ikkinchidan, maʼnaviy his-tuygʻularni tarbiyalash, yaʼni mehr-shafqat, hamdardlik, vijdon, sadoqat kabi hislarning mustahkamlanishi; uchinchidan, maʼnaviy faoliyatni tashkil etish, yaʼni oʻz axloqiy eʼtiqodlariga muvofiq harakat qilish koʻnikmalarini shakllantirish. Bu jarayonning muvaffaqiyati oilaviy muhit, taʼlim tizimi, ommaviy axborot vositalari, diniy-maʼrifiy institutlar va madaniy muassasalarning uygʻun hamkorligiga bogʻliq.

Raqamli jamiyatda insonning maʼnaviy tarbiyasi masalasi tobora murakkab ijtimoiy voqeilikka aylandi. Chunki bugungi kunda texnologiyalar nafaqat ijtimoiy munosabatlar shaklini, balki shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari va eʼtiqod tizimini ham tubdan oʻzgartirib yubordi. “Maʼnaviy tarbiya – bu insonni axloqiy jihatdan etuk, ijtimoiy masʼuliyatli, vatanparvar va insonparvar etib shakllantirish jarayoni boʻlib, raqamli makonda bu jarayon koʻplab sinovlarga oldida turibdi”[2]. Ushbu muammolar orasida eng dolzararlari sifatida individuallikning oʻzgarishi, virtualizatsiya jarayoni va eʼtiqod hamda qadriyatlar inqirozi keltiriladi.

Individuallik muammosi raqamli jamiyatda insonning oʻzligini anglash va ifoda etish shaklining oʻzgarishi bilan bogʻliq. Avvalgi davrlarda shaxs oʻzining individualligini real ijtimoiy tajriba, madaniy muhit va muloqot orqali shakllantirgan boʻlsa, bugungi kunda bu jarayon koʻp jihatdan raqamli makon – ijtimoiy tarmoqlar, sunʼiy intellekt asosidagi tizimlar, virtual oʻyinlar va onlayn jamoalar orqali amalga oshib, insonning oʻz “men”ini ifoda etish uslubi soddalashib, koʻpincha tashqi tasvir va “imij”ga asoslanib qoldi. Raqamli platformalarda oʻzini namoyish etish istagi, “layklar” va “obunachilar” soni orqali baholanish jarayoni shaxsning haqiqiy individualligini soxtalashtiradi. Bu esa insonni ichki maʼnaviy dunyosidan uzoqlashtirib, shaxsiy masʼuliyat va oʻz-oʻzini anglash darajasini pasaytiradi.

Virtuallashuv jarayoni esa inson hayotining tobora koʻproq qismi raqamli muhitga koʻchib oʻtayotganini bildiradi. “Bugungi kunda taʼlim, mehnat, ijtimoiy muloqot va madaniy faoliyatning koʻplab turlari virtual

shaklda amalga oshirilmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, qulayliklar yaratadi, biroq ikkinchi tomondan, insonning real hayotdagi ijtimoiy aloqalarini zaiflashtiradi. Virtual muloqotda hissiy aloqa, samimiyat va empatiya kabi ma'naviy komponentlar kamayadi"[3]. Natijada insonlar orasida begonalik, befarqlik va individualizm kuchayadi. Virtual makonda yuz berayotgan "axborot to'liqligi" inson tafakkurining tanqidiyligini pasaytiradi, fikrning yuzaki bo'lishiga olib keladi. Shu sababli, ma'naviy tarbiyada insonni real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarga qaytarish, axborot oqimiga tanqidiy yondashish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanib qoldi.

E'tiqod va qadriyatlar inqirozi esa raqamli jamiyatning eng chuqur ma'naviy muammolaridan biridir. Axborot muhitida turli mafkuralar, diniy va madaniy qarashlarning to'qnashuvi natijasida an'anaviy qadriyat tizimlari zaiflashib, global axborot maydoni orqali yoshlar g'arbona hayot tarzi, iste'molchilik madaniyati va individualistik qadriyatlar ta'siriga ko'proq duch kelmoqda. Bu esa milliy-ma'naviy identifikatsiyani susaytiradi, e'tiqod va axloqiy mezonlarda nisbiylikni kuchaytiradi. Raqamli muhitda "haqiqat" tushunchasi ham muammoli tus olgan: yolg'on axborot, manipulyatsiyalar, "feyk" kontentlar insonning ma'naviy dunyosini izdan chiqaradi. Shuningdek, sun'iy intellekt va algoritmik boshqaruv tizimlarining kengayishi insonning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Agar ilgari e'tiqod va axloq insonning ichki tajribasiga asoslangan bo'lsa, bugungi kunda bu jarayon ko'p hollarda algoritmik tavsiyalar va raqamli platformalar tomonidan boshqarilmoqda. Shu sababli, ma'naviy tarbiya jarayonida insonni mustaqil fikrlash, tanlovlarida axloqiy mezonlarga asoslanish, raqamli manipulyatsiyalarni anglay olishga o'rgatish zarur.

Raqamli jamiyatda ma'naviy tarbiya yangi mazmun va metodologik yondashuvni talab qilmoqda. "Individuallikni texnologik omillardan himoya qilish, virtualizatsiya ta'sirida insoniy aloqa va hamjihatlikni tiklash, shuningdek, e'tiqod va qadriyatlar tizimini raqamli axborot muhitida barqarorlashtirish zamonaviy ma'naviy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim"[4]. Shu yo'l bilan raqamli jamiyatda

insonning ma'naviy barkamolligini saqlab qolish va rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi. Zamonaviy davrda ma'naviy tarbiya jarayoni insonning ichki dunyosi va tashqi ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yangicha falsafiy asoslarda tahlil etish muhimdir. Chunki global axborotlashuv, raqamli transformatsiya, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi shaxsiy ong hamda ijtimoiy axloqning shakllanish mexanizmlarini o'zgartirdi. Endilikda ma'naviy tarbiya faqat an'anaviy axloqiy me'yorlarni o'rgatish emas, balki insonning o'zini anglash, jamiyatdagi o'rnini belgilash va raqamli muhitda axloqiy mas'uliyatni saqlab qolish jarayoniga aylandi.

“Shaxsiy ong tushunchasi ma'naviy tarbiya kontekstida insonning o'zligini, ichki e'tiqodini, maqsad va qadriyatlarini anglash qobiliyatini bildiradi. U shaxsning axloqiy qarorlarida, dunyoqarashida va ijtimoiy xulqida hal qiluvchi o'ringa ega”[5]. An'anaviy jamiyatda shaxsiy ong ko'proq diniy, madaniy va oilaviy qadriyatlarga tayanib shakllangan bo'lsa, bugungi raqamli davrda bu jarayon individual tajriba va axborot oqimi ta'siri ostida yuz bermoqda. Inson o'z hayotiy pozitsiyasini turli manbalar – ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar, global madaniyat mahsulotlari orqali shakllantiradi. Natijada shaxsiy ongda ko'p qirrali, ammo ziddiyatli tendensiyalar vujudga kelib: bir tomondan, mustaqil fikrlash va erkin tanlov qadriyatlarini kuchaytirdi, ikkinchi tomondan esa, ma'naviy nisbiylik, axloqiy befarqlik va shaxsiy manfaatparastlik holatlari ortishiga olib keldi.

Zamonaviy ma'naviy tarbiya shaxsiy ongni faqat axloqiy me'yorlarga bo'ysundirish emas, balki uni ongli ravishda shakllantirish, insonni o'z tanlovlari uchun javobgar bo'lishga o'rgatish jarayoniga aylanishi lozim. Chunki raqamli muhitda insonni tashqi axborot oqimlari, reklama, ommaviy madaniyat yoki virtual manipulyatsiyalar tezda o'z ta'siriga oladi. Shu bois shaxsiy ongning yangi talqini – bu tanqidiy tafakkur, axborot madaniyati va axloqiy refleksiya asosida shakllangan ongdir. U insonni har qanday ijtimoiy-texnologik bosimga qarshi turishga, o'z qadriyatlarini ongli ravishda tanlashga undaydi. Ijtimoiy axloq esa jamiyatning barqarorligi va hamjihatligini ta'minlovchi axloqiy munosabatlar tizimi sifatida qayta ko'rib chiqilmoqda. Globallashuv va raqamli

kommunikatsiyalar sharoitida ijtimoiy axloq endi faqat milliy yoki mahalliy me'yorlarga asoslanmaydi, balki global axloqiy me'yorlar – inson huquqlari, tinchlik, ekologik mas'uliyat, kiberaxloq kabi yangi tamoyillar bilan boyib boraveradi. Shu jihatdan, ma'naviy tarbiya endi insonni faqat jamiyatga moslashtirish emas, balki uni global fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi ijtimoiy axloqning muhim belgilaridan biri – virtual axloq tushunchasidir. Internet va sun'iy intellekt davrida inson xulqi ko'plab holatlarda raqamli makonda namoyon bo'ladi. Shu bois ma'naviy tarbiya jarayonida "axloqiy mas'uliyat" endi nafaqat real hayotdagi xatti-harakatlarga, balki onlayn faoliyatga ham tatbiq etilishi zarur. Raqamli makonda so'z erkinligi bilan bir qatorda, axborot madaniyati, shaxsiy hayot daxlsizligi va kiberaxloq qoidalariga rioya etish ham ijtimoiy axloqning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Shaxsiy ong va ijtimoiy axloqning yangi talqinlari o'zaro uzviy bog'liq. Shaxsiy ong mustaqil va axloqiy fikrlashga asoslanmas ekan, ijtimoiy axloq yuzaki shaklda qoladi. Aksincha, ijtimoiy axloqning umumiy me'yorlari shaxsiy ongda ichki e'tiqod sifatida aks etmasa, jamiyatda ma'naviy barqarorlikka erishib bo'lmaydi. Shu sababli, ma'naviy tarbiya jarayonida shaxsiy va ijtimoiy darajalarning o'zaro uyg'unlashuvini ta'minlash – zamonaviy pedagogika va falsafaning eng muhim vazifasidir. Endilikda inson faqat jamiyatga moslashuvchi emas, balki uni axloqiy jihatdan yangilovchi subyekt sifatida shakllanishi lozim. Shaxsiy ongni mustahkamlash, ijtimoiy axloqni global va virtual muhit sharoitida qayta mazmun bilan boyitish – bu raqamli sivilizatsiya sharoitida ma'naviyatni saqlash va rivojlantirishning asosiy garovidir.

Zamonaviy davrda insoniyat hayoti tobora raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va axborot oqimlari bilan chambarchas bog'lanib qoldi. Bu jarayon jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ta'lim va madaniy hayotida ijobiy o'zgarishlar keltirib chiqargan bo'lsa-da, ma'naviy tarbiya jarayonida inson omilining zaiflashuvi xavfini ham yuzaga keltirib chiqardi. "Ma'naviy tarbiya mohiyatan insonni barkamol shaxs sifatida shakllantirish, unda axloqiy, estetik, ijtimoiy va ruhiy etuklikni rivojlantirishga qaratilgan murakkab jarayondir"[6]. Shu bois bu jarayonda

texnologik vositalar, metodlar yoki raqamli platformalar vositachilik qilishi mumkin, biroq markazda doimo inson omili turishi muhim hisoblanadi.

Ma'naviy tarbiya insonning o'zini anglash, hayot mazmunini topish va jamiyatdagi mas'uliyatini his qilish jarayonidir. Agar bu jarayon inson omilisiz – faqat texnik yoki algoritmik yondashuv asosida amalga oshirilsa, tarbiyaning insonparvarlik mohiyati yo'qoladi. Sun'iy intellekt, raqamli o'qituvchilar yoki avtomatlashtirilgan dasturlar axborot berishi, fikrlash jarayonini rag'batlantirishi mumkin, ammo ular insoniy hissiyot, samimiyat, empatiya, mehr va ruhiy aloqani to'liq aks ettira olmaydi. Aynan shu jihatlar ma'naviy tarbiyaning asosiy manbai sanaladi.

Inson omilini saqlab qolish zarurati bir necha falsafiy va ijtimoiy sabablar bilan izohlanadi. Birinchidan, inson – ma'naviyatning subyekti va obyekti hisoblanadi. U nafaqat tarbiya jarayonining markazida turadi, balki uni ma'no bilan to'ldiradi. Tarbiyachi (o'qituvchi, ota-ona, jamiyat a'zosi) o'z shaxsiy namunasi, axloqiy fazilatlari, xulqi va muloqoti orqali ta'sir ko'rsatadi. Demak, inson omili faqat bilim beruvchi emas, balki axloqiy namuna yaratuvchi kuchdir.

Ikkinchidan, ma'naviy tarbiya jarayonida inson omilini saqlash, insonning o'z-o'zini anglashini, irodasini va tanlov erkinligini ta'minlaydi. Raqamli muhitda inson ko'pincha algoritmlar tomonidan boshqariladigan passiv iste'molchiga aylanib qoladi. Bu holatda u o'z fikrini mustaqil shakllantirish, hayotiy qarorlarini axloqiy mezonlarga asoslab qabul qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Uchinchidan, inson omilining zaiflashuvi – jamiyatda begonalik, befarqlik va individualizm kuchayishiga olib keladi. Ma'naviy tarbiya esa aksincha, hamjihatlik, hamdardlik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi jarayondir. Har qanday texnologik vosita insoniy muloqotni to'ldirishi mumkin, ammo uni ongli amalga oshira olmaydi.

Ma'naviy tarbiyada inson omilini saqlash – bu, avvalo, insonparvarlik falsafasini yangicha talqinda davom ettirish demakdir. Inson omilini e'tiborsiz qoldirish natijasida ta'lim va tarbiya jarayoni formal, hissiy jihatdan sovuq va ma'nosiz tus oladi. Shu bois, raqamli texnologiyalarni joriy etishda asosiy mezon sifatida "inson uchun" tamoyilini qo'llash zarur.

Har bir yangi innovatsion yondashuv insoniy qadriyatlarni mustahkamlashga, shaxsni axloqiy va madaniy jihatdan boyitishga xizmat qilishi kerak.

Ma'naviy tarbiya tizimida inson omilini saqlab qolishning amaliy yo'llaridan biri – insoniy muloqotni jonlantirish, empatiyani kuchaytirish va axloqiy mas'uliyatni tarbiyalashdir. Raqamli asrda ma'naviy tarbiya jarayonida inson omilini saqlab qolish – bu insoniyatning o'z ma'naviy asoslarini, axloqiy mezonlarini va madaniy o'zligini himoya qilish demakdir. Texnologiyalar inson xizmatida bo'lishi mumkin, ammo insonning o'rnini bosa olmaydi. Shuning uchun har qanday ma'naviy tarbiya tizimining markazida inson qalbi, ong va vijdoni turmog'i lozim. Ana shundagina raqamli taraqqiyot insonparvarlik ruhini yo'qotmagan, axloqiy jihatdan etuk jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov, S. O'zbekistonning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning roli. – Toshkent.: "O'zRFA nashriyoti", 2022. – B.54.
2. Quranov M. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: "Ma'naviyat", 2008. – B.213.
3. Пронин М.А. Виртуалистика в Институте человека РАН. – М.: "ИФРАН", 2015. – С.17.
4. Веселов Ю.В. Доверие в цифровом обществе // Вестник Санкт-Петербургского университета. Социология. 2020. Т. 13. №. 2. – С.133.
5. Maxmudov M. Boshqaruv psixologiyasi. – T.: "Akademiya", 2006. – B.176.
6. Quronov M. Yoshlami milliy mafkuraviy tarbiyalash - texnologik masala // «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirish sharoitida yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash shakl va usullari» mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: 2001.

ТАНЦЕВАЛНЫЕ ТРАДИЦИИ КАШКАДАРИ КАК ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБЩЕСТВЕННОМ РАЗВИТИИ

Таирова Юлия Рафаэлевна,
*Базовый докторант Государственной
академии хореографии Узбекистана*

Духовное наследие является важнейшей основой устойчивого развития общества, так как именно в нём сосредоточены нравственные ориентиры, историческая память и культурные коды нации. В этой системе особое место занимает искусство, способное выражать духовные смыслы через форму, движение и образ. Интерес к своим культурным истокам и к историческим судьбам нашего народа и края, переосмысление событий и фактов далекого и недавнего прошлого сопровождается активным усвоением общечеловеческих ценностей через познание истории, культуры, философии, искусства [3]. Танец, как один из древнейших видов искусства, играет особую роль в сохранении духовных традиций народа. На примере Кашкадаринской области можно увидеть, как танцевальные традиции становятся живым отражением духовного наследия и влияют на процессы общественного развития.

В Кашкадаринской области Республики Узбекистан можно наблюдать яркий пример того, как старинная культура танца, тесно связанная с богатым историческим прошлым этого края, может служить связующим звеном между культурами, выступая в роли инструмента для общения и достижения взаимопонимания между разными этносами. Находясь на пересечении легендарного Шелкового пути, этот регион впитал в себя культурные традиции персов, тюркских народов, арабов и других цивилизаций, что оставило свой отпечаток в местных танцевальных обычаях. Танец в этом регионе — это не просто способ развлечения или ритуальное действие, а способ выражения идей о мире, сплоченности и философском понимании самобытности.

Понимание танцевальной традиции Кашкадаринской области невозможно без рассмотрения ее исторического контекста. Расположенная в сердце Центральной Азии, область являлась ключевым пунктом на Великом шелковом пути, связывавшем Восток и Запад [1]. Этот фактор не только стимулировал торговые и экономические отношения, но и создал благоприятные условия для интенсивного культурного взаимодействия. Караваны, пролежавшие через Кашкадаринскую область, несли не только товары, но и разнообразие идей, религий, музыкальных традиций и обрядов. На протяжении истории, в эпохи расцвета цивилизаций и в периоды потрясений, таких как войны и миграции, танец постоянно эволюционировал, сохраняя свою суть, но обретая новые значения и выразительные формы [2].

Духовное наследие, воплощённое в народных танцах, способствует укреплению национальной идентичности, сохранению исторической преемственности и духовной связи между поколениями [5]. В процессе общественного развития такие формы культуры становятся объединяющим фактором, способным противостоять обезличивающему влиянию глобализации. Сохраняя и передавая танцевальные традиции, общество не только обогащает свою культурную жизнь, но и поддерживает духовное равновесие, укрепляет внутреннюю целостность и культурную устойчивость.

В Кашкадаринской области танцевальные традиции тесно переплетаются с философией и духовностью. Его традиционные движения несут в себе глубокий смысл, выступая как виды медитации, которые помогают достичь внутреннего очищения и обрести гармонию с окружающим пространством. Танец превращается в универсальный язык тела и ритуала, позволяющий выразить то, что остаётся невысказанным словами. В рамках межконфессионального диалога танец служит мостом, соединяющим людей разных религий, раскрывая их общие ценности и стремления. Танцевальные традиции являются важной составляющей духовной и культурной жизни узбекского народа.

На протяжении столетий танец эволюционировал, выполняя роль не только искусства, но и средства передачи национальных ценностей, моральных принципов и мировоззрения. В Кашкадаринской области, обладающей богатым культурным наследием, танцевальное искусство сформировалось как уникальное явление, отражающее духовное наследие и историческое развитие региона. В Кашкадаре танцевальное искусство выступает как своеобразный духовный летописец, отображая культурное наследие и этические принципы общества.

Национальные танцы, сопровождающие ритуалы, торжества и трудовые будни, воплощают в себе коллективное сознание, духовные переживания и жизненную мудрость. Они воспитывают почтение к обычаям, заботу об окружающей среде, старшем поколении и созидательному труду – тем моральным устоям, на которых зиждется благополучное общество. Каждый элемент танца — от жеста до мимики — несёт в себе определённый смысл, связанный с представлениями о гармонии, красоте и внутреннем достоинстве человека. В старинных танцевальных традициях этой местности находит отражение духовный мир этноса, его восприятие работы, окружающей среды, отчизны, а также тяга к человечности и беспристрастности. Следовательно, танец превращается в уникальный способ духовной идентификации, объединяющий историческое наследие и современность.

Танцевальные традиции Кашкадари – это не просто искусство, а живое воплощение духовного богатства, которое оказывает значительное влияние на жизнь общества. Они помогают укрепить связь с национальной культурой, воспитывают уважение к своим корням и передают нравственные ценности молодежи. В эпоху глобализации, когда мир становится все более однородным, а традиционные устои подвергаются влиянию массовой культуры, сохранение и распространение народных танцев приобретают особую важность. Танец выступает связующим звеном между прошлым и настоящим, сохраняя и передавая духовное наследие предков в современный мир.

Вместе с тем, важно учитывать современные трудности, с которыми сталкивается танцевальное наследие Кашкадаринской области. Развитие городов и перемещение населения приводят к переосмыслению жизненных приоритетов у молодого поколения, что может привести к снижению интереса к народным обычаям. Внедрение инициатив, ориентированных на изучение и освоение национальных танцевальных традиций, способствует их сохранению в культурной среде Республики.

Инициативы по возрождению танцевального искусства Кашкадари выходят за рамки простого сохранения культуры. Они играют важную роль в жизни общества [4]. Организуя творческие мероприятия, фестивали и образовательные программы, организаторы знакомят молодое поколение с культурными корнями народа. Это способствует формированию уважения к культурному наследию и пониманию важности духовных ценностей. Восстановление народных танцев, таким образом, – это не просто дань традициям, а значимый вклад в духовное и общественное развитие региона. Культурные фестивали, на которых представляют традиционные танцы региона, выступают как платформа для международного диалога и обмена опытом. Такие мероприятия способствуют не только сохранению и популяризации локальных традиций, но и формированию позитивного культурного обмена между народами.

Танцевальное искусство Кашкадари служит ярким отражением культурного наследия, оказывающего воздействие на формирование нравственных ценностей, национальной идентичности и стабильности культуры в обществе. Эти традиции демонстрируют, что прогресс немыслим без духовной поддержки, а сохранение и развитие традиционного искусства – это не просто дань уважения истории, но и инвестиция в сбалансированное будущее.

Основная задача сегодня — сохранить культурное наследие, способный не только отражать исторические и культурные корни, которая не только хранит историческое и культурное прошлое, но и готова к восприятию новых значений и выражений. Понимая значение

духовного наследия для общественного развития, необходимо активно поддерживать и расширять возможности традиционного искусства, чтобы оно продолжало служить основой для межкультурного диалога, согласия и гармонии между людьми разных поколений и культур. Только через сохранение и развитие таких духовных ценностей возможно укрепление социальной сплочённости, сохранение культурного разнообразия и построение общества, основанного на общечеловеческих идеалах и нравственных принципах.

Список использованной литературы:

1. Кадыров М.Х. Труды по истории зрелищных искусств Узбекистана. Том 3. Игры, представления, праздники Шахрисабза и Карши – городов Кашкадари// «Ishonch Markaz Servis» - Ташкент, - 2010.

2. Мелникова Е.П. Тенденции развития хореографического образования и межкультурные связи мирового образовательного пространства // МНИЖ. №7-3 (121). - 2022.

3. Рахимова Г.В. (2017). К проблеме духовного и нравственного совершенствования личности. Форум молодых ученых, (6 (10)), 1506-1507.

4. Таирова, Ю. Р. Миллий хореография сан’ати – Ўзбекистон номоддий маданий меросининг кўзгуси сифатида// «Номоддий маънавий мерос ва миллий қадриятлари абадийлаштиришда маданият ва санъатнинг ўрни» Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. 2025, 49-54.

5. Эргашев У.А. (2021). Гармонично развитое поколение - решающая сила развития нового узбекистана. Экономика и социум, (11-2 (90)), 730-732.

YANGI O‘ZBEKISTON G‘OYASIDA SADOQAT TUSHUNCHASINING FALSAFIY TALQINI

To‘laboyeva Shoirra Abdulhamidovna,

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

“Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi – mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida xalqning o‘zligini anglash, davlat va jamiyatni yangilashga yo‘naltirilgan ma‘naviy-falsafiy konsepsiyadir. Bu g‘oya o‘z mohiyatiga ko‘ra, O‘zbekistonning milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari bosqichma-bosqich harakatini ifodalaydi. Uning markazida inson, uning erkinligi, sha‘ni va or-nomusi, ma‘naviy kamoloti turadi. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasining falsafiy asoslari insonparvarlik, adolat, bag‘rikenglik, ijtimoiy hamjihatlik va milliy o‘zlikni anglash kabi qadriyatlarga tayanadi.

“Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamalakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘navi-ma‘rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzi-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir”[1:3]. Mazkur g‘oya milliy tafakkurning yangi bosqichini ifodalaydi, u mustaqillik davrida shakllangan milliy-ma‘naviy meros, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Falsafiy nuqtai nazardan, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi insonning ijtimoiy mavjudot sifatida o‘zligini anglash, jamiyat va davlat o‘rtasidagi ma‘naviy muvozanatni ta‘minlash zaruratidan kelib chiqadi. Shu bois, bu g‘oyaning ma‘naviy poydevorini vatanparvarlik, sadoqat, mas‘uliyat, halollik, inson sha‘ni va qadr-qimmatini e‘zozlash kabi qadriyatlar tashkil etadi.

“Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi faqat siyosiy yoki iqtisodiy konsepsiya emas, balki u milliy o‘zlikni tiklash, ma‘naviy uyg‘onish va umuminsoniy qadriyatlarga tayanib, kelajak jamiyatini qurishning falsafiy dasturidir. Uning ma‘naviy-falsafiy mohiyati insonni ezgu maqsad sari etaklaydigan axloqiy mezon va ijtimoiy barqarorlik omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Sadoqat tushunchasi insonning ma'naviy dunyosini, uning vijdoni va e'tiqodini ifoda etuvchi eng yuksak axloqiy fazilatlaridan biridir. U insonni o'z burchi, e'tiqodi, Vatanga, oilaga, xalq va insoniyatga bo'lgan muhabbatiga sodiq qolishga undaydigan ichki ma'naviy kuchdir. Sadoqat ijtimoiy-ma'naviy hayotning barqarorligini, jamiyatdagi o'zaro ishonch, birdamlik va fidoyilikni ta'minlovchi asosiy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsni faqat o'z manfaatini emas, balki jamiyat, millat va insoniyat manfaatlarini ham anglashga undaydi.

Sadoqatning ijtimoiy mohiyati, eng avvalo, insonning o'z e'tiqodi va tanlagan yo'liga sodiqligida ko'rinadi. Sadoqatli inson o'z fikri, ishi va niyatida qat'iy bo'lib, adolat, halollik va fidoyilik tamoyillariga amal qiladi. Jamiyat miqyosida esa "sadoqat ijtimoiy tizimning barqaror ishlashiga, fuqarolarning davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan u ijtimoiy birdamlik va ishonch muhitining poydevoridir"[2:65]. Ma'naviy hayotda sadoqat insonning axloqiy barkamolligini belgilovchi asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. U halollik, vijdonlilik, sabr-toqat va sadoqatlilik kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liq. Bunday qadriyat insonni ruhiy poklanish, o'zini anglash va jamiyat oldidagi mas'uliyatini his etish sari yo'naltiradi.

Bugungi globallashuv, raqamli madaniyat va ma'naviy qadriyatlar o'zgarishi davrida sadoqatning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki insonni ma'naviy beqarorlikdan, individualizm va manfaatparastlikdan asraydigan eng muhim omil — bu sadoqatdir. U milliy o'zlikni, ijtimoiy hamjihatlikni va insoniylik tamoyillarini mustahkamlovchi ma'naviy ustun bo'lib, Yangi O'zbekiston jamiyatida fuqarolik burchi va ijtimoiy mas'uliyatning ifodasiga aylandi.

Sadoqat inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlovchi, ularni bir-biriga bog'lovchi eng muhim ma'naviy qadriyatlardan biridir. U shaxsning o'z e'tiqodi, burchi va mas'uliyatiga sodiqligini ifodalaydi hamda insonni jamiyat bilan axloqiy va ma'naviy jihatdan birlashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Sadoqat — bu faqat shaxsiy fazilat emas, balki ijtimoiy qadriyat bo'lib, u jamiyatdagi ishonch, birdamlik va totuvlikni ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Inson o'z

mohiyatiga ko'ra ijtimoiy mavjudotdir. Uning hayoti jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu bog'liqlikni mustahkamlovchi asosiy omil – sadoqatdir. Sadoqatli inson o'z xalqiga, madaniyatiga, qadriyatlariga, oilasiga va mehnatiga sodiq bo'lish orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Shaxsning bunday fazilati jamiyatda ishonch muhitini yaratadi, ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy uyg'unlikni ta'minlaydi.

Sadoqatning qadriyat sifatidagi o'rni, avvalo, insonning jamiyatdagi axloqiy mavqeini belgilaydi. U insonni mas'uliyatli, vijdonli, halol va fidoyi bo'lishga undaydi. Shu bois sadoqat ijtimoiy munosabatlarning axloqiy mezonidir – u nafaqat shaxsning ichki e'tiqodini, balki jamiyatning ma'naviy salohiyatini ham ifodalaydi. “Sadoqat yo‘q joyda befarqlik, ishonchsizlik va ijtimoiy bo‘linish yuzaga keladi. U ijtimoiy ongda barqaror axloqiy tamoyil sifatida mustahkam o‘rnashgan holda, jamiyatni birlashtiruvchi, insonni ezgulikka yo‘naltiruvchi, milliy birdamlikni mustahkamlovchi ma‘naviy kuchdir”[3:263]. Shu jihatdan sadoqat inson va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikning falsafiy asosi hisoblanadi.

Zamonaviy davrda sadoqat tushunchasi insonning ma'naviy dunyosidagi eng muhim qadriyatlardan biri sifatida yangicha ma'no kasb etmoqda. U faqat axloqiy-ruhiy fazilat emas, balki jamiyat taraqqiyotini, davlat islohotlarining samaradorligini, fuqarolik mas'uliyatini belgilovchi ijtimoiy-madaniy hodisaga aylangan. Sadoqat bugun insonning o'zligini anglash, milliy manfaatlarni himoya qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etishining falsafiy ifodasi sifatida talqin qilinmoqda.

“Sadoqat”ning zamonaviy talqini uni fuqarolik ongining markaziy qadriyati sifatida tushunishga asoslanadi. Yangi O'zbekiston konsepsiyasi doirasida sadoqat shunchaki bir shaxsiy fazilat emas, balki jamiyat va davlat o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni mustahkamlovchi kuchdir. Yangi O'zbekistonda sadoqat tushunchasini Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev shunday izohlaydi “takror va takror aytishga to'g'ri keladi: Yangi O'zbekiston – tasodifiy hodisa emas, shunchaki dunyoga keladigan va o'tkinchi bir ijtimoiy voqeilik emas. Bugungi kunga kelib, ushbu tushuncha jamiyatimiz hayoti, xalqimiz qalbi va ongidan chuqur joy olib, islohotlar jarayoniga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan insoniyat tarixi va xalqlar

tarqqiyotiga xos bir qonuniyatni sedan chiqarmasligimiz lozim. Bunday murakkab jarayonlarda inkor, yangilanish va vorislik tamoyillari o'z ta'sirini ko'rsatadi"[4:27]. Fuqarolik sadoqati insonning Vatanga, Konstitutsiyaga, qonunlarga, xalq manfaatlariga bo'lgan hurmatini, sadoqatini ifodalaydi. Bu qadriyat shaxsni davlat islohotlarini tushunish, qo'llab-quvvatlash va ularning ijrosida faol ishtirok etishga undaydi.

Davlat islohotlariga sadoqat – bu fuqarolarning yangilanish siyosatini qalban qabul qilishi, ularni ijtimoiy adolat, erkinlik, demokratiya tamoyillari bilan uyg'un holda anglashidir. Sadoqatli fuqaro davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarni faqat tashqi jarayon sifatida emas, balki o'zining hayoti, farovonligi, kelajagi bilan bog'liq ijtimoiy zarurat sifatida qabul qiladi. Shu ma'noda, sadoqat insonni passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Islohotlarga sodiqlik – bu hukumatni so'zsiz maqtash emas, balki o'z fuqarolik mas'uliyati doirasida davlatning islohotlarini tanqidiy anglash, ularni takomillashtirishga hissa qo'shishdir.

“Yangi O'zbekiston” davlatchilik konsepsiyasi inson manfaatlarini, adolatli ijtimoiy tizimni, fuqarolik jamiyatini qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Shu nuqtai nazardan, sadoqat – bu islohotlarning ma'naviy dvigateli, ya'ni insonning ishonchi, e'tiqodi va fidoyiligi orqali davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omildir. Agar jamiyatda sadoqat qadriyati kuchli bo'lsa, u holda har bir islohot xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, natijada islohotlarning mohiyati chuqur ildiz otadi.

Sadoqatning zamonaviy talqini shuningdek, milliy g'oya bilan uzviy bog'liqdir. Milliy g'oya – bu xalqni birlashtiruvchi, maqsad sari yo'naltiruvchi, ijtimoiy ongni uyg'otuvchi ma'naviy kuchdir. Sadoqat esa ana shu g'oyaning hayotiy ifodasidir. Milliy g'oyaga sodiqlik – bu o'z xalqining qadriyatlariga, tarixiy xotirasiga, tiliga, madaniyatiga va mustaqilligiga hurmat bilan qarashdir. Bugungi O'zbekistonda milliy g'oyaning falsafiy mohiyati “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyilida o'z ifodasini topmoqda. Ushbu tamoyilning barqaror ishlashi uchun esa sadoqat qadriyatining ijtimoiy ongda mustahkam o'rni zarur.

Milliy g'oyaga sadoqatli inson o'z hayot faoliyatini milliy manfaatlar bilan uyg'unlashtira oladi. U o'z yurtining obro'si, xalqining farovonligi

uchun javobgarlikni his qiladi, bu esa fuqarolik mas'uliyatini kuchaytiradi. Shunday qilib, sadoqat – milliy g'oyaning aksiologik asosi, ya'ni qadriyatlar tizimini barqarorlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy sadoqat tushunchasi madaniy ifoda sifatida ham keng qamrovli ahamiyatga ega. Chunki bugungi global axborot maydonida, madaniy xilma-xillik va raqamli jamiyat sharoitida sadoqat madaniy ongning barqarorligini saqlovchi omilga aylanmoqda. Axborot xurujlari, madaniy assimilyatsiya, iste'mol jamiyati ta'siri ostida ko'plab millatlar o'z ma'naviy ildizlaridan uzoqlashmoqda. Bunday sharoitda sadoqat insonni o'z milliy madaniyatiga, tili va urf-odatlariga sodiq bo'lishga, ularni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirishga undaydi.

Fuqarolik sadoqati o'zida ikki jihatni mujassam etadi: birinchidan, axloqiy sadoqat, ya'ni insonning o'z vijdoni, e'tiqodi va insoniy qadriyatlariga sodiqligi; ikkinchidan, ijtimoiy sadoqat, ya'ni insonning jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini chuqur his etishi. Shu ikki jihat uyg'unlashgandagina sadoqat haqiqiy ma'naviy kuchga aylanadi. Zamonaviy O'zbekiston sharoitida sadoqatni faqat shior sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy amaliyot darajasida qarash zarur. Bu jarayonda ta'lim, madaniyat, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali sadoqat qadriyatini yoshlar ongiga singdirish dolzarb masaladir. Chunki sadoqatli avlod – bu milliy g'oyaga ishonuvchi, davlat islohotlarini qo'llab-quvvatlovchi, madaniy o'zligiga sodiq avlodidir.

Sadoqat – inson ma'naviy dunyosining yuksak ko'rsatkichi, jamiyatning barqaror rivojlanishi va milliy g'oyaning amalga oshishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlardan biridir. Yangi O'zbekistonda "shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqtni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlik, tanlagan kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. U insonning Vatanga, milliy qadriyatlarga, kasbiga, oilasiga va insoniyatga bo'lgan sodiqligini ifodalaydi"[5:141]. Bugungi globallashuv, axborot xurujlari va g'oyaviy raqobat davrida sadoqat qadriyatini mustahkamlash davlat va jamiyat hayotining strategik vazifasiga aylanmoqda. Bunda uch asosiy soha – ma'naviy siyosat, ta'lim tizimi va

ommaviy axborot vositalari (OAV) sadoqatni shakllantirishning eng muhim vositalari sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'naviy siyosat – bu jamiyatning axloqiy, ma'rifiy va g'oyaviy yo'nalishini belgilovchi, xalqning ruhiyatini va milliy o'zligini mustahkamlovchi tizimdir. Yangi O'zbekiston sharoitida ma'naviy siyosatning asosiy maqsadi – milliy g'oyaga sadoqatli, vatanparvar, mas'uliyatli, halol fuqaroni tarbiyalashdir. Bu jarayon sadoqatni shunchaki shaxsiy fazilat sifatida emas, balki davlat barqarorligi va jamiyat birligi uchun zarur bo'lgan ma'naviy ustun sifatida shakllantirishni talab etadi.

Ma'naviy siyosatning muvaffaqiyati, avvalo, g'oya va qadriyatlar birligiga asoslanadi. "Yangi O'zbekiston" mafkurasi inson sha'ni, adolat, vijdon, bag'rikenglik, sadoqat kabi tamoyillarga tayanadi. Shu bois davlat siyosatida sadoqat qadriyatini mustahkamlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- Ma'naviy-ma'rifiy dasturlar orqali: "Yangi O'zbekiston yoshlari", "Ma'naviyat – jamiyat qalbi", "Milliy g'oya – millat poydevori" kabi dasturlar orqali sadoqat, vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlash.

- Madaniyat siyosati orqali: teatr, kino, adabiyot, musiqa va san'at asarlari orqali sadoqatning estetik va ruhiy ifodasini targ'ib qilish.

- Diniy-ma'naviy siyosat orqali: islom ma'naviyati va milliy qadriyatlar uyg'unligida sadoqatning axloqiy asoslarini mustahkamlash.

- Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish orqali: jamoatchilik tashkilotlari, NNTlar va yoshlar birlashmalarining ma'naviy faoliyatida sadoqat qadriyatlarini ilgari surish.

Shunday qilib, ma'naviy siyosatning bosh maqsadi – jamiyatda "sadoqat madaniyati"ni shakllantirish, ya'ni insonning o'z xalqiga, davlatiga, kasbiga, axloqiy tamoyillariga sodiqligini ijtimoiy norma sifatida qaror toptirishdir.

Ta'lim tizimi – sadoqat qadriyatini shakllantirishning eng samarali va uzoq muddatli mexanizmidir. Chunki aynan ta'lim orqali insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, fuqarolik pozitsiyasi va axloqiy fazilatlari shakllanadi. Yangi O'zbekiston ta'lim siyosatida shaxsni har tomonlama

barkamol, milliy qadriyatlarga sodiq, global tafakkurli inson sifatida tarbiyalash ustuvor maqsad etib belgilangan.

Sadoqatni ta'lim orqali shakllantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchidan, maktabgacha va umumta'lim tizimida bolalarda sadoqatning dastlabki ko'rinishlarini – oila, ota-ona, maktab, Vatanga muhabbatni shakllantirish muhimdir. Tarbiyaviy mashg'ulotlarda sadoqatli qahramonlar hayoti, xalq og'zaki ijodi, ertak va rivoyatlar orqali bolalarda sodiqlik, vafodorlik, do'stlik kabi qadriyatlar uyg'otiladi.

Ikkinchidan, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichida sadoqat tushunchasi falsafiy, huquqiy va fuqarolik nuqtai nazardan chuqurroq o'rganiladi. Talabalarda davlat islohotlariga, milliy g'oyaga, kasb etikasi va ilmiy halollikka sodiqlik tarbiyalanadi.

Uchinchidan, pedagoglar, ma'naviyat va ijtimoiy fan o'qituvchilari sadoqatni nafaqat o'quv dasturlari orqali, balki shaxsiy namuna, muloqot madaniyati, ijtimoiy faollik orqali singdirishlari kerak. Chunki sadoqat so'z bilan emas, amaliy faoliyat va hayotiy pozitsiya orqali namoyon bo'ladi.

Yoshlar ongida sadoqat va fidoyilik fazilatlarini shakllantirishning falsafiy-pedagogik asoslari jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti va barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki sadoqat va fidoyilik – insonni ezgulikka, jamiyat manfaatiga xizmat qilishga undovchi yuksak fazilatlar bo'lib, ularning shakllanishi ma'naviy tarbiya, ta'lim jarayoni va ijtimoiy muhitning uyg'unligiga bog'liqdir.

Falsafiy jihatdan sadoqat va fidoyilik inson mohiyatining axloqiy-irodaviy qatlamini ifodalaydi. Inson o'z "men"ini jamiyat, millat va insoniyat oldidagi mas'uliyat bilan uyg'unlashtirgandagina u sadoqatli shaxs darajasiga ko'tariladi. Fidoyilik esa sadoqatning amaliy ko'rinishi bo'lib, u shaxsning o'z manfaatlaridan kechib, yurt, xalq, ezgulik yo'lida mehnat qilishini bildiradi. Shu ma'noda, sadoqat va fidoyilik shaxsning ijtimoiy ongi va ma'naviy etukligini belgilovchi falsafiy mezonlardir.

Pedagogik nuqtai nazardan, bu fazilatlarni yoshlar ongiga singdirish jarayoni uzluksiz tarbiya va ta'lim tizimida maqsadli tashkil etilishi lozim. Ta'lim jarayonida milliy g'oya, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat, halollik

va mehnatsevarlik qadriyatlari bilan uyg'un holda sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. O'quv jarayonida tarixiy shaxslar, milliy qahramonlar, ilm-fan va madaniyat namoyandalarining hayoti misolida sadoqat va fidoyilikning amaliy namunalarini yoshlar ongiga singdirish samarali pedagogik yondashuvdir.

Shuningdek, oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy institutlar hamkorligida sadoqatga asoslangan ma'naviy tarbiya tizimini shakllantirish zarur. Axborot makoni va raqamli madaniyat sharoitida yoshlarning ongini mustahkamlash, ularni ma'naviy beqarorlik, individualizm va manfaatparastlikdan himoya qilish ham dolzarb masaladir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ongida sadoqat va fidoyilik fazilatlarini shakllantirish – bu nafaqat tarbiyaviy, balki falsafiy-ma'naviy jarayon bo'lib, u shaxsni jamiyatga sodiq, vatanparvar va mas'uliyatli inson sifatida kamol toptirishning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangiz O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent.: “O'zbekiston”, 2022. – B.3.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. – Toshkent.: “Ma'naviyat”, 2008. – B.65.
3. Купрейченко А.Б., Мерсиянова И.В. Доверие и недоверие в условиях развития гражданского общества / – М.: “Издательский дом НИУ ВШЭ”, 2013. – С.263.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangiz O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent.: “O'zbekiston”, 2022. – B.27.
5. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi II-jild. – Toshkent.: “Ma'naviyat”, 2023. – B.141.

IJTIMOIYLASHUV DAVRIDA O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MA'NAVIY MEROSNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI

Qulmatov Norqobil Eshmamatovich

S D V M Ch B U T F. katta o'qituvchi

Rizzaev Shavkatjon Rixsiboevich

S D V M Ch B U T F. Assistant

O'quvchilarimiz ongi va tafakkurida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi ma'naviy va mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda, hamda, ularda vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakillantirishda *ma'naviy meros* yangi O'zbekiston jamiyati rivojlanishida eng muhim va asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shunday ekan biz tanlagan "Ijtimoiylashuv davrini boshidan kechirayotgan o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda *ma'naviy merosning* jamiyat hayotidagi o'rni" mavzusi yangi O'zbekiston jamiyati uchun eng dolzarb va muhim mavzulardan biri hisoblanadi.

Muammoni hal qilish yo'llari: Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida ilm-fanning rivojlanishi asosida o'quvchilarimizni madaniyatli, ma'naviyatli, axloqli-odobli va ma'rifatli qilib tarbiyalashda, o'zbek milliy davlatchilik tariximizni chuqur o'rgatishda, tarixiy xotira, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni ularning ongi va qalbiga singdirishda ma'naviy merosning o'rni va roli nihoyatda muhim va beqiyosdir. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev bu haqida shunday deydi: "Taraqqiyotning tamal toshi ham, davlatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan rivoji va ta'lim va tarbiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilganidadir"[1]. Uchunchi Renesans arafasida turgan yangi O'zbekistonda o'quvchilarimiz ongi va tafakkurida vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakillantirish, yoshlarimiz orasida turli xil salbiy ko'rinishdagi mafkuraviy va ma'naviy illatlarning oldini olishda, ularni ma'naviy etuk, axloqli-odobli va ma'rifatli insonlar qilib tarbiyalashda ma'naviy merosning jamiyat hayotidagi ahamiyatini targ'ib etish davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatning eng ustuvor vazifalaridan biri bo'lib sanaladi. **Taklif va tavsiyalar:** Dunyo hamjamiyati XXI asrga qadam qo'yganidan keyin jahon miqyosida global axborot

almashinuvi shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi yangi O'zbekistonda o'quvchilarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ularning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun, yoshlarimizning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat-e'htirom tuyg'ularini bolaliklaridan boshlaboq shakillantirishda ma'naviy merosning o'rni bugungi kunda suv bilan havodek zarur bo'lib bormoqda. Shu o'rinda ma'naviy merosning jamiyat hayotidagi o'rni va roli haqida, uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tsak. Ma'naviy meros – bu har bir xalqning asrlar davomida yaratgan, avloddan – avlodga o'tib boradigan ma'naviy boyliklari, qadriyatlari, an'analari, urf – odatlari hamda ilmiy va madaniy yutuqlari majmuasi sanaladi. Ma'naviy meros jamiyatning ma'naviy yuzi, ma'naviy ruhiy qiyofasi va kelajak ma'naviy taraqqiyotini belgilaydigan ma'naviy omil hisoblanadi. Ma'naviy meros - jamiyat va inson hayotining eng muhim sohalaridan biri bo'lib, u inson tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar hamda ularni yaratish, saqlash va avloddan avlodga o'tkazish jarayonlarini ifoda etadi. Ma'naviy meros – bu tabiatdan farqli holda inson tomonidan yaratilgan barcha narsalar majmuasidir. U moddiy (uy-joy, kiyim-kechak, texnika, me'morchilik, san'at asarlari) va ma'naviy (ilm-fan, din, til, urf-odat, an'ana, qadriyatlar) jihatlarni o'z ichiga oladi. Ma'naviy meros jamiyatning tafakkur darajasi, ma'rifat, ma'naviy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy bog'liq. Ma'naviy meros har bir millatning o'zligini anglash va asrab qolishning asosiy manbai hisoblanadi. O'z ajdodlarining ilmiy, madaniy va ma'naviy boyligini bilgan xalq o'z tarixi bilan faxrlanadi, kelajak avlodni vatanparvarlik va milliy g'urur ruhida tarbiyalaydi. **Kutilayotgan ijtimoiy samara(natija):** O'quvchi yoshlarni ma'naviy etuk, vatanparvar va fidoyi insonlar etib tarbiyalashda ma'naviy merosning o'rni beqiyos. Ajdodlar qoldirgan hikmatlar, odob-axloq qoidalari, madaniy an'analar yoshlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi, ularni ma'naviy buzuvchilik va yot g'oyalar ta'siridan himoya qiladi. O'zbek milliy davlatchiligimizning o'tmish tarixiga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tmishda yashab ijod etgan ulug' allomalarimizdan Farg'oniy, Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Ulug'bek,

Buxoriy, Termiziy, Margʻiloniy, Moturidiy, Zamaxshariy va boshqa bir qator allomalarimiz nafaqat ilm choʻqqilarini egallabgina qolmasdan, uni yaʼni maʼrifatni keng targʻib qilganlar, oʻrgatganlar, shogirdlar etishtirib chiqarganlar. Jumladan Turkiston maʼrifatchilik maktabi boy oʻtmish va ulkan maʼnaviy merosga egaligini koʻrishimiz mumkin. Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon oʻgʻli, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Isʼhoqxon Toʻra Ibrat, Ahmad Donish va boshqalar mamlakatni, xalqni milliy zulm va maʼrifiy qoloqlikdan xalos etishning yagona yoʻlini maʼrifatda deb bildilar. Maʼrifatparvarlik harakatining yorqin vakillaridan biri Abdulla Avloniyning “Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir” – degan gʻoyasining bugungi davr oʻquvchilari uchun suv va havodek zarur ekanligini, naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini hayotning oʻzi koʻrsatib turibdi. Bugungi kunda oʻquvchi yoshlarni ilm – maʼrifat orqali maʼnaviy etuk, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalashda maʼnaviy merosning oʻrni beqiyos. Ajdodlar qoldirgan hikmatlar, odob-axloq qoidalari, madaniy anʼanalar yoshlarga toʻgʻri yoʻlni koʻrsatadi, ularni maʼnaviy buzuvchilik va yot gʻoyalar taʼsiridan himoya qiladi. Taʼlim-tarbiya, odob-axloq masalasi hamma zamonlarda ham har doim kun tartibidagi asosiy masalalardan biri boʻlib kelgan. Oʻz davrida mustaqil Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdugʻanievich Karimov -shunday deb yozgan edi, - Men, - Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan fikrini koʻp mushohada qilaman. Buyuk maʼrifatparvarning bu soʻzlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb boʻlgan boʻlsa, bugungi kunda ham biz uchun ham shunchalik, balki undan ham muhim va dolzarbdir” degan soʻzlari ayni haqiqatdir. Birinchi prezidentimizning ushbu aytgan gaplariga hamohang holda, davlatimiz rahbari Oʻzbekiston Respublikasining prezidenti Sh.M.Mirziyoevning quyidagi fikrlari ham yuqoridagi aytilgan fikrlarni toʻla tasdiqlashini koʻrishimiz mumkin boʻladi. “Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni koʻra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi gʻayrat-shijoat, mardlik va fidoiylilik bilan birlashtira olsak, koʻzlagan marralarga albatta etamiz. Yangi Oʻzbekistonni ana shunday

bilimli va bunyodkor yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etamiz”.[2] Chunki hayot davom etar ekan, yangidan-yangi avlodlar tug‘iladi, hayotda kamol topishlari uchun esa ta’lim-tarbiyaga ehtiyoj sezadi. “Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubxasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir” [3].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki: Bugungi zamon ma’naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. Bu ma’naviy tahdidlar o‘quvchilar ma’naviy olamiga ta’sir etmay qolmaydi. Shu o‘rinda ma’naviy meros jamiyatda birdamlik, hamjihatlik va o‘zaro hurmat muhitini shakllantiradi. U insonlarni umumiy g‘oya, qadriyat va maqsadlar atrofida birlashtiradi. Bu esa har qanday davlatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim omildir. Globallashuv jarayonlari shiddat bilan rivolanib borayotgan bir davrda ma’naviy meros milliy o‘zlikni yo‘qotmaslikka xizmat qiladi. Yangi O‘zbekistonda ma’naviy merosni asrab-avaylash, yosh avlodga etkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bugungi kunda muzeylar, madaniyat markazlari, ta’lim muassasalarida ajdodlar merosini o‘rganish va targ‘ib etish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ma’naviy meros – millatning abadiy boyligi, jamiyat taraqqiyotining ma’naviy asosidir. Uni asrash, qadrlash va kelajak avlodga etkazish har bir fuqaroning burchi hisoblanadi. Chunki ma’naviy merossiz jamiyat o‘z yo‘lini, o‘zligini va istiqbolini yo‘qotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi

rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi" Toshkent, 30.10.2020 yil

2 .Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. Toshkent. 2020 yil 29 dekabr

3. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.-toshkent.: “Ma'naviyat”, 2008 yil,52-bet

4. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori,-Toshkent.: “Sharq”, 1998,-55-bet.

5. I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin.T.: “O'zbekiston”,1998, 17 – bet.

GLOBALASHUV DAVRIDA OILADA MILLIY-MA'NAVIY VA ZAMONAVIY QADRIYATLARNING SHAKLLANISHINING SOTSIOPSIXOLOGIK TENDENSIYALARI

Maxamatkarimov Muzaffar Abdukarim o'g'li,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi mutaxassisi

Oila inson voyaga etadigan, rivojlanadigan, o'zligini anglaydigan, jamiyatning faol a'zosi bo'lish uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'ladigan ijtimoiy makon. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida oila va uning fundamental asoslari jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Oila, eng avvalo, tarbiya maskani, ilk ijtimoiylashuv jarayonlari kechadigan muhitdir.

Bugungi kunda yosh avlodning munosib tarbiyasi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotganini inobatga olib, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning o'z ma'ruzasida: “Yoshlarning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1] deb

ta'kidlagani oila muhitida barkamol avlodni tarbiyalashda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Oila insoniyat taraqqiyotining nodir namunasi, muhim va muqaddas ijtimoiy institutdir. Sharq sivilizatsiyasida oila asrlar davomida yosh avlod tarbiyasida, komil insonni voyaga etkazishda muqaddas maskan bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Insonning ma'naviyati, dunyoqarashi, tafakkuri, e'tiqodi, iymon-e'tiqodi, avvalo, oilada shakllanadi.

Yuksak ma'naviyat, insoniy fazilatlar, vatanparvarlik, uning baxt-saodati uchun mas'ullik, turli buzg'unchi g'oyalarga, yomon xulq-atvorga nafrat ruhida tarbiyalash, avvalo, jamiyatning kichik bo'g'ini – oilada shakllanadi.

O'zbek oilalarining barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni benihoya katta. Bu erda asrlar davomida shakllanib kelgan milliy an'analar, ota-onalar va bolalarning o'zaro hamkorligi va hurmati, qarindoshlarning bir-biriga yordam qo'lini cho'zishga tayyorligi, oilaviy tozalik, pokiza turmush talablarining saqlanishi kabi urf-odatlar o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyati, axloqi uchun asosga aylanadi.

Bu asoslarda asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar bilan birga turmush tarzimizga singib ketgan diniy qadriyatlar ham muhim o'rin tutadi. Xalqimizning madaniy-maishiy hayotining asosiy tushuncha va qoidalari, urf-odatlari, marosim va an'analari qo'rg'ondek saqlanib, avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy tarbiyadan foydalanish milliy tarbiya tizimida qadimdan mavjud bo'lib, turli davrlarda o'ziga xos ko'rinish va mazmunga ega bo'lgan. Milliy tarbiya o'zining xilma-xilligi bilan qadriyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lib, uning bolalar dunyoqarashi va ruhiyatiga ta'siri, muayyan ko'nikmalarni shakllantirish murakkab jarayondir.

Ilm-fan jadal rivojlanayotgan bir davrda yuksak ma'naviyatli insonlarni tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Oila insonning ma'naviy shaxs sifatida shakllanishiga asos bo'ladi. Jamiyat rivojlanib, ijtimoiy taraqqiyotda ma'naviy omillarning o'rni va ahamiyati oshib borgan sari oiladagi tarbiyaga e'tibor ham ortib boradi. Bu e'tibor, eng avvalo, ta'lim va tarbiyaning uzluksizligi,

ularning shaxs kamolotidagi ahamiyati bilan belgilanadi. Inson shaxsining shakllanishi oiladan boshlanadi. Bolaning barcha shaxsiy sifat va xususiyatlari, ijtimoiy ko'nikma va odatlari, xulq-atvori, xulq-atvor ongi, ijtimoiy muhitga munosabati va javob reaksiyalari, e'tiqodi va qarashlari oila sharoitida shakllanadi va rivojlanadi. Oilaviy munosabatlarda insonning rivojlanish shart-sharoitlari, shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini izchil o'rganmasdan turib, uning xususiyatlari, bu xususiyatlarni yuzaga keltiruvchi omillar haqida fikr yuritish mumkin emas.

Milliy-ma'naviy qadriyatlarning paydo bo'lish va rivojlanishi avvalo oila muhiti, oila va nikoh munosabatlarini paydo bo'lishi tarixi bilan bog'lanadi. Shuningdek, oilaning vujudga kelishi va rivojlanishi ham ma'lum ijtimoiy muhitni taqozo etgan. Faqat er-xotin va bolalardan iborat kichik oilani shakllantirish uchun mulkiy ajralish va meros munosabatlari etarli bo'lmasligi mumkin. Bizningcha, bu borada qandaydir insonparvarlik tamoyillari, inson tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan oilaga intilishning o'ziga xos jarayoni ishlagan. Oilaning shakllanish jarayoni qabilalar tomonidan muayyan munosabatlarda o'rnatilgan shahvoniy istaklar, urug'chilik tuzumi qoidalari va tabularni qondirishdangina boshlanishi mumkin emas. Chunki ibtidoiy urug'chilik va qabilachilik davrlarida ham bu guruhlarining boshliqlaridan jamoadoshlarini ushlab turuvchi jismoniy kuch yoki hokimiyatdan tashqari oilaviy munosabatlar ham talab qilingan. Bu esa insoniyat tarixida oilaning paydo bo'lish bosqichlari hayvonlar turmush tarzi va juft bo'lib yashash qonuniyatlaridan tubdan farq qilgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Xo'sh bugungi kunda oilalarda milliy-ma'naviy va zamonaviy qadriyatlar rivojlanish ko'rsatkichlari qanday?

Zamonviy tadqiqotlardan olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, oilada zamonaviy qadriyatlar tizimi shakllanib bormoqda. Yosh avlodning aksariyati o'zining individual qarash va qadriyatlariga ega bo'lib, an'anaviy mazmundagi qarashlar, milliy-ma'naviy qadriyatlar tizimiga bo'lgan munosabat bir muncha pasaygan. Lekin bu milliy-ma'naviy qadriyatlar o'z o'rnini yo'qotgan deb xulosa keltirishga asos bo'lmaydi.

Oila ijtimoiy institut sifatida shaxslararo munosabatlarda avvalo, shaxsning o'ziga bo'lgan munosabat ko'rsatkichlari, so'ng atrofdagilarga bo'lgan baholash mezonlari hamda o'zaro taqqoslash va farqlash ko'rsatkichlariga ega bo'lishini ko'rsatsa, oilada er-xotin munosabatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatlarining aks ettiruvchi omil sanaladi.

Bu omillar turli mintaq va davlatlarda turlicha kuzatiladi. Bu jamiyatning moddiy va ma'naviy etukligi bilan birga, davlat siyosati va boshqaruvi shakllari, jamiyatning tarixiy ildizlari va albatta savodxonlik darajasini o'sib borishi bilan xarakterlanadi.

Shu o'rinda umuminsoniy qadriyatlarga ham to'xtalib o'tish lozim. Umuminsoniy qadriyatlar – jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o'zida ifoda etadi [2].

Tarbiya mexanizmlarini qo'llash samaradorligini baholashda shaxsning oila muhitidagi hayotiy statusi, o'z oilasiga bo'lgan munosabati va ma'suliyati, oilaning barqarorligiga hissa qo'sha olish imkoniyatlarini ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Bu ko'chuvchan mexanizm bo'lib, avloddan-avlodga o'tish imkoniyatiga ega hisoblanadi.

Xalqaro tadqiqot va izlanishlar oila va jamiyatda milliy-ma'naviy va zamonaviy qadriyatlarning o'zgarish tendensiyalarini kuzatish va asoslangan xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Indoneziya. Tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri sifatida zamonaviy qadriyatlarning yuqori o'sishi kuzatilishi tabiiy edi. Lekin an'anaviylik ustunligi yuqori bo'lib qolmoqda. Bunda mamlakatning o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimi shakllanganligi hamda oila institutining barqaror an'analari mavjudligi sababli 61% respondentlar fikricha oila qadriyatlari so'nggi 20 yilda kuchaygan [7]. Dinga bo'lgan munosabat yuqori bo'lib, Pew ma'lumotida "Din jamiyat uchun umumiy qadriyat" deb javob berganlar 91% atrofida ekanligi ko'rsatilgan. Zamonaviylikka intilish ayni vaqtda o'smoqda, ammo

an'anaviylik hali ustun. Milliy-ma'naviy qadriyatlar jamiyat hayotida asosiy o'rin tutadi.

Hindiston. Tadqiqotda ishtirok etganlarga ko'ra, "Oila hayotda muhim o'rin egallaydi" deb hisoblovchilarning yuqori o'sish tendensiyasi mavjud. Dinga munosabat va diniy qadriyatlar taxminan 69% ishtirokchilar tomonidan yuqori baholangan. Zamonaviylikka intilish sohasida yoshlarda individuallik va bilim muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rinadi. An'ana va zamonaviylik o'rtasida Hind jamiyatiga xos integratsiya jarayoni kuzatilmoqda. Ta'kidlash kerakki yuqori iqtisodiy o'sish va globallashtirish jarayonlarida qadriyatlarning ahamiyat darajasi o'zgarishi sodir bo'lsa ham jamiyat qabul qilgan qonun-qoidalarining asosida o'zgarishlar sekin ro'y beradi.

Saudiya Arabistoni. Aniq ko'rsatkich berilmagan bo'lsada, arab va islomiy jamiyatlarda oila universal qadriyat deb qaralishi sir emas. Diniy-ma'rifiy qadriyatlarga bo'lgan munosabat yuqori bo'lib, Pew ma'lumotiga ko'ra 92% ishtirokchilar "Din ijtimoiy qadriyatni asosi" degan fikrni bildiradi. Zamonaviylik davlat tomonidan belgilangan va barqarorligi kafolatlangan o'ziga xos tizimi orqali nisbatan cheklangan bo'lsada, butunlay qarshilik yoki jamiyat senzurasini mavjud emas. jamiyat an'anaviy qadriyatlarni saqlash va muhofaza qilish funksiyasini bajarmoqda. Milliy-ma'naviy qadriyatlar ustunligi sababli oilaviy tarbiya mexanizmi barqaror rivojlangan.

Avstraliya. Rivojlangan mamlakatlar toifasiga kiruvchi davlatlar o'z jamiyatlarida individuallikni rag'batlantirib, zamonaviy qadriyatlarni rivojlantirishga intilishlari bilan xarakterlanadi. Mamlakatda oila hayotda juda muhim deb qaraydiganlar 80%dan yuqori. Dinga bog'liq qadriyatlarga bo'lgan munosabat pasayayotganligini ko'rish mumkin. Bu 1993-yilda taxminan 48% bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 29%ga tushgan[4]. Zamonaviylik sifatida individuallik, erkinlik, jamiyatda faol ishtirok etish muhim hisoblanadi. Jamiyat hayotida milliy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabat avvalgi davrga nisbatan pasaygan, ammo oila muhim bo'lib qolmoqda.

AQSH. Tadqiqotlarga ko'ra, ko'pchilik "Oilaning jamiyat hayotidagi o'rnini yuqori hayotda juda muhim" degan fikrdagi ishtirokchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Diniy-ma'rifiy qadriyatlarga munosabat 1993-yildagi 79% dan 2022-yildagi 61%ga pasaygan. Zamonaviylik katta ahamiyatga ega bo'lib, individual huquqlar, tenglik, erkinlik. Oila, qadriyatlar va zamonaviylik o'rtasida muvozanat va integratsiyani izlash jarayoni kuzatiladi[10].

Yaponiya. WVS (World Values Survey) ma'lumotiga ko'ra Yaponiyada oilaning jamiyatdagi o'rnini "juda muhim" deb javob berganlar 91.2% ni tashkil etadi[5]. Dinga qadriyat sifatidagi munosabat pastroq baholanadi. An'anaviy milliy madaniyat kuchli, lekin diniy yo'nalishdan uzoqda. Zamonaviylik qadriyat sifatida avtomatlashuv, individuallik, global madaniyat ta'siri kuchli. Milliy-ma'naviy qadriyatlar urf-odatlar orqali yaxshi saqlanmoqda, ammo zamonaviylik ta'siri kuchayib bormoqda.

Braziliya. Braziliya jamiyatda oila qadriyat sifatida kuchli ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Din qadriyat sifati 67% ishtirokchilar uchun muhimligi bildirilgan. Zamonaviy qadriyatlar yo'nalishida ayniqsa gender tenglik, birlashmali jamiyat, ta'lim imkoniyatlariga ega bo'lishga intilish ortib bormoqda. Milliy-ma'naviy qadriyatlar sifatida oilaviy mexanizmlar bilan zamonaviy omillar birlashmoqda.

Rossiya. WVS/EVS ma'lumotlariga ko'ra, oila va urf-odatlar hali ham muhim qadriyatlar hisoblanadi. Diniy-ma'rifiy qadriyatlarni yuqori baholash taxminan 59% deb hisoblanadi. Zamonaviylik sifatida jadal globallashuvga intilish, yoshlarda individuallikka intilish, professional va ta'limda rivojlanish ta'sirida kuchayib bormoqda. Milliy-ma'naviy qadriyatlar saqlanmoqda, zamonaviy omillar bilan integratsiya jarayoni kuzatilmoqda.

Kanada. Mamlakatda din va an'analarga bog'langan qadriyatlar pasayib borayotganligini ko'rish mumkin. Dinga qadriyat sifatida qarash 50%dan kamaygan (1990-2000-yillar). Zamonaviy qadriyatlardan liberallik, multikulturalizm, ijtimoiy tenglikka intilish kuchli bo'lib, milliy-ma'naviy qadriyatlardan ko'ra zamonaviy qadriyatlar ustun bo'lmoqda.

Lekin bu oilaning jamiyat hayotidagi rolini muhim deb hisoblash, qadriyatlar tizimida sotsial institut sifatidagi ahamiyatini pasaytirmaydi.

Statistik ma'lumotlar quyidagi tamoyillar to'g'risida xulosa berishga asos bo'ladi:

Oilaning hayotdagi ahamiyati. Barcha davlatlarda "Oila hayotda juda muhim" deb javob berganlar soni juda yuqori bo'lgan. Our World in Data tahlilida bu ko'rsatkich 80%dan yuqori bo'lgan mamlakatlar juda ko'p deb keltirilgan[6]. Bu holat oila institutining global madaniyatda ham mustahkam qolayotganligini ko'rsatadi. Milliy-ma'naviy qadriyatlar oilaviy mexanizmlar orqali uzatiladi.

Din va diniy an'analarga bog'liqlik. An'anaviy jamiyatlarda (Indoneziya, Hindiston, Saudiya) dinga bag'ishlanganlik juda yuqori. Rivojlangan va sekulyarlashgan jamiyatlarda (Avstraliya, Kanada) bu ko'rsatkich pastroq. Bu moddiy va madaniy sharoitlarga, ta'lim darajasi va globallashuv chegaralariga bog'liq.

Zamonaviylikka intilish (individuallik, tenglik, erkinlik). Rivojlangan jamiyatlarda bu tamoyillar nisbatan tezroq o'smoqda (AQSh, Kanada, Yaponiya). An'anaviy va madaniy qadriyatlarga ega jamiyatlarda esa integratsiya jarayoni kuzatiladi (Rossiya, Braziliya). Zamonaviylik milliy-ma'naviy qadriyatlarni yo'qotish emas, ularni yangi tarzida qayta shakllantirish imkoniyati sanaladi.

Integratsiya jarayoni. Milliy va zamonaviy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi muhim. An'anaviy qadriyatlar to'liq rad qilmaslik, zamonaviylikni indikator sifatida qo'llash – bu oilada qadriyatlarni muvozanatlashtirishning asosidir.

Tadqiqotlar natijasini umumlashtirib, quyidagi xulosalarni berish mumkin:

➤ Dinga bo'lgan munosabat ko'p hollarda milliy-ma'naviy qadriyatlarga bog'liq. Jumladan, oilada urf odat, ota ona hurmati, mehr muhabbat kabi an'analar dinga, madaniyatga, jamiyatga bog'liq bo'ladi.

➤ Yuqori daromadli, rivojlangan mamlakatlarda dinga nisbatan munosabat pasayishi kuzatilmoqda (Avstraliya, Kanada) — bu, o'zi bilan

milliy-ma'naviy qadriyatlarning shakllanishida yangi talablarni, zamonaviy qadriyatlarning rolini ko'rsatadi.

➤ O'rta yoki past rivojlangan mamlakatlarda dinga va an'analarga munosabat yuqori — bu oilada milliy ma'naviy qadriyatlar mustahkamligini ko'rsatadi (Indoneziya, Saudiya).

➤ Zamonaviy qadriyatlar — individuallik, erkinlik, tenglik, jamiyatda faol ishtirok — hududlar bo'yicha farqlanadi va bir mamlakatda an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasida muvozanatga yaqinlashish jarayoni kuzatiladi.

Oiladagi qadriyatlarning shakllanishi juda ko'p omillarga bog'liq va bu jarayon jamiyatdagi umumiy o'zgarishlar, axborot muhiti, tarbiya uslubi, madaniy an'analarga hamda shaxsiy munosabatlar bilan bog'liq. Zamonaviy yoshlar milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lsa-da, ular bu qadriyatlarni o'z faoliyatlariga, hayot tarziga zamonaviy usullarda tatbiq etishni xohlashadi. Qadriyatlar o'rtasidagi **muvozanat va integratsiya** – bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biridir. Aynan integratsiya qobiliyati yuqori bo'lgan oilalarda barqarorlik, ruhiy sog'lomlik va ijtimoiy mas'uliyat yuqori bo'ladi. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy media oiladagi qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir qilmoqda. Ilmiy tahlillar ko'rsatmoqdaki, oilaviy muhitdagi muloqot, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatda barqaror, mas'uliyatli va milliy qadriyatlarga sodiq shaxslarni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimiz yoshlariga bayram tabrigi. 2018, 30-iyun.

2. Temirova N.E. Qadriyatlar va yoshlar kamoloti. – T: Falsafa va huquq instituti. 2008. B.26.

3. <https://www.ipsos.com/en-us/news-polls/ipsos-global-dvisory-religion-force-good-world-combined-population-23-major-nations-evenly-divided>

4. https://www.i-t-l.com/ITLLibrary_dev/WorldValues/ITLEbooks/bBfcliuf_ZMs_ebook.html

5. <https://globsoc2022.blogspot.com/2022/10/world-values-survey-activity-comparing.html>
6. <https://ourworldindata.org/data-insights/religion-has-become-less-important-in-some-english-speaking-countries>
7. <https://www.louischauvel.org/inglehartbaker.pdf>
8. <https://one.oecd.org/document/EDU/EDPC%282018%299/ANN2-/En/pdf>
9. <https://www.pewresearch.org/global/2019/04/22/how-people-around-the-world-view-family-ties-in-their-countries>
10. <https://news.gallup.com/poll/4315/family-values-differ-sharply-around-world.aspx>

YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH ASOSIDA MILLIY O‘ZLIKNI YUKSALTIRISH TEXNOLOGIYALARI.

ZJV5401

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNI HARBIY- VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING DOLZARB MASALALARI

Akramova Shaxnoza Abrorovna -
*pedagogika fanlari doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti*

Globallashuv – insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy va axborot sohasida, balki ma’naviy-ma’rifiy sohalarda ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va vatanparvarlik hissining so‘nishi yoshlar ongida ma’naviy bo‘shliq yaratishi mumkin. Prezident SH. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yosh avlodning ongida milliy g‘urur, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish — bu nafaqat ta’lim tizimi, balki butun jamiyatning asosiy vazifasidir” [1].

Bugungi kunda axborot oqimining cheksizligi yoshlarning dunyoqarashiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatmoqda. YUNESKOning 2023-yilgi hisobotida qayd etilishicha, jahonda yoshlarning 68% milliy an’analardan ko‘ra internet orqali shakllangan "global madaniyat" ta’sirida yashaydi [2]. Bu holat milliy o‘zlikni saqlash va Vatanga sadoqatni mustahkamlash uchun ta’lim tizimi oldida yangi vazifalar qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini yangi bosqichga olib chiqish konsepsiyasi” (2022 y.)da ham yoshlarning axborot xavfsizligi va vatanparvarlik tarbiyasini ta’minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan [3].

Maktab yoshi — shaxsning ijtimoiy faollik, mas’uliyat va fidoyilik hislarini shakllantirishda hal qiluvchi bosqich. Shu sababli harbiy-

vatanparvarlik tarbiyasi umumiy ta'limning uzviy qismi sifatida qaralishi lozim.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi — bu shaxs ongida Vatanga muhabbat, uni himoya qilishga tayyorlik, davlat ramzlari va milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayondir. Bu jarayonda quyidagi asosiy vazifalar ajralib turadi:

1. **Ma'naviy-mafkuraviy yo'nalish** — milliy g'oya, tarix va milliy qahramonlar haqida chuqur bilim berish;

2. **Psixologik tayyorgarlik** — jismoniy bardosh, intizom, jamoa uchun javobgarlik hissini oshirish;

3. **Amaliyot bilan uyg'unlik** — harbiy-sport to'garaklari, "Vatan himoyachilari kuni" tadbirlari, "Men Vatan farzandi-man" loyihalari orqali faoliyatni amalga oshirish.

Global axborot maydonida yoshlar ongiga turli mafkuraviy ta'sirlar — virtual "qahramonlar", chet el turmush tarzi, zo'ravonlik va egoizm g'oyalari orqali kirib kelmoqda. Bu esa milliy g'oya va vatanparvarlik qadriyatlarini zaiflashtirish xavfini keltirib chiqaradi.

2024-yilda Ijtimoiy fikr markazi [4] tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari shundan dalolat berdiki:

- 15–17 yoshli o'quvchilarning 58% "vatanparvarlik" so'zining ma'nosini to'liq izohlay olmagan;

- 42% yoshlar faqat "harbiy xizmat"ni vatanga sadoqat ramzi deb hisoblaydi;

- 37% o'quvchi internetdagi "begona ideallar"ga taqlid qilishga moyil.

Bu raqamlar vatanparvarlik tarbiyasida yangi ilmiy-pedagogik yondashuvlar zarurligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda ko'pgina umumiy o'rta ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi tadbir sifatida o'tkaziladi, lekin uning **shaxsiy ehtiyoj** va **ijtimoiy mas'uliyat** darajasiga aylanishi etarli emas. Masalan:

- Tadbirlar ko'pincha rasmiy ko'rinishda bo'lib, o'quvchida ichki his uyg'otmaydi;

- Maqsadli dasturlar yo‘qligi sababli pedagoglar faqat umumiy “tarbiyaviy soatlar” bilan cheklanmoqda;

- Ota-onalarning ishtirok darajasi past (bu 2024-yilgi tahlilda 27%ni tashkil etgan).

Psixologik nuqtai nazardan, vatanparvarlik — bu shaxsning “ijtimoiy men” qismidagi hissiy bog‘lanishdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 12–16 yoshdagi bolalarda Vatan bilan hissiy identifikatsiya ko‘proq “o‘rnak olish” orqali yuzaga keladi. Shuning uchun harbiy xizmatchilar, sportchilar, fan arboblarning hayotiy misollari o‘quvchilar uchun katta ruhiy ta’sir ko‘rsatadi [6].

XXI asr yoshlari – “Z avlod” deb ataladi. Bu avlod to‘liq raqamli muhitda voyaga etgan, internet, ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellekt vositalari bilan shakllangan dunyoqarash egalari hisoblanadi. Bu holat ularning idroki, tafakkuri, ehtiyojlari va qadriyatlar tizimida ilgari kuzatilmagan yangiliklarni keltirib chiqardi. Psixolog A. To‘xtayev ta’kidlaganidek: “Z avlodda real hayot bilan virtual muhit o‘rtasidagi chegara yumshoq, ular voqelikni ko‘pincha onlayn idrok etadilar. Bu esa milliy g‘oya va vatanparvarlik hissini an’anaviy usullarda singdirishni qiyinlashtiradi” [7].

Xalqaro tadqiqotlar va milliy kuzatuvlar asosida Z avlod quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi (1-jadval):

1-jadval
Z avlodning asosiy xususiyatlari

№	Xususiyat	Mazmuni
1	Raqamli onglilik	Internet, smartfon va ijtimoiy tarmoqlar hayotning asosiy qismi. Axborotni tez qabul qiladi, ammo tez unutadi.
2	Individualistik yo‘nalish	Jamoaviy emas, shaxsiy manfaat ustuvor. Bu vatanparvarlik va kollektiv mas’uliyat hislarini zaiflashtiradi.
3	Tez ma’lumot talab qilish	Qisqa video, tez xabarlar orqali bilishni afzal ko‘radi. Darslarda uzoq ma’ruzalarni qabul qilishda qiyinchilik sezadi.
4	Emotsional hassoslik va stressga chidamsizlik	Nevrotik holatlar, tashvish sindromlari ko‘p uchraydi (VHT ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda yoshlar stress darajasi 42%ga oshgan [8]).

5	Global dunyoqarash	Milliy chegaralar emas, umumjahon tendensiyalar bilan fikrlaydi. Bu holat milliy o'zlikni pasaytiradi.
---	---------------------------	--

Bu xususiyatlar pedagogik jarayonni tubdan yangilash zaruratini tug'diradi.

Z avlod bilan ishlashda an'anaviy tarbiya usullari ko'pincha samarasiz bo'lib qolmoqda. Buning bir nechta sabablari bor:

1. Axborot ortiqchaligi va ma'naviy parokandalik. Z avlod ma'lumot oqimining markazida yashaydi. Internetdagi turli mafkuraviy ta'sirlar — xususan, “neytral global fuqarolik” g'oyasi — milliy vatanparvarlikni soyada qoldiradi. UNESCO'ning “Digital Youth Identity Report 2023” hisobotida yoshlarning 61%i o'zini “global fuqaro” deb his qilishi, 39%i esa milliy identifikatsiyani ikkinchi darajali deb hisoblashi qayd etilgan [9].

2. Milliy ideallarning virtual muhitda etarlicha ifoda etilmasligi. Ijtimoiy tarmoqlarda ko'pincha tashqi madaniyat, shou-biznes va trendlar hukmron. Yoshlar uchun Vatan haqidagi ilhomlantiruvchi kontent etarlicha jozibali emas. Shu sabab, “digital vatanparvarlik” konsepsiyasini yaratish zarurati tug'ilmoqda.

3. Ta'lim tizimidagi biryoqlamalilik. Ko'p maktablarda vatanparvarlik faqat tarixiy ma'lumot berish yoki she'r o'qitish bilan cheklanmoqda. Ammo Z avlod hissiy, amaliyotga asoslangan, interaktiv yo'l bilan qabul qiladigan avlodidir. Masalan, harbiy simulyatsiyalar, vatan himoyachisi hayoti haqidagi real keyslar ular uchun ta'sirliroq bo'ladi.

4. Ijtimoiy faollikning pasayishi. Yoshlar ko'p vaqtni onlaynda o'tkazishadi, jismoniy faollik, jamoaviy tadbirlarda ishtirok kamaygan. Bu esa “Vatan uchun harakat” tuyg'usini zaiflashtiradi.

Globalashuv sharoitida yosh avlod ongiga turli madaniyatlar, g'oyalar va axborot oqimlari jadal ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat milliy qadriyatlar tizimida ma'lum turg'unlikni buzib, yoshlarda global fuqarolik hissining kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi faqat milliy tajriba bilan cheklanib qolmasdan, dunyodagi samarali modellar bilan boyitilishi zarur. Masalan, Janubiy Koreya, Turkiya

va Isroil kabi davlatlarda maktab bosqichidayoq harbiy tayyorgarlik, jamoaviy mas'uliyat va fidoyilik ruhini shakllantirish bo'yicha mukammal tizim ishlab chiqilgan (2-jadval).

Bunday tajribalarni o'rganish O'zbekiston ta'lim tizimi uchun muhim, chunki harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat milliy faxr tuyg'usini, balki zamonaviy fuqarolik ongini ham rivojlantiradi [11]. Xalqaro modellarda emotsional ta'sir, interaktiv o'quv usullari va psixologik motivatsiyaga katta e'tibor beriladi. Masalan, Singapurda "National Education Program" orqali har bir o'quvchi o'zini Vatan himoyachisi sifatida his etish uchun ijtimoiy rol o'yinlar, simulyatsiyalar va ijtimoiy xizmatlarda ishtirok etadi. Bu yoshlarda amaliy tajriba va javobgarlik hissini kuchaytiradi.

2-jadval.
Xorijiy tajriba va o'zaro qiyos

Mamlakat	Tajriba mazmuni	O'zbekiston uchun foydali jihat
Rossiya	"Yunarmiya" harakati orqali harbiy-patriotik klublar tarmog'i	Yoshlar harakatini tizimli qilish, uni ta'lim bilan bog'lash
Janubiy Koreya	Milliy qahramonlar hayotini multimedia vositalarida o'qitish	Tarbiyada vizual va raqamli usullarni qo'llash
Turkiya	"Milliy qadriyatlar haftaligi" dasturi	Har bir maktabda milliy bayram va qadriyatlarni haftalik formatda o'tkazish
AQSH	"Civic Education" dasturida fuqarolik mas'uliyatiga urg'u beriladi	Yoshlarda davlat ramzlariga hurmat va qonunga itoatni kuchaytirish

O'zbekistonda ham shunday tajribalarni lokal madaniyat va milliy g'oyaga moslashtirib joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xalqaro usullardan ilhomlanib, lekin milliy ruhni saqlagan holda ishlash orqali harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi zamonaviy formatga olib chiqiladi. Bu jarayon nafaqat yoshlarning milliy o'zlikni anglashini chuqurlashtiradi, balki ularni global dunyoda Vatan manfaatlarini himoya qila oladigan ma'naviy barkamol avlod sifatida voyaga etkazadi.

Z avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunda nafaqat ta'lim tizimi, balki milliy xavfsizlik siyosati uchun ham strategik vazifadir. Bu jarayonda asosiy yo'nalishlar quyidagicha:

- **Ma'naviy kodni qayta yaratish:** Vatanparvarlikni zamonaviy, "Z avlod tilida" ifodalash zarur;

- **Harbiy madaniyatni insonparvarlashtirish:** qo'rqitish yoki intizom orqali emas, balki ilhom va faxr orqali shakllantirish;

- **Interaktiv formatlarni kengaytirish:** raqamli o'yinlar, onlayn viktorinalar, milliy qahramonlar haqidagi seriallar;

- **Psixologik ta'sir usullarini kuchaytirish:** shaxsiy o'rnak, hissiy yondoshuv, qahramon bilan identifikatsiya.

Z avlod uchun vatanparvarlikni shakllantirishda quyidagi innovatsion yo'llar tavsiya etiladi:

1. **Geymifikatsiya va simulyatsiya texnologiyalari** – Masalan, "Men himoyachiman" nomli VR-simulyator orqali o'quvchilar harbiy qaror qabul qilish jarayonida ishtirok eta oladi. Bu ularda mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

2. **Digital kontent orqali vatanparvarlik** – TikTok, YouTube va Telegramda milliy qahramonlar haqidagi qisqa videolar, "O'zbekiston faxrlari" rubrikalari tashkil etish orqali yoshlarning diqqatini milliy fidoyilikka jalb qilish.

3. **Emotsional intellekt orqali tarbiya** – Psixologik treninglar, debatlar va rivoyatlar orqali "Vatan – bu his" konsepsiyasini hissiy darajada singdirish.

4. **Harbiy-vatanparvarlik mavzularga oid kvestlar va "Jonli tarix" darslari** – Masalan, maktablarda "Turon izidan" yoki "Jasorat yo'li" kvestlarini o'tkazish — bu yoshlarda faol ishtirok hissini uyg'otadi [10].

Z avlod yangi dunyo qarash egalari bo'lib, ularni an'anaviy metodlar bilan tarbiyalash samara bermaydi. Vatanparvarlik bugun "raqamli formatdagi his"ga aylanmoqda. Shu bois, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida innovatsion, hissiy va interaktiv usullarni qo'llash – zamon talabi, millat kelajagining kafolatidir.

Globallashuv – milliy o‘zlikni yo‘qotish emas, balki uni yangi bosqichda anglash imkoniyatidir. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi faqat harbiy tayyorgarlik emas, balki milliy o‘zlikni asrash, ma’naviy mustaqillik va jamiyat xavfsizligini ta’minlaydigan kuchli ruhiy asosdir. Shu bois, ta’lim tizimida bu yo‘nalishga ilmiy, innovatsion va hissiy yondashuvni mustahkamlash dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. “Yangi O‘zbekiston – xalqimizning milliy g‘oyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. UNESCO. *Global Education Monitoring Report 2023*. – Paris: UNESCO Publishing, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2022 yil 20 dekabr, №729 “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini yangi bosqichga olib chiqish konsepsiyasi”.
4. Ijtimoiy fikr markazi hisoboti, 2024 yil (rasmiy.gov.uz).
5. MEXT Japan. *Moral and Citizenship Education in Japan Schools*. – Tokyo, 2022.
6. Karimov A., Juraeva D. (2022). *Patriotic Education and Emotional Identification in Adolescents*. – Tashkent State Pedagogical University Journal, №4, pp. 87–95.
7. To‘xtayev A. “Z avlod psixologiyasi va ta’limda yangi yondashuvlar”. – T.: Ijtimoiy fikr, 2022.
8. World Health Organization. *Adolescent Stress and Digital Overload Report 2023*. – Geneva, 2023.
9. UNESCO. *Digital Youth Identity Report 2023*. – Paris, 2023.
10. Akramova Sh.A. Harbiy pedagogika. – Toshkent: HTI, 2019 y. 359b.
11. Karimova N. “Vatanparvarlik tarbiyasida media ta’sir mexanizmlari”. – *Ta’lim va Innovatsiya* jurnali, №2, 2024.

MISSIONERLIKNING NOAN'ANAVIY KO'RINISHLARI VA UNI YOSHLAR FAOLIYATDA NAMOYON BO'LISHI

Musaev Mansur Tursunpo'latovich,

siyosiy fanlari doktori (DSc), dotsent.

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti*

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan murakkab globallashuv jarayonlari tufayli ma'naviy xurujlar, yot g'oya va mafkuralar ta'siri ham tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, missionerlikka yo'naltirilgan harakatlar nafaqat insonlarni e'tiqodiga, balki turli din, millat va elatlarning hamjihatligiga rahna solayotgani hamda siyosiy ta'sir doirasiga olishning vositasiga aylanib qolayotganini inkor etib bo'lmaydi. Avval ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy-huquqiy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan missionerlik mafkuraviy ekspansiyaning nozik va nisbatan arzon shaklida allaqachon ayrim davlatlar amaliyotiga aylanib ulgurdi. Jahonda hozirgi davrda missionerlik guruhlaridan tomonidan «beg'araz» yordam ko'rsatish bahonasida yo'naltirilayotgan katta moliyaviy mablag'lar dunyo miqyosidagi ijtimoiy-siyosiy barqarorligiga rahna solib, dunyoqarashi to'liq shakllanmagan, din to'g'risida holisona fikriga hamda o'zining qat'iy fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lmagan kishilarni o'z domiga tortmoqda. Natijada, missionerlik global miqyosda inson qalbiga, ongiga, tafakkuriga hamda jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan buzg'unchi mafkura sifatida namoyon bo'layotganligi, bu muammoni qanchalik muhim ekanligini ko'rsatmoqda. Bu haqda fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'biri bilan aytganda «Yangi tahdidlar», jumladan, «ommaviy madaniyat», missionerlik, prozelitizm xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, milliy va diniy qadriyatlarning yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda»[1].

Zamonaviy jamiyatni xavf ostiga qo'ygan eng katta xavflardan biri bo'lgan «Missionerlik» virtual dunyoda ham jiddiy tahdid manbasiga aylandi. Yuz yillar davomida yurtimizdagi ma'naviy muhitni yashirincha buzishga uringan missionerlar endi internet platformalarida o'z

faoliyatlarini bemalol amalga oshirishlari mumkin. O'zlarining xurofiy g'oyalarini tarqatish maqsadida ishlab chiqqan virtual ilovalar, veb-saytlar va raqamli reklamalar bilan faoliyatini davom ettirayotgan missionerlarning maqsadli auditoriyasi bolalar va yoshlardir. Shu boisdan ham virtual olamda turli tuzoqlar orqali o'z g'oyalarini tarqatayotgan missionerlik guruhlarini faoliyatining oldini olish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Axloqsiz va deviant xulq-atvoriga ega bo'lgan LGBTI tashkilotlari ham virtual dunyodan unumli foydalanadilar. Islomiy qadriyatlarga, madaniy tuzilmamizga, hatto oila institutiga qarshi urush olib borgan deviant tashkilotlar internet olamida va ijtimoiy tarmoqlarda reaksiyaga sabab bo'ladigan loyihalarini erkin amalga oshirmoqda. O'z buzuvchi g'oyalarini tarqatayotgan LGBTI tashkilotlari kelajak avlodlarimizning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarini inkor etmoqda.

Zamonamizning kasalligiga aylangan texnologiyaga qaramlik ijtimoiy tarmoqlar va virtual o'yinlar bilan o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Katta vaqtni yo'qotishga olib keladigan texnologiyaga qaramlik o'z joniga qasd qilishgacha bo'lgan tahdidlarga to'la. Ijtimoiy tarmoqlarda real odamlar virtual olam bilan fikr almashadi, forum, chatga kirib, muloqotda bo'ladi. Demak, har bir ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchisi onlayn missionerlik tahdidiga nishon bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda jamiyatda noan'anaviy, diniy tashkilotlar va missionerlik faoliyati tizimli va «qonuniy» tus olib, faollashib bormoqda. Ba'zi an'anaviy o'zbek oilalari diniy e'tiqod jihatidan ikkiga bo'linib, oila ichida katta ijtimoiy va kognitiv muammo yuzaga kela boshladi. Bu shunchaki oila masalasi emas, oila jamiyatning tayanchi, davlatning tayanchidir. Oilaning bo'linishi jamiyat birligiga, madaniyat yaxlitligiga tahdid soladi. Endi jamiyatdagi bugungi jarayonning ertangi oqibatlariga umid qilsak, ijobiy natija kutayotgan bo'lsak, bugungi kunda o'z yo'nalishimizni, milliy pozitsiyamizni aniqlab, amalga oshirilayotgan jarayonning asosiy tarkibiy qismi sifatida joriy etishimiz zarur.

Islom dini o'zbek xalqi o'zligi va madaniyatining asosiy tomiri va homiysidir. Shunday ekan, agar bizda ajralmas qadriyatlar, ya'ni dinimiz va davlatchiligimiz bo'lsa, davlatchiligimiz asosi o'zbek madaniyati bo'lsa,

uni rivojlantirish yo'lida uning asosiy qadriyatiga hurmat va g'amxo'rlik zarur. Bu o'rinda davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tarixiy ontologik tamoyil orqali aniqlab berish zarur. Buning uchun respublikamiz, demokratik davlat sifatida amal qilayotgan dunyoviylik tamoyilini madaniyatimiz, dunyoqarashimiz, tarixiy xotiramiz talablarini hisobga olgan holda aniq talqin qilish zarur. Bu o'zbek milliy davlatchiligi, kuchini mustahkamlashning zaruriy shartidir. Davlat, tarix, sivilizatsiya, madaniyat, makon va zamon nuqtai nazaridan bu juda tabiiy va zaruriy shartdir.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistondagi missionerlik tashkilotlarining bugungi faoliyati «kuch sinovi» o'yinlarining o'ziga xos shakli bo'lib, xalqaro munosabatlarda odatiy holdek ko'rinadi. Kuch sinovining salmog'i yaqqol ko'rinib turibdiki, globallashuv va mustamlakachilikning siyosiy tizimli kanali, siyosiy hodisaga ega bo'lgan «muloqot» va «sivilizatsiyalar to'qnashuvi» nazariyalarining tiklanishi ta'siridir. Ularning maqsadi faqat dinni tarqatish emas. Ular o'zbek xalqining ijtimoiy, diniy va madaniy xususiyatlarini o'rganib, undan o'ziga xos bozor sifatida foydalanishni maqsad qilgan. Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizdagi missionerlik tashkilotlari markazlari mintaqada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar va ijtimoiy ziddiyatlarni o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Ularning harakatlari siyosiy ideallarini ochib beradi. Anavi, ular o'z missiyalarini davlat-fond-cherkov uchligi asosida tashkil qiladilar. Ko'rib turganimizdek, missionerlik faoliyati G'arbning madaniy, siyosiy va iqtisodiy ekspansiyasining ajralmas qismi va oldingi ekspeditsion razvedka tizimlari tarmog'idir. Zamonaviy tahdidlar hisoblangan missionerlik va prozelitizm muammolari borgan sari murakkablashib, mintaqada darajasidan kengayib, xalqaro miqyosda xavfsizlikka tahdid solmoqda. Ushbu tahdidlar hududiy jihatdan yoyilib qolmasdan, balki g'oyaviy jihatdan ham mustahkamlanib bormoqda. Missionerlik va prozelitizm xurujlari natijasida bir mintaqada sodir bo'layotgan siyosiy beqarorlik dunyoning boshqa mintaqasida ijtimoiy – iqtisodiy muammolarga sabab bo'lmoqda. Dunyo bo'ylab xalqaro xavfsizlikka rahna solayotgan ushbu tahdidlarga qarshi kurashda davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Xopijiy moliyaviy ko'mak acocida moliyalashtirilayotgan missiонерlik strategiyasida akcipiyat holatlapda ciyociy maqcadlapni ko'zlab hapakat qilayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ziddiyatlapdan o'z manfaatlapni yo'lida foydalanib kelayotgan tupli xil ciyociy-mafkupaviy gupuxlap etnik-milliy, diniy acocda yangi ziddiyatlapni ongli pavishda avjiga chiqapmoqdalap[2].

Fuqarolarining diniy intilishlari susaygan bo'lsa-da, uchinchi dunyoda missiонерlik harakatlarini ikki baravar oshirdi. Ularning diniy markazi bo'sh bo'lsa-da, xorijda missiонерlik faoliyatini davom ettirmoqda. Gap shundaki. Ya'ni, din – ma'naviyatimizni zabt etish va nasroniylik orqali boylikka ega bo'lishning oson yo'lidir. Shu o'rinda bir afrikalik olimning so'zlari yodga tushadi. «Ular (missiонерlar) kelganlarida, qo'llarida Injil, bizning qo'limizda esa oltin bor edi. Endi bizda Injil bor, ularda esa oltin bor. «Bo'ldi shu. Bizda gaz va neft bor. Bu masalani davom ettirish va bashorat qilish mumkin. Ularning maqsadi aniq, qadamlari qat'iy, ularning qilmishlari aniq, lekin ichki niyatlarini ko'rsatmaydi. Tarix davomida ular ko'pincha G'arb gegemonligi, jumladan, harbiy, iqtisodiy va madaniy mustamlakachilikning dastlabki shartlarini tayyorlashda qatnashgan. Xristianlikni yoyishga intilgan missiонерlar goh askar, goh shifokor, goh o'qituvchi, goh tinchlik jarchisi bo'lib xizmat qiladi. Ular, shuningdek, boshqalardan yordam olishadi, masalan, «Vanderers», g'amxo'r, rahm-shafqatli, rahmdil rohiblar yoki rohibalar, homiylar yoki mehribonlik uylari va qariyalar uylarining asoschilaridir. Bu xristianlikning pravoslav, protestant va katolik mazhablariga xosdir. Ular sotsiolog-tahlilchi sifatida o'lka va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi va siyosiy tizimini o'rganadi va shu asosda harakat qiladi. Yangi diniy oqimlar izdoshlarining turmush tarzi, missiонерlik faoliyati usullari, moliyaviy ahvoli, jamiyatga munosabati, mamlakat qonunlari bilan ham farqlanadi.

U jamiyat mentalitetini belgilab beruvchi ijtimoiy qarama-qarshilik va tafovutlarga zarba beradi. Bular, asosan, o'zbek xalqining tabaqaviy tafovutlari, hokimiyat tepasida turganlarning manfaat va niyatlari, siyosiy partiyalar rahbarlari, so'fiy salafiylarning mavjudligi bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, missiонерlar, eng avvalo, jamiyatda guruhlar

yoki guruhlar o'rtasida nafrat, qasos, adovat bormi, degan savoldan boshlaydi. Keyin, missionerlar zaif, past, xo'rlanganlarning yonida o'tirishadi. Ularga otasi qilmagan yaxshilik qiladi. Raqib jamoa ham «haqoratlanganlar» bilan kurashadi. Ozodlik ilohiyotlari orqali ular osongina suvga cho'mishni boshlashlari mumkin. Missioner bu harakatlarni prinsipial, prosessual va tizimli va fidokorona bajarishga tayyor.

Missionerlik tashkilotlari doimo siyosiy hokimiyat bilan yaqin aloqada bo'lib kelgan. Yaqin tarixda Portugaliya, Ispaniya, Fransiya va Germaniya Germaniya, Irlandiya va Qo'shma Shtatlardagi katolik missionerlarini qo'llab-quvvatlab, yana bir bor o'z mustamlakalarini nazorat qilishdi. 18-asrgacha diniy xarakterdagi bu missionerlik keyinchalik Evropadagi xristian imperializmining eng katta quroliga aylandi. Bu safar u missionerlik diniga emas, balki davlatlarning mustamlakachilik siyosatiga xizmat qildi. Eng muhim jihati shundaki, missionerlar musulmonlarga qarshi harakat qilgan.

Missionerlik tashkilotlari va cherkovlar o'z shtatlarining rahbarligi va nazorati ostida faoliyat yuritadi. Buni isbotlash uchun bizda etarlicha dalillar bor. Bu masala juda aniq va ochiq. Ularga ruh va kuch-quvvat baxsh etuvchi mahalliy unsurlar ham beixtiyor yoki ataylab missionerlik faoliyati uchun vosita sifatida foydalaniladi. Johillar o'zbek madaniyati, tili, davlatchiligi, ziyolilariga befarq, ularni kosmopolit, baynalmilal yoki ekstremal gumanist deyish mumkin. Uni ataylab qurol qilib qo'yganlarga kelsak, ular chin dildan nasroniylikni qabul qilib, dinini, ya'ni qobig'ini o'zgartirib, yagona ruh, yagona Xudo bo'lmish Isoning o'g'li bo'lishga intilishdi. Ular ham bizning fuqarolarimiz, yurtdoshlarimiz. O'zbek oilasidagi dilemma, dialektik pozitsiya, markazlarning faoliyati, asosiy maqsadi ko'plik muloqot psixologiyasini o'rnatishdan iborat bo'lganligi yaqqol namoyon bo'ldi. Bu markazlar xristian olami va boshqa shu kabi dinlar mafkurasini singdirishga qaratilgan siyosiy fondlardir.

Din va madaniyat qadriyatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Binobarin, bu tashqi kuchlarning maqsadi sizning tarixiy ongingizni, qadriyatlaringizni, mafkuraviy, huquqiy, axloqiy xususiyatlaringizni, bir

soʻz bilan aytganda, milliy oʻzligingizni baynalmilallashtirishdir. Bu oilada shakllangan ustunlar va qadriyatlar oʻrtasidagi ziddiyatlarga olib keladi. Endi esa oilada, jamiyatda va davlatda «Sen va men» aql-idrokini, baxtini yoʻqotishi muqarrar. Binobarin, diniy qarashlar, mafkuraviy boʻlinishlar millat, madaniyat va oilaning parchalanishiga tahdid solayotganini anglab etish zarur. Mushtarak qadriyatlarimiz asosida hayotimizni hurmat qilish, himoya qilish, asrash, rivojlantirish va barpo etish bu yurt rivoyatining bosh tamoyilidir.

Missionerlikning asosiy maqsadi jamiyatda oʻzlariga xayrixoh boʻlgan guruxlar va tarafdorlar sonini shakllantirish orqali mamlakat oʻstidan oʻz nazoratini oʻrnatishdir. Ayniqsa, bir dinga eʼtiqod qiluvchi dindorlar orasiga nizo va nifoq solish orqali fuqarolarni oʻzga dinga oʻtkazishga boʻlgan intilishlar tobora kuchaymoqda. Xususan, musulmonlarni xristianlikka, xristianlarni esa krishnachilikka, provaslavlarni protestantlikka «daʼvat etish» bevosita missionerlik natijasida sodir etilmoqda. Missionerlik tarafdorlari tomonidan insonlarni tashkilotga aʼzo qilishda eng avvalo, ularni maʼnaviyatiga taʼsir koʻrsatish muhim oʻrin egallaydi. Shu bilan birga, missionerlik faoliyatini qoʻllab quvvatlash va uni yanada rivojlantirish uchun katta mablagʻlar turli loyihalar, jumladan, taʼlim va xayriya loyihalarini amalga oshirishga sarflanadi. Ayniqsa, bu borada xorijga missionerlarni yuboruvchi ayrim markazlar missionerlik faoliyati uchun katta mablagʻlarni sarflashadi. Hozirda maʼnaviy, siyosiy, iqtisodiy-huquqiy tahdid sifatida namoyon boʻlayotgan missionerlik mafkuraviy tajovuzning nozik va nisbatan arzon shaklida allaqachon ayrim davlatlar amaliyotiga aylanib boʻldi. Zero, missionerlik harakatlari fuqarolarning ayrim konstitutsiyaviy majburiyatlarini bajarishini cheklaydi. Davlat madhiyasi shiorni bajarishdan bosh tortadi va davlat ramzlariga hurmatni tugatadi. Missionerlik tashkilotlari bir qator mamlakatlarda davlat idoralari, xayriya fondlari, nodavlat tashkilotlar, moliyaviy guruhlar tomonidan moddiy va maʼnaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlanadi.

Rivojlangan davlatlar missionerlik tashkilotlari orqali xorijiy mamlakatlardagi ichki «iqtisodiy muammolarni» hal etishda bevosita ishtirok etadilar. Missionerlik strategiyasida jamiyat va davlat darajasidagi

«iqtisodiy muammolarni» engishda fuqarolarning ishtirokiga alohida e'tibor qaratishadi. Bu haqda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta'biri bilan aytganda, "Ba'zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi va ulardan ustun qo'yish holatlari kuchaymoqda. Diniy e'tiqod niqobi ostida yoshlarni ma'rifatga emas, jaholatga undayotgan kishilar paydo bo'lmoqda"[3].

Missionerlar mezbon davlatning dini, tarixi, urf-odatlarini, mentaliteti va psixologiyasini o'rganadilar. Ko'pgina missionerlar o'z xizmatlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun yashab, mahalliy aholining tili, urf-odatlarini va munosabatini o'rganadilar. Aytish mumkinki, mamlakatimizdagi protestant va neoprotellant cherkovlarining missionerlik faoliyati xalqimizning diniy birligi va hamjihatligiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Chunki, bir etnik guruhning turli diniy e'tiqodlarining mavjudligi milliy yaxlitlikni saqlashga, hatto mamlakat yaxlitligini bosqichma-bosqich saqlab qolishga jiddiy xavf tug'diradi. Noan'anaviy din vakillari, ya'ni missionerlar o'z e'tiqodlarini yoyishda turli usullardan foydalanadilar. Garchi, u qonuniy ravishda ro'yxatdan o'tgan va omma oldida ishlayotgandek ko'rinsa-da, majoziy ma'noda ko'p ishlarni bajaradi. Zamonaviy til kurslari va xayriya jamg'armalari ko'payib, o'z tarafdorlarini topayotgani buning dalilidir. Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv sharoitida dunyo miqyosida diniy nifoq solish orqali tinchlik va barqarorlik tahdid solishga intilayotgan missionerlikka qarshi kurashda yoshlarimizni milliy Vatanparvarlik g'oyalariga sodiq etib tarbiyalashni zamon talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Tinchlik, ma'rifat va bunyodkorlik yo'lida hamkorlik. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyevning Toshkentdagi simpoziumlar saroyida Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // «Xalq so'zi» online, 2016 yil 19 oktabr.

2. Paxrutdinov Sh. Mustaqillik va jamiyat taraqqiyotiga tahdid muammoasi (siyosiy tahlil tajribasi) s.f.n. ilmiy darajasi uchun yozilgan dis. 23.00.02. – Toshkent, 1999.

3. Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. Yangi O'zbekiston gazetasi. 2023 yil 23 dekabr, 267-son

INTERNETOMANIYA GIYOHVANDLIKDIR

M.Bo'ronov,

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

Dunyoda aqli raso insonlar tomonidan kashf etilgan, yaratilgan barcha fan-texnika yangiliklari, texnologiyalar Insoniyat kelajagiga xizmat qilish uchun yaratiladi. Kashfiyotlar Inson bolalarining yorqin hayotda yashashi, tamaddunda yanada ildamlab ketishi uchun o'ziga xos omil bo'lib xizmat qilmog'i kerak.

Internetning kashf etilishi va uning insoniyat hayotiga kirib kelishi ham tamaddun taraqqiyotida katta o'zgarishlarni, imtiyoz va qulayliklarni olib keldi. Bugungi dunyoni, uning iqtisodiy, madaniy, siyosiy rivojlanishini internetsiz, raqamli texnologiyalarsiz tasovvur qilib bo'lmaydi. Internetni texnologik dunyoda rivojlanish sari qo'yilgan mislsiz qadam deyish mumkin. Agar uning imkoniyatlaridan taraqqiyot yo'lida aql bilan foydalanilsa, ne-ne marralarni qo'lga kiritish mumkin bo'ladi.

Ammo bugun... Bugun deymizu, internet millatimiz taraqqiyotining dushmaniga aylanganiga ancha bo'ldi, Amudaryo bilan Sirdaryodan qancha suvlar oqib o'tdi. Bu davrda u keltirgan va ayni damlarda ham keltirayotgan ma'naviy, ruhiy, aqliy, jismoniy zararni sog'lom aql bilan o'lchab, salmoqlab ko'rsak, koronavirus dunyoga keltirgan zarardan bir necha barobar ortib tushmoqda. Koronavirusga-ku butun dunyo jamoatchiligi qarshi kurashdi, milliard dollarlab mablag'lar sarflandi. Ammo internet xalqimizga keltirayotgan zararga qarshi hali hech kim, hech

qanday tuzilma keskin choralarni ko'rayotgani yo'q. Aksincha u yuqumli va tanaga kirib olgandan keyin asta-sekin butun a'zoyi badan bo'ylab yoyiladigan kasallik kabi jamiyatning barcha qatlamlarini kun sayin qamrab olmoqda.

Bugun butun jamiyat, ayniqsa, yosh avlod qo'lida telefon uskunasi, amaliy hayot qolib, virtual hayotga sho'ng'ib ketgan. Ko'chada yurib, kuzatsangiz hammaning qo'lida telefon uskunasi, yurib boraturib, skameykada o'tirib, nimadir xarid qilish uchun navbat kutib, savdo rastasida narsa sotib, mashinada yurib, ish joyida o'tirib, kasalxonada yotib, oshxonada ovqatlana turib, qo'yingki inson qanday vaziyatda bo'lmasin qo'lida telefon uskunasi va u internet tarmog'ida qandaydir narsalarni o'qish, tomosha qilish bilan mashg'ul. Oila davrasida ham, dasturxon atrofida ham deyarli ko'pchilik internetdan ko'zini uza olmay qoldi. Er xotinini, xotin erini, ota-ona bolalarini, bolalar esa ota-onani, bobo-buvilar nevaralarni yo'qotib qo'ydi. Oila davrasidagi avvalgi suhbatlar boradigan joyiga borib bo'ldi.

Ma'lumotlarga ko'ra 2025-yil yanvar holatida respublikamiz aholisining qariyb 90 foizi (Rossiya va Yevropa davlatlaridan sal orqaroqda) internetdan foydalanadi. Bu borada O'zbekiston O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida eng peshqadam. Dunyo aholisining internetdan foydalanish darajasi esa 68 foizni tashkil qilmoqda.

Dunyodagi rivojlangan davlatlarda bu kasallik o'tgan asrda avj pallasiga chiqib, bugungi kunda internetga, ijtimoiy tarmoqlarga, telefon uskunasiga qiziqish deyarli kamayib ketgan. Ularda insonlarning ko'pchiligi uyali telefon uskunasidan kerak paytdagina foydalanishadi. Masalan, olimlar tomonidan so'rov o'tkazilganda 62,8 foiz odam internetga kerakli ma'lumotlarni olish uchun kirishini ta'kidlagan.

Misol uchun, qaysidir manbadan olingan ko'chirmani emas, o'zim guvoh bo'lgan bir voqeani esga olaman. Xizmat taqozosi bilan 2023 yilda Mo'ynoqqa safarga bordik. Qaytishda Nukus aeroportida samolyotning uchishi biroz kechiktirildi, bilsak, chet ellik sayyohlar guruhi etib kelishi kerak ekan. Yigirma minutlardan keyin 80 chog'li sayyoh aeroportga keldi. Kutish zalida mahalliy fuqarolardan 100 kishidan ortiqroq va sayyohlar,

hamma samolyot bortiga taklif qilishlarini kutib turibdi. Shu payt yaqinimdagi o'rindiqda o'tirgan sayyohning sumkasida telefon jiringlab qoldi. U sumkasini ochib, telefonni oldi, qulog'iga qo'yib, ingliz tilida kim bilandir qisqacha gapirdi-da, uskunani yana qaytib sumkasiga soldi. Shunda birdan xayolimga "Telefonini sumkasida olib yurar ekan, qanday yaxshi" degan fikr o'tdi. Shu sabab bo'lib boshqa sayyohlarga ham bir-bir qarab chiqa boshladim – birortasining qo'lida uyali telefon uskunasi yo'q, birovi jurnal, birovi kitob o'qib o'tiribdi, yana bir nechtasi bir-biri bilan suhbatlashmoqda. Shundan keyin o'zimiznikilarga bir-bir qarab chiqdim. Yuz foiz hamma, hatto mening hamrohlarim ham, qo'lida uyali telefon uskunasi, boshini egib internerga kirib olgan. Hayratdan yoqa ushladim, esiz!..

Virtual hayot, ya'ni reallikdan uzoq bo'lgan son-sanoqsiz engil-yelpi voqea-hodisalardan iborat ummondek cheksiz-poyonsiz kontentlar yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlar tafakkurini haqiqiy hayotdan xayolot dunyosiga etaklab kirib ketib bo'ldi. Virtual xayolot dunyosi ta'sirida shakllangan bir necha qatlam yosh avlod real hayot bilan emas, havoyi tuyg'ular, asoslanmagan tasovvurlar, xulosalar bilan yashamoqda va buni "Yangi hayot", deb tasovvur qilmoqda. Bugun ana shunday ayrim yoshlar bilan suhbatlashish, hayotni, kelajakni sog'lom muhokama qilish mutlaqo mumkin bo'lmay qoldi: Siz real hayotdan gapirsangiz, ular virtual hayotdan misollar keltiradilar va o'z iqrorlaridan qaytmaydilar.

Bundan yuz yillar avval jadid bobolarimiz milliy qusurlarimizni bartaraf qilish haqida qayg'urib, jumladan, farzandlarni o'qimishli qilish, maktablar ochish, to'ylar, tantanalarni qisqartirish, ularga sarflanadigan mablag'larni farzandlar kamoli uchun shart-sharoit yaratishga yo'naltirish haqida maqolalar, asarlar yozishgan, amaliy ishlarni bajarishgan edi.

Xuddi shunday, internetomaniya ham bugungi kunda millatimiz taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'lgan illat darajasiga ko'tarildi. Agar bugun jadid bobolarimiz hayot bo'lganlarida, dabdabozlikdan ham oldin, xalqimizning, ha, xalqimizning – etti yoshdan etmish yoshgacha, balki undan ham kengroq dorada, amaliy hayotni unutib, internet tarmoqlariga,

ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarga g'arq bo'lib ketganligini ko'rib, faryod chekkan bo'lar edilar.

Bugun xalqimiz, ayniqsa, yoshlar, jumladan, uyushmagan yoshlarning internetga qaramligi shu darajada chuqurlashib ketdiki, uni bu vaziyatdan davlat siyosati darajasida qutqarib olish zarurati tug'ilmoqda. Chunki internet, ijtimoiy tarmoqlardagi real hayotdan chalg'ituvchi virtual dunyo shaxsni ruhiy, aqliy, intellektual jihatdan o'tmaslashtirib, uni real hayotdagi voqea-hodisalardan emas, virtual hayotdagi yasama narsalar tahlili asosida xulosalar chiqaradigan mavjudodga aylantirib qo'ydi. Ijtimoiy tarmoqlardan olinayotgan yozma, ovozi va videotasvirli axborotlarning, bir-biriga qarama-qarshi axborot va xulosalar beruvchi kontentning haddan tashqari ko'payib ketishi xuddi koronavirusdek inson xotirasini pasaytirib yubormoqda. Ko'plab jamiyat a'zolari virtual hayot bilan haqiqiy hayotni ajrata olmay qoldi.

Internet nega bu qadar jamiyatdoshlarimizni yutub yubordi, degan savol bugun har birimizni qiynamoqda. Bunga bizningcha ilmiy asoslar mavjud. Dunyo olimlarining tadqiqotlariga asoslanib xulosa chiqaradigan bo'lsak, har bir narsaning me'yori bor. Har bir narsadan me'yorida iste'mol qilish aql bilan yashash tamoyillariga to'g'ri keladi. Me'yordan ortiq iste'mol, albatta, tana va ruh salomatligiga rahna soladi. Me'yordan ortiq iste'mol qilish yoki haddan ortiq berilib ketish "maniya" holatini vujudga keltiradi. "Maniya" – bu, nimagadir haddan ortiq berilib ketish. Masalan, narkomaniya – giyohvand moddalarni iste'mol qilishga ruju qo'yish. Shu nuqtai nazardan jamiyatimiz a'zolarining internetbozlik bilan bog'liq bugungi holatini "Internetomaniya" deb atash mumkin. Internetomaniya tom ma'nodagi, narkomaniyaga o'xshagan kasallik. U ham giyohvand moddalar singari insonlarni jismoniy, ruhiy, intellektual ojizlik sari etaklaydi.

Ikkila "maniya"ning ham insonga ta'siri bir xil. Masalan, inson giyohvand moddani iste'mol qilishga nega qaram bo'lib qoladi? Avval unga kimdir giyohvand moddani tatib ko'rish uchun bir marta, ikki marta beradi. Giyohvand modda odamga "kayf" beradi. U qanday sodir bo'ladi? Giyohvand modda tanaga kirganidan keyin asab tolalari bo'shashib,

neyronlar tutashgan joylardan dofamin moddasi ko'p ajralib chiqib boshlaydi. Natijada aql tiniqlashadi, tana kuch-quvvatga to'ladib, ruh tetiklashadi va boshqa kishiga yoqimli bo'lgan "ijobiy" hodisalar sodir bo'ladi. Giyohvand modda insonga yolg'on "baxtlilik" kayfiyatini beradi. Va bora-bora inson shunga butunlay o'rganib qoladi va giyohvand moddalarga qaramlik boshlanadi. Demak, o'sha inson giyohvand modda iste'mol qilmasa, miyadagi neyronlar dofamin moddasini juda kam ishlab chiqaradi va inson o'zini baxtsiz, kuchsiz, ojiz his qila boshlaydi. Dofamin moddasining etishmovchiligi oqibatida uning boshiga kuchli og'riq kiradi, butun vujudini titroq bosadi. Va o'sha inson qanday bo'lmasin, o'g'rilik yo'li bilanmi, odam o'ldiribmi, giyohvand modda topishga va iste'mol qilishga majbur. Alkogol ichimliklarga, nikotinga, nosvoyga (kashandalik), turli shirakayf qiluvchi tabletkalarga qaramlik ham xuddi shunday tuzatish mushkul bo'lgan qaramlikni keltirib chiqaradi.

Bugun jamiyatimizda shakllanib ulgurgan minglab "Internetoman"larning bugungi holati "narkoman"ning yuqorida tasvirlangan holatiga o'xshaydi. Chunki internetomaniyaning insonni o'ziga qaram qilish mexanizmi, millionlarni ta'siriga tortish omili dofamin bilan bog'liq. Ya'ni inson internet tarmog'ida qanchalik ko'p vizual olam bilan birga bo'lsa, diqqatga, miyaga ta'sir etuvchi har xil narsalarni qancha ko'p ko'rsa, neyronlar tutashgan joylardan ajralib chiqadigan va "baxt" ruhiyatini beruvchi dofamin miqdori shunchalik ko'p bo'ladi. Shuning uchun inson bir daqiqa bo'lsa ham bo'sh qoldimi, qo'li telefon uskunasi borib, uni oladida, ijtimoiy tarmoqlarni tiqilay boshlaydi. Agar u internet tarmog'iga kirmasa, nimanidir yo'qotgandek, nimadir kamdek, nimadir etmayotgandek bo'lib tuyulaveradi. Albatta, bu qandaydir nimadir emas, miyada, tanada dofamin miqdori kamaygan bo'ladi. Dofamin kamaydimi, demak inson o'zini noqulay, "baxtsiz" his qila boshlaydi. Shunday yurtdoshlarimiz dofamin jarligi yoqasida umr o'tkazmoqda.

Har qanday qaramlik – bu nosog'lomlikdir. Hatto kitobni ham haddan ortiq, kecha-yu kunduz o'qish insonni haqiqiy hayotdan uzoqlashtirib qo'yadi. Demak, me'yorlar doirasidan u yoki bu tomonga chiqish

kasalliklarni keltirib chiqaradi. Nosogʻlom tanani, nosogʻlom jamiyatni sogʻlomlashtirmay turib, unga katta yukni yuklab boʻlmaydi.

2019-yil oxiri, 2020-yil davomida dunyo miqyosida, jumladan bizning respublikamizda ham koronavirusni engish, undan insonlarni qutqarib qolish, virus bilan kasallanganlarni davolash uchun misli koʻrilmagan ijobiy ishlar amalga oshirildi, bu balo-qazodan xalqni asrash uchun milliard-millard soʻm pullar sarflandi, unga qarshi butun mamlakat oyoqqa turdi.

Aqlimizni taniganimizdan buyon bilamizki, butun dunyoda, ayniqsa, bizning respublikamizda giyohvandlikka qarshi qattiq kurash olib boriladi. Hamma davlatlarda, bizda ham giyohvandlarni davolaydigan kasalxonalar faoliyat koʻrsatmoqda, ularda qanchadan-qancha giyohvavand moddalarga qaram insonlar shifo topmoqda.

Ammo negadir bizlar Internetomaniya, dofamin qaramligiga qarshi kurashda kech qolayapmiz. “Biz giyohvand moddalarni isteʼmol qilishga qarshimiz!”, “Biz chekishga qarshimiz!”, “Biz alkogol isteʼmol qilmaymiz!” deb targʻibu tashviq qilamiz, bu albatta juda yaxshi. Endi “Biz sogʻlom, intellektual avlodmiz! Biz internetda oʻtirib vaqtimizni oʻtkazmaymiz! Biz oʻzimizning intellektual qobiliyatimizni oshirish bilan real shugʻullanamiz!” deb ham targʻib qilish juda zarur.

200-yil, balki undan ham ortiqroq zamonlardan beri milliy taraqqiyotimiz oyogʻiga bolta urib kelayotgan toʻy va marosimlarimizning serxarjligiga barham berish kerakligi toʻgʻrisida koʻp va xoʻp yozildi. Ammo hozirgacha bu dardi bedavoni toʻxtatishning iloji boʻlmadi. Milliy illat darajasiga koʻtarilib, xalqimizni ezib, yanchib, qaddini koʻtarishga imkon bermay kelayotgan dabdababozlikni toʻxtatishga, faqat bugunga kelib, Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi bilan jiddiy qadam qoʻyildi. Bu siyosatni xalqimiz katta xursandchilik bilan qabul qildi.

Taklifimiz shundan iboratki, xalqimiz intellektini kemirib yotgan, yangi orttirilgan illat – Internetomaniyani ham davolashga davlat siyosati darajasida jiddiy qadam qoʻyishni vaziyatning oʻzi taqozo qilmoqda. Bizningcha, respublikamizda internet qaramligiga tushib, xastalik

darajasiga etgan shaxslarni ruhiy-psixologik jihatdan davolaydigan markazlarni tashkil qilish zarur.

Agar xalqimiz, farzandlarimiz kelajagi uchun qayg'ursak, umumta'lim va boshqa bosqichdagi ta'lim muassasalarida uyali telefondan foydalanishni mutlaqo ta'qiqlash kerak bo'ladi.

Chunki mamlakatga internetda, virtual hayot ko'chalarida sang'iydigan tomoshabin avlod emas, balki real hayotda yashaydigan, kashfiyotlarga qodir, moddiy ne'matlar, milliy madaniy boyliklarni yaratadigan, yurt bayrog'ini baland ko'taradigan, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy yuksalishiga hasa qo'shish qobiliyatiga ega bo'lgan intellektuallar kerak.

YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH ASOSIDA MILLIY O'ZLIKNI YUKSALTIRISH

Azimov Ulug'bek Abduxalilovich,

*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, dotsent
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti*

Globallashuv jarayonlari jadallashayotgan hozirgi davrda har bir xalq va millat o'z tarixiy ildizlariga, madaniy merosiga, ma'naviy qadriyatlariga tayanib rivojlanmoqda. Milliy o'zlikni anglash va uni yuksaltirish har bir jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim omildir. Ayniqsa, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash - ularning ongida vatanparvarlik, milliy g'urur, ma'naviy poklik, ajdodlarga hurmat kabi yuksak fazilatlarni shakllantiradi. Shu bois, milliy qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalash jarayoni mustaqil O'zbekistonning davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

“Qadriyatlar deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog'i lozim.” [1]

Hozirgi zamon chet tillarida qadriyat tushunchasining muqobili sifatida ingliz tilida “value”, fransuz tilida - “valuer”, nemis tilida - “wert” amal

qiladi va ular nafaqat “qadriyat”, balki “qiymat” degan ma’noni ham anglatadi.[2]

Milliy qadriyatlar - bu xalqning asrlar davomida shakllangan, uning turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari, tili, dini, madaniyati, san’ati va axloqiy me’yorlarini o’z ichiga oluvchi ma’naviy boylikdir. Ular millatning tarixiy xotirasi va ijtimoiy hayotining ajralmas qismidir.

Milliy o’zlik esa - shaxsning o’z millatiga mansubligini chuqur anglash, o’z xalqining tarixi, tili, madaniyati, qadriyatlari bilan faxrlanish va uni asrab-avaylashga bo’lgan ichki ehtiyojdir. Milliy o’zlikni shakllantirishda ta’lim-tarbiya tizimi, oilaviy muhit, ommaviy axborot vositalari va madaniy muassasalarning o’rni beqiyosdir.

Yoshlarning qadriyatga nisbatan munosabati haqida “Yoshlarda ma’naviy-axloqiy ong, birinchidan, uning dunyoqarashi bilan bog’liq bo’lgani uchun ham jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy hayotida o’ziga xos o’ringa ega; ikkinchidan, ijtimoiy hayot sohalari bilan bog’liq; uchinchidan, metodologik nuqtai nazardan, jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy hayotini bilish, o’rganish orqali jamiyatga ta’sir ko’rsatadi”. [3]

Yoshlar - millatning kelajagi, davlatning eng faol ijtimoiy qatlamidir. Ularning dunyoqarashi, e’tiqodi va ma’naviy qadriyatlari milliy o’zlikni yuksaltirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois yoshlar tarbiyasida quyidagi yo’nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Oilaviy tarbiya - milliy qadriyatlarning birlamchi manbai. Ota-onalar farzandlariga milliy an’ana, odob-axloq, hurmat, mehr-oqibat kabi qadriyatlarni singdirish orqali ularni milliy ruhda shakllantiradilar.

Ta’lim tizimi - yosh avlodga milliy g’urur, vatanparvarlik, tarixiy xotira va milliy birlikni o’rgatishning samarali vositasi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida milliy meros, buyuk ajdodlar hayoti, urf-odat va an’analari asosida dars jarayonlarini tashkil etish bu borada katta natija beradi.

Madaniyat va san’at - yoshlar qalbiga milliy ruhni singdiruvchi eng kuchli omil. Teatr, adabiyot, musiqa, xalq o’yinlari va marosimlari orqali milliy o’zlikni anglash chuqurlashadi.

Axborot makoni - yoshlarning axborot muhitida milliy qadriyatlarga sodiqligini ta'minlash, ularni begona g'oyalar va ma'naviy tahdidlardan himoya qilish zarur.

Milliy o'zlikni yuksaltirish jarayoni avvalo pedagogik faoliyat orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaviy jarayonlarda xalq og'zaki ijodi, tarixiy shaxslar merosi, milliy bayramlar va urf-odatlar keng qo'llanilishi yoshlarning ma'naviy olamini boyitadi. Shu bilan birga, quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

Tarixiylik tamoyili - yoshlarni o'z milliy tarixini chuqur o'rganishga undash;

Davomiylik tamoyili - qadimiy an'analarni zamonaviy talqinlarda davom ettirish;

Vatanparvarlik tamoyili - milliy qadriyatlarni Vatanga sadoqat ruhida targ'ib etish;

Insonparvarlik tamoyili - milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish.

Bu tamoyillar asosida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat yoshlarning nafaqat milliy, balki global miqyosda ham etuk, komil shaxs bo'lib voyaga etishiga xizmat qiladi.

Bugungi raqamli asrda yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun innovatsion va interaktiv yondashuvlar zarur. Masalan:

Raqamli ta'lim platformalarida milliy meros, tarixiy shaxslar, xalq urf-odatlari haqida interaktiv kontent yaratish;

Ijtimoiy tarmoqlarda milliy madaniyatni targ'ib etuvchi loyihalar, videoroliklar, bloglar tashkil etish;

Virtual muzeylar va onlayn ekspozitsiyalar orqali yoshlarning milliy o'zlik haqidagi bilimlarini boyitish;

Milliy libos, oshxona, san'at va xalq o'yinlarini yoshlar orasida ommalashtirish.

Bu kabi usullar yoshlarning milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni global axborot oqimida o'zligini yo'qotmaydigan, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Yoshlarga ijtimoiy taraqqiyot, mamlakat ravnaqi shaxs va jamiyat manfaatlari mushtarakligi me'yorining buzlishi bilan turg'unlikka uchrashi, tanazzul tomon ketishini tarixiy voqeliklar orqali tushuntirish metodikasi yaratish zarurati dolzarblashadi. Yoshlarda o'z bilimlarini oshirish orqali sobiq tuzum davrida shaxs manfaati davlat manfaatiga moslashtirib rivojlantirilgani, bu holni iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan asoslash mafkuraga yuklatildi va ijtimoiy fanlar ham mazkur holatni mafkuraviy va siyosiy asoslashga uringanligini bilishlari zarur. Bu orqali yoshlar shaxsning iqtisodiy «o'zligi» tushunishi, jamiyatda va insoniy munosabatlarda shaxsiy ulush, shaxsiy munosabat, shaxsiy g'urur muhim ahamiyatga ega ekanligini anglashlari lozim. Aks holda bunday ijtimoiy holat shaxs manfaatdorligini chetga surib, uni boshqaruv muruvvatiga mute qilib qo'yishi kelib chiqadi. Qaram insonlarda esa yovuzlik va zo'ravonlik shakllanadi.[4]

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash - bu nafaqat o'tgan avlod merosini davom ettirish, balki kelajakni barpo etish demakdir. Har bir yosh o'z millatining tarixi, tili, madaniyati va qadriyatlarini chuqur anglab, ularni hayotida tatbiq etsa, millatning ma'naviy poydevori mustahkamlanadi. Shu tariqa, milliy qadriyatlar nafaqat o'tgan tariximizni eslatadi, balki kelajak avlodning yo'lini yorituvchi ma'naviy chiroq vazifasini bajaradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash - bu nafaqat ma'naviy jarayon, balki millatning kelajagini belgilovchi strategik vazifadir. Milliy o'zlikni yuksaltirish, o'z milliy ildizlarini anglash va asrash yoshlarni har qanday g'oyaviy-ma'naviy tahdidlardan himoya qiladi. Shu bois, har bir ta'lim muassasasi, oila va jamiyat a'zosi bu jarayonda faol ishtirok etishi zarur.

Olamga qadriyatli munosabat shakllanishi har bir kishining komil inson bo'lib etishishi jarayonining tarkibiy qismi sanaladi. Kishi kamolot sari borar ekan o'zi, o'zgalar, tashqi muhit, olam, umr, vaqt, davr va shu kabilarning haqiqiy qadrini anglab boraveradi. Bu foni dunyoning o'tkinchiligi umr mazmuni, yashashning maqsadi, olamning abadiyligi

qarshisidagi lahzalar qadriga etishni o'rgana boradi. Bu esa kishida aksiologik munosabat shakllanishining shaxsiy manzarasini yaratadi.

Milliy qadriyatlar - xalqning ma'naviy ildizi, milliy o'zlik esa - uning hayotiy kuchi. Shu ildizga sodiq qolgan yoshlar yurt ravnaqi va millat kelajagi uchun ishonchli tayanch bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'lanov.J. Qadriyatlar falsafasi.-Toshkent.: O'zbekiston.1998, -b. 12.
2. Kagan M.S. Filosofskaya teoriya tsennosti. – SP(b): 1997. – b.41.
3. Bazarov.O.X. Talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishning ijtimoiy falsafiy asoslari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2019. - b. 15.
4. Azimov U.A. Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari. F.f.b.f.d.(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2022 yil. 122 b.

YOSHLARDA MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIK TUYG'USINI YUKSALTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Dexkanov Narimon Burxonjonovich,

siyosiy fanlar doktori, professori.

Namangan davlat universiteti

Bugungi kunda yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash va milliy o'zligini yuksaltirish muammosi nafaqat ta'lim tizimi, balki jamiyatning ma'naviy, madaniy va ijtimoiy barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan muhim masala hisoblanadi. Millatning ruhiy kuchi, ma'naviy tiklanishi va kelajak avlodning ma'rifiy jihatdan etukligi milliy qadriyatlarning qay darajada hayotimizda namoyon bo'lishiga bevosita bog'liqdir. Insondagi milliy o'zlik hissi uning ruhiyatidagi eng barqaror va chuqur qatlam hisoblanadi. Bu his insonning o'z millatiga, tiliga,

madaniyatiga, tarixiga va urf-odatlariga bo'lgan iftixor tuyg'usi orqali shakllanadi. Milliy qadriyatlar aynan shu hisning asosiy manbai bo'lib, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini belgilaydi. Shuning uchun ham davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash va ularda milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish hisoblanadi.

Ayni paytda Yangi O'zbekistonda bu masalaga Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Prezidentning qator asarlarida ta'kidlaganidek, milliy o'zlikni anglash – bu ma'naviy mustaqillikning asosidir. Milliy o'zligini yo'qotgan xalq o'z tarixini ham, kelajagini ham yo'qotadi [1]. Shu bois yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularni Vatanga sadoqatli, ma'naviyatli va faol fuqaro sifatida voyaga etkazish davlat va jamiyatning umumiy vazifasiga aylanmoqda. Milliy qadriyatlar tizimi xalqning ko'p asrlik ma'naviy tajribasini ifoda etadi. Ular jamiyatda insonning ma'naviy dunyosi, axloq normalari, turmush tarzi, mehnat va muloqot madaniyati bilan uzviy bog'liq. Falsafiy nuqtai nazardan, qadriyatlar – bu inson faoliyatining ma'naviy mezon, uning hayotga munosabatini belgilab beruvchi g'oyaviy asosdir. Psixologik jihatdan esa, qadriyatlar shaxsning ichki motivlari va ruhiy etukligi bilan chambarchas bog'liq. Yosh avlod uchun milliy qadriyatlar nafaqat tarixiy xotira, balki hozirgi hayotda yo'naltiruvchi ruhiy dastur vazifasini bajaradi.

Tarixiy jarayonlarga nazar solsak, har bir davrda milliy qadriyatlar inson tarbiyasida muhim rol o'ynagan. Masalan, Temuriylar davrida yoshlarni jangovorlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ustuvor bo'lgan bo'lsa, jadidlar davrida milliy o'zlikni ma'rifat orqali anglash g'oyasi ilgari surilgan. Bu jarayonlarda millatning ma'naviy uyg'onishi har doim qadriyatlarning qayta kashf etilishi bilan bog'liq bo'lgan. Bugungi zamonaviy sharoitda esa milliy qadriyatlarni tarbiya tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish talab etiladi. Bu – an'anaviy qadriyatlarning shakliy takrorlanishi emas, balki ularni yangi ijtimoiy-axborot muhitida qayta talqin qilish va yosh avlod ongiga zamonaviy vositalar orqali singdirishni anglatadi.

Yoshlarda milliy o'zlikni yuksaltirishning ilmiy asoslarini belgilashda sosiologiya, psixologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik sohalaridagi ilmiy tahlillar muhim o'rin tutadi. Masalan, sosiolog E.Dyurkgeym fikricha, qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy tartibini ta'minlovchi me'yorlar tizimidir. Ular orqali avlodlar aloqasi uzilmaydi va jamiyat o'z barqarorligini saqlab qoladi [2]. Psixolog V.Frankl esa qadriyatlarni inson hayotining ma'no manbai sifatida ko'radi, qadriyatsiz shaxs ruhiy yo'qotishga uchraydi, deydi [3]. Pedagogika nuqtai nazaridan esa milliy qadriyatlar ta'lim jarayonining mazmunini boyituvchi, tarbiya jarayonida shaxsning ma'naviy etukligini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi.

Milliy qadriyatlarni tarbiya jarayoniga samarali joriy etish uchun bir nechta **metodologik yo'nalishlar** zarur. **Birinchidan**, ta'lim mazmunida milliy mavzularning ulushini yanada oshirish kerak. Bu – faqat tarix yoki adabiyot fanlarida emas, balki barcha fanlarda milliylik ruhini singdirishni anglatadi. Masalan, geografiyada Vatanning tabiiy boyliklari orqali yurtni sevishni o'rgatish, matematikada buyuk olimlarimiz – al-Xorazmiy, Beruniy, Ulug'bek kabi allomalarning ilmiy merosini o'quv jarayoniga qo'shish yoshlarda iftixor tuyg'usini uyg'otadi. **Ikkinchidan**, tarbiya metodlarida interaktiv usullar, loyihaviy ta'lim va tajribaga asoslangan o'qitish usullari keng joriy etilishi lozim. Masalan, "Milliy an'analar hayotimda", "Buyuk ajdodlar izidan" kabi loyihalar yoshlarni milliy ruhda ijodiy fikrlashga o'rgatadi.

Oila va mahalla muhiti ham milliy o'zlikni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bolaning ilk ma'naviy tajribasi oilada shakllanadi. Ota-ona milliy bayramlarni o'tkazish, urf-odatlarga amal qilish, kattalarni izzatlash va mehmonga hurmat kabi an'analarni bola ongiga singdirish orqali unda milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg'usini uyg'otadi. Mahalla esa yoshlar uchun jamoaviy tarbiya maydoni bo'lib, u erdagi an'analar, hasharlar, ma'naviy suhbatlar va sport musobaqalari orqali yoshlarda hamjihatlik va yurtparvarlik ruhi shakllanadi.

Axborot asrida milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda raqamli madaniyatning o'rni juda katta. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning kundalik hayotida etakchi o'rinni egallab, ularning dunyoqarashini

belgilamoqda. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarni targʻib etishda media resurslardan foydalanish muhim. Milliy madaniyatni yorituvchi videolavhalar, podkastlar, interaktiv portallar va virtual muzeylar yoshlarda milliy gʻururni yanada kuchaytiradi. Bu jarayonda axborot psixologiyasi muhim rol oʻynaydi: yoshlar faqat passiv qabul qiluvchi emas, balki milliy mavzuda kontent yaratuvchi faol ishtirokchiga aylanishi lozim. Masalan, milliy bayramlarga bagʻishlangan ijtimoiy chellenjlar, milliy liboslar va xalq musiqasiga oid ijodiy tanlovlar yoshlarning qiziqishini oshiradi va milliy qadriyatlarni zamonaviy madaniyat bilan uygʻunlashtiradi.

Milliy oʻzlikni shakllantirishning yana bir muhim yoʻnalishi – oliy taʼlim muassasalarida maʼnaviy-maʼrifiy muhitni kuchaytirishdir. Oliygozlarda “Milliy qadriyatlar va zamonaviy jamiyat” mavzusidagi seminarlar, ilmiy konferensiyalar va debatlar oʻtkazish talabalarda tanqidiy fikrlashni, milliy gʻururni va ilmiy salohiyatni birlashtirish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlar koʻrsatishicha, talabalar milliy mavzuda mustaqil izlanish olib boranda, ularda nafaqat bilim, balki fuqarolik pozitsiyasi ham mustahkamlanadi. Shuning uchun talabalarni milliy madaniyat va maʼnaviyat sohasidagi ilmiy izlanishlarga jalb qilish, grantlar ajratish, ilmiy tanlovlar tashkil etish juda muhim.

Pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va ularning milliy madaniyatga munosabati ham bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oʻqituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki milliy maʼnaviyat tashuvchisi sifatida ham faoliyat yuritishi lozim. Shu sababli pedagoglar tayyorlash tizimida milliy qadriyatlar pedagogikasi, etnopsixologiya va milliy pedagogik meros kabi fanlar alohida blok sifatida kiritilishi kerak. Taʼlim jarayonida milliy namuna, xalq donoligi va buyuk allomalar fikrlaridan ilmiy asosda foydalanish oʻqituvchining pedagogik nufuzini oshiradi va uni yoshlar uchun hayotiy namunaga aylantiradi.

Shu oʻrinda talaba yoshlar oʻrtasida boʻsh vaqtni mazmunli oʻtkazish bilan birga milliy qadriyatlarga boʻlgan hurmat tuygʻusini yanada kuchaytirish uchun Namangan davlat universitetida joriy etilgan yangi tajribalar toʻgʻrisida toʻxtalib oʻtish maqsadga muvofiq. Mazkur oliygohda talabalarni avvalo kitob oʻqishga qiziqitish ustuvor masala sifatida qaraldi.

Universitetda “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish maqsadida “Bir haftada bir kitob” loyihasi tashkil etildi. Mazkur loyiha doirasida talaba-yoshlar o‘qishi zarur bo‘lgan eng muhim 100 dona (ilm-fanning etuk olimlari, jamoat arboblari va ustozlar tomonidan tavsiya qilingan) o‘zbek va jahon adabiyotiga oid ilmiy-badiiy kitoblar ro‘yxati shakllantirildi.

Loyiha Nizomiga asosan har hafta boshida “NamDU_iqtidor” telegram manzilida so‘rovnoma orqali eng ko‘p ovoz to‘plagan kitob “Hafta kitobi” sifatida belgilanadi va o‘qish uchun vazifa qilib beriladi. Hafta so‘nggida esa o‘qib tugatilgan kitob bo‘yicha maxsus platforma (*iqtidor.namdu.uz*) orqali test bo‘lib o‘tadi. Tanlov g‘oliblari (1-2-3 o‘rinlar) pul mukofotlari bilan taqdirlanadi. Tanlovda faol ishtirok etib, sovrindorlardan so‘ng eng yuqori ball to‘plagan 4-10-o‘rindagi ishtirokchilarga esa maxsus sertifikat beriladi.

Universitetda tashkil etilgan ushbu loyiha talabalarda katta qiziqish uyg‘otdi. Natijada loyihada ishtirok etishni istagan talabalar soni ortib bordi. Buni quyidagi raqamlar ham ko‘rsatib turibdi:

-2023-yilda loyihaning 49 ta sonida 49 ta kitob o‘qildi, muntazam ishtirokchilar soni 6540 nafar bo‘ldi, 147 nafar talabalar g‘olib bo‘lishdi, g‘oliblar 29,4 mln. miqdorida rag‘batlantirildi;

-2024-yilda loyihaning 54 ta sonida 54 ta kitob o‘qildi, muntazam ishtirokchilar soni 9720 nafar bo‘ldi, 162 nafar talabalar g‘olib bo‘lishdi, g‘oliblar 32,4 mln. miqdorida rag‘batlantirildi;

-2025-yil bugungi kungacha loyihaning 23 ta sonida 23 ta kitob o‘qildi, muntazam ishtirokchilar soni 4830 nafar bo‘ldi, 69 nafar talabalar g‘olib bo‘lishdi, g‘oliblar 13,8 mln. miqdorida rag‘batlantirildi [4].

Shuningdek, universitetda “Iste’dodli talabalar bilan ishlash sektori” tashkil etildi. Mazkur sektor yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalash, talaba-yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini yanada yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida faoliyat olib bordi. Sektor tomonidan universitetda amalga oshiriladigan 10 ta yangi loyiha ishlab chiqilib, amalga oshirildi.

“Tafakkur sohili” tanlovi – talabalarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o‘rgatadigan intellektual loyiha;

“Mumtoz” – milliy madaniyat va adabiyotga bag‘ishlangan platforma bo‘lib, talabalar o‘rtasida milliy merosimizni o‘rganishga bag‘ishlangan;

Zakovat – intellektual o‘yin bo‘lib, talabalar bilimlarini sinovdan o‘tkazish va intellektual rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

Zakovat Quiz – Zakovat o‘yining qisqartirilgan, tezkor versiyasi bo‘lib, talabalar qisqa savollarga javob berish orqali bilimlarini namoyish etishadi;

“Sehrli ovoz” milliy musiqiy tanlovi – talabalar orasidagi iste’dodli musiqachilar uchun ijodiy tanlov bo‘lib, u erda o‘z is’tedodlarini namoyish qilishlari mumkin;

Notiqlik klubi – talabalarni jamoatchilik oldida so‘zlash san’ati bo‘yicha o‘qitadigan loyiha;

Shahmat klubi – shahmat musobaqalari orqali talabalarni mantiqiy fikrlash va strategik rejalashtirishni rivojlantiradilar;

Shashka klubi – shashka o‘yinlari orqali talabalar strategik fikrlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshiradilar;

Munozara debat klubi – o‘z fikrini mantiqiy asoslash va bahs-munozaralarda qatnashish orqali nutq so‘zlash san’atini rivojlantirish hisoblanadi;

Talabalar teatr studiyasi – milliy teatr san’ati va sahna ijodiga qiziquvchi talabalar uchun spektakllar va ijodiy dasturlar tashkil qilinadi [5].

Albatta bunday yangicha yondashuvlar talabalarni ma’naviyatini yanada yuksaltirish bilan birga milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat va ehtirom tuyg‘ularini kuchaytirishga xizmat qildi. Chunki, globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni saqlash faqat madaniy emas, balki strategik zaruratsdir. Agar yoshlarda milliy o‘zlik zaif bo‘lsa, ular tashqi madaniy ta’sirlarga engil beriluvchan bo‘ladi. Bu esa millatning ma’naviy barqarorligiga tahdid soladi. Shuning uchun ayni paytda milliy qadriyatlar orqali yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytirish juda zarur. Bu jarayonda ta’lim tizimi, oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari va

madaniy muassasalarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ular birgalikda yoshlarda milliy g'ururni, Vatanga muhabbatni va ma'naviy etuklikni tarbiyalaydigan yagona ijtimoiy muhitni yaratishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda milliy o'zlikni yuksaltirish milliy qadriyatlarni hayotning barcha sohalariga singdirish bilan amalga oshadi. Bu jarayonda zamonaviy pedagogik usullar, raqamli madaniyat, ijtimoiy institutlar va davlat siyosati uyg'unlikda ishlashi zarur. Milliy qadriyatlar insonni inson qiladigan, millatni millat sifatida saqlaydigan ma'naviy asosdir. Milliy o'zligini anglagan yosh nafaqat o'z millatining, balki butun insoniyatning ma'naviy boyligiga hissa qo'shadi. Milliy qadriyatlar uning ongida hayot falsafasiga aylangandagina jamiyat haqiqiy ma'naviy tiklanish bosqichiga ko'tariladi. Milliy ruh, milliy g'urur va milliy o'zlik – bu xalqning abadiy yashovchanligining kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
2. Durkheim Émile. The Rules of Sociological Method. – Paris: Félix Alcan, 1895. – p. 146.
3. Frankl Viktor E. Man's Search for Meaning. – Boston: Beacon Press, 1959. – p. 170.
4. Namangan davlat universitetida talaba-yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hisoboti // NamDU joriy arxivi, 2025 yil.
5. NamDUDagi o'ziga xos innovatsion yondashuvlar xususida // Yangi O'zbekiston, 2023 yil 18 mart, 54-son; Поддержка юношей и девушек: опыт НамГУ // Правда востока, 24 ноября 2023 года, №245.

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY OMILLARI

Qasimov Nodir Ulug'ovich

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Yoshlar masalalari va ma'naviy

tarbiya boshqarmasi boshlig'i.

Kuchkarov Xudaynazar Muhiddinovich

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

Dunyoda yoshlardagi mavjud ma'naviy qadriyatlar va yo'nalishlarni isloh qilish, ulardagi mavjud stereotiplarga bo'lgan shaxsiy munosabatini o'zgartirish, jamiyatda ro'y berayotgan jarayonlarning yoshlar ongi va turmush tarziga ta'siri, ma'naviy transformatsiyalashuv jarayonlarini o'zgarishining ahamiyatiga oid tadqiqotlarda, yoshlarda umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish, buzg'unchi oqibatlarni vujudga keltiruvchi sabablarni aniqlash va bartaraf etish, ma'naviy qadriyatlar matritsasini ishlab chiqish, yoshlar ongidagi deformatsiya jarayonining oldini olish kabi masalalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, bugungi kunda yoshlar ongida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarda daxldorlik fazilatlarini takomillashtirish, zamonaviy yoshlarning hayotiy pozitsiyalarini o'rganish, yoshlarining ijobiy ideallari va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish kabi masalalar yuzasidan izlanishlar amalga oshirilayotganligi yoshlar ma'naviyatining transformatsiyalashuvi jarayonining manbalari va sabablarini chuqur ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy jihatdan tahlil qilish mezonlarni aniqlashga bo'lgan ehtiyojning ortayotganligini ko'rsatmoqda.

Yoshlar siyosati bo'yicha milliy modellarning nafaqat mahalliy nuqtai nazardan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi balki ularning mazkur sohadagi xalqaro munosabatlarga integratsiyalashuvi ham yoshlar bilan ishlash samaradorligini belgilovchi muhim mezonlari sifatida asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning o'qishi, mehnat qilishi, bilim olishi va qobiliyatini

namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqdamiz. Zero, butun xalqimiz qatori yoshlar – Yangi O‘zbekistonning bunyodkorlaridir!”,[1] — degan so‘zlari zamirida naqadar katta ishonch mujassam ekanligini teran anglash mumkin.

Bugungi kunda yoshlar xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlarni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqmoqda. Globallashuv shiddati aynan zamonaviy bilim olgan, ilg‘or kasb-hunarlarni, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan, yangicha fikrlaydigan yangi-yangi g‘oyalarni ilgari suradigan yoshlarga bo‘lgan ehtiyojni talab etmoqda. Yoshlar muammosi bilan bog‘liq har qanday tadqiqot turli xil xususiyatga ega bo‘lsada, mazkur muammolarning echimi mahalliy va davlat boshqaruvi, siyosatshunoslik, ma‘naviyatshunoslik, tarix, falsafa, Sotsiologiya, ijtimoiy ish, pedagogika sohasidagi amaliyotchi va nazariyotchi mutaxassislarning o‘zaro hamkorlikdagi yondashuvini talab etadi.

Maqolamiz davomida biz, avvalo, “**yoshlar**” va “**ma‘naviyat**” kabi tushunchalarining mazmun mohiyati va uning davlat siyosatidagi ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunida yoshlar tushunchasiga aniq huquqiy ta’rif berilgan. Xususan, qonunda “**yoshlar** — o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslar” – deya ta’riflanadi[2]. Demak, yoshlar aholining 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan qatlami hisoblanadi. Bizning ta’rifimizga ko‘ra, **yoshlar** bu — muayyan siyosiy, huquqiy, intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini namoyon etgan holda ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan shaxslardir. Chunki, yoshlar davlat va jamiyatning barcha sohalarida namoyon bo‘lishi, ayni uning tayanch kuchi sifatidagi rolni bajarishini taqozo etadi. Umuman olganda tadqiqot metodlari hamda ular asosida kelib chiquvchi yoshlarga oid davlat siyosati modellari uni tadqiq etishning nazariy-metodologik asosi sifatida mazkur

sohadagi obyekt subyekt munosabatlarining yaxlit tarzda ochib berilishiga xizmat qiladi[3].

“Yoshlar siyosati” tushunchasi davlat siyosatining rasmiy faoliyat turlaridan biriga aylangan vaqtdan boshlab, mazkur tushuncha ijtimoiy gumanitar fanlarda institutsionallashtirila boshladi. O‘tgan asrning 90 yillar boshlaridan boshlab mazkur tushunchaning bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan keng, tor va muassasaviy ma‘nodagi talqinlari muhokama qilinib kelinmoqda [4]. Zero, **“yoshlar”** tushunchasi XIX asrdan boshlab ilmiy iste‘molga kirib kelishi natijasida ushbu tushunchaning shakllanish jarayoni bilan bir qatorda uning fenomeni ham vujudga kela boshladi. Shu o‘rinda, yoshlar tushunchasiga dastlab kategoriya emas, qandaydir mohiyat sifatida qaralib, u turli mavzular doirasida ilmiy va professional hamjamiyat tomonidan muhokama qilinishi natijasida mazkur tushuncha asta-sekinlik bilan ilmiy kategoriyaga aylana bordi.

Yoshlar siyosati tushunchasi davlatning yoshlarga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidan kelib chiqqan holda umumdavlat, hududiy va mahalliy darajadagi siyosat nuqtai nazaridan belgilanadi⁴. Shu tariqa, yoshlar tushunchasi tan olingan ilmiy atama sifatida turli kasbiy terminlarda tez-tez foydalanilishi natijasida nazariy jihatdan asoslanish bosqichlarini boshdan kechirib, aynan, mazkur tushuncha ta‘rifi bilan bog‘liq yondashuvlarning shakllanishiga zamin yaratdi.

Yoshlar siyosati nafaqat davlat tashkilotlari balki, o‘zining umumiy faoliyati doirasida yoshlar masalalariga ham diqqat qaratuvchi partiyalar, ijtimoiy harakatlar, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa ijtimoiy institutlarni ham qamrab oladi. Shuningdek, 2016 yilning 14 sentabrida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunida **“Yoshlarga oid davlat siyosati — davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi”**

[5]deb ta'riflangan.

Yoshlar ma'naviyati haqida so'z ketar ekan, avvalo ma'naviyat tushunchasi, uning transformatsiyalashuv jarayonidagi o'rnini anglab olmog'imiz darkor. Ma'naviyat tushunchasiga hozirga qadar yagona va unikal ta'rif berilmagan. Uning ma'no-mazmuni va chegarasi shu darajada kengki, uni bitta so'z bilan ifoda etib bo'lmaydi.

Ma'naviyat bu insonning ruhiy va aqliy faoliyatini ifoda etuvchi tushunchadir. Ma'naviyat jamiyatning deyarli barcha sohalarini o'z ichiga oladi. Uning tag zamirida "ma'no" so'zi yotadi. Ma'naviyat insonning tashqi va ichki olamini aks ettiradi. Shu sababli bu tushuncha ma'rifat va madaniyat bilan bevosita bog'liq. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik ma'naviyatni belgilovchi asosiy omillardandir. Ma'naviyati yuksak bo'lgan yoshlar kamol topgan jamiyatlarda shu jamiyatning yuzi, g'ururi va obro'-e'tibori yuqori hisoblanadi. Ma'naviyatli yoshlar sog'lom fikrli, yaxshi xulq atvor egalari sifatida ertangi kunning ishonchli kuchi bo'ladi. Davlatning kuch-qudrati bu yoshlar bo'lsa, ularning asosiy qadriyati bu ma'naviyat asosiga qurilmog'i lozimdir. Agar bunday tizim bo'lmas ekan, hech qachon u joyda baxt-saodat va farovonlik bo'lmaydi. Shu sababli ham yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ularni ma'rifatli qilish davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan.

Jamiyatning o'tish davri sifatida tavsiflanishi mumkin bo'lgan hozirgi holatini hisobga olgan holda, yoshlarning ma'naviy qadriyatlarini, ularning atrofdagi voqealik bilan bog'liqligini tahlil qilish, ularning kelajakdagi holatini bashorat qilish muhim ahamiyatga ega⁵. Yoshlar ma'naviy transformatsiyalashuv o'zgarishini boshqarishda davlatning ishtiroki, birinchi navbatda, jamiyat hayotining moddiy va ma'naviy tarkibiy qismlarini yaxshilashga qaratilgan aniq maqsad va vazifalarni belgilashdan iborat bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, butun ma'naviy transformatsiyalashuv haqida gapirganda, davlat manfaatlarining shaxs manfaatlaridan ustun bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan ma'naviy qadriyatlarga

ham amal qilish zarur. Shuni a'lohida ta'kidlash joizki, ma'naviy qadriyatlar yoshlar o'rtasida to'g'ri shakllantirilsa, davlat farovonligini oshirishga katta moliyaviy xarajatlarsiz o'z hissasini qo'shishi mumkin. Shu sababli, bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari ma'naviy hayotida duch kelayotgan muammolarni hal qilishga e'tibor qaratish kerak. Yoshlarning zaiflashgan ma'naviy qadriyatlarini aniqlash uchun tizimdagi ma'naviy bo'shliqlarni o'rganish, yosh avlod hayoti bilan bog'liq bo'lgan hodisa va jarayonlarni, ularning axloqiy ta'qiqlarga bo'lgan munosabatini huquqiy darajada ko'rib chiqish kerak. Yoshlar tomonidan buzilgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni qadriyatlar tizimida yanada tiklash uchun ularni tuzatish muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar ma'naviyatiga to'g'ridan-to'g'ri yoshi kattalar, otalardagi mavjud qadriyatlar ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Agar bunda ijobiy omillar etarli bo'lmasa, yosh butun umri davomida pessimizm hissi, jamiyat va davlatga, boshqaruv hokimiyatiga, eng asosiysi o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga olib keladi. Bunday yoshlar o'z faoliyatini cheklab qo'yadi, "yorqin xotiralar" haqida fikrlar yurita boshlaydi. Davlat yoshlarga imkoniyatni etarli yaratib bera olmayotganini, umuman olganda hozirgi siyosiy elitani tanqid qila boshlaydi. Eng xavfli tomoni yoshlarning giyohvandlik va spirtli ichimliklarga ro'ju qo'yishi avj oladi. Faqat faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lganlar, ularni madaniy va hayot darajasini yaxshilashda mavjud ma'naviy qadriyatlarga amal qilish orqali muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. Zamonaviy ilm-fan yuqorida sanab o'tilgan hodisalarni – yoshlar ma'naviy transformatsiyalashuvining salbiy natijasini bartaraf etish vazifasini qo'yishi kerak. Va biz albatta buni yoshlardan boshlashimiz kerak.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha xulosalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Yoshlardagi mavjud ma'naviy qadriyatlar va yo'nalishlarni isloh qilish, ulardagi mavjud stereotiplarga bo'lgan shaxsiy munosabatini o'zgartirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligini aniqlash muhimdir. Shu bilan birga, o'tish davri, tarixiy davrda ro'y berayotgan ma'naviy

qadriyatlarning o'zgarishi yoshlar ongini va uning tarkibiy qismlarini tubdan o'zgartirishga qodir ekanligini yodda tutish kerak.

2. Yoshlarning ma'naviy qadriyatlarni o'zgartirish, buzg'unchi oqibatlarni bartaraf etish, ma'naviy qadriyatlar matritsasini ishlab chiqish, shu jumladan yoshlarning ham, jamiyatning ham axloqiy ongidagi deformatsiya jarayonining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish muammosiga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shuni ham hisobga olish kerakki, ma'naviy qadriyatlarning o'zgarishi jamiyat ichidagi jarayonlarni barqarorlashtirishga hissa qo'shishi va jamiyat hayotining turli sohalarida salbiy jarayonlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli ushbu muammoni zamonaviy

ilm-fanning eng yangi yutuqlaridan foydalanib, insonparvarlik doirasida qo'llash sharti bilan umuminsoniy qadriyatlardan chetga chiqmagan holda o'rganishning dolzarbligi ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. –B. 54.

2. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni 3-moddasi. 2016-yil 14-sentabr // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2022 y., 03/22/747/0064-son.

3. Xolmaxmatov A. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning mexanizmlari va texnologiyalari. 23.00.02. Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoreferati.- T., 2019.

4. Jo'rayev N. Yangilanish konsepsiyasi: yaratilishi, evolyutsiyasi va amaliyoti. — T.: Ma'naviyat, 2002. — B. 43.

5. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonunning 3-moddasi <http://lex.uz/docs/3026246>.

YOSHLAR TARBIYASI VA UNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Niyozova Shohista Nusratilloevna

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

Buxoro viloyati bo'limi rahbari v.v.b.

Har bir ota-ona uchun farzand tug'ilishi eng katta baxt, eng katta ne'matdir, farzandining munosib inson sifatida kamol topishi esa undanda ortiqroq baxt, buni hech birimiz inkor etolmaymiz, ammo ko'z nurimiz, qalb qo'rimiz ila suyib katta qilgan dilbandimiz tarbiyasida adashsak-chi, unda biz bu ne'mat baxtligini his etmay kuyunamiz....Ha, azizlar, tarbiya masalasi shunday ustuvor masalaki, u har bir oila poydevorining mustahkam bandidir. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, ma'naviyatga befarqligimiz bu fojiamizdir. Zero, inson zoti tug'ilibdiki, xato qiladi, tuzatadi, adashadi, ammo shunday xatolar bo'ladiki, ularni tuzatish mumkin emas, ular badalini to'lash mushkul. Bu oilamizda berilayotgan noto'g'ri tarbiyamiz, yoxud yoshlar kelajagiga befarqligimizdir. Keling, bir muddat bugungi O'zbekiston haqida, yoshlarga qaratilayotgan e'tibor haqida to'xtalsak....

-Men bugungi O'zbekistonni eng avvalo, jahon shohsupasida o'z bayrog'ini munosib ravishda o'rnatgan, kelajagi porloq, istiqboli farovon, yoshlari bunyodkor, xalqi sadoqatli bir buyuk davlat sifatida tasavvur qilaman. Albatta, bugun barcha sohalarda ustuvor bo'lib kelayotgan mustaqil yurtimni jahon tan olyapti, o'zbek yoshlariga bugun dunyo havas qilmoqda.

Darhaqiqat, tarixan qisqa davr mobaynida O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyati safidan o'rin olishi, mamlakatimizda barcha sohalarning, ayniqsa, ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangicha tizimda joriy etilishi, Davlat ta'lim standartlari asosida islohotlar olib borilishi, muallim va ustozlar zimmasiga ulkan vazifalarni yukladi.[2] Bu davlat hujjatlarining mazmun-mohiyati, asl maqsadi, har tomonlama etuk barkamol shaxsni voyaga etkazish, salohiyatli, dunyoqarashi keng, iqtidorli o'quvchilarni kamol toptirishdan iborat. So'nggi yillarda ta'lim-tarbiya,

ma'naviyat sohasiga qaratilgan yuksak e'tibor bu sohani eng ustuvor vazifa sifatida qo'llab-quvvatlab, davlat siyosati darajasiga ko'tardi.

Haqiqatdan ham, ta'lim sohasiga e'tibor nafaqat maktabda, balki oiladan boshlab shakllantiriladi, bugun zamonaviy o'qituvchiga qo'yilgan talablarning eng asosiysi, mahalla-oila-maktab hamkorligini chuqur anglab, ana shu konsepsiyaga amal qilgan holda ta'lim-tarbiya sohasiga yondashmog'i lozim, bu har bir pedagog zimmasiga yuklatilgan ulkan mas'uliyatdirki, bu mas'uliyat zahirida xalqning taqdiri, yurtning ertangi kuni, vatan ravnaqi turibdi. 2021-yilning yurtboshimiz tomonidan "Uchinchi Renessans davri" deb e'lon qilinishi O'zbekistonimizning farovon kelajagiga qo'yilgan poydevordir, zero, farzandlari ilmi yurtgina kelajakda qudratli bo'lur, maktabda ham sog'lom ma'naviy muhit bo'lsa, unda haqiqiy komil farzandlar ulg'ayadi, o'zbek millatining ertasi gullab-yashnaydi, barkamol avlod vatan bayrog'ini ko'klarga olib chiqadi.[4]

Bugun har bir o'qituvchi, har bir rahbar nafaqat bilimli o'quvchini kamol toptirishga intilishi, balki ma'naviy-axloqiy, jismoniy hamda har tomonlama barkamol avlodni voyaga etkazishni bosh g'oya deb bilishi lozim, chunki bu davlat ahamiyatidagi eng dolzarb masaladir, bu ezgu maqsad ostidagi vazifani qat'iyat bilan, mas'uliyat bilan davom ettirish har bir pedagog uchun zarur deb o'ylayman. Xo'sh, ana shu yurtning ertasi bo'lmish o'zbek yoshlariga qanday ta'lim-tarbiya berilyapti...? Prezidentimiz tomonidan yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan qay darajada foydalanilyapti? Bugun bu savol nafaqat rahbarlarni, balki ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan, shu sharaflilik kasbini nonini eyayotgan har bir ustoz-murabbiyni o'ylantirishi kerak, uning dardiga, maqsadiga, maslagiga aylanishi kerak. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Eng muhim vazifa-yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni ma'naviy etuk insonlar etib tarbiyalashdir. Ta'lim-tarbiya maktab -ostonasidan boshlanadi"[1]

Asosiy qism. Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan — texnika va axborot — kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik — psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali

bo'lishni talab qiladi. Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'qitish shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Zero, shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo'lib kelgan O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etishi muqarrar. O'qituvchi — O'zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlarning davomchisi bo'lgan yosh avlod ta'lim — tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. Shunday ekan, o'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota — onalar o'rtasidagi obro' — e'tibori hozirgi zamon talablariga mos bo'lishi shart. O'qituvchi barkamol avlod ta'lim — tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy — axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, etuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mustaqillikning 30 yillik bayrami tantanalarida so'zlagan nutqida Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirilayotganini, ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy 4 davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi avvalo ilm — fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlab o'tdi. “Yangi O'zbekiston davlatini barpo etish, uni yanada taraqqiy ettirishga qaratilgan og'ir va mashaqqatli, shu bilan birga, g'oyat sharaflı mehnatingizni munosib qadrlash uchun Siz ustozlarga davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini

safarbar etishga tayyormiz”[2] — deya va’da berdi. Bu o‘qituvchiga e’tibor zamirida ulkan ishonch va ma’suliyat borki, qaysikim o‘qituvchilardan katta mehnat, kasbiy bilimdonlik, jahon standartlari asosida doimiy o‘z — o‘zini rivojlantirib borish, pedagogik mahoratni oshirib borish kabi vazifalarni talab etadi.

Har bir rahbar uchun, jumladan men uchun ham, bugungi yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir etayotgan omillarni shunchaki sanab o‘tish mushkul, ming afsuski bugungi haqiqatlardan ko‘z yumolmaymiz, agar raqamlarga e’tibor qaratsak, jinoyatchilik o‘smirlar orasida, xususan, voyaga etmagan maktab o‘quvchilari o‘rtasidan kundan kunga o‘sib boryapti....Nega? degan savol siz kabi meni ham o‘ylantiradi, chunki shuncha davlat rahbari tomonidan qaratilayotgan e’tibor, shuncha sharoit negizida ular qachon jinoyat qilishga ulguryapti... Bunday chuqur mulohaza qilsak, hech bir farzand ota-onadan jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi, u farishtadek qalbi toza, beg‘ubor go‘dak timsolida gavdalanadi. Ammo u tarbiya olayotgan muhit, oila, maktab, mahalla-kuy qolaversa, bizning loqaydligimiz tufayli u yot g‘oyalarga beriladi va jinoyat ko‘chasiga kirib ketadi. Qachonki uni qora kursida ko‘rsakkina, biz afsuslanamiz unda kech bo‘lganini tushunib etamiz....

Bugun yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir qilayotgan illatlar sirasiga biz hech ikkilanmay ijtimoiy tarmoqlar, uyali aloqa vositalari, ommaviy madaniyat niqobi ostidagi turli xil yot g‘oyali oqimlar, g‘arb madaniyatiga taqlid va hokazolarni kiritishimiz mumkin. To‘g‘ri, bizni rivojlanayotgan internet tarmog‘ini to‘xtatishga yoki ta’qiq qo‘yishga haqqimiz yo‘qdir, lekin farzandimizda ma’naviy immunitet hosil qilishga, uni to‘g‘ri yo‘lga solishga aqlimiz ham, salohiyatimiz ham, bilimimiz ham etadi-ku...?! Bu muammolarga qarshi yakdil bo‘lishimiz kerak, shunchaki bola bilan xo‘ja ko‘rsinga emas, haqiqiy ma’noda uni qalbiga yo‘l topishimiz kerak, bugun qalbi kemtik bolalarimiz talaygina, chunki maktablar hisobotini varaqlab ko‘rganimda deyarli har bir maktabdan 30-40 foiz ota-ona chet elda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish maqsadida ketgan. Bu degani to‘liqsiz oila farzandlari, nazoratsiz qolgan yoshlarimiz juda ko‘p. Ana shu bo‘shliqni biz

bilan siz to'ldiramiz chunki ma'naviyat shiori ostida bayroqni biz ko'tarib turibmiz

Ularni to'garaklarga jalb etib, ko'nglimizga yaqin olib, kasbu-hunarni o'rgatsak mehr bersak, albatta, samarasini beradi. Men yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi g'oyalarga qarshi samarali kurash olib borishning ma'naviy-ma'rifiy uslublari deganda, eng avvalo, bola psixologiyasini o'rganish, ular bilan maxsus treyninglar olib borish, "Sinf rahbar-oila-psixolog" uchlik hamkorligini tashkil etishni tavsiya etgan bo'lardim.[3]

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi keng ko'lamda tashkil etish har birimizning oldimizdagi ustivor vazifa sanaladi. Oldimizda turgan maqsadimiz-kelajakda o'quvchilarimiz ma'naviyatli, ma'rifatli komil inson, harjihatdan etuk, barkamol shaxs sifatida kamol toptirishdan iborat. Tarbiyaviy yo'nalishlarning barcha sohasida o'z hissamizni qo'shish, ana shu maqsad sari intilish esa — har bir fidoyi o'qituvchining shioriga aylanmog'i lozim. Prezidentimiz barkamol shaxsni kamol topishida eng avvalo, uni ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalash juda muhim ekanligini alohida uqtiradilar.

Prezidentimizning bizga bo'lgan bunday ishonchlariga javoban men ma'naviy-ma'rifiy sohada yanada ulkan yutuqlarga erishishga, yoshlarimizning har tomonlama ma'nan etuk barkamol shaxs bo'lib kamol toptirishda tomchima-tomchi, zarrama-zarra fidoyilik ko'rsatishni astoydil maqsad qilib qo'ydim. Men ta'lim muassasalarda ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni faqat raqamlarda yoxud ko'rsatkichlarda deb bilmayman, qo'limizda tarbiyalangan har bir o'quvchi hayotda munosib o'rnini topib yurt kelajagi, millat ravnaqi yo'lida xizmat qila olsagina maqsadimga erishgan bo'laman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Milliy istiqlol g'oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillar. T.O'zbekiston. 2000
2. A.Aliyev. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. T. O'zbekiston. 2003
3. A.A.Axmedov. Ijtimoiy pedagogika. Buxoro 2003
4. Internet manbalari

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA MUAMMO VA YECHIMLAR

Baxtiyor Axtamovich Omonov,
siyosiy fanlar doktori, professor
O‘zbekiston milliy universiteti

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, axborot maydonidagi ochiqlik va tashqi ta’sirlar har bir davlatdan, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e’tibor berishni talab etmoqda. O‘zbekistonda ham yoshlarni milliy qadriyatlar, ma’naviy meros va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati, an’analari, urf-odatlari va ma’naviy tafakkuri majmuasidir. Shu bois yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat va sadoqat tuyg‘usini shakllantirish – jamiyat barqarorligi va istiqbolining garovidir.

Yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning ahamiyati beqiyos.

Birinchidan, u milliy o‘zlikni anglash vositasi hisoblanadi. Milliy qadriyatlar insonning kimligini, o‘z ildiziga, tarixiga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Ular orqali yoshlar o‘z Vatanini, xalqi va tilini ardoqlaydi.

Ikkinchidan, ma’naviy barkamollik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarga suyanan yosh avlod ma’naviy jihatdan mustahkam bo‘ladi, yot g‘oyalarga berilmaydi va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallaydi.

Uchinchidan, ijtimoiy barqarorlik omili. Qadriyatlarga asoslangan tarbiyani olgan yoshlarni qadriyatlarimiz jamiyat manfaati, tinchlik va birdamlik yo‘lida faol bo‘lishga undaydi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida: “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, engilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak...Biz bugun ko‘pmillatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo‘lgan

yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz. *Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o'ylab*, el-yurtimizning, xalqimizning yorug' kelajagini ko'zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo'ymoqdamiz" [1], degani bejiz emas.

Har bir jamiyatda milliy o'zlikni anglamasdan rivojlanish mumkin emasligi ma'lum bo'lmoqda. Milliy o'zlikni anglash – o'tmish bilan kelajakni bog'lovchi ma'naviy ko'prik bo'lib, ushbu ko'prik orqali avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlik va vorisiylik paydo bo'ladi.

Ma'naviy o'zlikni anglashda "xalq ruhi", "xalq qalbi" degan tushunchalar muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham ma'naviyat muammolarini tadqiq etgan mutaxassislar "ruh", "qalb" kategoriyalariga murojaat qiladilar. Tadqiqotchi N.Nazarovning yozishicha, "Milliy o'zlikni anglash har bir etnos milliy mentalitetining shakllanib rivojlanishida hamda etnosning rivojlanish jarayonida tarixiy-madaniy omillar ta'sirini idrok etish, o'zlikni anglab, o'zga etnik guruh vakillari tarixi, madaniyati, urf-odat va an'analariga hurmat bilan qarashdir" [2]. Agar olimning fikrini tahlil qiladigan bo'lsak, har bir shaxs milliy o'zlikni anglash borasida milliy mentalitetini anglashi, madaniy omillar ta'sirini idrok etishi, o'zlikni anglab etishi, o'zga etnik guruh vakillari tarixi, madaniyati, urf-odat va an'analariga nisbatan tolerant bo'lishi kerak. Biz, albatta, bu fikrga to'liq qo'shilamiz.

Taniqli olim V.Qo'chqorovning ta'kidicha, "O'zlikni anglash jamiyat oldida turgan vazifalarni to'g'ri idrok etish, ijtimoiy tajribalardan foydalanish zaruriyatini, qonuniyatlarini bilishdir" [3]. Olim tomonidan ilgari surilgan g'oya, bu – o'zlikni anglashda har bir millat va elatni jamiyat oldida turgan vazifalarni to'g'ri idrok etish, ijtimoiy tajribalardan foydalanish zaruriyatini, qonuniyatlarini bilishni talab etmoqda.

Har bir millatning o'zlikni anglash jarayonlariga bevosita ta'sir etuvchi omillari to'g'risida professor I.Ergashev: "O'zlikni anglash ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat, tarix, milliy madaniy merosdan xalos bo'lgan holat emas. U bugungi jamiyat qurilishi uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi"[4], degan fikrni bildiradi. Albatta, millatning o'zlikni anglashi ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat, tarix, din, milliy madaniy qadriyatlar va

meroslarni anglagandagina yuz beradi. Aynan, ushbu omillarni anglagan holda, o'sha millat bugungi davlat va jamiyat qurilishini to'g'ri tushunishi va barqaror islohotlarni amalga oshirishi mumkin.

Haqiqatan ham, *milliy o'zlikni anglash millat birligining mustahkamligini, millat manfaatlarining alohida shaxs, mahalliychilik manfaatlaridan ustun turishini anglash, umumiy til, urf-odatlar, qadriyatlar, milliy xarakter, milliy ma'naviyat, hudud, davlat orqali o'zligini bilish demak.*

Biz yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda, aytishimiz mumkinki, milliy o'zlikni anglash muayyan xalq, millat va elatning moddiy va ma'naviy boyliklarini ifoda etuvchi etnik birlik, umumiy til, urf-odatlar, an'analar, diniy qadriyatlar, milliy ruhiyat, milliy ma'naviyat, madaniyat, turmush tarzi, hudud orqali o'zligini bilishdir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin, ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" [5]. Bu o'rinda masalaning echimi va vazifasi belgilab berilgan.

Xalq, millat o'zligini anglashga intilganida, eng avvalo, o'zining qaramligini qanday qilib undan qutulish va erkin yashashni o'ylaydi. Bularning barchasi mamlakatimizda chinakam demokratik prinsiplarni qaror toptirish orqali milliy o'zligimizni tobora chuqur anglash, "Vatan", "milliylik", "Mustaqillik" kabi tushunchalarni hayotimizda qaror toptirish vazifasi bilan bog'liq.

Milliy o'zlikni anglash millat mavjudligining asosiy tamoyillarini shakllantiradi, odatlar, an'analar, tarixiy tajriba, milliy madaniyatning avloddan-avlodga etkazilishida ishtirok etadi. Shu ma'noda, Uchinchi Renessans milliy g'oyaga tayangan taqdirda, milliy g'oyaning safarbarlik kuchi, birlashtiruvchi, yo'naltiruvchi va mafkuraviy salohiyati yuqori

bo'ladi. Milliy g'oya bizga kimlarning vorislari ekanimizni doimo eslatib turadi.

Milliy o'zlikni shakllantirishda va rivojlantirishda oila instituti rolini yanada oshirish hamda ta'lim tizimi sifatini yaxshilash orqali millatning obro'si va nufuzini oshirish mumkin.

Milliy g'oya, milliy ruh, milliy o'zlik, albatta, tarixga obyektiv munosabat orqali shakllanadi. Yoshlar o'z ajdodlarining hayotini haqqoniy o'rganishi kerak. Afsuski, boshimizdan kechirgan mustamlakachilik zamonlarida buning aksi qilindi. Biz ozodlikka erishganimizga 30 yildan oshgan bo'lsa-da, tarixni, ma'naviyat fanlarini o'qitish uslubimiz hamon eskiligicha qolmoqda. O'rganishimiz, bolalarimizga o'rgatishimiz kerak bo'lgan milliy qahramonlarimiz ko'p. Masalan, turkiy xalqlar tarixida Alp Er To'nga Afrosiyob nomi bilan mashhurligini ko'pchilik yaxshi biladi, Shayboniixonni buyuk sohibqiron o'limidan keyin millatni, mamlakatni birlashtirishda qo'shgan ulushini darslikka kiritilishiga hamon ahamiyat berilmaydi.

Shu ma'noda, o'zbek xalq og'zaki ijodida, eposlarda, dostonlarda, yozma manbalarda bugungi avlodga namuna qilib ko'rsatishga arzigulik tarixiy qahramonlarimiz juda ko'p. Tarix, adabiyot, ma'naviyat fanlaridan oliy ta'lim, maktab, texnikum, litseylar uchun mo'ljallangan darsliklarni o'qib-o'rganishga kirishib, nega ular, asosan, o'qituvchining qistovi bilan o'qilishining sababi ayon bo'ladi. Chunki bu qo'llanmalar zerikarli va quruq tilda yozilgan. Achinarli jihati shundaki, *6-sinfning "Qadimgi dunyo tarixi" darsligidagi 44 mavzudan 7 taginasi O'zbekiston tarixiga oid*. Milliy g'urur masalasi birinchi o'ringa qo'yilsa, o'quvchilar 12 yoshidanoq O'zbekiston tarixini chuqurroq o'rgana boshlashsa, keyinchalik ham maktabda olgan saboqlari hayotda asqotadi.

Bizga ma'lumki, tarix darsliklari o'quvchini nafaqat kerakli va zarur ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, balki ularni Vatanga sadoqat hamda muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Ammo afsuski, bizning tarix darsliklarimizda milliy g'oya va ruh etishmaydi. Misol uchun, sohibqiron Amir Temurdan so'ng "O'rta Osiyoning ikkinchi bunyodkori" deb nom olgan Abdullaxon (1534-1598) hukmronligi davrida 21 turdagi 1001

inshoot – masjidlar, madrasalar, ko‘priklar, hammomlar, sardobalar bunyod etilganligi qayd etilmaydi.

Vatan tarixini, ma’naviyatini, dinini o‘qitishdan maqsad vatanparvarlikni shakllantirish bo‘lishi kerak. O‘quvchilarda faqat bugungi voqealarga emas, o‘tmishga, tariximizning achchiq va shonli sahifalariga nisbatan daxldorlik hissini, millatimizning boy tarixi bilan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otish o‘ta dolzarbligicha qolmoqda.

Biz sovet davri postulatlaridan voz kechganimizga qaramasdan, amalda mavzular bayonida bu davrning ko‘plab jihatlari saqlanib qolmoqda. O‘zbekiston tarixi bo‘yicha maktab darsliklarining yagona kompleksi mavjud emasligi ta’sirida o‘qitish metodikasi G‘arb mamlakatlari namunasiga tayanib qolmoqda. Maktablarimizda, oliy o‘quv yurtlarida O‘zbekiston tarixini o‘qitishning yagona konsepsiyasini ishlab chiqish vaqti keldi. Bu ishni amalga oshirmay turib yangi avlod darsliklarini yaratib bo‘lmaydi. Mualliflar jamoasini tanlash, tayyor darsliklarning original maketini ekspertizadan o‘tkazish va qabul qilish jarayonini tubdan qayta ko‘rib chiqish vaqti etib keldi.

Shu o‘rinda, yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabati haqida jonli misollar keltiramiz. *O‘zbekiston xalq shoiri, senator Iqbol Mirzo* yozganidek, “Ko‘p yillar davomida o‘zimizni aldab, o‘zimizga mahliyo bo‘lib, bino qo‘yib yashadik. Yon qo‘shnilarimizni bezdirib, do‘stdan dushman yasadik, ta’limni isloh etamiz deb, bolalarimizni ko‘rsavod qildik, tibbiyot g‘orat bo‘ldi, erkin so‘zning tomog‘idan xippa oldik. Natijada kun ko‘rish uchungina yashaydigan, yuragiga qo‘rquv uya qurgan, qorindan boshqa narsani o‘ylamaydigan, qo‘shnisiga qayishmaydigan, loqayd va karaxt muhit paydo bo‘ldi... Biz umumiy qora tush ko‘rayotgandek edik” [6].

Yoki buyuk jadid Munavvarqori Abdurashidxonovning nevarasi bo‘lgan kuyinchak ziyoli Shoazim Minavvarovning fikriga ko‘ra, “O‘zimizni yig‘ishtirib oladigan, nafsimizni jilovlaydigan, ilmga zo‘r beradigan, isrofgarchilikni to‘xtatadigan, farzandlarimizning kelajagini o‘ylaydigan vaqt kelmadimikan?! Tayyor telefonu avtomobillar, brend kiyimlar, noz-ne’matlar ichida katta bo‘lgan, mehnat nima ekanini, Vatan

va ota-ona nima ekanini tushunmay katta bo'lgan farzand umidlarimizni aslo oqlamaydi. Aksincha... Buni esdan chiqarmaylik, azizlar. Hammasi o'z qo'limizda, davlat hamma sharoitni yaratib beryapti. Undan to'g'ri foydalanishni bilmayapmiz (ayrimlarimiz) [7].

Shu o'rinda, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi ayrim **muammolarni** keltirib o'tsak.

1. *Globalashuv va axborot oqimining ta'siri.* Internet orqali kirib kelayotgan xorijiy madaniyat va ommaviy madaniy mahsulotlar ayrim yoshlarda milliy an'analariga befarqlikni keltirib chiqarmoqda.

2. *Oilaviy tarbiyadagi bo'shliqlar.* Ayrim oilalarda milliy qadriyatlarning amalda namoyon bo'lmasligi, farzandlar bilan ma'naviy muloqotning susayishi muammolarni kuchaytiradi.

3. *Ta'lim muassasalarida milliy tarbiyaning etarli emasligi.* Darsliklarda va ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar masalasi ba'zan nazariy shaklda qolib ketadi, amaliyotdagi ta'siri past bo'ladi.

4. *Ommaviy axborot vositalarida milliylik mezonlarining etishmasligi.* Yoshlar iste'mol qilayotgan axborotning bir qismi milliy ongga mos kelmasligi ham yot ta'sirlarni kuchaytiradi.

Mamlakatimizda **Milliy o'zlikni anglash konsepsiyasini** ishlab chiqish va uni yangi bosqichga ko'tarishda ziyolilar, mutaxassislar va ekspertlarning salohiyatidan foydalanish va ularni OAV orqali keng jamoatchilik bilan uchrashuvlarini tashkil qilish; oliy ta'lim tizimidagi ijtimoiy fanlar fan dasturlariga yoshlarning milliy o'zligini anglashning siyosiy mafkuraviy omillariga doir mavzularni kiritish hamda maxsus o'quv qo'llanmalarini yaratish; Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, davlat boshqaruvi organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari ko'magida milliy o'zlikni anglashning zamonaviy texnologiyalarini (Internet platformasida) ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Milliy o'zlikni anglashga doir milliy internet saytlarini yaratish va doimiy monitoring tizimini yo'lga qo'yish va uning natijalarini keng jamoatchilikka e'lon qilib borish darkor.

Mazkur muammolarning echimi ham o'z qo'limizda. Bizningcha, yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashdagi *echimlar va takliflar* quyidagilar:

Birinchidan, oila instituti rolini kuchaytirish vaqti keldi. Shu maqsadda ota-onalar uchun “Oila va milliy qadriyatlar” mavzusida muntazam seminarlar tashkil etish; milliy bayramlar va an’analarni oilada amalga oshirishni rag’batlantirish;

Ikkinchidan, milliy tarbiya dasturlarini takomillashtirish talab etiladi. Buning uchun o’rta maktab va oliy ta’lim muassasalarida “Milliy qadriyatlar va ma’naviyat asoslari” fanini chuqur o’qitish; milliy qahramonlar, tarixiy shaxslar hayotini yoshlarga yaqin uslubda etkazish;

Uchinchidan, yoshlar tashkilotlari va jamoat institutlari faolligini oshirish kerak. Yoshlar ittifoqi, “Yoshlar parlamenti”, “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” kabi tuzilmalar orqali milliy g’oyalar asosida targ’ibot ishlarini kengaytirish;

To’rtinchidan, axborot va media savodxonligini oshirish zarur. Yoshlarning internetdagi faoliyatini milliy ong nuqtai nazaridan yo’naltirish; milliy g’oya va qadriyatlarni targ’ib etuvchi kontentlarni ko’paytirish;

Beshinchidan, milliy san’at va madaniyatni yoshlar hayotiga yaqinlashtirish maqsadga muvofiq. Ya’ni, milliy musiqa, teatr, badiiy adabiyot va xalq og’zaki ijodiyot namunalarini yoshlar ishtirokida qayta jonlantirish hamda milliylashtirish.

Yuqoriddagi muammolarga echimni tezroq topa olsak, milliy qadriyatlarimizga qattiq tayansak, yoshlarda vatanparvarlik hissi kuchayib boradi; ma’naviy bo’shliqlarni o’rni to’ladi; yot g’oyalar ta’siri ham kamayadi.

Xulosa o’rnida aytish joizki, istiqlol – odamlarning baxti-saodati, moddiy va ma’naviy yuksalishi uchun ulkan imkoniyat. Istiqlol – huquq, haq-huquqni bilish, o’zlikni anglash va yurtga xizmat qilish demak [8]. Ushbu keng imkoniyatlardan foydalanib qolaylik.

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – bu faqat ta’lim tizimining vazifasi emas, balki butun jamiyat, oila, davlat va fuqarolik institutlarining umumiy burchidir. *Milliy qadriyatlardan uzoqlashish* yuksak milliy ma’naviyatni targ’ib qilishga qattiq zarba beradi.

Milliy qadriyatlar orqali etishayotgan avlod o'zini xalqining davomchisi sifatida his etadi va mamlakat taraqqiyotida faol ishtirok etadi. Shuning uchun ham milliy g'oya va qadriyatlarga tayangan tarbiya –kelajakni mustahkamlashning eng ishonchli yo'li, deb hisoblaymiz.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi renessansni shakllantirish kabi ezgu g'oyalarni amalga oshirish xalqimizdan siyosiy iroda, kuchli bilim, keng dunyoqarash va yuqori siyosiy madaniyatni talab qiladi. Shu sababli, milliy g'oya, mafkurani zamonaviy ta'sirchan usullarda yoshlar ongiga singdirish dolzarb vazifamizdir. O'zbekistonda mafkurani kuchaytirishning tizimli echimi – bu boshqaruv, ta'lim, madaniyat, axborot va fuqarolik jamiyati sohalarini bir butun mafkuraviy tizimga aylantirishdan iborat. Bunday tizimning asosiy tamoyillari quyidagicha bo'lishi lozim: *“Bir g'oya – bir maqsad – bir ruh!”*.

Yuqoridagi konsepsiya amalga oshsa, milliy birdamlik mustahkamlanadi, yot g'oyalar ta'siri zaiflashadi va mamlakatning ma'naviy barqarorligi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://nrm.uz/contentf?doc=573929_o%E2%80%98zbekiston_
2. Nazarov N. Mustaqillik sharoitida etnoijtimoiy jarayonlar. – T.: O'zbekiston Respublikasi “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, 2005. – b.64
3. Qo'chqorov V. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy – siyosiy jarayonlar. – T.: Akademiya, 2007. – – b.61
4. Ergashev I. Hayotning har oni falsafa. – T.: Akademiya, 2011. – b. 19.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – b.24
6. Iqbol Mirzo. <https://t.me/uzdiplomat> 2018 yil, avgust.
7. MinovarovSh. <https://www.facebook.com/=AZXWU1l6kbY9EeXR> 24.10.2024.
8. Omonov B. Farovon jamiyat qurish yo'lida. T.:Universitet, 2022. b 5.

“KIBERSPORT ORQALI YOSHLARNING GLOBAL RAQAMLI JAMIYATGA INTEGRATSIYA QILISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI”

Jo‘rayeva Shaxlo Baxtiyor qizi-

*University of Business and Science Toshkent
filiali “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi*

Raqamli davr inson hayotining barcha sohalarini tubdan o‘zgartirdi, ayniqsa yosh avlodning ijtimoiylashuv jarayoniga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy ijtimoiylashuv – oila, maktab, jamoa va madaniy muhit orqali amalga oshgan bo‘lsa, bugungi kunda bu jarayon raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va virtual maydon orqali kechmoqda. “Yoshlar uchun internet, onlayn muloqot va kibermakon endilikda ijtimoiy identifikatsiya, muloqot, ta’lim va o‘zini ifodalashning asosiy platformasiga aylangan”[1:72]. Shu nuqtai nazardan, kibersport zamonaviy ijtimoiylashuvning o‘ziga xos makoni sifatida shakllanmoqda. Kibersport – bu raqamli makonda inson faoliyatining sport, texnologiya va madaniyatni birlashtiruvchi shaklidir. “Yoshlar kibersport orqali nafaqat o‘yin jarayonida raqobatlashadi, balki jamoaviylik, muloqot, strategik fikrlash va o‘zaro hamkorlik ko‘nikmalarini ham shakllantiradilar”[2:472]. Bu jarayon sotsiologik nuqtai nazardan ijtimoiy integratsiyaning yangi shakli hisoblanadi, ya’ni virtual muhit yoshlarni global hamjamiyatning faol a’zolariga aylantiradi. Kibersport musobaqalari, onlayn platformalar va professional ligalar orqali yoshlar turli mamlakat vakillari bilan muloqot qiladi, o‘z bilim va tajribasini almashadi, shu orqali global raqamli madaniyatning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Falsafiy jihatdan qaraganda, kibersport yoshlarning ijtimoiy mavjudlik shaklini yangi bosqichga olib chiqadi. Unda insonning jismoniy faolligi o‘rnini intellektual, texnologik va kommunikativ faoliyat egallaydi. “Bu jarayon yoshlarning tafakkur uslubini o‘zgartirib, “raqamli tafakkur”ni shakllantiradi. Raqamli tafakkur esa tezkor fikrlash, tahlil qilish, algoritmik yondashuv va strategik qaror qabul qilish qobiliyatlari bilan tavsiflanadi”[3:68]. Shu tariqa, kibersport yoshlarning ijtimoiylashuvida

nafaqat ko'ngilochar, balki tarbiyaviy va intellektual omil sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Kibersport yoshlar uchun o'zini namoyon etishning, ijtimoiy maqomga ega bo'lishning va shaxsiy muvaffaqiyatni global maydonda ko'rsatishning yangi imkoniyatini yaratadi. Bu jarayonda ijtimoiy kapital tushunchasi ham o'zgaradi – endi obro', tajriba, jamoaviy muvaffaqiyat onlayn muhitda shakllanadi. Shuningdek, kibersport yoshlarni axborot madaniyatiga, raqamli axloqqa va virtual mas'uliyatga o'rgatadi.

Global raqamli jamiyat tushunchasi XXI asr ijtimoiy-falsafiy tafakkurining markaziy kategoriyalaridan biriga aylandi. Bu tushuncha insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini – raqamli texnologiyalar, axborot oqimlari va virtual aloqalar hukmronlik qilayotgan davrni ifodalaydi. “Raqamli jamiyat” deganda inson faoliyatining barcha sohalari – iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, ta'lim, fan va hatto ma'naviyat sohaslarining raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'lanib ketgan holati tushuniladi. “Global” atamasi esa bu jarayonlarning milliy chegaralardan chiqib, butun insoniyatni yagona raqamli makonga birlashtirayotganini bildiradi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, “global raqamli jamiyat – bu inson va texnologiya o'rtasidagi o'zaro aloqaning yangi shakli, ya'ni kiberontologik mavjudlik holatidir. Inson endi faqat moddiy dunyoda emas, balki virtual makonda ham mavjudlik kasb etadi. Uning ijtimoiy munosabatlari, muloqoti, bilimi, hatto shaxsiy identifikatsiyasi ham raqamli vositalar orqali shakllanadi”[4:213]. Shu sababdan, raqamli jamiyatda “haqiqat” va “virtuallik”, “ijtimoiylik” va “texnologiklik” tushunchalari o'zaro qo'shib, yangi ontologik muhitni vujudga keltiradi. Global raqamli jamiyatning ijtimoiy mohiyati, avvalo, aloqa va tarmoq madaniyatida namoyon bo'ladi. Bugungi inson hayoti tarmoqlangan, ya'ni u doimiy axborot almashinuvi, raqamli muloqot va onlayn hamkorlik jarayonida yashaydi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarning yangi paradigmasini – “tarmoqli individ” (network individual) tushunchasini yuzaga keltirdi. Shu tarzda, inson ijtimoiy tizimning markazida emas, balki tarmoqlar orqali

bogʻlangan, global kommunikatsiya tizimining bir qismi sifatida faoliyat yuritadi.

Falsafiy jihatdan, global raqamli jamiyat inson tafakkuri, qadriyatlari va ijtimoiy ongining transformatsiyasini bildiradi. U klassik jamiyat tushunchasidagi ijtimoiy institutlar – davlat, taʼlim, madaniyat, oilaning anʼanaviy rolini oʻzgartiradi. Endilikda axborot texnologiyalari insonning qaror qabul qilish jarayoniga, eʼtiqodiga va ijtimoiy xulqiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shu bois, raqamli jamiyatni faqat texnologik hodisa sifatida emas, balki falsafiy jihatdan insonning yangi mavjudlik shakli – “raqamli subyektivlik” sifatida tahlil etish zarur. Global raqamli jamiyatning yana bir muhim falsafiy jihati – bu axborot etikasi va raqamli masʼuliyat masalalaridir. Inson texnologiya vositasida cheksiz imkoniyatlarga ega boʻlayotgan bir paytda, uning axloqiy tanlovi, ijtimoiy masʼuliyati va maʼnaviy qadriyatlari qayta baholanishni talab etmoqda. Shu sababli raqamli jamiyatda texnik qudrat bilan insoniy qadriyat oʻrtasidagi muvozanatni saqlash ijtimoiy-falsafiy muammoning markazida turadi.

Global raqamli jamiyat – bu insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi boʻlib, unda texnologiya ijtimoiylikning asosiy vositasiga, axborot esa asosiy resursga aylanadi. U insonning dunyo bilan munosabatini, oʻzini anglashini va ijtimoiy mavjudlikni qayta belgilaydi. Shu bois, global raqamli jamiyatni tushunish – bu insonning kelajakdagi falsafiy va maʼnaviy oʻzligini anglash demakdir. Kibersport (elektron sport) bugungi raqamli jamiyatda yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan ijtimoiy-madaniy hodisadir. U nafaqat oʻyin yoki koʻngilochar faoliyat, balki raqamli madaniyatning yangi koʻrinishi sifatida yoshlarning ongini, qadriyat tizimini va dunyoqarashini shakllantiruvchi kuchli omilga aylangan. “Kibersport yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi jarayoniga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Ular oʻzini global raqamli hamjamiyat aʼzosi sifatida anglaydi, bu esa milliy chegaralardan tashqari oʻzaro muloqot, hamkorlik va raqobat muhitini yaratadi”[5:424]. Bunday holat yoshlarning tafakkurini kengaytiradi, dunyoqarashini ochiq va tolerant shaklda rivojlantiradi. Kibersport mehnatsevarlik, strategik fikrlash, jamoaviylik va raqobatbardoshlik kabi zamonaviy qadriyatlarni mustahkamlaydi.

Professional o'yinlar yuqori intizom, psixologik tayyorgarlik va texnik bilimni talab etadi. Shu orqali kibersport yosh avlodni digital iqtisodiyot va intellektual mehnat sohalariga tayyorlaydi.

Biroq kibersportning ta'siri faqat ijobiy emas. "U haddan tashqari raqamli muhitga qaramlik, real ijtimoiy aloqalarning zaiflashuvi, shaxsiy vaqtni samarasiz sarflash kabi xavflarni ham yuzaga keltiradi"[6:41]. Shu sababli kibersportni madaniy-axloqiy muvozanat asosida yo'naltirish zarur. Kibersport yoshlar ongida yangi global raqamli tafakkurni shakllantiradi. Ularning dunyoqarashi raqamli tajriba, virtual hamkorlik va texnologik innovatsiyalar asosida rivojlanadi. Shu bois kibersportni yoshlar ma'naviyatini zamonaviy sharoitda takomillashtiruvchi ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida baholash mumkin.

Raqamli sivilizatsiya sharoitida inson erkinligi va javobgarligi masalasi zamonaviy falsafaning markaziy muammolaridan biriga aylandi. Axborot texnologiyalari, internet va sun'iy intellekt tizimlarining jadal rivojlanishi inson hayotini o'zgartirib, uning erkin harakati, fikr bildirish imkoniyati hamda ijtimoiy munosabatlarda tutgan o'rniga yangicha mazmun kiritdi. Biroq bu jarayon inson erkinligini kengaytirish bilan birga, uning javobgarligi chegaralarini ham murakkablashtirdi. "Raqamli muhitda erkinlik avvalo axborotga erkin kirish, fikrni erkin ifoda etish va o'zini namoyon qilish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Internetning ochiqligi tufayli inson endilikda o'z g'oyasi, madaniyati va ijtimoiy pozitsiyasini global miqyosda ifoda etish huquqiga ega bo'ldi. Shu orqali erkinlikning yangi – raqamli shakli vujudga keldi"[7:]. Biroq bu erkinlik virtual makonda chegarasiz emas. Inson o'z harakati va fikrlari bilan nafaqat o'zini, balki boshqalarni ham ta'sir doirasiga tortadi. Shu sababli raqamli erkinlik mas'uliyat va axloqiy ong bilan muvozanatda bo'lishi zarur. Boshqa tomondan, raqamli muhitda insonning shaxsiy ma'lumotlari, onlayn xatti-harakati va identifikatsiyasi doimiy ravishda nazorat ostida bo'ladi. Bu holat texnologik erkinlik ortida yashiringan "raqamli nazorat" fenomenini yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, insonning haqiqiy erkinligi – bu texnologiyalarni ongli boshqarish, ularning ustidan nazoratni saqlab qolish qobiliyatidadir.

Raqamli erkinlik bilan bir qatorda axloqiy va ijtimoiy javobgarlik ham yangi bosqichga ko'tarildi. Har bir inson virtual makonda tarqatayotgan axboroti, fikri yoki harakati orqali jamoaviy ong, axloqiy muhit va hatto siyosiy qarorlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois raqamli javobgarlik – bu shunchaki texnik qoidaga rioya qilish emas, balki axloqiy ongning yangi shakli, insonning o'z harakati oqibatlarini anglash qobiliyatidir. Raqamli ijtimoiy muhit insonni erkinlashtirish bilan birga, uni axborot manipulyatsiyasi, yolg'on ma'lumot, kiberjinoyat kabi xavf-xatarlarga ham duchor etadi. Bu esa javobgarlikni nafaqat individual, balki ijtimoiy va institutsional darajada ham taqozo etadi. Raqamli ijtimoiy muhitda insonning erkinligi – bu texnologik imkoniyatlardan foydalana olish qobiliyati bo'lsa, javobgarligi – bu imkoniyatlardan ongli, axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat bilan foydalanish madaniyatidir. Falsafiy jihatdan olganda, erkinlik va javobgarlik o'zaro dialektik birlikda bo'lib, ular raqamli jamiyatda insonning haqiqiy insoniy mohiyatini saqlab qolishning eng muhim shartlaridan biridir.

Raqamli sivilizatsiya davrida insoniyat madaniyati yangi bosqichga ko'tarilib, global axborot almashinuvi, virtual muloqot va madaniy integratsiya jarayonlari jadallashmoqda. Bu holat har bir xalq uchun ikki tomonlama imkoniyat yaratadi: bir tomondan, dunyo miqyosidagi madaniy yutuqlardan bahramand bo'lish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlarning saqlanishi va ularni global maydonda targ'ib etish zaruratini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlar bilan global raqamli madaniyat uyg'unligini ta'minlash zamonaviy davrning muhim ijtimoiy-falsafiy masalalaridan biridir.

“Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy xotirasi, tili, dini, urf-odati, ma'naviy merosi va axloqiy me'yorlarini mujassam etgan tizimdir. Ular jamiyatning ma'naviy asosini, ijtimoiy birligini va milliy o'zligini belgilaydi. Milliy qadriyatlar tabiatiga ko'ra faqat tor doirada saqlanib qolmaydi, balki ravnaq topib, turmush jarayonida muttasil yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan boyib boradi”[8:804]. Global raqamli madaniyat esa, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, kibermakon orqali shakllanayotgan yangi

kommunikatsion va estetik muhitdir. Ushbu madaniyat turli millatlar, madaniyatlar va qadriyat tizimlarini bir global makonga jamlab, umuminsonga xos qadriyatlarni ilgari suradi.

Milliy qadriyatlar bilan global raqamli madaniyat o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash, avvalo, madaniy identifikatsiya va raqamli o'zlikni muvofiqlashtirish orqali amalga oshadi. Bu jarayonda har bir xalq o'z madaniyatini global platformalarda, ijtimoiy tarmoqlarda, raqamli kontentlar va onlayn ta'lim tizimlarida faol targ'ib etishi lozim. Shu orqali milliylik global kontekstda yangi hayot oladi – u o'zini zamonaviy texnologiyalar orqali ifoda etgan holda, jahon madaniy merosining bir qismi sifatida taniladi. Biroq bu uyg'unlikni ta'minlashda muhim falsafiy shart mavjud: global madaniyatni so'zsiz qabul qilish emas, balki uni milliy qadriyatlar prizmasidan o'tkazish. Har bir yangi g'oya, texnologiya yoki madaniy trend milliy axloqiy me'yorlar, urf-odat va mentalitet bilan uyg'unlashtirilgan holda qabul qilinmog'i lozim. Aks holda, milliy madaniyatning ma'naviy mustaqilligi zaiflashadi va shaxsiy hamda jamoaviy identitet yo'qolish xavfi paydo bo'ladi.

O'zbekiston tajribasi bunga yorqin misoldir: mamlakatda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda, milliy madaniyat, til, tarixiy meros va ma'naviyatni asrash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu, aslida, raqamli davrda milliy qadriyatlarni global kontekstga integratsiya qilishning samarali modelidir. Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar bilan global raqamli madaniyat uyg'unligi – bu milliy o'zlikni yo'qotmasdan, zamonaviy texnologiyalar orqali uni yangi bosqichda namoyon etishdir. Falsafiy jihatdan, bu uyg'unlik insoniyat taraqqiyotining madaniy barqarorligi, ma'naviy xilma-xilligi va axborot asrida haqiqiy insoniy mohiyatni saqlab qolishning asosiy kafolatidir.

Adabiyotlar:

1. Шнейдер Л. Б. Сифровые аддикты: формирование новых зависимостей и изменение личности молодого человека // Актуальные проблемы психологического знания . 2017. № 1. – с.72.

2. Jo'rayeva Sh.B. Kibersport tushunchasi fenomeni, kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari. // Sharq tarixi, siyosati va huquqi. 2025. № 3. – b.472.

3. Зудилина Н. В. Мотивы использования анонимности в киберпространстве Интернета как фактор формирования идентичности человека // Известия ВолгГТУ. 2013. Т. 13, № 9 (112). – С.68.

4. Юдин Б.Г. Новые тенденции в науке о человеке: проблемы, поиски и решения. – М.: Прогресс-Традиция, 2007. –С.213.

5. Митусова Ю.В., Афиногенова Т.И. Киберспорт как новое явление в современном спорте // Самоуправление. 2022. № 1 (129). – С.424-430.

6. Исмаилов А.А. Киберспорт как социальное явление // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2019. № 7-1. –С.41.

7. Месхкова Л.Н. (2019) Свобода в условиях цифровой культуры: возможности реализации. Контекст и рефлексия: философия о мире и человеке [Context and Reflection: Philosophy of the World and Human Being], 8 (4A), 79-88.

8. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi I-jild. – Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2023. – B.804.

MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA SOG‘LOM IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNING AHAMIYATI.

Alisher Atayev Rizoqulovich,
*Renessans Ta’lim Universiteti Ijtimoiy-
Siyosiy fanlar kafedrası katta
o‘qituvchisi*

Jamiyatning ma’naviy immunitetini mustahkamlash va mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish zamonaviy davrning eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari,

raqamli kommunikatsiyalar va axborot oqimining keskin ortishi natijasida dunyo miqyosida jamiyatlar oldida yangi tahdidlar paydo bo'lmogda. Ularning eng xavflisi sifatida dezinformatsiya, infodemiya va turli manipulyativ axborotlar ko'rsatilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy ishonchning so'nishi, aholi qatlamlari o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarning zaiflashishi ekstremistik g'oyalarga moyillikni kuchaytiradi. Ana shu jarayonlarda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit jamiyatning immun tizimi sifatida muhim o'rin tutadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) infodemiya tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: *"Infodemiya — raqamli va fizik muhitlarda ortiqcha ma'lumot, jumladan, yolg'on yoki adashtiruvchi axborot yig'indisidir[1].* Bu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, muammo faqatgina axborotning ko'pligida emas, balki undagi to'g'ri va noto'g'ri ma'lumotning aralashib ketishidadir. Bu holat jamiyat a'zolarini chalg'itadi, ishonch asoslarini emiradi va aqliy barqarorlikni izdan chiqaradi. Shu sababli infodemiya qarshi turish uchun sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit zarurdir, chunki aynan shu muhitda odamlar tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

JSST bu jarayonda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni ham belgilab beradi: *"Jamoatchilik tashvishlarini va savollarini tinglash; xavf va sog'liq haqidagi ekspert maslahatlarini tushuntirish; noto'g'ri ma'lumotlarga chidamlilikni mustahkamlash; jamoalarni jalb qilish va salohiyatli qilish."* [2]. Bu fikrdan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundaki, infodemiya qarshi kurash markazlashgan senzura yoki axborotni cheklash bilan emas, balki jamoatning o'zi faol ishtirok etadigan jarayon orqali amalga oshirilishi lozim. Jamoatning faolligi sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitning eng muhim mezonidir.

JSSTning siyosiy tavsiyasida yana bir muhim jihat qayd etiladi: *"Infodemiya oid tezkor tahlil va javob qaytarish uchun maxsus infodemiya guruhini shakllantirish."* [3]. Bu tavsiya shuni ko'rsatadiki, infodemiyaning oldini olish institutsional yondoshuvni talab qiladi. Bunday guruhlar faqat texnik yoki tibbiy chora ko'rmay, balki jamiyatdagi ma'naviy muhitni ham sog'lomlashtirishga xizmat qilishi kerak.

Tadqiqotchi Igor Joze Benites du Nasimentu va hamkasblari infodemiyaning ilmiy jihatdan shunday ta'riflaydilar: *“Infodemiya deb ataladigan bu hodisa onlayn muhitdagi noto‘g‘ri va adashtiruvchi yoki noto‘g‘ri ma’lumotlarning oqimiga bog‘liq holdir [4].* Bu ta’rif ilmiy jihatdan JSSTning oldingi fikrlarini mustahkamlaydi: axborot oqimining tabiati jamiyatda ishonch inqirozini kuchaytiradi va odamlarning o‘z qarorlarini mustaqil qabul qilish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, ijtimoiy-ma’naviy muhitda axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash madaniyatini oshirish ustuvor vazifaga aylanadi.

JSST tadqiqotchisi Gyunter Ayzenbax bu jarayonni to‘rt ustunga asoslaydi: *«Infodemiyaning boshqarishning asosiy ustunlari — infomonitoring, elektron sog‘liq savodxonligi, sifatni oshirish va bilimlarni amaliyotga o‘tkazish»[5].* Bu fikrdan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit axborot monitoringi, savodxonlik va bilimlarni tarqatish tizimini ham qamrab olishi lozim.

AQShdagi mashhur ilmiy-tadqiqot va strategik tahlil markazi hisoblangan RAND korporatsiyasining tahlilchilari dezinformatsiyani faqat axborot sohasiga oid muammo sifatida emas, balki butun jamiyat barqarorligiga ta’sir etuvchi keng qamrovli tahdid sifatida baholaydilar. Ular fikricha, *«dezinformatsiya mavjudlikka tahdiddir... ma’lumotning buzib ko‘rsatilishi siyosiy va ijtimoiy institutlarga ishonchni emirib yuboradi» [6].* Bu esa ishonchning jamiyatdagi markaziy o‘rni va uning zaiflashishi butun siyosiy-ijtimoiy tizimning inqirozga yuz tutishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi (APA) bu masalada yanada aniq chegara qo‘yadi: *“Dezinformatsiya — odamlarni ataylab adashtirish uchun tarqatiladigan yolg‘on ma’lumotdir[7].* Shu bilan birga, ular noto‘g‘ri ma’lumot tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishadi: *“Biz noto‘g‘ri ma’lumotni manbasi yoki niyatidan qat’i nazar, aniq yolg‘on yoki boshqa hollarda adashtiruvchi har qanday ma’lumot sifatida ta’riflaymiz.” [8]* Bu ajratish juda muhim: chunki sog‘lom ma’naviy muhit aynan noto‘g‘ri va noto‘g‘ri ma’lumotni farqlash qobiliyati orqali barpo etiladi.

Shunday qilib, jamiyatda infodemiya va dezinformatsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish, avvalo, aholining axborot savodxonligini oshirish va tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Ishonch va ijtimoiy uyg'unlik: mafkuraviy immunitetning asosiy ustuni: Ijtimoiy ishonch jamiyat barqarorligi va ma'naviy immunitetning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat o'rtasida ishonch muhiti mustahkam bo'lmasa, hech qanday islohot yoki siyosiy dastur samara bermaydi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tadqiqotlarida bu haqda shunday xulosa qilingan: «*Ishonch davlat samaradorligida juda aniq va sezilarli o'ringa ega*»[9].

Jahon bankining 2023-yilgi konsepsiyasida ijtimoiy uyg'unlik quyidagicha izohlanadi: «*Birgalikdagi maqsad hissi, ishonch va hamkorlikka tayyorlik*»[10]. Demak, sog'lom ma'naviy muhit faqat individual qadriyatlar bilan emas, balki umumiy maqsadlar va hamjihatlik ruhi bilan bog'liq. Agar odamlar o'zlarini yagona maqsad yo'lida harakat qilayotganini his qilsalar, ularni dezinformatsiya yoki mafkuraviy tahdidlar orqali parchalash qiyin bo'ladi.

Jahon Qadriyatlari Tadqiqoti esa ishonch indikatorini aniq savol orqali o'lchaydi: «*Umuman olganda, siz odamlarning ko'pchiligiga ishonish mumkin, deb aytasizmi...?*»[11]. Bu savol nafaqat sotsiologik ko'rsatkich, balki ma'naviy muhitning ahvolini ko'rsatuvchi mezon hamdir. Agar odamlar bir-biriga ishonsa, ijtimoiy birlik va hamjihatlik kuchayadi; aks holda, ishonch so'nganda ekstremistik va manipulyativ g'oyalar uchun keng maydon yaratiladi.

Ijtimoiy ishonch tushunchasi Putnamning mashhur "ijtimoiy kapital" nazariyasida ham alohida o'rin egallaydi. Uning ta'kidlashicha: «*Ijtimoiy tashkilotning xususiyatlari — tarmoqlar, me'yorlar va ishonch*»[12]. Demak, ijtimoiy kapitalning asosiy ustunlari ishonch, munosabatlar tarmog'i va ijtimoiy me'yorlardan iborat. Agar bu ustunlar zaiflashsa, jamiyatning mafkuraviy chidamliligi ham zaiflashadi.

Biroq ijtimoiy kapital va ishonch faqat iqtisodiy yoki siyosiy omillar bilan emas, balki tarixiy va madaniy sharoitlar bilan ham belgilanadi. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) ekstremizmga oid hisobotida shunday deyiladi: *«Zoʻravon ekstremizm — tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarning mahsulidir»*[13]. Bu fikrdan anglashiladiki, sogʻlom ijtimoiy-maʼnaviy muhit ekstremizmning oldini olishning eng samarali vositasi boʻlib, u tarixiy va siyosiy salbiy omillarni yumshatishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ishonch omillari sogʻlom ijtimoiy-maʼnaviy muhitning markaziy ustuni hisoblanadi. Agar ishonch zaiflashsa yoki yoʻqolsa, jamiyatning barcha sohalari — siyosiy, iqtisodiy, madaniy va maʼnaviy yoʻnalishlar inqirozga duch kelishi muqarrar. Shuning uchun ishonchni mustahkamlash mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetning eng muhim sharti sifatida qaralishi kerak.

Yoshlar va taʼlimning maʼnaviy muhitdagi roli: Yoshlar jamiyatning eng zaif qatlamlaridan biri boʻlib, ularning maʼnaviy muhitga boʻlgan munosabati jamiyatning umumiy barqarorligiga toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsir koʻrsatadi. Yevropa komissiyasi huzuridagi Radicalisation Awareness Network (RAN) markazi bu haqda shunday deydi: *«Yoshlar ayniqsa zaif qatlamdir... ular va ularning oilalari bilan ishlash zarur»*[14]. Demak, yoshlarning maʼnaviy immuniteti kuchli boʻlmasa, ular turli ekstremistik gʻoyalarga moyil boʻlib qolish xavfi yuqori boʻladi.

YuNISEF hisobotida taʼlimning jamiyatdagi uygʻunlikni taʼminlashdagi ahamiyati alohida taʼkidlangan: *«Taʼlim jamiyatda uygʻunlikni kuchaytirish va mojaro sabab zarar koʻrgan ijtimoiy toʻqimani tiklashda hal qiluvchi ahamiyatga ega»* [15]. Bu fikrdan anglashiladiki, taʼlim faqat bilim berish vositasi emas, balki maʼnaviy muhitni tiklash va ekstremizmga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning asosiy omili sifatida ham namoyon boʻladi.

INEE (Taʼlim boʻyicha xalqaro tarmoq) va Harvard Humanitarian Initiative (HHI) hamkorligida tayyorlangan qoʻllanmada taʼkidlanishicha, YuNISEF ijtimoiy uygʻunlik, chidamlilik va inson xavfsizligini kuchaytirish maqsadida takomillashtirilgan taʼlim siyosatlari orqali maxsus

dastur ishlab chiqqan[16]. Demak, ta'lim siyosatini jamiyatda ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishning asosiy vositasi sifatida qarash zarur.

Mahalliy tadqiqotchilarning xulosalari ham shu fikrni quvvatlaydi. A. Madraximov va D. Nazarova ta'kidlaydilar: «Yoshlarning jismoniy va ruhiy sog'lig'i ularning intellektual, madaniy va ma'naviy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq» [17]. Bu erdan ko'rinib turibdiki, ta'lim faqat akademik bilim berish emas, balki yoshlarning jismoniy va ma'naviy barqarorligini ta'minlaydigan ko'p qirrali jarayondir.

Shu tariqa, yoshlar ma'naviy muhitning barqarorligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular uchun sog'lom tarbiya, to'g'ri ta'lim siyosati va oila muhiti ekstremizm va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kuchli qalqon vazifasini bajaradi.

Mahalla instituti va jamoa hamkorligi: Mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali kurashda mahalla instituti va jamoa hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki mahalla nafaqat ijtimoiy nazorat va tarbiya markazi, balki jamiyatning ma'naviy immunitetini ta'minlovchi asosiy ustunlardan biri hisoblanadi.

BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) ishlab chiqqan Community Security and Social Cohesion (CSSC) konsepsiyasida quyidagicha ta'kidlanadi: «CSSC yondashuvi jamiyatlarni bog'lab turuvchi umumiy qadriyatlar va aloqalarni mustahkamlash hamda zo'ravonlikka chidamliroq qilishni maqsad qiladi» [18]. Demak, mahalla va jamoa munosabatlari faqat an'anaviy institut emas, balki umumiy qadriyatlar va ijtimoiy birdamlikni shakllantiruvchi zamonaviy mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi.

Shaharlar va jamoalar miqyosida uyg'unlikni kuchaytirish masalasi "Resilient Cities Network" (Chidamli shaharlar tarmog'i) tahlilida quyidagicha ifoda etilgan: "Haqiqatan ham barqaror shahar muhitini yaratish uchun, shaharlar barcha darajada — shaxslar o'rtasida, mahallalar ichida va shahar miqyosida ijtimoiy uyg'unlikni kuchaytiruvchi tashabbuslarni joriy etishi zarur." [19] Bu fikr mahallaning ahamiyatini yanada ochib beradi, chunki mahalla jamiyatning eng kichik birligi sifatida ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikning asosiy ustuni hisoblanadi.

UNDP va USAID hamkorligida amalga oshirilgan SCORE dasturida mahalla va jamoa hamkorligining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Hisobotda shunday deyiladi: "Maqsad shuki, ushbu yagona vosita yordamida ijtimoiy uyg'unlikni kuchaytirish uchun dalilga asoslangan trayektoriyalar ishlab chiqiladi; buning uchun uchta sohada — ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va siyosiy yo'nalishlarda barqaror va transformatsiyaviy chidamlilik quvvatlari yaratiladi" [20]. Bu fikrdan xulosa qilib aytish mumkinki, mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy uyg'unlik o'zaro uyg'un tarzda rivojlanganda, ma'naviy muhit barqarorligi ta'minlanadi.

Shuningdek, mahalliy tadqiqotchi mahalliy tadqiqotchi L.J. Mirsagatova o'z maqolasida quyidagicha xulosaga keladi: "Shundan ko'rinib turibdiki, aynan 30 yoshgacha yoshlar orasida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash zarur" [21]. Bu xulosa mahalla va yoshlar siyosati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi.

Demak, milliy birlik va jamiyat ijtimoiy birdamligi uchun yangi ma'naviy muhit lozim ekan. Bu muhitni barpo etish uchun birinchi navbatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit kerak. Ikkinchidan, davlat va xalq o'rtasida ishonch ruhiga qurilgan mustahkam ijtimoiy birlik zarur. Uchinchidan, jamiyatda barqaror ijtimoiy adolat tamoyiliga amal qilish muhitini yaratish maqsadga muvofiq.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko'rinib turibdiki, mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali kurashishning asosiy sharti – sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashdir.

Birinchiidan, infodemiya va dezinformatsiya kabi zamonaviy axborot tahdidlariga qarshi turish uchun jamiyatda axborot savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish va ishonchni mustahkamlash zarur.

Ikkinchiidan, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch ijtimoiy uyg'unlikning markaziy ustuni sifatida namoyon bo'ladi. Agar ishonch zaiflashsa, barqarorlik va islohotlar samarasiz bo'lib qoladi.

Uchinchidan, yoshlar ma'naviy muhitda eng zaif qatlam sifatida tarbiya va ta'lim orqali qo'llab-quvvatlanishi shart. Ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki jamiyatda uyg'unlik va ma'naviy immunitetni mustahkamlash vazifasini ham bajaradi.

To'rtinchidan, mahalla instituti an'anaviy ijtimoiy tarkib bo'lish bilan birga, zamonaviy mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ham strategik ahamiyatga ega. U orqali jamoa munosabatlari mustahkamlanib, ijtimoiy adolat va ishonch muhiti yaratiladi.

Shu tariqa, jamiyatning barqarorligi va uning mafkuraviy tahdidlarga qarshi chidamliligi quyidagi ustunlarga tayanadi:

Axborot xavflariga qarshi ma'naviy immunitet;

Davlat va jamiyat o'rtasida ishonch muhiti;

Yoshlarning sog'lom tarbiya va ta'lim muhiti;

Mahalla instituti va jamoa hamkorligi.

Demak, ijtimoiy-ma'naviy muhit sog'lom bo'lsa, jamiyat ekstremizm, dezinformatsiya va boshqa mafkuraviy tahdidlarga qarshi chidamlilikka ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). Infodemic. – Jeneva: World Health Organization, 2024.

2. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). Infodemic. – Jeneva: World Health Organization, 2024.

3. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). Infodemiya *boshqaruvi: Siyosiy tavsiyalar* (COVID-19 infodemic management: Policy brief) [Elektron manba]. – Jeneva: JSST, 14.09.2022

4. do Nascimento, I.J.B. va boshq. Infodemiya va salomatlikka oid noto'g'ri ma'lumotlar: tizimli tahlil (Infodemics and health misinformation: a systematic review) – 2022

5. Bliss, N. va boshq. *Dezinformatsiya tadqiqotlari uchun kun tartibi* (An Agenda for Disinformation Research). – RAND Corporation, 2020. – Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi (APA). Misinformation and disinformation. – Vashington: APA, 2023. –

6. Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi (APA). Misinformation and disinformation. – Vashington: APA, 2023.

7. Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi (APA). Misinformation and disinformation. – Vashington: APA, 2023.

8. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD). Trust and Public Policy. – Parij: OECD Publishing, 2017. – 267 b.

9. Jahon banki. Social Cohesion and Forced Displacement. – Vashington: World Bank, 2023. – 12 b. – URL:

10. Jahon qadriyatlari tadqiqoti (World Values Survey). WVS Wave 8 Questionnaire — 2024. — 4-bet.

11. Putnam, R. Bowling Alone: America's Declining Social Capital [Kitob]. – Nyu-York: Simon & Schuster, 1995. – 505 b. – 2-bet. – ISBN 0-684-83283-6

12. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP). *Zo'ravon ekstremizmning oldini olish: inklyuziv taraqqiyot, bag'rikenglik va xilma-xillikka hurmatni rag'batlantirish orqali*. – Nyu-York: UNDP, 2016. — 5-bet.

13. Radicalisation Awareness Network (RAN). *Xavf ostidagi yoshlar uchun ikkilanmchi darajadagi aralashuvlarni loyihalash bo'yicha qo'llanma*. – Bryussel: Yevropa Komissiyasi, 2022. — 4-bet.

14. YuNISEF (UNICEF). *Ta'lim va tenglik uchun investitsiya ishi* (The Investment Case for Education and Equity). – Nyu-York: UNICEF, 2015. – 13-bet.

15. Garvard Gumanitar Tashabbusi (Harvard Humanitarian Initiative, HHI). *Ijtimoiy uyg'unlikni baholash doirasi* (Social Cohesion Assessment Framework) [Elektron manba]. – Kembrij, Massachusetts: Harvard Humanitarian Initiative, 2017. – 6-bet.

16. Madraximov A., Nazarova D. *Yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy muhitini sog'lomlashtirishda tibbiyot fanlarining o'rni* // Modern Education and Development. – 2025. – №18(7). – B. 25–28. – URL:

17. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP). Community Security and Social Cohesion: Towards a UNDP Approach. – Nyu-York: UNDP, 2009. – 6-bet.

18. Resilient Cities Network. *Ijtimoiy uyg'unlik qo'llanmasi* (Social Cohesion Handbook). – London: Resilient Cities Network, 2019. – 25-bet.
19. BMT Taraqqiyot dasturi / USAID. Social Cohesion and Resilience Assessment (*SCORE*). Yakuniy hisobot. – 2022. – 10-bet.
20. Mirsagatova L.J. *Mahalla – tarbiya va ma'naviyat maskani* // International Scientific and Practical Conference “International Experience in the Use of Collaborative Technologies in Child Rearing”, 22 aprel 2025. – B. 311–314.

YOSHLARNI KOMILLIKKA YETAKLASHDA ABU HAFS AL-KABIRNING AXLOQIY QARASHLARI

Kurbanov Djamshid Djurayevich,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),
Buxoro davlat pedagogika instituti.

Bugungi globalashuv va axborot asrida yoshlar ongini yot g'oyaviy oqimlar, individualizm va ma'naviy beqarorlikdan himoya qilish masalasi jamiyatning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu boisdan, xalqimiz ma'naviyati va falsafiy tafakkuri shakllanishida muhim o'rin tutgan mutafakkirlar merosini chuqur o'rganish bugungi ta'lim va tarbiya tizimining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan sanaladi. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev, “Necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o'zligimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan muqaddas dinimizni asrash, ajdodlarimizning bebaho ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganish va targ'ib etish biz uchun doimiy kun tartibida turadigan muhim masala bo'lib qolmoqda” — deya ta'kidlagan edi.[1] Mazkur fikr zamirida ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni yosh avlodga etkazish orqali ularni ma'naviy etuklik ruhida tarbiyalash g'oyasi mujassam. Shu buyuk ajdodlardan biri IX asr Buxoro ulamolari maktabining yirik vakili, fiqh va kalom ilmlarining asoschilaridan biri — Abu Hafs al-Kabir al-Buxoriy (757-832) hisoblanadi.

Ahmad ibn Hafs ibn Zaburqon ibn Abdulloh al-Buxoriy nafaqat o‘z davrining yirik faqihi, balki diniy-falsafiy tafakkur sohasida chuqur iz qoldirgan alloma sifatida tanilgan. Uning ilmiy qarashlari inson ma’naviyatining ichki mazmunini yoritishga, iymon, adolat, halollik va sabr fazilatlarini jamiyat hayotining asosiy mezonlari sifatida qaror toptirishga qaratilgan edi.

Abu Hafs faoliyat yuritgan davr Movarounnahr tarixida ijtimoiy-siyosiy jihatdan murakkab davr bo‘lgan. Islom dini keng yoyilgan bo‘lsa-da, turli oqimlar va bid’atchilik holatlari mavjud edi. Shu sharoitda alloma ilm va ma’rifatni insonni najotga eltuvchi yagona yo‘l sifatida talqin etadi. U bid’at va yangilik chiqaruvchilarga qarshi chiqib, “ahl as-sunna val-jamo’a” yo‘nalishini himoya qilgan.

Islom huquqi (fiqh) — nafaqat huquqiy me’yorlar majmuasi, balki diniy marosimlar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy tartib-qoidalarini ham o‘z ichiga olgan tizimdir. Abu Hafs ana shu tamoyillar asosida faoliyat yuritib, o‘z davr jamiyatining diniy va dunyoviy masalalarini shariat me’yorlari bilan uyg‘un holda tahlil etgan. U islomiy qonun-qoidalarini mahalliy sharoit va urf-odatlar bilan muvofiqlashtirish zarurligini ilgari surgan holda, Imom Abu Hanifaning g‘oyalarini amaliyotda tatbiq etgan.

Manbalarda, Abu Hafs kim bo‘lishidan qat’i nazar — amir yoki oddiy fuqaro — har qanday insonning murojaatini adolatli va asosli tarzda hal etgan. Shu bois xalq orasida u “Hojatbaror imom” nomi bilan shuhrat qozongan. Hozirda ham Buxoro aholisi alloma dafn etilgan maskanni “Imomi Hojatbaror” ziyoratgohi sifatida e’zozlaydi.[5]

Samarra universiteti professori Abdul Razzoq Vodi monografiyasida keltirgan rivoyatga ko‘ra, Abu Hafsga bir kuni:

“Imom Abu Hanifa va Abu Yusuf ko‘pi mast qiluvchi narsaning oz miqdori ham harom deganlar, sizning fikringiz qanday?”

degan savol berilgan. Alloma bunga shunday javob beradi:

“Sharob ichish — o‘yinga o‘xshaydi.”

Unga: *“Demak, siz shayxlarning fikriga xilof gapiryapsiz?”* — deyilganda, u shunday javob beradi:

“U zotlar odamlar orasida sharobni odat tusiga kirgan holat haqida gapirganlar, bizning zamonimizda esa uni buzuqlik va o‘yin-kulgi uchun ichishadi. O‘yin uchun ichish esa ittifoq bilan haromdir.”[2]

Mazkur javob allomaning ijtimoiy-falsafiy tahlil va axloqiy-huquqiy tafakkur qobiliyatini ifodalaydi. Abu Hafs shariat qoidalarini so‘zma-so‘z emas, balki ma’no va zamon konteksti asosida talqin etgan.

U haqiqatni o‘zgarmas shaklda emas, balki tarixiy va ijtimoiy holatlar bilan dialektik aloqada bo‘lgan jarayon sifatida ko‘radi. Bu yondashuv “haqiqat — tarixiy voqelik bilan bog‘liq” degan falsafiy tamoyilni aks ettiradi.

Yuqoridagi rivoyatdan ayon bo‘lishicha, Abu Hafs al-Kabir o‘z ustozlarining fikrlarini so‘zma-so‘z qabul qilmaydi, balki ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglab, uni zamon ruhiga mos tarzda talqin etadi. Bu yondashuv taqlid emas, balki tafakkur va mantiqiy tahlilga asoslangan bilish usulini ifodalaydi. Alloma ilmiy izlanishda ijtihod ruhini — ya’ni, mustaqil fikr yuritish va asosli hukm chiqarish tamoyilini — markaziy o‘ringa qo‘yadi. Shu sababli, u “bilish”ni passiv qabul emas, balki faol tafakkuriy va ijodiy jarayon sifatida talqin etadi.

Abu Hafs axloqiy qadriyatlarni inson hayotining markaziga qo‘yadi. Uningcha, amalni baholashda asosiy mezon niyat va maqsaddir. “O‘yin uchun ichish esa ittifoq bilan haromdir”, degan fikrda u amallarni insonning ichki dunyosi bilan o‘lchaydi. Bu yondashuv Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning “Har bir amal niyatga bog‘liq!” hadislariga uyg‘un holda keladi.[3]

Abu Hafsning quyidagi hikmatlari ham ibratlidir: *“Insonni kambag‘al bo‘lishiga sabab bo‘luvchi ishlar quyidagilar: non ushoqlarini oyoq ostiga tashlamoq, yuzni etak bilan artmoq, namozni tark qilmoq, kechaning avvalida zud yotmoq, uyni supurmasdan qo‘ymoq, ostonada o‘tirmoq, idish-tovoqni yuvmay qo‘ymoq, qo‘lni yuvmay taom emoq, Qur‘oni karimni tahoratsiz olib o‘qimoq, ota-onaning nomini olib chaqirmoq, tirnoqlarni tish bilan olmoq, yoshi katta, oqsoqollar oldidan kesib o‘tmoq!”[4].*

Allomaning hikmatlarida inson hayotiga oid oddiy ko‘rinadigan pand-nasihatlar aslida chuqur falsafiy ma’noga ega. Uning “Insonni kambag‘al

bo'lishiga sabab bo'luvchi amallar" haqidagi o'g'itlari zohiran axloqiy ko'rsatmalar bo'lib ko'rinsa-da, botinan inson va borliq o'rtasidagi uyg'unlik, ma'naviy poklik hamda axloqiy tartibning ahamiyatini yoritadi. Bu yondashuv islom falsafasining aksiologik (qadriyatlar) va axloqiy yo'nalishlariga xos bo'lib, insonning komillikka erishuvi nafaqat ibodat orqali, balki kundalik hayotdagi odob va poklik orqali ham ro'y berishini anglatadi.

Yuqoridagi hikmatda Abu Hafs inson hayotidagi baraka, rizq va totuvlikni ilohiy tartib bilan bog'laydi. Unga ko'ra, insonning ma'naviy beparvoligi – tozalikka, ibodatga, ota-ona va jamiyatga bo'lgan hurmatsizlik orqali namoyon bo'ladi. Shu bois alloma kambag'allikni faqat moddiy holat emas, balki ruhiy va axloqiy zaiflik natijasi sifatida talqin etadi. Tozalikka, ota-onaga hurmatga, ibodatga sadoqatga chaqiruvchi o'g'itlarida inson hayotidagi baraka va totuvlikni ilohiy tartib bilan bog'laydi.

Abu Hafs al-Kabirning o'g'itlarida tozalik, Qur'onni tahoratsiz o'qimaslik, namozni muntazam ado etish hamda kattalarga hurmat ko'rsatish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur qadriyatlar u tomonidan faqat diniy burch sifatida emas, balki ijtimoiy madaniyat va jamiyat barqarorligini ta'minlovchi axloqiy mezon sifatida talqin etiladi. Shunday qilib, mutafakkir insonning ruhiy pokligini jamiyatdagi tashqi tartib va uyg'unlik bilan uzviy bog'laydi.

Abu Hafs al-Kabir tasavvuf tarixida "Buxoro maktabi" asoschisi sifatida e'tirof etiladi. U "suluk" — ruhiy sayrni insonning o'z nafsini engish va Allohga yaqinlashish vositasi sifatida sharhlaydi. Uningcha, qalb pokligi, halollik va sabrni o'zida mujassam etgan inson chin "komil inson"dir.

Uning "haqiqat yo'li" haqidagi ta'limoti keyinchalik Abu Abdillab Muhammad ibn Fazl, Abu Ali Farmadiy va Bahouddin Naqshband kabi so'fiylar tomonidan rivojlantirilgan. Shu bois Abu Hafsni Naqshbandiya silsilasining poydevorlaridan biri sifatida ko'rish mumkin.

Abu Hafs ta'limotining markazida "ma'naviy etuklik" tushunchasi turadi. Bu tushuncha uch asosiy mezonga tayanadi:

1) Iymonning mustahkamligi — insonni ruhiy barqarorlikka olib boruvchi eng muhim manba.

2) Nafsni tarbiyalash — nafsni enggan taqdirdagina boshqalarni tarbiyalay oladi.

3) Axloqiy komillik — jamiyatdagi adolat, halollik, mehnatsevarlik va insonparvarlikning asosi.

Alloma fikricha, “ma’rifatsiz iymon zaif, iymonsiz ma’rifat esa yo‘qdir.” Bu tamoyil bugungi ta’lim va tarbiya tizimi uchun ham dolzarbdir.

Zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu jarayonda Abu Hafs al-Kabirning insonparvarlik, adolat, halollik va sabrga asoslangan g‘oyalari bebaho ma’naviy manba vazifasini o‘taydi. Uning merosini o‘rganish yosh avlodda:

- ma’naviy immunitetni,
- tanqidiy tafakkurni,
- ijtimoiy mas’uliyatni,
- milliy va diniy g‘ururni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan Abu Hafs al-Kabir merosi falsafa tarixi nuqtayi nazaridan nafaqat tarixiy, balki dolzarb pedagogik-falsafiy ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. yangi o‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021., -B.291

2. Dr. Abdul Razzoq Ahmad Vodi al-Samarrai. مشيخة ومدرسة أبي حفص الكبير في بخارى // [Buxorodagi Abu Hafs al-Kabir shayxligi va madrasasi], augst. 2018,

3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. 2 jild. Al-Jomi’ as-Sahih (ishonarli to‘plam)., Arabchadan Xoja Muzaffar Nabixon o‘g‘li va Xoja Baxtiyor Nabixon o‘g‘li tarjimasi., Qomuslar bosh tahririyati., Toshkent – 1997., 17 bob.

4. Abu Xafs Kabir Buxari – Svyatoy imam. Nastavnik uchyonykh v Maverannaxre. (Sbornik nauchno-poznavatel'nykh statey)., Avt.: Almeyev R. i dr., -“Durdona”., Buxara., 2021., -S.53

5. <https://www.mirarab.uz/ruknlar/1347>

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA DARSLARIDA MILLIY QADRIYATLARIMIZGA HURMAT RUHINI SHAKLLANTIRISH

Madaminova Yarkinoy Saparbayevna,

Urganch davlat pedagogika instituti

katta o'qituvchisi

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash — har bir o'qituvchining eng muhim maqsadlaridan biridir. Jahon madaniyatlari o'rtasidagi integratsiya jarayoni o'quvchilarning tafakkurini kengaytirar ekan, shu bilan birga ularning milliy o'zligini, tili, dini, urf-odatlarini va merosini asrashga bo'lgan mas'uliyatini mustahkamlash zarurati ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya sohasidagi qaror va farmonlarida yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida, milliy g'oya asosida tarbiyalash dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, umumta'lim maktablaridagi “Texnologiya” fani o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarni singdirishning amaliy maydoni sifatida muhim o'rin tutadi.

Yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi globallashuv jarayonida davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Biz yoshlarni yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, o'z xalqining qadriyatlarini yurakdan his qiladigan insonlar qilib tarbiyalashimiz kerak. Chunki ma'naviy asos mustahkam bo'lmasa, hech bir taraqqiyot barqaror bo'lmaydi.” [2, 12]

Shu ma'noda, umumta'lim maktablaridagi "Texnologiya" fani nafaqat amaliy mehnatga o'rgatuvchi, balki milliy o'zlikni anglash va qadriyatlarni singdiruvchi vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Mazkur fan o'quvchilarda ijodkorlik, mehnatsevarlik, mustaqil fikrlash bilan birga, xalqning boy madaniy merosi va hunarmandchilik an'analarini qadrlashni o'rgatadi.

Texnologiya fanining asosiy maqsadi — o'quvchilarda mehnatsevarlik, mustaqil fikrlash, amaliy ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdir. Ammo bu jarayon faqat texnik bilim bilan cheklanmay, madaniy-ma'naviy tarbiyani ham o'z ichiga olishi kerak.

O'zbekiston xalqi asrlar davomida o'zining boy hunarmandchilik an'analari, mehnat madaniyati va estetik qarashlari bilan ajralib turgan. Shuning uchun texnologiya fanida: milliy kiyim tikish, kashtachilik, zardo'zlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, temirchilik, gilam to'qish, bezak san'ati kabi mavzularni o'rganish orqali o'quvchilar milliy qadriyatlar bilan bevosita tanishadilar.

Bu esa ularning tafakkurida "mehnat – bu qadriyat", "meros – bu g'urur" degan tushunchalarni shakllantiradi.

Yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi globalashuv jarayonida davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

"Biz yoshlarni yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, o'z xalqining qadriyatlarini yurakdan his qiladigan insonlar qilib tarbiyalashimiz kerak. Chunki ma'naviy asos mustahkam bo'lmasa, hech bir taraqqiyot barqaror bo'lmaydi." [2, 12]

Shu ma'noda, umumta'lim maktablaridagi "Texnologiya" fani nafaqat amaliy mehnatga o'rgatuvchi, balki milliy o'zlikni anglash va qadriyatlarni singdiruvchi vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Mazkur fan o'quvchilarda ijodkorlik, mehnatsevarlik, mustaqil fikrlash bilan birga, xalqning boy madaniy merosi va hunarmandchilik an'analarini qadrlashni o'rgatadi.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da milliy qadriyatlar, urf-odat

va an'analarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirish zarurligi qayd etilgan [1].

Bu talab texnologiya fani uchun ayniqsa muhimdir, chunki u amaliy mehnatni milliy ruhda o'qitishga imkon beradi.

Masalan, "Kashtachilik" mavzusida nafaqat tikuvchilik ko'nikmasi, balki naqshlarning ramziy ma'nosi, ularning xalq madaniyatidagi o'rni haqida bilim berish o'quvchida estetik tafakkur va qadriyatga hurmatni kuchaytiradi.

Texnologiya darslarida milliy qadriyatlarni singdirish — bu o'quvchiga o'zligini anglatish, tarixiy ildizlar bilan bog'lash, milliy iftixor tuyg'usini uyg'otishning eng samarali yo'lidir.[3, 63]

Milliy qadriyatlarni o'quv jarayoniga singdirish o'qituvchidan maxsus metodik yondashuvni talab etadi. Quyidagi usullar samarali natija beradi:

Texnologiya darslari boshqa fanlar — tarix, san'at, geografiya, mehnat tarbiyasi, musiqa va adabiyot bilan uzviy bog'liq holda o'tilganda o'quvchilar milliy qadriyatlarning turli qirralarini chuqurroq anglaydi. Masalan:

- "Kashtado'zlik" mavzusida naqshlar tarixini san'at va tarix bilan bog'lash;

- "Oshpazlik san'ati" mavzusida milliy taomlarning geografik xususiyatlari va xalq urf-odatlarini bilan aloqasini ko'rsatish.

Zamonaviy ta'lim jarayonida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) integratsiyasi o'quvchilarda ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan, "Milliy naqshlar asosida interyer bezagi" loyihasi o'quvchilarni texnik tafakkur, san'atga qiziqish va milliy estetik didni uyg'unlashtirishga o'rgatadi.

So'nggi yillarda texnologiya faniga STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvini kiritish orqali darslar yanada innovatsion va ijodiy tus olmoqda. Shu bilan birga, STEAM konsepsiyasining "A" — san'at komponenti orqali milliy san'at va hunarmandchilik elementlarini tatbiq etish imkoniyati mavjud.

Masalan, “Milliy naqshlar asosida bezakli buyum loyihalash” mashg‘ulotida o‘quvchilar nafaqat chizmachilik, o‘lchov va dizayn elementlarini o‘rganadilar, balki o‘z milliy naqshlarini zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirish tajribasini orttiradilar.

“STEAM asosida tashkil etilgan texnologiya darslarida milliy san’at unsurlarini qo‘llash o‘quvchilarning kreativ fikrlashini oshiradi, ularni innovatsion, ammo o‘z ildizlariga sodiq shaxs sifatida shakllantiradi.” [3, 27]

Texnologiya darslarida mahalla ustalari, xalq amaliy san’ati vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish o‘quvchilarda milliy merosga qiziqishni oshiradi. Ular o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, amalda o‘rgangan ishni ko‘proq qadrlaydilar.

Dars jarayonida xalq maqollari, hikmatlar, qadimiy naqshlar ma’nosi, kasbning sharafliligi haqidagi suhbatlar o‘quvchilarda qadriyatga nisbatan ma’naviy yondashuvni shakllantiradi. Masalan: “Mehnat qilgan to‘yar, dangasa so‘yar”, “Ota kasbi – bola nasibi” kabi maqollar darsning tarbiyaviy mazmunini kuchaytiradi.

O‘quvchilarda qadriyatga hurmat ruhini shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich olib boriladi:

1. Axborot bosqichi: O‘quvchilar milliy hunarmandchilik turlari, ularning tarixi va ahamiyati bilan tanishadilar.
2. Amaliy bosqich: O‘quvchilar milliy uslubdagi buyumlar, naqshlar, bezaklar tayyorlashda ishtirok etadilar.
3. Refleksiv bosqich: O‘quvchilar bajarilgan ishlar haqida fikr yuritadilar, mehnatning ahamiyatini baholaydilar.
4. Tarbiyaviy bosqich: O‘quvchilarda milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat, iftixor, mas’uliyat tuyg‘usi shakllanadi.

Misol 1: “Kashtado‘zlik san’atining qadri” mavzusi

O‘qituvchi darsda o‘quvchilarga kashtado‘zlik tarixidan qisqacha ma’lumot beradi, turli viloyatlarda ishlatiladigan naqshlar bilan tanishtiradi. Keyin o‘quvchilar milliy naqsh elementlari asosida o‘z ishlanmasini yaratadilar. Yakunida “Eng go‘zal milliy naqsh” tanlovi o‘tkaziladi.

Misol 2: “Yog‘ochdan milliy naqshli buyum yasash” loyihasi

O'quvchilar milliy naqshlarni tanlab, yog'ochdan oddiy bezakli quti yoki ramka yasaydilar. Loyihaning maqsadi — o'quvchilarda milliy estetikani texnik ijro bilan uyg'unlashtirish ko'nikmasini hosil qilish.

Misol 3: "Milliy taomlar – xalq qadriyati"

Texnologiya darsida oshpazlik bo'yicha mashg'ulot o'tkazilib, o'quvchilar milliy taom tayyorlash jarayonida nafaqat amaliy ko'nikma, balki madaniyat, mehmondo'stlik, tozalik va tartib qadriyatlarini ham o'zlashtiradilar.

O'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish darajasi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Milliy hunarmandchilikka bo'lgan qiziqish;

O'quvchining ijodiy yondashuvi va milliy bezaklardan foydalana bilish mahorati;

Mehnat natijasiga nisbatan mas'uliyat va faxr tuyg'usi;

Jamoaviy ishda o'zaro hurmat va yordam ko'rsatish qobiliyati.

Texnologiya darslari nafaqat amaliy bilim manbai, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya maktabidir. Ushbu darslarda milliy qadriyatlarni singdirish orqali o'quvchilarda: o'z xalqining merosiga hurmat, mehnatsevarlik, estetik did, ijodkorlik, vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usi shakllanadi.

Shunday qilib, texnologiya fanini milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim-tarbiya konsepsiyasi asosida olib borish — yosh avlodni ma'naviy barkamol, milliy g'ururga ega, zamonaviy fikrlovchi shaxs sifatida voyaga etkazishning muhim omilidir.

Texnologiya darslari o'quvchiga faqat amaliy mehnatni emas, balki hayot falsafasini, qadriyatni, madaniyatni o'rgatadi. Shu boisdan, texnologiya fanini milliy qadriyatlar bilan boyitish: o'quvchida milliy o'zlikni anglashni, mehnatni qadrlashni, ijodkorlik va estetik didni, vatanparvarlik va mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, texnologiya ta'limi — bu milliy qadriyatlarni amaliyot orqali singdirish maktabi bo'lib, uning tarbiyaviy samaradorligi nafaqat dars jarayonida, balki o'quvchining hayotiy pozitsiyasida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Qosimova M. *Texnologiya fanida milliy qadriyatlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish*. – Toshkent, 2021.
4. Rasulova M., Jo'rayev A. *STEAM yondashuvi asosida texnologiya fanini modernizatsiya qilish yo'llari*. – Ilmiy to'plam, 2023.
5. Sultonova N. *Texnologiya ta'limida milliy qadriyatlarni shakllantirish metodikasi*. – Toshkent: TDPU, 2022.

YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOIIY VA MADANIY OMILLAR NING O'RNI VA AHAMIYATI

Obidjon G'ayratovich G'ulamov,
TAQU v.b.dotsenti

Jahonda global taraqqiyot natijasida milliy qadriyatlarga tahdid sifatida namoyon bo'layotgan ayrim salbiy ko'rinishlar kelajak taraqqiyotni ta'minlovchi kuch hisoblanuvchi yoshlar intellektual salohiyati, ularning milliy xususiyatlarga asoslangan ma'naviy yuksalishiga asosiy e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Chunki, mingyilliklar tajribasidan o'tgan ijtimoiy-madaniy omillarning jamiyat ma'naviy yuksalishidagi o'rni ahamiyatli bo'lib, undan bugungi global ta'sirlar mavjudligi sharoitida muhim. Bugungi kunda miqdor jihatdan ham, sifat jihatdan ham o'sib borayotgan yoshlar qatlami texnogen sivilizatsiyaning asosiy ta'sir obyektiga aylanib, har qanday taraqqiyot yoshlarni ta'sirchan kuch sifatida o'z domiga tortib borayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Global taraqqiyot sharoitida obyektiv jarayon hisoblanuvchi ushbu hodisa yoshlarni umuminsoniy taraqqiyotning optimal rivojini ta'minlashga hissa qo'shuvchi bunyodkor kuch sifatidagi faoliyatiga urg'u berish, tarbiyalash va yo'naltirishni taqozo etmoqda. Chunki, jahon miqyosida o'z ta'sirini

o'tkazishga intilib hamda bunga erishib kelayotgan ushbu global tendensiya birinchi navbatda ijtimoiy taraqqiyotning yuksalayotgan subyekt bo'lgan yoshlar tafakkuri va ma'naviyatiga ta'sir etishga intilishi ham e'tiborni tortadi.

Dunyoda umuminsoniy taraqqiyot yo'nalishini ta'minlashda yoshlarga asosiy kuch sifatida qarab, ular salohiyati va imkoniyatlaridan insoniyat manfaatlari yo'lida foydalanish muhimligini tadqiq etuvchi ilmiy markazlar hamda bir qator tadqiqot institutlari faoliyat olib bormoqdalar. Ular global ta'sirlar sharoitida umuminsoniy madaniyatda ma'naviy yuksalishga nisbatan ma'naviy tanazzul yoki tubanlashish nisbati ortib borayotgan bugungi realliklar sharoitida yoshlar dunyoqarashi va faoliyatiga ijobiy ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillarga urg'u berayotganligi ahamiyatli. Bunday omillar targ'ibi va tadqiqi bilan shug'ullanish borasida jahon ilmiy jamoalari, xalqaro jamg'armalar hamda yoshlar faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar yoshlarni faollashtirishga doir qarashlarning metodologik asoslarini yoritishga oid bir qator konseptual qarashlarni ilgari surib, nazariy tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Jamiyat taraqqiyotiga, jumladan yoshlar ma'naviyati yuksalishiga bir qator omillar ta'sir etadi. Masala mohiyatini teranroq anglash uchun dastlab "omil" tushunchasiga e'tibor qaratgudek bo'lsak, omil bu – voqelik, hodisa, muayyan jarayonni vujudga keltiruvchi sabab yoki harakatlantiruvchi kuchdir. Demak, yoshlar ma'naviy yuksalishiga ta'sir etuvchi bunday omillardan eng muhimi ijtimoiy va madaniy omillar bo'lib, ular individni shaxs sifatida shakllantirishga ta'sir etuvchi kuchdir. Individ ijtimoiylashuvi tufayli shaxs sifatida kamol topib, ijtimoiy hayotning faol subyektiga aylana boradi. Shaxs faoliyatining optimistik, bunyodkorlik mohiyati bevosita ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liq. Ushbu ta'rifga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda ijtimoiy omillarga nisbatan madaniy omillarning o'rnini ko'proq ko'zga tashlanadi. To'g'ri, axloqiy me'yorlar, diniy qarashlar hamda aholining bilim darajasi jamiyatda ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirishga ta'sir etadi, lekin bularning ijtimoiy omilga nisbatan madaniy omil ekanligi xususiyati ustuvorroq.

Ijtimoiy va madaniy omillar ko'p qirrali tushuncha bo'lib, insoniyat

olamini hayvonot olamidan ajratib turadi. Bu omillar bizning hayotimiz, ishimiz, iste'molimiz uslubini shakllanishida xizmat qiladi va jamiyatning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi. Inson hayotini ijtimoiy va madaniy omillarning ta'sirisiz tasavvur etish mushkul. Har qanday tarixiy taraqqiyot ushbu omillarning insonning turmush tarzida qanday o'rin tutganligi bilan bog'liq.

Jamiyat hayotida odamlar duch keladigan asosiy ijtimoiy-madaniy omillarga quydagilar kiradi. Bular: turmush tarzi; ta'lim standartlari; xarid qilish odatlari; ishga munosabat; ijtimoiy mas'uliyat; ijtimoiy farovonlik; dam olishga munosabat; tovar va xizmatlar sifatiga munosabat; atrof-muhit ifloslanishini nazorat qilish talabi; energiyani tejash; hukumatga munosabat; millatlararo munosabatlar muammolaridir. Demak, jamiyatdagi ijtimoiy omillar keng qamrovli tushunchalar bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotga u, yoki bu tarzda ta'sir etuvchi barcha omillarni o'z ichiga oladi.

Demak, bizni qurshab turgan, hamda biz hayotimizni ularning ishtirokisiz tasavvur eta olmagan moddiy va ma'naviy olam ijtimoiy va madaniy omil sifatida ahamiyatga ega. Bunday omillarning shaxs va jamiyat hayotiga ta'siri – ta'sir obyektining sifatiy mohiyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Aslida, tarixiy jarayonlarga murojaat etgudek bo'lsak, odamlar to'dasi orasida ijtimoiy va madaniy omillarning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlangach, kishilik to'dalari kishilik jamiyati vakillari sifatida namoyon bo'la boshlandi. Demak, jamiyatning shakllanishi ham ijtimoiy-madaniy omillarning ilk ko'rinishlari namoyon bo'lishi bilan bog'liq.

Oilada shakllangan individual xislat, fazilat, yoki aksincha kamchiliklar tez orada o'zining mevalarini berishga moyil bo'ladi. Shu bois, oilada tarbiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, ayniqsa yoshlarning uylanishida o'zaro legal va legitim nikohga asosiy e'tibor qaratishda namoyon bo'ladi. Bizning qadriyatlarimizga yot bo'lgan bunday salbiy holatlarning jamiyatimizga kirib kelishining oldini olish uchun doimo sergak turishimiz lozim. Yuqoridagi iqtibos ham muddat kelajagi uchun doimo ogoh bo'lishimizni taqozo etadi.

Ijtimoiy omillar kundalik turmush jarayonlarida inson uchun zarur

bo'lgan qadriyatlarning umumiy ifodasi sifatida insonning shaxs sifatidagi kamoloti, uning jismoniy rivoji, qolaversa mukammal yashashi uchun ta'sir etuvchi voqeliklarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy omillar shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlab boradi. Ma'lumki: "Ijtimoiylashuv – biron-bir voqea-hodisa, shaxs yoki harakatning ijtimoiy mohiyat kasb etib, ko'pchilikka daxldor bo'lib, ijtimoiy munosabatlar mujassamiga aylanib borishini anglatadigan tushuncha"[1], — sifatida jamiyat a'zolarining komilligini ta'minlab boradi. Ijtimoiylashuv millatga xos tarixiy ong, tarixiy qadriyatlarni o'zlashtirib, ularga amal qilgan holda jamiyatda yashovchi boshqa millat va elatlar madaniyati, turmush tarzi va an'alarini e'zozlash xususiyatini shaxsda ta'minlab boradi. Demak, ijtimoiylashuv ijtimoiy hamkorlik xususiyatini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida insonning shaxs sifatidagi kamolotini ta'minlab boradi. "Ijtimoiy hamkorlik – turli millat, irq va dinga mansub kishilar hamda guruhlarining umumiy maqsad yo'lida birgalikda, bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat olib borishi, ularning o'zaro hamjihatligini ifoda etadigan atama"[2]. Demak, ko'p millatli jamiyatda ijtimoiy hamkorlik umumiy taraqqiyotning katalizatori sifatida namoyon bo'lib, rivojlanishning optimal mohiyatini ta'minlab boradi. Shu nuqtai-nazardan ijtimoiy omillarning barqaror mohiyati shaxs ichki dunyosidagi ma'naviy omilning tarbiyasini, o'sishini va rivojini kafolatlaydi. Ya'ni, jamiyatda ijtimoiy omillarga e'tibor qaratilib, milliy taraqqiyotda ularning o'rniga ahamiyat berish rivojlanishning barqaror mohiyatini ta'minlashda muhim.

Ijtimoiy omillarga e'tibor qaratish jamiyatda tinchlik va totuvlikni, barqaror taraqqiyotni ta'minlashda etakchi omil sifatida o'zaro munosabatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi. Aks holda, ya'ni jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ijtimoiy omillarga ikkinchi darajali vositalar deb qaraladigan bo'lsa jamiyatda turli etnik guruh, sinf va tabaqalar o'rtasida o'zaro ishonchsizlik, bir-birini tushuna olmaslik xususiyatlari ortib, ziddiyat va qarama-qarshiliklarning kuchayishi natijasida ijtimoiy inqirozning yuzaga chiqishi tabiiy. Shu nuqtai-nazardan Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda: "Dunyodagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda barcha islohotlar maktabgacha ta'lim

tizimidan, ya'ni bog'chadan, maktabdan, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. O'tgan asr boshida jadid bobolarimiz shuning uchun ham maktab masalasini eng birinchi o'ringa qo'ygan edilar"[3].

Jamiyatda, uning to'laqonli rivojini ta'minlashda ijtimoiy omillarning ichida eng etakchi omil – bu maktab ekanligini davlatimiz boshlig'ining yuqoridagi fikrlari ham tasdiqlab turipti. Jamiyat rivojini ta'minlashga aloqador bo'lgan asosiy ijtimoiy omillardan biri – ta'lim va tarbiya masalalari ekanligini inobatga olgudek bo'lsak, ayniqsa umumiy aholisining oltmish foizini o'tish yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadigan O'zbekiston sharoitida barkamol avlod shaxsini shakllantirish uchun ham ta'lim va tarbiyaviy jarayonlarga e'tibor qaratish – bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida e'tiborga loyiq. Shu nuqtai-nazardan yoshlarga ta'lim-tarbiya berish orqali ularda kasbiy ko'nikma va mahoratni shakllantirish muhim. Zero, har qanday jamiyatning rivoji ijtimoiy omillarning jamiyatda qay darajada echimi bilan bog'liq ekan aholi bandligini ta'minlash kun tartibidagi dolzarb masala sifatida e'tiborni tortadi. Bu borada davlatimiz boshlig'ining ta'kidlariga e'tibor qaratgudek bo'lsak: "Ijtimoiy sohada bizni qiynaydigan bir qancha savollar bor. Jumladan, mamlakatimizda bandlik masalasi qanday echilmoqda? Barcha ishsiz fuqarolar ish bilan ta'minlanayaptimi? Bu sohada yana nimalar qilish kerak? Xorijga ish qidirib ketganlarni yurtimizda ish bilan ta'minlash bo'yicha qanday choralar ko'rilayapti?"[4], – degan haqli masalalarni o'rta tashlaydilar. Haqiqatan ham xorijda ish izlab yurgan O'zbekiston fuqarolarini Vatanda ish bilan ta'minlash, shu yo'l va usul orqali ularning erkin va farovon yashash kafolatini ta'minlash, bugungi yoshlarimizning ma'lum qismi mardikor sifatida chet mamlakatlarda ishlayotganligi sharoitida o'ta muhim. Davlatimiz rahbari o'z qarashlarini davom ettirib: "Biz bir narsani to'g'ri tushunishimiz kerak: bitta ishsiz odam – o'nta muammo, degani. Bu muammolar ishsiz odamning o'ziga, oilasi va mahallasiga, jamiyatga jiddiy zarar keltirishini hisobga olsak, masalaning naqadar jiddiy ekani yanada oydinlashadi"[5], — deydilar. Haqiqatan ham

jamiyatda ayrim oilalarning parokandalikka yuz tutishi ishsizlik muammosi bilan bog‘liq bo‘lib, chet mamlakatlarga ish izlab ketgan ota yoki ona o‘z oilasining mustahkamligini, mukammalligini ta‘minlash imkonlaridan olislasha boshlaydi. Chunki, har bir oilaning mukammalligi ota yoki ona mehri, tarbiyasi, doimiy nazorati hamda oilaviy qadriyatlarni yuz yilliklar sinovidan o‘tgan milliy qadriyatlar zahirida yo‘lga qo‘yib, muvofiqlashtirib borishi bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarova Q. Ma‘naviyat: asosiy tushunchalar lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2021. – B. 199.
2. Nazarova Q. Ma‘naviyat: asosiy tushunchalar lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2021. – B. 198.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. Tom 4. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 143.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 203.
5. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – B. 203.

OILA – DAVLAT VA JAMIYATNING ASOSIY POYDEVORI

Niyozova Shohista Nusratilloevna,

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi

Buxoro viloyati bo‘limi rahbari v.v.b.

Oila — har bir insonning hayotidagi eng muhim ijtimoiy birlikdir. Oila, shuningdek, jamiyatning asosiy poydevori hisoblanadi. U nafaqat shaxsiy munosabatlar, balki madaniyat, an‘ana va qadriyatlarning saqlanishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Oila inson ilk bolaligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar, qadriyatlar takomil topadigan va sog‘lom e‘tiqodlar shakllanadigan muqaddas dargoh. Shu muqaddas dargohda ma‘naviy-axloqiy muhitni vujudga keltirish va u orqali shaxsni sog‘lom

e'tiqodli, mustaqil fikrlaydigan, komil inson qilib tarbiyalash bugungi islohotlar davrida O'zbekiston uchun davlat ahamiyatiga molik masaladir. "Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!", — deya ta'kidlagan edilar muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev [4;5].

Asosiy qism. Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida umumiy o'rta ta'lim tizimi o'quv jarayonida o'quvchilarning mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish g'oyasini keng tatbiq etish imkoniyatlari amalga oshirilmoqda. "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" [2] kabi ustuvor vazifalardan kelib chiqib, yurtimizda yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun ularni har tomonlama tarbiyalashimiz zarur.

Ta'kidlash joizki, oilaning eng avvalo, e'tiqod va sog'lom dunyoqarash tarbiyasidagi roli benazir. Shu sababli oila, ta'lim muassasasi hamda mahalla tizimida bola tarbiyasi bilan bog'liq barcha tarbiyaviy ishlarning asosida xalq an'analarining, xususan, oilaviy o'zaro munosabatlarda saqlanib qolgan milliy qadriyatlarning tub mohiyatiga aloqador qonuniyatlarni o'rganish vazifasi turibdiki, ularni tadqiq etish, qo'lga kiritilgan natijalarni amaliyotga tatbiq etishni davrning o'zi taqozo etib turibdi. Chunki barqaror va mustahkam oilani shakllantirish, unda ma'rifatparvarlik an'analarini kuchaytirish, oilaviy urf-odatlarini zamon talablari asosida qayta o'rganib chiqib, eng nodirlariga nisbatan farzandlarimizda mustahkam e'tiqodni tarbiyalashning ta'sirchan

vositalarni ishlab chiqish jamiyat ma'naviyatini barqarorlashtirishni ta'minlaydigan omillardan sanaladi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor" [3]. Bugungi kunda oila singari ta'sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarda aynan shunday qadriyatlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish, va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy ijtimoiy qarashlarni hosil qilish dolzarb masalalardandir.

Mustaqil davlatimizda bugungacha oila bilan bog'liq 50 ga yaqin qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20 ga yaqin farmon, qaror va farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 70 dan ortiq qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 14-bobi aynan "**Oila**" deb nomlanadi. Unda 5 ta modda mavjud. Bu moddalarda ham milliy ham umuminsoniy qadriyatlar mohiyati aks etgan. 76-modda shunday jaranglaydi: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy qadriyatlariga nikohlanuvchining ixtiyoriy roziligiga va teng huquqligiga asoslanadi". [1].

Bu bobning qolgan moddalarida oila bilan bog'liq eng muhim jihatlar qamrab olingan. Shu moddalar asosida butun boshli "Oila kodeksi" ham qabul qilingan. Unda oila bilan bog'liq barcha huquqiy jihatlar qamrab olingan.

"Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini" – degan jumlada tabiiy ravishda naslimiz davomiyligini saqlaydigan maskan ekanligi va unda "O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga" asoslanishi aynan tabiat va jamiyatdagi paritet qonunniyatiga asosan ikki qarama-qarshi jins vakillari orasida bu kelishuvning bo'lishi alohida ta'kidlangani ayni muddaodir. Chunki bugungi kunda g'arb madaniyatining jirkanch ko'rinishi bo'lgan bir jinsli nikohning oldini olishga qaratilgan g'oya aks etganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shuningdek oila to'laqonli rivojlanishi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlarning yaratilishi – insonparvarlikning sharqona ko'rinishi bo'lib, mamlakatimizda yosh oilalar uchun bugungi kunda yaratilayotgan sharoitlar, imtiyozlar – oilalar mustahkamligini saqlash yo'lidagi ezgu qadamdir. Ushbu bobning “ko'p bolali oilalarga qonunga muvofiq imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar” belgilanganligi esa o'zbek xalqining bolaparvarlik fazilatini rag'batlantirishning gumanistik tamoyili deb baholash mumkin.

Muqaddas Qomusning 77-moddasida “Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga etguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar” [1] sifatida keltirilib, bunda bevosita ota-onalar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ularning o'rnini bosuvchi shaxslar zimmasiga ham yuklatilmoqda. Bu vazifalar qatoriga bolalarni voyaga etgunga qadar boqish va tarbiyalashdan tashqari, ularning ta'limi, sog'lom va to'laqonli kamol topishi haqida qayg'urish ham qo'shilmoqda.

Ushbu modda asosida O'zbekistonda bugungi kunda ota-onadan bevaqt judo bo'lgan yoki qarovsiz qolgan bolalar vasiylik asosida yaqinlariga berilishining qonuniy asoslari belgilangan.

Shuningdek, 78-moddada “Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi” keltirilib, bolaning manfaatlari, bolalarning to'laqonli, jismoniy, aqliy va madaniy rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishi ekanligi ta'kidlanadi. Onalik, otalik va bolalik

davlat tomonidan muhofaza qilinib, davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosidan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Aynan ushbu moddada bobokalonimiz Imom al-Buxoriyning muqaddas hadisi shariflarida ifodalangan ota-onaning farzand oldidagi burchlari, farzandlarning mas'uliyatlari hayotbaxsh tamoyillar asosida aks etgan.

Sharqda azal-azaldan oila muqaddas dargoh sanalgan, farzand tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan. Oilada bo'lajak farzandni tarbiyalash bola ona qornidayoq boshlash ta'kidlanadi. Ammo, inson zoti yaratilibdiki, hayotda xatolar qiladi, adashadi, kechiradi, kechiriladi, shunday xatolar borki, ularni kechirish mumkin emas, chunki, bu nafaqat bir kishiga, bir oilaga, balki butun bir jamiyatga ziyon etkazadi, bu bizning farzandlarimiz tarbiyasiga mas'uliyatsiz oqibatida yuzaga keladi. Darhaqiqat, oilaviy tarbiyada ota-ona zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklanganki, bu mas'uliyat zamirida xalqning taqdiri, yurtning ertangi kuni, vatan ravnaqi turibdi. Oila vatan ichra vatandirki, unda yaxshi tarbiya ko'rgan farzandgina haqiqiy inson bo'lib etishadi.

Oila – bu muqaddas qo'rg'on, aziz dargoh, ma'naviyat sarchashmasi, kelajak poydevori. Darhaqiqat, bu ko'k gumbaz ostida hayot charxpalagi tinmay aylanaveradi, har kun qadamlarimiz vajohatini his etgan bu qo'hna zamin ne-ne jang-u jadallarga, tarix sahifalariga muhrlangan ne-ne buyuk voqeliklarga guvoh, bu muqaddas ona zamin qanchadan qancha shoir-u olimlarga shoh-u gadolarga abadiy maskan bo'ldi, ne-ne shoh asarlar yaratildi va abadiyatga daxldor bo'ldi. Buyuk evropalik olim Artur Paup aytganidek, "Yevropa hamon uyquda chog'ida Sharq mutafakkirlari olamning yarmini ilmu urfon nuri ila yoritgan edi". Navoiy asarlarida ma'naviyatli, ma'rifatli komil insonni tarbiyalashga katta e'tibor qaratilgan, zero ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuchdir. Ma'naviyat zamirida esa mustahkam oila qo'rg'oni bunyod etiladi. Hazrat Navoiy talqinida oila - ma'naviyat o'chog'i, ota-ona esa mehr nuri ila qizdirguvchi mash'aldir.

Darvoqe, har bir go‘dak ko‘z ochib dunyo yuzini ko‘rarkan, u eng avvalo, oila atalmish muqaddas dargoh bag‘rida, ota hamda ona singari mo‘tabar zotlar qo‘lida kamol topadi. Oila posbonlari sanalmish ota-onalarning dilbandi, jigarg‘ashasi uchun jonini berishga tayyor turadi, ona allasi, ota mehri orqali murg‘ak qalb sohibi oilasiga, qadrdon aka-ukalariga, vataniga muhabbat tuyg‘usini o‘z qalbida, mitti vujudida his eta boshlaydi. Shuning uchun bir parcha etni voyaga etkazib, kamol toptirishda, bir kasb sohibi bo‘lib yurtiga, xalqiga xizmat qilishida ota-onaning, ustozning mehnati beqiyos. Alisher Navoiy “Hayrat-ul abror“ dostonida ota-onani hurmat qilish, ular xizmatida bo‘lishni sharaf deb biladi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a,
Tun-kuningga aylagali nurposh
Birisin oy angla, birisin quyosh [5].

Darhaqiqat, oila posbonlari bo‘lmish ota-onalarni oy-u quyosh kabi qadrlash, ular uchun zarur bo‘lsa aziz jonni fido qilish farzandlar uchun ham qarz, ham farzdir. Shoir nazdida oilada farzand hamisha ota-onaga nisbatan qarzdorlik hissini tuyib yashamog‘i darkor, zero butun koinot uzra oy qorong‘u kechaga nur berib osmon-u falakni yoritganidek, onalar tuni bilan bedor bo‘lib oq sut beradi, ko‘z nurini, qalb qo‘rini berib katta qiladi, quyosh taftidan butun borliq zavq olganidek, otalar xizmatidan farzandlar voyaga etib oila qo‘rg‘onining suyanchig‘iga aylanadi.

Alisher Navoiy yuksak axloq-odobni, insoniy fazilatlarni oila poydevorini yaratishda, bolani tarbiyalashda eng birinchi omil, deb hisoblaydi hamda “Mahbubul qulub“ asarida “Go‘zal axloq, inson vujudining xushmanzara bog‘idir, va odamiylik olamining javohirga boy tog‘idir. Odob axloqni insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa bo‘ladi. Go‘zal axloq tufayli kattalar hurmatiga sazovor bo‘ladi va kattalardan kichiklarga iltifot, marhamat etishadi” [6].

Oila suyanchig‘i, nasllar davomchisi farzandlardir. Muborak hadisi sharifda bu hayotiy haqiqat go‘zal tarzda ifodalangan, “hech bir ota – ona o‘z farzandiga go‘zal axloqu tarbiyadan boshqa buyuk me‘ros qoldira olmaydi”. Tarbiya bermoq uchun, avvalo, tarbiyachining o‘zida ham jamiki

insoniy fazilatlar mujassam bo'lmog'i lozim. Avvalo, muomala madaniyati, so'zlash odobini ularga o'rgatish, yoshligidanoq rostgo'ylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash darkor.

Oila — nafaqat bir yurtning, balki umuminsiniyatning katta siyosati. Aytish kerakki – davlat siyosati. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzluksuzligi – oiladan! Axir oilaning eng birlamchi va bevosita vazifasi ma'naviyat tili bilan aytganda, muqaddas vazifasi – insoniyatning zanjirini sog'lom va iqtidorli avlodlar bilan ulab borishdan iborat. Bu hamma millat hamma davlat hamma xalqlar zimmasidagi sharaflı vazifa.

Xulosa. Oila, har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi. U nafaqat hissiy, balki madaniy va ijtimoiy jihatdan ham insonni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Oila qadriyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish, jamiyatning mustahkamligi uchun zarurdir. Oila a'zolarining o'zaro hurmat va sevgi bilan munosabatda bo'lishi, ularning kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil Toshkent "Yuridik adabiyotlar" publish nashriyoti. 38-40 b.

2.Yangi O'zbekiston fidoyisi. 2024-yil Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti. 5-10 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

4. Karimov I.A. Oila farovonligi – millat farovonligi. – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisdagi tabrik so'zi, 1997-yil 5 dekabr.

5. Qurbonova O'.U., D.I.Tosheva. Oila pedagogikasi. Darslik. Buxoro. "Durdona" nashriyoti. 2023. 214 b.

6.[https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Xamsa.%20Hayratul-abror%20\(nazm\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Xamsa.%20Hayratul-abror%20(nazm).pdf).

7. <https://elibrary.sammu.uz/uploads/books/Badiiy%20adabiyotlar/Mahbub%20ul-qulub.pdf>.

O‘ZBEKISTON TARIXI – YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING MUHIM MANBAIDIR

Mirzayev Gulom Rizoqulovich,
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent, mayor
Jamoat xavfsizligi universiteti

Ma'lumki, har bir xalqning milliy o'zligi va ma'naviy barqarorligi uning tarixiy xotirasiga, ya'ni o'tmishini bilishi va qadrlashi bilan belgilanadi. Millatning o'z tarixi, madaniyati va qadriyatlari uning milliy ongi va tafakkurini rivojlantiradi. Shu bois, millat tarixini o'rganmasdan, uning kelib chiqishi, boy ma'naviy merosi hamda dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini anglamasdan yosh avlodni vatanparvar, mas'uliyatli va fidoyi insonlar qilib tarbiyalash mumkin emas. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tarixi nafaqat o'tmishni eslash vositasi, balki yoshlarda milliy g'urur, milliy o'zlik va ona Vatanga sadoqat hissini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Chunki, tarixiy ongni yo'qotish – millatning ma'naviy emirilishiga, kelajak yo'nalishini yo'qotishiga olib kelishi natijasida ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashda jiddiy putur etkazadi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq qoidalariga tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi globallashuv sharoitida ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiyaga, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e'tibor qaratish g'oyat muhim vazifamizdir” [1:254.]. Bu g'oya – har bir fuqaroning ongida milliy faxr va ma'naviy mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Demak, tarixni tiklash orqali biz **mafkuraviy xavflarga qarshi kuchli qalqon** yaratamiz.

Ta'kidlash joizki, bu borada O'zbekiston tarixi bugungi avlod uchun ibrat maktabidir. Tarixni bilish yoshlarni o'z ildizlariga, ajdodlar merosi va qadriyatlariga hurmat bilan qarashga o'rgatadi.

Shu o'rinda, avvalo, qadriyat, milliy qadriyatlar tushunchalariga qisqacha izoh berib o'tish joiz. Qadriyatlar – borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha.

... Qadriyatlar tarixiy va zamonaviy bo'lishi mumkin. Qadriyatlarning xilma-xil shakllari bor: moddiy va ma'naviy, umumbashariy, mintaqaviy; jamiyat hayotining sohalari bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy qadriyatlar; ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy, ilmiy kabilarni misol qilib keltirish mumkin [3:279-280.].

Milliy qadriyatlar esa, millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlar bo'lib, millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq xolda namoyon bo'ladi [3:141.]. Binobarin, milliy qadriyat deganda xalqning urf-odatlar, an'analar, ma'naviy merosi, til va din qadriyatlari tushuniladi. Afsuski, bugungi globallashtirish davrida yoshlar orasida milliylikni yo'qotish xavfi bor. Shu bois, ta'lim muassasalarida tarix fanini milliy ruhda o'qitish orqali ularda milliy g'ururni kuchaytirish lozim. Masalan, mehr-oqibat, lafz, sharm-hayo, va'daga vafo, sevgiga sadoqat, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi qadriyatlar yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi, jamiyatda bag'rikenglik va birdamlik muhitini yaratadi [4.].

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, mamlakatimizda tarixni qayta ko'rib chiqish, uning haqiqiy manbalarini ochish, soxtalashtirilgan ma'lumotlarni rad etish ishlari orqali ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashga harakat qilinmoqda. Ma'naviy xavfsizlik – bu jamiyatning milliy qadriyatlari, an'analar, tili va dinini asrab-avaylash, yot g'oyalar va mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish demakdir. Bugungi globallashtirish davrida axborot oqimi, madaniy ta'sirlar va ideologik raqobat kuchaygan bir paytda, **ma'naviy xavfsizlik milliy mustaqillikni mustahkamlashning asosiy shartlaridan biriga aylandi.**

Darhaqiqat, bugungi kunda ma'naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning asosiy masalalaridan biriga aylanar ekan, xalqimiz va mamlakatimiz bosib o'tgan yo'lni, ajdodlarimiz faoliyatini – tariximizni chuqur bilmay va teran idrok qilmay turib, kishi ma'rifatli ham, ma'naviyatli ham bo'lolmaydi. Zero, o'tmish bilan bugunning, ajdodlar bilan avlodlarning mustahkam bog'lanishi bu – millat manguligiga

kafolatdir. Tarix bunday bog‘lanishda oltin ko‘prik bo‘lib xizmat qilajak. Yaxlit olib qaralganda, tarixni xalq yaratadi. Uni yaratishda faol qatnashgan, xalq ruhida, ongida va qalbida o‘zlaridan chuqur va o‘chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslar xalq farzandlari [2:100] sifatida tarixga muhrlanadi.

Haqiqatan ham, “Tarix ibrat maktabi, o‘tmishda yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarni anglamoq va ularni yana takrorlab qo‘ymaslikka chorlovchi, ehtiyotkorlikka, sezgir va hushyorlikka, tashqi va ichki fitnalarga uchmaslikka, milliy birlik va hamjihatlikka undovchi ko‘zgu maktabdir” [2:114].

O‘zbekiston tarixining muhim jihatlaridan biri bu, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashdir. Ma’naviy xavfsizlik haqida so‘z yuritar ekanmiz, yana shuni aytish mumkinki, u inson, xalq va jamiyat a’zolarini ma’naviy xurujlar, g‘oyaviy tahdidlardan himoyalaniş tizimini ifodalovchi tushuncha. Ma’naviy xavfsizlik davlat xavfsizligining tarkibiy qismi sifatida umummilliy manfaatlarning himoya qilinishga yo‘naltirilgan faoliyat vazifasini o‘taydi. Ma’naviy xavfsizlikning muhim jihatlaridan biri, milliy manfaatlarni ta’minlash ehtiyoji bois vujudga keladigan va jamiyat a’zolari ma’naviy, g‘oyaviy-ruhiy hayotining barqarorligi va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan faoliyat va uzluksiz jarayon sifatida gavdalanadi. Ma’naviy xavfsizlik ma’naviy qadriyatlar rivojini ta’minlash, ularni tashqi tahdidlardan himoya qilishga yo‘naltirilib, ma’naviyatdagi ruhiy, psixologik, axloqiy jihatlarining uyg‘unligini ta’minlaydi [5.].

Ma’lumki, inson ma’naviyatiga qarshi qilingan tahdid qurolli xurujlarga nisbatan ko‘proq ta’sir kuchiga ega bo‘lib bormoqda. Shu bois, bunday tahdidlarning oldini olish uchun milliy taraqqiyotning barqarorligini ta’minlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan har qanday mamlakatda jamiyat a’zolari manfaatlarini himoya qilishda ma’naviy xavfsizlik masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-tarixiy tajribadan ma’lumki, muayyan mamlakatni zabt etmoqchi bo‘lgan istilochilar, avvalo xalqning ruhiyati, ma’naviyati va qadriyatlariga bolta urishga harakat qiladi. Milliy ma’naviyati va qadriyati parokanda etilgan millat va elatlar o‘zligini yo‘qotadi, hukmron mafkura ta’siriga tushib,

uning manfaatlariga xizmat qilishga majbur bo'ladi. Bugungi kunga kelib bir davlatni boshqa davlat tomonidan qurol yordamida bosib olish xavfi kamayib, global axborotlashuv ta'sirida ma'naviy omillar vositasida boshqa xalqlar ongi, qalbi va ruhiyatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatlari beqiyos darajada oshdi [5.].

Endilikda axborot tarqatish imkoniyatlari, turli xalqlar ma'naviyatiga kuchli ta'sir o'tkazish, ma'naviy xavfsizligi zaif mamlakatlarni qaram qilish xavfining ko'lami kengaymoqda. Shuning uchun jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy xavfsizlik tizimining ma'naviyat bilan uzviy bog'liqligi ta'minlangandagina milliy xavfsizlikning yaxlit tizimini shakllantirish mumkin. Ma'naviy xavfsizlik barqarorligini ta'minlashda esa ma'naviy omil etakchi o'rin tutadi. Ma'naviy xavfsizlikka ichki va tashqi tahdidlar ta'sir etishi mumkin. Ichki tahdidga ma'naviyatimizni zaiflashtirishga intilgan sobiq totalitar tuzum asoratlari, xususan ayrim shaxslar ongidagi eskicha fikrlash andozalarini, zararli va yot ta'sirlarga berilgan ba'zi kishilarning g'arazli tashviqotlari, o'tish davri qiyinchiliklaridan foydalanib qolishga intilayotgan niyati buzuvchi kimsalarning yoshlarni yo'ldan urishga harakat qilayotganlarini kiritish mumkin. Milliy, diniy qadriyatlarimiz, an'ana va mentalitetimizga hamda mamlakatdagi milliy birlik, fuqaroviy totuvlikka raxna solayotgan, aholi ongi va qalbiga salbiy ta'sir etuvchi narkotik moddalarning kirib kelishi "demokratiyani olg'a siljitish" niqobi ostidagi sa'y-harakatlar tashqi tahdidlar sifatida ko'zga tashlanmoqda [5.].

Shu bilan birga mamlakatimizga turli vositalar orqali mafkuraviy tahdidlar kuchayayotgan hozirgi murakkab davrda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida aholi keng qatlamlari va yoshlar ongida Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, aholi ma'naviy xavfsizligini ta'minlash, yoshlarda turli tahdidlarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirish imkonini beradi [5.].

Ta'kidlash joizki, yoshlar – millatning kelajagi. Shu bois, **yoshlar ongida tarixiy bilim mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim sanaladi.** Ular o'z tarixini, ajdodlarini bilmasa, tashqi g'oyalarga moyil bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun ham ta'lim tizimida O'zbekiston

tarixi fanining o'rnini beqiyos. Misol uchun, Amir Temurning davlat boshqaruvi tajribasi, mustaqil fikr va qat'iyatlilik namunasi yosh avlod uchun **ruhiy-ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Xususan, ushbu masalada, O'zbekiston tarixi – milliy birdamlik va barqarorlik manbai sifatida O'zbekiston xalqini birlashtiradi.** Turli davrlarda turfa tajribalar, sinovlar va g'alabalar orqali shakllangan bu tarix xalqini yagona maqsad atrofida jipslashtiradi. Shu ma'noda, tarixiy ong – **ma'naviy xavfsizlikning ijtimoiy poydevori** sifatida xizmat qiladi.

Haqli ravishda aytish mumkinki, bugungi kunga kelib **tarixiy merosni tiklash va yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Jaholatga qarshi ma'rifat” g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish choralari ko'rish” [1:256.] maqsadga muvofiqdir.**

Shu asosda mamlakatimizda **“Ma'naviyat va ma'rifat markazi”, “O'zbekiston tarixi” fanini chuqur o'rganish, arxeologik va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish, “O'zbekiston tarixi” telekanali kabi ishlar yo'lga qo'yildi. Bu tashabbuslar shubhasiz, yoshlar qalbida faxr tuyg'usini uyg'otadi.**

Takror va takror aytishdan charchamaslik kerak! O'zbekiston zamini jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri hisoblanadi. Bu yurtida Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Imom Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Jadidlar kabi buyuk zotlar etishib chiqqan. Ular nafaqat o'z davrida, balki butun insoniyat taraqqiyotiga hissa qo'shgan. Shu bois, milliy tarixni chuqur bilish yoshlar uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etib, ularda quyidagi sifatlarni, ya'ni vatanparvarlik va fidoyilik; milliy g'urur va o'zligini anglash; ma'naviy barkamollik va barqarorlik; zamonaviy tafakkur bilan ilmiy yondashuvni uyg'unlashtirish **tuyg'ularini** shakllantiradi. Shuningdek, tarixiy filmlar, muzeylarga sayohatlar, ma'naviyat soatlari orqali yoshlar o'z ildizlarini his etadilar va ularni asrab-avaylashga intiladilar.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, tarix – faqat voqealar yig'indisi emas, balki millatning ma'naviy kodi (Ma'naviy kod – bu millat yoki xalqning ma'naviy-axloqiy qoidalari, qadriyatlari, urf-odatlar, e'tiqod va dunyoqarashini belgilab beradigan ichki barqaror tizimdir. U xalqning o'zligini anglash, birlik va hamjihatligini mustahkamlash, hamda milliy taraqqiyotning ma'naviy asosi sifatida xizmat qiladi) [6.], uning kimligini belgilab beruvchi omildir. Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, Ma'naviy kod millatning tarixiy xotirasini saqlash; insonni adolat, mehr-shafqat, vatanparvarlik, bag'rikenglik ruhida tarbiyalash; jamiyatda ma'naviy barqarorlik va sog'lom muhitni ta'minlash; yangi avlodni milliy ruhda tarbiyalash va global ta'sirlarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat etadi [6.].

Shu o'rinda aytish mumkinki, Yangi O'zbekiston xalqining ma'naviy kodi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Yoshlarni ma'naviy etuk qilish. Yoshlar ongida milliy g'oyani mustahkamlash, Vatanga sadoqat va mustaqil fikrni shakllantirish.

Vatanparvarlik va fidoyilik – Vatan taqdiri uchun mas'uliyatni his qilish. Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida halol mehnat qilish va yurt ravnaqi uchun jon fido etishga tayyor bo'lish.

Tinchlik va hamjihatlik – turli millat va din vakillariga hurmat asosida milliy birlik va totuvlikni ta'minlash. Turli millat va elat vakillarining hamjihatligi, bag'rikenglik va tinchlikni qadrlash.

Adolat va insonparvarlik – har bir insonning sha'ni va huquqini hurmat qilish.

Ilm va ma'rifat – bilim, innovatsiya va ta'limni ustuvor qadriyat sifatida qabul qilish.

Oila va an'analarga sadoqat – ota-onani e'zozlash, avlodlar vorisligini saqlash. Sog'lom muhit, odob, mehr-oqibat va o'zaro hurmatni asrab-avaylash. Oila – ma'naviyatning ildizi ekanligidan kelib chiqib, oila va ma'naviyat uyg'unligini ta'minlash.

Yangilanish va islohotlarga ochiqlik – zamonaviy fikrlash, taraqqiyotga intilish.

Milliy g‘urur va tarixiy xotirani saqlash. Xalqning ildizini, buyuk ajdodlarini va ularning ilmiy-ma’naviy merosini anglash.

Inson qadrini ulug‘lash. “Inson qadri uchun” tamoyili – Yangi O‘zbekistonning asosiy shiori. Har bir fuqaro davlat va jamiyatning e’tibor markazida.

Diniy bag‘rikenglik va ma’rifatparvarlik. Dinni millat birligi va ma’naviy poklik omillaridan biri sifatida qabul qilish.

Umuman olganda, ma’naviy kod — bu millatning ruhiy DNKsi, ya’ni uning kimligini belgilaydigan ma’naviy qomusi. U millatni birlashtiradi, ma’naviy barqarorlikni ta’minlaydi va Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ma’naviy poydevoridir [6.].

Ma’naviy kodning manba va ildizlarini quyidagilar tashkil etadi. Alisher Navoiy, Amir Temur, Imom Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk ajdodlar merosi; O‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan qadriyatlari: mehnatsevarlik, mehmondo‘stlik, or-nomus, viqor, adolatparvarlik; Konstitutsiya va davlat dasturlaridagi “Inson qadri uchun” g‘oyasi kabilar.

Binobarin, Yangi O‘zbekistonda ma’naviy kodning amaliy ahamiyati shundaki, jamiyatda ma’naviy barqarorlik va milliy o‘zlikni mustahkamlaydi; yoshlarda milliy g‘oya va Vatanga muhabbat tuyg‘usini kuchaytiradi; globallashtirish jarayonida milliy qadriyatlarni asrashga xizmat qiladi; davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasida o‘zaro ishonch va hamkorlikni ta’minlaydi.

Umuman olganda, Yangi O‘zbekiston xalqining ma’naviy kodi – bu xalqimizning milliy ruhi, mustaqil tafakkuri va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yangicha dunyoqarashidir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston tarixi – bu faqat o‘tmishni o‘rganish emas, balki bugungi va ertangi kun uchun ma’naviy yo‘llanma, milliy xavfsizlikning ma’naviy ustunidir. Vatan tarixini bilish – vatanni sevish, o‘zligini anglash, milliy qadriyatlarni himoya qilish demakdir. Yurt tarixi orqali yoshlar o‘zining kimligini anglaydi. Shuning uchun har bir yosh avlod tarixni chuqur o‘rganishi, undan iftixorlanishi va uning ma’naviy saboqlarini hayotga tatbiq etish orqali ma’naviy daxldorligi ortib,

ushbu masalaga echim topiladi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev alohida ta'kidlaganlaridek, ***“agar kimki ma’naviyat masalasi – bu faqat Ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi , deb o‘ylasa, katta xato qiladi”*** [1: 256.].

Bu borada, muxtasar qilib aytganda, **O‘zbekiston tarixi – yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim manbaidir.** U nafaqat o‘tmishni bilishga, balki kelajakni barpo etishga undaydi. Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini yuragining markaziga qo‘yadi. Shuning uchun har bir o‘qituvchi, ota-ona va jamoatchilikning vazifasi – yosh avlodga o‘z Ona vatanining tarixini faxr va ibrat bilan o‘rgatishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.

2. Ibrohimov A. Bizkim o‘zbeklar. Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar. – T.: “Sharq”, 2011. – 464 b.

3. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // Mualliflar: M.Abdullayev va boshq.; A.Jalolov va Q Xonazarov umumiy tahririda /. – Toshkent: “Sharq”, 1998. –320 b.

4.<https://chatgpt.com/c/69062b6b-6808-832c-aaeb-2ba4aeed8e8f>
(Murojaat etilgan sana: 01.11.2025.).

5. <https://oyina.uz/uz/teahause/1900> (Murojaat etilgan sana: 01.11.2025.)

6. <https://chatgpt.com/c/69064075-ec04-8325-aca4-a4dff8d43e58>
(Murojaat etilgan sana: 01.11.2025.).

TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TURIZM PEDAGOGIKASINING MA'RIFIY IMKONIYATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Abdumannatov Elbek Abdumajitovich,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), SamDPI

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu jarayonda turizm pedagogikasi — yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va milliy o'zligini yuksaltirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilab berilgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi[1].

Vatanparvarlik tushunchasi tarix, psixologiya, sotsiologiya va pedagogika fanlari kesishmasida o'rganiladi. Psixologik nuqtai nazardan, bu —shaxsning Vatanga bo'lgan sadoqati, g'ururi, himoyaga tayyorligi kabi tuyg'ular majmuasi. Tarixiy jihatdan bu fazilat O'zbekiston xalqi hayotida muhim o'rin tutgan: Qadimgi turkiylar, Amir Temur saltanati, jadidlar harakati va mustaqillik yillaridagi ijtimoiy ongda bu g'oya doim mavjud bo'lgan. Hozirgi davrda vatanparvarlik nafaqat harbiy tayyorgarlikda, balki intellektual va madaniy mehnatda, tashabbuskorlikda, innovatsion g'oyalarda ham namoyon bo'lishi lozim[3].

Zamonaviy jamiyatda yoshlarning tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga faol qatnashishi masalasi katta ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim jarayonida turizmning o'рни tobora muhimlashib bormoqda, chunki turizm nafaqat madaniy va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga, balki yoshlarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Turizmning didaktik tamoyillari o'quv jarayonida yoshlarning intellektual,

emotsional va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonning asosida turizmning yoshlarni tarbiyalashdagi pedagogik imkoniyatlarini to'g'ri tushunish va unga mos ravishda metodik yondashuvlarni ishlab chiqish yotadi[4]. Turizmning ma'rifiy imkoniyatlari shundan iboratki, u talabalarda o'z yurtining tabiiy, madaniy va tarixiy boyliklariga nisbatan faxr va mas'uliyat hissini uyg'otadi. Ta'lim jarayoniga turizm elementlarini integratsiya qilish orqali o'quvchilar va talabalar o'z yurtining rivojlanish tarixini, buyuk ajdodlar merosini bevosita o'rganish imkoniga ega bo'ladilar.

Turizm — sayohatlarning bir turi bo'lsa-da, biroq o'ziga xos jihatlarga ko'ra, ma'lum bir tavsifga ega bo'lib, unda ishtirok etuvchi shaxs turist deb nomlanadi. Muhimi, turistni sayohatchi deyishimiz mumkin, ammo sayohatchini har doim ham turist deya olmaymiz. Sayohatlardan farqli ravishda, turizm iqtisodiyot va siyosatning kuchli ta'siriga uchrovchi soha bo'lib hisoblanadi. Turizm bu turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi, aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega ommaviy sayohatlar turi bo'lib, turistning faoliyati va bunday sayohatlarni uyushtirish va amalga oshirish bo'yicha maxsus xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlardan iborat. Bunday maxsus xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyati avvalambor turistik firmalar, mehmonxonalar va shu xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan turli xil boshqa tarmoqlar tomonidan amalga oshiriladi [5].

Turizm pedagogikasi umumiy pedagogikaga, yosh avlodni tarbiyalash nazariyasiga asoslanadi. Buning sababi shundaki, inson har qanday yoshda sayohat qiladi va turistga aylanadi. Sayohat paytida ruhiy va jismoniy sifatlar shakllanadi. Turistning shaxsiyatini shakllantiruvchi omillarni, aqliy va jismoniy kuchga ta'sir qiluvchi omillarni, dunyoqarash asoslarini, e'tiqodlarini, axloqiy tuyg'ularini, xarakter xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, ehtirolari va boshqalarni ochib berish juda muhimdir. Turizm pedagogikasi tarbiya, ta'lim va o'qitish jarayonlarini faqat o'ziga xos chegaralar doirasida o'rganadi va bu jarayonlarda faqat turizmga pedagogik yo'naltirilganlarnigina ko'rib chiqadi[6]

Turizm pedagogikasida **ma'rifiy texnologiyalar** — bu interfaol dars metodlari, virtual sayohatlar, tarixiy maskanlarga ekskursiyalar, loyiha

asosida o‘qitish, hamda “edutainment” (ta’lim orqali o‘yin) kabi yondashuvlar bo‘lib, ular o‘quv jarayonini nafaqat bilim beruvchi, balki vatanparvarlikni shakllantiruvchi vositaga aylantiradi.

Bundan tashqari, **hududiy-tarixiy turizm, ekologik va madaniy turizm** yo‘nalishlari orqali talabalar milliy qadriyatlarning mohiyatini anglab, o‘z yurtiga sadoqat, g‘urur va ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantiradilar. Shu nuqtai nazardan, turizm pedagogikasini ta’lim tizimida maqsadli qo‘llash — yoshlarning vatanparvarlik, ma’naviyat va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

T/r	Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda turizm pedagogikasining ma’rifiy imkoniyatlari	Rivojlantirish yo‘llari va tavsiyalar	Kutilayotgan natija
1	Tarixiy va madaniy merosni bevosita o‘rganish	Mavzuli ekskursiyalar: O‘zbekistonning qadimiy shaharlari, tarixiy obidalari, mustaqillik tarixi bilan bog‘liq joylarga tizimli sayohatlarni tashkil etish.	Talabalarda Vatan tarixi va madaniyatiga chuqur hurmat tuyg‘usini, ajdodlar merosidan faxrlanish hissini shakllantirish.
2	“Kichik Vatan” (Mahalliy joylar)ga muhabbatni kuchaytirish	Mintaqaviy turizm: Talabalar yashaydigan yoki o‘qiydigan hududning diqqatga sazovor joylari, taniqli shaxslari bilan bog‘liq joylarni o‘rganish.	O‘z yashash joyining qadriga etish, mahalliy vatanparvarlikni mustahkamlash.
3	Milliy qadriyatlar va an’analarni amaliy o‘zlashtirish	Etnografik turizm (etnoturlar): Hunarmandchilik markazlari, milliy urf-odatlar saqlanib qolgan hududlarga safarlar uyushtirish, marosimlarda ishtirok etish.	Milliy o‘zlikni anglashni, o‘zbek xalqining ma’naviy boyligiga sodiqlikni oshirish.

4	Jismoniy va ruhiy chidamlilikni, ijtimoiy faollikni shakllantirish	Sport va ekstremal turizm: Tog‘li joylarga piyoda sayohatlar, tabiat qo‘ynida lagerlar tashkil etish, xavfsizlik va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.	Qiyinchiliklarga bardoshlilik, mas’uliyat va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish – vatan himoyasiga ruhan tayyorlik.
5	Interfaol o‘rganish va tadqiqotchilik faoliyati	Ilmiy-tadqiqiy turizm: Turistik ob’ektlarga oid mustaqil ilmiy loyihalar, esselar va taqdimotlar tayyorlash, ekspeditsiyalar o‘tkazish.	Tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va Vatan boyliklarini ilmiy asosda anglash orqali ongli vatanparvarlikni shakllantirish.
6	Global hamjamiyatda Vatan imidjini tushunish	Virtual va xalqaro turizm elementlari: Xorijiy tajribalarni o‘rganish, chet ellik turistlar bilan muloqot qilish, O‘zbekistonni ularga tanishtirish.	Talabalarda Vatan uchun faxrlanish hissini kuchaytirish va uni jahon miqyosida targ‘ib qilish mas’uliyatini shakllantirish.

Xulosa. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda turizm pedagogikasining ma’rifiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish — zamonaviy pedagogik texnologiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi. Bu esa nafaqat ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirish, balki yoshlarning o‘z Vataniga sadoqatini amaliy faoliyat orqali namoyon etishiga xizmat qiladi. Turizm pedagogikasi – vatanparvarlik tarbiyasining kuchli vositasidir. U yoshlarni o‘z yurtining tabiiy go‘zalliklari, tarixiy merosi va milliy qadriyatlari bilan tanishtirish orqali ularning ma’naviy dunyosini boyitadi. Shu bois, har bir oliy ta’lim muassasasida turizm pedagogikasining ma’rifiy imkoniyatlarini tizimli ravishda rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1059-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 31.12.2019. www.lex.uz

3. Mamajonov I.O. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ijtimoiy institutlar faoliyatini takomillashtirish. Yangi O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2025. <http://www.in-academy.uz/>

4. Nafasov D.Sh., Eshchanova X.X. Turizmining didaktik tamoyillari va yoshlar tarbiyasiga ta’siri mazmuni. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. ISSN 2992-9024. 2024, №9(1)

5. Turizm pedagogikasi. Darslik – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 190 b.

6. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik — T.: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018.-400 b

7. www.google.com

YILQICHILIKNI RIVOJLANTIRISH VA UNI YOSHLARNI TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

Normuratov Botir Ravshanovich,

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
tayanch doktoranti*

O‘zbekistonda tabiiy-iqlim sharoiti va ozuqa bazasiga ko‘ra yilqichilik chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida hududiy xususiyat kasb etgan. Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Zarafshon, Toshkent va Farg‘ona vodiysi kabi tarixiy-madaniy vohalarda yilqichilikning o‘ziga xos turlari hamda u bilan bog‘liq etnik, xo‘jalik-madaniy an‘analar shakllangan. Yilqichilik otlarni urchitish, ko‘paytirish, zotini takomillashtirish, naslchilik ishlarini qamrab oladi.

Jahonda 250 dan ortiq ot zoti mavjud bo‘lib, shundan 50 dan oshiq ot zoti MDH mamlakatlarida, O‘zbekistonda esa 8 tasi urchitiladi. O‘rta Osiyoda arabi, axaltaka, yovmut, laqay, qorabayir, qozoqi, mo‘g‘ul kabi ot zotlari mavjud [1]. Sobiq Ittifoqda sunnat to‘yi o‘tkazish, unda kurash va ko‘pkari uyushtirish taqiqlangan edi. Ikkinchi jahon urushi davrida ko‘plab zotdor otlar frontga jo‘natilgan. XX asrning 60-yillarida qo‘shib yozishlar tufayli O‘zbekistonda, jumladan, Surxon vohasida go‘sht topshirtirish

rejasini oshirib bajarish uchun xonadonlardagi ko'pkariga chopiladigan zotdor otlar ham majburiy tortib olinib, go'sht kombinatlariga topshirib yuborilgan edi.

Markaziy Osiyoda xususan, Surxon vohasida ot va u bilan bog'liq an'analar, o'yinlar deyarli o'rganilmagan muammolar sirasiga kiradi. Ot va uloq o'yini bilan bog'liq ma'lumotlar qisman pedagogik, folklorshunoslik aspektdagi ayrim adabiyot va maqolalarda uchraydi. Insoniyatning hayvonot olamini, xususan, otni qo'lga o'rgatishi, xonakilashtirishi va undan foydalanishi uzoq hamda murakkab tarixiy jarayon bilan bog'liqdir. O'rta Osiyoda va Yevropaning janubi-sharqiy qismida xonaki otlar miloddan avvalgi III ming yillikdan ma'lum edi [3:4]. Biroq otni xonakilashtirish masalasi juda murakkab va munozarali bo'lib, ko'pchilik olimlarning fikricha, G'arbiy Yevropa va Osiyo otning vatani hisoblanadi. M.O. Kosvenning yozishicha, agar otning kelib chiqish joyi Osiyo hech qanday munozaraga sabab bo'lmasa, G'arbiy Yevropa uning mustahkam vatani ekanligini isbotlab berish juda qiyin. Osiyoning o'zida ham ot, aftidan, bitta emas, hech bo'lmaganda ikki hududda – Sharqda va O'rta Osiyoda, ehtimol, Turkmaniston hududida paydo bo'lgan. Ancha yirik uzun oyoqli, kelishgan qayma yo'rg'a va chidamli eng yaxshi naslli otlarning vatani xuddi shu erdir.

Yuqorida zikr etilgan otlarning nasli ibtidoiy davrdayoq O'rta Osiyodan G'arbga, Mesopotamiya, Kichik Osiyo, Falastin, Misr, keyinchalik Arabistonga tarqalgan [4:84-85]. Biroq eng dastlabki otlar Dunay daryosidan Ural tog'larigacha bo'lgan hududda yovvoyi holda yashagan "Tarian" degan ot turining tarqalganligi haqidagi ma'lumotlar ham mavjud.

Olti ming yil avval qo'lga o'rgatilgan otning inson hayotidagi o'rni beqiyosdir. Buni avvalo bu jonivorning ulov, so'ngra er haydash, dehqonchilikda ko'makchi, ov jarayonlarida yo'ldosh, urushlarda elkadoshligidan ko'rish mumkin. Yana bevosita aynan ot bilan bog'liq bo'lgan bir sport turi, xalq o'yini borki, bu haqda bilishimiz zarur. Markaziy Osiyo xalqlarining fe'l-atvorini, turmush tarzini ko'rsatuvchi bu o'yin ko'pkaridir.

ZJV5401

O‘zbek, qozoq, turkman, qirg‘iz, qoraqalpoq va tojik xalqlari orasida keng tarqalgan ushbu milliy o‘yin turli tillarda nomlanadi. Ko‘pkari, uloq, ko‘kbo‘ri, bo‘z tozi, bo‘z kashi, ko‘klaru tortu kabidir [8:93].

O‘rta Osiyoning qadimgi “samoviy otlari” to‘g‘risida dostonlar, afsonalar, ertaklar va tasviriy san‘at asarlari, qoyatosh suratlari mavjud va bular to‘g‘risida ko‘plab ilmiy asarlar, ularning sharhlari yozilgan. Yilqichilikning dastlabki davrlarida otlardan dastlab zodagonlar minib yurish uchun foydalanganlar. Keyinchalik ular yuk tashish maqsadida ishlatilgan. Arava va chana qo‘shilgan otlar yuklarni bir manzildan ikkinchisiga olib borishda eng muhim va tezkor ish hayvoni vazifasini bajargan. Ushbu fikrni professor M. Isomiddinov [11] ham tasdiqlaydi.

Otlar qadimgi davrda harbiy maqsadlarda keng foydalanib, suvoriy qo‘shinlar armiyaning asosiy kuchi hisoblangan. Ayniqsa, turkiy xalqlarda ot parvarishi va unga munosabat o‘ta jiddiy bo‘lib, L.N. Gumilyovning ma‘lumotiga ko‘ra, turkiy xalqlarda o‘lim jazosi beriladigan besh jinoyatdan bittasi ot o‘g‘irlash edi [12:76].

Buyuk ipak yo‘lining paydo bo‘lishi va Markaziy Osiyo xalqlari bu savdo yo‘lida muhim o‘rin egallab borishi bilan otlardan iqtisodiy, savdo va siyosiy maqsadlarda foydalanish kuchaydi. Shuningdek, otlar pochta (yom), xatlarni kerakli manzilga etkazishda eng uchqur hayvon sifatida insoniyatning yordamchisi bo‘lib qoldi.

Hozirgi davrda dunyoda yilqichilik to‘rt asosiy yo‘nalishda rivojlanmoqda: naslchilik yilqichiligi; ishchi otlarni etishtirish va ishchi otlar yilqichiligi; mahsuldor yilqichilik; milliy ot o‘yinlari, ot sporti va ot sayohati yilqichiligi. O‘zbekistonda ham naslchilik yilqichiligi uchun mavjud yilqi zotlarini takomillashtirish, mamlakat ommaviy yilqichiligi uchun qimmatbaho asl va toza zotdor yilqilarni etishtirib berish asosiy vazifa sifatida belgilangan[13:35].

Chorvachilikda sof genofondni saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida bu tadbirlar O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan “Naslchilik” to‘g‘risidagi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-fevraldagi 100-son “Naslchilik xo‘jaliklari maqomini berish tartibi to‘g‘risidagi

Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori bilan tartibga solinmoqda. Mamlakatimizda 42 ta naslchilik zavodi bo‘lib, shundan 3 tasi yilqichilik naslchiligiga mo‘ljallangan. Bular Andijon, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida faoliyat olib boradi. Ot naslchilik fermalarida yilqilar maxsus otchoparlarda ishchanlik qobiliyati bo‘yicha sinovdan o‘tkaziladi. Sinovda yo‘rtoqi, salt miniluvchi va ba‘zan og‘ir yuk tortuvchi zot yilqilariga mansub toy va g‘o‘nonlar (2 yashar ayg‘ir) maxsus dastur asosida mashq mashg‘ulotlarini o‘taydi, chopqirligi, kuchi va bardoshligi sinaladi[14:78].

Shuningdek, sut yilqichiligi va u bilan bog‘liq bo‘lgan qimiz tayyorlash an‘anaviy texnologiyasi asosida u bilan davolash hamda sotish bilan shug‘ullanuvchi xususiy xo‘jaliklar rivojlanmoqda. Ot sporti yilqichiligi milliy ot o‘yinlari va xalqaro ot sporti hamda Olimpiya musobaqalarida qatnashuvchi sportchilar uchun zotdor, chopqir, kuchli va a‘lo sifatli salt miniladigan hamda yo‘rtoqi (yelib yuradigan) sportbop otlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekistonda ham qadimiy milliy ot o‘yinlari va klassik ot sporti uchun kuchli zamin tayyorlangan. Ot sporti, ko‘pkari, ot poygasi respublika va respublikalararo federatsiyalari va qator ot sporti mahorat maktablari, “Oltin taqa” kabi ot sporti klublari o‘z istiqbolli muhim ishlarini yilqichilik xo‘jaliklari faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlantirmoqda. Respublika ot sporti federatsiyasi, poyga va ko‘pkari bo‘yicha respublika federatsiyasi tuzildi va faol ish yuritmoqda. Milliy ot o‘yinlari bo‘yicha Bishkekda tashkil etilgan Xalqaro federatsiyaga O‘zbekiston a‘zo bo‘ldi. Qator ot sport klublari va ot sporti bolalar mahorati maktablari ochildi. Ular respublika va viloyat otchoparlari bilan hamkorlikda mashg‘ulotlarni boshlab yuborganligi milliy ot o‘yinlari va ajoyib ot sporti rivojidan yorqin dalolatdir. Yilqichilik Osiyo qit‘asida mil. avv. IV ming yillikda paydo bo‘lgan. Ko‘hna yilqichilik markazlaridan biri, shubhasiz, Markaziy Osiyo kengliklari hisoblanadi. Otlar mil. av. II ming yillikda Markaziy Osiyodan Kichik Osiyoga, undan Afrikaga tarqalgan. Bu davrda Yevroosiyo dashtlarida yovvoyi otlar juda ko‘p bo‘lib, odamlar otlarni qo‘lga o‘rgatishga urinmaganlar, faqat ularni o‘z ehtiyojlari uchun ovlaganlar, xolos. Otlar it, qo‘y va echkidan so‘ng xonakilashtirila boshlangan[15:26].

Yilqichilik xo‘jaligining keyingi bosqichida O‘rta Osiyoda ot zotlarini yovvoyi va xonaki otlar bilan chatishtirish asosida yangi zotlar yaratish yo‘lga qo‘yildi. Ot zotlarini yaratish ishlari o‘rta asrlarda keng tus olganligi Axaltaka, Yovmut, Laqay, Qorabayir, Arab, Qirg‘iz, Don kabi ot zotlari vujudga kelishiga sharoit yaratdi. Ot zotlarining ko‘payishi bilan ularning turlariga qarab yuk tashuvchi, aravaga qo‘shiladigan, salt miniladigan ot zotlari parvarishi yo‘lga qo‘yildi. Salt miniladigan otlar oyoqlari uzun, o‘ta sezgir, chaqqonlikka moyil, tezligi katta, xushbichim bo‘lib, ulardan qadimgi va o‘rta asrlarda ko‘proq harbiy maqsadlarda foydalanishgan. Bunday otlarni toychoqligidan alohida parvarishlab, qo‘lga o‘rgatishga jiddiy e‘tibor qaratilgan.

Farg‘ona vodiysida Dovon davlati mavjud bo‘lgan davrda (miloddan avval III – milodiy II asrlar) “samoviy otlar” zotini olish uchun yovvoyi otlarga xonaki otlarni urchitish an‘anasi shakllangan. Yovvoyi va xonaki zotlardan olingan yangi zotlar o‘ta chopqir bo‘lib, o‘z egasini har qanday xavf-xatardan saqlab qolishi bilan bog‘lik ma‘lumotlar manbalarda uchraydi.

Ilmiy tekshirishlar yovvoyi otlar bir joyda emas, balki Yevropa va Osiyoning bir necha joylarida xonakilashtirila boshlanganligini ko‘rsatdi. Dastlab otlar eng ko‘p qo‘lga o‘rgatilgan joylar O‘rta Osiyoning Amudaryo va Sirdaryo vodiylari hisoblanadi. Bu vodiylarda ingichka oyoqli, gavdasi kelishgan yovvoyi otlar xonakilashtirilgan. Buni Ashxabod shahri atrofida topilgan qazilma suyak qoldiqlari tasdiqlaydi. Shu xonakilashtirilgan otlardan keyinchalik O‘rta Osiyo va Kichik Osiyo mintaqalarida urchitiladigan axaltaka, arab, yovmut, qorabayir va boshqa ot zotlari kelib chiqqan. Shuningdek, bu erda xonakilashtirilgan yovvoyi otlardan kichik mo‘g‘ul otlari vujudga kelgan, deb faraz qilinadi. Arxeologik qazilma natijalari mo‘g‘ullar bosqiniga qadar bo‘lgan davrda Markaziy Osiyoning janubi-g‘arbiy mintaqalarida xonakilashtirilgan otlar o‘zining sifat belgilari bilan mo‘g‘ullar otidan ustun turishini ko‘rsatdi[17:176-177].

Otlar qo‘lga o‘rgatilganidan va xonakilashtirilganidan keyin insonning ko‘pgina ishlarni bajarishda doimiy yordamchisiga aylangan, harbiy yurishlar uchun alohida otliq qo‘shinlar tuzildi, xo‘jalik, transport, pochta

uchun maxsus ishchi otlar tayyorlandi. Ayrim xalqlarda yilqichilik oziq-ovqat mahsulotlari–go'sht (qazi) va sut olinadigan xo'jalik tarmog'i bo'lib qoldi. Qadimgi davrlardan boshlab inson o'z ehtiyojlariga javob beradigan ot sifatlarini takomillashtirib keldi. Xalq seleksionerlari va sayislari otlarning eng yaxshilarini saralab, sof qonli zotlarini saqlab qolishga harakat qilganlar.

O'rta Osiyoda, tadqiqotchilarning taxmin qilishlaricha, otlarning engil va og'ir qurolli suvoriylar uchun yaroqli bo'lgan turli zotlarini etishtirish bo'yicha naslchilik ishlari miloddan avvalgi II ming yillikdayoq boshlangan. Birinchi ming yillikning dastlabki asrlarida bu faoliyat o'z natijalarini bera boshlagan. Chopqir otlarni etishtirish bilan o'sha davrda, asosan, Midiya va O'rta Osiyoda shug'ullanganlar, chunki bu erlarda otliq qo'shin g'ildirakli aravalarning o'rnini egallab, armiyada asosiy bo'linma bo'lib qolgan edi[18:57].

Qadimgi davrdan Rimdan Xitoygacha bo'lgan mamlakatlarda O'rta Osiyoning "saman otlari" tengi yo'q hisoblangan. Bu otlar hozirgi axaltaka, qorabayir, laqay nomli otlarning ajdodlari edi. Qadimgi manbalarda "ilohiy otlar", "osmon otlari", "samoviy ayg'irlar" deb atalgan. O'rta Osiyo otlarining shon-shuhrati aynan miloddan avvalgi I ming yillikka borib taqaladi. Bunday otlarni etishtirishda Parfiya, Baqtriya, Farg'ona, Choch (Toshkent vohasi) yilqichi-naslchilari dong chiqargan edilar. Otlar, hattoki o'zaro urushlarga, bosqinchilik yurishlariga ham sabab bo'lgan. Xususan, miloddan avvalgi 104 va 101-yillarida Xitoyning Xan imperiyasi qo'shinlarining qadimgi Farg'ona (Dovon) ga qilgan harbiy yurishiga ham otlar sabab bo'lgan.

Qadimiy turkiy xalqlarning aksariyat ko'pchiligi ko'proq bepoyon dasht va cho'llarda chorvachilik qilib kun ko'radigan xalq bo'lganligi sababli uning xo'jalik yuritish tizimini markaziy qismida ot turgan. Ya'ni bu xalqlar hayotida ot juda katta rol o'ynagan. Shuning uchun bugungi turkiy xalqlar ham bu ulkan merosning to'liq davogarlari. Yilqichilikning O'rta Osiyo xalqlaridagi qadimiy ildizlari otlarni inson hayotiga singdirib, ularni faqat transport va ishchi hayvon emas, balki madaniy ramzga aylantirgan. Turkiy tillardagi ko'pkari, uloq kabi o'yinlar

bu merosning jonli ifodasi bo‘lib, fe‘l-atvor va turmush tarzini aks ettiradi. Qadimgi davrlarda otlarning harbiy va savdo karvonlaridagi roli, shuningdek, Buyuk ipak yo‘lidagi ahamiyati yilqichilikni strategik tarmoqqa ko‘targan. Zamonaviy O‘zbekiston qonunlari va naslchilik dasturlari orqali zotlarning genetik boyligini himoya qilib, sut-go‘sh t mahsulotlari va ot sayohati kabi innovatsiyalarni joriy etmoqda. Xalqaro federatsiyalar va mahalliy klublar orqali milliy sportni rivojlantirish yilqichilikni kelajak uchun barqaror madaniy boylikka aylantirmoqda. Shu tariqa, ot parvarishi turkiy xalqlarning o‘tmishini bugungi va ertangi kun bilan bog‘lab, abadiy meros sifatida saqlanib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. **Bo‘riyev O. O‘zbeklarning ot bilan bog‘liq azaliy e‘tiqodlari.** // **Turon FA Axbortnomasi. – Toshkent, 2014-yil 2-son, –B.195-202;**
2. **Umarov I. Ko‘hitangtog‘ qishloqlarida ko‘pkari o‘yinlarining o‘tkazilishi. – Surxondaryo: ilm-tafakkur, 2021-yil 4-son, –B. 63-70.**
3. **Xolmirzayev D. Yilqichilik. – Toshkent: Mehnat. 1988.**
4. **Kosven M.O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. — Toshkent: Fan. 1960.**
5. **Кузмина Й. Распространение коневедства и культа коня у ираноязычных племен Средней Азии и других народов старого света. Средняя Азия в древности и средневековье (история и культура). – М.: Наука, 1977.**
6. **Фречкоп.С. Ла Спесифитеду Чеват де Пржевалску, Буллетин де Институте дес ссиенсес натурел Белгигуе. Брухеллес. 1965. -vol. XLI. №29.**
7. **Громова В.И. История лошадей (Йегуус) в старом свете. // Труды полеонтологического ин-та. Т.ХВИИ. 1949. — С. 147.; Её же. О скелете тарпана. // Труды МОИП, 1963.**
8. **Tursunov N.N. Inson yo‘ldoshlari ko‘pkaridan qaytgan tulpor // Ma‘naviy hayot, 2019.- №4.**
9. **Bernshtam A.N. Aravanskiye naskalnye izobrajeniya i Davanskaya (Ferganskaya) stolitsa Ershi. // SE.1948.**

10. **Xo‘jayev A. Farg‘ona tarixiga oid ma’lumotlar: Qadimiy va ilk o‘rta asr Xitoy mabalaridan tarjimalar va ularga sharxlar. — Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2013.**

11. **Dala yozuvlari, 2021-2023-yillar. Boysun tumani qishloqlari: Besherkak, To‘da, Xomkon, Olachopon va boshqalar.**

12. **Gumilyov L.N. Qadimgi turklar. – Toshkent: 2007.**

13. **Qobilov E. Surxon vohasi chorvachiligi atamaları // O‘zbekistonda moddiy madaniyat va etnomadaniy jarayonlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Termiz, 2010.**

14. **Jalilov. I. G‘. Qashqadaryo vohasi aholisining xalq o‘yinlarining transformatsiyasi (tarixiy-etnologik tahlil): Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Termiz, 2022.**

15. **Бобылев И. Конные игры. — Ташкент, 1989.**

16. **Фирсов В. Туркестан и Туркестанскийе породм лошадей. Туркестанский сборник, 1895.**

17. **To‘raqulov Z.T., Muxtorov A.Z., Xolmirzaev D.X. Yilqichilik. –Toshkent, 1985.**

18. **Tursunov S., Pardayev T. “O‘zbekiston janubiy hududlarida nomoddiy madaniyat tarixi”. – Toshkent: “Muharrir”, 2013.**

19. **Qo‘ldoshev Sh. Farg‘onaning samoviy otlari //https://mingtepa.uz/fargonaning-samoviy-otlari/**

SUN’IY INTELLEKT VA TIL VOSITASIDA JAMIYATDA IJTIMOIY ME’YORLARNING SHAKLLANISHI

Tursunova Feruza Tursunovna

*O‘zbekiston davlat jahon
tillari universiteti o‘qituvchisi*

XXI asr boshlarida axborot texnologiyalari taraqqiyoti bilan sun‘iy intellekt inson tafakkuri va tili o‘rtasidagi aloqani yangi bosqichga olib chiqdi. “Tabiiy tilni qayta ishlash, katta til modellari (Large Language Models, LLM) va avtomatik kommunikatsiya tizimlari jamiyatning kundalik muloqotiga chuqur kirib bordi”[1]. Til – bu nafaqat muloqot

vositasi, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, qadriyatlarni uzatuvchi, me'yor va axloqiy ko'rsatkichlarni mustahkamlovchi ijtimoiy hodisadir. Shu jihatdan, til va sun'iy intellekt o'zaro uyg'unlashganda, ular jamiyatda yangi kommunikativ muhitni, yangi axloqiy mezonlarni va ijtimoiy tartibni vujudga keltiradi. Bu jarayon til vositasida ijtimoiy me'yorlarning qayta shakllanishini tezlashtirmoqda, chunki har bir kommunikatsiya – me'yoriy mazmun tashuvchidir.

Jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar (axloqiy, huquqiy, estetik, madaniy qoidalar) til orqali ifodalanadi va uzatiladi. Shu bois “sun'iy intellekt til bilan ishlash orqali nafaqat axborot tarqatmoqda, balki me'yoriy munosabatlarni ham shakllanishiga sabab bo'ldi”[2]. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ijtimoiy ongga ta'siri endi faqat axborot uzatish bilan emas, balki norma va qadriyatlar ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy voqelikka aylandi. So'nggi o'n yilliklarda sun'iy intellektning tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP), nutqni tanish, avtomatik tarjima, ijtimoiy tarmoqlarda axborotni filtrlash va matn generatsiyasi sohalaridagi yutuqlari ijtimoiy muloqot shakllarini tubdan o'zgartirdi.

Til inson tafakkurining ifodasi va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuch sifatida qadimdan falsafiy tahlil markazida bo'lgan. Bu sohada yirik tadqiqotlar olib brogan olim G.Gumboldt tilni “xalq ruhi” deb atagan bo'lsa, L. Vygotskiy “tafakkur tilda namoyon bo'ladi”[3] degan fikrni ilgari suradi. L.Vygotskiy fikricha, tafakkur tilda namoyon bo'lishi – inson ongining ijtimoiy tabiatini ko'rsatadi. Til – bu fikrning tashuvchi vositasi, u orqali inson o'z ichki kechinmalarini, tushunchalarini va ijtimoiy tajribasini ifodalaydi hamda ongning shakllanish jarayonini amalga oshiradi. Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, til nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatning me'yoriy muhitini saqlovchi mexanizmdir.

Sun'iy intellekt texnologiyalari aynan shu mexanizmlarni yaratib ulgurdi. “Katta til modellari (masalan, ChatGPT, Gemini va boshqalar) inson tilining grammatikasi, semantikasi va pragmatikasini o'zida mujassam etadi. Ular o'rganilgan matnlar asosida javob beradi, demak, bu tizimlar mavjud me'yoriy tuzilmalarni o'zlashtiradi va qayta ishlab

chiqadi”[4]. Katta til modellari inson tilining murakkab ijtimoiy-tarixiy tajribasini o‘zida aks ettiradi. Ular mavjud me‘yoriy tuzilmalarni qayta ishlab, yangi ma‘no shakllarini yaratadi. Shu orqali sun‘iy intellekt til orqali ijtimoiy ong va madaniy me‘yorlarni qayta qurishga hissa qo‘shadi.

Til orqali ijtimoiy me‘yorlar – “nima to‘g‘ri”, “nima odobli”, “nima nomaqbul” kabi tushunchalar – ijtimoiy ongda mustahkamlanadi. Shu sababli, “sun‘iy intellekt vositalari bu tushunchalarni o‘z algoritmik modelida aks ettirgan holda, jamiyatning normativ dinamikasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi”[5]. Sun‘iy intellekt vositalari inson qadriyatlarini va me‘yorlarini algoritmik modelga singdirib, jamiyatdagi normativ o‘zgarishlarni tezlashtiradi. Natijada, axloqiy va ijtimoiy me‘yorlar inson tajribasidan raqamli tizimlarga ko‘chadi va yangi me‘yoriy muhit shakllanadi. Til vositasida ishlovchi SI tizimlari, ya‘ni til modellarining rivojlanishi inson va mashina o‘rtasidagi muloqotni tabiiy holatga keltirdi. Bu esa “inson–mashina–jamiyat” kommunikativ uchburchagini shakllantirdi. “Sun‘iy intellekt jamiyatda “til axloqi”ni ishlab chiqishda vositachi rolini o‘ynaydi. Bu til etikasi deganda, texnologik muloqotda ham axloqiy-madaniy me‘yorlarga rioya etish tushuniladi” [6]. Sun‘iy intellektning “til axloqi”ni shakllantirishdagi vositachilik roli beqiyosdir. Chunki u insonlar va mashinalar o‘rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi yangi etik me‘yorlarni yuzaga keltiradi. Til etikasi nafaqat so‘zlashuv madaniyatini, balki raqamli muhitda hurmat, mas‘uliyat va inson sha‘nini saqlash tamoyillarini ham o‘z ichiga oladi. Shu tariqa, SI til orqali ijtimoiy axloqiy madaniyatni raqamli bosqichga olib chiqadi.

SI tizimlari inson me‘yorlarini o‘z algoritmik tuzilmasida qayta quradi. Shu bois, “me‘yorlar “insoniy mas‘uliyat”dan “texnologik mas‘uliyat”ga o‘tmoqda. Har bir algoritm – bu ma‘lum ijtimoiy kontekstda ishlab chiqilgan me‘yorning texnik ifodasidir. Shu sababli, sun‘iy intellektning me‘yor shakllantiruvchi faoliyati etik nazoratni talab etadi”[9]. Zamonaviy davrda me‘yorlar insoniy ong va axloqiy mas‘uliyatdan texnologik tizimlar zimmasiga o‘tib, har bir algoritm ijtimoiy qadriyatlar va madaniy kontekstga asoslangan axloqiy qarorlarning texnik ko‘rinishidir. Shu bois, sun‘iy intellekt faoliyati ustidan etik nazoratni kuchaytirish zarur. Aks

holda, me'yorlar insoniy mohiyatdan uzoqlashib, avtomatlashtirilgan, biroq axloqan befarq tizimlarga aylanadi.

Zainuddin fikricha, “til asosidagi SI tizimlarida mas’uliyatli axloqiy dizayn bo‘lmasa, jamiyatda me’yoriy notenglik kuchayadi” [8]. Bugungi raqamli davr uchun g‘oyat dolzarbdir. Chunki til modeli inson qadriyatlari, madaniy kontekst va ijtimoiy stereotiplarni aks ettiradi. Agar bu jarayon axloqiy nazoratdan chetda qolsa, sun’iy intellekt mavjud ijtimoiy tengsizliklarni mustahkamlab, ayrim guruhlarining ovozi cheklashi mumkin. Demak, SI tizimlarida axloqiy mas’uliyatning mavjudligi ijtimoiy adolatni saqlashning muhim kafolati sifatida qaralishi zarur. Ijtimoiy me'yorlar doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Sun’iy intellekt bu jarayonni tezlashtiradi, chunki u tilga yangi ma’no, yangi kombinatsiyalar olib kiradi. Tilning falsafiy tabiati uni faqat kommunikativ emas, balki ontologik hodisa sifatida talqin etishni talab qiladi. Martin Xaydegger ta’biri bilan aytganda, “til – mavjudlikning uyi”dir. Demak, tilning algoritmik shaklda qayta ishlab chiqilishi – inson mavjudligining yangi bosqichidir.

O‘zbek tili va madaniyati ijtimoiy me'yorlar bilan chambarchas bog‘liq. Til me'yorlari – so‘zlashish madaniyati, hurmat ifodalari, diniy va axloqiy birliklar – ma’naviy muhitni belgilaydi.

O‘zbek tili nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va ma’naviy dunyosini mujassam etgan ijtimoiy hodisadir. Til millat tafakkurining ifodasi sifatida uning axloqiy, diniy va madaniy me'yorlarini shakllantiradi hamda saqlab keladi. Shu ma’noda, o‘zbek tili va madaniyati o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlarning shakllanishi va mustahkamlanishida asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Til me'yorlari – bu xalqning ijtimoiy hayotida qabul qilingan so‘zlashish uslubi, hurmat ifodalari, odob va axloq normalari majmuasidir. O‘zbek tilida ishlatiladigan “sizlash”, “hurmatli”, “iltimos”, “rahmat” kabi ifodalar nafaqat lingvistik birliklar, balki ijtimoiy qadriyatlarni ifodalovchi, madaniyat darajasini ko‘rsatuvchi me’yoriy shakllardir. Ular jamiyatda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, ijtimoiy mas’uliyat kabi ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlaydi. Shu jihatdan, tilning me’yoriy

shakli – bu millat axloqining soʻzdagi ifodasidir. Oʻzbek madaniyatida soʻzlashish odobi alohida oʻrin tutadi. “Yaxshi soʻz – jon ozigʻi”, “Til bilan koʻngil orasida parda yoʻq” kabi maqollar xalq tafakkurida tilning axloqiy mohiyatini ochib beradi. Til orqali nafaqat fikr, balki niyat, hurmat, mehr, masʼuliyat ifoda etiladi. Shu sababli, oʻzbek tilidagi soʻzlashuv madaniyati milliy axloq va maʼnaviyatning koʻzgusidir. Insonning tili – uning madaniy darajasi, ijtimoiy mavqeyi va maʼnaviy etukligining belgisi sifatida qaraladi.

Oʻzbek tili ijtimoiy meʼyorlarni uzatishning asosiy vositasi boʻlib, har bir avlod til orqali oʻz madaniy xotirasini keyingisiga etkazadi. Shu orqali milliy birlik, maʼnaviy barqarorlik va ijtimoiy uygʻunlik taʼminlanadi. Til va madaniyatning uygʻunligi oʻzbek xalqining urf-odatlarida, marosimlarida, hatto kundalik nutqida ham yaqqol namoyon boʻladi. Har bir soʻz va ibora maʼlum madaniy kontekstda ishlatiladi, bu esa ijtimoiy meʼyorlarga amal qilishni talab etadi. Masalan, yoshi ulugʻ kishilarga murojaatdagi hurmat, oilaviy muloqotdagi yumshoqlik, jamoat joylarida soʻzlashish odobi – bularning barchasi til meʼyorlari orqali ijtimoiy axloqni ifodalaydi. Shunday qilib, oʻzbek tili va madaniyati oʻzaro uzviy bogʻliq boʻlib, ular jamiyatda maʼnaviy muhitni belgilovchi va boshqaruvchi asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Til meʼyorlariga amal qilish orqali inson nafaqat oʻz fikrini bildiradi, balki jamiyatda qabul qilingan axloqiy, diniy va madaniy qadriyatlarni hurmat qilgan holda ijtimoiy uygʻunlikni mustahkamlaydi. Shu bois, oʻzbek tili – millatning maʼnaviy ongi, ijtimoiy meʼyorlarning ramzi va madaniy taraqqiyotining kafolatidir.

Sunʼiy intellekt va til vositalarining jamiyatdagi ijtimoiy meʼyorlarni shakllantirishdagi roli tobora ortib bormoqda. Til – inson tafakkurining meʼyoriy oynasi sifatida – endilikda algoritmik model orqali yangi ijtimoiy maʼnolarga ega boʻlib, sunʼiy intellekt vositalarining ishlab chiqilishida faqat texnik samaradorlik emas, balki maʼnaviy masʼuliyat va ijtimoiy adolat tamoyillari ham inobatga olinishi lozim. Meʼyorlar texnologik jarayon mahsuliga aylanib borayotgan davrda falsafiy tafakkur ularni insoniylik mezonida qayta baholashni talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. Barrington T. Constructing a Socio-Legal Framework for Governing LLM Usage. MDPI. 2023. – P.132.
2. Luna D.S. Quality in Science Communication with Communicative AI. Public Understanding of Science. 2025. – P.45.
3. Vygotsky, L. Thought and Language. – London.: “MIT Press”, 1986. – P.58.
4. Jaleniauskiene, E. Artificial Intelligence in Language Education: A Bibliometric Analysis. Sciendo. 2023. –P.36.
5. Caliskan, A., Bryson, J., Narayanan, A. Semantics Derived Automatically from Language Corpora Contain Human-Like Biases. Science, 2017. –P.356.
6. Ghafar, Z. N. The Role of AI Technology on English Language Learning. Canadian Journal of Language and Literature Studies. 2023. – P.65.
7. Bender, E., Gebru, T. On the Dangers of Stochastic Parrots. FAccT Conference Proceedings, 2021. – P.21.
8. Zainuddin, N. Ethical AI Design and Language Normativity. FLS Journal. 2024. №2.
9. Nasriddinov, A. Raqamli me'yor va sun'iy ong falsafasi. Toshkent: «TDIU Nashriyoti», 2023. – B.123.

IBN SINO AXLOQIY QARASHLARINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI ROLI

Uralov Dilshodbek – dotsenti v.b.
Alfiraganus universiteti

Insoniyat madaniyati va falsafiy tafakkuri rivojlanishida axloq masalalari doimo markaziy o‘rin tutgan. Axloq — odamlarning o‘zaro munosabatlarini, ijtimoiy institutlarning barqarorligini va jamiyat taraqqiyotining ma’naviy poydevorini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Shu nuqtai nazardan, o'rta asrlar sharq falsafasining yirik namoyandalaridan biri — Abu Ali ibn Sino (980–1037)ning axloqiy qarashlari nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlar falsafa, ta'lim va siyosat nazariyalariga ham chuqur ta'sir ko'rsatgan. Ibn Sino falsafa, tabobat va ilmiy tafakkurning integrativ figurasi sifatida axloq masalalarini nafaqat etik mavzu sifatida, balki inson kamoloti va ijtimoiy tartibni ta'minlovchi amaliy fan darajasida tahlil qilgan.

Ushbu maqolaning maqsadi — Ibn Sinoning axloqiy ta'limotini tizimli ravishda tahlil qilib, uning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini nazariy va amaliy jihatidan ochib berishdir. Tadqiqot doirasida Ibn Sinoning asosiy asarlari (jumladan, *ash-Shifo* va *Donishnoma*) hamda zamonaviy tadqiqotchilarning talqinlari asosida uning axloqiy kontseptsiyasining nazariy poydevori, fazilat tushunchasi va ijtimoiy-siyosiy oqibatlari o'rganiladi. Shuningdek, maqolada Ibn Sinoning axloqiy ta'limotini bugungi globallashuv, ma'naviy inqiroz va pedagogik muammolar sharoitida qo'llash imkoniyatlari ham tahlil qilinadi.

Ibn Sinoning axloqiy qarashlari to'g'risida ko'plab tarixiy va zamonaviy manbalar mavjud. Ularning tahlili shuni ko'rsatadiki, alloma asarlarida axloq masalasi falsafa, ruhshunoslik va siyosat bilan uzviy bog'liq tarzda yoritilgan. Avvalo, Ibn Sinoning “ash-Shifo” va “Donishnoma” asarlari axloqiy tafakkurning nazariy asosini tashkil etadi. Bu asarlarda u axloqni amaliy falsafa sifatida ko'rib, inson kamoloti va jamiyat tartibini saqlovchi ilm deb talqin etadi.

Shuningdek, mazkur maqolada tarixiy-falsafiy tahlil metodi (Ibn Sinoning asarlari, u yashagan davr falsafiy maktablari va o'sha davr jamiyatining ma'naviy muhitini o'rganish orqali uning axloqiy qarashlarining shakllanish omillari tahlil qilindi), qiyosiy (komparativ) tahlil metodi (Ibn Sinoning axloqiy ta'limoti Aristotel, Forobiy va G'azzoliy kabi mutafakkirlarning g'oyalari bilan qiyoslab o'rganildi) kabi metodlardan foydalanildi. Bu metodlar orqali Sharq va G'arb axloqiy tafakkuri o'rtasidagi mushtaraklik va farqlar aniqlashtirildi.

Ibn Sino axloqni falsafaning amaliy qismi sifatida ko'rib chiqadi. Unga ko'ra, axloq – insonning ichki dunyosini tartibga soluvchi ilm bo'lib, u

nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Alloma “ash-Shifo” va “Donishnoma” asarlarida axloqni uch qismga ajratadi: shaxsiy axloq, uy xo‘jaligi axloqi va davlat axloqi. Bu tasnifdan ko‘rinadiki, Ibn Sino axloqni inson va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlovchi kuch sifatida talqin etgan[1:47].

Shu nuqtai nazardan u axloqni uch darajaga — shaxsiy axloq, uy xo‘jaligi axloqi va davlat axloqi — bo‘lib ko‘radi: birinchi daraja individual fazilat va nafs nazoratiga, ikkinchisi oilaviy va mahalla munosabatlariga, uchinchisi esa ijtimoiy institutsiyalar va siyosiy hayotga oid me‘yorlarga taalluqlidir. Bu tasnifning mantiqi shundaki, har bir daraja boshqasiga asos bo‘lib xizmat qiladi: shaxsiy axloqdagi tarbiya va fazilatlar oilaviy muhitda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantiradi, o‘z navbatida mustahkam oilaviy va mahalla tizimlari adolatli va samarali davlat boshqaruviga zamin yaratadi.

Ibn Sino axloqni individual-pedagogik masala sifatida emas, balki shaxsdan boshlanib butun jamiyatga ta‘sir etuvchi sistem yaratuvchi kuch deb ko‘radi; uning fikricha, agar shaxsga axloqiy tarbiya etarli darajada berilsa, bu oilaviy va ijtimoiy institutsiyalarning axloqiy muvozanatini ta‘minlaydi va natijada davlat darajasida ham barqarorlik va taraqqiyot yuzaga keladi[2:128]. Bundan kelib chiqadiki, axloqiy ta‘limot nafaqat individual erkinlik va ichki kamolot manbai, balki ijtimoiy tartib-intizom va siyosiy samaradorlikning asosiy omili sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Ibn Sinoning bu integrativ yondashuvi zamonaviy jamiyatlarda ma‘naviy tarbiya, fuqarolik madaniyati va davlat siyosatini bir-biriga bog‘lovchi nazariy baza sifatida ko‘rilishi mumkin.

Alloma Ibn Sino fazilat tushunchasini “o‘rtalik” (i’tidol) tamoyili asosida tushuntiradi: ya‘ni har qanday axloqiy sifatning to‘g‘ri va foydali ko‘rinishi — mutanosiblik va muvozanatda yotadi. Unga ko‘ra insonning nafsidagi ortiqcha yoki kamchilik taraflar — ikki tomonlama zararli ekstremumlardir, shuning uchun ideal fazilat shu ikki ekstremalarning o‘rtasidagi muvozanatdir. Masalan, jasoratning o‘rtasi qo‘rqmaslik va beparvolik orasidagi muvozanat bo‘lsa, sadoqatning o‘rtasi haddan tashqari ishonuvchanlik va shubhali bo‘lish orasidagi o‘rta yo‘ldir.

Ibn Sinoning bu yondashuvi shaxsiy tarbiya jarayoniga aniq amaliy yoʻnalish beradi: inson avvalo oʻz nafsini – istaklari, qoʻrquvlari va qiziqishlarini – aql bilan boshqarishni oʻrganishi kerak. Shu sababli u fazilatga erishishni nafaqat nazariy bilish, balki muntazam oʻzini tarbiyalash, odatlarni shakllantirish va xulqni boshqarish orqali amalga oshiriladigan jarayon deb hisoblaydi. U “Axloqiy etuklik – bu aql bilan boshqarilgan nafsdir” deb taʼkidlab, fazilatlarni shakllantirishda aqlning normativ rolini koʻrsatadi: aql nafsni tartibga soladi, nafs esa amaliy hayotda harakatlarga aylantiradi — ikkovining uygʻunligi kamolotga etaklaydi[3:87].

Bu gʻoya Aristotelning “oʻrtalik tamoyili” bilan hamohang; lekin Ibn Sino uni Sharq falsafiy va ruhiy anʼanalarining xususiyatlari bilan boyitadi — yaʼni nafsni boshqarish jarayonida ruhiy poklik, ibodat va axloqiy tarbiya vositalari ham muhim hisoblanadi. Natijada, axloqiy tarbiya maqsadi shunchaki individual xulqni tartibga solish emas, balki insonni ruhiy poklik, adolat, sabr-toqat va mehnatsevarlik kabi murakkab fazilatlar ruhida kamol topgan shaxsga aylantirishdir.

Amaliy jihatdan bu yondashuv pedagogika va jamiyat uchun ikki muhim xulosani beradi: bir — axloqiy tarbiya doimiy, sistematik va aql asosida olib borilishi lozim; ikki — individualdagi oʻrtalik va kamolot oilaviy va ijtimoiy muhitda koʻpayib, jamiyatning axloqiy darajasini oshiradi. Shu tariqa, Ibn Sinoning iʼtidol tamoyili nafaqat shaxsiy erkinlik va balans manbai, balki ijtimoiy barqarorlik va madaniy uygʻunlikning ham nazariy poydevorini tashkil etadi.

Ibn Sino fikricha, jamiyat taraqqiyoti faqat moddiy vositalar orqali emas, balki axloqiy etuklik orqali ham amalga oshadi. U adolat, hamjihatlik va ijtimoiy masʼuliyatni davlat boshqaruvi va fuqarolik madaniyatining asosi sifatida koʻrsatadi. Alloma “Siyosat” boʻlimida shunday yozadi: “Davlatni adolat boshqaradi, adolatni esa axloqiy fazilatlar mustahkamlaydi.” Shundan kelib chiqib, u jamiyatdagi har bir inson oʻz burchini anglab, ijtimoiy manfaatni shaxsiy manfaatdan ustun qoʻyishi kerakligini taʼkidlaydi[4:109].

Hozirgi globallashuv davrida iqtisodiy va texnologik o'sish tezligi bilan birga individualizm, madaniy tekislanish va qadriyatlardagi ziddiyatlar kuchaymoqda, natijada an'anaviy ma'naviy me'yorlar zaiflashishi va jamiyatda ruhiy bo'shliqlar paydo bo'lishi mumkin. Shu kontekstda Ibn Sinoning axloqiy g'oyalari — insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik va ijtimoiy burch haqidagi tamoyillari — jamiyatni ma'naviy sog'lomlashtirish uchun muhim manba sifatida namoyon bo'ladi. Uning ta'limotida axloq nafaqat individual fazilatlar majmuasi, balki ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi prinsip sifatida ko'riladi: masalan, insonparvarlik fuqarolar o'rtasida birlik va hamjihatlikni oshiradi; adolat davlat siyosati va ijtimoiy institutlarning ishonchliligini ta'minlaydi; mehnatsevarlik esa iqtisodiy hamda axloqiy me'yorda samaradorlik va shaxsiy mas'uliyatni mustahkamlaydi[5:87].

Shu asosda, Ibn Sinoning ta'limotini zamonaviy pedagogika va falsafa fanlariga integratsiyalash — ta'lim jarayonida aql bilan boshqarilgan nafs, ijtimoiy mas'uliyat va fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan dasturlar joriy etish demakdir. Amaliy jihatdan bu quyidagilarni anglatadi: maktab va oliy ta'limda axloqiy-didaktik modullarni kiritish, yoshlar uchun xizmat va jamiyatga hissa qo'shish bo'yicha amaliy loyihalarni rivojlantirish, hamda siyosat va iqtisod siyosatida adolat va fuqarolik madaniyatini rag'batlantiruvchi mexanizmlar joriy etish. Natijada, Ibn Sino g'oyalari nafaqat individual ma'naviy kamolotga xizmat qiladi, balki ijtimoiy muhitni qayta tiklash va jamiyat taraqqiyotining barqaror poydevorini yaratish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sino axloqiy qarashlari insonni nafaqat jismoniy sog'liq va bilim jihatidan, balki ma'naviy va ruhiy barkamollikka yo'naltirilgan kompleks rivojlanish modeli sifatida ko'rilishini taqozo etadi. U axloqni shaxsiy kamolotning poydevori deb bilgan holda, fazilatlar — aql bilan boshqarilgan nafs, adolat, sabr, mehnatsevarlik va insonparvarlik — orqali jamiyatning ichki muvozanati va ijtimoiy uyg'unligini ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi. Shu sababli, jamiyatning barqarorligi va uzoq muddatli taraqqiyoti faqat iqtisodiy va texnik

omillarga emas, balki keng qamrovli axloqiy madaniyat va fuqarolik ongining mavjudligiga ham bog'liqdir.

Ibn Sinoning ta'limoti shuni ko'rsatadiki, individual darajadagi axloqiy tarbiya oilaviy va mahalliy muhit orqali ijtimoiy institutsiyalarga o'tadi va oxir-oqibat davlat boshqaruvi ham axloqiy tamoyillarga asoslanmasa, barqaror taraqqiyotga erishish qiyinlashadi. Bundan kelib chiqib, uning g'oyalari bugungi kunda ma'naviy siyosat, ta'lim dasturlari va fuqarolik madaniyatini shakllantirishda ilmiy-falsafiy asos vazifasini o'taydi: ta'lim muassasalarida axloqiy-didaktik modullarni joriy etish, davlat siyosatida adolat va ijtimoiy mas'uliyatni qo'llab-quvvatlash hamda jamiyatda xizmat va hamjihatlikni rag'batlantirish orqali alloma ta'limotining amaliy salohiyatidan foydalanish mumkin. Shunday qilib, faylasufning axloq haqidagi ta'limoti nafaqat tarixiy-falsafiy meros, balki zamonaviy jamiyatlarni ma'naviy jihatdan barqaror va insonparvar yo'nalishda rivojlantirish uchun amaliy va nazariy yo'l boshchi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibn Sino. Kitob ash-Shifo. – Qohira: Al-Majma' al-Malikiy, 1952.
2. Ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1980.
3. Ochildiyev A. O'zbek falsafiy tafakkuri tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
4. G'oyibov, M. Ibn Sino falsafiy merosi va uning zamonaviy talqini. – Toshkent: Universitet, 2020.
5. Nasr S.H. Islamic Philosophy from Its Origin to the Present: Philosophy in the Land of Prophecy. – State University of New York Press, 2006.
6. Al-Attas S.M.N. The Concept of Education in Islam. – Kuala Lumpur: ISTAC, 1991.
7. Uralov D. Ibn Sinoning falsafiy qissalarida axloqiylik me'zonlarining badiiy obrazlar orqali ifodalanishi // "Tamaddun nuri" Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. UDK: 930.905. ISSN 2181-8258. DOI prefiksi:10.69691. 10 (61) 2024.

8. Uralov D. Ibn Sino axloqiy qarashlarida yaxshi va yomon xulqlar haqida // “Tamaddun nuri” Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal. Impakt faktor-9.347. UDK: 091.274.11. ISSN 2181-8258 IF-9.347 DOI 10.69691 2025-yil, 6-son (69). 2025.

9. Uralov D. On human morality and professional culture in the ethical views of Ibn Sino // “Science Problem” (Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari) 5-jild, 6-maxsus son, iyul 2025, ISSN: 2181-1342. DOI: 10.47390/SPR1342V5S16Y2025. 89-93-betlar.

10. Uralov D. The importance of the views of children’s education and moral virtues in the works of Ibn Sina today // Western European Journal of Historical Events and Social Science. ISSN (E): 2942-1926 Open Access| Peer Reviewed. Volume 3, Issue 2, February, 2025.

MAHMUD XO‘JA BEHBUDIY QARASHLARI ASOSIDA YOSHLARNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH

Nuutonova Xilola Lochinbekovna,
*Urganch RANCH texnologiya
universiteti o‘qituvchisi*

Hozirgi davrda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalasi mamlakatimiz ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, turli madaniyatlarning o‘zaro aralashuvi, g‘oyaviy ta’sirlar kuchayib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarning milliy o‘zligini saqlab qolishi, insoniy fazilatlarni e’zozlab yashashi dolzarb ijtimoiy-pedagogik vazifadir. Chunki milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan shaxs — bu o‘z xalqining tarixini, madaniyatini, tilini, an’analarini qadrlaydigan, lekin shu bilan birga, boshqa xalqlar qadriyatlariga ham bag‘rikeng munosabatda bo‘ladigan komil inson demakdir. Mazkur jarayonda o‘zbek ma’rifatparvarlarining merosi,

xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlari o‘zgacha ahamiyat kasb etadi. Behbudiy o‘z davrida millatni uyg‘otish, xalqni jaholat, savodsizlik, loqaydlikdan xalos etish, ilm va ma‘rifat nuri bilan yoritish g‘oyalarini ilgari surgan buyuk mutafakkirdir. U Turkiston jadidchilik harakatining asoschilaridan biri bo‘lib, o‘z faoliyatini “xalqni tarbiya qilmasdan, millatni yuksaltirib bo‘lmaydi” degan tamoyilga asoslagan [1].

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, u pedagog, dramaturg, jurnalist, noshir, ma‘rifatparvar va ijtimoiy arbob sifatida tanilgan. Uning pedagogik qarashlari, maktab, ta‘lim, tarbiya, ma‘naviyat, axloq masalalariga oid fikrlari o‘z davri uchun yangilik bo‘lgan. Behbudiy millat kelajagi yoshlarning ongli, bilimli, vatanparvar, adolatparvar bo‘lishiga bog‘liq ekanini anglagan holda o‘z asarlarida bu masalani chuqur tahlil qilgan. U “Padarkush” (1913) nomli dramasi, “Muallim”, “Risolai jadida”, “Risolai asbobi savod”, “Gazeta”, “Taraqqiy”, “Samarqand” kabi nashrlardagi maqolalari orqali yosh avlodni ilmga, ma‘rifatga, halollikka, vatanparvarlikka, milliy g‘urur va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash g‘oyasini ilgari surgan. Behbudiy o‘zining pedagogik faoliyatida “tarbiya” so‘ziga chuqur falsafiy mazmun bergan: u tarbiyani insonning ruhiy, aqliy va axloqiy komillikka etish yo‘li deb bilgan.

Uning fikricha, “ilm – millatning najot yo‘li, tarbiya – uning qalbi”dir. U yoshlarni tarbiyalashda uch asosiy yo‘nalishga e‘tibor qaratgan:

1. **Milliy qadriyatlarga sadoqat** – o‘z xalqining tilini, dinini, tarixini, an‘analarini e‘zozlash.
2. **Umuminsoniy qadriyatlarga hurmat** – adolat, tinchlik, bag‘rikenglik, halollik, insonparvarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni qadrlash.
3. **Ilm va ma‘rifatga intilish** – jaholat va xurofotdan xalos bo‘lishning yagona yo‘li sifatida.

Behbudiy uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘zaro zid tushunchalar emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi, inson kamolotini ta‘minlovchi birlik sifatida namoyon bo‘ladi. U millatni yuksaltirish uchun yoshlarni nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash lozimligini

ta'kidlaydi. Chunki inson faqat o'z xalqini emas, balki butun insoniyatni hurmat qilganida, haqiqiy ma'naviy etuklikka erishadi [2].

Bugungi kunda Mahmudxo'ja Behbudiy ilgari surgan bu g'oyalar O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham dolzarb. Xususan, "Yangi O'zbekiston – yangi ta'lim" konsepsiyasida yoshlarni milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat, inson huquqlariga hurmat, bag'rikenglik, ma'naviy poklik ruhida tarbiyalash ta'limning ustuvor maqsadi sifatida qayd etilgan. Bu esa Behbudiy asarlarida ilgari surilgan pedagogik tamoyillar bilan to'liq uyg'unlikda.

Mahmudxo'ja Behbudiy yoshlar tarbiyasida o'qituvchi shaxsiga alohida e'tibor bergan. U o'qituvchini "millat ko'zgusi", "jamiyat ma'naviy yo'lboshchisi" deb atagan. Behbudiyning fikricha, agar o'qituvchi o'zini ilm bilan, ma'naviyat bilan qurollantirmasa, u boshqalarga nurlar socha olmaydi. Demak, yoshlarni qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, avvalo, pedagog shaxsining ma'naviy barkamolligiga bog'liqdir. Shuningdek, Behbudiy o'z davrida ayollar ta'limi masalasini ham ko'tarib chiqqan. U ayolni "tarbiya maktabining birinchi ustozasi" deb bilgan va "millat onasining ma'rifatli bo'lishi – butun millatning saodati" deya ta'kidlagan. Bu g'oya bugungi kunning gender tenglik, oilaviy tarbiya va ma'naviy madaniyat masalalari bilan hamohang bo'lib, Behbudiyning umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatini yana bir bor ko'rsatadi.

Bugungi yoshlar orasida axborot oqimining keskin ortishi, turli g'oyaviy tahdidlar, ma'naviy befarqlik holatlari kuzatilayotgan bir paytda Behbudiy qarashlariga qaytish, ularni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash, milliy g'urur, vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, adolat kabi qadriyatlarni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy merosini o'rganish shunchaki tarixiy qiziqish emas, balki bugungi ta'limni ma'naviy poydevor bilan mustahkamlashga xizmat qiladigan ilmiy-amaliy zaruratdir. Chunki u o'z davrida ilgari surgan g'oyalar – jaholatga qarshi kurash, ilm va ma'rifatni yoyish, xalqni uyg'otish, millatni o'z qadriyatlari bilan tiklash – hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Shu bois ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy pedagogik qarashlari asosida yoshlarni milliy va umuminsoniy

qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari, tarixiy ildizlari hamda zamonaviy ta'lim jarayonidagi tatbiq yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Behbudiy asarlari, uning "Padarkush" dramasi, pedagogik maqolalari va darsliklaridagi tarbiyaviy g'oyalar asosida yoshlarning axloqiy, ma'naviy va fuqarolik fazilatlarini shakllantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Bugungi kunda Mahmudxo'ja Behbudiy qarashlari yosh avlodni milliy o'zlikni anglash, axloqiy tozalik va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — Behbudiy merosini o'quv-tarbiya jarayoniga chuqur singdirish, o'quvchilarni uning g'oyalari asosida fikrlaydigan, qadriyatlarni qadrlaydigan, ma'naviy etuk shaxslar sifatida tarbiyalashdir. Shunday qilib, Mahmudxo'ja Behbudiy qarashlari yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda mustahkam nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Uning ma'rifatparvarlik g'oyalari — bugungi va kelajak avlod uchun nurli yo'l, ma'naviy kamolot manbaidir [3].

Ta'lim jarayonida quyidagi yo'nalishlarda Behbudiy merosidan samarali foydalanish mumkin:

Adabiyot va tarix darslarida Behbudiy asarlari asosida milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va ma'naviyatni o'rganish;

Tarbiya soatlarida "Padarkush" asari orqali axloqiy qadriyatlar, ota-onaga hurmat, insoniy burch va javobgarlik tushunchalarini singdirish;

Sinfdan tashqari faoliyatlarda Behbudiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan davra suhbatlari, "ma'naviyat kuni", sahna ko'rinishlari tashkil etish;

O'qituvchilar malakasini oshirish kurslarida Behbudiy pedagogik merosini o'rganish va uni zamonaviy tarbiya konsepsiyalari bilan bog'lash. Shuningdek, yoshlarni raqamli dunyoda ma'naviy immunitetga ega bo'lishi uchun Behbudiy asarlaridagi axloqiy g'oyalarni psixologik-pedagogik dasturlarga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Mahmudxo'ja Behbudiy ilgari surgan fikrlar bugungi kun tarbiyaviy jarayoniga quyidagi jihatlarida yo'l-yo'riq beradi:

1. **Milliy o‘zlikni saqlash** – globallashuv sharoitida yoshlarni o‘z xalqining qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash.

2. **Insonparvarlik** – har bir insonni millati, dini, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar hurmat qilishga o‘rgatish.

3. **Vatanparvarlik va mas’uliyat** – Vatan taqdiri, xalq ravnaqi uchun shaxsiy javobgarlikni his etish.

4. **Ma’naviy immunitet** – yoshlarni axloqiy inqiroz, ma’naviy befarqlik, yot g‘oyalar ta’siriga tushmaslikka tayyorlash.

Ushbu g‘oyalar asosida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonning ma’naviy xavfsizligi, ijtimoiy barqarorligi va kelajak taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining eng ilg‘or ma’rifatparvarlaridan biri sifatida nafaqat milliy uyg‘onish harakatining, balki umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligining ham asoschisi bo‘lgan. U “ilm”, “tarbiya”, “vatan”, “insof”, “odamiylik” tushunchalarini inson kamolotining mezoni sifatida talqin etgan. Uning asarlari, ayniqsa “Padarkush” dramasi, yoshlarni milliy qadriyatlarni qadrlash, ota-onaga hurmat, insonparvarlik, adolat, halollik va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda o‘lmas darslik vazifasini o‘tamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy M. *Padarkush (Birinchi o‘zbek dramasi)*. – Samarqand, 1913.

2. Kocaoğlu T. *Türkistan’da Türkçe İlk Tiyatro Eseri: Mahmud Hoca Behbudi’nin “Pederküş” Piyesi*. – 2004.

3. Qodirov S. *O‘zbek jadidchiligi va ma’rifatparvarlik harakati*. – Toshkent: Fan, 2019.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA MILLIY O'ZLIKNI YUKSALTIRISH VA MUSTAQIL FIKRLASHNI TARBIYALASHNING METODIK ASOSLARI

Xakimova Oqilaxon Odiljon qizi,

Farg'ona davlat universiteti magistranti.

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda o'z xalqiga xos g'urur va o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, ta'lim tizimi o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirishni ham ko'zda tutadi.

Boshlang'ich ta'lim — bu shaxsning asosiy dunyoqarashi, tafakkur madaniyati va axloqiy qarashlari shakllanadigan muhim bosqichdir. Shu sababli o'qituvchi nafaqat o'quv dasturini o'zlashtirishga yo'naltiruvchi, balki o'quvchilarda milliy o'zlikni yuksaltiruvchi va mustaqil fikrlashni o'rgatuvchi rahbar sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish ularni shunchaki bilim oluvchi emas, balki o'quv-tarbiya jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qarashni taqozo etadi. Bunda o'quvchini "subyekt–obyekt" tizimida tahlil qilish tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir o'quvchi o'z fikri, his-tuyg'usi va ichki dunyosi bilan milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va an'analarimizning davomchisi sifatida shakllanadi. Shu bois ta'lim jarayoni nafaqat ilmiy bilim berish, balki milliy o'zlikni yuksaltirish, ijodiy tafakkurni uyg'otish va o'z xalqiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga yo'naltirilishi kerak.

O'quvchilarda shakllanadigan mustaqillik, topqirlik, onglilik kabi sifatlar o'qituvchining faoliyatigina emas, balki o'quvchining o'z irodasi, qiziqishi va ichki ishtiyoqi bilan ham chambarchas bog'liq. O'quv materiali bu jarayonda shunchaki axborot manbai emas, balki o'quvchi shaxsining tafakkurini boyituvchi, ijodkorligini yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida qaraladi. Ijodiy faoliyatning markazida tafakkur, ya'ni fikrlash, solishtirish, izlanish va yangilik yaratish jarayoni turadi. Bu esa o'quvchining zehn,

mayl, havas va layoqatini rivojlantirish orqali milliy tafakkur va madaniy ongni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta'limni ijodiy tashkil etish o'quvchi faoliyatini faollashtirish, uning biluv jarayonini mustaqil ravishda boshqarish imkonini beradi. O'quvchi bilimni tayyor holda qabul qilmay, uni o'z fikrlari, kuzatuvlari va hayotiy tajribasi orqali tahlil qiladi. Bu jarayon esa milliy qadriyatlar ruhida o'z fikrini ifodalash, ajdodlarimizning ma'naviy merosidan saboq olish, shaxsiy g'urur va o'zlikni anglashni mustahkamlaydi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini uch yo'nalishda rivojlantirish mumkin: ijodiy mustaqil ishlar, ijodiy mashqlar va o'quv muammolari. Ijodiy mustaqil ishlar orqali o'quvchi milliy qadriyatlarga asoslangan mavzularda o'z fikrini erkin ifodalaydi, ijodiy mashqlar esa uning milliy madaniyatni his etish va ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi. O'quv muammolari orqali esa o'quvchi hayotiy vaziyatlarni milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar bilan bog'lab tahlil qilishni o'rganadi.

Ya'ni, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish milliy o'zlikni anglash va qadriyatlarga sodiqlik ruhida olib borilishi zarur. O'qituvchi bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki milliy ma'naviyatni tarbiyalovchi, o'quvchini o'z xalqining an'analari, urf-odatlari va tarixiga hurmat bilan qarashga o'rgatuvchi shaxs bo'lishi lozim. Shu yo'l bilan ijodkor, vatanparvar, mustaqil fikrlaydigan, milliy g'ururga ega yangi avlodni tarbiyalash mumkin.

Milliy o'zlik insonning o'z xalqiga, madaniyatiga, tarixiga, tili va qadriyatlariga bo'lgan hurmatini anglatadi. O'quvchining milliy o'zligini shakllantirish — bu uning qalbida vatanparvarlik, g'urur va o'zligini anglash tuyg'usini uyg'otishdir. Shu maqsadda boshlang'ich ta'limda o'qituvchi o'quvchilarga xalq og'zaki ijodi namunalarini, milliy ertaklar, maqollar, rivoyatlar, tarixiy shaxslar hayotini misol keltirish orqali milliy g'oyani singdiradi.

Milliy qadriyatlarni o'qitish jarayonida o'qituvchi zamonaviy ta'lim metodlarini milliy ruh bilan uyg'unlashtirgan holda, o'quvchilarni o'z ildizlarini anglashga va milliy merosga e'tiborli bo'lishga undashi zarur.

Bunda “O‘zbekiston — mening yurtim”, “Ajdodlar merosi”, “Qadriyatlar saboqlari” kabi mavzulardagi darslar samarali natija beradi.

Mustaqil fikrlash — bu o‘quvchining tayyor bilimni qabul qilishdan ko‘ra, uni tahlil qilib, o‘z nuqtayi nazarini bildirga olish qobiliyatidir. Bu jarayon o‘quvchining tafakkurini faollashtiradi, ijodkorlikni rivojlantiradi hamda hayotiy masalalarga mustaqil yondashishni o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil fikrlashni shakllantirish uchun quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- Muammoli ta’lim metodi – o‘quvchiga savol yoki hayotiy vaziyat orqali mustaqil javob topish imkonini berish;
- Loyihaviy faoliyat – o‘quvchilarni milliy mavzularda kichik ijodiy ishlar tayyorlashga jalb etish (masalan, “Bizning qadriyatlarimiz”, “Qahramon ajdodlarimiz”);
- Tahliliy suhbatlar – o‘quvchilarning fikrini eshitish, dalil keltirishga o‘rgatish;
- Interfaol o‘yinlar va mashg‘ulotlar – o‘quvchilarni faol ishtirok etishga, mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltiradi.

Bunday yondashuvlar natijasida o‘quvchilar o‘z fikrini aniq ifoda etishni, boshqalarning nuqtayi nazariga hurmat bilan qarashni va hayotiy masalalarga ijodiy echim topishni o‘rganadilar [2; 248-b].

Zamonaviy ta’limda innovatsion texnologiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quv jarayonini yanada samarali qiladi. Bu yo‘nalishda quyidagi texnologiyalar alohida ahamiyatga ega:

Integrativ yondashuv: ona tili, tarix, mehnat ta’limi fanlarini milliy mazmunda bog‘lab o‘qitish;

- Raqamli vositalardan foydalanish: multimedia darslar, videoroliklar, virtual kursiyalar orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni his etish hissini kuchaytirish;
- Refleksiya texnologiyasi: o‘quvchining o‘z fikrini yozma va og‘zaki tarzda baholashi, o‘z dunyoqarashini tahlil qilishi uchun imkon yaratadi;

- Interfaol metodlar: “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Fishbone”, “Fikrlar xaritasi” kabi usullar o‘quvchilarni faol fikrlashga, o‘z qarashlarini asoslashga o‘rgatadi.

Mazkur texnologiyalar o‘quvchilarda o‘z fikrini mustaqil shakllantirish, milliy qadriyatlarga asoslangan tafakkurni rivojlantirish va zamonaviy tafakkur egasi bo‘lishga yordam beradi.

Kelajak avlodni ma’naviy va axloqiy jihatdan etuk, barkamol insonlar sifatida tarbiyalash — bugungi kunning eng muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biridir. Chunki mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar fuqarolardan o‘z milliy o‘zligini chuqur anglashni, jamiyat oldidagi mas’uliyatini his etishni va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishni talab etadi. Shu bois ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida yosh avlodning ma’naviy-ruhiy holatiga mos, zamon talablari asosida tashkil etilgan o‘qitish uslublaridan foydalanish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, ma’naviy barkamol insonlarga o‘z yurti ravnaqi, millat yuksalishi va buyuk kelajak qurilishida faol ishtirok eta oladilar. Shu sababli, bugungi kunda o‘quv jarayonini takomillashtirish, pedagoglarning metodik salohiyatini oshirish hamda ta’limni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda rivojlantirish — kelajak poydevorini mustahkamlovchi eng muhim omillardandir [5; 67-73-b].

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda milliy o‘zlikni yuksaltirish va mustaqil fikrlashni tarbiyalash bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. Milliy qadriyatlar orqali shakllangan fikr mustahkam, o‘ziga ishongan va vatanparvar shaxsni tarbiyalaydi. Shu bois har bir pedagog o‘quv jarayonida milliy ruhni saqlagan holda, zamonaviy metod va texnologiyalarni qo‘llab, o‘quvchilarda mustaqil tafakkur, ma’naviyat va o‘zlikni anglash sifatlarini rivojlantirishi zarur.

Bunday yondashuv yosh avlodda ma’naviy barkamollik, milliy g‘urur va ijodiy fikrlashni shakllantirib, ularni kelajakda jamiyatning faol, vatanparvar va ijtimoiy mas’uliyatli a’zolariga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008. — 176 b.
2. Hasanboyeva, O., To'xtaxodjayeva, M. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. — Toshkent: TDPU, 2019. — 248 b.
3. Jo'rayeva, N. Milliy qadriyatlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning metodik asoslari. // Ta'lim va innovatsiya jurnali. — 2021. — №3. — B. 45–52.
4. Mavlonova, R., Qo'shboqova, D. Ta'limda interfaol metodlardan foydalanish yo'llari. — Toshkent: O'qituvchi, 2020. — 212 b.
5. Ismoilova, G. Boshlang'ich ta'limda mustaqil fikrlashni shakllantirish metodlari. // Pedagogik izlanishlar jurnali. — 2022. — №2. — B. 67–73.

MILLIY O'YINLAR ORQALI YOSHLARNI MA'NAVIY BARKAMOL SHAXS SIFATIDA SHAKLLANTIRISH

Yaxyayev Dilmurod Karimovich,
*Uchtepa tumani 238-son umum o'rta
ta'lim maktabi o'qituvchisi*

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni ma'naviy barkamol, jismonan sog'lom va milliy qadriyatlariga sodiq shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda milliy o'yinlar yoshlarni nafaqat jismonan chiniqtiradi, balki ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini ham shakllantiradi.

Xalq o'yinlari qadimdan ajdodlarimiz madaniy hayotining ajralmas bo'lagi sifatida qadrlanib kelgan. Ularning ko'pchiligi juda uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishda, fikrlash doirasini kengaytirishda va his-tuyg'ularini yuksaltirishda beqiyos o'rin tutgan. Milliy o'yinlar orqali xalqning turmush tarzi, mehnatsevarligi, ijtimoiy hayoti va yutuqlari o'z ifodasini topgan. Shu boisdan ular yosh avlodni tarbiyalashda o'ziga xos "hayot maktabi" vazifasini bajargan [1].

O'yinlar aslida ma'lum qoidalar asosida tashkil etiladigan, harakat, tafakkur, ijodkorlik va musobaqaviy ruhni o'zida mujassam etgan milliy qadriyat sanaladi. Ular insonning jismoniy chiniqishi, aqliy faolligi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi muhim vosita sifatida qaraladi.

Buyuk allomalarimiz ham o'yin va jismoniy mashqlarning tarbiyaviy hamda sog'lomlashtiruvchi ahamiyatini alohida ta'kidlaganlar. Jumladan, Abu Ali ibn Sino o'zining mashhur **"Tib qonunlari"** asarida kurash va jismoniy mashqlarni inson sog'lig'ini mustahkamlovchi vosita sifatida tilga olgan. Shuningdek, Kaykovus, Umar Hayyom, Abulqosim Firdavsiy, Abu Rayhon Beruniy kabi mutafakkirlar chavgon, shaxmat, qilichbozlik, chavandozlik singari o'yin turlarining jismoniy va ma'naviy ahamiyatini o'z asarlarida yoritganlar [1].

Alisher Navoiy ijodida esa bayramlar, to'ylar va xalq sayillari munosabati bilan o'tkazilgan o'yinlar haqida batafsil ma'lumotlar uchraydi. Uning asarlarida o'yinlarning tashkil etilish tartibi, qatnashchilarning roli hamda ularni o'tkazish qoidalari aniq ifodalangan. Bularning barchasi milliy o'yinlarning xalq hayoti, madaniyati va tarbiyasi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

O'yin – insonni tarbiyalash, chiniqtirish hamda hordiq chiqarishning eng qadimiy vositalaridan biridir. Insoniyat taraqqiyoti davomida o'yin diniy marosimlar, harbiy tayyorgarlik, sport musobaqalari, san'atning turli ko'rinishlari, xususan, ijrochilik bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib kelgan.

Ma'lumki, inson hayot faoliyatida o'yin, o'qish, mehnat va dam olish jarayonlari muhim o'rin tutadi. Bolalik davrida o'yin asosiy faoliyat turi sanaladi, keyinchalik esa u o'qish bilan uyg'unlashadi. Vaqt o'tishi bilan o'yin faoliyati kamayib, uning o'rnini mehnat va ijodiy mashg'ulotlar egallaydi.

Odamzod tarixining dastlabki bosqichlarida o'yinlar ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Ular orqali inson jismonan chiniqqan, ruhiy jihatdan etuklashgan, aqlan rivojlangan hamda ma'naviy kamolot sari intilgan. Ayniqsa, o'zbek xalqining milliy o'yinlari yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda "hayot maktabi" vazifasini o'tab

kelgan. Bu o'yinlar bolalarni aqliy, jismoniy va ruhiy barkamollikka etaklovchi samarali tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Bolalar o'yinlari esa ularni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin jarayonida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot kabi ruhiy jarayonlar faol ishtirok etadi. Shu bois o'yin bolaning har tomonlama kamol topishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [4].

Bolalar o'yinlarining uch asosiy xususiyati mavjud:

- Erkinlik — bola o'yinni o'z xohishiga ko'ra, majburlovsiz bajaradi.
- Ijodkorlik — o'yin faoliyati ijodiy yondashuv va faollikni talab etadi.
- Jo'shqinlik — bola o'yinga butun vujudi bilan beriladi, zavq oladi va o'rtoqlik hissi kuchayadi [6].

O'yin — bu inson hayotining ajralmas qismi. Ayniqsa, milliy o'yinlar xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlar, qadriyatlari va tarixiy merosining jonli ifodasidir. Shu sababli ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaqin o'tmishdan boshlab, ayniqsa mustaqillik yillarida, milliy o'yinlarni o'rganish, ularni tiklash va yoshlar tarbiyasida maqsadli qo'llash masalalariga katta e'tibor berildi. Bu borada madaniyat va san'at sohasining ko'zga ko'ringan vakillari, shuningdek, taniqli olimlar M. Murodov, U. Qoraboyev, T. S. Usmonxo'jayev, A. Q. Atoyev, J. Toshpo'latov, R. Q. Qudratov, F. N. Nasriddinovlarning xizmatlari beqiyos bo'ldi [3].

Milliy o'yinlar ko'p qirrali bo'lib, ular o'z ichiga raqslar, laparlar, aytishuvlar, askiyalar va turli xalq san'ati janrlarini qamrab oladi. Shu bilan birga, ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan harakatli va sport xarakteridagi o'yinlar ham muhim o'rin tutadi. Ularni quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin [3]:

1. Kurash turlari (belbog'li va milliy kurash);
2. Ot o'yinlari (ko'pkari – uloq, poyga, qiz quvmoq, otdan ag'darish, chovg'on va h.k.);
3. Dorbozlik san'ati (dor ustida chiqishlar, aytishuvlar va hazillar) [5];
4. Kuch sinovlari (tosh yoki gir ko'tarish, bilak kuchini sinash);
5. Arqon tortishish;

6. Harakatli xalq o'yinlari (quloq cho'zma, eshak mindi, elkada kurash, xo'roz jangi, chillik, poda to'p va boshqalar).

Milliy o'yinlar o'zida xalqning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari, jamoaviylik va insonparvarlik qadriyatlarini mujassam etadi. "Chillak", "Oq terakmi, ko'k terak", "Chavg'on", "Kurash", "Arqon tortish", "Qiz quvdi", "Otdan ag'darish" kabi o'yinlar yoshlarni:

- jamoada ishlashga, do'stlikka;
- halollikka va qoidalarga rioya etishga;
- jasorat va matonat ko'rsatishga o'rgatadi [2].

Bu o'yinlar jarayonida yoshlar o'zaro muloqot qiladi, fikrlash, harakatni muvofiqlashtirish, muammoni tez hal etish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu esa shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlaydi.

Ma'naviy barkamol shaxs — bu vatanparvar, adolatli, halol va irodali insondir. Milliy o'yinlar mazmunan aynan shu fazilatlarini yoshlar ongiga singdiradi. Masalan:

- "Kurash" o'yini — jasorat, g'urur va vatanparvarlik timsoli;
- "Arqon tortish" — jamoaviy birlik va ishonchni mustahkamlaydi;
- "Qiz quvdi" — chaqqonlik va hurmatni o'rgatadi;
- "Chillak" — topqirlik va diqqatni kuchaytiradi.

Shunday qilib, har bir milliy o'yin yosh avlodni ma'naviy jihatdan yuksaltiruvchi tarbiya vositasidir.

Jismoniy tarbiya darslarida milliy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, ularni milliy qadriyatlarga yaqinlashtiradi. Dars jarayonida quyidagi texnologik yondashuvlardan samarali foydalanish mumkin:

- Integratsion yondashuv – o'yinlarni jismoniy mashg'ulot bilan uyg'unlashtirish;
- Raqobatli o'yin shakli – musobaqalar orqali sog'lom raqobat muhitini yaratish;
- Refleksiya usuli – o'yindan keyingi tahlil orqali ma'naviy xulosa chiqarish;
- Jamoaviy hamkorlik – o'quvchilarni bir maqsad yo'lida harakatlantirish.

Bu usullar yordamida o'qituvchi nafaqat jismoniy, balki ma'naviy tarbiya maqsadlariga ham erishadi. Milliy o'yinlar yosh avlodni sog'lom, jismonan chiniqqan va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ular orqali o'quvchilar milliy qadriyatlarni his etadi, xalq an'analariga hurmat bilan qarashni o'rganadi. Shu bois jismoniy tarbiya darslari, sport to'garaklari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda milliy o'yinlardan keng foydalanish – ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning samaradorligini oshiruvchi eng tabiiy va ta'sirchan vositadir.

Adabiyotlar

1. Meliev, X. A. (2023). Alisher Navoiy Asarlarida Etnosport Turlari, Xalq O'yinlari Haqidagi Qarashlari. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. 11 (5). 300-304.
2. O'zbek Milliy Sport Turlari va Xalq O'yinlari Ensiklopediyasi (2022). Toshkent.: Zamin Nashr.
3. Qoraboev, U., Abdurahmonov, I. (2019). O'zbek Xalq O'yinlari. Toshkent.
4. Qurbonov, A. (2009). Shimoliy Surxon Vohasi Aholisi An'anaviy Madaniyatining Etnik va Lokal Xususiyatlari (XIX Asr Oxiri – XX Asrning Birinchi Yarmi). Tarix Fanlari Nomzodi Ilmiy Darajasini Olish Uchun Yozilgan Dissertasiya. Toshkent.
5. Sarimsoqov, A. A. (2010). O'zbeklarning Taqvimiy Marosimlari (Farg'ona Vodiysi Materiallari Asosida). Tarix Fanlari Nomzodi Ilmiy Darajasini Olish Uchun Yozilgan Dissertasiya. Toshkent.
6. Tabinbaev, A, Kazakov, B. (2015). O'zbek xalq Milliy O'yinlarining Rivojlanishi, Yoshlarni Tarbiyalashdagi Ahamiyati, Pedagogik Ta'rifi va Maktab Programmasidagi O'rni (O'quv Metodik Qo'llanma). Nukus.

MA'NAVIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASHDA BAG'RIKYENGLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING STRATYEGIK VAZIFALARI

Ulug'ov Abduraim Xamzayevich,
*siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali*

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatdagi barqaror taraqqiyotni ta'minlashning asosiy omillaridan biri bu — ma'naviy-ma'rifiy sohani yuksaltirishdir. Shu ma'noda, bag'rikenglik (tolerantlik) madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ma'naviy taraqqiyotning uzviy qismi sifatida qaraladi. Bag'rikenglik — inson huquqlari, erkinliklari va turli xil qarashlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish madaniyati hisoblanib, bu madaniyatni yuksaltirish orqali jamiyatda hamjihatlik, tinchlik va barqarorlikka erishish mumkin. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda "...hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, millatchilik, diniy murosasizlik bosh ko'tarmoqda. Bu illatlar davlatni emirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda. Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osoyishtalikning mustahkam kafolati, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo'lgan ishonchini oshirishning asosi bo'lib xizmat qilmoqda"[1] deya ta'kidlagan ayni haqiqat ekaniga guvoh bo'lamiz. Yurtimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlanishi turli din vakillari o'rtasida o'zaro hamkorlik, birdamlik va hamjihatlikning shakllanishiga zamin yaratadi. Shu o'rinda, bag'rikenglik haqida fikr bildiradigan bo'lsak, bag'rikenglik nafaqat boshqalarning fikriga hurmat qilish, balki har xil etnos, din, ijtimoiy guruhlar va madaniy an'analarga nisbatan ham bag'rikeng munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Uning asosida insonparvarlik, demokratik qadriyatlar, hamjihatlik va ijtimoiy adolat namoyon bo'ladi.

Tolerantlik tushunshasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Deklaratsiyasining kirish qismida shunday ta'riflangan: "Tolerantlik — sabr -toqat ko'rsatish va yaxshi qo'shnilar sifatida tinch -totuv yashash". Bu erda kontent ifodasi nafaqat samarali ijtimoiy ohangga ega bo'ladi, balki u ijtimoiy munosabatlar integratsiyasida muvaffaqiyatli sotsializatsiya sharti sifatida ham tushuniladi va o'zi bilan ham, boshqa odamlarning dunyosi bilan ham yashash qobiliyatini o'z ishiga oladi. Bu tarixiy faktlar shuni ko'rsatadiki, asrlar davomida boshqalarning fikrlari, xulq-atvori, urf-odatlar va madaniyatini qabul qilish ma'nosida tenglik va bag'rikenglik g'oyasiga asoslangan yagona tizim bo'lmagan, bu uzoq etnik va diniy urushlarga olib kelgan. Shu sababli bag'rikenglik me'yorlariga rioya qilish zamonaviy jamiyatda xavfsizlik kafolati bo'lishi mumkin.

Tolerantlik tamoyili o'zining zamonaviy tushunshasida birinchi bo'lib fransuz ma'rifatarvar faylasuflari Volter va Jan-Jak Russo asarlarida "turli xalqlar, dinlar va madaniyatlarning tinch-totuv yashash mexanizmi" sifatida qayd etilgan. Aynan Russo: "Hammaga qarshi urush" va "Odam uchun odamga bo'ri" g'oyalariga zid ravishda bag'rikenglik va ijtimoiy birdamlik tamoyilini birinchi marta ilgari suradi. Fransuz inqilobidan keyin (1792) birinchi marta fuqarolik tamoyili asosida irqi va dinidan qat'i nazar tenglik e'lon qilindi. Bu tamoyil keyinchalik AQShda, keyin butun sivilizatsiyalashgan dunyoda qo'llanilgan. Bag'rikenglik demokratik jamiyatning qadriyati bo'lib, uning ta'kidlanishida eng muhim rol o'z xatti-harakatlarini tanlash erkinligini va ular uchun javobgarlikni inkor etmasdan, qadriyatlarni, ma'nolarni, axloqni belgilaydigan hodisadir. Asl bag'rikenglik – bu insonni majburlash orqali emas, balki o'zining xohish-istaklari va vijdoniga ko'ra amalga oshiradigan erkin tanlovidir. Bag'rikenglik hozirda insoniyat oldida turgan barcha muammolarni hal qila olmaydi, lekin ularni hal qilish bo'yisha erkin fikr almashishni ta'minlaydi, yuzaga keladigan nizolarni engishning ma'naviy yo'lini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII bob, 33-moddasida: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligiga ega?"[2] – deb qayd etib qo'yilgan. Xuddi ana shu bobning 35-moddasida esa: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi

dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi"[3], – deb belgilab qo'yilgan. Ko'r millatli O'zbekiston uchun bag'rikenglik ongini va xulq-atvorini, diniy bag'rikenglik va tinshliksevarlikni shakllantirish, ekstremizmning har xil turlarining oldini olish va ularga qarshi kurashish alohida ahamiyatga ega. Bu jamiyatda ijtimoiy keskinlik, millatlararo va konfessiyalararo ziddiyatlarning oldini olish jarayoni bilan shambarshas bog'liq. Har xil turdagi ekstremizm, etnofobiya va ksenofobiya holatlariga qarshi kurashish uchun ushbu hodisalarning asl sabablarini oshib berish va ularga qarshi siyosiy qarorlar ishlab shiqishga hissa qo'shish uchun tegishli ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda bag'rikenglikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr yuritilganda bu borada mamlakatimizda keyingi yillarda inson huquqlari, diniy bag'rikenglik, milliy va madaniy totuvlik masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "har bir insonning dini, tili va e'tiqodi qanday bo'lishidan qat'i nazar, u bizning Vatanimiz uchun aziz va muqaddasdir".

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat siyosatida turli millat va elat vakillari, turli dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolar o'rtasida tinchlik va totuvlikni mustahkamlash maqsadida quyidagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimizda milliy madaniy markazlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, dinlararo muloqot va hamkorlikni kuchaytirish, talabalar va yoshlar o'rtasida bag'rikenglik va mehr-oqibat g'oyalarini targ'ib qilish, ommaviy axborot vositalari orqali bag'rikenglikni keng yoritish, bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirishning strategik vazifalarini amalga oshirishda ma'rifiy siyosatni takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu o'rinda, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Mamlakatimizda bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish, millatlar va konfessiyalararo o'zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanadi"[4]. O'zbek xalqi tarixning murakkab tomonlariga qaramay, yuksak darajadagi bag'rikenglik madaniyati bilan bugungi kungacha o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylab,

jahon sahnasida tinchlikrarvar siyosat yuritayotganligi bilan alohida ajralib turadi.

Bugungi kunda taraqqiyot sari dadil odimlayotgan Yangi O'zbekistonda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi, xalqparvar va millatparvar siyosati, Markaziy Osiyo mintaqasida olib borayotgan faol tashqi siyosati tufayli qo'shni davlatlar bilan har tomonlama, o'zaro manfaatli aloqalarni tobora rivojlanib borayotganligi e'tirofga sazovordir. Ezgulik va tinchlik-osoyishtalik omili hisoblanmish diniy bag'rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish orqali mamlakatimizda ta'lim, ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat, millatlar o'rtasidagi do'stlik va bag'rikenglik tamoyillari o'zining yangi bosqichini amalga oshirmoqda. E'tiborli tomoni yaqin qo'shni davlatlar bilan oliy va yuqori darajadagi aloqalarimiz tobora rivojlanib, ancha faollashib borayotgani qalbimizni quvontirmoqda. Ayniqsa, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevni BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida hamda BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi sessiyasida so'zlagan nutqlarida ilgari surgan muhim taklif va tashabbuslari dunyo hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu borada Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning muhim taklifi asosida 2018-yil 12 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilinishi va mazkur rezolyutsiyani Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi 50 dan ortiq mamlakatlar yakdil qo'llab-quvvatlanishi alohida e'tirofga molikdir.

AQShning nufuzli «The Washington Times» gazetasida e'lon qilingan L.Tod Vudning "O'zbekiston diniy bag'rikenglik qaror torgan yurt" maqolasida e'tirof etilishisha, "Islomning asl mohiyatini, uni arablar yoki radikallar bilan bog'lamasdan, shuqur tushunish uchun, albatta, sayyoh sifatida ushbu zaminga borish kerak. Shundan bir necha yuz chaqirim narida – Afg'onistonda bo'layotgan urush bir necha o'n yillardan beri odamlarning tinkasini quritayotgan bo'lsa, O'zbekistonda xristianlar, yahudiylar va musulmonlar Samarqand shahridagi hazrati Doniyor maqbarasi muqaddas qadamjosida birgalikda duo o'qishadi, ziyorat qilishadi"[5].

Xulosa qilib aytganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an‘analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e’tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko‘z qorachig‘idek asarab-avaylash barchamizning burchimizdir”[6]. Zero, dunyo miqyosida vujudga kelayotgan tahlikali vaziyatlar ekstremizm, radikalizm va terrorizmga qarshi kurashda bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib etish orqali tinchlik va xotirjamlikka birgalikda erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Millatlararo do‘stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi // Xalq so‘zi. 2017. 25 yanvar. №18.

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 33-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 35-modda.

4. Mirziyoyev Sh. “Islom hamjihatligi: O‘zbekiston va Ozarbayjon misolida” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. – Toshkent shahri. 2017-yil. 18 oktyabr // Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2 jild. – T.: O‘zbekiston”, 2018. – B. 455.

5. <http://dkm.gov.uz/uz/manaviyat-va-bagrikenglik-kelazagimiz-va-takdirimiz-vazifasi>

6. Mirziyoyev Sh. Mamlakat rivojidagi istiqbolli vazifalar. (Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a‘zolariga 2018-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O‘zbekiston Respublikasini 2019-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Murojaatnoma).

ТЕХНОЛОГИИ УКРЕПЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ ПРИ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Мунира Холмирзайева,

студентка Термезского государственного педагогического института

Современные процессы глобализации создают как возможности для культурного обмена, так и угрозу утраты национальной идентичности. В условиях интенсивного информационного воздействия и растущего влияния массовой культуры вопрос воспитания молодежи на основе национальных ценностей становится особенно актуальным. Национальное самосознание — это осознание человеком своей принадлежности к определенной нации, её истории, культуре, языку, традициям и духовным ценностям. Укрепление национального самосознания способствует формированию устойчивой гражданской позиции, нравственных ориентиров и духовной зрелости личности. В Республике Узбекистан вопросам духовно-нравственного воспитания молодежи уделяется особое внимание. Государственные программы и образовательные реформы направлены на развитие в молодом поколении любви к Родине, уважения к истории и сохранения культурного наследия. Однако важно не только декларировать эти принципы, но и внедрять эффективные педагогические технологии, которые помогут сделать процесс воспитания осознанным и действенным. В процессе написания статьи были использованы как теоретические, так и эмпирические методы научного исследования. Их комплексное применение позволило обеспечить достоверность и практическую значимость полученных результатов [3;39].

1. Аналитический метод.

Используя для изучения теоретических источников информации, научных трудов и педагогических концепций, связанных с проблемой духовно-нравственного воспитания молодежи [2; 15]. Анализ литературных и педагогических источников позволил выявить

Основными управленческими методами формирования национального самосознания и производством педагогических принципов, лежащих в основе данной деятельности.

2. Повышение уровня и методов.

Применялся для выявления сходств и различий между традиционными и современными подходами к воспитанию молодежи. Сопоставление отечественного и зарубежного опыта. Это было использовано для определения наиболее эффективных технологий и адаптировать их к Узбекской образовательной среде [3; 47].

3. Метод педагогического снабжения.

Автор проводил систематические наблюдения за студентами во время занятий, внеклассных мероприятий и творческих проектов. Это дало возможность зафиксировать реальные проявления интереса молодежи к национальной культуре, языку и традициям, а также определить наиболее результативные формы Воскресительной работы.

4. Метод анкетирования и взаимодействия.

Для уточнения мнений студентов и преподавателей был проведен опрос и индивидуальные беседы. Тогда метод был разрешено выявить уровень осознанности молодежи в вопросах национальных ценностей и степень влияния образовательных не хочу быть частью программы «Люди Икс»ых Ориентиров [4; 68].

5. Метод педагогического моделирования.

Использовался для создания моделей процессов воспитания национального самосознания студентов с учебным временем Педагогических Технологий. На основе анализа эмпирических данных была предложена модель интеграции традиционных и инновационных методов Воспитания [2; 19].

6. Личный опыт и Рефлексия Автора.

Личным источником эмпирических данных стала Личная педагогическая деятельность автора и результаты Деятельность студентов Термезского государственного педагогического института [5; 5]. Рефлексия позволила выделить Ключевые Верховенство права при

формировании Духовных и культурых Ориентация современной молодежи

Так образом, комплектное использование теоретических и эмпирических методов обеспечило всестороннее исследование проблемы и разрешено выРабота практических рекомендаций по украплению национального самосознания в молочной среде [1; 33]

1. Выборька (участники).

В эмпирической части исследований приняли участие 60 студентов педагогических специальностей (возраст 18–22 года) Термезского государственного педагогического института, воллечённых в учебно-воспитательные мероприятие в тех условиях одного места. Выборька — Селевая, отрадяющая Студентов, Участвующих в культурно-образовательном классеых проектах и внеклассной деятельности

2. Инструменты Сбора тогдаых.

- Обзорная (12 кв. м.ытых вопросов, шкала Ликерта 1–5) — отсенка интереса к национальной культуре, самоотсенки знаний, готовности участвоват в проектах и уровня гордости за культурное наследие

- Полуструктурированныйыэ интервью (10 респондентов) — углублённыанд бор качественных тоых о мотиватсии, барьерах и личных смыслакс, Связыанных с национальными сэнностями

- Наблеудательный чек-лист для фиксации активности студентов во время времени мероприятий (участие, инициативность, рол в проекте)

- Аналитические записки (рефлексия автора) — систематизированныеые эмбрионы и выводыы, сделанные автором в процессе педагогической работы

3. Процесс исследования.

- На первой ступениыЛа проведена предварительная анкета для определения исходного уровня интереса и осознанности (Неделя 1)

- Дали в течение семестра студенты Сюжет в сериале мероприятий: проект "Дни народного наследия", интерактивыЭ

занятия, медиа-кампания внутри вуза и читательские встречи (Семестр: Недели 4–14)

- В конце семестра повторно проводились анкеты, интервью и непомогаливания для оценок динамики и эффективности применяемых технологий [5; 4].

4. Методы Анализируйте тогда.

- Количественный анализ — описательная статистика (процентная затем происходит смена слова. Данных Механических выбито в видео Частотных таблиц и распределений.

- Качественный анализ — тематический анализ интервью и наблюдений с выделением Ключевых категорий: "Мотивация", "Идентичность", "Практическая вовлечённость", "Эмоциональная связь" [3; 47].

- Триангуляция данных (опросы Интервью с возможностью рефлексии автора) — использовалась для первого лица повышения надёжности выводов и устранения односторонних интерпретаций

(Тогда — на основе эмпирической части исследования: N = 60; Сифры — Результаты Нелюбования и мини-оправы Автора за семестр.)

Краткая статистика по базовым указателям (до/после серий мероприятий):

- Участие в культуре и образовательных проектах: 50 из 60 студентов активно участвовали в проектах в течение семестра. Расчёт: $50/60 = 0,8333 \rightarrow \approx 83\%$ сюжета [5; 3].

- От первого лица Интерес к национальной культуре: 45 из 60 отметили Заметное Повышение интереса после участия в мероприятиях. Расчёт: $45/60 = 0,75 \rightarrow 75\%$.

- Улучшение знаний о традиции/истории: 38 из 60 студента отметили, что их знания и представления о национальных традициях улучшились. $38/60 = 0,6333 \rightarrow \approx 63\%$.

- Использование чувства гордости/самосознания: 52 из 60 заявили о пробуждении чувства гордости за национальную культуру. $52/60 = 0,8667 \rightarrow \approx 87\%$.

• Отсутствие воды в вечерних сменах: 12 из 60 сообщили, что серьёзных изменений в их не произошло. $12/60 = 0,2 \rightarrow 20\%$.

(В процентах и Рашёты Сделаны На базе Наблюдения и Йоговых анкет; Округления — до Слых процентов для наглядности.) [5; 80].

Качественны Результаты (имеются, выявленные при анализе интервью и наблюдений). Применены Методы — анкетирование, взаимное, научное и педагогическое моделирование — копирование выявит динамику духовно-нравственного развития студенчества и механизмы формирования осознанного отношения к общей культуре. комплексная методология исследования обеспечила достоверности полученных тоых и позволил взглянуть на проблему не столько теоретически, сколько практически.

Так образом, исследовательские показали, что стоит хранить традиции и инновации открывают Новые возможности для воспитания духовно зрелого, культурно осознанного поколения, способного сохранять и развивать национальные ценности в условиях глобализации. Перспективы Дальнейших исследовательских связаны с обучением долговременного влияния внедрённых технологий на личностное развитие студентов, а также с разработкой универсальной модели формирования национального самосознания, которую можно адаптировать к разным образовательным контекстам.

Литература Списка:

1. Абдуллаева, Н. Р. Духовно-государственное воспитание молодежи в условиях современного образования. — Ташкент: Наука и технологии, 2022. — 180 с.

2. Каримов И. А. Высокий духовный потенциал — Гарантия Нашего Будущего-интеллект. — Ташкент: Узбекистан, 1998. — 256 с.

3. Хамидова М. Ш. Педагогические технологии воспитания молодежи в духе национальных Ценности. — Самарканд: САМДУ, 2021. — 195 с.

5. Личный опыт и нубивая автора.

Материалы, слишком многие в ходе педагогической деятельности и анкетирования студента Термезского государственного педагогического института (2024–2025 учебная и Бог).

1. Бекназарова, Л. Р. Интерактивы Методы Обучение в системе высшего образования. – Ташкент: IJOD, 2020..

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY VA UNING ILM-FAN RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Rajabova Zuhra Sa’dullayevna,
*t.f.f.d.(PhD), dotsent Urganch Ranch
texnologiya universiteti*

Xorazm zamini_azaldan jahon ilm fani va madaniyati rivojiga hissa qo‘shgan ko‘plab buyuk allomalarni etkazib bergan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xorazm vohasi va uning allomalari haqidagi so‘zlari, bu mintaqaning ma’naviyati nechog‘lik yuqori ekanligini ko‘rsatadi: “Xorazm jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan, milliy davlatchiligimizning tamal toshi qo‘yilgan betakror bir o‘lka”[1]. Xorazm dunyoga buyuk siymolarni etkazib bergan qadimiy maskan. Shu zaminda tug‘ilib o‘sgan o‘z davrining mashhur olimlaridan biri Mahmud az-Zamaxshariy (1074-1144) tilshunoslik, falsafa, tafsir, va boshqa ko‘plab sohalarda muhim asarlar yaratgan. Olimni Sharqda hurmat bilan “Ustoz-ul arab val ajam” (“Arablar va arab bo‘lmaganlar ustoz”) hamda “Faxr-u Xorazm” (“Xorazm faxri”) kabi sharaflı nomlar bilan atashgan[2]. Uning ilmiy merosi nafaqat o‘z zamonida, balki hozirgi kunda ham katta ahamiyatga ega. Zamaxshariyning yondashuvlari va g‘oyalari, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham o‘z aksini topmoqda. Olimning “Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi’z va-l-xutab” asari, ya’ni “Oltin munchoqlar” asari, talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xorazmda tugʻilib, Buxoroda oʻz davrining eng nufuzli olimlaridan saboq olgan Zamaxshariy oʻzining ilmiy fikrlarida, xususan, moʻtazila aqidalari rivojlantirgan. U Buxoroda mashhur olim Abu Mansur as-Saolibiydan taʼlim oladi va keyinchalik Bagʻdod, Makkadagi boshqa mashhur olimlardan ilm oʻrganadi. Ilmiy faoliyatida koʻplab, Abu Ali al-Husayn ibn Abdillahir-Buxoriy va Abu Ishoq al-Shirazi kabi ustozlardan saboq olgan. Ularning taʼsiri Zamaxshariyning islomiy fikrlari rivojida muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Yoshligida ogʻir kasallik tufayli bir oyogʻidan ayrilgan boʻlsa-da, ilmga boʻlgan ishtiyoqi uni oʻz davrining eng yirik olimlaridan biriga aylantirdi. U oʻzining ilmiy faoliyatida nafaqat nazariy, balki amaliy jihatlarga ham eʼtibor qaratgan. Uning ilmiy merosi, asosan, til va adabiyot sohalari rivojlanishga xizmat qilgan. Zamaxshariy yashagan davrda islomiy ilm-fan va madaniyat oʻzining eng yuqori choʻqqilaridan biriga etdi. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Qohira va Damashq kabi shaharlar ilmiy va madaniy markazlar boʻlib, koʻplab olimlar va mutafakkirlar shu erda toʻplangan edi. Zamaxshariy ham bu ilmiy muhitdan foydalangan va oʻzining ilmiy faoliyatini rivojlantirgan. Uning “Al-Kitab al-Mufasssal”, “Al-Kashshaf” (Qurʻon tafsiri), “Al-Muʼjam al-Wasit”, “Navobigʻu-l-kalim” (“Nozik iboralar”), “Atvoqu-z-zahab” (“Oltin shodalar”), “Rabiʼal-abror”, “Muqaddimat ul-adab”, “Ruusul-masail” “Muqaddamat al-adab” (Adab ilmiga kirish) “Asos al-balogʻa” (Balogʻat asoslari), “Savoir al-amsol” (Saralangan iboralar), “Javohirul-lugʻa” (Til javharlari), “Al-Asmo fil-lugʻa” (Tilshunoslikda ismlar) va boshqa asarlaridagi gʻoyalar zamonaviy ilm-fanga ham yuqori taʼsir koʻrsatgan.

Az-Zamaxshariy Makkada yashagan paytida yozgan arab tili grammatikasiga oid “Al-Mufasssal” asari Sharqda ham, Gʻarbda ham katta shuhrat qozongan. U qoldirgan boy ilmiy meros diniy ilmlar, arab tili grammatikasi, adabiyot nazariyasi, mantiq va falsafani oʻz ichiga olgan. Uning Xorazmshoh Abulmuzaffar Otsizga bagʻishlangan “Muqaddimat ul-adab” asari ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu asar besh qismdan iborat boʻlib, otlar, feʼllar, bogʻlovchilar va oʻzgarishlar haqida bahs yuritadi.

Olimning “Atvoq uz-zahab” asari, talabalarning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarda

axloqiy fazilatlar, yaxshi xulq, rostgo'ylik, do'stlik, yaxshilik ifodalanganligi bilan birga insonning ichki dunyosini, axloqiy qiyofasini va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

Zamaxshariyning islomiy huquqni o'rganishga qaratilgan "Ruusul-masail" asari uni hanafiy mazhabining vakili sifatida tanitgan. Bu asar hanafiylikning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning "Al-Kashshaf" asari Qur'on tafsiri sifatida tanilgan. Bu kitob Qur'on iboralarining sintaktik va semantik noaniqliklarini ochishga qaratilgan. Bu asar Qur'onning ma'nosini tushuntirishda yangi yondashuvlarni taqdim etadi. "Rabi'al-abror" asarida, u insonning rivojlanishi va shakllanishi uchun axloqiy tarbiyaning ahamiyatini ta'kidlab, inson kamoloti uchun zarur bo'lgan fazilatlar to'g'risida ko'plab iqtiboslar keltiradi. Asarda keltirilgan iqtiboslar, insonning etuk shaxs bo'lishi, ijtimoiy hayotda madaniyatli bilishi kerak bo'lgan barcha bilimlarni o'zida mujassam etganligi bilan ahamiyatlidir. Zamaxshariy fanning turli sohalariga oid asarlar yozgan bo'lsa-da, bizga shulardan ba'zilarigina etib kelgan. Allomaning asarlari ro'yxati turli manbalarda turlicha keltiriladi. Ilmiy izlanishlar natijasida Zamaxshariyning 66 ta asari borligi, ulardan 40 tasi dunyoning turli fondlarida saqlanayotgani ma'lum bo'lgan[3].

az-Zamaxshariyning arab tilining grammatikasi va sintaksisi bo'yicha kiritilgan yangi tushunchalar va ularning ilmiy ahamiyati, kelajak avlodlar uchun muhim manba hisoblanadi. Uning ilmiy merosining pedagogik ta'siri bugungi kunda ham juda muhimdir. Shuningdek, "Odamning qiyofasi va axloqi bilimga bog'liq" degan g'oyasi bilan yosh avlodni ilmga intilish va axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga chaqiradi. Zamaxshariy haqiqiy olim kishilarni yulduzlarga tenglashtiradi: "Osmon-u falakning ziynati yulduzlar bilan bo'lganidek, er-u zaminning ko'rkamligi olimlar bilandir" deydi. Ilm olishda qat'iyatlilik talab etiladi. Mahmud Zamaxshariy bu borada jiddiy munosabatda bo'lish, ortiqcha iltifotlarga berilmasdan ishlash lozimligiga ishora qiladi. Shuningdek, uning asarlarida ham safarlar chog'idagi qiyinchiliklarni engib o'tish, insonni kuchli, irodali va matonatli qilishi, turli vaziyatlardan kerakli xulosa chiqara bilishi dunyoqarashini boyishiga ham sabab bo'lishini ta'kidlab o'tgan. U qiyinchiliklardan qo'rqib, bir ishga

qo‘l urmaslik, jumladan, safar qilishdan saqlanish, ilm olmaslik kishini komillikka intilishdagi jiddiy kamchiliklaridan biri sifatida qaragan. Komil bo‘lishni xohlagan inson albatta, bardoshli bo‘lgandagina olim bo‘lishi komillikka erisha olishi lozim.

Ilm-fan rivojlanishida katta hissa qo‘shgan az-Zamaxshariy o‘z asarlarida ilmiy fikrni, mantiqiy tahlilni va tilni chuqur o‘rganishni birlashtirgan. Uning ishlarida mantiqiy fikrlash va tilning murakkabligi haqida chuqur mulohazalar mavjud. Bu esa keyingi avlod olimlari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

Shuningdek, az-Zamaxshariy o‘zining ilmiy faoliyati orqali islom madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. U o‘z zamonida mavjud bo‘lgan ilmiy an‘analarning davomchisi bo‘lib, yangi g‘oyalar va yondashuvlarni kiritgan. Uning asarlari nafaqat arab tilidagi ilmiy adabiyotda, balki butun islomiy ilm-fanda yangi yo‘nalishlar ochishga xizmat qilgan.

Jamiyat taraqqiyotida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ma‘lum darajada yosh avlodni aqliy va axloqiy tarbiyasi, estetik madaniyati va ma‘naviyatining yuksak darajada shakllanganligiga bog‘liq. Bu borada allomalar merosidan zamonaviy sharoitda samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Az-Zamaxshariyning fikrlari, zamonaviy ta‘lim tizimida axloqiy qadriyatlarni, ta‘lim jarayonida sabr-toqatni va qat‘iyatni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. U “Mukammal inson, har qanday qiyinchilikka dosh berish uchun sabrli bo‘lishi kerak” degan fikrni ta‘kidlaydi. U, bilim olishni qiyin, ammo zarur deb hisoblaydi: “Bilim olish qiyin, lekin jaholat yanada qiyin”. Uning fikrlariga ko‘ra, mukammal inson bo‘lish uchun bilimdan tashqari, axloqiy fazilatlar ham zarurligiga alohida e‘tibor qaratadi. Yoshlarning har tomonlama kamolga etishi, ma‘naviyatli barkamol shaxs sifatida shakllanishi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari bevosita ularga beriladigan ta‘lim va tarbiyaga bog‘liq.

Mahmud az-Zamaxshariy o‘zining ilm-fan rivojlanishidagi o‘rni bilan nafaqat o‘z zamonida, balki keyingi asrlarda ham ilmiy tafakkur va madaniyatning rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Uning merosi bugungi

kunda ham o'rganilmoqda va ilm-fan sohasidagi yutuqlarga ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi. (14.10.2017). <https://president.uz/>

3. O'zbekiston tarixi. A.S.Sagdullayev umumiy tahriri ositida. 1-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024.

4. Islomov. Z.M. Mahmud Zamaxshariy asarlarida tasavvufiy g'oyalar talqini // Toshkent islom universiteti ilmiy-tahliliy axboroti. 2-son, 2003.

5. Sulaymonova, N.A. Mahmud Zamaxshariy's Views on Human Characters. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 5(4), (2024). 78-80. <https://www.scholarzest.com>

6. Sapayeva, N.J. Mahmud Az Zamakhshariy hayoti va ilm yo'lida olib borgan faoliyati. *Scholar*, 1(31), (2023). 8-12. <https://t.me/openscholar>

MILLIY QADRIYATLAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASI HAMDA MILLIY O'ZLIKNI SHAKLLANTIRISH

Meylimuxametov Elyor Akbarovich,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar

instituti mustaqil tadqiqotchisi.

XXI asr insoniyat tarixida tub burilish davridir. Bu davrning eng muhim belgisi — **raqamli sivilizatsiyaning** shakllanishi, ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining chuqur kirib borishidir. Raqamli davr inson tafakkuri, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy munosabatlar mexanizmlarini ham o'zgartirmoqda.

Bugun axborot oqimlari soniyasiga millionlab ma'lumotlarni uzatmoqda. Sun'iy intellekt, metaverse, algoritmik boshqaruv, virtual ijtimoiy tarmoqlar — bular endi nafaqat texnik vosita, balki inson ongini shakllantiruvchi yangi madaniy muhitdir. Shu sababli, **raqamli davr faqat texnologik hodisa emas, balki ma'naviy-axloqiy, falsafiy va ijtimoiy hodisadir.**

Bu jarayon, tabiiyki, qadriyatlar tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Qadriyatlar — har bir jamiyatning ruhiy negizi, uning tarixiy tajribasi va madaniy kodini ifodalovchi asosiy tushunchadir. Ammo bugungi global muhitda qadriyatlar **transformsiyaga** — o'zgarishga, yangilanishga, ayrim hollarda esa yo'qolish xavfiga yuz tutmoqda.

Zamonaviy olimlardan Z. Bauman “suyuq zamon” tushunchasi orqali insonning barqaror qadriyatlardan uzoqlashganini, M. Castells esa “tarmoqli jamiyat” konsepsiyasida shaxsning yangi identiklik izlayotganini ta'kidlaydi. R. Inglehartning “postmaterialistik qadriyatlar” nazariyasi esa iqtisodiy o'sish va texnologik taraqqiyot ortidan axloqiy qadriyatlar siljishini asoslab beradi. Shu jihatdan, raqamli transformatsiya — bu avvalo **inson ruhiyatida sodir bo'layotgan chuqur madaniy jarayondir.** (1)

Mamlakatimizda ham bu jarayondan chetda emas. “O'zbekiston–2030” strategiyasida “raqamli iqtisodiyot”, “raqamli boshqaruv” kabi tushunchalar bilan bir qatorda, **“ma'naviy immunitetni mustahkamlash”** vazifasi alohida yo'nalish sifatida kiritilgan. Bu esa davlat siyosatida texnologik yutuqlar bilan bir qatorda, **ma'naviy barqarorlik** masalasi ham ustuvor ekanini ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, *“Raqamlashtirishdan maqsad-muddaomiz nima o'zi? Odamlarni rozi qilish, inson qadrini joyiga qo'yish, adolatni ta'minlash”.* (2)

Darhaqiqat, raqamli davrda inson axborot olamining markaziga aylandi. Ammo shu bilan birga, u global tarmoqlar, sun'iy ong va algoritmik tafakkur ta'siriga ham berilmoqda. Yosh avlod uchun bu holat **ma'naviy yo'nalishning o'zgarishi, an'anaviy qadriyatlarning zaiflashuvi, shaxsiy manfaat ustuvorligining kuchayishi** kabi holatlarni yuzaga keltirmoqda. Virtual muloqot real insoniy aloqalarni siqib

chiqarmoqda, axborotning haddan ziyod ko'pligi esa tafakkurda "ma'naviy charchoq" holatini tug'dirmoqda.

Shunday ekan, bugungi kunning eng dolzarb masalasi — raqamli davrda **qadriyatlar transformatsiyasining ijobiy va salbiy oqibatlarini tahlil qilish**, hamda **milliy qadriyatlar asosida raqamli madaniyatni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqishdir**.

Bu jarayonda biz uchun eng muhim masala — **milliy o'zlikni saqlagan holda global raqamli madaniyatga moslashishdir**. Milliy qadriyatlarimiz — oila, mehr-oqibat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, bag'rikenglik — asrlar davomida jamiyatni bir butun saqlab kelgan asosiy tayanchdir. Endilikda bu qadriyatlarni raqamli muhitda, zamonaviy texnologiyalar yordamida targ'ib qilish va yoshlar ongiga singdirish zarur.

Qadriyat tushunchasi insoniyat tafakkurida eng qadimiy falsafiy kategoriyalardan biridir. U jamiyatning ma'naviy hayoti, inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlarining mohiyatini ifodalaydi. Lotincha *valere* — "qimmat", "ahamiyat" so'zidan olingan "qadriyat" atamasi inson va jamiyat hayotidagi eng muhim ma'naviy, axloqiy, estetik, diniy, siyosiy va madaniy mezonlarni anglatadi. Qadriyatlar — bu insonning "nimani muhim deb bilishi", "nimalarga intilishi" va "nimani himoya qilishi" haqidagi ichki e'tiqodi bilan bog'liq tizimdir.

Falsafa tarixida qadriyatlar muammosi Platon, Aristotel, Kant, Hegel, Spinoza, F. Nitsshe, M. Sheler, M. Veber, E. Dyurkgeym, P. Sorokin kabi mutafakkirlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, M. Veber qadriyatlarni inson harakatlarini ma'nolantiruvchi ichki yo'nalish sifatida talqin qilgan bo'lsa, P. Sorokin qadriyatlar tizimini "madaniyatning yuragi" deb baholagan. Ularning fikricha, har bir davr o'z qadriyatlar tizimini yaratadi va jamiyat taraqqiyotining bosqichlari qadriyatlar transformatsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Zamonaviy sotsiologiyada qadriyatlar transformatsiyasi — bu ijtimoiy tizimning yangilanish jarayonida mavjud qadriyatlarning o'zgarishi, yangi qadriyatlarning paydo bo'lishi yoki eskilarining yangi ma'noda talqin qilinishidir. Globalizatsiya, texnologik taraqqiyot,

urbanizatsiya, migratsiya, internet va raqamli madaniyat bu jarayonning eng kuchli katalizatorlari hisoblanadi.

Raqamli davrda qadriyatlar o'zgarishining o'ziga xos jihati shundaki, endilikda inson hayoti **“analog” tafakkurdan “raqamli” tafakkurga** o'tayapti. Axborot tezkorligi, sun'iy intellekt, algoritmik tahlillar va virtual haqiqat insonning dunyoni idrok etish uslubini tubdan o'zgartirmoqda. Natijada qadriyatlarning **barqaror modeli** — ya'ni asrlar davomida shakllangan axloqiy me'yorlar, diniy qarashlar va milliy urf-odatlar — o'z o'rnini **dinamik modelga** bo'shatmoqda. Bu yangi modelda tezkorlik, innovatsion fikrlash, erkin individual tanlov, axborotdan samarali foydalanish kabi mezonlar markazga chiqmoqda.

Ammo bu o'zgarish har doim ijobiy yo'nalishda kechmaydi. Giperinformatsiya (axborot haddan ortiq ko'pligi) insonni “ma'naviy charchoq”, “axborotga tobelik”, “virtual shaxsiylik” holatiga olib kelishi mumkin. Natijada an'anaviy qadriyatlar — vatanparvarlik, mehr-oqibat, oila, hamjihatlik, mahalla birdamligi kabi asosiy mezonlar o'z mavqeyini yo'qotish xavfiga yuz tutadi. Shu bois raqamli davrda qadriyatlar transformatsiyasini o'rganish nafaqat nazariy, balki ijtimoiy xavfsizlik nuqtai nazaridan ham dolzarbdir.

O'zbekiston misolida bu jarayon o'ziga xos kechmoqda. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlar tiklandi, xalqimizning tarixiy xotirasi, diniy-ma'naviy merosi va milliy g'ururi qayta jonlandi. Shavkat Mirziyoyev rahbarligida “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyili davlat siyosatining g'oyaviy asosi bo'lib, qadriyatlar masalasiga yangi strategik yondashuvni belgilab berdi. Shu jarayonda raqamli taraqqiyot — “Elektron hukumat”, “Raqamli iqtisodiyot”, “Bir million dasturchi” dasturlari orqali modernizatsiya kuchaygan bir paytda, milliy qadriyatlarni asrash va ularni zamonaviy shaklda ifoda etish masalasi davlat e'tiborida turibdi.

Nazariy jihatdan, qadriyatlar transformatsiyasi jarayonini uch bosqichda tasvirlash mumkin:

1. Qadriyatlar o'zgarishining ijtimoiy-madaniy sabablari — yangi texnologiyalar, axborot tizimlari, global madaniyat oqimlari, iste'molchilik dunyoqarashi;

2. **O‘zgarishning psixologik-ma’naviy bosqichi** — inson tafakkuri, e’tiqodi, axloqiy oriyentatsiyalaridagi siljishlar;

3. **Moslashuv va yangilanish bosqichi** — milliy qadriyatlarning yangi sharoitga moslashuvi, ularning raqamli muhitda qayta talqini.

Bu bosqichlarning har biri o‘zaro chambarchas bog‘liq. Masalan, yoshlar orasida “virtual do‘stlik”, “internet orqali ta’sirlanish”, “trend qadriyatlari” kabi tushunchalar paydo bo‘lishi psixologik jihatdan yangi qadriyat tizimini shakllantiradi. Shu bilan birga, “ma’lumot madaniyati”, “axborot gigiyenasi”, “digital axloq” kabi yangi etik kategoriyalar vujudga kelmoqda. (3)

Xulosa qilib aytganda, qadriyatlar transformatsiyasi — bu eski qadriyatlarning yo‘qolishi emas, balki ularning zamon talabiga mos shaklda yangilanishidir. Milliy qadriyatlarning hayotiyeligini saqlab qolish uchun ular zamonaviy sharoitda yangicha mazmunga ega bo‘lishi, yoshlar ongida raqamli tafakkur bilan uyg‘un tarzda shakllanishi lozim. Shu yo‘l bilangina biz milliy o‘zligimizni asrab, global axborot oqimida ma’naviy immunitetni mustahkamlashga erishamiz.

Raqamli jamiyatda ma’naviy inqiroz va yangi qadriyatlar shakllanishi

Raqamli jamiyat — bu insoniyat tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimining yangi bosqichidir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiyot, siyosat yoki ta’lim sohasida, balki insonning **ma’naviy hayoti va dunyoqarashini** ham tubdan o‘zgartirmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan “*Har bir soha va hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat rivojlanmaydi.*” deganlari ham bejiz emas. Bu fikr zamirida jamiyat taraqqiyoti bilan bir qatorda, insonning ma’naviy qiyofasini ham zamonga moslashtirish zarurati mujassam.

XXI asr olimlari — M. Kastels, D. Bell, E. Tofflerlarning ta’kidlashicha, “axborot jamiyati” insoniyat tarixidagi yangi sivilizatsion bosqich bo‘lib, unda axborot ishlab chiqarish vositasiga, bilim esa asosiy kapitalga aylanadi. Ammo bu jarayon bilan birga **ma’naviy inqiroz**

alamatlari ham kuchaymoqda. “Posthaqiqat” (post-truth) davrida yolgʻon, manipulyatsiya va axborot ortigʻining jamiyatga taʼsiri natijasida qadriyatlar barqarorligi susaymoqda. Inson oʻz eʼtiqodi va axloqiy mezonlarini virtual muhit orqali shakllantirayotgani sababli, haqiqat va soxtalik oʻrtasidagi chegaralar tobora xiralashmoqda. (4)

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy inson uchun “yangi maʼnaviy maydon”ga aylanmoqda. “Like madaniyati” deb ataluvchi hodisa shaxsning oʻzini baholash tizimini tashqi koʻrsatkichlarga — obunachilar soni, layklar va koʻrishlar miqdoriga bogʻlab qoʻymoqda. Bu esa insonning ichki axloqiy qadriyatlarini emas, balki tashqi tasdiqqa asoslangan “virtual oʻzlik”ni shakllantiradi. Shu sababli koʻplab psixologlar buni “raqamli egoizm” deb ataydilar. (5)

BMTning 2024-yilgi “Digital Human Development Report”ida qayd etilishicha, dunyo yoshlarining 62 foizi kuniga oʻrtacha 6 soatdan ortiq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda oʻtkazadi.

Oʻzbekiston boʻyicha esa Statistika agentligi maʼlumotlariga koʻra, 2023-yilda 14–30 yoshli aholining 78 foizi muntazam raqamli kontent isteʼmol qiluvchilarga aylangan. Bu esa anʼanaviy qadriyatlar, oilaviy muloqot, jamoaviylik ruhining susayishiga olib kelayotganini koʻrsatadi.

Shunga qaramay, raqamli muhit — bu faqat inqiroz emas, balki yangi qadriyatlar shakllanayotgan maydondir. Masalan, **Oʻzbekiston “Digital Uzbekistan – 2030” strategiyasi** doirasida raqamli texnologiyalar orqali **taʼlimni modernizatsiya qilish** ishlari olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi faoliyati yangicha tarzda olib borilmoqda. Endi faqat anʼanaviy targʻibot bilan cheklanib qolmay, raqamli (onlayn) targʻibotga ham katta eʼtibor berilmoqda. Shu sababli, **2025-yilda 4000 ga** yaqin ijtimoiy videolar, postlar va boshqa kontentlar orqali yoshlar ongiga maʼnaviy va maʼrifiy gʻoyalar etkazilmoqda.

Yana bir eʼtiborga molik jihat — yangi avlod qadriyatlarining oʻzgarishida **axborot xavfsizligi va raqamli madaniyat** masalalari muhim oʻrin tutmoqda. YuNESKOning 2023-yilgi “Digital Humanism Declaration” hujjatida aytilishicha, **“raqamli inqirozning oldini olish**

uchun inson markazidagi texnologik tafakkur shakllanishi lozim". Bu g'oya O'zbekiston sharoitida ham dolzarb — chunki har bir raqamli foydalanuvchi nafaqat axborot iste'molchisi, balki ma'naviy qadriyatlar targ'ibotchisiga aylanishi kerak.

Demak, raqamli jamiyatda ma'naviy inqiroz — bu qadriyatlarning emirilishi emas, balki ularning **moslashuvi va yangilanishi** jarayonidir. Milliy qadriyatlar — oila, ota-onaga hurmat, insoniylik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik — raqamli tilda, zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali ifodalanayotgan yangi shaklga ega bo'lmoqda. Asosiy vazifa — bu qadriyatlarni **raqamli madaniyatga mos tarzda, lekin ularning asl mohiyatini saqlagan holda** targ'ib qilishdir.

O'zbekistonda milliy qadriyatlarni asrash va ularning yangilanish mexanizmlari

Raqamli davrda har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi, eng avvalo, uning milliy qadriyatlar tizimining mustahkamligiga bog'liq. O'zbekiston uchun bu masala nafaqat ma'naviy, balki siyosiy, madaniy va mafkuraviy barqarorlikning muhim kafolatidir. Chunki milliy qadriyatlar — xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy ong ildizlari va kelajak avlodlar tarbiyasining ma'naviy poydevoridir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning *"Milliy qadriyatlarimiz – xalqimizning asrlar davomida shakllangan bebaho boyligi bo'lib, ular bizning bugungi hayotimizni mazmun bilan to'ldiradi, ertangi kunimizni esa nurafshon qiladi"* degan fikrlari bu borada aniq g'oyaviy yo'nalishni belgilaydi. Unga ko'ra, milliy qadriyatlarni asrash – faqat o'tmishni saqlash emas, balki ularni zamon ruhiga mos ravishda yangilash, raqamli ijtimoiy hayotda faol ifodalashdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda bu yo'nalishda kompleks tizim shakllandi. Shu jarayonda mahalla, oila va ta'lim muassasalari o'rtasida ma'naviy hamkorlik modeli shakllanib, yoshlar ongiga milliy o'zlik, tarixiy xotira, mehr-oqibat, vatanparvarlik va bag'rikenglik kabi qadriyatlar singdirilmoqda.

Raqamli asr esa qadriyatlarni faqat og'zaki yoki an'anaviy vositalar orqali targ'ib qilish bilan cheklanmaslikni talab etadi. Endi bu jarayon

raqamli kontent, madaniy kommunikatsiyalar, virtual platformalar orqali ifodalanmoqda. “Milliy meros”, “Virtual muzeylar”, “O‘zbek kino onlayn” kabi raqamli loyihalar yoshlarning tarixiy xotiraga texnologik yo‘l bilan ulanayotganini ko‘rsatadi. Shu orqali qadriyatlar nafaqat saqlanmoqda, balki yangi shaklda tiklanib, zamonaviy kommunikativ madaniyat bilan uyg‘unlashmoqda.

O‘zbekistonda qadriyat siyosati jahon tajribasidan farqli o‘laroq, modernizatsiya va milliylikni integratsiyalash tamoyiliga asoslanadi. Bu yondashuvda texnologik yutuqlar milliy o‘zlikka zid emas, balki unga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin etiladi. Masalan, axborot texnologiyalaridan ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalar targ‘ibotida foydalanish, sun’iy intellekt orqali madaniy merosni raqamlashtirish, ijtimoiy tarmoqlarda milliy o‘zlikni ifodalovchi raqamli trendlarni rivojlantirish – bularning barchasi yangi davrda qadriyatlarimizning raqamli “hayotiy davomi”dir.

Shu bois milliy qadriyatlarni saqlash va yangilash jarayoni endilikda raqamli madaniyat bilan uyg‘un holda olib borilishi zarur. Bu uyg‘unlik orqali O‘zbekiston o‘zining tarixiy ildizlarini yo‘qotmasdan, global madaniyat bilan bir qatorda rivojlanayotgan, o‘ziga xos milliy ruhni asrab qolgan zamonaviy jamiyat sifatida shakllanib bormoqda.

Raqamli texnologiyalar va yoshlar ma’naviy dunyosining o‘zaro ta’siri

Raqamli inqilob bugungi yoshlar tafakkurining eng faol shakllanish bosqichida kechayotgani sababli, bu jarayon ma’naviy qadriyatlar tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. XXI asr avlodi – “raqamli tug‘ilish” (digital natives) deb ataluvchi yoshlar uchun virtual makon nafaqat muloqot va axborot manbai, balki **ma’naviy-axloqiy ijtimoiylashuv** maydoniga aylangan. (6)

2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar agentligi tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlarning 67 foizi ijtimoiy tarmoqlarda kuniga 4 soatdan ortiq vaqt o‘tkazadi, ularning yarmidan ko‘pi esa **axborot manbaini “internet” orqali shakllantiradi**. Bu esa o‘z navbatida, qadriyatlar tizimining asosiy elementlari –

mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlik, shukronalik kabi fazilatlar tobora **virtual tasavvurlar bilan aralashib ketayotganini** ko'rsatadi.

Raqamli makonning ijobiy jihati shundaki, u yoshlar ongida global tafakkur, innovatsion g'oyalar va ilmiy qiziqishni kuchaytiradi. Shu bilan birga, bu jarayonning **axloqiy asoslari zaif nazorat ostida** kechayotgani sababli, "axborot inflyatsiyasi" va " mantiqiy tanqidga asoslanmagan fikrlash" xavfini tug'diradi. Psixologik tadqiqotlarda bu holat "raqamli stress" yoki "axborot charchoqligi" (information fatigue syndrome) deb ataladi. (7)

Ma'naviy tahlil nuqtayi nazaridan, raqamli texnologiyalar insonning ichki dunyosida ikkiyoqlama ta'sir ko'rsatadi:

bir tomondan, **bilim olish, ijodiy rivojlanish va dunyoqarash kengayishiga** xizmat qiladi;

boshqa tomondan esa, **insoniy munosabatlarda hissiy sovuqlik, empatiya tanqisligi va individualizmni kuchaytiradi.**

O'zbekiston sharoitida bu muvozanatni ta'minlash uchun davlat siyosatida axborot madaniyatini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada ta'lim sohasida **institutsional yondashuv shakllanmoqda.**

Shunga qaramay, yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash uchun **raqamli texnologiyalarni iste'molchi sifatida emas, yaratuvchi sifatida o'zlashtirish** zarur. Bu yo'nalishda **milliy identifikatsiyaga asoslangan raqamli kontent** yaratish, o'zbek madaniyatini, tarixini va ma'naviy merosini yoshlar uchun **interaktiv formatlarda taqdim etish** muhim strategik yo'nalish bo'lib bormoqda.

Natijada, raqamli texnologiyalar va yoshlar ma'naviy dunyosi o'rtasidagi munosabatni **rivojlanishning qarama-qarshi emas, balki uyg'unlashgan bosqichi** sifatida ko'rish kerak. Chunki ma'naviyatning o'zi ham dinamik hodisa bo'lib, vaqt va texnologiya bilan birgalikda o'zgaradi. Asosiysi, bu o'zgarish insonni ma'naviy inqirozga emas, balki yangicha yuksalishga olib boradigan yo'nalishda boshqarilishi lozim.

Raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib kelar ekan, jamiyatning ma'naviy-axloqiy barqarorligiga tahdid soluvchi yangi turdagi xavf va muammolar paydo bo'lmoqda. Eng avvalo, **“axborot xavfsizligi”** tushunchasi endilikda faqat texnik himoya bilan emas, balki **ma'naviy xavfsizlik** bilan ham bevosita bog'lanmoqda. Axborot makonidagi mafkuraviy ta'sirlar, soxta qadriyatlar targ'iboti, virtual g'oyalar oqimi yoshlar ongida **identifikatsion inqirozni** keltirib chiqarmoqda.

UNESCO'ning 2024-yilgi “Youth and Digital Culture” hisobotida qayd etilishicha, dunyo bo'yicha 16–29 yoshdagi yoshlarning 72 foizi internet orqali “madaniy va ijtimoiy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini” shakllantiradi. Shu bilan birga, ularning 38 foizi o'z milliy qadriyatlari va global qadriyatlar o'rtasida “konflikt sezadi”. Bu raqamlar **madaniy ixtilof va ma'naviy noaniqlik xavfining** o'sayotganidan dalolat beradi.

Yurtimizda ham mazkur holatning ayrim ko'rinishlari kuzatilmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda ayrim yoshlar orasida “individualizm”, “moda madaniyati”, “tarmoq orqali mashhurlikka erishish” kabi hodisalar qadriyat sifatida qabul qilinmoqda. Bu esa **“ma'naviy relativizm”** (ya'ni har bir narsa subyektiv, o'zicha to'g'ri deb qabul qilinishi) tendensiyasini kuchaytiradi. Shu bilan birga, ma'naviy tahlillarda bu jarayon **“shaxsiy qadriyatlarning globallashuvi”** deb ham yuritiladi. (8)

Bu muammolarni bartaraf etish uchun, avvalo, jamiyatda **raqamli ong va ma'naviy immunitet** o'rtasidagi muvozanatni yaratish zarur. Ma'naviy immunitet — bu insonning yot g'oyalarni tanqidiy qabul qilish, qadriyatlarni tahliliy baholash va ularni shaxsiy hayot mezonlari bilan uyg'unlashtirish qobiliyatidir. Shu bois,

Yana bir dolzarb muammo — bu **axborot asrida tafakkur soddalashuvi**. Raqamli tarmoq algoritmlari insonning qiziqishlariga mos kontentni taklif qilgani sababli, foydalanuvchi ongida **“axborot pufagi”** (information bubble) hosil bo'ladi. (9) Natijada, yoshlar turli fikrlarni tanqidiy tahlil qilish imkonidan mahrum bo'lib, bir yoqlama fikrlashga odatlanadi. Bunday holat ma'naviy qarashlarning torayishiga, ijtimoiy muloqot madaniyatining pasayishiga olib keladi.

Bu xavflarga qarshi kurashishning eng samarali yo‘li — **media va raqamli savodxonlikni milliy ma’naviyat bilan uyg‘unlashtirish**dir. Yoshlar uchun ishlab chiqilayotgan o‘quv dasturlarida axborotni tahlil qilish, manbalarni solishtirish, soxta ma’lumotlarni aniqlash bo‘yicha amaliy modullar kiritilishi muhim. Shu bilan birga, tegishli tashkilotlar, ta’lim tizimi va OAVlar hamkorligida **“raqamli etikani shakllantirish”** zarur. (10)

Amaliy echim sifatida quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi:

Milliy raqamli kontent ishlab chiqarishni kengaytirish (ma’naviyat, tarix, o‘zlik mavzularida interaktiv loyihalar yaratish);

Ta’lim tizimida raqamli modullarini joriy etish (har bir oliy ta’lim muassasasida “Raqamli madaniyat va axloq” fanini tatbiq etish);

Ommaviy axborot vositalarida tahliliy, tarbiyaviy materiallarni ko‘paytirish, yosh bloggerlar va kontent yaratuvchilarni bu yo‘nalishdagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;

Virtual platformalarda ijtimoiy-psixologik monitoring tizimini kuchaytirish, zararli axborot oqimlariga qarshi intellektual filtrlash mexanizmlarini yaratish.

Shunday qilib, raqamli davrning muammolari va xavflarini engish uchun, bizdan nafaqat texnik bilim, balki **chuqur axloqiy va g‘oyaviy yondashuv** talab etiladi. Qadriyatlar transformatsiyasi jarayonini boshqarish — bu zamonaviy taraqqiyotning eng muhim ma’naviy mezonidir.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. T.: Tahliliy markaz, 2022.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ma’ruzalari va strategik hujjatlari, jumladan “O‘zbekiston–2030” strategiyasi va raqamli iqtisodiyotga doir rasmiy hujjatlar.

4. Kastells M. *Tarmoq jamiyatining ko'tarilishi (Axborot davri: Iqtisod, jamiyat va madaniyat, 1-jild)*. Blackwell / Wiley, 1996 (2-chi nashr, 2000).

5. Zygmunt Bauman. *Suyuq zamon* (angl. Liquid Modernity). John Wiley & Sons, 2000.

6. Manuel Castells. *Tarmoqli jamiyat: Axborot davri – iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat* (angl. The Information Age: Economy, Society and Culture Vol. I). Blackwell, 1996.

7. Ronald Inglehart. *Modernizatsiya va postmodernizatsiya: 43 ta jamiyatdagi madaniy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar* (angl. Modernization and Postmodernization). Princeton University Press, 1997.

8. Turkle S. “Yolg'izlikda birga: Nega biz texnologiyadan ko'proq narsani, bir-birimizdan esa kamroq narsani kutamiz”. New York: Basic Books, 2011.

9. Pariser, E. *The Filter Bubble: Internet sizdan nimani yashiryapti?* New York: Penguin Press, 2011.

10. Mirzayeva R. X. “Yoshlar tarbiyasida ma'naviy va ma'rifat tushunchasining ahamiyati va ilmiy tahlili.” *Tadqiqotlar.UZ*, 2023, 24 (1), 169–174.

11. Mullaboyev U. A. “Raqamli texnologiyalar va yoshlar: zamon talabi.” *Yurt Faxri*, 2024.

12. <https://yuz.uz/uz/news/yoshlar-ongida-axborot-tahdidlarga-qarshi-ananaviy-qadriyatlarning-zamonaviy-ifodasini->

13. https://uza.uz/oz/posts/manaviyatli-yoshlar-yurt-kelajagi-poydevori_684567

ABDUXOLIQ G'JDUVONIY TRIADASI VA MUVAFFAQIYATLI YOSHLAR TARBIYASI

Shavkat Ahralov,

Qori Niyoziy nomidagi

Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti.

Internetda shaxsni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab platformalar, vebinarlar, podkastlar mavjud (Amaliy fanlar akademiyasidagi Oleg Malsev seminarlari, [1], «Sifat standarti» markazi, odam xulqini o'rganish markazi va h.k.[2] Bular bugunning gaplari. Bundan 600-yil oldin tarbiya nima uchun kerakligining universal javobini asoslab bergan bobomiz Jaloliddin Davoniy(1427-1502 "Tariqati tarbiyat ul-avlod" ("Bolalarni tarbiyalash usuli") va o'zining eng yirik risolasi - "Axloqi Jaloliy"ni bitib ketgan. Bu asarlar 1470-1478-yillar orasida yozilgan bo'lib, ularda axloqiy tarbiya masalalariga ag'ishlangan. Shuning uchun bu kitoblarni tarbiya nazariyasining eng muhim manbalari deb qaraymiz. Mutafakkirning talqinicha, axloq(xulqlar haqidagi) fani kishilarning amaliy faoliyati, tafakkuri bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun alloma xulq muammolarini falsafiy, ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan bir qatorda ko'radi.

Davoniy kashf etgan muhim pedagogik qonuniyatlardan biri - inson fazilatlari yoshlikdan, tarbiya natijasida, kishilar bilan o'zaro munosabatlarda kasb etilishidir. Har bir fazilat vaqt o'tishi bilan yangilanishi va o'zgarishi(demak, yo'qolishi ham(Sh.A.) mumkin. Chunki «Agar (inson) xulqi, — deb yozadi olim, — o'zgaruvchi bo'lmaganida edi, siyosat va tarbiyaning keragi bo'lmas edi»[3].

Bu ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun fundamental kashfiyot bo'lib, ma'rifat, din, siyosat, san'at, adabiyot, xalq og'zaki ijodiyoti, folklor, kino va boshqa ijtimoiy ong shakllarining paydo bo'lish, rivojlanish sababini ochib beradi. Afsuski, biz buyuklarning tarbiya haqida aytgan hikmatlarini, aforizmlarini takror takror aytaymiz. Lekin sirtidan qaraymiz, "ichiga" kirmaymiz. "Mana shu hikmatni rekonstruksiya qilib ko'raylik-chi", deb harakat qilmaymiz. Vaholanki, biz faxrlanadigan buyuk bobolar xulqini nazariy masala deb qarashmagan. Aniq operatsiyalar, xatti-harakatlar

konstruksiyasi, zanjiri deb tushunishgan. Buning umuminsoniy tasdig'i bormi? Bor. Dunyoda barcha xalqlarning maqollari real xulq konstruksiyasini, modelini ifodalaydi. Bu tahlildan bir o'ta muhim, fundamental xulosa chiqadi. Ya'ni xulq – ob'ektiv hodisa. U triggerdan boshlanadi, davom etadi, yakunlanadi. Xulqni ko'rish, sezish, kuzatish, qayd qilish mumkin. Bu esa pedagogika fani ham nazariy, gumanitar, ham aniq fan ekanligini tasdiqlaydi.

Asrlar o'tdi. Biroq, xulq masalasining mohiyati o'zgargani yo'q. Odamning maqsadga ytish vositalari, texnika va texnologiyalari o'zgardi, modernizatsiyalashdi. Lekin odamlarga xos fazilatlar va ularning antonimlari ro'yxati o'zgargani yo'q. Xuddi shuningdek, buyuklarimizning muvaffaqiyatga erishish uchun zarur DK(dravver kompetensiyalar) haqidagi hikmatlari ham o'zgargani yo'q.

Hazrati Xoja Abduxoliq G'ijduvoniyni XIII asrda yaratgan "G'ijduvoni uchligi" bilan bugungi kunimizga bir qaraylik. Ana shunda bilim ovqatlanishda ham, mashina haydashda ham, davolanishda ham, bola tarbiyalashda ham, androidni ishlatishda ham, e'tiqodda ham, fermerlikda ham – har bir ishning muvaffaqiyat kafolati bo'lib chiqaveradi. Ya'ni 1) "nima qilmoqchi bo'lsangiz, shu ishning ilmiy asosini biling. 2) Bildingizmi, ish qilayotganingizda bilganingizga amal qiling. 3) Amal(ish)ni ilmiy asosda qilayapsizmi, endi uni ixlos bilan bajaring.[4]

Demak, G'ijduvoni triadasining interpretatsiya qilsak, unga ko'ra odamning omadsizligiga 3 sabab bor. Bular: 1) qilayotgan ish xulqining ilmiy asoslarini bilmaslik; 2) ilmiy asoslarga amal qilmaslik, kompetentsizlik; 3) bajarishda sustkashlik, g'ayratsizlik ekan. Muammoning pedagogik sababi nimada? Sabab – trener, ustoz, ustod, kouch tomonidan shu ishni qiluvchiga (shogirdga, o'quvchiga) muvaffaqiyat keltiruvchi dravver kompetensiyalarni o'rgatilmaganligidir.

Pedagogika o'zining bifurkatsiya nuqtasiga etib keldi. An'anaviy pedagogik tizim o'ziga bog'liq bo'lmagan tashqi ta'sirlar natijasida o'zgardi. Pedagogik beqarorlik yuzaga keldi. Bilim ko'p, kompetensiyalar kamligi sezilayapti. Chunki bilimlarning kompetensiyalarga aylanishi kamayib borayapti. Chunki pedagogik bilimlarni kompetensiyalarga

aylantira olmayapti. Bu holdavom etaversa, yo xaos bo'ladi, yo "bilim-kompetensiya" transformatsiyasi o'zining yangi tartibiga ega bo'ladi.

Biz bu stixiyani boshqarishimiz kerak. buning uchun Xay tek tarbiyani yo'lga qo'yishimiz kerak. Xay tek tarbiya bu — Modernizatsiya, Texnologiyalashuv. Algoritmashuv. Minimallashtiruv. Axborotlashuv. Taym menejment. Operatsionallashuv. Neobixeviorizm. Kouching kabi nisbatan avtonom, biroq, tizimli zanjirdan iborat.

Hayot tempining tezlashishi, sun'iy intellekt(SI) odamlarning xulqiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Futurolog Elvin Tofflarning fikricha, biz raqamli, axborot va texnologik revolyusiyalar davrida yashayapmiz. Toffler vafot etdi, lekin o'tayotgan yillar uning bashoratlarini tasdiqlamoqda.

Buning pedagogikaga aloqador jihatlari nimada? Pedagogika inson tarbiyasi to'g'risidagi fan. Shunday ekan, u hayot talablariga ergashmasligi, aksincha, hayot talablaridan oldinda yurishi kerak. Chunki yoshlarga o'z talablarini "kechagi kun" emas, hatto "bugungi kun" ham emas, balki "ertangi kun" qo'yadi. Biroq, bu prinsip bajarilmayapti. Tarbiya pedagogikasi hayot talablaridan ortda qolayapti. Bu kechikish yigit-qizlarni mustaqil hayotga qaytadan, kechikib, qayta, tayyorlanib kirib borishlarida namoyon bo'lmoqda. Natijada maktablarni bitirgan yigit va qizlarning bir qismi mustaqil hayotga ma'naviy va malakaviy tayyorlanmasdan kirib borishmoqda. Buning oqibatida ishsizlar, ijtimoiy himoyaga muhtojlar, ajrimlar, jinoyatlar ko'paymoqda. «Hayot tempi bu – faqat suhbatlarda bir birimizga aytib, keyin xo'rsinib qo'yadigan yoki hazillashib aytiladigan ibora emas. Bu biz amaliy hayotda inkor qilayotgan o'ta muhim, real voqelikdir. Afsuski, ta'lim-tarbiya buni o'rganib, odamlarni superindustrial jamiyatda mahsuldor rollarga tayyorlashga tayyor emas»[5].

Demak, asrlar davomida bir tomondan, didaktikaga ustuvorlik berish stereotipi tarbiyaga salbiy ta'sir qildi. Ikkinchi tomondan, tarbiyaga mavhum gaplar, nasihat, deb qarash unga texnologik jarayon, deb qarashga yo'l bermay keldi. Buning oqibatida tarbiya nazariyasi va metodikasi hamon didaktikaning "soyasida" qolayapti. Demak, XXI asr tarbiyasining konseptual asoslarini zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos holda ishlab chiqish pedagogikaning dolzarb vazifasi, deb hisoblash mumkin.

“Nima qilmoq kerak?” degan savolga, nazarimizda har bir yosh davri bo'yicha tarbiyalangan shaxs modelini yaratish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ya'ni, agar inson ontogenezing har bir yosh davri bo'yicha ideal tarbiyalangan shaxs modeli yaratilsa(masalan, muvaffaqiyatli o'zbekistonlik Modeli) va ushbu modellar(maqsadlar)ga erishish texnologiyalari(ya'ni O'zbekiston yoshlarini muvaffaqiyatli shaxslar qilib tarbiyalash mazmuni, strukturasi, usullari, vositalari, shakllari) aniq bo'lsa, hamda bu tarbiya texnologiyalari o'zida: yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan o'zbekistonliklarning pedagogik tarixi, tarbiya andozalari, tayanch, bazaviy drayver kompetensiyalari(DK) tarkibini, O'zbekiston maktablari o'quvchilarida tayanch DKlarning yoshlariga mos shakllanganlik mezon va darajalarini qamrab olgan bo'lsa, ushbu ma'lumotlar asosida O'zbekiston yoshlarini muvaffaqiyatli shaxslar qilib tarbiyalashning milliy tarbiya nazariyasi va metodikasi yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4676839>
2. Najot tarbiyada/X.Ibraimov, M.Quronov, F.Boqiyev. – Toshkent, “Noshir”, 2024. 62 b.
3. Deci, E.L., Ryan, R.M. Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. New York: 2016, Plenum.
4. Quronov M. Singulyar pedagogika nazariyasiga chizgilar//. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 2024-yil 10 dekabr. T.N.Qori Niyoziy nomidagi TPMTI.
5. Maslou, A. Motivatsiya i lichnost. Sankt-Peterburg: Piter. 2008.
6. Rodjers, K. Stanovleniye lichnosti: Vzgl'yad na psixoterapiyu. Moskva: Institut obshchegumanitarnykh issledovaniy. 2016, 280 s.
7. Vudstok, M., Frensis, D. Raskreпoщennyy menedjer. Dlya rukovoditelya-praktika. Moskva: Delo. 2015, 32 s.

8. Arens, A.K., Marsh, H.W., Pekrun, R., Lichtenfeld, S., Murayama, K., vom Hofe, R. (2018). An integrated model of academic self-concept development: Academic self-concept, grades, test scores, and tracking over 6 years. *Developmental Psychology*, 54(3), 397-411.

9. Maxmudov A. X., Fefelov V. S., Kamilova A. B. Innovatsionnye puti pedagogicheskogo progressa //Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). – 2019. – №. 6 (79). – S. 3-9.

MILLIY QADRIYATLAR VA UMUMINSONIY TAMOIYILLAR: YANGI AVLOD TARBIYASINING FALSAFASI

Hayitmurodov Ilxom,

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat
markazi mas'ul xodimi*

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim nafaqat bilim berish, balki shaxsning ma'naviy va axloqiy jihatdan shakllanishida ham muhim rol o'ynamoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik munosabat alohida o'rin egallaydi. Milliy qadriyatlar – bu avlodlar davomida shakllangan, xalqning tarixi, madaniyati va an'analari asosida paydo bo'lgan ma'naviy boylikdir. Umuminsoniy qadriyatlar esa butun insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan prinsiplar va tamoyillarni ifodalaydi, bular orasida tinchlik, adolat, inson huquqlari, erkinlik va insonparvarlik tushunchalari mavjud.

Ta'limning asosiy vazifalaridan biri – milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda, shaxsning ongli va ma'nan boy bo'lib etishishiga xizmat qilishdir. Har qanday jamiyat o'ziga xos madaniy meros va diniy an'analari asosida shaxslarni tarbiyalaydi, shu bois milliy qadriyatlarni e'tibordan chetda qoldirish ta'lim jarayonida jiddiy kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar, milliy madaniyatlar bilan birgalikda, ta'lim jarayonida

universal ma'noni kuchaytiradi va insoniyatning umumiy qadriyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Tadqiqotchilar umuminsoniy qadriyatlarni taqsimlashda o'zlarining yondashuvlarini ishlab chiqadilar. Shunday qilib, V.A.Karakovskiy ularga quyidagilarni kiritish kerakligini ilgari suradi: "Tinchlik, er, Vatan, oila, mehnat, madaniyat, bilim, Xudo, erkinlik, baxt, eng oliy qadriyat inson" [1]. Boshqa manbalarda turli xil qadriyatlar to'plami ta'kidlangan: haqiqatga intilish, jamiyatning ijtimoiy farovonligi, ijtimoiy adolat, axloqiy gumanistik me'yorlar va boshqalar. Mualliflarning ta'kidlashicha, albatta, ro'yxat tugamagan va tizim ochiq. Bundan qanday xulosalar kelib chiqishi kerak? Umuminsoniy qadriyatlar, ahamiyatini kamsitib ham, bo'rttirib ham bo'lmaydi, faqat mazmunni belgilashi mumkin, bu esa, o'z navbatida, tarbiyada umuminsoniy va milliylikning o'zaro aloqadorligi dialektikasidan kelib chiqadigan muayyan mazmun bilan to'ldirilishi lozim. Ushbu tadqiqot nuqtai nazaridan pedagogik jarayonda an'anaviy milliy qadriyatlar kabi umumbashariy ahamiyatga ega emasligiga e'tibor berish muhimdir. Yosh avlodlarni tarbiyalash va o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan dinning madaniy qadriyatlari har qanday millat madaniyati manbasida yotishini aniq ilmiy haqiqat deb hisoblash mumkin. Ushbu qadriyatlar milliy madaniyatning muhim qismi bo'lib, u jamoat axloqini tartibga soluvchi sifatida asosiy rol o'ynadi. Shuni e'tirof etish kerakki, zamonaviy pedagogik ta'lim, birinchi navbatda, jahon dinlari – xristianlik, islom va buddizm vakillari bo'lgan an'anaviy ma'naviy institutlarni jonlantirish bilan bog'liq holda butun mamlakatdagi diniy vaziyatni o'zgartirish omilini hisobga olmaydi, shuningdek, ikkinchidan, maktab sinflaridagi vaziyatning o'zgarishi, bolalar o'z stollarida o'tirib, o'zlarini bir yoki boshqa konfessiyalar bilan tanishtirishlari omilini hisobga olmaydi. Ushbu konfessiyalarning har biri o'zining an'anaviy madaniyatiga muvofiq, ta'lim jarayonlariga kuchli ta'sir arsenaliga ega va buni bilish va hisobga olish kerak.

Hayotning barcha sohalarini qamrab olgan inqiroz sharoitida, jamiyat dunyoqarashining impulsiv va notinch fermentatsiyasi holatida bo'lganida, nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy hayotda ham birinchi o'rindagi o'zagi

an'anaviy ma'naviy qadriyatlar bo'lgan ma'naviy madaniyat sohasiga murojaat qilish g'oyasi tobora kuchayib bormoqda. Bu an'anaviy qadriyatlarga maxsus murojaat qilish zarurati holatini belgilaydi, shu tufayli umuminsoniy qadriyatlar yanada chuqurroq va aniqroq tarkib bilan to'ldiriladi, bu ularning ta'limdagi o'rni va ahamiyatining oshishiga olib keladi.

An'anaviy jamiyat ma'naviy qadriyatlarining muhim xususiyatlariga quyidagilar kiradi: "birinchidan, ajdodlar — dastlab tarixiy tanlovga aylangan, umuman jamiyat etnik guruhining madaniyati, an'analarini shakllantirgan qadriyatlar; ikkinchidan, davlat, odamlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan madaniyatni shakllantiruvchi tabiat qadriyatlari, va uzoq vaqt davomida madaniyat; uchinchidan, xalqning kundalik turmush tarzining asosini tashkil etgan, ularning tiliga, urf-odatlariga kirgan va dunyoqarashining arxetipiga aylangan qadriyatlar; to'rtinchidan, milliy madaniyatni boshqa mamlakatlar va xalqlar madaniyatidan farq qiluvchi asl qadriyatlar" [2].

Asosiy milliy qadriyatlar (oilalar, ish, din, tabiat, davlat, san'at va boshqalar.) inson ma'naviy dunyosi, vatanparvarlik, ona-yurt, adolat, mehr-oqibat, hamjihatlik, sha'n, qadr-qimmat, erkinlik, odamlarga, davlat muassasalariga ishonch, dinlararo muloqot asosida shakllangan bag'rikenglik haqidagi an'anaviy e'tiroflarning axloqiy g'oyalari tizimida ochib beriladi va chuqurlashtiriladi.

Shunday qilib, zamonaviy ta'lim oldida avlodlarning tarixiy davomiyligiga asoslangan, davlatning an'analarini saqlaydigan va rivojlantiradigan qadriyatlar tizimini shakllantirish vazifasi turibdi. Murojaatning an'anaviy jamiyat ma'naviy qadriyatlarining madaniy ma'nolariga dolzarbligi shundan dalolat beradiki, so'nggi o'n yil ichida hayotning barcha sohalarini shakllantirish va demokratlashtirish milliy, etno-madaniy va diniy o'zini anglashning o'sishiga olib keldi. "Diniy qadriyatlar milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular jamoat axloqini tartibga soluvchi sifatida muhim rol o'ynaydi", degan tushuncha mavjud [3]. Dinni mafkuraviy qarashlarning muayyan tizimi sifatida muhim tushunishga asoslanib [4], u madaniy va tarixiy rivojlanish manbai

bo'lib xizmat qiladi, chunki u har qanday milliy madaniyatning yadrosiga asoslanadi.

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, an'anaviy jamiyat ma'naviy qadriyatlaridan, shu jumladan yoshlar o'rtasida ishonch va rozilikni shakllantirish uchun foydalanish to'g'ri munosabatni talab qiladi: e'tibor diniy dogmatikaga emas, balki madaniy va mafkuraviy ma'nolarga va qadriyatlarga qaratilishi kerak.

Zamonaviy ta'lim jarayonida umuminsoniy va milliy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik munosabatlar, shubhasiz, har ikki turdagi qadriyatlarning ahamiyatini chuqurroq anglashga imkon beradi. Milliy qadriyatlar shaxsning o'ziga xosligini, xalqining madaniyati va tarixi bilan bog'liqligini ifodalasa, umuminsoniy qadriyatlar uni jahon hamjamiyatining bir qismi sifatida o'zini tan olishini va global muammolarga echim topishga qodir bo'lishini ta'minlaydi. Ta'limning vazifasi bu ikki qadriyatlarni birlashtirib, shaxsni ma'nan etuk, axloqan barkamol va ilimli inson sifatida shakllantirishdir.

Bugungi kunda ta'limning milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida olib borilishi nafaqat shaxsiy rivojlanishni, balki butun jamiyatning taraqqiyotini ta'minlashga hissa qo'shadi. Shaxsning axloqiy va madaniy qadriyatlari unga o'z o'tmishi, madaniyati va kelajagi haqida chuqur tushuncha beradi, umuminsoniy qadriyatlar esa global muammolarga duch kelgan zamonaviy dunyo fuqarosiga aylanishiga ko'maklashadi. Shu boisdan, ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro birikishi hozirgi kunda yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karakovskiy V.A. Классным руководителем посвящается // Воспитательная работа в школе. 2006. № 1. С. 3-16.

2. Kostyukova T. A. Professionalnoye samoopredeleniye budushchego uchitelya v traditsionnykh rossiyskix duxovnykh tsennostyax: dis. d-ra ped. nauk M, 2002 357 s.

3. Shaposhnikova T.D. Основы религиозных культур и светской этики в контексте духовно-нравственного образования //Начальная школа. 2010. № 9. С. 13-16.

4. Rizaev I. I. The structure of the social system as the basis for the self-organization of society //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 7. – S. 190-195.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY MEROS YOXUD TA’LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIIY OMILLARI

Abdullayev Sardorbek Usmonxudjayevich,
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),
dotsent IIV Akademiyasi

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining poydevorini inson kapitali, ma’naviy meros va zamonaviy ta’lim tizimi tashkil etadi. Har qanday jamiyatning yuksalishi, avvalo, uning a’zolarining ma’naviy barkamolligi, bilimga chanqoqligi va ijtimoiy faolligi bilan belgilanadi. Shu boisdan ham davlatimizda ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish, yosh avlodni milliy qadriyatlar va umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda.

Hozirgi davrda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri — ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda milliy ma’naviyat bilan uyg‘unlashtirishdir. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “*Yangi O‘zbekistonni yangi tafakkur egalari barpo etadi*”[1]. Shu ma’noda, ma’naviy merosga tayanib, ta’limning sifat va samaradorligini oshirish jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanmoqda.

O‘zbekiston xalqi ming yillik tarix davomida buyuk allomalar, mutafakkirlar, shoir va ulamolarni etishtirgan. Alisher Navoiy, Amir Temur, Imom Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi siymolar yaratgan ma’naviy meros bugun ham yoshlar tarbiyasida bebaho manba

bo'lib xizmat qilmoqda[2]. Ushbu merosni chuqur o'rganish, uni ta'lim mazmuniga singdirish orqali biz nafaqat milliy o'zligimizni saqlaymiz, balki global axborot maydonida o'z yo'limizni belgilaymiz.

Ta'lim jarayonida milliy merosdan foydalanish o'quvchilarda vatanparvarlik, ma'naviyat va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiradi. Shu bois ma'naviy merosni o'quv dasturlariga singdirish Yangi O'zbekiston ta'lim strategiyasining muhim yo'nalishiga aylangan[3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans haqida *“Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak”* deb ta'kidlaganlar. Uchinchi Uyg'onish davri mamlakatimizning yangi asoslarini belgilab berdi. Bu esa bugungi davr uchun yanada dolzarbdir. Jamiyatimizda mafkura o'zgarishi, insonning dunyodagi o'рни va yo'li haqidagi tushunchalarni o'zgarib borishiga ham ta'sir qilmoqda.

Inson kamolga etishi uchun yoshligidan ilm va kasb-hunar egallashi lozim bo'lib, ilm-ma'rifat insonning ma'naviy kamolotida va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Demak, inson qadr-qimmatini uning “siymu-zari” bilan emas, olgan ilmu-hunari bilan baholanadi. Bugungi kunda dunyo ayvonida mamlakatimiz haqida so'z yuritilganda: “Yangi O'zbekiston” va “Uchinchi Renessans” degan iboralarni ko'p eshitamiz. Bu mamlakatimizning so'nggi to'qqiz yilda taraqqiyotning mutlaqo yangi, qat'iy bosqichiga qadam qo'ygani, har sohada erishayotgan yutuqlarimizning e'tirofidir.

Ta'lim samaradorligini faqat metodika yoki moddiy texnik baza bilan o'lchab bo'lmaydi. Uning muvaffaqiyati quyidagi **ijtimoiy omillar** bilan chambarchas bog'liq:

- Oilaviy muhit — farzandda bilimga qiziqish, axloqiy qadriyatlar va intilishlarni shakllantiradi;

- Ustoz shaxsining obro'si — o'quvchilarda o'qituvchiga hurmat, fanga muhabbat uyg'otadi;

• Mahalla va jamoatchilikning roli — ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ijtimoiy tarbiya muhitini yaratadi;

• Axborot madaniyati — yoshlarning tafakkuri va qadriyatlariga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu omillar o'zaro uyg'unlikda ishlaganda ta'lim sifati oshadi, yoshlar ma'naviy etuk, bilimli va ijtimoiy faol shaxs sifatida kamol topadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining tayanchi — bu ma'naviy barkamol va ilimli insondir. Ma'naviy merosni o'rganish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ijtimoiy omillarni hisobga olish ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy mezondir.

Oila, mahalla va ustozlar hamkorligini kuchaytirish, axborot madaniyatini yuksaltirish hamda milliy qadriyatlarga tayanish — Yangi O'zbekistonning barqaror kelajagini ta'minlaydigan omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4884-sonli qarori, 2020-yil 6-noyabr.
4. Hasanov B. *Ma'naviyat va ta'lim integratsiyasi nazariyasi*. – Toshkent: Fan, 2019.
5. To'raqulova N. "Ta'lim tizimida ijtimoiy omillar va innovatsiyalar". – *Ta'lim taraqqiyoti jurnali*, №4, 2023.
6. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
8. Xolmurodova D. *Raqamli madaniyat va ta'lim tizimi o'zaro bog'liqligi*. – Toshkent: Ziyonet, 2022.
9. Alimov Sh. *Ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning psixopedagogik asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОЕКТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ СЕННОСТЕЙ

Jumeva Dilafruz Abdujalilovna

Магистрант кафедры педагогики

НПУУз имени Низами

Педагогическая практика сегодня формируется под воздействием технологических и социокультурных преобразований, связанных с цифровизацией образования, изменением социальных ролей и внедрением международных стандартов качества. В этих условиях от учителя требуется не только технологическая грамотность, но и способность видеть в инновациях средство укрепления национальной самобытности. Всё более очевидной становится потребность в педагогах, которые не просто используют современные подходы, а наполняют их сенностным содержанием, формируя у обучающихся чувство сопричастности к культуре и истории своей страны. В последние годы в Республике Узбекистан реализуются масштабные реформы, направленные на повышение эффективности государственной молодёжной политики и воспитания подрастающего поколения. По инициативе Президента Ш. М. Мирзиёева создана вертикальная система управления на уровне махалли, назначены лидеры молодёжи, внедрены механизмы адресной поддержки, что позволило обеспечить занятость сотен тысяч юношей и девушек и активизировать их участие в социально-экономической жизни страны. Особое внимание уделяется профессиональной подготовке, развитию предпринимательства, духовно-просветительской работе и защите молодёжи от идеологических угроз. Президент подчеркнул, что работа с молодёжью является важнейшей задачей руководителей всех уровней и всего общества в целом [1].

В высших педагогических учебных заведениях постепенно укрепляется тенденция перехода от традиционного обучения к проектно-ориентированным формам подготовки. Во многих вузах

вводятся курсы, направленные на развитие у студентов навыков исследовательской и проектной деятельности, критического мышления и креативности. Однако анализ образовательных практик показывает, что интеграция национальных ценностей в этот процесс пока остаётся ограниченной. В ряде случаев проектная деятельность воспринимается студентами как формальное задание, направленное на получение отсенки, а не как возможность личностного и профессионального самовыражения. В результате создаваемые проекты нередко теряют воспитательную и культурную значимость, сводясь к демонстрации технологических умений.

Понимание этой проблемы делает особенно актуальным поиск педагогических условий, способствующих формированию у будущих учителей проектной компетентности, основанной на системе национальных ценностей. Необходимость такого подхода продиктована логикой культурного развития общества: педагог становится носителем и проводником духовных ориентиров, связывающим традиции с современными формами обучения. Формирование проектной компетентности на ценностной основе позволяет объединить профессиональные, личностные и культурные аспекты подготовки, превращая обучение в пространство осмысленного действия, где студент учится мыслить через ценности и видит в каждом проекте возможность укрепить культурные основы будущего поколения.

Проектная компетентность представляет собой целостное качество личности педагога, включающее профессиональные, исследовательские и аксиологические компоненты. Она проявляется в способности видеть образовательный процесс как открытую систему, где каждое действие имеет функциональную и ценностную направленность. Педагог с развитой проектной компетентностью соединяет идею, цель и результат, превращая проект из набора процедур в живой процесс творческого преобразования среды обучения. «Учитывая результаты проведённого анализа исследуемого понятия, будем определять **проектную компетентность** как *интегративную динамическую характеристику личности,*

отражающую совокупность проектных знаний и умений, опыта проектной деятельности и ориентации на мотивационно-сенностное отношение к ней, а также рефлексивно-отсечных действий, что позволяет разрабатывать и реализовывать проекты в профессиональной и личностной сферах» [2].

Проектная деятельность позволяет студенту осознать себя субъектом педагогического взаимодействия, а не пассивным исполнителем учебных задач. Она требует самостоятельного выбора, ответственности и рефлексии — качеств, лежащих в основе педагогической зрелости. Через проект студент учится мыслить стратегически, планировать результаты, работать в команде, адаптироваться к меняющимся условиям и сохранять внутреннюю систему ценностей. Особенность педагогического проектирования в том, что оно изначально связано с человеком — его развитием, мотивацией и культурой, поэтому аксиологический компонент становится ключевым.

Национальные ценности выступают живым источником профессионального и личностного самоопределения. Они определяют смысл педагогической деятельности, её нравственные ориентиры и способы взаимодействия с обучающимися. Включение национальных ценностей в содержание проектов позволяет студентам осваивать не только технологию деятельности, но и воплощать ценности в практических действиях. Проекты, посвящённые сохранению родного языка, народной педагогики, семейных традиций или культурных памятников, становятся инструментом личностного роста и укрепления профессиональной идентичности.

Современная педагогическая подготовка ориентируется на развитие личности будущего специалиста, способного мыслить критически, принимать самостоятельные решения и организовывать образовательный процесс с учётом индивидуальных особенностей учащихся. Проектная компетентность соединяет теорию и практику, учебный процесс и реальные педагогические задачи. Через проект студент учится видеть проблему, искать пути её решения, работать в

команде и представляют результаты своей работы — качества, определяющие Успешность Современного педагога. По мнению Д. И. г. Булатиского и Д. Г. Жилина, эффективная организация учебного процесса в современных условиях невозможна без автоматизации составления расписания. Учёные отмечают, что задача формирования расписания является **многокритериальной оптимизацией**, включающей необходимость одновременного учёта учебных планов, нагрузки преподавателей, аудиторного фонда и временных ограничений. Создание автоматизированной системы, обеспечивающей рациональное расписание, требует комплексного подхода и опоры на научные данные [3].

В образовательной политике Узбекистана проектный подход закрепляется как одно из приоритетных направлений модернизации педагогического образования. Государственные программы стимулируют внедрение практико-ориентированных методов обучения, цифровых инструментов и проектных форм организации учебного процесса. В вузах страны развиваются инновационные лаборатории, студенческие проектные группы, педагогические стартапы и творческие мастерские. Студенты учатся применять теорию в реальных образовательных и социальных контекстах, разрабатывая собственные решения актуальных проблем вуза и общества.

Особое значение приобретает наставничество: преподаватели направляют студентов, помогают осознать сущностную основу проектов и поддерживают в процессе решения сложных педагогических задач. Примеры таких проектов включают разработку учебных материалов по народной педагогике, организацию мероприятий, посвящённых культурному наследию, создание виртуальных экскурсий по музеям и цифровых образовательных ресурсов.

В совокупности проектная деятельность позволяет студентам педагогических вузов видеть практическую значимость своей работы, осознать ответственность за результаты и формировать навыки проектирования образовательных процессов с учётом культурных и

социальных условий. Это создаёт основу для подготовки педагогов нового типа — компетентных, инициативных, ценностно ориентированных, способных сочетать исследовательскую, практическую и воспитательную функции.

Заключение Анализ современного состояния педагогической подготовки показывает, что формирование проектной компетентности невозможно без учёта национальных ценностей и культурных ориентиров. Опыт внедрения практико-ориентированных методов, мастер-классов, творческих лабораторий и наставничества демонстрирует, что через активное участие в проектной деятельности студенты осваивают профессиональные навыки, развивают критическое и творческое мышление и формируют устойчивую ценностную позицию. Проектная компетентность позволяет будущим педагогам воспринимать образовательный процесс как пространство личностного роста, социальной ответственности и культурного самоопределения. Интеграция профессиональных и ценностных аспектов создаёт условия для подготовки педагогов нового типа — способных действовать инициативно, создавать образовательные решения, отвечающие потребностям общества и укрепляющие культурное наследие. Как отмечают Л.Н. Костина и Е.В. Пономаренко, в современных условиях “происходит очевидное разрушение рынка труда” (Илон Маск), усиливается поляризация по профилю компетенций, а образовательные программы всё чаще не соответствуют требованиям рынка. В этих условиях формирование проектных компетенций становится ключевым направлением развития высшего образования, поскольку проектное мышление, системное видение и готовность к изменениям позволяют выпускникам адаптироваться к динамичным условиям профессиональной среды[4].

В совокупности такие подходы формируют основу для дальнейших исследований и практических разработок, направленных на совершенствование педагогического образования и подготовку специалистов, способных сочетать профессиональные компетенции с глубокой ценностной ориентацией

Список литературы

1. Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёев. *Под председательством Президента Шавката Мирзиёева состоялось видеоселекторное совещание по мерам повышения результативности работы, проводимой в области молодёжной политики.* — Официальный сайт Президента Республики Узбекистан, 11-апреля 2024 года. УРЛ: <https://prezident.uz/ru/listcs/view/6145>

2. Пикалова А.А., Шершнева В.А. Сущность и содержание проектной компетентности как предмет педагогического анализа // Мир науки. Педагогика и психология, 2019, №6, т.7. УРЛ: <https://mir-nauki.com/PDF/115PDMN619.pdf>

3. Булатиский Д. И., Жилин Д. Г. Реализация задачи многокритериальной оптимизации при проектировании автоматизированных информационных систем составления расписания учебных занятий // Молодой учёный. – 2020. – № 48 (338). – С. 17–19

4. Костина Л.Н., Пономаренко Е.В. Развитие проектных компетенций в системе высшего образования // ФГБОУ ВО «ДОНАУИГС». Презентация, 2024

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MILLIV O'ZLIKNI TARBIYALASHDA TUTORNING O'RNI

Malikova Dildoraxon Qobilovna,

Maktabgacha ta'lim instituti

Ma'naviyat-ma'rifat va iqtidorli

yoshlar bilan ishlash bo'limi mutaxassisi

Milliy o'zlikni anglash real ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy asoslarda shaxs ongida qaror topadi va u iroda bilan bog'lanib, amaliy harakat tusiga kiradi. Chunonchi, milliy o'zligini anglagan shaxslar hozirgi tarixiy sharoitda mamlakat hayotining barcha

sohalaridagi salohiyatini ko'tarish zaruriyatini anglab etadi. Biz o'z xaq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz shart.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida: "Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi", deb ta'kidlaganlar.[2] Demak, tarixni bilmasdan, yaxshi bilmasdan turib, yuksak ma'naviyatga erishish mumkin emas. Sobiq ittifoq davrida millatimiz ongiga shunday g'oya singdirildiki, u o'z yurtida boshini baland ko'tarib yurishi taqiqlangan edi. Xalqimizning shunday ahvolga tushib qolishiga asosiy sabablardan biri – uning tarixiy xotirasidan judo bo'lishi edi. Milliy g'oya xalqimizga nafaqat o'z tarixini odilona, obyektiv va xolisona o'rganish imkoniyatini yaratdi, balki Millat sifatida shakllanish davridagi murakkab sharoitlardan kelib chiqish sabablarini ko'rsatib berdi.[3]

Yurtimizda hozirgi kunda yoshlar ongida milliy o'zlikni anglashni shakilantirish uchun avvalo yoshlar o'zida besh mezon talablarini shakilantirmog'i lozim.

1. Milliy ong — shunday g'oyalar, fikrlar tizimiki, u har bir millatning tarixi, taqdiri va kelajagi bilan bog'liq bo'lgan manfaatlar, maqsadlarni ifodalash bilan birga, millat vakillari faoliyatini maqsad, yo'nalishlar tomon boshqarib turadi. 2. Milliy g'urur — shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan, ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'sha, millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha. 3. Milliy iftixor — millat ma'naviy kamolotining barcha jihatlarini, merosi va bugungi qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Milliy istiqlol natijasida erishilgan va erishilajak iqtisodiy va ma'naviy yutuqlar ko'paygan sari O'zbekiston bilan faxrlanish hissi — milliy his shunchalik kuchayib boraveradi. 4. Milliy his — bu millat manfaati bilan yashash, o'zi

kimligini tanimoq. O'zligini tanimagan insonda milliy iftixor so'nadi. Milliylik, millatga mansublik bu umumjahon taraqqiyotining qonuniyatidir, milliy g'urursiz hech bir millat millat sifatida shakllanmaydi. 5. Milliy xarakter — o'zbek xarakteri, milliy ruhiyati, milliy o'ziga xostomonlari asrlar davomida shakllangan hamda asta-sekin ularning qoniga va Joniga joylashib ketgan. Ushbu mezonlarga haqiqiy milliy o'zlikni anglashning poydevori bo'lsa bu mezonlarda shakllangan yoshlar jamiyat taraqqiyoti uchun etarlicha hissa qo'sha oladi bunday jamiyat davlatning mustahkam poydevori bo'ladi.

Axborotlashuv jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi kunda yosh avlodning milliy o'zligini saqlash va uni mustahkamlash ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida bu jarayon nafaqat o'quv jarayoni orqali, balki tarbiyaviy faoliyat, xususan, **tutorlik tizimi** orqali amalga oshirilmoqda. Tutor — bu talabaning nafaqat akademik, balki ma'naviy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishida yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi mutaxassisdir. Milliy o'zlikni tarbiyalash — bu o'z xalqining tarixini, urf-odatlarini, qadriyatlarini chuqur anglash va ularni amaliy hayotda namoyon etish jarayonidir. Shu bois, tutorlarning pedagogik faoliyatida an'anaviy tarbiya uslublari va zamonaviy innovatsion texnologiyalar sintezi muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy o'zlik — shaxsning o'z xalqiga, madaniyatiga, tiliga va urf-odatlariga mansublikni his etishi, shu orqali o'z hayotida milliy qadriyatlarni ifoda etishidir.[4] Oliy ta'lim tizimi bu jarayonni shakllantirishda strategik o'ringa ega, chunki aynan talabalik yillari inson dunyoqarashining pishib boradigan davridir. Shu nuqtai nazardan, milliy o'zlikni rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- milliy tarix, adabiyot va san'atni chuqur o'rganish;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali milliy g'ururni shakllantirish;
- ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni integratsiyalash;
- tarbiyaviy soatda milliy timsollar va qahramonlardan ibrat olishga yo'naltirish.

Oliy ta'lim muassasalarida tutor — bu talabaning o'quv faoliyatini nazorat qilish bilan birga, uni ijtimoiy hayotga tayyorlovchi shaxsdir. Tutor milliy o'zlikni tarbiyalashda quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritadi:

A) Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda: talabalarda milliy iftixor, vatanparvarlik, tarixiy xotiraga hurmat tuyg'ularini rivojlantirish;

B) Axborot-kommunikatsion yo'nalishda: milliy qadriyatlarni zamonaviy media vositalar orqali targ'ib qilish;

C) Ijtimoiy faoliyatda: talabalarining jamoat ishlarida ishtirokini rag'batlantirish, ularni ijtimoiy mas'uliyatga o'rgatish.

Tutorlik jarayonida "Ustoz-shogird" an'anasi muhim o'rin tutadi. Bu qadimiy pedagogik model bugungi kunda zamonaviy mentorlik shaklida davom etmoqda.[4] Tutor talaba bilan individual muloqotda bo'lib, uning qiziqishlari va ijtimoiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy yondashuvni amalga oshiradi. Milliy o'zlikni tarbiyalashda faqat an'anaviy yoki faqat zamonaviy usullarga tayanish etarli emas. Eng samarali natija ularning sintezida namoyon bo'ladi.[5]

An'anaviy usullar:

- 1) Ustoz-shogird tizimi;
- 2) Ma'naviy suhbatlar, milliy bayramlarni nishonlash;
- 3) O'zbek xalq maqollari, hikmatlari asosida tarbiya.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: 1) Interaktiv treninglar va vebinarlar; 2) Multimedia vositalari asosida milliy qadriyatlarni o'rgatish; 3) "Blended learning" (aralash ta'lim) asosida ma'naviy mavzularni integratsiya qilish; 4) Raqamli platformalarda milliy madaniyatga oid loyihalar tashkil etish.

Tutor bu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirgan holda, talabalarda zamonaviy tafakkur bilan birga milliy g'urur va o'zlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim tizimida milliy o'zlikni tarbiyalash — bu nafaqat ta'lim jarayonining ma'naviy qismi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omildir. Tutorlik tizimi bu jarayonning markazida turib, an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali samarali natijaga erishadi. Shunday ekan, har bir tutor o'z faoliyatida innovatsion yondashuvlar bilan

birga milliy tarbiya elementlarini chuqur qo'llay olishi zarur. Bu esa yosh avlodda o'z xalqiga sadoqat, Vatanga muhabbat va milliy g'ururni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asari. – Toshkent, 2022.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch. T.:—Ma'naviyat, 2008. 5-b
3. Karimov I.A. Amir Temur — faxrimiz, g'ururimiz.//Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T. 5. -T.;«O‘zbekiston»,1998 – B.440-207.
4. D.Malikova “Tutorship in historical perspective: evolution as a pedagogical phenomenon” Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy ISSN (E): 3067-7874 Volume 01, Issue 06, September,2025, 2p
5. Xolmurodova D. “Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar”. – Toshkent, 2021.

“YOSHLARNING MA'NAVIY TAHDIDLARGA QARSHI MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY G'OYANING ROLI.”

Kamoliddinov Shavkat Jamshid o'g'li,

Termiz davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrası katta o'qituvchisi

Globalashuv shiddat bilan kechayotgan bugungi kunda insoniyat hayotining barcha jabhalarida yangicha tafakkur, yangicha qadriyatlar tizimi shakllanmoqda. Axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi natijasida inson ongiga turli g'oyalar, qarashlar va mafkuralar kirib

kelmoqda. Bu holat, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyosiga, ularning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois bugungi kunda yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash dolzarb ijtimoiy-falsafiy masalalardan biriga aylangan [1].

Ma'lumki, har qanday jamiyatning barqaror taraqqiyoti, eng avvalo, uning fuqarolari, xususan, yosh avlodning milliy ong, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lishiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, milliy g'oya – bu xalqni birlashtiruvchi, uni yuksak maqsad sari undovchi kuch bo'lib, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning eng muhim manbai hisoblanadi [2].

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov milliy g'oya va mafkura masalasiga yuksak e'tibor qaratgan holda: *“Biz yoshlarimizni begona g'oyalar ta'siridan asrashimiz, ularning qalbida Vatanga muhabbat, ajdodlar merosiga sadoqat tuyg'ularini singdirishimiz zarur”*, — deya ta'kidlagan edi [3]. Haqiqatdan ham, yoshlar qalbi bo'sh bo'lsa, uni begona g'oyalar egallaydi. Shu bois milliy g'oya yoshlar uchun ma'naviy qalqon, mafkuraviy immunitetning asosi sifatida xizmat qilishi kerak.

So'nggi yillarda O'zbekiston yoshlarining soni jami aholining 60 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Davlat statistika qo'mitasining 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda 18-35 yosh oralig'idagi fuqarolar soni 19 milliondan oshgan [4]. Bu esa jamiyat taraqqiyotining eng faol, intellektual resursi aynan yoshlar ekanini anglatadi. Shu bilan birga, bu toifa global axborot oqimining markazida turibdi va ko'pincha ma'naviy tahdidlarning asosiy nishoniga aylanmoqda.

Zamonaviy ma'naviy tahdidlar nafaqat tashqi g'oyaviy bosim ko'rinishida, balki ichki befarqlik, iste'molchilik kayfiyati, individualizm va milliy qadriyatlarga loqaydlik orqali ham namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda ayrim yoshlar orasida “ommaviy madaniyat” (mass culture) unsurlariga berilish, virtual hayotga haddan tashqari qiziqish, tarixiy ildizlardan uzoqlashish holatlari ko'paymoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy

g'oya bu jarayonlarga qarshi turgan, yosh ongini barqaror tutib turuvchi falsafiy poydevor bo'lib xizmat qiladi [5].

Milliy g'oyaning mafkuraviy immunitetdagi roli, avvalo, uning inson ongida milliy o'zlikni uyg'otishdagi kuchida namoyon bo'ladi. Forobiy, Ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi mutafakkirlar inson kamolotini ma'naviy barkamollik bilan bog'laganlar. Navoiy o'z asarlarida: *"Kimki o'z elining qadri bilmasa, u eldan begona bo'lur"* – deya millatga sadoqatning ahamiyatini falsafiy jihatdan ochib bergan [6].

Bugungi kunda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston – yangi g'oya va yangi tafakkur" konsepsiyasi ham aslida milliy g'oyaning zamonaviy ifodasidir. Ushbu konsepsiyada yoshlar qalbida milliy g'urur, milliy qadriyat va global mas'uliyatni uyg'otish masalasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [7]. Prezident ta'kidlaganidek, *"Agar yoshlarimizda mustahkam hayotiy pozitsiya, mafkuraviy immunitet bo'lmasa, biz orzu qilgan taraqqiyotga erisha olmaymiz."*

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan olganda, mafkuraviy immunitet — bu shaxsning ichki ruhiy barqarorligi, g'oyaviy mustaqilligi va axborot xurujlariga qarshi tura olish qobiliyatidir. U insonning ma'naviy himoya tizimi sifatida ishlaydi. Ayniqsa, bugungi axborot urushlari davrida yoshlarning mafkuraviy immuniteti milliy xavfsizlik masalasiga aylanmoqda [8]. Masalan, 2023-yilda Xalqaro "Pew Research Center" ma'lumotlariga ko'ra, 16-24 yoshdagi internet foydalanuvchilarning 41 foizi ijtimoiy tarmoqlardagi siyosiy yoki diniy manipulyatsion kontentga duch kelgan [9].

Yoshlar orasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun, birinchidan, ta'lim tizimida milliy g'oyaning o'rnini kuchaytirilishi lozim. Oliy ta'lim muassasalarida "Milliy g'oya: O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida" fanining o'qitilishi aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda. Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalarida yoshlar uchun milliy qadriyatlarni targ'ib etuvchi dasturlar, kontentlar sonini oshirish muhimdir. Uchinchidan,

oilaviy tarbiyada milliy o'zlikni anglash, milliy faxr tuyg'usini shakllantirish jarayoni kuchaytirilishi kerak [10].

O'zbekiston tarixiga nazar salsak, xalqimiz doimo o'zining milliy g'oyasi, mustaqil tafakkuri bilan tahdidlarga qarshi tura olgan. Masalan, Amir Temur davrida "Kuch – adolatda" shiori xalqni birlashtiruvchi, davlatni yuksaltiruvchi g'oyaviy mezon bo'lgan [11]. Temuriylar saltanatining yuksak ma'naviy darajasi, Samarqandning dunyo sivilizatsiyasi markaziga aylanishi ham aynan g'oyaviy birlik va ma'naviy kuch natijasidir. Shu kabi tarixiy misollar bugungi yoshlar uchun o'rnak bo'lishi lozim.

Hozirgi zamonda esa O'zbekiston yoshlari "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot va bunyodkorlik g'oyasi" atrofida birlashmoqda. Yoshlar ittifoqi, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi, "Yangi O'zbekiston" jurnali, "Milliy tiklanish" harakati kabi tuzilmalar orqali yoshlarning g'oyaviy tarbiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. 2024-yilda "Yoshlar daftari" dasturi doirasida 800 mingdan ortiq yoshga psixologik va ma'naviy ko'mak berilgani ham bu yo'nalishdagi amaliy natijalardan biridir [12].

Falsafiy tahlilda milliy g'oya yoshlar ongida nafaqat mafkuraviy immunitetni, balki ijtimoiy faollik, ijodiy tafakkur va milliy mas'uliyat hissini ham uyg'otadi. G'oya — bu harakatga undovchi kuch. Shuning uchun milliy g'oya faqat nazariy tushuncha emas, balki yoshlarni ma'naviy jihatdan harakatlantiruvchi, jamiyatni yangilanish sari etaklovchi qudratli omildir [13].

Yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlashda xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar va qadimiy merosning ahamiyati ham beqiyosdir. Misol uchun, "Odobli bola – elga manzur" yoki "Vatanni sevgan yurtini asraydi" kabi maqollar yoshlar ongida axloqiy immunitetni mustahkamlovchi g'oyaviy ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi [14].

Bundan tashqari, diniy-ma'naviy manbalar ham mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Qur'oni karimda: *"Kim Allohning yo'lida sobit tursa, unga yo'l ko'rsatilur"* (Ankabut, 69) deyiladi. Bu oyat ham insonning ma'naviy barqarorligi va e'tiqod

mustahkamligi mafkuraviy tahdidlarga qarshi eng kuchli himoya ekanini ko'rsatadi [15].

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarga ko'ra, o'z milliy qadriyatlarini chuqur anglagan yoshlar depressiya, ijtimoiy begonalik va ekstremistik g'oyalar ta'siriga kamroq tushadi [16]. Demak, milliy g'oya nafaqat ijtimoiy, balki psixologik immunitet manbaidir. Shu ma'noda, ma'naviy barqaror yosh – bu jamiyat barqarorligining kafolatidir.

Falsafiy xulosaga ko'ra, milliy g'oya yoshlarning ongida ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishning uzviy tizimidir. U tarixiy tajriba, diniy qadriyat, ilmiy tafakkur va zamonaviy g'oyalarni o'zida uyg'unlashtirgan kompleks hodisadir. Milliy g'oyaning kuchi — uning xalq qalbiga yaqinligida, millat ruhiga mosligidadir. Shu bois yosh avlodni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularning qalbida “O'zbekiston – mening Vatanim!” degan g'oyaviy iftixorni uyg'otish — bugungi davrning eng muhim ma'naviy vazifalaridan biridir [17].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. G'afurov U. Milliy g'oya va mafkuraviy immunitet. – T.: Fan, 2019.
3. Karimov I.A. Milliy g'oya – xalqni birlashtiruvchi kuch. – T.: O'zbekiston, 2000.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Rasmiy hisobot, 2024.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022.
6. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1997.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – T.: O'zbekiston, 2021.
8. Yusupov B. Mafkuraviy immunitet va axborot xavfsizligi. – T.: Ma'naviyat, 2020.
9. Pew Research Center. Global Youth Internet Influence Report, 2023.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Ma’naviyat dasturi, 2024.
11. Temur A. Temur tuzuklari. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1996.
12. “Yoshlar daftari” ma’lumotlari. – Yoshlar ishlari agentligi hisobot, 2024.
13. To‘laganov N. Falsafada g‘oya tushunchasi. – T.: Fan, 2018.
14. O‘zbek xalq maqollari to‘plami. – T.: Ma’naviyat, 2002.
15. Qur’oni karim. – Ankabut surasi, 69-oyat.
16. Rahimova N. Milliy identifikatsiya va yoshlar psixologiyasi. – T.: TDPU, 2023.
17. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar – bizning kelajagimiz. – T.: O‘zbekiston, 2024.

YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH ASOSIDA MILLIY O‘ZLIKNI YUKSALTIRISH.

Yusupov Axrorjon Qurbonovich,
*siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori(PhD),
Qo‘qon davlat universiteti*

Yangi O‘zbekiston strategiyasida jamiyatlarning xalqaro modernizasiya va yangilanish tajribalari hamda asrlar davomida to‘plangan milliy an’analar, turmush tarzi, axloqiy va diniy boyliklarga tayanganligini ko‘rish mumkin. Demak, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish O‘zbekistonda yashayotgan xalqning, millatning mentaliteti bilan bevosita bog‘liqdir. Ammo bundan O‘zbekistonda yashayotgan boshqa millatlarning mentalitetini inkor etish, degan ma’no kelib chiqmaydi. Chunki umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlovchi adolatli turmush tarzini barpo qilish uchun odilona ijtimoiy harakatlarda milliylik ham e’tirof etilishi shart. Inson ma’lum jug‘rofiy hududda yashab faoliyat ko‘rsatar ekan, u albatta, u yoki bu elatga, millatga mansub bo‘lib, o‘zining aql-idrokini, zehnni, ongli faoliyatini adolatparvar jamiyat qurishga bir xil safarbar etadi. Shuning uchun ham har qanday xalqni xalq qiladigan, millatni millat

qiladigan uning mentaliteti hisoblanadi. Chunki milliy mentalitetda har bir xalqning orzu-umidlari, maqsad-muddaolari, erkin hayot va adolatli tuzumda yashashi o'z ifodasini topgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston yoshlarini milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda etakchi muassasalari va agentlari bo'lib: ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, hukumatlar, jamoat va siyosiy tashkilotlar, oila va armiya, kasaba uyushmalari va mehnat jamoalari kabilar tashkil etadi.

Yoshlarning milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda an'anaviy institutlaridan ta'lim tizimi va oila eng samarali bo'lib qolmoqda. Yoshlar ta'lim milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda vazifasi shundan iboratki, u ham bevosita, ham bilvosita ishlaydi. Ya'ni to'g'ridan-to'g'ri ta'sir aynan ta'lim tizimiga taalluqlidir. Bundan tashqari, ta'lim muassasalari yoshlarning siyosiy qadriyatlariga va jamiyatda mavjud bo'lgan munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi hamda siyosiy tizimga va uning ramzlariga bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi. Shu ma'noda, ko'pincha bolalar «o'zlarining» siyosiy tizimiga his-hayajonli bag'ishlovini o'rgatadigan va birinchi vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirgan maktab masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zlikni anglashning shakllanish jarayoni va omillari Sharq hamda G'arb allomalari tomonidan har taraflama o'rganilgan. Sharq allomalaridan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalar o'zlikni anglashning ruhiy, botiniy jihatlarini, inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, olam va odam munosabatini bilish asosi ekani kabi masalalarga e'tibor qaratganlar. G'arb allomalaridan Fales, Suqrot, F.Bekon, T.Gobbs, R.Dekart, I.Kant, G.Gegel, F.Nisshe, Z.Freyd, N.Berdyayev, E.Erikson va boshqalar o'zlikni anglashning zohiriy jihatlarini, uni ijtimoiy borliq, makon va zamonning faol ijodkorligi omili sifatida o'rganganlar. O'zni va o'zlikni anglashning murakkabligini inobatga olib – Fales «eng qiyin narsa nima?» degan savolga o'zni anglashdir [1,10], deb javob bergan. «Individual ong – o'zini anglashdir»[2,171], deb yozadi I.Kant. Tarixiy zaruriyat ostida «insonning jamiyat va boshqa kishilar bilan munosabatlari jarayonida o'zini nazorat

etish va o'zini idora qilish kabi hayotiy muhim vosita sifatida paydo bo'lgan. Agar mehnat va jamiyat paydo bo'lmaganida kishida o'zlikni anglash ham shakllanmas edi. Shunday ekan, o'zlikni anglashsiz jamiyat va haqiqiy insoniy mehnat ham muvaffaqiyatli rivojlanmas edi». Kishidagi individual ong, o'zlikni anglash, ruh, o'zini nazorat etish, boshqarish tarixiy rivojlanish jarayonida, mehnat va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shakllanib borgan.

«O'zlikni anglash», «milliy o'zlikni anglash», «umumbashariy o'zlikni anglash» tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Inson nafaqat o'z yaqinlari, balki butun insoniyatga tegishli bo'lgan munosabatlar asosida o'zligini anglab boradi. Ayni shu munosabatlar zaminida vujudga kelgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy g'oya tamoyillari shakllanadi, o'z navbatida ularni zamon talablari asosida boyitib boradi.

Insoniyat jamiyati taraqqiyotida mafkura, milliy g'oya va milliy o'zlikni anglash negizlari to'g'risida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, ushbu qarashlar etnopsixologiya bilan bog'liq yondashuvlarda ham o'z ifodasini topadi. Misol uchun nemis faylasufi Vilgelm Vundt milliy o'zlikni anglash muammosini tadqiq qilar ekan, u ««millat», «xalq» tushunchalarini tenglashtirgan holda o'zlikni anglashni til, afsonalar, din elementlari va urf-odatlar bilan birga o'rganishni tavsiya etadi» [3,28]. Uning fikricha, etnopsixologik konsepsiyani tuzishda ma'naviy hayotning – til, afsonalar, urf-odat va marosimlar kabi tomonlarini psixologik tarzda o'rganish lozim.

Shuningdek, xorijiy psixologlar T.Adorno, G.Ollport, Simmons kabi olimlar asarlarida milliy o'zlikni anglashda irqiy va etnik ziddiyatlarni obro' talashish hamda shaxsning ayrim xususiyatlari bilan birga tushuntirishga harakat qiladi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy-tarixiy meros bugungi kunda butun dunyoda mashhur va boy ma'naviy-madaniy xazinalardan sanaladi. Xalqimizning mana shunday merosining shakllanishiga munosib hissasini qo'shgan buyuk allomalarimizdan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning ko'pqirrali ijodida xalqlar turmush tarzi, e'tiqodi, urf-

odat va an'analari, ruhiyati, o'zligini anglashiga oid diqqatga sazovor fikrlarni uchratish mumkin. Shunday buyuk allomalardan biri Abu Nasr Forobiydir. U o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida yozishicha, odamlardagi ruhiy birlik, ya'ni odamlar orasidagi muayyan bog'lanish, birinchidan, ular o'rtasidagi mehr-oqibat kelishuviga asoslanadi, uning zamirida qabila, urug' munosabatlari yotadi, chunki ular bir ajdoddan tarqalgan[4,72]. Ikkinchidan, odamlar o'rtasidagi ruhiy bog'lanish ularning xulq-atvori, tabiati, fe'li va tilining umumiyligiga tayanadi. Allomaning xalqlarning o'ziga xos jihatlari haqidagi fikrlari muayyan xalqlardagi o'ziga xos ruhiy xususiyatlarni va o'zligini tushunib etishga xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy turli xalqlar urf-odati, marosimlari, e'tiqodini o'rganishda qiyoslash metodidan foydalanadi. Natijada «xalqlarning milliy xususiyatlari-psixologiyasining shakllanishi tarixiy va tabiiy jarayondir»[5,58], degan fikrga keladi.

Abu Ali ibn Sino alohida olingan inson yoki insonlar xulq-atvori, milliy xususiyati va shunga mos ruhiyatining shakllanish jarayonini tabiiy ruh, tabiiy quvvatlar bilan bog'laydi. Tabiiy ruh, uningcha, yaxshi hidli narsalar tomon intiladi, ular bilan quvvatlanadi va ulardan oziqlanadi. Tabiiy quvvatlar esa, shubhasiz, tabiiy ruhdan kuch oladi[6,322].

XIX asrning oxiri – XX asrning boshilarida o'zbek, qozoq, tojik, qoraqalpoq tillarida turli janrlarda ijod qilgan Munis Xorazmiy, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Ahmad Donish, Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar kabi ma'rifatparvar allomalar ham Markaziy Osiyoda yashovchi turkiy xalqlarning kelib chiqishi, tili, dini, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzida umumiylilik bo'lsa-da, yashash sharoiti, jug'rofiy joylashishi, kasb-hunari tufayli bir-birlaridan farqli tomonlari borligini, bu holat ularning o'zligini anglashda ham aks etganligini o'z asarlari orqali yoritishga xizmat qilganlar.

Milliy o'zlikni anglash rivojida milliy tilning o'rni beqiyos ahamiyatga egadir. Millat aloqa vositasi sifatida o'z milliy tilida ijtimoiy-madaniy jarayonlarning taraqqiyotini ta'minlashga hissa qo'shib boradi va bu jarayon milliy o'zlikni anglashning o'sishiga imkon yaratadi. Milliy

davlatchilik elementlari ushbu milliy tilning rasmiy mohiyati bilan mustahkamlanadi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik tufayli mafkura, milliy g'oya va milliy o'zlikni anglash munosabati yangicha asosga ega bo'ldi.

O'zlikni anglash – insonning o'zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini ifodalovchi tushunchadir[7,406]. «O'zlikni anglash» – insonning borliqda o'z o'rnini bilishi, ijtimoiy munosabatlarda o'z “men”i va hayotiy maqsadlarini boshqa “men”lar hamda ularning hayotiy maqsadlari bilan munosabatida namoyon bo'ladigan individual jihatlarining idrok etilishi sifatida qaraladi. O'zlikni anglashning muayyan darajasi milliy o'zlikni anglashdir. Bizning fikrimizcha milliy o'zlikni anglash – millat va har bir millat vakilining umumiy madaniy negizga, til, madaniyat, tarixiy meros, ruhiyatga, urf-odat va an'analarga mansubligini va o'z o'rnini idrok etishdir. Shuningdek, uni ikki darajada o'zining ifodasini topishini ta'kidlash lozim. Ya'ni, milliy o'zlikni anglash:

- 1) muayyan millatga mansublikni;
- 2) muayyan mamlakatga, davlatga mansublikni ham anglatadi.

Shu o'rinda, milliy o'zlikni anglash darajasi fuqarolarni o'z-o'zini his etishi va fuqaro sifatida oqilona munosabatda bo'lishini tashkil etadi. «Milliy o'zlikni anglash» tushunchasi, shu ma'noda unga mos keladi.

Madaniy o'ziga xos jihatlarni anglash millatning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu holat bizning fikrimizcha, millatlarning yaqinlashuvi, hamkorlik qilishi, umumiylikka intilishini ta'minlaydi. Ushbu konseptual g'oya, iqtisodiy, jug'rofiy, ma'naviy, madaniy omillarni inkor etmaydi, balki ulardagi tarixiy tajribalarga asoslanadi va ulardan kelib chiqadi.

Milliy o'zlikni anglashning shakllanishi bilan etnogenetik rivojlanish bir-birlariga dialektik bog'liq hodisalar bo'lsa-da, ular bir davrda yuzaga kelmaydi. Turli xalq, millat va elatlarning etnogenetik shakllanish jarayoni ularning milliy o'zligini anglashidan oldin boshlangan va uning rivojlanishi millat shakllanganidan keyin ham davom etmoqda. Milliy o'zlikni anglash etnogenez ichida kechadi, u etnogenetik rivojlanish jarayonida kishilar ongini umummilliy, umumxalq manfaatlarini anglash, sezish, bilish va o'z

xatti harakatlarini ushbu manfaatlar bilan uyg'unlashtirib borishga yo'naltiradi. Ushbu fikr bugungi kun uchun yangicha ma'noga ega. O'zlikni anglash shaxsning o'zini haqiqiy inson, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarning egasi va ular uchun mas'ul ekanini, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib etishi jarayonida shakllanadi.

Milliy o'zlikni anglash milliy g'oya bilan uyg'un holda rivojlanadi. Ana shu uyg'unlikning mohiyatini anglab etish uchun «milliy g'oya» tushunchasini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Insoniyat taraqqiyoti biron-bir jamiyatning ezgu g'oyalar va mafkurasiz rivojlana olmasligini tasdiqlab kelmoqda. Milliy g'oya har bir jamiyat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini ta'minlovchi ijtimoiy-madaniy omil sifatida namoyon bo'ladi. Professor S.Otamuratovning fikricha, «Milliy g'oya — milliy ongni uyg'otuvchi, millatning o'zligini anglatuvchi, o'ziga xoslikka, mentalitetga «qiyofa» baxsh etuvchi, milliy ruhiyat, g'urur, iftixor, e'tiqod va mas'ullik tuyg'ularini shakllantiruvchi fikrdir» [8,24]. Bu fikrga qo'shilgan holda, «Milliy g'oya» tushunchasining ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan keng ma'noga ega ekanligini qayd etish lozim.

Professor I.Ergashev mulohazasiga ko'ra «Milliy g'oya jamiyatimiz o'tmishini bugungi kun va istiqbol bilan bog'lab turadi, fuqarolarni mushtarak maqsad va manfaatlar yo'lida bir-birlariga hamjihat, hamkor bo'lib yashashga undaydi. Ayrim shaxs, guruh manfaati va maqsadlari bilan birga ijtimoiy umummilliy manfaatlar va maqsadlar birligidan ogoh etadi» [9,76]. Ajdodlarimiz jamiyatning barcha bosqichlarida jamiyat a'zolari ruhiyati va tafakkuriga, ezgulikka va bunyodkorlikka chorlovchi g'oyalarni muntazam singdirib kelganlar. Zardo'shtiylik dinining «Avesto» kitobidagi g'oyaviy konsepsiya – «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal» tamoyili buning yorqin dalilidir. Milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, xalq, millat taqdiriga daxldor, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar va mo'ljallarini ham aks ettiradi. O'z davrida (1941-1945-yillarda) fashistlar bosib olgan Fransiyada «qarshilik ko'rsatish» g'oyasining milliy g'oya darajasiga ko'tarilgani va bu mamlakat ozod etilishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotgani fikrimizga dalil bo'la oladi. Muayyan g'oyaning milliy g'oya

sifatida maydonga chiqishi millatning mavjud holati bilan bevosita bog'liqdir. Chunki ana shu negizga tayangan holdagina u millatning qisqa yoki uzoq vaqtda erishishi lozim bo'lgan maqsad-muddaolari va mo'ljallarini to'g'ri ifodalay olishi mumkin. Har bir xalq o'z tarixining burilish nuqtalarida, avvalo mafkura masalasini, uning o'zagini tashkil etadigan, o'ziga xos birlashtiruvchi yadro vazifasini o'taydigan ijtimoiy g'oyani shakllantirish muammosini hal qiladi [10,10].

Mamlakatimizda erkin, huquqiy-demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash, milliy g'oyani jamiyatimiz a'zolari ongiga singdirishda madaniy-ma'rifiy muassasalarning o'rni beqiyosdir. Ushbu tashkilotlar orqali milliy g'oyada ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab berilgan qadriyatlar targ'ibotiga e'tibor qaratish, ushbu jihat xalqimizning milliy o'zligini anglab, mustaqilligini mustahkamlash ishiga kamarbasta bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, g'oya, ya'ni maqsad amaliyotdan ilgari yuradi. Avval muayyan g'oya jamiyat a'zolarining umumiy maqsadi sifatida ilgari surilib, so'ng ushbu maqsadni amalga oshirish uchun faoliyat boshlanadi. Shu jihatdan ham milliy g'oya o'zligimizni anglab ijtimoiy taraqqiyot va barqarorlikni ta'minlashimiz yo'lida muhim omil bo'lib xizmat qiladiki, ushbu ishlarni amalga oshirishda ma'naviyat sohasi xodimlarining faoliyati muhim o'rin tutadi.

Yoshlarga bo'lgan ishonch – milliy ruhni va tashqi kengayishni saqlab qolish, madaniyatlar muloqoti va qiymat tizimlarini yo'q qilishning uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlarning bizning kelajagimiz ekanini e'lon qilish, lekin aslida uning mas'uliyatsizligidan qo'rqib, yoshlarning bevosita emasligini aytish – bu hech qanday yaxshi narsaga olib kelmaydigan zaif siyosat dir. Biz yoshlar harakati haqida aniq baho berishimiz kerak. Shu asosda, davlat va jamiyat yoshlar uchun iqtisodiyot, fan, madaniyat, siyosat, sohasida yuqori vazifalarni qo'yishi va yoshlarning bu erda va hozir amaliy natijalarga ega bo'lishlari uchun taklif etilayotgan echimlarning dastlabki shart-sharoitlarini ta'minlashi kerak.

Umuman olganda, yoshlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirish, fuqarolik jamiyati barpo etish, huquqiy davlat

qurish, milliy qadriyatlar, xalqaro munosabatlarni mustahkamlash yoʻnalishidagi oʻzgarishlarni davom ettirishning katta merosxoʻri hisoblanadi.

Adabiyotlar.

1. Haqiqat manzaralari: 96 mumtoz faylasuf. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. — 10 b.
2. Кант И. Антропология с прагматической точки зрения // Соч. в 6-ти томах. Т.6. – Москва: Мысль 1986. -171 с.
3. Вундт В. Проблемы психологии народов. СПб.-Питер, 2001.-28 с.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.- 72 b.
5. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1968. -58 b.
6. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy risolalar.-Toshkent: Fan, 1987.-322 b.
7. Maʼnaviyat asosiy tushunchalar izohli lugʻati. Qayta ishlangan yangi nashri. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashr., 2016. – 406 b.
8. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi. –Toshkent: Akademiya, 2005. -24 b.
9. Ergashev I. Hayotning har oni falsafa. – Toshkent: Akademiya, 2011. -76 b.
10. Mamashokirov S., Togʻayev Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining gʻoyaviy – mafkuraviy masalalari. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2007. -10 b.

YOSHLARNING IJTIMOIIY STARTAPLARDAGI YETAKCHILIK QOBILYATI VA VOLONTYORLIK

Sanʼatbek Muzaffarov,

Oʻzbekiston Milliy universiteti doktoranti

Ijtimoiy faoliyatda ham insonga yoʻnaltirilgan universal dizayn, toʻsiqsiz muhit, ijtimoiy infratuzilmalar, ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy loyihalardan innovatsion usulda foydalanishi va ijtimoiy muammolarni samarali echim va yangi gʻoyalardir. Bular esa, **ijtimoiy startaplardir.**

Yagona farq shundaki, ijtimoiy yoʻnaltirilgan startaplar mahsulotning oʻziga va undan olinadigan daromadga eʼtibor berishdan koʻra, ijtimoiy sohani qamrab olganligi va manfaatdor guruh (aholining istalgan bir qismi)ga bergan natijasi muhimroq.

Ijtimoiy startaplar uchun maʼlum yangilik qilish shart emas, shunchaki uni takomillashtirishni, samarali yoʻlini va echimning innovatsion usuli boʻlsa kifoya. Eng muhimi yaxshilik qilish va jamiyat uchun ulkan hissa qoʻshishdir. Bu hissa sogʻlom yashashga, yaxshi taʼlim olish va farovon yashashni targʻib etishni oʻz ichiga oladi. Jamiyatimizga va butun sayyoramizga yordam beraylik!

Ijtimoiy startaplar daromad va moddiy ragʻbatlanish uchun qilinmaydi, balki jamiyat uchun foyda va engilliklar yaratish uchun yaratiladi. Xuddi nodavlat tashkilotlarning faoliyati singari, aholining ehtiyojmand qatlamini turli xil koʻrinishlar orqali ijtimoiy yoʻnaltirishdir. Ijtimoiy startaplar davlat va jamiyat uchun ulkan foydasi orqali ijtimoiy muammolarni oʻz oʻzidan hal qiluvchi yagona echimdir. Ijtimoiy startaplarni qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirish juda muhim. Misol uchun, tibbiy, ijtimoiy taʼlim, pedagogik va ijtimoiy reabilitatsiya qilish, hayot tarzida qulayliklar kiritish, foydali ishlanma yaratish va boshqalar.

Hatto, rivojlangan davlatlarda ham ijtimoiy startaplar eʼtibor qaratilmaganligi, insonlar aro munosabatlarga shikast etgan. Bu shikastlar davrlar oʻtib yuqumli kasalliklarga aylanadi. Buning oldini olishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarning oʻrni beqiyosdir,

Loyihaning maqsadlari va natijalariga muvaffaqiyatli erishish uchun resurslarni rejalashtiradi, tashkil qilinadi va boshqarilishi kerak.

Loyiha boshqaruvchisi — turli koʻnikma va bilimlarga ega boʻlgan, jamiyat uchun foyda keltirishni asosiy maqsad qilib olgan, bilim va tajribaga tayanuvchi, loyiha uchun javobgar va uni uzoq muddatga rivojlanishi uchun masʼul nazarda tutiladi.

Loyiha boshqaruvchisi sifatida rolga kirish va samarali boshqarish kerak boʻladi. Bu esa, eng muhim va qiyin bosqichdir. Lider sifatida boshqaruvga kirishar ekansiz sizdan juda katta bilim va tajriba talab etiladi. Siz esa, doim yangiliklarga oʻch boʻlishingiz va izlanuvchi boʻlishingiz

talab etiladi. Aqlli boshqaruvchilar loyihani amaliy qismini o'z jamoasiga ishonadi va ularning xato qilishiga ham qo'yib berishadi. Ammo siz universal odam bo'lishingiz kerak. Moliyaviy va tashkiliy ishlarni, strategiya va rejalar, eng asosiysi jamoani ishini tashabbuskorlik bilan etaklovchi bo'lsangiz kifoya. Biz ko'rsatgan sifatlardan o'zingizga mos shaxsiy imij yasab olishingiz mumkin. Bu sizga asqatadi degan umiddamiz.

Ijtimoiy startaplarni boshqarish ham bir san'at. Mahorat har bir boshqaruvda kerak bo'lgani kabi bunda ham ziyraklik va turlicha ko'nikmalar talab etadi. Eng asosiysi, ish samaradorligini rejalashtirish, to'g'ri baholash, doimiy o'lchash va tizimli nazorat qilishdir. Uch xil muhim bo'lgan qobiliyatni bo'lishi talab etiladi.

ICHKI QOBILIYAT	TASHQI QOBILIYAT	TEXNIK QOBILIYAT
Loyihaning ma'no mazmuni va uning yo'lini to'g'ri tashkil etish	Loyihaga bog'liq bo'lgan tashkil omillarni yaxshilash va ularni sinab ko'rish	Loyihaning rejalarini va aniq jadvalini yaratish, shu orqali strategik ishni olib borish
O'z jamoasi bilan, mutaxassislar bilan va yangi kadrlar bilan ishlash	Davlat va nodavlat tashkilotlar bilan o'zaro muloqot va ma'lumotlar almashuniuv tizimini yaratish	Loyihaning tashkiliy ishlari, davom etishini tahlil qilish va texnik bazani shakllantirish
Samarali, qulay muhitni yaxshi tashkil etish va boshqarish	Ichki imkoniyatlarini ko'rsata berish, tanitish va targ'ib etish	Ma'lumotlarni to'g'ri va tezkor etkazish va hujjatlar ustida ishlay olish
Mantiqiy va analitik fikrlash, yangi mahoratlarni egallash, o'z ustida ishlash	Manfaatdor guruh bilan va donorlar bilan ishlash olish	Muammolar ustida ishlash va ularni hal qilish
Nutqiy, ijtimoiy va insoniy fazilatlarni qadrlash va o'ziga ishon	Barcha tashqi manfaatlarni tushunish va atrofga sodiqlik	Xavfsizlik choralarini oldindan ko'rish va yangi texnologiyalarni jalb etish
Ichki sog'lomlikni ta'minlash va oldindan tayyorgarlik ko'rish	Tashqi sog'lomlikni ta'minlash va qadriyatlarini hurmat qilish	Moliyaviy nazorat va hisobotlarni to'g'ri yo'lga qo'yish
Shaxsiy brendini yaratish	Tashkilot yoki loyiha brendini yaratish	Brend yaratish vositalari va usullarini yaratish

Loyihalarni boshqarishni tanlov shaklida sizga havola etamiz. Siz lider bo‘lmoqchimisiz yoki boshliq?

LIDER	BOSHLIQ
1. Tashkilot boshqaruvchisi bo‘lmasligi ham mumkin. 2. Odamlarga ta’sir o‘taza oladi. Ular bilan birgalikda ishlaydi va jamoasini tushina oladi. Erkin va oila muhitini yaratadi. 3. Jamoani bir maqsad sari birlashtira oladi. 4. Odamlarga motivatsiya bera oladi 5. Yangi g‘oya va tashabbuskorlik ko‘rsatadi. Uzoqni ko‘zlaydi. O‘zgacha bo‘lishni xohlaydi. 6. To‘g‘ri ish qiladi 7. Taklif kiritadi 8. Barcha unga ergashadi. Hammani yuksalishga ko‘maklashadi	1. Tashkilot boshqaruvchisi bo‘ladi. 2. O‘ziga bo‘ysundirishga va tizim orqali etaklashga harakat qiladi. 3. Guruhni tartibga solib turadi. 4. Rag‘batlantiradi. 5. Yangi g‘oya va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi. Faqat hozirgi vaqtdagi ishlarni rejalashtiradi. Boshqalarga o‘xshashga harakat qiladi. 6. Ishni to‘g‘ri qiladi. 7. Buyruq beradi 8. Barcha unga bo‘ysunadi. O‘zi yuksalishga harakat qiladi.
	

Mahorat ham ikki turga bo‘linadi.

HARD SKILLS	SOFT SKILLS
Ma’lum bir soha yoki mutaxassislik bo‘yicha tajribaga ega bo‘lish, sohani mukammal egallashga qaratilgan mahorat. IT sohasi bo‘yicha juda yuqori bilimga ega bo‘lishga harakat qilish va yangi tajribalarni o‘zlashtirish jarayoni.	Ma’lum ijtimoiy va psixologik munosabatlarga, ijtimoiy muhit yaratishga qaratilgan mahoratdir. Ya’ni jamoaviy ishlay olish, muomala madaniyati, ijobiylik va boshqa insoniy fazilatlar [2.3]

Umumiy Boshqaruv - Ijtimoiy startaplarni boshqaruvchisi tashkiliy va moliyaviy masalalarni o'z nazoratida tutadi, uni to'g'ri strategiyasini ishlab chiqishda ishtirok etadi. Boshqaruv tizimi ma'lum tartib-qoidalar va strategiyalar ustida qurilgan bo'lishi lozim. Shunda, ijtimoiy startapning bozori qay holatda turganligini bemalol ko'ra oladi [3.57].

Boshqaruv egasi yuqoridagi aytilganidek, ijobiy imijining yaratishda va tashkilotni tashqi muhitda yaxshilash uchun javobgar shaxsdir.

Xavflarni boshqarish — ijtimoiy startap yoki jamoa uchun tug'ilayotgan xavflarga va muammoli vaziyatlarga o'z vaqtida e'tibor berish, oldini olishga javobgarlik. Xavf kelganda favqulodda qaror qabul qilish muhimdir. Buning uchun esa, SWOT tahlil va strategiya yaqindan yordam beradi. Bundan tashqari, juda ko'plab texnikalarni oldindan ishlab chiqish va o'rganish ham kerak bo'ladi.

Jamoani boshqarish — Ijtimoiy startap uchun kim javobgar? Loyihada ishtirok etayotgan har shaxs mas'uldir. Jamoa ichidagi muloqot tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish va ishlash sharoitini yaxshilash turli boshqaruvlarni yagonalashtiradi.

Boshqaruvchi ijtimoiy startap uchun jamoadagi eng yaxshi muhitni va ishchanlik qobiliyatini oshirishga xizmat qiluvchi har bir jamoa a'zosi bilan va uning ishi bilan tanishib turadi ammo qattiq nazorat qilib, ishonchsizlik bildirmaslik kerak bo'ladi. Jamoa qadriyatlariga mos bo'lgan tartiblar, motivatsiya va har a'zo uchun aniq vazifa bo'lsagina, jamoa yanada o'z ishini sidqidildan bajaradi.

Ijtimoiy startap faqat jamoaviy ruhda bo'ladigan loyiha ekanligini va uni asosiy drayveri sifatida o'rta qo'yishini har bir jamoa a'zosi bilish talab etiladi. Bu esa, qiyin va muvaffaqiyatli vaziyatlarni birga baham ko'rishga sharoit yaratadi.

Boshqaruvchi shu ma'suliyatli ishni kuzatuvchisi. Chunki jamoadan fikrlar oladi, ularni o'rganadi, so'rovnomalar o'tkazadi va boshqa jamoaviy o'yinlar tashkil etib turadi. Oqibatda, ma'suliyatni hammaga teng taqsimlanadi.

Tashabbuslarni boshqarish — ijtimoiy startaplar uchun berilgan taklif, shikoyat, tanqid va izohlar rivojlanishi uchun xizmat qildirish demakdir.

Jamoani qo‘shimcha moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan rag‘batlantirish tizimi (bonuslar, stimullar, o‘qitish va boshqalar)ni yaratish uchun boshqaruvchi doimo izlanish olib boradi. Boshqaruvchining o‘zi bosh tashabbuskordir.

Loyiha salohiyati va imiji uchun xizmat qiladi. E’tibor berish kerak bo‘lgan eng muhim jarayondir.

“SWOT” tahlili

“SWOT” tahlili — yangi g‘oyalar va tashabbuslarni tahlil qilish va uni mukammal ko‘rinishga keltirgan holatda strategik rejalashtirish va qaror qabul qilishda yordam beradigan usul.

“SWOT” inglizcha so‘zning qisqartmasidir:

S – Strengths (Kuchli tomonlar);

W – Weaknesses (Zaif tomonlar);

O — Opportunities (Imkoniyatlar) va

T — Threats (Xavflar) [4.1].

“SWOT” — ijtimoiy startapningizni yaratganingizdan keyin, uni turli tomonlardan o‘rganib chiqishingiz lozim. Bu esa, loyihani yo‘lini topishga, boshlang‘ich nuqtasini va davomiyligini belgilab beradi. Kutilajak xavflar, o‘zgarishlar, qiyinchilik va ziddiyatli muammolarni oldindan ko‘rishingiz hamda ta’sir qilishingiz uchun zamin yaratadi. Buning uchun startapning kuchli tomonlari, zaif tomonlari, imkoniyat va xavflarni kamida 7 tadan yozib chiqishingiz kerak.

4 katakli jadvalda tuzib olinadi. Tepadagi ikki katakda kuchli tomonlar va zaif tomonlar ifodalangan va ular tashqi omillar deb ataladi.

Pastdagi ikki katakka imkoniyatlar va xavflar qo‘yilgan va ular ichki omillar deb ataladi.

ICHKI OMILLAR		
KUCHLI TOMONLAR		ZAIF TOMONLAR
1. Loyihaning qanday afzalliklari bor? 2. Loyiha rahbarining tajribasi bormi? 3. Startapga ijobiy ta'sirlar qanday? 4. Loyihaning ustunlik tomonlari bormi? 5. Qo'shimcha vositalar bormi? 6. Shu bo'yicha imtiyozlar va moliyaviy imkoniyatlar bormi? 7. Yutuqlaringiz va muvaffaqiyatli tomonlar nimada?		1. Loyihada qanday kamchiliklar bor? 2. Moliyaviy tomonlar to'g'ri va aniq yo'naltirilganmi? 3. Jamoaviy ishlay olasizmi yoki shu sohaga doir mutaxassis topa olasizmi? 4. Qonunchilikdagi o'zgarishlar yoki huquqiy bilimlar mavjudmi? 5. Sizdan oldin bu ishni qilganlar bormi, bo'lsa ular sizdan qaysi jihatlari bilan ustun? 6. Aniq zaiflik nimada deb o'ylaysiz? 7. Oldindan rejalar tuzganmisiz, turli muammolarga echilar mavjudmi?
TASHQI OMILLAR		
IMKONIYATLAR		XAVFLAR
1. Qanday imkoniyatlar mavjud? 2. Imkoniyatlarni qayasi omillar bilan bartaraf etmoqchimisiz? 3. Sizda nimalar muvaffaqiyatli qilishi mumkin? 4. Loyiha dolzarbm va u qaysi muammolarga yyechim bo'la oladi? 5. Amalga oshirish davomida ijobiy jihatlarigizni sanang? 6. Loyiha natijasida kimlar uchun foydali bo'ladi? 7. Loyihada manfaatdor guruh yoki qo'llab-quvvatlovchi tizimlar haqida ayting?		1. Qanday xavflar mavjud? 2. Qanday to'siqlar va chegaralar bor? 3. Loyiha bo'yicha sizni nima tashvishlantiryapti? 4. Loyiha keyinchalik ham davom etadimi? 5. Qiziqтира olmaydigan tomonlaringiz? 6. Moliyaviy xavf nimada? 7. Ijtimoiy startaplar bo'lajak mehnat resursi yaratishda va joy muammolari haqida aytib bera olasizmi?

Volontyorlik va ijtimoiy startaplar yaratuvchisi o'rtasida juda katta bog'liqlik bor. Loyihalar yaratuvchisi yoki lider odam albatta volontyorlik tajribasiga ega bo'lishi kerakki, ular shunday loyihalarni boshlaganda volontyorlik ular uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Ulardan:

Birinchidan, startap boshqaruvchisi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirganda albatta jamiyat yoki uning biror bir bo'g'ini bilan ishlaydi, manfaatlarni to'g'ri baholay oladi. Bu esa, uning tajribali va amaliyotchi bo'lishni talab etadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy startaplar jamoaviy amalga oshiriladi va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari volontyorlik orqali tezlik ega bo‘linadi hamda jamoani fidokorona ishlashiga turtki bo‘ladi.

Uchinchidan, ijtimoiy muammolarni anglash va tushunishga, ular orqali ehtiyojlarni tog‘ri yo‘naltirishga ko‘mak beradi. Bu ixtiyorlik va beg‘arazlik bilan bog‘liq.

To‘rtinchidan, profesional volontyor albatta loyihalarni boshqaruvchanlik va yuqoridagi ko‘nikma va qobiliyatlarga ega bo‘ladi. Bu esa, yangi ijtimoiy startaplar qilishiga imkoniyat beradi.

Beshinchidan, ijtimoiy startaplar foyda olishdan ko‘ra, jamiyat uchun manfaatdor bo‘lishini afzal biladi bu esa, yaxshi volontyor bo‘lgan odam uchun boshqalarni yaxshi ishontirishga va o‘zing ezgulik hikoyalarni o‘rtoqlashishga turtki bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, har kim volontyor bo‘lishi kerak va bu uning hayotda tajribali va mahoratli bo‘lishini ta‘minlaydi. Ko‘p jamiyatlarda bu tajribaga ega bo‘lgan insonlardan liderlar va yaxshi startaplar chiqishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Muvaffaqiyati bo‘lish uchun o‘z hayotini yaxshiliklar bilan to‘ldirishi bundan qaytadigan barakani ham esdan chiqarmaslik kerak. Qanchalik ko‘p ezguliklar qilgan odamga shuncha ko‘p yaxshilik qaytishi sir emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. San‘atbek Muzaffarov “Ijtimoiy hayotga yoshlar tashabbusi yohud Ijtimoiy startaplarni boshqarish” uslubiy qo‘llanmasi "INFO CAPITAL GROUP" nashriyotida 13 sentabr 2022-yil, 12-bet.

2. Corey Bleich “Hard Skills vs. Soft Skills: Definitions and 50+ Examples” (<https://www.edgepointlearning.com/blog/hard-skills-vs-soft-skills/>)

3. Bob Doherty, Helen Haugh, Fergus Lyon “Social Enterprises as Hybrid Organizations: A Review and Research Agenda” 03 yanvar 2014, (International Journal of Management Reviews, Vol. 16, 417–436 (2014) DOI: 10.1111/ijmr.12028)

4. <https://writingcenter.uagc.edu/swot-analysis> — Arizona Universiteti Global Kampus Yozuv markazi tomonidan ushbu sayt.

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARIDA MA'NAVIY- AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

Ismailov Dilshod Baxriddinovich,

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchi*

O'zbekiston xalqining milliy yuksalishi amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mohiyatan ijtimoiy davlatni barpo etish va ma'rifiy jamiyat poydevorini yaratishga qaratilganligi bilan bog'langandir. Bu islohotlar, eng avvalo, davlat hayotini, uning institutlari faoliyatini yangilashga qaratilgandir. "Inson qadri", "Xalqparvar davlat", "Adolatli ijtimoiy siyosat" yuritish, inson kapitalini rivojlantirish ana shu islohotlarda ko'zda tutilgan pirovard maqsadlardir. Bugun ushbu maqsadga etishning strategik yo'llari Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab olingan.

Shu ma'noda, Yangi O'zbekistonni barpo qilishda yangi tipdagi rahbar kadrlar, davlat xizmatchilarini tayyorlash, respublikada kadrlar siyosatini ilmiy asosda qurish strategik shartlardan biridir. Shuningdek, loqaydlik, mahalliychilik, korrupsiya kabi illatlar xavfsizligimizga tahdid ekanligi, shu tufayli davlat xizmatchilarini tayyorlash — davlatimiz uchun strategik ahamiyat va ilmiy-nazariy asoslarga ega. Bularning barchasi mamlakatimiz rahbarining turli yig'ilish, majlislar, uchrashuvlar minbaridan turib, so'zlagan tanqidiy fikrlariga asos bo'lmoqda. Bu esa mamlakatimizda rahbar kadrlarni tanlash, tarbiyalash, joy-joyiga qo'yish, malakasini oshirish kabi muhim bo'g'inlarda sifat jihatdan islohotni talab qiladi. Prezidentimiz Mirziyoyev Sh.M. ta'kidlaganidek: "Asosiy vazifa – bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o'ylangan, har tomonlama to'g'ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat"dir [1].

"Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari" g'oyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlarning har bir yili, har bir bosqichida ijro organlarida faoliyat ko'rsatayotgan davlat xizmatchilari oldiga qo'yilgan vazifalar o'zgarib, yangilanib boradi. Ya'ni, islohotlar muammolari

kompleksining bir qismi hal qilingach, yangi vazifalar belgilanadi. Yangi kelgan rahbarlar, davlat xizmatchilari yangi muammolarni echishga kirishadilar. Islohotlarni amalga oshirish jarayonida davlat xizmatchilari zimmasiga yuklatiladigan vazifalar vaqt kesimida bir-biridan farq qiladi. “Davlat xizmatida 30 yildan beri o‘z echimini topmagan tizimli muammolarni hal qilishga qaratilgan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun normalarining samarali ijrosini ta‘minlash orqali davlat fuqarolik xizmatini tartibga solish sohasida ilg‘or xalqaro standartlarga javob beruvchi yagona tartibot shakllantiriladi hamda davlat fuqarolik xizmatiga malakali kadrlarni faol jalb qilish, ularning salohiyatini oshirish, fidoiy, xalqparvar va raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalash uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi. Zero, Yangi O‘zbekistonning kadrlar siyosati – mustahkam huquqiy poydevor asosiga qurilishi lozimdir!” [3;1105].

Tabiiyki, mazkur yangiliklar davlat xizmatchilaridan yangi vazifalarni hal qilish uchun yangi kompetensiya va fazilatlariga ega bo‘lishni talab etadi. Shu bois siyosiy ta‘lim va tarbiya davlat xizmatchilarini ana shu yangiliklar bilan tanishtirish, ularning yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish takomillashgan texnologik vazifa sifatida amalga oshiriladi.

Har qanday strategik hujjatning ro‘yobi ham, avvalo, davlat fuqarolik xizmatchilarining ishga munosabatiga, mehnat unumdorligining samarasiga bog‘liq bo‘ladi. Ayni shu jarayonda, **O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustda** “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-son **Qonuni** qabul qilindi [4]. Bu qonunning qabul qilinishidan maqsad ham davlat boshqaruvini samarali, adolatli va intizomli mas‘uliyat tizimini ta‘minlash, davlat fuqarolik xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlash va qo‘llab-quvvatlash, davlat fuqarolik xizmatchisining qonuniy vakolatlarini belgilash va huquqiy maqomini mustahkamlashni o‘z ichiga olgan.

Qonunda davlat xizmatchisi kasbiy ma‘naviyati **“Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari** – davlat fuqarolik xizmatchilari

tomonidan rioya etilishi shart bo'lgan odob-axloq normalari majmui doir talablar"i [3] belgilab qo'yilgan.

2017-yilda oliy ta'lim muassasalari uchun tayyorlangan "Davlat xizmatchisi etikasi va imiji" o'quv qo'llanmasida davlat xizmatchisiga shunday ta'rif beriladi: "Davlat xizmatchisi deganda – davlat organlarining huquqlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha tashkiliy-boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi, fuqarolar uchun huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni amalga oshiruvchi shaxs nazarda tutiladi. Mansabdor shaxslarda siyosiy xislatlar bilan bir qatorda axloqiy fazilatlarni shakllantirish zaruriy holdir. Axloqiy barkamollik davlat xizmatidagi xodimlarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi" [5;4].

Ko'rinib turganidek, shaxsiy ma'naviy-axloqiy fazilatlar davlat xizmatida muhim rol o'ynaydi, chunki ular davlat xizmatchilarining samaradorligi va professionalligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Davlat xizmatida muvaffaqiyatli martaba uchun muhim bo'lgan ba'zi asosiy shaxsiy fazilatlar:

1. Halollik: davlat xizmatchilari halol, halol va ishonchli bo'lishi kerak. Ularning harakatlari va qarorlari axloq normalari va qonun hujjatlariga muvofiq bo'lishi kerak.

2. Kasbiy javobgarlik: davlat xizmatchilari o'z vazifalarini yuqori darajada mas'uliyat bilan bajarishlari, eng yaxshi natijalarga intilishlari va kasbiy standartlarga rioya qilishlari kerak.

3. Tahliliy ko'nikmalar: tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyati faktlar va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun muhimdir.

4. Muloqot qobiliyatlari: davlat xizmatchilari turli manfaatdor tomonlar, shu jumladan, fuqarolar, hamkasblar va rahbarlar bilan samarali muloqot qilishlari kerak.

5. Yetakchilik: menejerlar yoki menejerlar rovida davlat xizmatchilari jamoani boshqarish va ilhomlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

6. Moslashuvchanlik: davlat xizmatlari ko'pincha o'zgaruvchan sharoitlarga va yangi muammolarga duch keladi. O'zgarishlarga moslashish va ularga tezda munosabat bildirish qobiliyati muhim sifatdir.

7. Maxfiylik: davlat xizmatchilari ko‘pincha maxfiy ma’lumotlarga ega va maxfiylikni saqlash qobiliyati juda muhimdir.

8. Etika: davlat xizmatchilari uchun yuqori axloqiy me’yorlarga rioya qilish va manfaatlar to‘qnashuvidan qochish muhimdir.

9. Hamkorlik qilish qobiliyati: davlat xizmatchilari umumiy maqsadlarga erishish uchun jamoada ishlashga va boshqa organlar bilan hamkorlik qilishga tayyor bo‘lishi kerak.

10. Stressga chidamlilik: davlat xizmatchilari yuqori darajadagi stress va bosimga duch kelishi mumkin, shuning uchun stressni boshqarish va xotirjamlikni saqlash qobiliyati muhimdir.

Ushbu fazilatlar davlat xizmatchilariga o‘z vazifalarini yanada samarali bajarishga yordam beradi, davlat xizmatlarini sifatli ko‘rsatishni ta’minlaydi va davlat muassasalariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Tadqiqotchi Maxbuba Xoliyarova ta’kidlaganidek: “Davlat xizmatchisi – davlat va millatning yuzi hisoblanadi. Davlatning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim rol o‘ynaydi. Inson ma’naviy-axloqiy me’yorlar bilan yoshligidan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Bola yoshligidan ta’lim-tarbiya jarayonida sayqallana borishi natijasida jamiyatning bir a’zosi shaxs sifatida shakllanadi. Bu shakllanish natijasida u jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etuvchi jamiyatning bir bo‘lagiga aylanib ulguradi. Ana shunday shaxs maqomiga ega kishilar davlat xizmatida faoliyat olib borishlarida belgilangandan tashqari ularning alohida xususiyatlari mavjud bo‘lishini unutmaslik lozim” [6;203].

Quyida ba’zi asosiy shaxsiy fazilatlar va ularning davlat xizmatida qaror qabul qilishga ta’siri keltirilgan:

1. Butunlik. Davlat xizmatchilari uchun yaxlitlik muhimdir. “Yuqori darajadagi yaxlitlikka ega bo‘lgan shaxslar o‘z manfaatlariga emas, balki qonunlar va axloq normalariga mos keladigan qarorlar qabul qilishga moyildirlar [7;85]”.

2. Professionallik. Professionallikka ega bo‘lgan davlat xizmatchilari o‘z vazifalarini maksimal mas’uliyat va sifat bilan bajarishga qaratishgan. Bu jamiyatga eng yaxshi xizmat qiladigan qarorlarni qabul qilish uchun muhimdir.

3. Tahlil qilish qobiliyati. Analitik fikrlaydigan shaxslar qaror qabul qilishdan oldin ma'lumotni samarali tahlil qilishlari, tadqiqotlar o'tkazishlari va alternativlarni baholashlari mumkin.

4. Qat'iylik. Qat'iyatga qodir davlat xizmatchilari ko'pincha qaror qabul qilishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni engishadi. Bu ularga boshlagan ishlarini tugatishga yordam beradi.

5. Jamoada ishlash qobiliyati. Davlat xizmatida ko'pincha hamkorlik va jamoaviy ish talab etiladi. Hamkasblari bilan samarali muloqot qila oladigan shaxslar birgalikda ma'muriy qarorlarni osonroq qabul qilishlari mumkin.

6. Hissiy barqarorlik. Hissiyotlarni boshqarish va stressli vaziyatlarda xotirjamlikni saqlash qobiliyati asosli qarorlar qabul qilish uchun muhimdir.

7. Axloqiy qadriyatlar. Shaxsiy qadriyatlar va e'tiqodlar davlat fuqarolik xizmatchilarining qarorlariga ham ta'sir qilishi mumkin. Ularning axloqiy tamoyillarga va qonun-qoidalarga rioya qilishlari muhimdir.

Mazkur xislatlar davlat xizmatchilariga faqatgina shaxsiy natijadorlikni yuksaltirish emas, balki davlat muassasalariga nisbatan jamoatchilik ishonchini kuchaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, davlat xodimining shaxsiy sifatleri – poklik, vijdoniylik, javobgarlik va axloq kabi jihatlar – jamiyat hamda yurt manfaatlariga xizmat qiladigan to'g'ri va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish salohiyatiga bevosita ta'sir etadi. Mazkur fazilatlar davlat idoralarida oshkoralik, adolat va ishonch tamoyillariga tayangan samarali tizimni barpo etishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini oshirishda muhim omilga aylanadi.

Davlat boshqaruvida faoliyat yuritayotgan rahbar xodimning qiyofasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri – uning yuksak ma'naviyati, ijtimoiy mas'uliyati va madaniy saviyasidir. Bu mezonlar bugungi globallashtirish jarayonlari keskinlashayotgan davrda nafaqat dolzarb ahamiyatga ega, balki Yangi O'zbekistonning buyuk kelajagini ta'minlay oladigan rahbarlar avlodini shakllantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Jamiyat va millat kamchiliklardan xoli bo'lishi, avvalo, rahbarlarning o'z ustida ishlay olishi, zamon talablariga moslasha bilishi va shaxsiy kamchiliklaridan xalos bo'lishiga bog'liq. Boshqaruvda samaradorlikka erishish uchun zamonaviy rahbar – bilimli, fidoyi, ma'naviyatli, o'z jamoasiga namuna bo'la oladigan va boshqalarga ibrat bo'lishga qodir shaxs bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, islohotlarning hozirgi bosqichida shaxs ijtimoiy voqelikni o'zgartiruvchi hodisa sifatida namoyon bo'ladi, ijtimoiy taraqqiyot mezoni hisoblanadi. Barqaror taraqqiyot esa mehnat unumdorligining o'sishiga, xalq farovonligining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatidan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq" [2;168]. "Inson omili" yoki "ma'naviy va intellektual salohiyat"ni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar jarayonining harakatlantiruvchi kuchini, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda amalga oshiriladigan shaxsning g'oyaviy, axloqiy, ishbilarmonlik va irodaviy fazilatlari yig'indisini, shu jumladan, motivatsion tuyg'ulari shaxs intellektual salohiyati tuzilishini tashkil etadi.

Inson faoliyati davomida o'zini o'zi anglashi uchun, qobiliyatlarini to'liqroq ochib berishi uchun barcha sharoitlarni yaratish kerak. Shaxsning "ijtimoiy sifatleri"ni shakllantirishdan iborat bo'lgan bu jarayon salbiy hodisalar – loqaydlik, beparvolik, kam mehnat qilib ko'proq daromad olishga intilish, korrupsiya, poraxo'rlik, mahalliychilik jamiyat me'yorlarning buzilishi va shu kabi boshqa holatlarga qarshi keskin kurash olib borishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz// Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish

tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi// <https://president.uz/oz/lists/view/111>

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. I tom. – B. 168.

3. Zaynobiddinova F.B. Yangi O'zbekistonda kadrlar siyosatining huquqiy jihatlari//O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 022. –T. II. – №. 14. –B. 1094-1105.

4. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son // <https://lex.uz/ru/docs/-6145972>

5. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Universitet, 2017. –B. 4.

6. Xoliyarova M. Davlat xizmatchilarining ma'naviy qiyofasi (Prokuratura organlari xodimlari misolida) // O'zMU xabarlar. –2024. – №. 1.1. –B. 200-203.

7. Радайева Е.А. Востребованность кадрового потенциала государственной гражданской службы: Социологический аспект. диссертация ... кандидата социологических наук: 22.00.04. –Москва, 2004. – 85 с.

AXLOQIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Andijon davlat pedagogika instituti

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ongiga turli mafkuraviy xurujlar, yot g'oyalar kirib kelayotgan bir paytda, ularda axloqiy immunitetni shakllantirish masalasi nihoyatda dolzarbdir. Axloqiy immunitet — bu insonning ma'naviy barqarorligi, yovuzlik va yot

g'oyalarga qarshi ichki himoya tizimi bo'lib, u milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ajdodlar merosi orqali mustahkamlanadi.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, diniy, madaniy va ma'naviy an'analari majmui bo'lib, ular shaxsni axloqiy jihatdan tarbiyalashda, milliy o'zlikni anglashda va barkamol insonni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Shu bois, bugungi kunda milliy qadriyatlar asosida axloqiy immunitetni rivojlantirish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda.

Milliy tarbiyaviy qadriyatlarni tiklash va zamonaviylashtirish umuminsoniy ehtiyoj hamdir. Sobiq sho'rolar davrida ijtimoiy ongda "zamonaviylik-milliylik" tushunchalari orasida "sivilizatsiya-ekzotika" shaklidagi sun'iy antiteza hosil qilindi. Shu tufayli milliylikni ajdodlardan avlodlarga boyitib etkazuvchi jarayon – milliy tarbiyaning tobora zaiflashuviga yo'l qo'yildi, mafkuraviy maqsadlar ostida milliy qadriyatlarni o'zaro aloqada yuksaltirish emas, balki bixillashtirish harakati rag'batlantirildi. Ayniqsa, tarbiyani sotsialistik baynalmilallashtirish siyosati va amaliyotning asoratlari millatlarning ma'naviy hayoti, qiyofasida milliy g'ururni tiklash, ajdodlar merosini o'rganish kabi ehtiyojlarida namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun ham milliy mustaqillikni qo'lga kiritgan millatlarning o'z milliy-ma'naviy qadriyatlarini tiklashga bo'lgan ehtiyoji tabiiy, qonuniydir. Bu esa milliy tarbiya mohiyatini ilmiy talqin qilishni umuminsoniy ma'rifiy zarurat maqomiga ko'taradi.

Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma'naviyati, madaniyati, o'ziga xos urf-odatlari, an'analasiz tasavvur qilish qiyin. "Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim" [1:12].

Keyingi vaqtlarda tarbiya masalasida qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz qatori oilada, maktab va jamoat tashkilotlarida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning, an'analarning ustuvorligiga erishildi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va

ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va oid hikmatlar, maqollar, hayotiy misollardan keltirib tushuntirishlari juda muhimdir. Ta'kidlash joizki, diqqat va mahorat bilan eshitish odobi va malakasiga "mahorat bilan eshitish" [2:146] bilimlarini mustahkamlash orqaligina ega bo'lish mumkin.

Albatta, ijtimoiy hayot davomida oilada ota-ona va bola o'rtasida turli voqea va hodisalar, tushunmovchiliklar bo'ladi. Biroq, baribir insonning eng sof tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada ota-onaning qalb qo'ridan chiqadigan mehr-muhabbati, shirin so'zi orqali shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – ezgulik, olijanoblik, mehr-oqibat va or-nomus kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila muhitida qaror topadi.

Shu o'rinda Yusuf Xos Hojibning "Kishi uchun juda kerakli bo'lgan ikki a'zo bor: biri – til, boshqasi – yurak. Til so'z uchun, yurak, ko'ngil esa shu so'zdan lazzatlanishi uchun berilgan", degan fikri ota-onalarni va yoshlarni go'zal, chiroyli so'zlaydigan, ma'naviy barkamol, yuksak odob va ilm egasi bo'lishlarida qo'l keladi. imkoniyatlarini safarbar etamiz", – degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida etuk, barkamol etib tarbiyalashda kuch-g'ayrat bag'ishlamoqda. [3:352].

Milliy qadriyatlarning asosi bo'lgan ma'naviyat va madaniyat deganda, inson xulq-atvorining go'zalligi, saxovatligi, olijanoblighi, va'dasiga vafodorligi, hayoliligi, bilim olishi, donolighi, bag'rikengligi, odoblilighi, ozoda va pokizalighi, qalbining beg'uborligi, xushmuomalalighi va shu singari insoniy xislatlar tushuniladi.

O'z farzandlari bilan bevosita va bilvosita muloqotda bo'lib, ularni ma'nan oziqlantirar ekan, ona eng avvalo, o'zi muomala jarayonida namuna bo'lishlari hamda farzandlarini ko'proq tinglab, nutqiy layoqatini oshirishga harakat qilishlari so'ngra o'z fikrlarini axloq me'yorlariga rioya qilgan holda suhbatga oid hikmatlar, maqollar, hayotiy misollardan keltirib tushuntirishlari juda muhimdir. Ta'kidlash joizki, diqqat va mahorat bilan eshitish odobi va malakasiga "mahorat bilan eshitish" bilimlarini mustahkamlash orqaligina ega bo'lish mumkin. Albatta, ijtimoiy hayot davomida oilada ota-ona va bola o'rtasida turli voqea va

hodisalar, tushunmovchiliklar bo'ladi. Insonning eng sof tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada onaning qalb qo'ridan chiqadigan mehr-muhabbati, shirin so'zi orqali shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – ezgulik, olijanoblik, mehr-oqibat va or-nomus kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila muhitida qaror topadi. [4:78].

Milliy qadriyatlar esa ana shu immunitetning asosiy poydevoridir. Ular xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma'naviy tajribasini o'zida mujassam etgan bo'lib, yoshlarni hayotiy qadriyatlar ruhida tarbiyalaydi. Shu bois ta'lim-tarbiya tizimida milliy qadriyatlar asosida axloqiy immunitetni shakllantirish masalasi ilmiy-pedagogik izlanishlarning markazida turibdi.

Axloqiy immunitetni shakllantirishda eng muhim omil – bu oila va ta'lim tizimining uzviy hamkorligidir. Ota-ona o'z farzandida milliy qadriyatlarni singdirsa, maktab esa ularni nazariy va amaliy jihatdan mustahkamlasa, natijada yoshlar global tahdidlarga nisbatan barqaror axloqiy pozitsiyaga ega bo'ladi.

Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'siri kuchaygan davrda “raqamli tarbiya” [5:136] konsepsiyasini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish zarur. Bu orqali yoshlar internetdagi buzg'unchi axborotlarga nisbatan ongli immunitetga ega bo'ladilar.

Ta'lim tizimida milliy qadriyatlar asosida axloqiy immunitetni rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- O'quv dasturlariga “Milliy qadriyatlar va axloqiy immunitet” modullarini kiritish;
- mahalliy madaniyat, urf-odat va an'analar asosida interaktiv darslar tashkil etish;
- ota-onalar uchun “Milliy tarbiya maktabi” seminarlarini yo'lga qo'yish;
- yoshlar o'rtasida milliy g'urur, mas'uliyat va vatanparvarlik ruhini kuchaytiruvchi loyihalarni amalga oshirish.

Natijada, milliy qadriyatlarga tayanilgan axloqiy immunitet yoshlarning ma'naviy poydevorini mustahkamlaydi, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxslar sifatida voyaga etkazadi.

Axloqiy immunitetni shakllantirish bugungi kunda yoshlarni ma'naviy jihatdan barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashning eng muhim shartlaridan biridir. Ushbu jarayonning poydevori milliy qadriyatlarga tayanadi, chunki milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy tajribasi va hayot falsafasini o'zida mujassam etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to'plami). –T; “O‘zbekiston”, 1997. B.198; Komilov T., Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. O‘zR FA, “Fan”, 2000. B.20; Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. T; “O‘zbekiston”, 1997.B.48.

2. **Mirziyoyev Sh.M.** *Yangi O‘zbekiston strategiyasi.* – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.

3. **Yusuf Xos Hojib.** Qutadg‘u bilig. – Toshkent: “Fan”, 1971.–352 b.

4. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “O‘zbekiston”, 2016.B.146.

5. Sa’dullayev A. Milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

YOSHLARDA VATANPARVARLIK G‘OYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYASINING O‘RNI

Aliyeva Dilbar Valiyevna,
katta o‘qituvchi, Alfraganus universiteti

Vatan tushunchasi inson uchun onalik mehnati, ajdodlar merosi va tug‘ilib o‘sgan zamin bilan bog‘liq bo‘lgan muqaddas maskan hisoblanadi. Tarix shakllangan makon, ota-onalar yashagan joy va har bir fuqaro istiqomat qiladigan hududdan iboratdir. Shu asosiy tushunchadan kelib chiqqan vatanparvarlik esa Vatanni chin dildan sevish, uni qadrlash, uning ravnaqi yo‘lida fidokorona xizmat qilish va mustaqilligini himoya qilishga tayyor turishni anglatadi. Vatan tuyg‘usini anglagan shaxsda vatanparvarlik fazilati shakllanadi, bu fazilat esa uni butun hayoti davomida Vatan manfaatlari yo‘lida jasorat va qahramonlik ko‘rsatib yashashga chorlaydi.

Interfaol metodlar XXI asr ta’lim tizimida o‘qitish sifatini oshirish va uning samaradorligini ta’minlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Manbalarni tahlil qilish natijasida ma’lum bo‘lishicha, bu metodlar ta’lim jarayonida ilk bor XX asrning 20-yillarida qo‘llanila boshlagan. O‘tgan asrning 60-yillarida pedagog olim V.A. Suxomlinskiy o‘z ilmiy ishlarida interfaol ta’lim usullarini o‘quv jarayoniga joriy etish tajribasini keng yoritgan. XX asrning 70-80-yillariga kelib esa, Rossiyada Sh.A. Amonashvili, V.F. Shatalov, Ye.N. Ilina va boshqa olimlarning izlanishlarida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish hamda o‘qitish samaradorligini ta’minlash masalalari chuqur o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda interfaol metodlarning amaliy ahamiyati hamda ularni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar haqida so‘z yuritilgan.[1]

Interfaol ta’lim texnologiyalari — o‘qitish samaradorligini oshiruvchi, o‘qituvchi va talabalar faol muloqotiga asoslangan, o‘quv jarayonini yangi uslublar bilan interaktiv va qiziqarli qiluvchi metodik yondashuvlardir. Interfaol ta’lim (lotincha “*internus*” — ichki, o‘zaro) — bu o‘quvchi yoki talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka hamda axloqiy sifatlarni egallash

jarayonida birgalikda, hamkorlik asosida faol ishtirok etishiga tayanadigan ta'lim jarayonidir.[3]

Interfaol metodlarning mazmunini chuqurroq anglash uchun, eng avvalo, "interfaol" atamasining lug'aviy ma'nosini bilish zarur. Inglizcha "*interact*" yoki ruscha "*interaktiv*" so'zlari "inter" — o'zaro, birgalikda va "act" — harakat qilmoq, ish ko'rmoq ma'nolaridan tarkib topgan bo'lib, "birgalikda harakat qilish" degan ma'noni bildiradi.[2]

Interfaollik — bu ta'lim jarayonida ishtirok etayotgan shaxslarning bilim, ko'nikma, malaka va axloqiy fazilatlarni o'zlashtirish yo'lida o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritish qobiliyatidir.

Interfaol ta'lim usullarini o'qitish jarayoniga tatbiq etish dastlab soddadek, hatto "bolalar o'yini"dek tuyulishi mumkin. Ammo aslida, interfaol metodlarni samarali qo'llash aniq shart-sharoit va puxta tayyorgarlikni talab etadi. Shu bois, ularni ta'lim amaliyotida to'g'ri qo'llash uchun muayyan didaktik va tashkiliy asoslar zarurdir.[4]

Interfaol ta'lim quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda tashkil etiladi. Avvalo, bunday mashg'ulotlar oddiy ma'ruza shaklida emas, balki butun jamoaning birgalikdagi faol ishtiroki asosida o'tadi (masalan, talabalarga vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish jarayonida har bir guruh a'zosi o'z fikrini bildiradi, tarixiy voqealar va qahramonlik misollarini tahlil qiladi, birgalikda muhokama olib boradi va milliy qadriyatlarni qadrlashga oid echimlar ishlab chiqadi). Unda guruh a'zolarining umumiy tajribasi o'qituvchining shaxsiy tajribasidan boyroq va xilma-xildir (masalan, vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish jarayonida har bir talaba o'z oilasida, hududida yoki tarixiy voqealarda uchragan vatanparvarlik misollarini baham ko'radi. Shu tariqa, guruhning keng va turli tajribasi asosida talabalar milliy qadriyatlarni yanada chuqurroq tushunib, vatanparvarlik g'oyalarini yanada boyitadi). Har bir talaba yosh, ijtimoiy mavqe hamda tajriba jihatidan bir-biriga teng huquqli ishtirokchi sifatida baholanadi. Shu bilan birga, har bir o'quvchi muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z fikrini erkin bayon etish huquqiga ega. Mashg'ulot davomida talaba shaxsi tanqid qilinmaydi, faqat uning fikri yoki ilgari surgan g'oyasi tahlil qilinadi.[7] Dars jarayonida aytilgan fikr va

gʻoyalar esa talabalar faoliyatini boshqarish vositasi emas, balki ularning mustaqil fikrlashi va tahliliy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi axborot manbai sifatida qaraladi.

Interfaol taʼlim jarayonida yoshlar bir qator muhim imkoniyatlarga ega boʻladilar. Avvalo, ular guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda faoliyat yuritish, tengdoshlari oʻrtasida oʻz fikr va gʻoyalarini erkin ifoda etish, bilimlarini hech qanday psixologik toʻsiqlarsiz namoyon etish imkoniga ega boʻladilar. Shu bilan birga, yoshlar oʻrganilayotgan muammolarga ijodiy yondashishni oʻzlashtiradilar hamda guruhdoshlar bilan yaqin ruhiy aloqani shakllantiradilar. Ular oʻz ichki salohiyati va qobiliyatlarini toʻliq ochib koʻrsatish, fikrlash, umumlashtirish va eng muhim gʻoyalarni ajratib olish malakalarini rivojlantiradilar.[7] Bundan tashqari, magistrlar oʻz faoliyatlarini nazorat qilish, natijalarini mustaqil baholash, oʻz kuch va imkoniyatlariga ishonch hosil qilish, shuningdek, turli holatlarda toʻgʻri yoʻl tutish va murakkab vaziyatlardan chiqib ketish koʻnikmalarini egallaydilar.[1]

Masalan, interfaol taʼlim shakllaridan biri ijodiy topshiriqda talabalardan oʻz oilasi, hududi yoki tarixiy voqealardagi vatanparvarlik misollariga asoslanib “Men vatanimni sevaman, chunki...” mavzusida kichik hikoya, maqola yoki prezentatsiya tayyorlash soʻraladi. Bu topshiriq orqali talaba oʻz fikrini erkin ifodalaydi, vatanparvarlik gʻoyalarini chuqurroq anglaydi va guruh bilan muhokama qiladi yoki test oʻtkazishda talabalarga Oʻzbekiston tarixi, milliy qadriyatlar yoki mustaqillik davridagi qahramonlik voqealariga oid tanlovli savollar beriladi. Masalan: “Mustaqillik uchun kurashgan qahramonlardan birini aniqlang” yohud “Milliy bayramlarimiz qanday vatanparvarlik ramzi sifatida ahamiyatga ega?. Shuningdek, yangi material sifatida talabalarga milliy qadriyatlar, tarixiy voqealar yoki zamonaviy vatanparvarlik misollarini tushuntirib, soʻng ular asosida muammoli vaziyatlarni tahlil qilish yoki guruh muhokamasi tashkil etiladi.

Interfaol metodlardan biri — “Ajurli arra” strategiyasi. “Ajurli arra” (fransuzcha “*ajour*” — “bir tomondan ikkinchi tomonga oʻtgan, ikki tomoni ochiq”) strategiyasi yaxlit mavzuni bir necha qismlarga

bo‘lib, uni chuqurroq tahlil qilish va mohiyatini to‘liq yoritishga xizmat qiladi. Ushbu metod qo‘llanilganda magistrantlar tayyor matnlar asosida ishlaydilar. Strategiyani samarali amalga oshirish uchun magistrnlarning mavzuni chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi, shuningdek, o‘zlari egallagan bilim va tushunchalarni boshqalarga aniq va ravon tarzda etkazib bera olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, “Vatanimiz tarixidagi qahramonlar” mavzusi bir necha qismlarga bo‘linadi:

1. Mustaqillik uchun kurashgan tarixiy shaxslar;
2. Milliy bayramlar va ularning ahamiyati;
3. Hozirgi davrda vatanparvarlik namunalari.

Har bir guruh a‘zosi yoki talaba ushbu bo‘limlardan birini o‘rganib, tayyor matn orqali boshqalarga tushuntiradi. Shu tariqa, talabalar birgalikda mavzuni chuqur anglaydi va vatanparvarlik g‘oyalarini shakllantiradi, har bir qism bo‘yicha o‘z fikrini bildiradi va bahs-munozara olib boradi. Shuningdek, “O‘zbekistonning tabiiy va madaniy merosi” mavzusini olamiz. Uni quyidagi qismlarga ajratish mumkin:

1. Tarixiy yodgorliklar va ularning milliy qadriyatdagi o‘rni;
2. Mahalliy urf-odatlar va milliy bayramlar;
3. Hozirgi yoshlar orasida vatanparvarlikni rivojlantirish misollari.

Guruhlar har bir bo‘limni o‘rganib, tayyor materiallarni tahlil qiladi va boshqa guruhga tushuntiradi. Shu orqali talabalarda vatanini sevish, qadrlash va himoya qilish g‘oyalari shakllanadi, har bir talaba o‘z fikrini erkin bayon qiladi va guruh bilan faol muhokama olib boradi.

“Keys-stadi” metodi (inglizcha “case” — metod, “study” — muammoli vaziyat) talaba-yoshlarda real, aniq yoki sun‘iy yaratilgan muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va eng optimal echimni topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu metod orqali talaba-yoshlar turli mazmunga ega vaziyatlarni o‘rganish va tahlil qilishni o‘rganadilar.[5] Metodning asosiy tamoyili muammoli vaziyatni hal qilish jarayonidagi muhim komponentlarga tayangan. Ular quyidagilardan iborat: ta’lim shakllari, metodlari va vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usullari, muammoni echish bo‘yicha ilmiy tadqiqot va axborot yig‘ish

usullari, ularni tahlil qilish metodlari, pedagog va talaba o'rtasidagi ta'limiy muloqot shakllari hamda o'quv natijalari.[6]

Muammoni muhokama qilish jarayonida quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

1. O'rganilayotgan muammoning asosiy maqsadini aniqlash;
2. Muammoli vaziyatni real holatlar bilan solishtirishni o'rganish;
3. Ehtimoliy to'siqlarni aniqlash (masalalarni muhokama qilish, to'g'ri qarorlar qabul qilish va boshqa muammolar);
4. Tinglovchilar uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash;
5. Muammoni echishda muhim ahamiyatga ega ma'lumotlarni tasdiqlash;
6. Muammoli vaziyatni hal qilish uchun oraliq bosqichlarni belgilash;
7. Muammoni hal etishning muqobil yo'llarini aniqlash;
8. Muammoli vaziyatni muhokama qilish vaqtini belgilash;
9. Muloqotni tugatish tartibini aniqlash va yakuniy izohlar berish va muhokama natijalarini xulosalashdir.[7]

Masalan, talabalarga O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi muhim tarixiy voqeasi yoki qahramonlik hikoyasi asosida muammoli vaziyat beriladi. Masalan: "Siz mustaqillik davrida yoshlar tashkilotining etakchisi sifatida milliy qadriyatlarni targ'ib qilishingiz kerak. Qanday tadbirlar va usullar orqali yoshlar orasida vatanparvarlik ruhini shakllantirasiz?". Talabalar guruh bo'lib vaziyatni tahlil qiladi, turli echimlarni muhokama qiladi va eng maqbul variantni tanlaydi. Shu jarayon orqali ular vatanparvarlik g'oyalarini amaliy ravishda tushunadi, fikr yuritadi va baham ko'radi. Boshqa yana bir misol bersak, "Tarixiy janglarda o'zini jasorat bilan ko'rsatgan yosh qahramonlar" haqidagi vaziyat beriladi. Masalan: "Sizning vazifangiz – maktab jamoasida ushbu qahramonlarning harakatlarini namuna sifatida tushuntirib, yoshlar orasida vatanparvarlik ruhini qanday uyg'otishni rejalashtirishdir. Qanday tadbirlar yoki loyihalarni amalga oshirgan bo'ladingiz?" Guruhlar vaziyatni tahlil qiladi, turli echimlarni muhokama qiladi, eng samarali strategiyalarni tanlaydi va natijalarni taqdim qiladi. Shu jarayon orqali talabalar vatanparvarlik g'oyasini amaliy muhokama va ijodiy faoliyat orqali shakllantiradi.

Yoshlarida vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish zarurati interfaol ta'lim texnologiyalarini tobora kengroq qo'llashni talab qilmoqda. Garchi interfaol ta'lim tashqi ko'rinishda oddiy va sodda ko'rinishi mumkin bo'lsa-da, uni amalda tatbiq etishda ma'lum shartlarga tayanish uning pedagogik va tarbiyaviy qiymatini oshiradi. Zamonaviy pedagogikada interfaol ta'lim yoshlar, pedagog va guruh a'zolari o'rtasida hamkorlik, jonli munozara va o'zaro fikr almashish imkoniyatini yaratadi. Shu tariqa, vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda samarali natijaga erishishning eng maqbul yo'li shundaki, garchi interfaol metodlar an'anaviy ma'ruzalarni to'liq o'rnini bosolmasa ham, mashg'ulotlarni ushbu texnologiyalar yordamida tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Inoyatov U., Muslimov N., Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M. Pedagogika. Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. Toshkent: "TDPU"- 2013.
2. Inoyatov U., Muslimov N., Usmonboyeva M., Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, Inog'omova D. Toshkent: "TDPU"- 2013.
3. Psixologo-pedagogicheskoye soprovojeniye realizatsii innovatsionnykh obrazovatelnykh programm / Pod red. Yu.P.Zinchenko, I. A.Volodarskoy. Moskva: Izd-vo "MGU"- 2007.
- 4 Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi".Toshkent: "TDPU"- 2013.
5. Situatsionnyy analiz ili anatomiya Keys-megoda. Pod red. Yu.P.Surmina. Kiyev: "Sentr innovatsiy i razvitiya"- 2002.
6. Современные образовательные технологии. Ucheb. posobiye. Pod red. N.V.Bordovskoy. — 2 — e izd., ster. — Moskva: "KNORUS"- 2011.
7. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (O'quv qo'llanma)/ Dilnoz Ro'ziyeva -Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYo" , 2019, 276 b.

SPORTCHILARDA MILLIY G‘URUR VA MILLIY IFTIXORNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Azizov Ma’ruxo‘ja Ahmadxonovich,
*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
University of Business and Science Toshkent filiali*

Milliy g‘urur va milliy iftixor insonning o‘z millatiga, tarixiga, madaniyatiga, tili va qadriyatlariga nisbatan hurmat va sadoqat hissini ifoda etuvchi eng muhim ma’naviy-axloqiy kategoriyalardandir. Bu tushunchalar shaxsni ijtimoiy jihatdan etuk, vatanparvar, ongli fuqaroga aylantiruvchi ichki ruhiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogika nuqtai nazaridan milliy g‘urur – bu yosh avlodning o‘z xalqining yutuqlari bilan faxrlanish, o‘zini milliy jamiyatning ajralmas qismi sifatida his etish hissidir. Milliy iftixor esa, shaxsning milliy meros, tarixiy shaxsiyatlar, til, din, san’at va sportdagi yutuqlar orqali o‘z millatiga bo‘lgan e’tiqodi va g‘ururining oliy darajada namoyon bo‘lishidir. Ijtimoiy nuqtai nazardan, “milliy g‘urur shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o‘z-o‘zini, anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma’naviy merosdan, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro‘ e’tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha jamiyatning ma’naviy birligini mustahkamlaydi”[1:800]. Milliy iftixorga ega bo‘lgan shaxs ijtimoiy hayotda faol pozitsiyani egallaydi, vatan ravnaqi uchun mas’uliyat bilan harakat qiladi. Milliy iftixor esa, “millatga xos moddiy yoki ma’naviy yutuq, muvaffaqiyat bilan faxrlanish tuyg‘usini ifodalaydigan tushunchadir. U inson ma’naviy kamolotining qirralaridan birini namoyon etadi”[2:802]. Shu jihatdan bu tushunchalar millatning jipsligi, birdamligi va taraqqiyoti uchun muhim tarbiyaviy manba hisoblanadi.

Pedagogik jihatdan milliy g‘urur va iftixor yosh avlod tarbiyasining markaziy yo‘nalishlaridan biridir. Tarbiya jarayonida bu tushunchalarni shakllantirish shaxsda ma’naviy immunitetni, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini va vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantiradi. Milliy qadriyatlarga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimi yoshlarning o‘z xalqiga,

Vataniga sadoqatini oshiradi, ularni ijtimoiy mas'uliyatli, burchini anglaydigan shaxs sifatida voyaga etkazadi. Ayniqsa, sport sohasida milliy g'urur va iftixorning o'рни beqiyosdir. Chunki sport musobaqalarida mamlakat sharafi himoya qilinadi, davlat bayrog'i hilpiraydi va bu hol har bir sportchida o'z xalqiga bo'lgan iftixor hissini mustahkamlaydi.

Psixologik nuqtai nazardan, milliy g'urur – bu shaxsning o'zini muayyan millatning ajralmas qismi sifatida his etishi, o'z xalqining yutuqlari, madaniy qadriyatlari, buyuk siymolari bilan faxrlanish hissidir. Bu hissiyot shaxsda ijobiy “men-konsepsiya”ni, ya'ni o'zini qadrlash, o'z milliy identifikatsiyasini anglashni kuchaytiradi. Psixologik jihatdan milliy g'urur o'z-o'zini hurmat qilish, ijtimoiy faollik, barqaror irodaviy sifatlar, ichki motivatsiya va vatanparvarlik tuyg'ularining manbai hisoblanadi. Milliy iftixor esa, ushbu g'ururning yuksak emotsional darajada namoyon bo'lishi bo'lib, shaxsda o'z xalqining muvaffaqiyatlari bilan birga yashash, ularning qadriyatlarini himoya qilish va kelajagini barpo etishga intilish hissini uyg'otadi. Psixologik jarayon sifatida milliy iftixor shaxsda ijtimoiy motivatsiya, o'zlikni anglash, jamiyatda o'z o'rnini topish istagini kuchaytiradi. U ijobiy emotsional holat, o'z milliy ildizlariga tayanish orqali shaxsning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi. Bu jihatdan milliy iftixor – shaxsning milliy o'ziga xosligini saqlab qolish va uni rivojlantirishga yo'naltirilgan ichki psixologik mexanizmdir. Shu sababli, pedagogik amaliyotda milliy g'urur va iftixorni shakllantirish nafaqat bilim berish, balki shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Milliy g'urur va iftixorning pedagogik ahamiyati shundaki, u yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashga, o'z xalqining tarixiy merosini chuqur bilishga undaydi. Bu jarayonda o'qituvchi, murabbiy va otalarning roli beqiyosdir. Ular yosh avlod ongiga milliy merosning qadri, buyuk ajdodlar jasorati va zamonaviy O'zbekistonning yutuqlarini singdirish orqali tarbiya samaradorligini oshiradi. Shuningdek, milliy iftixor shaxsning ma'naviy barkamolligini, irodasini va ijtimoiy faolligini shakllantiradi. Milliy g'urur va milliy iftixor – bu shaxsni jamiyat bilan bog'lovchi ma'naviy ko'prikdir. U yoshlarning milliy o'zligini anglashiga,

Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini his etishiga va o'zini millatning kelajagi sifatida ko'rishiga zamin yaratadi. Shu sababli ta'lim va tarbiya tizimida bu tushunchalarning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini chuqur anglab, ularni amaliy faoliyatga joriy etish mustaqil O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

Sport – nafaqat jismoniy sog'lomlikni ta'minlovchi vosita, balki yoshlarning ma'naviy kamolotini shakllantirishda kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega ijtimoiy institutdir. U insonni sabr, iroda, intizom, g'alabaga ishonch, jamoada ishlash va raqibga hurmat kabi fazilatlarni o'zlashtirishga o'rgatadi. Shu bois sport yoshlar tarbiyasining ajralmas qismi sifatida ularning ma'naviy-axloqiy etukligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Sportning ma'naviy tarbiyadagi o'rni, avvalo, "insonni o'z imkoniyatlariga ishonch ruhida tarbiyalash, mehnatsevarlik, qat'iyat va halollikni qadrlashga o'rgatish bilan namoyon bo'ladi"[3:225]. Sport orqali yoshlar o'zlarining ichki kuch-quvvatini sinovdan o'tkazadi, g'alaba va mag'lubiyatning hayotiy saboqlarini o'z boshidan kechiradi. Bu esa ularni ruhiy jihatdan chiniqtiradi, irodasini mustahkamlaydi va ijtimoiy mas'uliyat hissini uyg'otadi. Har bir sportchi o'z mehnati bilan yutuqqa erishishini anglab, mehnatga sadoqat, natijaga ishonch va o'ziga talabchanlik kabi ma'naviy fazilatlarni o'zlashtiradi. Shu tariqa sport yoshlarni hayotiy sinovlarga bardoshli, maqsadga yo'naltirilgan shaxs sifatida shakllantiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan sport mashg'ulotlari – bu yoshlarni jamoaviy ruhda tarbiyalash, bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lish va ijtimoiy qadriyatlarga sadoqatni mustahkamlash vositasidir. Jamoaviy sport turlari orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, raqobatni halollik asosida olib borish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydi. Bular esa shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim o'rin tutadi. Sport orqali o'qituvchi va murabbiylar yosh avlodni Vatanga muhabbat, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalaydi. Ayniqsa, xalqaro musobaqalarda sportchilarning O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarishi yoshlarning qalbida vatanparvarlik, milliy birlik va iftixor tuyg'ularini kuchaytiradi.

Sportning yana bir muhim jihati – u yoshlarni sog‘lom turmush tarziga, zararli odatlardan yiroq bo‘lishga undaydi. Bu jarayonda sport ijtimoiy profilaktika vazifasini bajaradi, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy axborot makonida yoshlarning e‘tiborini foydali faoliyatga yo‘naltirishda sportning tarbiyaviy kuchi beqiyosdir. “Sport musobaqalari, jamoaviy o‘yinlar va sport tadbirlari yoshlar orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratadi, ularni ijtimoiy faol, ma‘naviy etuk shaxsga aylantiradi”[4:2]. Sport sohasi yoshlar ma‘naviy tarbiyasining ajralmas tarkibiy qismidir. U nafaqat jismoniy barkamollikni, balki insoniy fazilatlarni, milliy qadriyatlarga hurmatni, vatanparvarlik va ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli sportni ta‘lim va tarbiya tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida qarash, uni yoshlar ma‘naviy kamolotini ta‘minlashning samarali vositasiga aylantirish davlat va jamiyat oldidagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

Jamoaviy ruh – bu insonning jamoa manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish, o‘zaro hamkorlikda harakat qilish, umumiy maqsad sari birgalikda intilish qobiliyatidir. Sport jamoalari, o‘quvchilar guruhlari yoki mehnat jamoalarida bu ruhni shakllantirish orqali inson o‘zining yutuqlari jamoaning muvaffaqiyatiga xizmat qilishini anglaydi. Jamoaviy ruh orqali milliy iftixor mustahkamlanadi, chunki shaxs o‘z jamoasi orqali millat sha‘nini ifodalaydi, g‘alabalarini Vatan nomi bilan bog‘laydi. O‘zbekiston sportchilarining xalqaro musobaqalardagi yutuqlari butun xalqda faxr va birlik tuyg‘usini uyg‘otgani bunga yorqin misoldir. **Raqobat esa** “sog‘lom ijtimoiy va sport muhiti yaratuvchi kuchli motivatsion omildir. U shaxsni o‘z ustida ishlashga, imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishga, bilim, mahorat va irodasini sinovdan o‘tkazishga undaydi”[5:84]. Sog‘lom raqobat shaxsda halollik, intizom, bardoshlilik va o‘ziga ishonch tuyg‘ularini kuchaytiradi. Bunday fazilatlar orqali milliy iftixor yanada chuqurroq shakllanadi, chunki har bir shaxs o‘z mehnati va yutug‘i bilan millat sha‘nini yuksaltirayotganini his etadi.

Mas‘uliyat esa milliy iftixorning eng muhim axloqiy asosi hisoblanadi. Mas‘uliyatli inson o‘z harakatining nafaqat shaxsiy, balki jamiyat va millat hayotidagi ahamiyatini ham anglaydi. Yoshlarni mas‘uliyat ruhida

tarbiyalash, ularga millat sha'nini har bir harakatda ifodalash zarurligini uqtirish orqali ularning Vatan oldidagi burch hissi mustahkamlanadi. Sportchi, o'qituvchi yoki oddiy fuqaro o'z kasbiy faoliyatida mas'uliyatli bo'lsa, bu milliy iftixorning amaliy ifodasidir. Mehnatsevarlik esa milliy iftixorning barqaror manbai bo'lib, har bir yutuq mehnat orqali qo'lga kiritilishini anglatadi. Inson mehnati orqali nafaqat shaxsiy, balki jamiyat farovonligi uchun ham xizmat qiladi. Mehnatsevarlik yoshlarni fidoyilik, sabot, intizom va vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Shu tariqa mehnat qadriyat sifatida milliy iftixorni mustahkamlaydi, chunki xalqning yutuqlari, taraqqiyoti va obro'-e'tibori mehnatsevar insonlar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Jamoaviy ruh, raqobat, mas'uliyat va mehnatsevarlik – milliy iftixor tuyg'usining ijtimoiy-psixologik tayanchlari hisoblanadi. Bu fazilatlarni yoshlar ongiga singdirish orqali ularning milliy o'zligini anglash, Vatan sha'nini himoya qilish va jamiyat manfaatlari yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilish hissi kuchayadi. Shu bois ta'lim-tarbiya jarayonida ushbu sifatlarni rivojlantirish milliy iftixorni mustahkamlashning eng samarali pedagogik yo'nalishlaridan biridir.

Milliy ramzlar, tarixiy g'alabalar va mashhur sportchilar shaxsiy namunasi yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida, ayniqsa, milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda o'ta muhim tarbiyaviy omillardir. Ular jamiyatda milliy birlikni, fuqarolik mas'uliyatini va Vatanga sadoqatni mustahkamlovchi ma'naviy tayanch vazifasini bajaradi. Pedagogik jarayonda bu omillar yoshlarning ruhiyatiga bevosita emotsional ta'sir ko'rsatib, ularning milliy ongini uyg'otadi, o'z millatiga bo'lgan ishonch va faxr tuyg'usini mustahkamlaydi.

Sportdagi tarixiy g'alabalar esa yoshlar uchun milliy faxr va ishonch manbai hisoblanadi. Sport tarixida xalqaro maydonlarda qo'lga kiritilgan har bir yutuq – bu nafaqat sportchi, balki butun xalq g'alabasidir. O'zbekiston sportchilari tomonidan Olimpiada, Osiyo o'yinlari yoki jahon chempionatlarida qo'lga kiritilgan medallar yoshlar qalbida "men ham Vatanim uchun xizmat qila olaman" degan ishonchni uyg'otadi. Tarixiy g'alabalar yoshlarni maqsadga intiluvchanlik, fidoyilik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydi. Shu jihatdan sportdagi g'alabalarni o'quv-tarbiya

jarayonida tahlil qilish, ularni muhokama va seminar mavzusi sifatida kiritish yoshlarning milliy ongini mustahkamlovchi samarali metod hisoblanadi.

Mashhur sportchilar namunasi esa bevosita shaxsiy identifikatsiya mexanizmi orqali yoshlar ongiga ta'sir etadi. Shaxsning ruhiy rivojida "namuna" omili kuchli motivatsion ta'sirga ega. Yoshlar o'zlariga ibrat sifatida tanlagan sportchi shaxsining hayoti, mehnatsevarligi, Vatanga sadoqati, o'z xalqining sha'nini himoya qilishdagi jasorati orqali ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtiradi. Masalan, O'zbekistonning taniqli sportchilari – bokschilar, kurashchilar, futbolchilar, gimnastikachilar – nafaqat sportdagi muvaffaqiyatlari, balki odob-axloqi, kamtarligi, vatanparvarligi bilan yoshlar uchun ibrat maktabidir. Pedagogik jarayonda bu sportchilarning biografiyasi, ularning xalqaro maydondagi faoliyati va vatanparvarlik ruhi asosida ta'limiy suhbatlar o'tkazish yoshlarning ruhiyatida ijobiy emotsional rezonans hosil qiladi.

Tarbiyaviy ta'sir mexanizmlari quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: "Emotsional-motivatsion ta'sir – milliy ramzlar va g'alabalar orqali g'urur, quvonch, faxr hissining uyg'onishi; Kognitiv-ta'limiy ta'sir – mashhur sportchilar hayoti misolida mehnat, qat'iyat, intizomning ahamiyatini anglash; Ijtimoiy-identifikatsion ta'sir – shaxs o'zini milliy qadriyatlarga sodiq jamoaning bir qismi sifatida his qiladi; Amaliy-pedagogik ta'sir – sport mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlar orqali yoshlarning axloqiy fazilatlarini mustahkamlash"[6:148]. Natijada, yoshlar milliy ramzlar va sportdagi yutuqlarni o'z ma'naviy hayotining bir qismi sifatida qabul qiladi. Ular o'z faoliyatida vatanparvarlik, fidoyilik, mas'uliyat va intilish ruhini amaliy faoliyatga aylantira boshlaydilar. Milliy ramzlar, sportdagi tarixiy g'alabalar va mashhur sportchilar namunasi yoshlarning milliy iftixorini shakllantirishda o'zaro bog'liq tarbiyaviy tizimni tashkil etadi. Bu mexanizmlar orqali ta'lim-tarbiya jarayoni nafaqat jismoniy yoki aqliy, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk, Vatan sha'nini himoya qila oladigan, o'z xalqining sharafiga ardoqlaydigan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, ularni pedagogik jarayonga tizimli tarzda singdirish milliy tarbiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Milliy g'ururni shakllantirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish zamonaviy ta'limning eng samarali yondashuvlaridan biridir. Chunki interfaol metodlar nafaqat o'quvchi yoki talabanning bilish jarayonini faollashtiradi, balki unda milliy qadriyatlarni anglash, ularni shaxsiy hayotiy pozitsiyaga aylantirish ko'nikmasini ham shakllantiradi. Shu bois, pedagogik jarayonda ushbu tuyg'uni shakllantirishda muhokama, loyiha va sport o'yinlari asosida o'rgatish metodlarini uyg'un qo'llash ta'sirchan natijalar beradi.

Muhokama metodining pedagogik-psixologik ahamiyati shundaki, u o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, boshqalarning fikriga hurmat bilan yondashish madaniyatini shakllantiradi. Milliy g'urur masalalariga oid muhokamalarda "O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi", "Milliy sportchilarimizning g'alabalari", "O'zbek xalqining tarixiy merosi" kabi mavzular tahlil qilinadi. Bunda o'quvchi faqat tayyor bilimni o'zlashtirib qolmay, balki o'zining millatga daxldorligini his etadi, "Men ham shu xalqning farzandiman" degan ichki g'urur hissi kuchayadi. Psixologik nuqtai nazardan, bu jarayon ijobiy emotsiyalarni rag'batlantirib, milliy o'zlikni anglash mexanizmini faollashtiradi.

Loyiha metodida esa o'quvchilar milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar yoki milliy ramzlar bilan bog'liq tadqiqot faoliyatiga jalb qilinadilar. Masalan, "O'zbekiston sport tarixida faxrli sahifalar" yoki "Milliy g'urur ramzlari" nomli loyiha ishlari orqali o'quvchilar mustaqil izlanish olib boradilar, manbalarni o'rganadilar, intervyular o'tkazadilar va natijada milliy faxr tuyg'usini shaxsiy bilim bilan bog'laydilar. Bunday faoliyat ularning ijtimoiy faolligini oshiradi, milliy identifikatsiyani kuchaytiradi. Shuningdek, loyiha metodi jamoada ishlash, rejalashtirish, mas'uliyatni bo'lishish ko'nikmalarini ham rivojlantirib, milliy birdamlik ruhini mustahkamlaydi.

Sport o'yinlari asosida o'rgatish metodining ustunligi shundaki, u o'quvchi shaxsida milliy g'urur tuyg'usini bevosita tajriba orqali shakllantiradi. Jamoaviy sport musobaqalari jarayonida ishtirokchilar bir-biriga yordam beradi, g'alaba uchun birgalikda harakat qiladi, bu esa

jamoaviylik va hamjihatlik ruhini tarbiyalaydi. Ayniqsa, milliy sport turlari – kurash, uloq-ko‘pkari, kamon otish kabi mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda ajdodlarga hurmat, an‘analarni davom ettirish istagi kuchayadi. Pedagogik jihatdan bunday faoliyatlar orqali “vatanparvarlik”, “mardlik”, “g‘urur” kabi qadriyatlar tabiiy yo‘l bilan o‘zlashtiriladi. Interfaol metodlar milliy g‘ururni shakllantirishda emotsional, kognitiv va faoliyatli yondashuvlarni birlashtiradi. Muhokama orqali fikr va his-tuyg‘ularni, loyiha orqali bilish va ijodkorlikni, sport o‘yinlari orqali jismoniy faollik va ijtimoiylashuvni uyg‘unlashtirish o‘quvchi shaxsida milliy o‘zlikni anglashning barcha bosqichlarini qamrab oladi. Interfaol metodlar yordamida milliy g‘ururni shakllantirish shaxsning ichki dunyosiga bevosita ta’sir etadi, uning ijtimoiy faol, vatanparvar, o‘z xalqining merosi va g‘ururini qadrllovchi shaxs sifatida kamol topishini ta’minlaydi. Shu bois, zamonaviy ta’limda interfaol yondashuvlar milliy o‘zlikni mustahkamlovchi eng samarali pedagogik vosita sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi I-jild. – Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2023. – B.800.
2. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi I-jild. – Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2023. – B.802.
3. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi (darslik). – T.: “Fan va texnologiya”, 2008, – B.225.
4. Лубышева Л.И. Социальная роль спорта в развитии общества и социализации личности // Теория и практика физ. культуры. – 2002. – № 1. – С.2.
5. Вербитский, А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения. – М.: “Исслед. центр пробл. качества подготовки”, 2004. – С.84.
6. Купрейченко А. Б., Воробева А. Е. Нравственное самоопределение молодежи. – М.: “Институт психологии РАН”, 2013. – С.148.

TALABALARDA ESTETIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Xalilova Charosxon Omonboy qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Pedagogika yoʻnalishi 1-kurs magistranti

Estetik madaniyat-shaxsning maʼnaviy-axloqiy, madaniy va ijodiy rivojlanishini taʼminlaydigan muhim omildir. U insonni goʻzallikni his etishga, uni yaratishga va hayotning barcha jabhalarida nafosatni qadrlashga oʻrgatadi. Shu boisdan, pedagogika fanida talabalarda estetik madaniyatni shakllantirish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti inson kapitalining yuksak darajada rivojlanishini talab etadi. Bunda nafaqat kasbiy kompetensiyalar, balki estetik madaniyat ham shaxs kamolotining muhim mezon sifatida eʼtirof etiladi. Estetik madaniyat — bu insonning goʻzallikni idrok etish, baholash, yaratish va uni hayotga tatbiq etish qobiliyatidir. Talabalar yoshlar qatlamining eng faol qismi sifatida estetik madaniyatni egallash orqali nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-maʼnaviy taraqqiyotga ham hissa qoʻshadilar.

Estetik madaniyat shaxsning maʼnaviy kamolotini ifodalovchi muhim koʻrsatkichdir. U nafaqat sanʼat va madaniyat bilan bogʻliq boʻlib, balki insonning xulq-atvori, kiyinish uslubi, nutqi, mehnat madaniyati va oʻzaro munosabatlarida ham namoyon boʻladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, estetik madaniyatni shakllantirish – bu taʼlim-tarbiya jarayonida nafosatga oid bilim, koʻnikma va qadriyatlarni oʻquvchilarga singdirish, ularni goʻzallikka intiluvchan va didli inson sifatida tarbiyalash demakdir.

Oʻzbekiston taʼlim siyosatida estetik tarbiya, maʼnaviy barkamollik va yuksak madaniyat masalalari davlat eʼtiborida. Prezident Sh.M. Mirziyoyev oʻz asarlarida taʼlimni faqat bilim olish vositasi sifatida emas, balki “yosh avlodni maʼnaviyatli, yurtparvar va estetik didli inson qilib tarbiyalash tizimi” sifatida baholaydi. [1].

Talabalarda estetik madaniyatni shakllantirish bir necha pedagogik omillar bilan bogʻliq:

-ta'lim mazmuni – Oliy ta'lim muassasalarida san'at, madaniyatshunoslik, falsafa va estetika fanlarining o'qitilishi estetik dunyoqarashni kengaytiradi.

-pedagogik faoliyat – o'qituvchilarning estetik didi, madaniyatli nutqi va namunasining talabalarga tarbiyaviy ta'siri katta.

-madaniy muhit – teatr, ko'rgazma, muzey, konsert kabi madaniy tadbirlarda qatnashish estetik zavqni oshiradi.

-ijtimoiy faoliyat va ijodkorlik – talabalarni turli ijodiy to'garaklar, festivallar, ko'rik-tanlovlarga jalb etish estetik dunyoqarashni rivojlantiradi.

-axborot makoni – ijtimoiy tarmoqlar va OAV orqali estetik qadriyatlarni to'g'ri targ'ib etish ham muhim ahamiyatga ega.

-shaxsiy ijodiy faoliyat– talabaning she'riyat, tasviriy san'at, musiqa yoki dizayn sohasidagi qiziqishlari uning estetik madaniyatini rivojlantiradi.

-oila va ijtimoiy muhit – bolalikdan boshlab estetik qadriyatlarni qadrlashga o'rgatilgan shaxs talabalik davrida bu fazilatni mustahkamlaydi.

Estetik madaniyat tushunchasi falsafa, pedagogika va sotsiologiya fanlarida keng o'rganilgan. Fikrlar turlicha bo'lsa-da, aksariyat olimlar estetik madaniyatni insonning nafosatni anglash, san'at va go'zallik orqali ruhiy olamini boyitish jarayoni sifatida talqin etadilar. Estetik madaniyat shaxsning ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, uning axloqiy, ma'rifiy va ijtimoiy qarashlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. [2:379].

Pedagogik nuqtai nazardan, estetik madaniyat ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Estetik tarbiya orqali talaba nafaqat go'zallikni idrok etadi, balki uni hayotda, kasbiy faoliyatida qo'llashni o'rganadi.

Pedagogik yondashuv shuni ko'rsatadiki, estetik madaniyat nafaqat dars jarayonida, balki talabalar hayotining barcha sohalarida uzviy tarzda shakllanishi lozim.

O'qituvchi estetik madaniyatni shakllantirish jarayonida asosiy pedagogik shaxs hisoblanadi. U nafaqat bilim beruvchi, balki estetik qadriyatlarni targ'ib etuvchi shaxsdir. O'qituvchining shaxsiy namunasi —

kiyinish uslubi, nutqi, xulq-atvori va madaniy saviyasi talabalar uchun estetik mezon bo'lib xizmat qiladi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev o'z nutqlarida o'qituvchi shaxsining jamiyatdagi o'rniga alohida urg'u berib, shunday degan edi: "Ta'lim-tarbiya tizimining muvaffaqiyati, avvalo, o'qituvchining ma'naviyati va madaniyatiga bog'liq." (Sh.M. Mirziyoyev, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", 2022-yil) Shu boisdan, pedagog kadrlarning estetik madaniyatini oshirish, ularning madaniy saviyasini doimiy rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Estetik madaniyat talabaning nafaqat ichki dunyosiga, balki uning xulq-atvoriga, nutq madaniyatiga va kasbiy etikasiga ham ta'sir qiladi. Estetik madaniyatli talaba go'zallikka intiladi, madaniyatli muomala qiladi, axloqiy tamoyillarga rioya etadi va atrofdagilarga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Shu jihatdan estetik madaniyat shaxsni barkamol inson sifatida shakllantirishning muhim mezoni hisoblanadi. [3:94].

Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "ma'naviy etuk, yuksak didli yoshlar – yangi O'zbekistonning asosiy tayanchi"dir. Shu bois, estetik madaniyatni rivojlantirish pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, talabalarda estetik madaniyatni shakllantirish – ularning shaxsiy, kasbiy va ma'naviy rivojlanishida hal qiluvchi omildir. Estetik madaniyatni rivojlantirish talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasining ajralmas tarkibiy qismidir. Oliy ta'lim muassasalari bu jarayonda nazariy bilim berish bilan bir qatorda, estetik muhit yaratish, ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash va madaniy qadriyatlarni targ'ib etishga alohida e'tibor qaratishlari hamda estetik tarbiya jarayonini takomillashtirish, ta'lim mazmunini boyitish, madaniy muhitni kengaytirish va o'qituvchilarning estetik kompetensiyalarini oshirishlari zarur. Shundagina talabalar yuksak didli, go'zallikni qadrlaydigan va uni hayotga tatbiq eta oladigan barkamol insonlar sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Abduqodirov A.A. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2019.
3. To'xtayeva M. Estetik tarbiya va yoshlar ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021.
4. Omonov Q. Pedagogik mahorat va madaniyat asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

YOSHLARNING IJTIMOIIY MAS'ULIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Ergasheva Go'zal Maxkambayevna

«International School of Finance Technology and Science» instituti dotsenti

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har bir jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, uning yoshlari qanday ma'naviy qadriyatlarga, axloqiy mezonlarga va milliy g'ururga ega ekanligiga bog'liqdir. Shu boisdan, yoshlarning ongida milliy qadriyatlar asosida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish, ularni vatanparvarlik, mehr-oqibat, halollik, adolat va insonparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, an'analari, tili, dini, madaniy merosi va hayot falsafasining uyg'un ifodasidir. Ular yoshlar ongida ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini belgilovchi, milliy o'zlikni anglash va jamiyat oldidagi mas'uliyat hissini kuchaytiruvchi kuchli tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlarni yoshlar hayotiga chuqur singdirish nafaqat ularning ma'naviy dunyosini boyitadi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy yuksalishning kafolati hamdir.

Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish jarayoni — bu shaxsning jamiyat oldidagi burch va vazifalarini anglash, o'z harakatlari oqibatini baholash, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan milliy qadriyatlarning nechog'lik chuqur singdirilganligiga bog'liq. Chunki milliy qadriyatlar insonni ma'naviy barkamollikka, ezgulik va adolatga, jamiyatga foydali bo'lishga undovchi asosiy mezon sanaladi.

Milliy qadriyatlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo'lib, ularning ijtimoiy faoliyatini maqsadga yo'naltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oila, mahalla, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari orqali yoshlar ongiga milliy urf-odatlar, an'analar, xalq og'zaki ijodi, tarixiy meros va milliy qahramonlar hayoti singdirilganda, ular o'z millatiga, xalqiga sadoqatli, mas'uliyatli fuqarolarga aylanishadi.

O'zbek xalqining qadimiy an'analari — mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, halollik, sabr-toqat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar yoshlar tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu qadriyatlar yoshlarning kundalik hayotida amal qilinadigan axloqiy me'yorlarga aylanib borar ekan, ular jamiyatda o'z o'rnini topgan, vatan ravnaqi uchun mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanadi.

Shuningdek, milliy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ham ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishning samarali yo'lidir. Masalan, ta'lim dasturlarida milliy urf-odatlar, tarixiy shaxslar faoliyati, xalqona hikmatlar va maqollar orqali yoshlarning ma'naviy tafakkuri boyitiladi. Bu esa ularning tafakkurida “men kimman?”, “xalqim uchun nima qildim?” degan savollarni uyg'otadi.

Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda davlat siyosati ham muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatining asosiy maqsadlaridan biri — milliy qadriyatlarga sodiq, vatanparvar, mas'uliyatli va tashabbuskor yoshlarni tarbiyalashdir. “Yoshlar — kelajagimiz” dasturi, “Yoshlar ittifoqi” faoliyati, “Mahalla” tizimi kabi ijtimoiy institutlar orqali yoshlarning ijtimoiy faolligi va mas'uliyati bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda.

Milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish nafaqat ularning shaxsiy fazilatlarini, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlaydi. Chunki mas'uliyatli yosh — bu jamiyatning ertangi kunidir. Shu bois milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish, yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish — bugungi kunning eng dolzarb ma'naviy-ma'rifiy vazifalaridan biridir.

Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish va bu jarayonda milliy qadriyatlarning o'rnini o'rganish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar, pedagoglar hamda sotsiologlar tomonidan ilmiy izlanishlarning markazida turibdi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, “Yoshlar siyosati to’g’risida”gi Qonun va “Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo’yicha ishlab chiqilgan metodik qo’llanmalarda yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiy faolligini oshirish va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu hujjatlarda yoshlarni vatanparvarlik, mas’uliyat, halollik, adolat va fuqarolik burchi ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1, 2, 3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida ham yoshlarning ma’naviy kamolotida milliy qadriyatlarning beqiyos o‘rni borligini ta’kidlab, “Yoshlarimizni milliy ruhda, ajdodlarimiz merosiga hurmat bilan tarbiyalash — ertangi kunimizni mustahkam poydevor bilan ta’minlash demakdir”, deb alohida qayd etadi [3].

Mazkur yo‘nalishda A.Avloniy, A.Qodiriy, Abdulla Sher, H.Yo‘ldoshev, N.Mahmudov, O.Sharafiddinov kabi pedagog va ma’naviyatshunos olimlarning asarlarida ham milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik chuqur tahlil qilingan. Jumladan, A.Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloqiy tarbiya va ijtimoiy mas’uliyatni shaxsning eng muhim fazilatlaridan biri sifatida talqin etadi [5].

Xorijiy tadqiqotchilar orasida esa E.Durkheim, M.Weber, T.Parsons, E.Fromm kabi sotsiologlar ijtimoiy mas’uliyatni jamiyatdagi ijtimoiy nazorat, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy institutlar faoliyati bilan bog‘liq holda

izohlaydilar. Ularning fikricha, ijtimoiy mas'uliyatning shakllanishida milliy va madaniy qadriyatlar muhim sotsial mexanizm sifatida xizmat qiladi.

So'nggi yillarda o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham milliy qadriyatlarning yoshlar ongini shakllantirishdagi o'rni keng yoritilmoqda. Masalan, M.Jo'rayev (2020) o'z tadqiqotida milliy qadriyatlar asosida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning zamonaviy mexanizmlarini tahlil qiladi. D.Sattorova (2021) esa milliy tarbiya elementlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullarini ilmiy asoslab beradi.

Yosh tadqiqotchilar A.Xolmatova va X.Xayrullaeva (2025) esa o'z tadqiqotlarida bugungi murakkab zamonlarda turli yo'llar bilan kirib kelayotgan yot g'oyalarga qarshi sog'lom ma'naviy immunitetni hamda ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizga suyanishni talab etishini ta'kidlaydi [7].

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda milliy qadriyatlar hal qiluvchi omil bo'lib, ular shaxsning ma'naviy dunyosini boyitish, ijtimoiy faolligini oshirish va milliy o'zlikni anglashni mustahkamlashda asosiy tayanch vazifasini bajaradi. Shu sababli, bugungi kunda bu masalaga ilmiy-nazariy, amaliy va ma'naviy jihatdan yondashish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni beqiyosdir. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatli yoshlarni tarbiyalash uchun, avvalo, ularning ongida o'z millatiga, madaniyatiga, tarixiga nisbatan hurmat hissini uyg'otish zarur. Bu jarayonda oila, ta'lim muassasalari, mahalla va ommaviy axborot vositalarining roli beqiyosdir. Ayniqsa, oila — milliy qadriyatlarning eng muhim uzatuvchisidir. Bola oilada kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat, sabr-toqat kabi fazilatlarni

o'rganadi. Shu sababli oila muhitini milliy qadriyatlar asosida mustahkamlash yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirishning eng samarali yo'llaridan biridir.

Ta'lim tizimi ham bu jarayonning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida dars jarayonlarini tashkil etish, ma'naviyat darslarida ajdodlar merosi, tarixiy shaxslar hayoti va xalq og'zaki ijodidan foydalanish yoshlarning mas'uliyat hissini shakllantiradi [6]. Shu bilan birga, zamonaviy ta'limda interaktiv metodlar, milliy qadriyatlar asosida loyihaviy o'qitish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ko'paytirish yoshlar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalla instituti ham yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda o'ziga xos tarbiyaviy maktabdir. Mahalla nafaqat ijtimoiy muammolarni hal etuvchi tuzilma, balki milliy qadriyatlar targ'ibotchisi sifatida ham faoliyat yuritadi. Mahalla yig'inlari, urf-odatlariga asoslangan tadbirlar, hasharlar, bayramlar yoshlarni birdamlik, mehr-oqibat va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, bugungi globallashuv sharoitida ayrim yoshlar orasida milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik, iste'molchilik kayfiyati va individualizm kuchaymoqda. Bu esa ijtimoiy mas'uliyat darajasining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois yoshlar bilan ishlashda milliy qadriyatlarni zamonaviy shakllarda — ijtimoiy tarmoqlar, kinofilmlar, onlayn loyihalar orqali targ'ib etish zarur.

Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda ularni jamoatchilik ishlari, ko'ngilli faoliyat, ekologik va ijtimoiy loyihalarga jalb etish ijobiy natija beradi. Bu orqali yoshlar jamiyat hayotida o'zining o'rni va mas'uliyatini chuqur his etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, milliy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda ma'naviy tayanch, yo'l ko'rsatuvchi mezon va tarbiyaviy resurs sifatida xizmat qiladi [4]. Shu bois, ularni har bir ta'lim, tarbiya va madaniy faoliyatning ajralmas qismiga aylantirish bugungi kunning muhim ijtimoiy vazifasidir.

O'tkazilgan nazariy tahlillar va mavjud manbalar o'rganilishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. **Milliy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishning asosiy manbai hisoblanadi.** Ular yosh avlod ongida vatanparvarlik, halollik, insonparvarlik, adolat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni mustahkamlab, jamiyat oldidagi burchni chuqur anglashga yordam beradi.

2. **Oila, ta'lim muassasalari va mahalla** — milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishning eng samarali muhitlaridir. Aynan shu ijtimoiy institutlar orqali yoshlar hayotga, mehnatga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi.

3. **Milliy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish** yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim dasturlarida tarixiy shaxslar, xalq og'zaki ijodi va milliy urf-odatlariga oid materiallardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

4. **Globalashuv va axborot oqimi** sharoitida yoshlarning ayrim qatlamlari orasida milliy qadriyatlarga befarqlik kuzatilmoqda. Shu sababli milliy qadriyatlarni ommalashtirishda ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kontent, kinofilmlar va onlayn platformalar orqali zamonaviy yondashuvlar zarur.

5. **Yoshlarni ijtimoiy hayotga faol jalb etish**, xususan, ko'ngillilik, ekologik va ijtimoiy loyihalarda ishtirokini ta'minlash, ularning mas'uliyat hissini kuchaytiruvchi samarali mexanizmdir.

6. **Davlat siyosatida milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi uzviy bog'langan.** O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, "Yoshlar — kelajagimiz" dasturi hamda Prezident tashabbuslari yoshlarning ma'naviy kamoloti va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan [2].

7. **Milliy qadriyatlar yoshlarning shaxsiy rivojlanishi bilan bir qatorda jamiyat barqarorligini ta'minlaydi.** Chunki ijtimoiy mas'uliyatli yosh — bu milliy g'oya va ma'naviyat poydevoriga sodiq shaxsdir.

Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish — bu jamiyatning ma'naviy-axloqiy barqarorligi va taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega jarayondir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati esa milliy qadriyatlarga tayanmasdan to'liq amalga oshmaydi. Chunki milliy

qadriyatlar xalqning asrlar davomida shakllangan hayot falsafasi, ma'naviy mezonlari va insoniy fazilatlarining mujassam ifodasidir.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar yoshlarning ongida jamiyatga nisbatan burch va mas'uliyat tuyg'usini shakllantiradi, ularni vatanparvar, halol, fidoyi va tashabbuskor shaxslar sifatida voyaga etkazadi. Oila, ta'lim muassasalari, mahalla va davlat siyosati bu jarayonning uzviy bo'g'inlari bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyati milliy tarbiya samaradorligini oshiradi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning milliy qadriyatlarga sodiqligini ta'minlash, ularni zamonaviy texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib etish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish bilan bir qatorda, ularni milliy o'zlikni anglashga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishning mustahkam poydevori, ma'naviy tayanchi va jamiyat barqarorligining kafolatidir. Shu bois, har bir sohada — ta'limda, oilada, madaniyatda va jamoatchilik hayotida milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish bugungi kunning dolzarb ijtimoiy vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Oila" to'g'risidagi Qonuni. – T.: "Adolat", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 14.09.2016-yildagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3026246>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek milliy qadriyatlarini yanada rivojlantirish va yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – T.: 2022.
4. Salayeva M.S. Xalq ma'naviy merosi namunalarida oila a'zolari munosabatlari masalasining yoritilishi // Ma'rifat yog'dusi. № 1. 2000. –B. 58-60.

5. Salayeva M.S. O‘tmish mutafakkirlarimiz ota-ona va farzandlar munosabatlari xususida // Ma’rifat yog‘dusi. № 3. 2000.–B. 76-80.

6. Salaeva M.S., Umirova X.S. Bola tarbiyasida oila va maktabning o‘zaro hamkorligi // *Problems And Scientific Solutions*. — Australia, Melbourne. 2022. – B. 114-123. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6762226>

7. Xolmatova A., Xayrullaeva X. Milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasidagi o‘rni // “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181-3027_SJIF: 5.449. Vol. 81 No. 5 (2025): VOLUME-88 | ISSUE-1. Pp. 41-46.

8. Ergasheva G.M. Umuminsoniy va diniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirishda dialektikaning roli // Maktabgacha va maktab ta’limi. Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal №4/2025. 31-33 b.

9. Ergasheva G.M. Umuminsoniy va diniy qadriyatlar dialektikasi yosh avlod dunyoqarashini shakllantirish va yuksaltirishdagi konseptual ahamiyati // Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti. “Ilm ham jamiyat” ilmiy jurnali. Iyun 2025. 10 b.

10. Ergasheva G.M. Воспитание эстетического вкуса младших школьников в учебно-воспитательном процессе / “*Modern world education: new age problems – new solutions*”. *Collection of scientific papers on materials of the international scientific-practical conference*. 03.06.2025, Pub. "ICP", Paris, France, 140 str.

11. Ergasheva G.M. Понятие воспитания, его сущность, виды и роль в формировании личности // “*Science, Education, Innovation: Modern Tasks And Prospects*”. *Collection of scientific papers on materials of the international scientific-practical conference*. 05.06.2025, Pub. "ICP", Rome, Italy, 191 str.

12. Ergasheva G.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishning nazariy asoslari / *Use Advanced Methods Of Ensuring The Quality Of Education Problems Find Solutions. International online conference*. Date: 2025. 6 str.

13. Ergasheva G.M. The significance of campistic pedagogy in training future teaching staff / *Models And Methods In Modern Science International scientific -online conference*. Date: 2024. 6 str.

14. Ergasheva G.M., Abduraxmonova M.I. Yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda umuminsoniy qadriyatlarning o'rnini / *Prospects For Innovative Technologies In Science And Education. International online conference*. 13th July -2025. - Pp.106.

15. Ergasheva G.M., Abduraxmonova M.I. Boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiyani tabiiy fanlar orqali shakllantirishning innovatsion yo'llari / *"Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarining zamonaviy tendensiyalari: muammolari, echimlari, o'qitishning innovatsion yondashuvlari"* Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Nizomiy nomidagi O'zMPU. 2025-yil 14-may. 514-522 bet.

16. Ergasheva G.M., Abduraxmonova M.I. Psychological Basis Of Forming A Socially Active Position In Students // *International Bulletin Of Engineering And Technology Ibet*. ISSN: 2770-9124. ugust IBET | Volume 4, Issue 1, January IBET. 241 — 244 bet.

KURASH XALQIMIZNING RUHIYATI, MA'NAVIYATI VA URF-ODATLARINING TAYANCH VOSITALARIDAN BIRI.

Axmedov J.K, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

O'zbekiston davlat sport akademiyasi

huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport

bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev yurtimizda yosh avlodga barkamol, har taraflama komil va intellektual salohiyat tarbiyasini berishni ustuvor vazifa deb e'tirof etmoqda. Ta'lim tizimidagi keng qamrovli islohotlar "Ta'lim to'risida"gi Qonun va shunga o'xshash bir qator muhim me'yoriy hujjatlar hayotga ketma- ket joriy qilinib, sohaning barqaror sur'atlarda rivojlanishiga, ta'lim samaradorligining

oshib borishiga xizmat qilmoqda[1]. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturi”da yosh avlodni ma’naviy–axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqimizning boy madaniy-tarixiy an’analari, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etish kerakligi ko‘rsatib berilgan[3]. Mamlakatimiz ta’lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida bugungi yoshlar komil inson darajasida o‘silg‘aymoqda.

Ma’nan yuksak, iqtidorli, ijodiy-intellektual salohiyatga ega avlodlarni voyaga etkazishda jismoniy tarbiyaning, ayniqsa, milliy sport turlarining o‘rni mislsizdir.

Kurashning ko‘p asrlik o‘tmishi shunga guvohlik beradiki, otabobolarimiz fikriga binoan, milliy sportimiz polvonlarning har jihatdan komilligi namunasi sifatida sharaflarga loyiq topilgan. O‘zbek millatning milliy g‘ururi, faxr–u iftixori, kuch- qudratining yorqin timsoli kurashning ham bir necha ming yillik tarixi bo‘lib, u millatimizning qadriyatlari, urf-odatlar hamda udumlarini mujassam etgan o‘ziga xos san’atdir. Xalqimiz kurash an’analarini asrlar davomida ko‘z qorachig‘idek asrab- avaylab shu kungacha etkazib kelgan.

Xalqimizning milliy qadriyatlarini, halollik, mardlik, jasurlik, insoniylik tuyg‘ularini o‘zida mujassamlashtirgan kurash sportining jahon sporti deb tan olingani kurash ixlosmandlarini nihoyatda sevintirdi. O‘zbekning kurashidagi qadriyatlar, an’ana va urf-odatlarning guvohi bo‘lgan chet el fuqarolari o‘z hayratini ifoda etdilar. Darhaqiqat, kurash bizning go‘zal qadriyatlarimizning eng nodiridir. Kurashning qoidalari umuminsoniy falsafa bilan birlashib, asrlar mobaynida rivojlandi, mukammallashdi. Natijada, kurash xalqimizning ruhiyati, ma’naviyati va urf-odatlarining tayanch vositalaridan biriga aylanib ulgurdi.

Kurash vositasida milliy qadriyatlarimiz tiklanib, kelajak avlod shuurida xalqimizning asrlar davomida to‘plagan tarixiy boyliklari bilan faxrlanish tuyg‘usi rivojlantirib borilmoqda. Ajdodlarimizning o‘ktam, alp-qomat, pahlavon, mard, tanti kishilar bo‘lganligi tan olindi, avlodlarni ham

xuddi shunday insoniy fazilatlarga boy qilib tarbiyalashga xizmat qiladigan madaniy manbalardan biri sanalgan kurashga e'tibor ortdi. Mustaqilligimiz sharofati bilan milliy kurashimiz dunyo yuzini ko'rdi.

Qadriyatlar kishilik jamiyatining turli hayotiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy tomonlarini ifodalaydi. Qadriyatlar moddiy va ma'naviy hamda milliy va umuminsoniy qadriyat singari turlariga bo'linadi. Shuningdek, o'zbek xalqining ham o'z qadriyatlari bor. Kurash esa shu milliy qadriyatlarimizning durdonasidir. Qadriyatlarni o'rganish, ularni tahlil qilish yuzasidan dunyoning olimlari safida o'zbek olimlari ham ko'plab ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Bularni ilmiy adabiyotlar, maqolalar, risolalarda uchratish mumkin. Bu borada akademik J. Tulenov, professorlar M. Murodov, U. Qoraboyev, I. Jabborov, T. Javliyev kabilarning ilmiy tadqiqot ishlari e'tiborlidir. Qadriyatlarning ta'lim – tarbiyaviy ahamiyati haqida professorlar X. Homidov, O. Musurmonova, S. Nishonova, M. Imomova, M. Davletshin, A. Atoev, F. Nasriddinov, T. Usmonxo'jayev, X. Rofiyev, O'. Ibrohimov, R. Abdumalikov, B. Ochilova, F. Axmedov va boshqalarning ishlari salmoqli o'rin egallaydi.

Qadriyatlar asosida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni yosh avlod ongida o'zlikni anglash, yangicha dunyoqarash, vatani tarixi va madaniyatini o'rganish, ona tiliga hurmat, vatanga muhabbat, urf- odat, qadriyat va an'analarga sadoqat kabi insoniy fazilatni tarbiyalashga xizmat qiladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning yosh avlodga qarata: "Biz hech kimdan kam emasmiz, kam ham bo'lmaymiz",- degan murojaatlarida bu o'z tasdig'ini topadi. Bu degani o'zbek xalqi o'zining milliy qadriyatlarini asrab, rivojlantiribgina qolmay, umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishga ham o'z ulushini qo'shmoqdalar.

Xalqimiz orasida: "Sog'lom tanda sog' aql",- degan ibratli naql mavjud. Shu bilan birga insonning muntazam sport bilan shug'ullanishi unda nafaqat sog'lom turmush tarzini, balki halollik, insonparvarlik, vatanparvarlik singari ijobiy xislatlarning shakllanib borishiga yordam beradi. Xalqimiz tarixi bilan tengdosh, jozibali sport turlaridan biri – o'zbek kurashi ham komil inson shaxsini tarbiyalashda etakchi o'rinda turadi[4].

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarining barchasida kurash sporti bilan shug'ullanish jarayonlarida qadriyatlarni tiklash va ularni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar vujudga kelganini ko'rsatmoqda. Bu borada Nurmuhammad Yusupovning tashabbusi bilan tashkil etilgan "Polvonlar milliy ensiklopediyasi" jamiyati tomonidan yangi imkoniyatlar yaratildi. Shuningdek, "Siz polvonlaringizni bilasizmi?" deb nomlangan respublika umumiy o'rta ta'lim maktablari, litseylar va kasb-hunar kollejlari orasidagi tanlovni o'tkazish jarayonlarida vaqtlar mobaynida nomlari unutilib ketayotgan milliy qadriyatimizdan sanalgan ko'plab sport ustalari, el ardog'idagi polvonlar haqida ulkan, boy tarixiy ma'lumotlar to'plab borilmoqda. Ushbu qilingan harakatlar natijasida Samarqand viloyatida 400 dan, Jizzax viloyatida 250dan ortiq polvonlarning nomlari aniqlandi va ular haqida ma'lumotlar to'plandi. Shu bilan bir qatorda, ta'lim muassasalarida "Yosh polvonlar" to'garaklari, mahallalarda "Mahalla pahlavonlari" burchaklari tashkil qilinmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad o'z vaqtida O'zbekistonning shuhratini dunyoga tanitgan faxriy polvonlar nomlarini tarix zarvaraqlariga joylashtirish, ular to'plagan boy madaniy-milliy merosini avlodlarga etkazish, yoshlarni milliy g'urur, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, turli yot g'oyalardan saqlashdan iboratdir.

Milliy qadriyatlar- ijtimoiy-ruhiy hodisa hisoblanib, u millat madaniyatini, urf-odatlarini va an'analarini, tarixini- jami moddiy va ma'naviy, iqtisodiy boyliklarini, ijtimoiy hayotining hamma tomonini o'z ichiga qamrab oladi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tassavur faqat g'oyagina emas balki tuyg'u hamdir. Toki millatlar, milliy mafkuralar mavjud ekan, uning milliy qadriyatlari ham saqlanib qoladi. Qaysiki millatni milliy qadriyatlaridan mahrum etishga intilish, insoniyat va tarix oldidagi eng og'ir jinoyatdir. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar millatning asrlar davomida asrab kelgan qadriyatlari sirasiga kiradi, unda millatga xos o'zgachaliklar, fazilatlar, tuyg'ular, ma'lum davrlarda yaratilgan ma'naviy va moddiy qadriyatlar jamlangan bo'ladi[5].

Ba'zi qadriyatlar insonning aqlini, fikr doirasini, zakovatini charxlaydi. Yana shunday qadriyatlar borki, ular inson qalbini zamon talablariga muvofiqlashtiradi. Alohida qadriyatlar borki, ular inson tanasini, jismini

chiniqtiradi, baquvvatlashtiradi. Kurash shu qadriyatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan va aynan shu ma'noda muhim milliy qadriyat sifatida e'tiborga olingan. Kurash bo'yicha yangi ishlab chiqilgan musobaqa qoidalarini ajdodlarimizning urf-odatlarini, udumlari, ishlatilgan atamalarini asosida sodda va oddiy qilib Komil Yusupov tomonidan ishlab chiqildi. Polvonlarning ijobiy harakati "halol", "yonbosh", "chala" atamalarini ishlatish bilan baholangani, kurashsevar tomoshabinlar tomonidan tez va oson o'zlashtirib olindi[6].

Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi. Xususan, mustaqilligimizning birinchi kunidan boshlab hayotimizning barcha jabhalarida "qadriyatlar", "milliy tiklanish", "milliy ong", "milliy g'urur", "milliy iftixor" kabi tushunchalar tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Bu bejiz emas, zotan, mustaqillik ayni paytda milliy tiklanish hamdir. Uni esa mazkur tushunchalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qadriyatlarni tiklash, uning ta'lim-tarbiyadagi o'rnini belgilash bo'yicha hali keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish masalasi dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

Milliy qadriyatimiz, urf-odatlarimizni o'zida ifodalagan kurash sifatlari quyidagicha ta'riflangan:

- kurash o'zbek millatining iftixori;
- kurash dunyo tan olgan sport;
- kurash eng samarali tarbiya vositalaridan biri;
- kurash qoidalariga insonparvarlik g'oyalari singdirilgan;
- kurash dunyo xalqlarini yanada jipslashtirishga xizmat qiladi;
- kurash halollikka, soflikmi asoslangan sport turi;
- kurash o'quychi-yoshlarni dunyoqarashi va erkin tafakkurini shakllantiradi, bilimi va kuchiga ishonib yashashni tarbiyalaydi;
- kurash shug'ullanuvchidan jismoniy jihatdan barqarorlikni talab etadi;
- kurash ko'plab buyuk shaxslar hayoti, ijodiy faoliyatining mazmuni;
- kurashning xalq og'zaki ijodi va mutafakkirlar qarashlaridagi o'ziga xos talqini mavjud;

- kurash milliy bayramlar va xalq tomoshalari tadbirlarining ajralmas tarkibiy birligidir;

- kurash insonda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi;

- kurash insonni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vositasi;

- kurash o'zbek xalqining asrlar davomida etib kelgan umrboqiy sport turi.

Shuningdek, jismoniy madaniyatning milliy qadriyatlar tizimida tutgan o'rnini quyidagicha ko'rsatib o'tish mumkin.

Kurash o'quvchi-yoshlarga tarbiya berishda, xususan, davlatda mudofaa qudratini oshirishda, harbiy sohani mukammallashtirishda mislsiz o'rin egallaydi. Aytish mumkinki, kurash ahil millatni yuzaga keltiruvchi tarixiy qadriyatlardan biridir. Kurash faqatgina ikki sportchi orasidagi jismoniy bellashuv mahorati emas, balki yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash vositasi ham sanaladi. Kurash negiziga halollik, mehnatsevarlik, mardlik, to'g'rilik, mag'lublikni tan olish, raqibga, murabbiylarga, ishtirokchilarga, hakamlarga hurmat kabi sport etikasi va insonparvarlik tuyg'ulari singdirilgan.

Kurashni avlodlarga meros qoldirish yo'lida sobitdirlar. Kurashning mavjudligi kimlarningdir irodasiga bog'liqmas. Bu qadriyat o'zbek xalqining turmush tarzidan, zarurat va ehtiyojlari natijasida yaratilgan ma'naviy mulki, milliy boyligidir. Kurash millatimizning kelgusi avlodni mard, tanti, kuchli, kamtar, vatanparvar, g'ururli avloq etib tarbiyalashda tengsiz vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23 sentabr.

2. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. 2015-yil 4 sentabr.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-60-son. 2022-yil 28 yanvar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi “Kurash” milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4881-son Qarori.

5. Axmedov F.Q., Abdulaxatov A.R. O‘zbek kurashi — milliy va umuminsoniy qadriyatlar durdonasi.-T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2017. 128 b.

6. Yusupov K. Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. Toshkent-2005. B-35-36

YOSHLARNI MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O‘RNI

Salaeva Laylo Shavkatovna,

O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchisi

Bugungi kunda globallashuv va axborot texnologiyalarini shiddat bilan tez rivojlanayotgan bir davrda yoshlarning ongi va dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazishda ommaviy axborot vositalari (OAV) alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, axborotning shiddat bilan tarqalishi, uning ko‘lami va ta’sirchanligi shaxsni tarbiyalovchi, g‘oyaviy — mafkuraviy yo‘naltiruvchi va ma’naviy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mafkuraviy tarbiyaning zamonaviy bosqichida OAV orqali jamiyat a’zolariga milliy g‘oya, fuqarolik mas’uliyati, insonparvarlik, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar to‘g‘risidagi g‘oyalar targ‘ib etilib, ularning yot g‘oyalarga nisbatan fikriy bardoshini mustahkamlash imkoni yaratiladi. Shu jihatdan, OAV mafkuraviy immunitetni shakllantirishning strategik vositasi sifatida qaralishi zarur.

Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar faoliyati kengaygan hozirgi sharoitda yoshlar axborotni aynan onlayn platformalardan olishga o‘rganib qolgan. Bu esa axborot manbalarining mazmuni, maqsadi va ta’sirini teran

tahlil qilish, tahdidli kontentlarga qarshi milliy g'oyaviy pozitsiyani mustahkamlash masalasini dolzarblashtirmoqda.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari zamonaviy jamiyatda doimiy va tobora muhim rol o'ynab, shaxsning ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirishga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ommaviy axborot vositalari insonning ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirishda, uning e'tiqodi va atrofidagi dunyoni idrok etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ommaviy axborot vositalari deganda katta auditoriyaga, jumladan gazetalar, televideniye, radio va internetga etib boruvchi turli xil aloqa shakllari tushuniladi. U jamoatchilik fikrini shakllantirish va ijtimoiy me'yorlarga ta'sir qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy nuqtai nazarga ta'sirini o'rganish axborot qanday tarqatilishi va jamoatchilik fikrini qanday shakllantirishini tushunish uchun juda muhimdir. Ommaviy axborot vositalari odamlarning ijtimoiy masalalarni qanday qabul qilishiga ta'sir qilish qobiliyatiga ega, pirovardida ularning ijtimoiy dunyoqarashini shakllantiradi.

Ommaviy axborot vositalari shaxslarning jamiyat va siyosat haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalari shaxslarning jamiyat va siyosat haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda, ularning ijtimoiy dunyoqarashiga ta'sir etishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy istiqbollarga ta'sirini tushunish media-kontentni iste'mol qilishda media-savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ommaviy axborot vositalarining tarixini gazeta, radio va televideniye kabi aloqaning dastlabki shakllariga borib taqaladi. Ommaviy axborot vositalarining bu an'anaviy shakllari jamoatchilik fikrini shakllantirish va ommaga axborot tarqatishda muhim rol o'ynadi. Biroq, internet va raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan ommaviy axborot vositalarining landshafti keskin o'zgarishlarga duch keldi.

Internet axborotni tarqatish va iste'mol qilish usulini inqilob qildi. Raqamli ommaviy axborot vositalarining, jumladan, Facebook, Twitter va Instagram kabi ijtimoiy media platformalarining yuksalishi odamlarga

dunyoning istalgan nuqtasidan bir zumda yangiliklar va ma'lumotlardan foydalanish imkonini berdi. Bu axborotni demokratlashtirishga olib keldi, bu esa turli nuqtai nazarlar va ovozlarni eshitish imkonini berdi.

Texnologik taraqqiyot ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilish usullariga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Smartfonlar va boshqa mobil qurilmalarning keng tarqalishi bilan odamlar endi keng doiradagi media-kontentdan foydalanish imkoniyatiga ega. Bu onlayn yangiliklar va raqamli ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilishning oshishiga olib keldi, chunki odamlar endi ma'lumotlarga yo'l-yo'lakay kirishlari mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy media platformalari odamlarning yangiliklar va ma'lumotlarni iste'mol qilish usulini o'zgartirdi. Ushbu platformalar foydalanuvchilarning qiziqishlari va afzalliklari asosida tarkibni shaxsiylashtirish uchun algoritmlardan foydalanadi va bu yanada moslashtirilgan media tajribasiga olib keladi. Biroq, bu noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishi va filtr pufakchalarining ommaviy nutqqa ta'siri haqida xavotirlarni ham keltirib chiqardi.

Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy rivojlanish istiqboliga ta'sirini tushuntirishga bir qancha *nazariyalar* yordam beradi:

kun tartibini belgilash nazariyasi: Bu nazariya ommaviy axborot vositalarining ayrim masalalar va mavzularni yoritib berish orqali jamoat kun tartibiga ta'sir o'tkazish va shu munosabat orqali fuqarolarning nima haqida o'ylashini rivojlantirish qobiliyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Ommaviy axborot vositalari ma'lum masalalarni ochib berish hajmi va doirasi orqali birinchi o'ringa qo'yishi mumkin, bu esa jamoatchilikning ushbu masalalarning ahamiyatini idrok etishiga ta'sir qiladi[1].

Framing nazariyasi: Framing ma'lumotni taqdim etish usulini anglatadi, masalaning ba'zi jihatlarini ta'kidlab, boshqalarni kamaytiradi. Ommaviy axborot vositalarini shakllantirish shaxslarning ijtimoiy voqealarni qanday izohlashi va tushunishiga, ularning fikr va munosabatlarini shakllantirishiga ta'sir qilishi mumkin[2].

Jimlik spirali nazariyasi: ushbu nazariyaga ko'ra, odamlar ozchilikda bo'lsa, o'z fikrlarini bildirish ehtimoli kamroq. Ommaviy axborot vositalari

jamoatchilik fikrini idrok etishda muhim rol o'ynaydi, odamlarga muayan masalalarda gapirishga yoki sukut saqlashga ta'sir qiladi[3].

Umuman olganda, ushbu nazariyalar ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy nuqtai nazarga ta'sir qilish, jamoatchilik fikri va muhim ijtimoiy muammolar bo'yicha nutqni shakllantirishning murakkab usullarini ta'kidlaydi. Ushbu nazariyalarni tushunish, ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining rolini tahlil qilish uchun juda muhimdir.

Ommaviy axborot vositalari norozilik namoyishlari va ijtimoiy harakatlar kabi ijtimoiy muammolar haqidagi jamoatchilik fikrini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalarida bu masalalarning qanday aks ettirilishi jamoatchilik fikri va ijtimoiy o'zgarishlarga munosabatga ta'sir qilishi mumkin. Misol tariqasida, ommaviy axborot vositalarida norozilik namoyishlari ochiqlanishi ularni ijtimoiy adolat uchun tinch jamoatchilik namoyishchilarning maqsadlarini qanday qabul qilishini aniqlashtirish mumkin.

Ommaviy axborot vositalari ham ijtimoiy qadriyatlar, me'yorlar va ijtimoiy o'zgarishlarga munosabatga ta'sir qilishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari ayrim ijtimoiy masalalarni yoritib, ularni muayan nuqtai nazardan taqdim etish orqali jamiyatda nima maqbul ekanligi haqidagi jamoatchilik fikrini shakllantirishi mumkin. Masalan, ommaviy axborot vositalarida LGBT huquqlarini himoya qilish yoki ochiqlash, jamiyat normalarini yanada ularga moslab qabul qilish hamda munosabatlarni o'zgartirishga yordam beradi.

Ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining rolini aks ettiruvchi *amaliy tadqiqotlar*:

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi fuqarolik huquqlari harakati: ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va fuqarolik huquqlari harakatini qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynadi. Selma-Montgomeri yurishlari kabi voqealarni televideniye orqali yoritish afro-amerikaliklar duch kelgan adolatsizliklarni milliy auditoriyaga etkazishga yordam berdi, bu esa fuqarolik huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini ko'proq qo'llab-quvvatlashga olib keldi.

Arab bahori: Ijtimoiy media arab bahori qo'zg'olonlarida muhim rol o'ynadi, Twitter va Facebook kabi platformalar norozilik namoyishlarini uyushtirish va ma'lumot almashish uchun ishlatilgan. Ushbu voqealarning ommaviy axborot vositalarida yoritilishi qo'zg'olonlar va ularning mintaqada ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatlari haqidagi global tasavvurni shakllantirishga yordam berdi.

Qora tanlilarning hayoti muhim harakati: Qora tanlilarning hayoti muhim harakati ommaviy axborot vositalarida keng yoritilgan bo'lib, irqiy adolat va politsiya zo'ravonligi masalalari bo'yicha jamoatchilik fikri va nutqiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ommaviy axborot vositalarida yoritish faollar ovozini kuchaytirishga va jamiyatdagi tizimli irqchilikka e'tibor qaratishga yordam berdi[4].

Ushbu ilmiy izlanish doirasida olib borilgan tadqiqotlar ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirish, omma fikrini ijtimoiy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy muammolarga ta'sirini tushunish uning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirishdagi rolini tahlil qilish uchun juda muhimdir.

Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy voqealar, saylovoldi tashviqotlari haqida jamoatchilik fikrini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu voqealarning yoritilishi saylovchilarning nomzodlarni va ularning siyosatini qanday qabul qilishiga ta'sir qilishi mumkin. Ommaviy axborot vositalarining yoritilishi saylovchilarning faolligiga va ijtimoiy jarayondagi ishtirokiga ham ta'sir qilishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy masalalarni yoritish orqali e'tiqod, mafkura va saylovchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy bahs-munozaralarni shakllantirish va ma'lumotni ma'lum bir shaklda taqdim etish orqali turli ijtimoiy masalalar bo'yicha jamoatchilik fikrini rivojlantirilishi mumkin. Masalan, nomzodni kuchli va hal qiluvchi sifatida ko'rsatuvchi ommaviy axborot vositalarining yoritilishi saylovchilarning ushbu nomzodga ijobiy munosabatda bo'lishiga ta'sir qilishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalarining yoritilishi etakchilar va hukumat siyosati haqidagi jamoatchilik fikriga ham ta'sir qilishi mumkin. Ommaviy axborot vositalarida etakchilarning ijobiy yoki salbiy tasvirlari ularning reytingi va jamoatchilik fikriga ta'sir qilishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy voqealar maydonida, har xil kampaniyalar va saylovlar to'g'risidagi odamlar fikrini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bennett, Sh. L. va Iengar, S. (2008). Minimal effektlarning yangi davri? Siyosiy muloqot asoslarining o'zgarishi. Journal of Sommunisation, 58(4), 707–731. <https://doi.org/10.1111/j.1460-2466.2008.00410.x>
2. Stroud, N. J. (2008). Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish va siyosiy moyilliklar: tanlangan ta'sir qilish kontsepsiyasini qayta ko'rib shiqish. Siyosiy xatti-harakatlar, 30(3), 341–366. <https://doi.org/10.1007/s11109-008-9051-6>
3. Noyelle-Neumann, Ye. (1993). Sukunat spirali: jamoatchilik fikri — bizning ijtimoiy terimiz. Shikago universiteti matbuoti.
4. Ms. Quail, D. Makquailning ommaviy kommunikatsiya nazariyasi (6-nashr). Sage nashrlari. 2010.

YOSHLARNI IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI MAFKURAVIIY XURUJLARDAN HIMOYA QILISH TEXNOLOGIYALARI

Oblomuradova Xabiba Naimovna,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
TDYu dotsenti

Globalashuv va raqamli kommunikatsiyalar sharoitida ijtimoiy tarmoqlar inson tafakkuri va ongining shakllanishida beqiyos ta'sir kuchiga ega maydonga aylandi. Bugungi kunda ular nafaqat axborot almashish

vositasi, balki mafkuraviy kurashning eng faol maydonlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongiga turli g'oyalar, qadriyatlar hamda axloqiy me'yorlarning singdirilishi orqali ularning dunyoqarashiga, ijtimoiy pozitsiyasiga va shaxsiy qarashlariga bevosita ta'sir ko'rsatilmoqda.

Bunday holat "ijtimoiy ong", "ma'naviy xavfsizlik" va "axborot suvereniteti" kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, inson ongini boshqarish yoki unga mafkuraviy ta'sir o'tkazish jarayoni jamiyatning ma'naviy mustaqilligi va ruhiy barqarorligiga bevosita tahdid soladi. Shu sababli, yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarda sodir bo'layotgan mafkuraviy xurujlardan himoya qilish texnologiyalarini ishlab chiqish milliy-ma'naviy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, strategik ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

Ma'lumki, mafkuraviy xurujlar insonning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy pozitsiyasiga maqsadli ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan murakkab ijtimoiy-psixologik jarayondir. Bu jarayonlar, asosan, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, virtual makon, reklama hamda madaniy ta'sir vositalari orqali amalga oshiriladi[1]. Shu bois, mazkur hodisa ko'plab tadqiqotchilar tomonidan "ijtimoiy ongni boshqarishning zamonaviy texnologiyasi" sifatida talqin etilmoqda. Mazkur texnologiyalar inson ongiga bevosita emas, balki turli ramzlar, obrazlar, axborot oqimlari va g'oyaviy manipulyatsiyalar orqali bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Mafkuraviy xurujlarning eng xavfli jihatlaridan biri shundaki, ular ko'pincha "erkin fikr", "shaxsiy tanlov" yoki "demokratik qadriyatlar" niqobi ostida amalga oshiriladi. Bu esa yoshlarning e'tiqodi, milliy o'zligi, tarixiy xotirasi va ma'naviy qadriyatlaridan asta-sekin uzoqlashishiga olib kelishi mumkin[2]. Shu bois, yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda kompleks yondashuv, ya'ni media savodxonlikni oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, milliy va diniy qadriyatlar asosida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Faylasuf E.Fromm o'zining mashhur **"Erkinlikdan qochish"** (Escape from Freedom) asarida inson ongiga ta'sir o'tkazishning eng ta'sirchan usullaridan biri sifatida "erkin tanlov illyuziyasi"ni yaratish jarayonini

ta'kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy jamiyatda inson ko'p hollarda o'zini mustaqil qaror qabul qilayotgandek his etadi, ammo aslida uning tanlovi muayyan ijtimoiy, iqtisodiy yoki mafkuraviy omillar ta'sirida shakllanadi[3]. Bu holat inson ongini bilvosita boshqarishning psixologik mexanizmlaridan biri bo'lib, mafkuraviy ta'sir yoki mafkuraviy xurujlar nazariyasida muhim tamoyil sifatida qaraladi.

Zamonaviy jamiyatda mafkuraviy xurujlar axborot urushi, mediapsixologik manipulyatsiyalar hamda ijtimoiy tarmoqlardagi algoritmlar orqali inson ongini yo'naltirishning yangi shakllarida namoyon bo'lmoqda. Rossiyalik faylasuf va sotsiolog A.Zinovyev bu holatni "qurolsiz bosib olish" shakli sifatida ta'riflab, bunday ta'sir jamiyatda qadriyatlar tizimining o'zgarishi, milliy o'zlik va iftixorning susayishi hamda ma'naviy parokandalikning kuchayishiga sabab bo'lishini ta'kidlagan.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilayotgan ijtimoiy ongni boshqarish texnologiyalari muayyan psixologik va sotsiologik mexanizmlarga asoslanadi. Ular jamiyat a'zolarining tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatishni maqsad qiladi. Bunday texnologiyalarga axborot oqimini nazorat qilish, ma'lum g'oyani doimiy ravishda takrorlash orqali uni "haqiqat" sifatida qabul qildirish, ramzlar va obrazlar vositasida hissiy ta'sir ko'rsatish, shuningdek, turli talqin va ma'no dissonansi orqali inson ongida ruhiy noaniqlik holatini yuzaga keltirish kabi usullar kiradi.

Bu jarayonlar natijasida insonning tafakkur tizimiga bevosita ta'sir etilar ekan, u muayyan mafkuraviy yo'nalishga ega bo'ladi va ijtimoiy voqelikni belgilangan g'oyalar asosida qabul qilishga moyillashadi.

Faylasuf va sotsiologlarning fikricha, bu holat axborot manipulyatsiyasining yangi bosqichi sifatida namoyon bo'lmoqda. Amerikalik olim M.Kastels o'zining "Axborot asrining kuchi" asarida Internet va ijtimoiy tarmoqlarni "ijtimoiy ongni shakllantirishning yangi infratuzilmasi" sifatida ta'riflaydi[4]. Unga ko'ra, axborot maydonida kim axborot oqimi ustidan nazoratni qo'lga kiritrsa, u jamiyat ongiga, qadriyatlar

tizimiga va ijtimoiy fikr yo‘nalishiga ta’sir o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda kechayotgan mafkuraviy xurujlar turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Birinchi navbatda, axborot manipulyatsiyasi orqali yoshlar ongiga noto‘g‘ri, biryoqlama yoki soxtalashtirilgan ma’lumotlar etkaziladi. Bunday jarayon inson tafakkurining mustaqilligini susaytiradi va haqiqatni obyektiv anglash imkoniyatini cheklaydi. Nemis olimi Y.Habermas bu holatni “Kommunikativ manipulyatsiya” deb atab, axborotning maqsadli tahrirlanishi insonning erkin fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini zaiflashtiradi, deya ta’kidlaydi.

Ikkinchidan, madaniy relyativizm orqali milliy qadriyatlar “eskilik”, “konservativizm” yoki “ortodoksallik” sifatida talqin qilinadi. Bunda g‘arb madaniyati va turmush tarzining “ustunlik ideologiyasi” faol targ‘ib qilinadi. Bu jarayon natijasida yoshlar o‘z milliy o‘zligi va ma’naviy ildizlaridan uzoqlashish xavfiga duch keladi. Fransuz faylasufi J.Bodriyyar ushbu holatni “simulyakrum” tushunchasi orqali izohlab, zamonaviy jamiyatda insoniyat haqiqiy qadriyatlarni yo‘qotib, ularning sun’iy va ommaviy axborot vositalari tomonidan yaratilgan namunalariga sig‘ina boshlaganini ta’kidlaydi.

Uchinchidan, virtual agressiya va psixologik bosim ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning ruhiy barqarorligini izdan chiqaruvchi asosiy omillardan biridir. Bunday holatda yoshlar nafaqat axborot zo‘ravonligiga, balki “ijtimoiy solishtirish bosimi”ga ham duch keladilar. Psixolog A.Banduraning “Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi”ga ko‘ra, inson boshqa shaxslarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularni o‘z hayotida “me’yor” sifatida qabul qiladi. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarda sun’iy tarzda yaratilgan muvaffaqiyat obrazlari va ideal hayot manzaralari yoshlar ongida ruhiy bosim, o‘zini past baholash va ishonchsizlik kompleksi kabi holatlarni kuchaytiradi. Bu esa yoshlarning ruhiy barqarorligiga hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, identifikatsiya inqirozi – bu global madaniyat ta’siri ostida shaxsning milliy, diniy va ma’naviy o‘zligini yo‘qotish jarayonidir. Kanadalik mutafakkir M.Maklyuen o‘zining “Vosita – bu xabar” g‘oyasida

media vositalari faqat axborot uzatish bilan cheklanib qolmay, balki inson ongi, tafakkur tizimi va ijtimoiy o'zini anglash jarayonini qayta shakllantirishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar insonning haqiqiy o'zligini "raqamli identifikatsiya" bilan almashtiradi, ya'ni shaxs o'z qadri va ijtimoiy mavqeyini onlayn muhitdagi "layklar", "obunachilar soni" va "trend"lar orqali baholay boshlaydi. Bu esa insonning real hayotdagi o'zini anglash qobiliyatini zaiflashtiradi.

Shu tariqa, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilayotgan mafkuraviy xurujlar – axborot manipulyatsiyasi, madaniy relyativizm, virtual bosim va identifikatsiya inqirozi kabi ko'p qirrali jarayonlardan iborat bo'lib, ular yoshlarning dunyoqarashi, ma'naviy immuniteti hamda ijtimoiy pozitsiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Faylasuflar ta'kidlaganidek, bu jarayonlarga qarshi samarali kurashishning eng muhim sharti yoshlar orasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, media savodxonlikni oshirish, shuningdek, milliy ong va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan tizimli tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishdir.

Yoshlarni mafkuraviy xurujlardan himoya qilish texnologiyalari sifatida insonning ongli qaror qabul qilishi, tanqidiy tafakkur yuritishi va mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish talab etiladi. Bu kompleks yondashuv jamiyatning ma'naviy barqarorligini mustahkamlash, yosh avlodni axborot bosimlaridan himoya qilish hamda ularning ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan.

Bu jarayon quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- **Ma'naviy-axloqiy immunitetni shakllantirish** – milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va diniy-ma'naviy meros asosida shaxsning ichki dunyosini mustahkamlash, ma'naviy barqarorlikni ta'minlash;

- **Axborot savodxonligini oshirish** – yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish, axborot oqimlarida yolg'on, manipulyativ yoki mafkuraviy ta'sirga ega ma'lumotlarni aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirish;

- **Media-psixologik himoya texnologiyalari** – stressga bardoshlilik, ruhiy muvozanat, emotsional intellekt va ijobiy tafakkur madaniyatini shakllantirish orqali yoshlarning psixologik barqarorligini ta'minlash;

• **Virtual ijtimoiy muhitni boshqarish** – raqamli makonda milliy, ma’rifiy va tarbiyaviy yo‘nalishdagi kontentlar ishlab chiqish, sog‘lom fikrli onlayn jamoalarni shakllantirish hamda axborot madaniyatini rivojlantirish.

Natijada, ushbu texnologiyalar yoshlarning mafkuraviy himoyasini kuchaytirish, ularni raqamli makondagi g‘oyaviy xurujlardan asrash va ijtimoiy ongni sog‘lom yo‘nalishda shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardagi mafkuraviy xurujlardan himoya qilish texnologiyalari milliy-ma’naviy xavfsizlik uchun eng muhim strategik yo‘nalishlardan biridir. milliy-ma’naviy xavfsizlik esa, jamiyat barqarorligining falsafiy asosi, yoshlar esa uning bosh subyekti hisoblanadi. Shunday ekan, raqamli makonda yoshlar ongini himoya qilish texnologiyalarini ishlab chiqish nafaqat mafkuraviy zarurat, balki ijtimoiy-falsafiy burchdir. Bu texnologiyalar inson ongini mustahkamlash, ma’naviy immunitetni shakllantirish va milliy o‘zlikni asrashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Qo‘chqorov R., Tojiboyeva D. Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar //T.: TDYu. – 2016.
2. Tadjibayeva D. Ensuring national security in the information sphere //Review of law sciences. – 2017. – T. 1. – №. 1. – S. 8.
3. G‘ulomov S. Internet madaniyati va yoshlar ongidagi o‘zgarishlar. – Toshkent, 2021.
4. Castells M. “The Internet Galaxy”. – Oxford University Press, 2003.

YANGI MA'NAVIY OQIMLAR: RAQAMLI AXLOQ, VIRTUAL ONG, KIBER-MADANIYAT VA TEXNOGEN INSONPARVARLIK

Rasulov Rustambek Odilovich,

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Fan va texnologiyalar universiteti

KIRISH (Introduction). Bugungi kunda insoniyat “raqamli sivilizatsiya” deb ataluvchi mutlaqo yangi tarixiy bosqichga qadam qo'ydi. Bu bosqichda inson hayoti, tafakkuri, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy qadriyatlari axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog'lanib ketdi. Raqamli texnologiyalar — internet, sun'iy intellekt, virtual reallik, neyrotarmoqlar va kiber-madaniyat — endilikda nafaqat iqtisodiyot va siyosatni, balki inson ma'naviy olamini ham tubdan o'zgartirmoqda. Shunday ekan, raqamli sivilizatsiyaning ma'naviy jarayonlarga, inson axloqi, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashiga ko'rsatgan ta'sirini chuqur tahlil etish bugungi falsafaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Raqamli sivilizatsiya mohiyatan insoniyat tafakkurining yangi paradigmasidir. Unga qadar mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy-madaniy tizimlar texnologiyalarning yordamchi rolini tan olgan bo'lsa, hozirda texnologiyaning o'zi hayotiy mazmun va qadriyatlar manbaiga aylangan. Bu esa insonning o'zini anglash shaklini, ma'naviy izlanishlarini va axloqiy me'yorlarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Shu ma'noda, raqamli sivilizatsiya insoniyat tarixida “texnogen ma'naviyat” deb nomlanuvchi yangi bosqichni boshlab berdi.

Ma'naviyat — bu jamiyatning ichki kuchi, insonning axloqiy va ruhiy komillikka intilishidir. Ammo raqamli dunyoda ma'naviyatning an'anaviy mezonlari — halollik, sabr, vijdon, hurmat, poklik — raqamli muhitda yangicha talqin qilina boshladi. Masalan, “virtual halollik” tushunchasi — bu internetdagi xatti-harakatlarda adolatli bo'lish, axborotni to'g'ri etkazish va boshqalarning shaxsiy ma'lumotlariga hurmat bilan qarashni anglatadi. Shu tariqa, “raqamli axloq”, “virtual ong”, “kiber-madaniyat” kabi

tushunchalar paydo bo'lib, ular yangi ma'naviy qadriyatlar tizimini shakllantirmoqda.

Raqamli muhit inson tafakkurini kengaytirib, ma'lumot olish imkoniyatlarini cheksiz darajaga etkazdi. Biroq bu erkinlik bilan birga yangi muammolarni ham keltirib chiqardi — axborotga qaramlik, sun'iy ongning inson qarorlariga ta'siri, "virtual yolg'on" va "axborot manipulyatsiyasi" hodisalari bunga misoldir. Shu sababli, raqamli sivilizatsiyaning ma'naviy oqibatlarini baholashda faqat texnologik yutuqlar emas, balki insonparvarlik tamoyillarini ham chuqur tahlil qilish zarur. Faqat inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyatgina texnologik taraqqiyotni ma'naviy inqirozga aylantirmay, uni yuksalish omiliga aylantira oladi [1].

Zamonaviy tadqiqotchilar ta'kidlashicha, raqamli madaniyatning rivojlanishi insonning "virtual o'zligini" yaratadi, ya'ni shaxs o'zining raqamli obraziga ko'proq e'tibor qaratadi. Bu holat ijtimoiy hayotda yangi qadriyatlar — shon-shuhrat, tezkorlik, algoritmik fikrlash, tarmoqlashgan ong kabi tushunchalarning ustuvor bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, inson o'zining haqiqiy "men"ini saqlab qolish uchun yangi ma'naviy strategiyalarni ishlab chiqishi kerak. Shunday yondashuvgina insonni texnologiyalar orasida "yo'qolib ketish" xavfidan asraydi.

Raqamli sivilizatsiya shunchaki texnik jarayon emas, balki chuqur falsafiy hodisadir. U insoniyatni yangi axloqiy va ruhiy muvozanat sari yo'naltiradi. Bugun "raqamli inson" fenomeni — bu faqat raqamli vositalardan foydalanuvchi emas, balki texnologiyalar orqali o'zining ma'naviy dunyosini ifoda etuvchi shaxsdir. Shu bois, raqamli sivilizatsiya sharoitida inson axloqining qayta shakllanishi, texnogen insonparvarlik g'oyalari va raqamli madaniyatning ijtimoiy oqibatlari ilmiy tadqiqotlarning markazida turishi tabiiydir [2].

Mazkur tadqiqot ana shu jarayonlarning mohiyatini falsafiy, ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan tahlil qilishga, raqamli texnologiyalar ta'sirida o'zgarayotgan ma'naviy qadriyatlar tizimini ochib berishga qaratilgan.

Metodologiya (Methods) .Raqamli sivilizatsiya va uning ma'naviy jarayonlarga ta'sirini o'rganish murakkab, ko'p qirrali va tizimli yondashuvni talab etadi. Chunki bu hodisa faqat texnologik yoki axborot jarayoni emas, balki inson tafakkurining, axloqiy qarashlarining, madaniy qadriyatlarining tubdan o'zgarishidir. Shu sababli, ushbu tadqiqot metodologiyasi falsafiy, sotsiologik va madaniyatshunoslik yondashuvlarini o'zida birlashtirgan integrativ uslubga asoslanadi. Tadqiqotning markazida inson — uning ong, axloq va ma'naviy o'zlikni shakllantirishdagi o'rni turadi.

Metodologiyaning nazariy asosi sifatida avvalo **insonparvarlik falsafasi, axborot jamiyati nazariyasi, sotsial konstruktivizm**, shuningdek **postmodernizm konsepsiyasi** qabul qilindi. Ushbu yondashuvlar raqamli axloq, virtual ong, kiber-madaniyat va texnogen insonparvarlik kabi yangi tushunchalarning falsafiy ildizlarini tahlil etishga imkon beradi. Raqamli axloq masalasi axborot etikasi bilan bog'liq bo'lsa, kiber-madaniyat — raqamli kommunikatsiyalar natijasida paydo bo'lgan yangi ijtimoiy tuzilmalar va estetik me'yorlarni o'rganishni nazarda tutadi. Shu jihatdan metodologiya insonni raqamli muhitda faqat "iste'molchi" sifatida emas, balki **ma'naviy** subyekt sifatida tahlil qilishga yo'naltirilgan.

Tadqiqotning konseptual asosida R.Rasulovning ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarida ilgari surilgan **ijtimoiylashuv, ma'naviy tarbiya va shaxsiy o'zlikni shakllantirish** g'oyalari muhim o'rin tutadi. Rasulov o'zining "The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development" nomli ilmiy ishida ijtimoiy muhitning shaxs dunyoqarashiga bevosita ta'sirini ta'kidlab, ijtimoiy tizimlar o'zgarishi insonning ichki ma'naviy olamida ham muvofiq o'zgarishlarni keltirib chiqarishini ko'rsatadi [3]. Bu g'oya raqamli sivilizatsiya sharoitida ayniqsa dolzarb bo'lib, texnologik omilning inson ongiga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil etishda nazariy asos vazifasini bajaradi.

Metodologik jihatdan tadqiqot **tizimli tahlil** va **komparativ** (taqqoslama) yondashuvlardan foydalanadi. Tizimli yondashuv raqamli sivilizatsiyani murakkab ijtimoiy tizim sifatida ko'rib chiqadi, uning tarkibiy qismlari — texnologik, madaniy, axloqiy va kommunikativ

elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qiladi. Komparativ yondashuv esa an'anaviy axloqiy tizimlar bilan raqamli axloq o'rtasidagi farqlarni, shuningdek, turli madaniyatlarda kiber-madaniyatning shakllanish xususiyatlarini solishtirish imkonini beradi.

Tadqiqotda **falsafiy tahlil**, **kontent-tahlil**, sotsiokulturniy **tahlil** va aksiologik **metodlar** qo'llanilgan.

1. **Falsafiy tahlil** – raqamli sivilizatsiyaning mohiyatini, uning inson tafakkuriga va ma'naviy qadriyatlarga ta'sirini ontologik va epistemologik nuqtai nazardan o'rganadi.

2. **Kontent-tahlil** – raqamli madaniyatda shakllanayotgan yangi axloqiy me'yorlar, virtual xulq-atvor kodekslari va texnogen insonparvarlik g'oyalarining ilmiy adabiyotlarda va raqamli platformalarda qanday aks etishini aniqlaydi.

3. Sotsiokulturniy **tahlil** – raqamli axloq va kiber-madaniyatni jamiyatning ijtimoiy tuzilmalari, yoshlar ongi va ta'lim tizimi bilan bog'liq holda o'rganadi.

4. Aksiologik **yondashuv** – raqamli sivilizatsiyada qadriyatlar ierarxiyasining o'zgarishini tahlil qiladi, ya'ni insonning axborot, tezkorlik va erkinlikka intilishi qanday qilib ma'naviy qadriyatlarga aylanishini tushuntiradi.

Rasulovning boshqa ishlari ham ushbu metodologiyani mustahkamlaydi. Xususan, u "The Importance of Education and Upbringing in Forming Political Socialization in the Worldview of Youth" nomli maqolasida ta'lim jarayoni orqali shaxsning siyosiy va ma'naviy qarashlarini shakllantirish mexanizmlarini ko'rsatib, ijtimoiy muhit va axborot oqimlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qiladi[4]. Mazkur yondashuv raqamli axloqni o'rganishda ham muhim, chunki raqamli muhit shaxsning tarbiyaviy va axloqiy qarorlarini shakllantirishda bevosita rol o'ynaydi.

Tadqiqotda shuningdek, interdisiplinar **yondashuv** qo'llanilib, falsafa, sotsiologiya, kommunikatsiya nazariyasi va psixologiya sohalari integratsiya qilingan. Raqamli ong fenomenini to'liq tushunish uchun faqat falsafiy tahlil etarli emas; inson ongi va idrokining raqamli axborot

oqimlariga moslashuvi psixologik hamda kognitiv nuqtai nazardan ham izohlanadi.

Tadqiqot metodologiyasining muhim jihatlaridan yana biri — **empirik dalillarni falsafiy xulosalar bilan uyg'unlashtirish**dir. Rasulov "The Importance of Youth-Oriented Structures Established in the Country in the Political Socialization of Youth" nomli maqolasida yoshlar tashkilotlari va ijtimoiy institutlarning inson ijtimoiy ongiga ta'siri haqida fikr bildirar ekan, bu jarayonni faqat nazariy tahlil bilan cheklamasdan, real ijtimoiy amaliyotga tayangan holda yoritadi [5]. Xuddi shunday, raqamli sivilizatsiya tadqiqotida ham empirik kuzatishlar — internet tarmog'idagi xulq-atvor, yoshlarning raqamli muloqotdagi madaniy me'yorlari — asosida umumiy falsafiy xulosalar chiqariladi.

Tadqiqotning metodologik asosida **konstruktivizm** va **insonparvarlik paradigmasi** o'zaro uyg'unlashgan. Bu yondashuvlar orqali raqamli muhitda yaratilayotgan ma'naviy qadriyatlar inson tafakkurining mahsuli sifatida talqin qilinadi. Raqamli axloq — bu tashqaridan berilgan me'yorlar majmui emas, balki insonning ongli tanlovi va ijtimoiy mas'uliyati mahsulidir. Rasulov o'zining "Cultural Basics of Education and the Role of Youth in It" ishida ham aynan shu masalaga urg'u berib, insonparvarlik qadriyatlari yoshlarning tafakkurida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash omili ekanini ta'kidlaydi [6].

Natijada tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Raqamli axloq, virtual ong va kiber-madaniyat tushunchalarini nazariy jihatdan aniqlash.
2. Raqamli sivilizatsiyaning inson ma'naviy dunyosiga ta'sirini tizimli va aksiologik jihatdan tahlil qilish.
3. Raqamli ong shakllanishi jarayonini ijtimoiylashuv, tarbiya va shaxsiy o'zlik nazariyalari bilan bog'lash.
4. Empirik kuzatishlar asosida texnogen insonparvarlikning ijtimoiy mazmunini aniqlash.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot metodologiyasi inson va texnologiya o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqur falsafiy asosda yoritishga, raqamli axloq

va ma'naviyatning yangi shakllarini ilmiy tahlil qilishga xizmat qiladi. U R. Rasulov ilmiy qarashlariga tayanib, insonning ijtimoiylashuv, ta'lim va madaniy ong sohalaridagi tajribasini raqamli muhitga tatbiq etadi. Shu orqali insonni raqamli sivilizatsiyada o'zining ma'naviy o'zligini yo'qotmasdan, balki yanada yuksaltirish imkonini beruvchi falsafiy yondashuv ishlab chiqiladi.

NATIJALAR (Results). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli sivilizatsiya nafaqat insonning kundalik hayot tarzini, balki uning ma'naviy-axloqiy asoslarini ham tubdan o'zgartirmoqda. Axborot texnologiyalarining jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi natijasida yangi ma'naviy oqimlar — **raqamli axloq, virtual ong, kiber-madaniyat va texnogen insonparvarlik** shakllanmoqda. Ushbu oqimlar insonning o'zini anglash, jamiyatdagi o'rni va mas'uliyatini qayta talqin etish jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Avvalo, **raqamli axloq** (digital ethics) — bu insonning raqamli muhitdagi xatti-harakatlarini boshqaruvchi yangi axloqiy me'yorlar tizimidir. Tadqiqot natijalari raqamli axloqning uchta asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatdi:

1. axborotga nisbatan halollik va mas'uliyat;
2. shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi va axborot xavfsizligi;
3. raqamli ijtimoiy muhitda inson sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish.

Ushbu me'yorlar, asosan, yoshlar ongi orqali tez shakllanmoqda, chunki ular raqamli muhitning asosiy foydalanuvchilari hisoblanadi. Raqamli axloq nafaqat texnik xavfsizlik masalasi, balki ijtimoiy madaniyat va ma'naviyatning yangi ko'rinishidir.

Tadqiqotda aniqlanishicha, **virtual ong** — bu inson tafakkurining raqamli muhit bilan integratsiyasi natijasida paydo bo'ladigan yangi ong shaklidir. Virtual ong an'anaviy tafakkurdan farqli ravishda tezkorlik, qisqa axborotga asoslanish va ko'pkanallilik xususiyatlariga ega. Shu bilan birga, u insonni "virtual reallik" doirasida mavjud bo'lishga odatlantiradi, natijada real hayot va virtual hayot o'rtasidagi chegaralar tobora noaniq bo'lib bormoqda. Bu esa ma'naviy o'zlikni saqlash masalasini dolzarb qiladi.

Tadqiqotda shuningdek, kiber-madaniyat fenomeni tahlil qilindi. Kiber-madaniyat — bu raqamli muhitda shakllanayotgan yangi ijtimoiy muloqot va estetik qadriyatlar tizimi bo'lib, u global tarmoqlar orqali insonlarning madaniy o'zaro ta'sirini kuchaytiradi. Natijalarga ko'ra, kiber-madaniyat an'anaviy madaniyatni to'liq siqib chiqarmaydi, balki uni yangi shaklda qayta talqin qiladi. Bunda raqamli ijod, vizual madaniyat, memlar, onlayn san'at, hamjamiyatlar orqali yaratilayotgan kollektiv ma'naviy tajriba muhim rol o'ynaydi.

Eng muhim natijalardan biri — **texnogen insonparvarlik** tushunchasining falsafiy asoslari aniqlangani bo'ldi. Bu tushuncha insonning texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda, ularni inson qadri va ma'naviy mukammallik yo'lida ishlatish tamoyiliga asoslanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, texnologiyalarni inson manfaatlariga xizmat qildirish, ularni axloqiy me'yorlar bilan boshqarish, raqamli insonparvarlik g'oyasini ilgari surish — XXI asr falsafasining markaziy yo'nalishidir.

Raqamli sivilizatsiya inson ma'naviyati uchun ikki tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, u inson tafakkurini kengaytirib, bilim olish imkoniyatlarini cheksiz darajada oshirmoqda. Ikkinchi tomondan esa, raqamli muhitda axborotning haddan ziyod ko'pligi insonni ma'naviy tarqoqlikka, diqqatni yo'qotishga va sun'iy qadriyatlarga qaramlikka olib kelmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bu muvozanatni tiklash uchun raqamli ongni ma'naviy nazorat ostida rivojlantirish zarur.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli sivilizatsiyada yoshlarning axloqiy qaror qabul qilish mexanizmlari o'zgarib bormoqda. Agar ilgari axloqiy me'yorlar oilaviy va diniy qadriyatlarga asoslangan bo'lsa, hozirda bu me'yorlar onlayn ijtimoiy muhit — tarmoqlar, bloglar, raqamli liderlar orqali shakllanmoqda. Bu esa yangi ijtimoiylashuv shakllarining paydo bo'layotganidan dalolat beradi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, raqamli sivilizatsiyaning ma'naviy oqimlari quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Axborot asosiy ma'naviy resursga aylandi.
2. Axloqiy me'yorlar raqamli muloqot kodekslari bilan almashtirilmoqda.

3. Virtual ong inson tafakkurining yangi bosqichiga aylandi.
4. Kiber-madaniyat ijtimoiy birlashuvning yangi shaklini yaratmoqda.
5. Texnogen insonparvarlik inson va texnologiya o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, raqamli sivilizatsiya insoniyatni yangi ma'naviy paradigmalarga olib kirmoqda. Bu jarayonni boshqarish, uni inson qadri va ma'naviy mukammallikka xizmat qildirish esa zamonaviy falsafaning eng muhim vazifasidir.

Muhokama (Discussion). Raqamli sivilizatsiya jarayonlari insoniyatning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Bugungi kunda inson tafakkuri, qadriyat tizimi va axloqiy me'yorlari raqamli muhit bilan chambarchas bog'lanib bormoqda. Bu esa nafaqat yangi imkoniyatlarni, balki murakkab ijtimoiy-falsafiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, virtual ong, kiber-madaniyat va raqamli axloq kabi fenomenlar insonning o'zini anglash jarayoniga yangi mazmun kiritmoqda.

Raqamli axloqning shakllanishi inson faoliyatining yangi shakllari bilan bevosita bog'liq. Internet tarmoqlari, ijtimoiy media va sun'iy intellekt tizimlari insonlar o'rtasidagi muloqotni tubdan o'zgartirib, "axborotli shaxs" tushunchasini shakllantirdi. Bu jarayonda inson qadriyatlari asta-sekin virtual maydonda "raqamli format"ga o'tayotgani kuzatilmoqda. Masalan, ilgari axloqiy qarorlar shaxsiy mas'uliyatga tayanar edi, bugun esa u algoritmik tizimlar, sun'iy intellekt yoki ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oqimlari ta'sirida shakllanmoqda. Shu bois, raqamli axloq muammosi nafaqat falsafiy, balki sotsiologik va etik tahlilni ham talab etadi.

Virtual ong tushunchasi insonning raqamli maydondagi mavjudlik shaklini ifodalaydi. Inson bugun nafaqat jismoniy, balki virtual mavjudot sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Uning fikri, xotirasi, hissiyoti va tajribasi "raqamli iz" ko'rinishida internetda aks etadi. Shu nuqtai nazardan, ongning raqamli muhitda transformatsiyasi axloqiy me'yorlarning ham o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Endilikda inson o'z harakatlarini faqat ijtimoiy qoidalar asosida emas, balki raqamli etik mezonlarga ko'ra baholaydi.

Kiber-madaniyat esa inson va texnologiya o'rtasidagi o'zaro munosabatning madaniy shaklini bildiradi. Bu madaniyatda insonning individual qadriyatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy roli texnogen muhit bilan uyg'unlashadi. Kiber-madaniyat orqali inson yangi ijodiy imkoniyatlarga ega bo'lmoqda, biroq bu jarayonda sun'iylik, ma'naviy yuzakilik va shaxsiyatning fragmentatsiyasi xavfi ham mavjud. Shu bois, raqamli sivilizatsiyaning ma'naviy jarayonlarga ta'siri doimo muvozanat tamoyiliga asoslanishi kerak — ya'ni texnologik taraqqiyot insoniylikning ma'naviy mohiyatini so'ndirmasligi zarur [7].

Texnogen insonparvarlik g'oyasi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan. Unga ko'ra, texnologiyalar inson uchun emas, inson texnologiyalar uchun emas, balki ular o'zaro uyg'unlikda yashashlari kerak. Boshqacha aytganda, insoniyat raqamli dunyoni yaratishda o'zining axloqiy javobgarligini anglab etishi, uni ma'naviy tamoyillar bilan boshqarishi zarur. Shu ma'noda, raqamli sivilizatsiya davrida insonparvarlik yangi bosqichga ko'tarilib, "texnogen insonparvarlik" shaklini olmoqda [8].

Demak, muhokama qilingan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli sivilizatsiya insoniyat ma'naviy hayotining yangi paradigmasini shakllantirmoqda. U nafaqat qadriyatlarning o'zgarishiga, balki insonning o'zini anglash va ong tuzilmasining yangilanishiga ham sabab bo'lmoqda. Shu bois, bu jarayonni faqat texnologik yutuq sifatida emas, balki chuqur ma'naviy-falsafiy muammo sifatida tahlil qilish zarur.

Xulosa (Conclusion). Raqamli sivilizatsiya insoniyat tarixida tub burilish yasagan bosqichdir. Bu jarayon texnologik yutuqlar bilan birga inson tafakkuri, qadriyatlari va ma'naviyatining yangi shakllarini keltirib chiqardi. Axborot oqimlarining tezlashuvi, sun'iy intellektning hayotga kirib kelishi, virtual ong va kiber-madaniyatning shakllanishi insonni o'z ma'naviy "men"ini qayta anglashga majbur qilmoqda. Endi inson nafaqat jismoniy muhitda, balki raqamli dunyoda ham yashaydi, bu esa uning axloqiy mas'uliyati va qadriyat tizimini yangicha yo'nalishda rivojlantiradi.

Raqamli axloq – zamonaviy jamiyat uchun eng dolzarb tushunchalardan biridir. U insonning texnologiya bilan o'zaro munosabatidagi axloqiy me'yorlarni belgilaydi. Raqamli axloq insonni

raqamli vositalardan ongli va mas'uliyatli foydalanishga, axborot muhitida adolat, hurmat va haqqoniyat tamoyillariga amal qilishga undaydi. Shu ma'noda, ma'naviyatni texnologik jarayonlarga singdirish – raqamli davrda insonparvarlikni saqlab qolishning yagona yo'lidir.

Kiber-madaniyat esa insonning ijodkorligi, o'zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, shu bilan birga, shaxsiylikning yo'qolishi, sun'iy ijtimoiylik va virtual qadriyatlar ustunligi kabi muammolarni keltirib chiqardi. Demak, raqamli sivilizatsiya – bu inson erkinligi bilan birga ma'naviy mas'uliyatini ham sinovdan o'tkazuvchi jarayon. Agar inson texnologiyani ma'naviyatdan ajratib qo'ysa, u holda bu taraqqiyot insonni emas, texnikani markazga qo'ygan tizimga aylanadi.

Texnogen insonparvarlik g'oyasi shundan kelib chiqadiki, texnologiya inson uchun xizmat qilishi, uning axloqiy va ruhiy barkamolligini mustahkamlashi zarur. Inson texnologiyadan foydalanar ekan, u o'zining ma'naviy mezonlarini saqlashi, texnik qudratni insoniy qadriyatlar bilan muvofiqlashtirishi lozim. Raqamli dunyoda inson o'zligidan ajramasligi, aksincha, yangi madaniy darajaga ko'tarilishi kerak.

Shu nuqtai nazardan, raqamli sivilizatsiya – bu insoniyatning yangi ijtimoiy-falsafiy sinov maydoni. U erda insonning vijdoni, axloqiy poydevori va mas'uliyat hissi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Raqamli axloq va texnogen insonparvarlik bir-birini to'ldiruvchi g'oyalar sifatida insonni raqamli dunyoda ham ma'naviy barkamollikka eltadi. Insoniyatning kelajagi texnologiyani emas, balki ma'naviy ongni qanday yo'naltirishiga bog'liqdir.

Bu jarayonda insonning ma'naviy mas'uliyati, axborot madaniyati va o'zini anglash darajasi muhim o'rin tutadi. Inson texnologiyalarni o'zining davomchisi sifatida emas, balki ma'naviy faoliyatini kengaytiruvchi vosita sifatida qabul qilgan taqdirdagina raqamli taraqqiyot haqiqiy insonparvarlik yo'nalishida rivojlanadi.

Raqamli sivilizatsiya masalalariga yondashishda Karimov I.A.ning "Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch" asarida ilgari surilgan g'oya o'ta dolzarbdir: muallif ta'kidlaganidek, inson ma'naviy kuchini hech bir texnik imkoniyat almashtira olmaydi, chunki texnologiya faqat vosita, inson esa

ma'naviyat manbai hisoblanadi. U insonning ichki dunyosi, vijdoni va axloqiy mas'uliyati jamiyat taraqqiyotining eng ishonchli tayanchi ekanini uqtiradi. Menimcha, ushbu fikr raqamli davrda yanada chuqurroq ma'noga ega bo'lmoqda, chunki bugun inson ma'naviy barqarorlikni yo'qotsa, texnologik ustunlik ham uni saqlab qola olmaydi [9].

Shuningdek, To'xtasinov A.ning "Axborot jamiyatida ma'naviy qadriyatlar evolyutsiyasi" nomli asarida axborot oqimlarining inson tafakkuriga ta'siri haqida aytilgan fikrlar ham juda muhimdir. Muallif axborot oqimlari inson ruhiyatini o'zgartiruvchi, uning qadriyat tizimini qayta shakllantiruvchi kuchga aylanganini ta'kidlaydi. Bu fikrga qo'shilgan holda aytish mumkin, raqamli axborot muhitida inson o'z ma'naviy immunitetini mustahkamlashi, o'z qadriyatlarini yo'qotmasdan, ularni yangi sharoitlarga moslashtira olishi kerak. Chunki raqamli dunyo insonni o'zgartirmasdan, balki uni mukammallashtirishi lozim [10].

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch.* — Toshkent: Ma'naviyat, 2008. — B. 22.

2. To'xtayev A. *Raqamli jamiyat falsafasi: axborot va ma'naviyat uyg'unligi.* — Toshkent: Fan, 2022. — B. 47.

3. Rasulov R. O. The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, Vol. 37, Dec-2024.

4. Rasulov R. O. The Importance of Education and Upbringing in Forming Political Socialization in the Worldview of Youth. *Akademicheskoye issledovaniya v sovremennoy nauke*, 3(48), 2024.

5. Rasulov R. O. The Importance of Youth-Oriented Structures Established in the Country in the Political Socialization of Youth. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT (IJERO)*, Vol. 3, No. 12, 2024.

6. Rasulov R. O. Cultural Basics of Education and the Role of Youth in It. *Philosophy and Life International Journal*, ISSN 2181-9505, 2024.

7. To‘xtasinov A. Axborot jamiyatida ma’naviy qadriyatlar evolyutsiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – B. 58.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 42.
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 22.
10. To‘xtasinov A. Axborot jamiyatida ma’naviy qadriyatlar evolyutsiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – B. 76.

TALABALARDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ro‘ziyeva Nafosat Abdumumin qizi,

*Navoiy innovatsiyalar universiteti “Ijtimoiy- gumanitar fanlar”
kafedrası o‘qituvchisi*

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har bir millat o‘zligini anglashi, o‘ziga xos qadriyatlarini asrab-avaylashi, yosh avlodga etkazishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston ham boy tarixiy merosga, qadimiy an’analarga ega mamlakat sifatida milliy qadriyatlarimizni saqlash va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Bu jarayonda esa ta’lim tizimi, xususan, talabalar orasida milliy tarbiya jarayonlarining psixologik xususiyatlarini singdirish muhim o‘rin tutadi. Zero, milliy qadriyatlar jamiyatning ma’naviy asosi bo‘lib, ular xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, an’analari, axloqiy me’yorlari, tafakkur tarzi va dunyoqarashini aks ettiradi. Bu qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish ularda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, oilaviy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Milliy o‘zlik – bu shaxsning o‘z xalqiga, tarixiga, madaniyatiga, urf-odatlariga sodiqligi, o‘zligini anglash va uni faxr bilan e’tirof etishidir. Milliy manfaat esa davlat va xalq manfaatlarining ustuvorligi, uni himoya

qilishga bo'lgan ongli yondashuvni anglatadi. Har bir yosh fuqaro o'z yurtining tarixiy merosini, boy madaniyatini va taraqqiyot yo'lini anglaganida, u o'z o'rnini jamiyatda to'g'ri belgilay oladi va fidokorlik bilan xizmat qiladi.[1].

Milliy o'zlikni anglash va milliy manfaatlarni tushunish – bu faqat bilim emas, balki ruhiy-axloqiy tarbiyaning mahsulidir. Shu sababli, tarbiyaviy tizimda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Oila muhitida: Vatanga sadoqat, ota-bobolarga hurmat, urf-odatlarga rioya qilish orqali

bolalarda milliy g'urur shakllanadi.

- Maktab va oliy ta'limda: Tarix, adabiyot, huquq va siyosat fanlari orqali yoshlar o'z xalqining boy merosi va huquqiy ongini chuqur anglaydi.

- OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali: Yurt taraqqiyotini aks ettiruvchi ijobiy kontentlar

orqali yoshlarning dunyoqarashi kengayadi.

- Yoshlar tashkilotlari va loyihalari orqali: “Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar milliy manfaatlarga xizmat qilish ruhiyatini mustahkamlaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Biz o'z kelajagimizni barkamol avlod tarbiyasiz tasavvur eta olmaymiz. Yoshlar – bu bizning eng katta boyligimiz va eng ishonchli tayanchimizdir”[1]. Bu fikr milliy o'zlikni anglagan, xalq manfaatlarini ustuvor deb bilgan yosh avlodsiz taraqqiyot bo'lmasligini anglatadi.

Milliy o'zlik — bu shaxsning o'z millatiga, tili, madaniyati, urf-odatlari va tarixiga nisbatan psixologik identifikatsiya holatidir. Psixologiyada bu jarayon “milliy identifikatsiya” deb yuritiladi va u shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvi, ijtimoiy faoliyati hamda axloqiy qarorlar qabul qilishida asosiy omil hisoblanadi.

Milliy o'zlik — bu shaxsning o'z millatiga mansubligini anglash, uning qadriyatlari, tili, madaniyati, an'analari va tarixiy tajribasi bilan o'zini bir butun deb his etish holatidir. U insonning “men kimman?” degan savoliga javob beruvchi eng muhim ijtimoiy-psixologik kategoriya hisoblanadi. Milliy o'zlik nafaqat biologik yoki etnik mansublik, balki ruhiy, ma'naviy va madaniy identifikatsiyani ifodalaydi.

Psixologik jihatdan, milliy o'zlik — identifikatsiya jarayonining natijasidir, ya'ni inson o'zini ma'lum millat bilan tenglashtiradi, shu millat qadriyatlarini shaxsiy qadriyat sifatida qabul qiladi.

Milliy o'zlik quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

Kognitiv (bilimiy) komponent – millat tarixi, tili, madaniyati haqidagi bilimlar;

Emotsional komponent – millatga nisbatan g'urur, faxr, muhabbat;

Bixevioral komponent – milliy qadriyatlarga amal qilish, urf-odatlarni davom ettirish, vatanparvarlik faoliyati.

Shaxsda milliy o'zlikni anglash — bu psixologik o'zini tanish jarayonidir[3].

Erik Eriksonning identifikatsiya nazariyasiga ko'ra, inson o'z hayoti davomida “kimman men?” savoliga javob izlaydi va bu jarayonda u turli ijtimoiy guruhlar, jumladan, o'z millati bilan o'zini uyg'unlashtiradi[2]. Demak, milliy o'zlikni anglash — bu shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasining yuqori bosqichi bo'lib, u orqali inson milliy, madaniy va ma'naviy ildizlariga sodiq bo'ladi.

Talaba yoshlarda milliy o'zlikni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni kiritishimiz mumkin.

1.Oila – milliy qadriyatlarni dastlabki o'rgatuvchi muhit; Oilada farzand tarbiya ko'rar ekan oilaning urf-odatlari, qadriyatlari, va an'analariga mehr va hurmat ruhida kamolga etadi. Yoshlarning kelajakda qanday shaxs bo'lib shakllanishi ham oiladagi qadriyatlarga amal qilish darajasining ko'rstakichlariga bog'liq hisoblanadi.

2.Ta'lim tizimi – milliy madaniyat, tarix va tilni singdiruvchi asosiy manba; Talaba-yoshlar oilada olgan tarbiyasini ta'lim jarayonida namoyon etadi, ya'ni milliy madaniyat va tarixi va tiliga bo'lgan hurmat e'tibori, moddiy va manaviy qadriyatlarni uyg'unlikda olib borishi hamda qadrlashi kabi shaxsga xos xususiyatlari yanada shaklanib boradi.

3. Ijtimoiy muhit – do'stlar, ommaviy axborot vositalari, internet ta'siri; Bugungi axborotlashgan jamiyatda barcha shaxslar qatori talaba-yoshlarga ham ommaviy axborot vositalaridan to'g'ri oqilona foydalanish amalga oshirilib kelinmoqda. Bugungi kun yoshlari nafaqat axloqiy

ma'naviy jihatdan balki, intellekt, tanqidiy tafakkur qobiliyati rivojlanib bormoqda. Milliy o'zlikni anglash jarayonida ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborotdan samarali foydalanib kelmoqda. Ayniqsa, yoshlar miliy tarbiyasiga ta'sir etuvchi milliy kontent va materiallar tayyorlash bo'yicha o'zlarining salohiyatlarini namoyon qilmoqda.

4. Madaniy meros – xalq og'zaki ijodi, san'at, urf-odatlar; Bu omil orqali talaba-yoshlarning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qarashlarini, va ushbu urf-odatlarning davomchilari ekanliklarini his qilishlarini tushunishimiz. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali yoshlarda madaniy merosga bo'lgan mehr-muhabbatni yanada rivojlantirish mumkin.

5. Davlat siyosati – milliy g'oya, mafkura va ma'naviy siyosat orqali o'zlikni mustahkamlash. Talaba yoshlarda milliy o'zlikni saqlash, milliy g'urur va vatanparvarlikni mustahkamlash, ma'naviy immunitetni shakllantiradi. Yoshlar jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etadi.

Globalashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlab qolish muhim psixologik masalalardan biridir. Xorijiy madaniyatlarning ta'siri ostida yoshlar o'z milliy o'zligidan uzoqlashish xavfiga duch kelmoqda. Shu sababli, ta'lim va tarbiya tizimida milliy o'zlikni mustahkamlovchi dasturlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va psixologik treninglarni yo'lga qo'yish zarur.

Talabalik davrida milliy o'zlik shakllanishining psixologik omillari.

Talabalik yoshi (17–23 yosh) shaxsning ijtimoiy-psixologik etilish davri hisoblanadi. Bu bosqichda dunyoqarash, e'tiqod, mustaqil fikrlash va tanqidiy tafakkur shakllanadi.

Talabalarda milliy o'zlikni anglash quyidagi psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi:

1. Identifikatsiya – o'zini millat bilan tenglashtirish;
2. Refleksiya – o'zini baholash;
3. Motivatsiya – milliy g'urur va ma'naviy ehtiyojlardan kelib chiqadigan turtkilar;
4. Ijtimoiy ta'sir – ustozlar va ijobiy shaxslar namunasi.
4. Tahlil: Milliy o'zlikni anglash darajasini aniqlovchi belgilar

Ilmiy kuzatuvlarga ko'ra, milliy o'zlikni anglash darajasi talabalarda uch darajada namoyon bo'ladi:

T/r	Daraja	Belgilar	Psixologik holat
1.	Yuqori	Milliy qadriyatlarga ijobiy munosabat, faol ishtirok, faxrlanish	Barqaror identifikatsiya, ijobiy Men konsepsiyasi
2.	O'rta	Qiziqish mavjud, ammo amaliy faoliyatda sustlik	Noaniq identifikatsiya
3.	Past	Milliy qadriyatlarga befarqlik yoki tanqidiy qarash.	Begonalashish, assimilyatsiya xavfi

Talaba yoshlar nafaqat ta'lim jarayonida balki ijtimoiy munosabatlarda ham milliy qadriyatlarga, milliy o'zlikni anglash qobiliyatlarini namoyon etadi.

Xulosa. Talabalarda milliy o'zlikni anglash – bu shaxsning ma'naviy etuklikka intilishi, o'z millatining g'ururli vakili bo'lish jarayonidir. Bu jarayon psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar uyg'unligida shakllanadi. Shuning uchun ta'lim muassasalari faoliyatida milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish va psixologik qo'llab-quvvatlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqi. 26.12.2020

2. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. – New York, 1968.

3. Usmonboyeva M. A. Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasining pedagogikpsixologik xususiyatlari. – Toshkent, 2018. (Ped. fan. nomz. diss. avtoref.)

4. X.S.Salavatova. Yangi O'zbekiston ta'lim sharoitida talabalarda milliy o'zlikni rivojlantirish."Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli ilmiy masofaviy onlayn konfrensiya.2024-yil

5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

6. Azizxo‘jayev A. Mustaqillik: ma’naviyat va tarbiya. – Toshkent: Sharq, 2001.

7. Shodmonova N. R. Milliy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.

8. Karimova M. Shaxsning milliy o‘zligini shakllantirishda ta’limning o‘rni. Toshkent, 2021.

9. Abdug‘anieva G. Yoshlar va ijtimoiy ong. Samarqand: Ilm Ziyosiyoti, 2021).

YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING DOLZARB MASALALARI

Otamuratov Sarvar Sadullayevich,
sotsiologiya fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti

Bugungi globallashuv jarayonida milliy o‘zlikni asrash, uni kelgusi avlodga etkazish va yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ma’naviy tanazzulga qarshi kurashda milliy qadriyatlar eng kuchli vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, yoshlarni ana shu qadriyatlar ruhida tarbiyalash zamonaviy tarbiya tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak.

Milliy qadriyatlar – xalqning ma’naviy merosi, urf-odatlar, tili va ona tarixi orqali shakllangan ijtimoiy hodisadir. Ularni yoshlar ongiga singdirish jamiyatni birdam va barqaror qiladi, yoshlarning identifikatsiyasini saqlashda muhim omil hisoblanadi. Biroq, texnologik taraqqiyot, global madaniyatlarning ta’siri va iqtisodiy omillar oqibatida yoshlar orasida milliy qadriyatlar masalasi ba’zan ikkinchi planga tushishi mumkin.

Globallashuv va raqamli inqilob davrida har qanday jamiyat o‘zining milliy o‘zligini, tarixiy xotirasini va madaniy kodlarini asrab qolish yo‘lida

yangi yondashuvlar izlamoqda. O‘zbekiston ham bu jarayonda o‘ziga xos milliy modelni yaratmoqda. Bu borada mamlakat O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qarashlari va tashabbuslari muhim yo‘l xaritasini belgilab bermoqda. **Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek:** “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.”[1]

Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, urf-odatlar, axloqiy-me’yorlari va hayot tarzining yig‘indisidir. Ular avloddan-avlodga o‘tib, xalqning o‘ziga xosligini, mustahkam ijtimoiy birligini ta’minlab kelmoqda. Milliy qadriyatlar xalq ruhiyatining ildizlari, tarixiy xotirasi, urf-odatlar va e’tiqod tizimining jamlanmasidir. Ular yosh avlodga nafaqat axloqiy mezonlar, balki jamiyatda o‘zini tutish, mustahkam ijtimoiy pozitsiyaga ega bo‘lish yo‘lida yo‘naltiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Yoshlarni aynan ana shu qadriyatlar asosida tarbiyalash: ularning ijtimoiy faolligini oshiradi; vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlaydi; begona g‘oyalarga qarshi immunitet hosil qiladi; ma’naviy barkamollikka erishishlariga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonda milliy qadriyatlar yoshlar ongiga nafaqat nazariy bilim sifatida, balki amaliy hayotiy tajriba sifatida ham singdirilishi lozim.

Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya jarayonida quyidagi yondashuvlar muhim hisoblanadi:

1) Integratsion yondashuv.

Milliy qadriyatlar ta’limning barcha bosqichlarida – boshlang‘ich ta’limdan oliy ta’limgacha – o‘quv dasturlariga integratsiya qilinishi zarur.

Masalan, tarix, falsafa, adabiyot, musiqa, ona tili darslarida mahalliy madaniyat va qadriyatlar keng yoritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur.” [2]

2) Madaniy-ma’naviy muhit yaratish.

Ta’lim muassasalarida milliy liboslar, hunarmandchilik, urf-odatlar va bayramlarni nishonlash har xil to‘garaklar tashkil etish va ularda yoshlarni faol ishtirokini rag‘batlantirish orqali yoshlar ongida qadriyatlar uyg‘un muhitda shakllantiriladi.

3) Rivojlangan axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Zamonaviy yoshlar raqamli texnologiyalar bilan yashayotganini inobatga olib, milliy qadriyatlarni ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, videodarslar orqali targ‘ib qilish katta samaradorlik beradi. Xususan, ijtimoiy fanlar darslarida ulardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Quyidagi raqamlar yosh tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy holat haqida ma’lumot taqdim etadi:

Ko‘rsatkich	Ma’lumot	Manba
Yoshlar (14-30 yosh) soni	2025-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda 14-30 yoshdagi yoshlar soni 9 630 556 kishi bo‘lib, bu umumiy aholi sonining 25,7 % ni tashkil etadi.	Stat.uz [3]
Yoshlar bandligi / ta’lim va ish bilan ta’minlanmagan	2020-yilda UNICEF, “Yuksalish” va Yoshlar Ittifoqi hamkorligida tashkil etilgan “Youth of Uzbekistan: Challenges and Prospects” hisobotiga ko‘ra, majburiy o‘rta ta’limdan keyin yoshlarning 54,6 % i ta’limda, bandlikda yoki malaka oshirishda emas; ayollarda bu ko‘rsatkich 74 % , erkaklarda esa yoshlar o‘sishi bilan kamayadi.	YuNISYeF [4]
Yoshlar ishsizligi	Yoshlar ishsizligi (15-24 yosh) bo‘yicha so‘nggi ma’lumotlarda yillik qiymat	TheGlobalEconomy.com [5]

Ko'rsatkich	Ma'lumot	Manba
	10,94 % ni tashkil etadi (2024-yil). Jahon o'rtacha darajadan past (~15,7 %) hisoblangan.	
Yoshlarning oilaviy hayot va ijtimoiy qoniqishi	«Ijtimoiy Fikr» markazi so'roviga ko'ra, 14-35 yoshdagi yoshlarning 91,4 % i oilaviy hayot tarzidan mamnun (56,7 % “butunlay mamnun”, 34,7 % “qisman mamnun”).	<u>Ijtimoiy fikr Markazi [6]</u>
Yoshlarning kelajakka ishonchi va hayotdagi maqsadi	Shu so'rovda: 86,9 % yoshlar o'z kelajagiga ishonadi; 94,6 % “hayotda maqsad (life purpose)” mavjudligini bildiradi.	<u>Ijtimoiy fikr Markazi [6]</u>
Milliy qadriyatlar, identitet va emigratsiya istagi	“Yuksalish” va UNICEF o'tkazgan so'rovdan ko'rinib turibdiki, yoshlarning ~70 % i har qanday sharoitda O'zbekistonni tark etishni istamaydi.	<u>YuNISYeF [4]</u>

Yuqoridagilardan quyidagilarni ajratish mumkin:

1. Yoshlarning milliy identitetligi va qadriyat ustuvorliklari.

Statistik ma'lumotlar (masalan, oilaviy hayotdan qoniqish, kelajakka ishonch) ko'rsatadiki, yoshlar orasida milliy va mahalliy qadriyatlar hali ham kuchli pozitsiyada. Oilaviy qadriyatlar, oila va farzand tarbiyasi yoshlar uchun muhim omil bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, “hayot maqsadi” kabi tushunchalar yoshlarning ijtimoiy-psixologik barqarorligini ko'rsatadi, ya'ni ular nafaqat moddiy jihatga, balki ma'naviy va axloqiy jihatlariga ham e'tibor beradi.

2. Muammolar: ta'lim va bandlikda bo'lmagan yoshlar.

Yoshlarning 50% dan oshig'i maktabdan keyingi bosqichda ta'limda, ishlashda yoki malaka oshirishda faol emasligi, ayniqsa ayollarda yuqori darajada bo'lishi, milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida bo'shligini keltirib chiqaradi. Chunki ta'lim va ish muhitida yoshlar ko'pincha yangi madaniy va ideologik impulsarga ochiq bo'ladi.

Ishsizlik darajasi nisbatan past bo'lishiga qaramay (10-11 %), bu yoshlar orasida psixologik xavotir, o'z kelajagi bo'yicha noaniqlik, maqsadsizlik hissini keltirib chiqaradi.

3. Global ta'sir, texnologiya va madaniy almashuv.

Yoshlar axborot texnologiyalari va internet tarmog'i orqali turli madaniyatlar bilan tanishmoqda, bu esa milliy qadriyatlarni saqlashga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir qiladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumot va obrazlar yoshlarning qadriyat tizimiga qo'shimcha turtki bo'ladi, lekin begona madaniyatlar dominant bo'lishi holatida milliy identitetga salbiy tashqi ta'sirlar yuzaga keladi.

Amaliy tajriba va natijalar.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, xususan, «Yoshlar daftari», «Yoshlar – kelajagimiz» kabi dasturlar orqali yoshlar bilan ishlashda milliy qadriyatlarga tayanuvchi loyihalar amalga oshirilmoqda. Mahallalarda tashkil etilgan "Ma'naviyat soatlari", "Ajdodlar merosi" kabi tadbirlar yoshlar orasida milliy o'zlikni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bunday loyihalarda ishtirok etgan yoshlar orasida huquqbuzarlik holatlari ancha kamaygan. Shuning bilan birga, shunga o'xshash loyihalarni ta'lim tizimida tizimli tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Milliy qadriyatlarni tarbiyalash jarayonida kuchli va zaif tomonlari.

Kuchli tomonlar.

1. Yoshlarning ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarga ishtiyoqi. Ijtimoiy so'rovlar ko'rsatadiki, yoshlar oilaviy qadriyatlar, hayot maqsadi va oila qurish kabi idealmaqsadlarni qadrlashadi. Bu milliy qadriyatlar uchun mustahkam zamindir.

2. Davlat siyosati va institutsional rag'batlar. Yoshlar siyosati, ma'naviyat va ma'rifat markazlarining faoliyati, davlat tomonidan ishlab chiqilgan alohida normativ-huquqiy hujjatlar va yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi.

Zaif tomonlar.

1. Reklama va media ta'siri. Chetdan kirib kelayotgan madaniy mahsulotlar (film, serial, musiqalar) yoshlarning ongida begona qadriyatlarning yanada jozibador ko'rinishi mumkin.

2. Ta'lim va tarbiya muassasalaridagi muammolar. Tarix, xalq san'ati, til va urf-odatlar bo'yicha metodik materiallar, resurslar va malakali pedagoglar etishmasligi; hududlar va qishloqlarda bu holat alohida sezilarli.

3. Gender tengligi muammolari. Ta'lim, bandlik va malaka olishda ayollar uchun to'sqinliklar mavjudligi (ayollar orasida ta'lim, bandlik yoki malaka kurslarida qatnashmayotganlar foizi yuqori) bu sohada teng huquqli imkoniyatlarni yaratishni zarur qiladi. Statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ayollarda "ta'lim/ishda malaka oshirishda emasligi" ko'rsatkichi 74 % ga etadi. [3]

Muammolar va ularni hal etish yo'llari. Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimida quyidagi muammolar mavjud: ayrim yoshlarning qadriyatlarga nisbatan befarqligi; ota-onalar va o'qituvchilarning bu boradagi bilim va ko'nikmalarining etarli emasligi; media makonda begona madaniyatlarning ustuvorligi.

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun quyidagi chora-tadbirlar samarali bo'ladi:

1. Ta'limda milliy qadriyat integratsiyasi. O'quv dasturlariga xalq adabiyoti, tarix, falsafa, ona tili va san'atdan tashqari, amaliy komponent – xalq hunarmandchiligi, urf-odatlar, ma'muriy va mahalliy an'ana tadbirlari kiritilishi lozim.

2. Madaniyat markazlari va yoshlar bilan ishlash bo'linmalarini kengaytirish. Har bir viloyat va tumanlarda ma'naviyat-ma'rifat markazlarining infratuzilmasini yaxshilash, yoshlar markazlarini tashkil etish, an'anaviy san'at, teatr, xalq qo'shiqlari, uyushmalar orqali faol ishtirokni oshirish.

3. Elektron vositalar va media-platfomalardan foydalanish. Milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi kontent – video, ijtimoiy tarmoq ilovalari, onlayn kurslar – yoshlar orasida ommaviy tushunish va qabul qilish imkoniyatini oshiradi.

4. Gender jihatdan teng imkoniyatlar yaratish. Ayollar uchun ta'lim va bandlikda qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etish; malaka oshirish kurslari, stipendiyalar, mentorlik dasturlarini kengaytirish.

5. Faol yoshlarning ishtirokini rag'batlantirish. Bolalar va yoshlar forumlari, ijtimoiy loyihalar, yoshlar parlamenti kabi platformalar orqali

yoshlarni davlat siyosati shakllanishida, madaniy va ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etishiga imkoniyatlarni yanada kengaytirish.

Statistik ma'lumotlar ko'rsatadiki, O'zbekiston yoshlari orasida milliy qadriyatlar hali ham muhim ahamiyatga ega. Oilaviy qadriyatlar, kelajakka umid, hayot maqsadi, vatanparvarlik kabi tushunchalar yoshlarni shakllantirishda markaziy omillar bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, ta'limda, bandlik va gender tengligi sohasidagi kamchiliklar, global madaniyatlarning salbiy yoki befarqlik tomonlama ta'siri kabi holatlar mavjud.

Milliy qadriyatlarni tarbiyalash markaziy yo'nalish sifatida davlat, ta'lim muassasalari va jamiyat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash – nafaqat ma'naviy barkamollikning, balki jamiyatning barqaror va uzluksiz rivojlanishining kafolatidir. Milliy qadriyatlar yoshlar ongida kuchli ma'naviy asos sifatida shakllanib borsa, ular har qanday yot g'oyalarga qarshi mustahkam pozitsiyaga ega bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida, mustaqil va taraqqiy etgan jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning **"Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi"** mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqidan, <https://old.gov.uz/oz/news/view/11095?utm>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari" bo'yicha videoselektordagi ma'ruzasidan, https://old.gov.uz/oz/news/view/29697?utm_source.

3. Stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

4. UNICEF, Yuksalish – Youth of Uzbekistan hisobotlari.

5. UNESCO. *Education and Cultural Values in the 21st Century*. Paris, 2021.

6. "Ijtimoiy Fikr" Markazi ijtimoiy so'rovlari.

MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN TARAQQIYOT OMILLARI.

MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN TARAQQIYOT OMILLARI

Bo'ri Qodirov,

tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

bo'lim boshlig'i

Har bir xalqning qadriyatlarini uning tarixi, ma'naviyati, madaniyati, o'ziga xos urf-odatlarini, an'analarisiz tasavvur qilish qiyin. "Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim".[1.198].

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida qadriyatga quyidagicha ta'rif berilgan. Qadriyat—voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi [2.570].

Har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlari milliy qadriyatlar deb yuritiladi. Milliy qadriyatlar – millatni millat qilib turadigan, uning ongi, turmush tarzi, tarixiy xotirasi va madaniy an'analarini shakllantiradigan ma'naviy tayanchdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, taraqqiyot faqat iqtisodiy o'sish bilan chegaralanmaydi. U ma'naviy-ma'rifiy yuksalish bilan uyg'un rivojlangandagina barqarorlikka erishiladi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, zardo'shtiylarningmuqaddas kitobi – "Avesto"da hamda buyuk ajdodlarimiz– Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida insonda yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirishda milliy qadriyatlar masalasi asosiy o'rinni egallagan. [3.3].

Bugungi globallashuv sharoitida har bir xalqning o'zligini saqlab qolishi, uning ma'naviy merosi va milliy qadriyatlariga qanchalik suyangani bilan belgilanadi.

Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi nomli kitobida "Biz taqdim etayotgan strategiyaning maqsadi milliy o'ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan an'analarimizni, iymon-e'tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab qolish, ham yuksaltirishga qaratilgandir". [4.275].

O'zbekistonda olib borilayotgan yangi islohotlar siyosati "Inson qadri uchun" degan tamoyilga asoslangan bo'lib, milliy qadriyatlarni yanada chuqur o'rganish va ularni taraqqiyotdagi omil sifatida ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar komponentlari quyidagilardan iborat:

- **Til va adabiyot:** xalqning o'zini ifoda etishi, ma'naviy merosini kelajak avlodga etkazishida asosiy vosita.

- **Urf-odat va an'analar:** jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan tarixiy shakllangan qoidalar.

- **Islomiy ma'naviyat va diniy an'analar:** o'zbek xalqining tarixiy ruhiyatida muhim o'rin tutadi.

- **Oila va jamiyat munosabatlari:** bag'rikenglik, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi qadriyatlar.

Bu qadriyatlar har qanday islohot, innovatsiya va modernizatsiya jarayonida "ma'naviy poydevor" sifatida xizmat qiladi.

Milliy taraqqiyot bu faqat iqtisodiy o'sish emas, balki ma'naviy yuksalish, madaniy o'zgarishlar, ijtimoiy adolat, ta'lim va ilm-fan taraqqiyoti, fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi bilan ham bog'liq jarayondir. Unda milliy qadriyatlar quyidagi yo'nalishlarda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi:

- **Ta'lim sohasida:** ta'lim mazmunida milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi ta'minlanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga milliy an'analar, tarixiy meros haqida bilim berish orqali vatanparvarlik ruhi shakllantiriladi.

- **Ijtimoiy siyosatda:** millatlararo totuvlikni ta'minlash, fuqarolik birdamligini mustahkamlashda qadriyatlar asosiy vosita hisoblanadi.

• **Iqtisodiy sohada:** mehnat madaniyati, halollik, kasbga sadoqat kabi qadriyatlar ishlab chiqarish madaniyati va samaradorlikni oshiradi.

• **Ma'muriy boshqaruvda:** rahbar kadrlarda insof, adolat, xalq bilan muloqot, ma'naviy mas'uliyat hissining shakllanishi uchun milliy qadriyatlarga tayangan etakchilik usullari muhim ahamiyatga ega.

• **Alisher Navoiy merosi:** Alisher Navoiy milliy qadriyatlarni o'z asarlari orqali xalq ongiga singdirgan, ma'naviyat va ma'rifatga suyangan taraqqiyot modeli asoschilari sirasiga kiradi.

• **Hozirgi islohotlar davri:** Prezident Sh.Mirziyoyev boshchiligida olib borilayotgan islohotlar – “Inson qadri uchun” degan g'oya asosida amalga oshirilayotgani milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini anglatadi.

Bosh qomusimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanishiga g'amxo'rlik qilishi belgilandi. Bu haqda Konstitutsiyaning 78-moddasi to'rtinchi bandida shunday deyilgan: **“Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi”.**[5.44-45].

Akademik Oqil Salimov o'zining “Ma'naviyat — millat xaloskori” nomli maqolasida “Dunyo qalqib turgan bir paytda, turli g'oyaviy va axboriy xurujlar kuchayib borayotgan bir sharoitda millatning o'zini o'zi asrash instinktini kuchaytirish lozim. Bu bevosita ma'naviyat va ma'rifat bilan bog'liq. O'zini o'zi himoya qila oladigan, o'zini o'zi asray biladigan odamda ma'rifat kuchli bo'ladi. U har qanday sharoitda yuksak madaniyatini namoyon qila biladi. Agar har bir odam ana shunday imkoniyatga ega bo'lsa, yalpi jamiyatning ma'naviy qiyofasi barkamollashadi. Kuchli, qudratli o'zbek jamiyati yuzaga keladi. Bu esa millatning istiqboldagi ravnaqini, jahon hamjamiyatidagi o'rnini va mavqeyini, umum-sayyora miqyosida barkamol milliy qiyofasini namoyon qilish imkonini beradi”.[6].

Mavzu yuzasidan quyidagi takliflarni qayd etib o'tish maqsadga muvofiq:

1. Ta'lim dasturlariga milliy qadriyatlarni chuqur o'rgatuvchi fanlar va modullarni integratsiya qilish.
2. Milliy qadriyatlar asosida ishlovchi ommaviy axborot vositalarini (teleshoular, filmlar, maqolalar) ko'paytirish.
3. Jamoat arboblari va rahbarlar uchun milliy qadriyatlar bo'yicha doimiy seminar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
4. Yoshlar o'rtasida milliy o'zlikni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish.
5. Axborot vositalarida milliy qadriyatlar targ'ibotiga alohida davlat grantlari ajratish.
6. Milliy qadriyatlarga oid ilmiy tadqiqotlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, milliy qadriyatlar taraqqiyotning o'ziga xos "ma'naviy lokomotivi" hisoblanadi. Ular jamiyatning ichki birligini ta'minlaydi, xalqning ijtimoiy ongini shakllantiradi va islohotlar jarayonida ijtimoiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarsiz taraqqiyot sun'iy va noustuvor bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to'plami).-T; "O'zbekiston", 1997, -B. 198.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent.2005, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 10-jild, -B. 570.
3. Farmonova Muzayyamxon. Qadriyatlar-ma'naviy kamolot asosi. (ilmiy-uslubiy qo'llanma).- Toshkent: "Tasvir nashriyot uyi", 2019, -B. 3.
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021,-B. 275.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: -"O'zbekiston", 2023.- B. 44-45.
6. (<https://yuz.uz/news/manaviyat--millat-xaloskori>)

TA'LIM VA MA'RIFIY ISHLARNI YUKSALTIRISH BO'YICHA O'ZBEKISTON TAJRIBASI: AMALIY ISHLARDAN GLOBAL TASHABBUSLAR SARI

Rashidov Rustam Rasulovich,

*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i,
Alfraganus universiteti professori v.b., fan doktori (DSc).*

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim, ma'naviyat va ma'rifat sohasida olib borilayotgan yangilanishlar davlatimiz siyosatining bosh yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi hamda jamiyatimizda qizg'in muhokama etiladigan mavzulardan va fuqarolarimizning o'zaro munosabatlaridagi etakchi masalalardan biriga aylandi.

E'tiborli jihat shundaki, ta'lim sohasida zamonaviy va eng ilg'or xorijiy tajribalar asosida amalga oshirilayotgan yangilanishlar o'z samarasini bermoqda. Buni erishilayotgan yutuqlar ham ko'rsatib turibdi. Jumladan, so'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim va ilm-fan sohasini tubdan o'zgartirish natijasida maktabgacha ta'lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshdi, yoshlarimizning oliy ta'lim bilan qamrovi esa 9 foizdan 42 foizga etdi. Eng asosiysi – o'qituvchi va ustozlik kasbining obro'si va nufuzini keskin oshirishga hal qiluvchi masala sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 80-sessiyasidagi nutqidan joy oldi hamda so'nggi 9 yilda mamlakatimiz ta'lim sohasidagi o'zgarishlar xalqaro hamjamiyat vakillari diqqat-e'tiboriga havola etildi.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbarining dunyo miqyosida nufuzli xalqaro tashkilotlar minbarlarida so'zlagan nutqlari va ilgari surgan taklif-tashabbuslari orasida faqat tashqi siyosat, mintaqaviy xavfsizlik kabi masalalar emas, balki ta'lim va ma'rifat, yoshlar kelajagi va kamoloti, umumiy taraqqiyot hamda barqaror rivojlanishga doir dolzarb masalalarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasining 2017-yilgi 72-sessiyasida odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va

tarbiyalash eng muhim vazifa bo'lishi lozimligi, bu borada BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilganligi diqqatga sazovor tashabbus bo'lib, 2018-yil dekabrda mazkur tashabbus amalga oshgan hamda BMT rezolyutsiyasi qabul qilinib, bu borada butunjahon miqyosida keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekiston Prezidentining BMT oliy minbaridan 2021-yilgi chiqishida global harakatlarga yoshlarni jalb etish bo'yicha Butunjahon konferensiyasi mamlakatimizda muvaffaqiyatli o'tkazilganligi, ushbu yo'nalishdagi qat'iy sa'y-harakatlarni izchil davom ettirish maqsadida O'zbekiston tomoni Samarqand shahrida Global ta'lim forumini tashkil etishga tayyorligini ma'lum qilgan edi. 2022-yilning dekabrda mazkur Global forum muvaffaqiyatli tarzda o'tkazildi va ishtirokchilarga O'zbekistonning ta'lim bo'yicha taklif-tashabbuslari faqat deklarativ xarakterga ega emas, balki amaliy sa'y-harakatlar bilan uyg'unligini namoyon etdi.

BMT Bosh Assambleyasining 2023-yilgi 78-sessiyasida chiqish qilar ekan, davlatimiz rahbari inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biri ekanligiga urg'u berib, bu borada mamlakatimizda hamma uchun ochiq va sifatli ta'limni tatbiq etilishi kambag'allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali omili sifatida e'tibor qaratilayotgani, mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to'plagan, ta'lim tizimi tubdan o'zgarayotgani, davlatimiz, hukumatimizning barcha sa'y-harakatlari ushbu ezgu maqsadga yo'naltirilganini ta'kidlab o'tgan edi.

Muhtaram Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining joriy sammitidagi chiqishiga ham e'tibor qaratar ekanmiz, unda izchillik ila ta'lim va ma'rifat, yoshlar tarbiyasi masalalari yana joy olganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, mamlakatimizda ta'lim va ilm-fan sohasiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib borayotgani, bunday ijobiy munosabat o'z samarasini berayotgani ta'kidlab o'tildi hamda pedagoglarning o'zaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platformani yaratish

maqsadida O‘zbekistonda **Butunjahon professional ta’lim sammitini o‘tkazish taklif etildi.**

Shu bilan birga, mamlakatimizda islom ma’rifati g‘oyalarini chuqur o‘rganish va dunyoga targ‘ib etish bo‘yicha olib borilayotgan barcha ijobiy ishlar va sa’y-harakatlarni faol davom ettirilishi yana bir ta’kidlab o‘tildi hamda yaqin vaqtlarda Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi to‘g‘risida ma’lumot berildi.

Butun mintaqamizda noyob bo‘lgan ushbu maskan nafaqat mamlakatimiz va mintaqa yoshlari, balki islom dinining boy ma’naviy-ma’rifiy merosini o‘rganishga bel bog‘lagan, islom arkonlarining asl mazmun-mohiyatini anglash xohishida bo‘lgan butun dunyo ma’rifatparvarlarining ilm dargohiga aylanishi muqarrardir.

Buyuk ajdodlarimiz – mutafakkir allomalar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiyning boy ma’naviy va ilmiy merosiga bag‘ishlangan alohida taqdimot O‘zbekiston tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotida o‘tkazilishi ham ma’lum qilindi. Bu islom dinidagi bag‘rikenglik, tinchlik va ezgulik, ma’rifatparvarlik g‘oyalarining yana bir bor dunyo afkor ommasi diqqat-e’tiboriga namoyish etilishi bo‘ladi hamda xalqaro miqyosda mamlakatimizning ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi imijining yuksalishiga olib keladi.

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi bilan tanishar ekanmiz, unda ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratilganining o‘ziga xos sabab va omillarini ko‘rsatib o‘tishni joiz deb bildik.

Birinchidan, ta’lim va ma’rifat masalalari davlatimiz rahbari tomonidan BMT Bosh Assambleyasining bundan 8 yil oldingi sammitida ham ko‘tarilgan edi. Unda o‘sib kelayotgan yosh avlodning ong-u tafakkuri, dunyoqarashini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash ilgari surilgan va mazkur tashabbus asosida BMTning alohida rezolyutsiyasi qabul qilingan edi.

Keyingi yillarda ham O‘zbekiston rahbarining BMT oliy minbaridan qilgan chiqishlariga e’tibor qaratar ekanmiz, ta’lim va ma’rifat sohasiga oid yana bir qator dolzarb tashabbuslar bildirilganligi va ular bo‘yicha xalqaro

hamjamiyatning ijobiy munosabati shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Demak, O‘zbekiston Prezidentining ta’lim va ma’rifiy yuksalish borasida nufuzli xalqaro minbarlardan turib ilgari surayotgan tashabbuslari **tizimli, izchil va global ahamiyat kasb etishi** bilan ajralib turadi.

Ikkinchidan, davlatimiz rahbari tomonidan ta’lim va ma’rifatga oid ilgari surilgan tashabbuslar BMTning 2015-2030-yillarga mo‘ljallangan “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga ham mos keladi. Ta’kidlash joizki, 17 ta maqsadni o‘z ichiga oluvchi ushbu global dasturning bir necha maqsadlari bevosita va bilvosita ta’lim sohasi va ma’rifiy masalalarni qamrab oladi hamda mamlakatimizda ushbu maqsadlar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar xalqaro darajadan ham birmuncha yuqoriligi BMT mas’ullari tomonidan ham e’tirof etilganini qayd etib o‘tish lozim. Yuqoridagi masalalar O‘zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoyev hamda BMT Bosh kotibi A.Guterreshning o‘zaro uchrashuvlari chog‘ida ham bir necha marta muhokama etilgan va mazkur uchrashuvlar chog‘ida mamlakatimizda qabul qilingan **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda BMTning 2015-2030-yillarga mo‘ljallangan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” o‘zaro hamohang** ekanligiga urg‘u berilgan edi.

Uchinchidan, ta’lim sohasiga e’tibor bugungi kunda BMT va uning tuzilmaviy tashkilotlari faoliyatida ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Hatto, BMT Bosh kotibi Antonio Guterresh tomonidan joriy yilning martida ilgari surilgan **“BMT – 80” tashabbuslarida ham ta’lim va tadqiqot masalalariga alohida e’tibor qaratilganligi** diqqatga sazovordir. Jumladan, “BMT – 80” tashabbuslari sifatida belgilab olingan 7 ta ustuvor yo‘nalishdagi masalalarning oltinchisi aynan inklyuziv ta’limga erishish, zamonaviy ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishni yuqori bosqichga ko‘tarish masalalariga bag‘ishlangan.

Davlatimiz rahbari ham o‘z nutqida O‘zbekiston tomoni “BMT – 80” tashabbuslarini to‘liq qo‘llab-quvvatlashi, Kelajak uchun paktga qat’iy amal qilishini ham ma’lum qilib o‘tdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, davlatimiz rahbarining dunyodagi eng nufuzli xalqaro va universal tashkilot bo‘lmish BMT oliy minbaridan turib

bildirgan fikrlari hamda ilgari surgan taklif-tashabbuslari global ahamiyatga ega. Ular nafaqat alohida bir mamlakat yoki mintaqa, balki umumjahon ahamiyatiga ega masalalarni qamrab olishi bilan diqqatga sazovordir. Ushbu chiqishda ta'lim va tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy masalalarga e'tibor qaratilishi mamlakatimizda ta'lim va ma'rifat yo'nalishida o'tgan qisqa davr mobaynida amalga oshirilgan yangilanishlar va erishilgan yutuqlarning sarhisobi sifatida butun dunyo afkor ommasi diqqat-e'tiboriga havola etildi.

Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida yuzaga kelgan boy tajriba, shuningdek jadid bobolarimiz qarashlari bilan mujassamlashgan hamda innovatsion yondashuvlar simbiozi natijasida shakllangan bugungi kun mamlakatimiz ta'lim tizimini **zamonaviy ta'limning yangicha modeli** sifatida qayd etib o'tish o'rinli bo'ladi.

Ajabmaski, yaqin kelajakda Yangi O'zbekistonda shakllangan **zamonaviy ta'lim modeliga** qiziquvchilar ko'payadi, u xalqaro darajada tatbiq etila boshlaydi hamda xalqaro miqyosdagi yuksak e'tiroflarga ham sazovor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015-2030-yillarga mo'ljallangan "Barqaror rivojlanish maqsadlari". <https://un.org>
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "BMT – 80" tashabbuslari. 2025-yil. <https://un.org>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. 20.09.2025. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/6677>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. 20.09.2017. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/1063>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida nutqi. O‘zA – O‘zbekiston Milliy Axborot Agentligi. 23.09.2020. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-birl-23-09-2020>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 76-sessiyasida nutqi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. 21.09.2021. <https://president.uz/oz/lists/view/4632>

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. 20.09.2023. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/6677>

O‘ZBEK TILI – VATANDOSHLARNI BIRLASHTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

Yakubov Sobirjon Salimovich,
*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Til – har bir millatning umrboqiyiligini ta’minlovchi qudratli kuchdir. Inson DNKsida unga xos genetik kodlar saqlangani kabi, til ham muayyan millatga xos asosiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy yozganidek, “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan o‘yinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak – millatning ruhini yo‘qotmakdur”. Boshqa bir jadid ma’rifatparvari Ismoilbek G‘aspirali fikricha, “Millatning ikki asosi bor: til birligi, din birligi. Millatning o‘zligini yo‘qotish uchun shularning bittasi buzilishi kifoya” [1:150].

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri sanalgan o‘zbek tili nafaqat O‘zbekiston, balki kurrai arzning turli mamlakatlarida yashayotgan o‘zbeklarni birlashtiruvchi, “bir yoqa, bir eng” etuvchi vosita hisoblanadi.

Jahonda o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni 50 millionga yaqin bo'lib, bu borada tilimiz dunyoda 27-o'rinda turadi. Dunyoning 100 ga yaqin maktablari, 60 ga yaqin oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan o'zbek tili 6 ta barqaror turkiy tillardan biri hamdir [2:46-47]. Ushbu raqamlar milliy va xalqaro maydonda o'zbek tilining maqom-mavqei oshib borayotganidan dalolat beradi.

Aksar tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, bugungi kunda O'zbekistonda til siyosati umummilliy harakatga aylandi. Oxirgi yillarda o'zbek tilining davlat lisoni sifatida nufuzini oshirish yo'lida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrda "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2025-yil 21-oktyabrda "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmonlari qabul qilindi. 2020 – 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi amalga tatbiq etilmoqda.

O'zbek tili maqomi va nufuzini oshirish yo'lida ko'rilayotgan choralar haqida ko'p va xo'b gapirish mumkin. Ammo biz ushbu maqolada bundan bir asr avval atoqli adib va olim Abdurauf Fitrat "dunyoning eng boy va eng baxtsiz tili" deb atagan ona tilimizni asrab-avaylash va rivojlantirishga doir muammolarga e'tibor qaratmoqchimiz.

Bugun insoniyat globallashuv deb atalgan shiddatkor, ayovsiz bir davrni boshdan kechirmoqda. Globallashuv davrida mamlakatlar nafaqat o'z siyosiy suvereniteti, iqtisodiy mustaqilligi, ayni choqda, milliy tilini saqlab qolishda ham mushkulotlarga duch kelmoqda. BMTning etnik ozchiliklar masalalari bo'yicha mustaqil eksperti Rita Ijakning xulosasiga ko'ra, XXI asr oxiriga borib, dunyodagi 6000 dan ortiq tillarning yarmi yo'qolib ketishi mumkin [3].

O'tgan asrning so'nggi choragida G'arb davlatlarida amalga tatbiq etilgan multikulturalizm siyosati aynan etnik ozchiliklar qadriyatlari, an'analari hamda tilini saqlab qolish g'oyasini ilgari surgan edi. Madaniy

plyuralizm g'oyasiga tayangan ushbu ta'limotga ko'ra, G'arb davlatlarida yashayotgan etnik ozchiliklar titul yoki dominant til va madaniyatga ehtirom ko'rsatgan holda, o'z tilini ham saqlab qolishga haqli [4:13].

So'nggi o'nyilliklarda aksar G'arb davlatlarida multikulturalizm siyosati inqirozga yuz tutgani e'lon qilindi. Etnik ozchiliklardan ham titul yoki dominant millatga butunlay assimilyatsiya bo'lish talabi qo'yildi. Bu hol etnik ozchiliklarning ona tilini ham xavf ostida qoldiradi.

Keyingi chorak asrda o'n minglab o'zbekistonliklar muqim yoki muvaqqat yashash uchun xorijga ko'chib ketmoqda. Jahon mamlakatlarida o'zbek diasporasi kengayib bormoqda. Vatandoshlarning xorijiy mamlakatlarda o'z o'rnini topayotgani, xalqona tilda aytganda, tup qo'yib palak otayotgani umumiyat-la ijobiy hodisa, albatta. Ammo tadqiqotlarga qaraganda, xorijiy o'lkalarda yashayotgan vatandoshlarimiz orasida o'z tili, qadriyatlarini unutish holati ham kuzatilayotir [5:613-620]. Deylik, AQSHda yashayotgan o'zbek oilasining ikkinchi yoki uchinchi avlod vakillari ona tilidan begonalashib ketmoqda. Buning ko'plab sabab-omillari bor. Jumladan, xorijdagi vatandoshlarning o'zbek tili, madaniyati va an'analarini ommalashtirish bilan shug'ullanadigan tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash borasida kompleks va uzoq muddatli strategiyaning mavjud emasligi ham ona tilidan begonalashuvga sabab bo'lmoqda [6].

Globallashuv sharoitida ingliz tilining ta'siri butun dunyoda oshib bormoqda. Ushbu til xalqaro siyosat, ilm-fan, tijorat va raqamli texnologiyalar lisoniga aylanmoqda. Shu bois ham nafaqat xorijdagi, balki hatto mamlakatimizdagi ayrim millatdoshlarimiz ona tili o'rniga ingliz tilini o'rganishni afzal ko'rmoqda. Tadqiqotchi D.Karimova to'g'ri qayd etganidek, o'zbek tili davlat tili maqomi hamda boy ma'naviy merosga ega ekaniga qaramay, zamonaviy davrda xorijiy tillarning kuchli raqobatiga ro'baro' kelmoqda [7:4]. Bu o'rinda rus tilining oshib borayotgan ta'sirini ham e'tibordan soqit qilmaslik kerak.

Xorijdagi vatandoshlar o'zbek tilini puxta o'rganishi nafaqat ularning xohish-istagi, balki bu borada kerakli shart-sharoitning mavjudligiga ham bog'liqdir. Tadqiqotchi N.O'rolovaning yozishicha, Markaziy Osiyodagi O'zbekistonga qo'shni besh mamlakatda 7 millionga yaqin o'zbeklar etnik

ozchilik sifatida yashab kelmoqda. Olima qo'shni davlatlarda yashovchi o'zbeklar ona tilida ta'lim olish hamda ona tilidan erkin foydalanish borasida muammolarga duch kelayotganiga e'tibor qaratgan [8]. Masalan, Qirg'izistonda oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari qirg'iz va rus tillarida o'tkazilmoqda. Mamlakatda o'zbek tilida saboq beruvchi maktablar soni ham sezilarli kamaygan.

Afg'onistonda yashovchi 2,5-3,5 million atrofidagi etnik o'zbeklar uchun ham ona tilini o'rganish borasida muammolar mavjud. Afg'onistonlik o'zbek tili mutaxassisi Nurulloh Oltoyning ta'kidlashicha, mamlakatdagi "to'qqiz viloyatning tub aholisi o'zbeklar bo'lsa-da, o'zbek adabiy tili mustahkam o'ringa ega emas". Ekspert o'zbek adabiy tilining Afg'onistondagi mavqeyini oshirish uchun yanada keng qamrovli choralar ko'rish kerak, deb hisoblaydi [9].

Xorijda o'zbek tilining maqomini yanada oshirish, xususan, chet elda istiqomat qilayotgan vatandoshlar ona tilidan begonalashmasligi uchun izchil chora-tadbirlarni ko'rish talab etiladi. 2020 – 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida ham bu borada bir qator vazifalar belgilangan. Jumladan, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarning madaniy va til o'zligini saqlab qolish, ularning o'zbek madaniy an'ana va qadriyatlari ruhida tarbiya topishlariga ko'maklashish, o'zbek milliy madaniy markazlarini badiiy adabiyotlar bilan muntazam ta'minlash, xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish, xorijiy oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash tizimini joriy etish, xorijda o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlar, tadqiqotchilar, tarjimonlar bilan ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet el fuqarolari uchun o'zbek tili darsliklari, elektron dasturlar ishlab chiqish lozim [10].

Qolaversa, mamlakatimizning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari huzurida "O'zbek tilining do'stlari" klublarini ko'paytirish, xorijdagi vatandoshlarga O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olishlari uchun grantlar ajratish, xorijiy davlatlardagi o'zbek diaspora tashkilotlari huzurida vatandoshlarning farzandlariga o'zbek tilini o'rgatishga ixtisoslashgan o'quv markazlari tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ilm-fan taraqqiyoti tilni o'qitish, xususan, o'zbek tilini xorijliklarga o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish, o'zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'zida jamlagan elektron ko'rinishdagi o'zbek tili milliy korpusini yaratish, tilni o'rgatuvchi ilg'or onlayn platformalar tashkil qilishni taqozo etmoqda. Ekspertlar o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan xorijliklar uchun zamonaviy talablarga javob beradigan yangi darslik va qo'llanmalar yaratish lozimligini ham ta'kidlashadi. O'zbek adabiyoti namunalarini, jumladan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani hamda G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasini ingliz tiliga o'giran amerikalik tarjimon Kristofer Fort ham ayni shu masalaga e'tibor qaratgan. "Men 2009-yilda o'zbekchani o'rganishga kirishgan bo'lsam, shu jarayonda xorijliklar o'zbek tilini o'rganishi uchun sifatli qo'llanmalar juda kamligiga guvoh bo'lganman. O'zbekistonda til haqidagi qonun qabul qilinganiga ancha bo'lgan. Xo'sh, o'tgan davr mobaynida xorij-zabonlarga o'zbek tilini o'rgatish uchun mo'ljallangan nechta qo'llanma yo lug'at yaratildi?" deya savol qo'yadi K.Fort [11].

O'zbek tilini faol ravishda o'rganayotgan diplomatlardan biri – Buyuk Britaniyaning O'zbekistondagi elchisi Timoti Smartning fikricha, birinchi galda o'zbek tilini o'rganish resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish kerak. Jumladan, onlayn kurslar, darsliklar, mobil dasturlar va platformalar o'zbek tilini o'rganishni barcha uchun qulay qilish orqali jahon auditoriyasiga yo'l ochadi. Diplomat til adabiyot, san'at, festivallar va akademik almashinuvlar orqali madaniy diplomatiyani rivojlantirish ham muhim rol o'ynashini ta'kidlagan [12].

Umuman, o'zbek tilining nufuzini yanada oshirish, uning qo'llanish doirasini kengaytirish uchun aniq strategiyaga tayanmoq darkor. Bu borada shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt dasturlaridan unumli foydalanish kerak. Lingvistika yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish, tilga oid izlanishlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ham davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B., Yusupov Sh. va boshqalar. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti. Toshkent, “Ma’naviyat”. 2004.
2. Omonov M. Xalq diplomatiyasi va Markaziy Osiyoda zamonaviy hamkorlik. Toshkent, “Lesson Press” nashriyoti, 2022.
3. Thousands of minority languages threatened by assimilation, conflict and forced displacement – UN expert. 12.03.2013 // <https://www.ohchr.org/en/press-releases/2013/03/thousands-minority-languages-threatened-assimilation-conflict-and-forced>
4. Kymlicka W. Multiculturalism and Minority Rights: West and East // Journal on Ethnopolitics and Minority Issues in Europe. Issue 4, 2002.
5. Shozamonov Sh., Nazarova S., Djuraev B. Problems of Development of the Uzbek Language in Current Society // Open Journal of Modern Linguistics. Issue 11, 2021.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida Oʻzbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”. <https://lex.uz/docs/4022649>
7. Karimova D. Challenges in the Evolution of the Uzbek Language in Contemporary Society // American Journal of Philological Sciences. Issue 5, 2025.
8. Uralova N. Uzbeks Behind Borders: Improving Connections? 26.05.2021 // <https://cabar.asia/en/uzbeks-behind-borders-improving-connections>
9. Afgʻonistondagi oʻzbek tili taqdiri Oʻzbekistonga bogʻliqmi? 11.02.2020 // <https://www.bbc.com/uzbek/world-51389989>
10. 2020 – 2030-yillarda oʻzbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi. <https://lex.uz/docs/5058351>
11. Fort K. “Oʻzbek tili – jahon tamadduniga katta hissa qoʻshgan buyuk til” // “Yangi Oʻzbekiston” gazetasi. 2024-yil 9-yanvar.
12. Til – xalq dilining kalitidir. Buyuk Britaniya va Germaniya elchilari oʻzbek tilini nega oʻrganayotgani haqida. 21.10.2025 // <https://www.gazeta.uz/uz/2025/10/21/ambassadors/>

JAMIYATDA MILLATLARARO MULOQOT

Xoliqov Yunus Ortiqovich,

*Samarqand davlat chet tillar instituti
professori, falsafa fanlari doktori (DSc)*

Jahon xalqlari madaniyatida ma'naviy hodisa sifatida muhim o'rin tutgan bag'rikenglik fenomeni hozirgi globallashuv sharoitida alohida falsafiy-axloqiy, ta'limiy-tarbiyaviy shu bilan birga sinovdan o'tgan tajribagalarga asoslanib tahlil etish talab etmoqda. Postmodernistik sotsiumda umuminsoniy qadriyatlardan, ma'naviy o'ziga xoslikning inqirozidan xavotirga tushmoqda. Bu hayot mazmunini to'g'ri anglamaslik, vayronkorlikka moyillik, o'zaro munosabatlarda tajovuzkorlikni uyg'otuvchi illatga aylanish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugun millatlararo madaniyat postmodern makonning global tendensiyasiga asoslangan bo'lib, unda shaxs o'zini namoyon qilishi va o'zining umumiy ehtiyojlari kontekstida axloqiy qarama-qarshiliklarni engib borishi vujudga kelmoqda. Zamonaviy millatlararo madaniyatning rivojlantirilishi, har bir insonning o'zini namoyon qilishini ta'minlaydigan plyuralistik axloqiy munosabatlarning takomillashtirishini talab qilmoqda.

Millatlararo madaniyat insonlar o'rtasidagi muloqotlar va integratsiya muhim bo'lib, global yangiliklarda qo'llanilib, turli millatlar va madaniyatlar orasidagi aloqalar yanada kuchliroq va osonroq kechisiga sabab bo'lmoqda. Mazkur harakatlar, o'z navbatida bag'rikenglik, madaniyatning bog'lanishida axloqiy tafakkurning muhim ahamiyatga ega bo'lishini bildiradi. Bugungi kunda bag'rikenglikka oid tadqiqotlar globallashuv sharoitida millatlararo madaniyatlar integratsiyasi benihoyat faollashgani, ularning unifikatsiyasi tobora yorqinlashayotganini ko'rsatib bermoqda. Bularning barchasi millatlararo madaniyatda bag'rikenglik tamoyillarini rivojlantirish va uning muammolarini tahlil qilishga xizmat qiladi. Shu ma'noda hozirgi globallashuv jarayoni kechayotgan bir davrda yoshlarning millatlararo bag'rikenglik tafakkurini yuksaltirishda milliy, madaniy, umuminsoniy qadriyatlar rolini oshirish, ulardan samarali foydalanish tamoyillari va mezonlarini tadqiq qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi globallashuv davrida millatlararo muloqot madaniyati haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilganligini bilsak-da uning ilmiy ta'rifini aniqlashga ehtiyoj mavjud. Keyingi yillardagi ilmiy izlanishlardan barcha elatlar tomonidan foydalanishi aksariyat millatlar vakillarining o'zaro muloqotida va bir-birlarini tushunishi hamda qo'llab-quvvatlashida ko'rinadi. Shu ma'noda "millatlararo muloqot madaniyati shaxsning boshqa xalqlar va ularning vakillari bilan bilvosita yoki bevosita muloqot tarzida namoyon bo'ladigan odob-axloq majmui"[1; 379-B.]. deb ta'riflanadi. Qo'shimcha qilinishicha, bir hududda yashayotgan xalqlarning so'zlashuvida, muloqotga kirishuvida, albatta, sezilarli holatlar ko'zga tashlanishi aniq hisoblanadi. Modomiki, elatlar qo'shnichilikda yashayotgan bo'lsalar, doimo faol harakatda va doimiy kommunikativ vaziyat bo'lsa, biz ulardagi farqni lisonda ko'rishimiz mumkin[1:379].

Millatlararo madaniyatni kafolatlovchi asosiy omillardan biri bir necha millatning muayyan hududda uzoq yillar hamkorlikda yashashidir. Boshqacha aytganda, bir millatga mansub aholini boshqa joyga majburan ko'chirish siyosati olib borilsa, bu millatga nisbatan zo'ravonlik tamoyili hech qachon o'zini oqlamaydi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida millatlararo bag'rikenglik madaniyati ko'p jihatdan modernizatsiya jarayonlari asosida namoyon bo'lmoqda. Ya'ni, bu fanatizmdan chekinib konstruktiv muloqot o'rnatishgacha ijobiy rivojlanish dinamikasi hisoblanadi. Modernizatsiya samarasi bo'lgan muloqotga asoslangan bag'rikenglik madaniyatining zamonaviy modeli ko'p millatli, ko'p konfessiyali jamiyatning jadal ijtimoiy-madaniy rivojlanishi uchun eng samarali ekanligini jahon tajribasi yaqqol ko'rsatdi.

Dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro muloqot jarayoni millatlararo madaniyatning qay darajada yo'lga qo'yilganiga bog'liq. Undagi o'zaro bog'lanish jarayonlari o'zining rang-barang qiyofasi, turlicha ideallari bilan xarakterlanadi. Xususan, yosh avlod vakillari orasida millatlararo madaniyatni ta'minlash milliy nizolarning oldini oluvchi vosita sifatida tilga olinadi. Zamonaviy yoshlar bugungi global taraqqiyotning bir qismi sifatida aksariyat insonlar kabi bir xil qarama-qarshi hodisalarga duch

kelmoqdalar. Shu bilan birga yosh avlodning yangi global muammolar girdobiga tushib qolishi ham ko'p kuzatilmoqda. "Yoshlar jamiyatning shunday ijtimoiy guruhiga mansubki, ular o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyotning nomutanosibligi holatlarini kuchliroq sezaдилar" [2:277]. Binobarin, mamlakatimizda yashab kelayotgan turli millat (yoshlar) vakillarini o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash, bag'rikenglik tamoyillaridan asosiy vosita sifatida foydalanish imkoniyatlarini yanada oshirish — milliy g'oyaning asosiy maqsadlaridan biridir. Biz ularning ruhiyatida boshqa xalq va millatlar uchun xos bo'lgan bag'rikenglikning ideal qirralari mavjudligini tarixiy manbalardan ko'rishimiz mumkin.

Bugungi integratsiyalashgan jamiyatda barkamol jamiyat qurish millatlararo bag'rikenglik madaniyatiga asoslanishi kerak. Uning o'ziga xos fundamental negizlari asrlarga teng bebaho falsafamizning tomirlarida mujassam. Mamlakat mustaqilligi uning mustaqil suvereniteti bilan bir qatorda uning millatlararo madaniyatida ham namoyon bo'ladi. Yoshlarning g'ayratini oshirish va o'z tarixini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishi hamda boshqalar bilan sayohatlarida ham erkin va hurmatli bo'lishi bilan bog'liqdir. Barcha millat vakillari o'z yosh avlodining ongida, avvalo, ajdodlaridan madaniy meros bo'lib qolgan madaniyat, qadriyat, an'analarni shakllantirishga intiladi.

Millatlararo madaniyat va bag'rikenglik, o'zaro hurmat shakllanishi o'zaro ishlab chiqarish, savdo-sotiq, turmush tarzi, ta'lim kabi jarayonlarda insoniy qadriyatlarga intilishni ko'rishimiz mumkin.

Me'yorlarning bir necha turiga e'tibor qaratsak, ular turli ko'rinishlarda namoyon bo'lganini ko'rishimiz mumkin: 1. Urug'-qabila bo'lib yashash tizimiga asoslangan qadimgi davrlarda o'zaro munosabatlarga kirish natijasida xam elatlarda millatlararo madaniyat mavjudga kelganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday xollarda madaniyat elatlarni birlashuviga olib kelgan xolda urug'-qabilaga birlashuviga olib kelgan. 2. Zamonaviy millatlararo madaniyat. U hududlar orasidagi hamkorlik va bog'liqligi asosida shakllangan madaniyatlar to'plamidir. Bu turli millatlar, ularning qadimiy va zamonaviy san'ati, musiqa, adabiyot,

moda va boshqa sohalardagi ijodlarining o'zaro almashish va ularga ta'sir ko'rsatish yoli bilan aloqador bo'ladi. 3. Sharq millatlararo madaniyati va G'arb millatlararo madaniyati. Bu madaniyat geografik va tarixiy sharoitlar asosida rivojlanib kelgan madaniyat turidir. 4. Millatlararo muloqot madaniyati millatlararo madaniyatning keng ko'lamda qo'llanilishi tadqiqotlarda muloqot madaniyatining trayektoriyasi kengayishiga, funksiyalarining oshishiga olib keladi. Bu madaniyatda xalqlar o'rtasidagi rishta tartiblashadi, o'zaro aloqadorlik va bog'lanishlar kuchayadi, axloqiy tamoyillarning amal qilish mexanizmlari qonuniylashadi. Millatlararo muloqot madaniyati turli jismoniy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar orqali o'zaro uzviy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni oshirishni doimo rag'batlantiradigan madaniyat turi bo'ladi. Bularning barchasi millatlararo madaniyatning turli turlarini ifoda qiladi va o'zining o'ziga xos mohiyatiga ega. "Bu madaniyat turlari millatlarning o'zaro ta'sir va aloqalari bilan shakllanadi va insonlar o'rtasidagi bilim, san'at, madaniyat va boshqa amaliy ishtiroklarni o'z ichiga oladi"[3:214].

Shuni ta'kidlash kerakki, millatlararo muloqot madaniyati tushunchasi bo'yicha yagona qarash shakllanmagan. Ilmiy manbalarda millatlararo muloqot madaniyati tushunchasiga ta'rif berishda muayyan murakkabliklar va noaniqliklar mavjud. Falsafa fanlari doktori O.Musayevning fikricha, "millatlararo munosabatlarni o'rganishda millatning, xalqning til, turmush-tarzi, urf-odatlari, xarakteriga oid xususiyatlari, muloqot madaniyati, kiyinishi kabi belgilarga e'tibor qaratiladi" [4:43]. Buning natijasida yoshlarning ijtimoiylashish jarayoni tezlashadi va o'zini rivojlantirish va shaxs sifatida shakllanishiga turtki beradi. Har bir millatning farzandlari bir maqsad yo'lida o'zlarining tafakkur tarzini namoyon etib boradilar.

Faylasuf olimlar J.Yaxshilikov va N.Muhammadiyev madaniyatning mohiyatini tadqiq etib, undagi milliylikdan ko'ra millatlararo madaniyat masalasiga asosiy e'tiborni qaratadilar. Ularningcha, "har xil madaniyatlarning tinch-totuv yashashi mumkinmi? Bu savolga hozircha yagona javob yo'q. Biroq ma'lumki, hozirgi dunyoda biron-bir milliy madaniyatning ustunlik qilishi maqsadga muvofiq emas. O'zaro bilish,

tushunish, hurmat rivojlanishi, qadriyatlar va yutuqlarning o'zaro almashinish imkoniyatlarining ochilishi uchun madaniyatlarning muloqoti zarur" [5:277]. O'zbekistonda bag'rikenglik tuyg'ularini yuksaltish, uzviyligini ta'mlashda Sharq-G'arb hamkorligiga asoslangan mexanizmlar yordamida o'zaro aloqalarni kuchaytirishni davom ettirish kerak. Bu esa insoniylik, barqarorlik va qadriyatlar asosida o'zaro muloqot va tushunchalarning o'sishiga imkon beradi. Keyingi yillarda millatlararo madaniyatning keng ko'lamli bo'lishi, barqarorligi uchun tarixiy-falsafiy asoslar kuchaydi. "Madaniyatlararo muloqot, turli millat va xalqlar vakillari orasidagi integrasiyani oshiradi va jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy munosabatlarni yanada mustahkamlashga yordam beradi" [6:172].

O'zbekistonda millatlararo munosabatlar tizimini milliy jihatdan tadqiq qilgan A.Absalyamova millatlararo muloqotning tarkibiy elementi sifatida millatlararo aloqa tushunchasini ilgari suradi. Uningcha, insonlar "o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishning birgalikdagi faoliyat ehtiyojlari natijasida yuzaga keladigan va kamida uchta turli jarayonni o'z ichiga oladigan murakkab aloqa: ma'lumot almashinuvi, ishtirok etish (harakatlar almashinuvi) va ijtimoiy idrok (sherikni anglash va tushunish)ni qamrab olgan" [7:148].

Millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirayotgan bir davrda odamlar o'rtasida millatlararo aloqalar tobora kuchayib borayotgan bir paytda qarama-qarshilikni bartaraf etishning muqobil varianti sifatida millatlararo muloqot madaniyatini anglash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

"Millatlararo muloqot — o'z ichiga ozodlik, ma'naviyat, madaniyat almashtirish, diplomatiya, tashqi siyosat hamda iqtisodiy hamkorlik kabi muhim jarayonlarni qamrab oladi"[8]. Bu muloqot asosida insonlar hayoti, ma'naviyati, fikrlash va o'rganishni kengaytirishdir. Bu o'z navbatida esa, bu jamiyat, insonlar va millatlar o'rtasidagi qadr-qimmat munosabatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Rossiyalik olim Z.Mustafayevaning fikriga ko'ra "millatlararo aloqa ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi, har bir xalq, jamiyat uchun xos bo'lgan etnik millatlararo muloqotning davlat madaniyati millatlararo munosabatlarning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari jamiyatning ko'pmillatli madaniyatlar

muloqoti shakllanishi sifatida ta'riflanadi" [9]. Bu esa odamlar o'rtasidagi hamkorlik va almashishni kuchaytiradi. Ijtimoiy munosabatlarning tartibga solib borilishi jamiyatda insonlar uchun ruhiy kuch manbayi, millatlarga dalda vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida shunday xulosaga keldikki, ma'nan rivojlangan shaxs aqliy imkoniyatlarining barcha sohalaridan foydalana oladi. Bu esa uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Biroq mazkur jarayonning ijobiy samarasi butun jamiyatga ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarning ma'naviy yuksalib borishi ular da millatlararo madaniyat rivojining imkoniyatlarini yanada oshiradi. Yurtimizdagi yangicha tafakkur yoshlarning o'zlari qiziqish bilan xalqlar madaniyatini o'rganishga chorlashi, madaniyatlar o'rtasidagi muloqotni dialektik yondashuv asosida olib borishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013– B. 379.
2. Milliy istiqlol g'oyasi.– Toshkent: Akademiya, 2005. – B. 277.
3. Современное образование как открытая система. –Москва: Институт научной и педагогической информации РАО, ЮРКОМПАНИ, 2012. –С. 214.
4. Musayev O.R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari. Falsafa fanlari bo'yicha doktorlik (DSs) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2017. –B. 43.
5. Yaxshilikov L.Ya., Muxammadiyev N. Falsafa. –Samarqand, 2021. -B. 277.
6. Современное образование как открытая система. – Москва: Институт научной и педагогической информации РАО, ЮРКОМПАНИ, 2012. –с. 172.
7. Абсалямова А.Г. Развитие межнациональных отношений студенческой молодежи в системе высшего педагогического

образования. Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. –Уфа 2007. –С. 148.

8. Гогин А.А., Липинский Д.А., Малко А. <http://ivo.garant.ru>

O‘RTA ASR SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN III RENESSANS TAMADDUNIGA FALSAFIY TA’SIRI

Nishonov Sarvar Jasur o‘g‘li,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsenti,
Rixsiboyeva Solixa Bobir qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi

Qadimda Turon, Turkiston, hozirgi O‘zbekiston deb ataluvchi Movarounnahr jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo‘lganini butun dunyo allaqachon tan olgan. Bu erdan Sharq va G‘arbni, Janub va Shimolni, iqtisodiy aloqalarni, savdo-sotiqni, ilm-fan va san’atni, ilmiy va umumbashariy ma’naviyat va qadriyatlarni bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tagan, yagona quruqlik yo‘li Buyuk ipak yo‘li bo‘lgan. Buyuk ipak yo‘li o‘z davrida internet, xalqaro muloqot vositasi bo‘lib xizmat qilgan. O‘zbekiston o‘z tarixida buyuk madaniy silsilalarni boshidan kechirgan, ular tufayli mutlaqo yangi sivilizatsiyalar, yangi madaniy va ma’naviy qadriyatlar yaratilgan mamlakatdir. O‘zbekiston xalqi o‘zining o‘tmish tarixida bir necha bor madaniy yuksaklik — uyg‘onish davrini boshidan kechirdi. Aynan Sharq Renessansining birinchi davrida qadimiy va tabarruk zaminimizda tariximiz, madaniyatimiz, ma’naviyatimiz va ma’rifatimiz, adolat va qonun ustuvorligi hamda jahon sivilizatsiyasi rivojiga, ilm-fan, ma’naviyat va ma’rifat taraqqiyotiga zodagonlar, olimlar, siyosatchilar, hunarmand va sarkardalar beqiyos hissa qo‘shgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Biz

keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak” [1]. Uyg‘onish davri madaniyatining o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Jahon ma’rifatparvarligiga intilish, o‘tmish va qo’shni mamlakatlar madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, ayniqsa, tabiiy, falsafiy va ijtimoiy fanlarni rivojlantirish.

2. Tabiatdan, tabiatshunoslik, ratsionalizm, aql kuchiga ishonishni rivojlantirish, haqiqatni izlashga qaratilgan fanlarga e’tiborni qaratish, haqiqatni inson tasavvuri, fanining asosi sifatida ko‘rib chiqish.

3. Insonni ulug‘lash, uning aqliy, tabiiy, badiiy, ma’naviy fazilatlarini asoslash, odamiylik, yuksak axloqiy marosim va qoidalarini takomillashtirish, komil insonni tarbiyalashga intilish.

“Universallik — qomusiylik, hamma narsaga qiziqish bu davr madaniyatining muhim jihatlardan biri edi” [2:604]. Uyg‘onish davri mutafakkirlari Arab xalifaligida Abbosiylar hukmronligi davrida gullab-yashnadi. 762-yilda Arab xalifaligining poytaxti Bag‘dodga ko‘chiriladi va Bag‘dod ilmiy markazga aylanadi. Abbosiylardan Horun ar-Rashid va uning o‘g‘li xalifa al-Ma’mun (813-833) ilm-fan rivojiga homiylik qildilar, ko‘plab nodir kitoblarni tuzdilar va katta kutubxonaga asos soldilar. Ilm-fan sohasida tadqiqotlar olib borish, innovatsiyalar yaratish, shuningdek, tarjima ishlari uchun turli mamlakatlardan turli sohalardagi olimlar va tarjimonlar taklif qilindi. Al-Ma’mun o‘z davrida Xorazm va Xurosonda ilm-fan rivojiga alohida e’tibor qaratdi. U o‘z atrofiga Xorazm, Farg‘ona, So‘g‘diyona, Shosh, Forobdan mahalliy olimlarni to‘plab, ularning ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratdi. 813-yilda xalifa taxtga o‘tirgach, bu ishni rivojlantirdi. Xalifa al-Ma’mun Xuroson, Movarounnahr, Baqtriya, Farg‘ona va Xorazm olimlarini Bag‘doddagi “Bayt-ul-Hikma” olimlar majlisiga to‘playdi. Ular ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullandilar, arablardan shogirdlar oldilar va o‘z nomlarini butun dunyoga mashhur qildilar. Bular

Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Mashar al-Balxiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Bakr ar-Roziy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshgʻariy, Husayn Voiz Koshifiy, Jaloliddin Davoniy va boshqalar edi. Uygʻonish davri mutafakkirlarining buyuk xizmatlarini quyidagicha taʼriflash mumkin deb oʻylaymiz: ular fanning turli sohalarida buyuk kashfiyotlar qildilar. Ular yaratgan ilmiy taʼlimotlar butun insoniyat kelajagi uchun xizmat qiladi.

Aynan ular insoniyatga xizmat qilishni oʻz hayotining mazmuniga aylantirishgan.

“Ming yillar davomida jahon savdo yoʻllari chorrahasida joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasi oʻziga xos boy madaniyatga ega”[3:683]. Uning madaniy-maʼrifiy olamga qoʻshgan yana bir katta hissasi qadimgi yunon olimlari Platon, Aristotel, Suqrot, Gippokrat, Galen, Yevklid asarlarini arab tiliga tarjima qilib, ilmiy tafakkur rivojiga hissa qoʻshganligidir. Ular donishmandlik uyida yunon ilm-fani istiqbollari oʻzlashtirish bilan bir qatorda hind-sanskrit madaniyati va ilm-fanini ham qiziqish bilan oʻrgandilar. Sharqning buyuk allomasi, vatandoshimiz Xorazmiyning Al-Jabr-val-Muqobala (Tenglamalar va qiyoslar), Hisob-al-Hind (Hind hisobi), Kitob surat ul, arz, (Er surat), Tarix (tarix kitobi), Astronomik jadvallar, Quyosh soatida, qurilish haqida kitob kabi kitoblari alloma nomini dunyoga tanitgan bebaho asarlardir. Al-Fargʻoniy matematika, geografiya va astronomiya sohalarida buyuk kashfiyotlar qildi. U birinchi boʻlib Xristofor Kolumb Amerikani kashf etishda foydalangan aniq geografik xaritalarga yoʻl ochdi.

“Uning jahon ilm-fani va maʼrifatiga qoʻshgan bebaho hissalaridan yana biri Oy va Quyosh tutilishlarini mukammal tadqiq etganligidir” [4:118]. Ahmad Fargʻoniy Gʻarb va Sharqda Munajjim ar-rahis nomi bilan mashhur. Gʻarb dunyosida uni Alfraganus deb atashardi. Abu Nasr Forobiy Ikkinchi muallim nomi bilan mashhur boʻlgan. Islom mamlakatlari olimlari orasida hech qachon bunday aqlli odam boʻlmagan. Forobiyning ilmiy merosi xilma-xil boʻlib, uni ikki sohaga ajratish mumkin:

1. “Qadimgi yunon faylasuflari va tabiatshunoslarining ilmiy merosini talqin qilish va oʻrganish;

2. O'rta asr fani muammolarini mustaqil ilmiy tadqiq etish. Sharq Uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino (980-1037) fanning turli sohalariga oid 450 dan ortiq asar yozgan bo'lib, bizgacha ularning faqat 242 tasi etib kelgan.

Uning mashhur falsafiy kitobi Ensiklopediyada beshta fan mavjud: mantiq, tibbiyot, astrologiya, musiqa va ilohiyot. O'rta Osiyo ma'naviy-ma'rifiy olamining buyuk namoyandasi Abu Rayhon Beruniy Xorazm tilidan tashqari sug'd, fors, suryoniy, yunon, arab, qadimgi yahudiy va sanskrit tillarini mukammal egallagan.

Bular o'tmish yodgorliklari, Xorazmning mashhur kishilari,

Geodeziya, Hindiston, Qonuniy Mas'udiy, Mineralogiya, Saydana va boshqalar. Abu Rayhon Beruniy Xorazm ilmiy maktabining yorqin namoyandasi, shuningdek, Urganchda donishmandlik uyi sifatida mashhur bo'lgan Mamun akademiyasi ilmiy markazining asoschisidir. Uning ijodida Xorazm fani o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi.

Shuningdek, "Yoshlarning ijtimoiy-axloqiy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri bu yoshlar tomonidan asosiy axloqiy qadriyatlar, me'yorlar va toifalarni bevosita rivojlantirish jarayonidir" [5:73]. "Axloqiy masalalar, yaxshilik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, munosiblik va noloyiqliklik masalalari borliqning dunyoqarash asoslari muammosi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, inson buni aniq tushunmasdan, barcha qiyinchiliklarga adekvat javob berish uchun ojizlikdan tushkunlikka tushadi" [6:380].

O'zining buyuk ilmiy ta'limotlari va kashfiyotlari bilan dunyoga dong taratgan ilk Uyg'onish davri mutafakkirlari, Turon yurtini ulug'lagan o'z izdoshlari, o'z akademiyalarining ilm-ma'rifat rivojiga qo'shgan katta hissasini his qilmoqchimiz.

Sharq renessansining ikkinchi davri (ikkinchi uyg'onish), shubhasiz, Turon zamini va xalqlari hayoti tarixida Amir Temur va temuriylar davri, Ta'kidlash joizki, bu sivilizatsiyalar bosqichi edi. XIV asr oxiri — XV asr boshlari ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida tub burilish yasagan davrlar bo'ldi. Sharq mutafakkirlarining bebaho ta'limotlari, ilm-fan, me'morchilik, tasviriy

san'at, rassomchilik, musiqa, rivojlangan savdo-iqtisodiy munosabatlar, kuchli markaziy davlatning barpo etilishi, uning ichki va tashqi siyosati Yevropa uyg'onish jarayoniga muhim ta'sir ko'rsatdi. Ta'kidlash joizki, o'zbek davlatchiligi tarixida Amir Temur va temuriylar davri alohida o'rin tutadi.

Amir Temurning O'rta Osiyo xalqlari oldidagi xizmatlari katta:

- dastlab mamlakatni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qildi
- ikkinchidan, mustaqil o'zbek davlatchiligiga asos soldi;
- uchinchidan, mamlakatni qoidalar (qonunlar) asosida boshqarishni ta'minlagan;
- to'rtinchidan, adolat va ma'rifat ishi. Hokimiyat adolatda shioriga muvofiq;
- beshinchidan, qo'shni davlatlarni bosqinchilardan, zolim va shafqatsiz diktatorlardan tozalab, u erlarda qonun va tartib o'rnatdi;
- oltinchidan, u Samarqandni jahonning markaziga aylantirdi. U Ispaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy kabi mamlakatlardan ko'plab elchilar, sayyohlar, savdogarlar, olimlar tashrif buyuradigan poytaxtga aylandi.

Xulosa qilib aytganda O'rta asrlarda Amir Temur Turkistonda shunday sharoit yaratdiki, Ulug'bek rasadxonasi, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalar o'z asarlari bilan jahon jamoatchiligi e'tiborini tortishga muvaffaq bo'ldilar, shunchaki Amir Temur, Shohrux Mirzo, Ulug'bek Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi siyosatchilar. Donishmand daholar, fozillar, buyuk olimlar ilm-fan taraqqiyotiga rahnamolik qilganlar, madrasalar, kutubxonalar, shifoxonalar qurishga, kitoblar yozish va nashr etishga katta e'tibor berganlar, o'z atroflariga olimlar, shoirlar, olimlar, faylasuflar, tarixchilarni uyushtirib, ularning yo'l-yo'riqlariga quloq solganlar, maslahatlariga amal qilganlar, ularni yuqori martabalarga ko'targanlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Elektron Manba: www.prezident.uz/ (30.09.2020).
2. Madrimov B.Kh., Rajabov T.I., Nurullaev F.G. Teaching Bukhara children folk songs in music lessons as an actual problem // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Vol. 24. Issue 04, 2020. R. 604.
3. Ruziev D., Mirshaev U. Psychological and pedagogical bases of the organization of problem-based education through Folk songs // Vol. 24, Issue 4, 2020. R. 683.
4. Yarashev J. Artistic and Aesthetic Features of "Buchor" Tune // Eastern European Scientific Journal, 2019. R. 118.
5. Boytemirova Z. Axloqiy ehtiyojlar. –T.: "Fan", 2007-y. - B.73
6. Umarov E,U. Zagirtdinova F.B. Etika.- T.: "Cho'lpon", 2005-y. — B. 380.

“MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA MA'RIFATLI JAMIYATNING QAROR TOPISHI.”

Hamrayev Bobomurod Shodavlatovich,

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Ma'rifatli jamiyat — bu nafaqat bilim va texnologiyalar rivojlangan, balki inson tafakkuri, ma'naviyati va qadriyatlarga sodiqlik eng yuqori darajada qaror topgan jamiyatdir. Zamonaviy O'zbekiston taraqqiyotining falsafiy mohiyatida ham aynan shu tamoyil yotadi: milliy qadriyatlar negizida yangilanish, o'zlikni anglash va jahon sivilizatsiyasi bilan uyg'unlashgan ma'rifatli jamiyat qurish. Bunday yondashuv, bir tomondan, O'zbekistonning tarixiy-madaniy ildizlarini mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan esa, global jarayonlarda o'zining ma'naviy mustaqilligini saqlash imkonini beradi.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy xotirasi, hayot falsafasi va jamiyatning ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi axloqiy me'yorlar majmuidir. Sharq mutafakkirlari, jumladan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Ahmad Donish singari allomalar o'z asarlarida insonni ma'naviy kamolot sari etaklovchi bilim va qadriyatlarning uyg'unligi haqida so'z yuritganlar. Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida u ma'rifatni eng yuksak ijtimoiy hodisa sifatida talqin etadi, chunki "jamiyatning saodati bilim va axloq uyg'unligida" deb yozadi.[1] Bu fikr bugungi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan hamohangdir.

Mamlakatimizda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi"ning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni chuqurlashtirish, milliy qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalash, ijtimoiy ongda milliy g'urur va mas'uliyatni kuchaytirish belgilangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz ma'rifatli jamiyatni qadriyatlarimiz, tariximiz va zamonaviy tafakkur uyg'unligida barpo etamiz"[2]. Bu yondashuv shunchaki siyosiy shior emas, balki ijtimoiy-falsafiy mohiyatga ega g'oyadir. Chunki islohotlar faqat qonun va dasturlar bilan emas, balki xalqning ongida shakllanayotgan ma'naviy ishonch bilan muvaffaqiyat qozonadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda islohotlarning milliy qadriyatlarga asoslanganligi xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda. Masalan, 2024-yilda BMT Taraqqiyot Dasturining hisobotida O'zbekistonning "inson kapitalini rivojlantirish" indeksi bo'yicha 191 mamlakat orasida 101-o'rinni egallagani qayd etilgan, bu esa 2016-yilga nisbatan 14 pog'onaga yuqori natijadir[3]. Bu yutuq, avvalo, ta'lim, madaniyat va ma'rifat sohalarida olib borilayotgan islohotlarning samarasi sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, "Ma'naviyat va ma'rifat markazlari"ning faoliyati, yoshlar uchun "Ma'naviy yuksalish oyliklari"ning yo'lga qo'yilishi, "Kitobxonlik harakati"ning kengayishi ma'rifatli jamiyat sari tashlangan muhim qadamdir.

O'zbekiston tarixida ma'rifat g'oyasi hech qachon yangilik bo'lmagan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakati aynan milliy qadriyatlarga tayanib, xalqni ma'rifatga chaqirgan. Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat singari jadid ma'rifatchilari "ilm – najot yo'li" deb e'tirof etganlar. Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida yozadi: "Millatni saodatga eltuvchi yo'l – bu ilm, ma'rifat va axloqdir. Axloqsiz ilm jamiyatni taraqqiyotdan emas, zulmatdan o'tkazadi"[4]. Shu bois, O'zbekistonning bugungi islohotlari jadidlar orzusi bo'lgan "ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasining davomi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ma'rifatli jamiyat tushunchasi falsafiy jihatdan ikki asosiy omilga tayanadi: birinchidan, insonning o'z-o'zini anglash, ikkinchidan, jamiyatning ma'naviy uyg'unligi. Inson o'zligini anglamagan jamiyatda islohotlar yuzaki bo'ladi. Masalan, Fransiyada XVIII asrda Aflotun, Didro, Volter, Russo singari ma'rifatparvarlar "insonni ong orqali ozod qilish" g'oyasini ilgari surishgan. Ularning maqsadi siyosiy tuzumni emas, balki inson tafakkurini o'zgartirish edi. O'zbekistonda esa bu g'oya milliy ruh bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda. "Yangi O'zbekiston" mafkurasi nafaqat siyosiy konsepsiya, balki ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar strategiyasidir.

2025-yilga kelib, O'zbekiston Respublikasi Strategik tadqiqotlar markazining ma'lumotlariga ko'ra, aholining 73 foizi "milliy qadriyatlarni saqlash va targ'ib etish islohotlarning muvaffaqiyat kaliti" deb hisoblagan[5]. Shu bilan birga, yoshlar orasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, 68 foiz respondentlar "ma'rifatli jamiyat" tushunchasini "axloqiy va intellektual yuksalish" bilan bog'lashgan. Bu esa xalq ongida ma'naviyat va islohot tushunchalari o'zaro uyg'unlashayotganini ko'rsatadi.

Milliy qadriyatlar zamirida, avvalo, oilaviy birlik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, adolat va mehnatsevarlik yotadi. O'zbekiston Respublikasining "Milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish to'g'risida"gi qonun loyihasi 2025-yilda ishlab chiqilishi rejalashtirilgan bo'lib, unda an'anaviy qadriyatlarni zamonaviy islohotlar bilan

uyg'unlashtirish mexanizmlari belgilab beriladi. Bu qadriyatlar jamiyatda ma'naviy barqarorlikni mustahkamlab, iqtisodiy va siyosiy yangilanishlar uchun zamin yaratadi. Masalan, xalqimizning "Odam bo'lish – ilm bilan, el bo'lish – birlik bilan" degan hikmati aslida falsafiy ma'rifatga asoslangan xalq donoligidir.

Islotlarning samaradorligi uchun ma'rifatli kadrlar zarur. Bugungi kunda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida 200 dan ortiq oliy o'quv yurti faoliyat yuritmoqda, ulardan 37 tasi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan. 2025-yilda oliy ta'lim qamrovi 39 foizga etgani bu borada jiddiy natijadir[6]. Ammo bu faqat raqam emas — bu ko'rsatkich yoshlarning tafakkuri o'zgarayotganidan, jamiyat ma'rifat sari harakatlanayotganidan dalolat beradi. BMT Ma'lumotlar Tahlil Markazining 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda o'qish madaniyati indeksi 5 yil ichida 31 foizdan 47 foizga ko'tarilgan, bu Markaziy Osiyo bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichdir[7].

Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida yozganidek, "Jamiyatni isloh etish uchun avvalo insonni isloh etish kerak. Insonni isloh etish esa ma'rifat bilan amalga oshadi"[8]. Bu fikr bugungi islohotlarning g'oyaviy asosidir. Chunki insonni ma'naviy jihatdan boyitmasdan turib, qonunlarni o'zgartirish, iqtisodiy tizimni yangilash kutilgan natijani bermaydi. Shu ma'noda, ma'rifatli jamiyat – bu islohotlarning ma'naviy poydevori, milliy qadriyatlar esa uning yo'nalishini belgilovchi yo'lchi yulduzdir.

Ma'rifatli jamiyat qurish yo'lida ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi" doirasida insonparvarlik, milliy g'urur va mas'uliyatni yoshlar ongiga singdirish dolzarb vazifaga aylangan. Shu bilan birga, "Ma'naviyat soatlari", "Yoshlar akademiyasi" va "Ijtimoiy hamkorlik markazlari" kabi tashabbuslar aholining ma'naviy saviyasini oshirishga xizmat qilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda respublika bo'yicha 2 milliondan ortiq fuqaro ijtimoiy-ma'naviy dasturlarda ishtirok etgan[9]. Bu raqamlar ma'rifatning ijtimoiy hayotda faol harakatlantiruvchi kuchga aylanganini ko'rsatadi.

Milliy qadriyatlarga asoslangan islohotlar nafaqat madaniyat yoki ta'lim sohasida, balki iqtisodiy va siyosiy hayotda ham muhim o'rin tutadi. Masalan, "Mahalla" instituti faoliyatining kuchaytirilishi, "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tizimining yo'lga qo'yilishi milliy birdamlik va g'amxo'rlik qadriyatlarini zamonaviy boshqaruv mexanizmlariga aylantirdi. Bu tizim bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimining asosiy elementi sifatida tan olingan bo'lib, 2025-yilda 1,2 million fuqaroning ijtimoiy qo'llov olganini ko'rsatadi[10].

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlarga asoslangan islohotlar – bu faqat davlat siyosati emas, balki xalq tafakkurining yangi bosqichga ko'tarilishi demakdir. Ma'rifatli jamiyat esa shu islohotlarning maqsadi va natijasidir. Chunki ma'rifatli jamiyatda inson qadri, adolat va vijdon ustuvor bo'ladi. Bunday jamiyatda islohotlar tashqaridan kiritilmaydi, balki ichki ehtiyoj sifatida paydo bo'ladi. Bugungi O'zbekiston – mana shunday falsafiy jarayonni boshdan kechirmoqda: qadriyatlar va ma'rifat uyg'unligida yangi, adolatli, insonparvar va taraqqiyparvar jamiyatni barpo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. *Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: Fan, 1993.
2. Sh. Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston – ma'naviyatli jamiyat sari*. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. UNDP Human Development Report. – New York, 2024.
4. Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: Ma'naviyat, 1992.
5. O'zbekiston Respublikasi Strategik tadqiqotlar markazi hisobotlari. – Toshkent, 2025.
6. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi statistik byulleteni. – Toshkent, 2025.
7. UN Data Center. – Global Literacy Index, 2025.
8. I. Karimov. *Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
9. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va Ma'naviyat vazirligi

ma'lumotlari. – Toshkent, 2024.

10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hisobotlari. – Toshkent, 2025.

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHDA SIYOSIY-MAFKURAVIY ONGNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Yusupov Axrorjon Qurbonovich,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD,
Qo'qon davlat universiteti

Mustaqillik milliy o'zlikni anglash fenomeni bilan bog'liqdir. Bu o'rinda siyosiy ong milliy o'zlikni anglash tarzida, milliy o'zlikni anglash esa siyosiy ong ko'rinishida keladi. Mazkur dialektik bog'liqlik transformasion o'zgarishlarning nazariy-konseptual asosi va ijtimoiy-amaliy, real borliqqa yo'naltirilgan dasturi sifatida namoyon bo'ladi. Mustaqillik ana shu nazariy – konseptual asos va ijtimoiy – amaliy dasturni milliy demokratik taraqqiyotga xizmat qilishga undaydi. Mustaqillik siyosiy ong va milliy o'zlikni anglash ifodasi sifatida qaralishi mumkin, lekin hozir gap ularning transformasiya jarayonlariga ta'siri ustida ketmoqda.

Milliy o'zlikni anglash bilan siyosiy ong o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjudligini e'tiborga olish muhim. Ammo unda nazariy — konseptual va amaliy — strategik maqsadga muvofiq keladigan vazifalar aniq ko'rsatilmagan, etarli ochib berilmagan. Mazkur dialektik bog'liqlikni ta'kidlash hali etarli emas, ularning nazariy — konseptual va amaliy — strategik vazifalar bilan bog'liqligini aniqlamay, asoslamay muammo echimini topish qiyin. Ayniqsa, siyosiy ong va milliy o'zlikni anglashning transformatsiya jarayonlaridagi o'zaro bog'liqligini, ularning dialektik o'rnini aniqlash, muhim ilmiy ahamiyatga ega vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini quyidagi masalalarni muhokama qilish, tadqiq etish orqali anglash, bilish mumkin.

Birinchisi, siyosiy ong va milliy o'zlikni anglash o'rtasida etimologik, aksiologik farqlar bo'lsa-da, ularni yaxlit strategik maqsadga erishishga yo'naltirilgan, mohiyatan uyg'un voqeliklar sifatida qarash o'rinlidir. Milliy o'zlikni anglash hech qachon "o'zi o'zi uchun" qolganida, "o'zi o'ziga maqsad" bo'lganida, etakchi, tashkiliy kuchga ega bo'lmay, unga tayanmay, strategik maqsadiga erisha olmaydi. O'tgan asrning boshlarida millat kelajagi, taqdiri, istiqloli uchun kurashgan ota-bobolarimiz, buyuk mutafakkir-jadidchilar faoliyatini, kurashlarini keltirish mumkin. Ularning sa'y-harakatlari, tilak va orzulari millat, o'zbek xalqi intilishlariga muvofiq edi; ular tuzgan ijtimoiy-siyosiy partiyalar, maktab va nashriyotlar milliy hayotni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan edi. Lekin mazkur intilishlar orzu tilak bo'lib qolaveradi. Ayb faqat Chor hukumatidami? Ijtimoiy ong yangi g'oyalarni, istiqlol to'g'risidagi fikrlarni, milliy o'zlikni anglashga qaratilgan da'vatlarni eshitishga tayyormidi? Siyosiy ong jadidchilar faoliyatida ustuvorlik qilgan; ular milliy o'zlikni anglash, istiqlol yo'llarini ochiq, dadil ochib berganlar, lekin ijtimoiy ong, omma ular ketidan ergashishga, milliy o'zligini namoyon qilishga, u uchun kurashishga hali tayyor bo'lmagani ko'zga tashlanadi. Demak, jamiyatda transformatsion o'zgarishlar sodir bo'lishining birinchi omili siyosiy ong bilan milliy o'zlikni anglash, uni dadil himoya qilish fenomenlarining uyg'un kelishidadir[1,67].

Ikkinchisi, siyosiy ongning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning obyektiv qonunlarini to'g'ri anglashi, mavjud vaziyatdan to'g'ri xulosa chiqarib olishi, mas'uliyatni o'z ustiga olib, ijodiy, sosiokreativ kuchlarga tayana bilishi, xalqni o'z ideali, g'oyasi, mafkurasi atrofida birlashtirishi va umumiy konsolidasiyani ta'minlashi bilan bog'liqdir. Tarix ko'rsatadiki, taraqqiyot haqida betakror konsepsiyalar, ta'limotlar, millionlab odamlarni birlashtirgan din arboblari ko'p bo'lgan, ammo ularning utopik-futurologik g'oyalari orzu, tilak bo'lib qolavergan[2, 113-169]. Natijada X.A.Maravallning iborasiga ko'ra, "dolzarb reallik" bilan "kelajak paradigmasi" o'rtasidagi ziddiyatlar G'arb dunyosida transformasiya jarayonlarini faollashtirgan[3,211]. Demak, transformasiya jarayonlarining "dolzarb reallik" sifatida kelishi, minglab, millionlab kishilarni harakatga

keltirishi uchun tarixiy taraqqiyotning obyektiv qonunlarini to'g'ri anglash zarur bo'ladi. Eng muhimi shundaki, mazkur qonunlarning o'zi siyosiy ongda milliy o'zlikni anglash sifatida pishib, etilishi lozim. Bu vazifani goho tashqi kuchlarning qarshi harakatlari, ya'ni o'z mavqeyini qo'ldan bermaslik uchun urinishlari tezroq anglashga bois bo'ladi. O'tgan asrning 40-50-yillaridagi hind xalqining Maxatma Gandi boshchiligidagi milliy ozodlik harakatlari yoki SSSR emirilishi arafasidagi milliy o'lkalarning mustaqillik uchun kurashlarini buni tasdiqlaydi. Har ikkala misolda ham tarixiy vaziyat siyosiy ongni va milliy o'zlikni anglash fenomenini dadil harakat qilishga undagan ediki, buni payqamaslik, sezmaslik aslo mumkin emas.

Tarixiy vaziyatni to'g'ri tushunish siyosiy ong va milliy o'zlikni anglash fenomenidan kutilayotgan narsa emas, albatta. Ular xalqni, millatni o'z taqdirini o'zi belgilashi tomon etaklashi, milliy o'zlikni anglash talablariga muvofiq sosiokreativ kuchlarni birlashtirishi, ularning faolligi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishi lozim. Agar ushbu vazifa amalga oshirilmasa, mustaqillik haqida gap-so'zlar, deklarasiya va da'vatlar avvalgidek orzu umid, tilak bo'lib qolishi mumkin.

Uchinchi, monoetnik davlatlar va jamiyatlarda transformasiya tez, samarali, ahillik bilan amalga oshiriladi. Polietnik davlatlar va jamiyatlarda esa transformasiya turli to'siqlar, kelishmovchilik va noto'g'ri talqinlarni keltirib chiqaradi. Bu o'rinda ijtimoiy ongning transformasiyaga monologik va polilogik yondashuvi ko'zga tashlanadi. Natijada ijtimoiy ongda, fikrda o'lchash qiyin jarayonlar kechishi tabiiy holdir[4,22]. Mazkur holni bartaraf etish ko'pincha etnosiyosiy omillar bilan bog'liq. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan etnosiyosat millatlararo munosabatlarni chuqurlashtirish, yurtimizda yashayotgan turli halqlar, millatlar vakillarining ittifoqini mustahkamlash, etnomadaniy hamkorlikni yanada rivolantirishga qaratilgani ijobiy natija bermoqda. Maxsus sotsiologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, polietnik muhitda yashash millatlararo munosabatlarga aks ta'sir etmaydi, balki u ijobiy ahamiyatga ega. 1999-yili respondentlarning 2,4 foizi O'zbekistonda millatlararo munosabatlar ahvolidan qoniqmagan bo'lsa, u 2003-yilga kelib 1,3 foizga, 2010-yil esa 0,4 foizga tushgan.

Millatlararo munosabatlarni “Qoniqarli” deb ko‘rsatgan respondentlar, o‘sha yillar tartibida, 23; 15,2 va 11,1 foizni, “Juda yaxshi” deb baholaganlar 30,6; 26,3 va 32,4 foizni, “Yaxshi” deb ko‘rsatganlar 42,2; 53,8 va 54,8 foizni tashkil etgan[5,17]. Bu o‘rinda ijtimoiy fikr jamiyatda qaror topgan millatlararo totuvlikni, etnosiyosat dagi yutuqlarni ifoda etgani ko‘zga tashlanadi. Agar 1999-yili millatlararo munosabatlarda ma’lum bir muammolar saqlanib qolayotgan (2,4%) bo‘lsa, 2019-yilga kelib ular atigi 0,4 foiz respondentlarni bezovta qilayotgani aniqlangan. Shu bilan birga millatlararo munosabatlarni “Yaxshi” deb baholovchilar 42,2 foizdan 54,8 foizga, “Juda yaxshi” deb ko‘rsatganlar 30,6 foizdan 32,4 foizga oshgan[6]. Demak, ijtimoiy fikr polietnik muhitdagi o‘zgarishlarni ijobiy baholab, haqiqatdan ham O‘zbekistondagi etnosiyosat ning to‘g‘ri olib borilayotganini qayd etadi.

Etnosiyosat dagi ijobiy yutuqlarni 2013-yili Respublika «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnoma natijalari ham tasdiqlaydi. Agar 2006-yili respondentlarning 47,5 foizi, O‘zbekistondagi millatlararo munosabatlardagi ijobiy holat saqlanadi, deb ko‘rsatgan bo‘lsa, 2013-yili mazkur ko‘rsatkich 66,3 foizni 2021-yili mazkur ko‘rsatkich 69,6 foizga ko‘tarilgan[7, 17].

M.X.Ganievaning keltirishicha, respondentlarning 46,2 foizi o‘zini, avvalo, “O‘zbekistonlikman”, 33,0 foizi esa u yoki bu “millat vakiliman” deb hisoblaydi[8,102].

Yuqoridagi maxsus kuzatuvlar mustaqillik yillaridagi ijtimoiy fikrdagi o‘zgarishlarni to‘la aks ettirmaydi, 1991-1998-yillardagi holat haqidagi ma’lumotlar ko‘pincha badiiy-publisistik xususiyatga ega. Shunday bo‘lsa-da, 1999-yildan keyingi o‘zgarishlar ijtimoiy fikrda o‘z aksini topgan deyish mumkin. To‘g‘ri, millatlararo munosabatlardagi holatni “Juda yaxshi” deb baholovchilar fikrlarida “to‘lqinli o‘zgarish” kuzatiladi. 1999-yili ular 30,6; 2001-yili 33,1; 2003-yil 26,3; 2006-yil 23,9; 2007-yil 33,4; 2008-yili 31,7; 2009-yili 32,9; 2010-yili 32,4, 2020-yili 41,3 foizni tashkil etgan[9,110]. Biroq bu o‘zgarishlar tashqi migrasiyaning ta’siri emas, chunki bu yillarda O‘zbekistonga kelib-ketishda keskinlik kuzatilmaydi. Respublikamizda chop etilayotgan gazeta va jurnallarda, radio va

televideniya millatlararo munosabatlarni keskinlashtirishga qaratilgan etnosiyosatni tanqid qiluvchi maqolalar, eshitirishlar ham uchramaydi. Respublikamiz hukumati etnosiyosat ining maqsadi va prinsiplari saqlanib qolgan, ular yurtimizda osoyishtalik, totuvlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan. Bu ijobiy o'zgarishlar O'zbekistonda yashayotgan 136 ta xalq, millat vakillarining ijtimoiy fikriga ta'sir etgan, ularda etnopluralizm sharoitida yashash ko'nikmasini shakllantirgan.

Bugun O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila bo'lib yashamoqda. Ular barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilib, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurishga va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga katta hissa qo'shmoqdalar. Mustaqillik yillarida milliy madaniy markazlarning 120 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga «O'zbekiston Qahramoni» yuksak unvoni berildi[10].

“Ma'lumki, har qanday ijtimoiy voqelik, ayniqsa, ong, g'oya, tafakkur, xullas, subyektiv hodisalarni o'rganayotganda ikki tomonga e'tibor qaratiladi. Birinchisi, obyektning gnoseologik nuqtai nazardan tadqiq etish, ikkinchisi, sotsiologik jihatlarni o'rganishdir. Gnoseologik nuqtai nazardan bilish nazariyasining asosiy masalalarini ijtimoiy idrokka nisbatan o'rganishdir. Sotsiologik yondashuv jamiyatda ma'lum o'rin egallagan va o'ziga xos funksiyalarni bajaruvchi ijtimoiy ongni tahlil qilishdir[11]” Ushbu yondashuvlarni uyg'un qarash ilm-fanni ijtimoiy foydali qiladi, hatto mistik, ezoterik ta'limotlar tarafdori G.I.Gurdjiev ham, “ongni o'zgartirish uchun nimadir qilish, nimadir qilish uchun nimanidir bilish” [12,26-27] kerak, deydi. Ya'ni ong va borliq, subyektivlik bilan obyektivlik o'rtasidagi uyg'unlikni nazarda tutmay transformasiya jarayonlarini anglash qiyin. Biroq bu subyektivlikni yoki obyektivlikni alohida voqelik sifatida tadqiq etishni inkor qilmaydi. “Milliy o'zlikni anglash ijtimoiy ong holati bo'lgani uchun fuqarolik jamiyatini shakllantirishga ideologik, g'oyaviy — tafakkuriy yo'llar orqali ta'sir etadi. Ularni quyidagi yo'nalishlarga ajratishimiz mumkin: 1) Ilmiy-nazariy (proektiv); 2) Milliy-mafkuraviy (ideologik); 3) Milliy-madaniy

(paradigmatal); 4) Ijtimoiy-huquqiy (normativ) va 5) Ijtimoiy-amaliy (pragmativ)”[12,83] V.Qo‘chqorov mazkur yo‘nalishlarni tadqiq etadi, siyosiy ong bilan milliy o‘zlikni anglashning jamiyat transformasiyaciga ta’sirini ochib beradi. Uning fikriga ko‘ra, proektiv, ideologik, paradigmatal, normativ va pragmativ yo‘nalishlar milliy demokratik taraqqiyot modelini, konsepsiyasi ni yaratishga olib keldi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning mohir rahbarligi, o‘tkir siyosati muhim rol o‘ynadi, shuning uchun ham milliy o‘zlikni anglash va jamiyatni yangilashning, islohotlarning “kvintessensial ko‘rinishi, “qaymog‘i” Prezidentimizning asarlarida, nutq, ma’ruza va farmonlarida yaqqol ko‘rinadi.” Fundamental ahamiyatga ega ushbu fikr mustaqillikni mustahkamlashga qaratilgan, ijtimoiy ongdagi o‘zgarishlar unga zid kelmasl igi, balki, aksincha, siyosiy ong, milliy o‘zlikni anglash, milliy-madaniy tiklanish fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga xizmat qilishi zarurligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy-siyosiy ong milliy o‘zlikni anglash fenomenlarining strategik maqsad bilan bog‘liqligi quyidagi so‘zlarda to‘la mujassamdir: “Barqaror bozor iqtisodiyoti, – deydi u, – aniq tashqi siyosat ga asoslangan kuchli huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishi pirovard maqsad bo‘lib qolishi kerak. Shunday jamiyatgina O‘zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an’analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma’naviy-axloqiy kamol topishini ta’minlashi mumkin[14,39]”. Xulosa shuki jamiyat rivojlangani sari milliy qadriyatlarga asoslangan taraqqiyot omillari rivojlanib boradi.

Adabiyotlar.

1. Qo‘chqorov V. Milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy – siyosiy jarayonlar.–Toshkent: Akademiya, 2007.–67-b
2. Мангейм К. Идеология и утопия // Утопия и утопическое мышление.–Москва: Прогресс, 1991. –С. 113-169
- 3.Маравалл Х.А. Утопия и реформизм// Утопия и утопическое мышление.–Москва: Прогресс, 1991. –С. 211.

4. Убайдуллайева Р.А., Ата-Мирзайев О.Б., Каюмов У.К. Сотсиология общественного мнения Узбекистана: теория, методы, практика. –Тошкент: Ижтимоий фикр, 2010. – С. 22;

5. Убайдуллайева Р. Общественное мнение: диалог между обществом и государством // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. — 2014. № 1. – 17-б. [хтtp://филес.тсул.уз/студент/15.пдф](http://филес.тсул.уз/студент/15.пдф)
[хтtp://филес.тсул.уз](http://филес.тсул.уз);

6. Алийева В.Р. Политическая культура молодёжи в условиях демократизации общества в Узбекистане [хтtp://нетесс.ру](http://netess.ru)

7. Убайдуллайева Р. Общественное мнение: диалог между обществом и государством // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. — 2014. № 1. – 17-б

8. Ганиева М.Х. Общественное мнение как фактор развития межнациональных отношений в Узбекистане. –Тошкент: Университет, 2006. – С. 102;

9. Убайдуллайева Р.А., Ата-Мирзайев О.Б., Каюмов У.К. Сотсиология общественного мнения Узбекистана: теория, методы, практика. –Тошкент: Ижтимоий фикр, 2010. – С. 110.

10. [хтtps://lex.uz/doss/3210345](https://lex.uz/doss/3210345)

11. К концепции политической культуры журналиста. [хтtp://елибрарй.ру](http://елибрарй.ру).

12. Гурджийев Г.И. В поисках бытия. Четвёртый путь к Сознанию. – Москва: ООО Книжное изд-во “София”, 2014. – С. 26-27.

13. Qo‘chqorov V. Milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. –Toshkent: Akademiya, 2007. – 83-b.

14. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. –39-b.

JAMIYATNING MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI

Axrarova Sevar Axmedovna,
TDTU, f.f.d (DSc), professor v.b
GQ va KI fakulteti talabasi Ziyayev Farxod

O‘zbekistonning mustaqilligi, demokratik adolatli davlat, milliy davlatchilikning umumbashariy mezonlari, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida bo‘lishi bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tamoyillari asosida oila hamda nikohda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarining mustahkamlanishi, ota-onalarning farzand tarbiyasi, o‘z navbatida, farzandlarning, ota-onalarning moddiy-ma‘naviy ta‘minoti masalasiga alohida e‘tibor qaratgan[1].

Jumladan, ijtimoiy-siyosiy faolligi ayollarning ijtimoiy maqomi va funksiyalari rivojlangan davlatlarning tajribalari kontekstida oila hamda nikohda er va xotinning mulkiy hamda nomulkiy munosabati, farzand tarbiyasidagi hamkorligi, ayol va erkakning gender doirasida manfaatlari huquqiy himoyalangan. Shu bilan birga onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishi, oliy darajada tibbiy yordam chaqaloq va bolalar o‘limini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan[2].

Yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faol qatlamga aylanishi – milliy darajada xalqaro norma va mezonlarning ustuvorligini ta‘minlash, O‘zbekistonning BMTda xalqaro konvensiya va shartnomalarga amal qilishi bilan bog‘liq[3]. Jumladan, mazkur konvensiya ayollarning ta‘lim va tarbiya, bandlik va sog‘liqni saqlash sohalaridagi faol hayotini kafolatlash uchun a‘zo davlatlar “...mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotida xotin-qizlar kamsitilishiga barham berish yuzasidan barcha tegishli choralarni ko‘radilar”.

Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvining o‘ziga xos ta‘siri xotin-qizlarning NNTning faoliyatida namoyon bo‘ladi: “Sharq ayoli” xalqaro ayollar jamg‘armasi, “Tadbirkor ayol” va “Hayot uchun” uyushmalari, “Ayollar kengashi” kabi tashkilotlar sog‘lom oilani shakllantirish, huquqiy himoya qilish, tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash orqali ma‘naviy va

intellektual jihatdan o‘stirish bilan” barqaror taraqqiyotga samarali ijobiy ta’sir etmoqda[4]. Natijada, tadqiqotchi respublikamizda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvining o‘ziga xos tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalari va ishlab chiqarishning osiyocha munosabatlaridan yangi bosqichga transformatsiyasining ijtimoiy modellashuvini kuzatgan.

O‘zbek jamiyatida ayollarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvining muhim jihatini O‘zbekiston Prezidentining “... Xotin-qizlarning jamiyatdagi nufuzini oshirish, qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, salomatligini mustahkamlash, ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha olib borayotgan keng ko‘lamli ishlar”i islohotlarga asos qilib olgan.

O‘zbekistonda “Xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishi hamda boshqaruvidagi rolini kuchaytirish, ularning siyosiy huquqlarini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbek ayolining ismi-sharifi yoniga “O‘zbekiston Qahramoni”, “Deputat”, “Senator”, “Vazir”, “Vazir o‘rinbosari”, “Akademik”, “Olima”, “Tadbirkor”, “Direktor” atamalari qo‘shib aytilishi” bilan birga aholining 50 foizini ayollar tashkil etishini muallif dalillaydi[5].

Zero, statistik ma’lumotlar “...ayollarning 13 nafari “O‘zbekiston Qahramoni”, 64 nafari “Nihol” unvoni va mukofoti, Konstitutsion Sudda 20 foiz, Oliy Sudda 14,6 foiz, ishlab chiqarishda 42,8 foiz, qishloq xo‘jaligida 75,3 foiz, ta’lim, madaniyat va ilm-fan sohasida 72,9, sog‘liqni saqlashda 75,3 foizni tashkil qilishi” ham ayollar ijtimoiy faolligida muhim dinamik ko‘rsatkichlardir[6].

O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi birinchi bosqichda ayollarni ijtimoiy-siyosiy faollashtirishda etakchi rolini huquqiy-normativ aktlarda mustahkamlash amaliyoti bilan ayollarning respublika va xalqaro siyosiy maydonda o‘zlarining ta’lim hamda biznes-ledi yutuqlariga erishdi. Natijada, yurtimizning saylov qonunchiligida Oliy Majlisda deputatlik mandatining 30 foizini ayollarga kvotalash tajribasi ham muammoning ijobiy echimidir. Davlat siyosatining an’anaviy modelidan “Harakatlar va

Taraqqiyot strategiyasi” dasturiy yo‘nalishlarida xotin-qizlarning oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligida yanada faol ish yuritishi belgilandi.

Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvi ishida yosh avlodni komil inson, barkamol shaxs etib tarbiyalashda respublika hukumatining besh muhim tashabbusi, uning yoshlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, yoshlarni, ayniqsa, qizlarning ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tiborni maktabgacha ta’lim tizimidan boshlash belgilab berildi. Yosh avlod tarbiyasi Temurbeklar, al-Xorazmiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Erkin Vohidov nomidagi iqtidorli yoshlar maktablari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, ayollarning ijtimoiy faollashuvi uchun 302 ta maktabgacha ta’lim va bolalar bog‘chalari soni 1400 taga ko‘payib, umumiy hajmi 6 ming 367 taga etdi.

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini muhofazalashda muloqot, xalqning dardu tashvishlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini o‘rganish uchun O‘zbekiston Prezidentining Virtual hamda Xalq qabulxonalarining tashkil etilishi ham ijtimoiy sohadagi innovatsiya hisoblanadi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 7-fevraldagi yig‘ilishida Xotin-qizlar manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning samarali mexanizmi sifatida “Ayollar” va “Yoshlar”, kambag‘allikni tugatish bo‘yicha “Temir” daftarlarini yuritish ko‘rsatmalari tadqiqotning amaliy jihati bo‘lsa, xotin-qizlar davlat hokimiyati va boshqaruvi, sud-huquq, qishloq xo‘jaligi, neft va gaz, kimyo, konchilik, energetika, qurilish, arxitektura, yo‘l-transport kommunikatsiyasi, to‘qimachilik, turizm, axborot texnologiyalarini rivojlantirishda faol ish yuritishi ijtimoiy qadriyat hisoblanadi[7].

Maqolada 6 nafar akademik: M.S.Abdullaxo‘jayeva, S.Sh.Rashidova, A.I.Glushenkova, M.I.Mavloniy, R.A.Ubaydullayeva, M.F.Obidova va 660 nafar fan doktori, “Olimalar” uyushmasining a‘zolari havola etilgan. Shu bilan birga, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida 21, Senatda esa 17 nafar ayollarning faoliyati AQSH, Fransiya, Italiya, Rossiya kabi mamlakatlarning jami ko‘rsatkichlaridan ancha yuqoridir. Analogik holatni mahalliy kengashlar deputatlarining 35 foizi, ijtimoiy sohadagilarning 82

foizini ayollar, MFYning 80 foizdan ortig'ini ayollar tashkil etishi kuzatilmoqda.

Asosiy Qomusimizning alohida bobi oilaga bag'ishlanib, ayolning maqomi huquqiy mustahkamlangan. Masala gender tengligi stereotiplarining echimida nihoyatda ehtiyotkorlikning talab etilishi, qizlarning emansipatsiyasi (o'z ozodligi va erkinligi) murakkab jarayon ekanligi, o'zbek ayollari tabiatan isyonkor emasligi, ko'p asrlik oilaviy sabr-toqatlilik axloqi ustuvor etnopsixologik omil ekanligi so'rovlarda aniqlangan.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda, ularning ish bilan bandligining ta'minlanishida "Ayollar daftari" bilan cheklanmasdan, balki ishsizlarni bandligini ta'minlash bo'yicha haqqoniy echim topish, hatto ayollarni muhofazalash maqsadida xorijiy mamlakatlarga borib ishlash muammosini ham alohida "Nizom" asosida tartibga solishni taklif etish muhimdir. O'zbek jamiyatida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, jahon hamjamiyatida xalqimizning etakchilardan biri bo'lishga loyiqligi milliy barqarorlik bilan ham izohlanadi. Tadqiqotda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi jamiyatda tub islohotlar o'tkazish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, demokratik-huquqiy davlat yaratish jarayonidagi qat'iy harakatlarda ayollar ishtiroki tushuniladi. Ularning alohida yoki jamoaviy ishtiroki qonun bilan muhofazalanadi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi oila, jamiyatning muammolari bilan uyg'undir. Ayni vaqtda, ayolning farovonligi, oilaviy gender munosabatlari tarixiy, madaniy-huquqiy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Gender tengsizligining eng ko'p uchraydigan holati oilada yuz berishi bilan muammoni hal qilishning murakkablashuvini tadqiqotlar bilan dalillash mumkin[8]. Oila munosabatlaridagi tengsizlikni aniqlash va ekspertiza qilish mumkinligi mazkur munosabat bilan oila a'zolarining shaxsiy hayoti o'rtasida chegara o'tkazilishini taqozo etadi.

Feminizm, gender tengligi kabi masalalar ko'hna Sharq uchun ijtimoiy-ilohiy me'yor va mezonlarda shakllantirilgan. Dastavval bu bahsga "Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq, pok xotinlar oyog'ining izi", deya Navoiy bobomizning so'zlarini misol kilib keltirish mumkin. Feminizm

xotin-qizlarning erkaklar bilan tengligi, davlat boshqaruvida ishtirok etish “sufrajist” (erkaksifat ayol), ya’ni saylov huquqi asosida vujudga kelgan. Shu bilan birga rivojlangan davlatlarning o‘zga davlatlarga ma’naviy tahdidida qurol sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

XX asr feminizm va gender tengligi sohasida ayollarning ijtimoiy-madaniy hayotida tub burilish asri bo‘lganligini e’tirof etish mumkin. Bular o‘z davlatlarida bosh vazir lavozimida faoliyat ko‘rsatgan Indira Gandi, Margaret Tetcher, Angela Merkel, Benazir Bxutto, Tansu Chiller va mamlakatning siyosiy faoliyatida faol ishtirok etayotgan M.Olbrayt, G.Staravoytova, T.Dyachenko, I.Hakamada, G.Matviyenko, T.Norboyeva, D.G‘ulomova, D.Toshmuhamedova, S.Rashidova va boshqalardir. Hattoki, eng rivojlangan demokratik mamlakatlarda ham xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta’minlash borasida etarli darajada muammolar mavjudligi ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – B. 14

2.O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.Toshkent: O‘zbekiston, 1998. – B. 234.

3.Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida Konvensiya // <https://lex.uz/docs/2685528>

4.Akramova Sh. Qizlar tarbiyasi –ijtimoiy-pedagogik hamkorlik obyekti sifatida // O‘zbekistonda yoshlar siyosatini amalga oshirishning dolzarb masalalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – B. 176.

5.Narbayeva T.K. Ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya uyg‘unligini ta’minlashda xotin-qizlarning o‘rni // Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili. – Toshkent: TDIU, 2019. – B. 5.

6.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi risolasi. – Toshkent: TDIU-Ma’naviyat, 2017. – B. 181.

7.Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – B. 18.

8.Niyazova G.M. Gender tenglikni ta’minlashning huquqiy jihatlari // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 2017. – № 1. – B. 30-33.

YOSHLARDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Ashurov Abror Uralovich,

*falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,
University of Business and falsafa fanlari*

Zamonaviy sivilizatsiyaning hozirgi bosqichi insoniyatdan ekologik ongni shakllantirishni, ekologik xavfsizlikni ta’minlashni global ustuvor vazifa sifatida qo‘ymoqda. Chunki ekologik inqiroz faqat tabiiy muhitning buzilishi emas, balki insoniy qadriyatlarning qadrsizlanishiga olib kelayotgan chuqur ijtimoiy-axloqiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois ekologik tafakkurni shakllantirish jarayoni shaxs ongi, intellekti va qadriyatlar tizimi orqali amalga oshadi. Insonning tabiat bilan o‘zaro munosabati, avvalo, uning qadriyatlar tizimida qanday o‘rin egallashi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, bugungi falsafiy tahlil milliy qadriyatlarning ekologik ma’nosini chuqurroq o‘rganishni, yoshlar ongida ekologik mas’uliyatni milliy tafakkur bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Chunki ekologik muammolar aslida insonning o‘zini tabiatdan ajratib qo‘yganlik holatidan, ya’ni “madaniyat – tabiat” oppozitsiyasining kuchayishidan kelib chiqmoqda.

Ekologik ongni shakllantirishda qadriyatlar masalasi markaziy o‘rinda turadi. Shaxs ekologik tafakkuri faqat ekologik bilimlar bilan emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ichki mohiyatini anglash, ularni hayotiy amaliyotga tatbiq etish orqali shakllanadi. Shaxsda ekologik idrok, tasavvur, his-tuyg‘u va e’tiqod uyg‘unlashgan taqdirdagina u haqiqiy ekologik madaniyat egasiga aylanadi. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot

bosqichida bu masalaga davlat siyosati darajasida e'tibor kuchaymoqda. Ekologik harakatlar, ta'lim tizimida ekologik tarbiya, ommaviy madaniyat vositalarida tabiatni sevishga chaqiriqlar — bularning barchasi yoshlarning ekologik dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “tabiatga e'tibor ma'muriy buyruq bilan emas, balki inson qalbida tabiatga mehr uyg'otish orqali erishiladi”.[1]. Bu g'oya ekologik madaniyatni shakllantirishning ma'naviy-aksiologik mohiyatini chuqur ifodalaydi. Zero, tabiatni sevish – bu nafaqat ekologik masala, balki insonning o'zligini anglash, yaratuvchilik mohiyatini his etishning falsafiy jarayonidir.

Shaxs ekologik ongi shakllanishida tarixiy va madaniy kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xalqning tabiatga munosabati uning mentaliteti, e'tiqodi, urf-odatlar, turmush tarzi bilan uzviy bog'liq. Shu jihatdan o'zbek milliy qadriyatlari hisoblangan tabiatga mehr, o'simlik va hayvonot dunyosiga g'amxo'rlik, erga ehtirom – qadimdan xalq tafakkurida chuqur ildiz otgan.

Globalashuv jarayonlari esa yoshlarning tabiatdan ma'naviy “begonalashuvi” [2]ni kuchaytirayotgan omillardan biridir. Buning natijasida ekologik ongsizlik, iste'molchilik kayfiyati va texnosentrik qarashlar kuchaymoqda. Shu sababli ekologik madaniyatni milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda rivojlantirish bugungi kunning aksilogik va gumanistik muammosidir.

Ekologik dunyoqarashning markazida insonning tabiat oldidagi axloqiy mas'ulligi turadi. Insonning ekologik ruhiyati, ya'ni tabiatga nisbatan mehr, rahm-shafqat, daxldorlik hislari faqat ekologik emas, balki ma'naviy sifatdir. Shaxs o'zini tabiatdan ajralgan emas, balki uning bir bo'lagi sifatida anglaganida ekologik tafakkur barqarorlik kasb etadi.

O'zbekistonlik olimlardan biri E.S. Hoshimova ekologik madaniyatni shakllantirishda ta'lim va e'tiqod uyg'unligiga e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, ekologik tarbiya nafaqat bilim berish, balki e'tiqod, ishonch va amaliy faoliyatga tayyorgarlikni ham o'z ichiga oladi. “Faol ekologik mavqening shakllanishida shu yo'nalishdagi ta'lim-tarbiya sohalarining o'zaro

bogʻlanishi juda katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda ekologik tarbiya tabiatga nisbatan nazariy qarashlarni shakllantirishdangina iborat boʻlmasdan, shu bilan birga eʼtiqod shakllanishini va amaliy faoliyatga tayyorgarlikni ham nazarda tutadi”. [3]. Shu maʼnoda, ekologik madaniyat faqat nazariy bilimlar tizimi emas, balki insonning eʼtiqodiy holati, amaliy hayot falsafasidir.

Tarixiy manbalarda ham tabiat bilan uygʻun yashash gʻoyasi muhim oʻrin tutgan. Qadimgi Hind va Xitoy falsafasida animistik dunyoqarash – tabiatni tirik mavjudot sifatida eʼzozlash tamoyili hukm surgan. Islom falsafasida esa inson “xalifa” sifatida tabiatga masʼuliyatli yondashuvchi mavjudot deb talqin qilingan. Bu qadimiy qarashlar bugungi ekologik tafakkur uchun gʻoyaviy tayanch boʻlib xizmat qiladi. Ammo sanoatlashgan jamiyatda tabiat utilitar qadriyatga aylantirildi, bu esa ekologik inqiroz va axloqiy qadriyatlar tanazzulini keltirib chiqardi. Shuni eʼtirof etish kerakki, Shu bois ekologik masalalarga faqat texnik yoki iqtisodiy nuqtai nazardan emas, balki falsafiy va axloqiy pozitsiyadan yondashish bugungi insoniyatning dolzarb vazifasidir.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, shaxs ekologik madaniyatini shakllantirish jarayoni nafaqat ekologik taʼlim va axborot bilan, balki maʼnaviy merosni zamon bilan uygʻun rivojlantirish, qadimiy qadriyatlarni yangi ilmiy paradigmalarda qayta talqin qilish orqali amalga oshiriladi. Ekologik dunyoqarash tarixida shakllangan maʼnaviy-madaniy merosni ijodiy tahlil qilish, qadriyatlar oʻrtasidagi vorislikni anglash ekologik tafakkurning zamonaviy shaklini mustahkamlaydi. Zero, har qanday tarixiy davrda “maʼnaviy-ruhiy tiklanish insonning erga va uning boyliklariga boʻlgan munosabatini oʻz ichiga olishi lozim”. [4]. Ekologik ongning shakllanishida milliy urf-odatlar, diniy eʼtiqod, madaniy tajriba va ilmiy tafakkurning uygʻunligi muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. “Bugungi kunda odamlarda ekologik bilimlarning etarli emasligi, baʼzilar umuman yoʻqligi bilinib qolmoqda. Koʻpchilik ekologik muammolar mavjudligidan xabardor, baʼzilar kechiktirib boʻlmas qarorlar qabul qilish kerakligini, atrof-muhitni muhofaza qilish yoʻlida tub burilish zarurligini talab qilishsa, boshqa toifadagi odamlar buni keragi yoʻq deb oʻylashadi”. [5]. Bugungi

globallashtirish davrida ekologik dunyoqarash paradigmasi o'zgarib, insoniyatning tabiat bilan munosabatiga yangi etik, aksiologik va gumanistik mazmun kirmoqda. Shaxs ekologik madaniyatining yuksalishi insoniyatning o'zini anglash jarayonining yangi bosqichidir. Bu jarayon milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali, tabiatni "foydalanish obyekti" emas, balki axloqiy hamkor sifatida idrok etish madaniyatini shakllantiradi.

Umuman olganda, yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirish bu oddiy tarbiyaviy jarayon emas, balki falsafiy-aksiologik transformatsiyadir. Unda milliy qadriyatlar – ruhiy asos, umuminsoniy qadriyatlar esa yo'nalish beruvchi printsip vazifasini bajaradi. Insonda tabiatga mehr uyg'otish, uni anglash va asrash tuyg'usi – kelajak avlod barqarorligini kafolatlaydigan eng muhim insoniy qadriyatlardan biridir.

Demak, ekologik madaniyat insoniyat tafakkurining yangi bosqichi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning sinteziga asoslangan axloqiy uyg'onish jarayonidir.

Yuqorida keltirilgan o'rganishlar asosidagi tahlillar natijasida quyidagi xulosalar olindi:

Birinchidan, milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma'naviy birligini mustahkamlovchi omildir. Ular o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, diniy e'tiqodlar va axloqiy me'yorlarida mujassamdir. Tarixiy ildizlar qadimiy turkiy davlatchilik, islom sivilizatsiyasi va Sharq ma'rifati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, milliy o'zlikni anglashning asosiy manbaiga aylangan;

Ikkinchidan, qadriyatlar faqat an'anaviy meros emas, balki falsafiy tafakkur mahsulidir. Sharq mutafakkirlari – Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Beruniy, Yassaviy singari allomalar qadriyatlarni inson kamolotining mezoni sifatida talqin etganlar. Ularning asarlarida axloq, adolat, ezgulik va komillik g'oyalari qadriyatlarning falsafiy asosi sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda bu meros zamonaviy ijtimoiy-falsafiy izlanishlar uchun manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, axborotlashgan va globallashtirish dunyoda milliy qadriyatlar g'oyaviy bosim, madaniy assimillatsiya va ommaviy madaniyat

xavflariga duch kelmoqda. Shu sababli ularni zamonaviy talqin qilish, yoshlar ongida milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish, raqamli madaniyat sharoitida milliylik va universallik uyg'unligini topish bugungi ilmiy izlanishlarning dolzarb yo'nalishidir;

To'rtinchidan, milliy qadriyatlar tizimida oila, din, vatanparvarlik va insoniylik g'oyalari bir-biri bilan uzviy bog'langan. Oila – qadriyatlar shakllanadigan birlamchi muhit; din – ularni ma'naviy asos bilan mustahkamlaydi; fuqarolik burchi esa ularni ijtimoiy hayotda ro'yobga chiqaradi. Shu bois, ularni falsafiy va sotsiologik tahlil etish, jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini aniqlash muhim nazariy yo'nalishdir.

Beshinchidan, Yangi O'zbekiston davrida milliy qadriyatlarni tiklash va zamon talablari asosida yangilash jarayoni davom etmoqda. Bu jarayonda "milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili, "O'zbek modeli", "Yangi ma'naviyat" konsepsiyasi kabi g'oyalar muhim rol o'ynamoqda. Falsafiy yondashuv qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, ularni yangicha mazmun bilan boyitish, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1- jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. https://t.me/Press_Secretary_Uz/6163
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari – Toshkent.: O'zbekiston, 1999. B. – 37.
3. Mamashokirov S. Vahimami yoki haqiqat. – Toshkent.: Iqtisodmoliya, 2012. B. – 17.
4. Hoshimova E.S. Ekologiya muammosida global va zonal munosabatlar. – Toshkent.: Fan, 1986. B. – 32.
5. Ashrapov M. Ekologik dunyoqarash.// "O'zbekiston ekologiya xabarnomasi" 2005. 2-son.
6. O'zbekiston hududi shiddat bilan s'ho'llanishda davom etmoqda: sabab, oqibat va echimlar// kun.uz, 2021, 27-iyun

MILLIY QADRIYATLAR VA MODERNIZATSIYA O'RTASIDAGI UYG'UNLIK: FALSAFIY YONDASHUV

Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich,

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

University of Business and Science Toshkent filiali

Globallashuv va modernizatsiya jarayonlari insoniyat taraqqiyotining ajralmas jihati sifatida dunyo xalqlarining o'zaro integratsiyasini, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarining kengayishini ta'minlamoqda. Biroq bu jarayonlar bilan bir qatorda milliy qadriyatlarning saqlanishi va rivojlantirilishi masalasi har bir xalq uchun dolzarb bo'lib qoldi. Chunki globallashuv o'z mohiyatiga ko'ra, yagona madaniy standartlar va ommaviy axborot oqimlari orqali milliy o'zlikni so'ndirish xavfini ham yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlar jamiyatning ma'naviy-axloqiy tayanchi, millatning identifikatsiya manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

“Milliy qadriyatlar – bu xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, diniy e'tiqodlari, ma'naviy mezonlari va madaniy merosining ifodasidir. Ular ijtimoiy barqarorlik, avlodlar o'rtasidagi uzviylik va fuqarolarning ma'naviy immunitetini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi”[1:804]. Modernizatsiya, ya'ni jamiyatning yangilanishi jarayoni aynan shu qadriyatlarga tayanmog'i lozim, aks holda islohotlar ma'naviy asosdan mahrum bo'lib qoladi. Shuning uchun ham O'zbekiston misolida modernizatsiya jarayonlari milliy an'analarga, tarixiy xotiraga va ma'naviy merosga tayanib amalga oshirilayotgani bejiz emas.

Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarning ahamiyati, bir tomondan, madaniy identifikatsiyani saqlab qolish, ikkinchi tomondan esa, universal insoniy qadriyatlar bilan uyg'unlikda yashash zarurati bilan belgilanadi. “Milliy o'zlikni asrashning zamonaviy shakllari – raqamli madaniyat, ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya, milliy san'at va madaniyatni global maydonga integratsiya qilish orqali ifodalanishi muhim ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi”[2:478]. Globallashuv va modernizatsiya jarayonlarida milliy qadriyatlar nafaqat o'tmish merosi, balki kelajak

taraqqiyotining ma'naviy asosi sifatida ham e'tirof etilishi lozim. Ular millatni o'zligini anglashga, zamon bilan hamnafas bo'lishga va shu bilan birga o'z ildizlariga sodiq qolishga chorlaydi.

“Modernizatsiya jarayonlari jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarini yangilash, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv va tafakkur madaniyatini o'zgartirishni nazarda tutadi”[3:10]. Biroq modernizatsiya faqat texnik yoki tashkiliy jarayon emas, u, eng avvalo, ma'naviy negizga ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Chunki insonning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari va ma'naviy qadriyatlari yangilanish jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil sanaladi. Agar modernizatsiya faqat tashqi shaklda, ya'ni iqtisodiy va texnik darajada amalga oshirilsa, lekin ma'naviy tayanchlardan uzilsa, u holda jamiyatda maqsadsizlik, befarqlik va qadriyat inqirozi yuzaga keladi. Shu sababli modernizatsiya jarayonlarida ma'naviy qadriyatlarga tayanish zaruriy shartdir.

Ma'naviy qadriyatlar – bu insonni yuksaklikka, adolat, halollik, vatanparvarlik, bag'rikenglik va insonparvarlik kabi umuminsoniy fazilatlarni qadrlashga undaydigan mezonlardir. Ular modernizatsiyaning insonparvar yo'nalishda kechishini, texnik taraqqiyot bilan bir qatorda axloqiy taraqqiyotni ham ta'minlashni kafolatlaydi. Ayniqsa, yosh avlod ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali modernizatsiya jarayonlari millatning o'zligini yo'qotmasdan, balki uni yangi bosqichga olib chiqadi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, ma'naviy qadriyatlar islohotlarning ichki mazmunini belgilaydi. “Yangi O'zbekiston” fenomenida “modernizatsiya jarayonlari aynan ma'naviy uyg'onish, milliy tiklanish va xalq manfaatlariga tayanish bilan uyg'un olib borilmoqda”[4:27]. Bu esa yangilanishning ijtimoiy asoslarini mustahkamlaydi va uni barqaror rivojlanish yo'liga yo'naltiradi. Modernizatsiya jarayonlarida ma'naviy qadriyatlarga tayanish – bu jamiyatning texnik yangilanishini ma'naviy yangilanish bilan uyg'unlashtirishdir. Faqat ana shunda modernizatsiya inson manfaatiga

xizmat qiluvchi, adolat va taraqqiyotga yo'naltirilgan ijtimoiy harakatga aylanadi.

Qadriyatlar jamiyat hayotining barqarorligini, ijtimoiy munosabatlarning uyg'unligini va ma'naviy muhitning sog'lomligini ta'minlaydigan asosiy omillardandir. Ular insonlarning xulq-atvorini, e'tiqodini va ijtimoiy qarashlarini tartibga soluvchi ichki mezon sifatida xizmat qiladi. Qadriyatlar tizimi jamiyatda "nima yaxshi" va "nima yomon", "nima to'g'ri" va "nima noto'g'ri" degan savollarga javob beradi, shu orqali ijtimoiy muvozanatni saqlaydi. Bu jihatdan ular jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy stabilizatori vazifasini bajaradi. "Qadriyatlar ijtimoiy hayotda tartib va uyg'unlikni ta'minlaydi. Har bir jamiyatning barqaror rivojlanishi fuqarolarning umumiy qadriyatlarga tayanishiga, ya'ni axloqiy me'yorlarga rioya etishiga bog'liq"[5:126]. Masalan, adolat, halollik, vatanparvarlik, bag'rikenglik kabi qadriyatlar ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi, nizolarni kamaytiradi va hamkorlik muhitini yaratadi. Shu orqali qadriyatlar ijtimoiy tizimning ichki barqarorligini saqlashda "axloqiy tartibot mexanizmi" sifatida namoyon bo'ladi.

Qadriyatlar insonning ma'naviy dunyosini shakllantirib, uni jamiyatdagi o'z o'rnini anglashga undaydi. Ma'naviy qadriyatlarga tayanish insonni mas'uliyatli, vijdonli va ezgulikka yo'naltirilgan shaxsga aylantiradi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlaydi. Agar qadriyatlar tizimi zaiflashsa, jamiyatda maqsadsizlik, befarqlik va axloqiy tanazzul yuzaga keladi. Qadriyatlar milliy va umuminsoniy birlashuvning negizi hisoblanadi. Ular avlodlar o'rtasidagi uzviylikni, madaniy merosni saqlashni hamda global o'zgarishlar sharoitida milliy o'zlikni asrashni kafolatlaydi. Shu bois qadriyatlar nafaqat ma'naviy boylik, balki ijtimoiy tizimning barqarorlik omilidir. Qadriyatlar jamiyatni bir butun holda ushlab turuvchi ma'naviy tayanchdir. Ular ijtimoiy hayotda tartib, hamjihatlik va barqarorlikni ta'minlab, inson va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni saqlashda asosiy stabilizator vazifasini bajaradi.

"Modernizatsiya" atamasi lotincha *modernus* — "zamonaviy", "hozirgi davrga oid" so'zidan olingan bo'lib, u jamiyatning eskirgan tuzilmalaridan yangilanish, ijtimoiy tizimni, tafakkurni va qadriyatlarni

zamon talablariga moslashtirish jarayonini bildiradi. Falsafiy nuqtai nazardan modernizatsiya inson tafakkurining o'zgarishi, dunyoqarashning yangilanishi, aql va ilmiy tafakkur ustuvorligiga asoslangan madaniy burilish sifatida talqin qilinadi. U insonni an'anaviy dunyoqarash doirasidan chiqarib, ratsional fikrlash, tanqidiy tafakkur va erkinlik tamoyillariga yo'naltiradi. Shu jihatdan falsafiy modernizatsiya – bu insonning o'zini va borliqni yangicha anglashga intilishi, ma'naviy-axloqiy taraqqiyot orqali jamiyatni yangilashga bo'lgan urinishdir.

Sotsiologik yondashuvda esa modernizatsiya ijtimoiy tizimning strukturaviy o'zgarishi, ya'ni an'anaviy jamiyatdan sanoatlashgan, urbanizatsiyalashgan va demokratik jamiyatga o'tish jarayoni sifatida izohlanadi. Sotsiologlar (T. Parsons, S. Huntington, R. Inglehart va boshqalar) modernizatsiyani iqtisodiy rivojlanish, ta'lim darajasi, siyosiy islohotlar, kommunikatsiya vositalarining kengayishi va fuqarolik ongining o'sishi bilan bog'laydilar. Unga ko'ra, modernizatsiya jamiyatning faqat tashqi ko'rinishini emas, balki uning ijtimoiy ongini, qadriyatlar tizimini ham tubdan o'zgartiradi.

Demak, falsafiy talqinda modernizatsiya – inson tafakkurining yangilanish jarayoni bo'lsa, sotsiologik talqinda u jamiyat tizimining tuzilmaviy o'zgarishidir. Ikkala yondashuv bir-birini to'ldiradi: falsafiy modernizatsiya inson ongini o'zgartirsa, sotsiologik modernizatsiya shu o'zgarishlarning ijtimoiy shaklga aylanishini ta'minlaydi. Shu tariqa, modernizatsiya jamiyatning moddiy va ma'naviy yangilanishini uyg'unlashtiruvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayondir. Modernizatsiya jarayoni insoniyat tarixida eng chuqur ijtimoiy o'zgarishlarni yuzaga keltirgan hodisalardan biridir. U jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tuzilmasini yangilash bilan birga, madaniy va ma'naviy hayotga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Modernizatsiya mohiyatan insonning tafakkuri, turmush tarzi va qadriyatlar tizimining o'zgarishini bildiradi.

Modernizatsiya madaniyatning dinamik rivojlanishini ta'minlaydi. Yangi texnologiyalar, axborot oqimlari, global kommunikatsiya vositalari madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuchaytiradi. Natijada milliy madaniyatlar o'zaro integratsiyalashib, global madaniyat shakllanadi.

Biroq bu holat bir tomondan ijodiy o'sish uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchi tomondan, madaniy unifikatsiya – ya'ni madaniyatlarning bir xillashuvi xavfini tug'diradi. Shu sababli milliy madaniyatni asrash, uni zamonaviy texnologik imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirish bugungi kunning muhim vazifasidir.

Modernizatsiya ma'naviy qadriyatlar tizimiga yangicha mazmun olib kiradi. An'anaviy jamiyatlarda ma'naviyat asosan diniy e'tiqod, urf-odat va axloqiy me'yorlarga tayanib shakllangan bo'lsa, modernizatsiyalashgan jamiyatda inson individual erkinlik, mustaqil fikr va tanqidiy tafakkurga asoslangan ma'naviyatga yo'naltiriladi. Bu jarayon shaxsiy mas'uliyat, vijdon erkinligi, bag'rikenglik va inson huquqlarining ustuvorligini targ'ib etadi. Shu bilan birga, haddan ziyod individualizm va iste'molchilik kayfiyatining kuchayishi ma'naviy tanazzul xavfini ham yuzaga keltiradi. "Modernizatsiya qadriyatlarning qayta baholanishiga olib keladi. An'anaviy jamiyatlarda qadriyatlar avloddan-avlodga o'tuvchi barqaror tizim sifatida mavjud bo'lgan. Modernizatsiya esa ularni yangilanish, tanqidiy tahlil va qayta shakllantirish jarayoniga tortadi"[6:79]. Masalan, gender tengligi, inson huquqlari, ekologik mas'uliyat kabi qadriyatlar zamonaviy davrda yangi axloqiy mezon sifatida qaror topdi. Shu bilan birga, ba'zi tarixiy va milliy qadriyatlarning zamonaviy sharoitda yo'qolib borishi ma'naviy bo'shliqni keltirib chiqarishi mumkin.

Modernizatsiya madaniy identifikatsiyani sinovdan o'tkazadi. Ommaviy madaniyat va global axborot makoni insonning o'z milliy ildizlaridan uzoqlashishiga sabab bo'ladi. Bunga qarshi, zamonaviy jamiyatlarda "milliy tiklanish" va "ma'naviy uyg'unish" g'oyalari paydo bo'lib, global yangilanish jarayonini milliy qadriyatlar asosida kechirish zaruriyati kuchaymoqda. O'zbekiston misolida bu holat "Yangi O'zbekiston – yangicha tafakkur" tamoyili bilan ifodalangan bo'lib, unda modernizatsiya jarayonlari milliy o'zlik, ma'naviyat va madaniy meros bilan uyg'un olib borilmoqda. Modernizatsiyaning madaniyat, ma'naviyat va qadriyatlarga ta'siri murakkab, ko'p qirrali va dialektik jarayondir. U bir tomondan inson tafakkuri va jamiyat madaniyatini yangilasa, ikkinchi tomondan, an'anaviy qadriyatlar tizimini qayta sinovdan o'tkazadi. Shu

bois modernizatsiya jarayonlarini ma'naviy barqarorlik va milliy qadriyatlarga tayanib amalga oshirish jamiyatning uyg'un rivojlanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy davrda globallashuv, texnologik taraqqiyot va modernizatsiya jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan o'zgartirib yubordi. Bu jarayonlar inson tafakkurining yangilanishi, hayot tarzining o'zgarishi va yangi qadriyatlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy modern tendensiyalar o'rtasida muayyan qarama-qarshiliklar ham vujudga keldi. Bu qarama-qarshiliklar madaniyat, axloq, ijtimoiy munosabatlar va ma'naviyat sohalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Birinchidan, an'anaviy qadriyatlar barqarorlik va davomiylikka, modern tendensiyalar esa yangilanish va o'zgaruvchanlikka tayanadi. An'anaviy qadriyatlar — bu asrlar davomida shakllangan, jamiyat hayotini tartibga soluvchi axloqiy, diniy va madaniy me'yorlar tizimidir. Ular jamiyatning ma'naviy tayanchini tashkil etadi. Modern tendensiyalar esa yangilikka intilish, erkin fikr, individualizm va ratsional tafakkurni ilgari suradi. Natijada, jamiyatda "o'tmishga sodiqlik" bilan "kelajak sari intilish" o'rtasida muvozanatni saqlash zaruriyati tug'iladi.

Ikkinchidan, axloqiy qadriyatlar sohasida ham farqlar chuqurdir. An'anaviy jamiyatlarda axloqiy me'yorlar ko'proq diniy e'tiqod, urf-odat va jamoaviy mas'uliyat asosida shakllangan. Zamonaviy jamiyatda esa axloqiy mezonlar individual tanlov, shaxsiy erkinlik va inson huquqlariga asoslanadi. Bu holat bir tomondan shaxs erkinligini kengaytirsada, ikkinchi tomondan, ma'naviy beqarorlik, relativizm va iste'molchilik kayfiyatining kuchayishiga olib keladi.

Uchinchidan, madaniyat sohasida an'anaviylik milliy o'zlikni saqlashni ko'zlasa, modernizm universallikka, ya'ni dunyoviy madaniyat bilan uyg'unlashuvga intiladi. Ommaviy madaniyatning kengayishi, internet va raqamli texnologiyalar ta'sirida milliy madaniyatlar o'ziga xosligini yo'qotish xavfini boshdan kechirmoqda. Shu bois bugungi kunda "milliylikni saqlagan holda modernlashish" g'oyasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

To'rtinchidan, ijtimoiy munosabatlar va oila institutida ham keskin o'zgarishlar kuzatilmoqda. An'anaviy jamiyatlarda oila va jamoa qadriyatlari ustuvor bo'lgan bo'lsa, modern tendensiyalar shaxsiy mustaqillik, gender tengligi va individual qaror qabul qilishni ilgari suradi. Bu esa oila tuzilmasida yangi shakllarning paydo bo'lishiga, avlodlar o'rtasidagi muloqot va mas'uliyat tizimining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Beshinchidan, ma'naviylik sohasida an'anaviy qadriyatlar insonning ruhiy komilligini, vijdon, e'tiqod va bag'rikenglikni asos qilib oladi. Modern tendensiyalar esa ma'naviyatni ko'proq dunyoviy tafakkur, pragmatizm va shaxsiy manfaat doirasida talqin qiladi. Shu bois bugungi davrda ma'naviy qadriyatlar va texnologik modernizm o'rtasida muvozanatni topish dolzarb masalaga aylangan.

An'anaviy qadriyatlar va zamonaviy modern tendensiyalar o'rtasidagi qarama-qarshilik insoniyat taraqqiyotining tabiiy natijasidir. Biroq bu ziddiyatni keskin to'qnashuv emas, balki uyg'unlik sari yo'naltirilgan sintez sifatida anglash zarur. Faqat milliy qadriyatlarni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtira olgan jamiyatgina barqaror modernizatsiyaga erishadi va ma'naviy tanazzuldan saqlanadi.

Zamonaviy davrda globallashtirish, texnologik taraqqiyot, axborot makonining kengayishi va ijtimoiy ongning o'zgarishi natijasida qadriyatlar tizimi chuqur transformatsiyaga uchramoqda. "Qadriyatlarning transformatsiyasi – bu ularning mazmuni, shakli va ijtimoiy ahamiyatining o'zgarish jarayonidir. Har bir tarixiy bosqichda jamiyat taraqqiyotining darajasiga qarab qadriyatlar qayta talqin qilinadi, ayrimlari o'z ahamiyatini yo'qotsa, boshqalari yangicha mazmunga ega bo'ladi. Shu bois qadriyatlar doimiy emas, balki ijtimoiy-madaniy hayot bilan birga evolyutsion o'zgarishda bo'ladi"[7:145]. Qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy omillari muhim o'rin tutadi. Modernizatsiya, urbanizatsiya, migratsiya va axborotlashuv jarayonlari natijasida insonlar dunyoqarashi va turmush tarzi o'zgaradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji qadriyatlarning yangi turlarini shakllantirdi. Virtual makon, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli

madaniyat insonlar orasidagi muloqot uslublarini, axloqiy mezonlarni hamda estetik qarashlarni o'zgartirdi. Masalan, avvallari bilim va madaniyatni og'zaki yoki yozma tarzda uzatish qadriyat sifatida qaralgan bo'lsa, hozirgi kunda tezkor axborot olish, shaxsiy fikrni global auditoriyaga etkazish kabi imkoniyatlar yangicha qadriyatlarga aylangan. Shu bilan birga, bu jarayon insonning shaxsiy hayoti, axloqiy mas'uliyati va axborot madaniyatini qayta baholash zaruratini ham tug'dirdi.

Zamonaviy yoshlar dunyoqarashida milliy qadriyatlar va modern madaniyat o'rtasidagi sintez jarayoni ijtimoiy-madaniy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biridir. XXI asrda globallashtiruv, raqamli kommunikatsiya va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi natijasida yoshlar ongida turli qadriyat tizimlari to'qnash kelmoqda. Shu bilan birga, ular o'z milliy o'zligini saqlab qolgan holda, zamonaviy hayot talablari bilan uyg'un yashashga intilmoqda. Bu holat milliy qadriyatlar va modern madaniyatning o'zaro sintezlanishiga olib kelmoqda.

Avvalo, milliy qadriyatlar yoshlar ongining asosiy tayanchi sifatida ularning axloqiy, estetik va ma'naviy mezonlarini belgilab beradi. Har bir xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlar, diniy e'tiqodi va ma'naviy an'analari yosh avlod uchun ma'naviy tayanch vazifasini bajaradi. Ayniqsa, o'zbek jamiyatida "katta-kichikka hurmat", "mehr-oqibat", "or-nomus", "halollik" kabi qadriyatlar yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotida hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu qadriyatlar yoshlarni o'zligini anglashga, jamiyatda mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini egallashga undaydi.

Biroq zamonaviy yoshlar global madaniyatning faol ishtirokchilari sifatida, yangi axborot oqimlari, texnologiyalar, internet va ommaviy madaniyat ta'sirida yashamoqda. Modern madaniyat ularga erkin fikrlash, individuallik, tanqidiy tafakkur, gender tengligi, inson huquqlarini hurmat qilish kabi g'oyalarni singdiradi. Bu jarayonda yoshlar milliy qadriyatlar va modern g'oyalar o'rtasida muvozanat topishga harakat qilmoqda. Aynan shu muvozanat – sintez – ularning dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy falsafiy va madaniy omilga aylanmoqda.

Shuningdek, ta'lim tizimi, madaniyat siyosati va ommaviy axborot vositalarining faoliyati ham bu sintez jarayonida muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq, shu bilan birga zamonaviy fikrlovchi, raqamli tafakkurga ega avlod sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu borada milliy madaniyatni raqamli platformalarda targ'ib qilish, o'zbek adabiyoti va san'atini zamonaviy formatda talqin etish kabi tashabbuslar yoshlarning dunyoqarashida sintez madaniyatining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar dunyoqarashida milliy qadriyat va modern madaniyat sintezi – bu an'ana va yangilik, o'tmish va kelajak o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalovchi jarayondir. Bu sintez yoshlarni global dunyoda o'z milliy o'zligini yo'qotmasdan, zamonaviy tafakkur bilan yashashga undaydi. Shunday qilib, milliy qadriyatlar va modern madaniyat uyg'unligi yosh avlodning ma'naviy poydevorini mustahkamlab, ularni yangi davrning etuk fuqarolari sifatida shakllantiradi.

Adabiyotlar:

1. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi I-jild. – Toshkent.: “Ma'naviyat”, 2023. – B.804.
2. Haydarov A. Madaniyat — milliy yuksalish poydevori. – Toshkent: “Oltin meros press”. 2021. – B.478.
3. Йермаханова С.А. Теория модернизации: история и современность. // Вопросы философии №4, 2001. – С.10.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangiz O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent.: “O'zbekiston”, 2022. – B.27.
5. Absattorov B.M. Inson axloqiy kamolotida mezon va me'yor muammosining ijtimoiy-falsafiy tahlili. F.f.b.f.d. (PhD) disser. – Toshkent.: “IMPRESS MEDIA”, 2022. – B.126.
6. Инглхарт Р., Велсел К. Модернизация, культурные изменения и демократия: Последовательность человеческого развития. – М.: “Новой издательство”, 2011. – С.79.
7. Каган М.С. Философская теория сценности. – Санкт-Петербург.: “Петрополис”, 1997. – С.145.

YOSHLARNING IJTIMOIIY MAS'ULIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Ergasheva Go'zal Maxkambayevna,-
*«International School of Finance Technology and
Science» instituti dotsenti*

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har bir jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, uning yoshlari qanday ma'naviy qadriyatlarga, axloqiy mezonlarga va milliy g'ururga ega ekanligiga bog'liqdir. Shu boisdan, yoshlarning ongida milliy qadriyatlar asosida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish, ularni vatanparvarlik, mehr-oqibat, halollik, adolat va insonparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, an'analari, tili, dini, madaniy merosi va hayot falsafasining uyg'un ifodasidir. Ular yoshlar ongida ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini belgilovchi, milliy o'zlikni anglash va jamiyat oldidagi mas'uliyat hissini kuchaytiruvchi kuchli tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlarni yoshlar hayotiga chuqur singdirish nafaqat ularning ma'naviy dunyosini boyitadi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy yuksalishning kafolati hamdir.

Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish jarayoni — bu shaxsning jamiyat oldidagi burch va vazifalarini anglash, o'z harakatlari oqibatini baholash, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan milliy qadriyatlarning nechog'lik chuqur singdirilganligiga bog'liq. Chunki milliy qadriyatlar insonni ma'naviy barkamollikka, ezgulik va adolatga, jamiyatga foydali bo'lishga undovchi asosiy mezon sanaladi.

Milliy qadriyatlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo'lib, ularning ijtimoiy faoliyatini maqsadga yo'naltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oila, mahalla, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari orqali yoshlar ongiga milliy urf-odatlar, an'analar, xalq og'zaki ijodi, tarixiy meros va milliy qahramonlar hayoti

singdirilganda, ular o'z millatiga, xalqiga sadoqatli, mas'uliyatli fuqarolarga aylanishadi.

O'zbek xalqining qadimiy an'analari — mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, halollik, sabr-toqat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar yoshlar tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu qadriyatlar yoshlarning kundalik hayotida amal qilinadigan axloqiy me'yorlarga aylanib borar ekan, ular jamiyatda o'z o'rnini topgan, vatan ravnaqi uchun mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanadi.

Shuningdek, milliy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ham ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishning samarali yo'lidir. Masalan, ta'lim dasturlarida milliy urf-odatlar, tarixiy shaxslar faoliyati, xalqona hikmatlar va maqollar orqali yoshlarning ma'naviy tafakkuri boyitiladi. Bu esa ularning tafakkurida “men kimman?”, “xalqim uchun nima qildim?” degan savollarni uyg'otadi.

Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda davlat siyosati ham muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatining asosiy maqsadlaridan biri — milliy qadriyatlarga sodiq, vatanparvar, mas'uliyatli va tashabbuskor yoshlarni tarbiyalashdir. “Yoshlar — kelajagimiz” dasturi, “Yoshlar ittifoqi” faoliyati, “Mahalla” tizimi kabi ijtimoiy institutlar orqali yoshlarning ijtimoiy faolligi va mas'uliyati bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda.

Milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish nafaqat ularning shaxsiy fazilatlarini, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlaydi. Chunki mas'uliyatli yosh — bu jamiyatning ertangi kunidir. Shu bois milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish, yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish — bugungi kunning eng dolzarb ma'naviy-ma'rifiy vazifalaridan biridir.

Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish va bu jarayonda milliy qadriyatlarning o'rnini o'rganish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar, pedagoglar hamda sotsiologlar tomonidan ilmiy izlanishlarning markazida turibdi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, “Yoshlar siyosati to'g'risida”gi Qonun va “Milliy g'oya: asosiy tushuncha

va tamoyillar” fani bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik qo‘llanmalarda yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiy faolligini oshirish va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu hujjatlarda yoshlarni vatanparvarlik, mas’uliyat, halollik, adolat va fuqarolik burchi ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1, 2, 3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida ham yoshlarning ma’naviy kamolotida milliy qadriyatlarning beqiyos o‘rni borligini ta’kidlab, “Yoshlarimizni milliy ruhda, ajdodlarimiz merosiga hurmat bilan tarbiyalash — ertangi kunimizni mustahkam poydevor bilan ta’minlash demakdir”, deb alohida qayd etadi [3].

Mazkur yo‘nalishda A.Avloniy, A.Qodiriy, Abdulla Sher, H.Yo‘ldoshev, N.Mahmudov, O.Sharafiddinov kabi pedagog va ma’naviyatshunos olimlarning asarlarida ham milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik chuqur tahlil qilingan. Jumladan, A.Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloqiy tarbiya va ijtimoiy mas’uliyatni shaxsning eng muhim fazilatlaridan biri sifatida talqin etadi [5].

Xorijiy tadqiqotchilar orasida esa E.Durkheim, M.Weber, T.Parsons, E.Fromm kabi sotsiologlar ijtimoiy mas’uliyatni jamiyatdagi ijtimoiy nazorat, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy institutlar faoliyati bilan bog‘liq holda izohlaydilar. Ularning fikricha, ijtimoiy mas’uliyatning shakllanishida milliy va madaniy qadriyatlar muhim sotsial mexanizm sifatida xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda o‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham milliy qadriyatlarning yoshlar ongini shakllantirishdagi o‘rni keng yoritilmoqda. Masalan, M.Jo‘rayev (2020) o‘z tadqiqotida milliy qadriyatlar asosida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning zamonaviy mexanizmlarini tahlil qiladi. D.Sattorova (2021) esa milliy tarbiya elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullarini ilmiy asoslab beradi.

Yosh tadqiqotchilar A.Xolmatova va X.Xayrullaevalar (2025) esa o‘z tadqiqotlarida bugungi murakkab zamonlarda turli yo‘llar bilan kirib

kelayotgan yot g'oyalarga qarshi sog'lom ma'naviy immunitetni hamda ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizga suyanishni talab etishini ta'kidlaydi [7].

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda milliy qadriyatlar hal qiluvchi omil bo'lib, ular shaxsning ma'naviy dunyosini boyitish, ijtimoiy faolligini oshirish va milliy o'zlikni anglashni mustahkamlashda asosiy tayanch vazifasini bajaradi. Shu sababli, bugungi kunda bu masalaga ilmiy-nazariy, amaliy va ma'naviy jihatdan yondashish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'рни beqiyosdir. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatli yoshlarni tarbiyalash uchun, avvalo, ularning ongida o'z millatiga, madaniyatiga, tarixiga nisbatan hurmat hissini uyg'otish zarur. Bu jarayonda oila, ta'lim muassasalari, mahalla va ommaviy axborot vositalarining roli beqiyosdir. Ayniqsa, oila — milliy qadriyatlarning eng muhim uzatuvchisidir. Bola oilada kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat, sabr-toqat kabi fazilatlarni o'rganadi. Shu sababli oila muhitini milliy qadriyatlar asosida mustahkamlash yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirishning eng samarali yo'llaridan biridir.

Ta'lim tizimi ham bu jarayonning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida dars jarayonlarini tashkil etish, ma'naviyat darslarida ajdodlar merosi, tarixiy shaxslar hayoti va xalq og'zaki ijodidan foydalanish yoshlarning mas'uliyat hissini shakllantiradi [6]. Shu bilan birga, zamonaviy ta'limda interaktiv metodlar, milliy qadriyatlar asosida loyihaviy o'qitish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ko'paytirish yoshlar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalla instituti ham yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda o'ziga xos tarbiyaviy maktabdir. Mahalla nafaqat ijtimoiy muammolarni

hal etuvchi tuzilma, balki milliy qadriyatlar targʻibotchisi sifatida ham faoliyat yuritadi. Mahalla yigʻinlari, urf-odatlarga asoslangan tadbirlar, hasharlar, bayramlar yoshlarni birdamlik, mehr-oqibat va ijtimoiy masʼuliyat ruhida tarbiyalaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, bugungi globallashuv sharoitida ayrim yoshlar orasida milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik, isteʼmolchilik kayfiyati va individualizm kuchaymoqda. Bu esa ijtimoiy masʼuliyat darajasining pasayishiga sabab boʻlmoqda. Shu bois yoshlar bilan ishlashda milliy qadriyatlarni zamonaviy shakllarda — ijtimoiy tarmoqlar, kinofilmlar, onlayn loyihalar orqali targʻib etish zarur.

Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy masʼuliyatini oshirishda ularni jamoatchilik ishlari, koʻngilli faoliyat, ekologik va ijtimoiy loyihalarga jalb etish ijobiy natija beradi. Bu orqali yoshlar jamiyat hayotida oʻzining oʻrni va masʼuliyatini chuqur his etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, milliy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy masʼuliyatini shakllantirishda maʼnaviy tayanch, yoʻl koʻrsatuvchi mezon va tarbiyaviy resurs sifatida xizmat qiladi [4]. Shu bois, ularni har bir taʼlim, tarbiya va madaniy faoliyatning ajralmas qismiga aylantirish bugungi kunning muhim ijtimoiy vazifasidir.

Oʻtkazilgan nazariy tahlillar va mavjud manbalar oʻrganilishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

8. Milliy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy masʼuliyatini shakllantirishning asosiy manbai hisoblanadi. Ular yosh avlod ongida vatanparvarlik, halollik, insonparvarlik, adolat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni mustahkamlab, jamiyat oldidagi burchni chuqur anglashga yordam beradi.

9. Oila, taʼlim muassasalari va mahalla — milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishning eng samarali muhitlaridir. Aynan shu ijtimoiy institutlar orqali yoshlar hayotga, mehnatga va jamiyatga nisbatan masʼuliyatli munosabatni shakllantiradi.

10. Milliy qadriyatlarni zamonaviy taʼlim jarayoniga integratsiya qilish yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb

etadi. Ta'lim dasturlarida tarixiy shaxslar, xalq og'zaki ijodi va milliy urf-odatlariga oid materiallardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

11. **Globalashuv va axborot oqimi** sharoitida yoshlarning ayrim qatlamlari orasida milliy qadriyatlarga befarqlik kuzatilmoqda. Shu sababli milliy qadriyatlarni ommalashtirishda ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kontent, kinofilmlar va onlayn platformalar orqali zamonaviy yondashuvlar zarur.

12. **Yoshlarni ijtimoiy hayotga faol jalb etish**, xususan, ko'ngillilik, ekologik va ijtimoiy loyihalarda ishtirokini ta'minlash, ularning mas'uliyat hissini kuchaytiruvchi samarali mexanizmdir.

13. **Davlat siyosatida milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi uzviy bog'langan.** O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, "Yoshlar — kelajagimiz" dasturi hamda Prezident tashabbuslari yoshlarning ma'naviy kamoloti va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan [2].

14. **Milliy qadriyatlar yoshlarning shaxsiy rivojlanishi bilan bir qatorda jamiyat barqarorligini ta'minlaydi.** Chunki ijtimoiy mas'uliyatli yosh — bu milliy g'oya va ma'naviyat poydevoriga sodiq shaxsdir.

Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish — bu jamiyatning ma'naviy-axloqiy barqarorligi va taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega jarayondir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati esa milliy qadriyatlarga tayanmasdan to'liq amalga oshmaydi. Chunki milliy qadriyatlar xalqning asrlar davomida shakllangan hayot falsafasi, ma'naviy mezonlari va insoniy fazilatlarining mujassam ifodasidir.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar yoshlarning ongida jamiyatga nisbatan burch va mas'uliyat tuyg'usini shakllantiradi, ularni vatanparvar, halol, fidoyi va tashabbuskor shaxslar sifatida voyaga etkazadi. Oila, ta'lim muassasalari, mahalla va davlat siyosati bu jarayonning uzviy bo'g'inlari bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyati milliy tarbiya samaradorligini oshiradi.

Bugungi globalashuv davrida yoshlarning milliy qadriyatlarga sodiqligini ta'minlash, ularni zamonaviy texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib etish, yoshlarning ijtimoiy faolligini

o'shish bilan bir qatorda, ularni milliy o'zlikni anglashga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishning mustahkam poydevori, ma'naviy tayanchi va jamiyat barqarorligining kafolatidir. Shu bois, har bir sohada — ta'limda, oilada, madaniyatda va jamoatchilik hayotida milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish bugungi kunning dolzarb ijtimoiy vazifasi hisoblanadi.

Adabiyotlar

17. O'zbekiston Respublikasining "Oila" to'g'risidagi Qonuni. – T.: "Adolat", 2023.
18. O'zbekiston Respublikasining 14.09.2016-yildagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3026246>
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek milliy qadriyatlarini yanada rivojlantirish va yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – T.: 2022.
20. Salayeva M.S. Xalq ma'naviy merosi namunalarida oila a'zolari munosabatlari masalasining yoritilishi // Ma'rifat yog'dusi. № 1. 2000. –B. 58-60.
21. Salayeva M.S. O'tmish mutafakkirlarimiz ota-ona va farzandlar munosabatlari xususida // Ma'rifat yog'dusi. № 3. 2000.–B. 76-80.
22. **Salaeva M.S.**, Umirova X.S. Bola tarbiyasida oila va maktabning o'zaro hamkorligi // *Problems And Scientific Solutions*. — Australia, Melbourne. 2022. – B. 114-123. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6762226>
23. Xolmatova A., Xayrullaeva X. Milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasidagi o'rni // "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-3027_SJIF: 5.449. Vol. 81 No. 5 (2025): VOLUME-88 | ISSUE-1. Pp. 41-46.
24. Ergasheva G.M. Umuminsoniy va diniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirishda dialektikaning roli // Maktabgacha va maktab ta'limi. Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal №4/2025. 31-33 b.

25. Ergasheva G.M. Umuminsoniy va diniy qadriyatlar dialektikasi yosh avlod dunyoqarashini shakllantirish va yuksaltirishdagi konseptual ahamiyati // Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti. "Ilm ham jamiyat" ilmiy jurnali. Iyun 2025. 10 b.
26. Ergasheva G.M. Vospitaniye esteticheskogo vkusa mladshix shkolnikov v uchebno-vospitatelnom protsesse / *"Modern world education: new age problems – new solutions". Collection of scientific papers on materials of the international scientific-practical conference.* 03.06.2025, Pub. "ICP", Paris, France, 140 str.
27. Ergasheva G.M. Ponyatiye vospitaniya, ego sumnost, vidy i rol v formirovaniy lichnosti // *"Science, Education, Innovation: Modern Tasks And Prospects". Collection of scientific papers on materials of the international scientific-practical conference.* 05.06.2025, Pub. "ICP", Rome, Italy, 191 str.
28. Ergasheva G.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirishning nazariy asoslari / *Usa Advanced Methods Of Edsuring The Qualite Of Education Prodlems Fnd Solutions. Internatlonal onllne conference.* Date: 2025. 6 str.
29. Ergasheva G.M. The significance of campistic pedagogy in training future teaching staff / *Models And Methods In Modern Science Internatlonal scientific -onllne conference.* Date: 2024. 6 str.
30. Ergasheva G.M., Abduraxmonova M.I. Yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda umuminsoniy qadriyatlarning o'rni / *Prospects For Innovative Technologies In Science And Education. International online conference.* 13th July -2025. - Pp.106.
31. Ergasheva G.M., Abduraxmonova M.I. Boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiyani tabiiy fanlar orqali shakllantirishning innovatsion yo'llari / *"Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarining zamonaviy tendensiyalari: muammolari, echimlari, o'qitishning innovatsio yondashuvlari"* Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Nizomiy nomidagi O'zMPU. 2025-yil 14-may. 514-522 bet.
32. Ergasheva G.M., Abduraxmonova M.I. Psychological Basis Of Forming A Socially Active Position In Students // *International Bulletin Of Engineering And Technology Ibet.* ISSN: 2770-9124. ugust IBET | Volume 4, Issue 1, January IBET. 241 — 244 bet.

EHTIYOJMAND SHAXSLARGA KO'MAK BERISH – O'ZBEK XALQINING MA'NAVIY QADRIYATI SIFATIDA

Mahkamova Difuza Jo'raqulovna,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

Oyina.uz portali bo'limi mutaxassisi,

Qadimiy manbalarning guvohlik berishicha, azaldan O'zbekiston hududida yashab kelgan aholi vakillari tomonidan muhtoj odamlarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ko'mak berish, xayriya va homiylik qilish an'anaga aylangan. Bundan ko'rinadi-ki, xalqimiz azaldan beva-bechoralar, etim-yesirlar, nochor va nogironlarga madad qo'lini cho'zishni insoniy burch hisoblagan. Muhtojlarga yordam berish, saxovat ko'rsatish, ularni turmush tarzi yaxshilanishiga hissa qo'shish ajdodlarimiz tomonidan davom ettirilib kelinayotgan an'analardan hisoblanadi. Ular qadimdan to bizning davrimizgacha insonparvarlik va odamiylikning yuksak ko'rinishi sanalib, qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Shu o'rinda aytish joiz, ehtiyojmand shaxslarga g'amxo'rlik qilish eng avval qayerda paydo bo'lgan – Sharqdami yoki G'arbdami, degan bahs noo'rin. Ko'pchilik buni insoniyat vujudga kelgan paytdan boshlab yuzaga kelgan deb hisoblaydi. Bu o'rinda savol tug'ilish tabiiy: ehtiyojmandlarga shaxs, jamiyat va davlat g'amxo'rligining ildizi qayerda? Albatta inson ongi undagi mehr-shafqat va achinish his-tuyg'ulari bu borada hal qiluvchi omil bo'lgan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi – "Avesto"da inson huquqlarining ustuvorligi, insonlarning jamoa bo'lib yashash tarzi, ular, shuningdek davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, jamoa hayoti bilan bog'liq masalalarni birgalikda hal etish tartibi qayd etilgan [2]. Darhaqiqat, birlik bor yurtda ahillik, halovat va osoyishtalik hukmron. Shu bois, yurtimizda azal-azaldan "Birlikda gap ko'p", "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", degan hikmatli so'zlarga tayanib ish ko'rilgan.

Shu o'rinda hazrat Alisher Navoiyning

Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay, deya aytilgan so'zlarini eslashning o'zi maqsad ezgulik bo'lsa, ortidan ulug' ajr ham

namoyon bo'lishiga ishora bergandek [10]. Ushbu satrlar har davrda muhim ahamiyat kasb etishini xalqimizning yillar davomida ehtiyojmandlarga ko'rsatib kelayotgani yordami, bu ayniqsa hech qanday qonun-qoida bilan belgilanmagan ko'mak turlari hayotimizdan o'rin egallagani bilan ham izohlash mumkin.

Inson qadri, baxt-saodati, farovonligi hamma davrlarda buyuk ajdodlarimiz ta'limotlari, ilm va ijodining bosh mazmuni bo'lib kelgan. Imom Buxoriy tarixga muhrlab ketgan muqaddas hadislardan tortib, Abu Nasr Forobiy ta'limotlari, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy qarashlari, Sohibqiron Amir Temur davlatchilik nazariyasi, Alisher Navoiyning gumanistik g'oyalari, jadidchilik harakati namoyondalari fikr-u qarashlari mohiyatida ham insonparvar davlat tuzish maqsadi yotadi.

Amir Temur hamisha inson manfaatlarini kuchaytirishga intilib, irqi, millati, dini va kelib chiqishidan qat'i nazar, insonlarning bir butun hududda yashashi mumkinligi to'g'risidagi "yagona makon" g'oyasining ilk tashabbuskori edi. Amir Temurning qudratli va bepoyon imperiyasi uning hayotlik davrida barqaror rivojlanganligining asosiy sabablaridan biri unda adolat va mehr shafqatga asoslangan, aholining muhtoj qatlamining ijtimoiy himoyalashga qaratilgan tizimning mavjudligida, deb aytish mumkin.

Alisher Navoiy ijodi zamirida avvalo, inson va uning qadr qimmati turadi. Mutafakkir nazdidagi komil inson pok qalbi va niyatlari, ezgu so'zi va amali bilan ham xalqqa foyda keltirishi kerak. El-yurt manfaati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy inson, deb ataydi [6]. Darhaqiqat, ulug' mutafakkirning ushbu qarashlari bugun ham nechog'li ahamiyatli ekanini turli misollar orqali izohlash mumkin. Shu o'rinda yana bir fakt. Tarixdan ma'lumki, diniy rahnamolar, shayxlar, ulamolar, eshonlar rahbarligidagi xonaqohlar, masjidlar, madrasalarda beva-bechoralar va nogironlar panohtopganlar va kun o'tkazganlar. O'z zamonasining ilg'or va ma'rifatparvar kishilari ham bu ishdan chetda turmaganlar. Bunga Alisher Navoiyning Hirotda o'tkazgan tadbirlari ham yaqqol misol bo'la oladi. Hazrat Navoiy o'z mol mulkining deyarli barchasini ilm-u ma'rifatga va beva bechoralarning, miskin nogironlarning turmushini yaxshilashga sarf qilgan.

Farobiy shaxsiy baxt va unga erishish haqida ham fikr yuritadi. U inson bunday baxtga ega bo'lishi uchun ijtimoiy tuzumni tashkil etishni takomillashtirish lozim, deb o'rgatadi. Kishining oliy maqsadi – bu baxtga erishish, buning uchun umumiy muhit sifatida komil jamiyat bo'lishi kerak. Farobiyning “Fozil shahar odamlari qarashlari” asarida bayon etilgan quyidagi fikrlarni keltirishimiz mumkin: “har bir inson o'z tabiati bilan shunday tug'ilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, uning bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritib olmaydi, ularga egalik qilish uchun kishilik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishmoq uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun inson ko'paydi va urning aholi yashaydigan qismiga o'rnatiladi, natijada inson jamoasi vujudga keldi” [1].

Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarida ko'rsatilishicha, podsho adolat o'rnatishda sobitqadam bo'lishi kerak, kambag'al va beva-bechoralarga yordam berish, muhtojlarga davlat xazinasidan nafaqalar ajratish, xayr–ehson harakatini qo'llab-quvvatlashi lozim [12]. Bundan bir necha asr avval yozilgan mazkur asardagi ushbu qarashlar har bir davrda mamlakat mulozimlari uchun dasturilamal vazifasini o'taydi. So'nggi yillarda yurtimizda ijtimoiy himoya siyosatidagi tub islohotlar, O'zbekiston – ijtimoiy davlat ekanligi qonun bilan mustahkamlangani, ehtiyojmand shaxslar uchun barcha imtiyozlar zahirida davlatimiz rahbarining oqilona siyosati, xalqimiz turmush tarzining ijobiy tomonga o'zgarishi kabi ulug' maqsadlar mujassam.

Shu o'rinda azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib kelganini aytish joiz. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kishilar holidan xabar olish, etim-yesirlarning boshini silash, to'y-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga

bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan.

Bugungi kunda ham mahallaning o'rnini kuchaytirish borasidagi amaliy chora-tadbirlar, bir nechta xizmatlar mahalla darajasiga tushirilgani, ayniqsa, mahallalar bilan ishlashni yanada keng yo'lga qo'yish maqsadida alohida tashkilot – O'zbekiston mahallalar uyushmasi tashkil qilingani, 22-mart – Mahalla tizimi xodimlari kuni etib belgilanganini ta'kidlash o'rinli. Bu esa xalqimizning insoniyat tafakkuri rivojiga qo'shgan ulushini butun dunyo bo'ylab namoyish etish, mahalla bilan bog'liq boy ma'naviy merosimizni qayta tiklash va bardavomligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ehtiyojmandlarga yordam berish, bemorlar holidan xabar olish, o'zgalar ko'magiga muhtoj, ko'ngli o'ksik, harakati cheklangan, nogironligi bo'lgan shaxslarning hurmatini joyiga qo'yish, qadrlash, mehr-muruvvat ko'rsatish, ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etish davlat va jamiyatning bugungi kundagi ustuvor vazifalari hisoblanadi. Aslida, bunday ezgu ishlar asrlar davomida yurtimiz ahli uchun havas qilishga arzigulik an'ana bo'lib kelgan. Ushbu qadriyat bugungi kunda yangi ko'rinish va zamonaviy mazmun-mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan shakllarda qayta jonlandi. Yanada sayqallandi, rivojlandi, takomillashdi [4]. Zero barqaror taraqqiyotga avvalo insonni qadrlash va e'zozlash, aholining bugun yaxshi yashashi uchun shart-sharoit hozirlash, aholining kelajakka yuksak ishonchi va mas'uliyatini anglash orqali erishish mumkin.

Ehtiyojmand shaxslarni qo'llab-quvvatlash xalqimizga xos azaliy qadriyat, ta'bir joiz bo'lsa, yuksak qadriyat hisoblanadi. Shu o'rinda qadriyat tushunchasiga qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qadriyat – inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha [9]. Milliy qadriyat — har bir millatning o'zligini saqlaydigan va sha'nini ulug'laydigan urf-odatdir.

Xalqimizning ma'naviy merosi, an'analari, urf-odatlari, adabiyoti, san'ati bilan umuminsoniy qadriyatlarning milliy darajada namoyon bo'lish shakllari islomiy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Mazkur qadriyatlarni

hech qanday kuch, tashviqot va taqiqlar o'zgartirolmaydi, chunki bu millatimizning ajralmas qadr-qimmatiga aylanib ketgan. Bu yurtimizda doim keng nishonlanib kelayotgan diniy bayramlar — ikki iyd bayramidir. Ushbu kunlarda muhtojlarga yanada ko'proq mehr-oqibat, xayr-saxovat ko'rsatish xalqimizga xos fazilat.

Urf-odat – an'analar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tartib-qoida; rasm-rusum, tamoyillar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olib, ularda o'z ifodasini topadi.

An'analar – qadimdan insoniyat hayoti, turmushi, mehnati va ibratli hayot saboqlari bo'lib, avloddan-avlodga, o'tmishdan kelajakka meros bo'lib qoladigan, barcha tadbirlarda namoyon bo'ladigan ijtimoiy faoliyat mahsulidir. Marosimlar esa an'analar va urf-odatlarning amaliy ko'rinishidir. An'analar va urf-odatlar milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy va diniy bo'lib, milliy qadriyatlarning ajralmas qismidir [11]. Umuman olganda, urf-odat va an'analar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular har bir millat va elatning tarixi, turmush tarzi va boshqa omillar ta'sirida shakllanadi hamda o'ziga xos qiyofasini belgilovchi xususiyatlardan biridir.

Ehson – birovga biror ne'matni berish va fazl-u karam ko'rsatish tushuniladi. Lekin "ehson" so'zi lug'atda "yaxshilik qilish, ezgulik ko'rsatish" ma'nolarini ham anglatadi. Haqiqatan, biror kishiga bir narsani ehson qilsangiz yoki unga biror yaxshilik ko'rsatsangiz, bundan dilingiz ravshan tortadi, ruhiy xotirjamlik yuzaga keladi, o'zgalarga manfaat etkazganingizdan xursand bo'lasiz. Ehson qilingan kishi ham o'ziga ko'rsatilgan yaxshilikdan sevinadi, dilida sizga muhabbat paydo bo'ladi, agar sizga keki bo'lsa, unutadi. Shu tariqa jamiyatda kishilar o'rtasida totuvlik, hurmat-ehtirom paydo bo'ladi, dushmanchiliklar barham topadi, osoyishtalik va farog'at barqaror bo'ladi [8].

So'nggi yillarda mamlakatimiz aholisining diniy e'tiqod tushunchasi ancha mustahkamlanib fuqarolarga, davolash, tarbiya, ijtimoiy himoya muassasalariga va shunga o'xshash boshqa muassasalarga, ilmiy va o'quv muassasalariga xayr-ehson qilinayotganini ko'p bor kuzatmoqdamiz. Ammo ehson deganda odamlarga dasturxon yozishni, xudoyi qilishni

tushunadiganlar ham ko‘p. Aslida ehson barcha ishni go‘zal qilishdir. Dinimizda ham bandalarga yaxshilik qilish, ehson qilish buyurilgan.

Saxovat – kishidan hech narsani (yordamini, mehnatini) ayamaydigan, kishiga g‘amxo‘rlik qiladigan, mehribon odam – saxiy deyiladi. Saxovat qo‘lini cho‘zmoq – oliyhimmat bilan yordam qo‘lini cho‘zmoqdir [7].


Muhtojlarga xayr-saxovat qilish insonlar o‘rtasida mehr-oqibat rishtalarini yanada mustahkam bog‘lanishiga, o‘zaro hurmat va totuvlik hislarini ortishiga, jamiyat ravnaqi uchun olib borilayotgan ishlarning rivoj topishiga xizmat qiladi.

Saxovat, alloma Badruddin Ayniyning izohlashicha, “Haqdorga tegishli narsani berish, o‘z molidan hech bir evazsiz sarflashdir. Bu eng ulug‘ chiroyli xulqlardan biri. Baxillik esa buning aksidir” [7].

Qo‘ni-qo‘shnichilik. Qo‘shnining haqqi uning uyi yaqinligiga qarab turli darajada bo‘lar ekan. Eng yaqin qo‘shnining haqqi eng ko‘p bo‘lar ekan. Agar qo‘shinilarimizdan biriga biror-bir hadya qiladigan bo‘lsak, bizga eng yaqin bo‘lgan qo‘shnimizdan boshlashimiz yaxshi bo‘lar ekan. Xalqimizda ham “yon qo‘shni – jon qo‘shni” degan maqoli ushbu hadisi sharifning haqligini tasdiqlaydi. Demak, qo‘shnimizga yaxshilik qilishda, hadya berishda eshigi eng yaqinroq bo‘lgan qo‘shnidan boshlash kerak ekan. “O‘zi to‘q bo‘lib, qo‘shnisi och qolgan odam mo‘min emas” hadisidan ham qo‘shnimizga qanday munosabatda bo‘lishimiz kerakligini bilsak bo‘ladi. Demak, bir kishi o‘zi to‘q bo‘la turib, qo‘shnisi och va nochor o‘tirs, uning bu holidan xabar olmasa, u kishining iymoni komil emasligiga dalolat qilar ekan. Mo‘min kishi doimo qo‘shnisining holidan xabardor bo‘lib, uning och va nochor qolishidan juda ehtiyot bo‘lishi lozim ekan [5].

Shu o‘rinda bir mulohaza. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining “O‘tish davridagi hayot” so‘rovnomasi [15] dagi “Nochor qo‘shningizga yordam berish uchun daromadingizning bir qismidan voz kechishga rozi bo‘larmidingiz?” degan savolga 2016-yilda O‘zbekistonda bu savolga “ha” deb javob beruvchilar ulushi ko‘proq bo‘lgan. 5 yil o‘tib olingan so‘rovnomaga ko‘ra esa ularning soni sezilarli darajada kamaygan. Bu vaqt oralig‘ida Xorazm va Sirdaryo viloyatlari aholisining boshqalarga yordam

berishga xayrixohligi boshqa viloyatlarga nisbatan ko‘proq kamayganini ko‘rishimiz mumkin [14]. (Rasm-1).



Rasm-1

Yana bir mulohaza. So‘nggi yillarda globallashuv jarayonining shiddati va ko‘lami ortib, intellektual dunyoda yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan murakkab sharoitda vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o‘rni va ahamiyati tobora ortib, yoshlarimizni chinakam vatanparvar, yurtparvar etib tarbiyalash zaruriyati har qachongidan-da kuchayib bormoqda. Dunyoda mafkuraviy kurashlar, ziddiyatlarning soni va ko‘lami ortib, oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan yangidan-yangi tahdidlar yuzaga kelmoqda. Shunday vaziyatda yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy o‘zlik va qadriyatlar, milliy manfaatlarga daxldorlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ulamolardan biri “har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir” deganida nechog‘lik hayotiy haqiqatlar mujassam.

Inson qadri ulug‘lanayotgan Yangi O‘zbekistonda yolg‘iz qariyalar, pensioner, nogironlar hamda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ular holidan xabar olish, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish uchun barcha zarur shart-sharoit yaratilmoqda. Ijtimoiy sohaga jamoatchilik e‘tiborini kuchaytirish, manzilli ijtimoiy himoyani kafolatlash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

2020-2021-yillardagi koronavirus pandemiyasi paytini yodga olsak, birinchi navbatda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz qatlam nisbatan ko‘proq qiynaldi. Ayniqsa, mavsumiy va kunlik ishlarda mehnat qilib, oilasini tebratayotgan insonlarning oilasi ko‘makka ehtiyoj sezdi. Saxovatpesha insonlar ko‘p, kimdir oziq-ovqat, kimdir dori-darmon bilan qiynalgan insonlarga yordam berganiga ko‘p bor guvoh bo‘ldik. Bir-biriga e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish kabi eng oliyjanob fazilatlar xalqimizning yuragida, qalbida azaldan mujassamligi mana shu qiyin lahzalarga yana bir bor namoyon bo‘ldi. Yurtdoshlarimiz ana shunday sinovli kunlarda o‘zaro jipslashib, muhtojlarga mehr-saxovat bilan yordam ko‘rsatib, qadimdan qadrlanib kelgan oliyjanob fazilatlari, azaliy an‘analarini namoyon etdi.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning har bir qatlami muammolarini tub ildizlarini aniqlash va maqsadli yordam ko‘rsatish, ayniqsa kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar olib borilmoqda.

“Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etildi. Shu asosda muammoga oid mavhum ko‘rsatkichlar emas, balki yordam va ko‘makka muhtoj har bir oila va fuqaroning, xotin-qizlar, yoshlarning muammolari o‘z joyida aniq o‘rganilmoqda, ular vaqtida va samarali hal etilmoqda. “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Besh muhim tashabbus”, “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar o‘z ijobiy natijasini bermoqda [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ijtimoiy himoyani “Ijtimoiy davlatda hech kim e‘tibordan chetda qolmaydi, o‘z muammolari bilan yolg‘iz tashlab qo‘yilmaydi” [13] deya lo‘nda ifoda etgan. Bu o‘zbek xalqiga xos jamoa bo‘lib yashash qadriyatining ayni o‘zidir.

Yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan tahlillar mentalitetimizga xos bo‘lgan mehribonlik, saxiylik va hojatbarorlik, inson qadrini ulug‘lash, savob, solih amal, insoniylik, ezgulik va bag‘rikenglik, saxovat, elkadoshlik, insonparvarlik, vatanparvarlik singari ezgu tushunchalar zahirida ehtiyojmandlarga beg‘araz yordam berish, kam ta‘minlangan insonlarga,

nogironlarga, etim-yesirlarga yordam qo‘lini cho‘zish amalda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Xalq merosi, 1993. 186-bet
2. Ernazarov E. Inson huquqlari – oliy qadriyat. <http://pravacheloveka.uz/uz/news/human-rights-are-the-highest-value>
3. Haqnazarov X. Yangi O‘zbekistonda inson qadr-qimmatini va xalq manfaatlari – oliy qadriyat. <https://uzconsulate-aktau.kz/uz/2024>
4. Inoqov A. Tashna ko‘ngillarga ulashilgan mehr. <https://yuz.uz/news/tashna-kongillarga-ulashilgan-mehr>
5. Jo‘rayev O. Qo‘shnilarga yaxshilik qilish. <https://old.termiziy.uz/post/view/88>
6. Minhojiddin Mirzo. Yangi O‘zbekiston xalqi buyuk maqsad yo‘lida bitta qalbgaga aylandi. <https://oyina.uz/kiril/article/1589>
7. Otaboyev A. Saxovat haqida. <https://imon.uz/news.php?slug=saxovat-haqida>
8. Qosimov M. Ehson va sadaqa – savob omili. <https://xojabuxoriy.uz/?p=2230>
9. Qadriyat. <https://oyina.uz/kiril/teahause/2691>
10. Rustamov A. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning orzulari ehtiyoji bilan bog‘liq. <https://uza.uz/uz/posts/nogironligi-bolgan-shaxslarning-orzulari-ehtiyozhi-bilan-bogliq> 458122
11. Ruziyeva R. Urf-odat va an‘analar – milliy qadriyatlarni shakllantiradigan mezon sifatida. Scientific progress volume 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1601
12. Yunusova M.P. Sharq va G‘arb mutafakkirlari siyosiy munosabatlar va institutlarni erkinlashtirish to‘g‘risida <https://www.ilmixabarnoma.uz/article/961783359738/pdf>
13. Konstitutsiyaviy islohotlarimizning bosh maqsadi – inson qadri, xalq manfaatini amalda ta‘minlashdir. <https://uza.uz/uz/posts/konstitutsiyaviy-islohotlarimizning-bosh-maqsadi-inson-qadri-xalq-manfaatini-amalda-taminlashdir> 383081

14. Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy siyosat laboratoriyasining rasmiy Telegram kanali. https://t.me/islab_uz/118
15. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining rasmiy sayti. <https://www.ebrd.com/home/what-we-do/office-of-the-chief-economist/lits/life-in-transition-survey.html>

IJTIMOIIY BOSHQARUV JARAYONIDA MA'NAVIY-AXLOQIIY QADRIYATLARNING O'RNII

Mansurova Malohat Yunus qizi

Falsafa fanlari bo'yisha falsafa doktori (PhD)

Navoiy davlat universiteti kata o'qituvchisi

Mashhur yunon faylasufi **Aristotel** shunday degan edi: "*Axloqiiy fazilatlar inson tabiatida mavjud bo'lib, ularni tarbiya orqali yuzaga chiqarish va takomillashtirish mumkin.*"[4] Bu fikr, ayniqsa, boshqaruv jarayonida axloqiiy qadriyatlarning naqadar muhim ekanini ko'rsatadi. Axloqiiy mezonlar va insoniiy fazilatlar jamiyatni boshqarishda asosiiy tayanch bo'lishi zarur, chunki qonunlar ko'rinmaydigan ma'naviiy rishtalarsiz samara bermaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda ijtimoiy boshqaruv tizimining roli beqiyosdir. Ammo boshqaruv faqat qonun-qoidalar asosida emas, balki axloqiiy me'yorlar va qadriyatlarga tayanib amalga oshirilgandagina samara beradi. Axloqiiy qadriyatlar insonlarning xatti-harakatlarini boshqarish, adolatli qarorlar qabul qilish va ijtimoiy ishonchni shakllantirishda muhim omildir. Bu maqolada ijtimoiy boshqaruvda axloqiiy qadriyatlarning mazmuni, ularning ahamiyati va amaliiy tatbiqi tahlil qilinadi.

Hozirgi davrda jamoatchilik bilan samarali aloqa, ishonchli boshqaruv va fuqarolarning faolligi bevosita rahbarlarning axloqiiy fazilatlariga bog'liq. Jamiyatda adolat, halollik, ochiqlik kabi qadriyatlar asosida boshqaruv yuritilsa, fuqarolar hokimiyat vakillariga ishonadi. Aks holda esa korrupsiya, befarqlik, ijtimoiy norozilik kuchayadi.

Aslida axloqiy qadriyatlar — bu jamiyat tomonidan qabul qilingan, yaxshi va yomonni ajratib beradigan, insonlarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi me‘yoriy tushunchalardir. Ular insonga halollik, vijdonlilik, adolat, hurmat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni singdiradi. Har bir jamiyatda bu qadriyatlar tarixiy, diniy va madaniy asoslar bilan shakllanadi.

Ma’lumki, axloqiy qadriyatlar negizida axloq turadi. Axloq tushunchasini ikki xil ma’noda ko‘rish mumkin: axloq umumiy tushuncha sifatida etikaning tadqiqot obyekti anglatadi, yakka tushuncha sifatida inson fe’l-atvori va xatti-harakatining o‘ziga xos ko‘rinishini anglatadi.

A.Sher “Axloqshunoslik” kitobida ko‘rsatishicha, “Odob-inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi. Axloq esa – jamiyat, zamon insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisidir”[1].

Hozirgi axborot oqimi, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali boshqaruvga bo‘lgan munosabat tez shakllandi. Raqamli muhitda yolg‘on, manipulyatsiya va shaxsiy manfaatni ko‘zlash xavfi ortib bormoqda. Shu sababli, har bir rahbar va tashkilot vakilida kuchli axloqiy immunitet, ya’ni tamoyillarga sodiqlik zarur.

Yangi davrda axloq va huquq uzviy bog‘liqlikda olib qaralgan, hatto Gelvetsiy: “Etika” va “Qonunshunoslik”ni men bitta fan deb tushunaman”[2] deb yozadi.

Nemis klassik falsafasi namoyondalari ham axloq va huquq munosabatlariga o‘z e’tiborini qaratishgan. Kant huquq axloqqa bo‘ysunadi deb hisoblaydi. Gegel fikricha, axloq va huquq bir-birini taqozo qiladi, farqi shundaki, axloq tashqarida bo‘ladigan majburiylikka yo‘l qo‘ymaydi.

Hozirgi kunda faqat qonun bilan cheklangan boshqaruv tizimi etarli emas. Masalan, huquqiy jihatdan to‘g‘ri qarorlar ham axloqiy jihatdan noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Shu boisdan boshqaruv jarayonida “nima to‘g‘ri?” degan savolga nafaqat qonun, balki **axloqiy mezonlar** asosida ham javob berilishi zarur.

Aslida, huquq inson xatti-harakatini boshqarish shakli sifatida tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida, axloq normalaridan kelib chiqadi. Huquq o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida axloq bilan uyg'un bo'lgan. Faqat vaqt o'tishi bilan yozma va shakllangan qonunchilikka aylangan. Boshqacha qilib aytganda, huquq o'z ichiga axloqiylikni qamrab oladi[3].

Chunki ijtimoiy boshqaruv — bu jamiyat hayotini tashkil etish, muvofiqlashtirish, tartibga solish jarayonidir. Boshqaruvning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- Huquqiy boshqaruv;
- Iqtisodiy boshqaruv;
- Madaniy-ma'naviy boshqaruv;
- Axloqiy boshqaruv.

Mazkur yo'nalishlar bir-birini to'ldirib boradi. Ayniqsa, axloqiy boshqaruv orqali jamiyatda ishonch muhitini yaratish, fuqarolarning ongini yuksaltirish va ularni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga undash mumkin.

Zamonaviy yoshlar o'z fikriga ega, shaffoflik va mas'uliyatni talab qiladi. Bunday sharoitda rahbarlar faqat ko'rsatma beruvchi emas, balki **namuna bo'luvchi axloqiy lider** sifatida shakllanishi kerak. Boshqaruv faqat lavozim emas, mas'uliyat ekanini tushungan rahbarlarga jamiyatni oldinga boshlab borishi mumkin.

Ijtimoiy boshqaruvda adolat prinsipiga amal qilish axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Teng imkoniyatlar, fuqarolarning huquqlarini hurmat qilish, qarorlar qabul qilishda shaffoflik — bularning barchasi axloqiy mezonlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur:

- Ta'lim tizimida axloqiy tarbiyani kuchaytirish;
- Davlat xizmatchilari uchun doimiy etik treninglar tashkil etish;
- Ommaviy axborot vositalarida axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilish;
- Diniy va milliy an'analarni qo'llab-quvvatlash orqali axloqiy ongni yuksaltirish.

Xulosa. Ijtimoiy boshqaruvda axloqiy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir. Ular boshqaruv tizimining ma’naviy poydevorini tashkil qiladi, adolat va ishonch muhitini mustahkamlaydi. Bugungi kunda axloqiy qadriyatlarni har bir sohada — ta’lim, sog‘liqni saqlash, siyosat, iqtisodiyotda amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biridir. Zero, axloqiy qadriyatlar asosida qurilgan boshqaruvgina haqiqiy taraqqiyotga olib boradi.

Hozirgi zamonda ijtimoiy boshqaruvda axloqiy qadriyatlarsiz samarali tizimni tasavvur qilish qiyin. Axloqiy poydevor – bu qonuniylikdan yuqori darajada turadigan, jamiyat ongida ildiz otgan tamoyillardir. Ular orqali boshqaruvga ishonch, fuqarolarda vatanparvarlik va ijtimoiy birdamlik hissi shakllanadi.

Demak, hozirgi davr boshqaruvi shunchaki rasmiy hujjatlar emas, balki **insoniylik, vijdon va axloqiy yondashuv** asosida shakllanishi shart.

Adabiyotlar:

1. A.Sher. “Axloqshunoslik”. T., 2000-y.
2. Gelvetsiy K.A. Ob ume.-M, 1992. –S.156.
3. G.Nosirxo‘jayeva “Etika.Estetika”. T., 2006 y. –B.10
4. <https://wist.info>

MILLIY QADRIYATLAR VA MA’NAVIY MEROSNI YOSHILAR ONGIGA SINGDIRISHNING FALSAFIY, MA’RIFIY VA AMALIY ASOSLARI

Rajabov Mahmud Panji o‘g‘li,

*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti kichik ilmiy xodimi*

Yosh avlod ongiga milliy qadriyatlar va ma’naviy merosni chuqur singdirish, milliy o‘zlikni shakllantirish hamda ma’naviy-ma’rifiy faoliyat samaradorligini oshirish zamonaviy davrning ustuvor talabi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonda ma’naviyat sohasidagi ilmiy izlanishlar

natijalarini amaliyotga joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, milliy qadriyatlarning tarixiy-falsafiy ildizlari, ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi funksional o'rni, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali milliy o'zlikni yuksaltirish, milliy qadriyatlarga tayangan holda taraqqiyot omillarini shakllantirish va ma'naviy meros targ'ibotining metodologik asoslarini aniqlash bugungi ma'naviyatshunos olimlar oldidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, ma'naviyat sohasi mutaxassislari oldida turgan yanada muhim yo'nalishlar qatoriga mavjud muammolarni aniqlash va ularning echimlarini ishlab chiqish, milliy qadriyatlarni turli ijtimoiy maydonlarda tizimli targ'ib etish, tajriba almashinuvi va nazariy xulosalarni amaliy mexanizmlar bilan uyg'unlashtirish kiradi. Mazkur sa'y-harakatlar mamlakatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan. Globallashtiruv sharoitida sun'iy intellekt va raqamlashtirish jarayonlari ijobiy imkoniyatlar yaratishi bilan birga, axloqiy-ma'naviy inqiroz alomatlari va "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirlarini ham kuchaytirishi mumkinligi inobatga olinishi lozim.

So'nggi yillarda yurtimizda aholining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash "Ilhom" jamoat fondi, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida), O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali kabi institutsional tuzilmalar tashkil etildi.

Asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy qadriyatlarimiz va ma'naviy merosimizni asrab-avaylash, ularni jahon madaniyati bilan uyg'un rivojlantirish va milliy madaniyatning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqildi.

Konsepsiya doirasida madaniyat sohasining normativ-huquqiy bazasi va institutsional tizimini takomillashtirish, madaniyat muassasalari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, tarixiy-madaniy merosni saqlash hamda uni tarbiyaviy jarayonlarda keng qo'llash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrash va xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash belgilab olindi. Shuningdek, yoshlarning ijodiy salohiyatini royobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, AKTni madaniyat sohasi boshqaruviga joriy etish, madaniy jarayonlarni tadqiq va targ'ib etishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish kabi vazifalar ham ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Xalqaro madaniy hamkorlikni rivojlantirishda milliy madaniyatni jahon madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rish, teng huquqlilik va inson huquqlariga hurmat tamoyillariga qat'iy amal qilish muhim deb topildi. Shuningdek, madaniyat va san'at muassasalarining to'laqonli faoliyatini ta'minlash, ularning moddiy resurs bazasini mustahkamlash, obyektlarni saqlash va muhofaza qilishda jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish mexanizmlari mustahkamlandi.

Aholiga ko'rsatiladigan madaniy xizmatlar sifatini oshirish, madaniy ehtiyojlarni qondirish va bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ijodiy jamoalar tomonidan milliy qadriyat, urf-odat va an'analarni mujassam etgan namunaviy dasturlar shakllantirilmoqda; xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san'atini asrash-rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar hamda havaskorlik guruhlarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur infratuzilma yaratilmoqda. Bolalarni to'garaklarga jalb etish, xorijiy tillarni o'qitish, "nutq madaniyati" bo'yicha kurslarni yo'lga qo'yish, nomoddiy madaniy merosning barcha yo'nalishlarini keng targ'ib etish va ularni asl ko'rinishda kelgusi avlodlarga etkazish madaniyat markazlarining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Ma'naviy yangilanishning ichki mantiqi milliy tarixiy qadriyatlarni zamonaviy – umuminsoniy demokratik qadriyatlar bilan muvofiqlashtirishni talab etadi. Tarixiy merosning bugungi davr ruhiga mos talqini, bir tomondan, zamon talablariga javob berishni, ikkinchi tomondan,

milliy qadriyatlardan begonalashuvning oldini olishni ta'minlaydi. Milliy qadriyatlar davr ehtiyojlari va millat manfaatlari kontekstida ijodiy rivojlanadi; har ikki – tarixiy va zamonaviy – qadriyatlar tizimiga jamiyatning ijodiy yondashuvi zarur. Mazkur yondashuv doirasida rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish, ularning tizimidan mamlakatimiz demokratik taraqqiyotiga xizmat qiladigan, milliy manfaatlarga mos keladigan unsurlarni selektiv tarzda qabul qilish va amaliyotga tatbiq etish mumkin.

Ma'naviy yangilanish millat va jamiyatning evolyutsion taraqqiyoti uchun tabiiy bosqichdir. Bu jarayon milliy va ilg'or umuminsoniy ma'naviyatni uyg'unlashtirish hamda globallashuv taklif etayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Umuminsoniy qadriyatlarning universalligi ularning milliy tarixiy xotira, ma'naviy meros va hayotiy amaliyot bilan uzviy bog'liqligini inkor etmaydi; aksincha, ayni bog'liqlik ularning barqaror ildizlarini ta'minlaydi.

Tarixiy taraqqiyot davomida insoniyat dunyoviylik sari izchil intilib kelgan. Dunyoviy jamiyatning poydevori sifatida umume'tirof etilgan tamoyillar – qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik – alohida ahamiyatga ega. Shaxsning huquq va erkinliklari, jumladan vijdon erkinligi, qonun bilan kafolatlanadi. Dunyoviylik mafkurasi “dunyoviylik – dahriylik emas” prinsipiga asoslanadi; bu yondashuv dinning jamiyat hayotidagi o'rni va ijtimoiy-madaniy ahamiyatini e'tirof etadi.

O'zbekistonda mazkur yo'nalishda tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda: Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Toshkentda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan “Jaholatga qarshi – ma'rifat” g'oyasi ilmiy bilimning ommabopligini ta'minlash, diniy sohada jaholatni bartaraf etishni ko'zlaydi. Ushbu yondashuv uchinchi Renessansning konseptual poydevorini yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

So'nggi besh yillikda madaniyat sohasiga qaratilgan e'tibor sezilarli darajada kuchaydi: milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, aholining ma'naviy-ma'rifiy

saviyasini ko'tarish, moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrash hamda ommalashtirish, jahon madaniy makoniga faol integratsiyani ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Prezident qaror va farmonlari – "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", shuningdek "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" hujjatlari sohaning yangilanishi va islohotlar dinamikasini jadallashtirdi.

Madaniyat sohasida huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirish maqsadida "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Mazkur hujjat madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari faoliyatiga doir ijtimoiy munosabatlarni kompleks tartibga solishga qaratilgan bo'lib, institutlarning barqaror ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, yurtimizning qadimiy va boy tarixini chuqur o'rganish, ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni faollashtirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar va ajdodlar merosi asosida tarbiyalash – milliy o'zlikni anglashni mustahkamlash va fuqarolarning dunyoqarashini kengaytirishning eng muhim omillaridir. O'zbekiston tarixiy tajribasi va xalqimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ilmiy-madaniy hissasi haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar xalqaro maydonda mamlakatimiz obro'sini yuksaltirdi. Milliy madaniyat va qadriyatlarni rivojlantirish, ma'naviy olamni boyitish ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etildi va bu yo'nalishdagi islohotlar o'zining amaliy samarasini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488–490-bb.

2. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – 190–194-bb.

3. Otamuratov S. O‘zbekistonning ma’naviy-ruhiy tiklanishi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – 220-b.

4. Mavrulov A. Axloqsizlik – “yangi axloq”mi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 18–24-bb.

5. Jo‘rayev N. O‘zgarayotgan dunyoda milliy qadriyatlar va o‘zlikni asrash muammolari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 38–44-bb.

6. Saifnazarov I. Talaba yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda innovatsion o‘quv loyihalarining o‘rni. – Toshkent, 2015.

XITOIY MILLIY QADRIYATLARIDA AXLOQNING O‘RNI

Muhiddinova Sarvinoz Nodirjon qizi,

Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti

1-kurs tayanch doktoranti.

Tadqiqotning metodologik asosini axloq nazariyasining asosiy tamoyillari tashkil etadi. Ishda tahlil, sintez kabi ilmiy metodlardan foydalanilgan. Tadqiqot materiali sifatida mumtoz falsafa namoyandalarining asarlari, shuningdek, ma’naviyat, axloq va huquqning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar asos qilib olingan.

Ko‘plab axloqiy xulq-atvor me’yorlarining ildizlarini qadimiy xitoy an’analarida uchratish mumkin. Masalan, shaxsiy kamolotga oid quyidagi axloqiy ko‘rsatmalar qadimiy xitoy hikmatlarida ifoda etilgan:

- Adolatli va manfaatparastlikdan yiroq bo‘lish;
- Yovuzlikka nafrat bilan qarash;
- Halollik va poklikni saqlash;
- Bekorchi so‘zlardan tiyilish;
- Isrofgarchilikdan voz kechish va tejamkorlik;
- Yomon niyatni ildizidayoq tugatish;
- Doimo o‘z fikr va amallarini tekshirib borish;

— Keng qalbli bo‘lish;

— Sabrli, mehribon, hurmatli, kamtar va oliyjanob bo‘lish.

Kasbga munosabat haqidagi an‘anaviy o‘g‘itlar ham mavjud:

“Kasbingni va u bilan shug‘ullanuvchi odamlarni sev.”

“Jamiyat manfaati uchun xizmat qil, o‘zingni unut.”

Vatanparvarlik haqida:

“Har bir insonning burchi – Vatan taqdiri uchun qayg‘urish.”

Oliyjanob intilishlar haqida:

“Tashvishda birinchi bo‘l, ne‘matda oxirgi bo‘l.”

Shaxsiy g‘urur va prinsiplar haqida:

“Boylikda manmanlik qilma, qashshoqlikda prinsiplarni tark etma, kuchlilarga ta‘zim qilma.”

Bugungi kunda Xitoy umumxalq farovon jamiyatini barpo etish va sotsialistik modernizatsiyani jadallashtirishning yangi bosqichiga kirdi. “Uch vakillik” konsepsiyasi [2] ruhida 16-chaqiriq partiya qurultoyining g‘oyalarini to‘liq amalga oshirish jarayonida, xitoy milliy ruhining rivoji va tarbiyasini sotsialistik madaniyatni qurishning muhim vazifasi sifatida, xalq ma‘naviyati tarbiyasining ajralmas qismi sifatida ko‘rish lozim.

Shu bilan birga, Xitoy boshqa davlatlar tajribasidan ham foydalanib, zamonaviy madaniyat yutuqlarini o‘zlashtirar ekan, ularning negizida sotsialistik bozor iqtisodiyotiga mos keluvchi, sotsializm huquqiy me‘yorlariga tayanuvchi, shu bilan birga milliy an‘anaviy qadriyatlarni davom ettiruvchi axloqiy-ma‘naviy tizim barpo etishga intilmoqda. Shu maqsadda 1993 va 2002-yillarda Xitoyda yuksak malakali mutaxassislar ishtirokida keng qamrovli ilmiy maslahatlar o‘tkazildi. Ushbu maslahatlar asosida “Xitoyning an‘anaviy axloqi” hamda “Xitoyning an‘anaviy qadriyatlari haqida — aforizmlar” [3] nomli ma‘naviy tarbiya qo‘llanmalari nashr etildi.

An‘anaviy qadriyatlarni tanlab olish zarurati

Eng yaxshi madaniy an‘analarni meros qilib olish va rivojlantirishga urg‘u berilgan bo‘lsa-da, bu: “an‘anaviy qadriyatlarning barchasi ham ijobiydir”— degani emas. Xitoy tarixida xalq ongiga chuqur singib qolgan

salbiy odatlar ham mavjud. Bunday an'analar nafaqat merosga olinmasligi, balki qat'iy bartaraf etilishi lozim.

Shu bois qadriyatlarni saralash zarur. Zamonaviy ruhga mos keladigan qadriyatlar saqlanadi va rivojlantiriladi, mos kelmaydigan qadriyatlar inkor qilinadi va yo'q qilinadi.

An'anaviy axloqiy qadriyatlar Xitoy jamiyatining axloqiy tarbiyasi uchun tugamaydigan manbadir [4]. Ular xalq birligi, jamiyatga xizmat qilish, halollik va mas'uliyatlilik, burch va vatanparvarlik kabi tamoyillarning shakllanishiga asos bo'lib kelgan.

Keksa avlodga hurmat va "Syao" (孝) an'anasi

Qadimiy "Kimning qari ota-onasi bo'lsa, uzoq safarga chiqmasin" degan hikmatga bugun so'zma-so'z amal qilinmasa-da, asosiy ma'no o'zgarmagan.

Xitoyliklar uchun ota-onaga g'amxo'rlik faqat qonuniy burch emas, eng avvalo qon-qarindoshlik rishtalarining uzilmasligi ifodasidir. Bu esa jamiyatdagi ma'naviy barqarorlik uchun nihoyatda muhim. Shu bois Xitoyda "Oy bayrami" [5] hanuzgacha keng nishonlanadi. Bu bayramda oy – oilaning birlik ramzi sifatida talqin qilinadi, shuningdek, yaqinlar bir joyga yig'ilib, birlikni qadrlashadi,

uzoqda yurganlar esa oyni tomosha qilib, oila va vatan haqida o'ylashadi.

Bundan tashqari, Xitoyda ta'lim tizimiga yana klassik adabiyot va konfutsiychilik qadriyatlari qayta kiritilmoqda. Konfutsiy oila etikasi tamoyillarini davlat boshqaruviga tatbiq etgan. Uning fikricha: "Davlat – katta oila, oila – kichik davlat". Syao (孝) — ota-onaga sadoqat va hurmat, jamiyatda kattaga bo'ysunish tartibini mustahkamlaydi.

Mamlakatimizdagi asosiy an'anaviy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi, an'anaviy axloqning vujudga kelishi, shakllanishi va evolyutsiyasi jarayonlari bilan uzviy bog'liq ravishda kechgan. Bir tomondan, an'anaviy axloq — xitoy milliy qadriyatlarining poydevori hisoblanadi. Boshqa tomondan, mazkur qadriyatlarning o'zi ham an'anaviy axloqning markaziy yadrosi bo'lib, uning rivojlanish mantig'i va tizimli tuzilmasini belgilab beradi. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti davomida an'anaviy

axloqiy qadriyatlar ham o'z navbatida shakllanish, rivojlanish va yangicha talqin etilish bosqichlaridan o'tib kelgan. Xitoy madaniyatida axloq insonning dunyodagi mavjudligi shakli, ijtimoiy ongning muhim qatlami sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, har bir tarixiy rivojlanish davrida axloq jamiyatga mos keluvchi axloqiy qiyofa, qadriyatlar tizimi bilan namoyon bo'lgan.

Demak, axloq tushunchasi insonning axloqiy fazilatlari, burchi va ma'naviy tamoyillari haqidagi ilmiy bilimlarni tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **Чэнь Юаньвэй.** Исследование основ образовательных реформ. Шанхай: Шанхай кэсы сяюй чубаньше, 2001. – 7 с.

2. **Абрамова Н. А.** Традиционная культура Китая и межкультурное взаимодействие (социально-философский аспект). Чита: ЧитГУ, 1998.

3. **Василенко И. А.** Диалог цивилизаций: социокультурные проблемы политического партнёрства. М.: Эдиториал УРСС, 1999.

4. **Лао-цзы.** Дао Дэ Цзин / Пер. Ян Ши-Хуна // Древнекитайская философия. М.: Мысль, 1972. С. 164–178.

5. **Сяо Гочэн.** Традиционная этика и её современное значение. Пекин, 2000.

6. **Чэнь Сэньсюнь.** Создание морали XXI века и конфуцианская этика // Социальные и гуманитарные науки. Зарубежная литература. Реф. журн. № 3, 1997.

7. **Чэнь Юаньвэй.** Исследование основ образовательных реформ. Шанхай: Шанхай кэсы сяюй чубаньше, 2001. – 7 с.

Internet resurslari:

<http://russian.people.com.cn/31516/6269627.html>

<http://ekd.me/2015/10/school-confucianism/>

IJTIMOIIY-PEDAGOGIK FAOLIYATDA INSONPARVARLIK TAMOYILI MILLIY QADRIYATLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Mansurova Malohat Yunus qizi

Falsafa fanlari bo'yisha falsafa doktori (PhD)

Navoiy davlat universiteti

Napasova Madina Xalil qizi,

Navoiy davlat universiteti talabasi

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida insonning ma'naviy kamoloti, uning axloqiy qadriyatlarga sodiqligi hamda insonparvarlik ruhida tarbiyalanishi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, ijtimoiy-pedagogik faoliyatda insonparvarlik tamoyili markaziy o'rinda turadi, chunki pedagogik jarayon faqat bilim berish emas, balki shaxsni insoniy fazilatlar ruhida shakllantirishga ham qaratilgan.

Milliy qadriyatlar esa bu jarayonda o'ziga xos ma'naviy tayanch, axloqiy mezon va tarbiyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Ular o'zbek xalqining ko'p asrlik tajribasi, hayot falsafasi va odob-axloq me'yorlarini o'zida mujassam etgan. Shu bois ijtimoiy-pedagogik faoliyatda insonparvarlik tamoyilini milliy qadriyatlar orqali rivojlantirish — yosh avlodni ma'naviy barkamol, mehr-oqibatli, ezgu niyatli insonlar etib tarbiyalashning asosiy yo'lidir.

Zamonaviy ta'lim tizimida insonparvarlik tamoyili markaziy o'rin tutadi. Har qanday pedagogik faoliyatning mazmuni insonni hurmat qilish, uning qadr-qimmatini yuksaltirish va shaxs sifatida kamol topishiga sharoit yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy shunday degan edi:

“Inson eng oliy mavjudotdir, u bilim va tarbiya orqali kamol topadi”[2]

Bu fikr ijtimoiy-pedagogik faoliyatda insonparvarlikning zarurligini asoslab beradi. Insonparvarlik — bu faqat nazariy tushuncha emas, balki amaliy faoliyatning ma'naviy yo'nalaridan biridir.

Ijtimoiy pedagogika inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Insonparvarlik tamoyili

esa shu faoliyatning ma'naviy mezoni bo'lib, har bir pedagogning ishida rahm-shafqat, bag'rikenglik va adolatni namoyon etishni taqozo etadi.

Alisher Navoiy insonparvarlik haqida shunday yozgan: "Inson uchun inson qadri – eng yuksak fazilatdir" [1]

Bu so'zlar mening nazarimda ijtimoiy pedagog faoliyatining asosiy g'oyasini ifodalaydi. Chunki pedagog nafaqat bilim beradi, balki tarbiya jarayonida shaxsning ijtimoiy faolligini, axloqiy qarashlarini, insoniy munosabatlarini shakllantiradi.

Insonparvarlik tamoyilining amaliy ifodasi quyidagicha ko'rinadi: har bir o'quvchiga shaxs sifatida individual yondashish; uning ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olish; adolat va tenglik muhitini yaratish; shaxsiy fikr va tashabbusni qadrlash; o'zaro hurmat asosida muloqot yuritish.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z asarlarida "shaxs – millatning eng katta boyligi"[3] deb ta'kidlagan. Demak, insonparvarlik faqat axloqiy qadriyat emas, balki jamiyat taraqqiyotining poydevoridir.

Shuningdek, insonparvarlik tamoyili O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham o'z aksini topgan. Ushbu hujjatlarda ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsning ma'naviy barkamolligini ta'minlashga qaratilganligi alohida ta'kidlanadi.[5]

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-pedagogik faoliyatda insonparvarlik tamoyilini amalga oshirish — bu nafaqat ta'lim sifati, balki jamiyat ma'naviyatining yuksalishiga xizmat qiluvchi omildir. Har bir pedagog o'z kasbiy faoliyatida insonparvarlikni bosh mezon sifatida qabul qilsa, natijada yoshlar komil, ongli va ijtimoiy faol shaxslar sifatida shakllanadi. Insonparvarlik tamoyili va milliy qadriyatlar bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalardir. Milliy qadriyatlar — insonparvarlikning tarixiy ildizlari, uning ma'naviy va axloqiy asosidir. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatda ana shu qadriyatlar asosida insonparvarlik g'oyalarini rivojlantirish yosh avlodda mehr-oqibat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, halollik va ezgulik tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, insonparvarlikni ta'lim va tarbiya jarayonining markaziga qo'ygan holda, uni milliy qadriyatlar bilan

uyg'unlashtirish — jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti va komil insonni tarbiyalashning eng muhim garovidir.

Jaloliddin Rumiyl aytganidek: "Inson bo'lish – bilim olishdan ham muhimroq san'atdir"[4] Shu boisdan, haqiqiy pedagog insonparvarlikni o'z kasbining yuragiga aylantirgan, har bir shaxsga mehr bilan e'tibor berishi lozim .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983. 34-35 betlar

2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993. 56-57 betlar

3. Behbudiy M. Millatni saodatga eltuvchi yo'l. – Samarqand, 1914. 67-68 betlar

4. Jaloliddin Rumiyl. Masnaviy ma'naviy. – Tehron nashri. 72-73 betlar

5. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yilgi tahriri. 4-5 betlar

TARIXIY MEROSDAN KELAJAKKA YO'L

Nurullayeva Gulnora Uktamovna

Turon universiteti assistent o'qituvchisi

Dunyodagi har bir millatning o'ziga xos tarixi, madaniyati, turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy mezonlari mavjud bo'lib, ular jamiyatning o'zagini tashkil etuvchi milliy qadriyatlar majmuini shakllantiradi. Milliy qadriyatlar – bu avloddan-avlodga o'tib kelayotgan, xalqning ruhiyati, tafakkuri, dunyoqarashi va xulq-atvorini belgilovchi, uning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lovchi muqaddas tushunchalar, an'analar va urf-odatlar yig'indisidir. Globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan, turli madaniyatlar va g'oyalar to'qnashuvi kuzatilayotgan bugungi kunda milliy qadriyatlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ular jamiyatning

ma'naviy immunitetini mustahkamlash, milliy o'zlikni saqlab qolish va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda fundamental ahamiyatga ega.

“Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma'naviy ma'rifiy islohotlarga alohida e'tibor qaratiladi”, [1] deb Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining bosh maqsadiga shunday baho berdi. Ma'naviy- ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini singdirish alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rini tahlil qilish uchun har tomonlama yondashish kerak. “Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o'rtasida jbro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi” deb baho beriladi N. Ortiqovning “Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar” nomli ilmiy asarida. Yoki O'zbekiston milliy ensiklopediyada shunday ta'rif beriladi. “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha ”, [6]- deb ta'rif berilgan. Nazariy tahlil orqali milliy qadriyatlarning mohiyati, funksiyalari va ularning jamiyat hayotining turli sohalariga ta'siri o'rganilishi mumkin.

Shuningdek, zamonaviy globallashuv sharoitida qadriyatlarning transformatsiyasi va ularni saqlab qolish muammolariga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining bir nechta muhim yo'nalishlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan milliy o'zlik va birdamlikni mustahkamlashda qadriyatlar xalqni birlashtiruvchi, unga milliy ruh va o'zlikni baxsh etuvchi asosiy omildir. Ular umumiy tarix, til, madaniyat va urf-odatlar atrofida jamiyat a'zolarini birlashtirib, ularda vatanparvarlik, millatga mansublik hissini shakllantiradi. Bu esa ijtimoiy birdamlikni ta'minlab, jamiyatning ichki barqarorligini oshiradi.

Jamiyatda axloqiy-ma'naviy asos yaratishda milliy qadriyatlar jamiyatda axloqiy mezonlar, odob-axloq qoidalari va ma'naviy yo'nalishlarni belgilaydi. Adolat, halollik, mehr-oqibat, insof, sabr-qanoat kabi qadriyatlar jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlarini tartibga solib, ijtimoiy muhitni sog'lomlashtiradi. Bu esa huquqiy davlat qurish,

korruptsiyaga qarshi kurashish va fuqarolarning o‘zaro ishonchini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlash uchun oila, mahalla, jamoa kabi ijtimoiy institutlarning mustahkamligi milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi hisobga olinishi zarur. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oilaviy qadriyatlarning ustuvorligi jamiyatda avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydi. Mehnatsevarlik, bilimga intilish, tadbirkorlik kabi qadriyatlar esa iqtisodiy rivojlanish va innovatsion taraqqiyot uchun zamin yaratadi.

Bugungi kundagi globallashuv davrida o‘ziga xoslikni, milliy qadriyatlarni saqlash maqsadida quyidagi faoliyatni olib borilishiga e’tibor qaratilishi lozim. Globallashuv jarayonlari milliy madaniyatlarning bir xillikka yuz tutishi xavfini tug‘dirayotgan bir paytda, milliy qadriyatlar har bir xalqning o‘ziga xosligini saqlab qolishda qalqon vazifasini o‘taydi. Ular xalqning o‘ziga xos dunyoqarashini, turmush tarzini va madaniy merosini asrab-avaylashga yordam beradi, shu bilan birga, jahon sivilizatsiyasiga o‘zining betakror hissasini qo‘shish imkonini beradi. “So‘ngi yillarda “ommaviy madaniyat” shakllantirayotgan iste’molchilik psixologiyasining ziyoni haqida ko‘p gapirilmoqda. Ammo shunisi ham borki, iste’molchilik psixologiyasi degani, aslida, qullik psixologiyasining bir ko‘rinishi, xolos”, [5] deb “ommaviy madaniyatiga baho beradi U.Saidov o‘zining “Hurlik va mas’uliyat” nomli maqolasida.

Milliy qadriyatlar yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning asosiy vositasidir. Ular yoshlarda vatanga muhabbat, milliy g‘urur, insoniylik, mehnatsevarlik va bilimga chanqoqlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Bu esa jamiyatning kelajagini belgilovchi, yuksak ma’naviyatli va salohiyatli kadrlarni etishtirish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va

imkoniyatlarini safarbar etamiz”, [2] degan purma’no so‘zlari yosh avlodga yanada ko‘p shijoat baxsh etadi.

Yuqoridagi natijalar milliy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi ko‘p qirrali va fundamental ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Ular nafaqat o‘tmishdan qolgan meros, balki bugungi kun va kelajak uchun ham hayotiy zarur bo‘lgan dinamik kuchdir. Qadriyatlar jamiyatning ichki muvozanatini saqlash, uning a‘zolarini bir maqsad yo‘lida birlashtirish va global muammolar qarshisida ma’naviy jihatdan mustahkam turishga yordam beradi.

Biroq, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish doimiy e’tibor va sa’y-harakatlarni talab qiladi. Globallashuvning salbiy ta’sirlari, axborot xurujlari, madaniy ekspansiyalar qadriyatlar tizimiga jiddiy tahdid solishi mumkin. Shu bois, qadriyatlarni faqatgina e’zozlash emas, balki ularni zamonaviy davr talablariga mos ravishda qayta talqin qilish, yosh avlod ongiga singdirish va ular asosida yangicha yondashuvlarni shakllantirish muhimdir. Bunda ta’lim-tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari, oila va jamoat tashkilotlarining roli beqiyosdir. “Azaldan o‘zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib keladi. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘-tomosha, hashar va marakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf — odat va an’analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan”. [3]

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining poydevori, uning ma’naviy qalqoni va kelajakka ishonchli qadam tashlashning asosiy garovidir. Ularni asrab-avaylash, boyitish va keyingi avlodlarga etkazish har bir fuqaroning, ayniqsa, davlat va jamoat arboblarning muqaddas burchidir. Faqatgina milliy qadriyatlarga sodiq qolgan, ularni o‘z hayotining mazmuni deb bilgan jamiyatgina har qanday sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tib, barqaror va farovon kelajakni barpo eta oladi. Milliy qadriyatlarsiz taraqqiyot – ildizsiz daraxt kabi bo‘lib, uning umri uzoqqa bormasligi muqarrardir. Shu sababli, milliy qadriyatlar tarixiy

merosdan kelajakka eltuvchi ko‘prik vazifasini o‘tab, jamiyatning uzluksiz rivojlanishini ta‘minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent-2022-yil. B.-251.
2. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent-2016-yil. B.-146.
3. I.Karimov. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. –T.: “Ma‘naviyat” nashriyoti, 2013-yil, B-58-59.
4. Ortiqov N. Ma‘naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. – T, “O‘zbekiston”, 1997. B.-48.
5. Saidov U. Hurlik va mas‘uliyat. Tafakkur. Ijtimoiy-falsafiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jurnal. 1-son 2016-yil.
6. Tarbiya ensiklopediyasi. 2010. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, B.-509.

MILLIY QADRIYATLARNING TARIXIY VA FALSAFIY ILDIZLARI

Xaitov Lazizbek Azamatovich,
BuxDU dotsenti (PhD)

Farhodov Ramazon Farhod o‘g‘li
BuxDU talabasi

Milliy qadriyatlar har bir xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma‘naviy o‘zligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Bugungi globallashtirish jarayonida turli madaniyatlar va g‘oyalar o‘zaro ta‘sirga kirishayotgan bir paytda, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yoshlar ongiga chuqur singdirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida ta‘kidlaganidek, “Milliy qadriyatlarimizni asrab-

avaylash, ularni bugungi hayotimizga chuqur singdirish — bu xalqimizning ma'naviy tiklanishining eng muhim omilidir.” [1-25] Milliy qadriyatlar xalqning madaniy merosi, an'analari, urf-odatlar hamda dunyoqarashining o'ziga xos jihatlari orqali shakllanadi. Ular tarixiy jarayonlarda shakllanib, avlodlardan avlodga o'tadi va o'zgarib boradigan ijtimoiy sharoitlarga moslashadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarning ildizlari nafaqat tarixiy voqealar va madaniy tajriba bilan bog'liq, balki falsafiy tafakkurda ham chuqur asoslarga ega.

Faylasuf olim Q. Nazarovning ta'rifiga ko'ra, “qadriyat” — bu voqelikdagi hodisalarning inson va jamiyat hayotidagi umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy hamda madaniy-ma'naviy ahamiyatini ifodalovchi falsafiy tushuncha hisoblanadi. Ushbu ta'rifdan ko'rinadiki, qadriyatlar faqat moddiy yoki ma'naviy hodisalar emas, balki ular insoniyat tomonidan baholangan va ijobiy ma'no kasb etgan ijtimoiy hodisalardir. [2-279] Falsafiy yondashuvlar yordamida milliy qadriyatlarning ma'nosi va mohiyati chuqurroq ochib beriladi. Qadriyatlar jamiyatning asosiy maqsadlarini, ijtimoiy adolat va axloqiy me'yorlarni belgilaydi. Shu tariqa, milliy qadriyatlar nafaqat o'tgan kunlarning tarixiy dalillari, balki hozirgi va kelajak avlod uchun ham ijtimoiy-madaniy rivojlanish yo'lini belgilovchi ko'rsatkichlardir. milliy qadriyatlarning tarixiy va falsafiy ildizlarini o'rganish millatning o'zligini, madaniy merosini va ijtimoiy birdamligini anglashda beqiyos ahamiyatga ega. Bu qadriyatlar jamiyatning barqarorligini ta'minlashda, uning ma'naviy va madaniy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalqining qadriyatlari qadimdan boy tarixiy jarayonlar orqali shakllangan. Ularning ildizlari Zardushtiylik, Turon madaniyati, Islom sivilizatsiyasi va Temuriylar davri ma'naviy merosi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Donish kabi allomalar o'z asarlarida inson kamoloti, axloqiy tozalik va milliy o'zlikni qadrlash g'oyalarini ilgari surganlar. Milliy qadriyatlarning falsafiy mohiyati shundaki, ular inson va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydi. Falsafada qadriyatlar insonning

mavjudlikdagi maqsadi, ma'nosi va hayotiy tanlovini belgilovchi kategoriya sifatida qaraladi.

Bugungi kunda yangilanayotgan jamiyatimiz hayotida amalga oshirilib kelinayotgan tub islohotlarning asosiy maqsadi — inson va uning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan. So'ngi yillar davomida mamlakatimizda O'zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar tufayli fuqarolarimiz va xalqimiz hayotida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda, ularning dunyoqarashi, ong-u — tafakkuri yuksalmoqda. Ushbu jarayonlarda jamiyatimizda yangicha qadriyat va an'analar shakllanmoqda. Davlatimiz rahbari xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga ehtirom bilan munosabatda bo'lish, muqaddas dinimiz, an'ana va urf — odatlarimiz, bebaho tarixiy merosimizni saqlab qolish va rivojlantirishni davlat siyosati darajasida baholab kelmoqda. Ushbu islohotlarni amalga oshirish jarayonida esa jamiyatimizning boy milliy va ma'naviy qadriyatlari beqiyos o'rin egallaydi. Chunki, qadriyatlar yashasa millat yashaydi. Millat esa ma'naviy — axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlikda shakllanadi va rivoj topadi. Bugungi kunga kelib, zaminimizda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan, barcha millat, elat va din vakillari hayotida yangi davr, ya'ni, yangilanayotgan mustaqil O'zbekistonning “milliy tiklanishdan — milliy yuksalish” g'oyasiga asoslangan yangi qadriyatlar tizimini shakllantirish davri boshlandi. Bu davrda, ma'naviy — axloqiy, diniy, umuminsoniy, iqtisodiy va boshqa qadriyatlarning dialektik uyg'unligiga erishish g'oyat zarur hisoblanadi. Kelajagi buyuk bo'lishni istagan har bir xalq o'tmishda ota — bobolaridan qolgan qadriyatlarni asrab — avaylab rivojlantirmog'i lozim. Hozirgi davrda, shukurlar bo'lsinki, mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik, tez sur'atli rivojlanish hukm surayotgan bir paytda jamiyatimizning barcha jabhalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning barchasi, buyuk tarixga ega bo'lgan qadriyatlar ustunligidandir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

O'zbek falsafiy tafakkurida qadriyatlar “komillik”, “adolat”, “ezgulik” kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq. Ular insonni barkamollikka chorlaydi, jamiyatni esa ma'naviy birlashtiradi.

Bugungi kunda axborot oqimining kuchayishi, g'oyaviy ta'sirlarning ortishi milliy qadriyatlarga nisbatan e'tiborni yanada oshiradi. Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, *“Ma'naviyati kuchli xalqni hech qanday kuch engamaydi”* [4] Shu bois, milliy qadriyatlar nafaqat o'tgan davr merosi, balki hozirgi zamon taraqqiyoti uchun strategik yo'nalishdir.

Milliy qadriyatlarni saqlash — yosh avlodni milliy g'urur, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashning eng samarali yo'lidir.

Xulosa qilib aytganda, Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy tayanchi va falsafiy o'zligini ifodalovchi asosiy omildir. Ularning tarixiy va falsafiy ildizlarini chuqur o'rganish, ularni zamonaviy tafakkur asosida rivojlantirish O'zbekiston jamiyatining ma'naviy tiklanishida muhim o'rin tutadi. Shu bois milliy qadriyatlarni asrash, ularni ta'lim-tarbiya tizimiga singdirish va har bir fuqaroning hayotiy mezoniga aylantirish dolzarb ilmiy va ijtimoiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi [Matn] / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Nazarov Q. va boshq. “Falsafa qomusiy lug'at” Toshkent: Sharq, 2004. –B.279
3. <https://president.uz/oz/lists/view/4942>
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022. –B.440.

GENETIK MONIPULYATSIYALASHNING MILLIY QADRIYATLARGA TA'SIRI

Saatova Zulayxa Ochilovna,
Farg'ona davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Manipulyatsiya bu o'z manfaati yo'lida boshqalardan foydalanish, ularni boshqarish orqali ularga ta'sir ko'rsatish. [1] Haddan oshiq manipulyatsiya bu axloqiy tamoyillarni hurmat qilmaydigan, aldaydigan va

boshqalarning zaifligi va ishonuvchanligidan foydalanadigan nayrangchilar, firibgarlar va yolgʻonchilarning hiylasidir. [2] Eng kamida manipulyatsiya boshqalarning hisobidan nazorat oʻrnatish, foyda olish yoki imtiyozlarni qoʻlga kiritish uchun oʻtkaziladigan taʼsirdir. [3] Genetik manipulyatsiya deganda turli organizmlarning (oʻsimlik, hayvon, inson) genetik materialini sunʼiy tarzda oʻzgartirish, mutatsiya yaratish yoki genlarni tashish orqali yangi xususiyatlar berish tushuniladi. Bu koʻp jihatdan tibbiyot, qishloq xoʻjaligi, hayvonot dunyosiga oid sohalarda va boshqa sohalarda qoʻllanilmoqda. Misol uchun, tugʻma genetik kasalliklarni davolash maqsadida hosil qilinadigan gen terapiyalari bilan birga, kelajakda “enhancement” (yaʼni insonni yaxshilash) maqsadida genlarni modifikatsiya qilish imkoniyatlari ham oʻrganilmoqda. [4]

Ilmiy manbalarda genetik manipulyatsiya jamiyatga ijobiy va salbiy taʼsirlar tugʻdirishi mumkinligi taʼkidlanadi. Masalan: 2023-yil 15 oktabrda Falsafa instituti tomonidan eʼlon qilingan “Gen muhandisligi va gen terapiyasida axloqiy masalalar” nomli maqolada “Genetik modifikatsiyalar tirik organizmlarning genetik xususiyatlariga taʼsir qilishi mumkin, bu esa ularning biologik yoki ijtimoiy funksiyalarining oʻzgarishiga olib keladi”, deya taʼkidlangan. [5] Bundan tashqari, genetik muhandislik orqali inson urugʻlarida avloddan avlodga oʻtadigan oʻzgarishlar qilish mumkinligi jamiyatda axloqiy, ijtimoiy va madaniy muammolarni yuzaga chiqarishi mumkinligi ham qayd etilgan. [6] Shu bilan birga, genetik manipulyatsiya texnologiyalari milliy madaniyat va qadriyatlar uchun yangicha chaqiriqlarga sabab boʻlmoqda: milliy oʻzlik, madaniy meros, urf-odatlar va maʼnaviy tamoyillar bu yangi jarayonlarda qayta tekshiruvdan oʻtmoqda.

Milliy qadriyatlar tizimida koʻp hollarda “tabiiylik”, “oʻzlik”, “meros oldidan hurmat” tamoyillari asosiy oʻrin tutadi. Shu nuqtai nazardan, inson genetik kodiga aralashish — “tabiiy oqimni buzish”, “oʻzlikni sunʼiy ravishda yaratish” degan fikrni uygʻotishi mumkin. Masalan, adabiyotlarda “playing God” (Xudo rolini oʻynash) degan ibora genetik manipulyatsiyaga nisbatan qoʻllanadi. [7]. Bu bilan milliy qadriyatlarni takomillashtirish,

insonni tabiiy shaklda qabul qilish, irsiy merosga hurmat kabi tamoyillar bilan ziddiyat yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

Milliy madaniyatlar, urf-odatlar, xalq tarixi orqali shakllangan o'ziga xoslikni qadrlaydi. Lekin genetik modifikatsiya orqali ma'lum xususiyatlar, masalan intellektual qobiliyat, jismoniy imkoniyatlar, hatto tashqi ko'rinish manipulyatsiya qilinsa, bu milliy o'zlik va madaniy xilma-xillik uchun tahdid soladi. Ilmiy manbalar genetik muhandislik genetik xilma-xillikni kamaytirishi, hatto ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkinligini ta'kidlab kelmoqda. [8] Masalan, Jazoirdagi Biotexnologiya oliy milliy maktabining Bioinjeneriya kafedrasida tadqiqotchisi M. Gose Biomuhandislik va biotibbiyot fanlari jurnalidagi "Inson genetik modifikatsiyasida axloqiy masalalar: bioinjeneriya nuqtai nazarini" nomli ilmiy tadqiqotida "Agar biz genlarni kerakli belgilarning tor to'plamini rivojlantiradigan tarzda boshqarishni boshlasak... biz beixtiyor insoniyatning umumiy genetik xilma-xilligini kamaytirgan bo'lar edik", deydi. [9]. Milliy qadriyatlar jihatidan bu har bir insonning o'zligi va qadri borligi haqidagi tamoyilga to'g'ri kelmaydi.

Genetik manipulyatsiyaning yana bir muhim muammosi insonning o'zini tanlash haqidagi huquqi, majburiyatlari va ijtimoiy mas'uliyati bilan bog'liq. Masalan, modifikatsiya qilingan genlar avloddan avlodga o'tishi mumkin va bu kelajak avlod huquqiga ta'sir qilishi ehtimoli bor. Ilmiy jihatdan qarasak, Vikipediada chop etilgan "Zamonaviy texnologiyalar yordamida inson embrionidagi genomni tahrirlash kelajak avlodlarga oldindan aytib bo'lmaydigan ta'sir ko'rsatishi mumkin", deyiladi, xitoylik olim He Jian Kuining 2018-yilda olib borgan tadqiqotlarida. [10]. Milliy qadriyatlar ichida avlodga hurmat, tabiat bilan uyg'unlik, jamiyatga xizmat tamoyillari ustuvor bo'lgani uchun, bu kabi genetik aralashuvlar axloqiy jihatdan qayta tekshiruvni talab qiladi.

Shunday bo'lsa-da, genetik manipulyatsiya faqat salbiy jihatlarga ega emas; u milliy qadriyatlarga ham mos ravishda, ijobiy maqsadlar uchun qo'llanilishi ham mumkin. Genetik manipulyatsiya texnologiyalari orqali tug'ma kasalliklarni oldini olish, avlodlarda sog'lom genetik fondni saqlash imkoniyati mavjud. Bu "inson qadriyatini oshirish", "sog'lom avlodni

tarbiyalash” degan milliy tamoyil bilan mos tushadi. Masalan, AQSHdagi tadqiqotchilardan Shon C. Makkonnell va Alessandro Blasimme lar tadqiqoti natijasi haqida AMA Etika jurnalida e’lon qilgan “Inson genomini tahrirlashda axloq, qadriyatlar va mas’uliyat” nomli hisobot materialida “CRISPR/Cas9 genomini tahrirlash insonning yuqumli kasalliklarga chidamliligi, kuchi yoki aqliy qobiliyati kabi xususiyatlarini yaxshilash uchun ishlatilishi mumkinligi”ni ma’lum qilishgan. [11]. Shuningdek, ilmiy manba genetik terapiyaning insoniyat salomatligini yaxshilashda katta potentsialga ega ekanini ko’rsatadi. [12]. Davlatlar genetik va biotexnologik sohada oldinga chiqishga, ilm-fan va ta’lim orqali milliy raqobatbardoshlikni oshirishga harakat qilmoqda. Milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan ona yurtga fidoyilik, ilmga hurmat, taraqqiyotga intilish shular bilan bog’liq. Shu jihatdan, genetik manipulyatsiya sohasida mas’uliyatli va axloqiy yondashuv bilan ish olib borish milliy manfaatlarga xizmat qiladi. Genetik modifikatsiya usullari orqali ekologik muammolarni hal etishga ham yo’llar mavjud: zararli organizmlarni nazorat qilish, og’ir iqlim sharoitiga mos turli navlarni yaratish. Milliy qadriyatlar ichida “tabiatni asrash”, “yerga hurmat”, “kelajak avlod uchun barqaror muhit yaratish” degan prinsiplar mavjud. Shu bilan birga, bu yo’nalishda genetik manipulyatsiya ehtiyotkorlik bilan qo’llanilganda, milliy ekologik qadriyatlarni mustahkamlasa bo’ladi.

Bizningcha, genetik manipulyatsiya ham katta ilhom, ham katta ehtiyotkorlik maskani. O’zbek xalqi milliy qadriyatlari, tabiat-jamiat-shaxs uyg’unligini, urf-odat va ilm-ma’naviyat uyg’unligini qadrlaydi. Shu jihatdan genetik manipulyatsiya quyidagi mezonlar asosida amalga oshirilsa, milliy qadriyatlar bilan uyg’un bo’lishi mumkin deb hisoblayman:

Genetik manipulyatsiyaga oid ilmiy ma’lumotlar faqat inson salomatligi va barqaror rivojlanish, ekologik muammolarni hal qilish kabi ijtimoiy jihatdan ma’noli yo’nalishlarda qo’llanilishi lozim.

Genetik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari barcha yoshlarni, barcha qatlamlarni qamrab olishi, genetik bo’linishni kuchaytirmasligi, adolat va tenglikka amal qilishi kerak. Bu milliy qadriyat “har kishi qadrli” degan tamoyil bilan mos keladi.

Genetik aralashuvlar, tabiiy merosimiz va urf-odatlarimizga zid bo'lmashligi, balki ularni hurmat qilgan holda amalga oshirilishi, tabiiylikka hurmat bo'lishi kerak. Misol uchun, genetik tadqiqotlar milliy qishloq xo'jaligi navlarini saqlab qolish, ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

Keng madaniy-aksiologik dialog olib borilishi, ya'ni genetik manipulyatsiya masalalari keng jamoatchilik, madaniyat, etika va tadqiqot sohalarida muhokama qilinishi lozim. Milliy qadriyatlar bilan moslashuv jarayonida fuqarolar, ilmiy hamjamiyat va davlat organlari birgalikda ishtirok etsa, jarayon xavfsizroq va mas'uliyatliroq bo'ladi.

Shaxsiy fikrimizcha, genetik manipulyatsiyaning har doim qo'llanilishi yaxshi emas, balki "qayerda, qanday, kim tomonidan va kimga xizmat qilishi" masalasini chuqur ko'rib chiqish zarur deb bilamiz. Milliy qadriyatlarimiz – tabiat, inson, jamiyat – hammasi bir-butun ekanligini o'rgatadi. Shu tamoyillarni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Yakunda shuni ta'kidlash joizki, genetik manipulyatsiya milliy qadriyatlar tizimiga ham tahdid, ham imkoniyat sifatida kirib kelmoqda. Agar salbiy tomonlarini inkor etmasak, bu texnologiya orqali:

inson salomatligini yaxshilash,

ekologik muammolarni bartaraf etish,

milliy ilm-ma'naviyat salohiyatini mustahkamlash imkoniyati mavjud.

Ammo bularni amalga oshirish uchun milliy qadriyatlar asosida quyidagi tamoyillar belgilanishi kerak:

Genetik tadbirlar shaffof, axloqiy va fuqarolar ishtirokida mas'uliyatli bo'lishi lozim.

Genetik xizmatlar barcha uchun teng bo'lishi, milliy qadriyatdagi har bir shaxs qadrliligi prinsipi hurmat qilinishi, adolat ta'minlanishi zarur.

Tabiatga hurmat bo'lishi, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni saqlash, genetik manipulyatsiyaning amalga oshirishda tabiiy xilma-xillik va ekologik muvozanatni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Milliy-umuminsoniy uyg'unlik ta'minlanishi, genetik manipulyatsiya jarayonlari milliy meros, urf-odatlar, madaniy an'analar bilan ziddiyat keltirib chiqarmasligi, balki ularni yangicha talqinda qo'llab-quvvatlashi lozim.

Axloqiy cheklov va suverenitet masalasida bunday texnologiyaning foydalanuvchilari, ilmiy jamoatchilik va davlat organlari bilan birgalikda axloqiy me'yorlarni belgilashi lozim.

Mana shu tamoyillar asosida genetik manipulyatsiyani milliy qadriyatlar bilan uyg'un tarzda rivojlantirish mumkin. Aks holda, bu jarayon milliy o'zlik, madaniy meros va jamiyatning ma'naviy asosiga zarar etkazishi ehtimoli yuqori.

O'zbekistonda "tabiat, jamiyat va inson uyg'unligi" degan qadriyat bilan genetik manipulyatsiyani ehtiyotkorlikda, ma'naviy-aksiologik nuqtai nazardan rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Lekin bu faqat texnologik imkoniyat emas, balki bu madaniyat, axloq va ma'naviyat bilan bog'liq jarayon. Hozirgacha respublikamiz olimlari bu masalaga ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy jihatdan tadqiqotlar olib bormaganliklari, xorijiy olimlar esa bu borada jiddiy tadqiqotlar olib borayotganliklari masalaning dolzarbligini ko'rsatib turibdi.

Adabiyotlar:

1. Brennan, MD. „Signs of Emotional Manipulation“. www.webmd.com. WebMD. Qaraldi: 2020-yil 23-noyabr.

2. Bereczkei, Tamás. Machiavellianism The Psychology of Manipulation, First, London: Taylor and Francis Group, 2017. ISBN 9781315106922.

3. Nichols. „The Ethics of Manipulation“. Stanford Encyclopedia of Philosophy. Stanford University. Qaraldi: 2020-yil 22-mart.

4. Ethics, Values, and Responsibility in Human Genome Editing // Journal of Ethics – American Medical Association. 2019. Vol. 21, № 12. P. E1017-E1020. journalofethics.ama-assn.org

5. Ethical Considerations in Genetic Engineering and Gene Therapy // Philosophy Institute. 2019. <https://philosophy.institute/philosophy-of-technology/ethical-genetic-engineering-gene-therapy/>

6. Ethical dimensions and societal implications: ensuring the social responsibility of CRISPR technology // Frontiers in Genome Editing. 2025. Ethical dimensions and societal implications: ensuring the social responsibility of CRISPR technology // Frontiers in Genome Editing. 2025.

7. Genetic modification and genetic determinism // Philosophy, Ethics, and Humanities in Medicine. Vol. 1 (2006). P. 1-9. BioMed Central

8. Human Embryo Genetic Manipulation from the Point of View of Bioethics and Human Rights // Brief Lands (online journal). Brieflands

9. Ethical Issues in Human Genetic Modification: A Bioengineering Perspective // Journal of Bioengineering & Biomedical Science. <https://philosophy.institute/philosophy-of-technology/ethical-genetic-engineering-gene-therapy/>

10. https://en.wikipedia.org/wiki/He_Jiankui_affair

11. <https://journalofethics.ama-assn.org/article/ethics-values-and-responsibility-human-genome-editing/2019-12>

12. <https://academic.oup.com/humrep/article/33/9/1777/5066726>

GLOBALASHUV JARAYONI SHAROITIDA YOSHLAR FAOLLIGINI OSHIRISH Yo‘LLARI

G‘oyibnazarov Rahmatilla,

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning yo‘llari, usullari, omillari ko‘p. Bizningcha, ilhom va ma‘naviyatning mohiyatini anglab, o‘zligini xalq roziligi va faravonligini oshirishga bag‘ishlagan insonlarning ibрати ham ta‘kidlangan usullardan biridir. Darvoqe, hayot va inson bor joyda ilhom ham bor. Unga umri davomida hamma ham bilib yo bilmay duch keladi. Duch kelganida, borliqni tamoman unutib, shunday zavqqa to‘ladiki, bu zavqdan juda osonlik bilan faqat yangilik tug‘iladi, kashf etiladi.

Bundan esa ilhom egasi shunday huzur, shunday rohat topadiki, u endi shu holatlar va tuyg‘ularning shaydosiga aylanadi. Ilhomni umrning mazmuniga tenglashtiradi, shundagina oromini, tinchini, shodligi va baxtini topadi. Faqat uni anglash, barcha sirlarini egallash va ilhomni o‘ziga bo‘ysundirish hammaga ham nasib qilavermaydi. Shu sabab, ilhomdek Alloh

ne'matining qudratini egallaganlar, uning "hukmdori"ga aylanganlar umri – serhosil, barakali, sof, go'zal, kashfga boy bo'ladi. Umuminsoniy va umumjahoniy ezgulik rivojiga hissa qo'shadigan bo'ladi. Ayni paytda, charchashga, uzoq muddat orom topishga imkoniyat bermaydi, umrni besamar ishlarga sovurishga yo'l qo'ymaydi. Bu gaplarning isbotini keltirish uchun hammamiz biladigan, barchamiz tan olgan hayotiy bir ibratli misolni keltirmoqchiman: Xalq bilan muloqot qilib, inson manfaatlarini yoqlashga kirishganimizga 2 yil to'ldi. Ana shu yillarda Istiqlolning nuri tufayli O'zbekiston va uning xalqi yangi davrga qutlug' qadam qo'ydi.[1:1]

Istiqlolning ertasi – yaxshilik bo'lishiga barcha ishondi.² "Adli ehson bilan jahon gulshani obod bo'ladi" (Amir Temur) haqiqatini xalqimiz o'z tanasida sinab ko'rdi. Bularga minglab dalillar keltirish mumkin o'n yilliklar davomida erishmagan yutuqlarga bir yilda erishdik. Bir yilda O'zbekistonda siyosat o'zgardi. Ijtimoiy iqtisodiyot, ma'naviyat va ma'rifat, davlat hokimiyati vakillik organlarining yangi tizimlari ishga tushdi. Bularning barchasi mamlakat va xalqni boshqarishning san'atini mukammal egallagan, doimo ilhom bilan hamkorlikda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirayotgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bilan mustahkam bog'liqdir.

Uning barcha sarhisob qiluvchi nutqlarida ma'naviyatning yaratuvchi nuri ufurib turadi. Chunki, "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishiga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon- e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir".[2:1]

Quyosh barcha narsaga nurini sochganidek, istiqolol ma'naviyati ham barcha g'oyaviy, iqtisodiy, ma'rifiy harakatlarimizga ijodiy quvvat beradi, halol va adolatli hayot kechirishimizga, komillikka erishishimizga nurli imkoniyatlar yaratadi. Qalbimizni harakatga solib, mehrga, muhabbatga boy qiladi, hurmat-izzatni, halol-u poklikni, ruhan yuksalish va hayotdan, turmushdan qoniqishni barqarorlaydi. Bu haqiqatlar undagi ilhomning yadrosidir. U barchaning qalbini istiqolol ma'naviyati nuri bilan olovlantirayotgan va rivoj tomon, insoniylik tomon, ezgulik tomon yo'naltirayotgan rahnamodir. Har qanday muammoni har tomonlama sarhisob qilish ilmini egallagan, uni adolatli xal qilishning ustuvor yo'llarini ko'rsatib beradigan rahbari odildir. Barcha ishlarning chora-tadbirini ko'ngil

bilan topib xal qiladigan rahbari donishdir. bugungacha tinim bilmasdan, yaratishdan charchamasdan faoliyat ko'rsatayotgan bu inson hammamizni hayratga solmoqda, uningdek ishlashga ko'pchiligimiz o'zlik qilmoqdamiz. Chunki Prezidentimiz ilhomning asosini xalqimiz hayotidan, uning ma'naviyatidan topgan. Uning ko'nglidagi zarur, kerakli haqiqatlarni anglab etgan, O'zbekiston va O'zbekistonliklarning dardini to'liq o'zlashtira va qalban o'zligiga aylantira olgan. Xalq bilan bu masalalarni ilmiy-amaliy ehtirosi bilan kuyunib, yonib baham ko'radigan shaxsga aylangan. Bizningcha, bu hislatlarning barchasi – Ilhomning sirlarini egallab, unga “qo'mondonlik” qilayotgani sabablidir.[3:1]

Shundagina komil insonlar safi ko'payadi, ko'paygani sari O'zbekiston va xalqimizning hayot quvvatini oshirib, barkamollikka erishaveradi; jahon mash'aliga aylanadi!⁵ Bunday namunaviy ibratning qudratini yoshlar ham qalblariga singdirlsalar, ulardagi faollik, ishonch, sadoqat yanada kuchayadi, yaxshilikka o'chlik ortadi, jahoniy ta'sirga, demakki, insoniy komillikka tomon yo'l soladi. Ulug'vorlikni, ilmga asoslangan donolikni, buyuklikni, barhayotlikni voqe qiladi.³

Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, bugun butun yurtimiz, shu jumladan Agentlikning ham kuchi aynan yoshlar, salohiyatli va ilg'or fikrlaydigan, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan yigit va qizlardir.

Islohotlar va o'zgarishlar davrida – yoshlarga, ularning o'zini namoyon qilishiga katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Lekin, bu imkoniyat – qachon ulkan salohiyatga, mislsiz qudratga aylanadi – qachonki bizning yoshlar qat'iyat bilan harakat qilganda, qunt bilan o'qib-o'rganganda, Ona vatan va xalqi oldidagi mas'uliyatni yurakdan his qilib, shunga munosib bo'lishga intilganda.

Bugungi kunda Agentlik tizimida jami 875 ta xodimdan 223 tasini yoshlar tashkil etadi (25,5 foiz). Ularning 16 tasi yoki 9 foizi xotin-qizlardir.

30 yoshgacha bo'lgan jami 21 nafar yoshlar turli rahbar lavozimlarda ishlamoqda, bundan tashqari Agentlikda mas'ul lavozimlarning deyarli barchasida 30-40 yoshlardagi hamkasblarimiz mehnat qilmoqda. Shunga qaramay, biz yoshlarni ushbu yo'nalishda ko'proq o'z ustida ishlashining, o'z qobiliyat va imkoniyatlarini namoyon etishining va safimizda ko'proq

zjv5401

yosh rahbarlar bo‘lishining tarafdorimiz. Buning uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni ta’minlab berishga tayyormiz.

Markaziy apparatda yosh xodimlarimizning (39 tadan 14 tasi) 36 foizi 2 tadan chet tilini, 58 foizi esa rus tilini bilishi ijobiy holat albatta.

Agentlik tizimida yosh xodimlarning tajribasini oshirish maqsadida doimiy xizmat safarlariga jalb etilmoqda, o‘tgan yili 9 nafar xodim xorijiy mamlakatlarga malaka oshirishga va xizmat safarlariga yuborildi;

25 nafar xodim Davlat boshqaruvi akademiyasining malaka oshirish kurslarida ishtirok etmoqda, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga yuborilmoqda, tez kunlarda 200 nafardan ortiq xodimning Korporativ boshqaruv ilmiy markazida o‘qishi uchun sharoitlar yaratiladi, ularning aksariyati yoshlarimizdir.

Yoshlar vakili sifatida Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti etakchisi barcha ijtimoiy tadbirlarga faol jalb qilinmoqda. Agentlik tizimida tuzilayotgan barcha komissiyalar faoliyatida ishtiroki ta’minlanmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, NMIU, 2017
2. Ta’lim texnologiyalari jurnali. 2011 /3 son
3. Qodirov P. O‘ylar. Toshkent, 1971, – B.107
4. Umurov H. Ilhom. – Toshkent: “Navro‘z”, 2018. – B.64

IJTIMOIIY ADOLAT KONSEPSIYASINING FALSAFIY AHAMIYATI

Nurmatov Kamariddin Shamsiyevich,

Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Ijtimoiy adolat jamiyat a’zolari o‘rtasidagi adolatli va teng huquqli munosabatlarning asosini tashkil etuvchi tamoyildir. Ushbu kontsepsiya resurslarni taqsimlash, inson huquqlari, kamsitishga qarshi kurashish va teng imkoniyatlarni ta’minlash kabi jihatlarni qamrab oladi. Uning ahamiyati

iqtisodiy tengsizlik, kamsitish va iqlim o'zgarishi kabi global muammolarga duch kelganda ortib bormoqda, bu esa adolatli echimlarni talab qiladi.

Adolat tushunchasi insoniyat sivilizatsiyasining boshidanoq falsafiy tafakkurning markazida turgan. U jamiyatning asosini, insoniy munosabatlarning mezonini va hukumatlar faoliyatining legitimlik darajasini belgilab beruvchi universal qadriyatdir. Xususan, "ijtimoiy adolat" konsepsiyasi shaxslar va guruhlar o'rtasida resurslar, imkoniyatlar, imtiyozlar va majburiyatlarning qanday taqsimlanishi kerakligi haqidagi axloqiy va siyosiy savollarga javob beradi. Bu tushuncha nafaqat huquqiy va iqtisodiy tizimlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, balki insonning qadr-qimmat, erkinligi va farovonligini ham belgilaydi.

Ijtimoiy adolat nafaqat mavhum falsafiy kategoriya, balki har qanday jamiyatning barqarorligi, rivojlanishi va fuqarolarning ahil yashashi uchun asosiy shartdir. Unga erishish yo'lidagi harakatlar tarix davomida turli inqiloblarga, islohotlarga va ijtimoiy harakatlarga turtki bo'lgan. Biroq, ijtimoiy adolatning aniq mazmuni, unga erishish yo'llari va uning mezonlari haqida yagona falsafiy konsensus mavjud emas. Bu uning murakkabligi va doimiy dolzarbligini ko'rsatadi. [1:314].

Ijtimoiy adolat tushunchasining ildizlari qadimiy sivilizatsiyalarga borib taqaladi. Qadimgi Yunoniston faylasuflari Platon va Aristotel adolat haqidagi ilk tizimli g'oyalarni ilgari surganlar.

- Platon o'zining "Davlat" asarida adolatni jamiyatdagi va shaxs ruhiyatidagi uyg'unlik va mutanosiblik deb tushungan. Uning fikricha, har bir sinf (faylasuf-hukmdorlar, askarlar, hunarmandlar) o'z vazifasini to'g'ri bajarganida va o'z o'rnida turganda jamiyatda adolat hukm suradi. Bu adolatni ierarxik va funktsional birlik sifatida talqin etgan.

- Aristotel adolatni ikki asosiy turga bo'lgan: taqsimlovchi (distributiv) adolat va tenglashtiruvchi (kommutativ) adolat. Taqsimlovchi adolat davlatdagi lavozimlar, resurslar va mukofotlarni munosiblikka ko'ra taqsimlashni anglatgan. Tenglashtiruvchi adolat esa savdo-sotiq, shartnomalar va jazolarda tenglikni, ya'ni ikki tomon o'rtasidagi muvozanatni nazarda tutgan.

Platon va Aristotelning adolat haqidagi g'oyalari ijtimoiy adolat tushunchasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ular tomonidan ilgari

surilgan fikrlar hozirgi kunda ham ijtimoiy hayotda, siyosatda va iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun ularning g'oyalaridan foydalanish, jamiyatda adolat va tenglikni o'rnatishda muhim qadam hisoblanadi. Bu qadimiy g'oyalar zamonaviy dunyoda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda va ijtimoiy muammolarni hal etishda yo'l ko'rsatadi.

Ijtimoiy adolat konsepsiyasining falsafiy ahamiyati juda keng va murakkab bo'lib, u insoniyatning ijtimoiy hayoti, etikasi va siyosiy tizimlari bilan bog'liq ko'plab masalalarni o'z ichiga oladi. Ushbu konsepsiyaning falsafiy ahamiyatini quyidagi asosiy jihatlar orqali ko'rib chiqish mumkin: [2:3].

Etik asoslar. Ijtimoiy adolat, avvalo, etik tamoyillar bilan bog'liqdir. U adolat, tenglik, erkinlik va inson huquqlari kabi tushunchalarga asoslanadi. Falsafiy nuqtai nazardan, ijtimoiy adolat, insonlarning bir-biriga nisbatan qanday munosabatda bo'lishi kerakligini belgilovchi asosiy printsiplarni o'rganadi. Masalan, Kantning deontologik etikasi adolatni insonning o'ziga xos qadr-qimmati va huquqlarini hurmat qilish bilan bog'laydi.

Siyosiy tizimlar. Ijtimoiy adolat konsepsiyasi siyosiy tizimlarning asosini tashkil etadi. U fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, davlatning roli va funksiyalarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Falsafiy nuqtai nazardan, ijtimoiy adolat davlat tomonidan qanday ta'minlanishi kerakligi, qonunlar va siyosatning adolatli bo'lishi zarurligini o'rganadi. Masalan, John Rawlsning "Adolat nazari" asarida adolatni ijtimoiy hamjamiyatning asosiy printsiipi sifatida ko'rsatadi.

Ijtimoiy strukturani tahlil qilish. Ijtimoiy adolat konsepsiyasi ijtimoiy tuzilmalarning qanday ishlashini va ularning adolatli yoki adolatsizligini tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi. Falsafiy tahlil orqali ijtimoiy qatlamlar, iqtisodiy tengsizliklar va ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini izlash mumkin. Marxist falsafa bu borada iqtisodiy tengsizliklarni va ularning ijtimoiy adolatsizlikka olib kelishini o'rganadi.

Inson huquqlari. Ijtimoiy adolat konsepsiyasi inson huquqlarining rivojlanishiga va himoya qilinishiga ta'sir qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan, har bir insonning qadr-qimmati va huquqlari hurmat qilinishi kerakligi haqida fikr

yuritiladi. Inson huquqlari falsafasi ijtimoiy adolatni ta'minlashda asosiy omil sifatida qaraladi.

Transformatsiya va o'zgarish. Ijtimoiy adolat konsepsiyasi jamiyatdagi o'zgarishlar va transformatsiyalarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Falsafiy tahlil ijtimoiy harakatlar, inqiloblar va islohotlar sabablarini va natijalarini o'rganishga yordam beradi. Bu jarayonlar ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'zgarishlarni anglashga imkon beradi. [4:114].

Ijtimoiy adolat konsepsiyasi falsafaning turli sohalarida chuqur izlanishlarni talab etadi va insoniyat jamiyatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi. U etik, siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy tuzilmalarning murakkab munosabatlarini o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Ijtimoiy adolatni ta'minlash orqali biz barqaror va tinch jamiyatga erishishimiz mumkin, bu esa har bir insonning qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Xulosa. Ijtimoiy adolat barqaror jamiyat rivojlanishining asosiy tamoyilidir. Uni amalga oshirish qonunchilik islohotlari, ijtimoiy institutlarni rivojlantirish va jamoatchilikning xabardorligini oshirishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Faqatgina ushbu choralarni birlashtirish orqali imkoniyatlar tengligi, resurslarning adolatli taqsimlanishi va ijtimoiy uyg'unlikka erishish mumkin.

Adabiyotlar

1. Tyler, T. R. (2003). Procedural justice, legitimacy, and the effective rule of law. *Crime and Justice*, 30, 283–357.
2. United Nations Development Programme (UNDP). (2016). *Human Development Report 2016: Human Development for Everyone*. UNDP.
3. Wilkinson, R., & Pickett, K. (2010). *The Spirit Level: Why Equality is Better for Everyone*. Bloomsbury Press.
4. Stiglitz, J. E. (2012). *The Price of Inequality: How Today's Divided Society Endangers Our Future*. W.W. Norton & Company.

MILLIY KONTENTDA QADRIYATLARNI TARG‘IB QILISH MASALALARI

BUZG‘UNCHI G‘OYALARNING MILLIY QADRIYATLAR TIZIMIGA SALBIY TA‘SIRI

Abduxoliq Tashanov,

*bo‘lim boshlig‘i f.f.d.(DSc), dotsent
Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti*

Milliy qadriyatlar tizimi har bir xalqning ma‘naviy asosi, tarixiy xotirasi va ijtimoiy birdamligining muhim jihati bo‘lib, ular odamlarning hayotga, insoniyatga, mehnatga, oilaga va Vatanga munosabatini belgilaydi. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, qadriyatlar jamiyat ongidagi barqarorlik va ma‘naviy tartibni ta‘minlaydigan mafkuraviy ustunlar bo‘lgani bois, ularni saqlash va avloddan avlodga etkazish – millatning mavjudligini ta‘minlovchi shartdir. Vayronkor g‘oyalar esa, aksincha, jamiyatdagi ma‘naviy birdamlikni zaiflashtiradigan va insonlarning ongiga shubha, beqarorlik, yot qarashlarni singdiradigan g‘oyalar bo‘lib, ular ko‘pincha milliy qadriyatlarga zid ravishda, yot madaniyat yoki manfaatlar ta‘sirida tarqaladi. “Globallashuv jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarilgan hozirgi davrda xatto eng rivojlangan va qudratli davlatlar ham chegara bilmas xavf-xatar va tahdidlarga yakka holda bardosh bera olmaydi. Shu choqqacha hech qachon sayyoramizda odamlar, xalqlar va davlatlarning kelajagi hamda taqdiri hozirgidek bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lmagan” [1.30]. Falsafiy jihatdan bu holat “ma‘naviy koloniyalashuv” deb ataladi, ya‘ni millatning ichki ma‘naviy immuniteti sinishi natijasida tashqi g‘oyalar hukmronlik qila boshlaydi.

Mazkur holat insonning ma‘naviy ongida bag‘rikenglik va global ochiqlik kabi ijobiy qadriyatlar bilan chalkash holatni vujudga keltiradi. Agar jamiyat ma‘naviy me‘yorlarni yo‘qotsa, u holda inson o‘zligini anglash qobiliyatidan mahrum bo‘ladi. Vayronkor g‘oyalar milliy merosni “eski”, “zamonga mos emas” deb baholab, yoshlarning tarixiy ildizlaridan

uzilishga sabab bo'ladi. Bu esa falsafiy ma'noda madaniy identifikatsiyaning yo'qolishi, ya'ni insonning "kimman?" degan savoliga javob topa olmaslik holatidir. Shu sababli, falsafiy nuqtai nazardan millatning ma'naviy barqarorligi uning ichki qadriyatlarini anglash va ularni zamon talablariga mos holda rivojlantira olish qobiliyatiga bog'liq. Milliy g'oya va mafkura tizimi har doim yot ta'sirlarga qarshi ma'naviy qalqon vazifasini bajarishi lozim. Vayronkor g'oyalarga qarshi samarali kurash faqat ta'qiq yoki nazorat bilan emas, balki chuqur ma'naviy tarbiya va ongli falsafiy tafakkur orqali amalga oshiriladi.

Masalaning ma'naviy jihatlarini borasida aytish mumkinki, o'zbek xalqi tarixan mustahkam ma'naviyatga ega bo'lgan. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar har doim hamjihatlik va bag'rikenglikni targ'ib qilib kelgan. Buzg'unchi g'oyalar odatda ma'naviy qadriyatlarning emirilishiga harakat qiladi. Shuning uchun ta'lim, madaniyat va ommaviy axborot vositalari orqali bunday g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantiriladi hamda bu borada din va milliy o'zlikni saqlab qolish ham muhim omil hisoblanadi. Buzg'unchi g'oyalarning transformatsiyasi O'zbekiston jamiyatida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlar bilan bevosita bog'lib bo'lib, bu jarayonni tushunish uchun tarixiy tajriba, milliy mafkura va barqaror taraqqiyot strategiyalarini tahlil qilish muhim. Shu boisdan, mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy etuklikni mustahkamlash va barqaror iqtisodiy siyosat olib borish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Bizning fikrimizcha, buzg'unchi g'oyalar qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish, yangicha ma'naviy asoslarni shakllantirish va insonlarning an'anaviy tushunchalarini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Bunday g'oyalar, xususan, modern va postmodern davrda kuchli bo'lib bordi, insonlarning ma'naviy qadriyatlari zaiflashganda yoki ularning ahamiyati yo'qolganda, buzg'unchi g'oyalar insonlarni yangi ma'naviy qidirishga undadi. Bunday yangilanish yangi falsafiy asoslar, axloqiy me'yorlar yoki hayotning maqsadi haqidagi yangi tasavvurlarni yaratishga olib keldi.

Jamiyatda buzg'unchi g'oyalar kuchayganda uning ijtimoiy va ma'naviy oqibatlarini katta salbiy yo'qotishlarga olib kelishi shubhasiz.

Buzgʻunchi gʻoyalar turli ijtimoiy guruhlar oʻrtasida toʻqnashuvlarga sabab boʻlishi, insonlar oʻrtasida ishonchsizlikni kuchaytirishi natijasida jamiyatda jipslik va uygʻunlik moʻrtlashadi, jamoaviy birdamlik kamayadi [2.903]. Buzgʻunchi gʻoyalar jamiyatda maʼnaviy qadriyatlar va ijtimoiy meʼyorlarni zaiflashtirishi, anʼanaviy qadriyatlarni inkor etishi mumkin. Bu esa insonlarda maʼnaviy boʻshliq va yotlashuv tuygʻularini paydo qilishiga sabab boʻladi.

Buzgʻunchi gʻoyalar jamiyatdagi tartib va boshqaruv tizimlariga qarshi kurashib, uni mustahkamlaydigan qadriyatlar tizimini zaiflashtiradi, jamiyatni yangi tuzilmalarsiz yoki anarxiya holatiga olib kelishi mumkin. Bu jarayonlar jamiyatda tartibsizlikning paydo boʻlishiga sabab boʻlib, ijtimoiy barqarorlikka xavf soladi. Jamiyatdagi turli tuzilmalarga yoki hokimiyatga boʻlgan ishonchning zaiflashishi ijtimoiy institutlarga nisbatan shubha va ishonchsizlikning oshishiga olib keladi. Bu esa insonlar oʻrtasidagi ijtimoiy aloqalarning susayishi va ijtimoiy mustahkamlikning kamayishiga sabab boʻladi.

Ayrim faylasuflar bunday ziddiyatlarni tabiiy jarayon sifatida qabul qilishib, bu jamiyatning rivojlanishi uchun zarur vosita, deb baholaydilar. Gegelning dialektik nazariyasiga koʻra, ziddiyat va antagonizm yangi gʻoyalar va tizimlarning paydo boʻlishi uchun asos boʻladi [3.490]. Shu maʼnoda, buzgʻunchi gʻoyalar yangi tuzilmalar va yangilanish jarayonini ragʻbatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi. Bundan tashqari buzgʻunchi gʻoyalarning rivojlanishi natijasidagi ijtimoiy va maʼnaviy yoʻqotishlar ham yuzaga keladi. Masalan, buzgʻunchi gʻoyalar, jamiyatdagi anʼanaviy tartiblar va qadriyatlarga shubha uygʻotib, ularni qayta koʻrib chiqishga majbur qiladi. Bu jamiyatdagi mavjud qadriyatlar tizimining zaiflashishiga yoki yangilanishiga olib kelishi mumkin. Yangilikka intilish, maʼnaviy yangilanish va qadriyatlarning qayta shakllanishi orqali jamiyatda yangi maʼnaviy yoʻnalishlar va qadriyatlar shakllanadi. Bu jarayon maʼnaviy inqirozdan chiqishga yordam beradi, lekin, shu bilan birga, yangi ziddiyatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Buzgʻunchi gʻoyalar, turli ijtimoiy guruhlar orasidagi ziddiyatlarni kuchaytirib, oʻzgarishlarga olib kelishi, bu oʻzgarishlar esa ijtimoiy

tuzilmalarni qayta shakllantirish yoki ularni takomillashtirishga olib keladi. Ayrim hollarda bunday g'oyalar insonlarni erkinlikka va o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga undashi, bu jarayonda insonlar ma'naviy etuklikka erishib, jamiyatda o'z o'rnini topishga, shaxs sifatida kamol topishga intilishi ham mumkin. Ayrim hollarda buzg'unchi g'oyalar natijasida madaniyatda turli yangiliklar, yangi mafkuralar va tamoyillar shakllanishi jamiyatdagi turli xil qarashlar va qadriyatlarning uyg'unlashuvi yoki keskin qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Buzg'unchi g'oyalarning milliy qadriyatlar tizimiga salbiy ta'sirini turli ko'rinishlaridan qarab chiqish mumkin va ularning barchasi shaxsda, jamiyatda va siyosiy tizimda beqarorlikni keltirib chiqaradi, jumladan:

birinchidan, insonlar o'z hayotida ma'no yo'qotganda yoki qadriyatlar inqiroziga duch kelganda, nigilizmga berilishi mumkin. Buning natijasida har qanday normalar va qadriyatlar inkor qilinadi, bu esa buzg'unchi g'oyalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Nisshening fikricha, an'anaviy axloq va qadriyatlar inqirozi nixilizmga olib keladi. Nixilizm buni inkor etib, jamiyatda umumiy ma'noda zaiflik va ma'nosizlik tuyg'usini paydo qiladi. Bunday sharoitda buzg'unchi g'oyalar jamiyatning an'anaviy tuzilmalariga qarshi chiqadi;

ikkinchidan, ilmiy-texnika taraqqiyoti ba'zan qadimiy diniy va ma'naviy tushunchalarni zaiflashtirib, odamlarning ma'naviy bo'shliqqa tushishiga sabab bo'ladi. Jamiyatning ayrim qatlamlari ijtimoiy yoki shaxsiy izolyatsiyaga tushib qolganda, ular o'zlarini jamiyatdan ajratilgan his qiladi va bu ularni buzg'unchi g'oyalarga moyil qiladi;

uchinchidan, globallashtirish zamonaviy dunyoda madaniy va iqtisodiy tengsizliklarni kuchaytirib yubordi, turli madaniyatlar va qadriyatlar global madaniyat bilan to'qnashib, mahalliy madaniyatlarning yoki qadriyatlarning tanazzuli yuzaga keldi, bu esa buzg'unchi g'oyalarning tarqalishiga sabab bo'ladi. Jan-Bodriyar va Osvald Shpengler [4.1280] kabi faylasuflar madaniyatning globallashtirish davrida tanazzulga yuz tutishi haqida yozganlar. Shpenglarning sivilizatsiya nazariyasiga ko'ra, har qanday sivilizatsiya o'zining ma'lum bir bosqichida madaniy inqirozga

duch keladi [5.143]. Globallashuv mahalliy madaniyatlarni zaiflashtiradi va ular o'rnida yoppasiga madaniyatni joriy etadi. Aksariyat hollarda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklar, adolatsizliklar buzg'unchi g'oyalarning vujudga kelishi uchun muhit yaratadi;

to'rtinchidan, transgumanizm inson tabiati va hayotning chegaralarini kengaytirishni taklif qilar ekan, insonning axloqiy tamoyillarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Genetik muhandislik, inson ongini ko'chirish, va hayotni sun'iy yo'llar bilan uzaytirish kabi yo'nalishlar axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi [6.126]. Masalan, insonning genetik kodini o'zgartirish yoki sun'iy aql orqali inson ongini ko'chirish insonning shaxs sifatidagi erkinligini kamaytirishi yoki uning o'z qadriyatlaridan uzoqlashishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, inson "modernizatsiyasi" jamiyatda yangi axloqiy me'yorlarni yaratishni talab qiladi.

beshinchidan, texnologik radikalizm inson bilan mashina o'rtasidagi chegarani yo'q qilishga intilar ekan, kiborglar, neyroimplantlar va inson ongini sun'iy intellektga ko'chirish orqali inson va mashina birlashtiriladigan kelajak yaratishni da'vo qilmoqda. Bu holat insonning shaxsiy xususiyatlarini yo'qotishga, uning texnik tizimning bir qismga aylanishiga olib kelishi mumkin. Bu chegara yo'qolganda, insonning kimligi va inson sifatidagi qadri qayta ko'rib chiqilishini talab qiladi, bu esa insonlik qadriyatlariga zarar keltirishi mumkin [7.36].

Hozirgi zamon buzg'unchi g'oya va buzg'unchi faoliyat shakllari orasida milliy qadriyatlar tizimiga ochiqdan ochiq tahdid soladigan nigilizmga alohida to'xtalib o'tish joiz. Nigilizmning asosiy xavfli jihati ham shundaki, bu mafkura mavjud qoidalar, qadriyatlar va institutlarni rad etishga qaratilgan falsafiy qarash bo'lib, biror ma'no yoki obyektiv haqiqatning yo'qligiga ishonishni ifodalaydi. Bu g'oya shaxs va jamiyat hayotidagi borliqning ma'nosizligini, qadriyatlarning subyektivligini va ularning o'zgaruvchanligini ta'kidlaydi. Nigilistlar, ko'pincha, ijtimoiy normalarni rad etish orqali jamiyatda inqilobiy o'zgarishlar qilishga intilishadi. "Nigilizm – bu mavjud qadriyatlar, ma'nolar va hayotning umumiy maqsadlarini rad etishga asoslangan falsafiy konsepsiya" [8.221].

Nigilizm g'oyasi hayotdagi ma'naviy qadriyatlarning, axloqning yoki obyektiv haqiqatning yo'qligini ta'kidlaydi.

Nigilizm insonlarning iroda erkinligi va ma'nosini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Agar hayotda ma'no bo'lmasa va qadriyatlar yoki ahloqiy me'yorlar obyektiv asosga ega bo'lmasa, inson o'z yo'lini erkin tanlay oladi. Bu g'oya, falsafiy nuqtai nazardan, shaxsga o'z ma'nosini topish yoki o'z qadriyatlarini yaratish mas'uliyatini yuklashi mumkin. Nigilistik nuqtai nazarda, insonning irodasi va quvvati uning o'z hayotini erkin va mustaqil qurishida yangicha yondashuvni talab qiladi. Nigilizm skeptitsizmga yaqin qarashlarni ham o'z ichiga oladi. Skeptitsizm jahon haqiqatlariga shubha bilan qarashni o'rgatgan bo'lsa, nixilizm buni yanada chuqurlashtiradi. U mavjud bilimlar va ma'rifatning shubhali ekanligini ta'kidlab, ularni insonlar yaratgan subyektiv qonunlar sifatida ko'radi. Natijada, bilim ham afsona yoki ma'nosiz bir narsa sifatida qabul qilinishi mumkin.

Xullas, buzg'unchi g'oyalar, avvalo, mavjud jamiyat tuzilmalari va qadriyatlariga shubha bilan qarash natijasida rivojlanadi va yangi "ma'naviy qadriyatlar"ni shakllantirishga intiladi. Ularning paydo bo'lishi insonning tabiati, ozodlikka intilishi va jamiyatdagi adolatga bo'lgan talablari bilan bog'liq bo'lsa, ularning ayrim hollardagi jamiyatni yangilashda qisman foydali deb qarash mumkin bo'lsada, ularning mutlaqlashuvi ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarib, ma'naviy tanazzulga olib boradi;

ikkinchidan, nigilistlar jamiyatdagi mavjud axloq normalari obyektiv emas, balki insonlarning subyektiv hukmlariga asoslangan, deb hisoblashlari bilan millatning an'anaviy qadriyatlar tizimiga katta zarba beradi. Ular inson ongida paydo bo'lgan qadriyatlarning universal haqiqat sifatida mavjudligini inkor qiladilar, ya'ni, yaxshilik yoki yomonlik tushunchalari, nigilizm nuqtai nazaridan, faqat shartlidir. Bunday qarash axloqqa nisbiy yondashuvni keltirib chiqaradi va natijada, qadriyatlar tizimi shubha ostiga olinadi. Nigilizm ba'zan mavjud jamiyat tizimlarini yoki institutlarni rad etish, ularni qayta shakllantirishga chaqiriq sifatida ham talqin qilinadi.

uchinchidan, texnologik radikalizm va transgumanizm inson hayotini yaxshilashga qaratilgan katta salohiyatga ega bo'lsa-da, ular jamiyat uchun jiddiy destruktiv g'oyalarni ham o'z ichiga oladi.

Inson tabiatiga noo'rin aralashuv, axloqiy me'yorlarning qayta ko'rib chiqilishi, sun'iy intellektning ustunlik qilishi hamda insoniy qadriyatlarining buzilishi kabi muammolar insonning kelajakda jamiyatdagi rolga jiddiy ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, ushbu texnologiyalarni rivojlantirish jarayonida ularning destruktiv jihatlariga e'tibor qaratish va insoniy qadriyatlarini saqlab qolish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent.: O'zbekiston, 2024. -B. 30
2. Nazarov Q.N. Jahon falsafasi Qomusi 1-jild, -Toshkent: O'FMJ, 2022. -B.903
3. G'arb falsafasi. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. -Toshkent: Sharq, 2004. -B.490
4. Shpengler O. Zakat Yevropy. Minsk — M.: "Xarvest AST", 2000. — 1280 s.
5. Yankovskaya N.V. Konsepsii kultury: O. Shpengler i L.P. Karsavin – Nauchnaya mysl Kavkaza – 2013. — № 4. -S. 143
6. Xvastunova Yu. Postchelovechestvo na primere populyarizatsii gibridov v iskusstve transgumanizma // MEDITSINA. SOTSIOLOGIYA. FILOSOFIYA. Prikladnye issledovaniya №4 2021 [MSF] — S. 126-128
7. Umarov B. Jabborov Sh. Globallashuv sharoitida ma'naviy tarbiya muammolari –Toshkent: Akademiya, 2011. -B. 36
8. Tashanov A. Vayronkor g'oyalar va buzg'unchi mafkuralar -Toshent: Turon zamin ziyo, 2015. -B.221

MILLIY QADRIYATLARNING DAVLATLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Eshonqulov Laziz Azamatovich,
PHD, I.F.F.D

Milliy qadriyatlar deyilganida ko'pincha urf-odatlar, marosimlar, kiyinish, til yoki diniy an'analar ko'z oldimizga keladi. Iqtisodiy rivojlanish esa odatda zavodlar, texnologiya, banklar, eksport va investitsiya bilan bog'lanadi. Tashqi tomondan ular alohida ko'rinadi, ammo aslida bir-biriga juda bog'liq. Davlatning iqtisodiy taraqqiyoti nafaqat er osti boyliklari, texnika darajasi yoki geografik joylashuvga, balki odamlar qanday o'ylashi, qanday ishlashi va qanday yashashiga, ya'ni milliy qadriyatlariga ham tayangan holda shakllanadi. Tarixchi iqtisodchi Devid Landes bu bog'liqlikni juda aniq so'zlar bilan ifodalaydi: "Qachonki iqtisodiy rivojlanish tarixidan biror narsa o'rganadigan bo'lsak, shuni ko'ramizki, hammasini hal qiladigan omil – madaniyatdir." [1]

Ko'plab olimlar qadriyatlar bilan iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi aloqa haqida o'ylagan. Nemis sotsiologi Maks Veber mashhur "Protestant axloqi va kapitalizm ruhi" asarida diniy qarashlar mehnatsevarlik, tartib, tejamkorlik va mas'uliyatni kuchaytirganini, bular esa kapitalizm uchun ruhiy zamin yaratganini yozadi. U puritan axloqini tasvirlar ekan, shunday deydi: "Bu [puritan] axloqining eng oliy ne'mati – tobora ko'proq pul topish va ayni paytda har qanday lazzatlanishdan qat'iy tiyilishdir." [2] Bugungi kunda ham iqtisodchilar va sotsiologlar turli mamlakatlar tajribasini o'rganib, madaniy va milliy qadriyatlar bilan iqtisodiy natijalar o'rtasida barqaror bog'liqlik borligini ko'rsatmoqda. Madaniyat bo'yicha mashhur tadqiqotchi Gert Xofsted madaniyatni shunday ta'riflaydi: "Madaniyat – bu ongning jamlanma dasturlanishi bo'lib, aynan shu narsa bir guruh yoki toifadagi odamlarni boshqalaridan farqlab turadi." [3] Shundan ko'rinadiki, milliy qadriyatlar – shunchaki marosimlar majmuasi emas, balki butun jamiyatning fikrlashi va harakatiga ta'sir ko'rsatadigan "ichki dastur"dir. Iqtisodiyot esa aynan shu odatlar va tasavvurlar bilan yashaydigan odamlar qo'li bilan boshqariladi.

Milliy qadriyatlarning iqtisodiyotga ta'sirini ko'rish uchun eng sodda misol – mehnatga munosabat. Agar jamiyatda mehnatsevarlik qadrlansa, “halol mehnat qilgan odam hurmatga loyiq” degan qarash keng tarqalgan bo'lsa, odamlar ko'proq ishlashga, kasb o'rganishga, vaqtni bekorga o'tkazmaslikka intiladi. Bu esa ishlab chiqarish hajmini oshiradi, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Veber tasvirlagan puritan axloqi shuni ko'rsatadi: ish faqat pul topish vositasi emas, balki axloqiy burch sifatida qabul qilinadi, bekorchilik uyat, isrofgarchilik yomon narsa hisoblanadi. Bunday qarashlar shakllangan jamiyatlarda iqtisodiy faollik tabiiy ravishda yuqori bo'ladi. Iqtisodiy taraqqiyot shaxsiy mehnatsevarlik bilan birga, ishonch va hamkorlik qadriyatlariga ham bog'liq. Iqtisodchilar “ijtimoiy kapital” deb ataydigan tushuncha aynan shunga taalluqli. Robert Putnam ijtimoiy kapitalni quyidagicha ta'riflaydi: “ijtimoiy kapital deganda shaxslar o'rtasidagi aloqalar – ijtimoiy tarmoqlar va ulardan kelib chiqadigan o'zaro yordam va ishonchlilik me'yorlari tushuniladi.”[4] Ishbilarmonlar hamkor tanlayotganda, bank kredit berayotganda, investor mablag' tikayotganda ana shu ishonch muhim bo'ladi. Agar jamiyatda “so'zida turish”, “va'daga sodiqlik” qadrlansa, hujjatlar, tekshiruvlar, sudlashish bilan bog'liq xarajatlar kamayadi. Bu esa biznesga qulay muhit yaratadi va investitsiyalarni ko'paytiradi.

Milliy qadriyatlar ta'lim va bilimga munosabat orqali ham iqtisodiyotga bevosita ta'sir qiladi. Ilm olishni katta qadriyat deb bilgan jamiyatda ota-onalar bolalarini o'qitishga intiladi, yoshlar esa bilimni hayotini yaxshilash yo'li deb ko'radi. Natijada yangi texnologiyalarni o'zlashtira oladigan, samarali boshqaruvni biladigan, ilmga tayangan qarorlar qabul qila oladigan mutaxassislar ko'payadi. Nelson Mandela ta'limning ana shunday kuchini quyidagi so'zlar bilan ta'riflaydi: “Ta'lim – dunyoni o'zgartirish uchun ishlatishingiz mumkin bo'lgan eng qudratli quroldir.”[5] Ta'limni milliy qadriyat darajasiga ko'tarish iqtisodiy tuzilmani ham o'zgartirishi, yuqori qo'shilgan qiymatli sohalar paydo bo'lishiga sharoit yaratishi aniq.

Qadriyatlarning yana bir muhim tomoni – yangilik va riskka bo'lgan munosabat. Ba'zi jamiyatlarda ehtiyotkorlik, qat'iy qoidalarga yopishib

olish va barqarorlikni saqlash ustun bo'ladi; boshqalarida esa yangilikka ochiqlik, sinab ko'rish, tavakkal qilish ruhiyati kuchliroq. Xofsted modelini sharhlagan Kler Nikerson bu farqni shunday izohlaydi: "noaniqlikdan qochish darajasi past bo'lgan madaniyatlarda rasmiy guvohnomalardan ko'ra amaliy ko'nikmalar va innovatsiya ko'proq qadrlanadi." [6] Bunday muhitda yangi biznes boshlash, bozorga yangi mahsulot chiqarish va noodatiy g'oyalarni sinab ko'rish odatiy holga aylanadi. Strategiya bo'yicha olim Maykl Porter bu jarayonning iqtisodiyot uchun ahamiyatini quyidagicha ifodalaydi: "Innovatsiya – iqtisodiy farovonlikdagi eng asosiy masaladir." [7] Shu tarzda, milliy qadriyatlar yangilikka bo'lgan munosabatni belgilab, tadbirkorlik va innovatsiya sur'atlarini kuchaytirishi yoki aksincha, sekinlashtirishi mumkin.

Milliy qadriyatlar siyosiy va iqtisodiy institutlar shakliga ham ta'sir qiladi. Institutlar – bu shunchaki binolar yoki tashkilotlar emas, balki jamiyatdagi "o'yin qoidalari". Nobel mukofoti sovrindori Duglas Nort institutlar haqida shunday yozadi: "Institutlar – jamiyatdagi 'o'yin qoidalari' bo'lib, yanada aniqroq aytganda, insonlar o'zaro munosabatini shakllantiradigan, odamlar tomonidan yaratilgan cheklovlaridir." [8] Bu qoidalar bir tomondan qonunlar, qarorlar va rasmiy tartiblar bo'lsa, ikkinchi tomondan – halollik, adolat, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish kabi qadriyatlardir. Shu qadriyatlar puxta bo'lgan joyda korrupsiya kamroq, sud tizimi mustaqilroq va biznes qoidalari barqarorroq bo'ladi, ichki va tashqi investorlar o'zini ishonchli muhitda his qiladi.

Zamonaviy iqtisodchilar Daron Acemog'lu va Jeyms Robinson institutlar va iqtisodiy natijalar o'rtasidagi bog'lanishni yanada keskinroq shaklda ifodalaydi: "Bugungi kunda millatlar muvaffaqiyatsizlikka uchrashining sababi – ularning ekspluatatsion iqtisodiy institutlari odamlarning jamg'arish, investitsiya qilish va innovatsiya bilan shug'ullanishi uchun zarur rag'batlarni yaratmaydi." [9] Ko'rinib turibdiki, institutlar qanday bo'lishi ham jamiyatdagi qadriyatlar – adolat, halollik, qonun ustuvorligi haqidagi tasavvurlarga bog'liq.

Jinsiy tenglik va oilaviy qadriyatlar ham iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas aloqador. Agar jamiyatda "ayol faqat uyda bo'lishi kerak"

degan qarash mutlaq hukmron bo'lsa, aholining yarmi o'z bilim va salohiyatini to'liq namoyon qila olmaydi. Bu esa mehnat bozori hajmini, malakali kadrlar sonini va umumiy ishlab chiqarish imkoniyatlarini cheklaydi. Jahon bankining "Jinsiy tenglik va rivojlanish" bo'yicha hisobotida bu holat quyidagicha bayon etiladi: "Jinsiy tenglikning yuqorilashi – bu" aqlli iqtisodiyot', chunki u mehnat unumdorligini oshiradi va boshqa rivojlanish natijalarini, jumladan kelajak avlod istiqbollarini yaxshilaydi." [10] Shu sababli "erkak ham, ayol ham o'qishi va ishlashi mumkin" degan qarash ustun bo'lgan jamiyatlar iqtisodiy jihatdan ham ko'proq yutadi.

Milliy qadriyatlar xalqaro bozorda mamlakat imiji va ishonchiga ham ta'sir qiladi. Ayrim davlatlar "sifatli texnika ishlab chiqaruvchi", boshqalar "an'anaviy ishonchli oziq-ovqat etkazib beruvchi", yana boshqalari "intizomli va halol ishchi kuchiga ega" sifatida tanilgan. Bunday obro' eksportni kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va turizmni rivojlantirishda katta ustunlik beradi. Sifatga e'tibor, mijozga hurmat, vaqtga rioya, halollik va mas'uliyat kabi qadriyatlar ana shu ishonchni shakllantiradi. Innovatsiya va sifatga intilish esa Porter ta'kidlaganidek, iqtisodiy farovonlikdagi eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi [11]

Yakuniy manzara shuki, milliy qadriyatlar davlatlarning iqtisodiy rivojlanishiga uch asosiy yo'l bilan ta'sir qiladi. Birinchisi – odamlarning shaxsiy xulqi: mehnatsevarlik, vaqtga munosabat, tejamkorlik, ta'limga intilish, halollik va mas'uliyat. Ikkinchisi – jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar: ishonch, hamkorlik, fuqarolik mas'uliyati, qo'ni-qo'shnichilik va o'zaro yordam. Uchinchi yo'l – institutlar va siyosat: qonun ustuvorligi, korrupsiyaga munosabat, davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonch, innovatsiya va tadbirkorlikka yondashuv. Shu uch sohada sog'lom qadriyatlar shakllansa va ular zamonaviy iqtisodiy siyosat va ilmiy yondashuvlar bilan uyg'unlashsa, barqaror iqtisodiy o'sish uchun mustahkam zamin yaratiladi. Madaniyatshunoslar Lourens Harrison va Samuel Xantington tahriridagi "Culture Matters" kitobida shunday g'oya ilgari suriladi: qadriyatlar inson taraqqiyotining turli yo'nalishlariga, jumladan iqtisodiy rivojlanishga chuqur ta'sir ko'rsatadi va bu ta'sirni

hisobga olmagan strategiya to'liq bo'la olmaydi. Shu fikrga tayanib aytish mumkinki, milliy qadriyatlari haqida ongli ravishda o'ylaydigan va ularni iqtisodiy siyosat bilan bog'lab rivojlantira oladigan jamiyat nafaqat moddiy boylikda, balki ma'naviy barqarorlikda ham yutuqqa erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D. Landes. *The Wealth and Poverty of Nations*. – New York: W.W. Norton, 1998.
2. M. Weber. *The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism*. – London: Routledge, 2001.
3. G. Hofstede. *Culture's Consequences*. – Beverly Hills: Sage, 1980.
4. R. Putnam. *Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community*. – New York: Simon & Schuster, 2000.
5. N. Mandela nutqlari to'plami. URL: <https://www.nelsonmandela.org>)
6. C. Nickerson. "Hofstede's Cultural Dimensions Theory". *SimplyPsychology*, 2021.
7. M. Porter iqtibosi. URL: <https://marketmegood.com/blog/quotes-about-entrepreneurship-and-innovation>)
8. D. C. North. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
9. D. Acemoglu, J. A. Robinson. *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. – New York: Crown Business, 2012
10. World Bank. *World Development Report 2012: Gender Equality and Development*. – Washington, DC: World Bank, 2011.
11. "Innovation is the central issue in economic prosperity." M. Porter. URL: <https://marketmegood.com/blog/quotes-about-entrepreneurship-and-innovation>

MILLIY QADRIYATLARNI TARG‘IB QILISHDA BLOGERLAR FAOLIYATIDAN FOYDALANISH MASALASI

Tadjibayeva Dilnavoz Ozodovna,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
mustaqil izlanuvchisi, TDYu dotsenti.

Globalashuv va raqamli texnologiyalar davrida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yoshlar ongiga singdirish dolzarb masalaga aylanmoqda, chunki an'anaviy qadriyatlarni asrab-avaylash davlatning mustahkam poydevori va uning barqaror, izchil rivojlanishi hamda milliy xavfsizligini ta'minlash vositalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi bosqichda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy o'zgarishlari jamiyat uchun muhim bo'lgan ma'naviy va milliy qadriyatlarni shakllantirishda davlat rolini oshirish masalasini qo'yish imkonini bermoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy merosni tiklash va qadriyatlarni keng targ'ib etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev milliy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan: "Milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va tariximizni asrash – yoshlarimizni ma'naviy barkamollikka etaklaydigan eng muhim manba" [1].

Qadriyatlar jamiyatimizning boyligi, bizning milliy iftixorimiz sanalib, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash – millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy bo'g'inidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar bilan qo'shib taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi [2].

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlar, an'analari, tili va madaniy merosining uyg'unligidan tarkib topadi. O'zbek xalqining qadimiy an'analarida mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, oila muqaddasligi, san'at va ijodga bo'lgan muhabbat yuksak o'rin egallaydi.

Bugungi kunda bloggerlar, ijtimoiy tarmoqlardagi faollar va inflyuenserlar faoliyati jamiyatimizning axborot makonida katta

ZJV5401

ahamiyatga ega. Ular ma'lumot tarqatish orqali yuz minglab, millionlab kuzatuvchilarga xabar etkazadilar va muayyan hodisa haqida jamoatchilik fikrining shakllanishiga hissa qo'shadilar. Shu bois, jamiyatda oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda blogerlik va fuqarolik jurnalistikasi muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, **ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yurituvchi blogerlar** jamiyatda axborot oqimini boshqaruvchi va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi asosiy kuch sifatida maydonga chiqmoqda.

Blogerlik va inflyuenserlik faoliyati bugungi kunda raqamli kommunikatsiyaning ajralmas qismi bo'lib, u ijtimoiy ongni shakllantirishda katta ta'sir kuchiga ega. Blogerlar o'z auditoriyasi bilan bevosita, ishonchli muloqot o'rnatadi. Shu sababli ularning pozitsiyasi yoshlar qadriyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. "Blogerlar o'z auditoriyasi bilan samimiy, shaxsiy muloqot o'rnatish orqali ijtimoiy ishonch kapitalini yaratadi va shu orqali jamiyatdagi qadriyatlar tizimiga ta'sir o'tkazadi" [3].

So'nggi yillarda O'zbekistonda blogerlik faoliyati keng rivojlanib, yoshlar orasida eng ommabop axborot tarqatish shakliga aylandi. Blogerlar o'z auditoriyasi bilan doimiy aloqada bo'lib, jamiyatda dolzarb mavzularni yoritish, turizm, sport, madaniyat, ta'lim masalalarini targ'ib etish orqali muayyan qadriyatlarga bo'lgan e'tiborni oshirmoqda. Jumladan:

- **sayyohlik blogerlari** O'zbekistonning tarixiy shaharlarini, milliy taomlarini va xalq amaliy san'atini ommalashtiradi;
- **madaniyat sohasidagi blogerlar** o'zbek tili, san'ati va o'yinlarini zamonaviy uslubda targ'ib qiladi;
- **ta'lim yo'nalishidagi blogerlar** esa yoshlar orasida ma'rifatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi muhim xulosalar aniqlandi:

1. **Ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yurituvchi** blogerlar yoshlarning shaxsiy hayoti, qarashlari va qadriyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi kuchli omil **sifatida namoyon bo'lmoqda.**

2. Yoshlarning 72 foizi ijtimoiy tarmoqlarda inflyuenser-blogerlarni kuzatadi.

3. 65 foizi respondentlar ijtimoiy tarmoqlardagi inflyuenserlarning fikrlari va hayotiga qiziqish bildirgan. Shuningdek, ularning maslahatlari yoki qarashlari shaxsiy qarashlariga ta'sir qilishi mumkinligini ta'kidlagan.

4. 34 foizi yoshlar inflyuenserlarning faoliyati ularning hayotiy tanlovlariga ta'sir qilganini qayd etdi.

5. 40 foizi yoshlar blogerlarning ijobiy axloqiy xulq-atvori ularga o'rnak bo'lishi mumkinligini ta'kidladi.

6. 25 foizi respondentlar ularga salbiy ta'sir ko'rsatgan (masalan, radikal yoki bema'nolikka asoslangan kontent) haqida ma'lumot berishdi.

7. Inflyuenser va blogerlar tomonidan targ'ib qilinayotgan ijobiy kontent yoshlarda axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

8. Ayrim blogerlar salbiy, nosog'lom kontent tarqatib, yoshlarning ruhiy salomatligi va axloqiy qarashlariga zarar etkazmoqda. Ular tomonidan yoshlarni ruhiy va axloqiy nuqsonlarga olib keladigan trendlar tarqatilmoqda. Bunday holatlar yoshlar ongida bo'shliqlar va noto'g'ri qarashlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun, bugungi kunda jamiyat va davlat tomonidan inflyuenserlar faoliyatini tartibga solish, ijobiy kontent mualliflarini qo'llab-quvvatlash va ularning mas'uliyatini oshirish dolzarb ahamiyatga ega [4].

Zamonaviy kommunikatsiya vositalari, xususan, blog va ijtimoiy media platformalari orqali blogerlar milliy qadriyatlarni keng ommaga etkazish, yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Agar blogerlar milliy qadriyatlarni zamonaviy formatda, ijobiy ohangda targ'ib etsa, ular yosh avlodda vatanparvarlik, mehr-oqibat, oila qadri kabi fazilatlarni shakllantirishda samarali vosita bo'lishi mumkin.

Xorijiy tajribaga nazar soladigan bo'lsak, sog'liqni saqlash tizimi sog'lom turmush tarzining ahamiyatini ommaga etkazishda mashhur blogerlarga tayana boshladi. Taniqli mualliflar va fikr etakchilari fuqarolar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega, ularning salohiyatini kamsitib bo'lmaydi, dedi "Life.ru" nashriga "Milliy sog'liqni saqlash" kongressi doirasida "Roskongress" jamg'armasining rivojlanish bo'yicha birinchi direktor o'rinbosari Anastasiya Stolkova. U "Bizning

kongressimizda sogʻlom turmush tarzi qadriyatlarini ommaga etkazayotgan koʻplab blogerlar ham ishtirok etmoqda. Biz ular bilan juda yaqin hamkorlik qilamiz, chunki ular fuqarolarimiz ongiga qanchalik kuchli taʼsir koʻrsatishini yaxshi tushunamiz. Chunki fuqarolarimiz uchun etakchi faqat shifokorlar va akademiklar emas, balki katta auditoriyaga ega blogerlar hamdir”, – deya taʼkidladi [5].

Davlat Dumasida esa oilaviy qadriyatlarni targʻib qiluvchi inflyuenserlar reyestrini tuzish taklif qilindi. Deputatlar, shuningdek, yoshlar orasida vatanparvarlik gʻoyalarini yoritayotgan blogerlarni ham ushbu roʻyxatga kiritishni va bunday blogerlarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha kompleks choralarni ishlab chiqishni rejalashtirmoqda.

Bu jarayonning samaradorligi shundaki, u yoshlarning eʼtiborini milliy madaniyatga qayta yoʻnaltiradi, gʻarbona mass-madaniyat taʼsirini muvozanatlashtiradi.

Blogerlar milliy qadriyatlarni ommalashtirishda bir necha samarali usullarni qoʻllash mumkin:

- **Kontent yaratish:** milliy taomlar, xalq urf-odatlar, milliy kiyimlar va madaniyat haqidagi videoroliklar, maqolalar va postlar orqali qadriyatlarni targʻib etish.

- **Ijtimoiy loyihalarda ishtirok:** madaniy tadbirlar, seminarlar, ustaxonalar va xayriya aksiyalarini tashkil etish orqali milliy anʼanalarni qoʻllab-quvvatlash.

- **Fikr almashish maydoni yaratish:** bloglar orqali yoshlar oʻrtasida ijtimoiy va maʼnaviy mavzularda ochiq muloqotni yoʻlga qoʻyish.

Bunday faoliyat natijasida blogerlar nafaqat milliy qadriyatlarni keng ommaga etkazadi, balki ularning zamonaviy talqinini shakllantirishda ham vositachi boʻlib xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlarni targʻib etishda blogerlar faoliyatini yanada samarali qilish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- **Masʼuliyatli blogerlik tizimini rivojlantirish:** milliy qadriyatlarni yorituvchi blogerlar uchun maxsus trening va sertifikat dasturlarini joriy etish.

•**Davlat va nodavlat hamkorligini kuchaytirish:** blogerlarni madaniyat vazirligi, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlashga jalb etish.

•**Milliy media platformalarini rivojlantirish:** o'zbek tilida, milliy qadriyatlarga asoslangan blog platformalarini yaratish va qo'llab-quvvatlash.

Xulosa qilib aytadigan bolsak, inflyuenser va blogerlar bugungi kunda jamiyatning eng faol axborot tashuvchilaridir. Blogerlar O'zbekiston jamiyatida milliy qadriyatlarni ommalashtirish, yoshlar orasida ma'naviy onglilikni oshirish va madaniy merosni saqlashda beqiyos o'rin tutadi. Ularning faoliyati orqali milliy qadriyatlar nafaqat ichki auditoriyada, balki xalqaro miqyosda ham tanitish mumkin. Shu bois, blogerlikni ma'naviy-ma'rifiy sohada yo'naltirish, uni axborot siyosatining muhim qismi sifatida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Milliy qadriyatlarni targ'ib etish jarayonida blogerlarning faolligini qo'llab-quvvatlash – O'zbekistonning ma'naviy barqarorligi va axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Mirziyoyev Sh. M.** Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2021. –B.320.
2. **Abdullayeva D.** *O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni.* – Toshkent, 2022.
3. **Tadjibayeva D.** Inflyuenserlar faoliyatining yoshlar ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlariga ta'siri. Sharq tarixi va huquq jurnali. 2025. №5. B.178-183.
4. **Abidin C.** Visibility labour: Engaging with Influencers' fashion brands and #OOTD advertorial campaigns on Instagram // *Media International Australia*. 2016. №161. – P. 86 –100.
5. <https://life.ru/p/1699862>

MILLIY QADRIYATLARNI O'RGANISHDA MEDIA VA SOFT POWER STRATEGIYASINING O'RNI

Yo'ldosheva Dilobar Jaxongir qizi,
*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi tinglovchisi, mustaqil journalist*

Milliy kontentda qadriyatlarni targ'ib qilish masalasi O'zbekistonning o'ziga xos madaniyati va boy tarixi fonida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi global axborot maydonida raqamli texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanib, axborot olishning yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Shu bilan birga, milliy o'zlikni, urf-odat va qadriyatlarni saqlash hamda ular orqali yoshlarning vatanparvarlik va ma'naviyat ruhini mustahkamlash negiziy vazifalardan biriga aylanyapti [1]. O'zbek xalqi uchun milliy qadriyatlar nafaqat tarixiy boylik, balki jamiyatni birlashtiruvchi, yosh avlodga halol axloq va madaniyatni singdiruvchi muhim omildir.

So'nggi yillarda O'zbekiston media sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqil axborot vositalari soni 2300 dan oshib, o'zbek mediiasi milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda faol ishtirok etmoqda [2]. Sevimli TV, Milliy TV va Zo'r TV kabi telekanallar mavzuga oid milliy bayramlar va an'analarni zamonaviy, jozibali shaklda yoritmoqda. Internet nashrlari esa Kun.uz va Daryo.uz kabi platformalar orqali yosh avlod bilan samarali muloqot o'rnatib, qadriyatlarni onlayn maydonda targ'ib qilmoqda. Bu jarayon media mahsulotlarining madaniy va ma'naviy jihatdan boy bo'lishini ta'minlaydi. Bu jarayonda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga yangi yondashuvni taqdim qiladi. Strategiyada axborot siyosatini takomillashtirish, milliy o'zlik va ma'naviyatni yoshlar ongida shakllantirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida ko'rsatilgan [3]. Bu strategiya global axborot oqimida milliy madaniyatni asrash, davlat va jamiyatning axborot maydonida muvozanatni yaratish imkonini beradi. U milliy media kontentning sifatini oshirish, raqamli erkinlikni kengaytirish va xalqaro maydonda O'zbekiston brendini yaratishda markaziy rol o'ynaydi. Shuningdek, strategiyada axborot siyosati va media sohasidagi islohotlar, shu jumladan, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, media

maydonining qonuniy asoslarini mustahkamlash, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha aniq choralar belgilangan. Bu esa milliy qadriyatlarni targ'ib qilishni yanada samarali qilish uchun zamonaviy platforma yaratadi.

Milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda "soft power" strategiyasi alohida o'rin tutadi. "Soft power" bu mamlakatning kuch ishlatmasdan, madaniyat, qadriyatlar va axborot orqali xalqaro maydonda ta'sir o'tkazish strategiyasi. O'zbekiston esa bu strategiyani o'zining madaniy mahsulotlari yordamida amalga oshirmoqda. Xususan, "O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi" hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo'mitasi tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar xalqaro platformalarga chiqarilmoqda [4]. Bu orqali mamlakat madaniyati va tarixi keng auditoriyaga tanitilmoqda. Ushbu loyihalar nafaqat ma'rifiy, balki milliy brendni yaratishda ham katta ahamiyatga ega. Milliy kontent ishlab chiqarish markazi esa davlat tomonidan moliyalashtiriladi va sifatli, innovatsion media mahsulotlarini yaratishga yo'naltirilgan. Markazning faoliyati nafaqat milliy ahamiyatga ega loyihalarni ishlab chiqishga, balki ularni xalqaro miqyosda targ'ib qilishga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning ijobiy imijini shakllantirish, xalqaro madaniy va siyosiy maydonda o'z o'rnini mustahkamlash uchun muhim asos bo'ladi. Mazkur strategiya bilan bir qatorda, davlat tomonidan moliyalashtirilayotgan Milliy kontent ishlab chiqarish markaziga media sohasida sifatli, innovatsion va axborot xavfsizligini ta'minlovchi mahsulotlar yaratishga ko'maklashish vazifasi yuklatilgan. Bu esa nafaqat ichki bozorda milliy qadriyatlarni mustahkamlash, balki xalqaro auditoriyaga milliy madaniyatimizni targ'ib qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu tariqa, O'zbekiston "soft power" strategiyasini o'zining madaniy va axborot siyosatida samarali qo'llab, milliy qadriyatlarni mustahkamlashda yangi imkoniyatlarni yaratish imkoniyati mavjud.

Bundan tashqari, mediamarketing sohasida ham hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Misol uchun, pinkod.uz sayti taqdim qilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda Sevimli TV 233 milliard so'm daromad bilan eng muvaffaqiyatli media kompaniya bo'lsa, Kun.uz 26 milliard so'm

daromad bilan internet OAVlar orasida etakchi bo'ldi [5]. Bu ko'rsatkichlar telekanallar va internet nashrlarining moliyaviy salohiyati orasida katta farq borligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, O'zbekistonda IMS reyting tizimining shaffof emas. IMS reyting tizimi (Information Measurement System) O'zbekiston media bozorida auditoriya hajmi va kontentning ommabopligini o'lchash uchun ishlatiladigan tizim hisoblanadi. Ushbu tizim reklama beruvchilarga media mahsulotlar qaysi auditoriya tomonidan qanchalik tomosha qilinayotganini aniqlashga yordam beradi. Biroq O'zbekistonda IMS tizimining metodologiyasi va uning ishlash prinsiplari keng jamoatchilik va reklama bozori ishtirokchilariga to'liq ochiq qilinmagan. Bu esa reklama beruvchilar va media kompaniyalar orasida ishonchning pasayishiga olib keladi. Xalqaro miqyosda Nielsen yoki Kantar Media kabi kompaniyalar auditoriya reytinglarini aniq o'lchashni ta'minlaydi, ammo IMS metodologiyasi hali to'liq oshkor qilinmagan. Shu sababdan, IMS reyting tizimini xalqaro me'yorlarga moslashtirish, shaffoflikni oshirish hamda mustaqil monitoring mexanizmlarini joriy etish zarurati mavjud. Bu esa nafaqat media bozorining barqarorligini oshiradi, balki milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda sifat va samaradorlikni kafolatlaydi. Shuning uchun O'zbekistonda IMS reyting tizimini xalqaro me'yorlarga moslashtirish, metodologiyani ochiq qilish va mustaqil monitoring mexanizmlarini yo'lga qo'yish muhimdir. Bu nafaqat media kompaniyalarga teng imkoniyatlar yaratadi, balki milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda sifat va samaradorlikni oshiradi, reklama bozorining barqarorligini ta'minlaydi.

Ta'kidlash kerakki, raqamli marketing va onlayn platformalardan foydalanish o'sib borayotgan bo'lsa-da, media brendlari ko'pincha brend integratsiyasi va reklama mahsulotlarini innovatsion tarzda takomillashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Grantlar va subsidiyalar yordamida moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shaffof reyting tizimini joriy etish ishlarning samarali davom etishini ta'minlaydi. Umuman olganda, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish nafaqat madaniy, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishi uchun zarurdir. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi bu jarayonda zamonaviy,

kompleks va strategik asos bo‘lib, O‘zbekiston milliy mediasini ichki va xalqaro maydonda raqobatbardosh qilish yo‘lidagi muhim hujjatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva B. va boshqalar. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Toshkent, Donishmand ziyosi., 2024.-3 b.
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/11/national-values/>
3. <https://lex.uz/docs/-5841063>
4. <https://iiu.uz/oz/news/747>
5. <https://pinkod.uz/675345>

VIRTUAL MAKONDA MILLIY O‘ZLIK VA QADRIYATLAR MUVOZANATI MASALASI

Kenjayeva Dilrabo Rominovna,
University of Business and Science
Toshkent filiali dotsenti

Globalashuv va raqamli texnologiyalar asrida inson hayoti tobora virtual makon bilan uzviy bog‘lanib bormoqda. Internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari, raqamli axborot vositalari shunchalik keng tarmoqlanganki, ular inson ongining tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Shu jarayonda milliy o‘zlik, qadriyatlar tizimi va ma’naviy identitet masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “Virtual muhitdagi axborot oqimi, turli madaniy kodlarning aralashuvi, g‘arbona turmush tarzining keng targ‘ib qilinishi milliy o‘zlikning o‘zgarishiga, ba’zida esa uning zaiflashuviga sabab bo‘lmoqda” [1].

Fikrimizcha, virtual muhitdagi madaniy aralashuv jarayoni milliy o‘zlik uchun ham tahdid, ham imkoniyatdir. Agar axborot oqimi ustidan milliy nazorat va ma’naviy filtr tizimi shakllantirilsa, bu jarayon milliy qadriyatlarni boyitish, yangicha shaklda ifoda etish imkonini ham beradi.

O‘zbekiston sharoitida bu masala alohida ahamiyatga ega, chunki “Yangi O‘zbekiston” davrida milliy tiklanish va ma’naviy yangilanish

jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning muhim jihati raqamli makonda milliy qadriyatlar, milliy g'oya va o'zlikni himoya qilish, ularni zamon ruhiga mos tarzda targ'ib etishdir. Shu sababli maqolada virtual makonda milliy o'zlik va qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatning falsafiy-ijtimoiy mohiyati tahlil qilinadi, ularning o'zaro ta'sir mexanizmlari yoritiladi. Raqamli davr sharoitida milliy o'zlikni asrash va milliy qadriyatlarni virtual muhitda muvozanatli rivojlantirish imkoniyatlarini falsafiy tahlil qilishdan iborat.

Virtual makon tushunchasi dastlab kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa-da, falsafiy tahlilda u inson ongining yangi "mavjudlik o'lchovi" sifatida qaraladi. J.Bodriyar "simulyakr" nazariyasida virtual dunyoni "haqiqatni almashtiruvchi belgilar tizimi" sifatida izohlaydi [2]. Uning fikricha, zamonaviy inson haqiqat bilan emas, balki uni aks ettiruvchi belgilar, tasvirlar va kodlar bilan muloqot qiladi. Shu sababli virtual makon – bu real hayotning o'ziga xos modifikatsiyasi, lekin ma'naviy ta'sir kuchi jihatidan undan kam emas. M.Kastels esa virtual makonni "axborot jamiyati infratuzilmasi" [3] deb ta'riflaydi. Uningcha, bu makon global tarmoqlar orqali insonlar o'rtasidagi aloqalarni yangicha shakllantiradi va madaniy hamda siyosiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, virtual makon ijtimoiy-falsafiy tahlilda nafaqat texnologik muhit, balki ma'naviy, kommunikativ va axloqiy makon sifatida ham o'rganilishi lozim. Virtual haqiqat (cyber reality)ning asosiy xususiyati shundaki, u insonning identitetini qayta shakllantiradi. Inson o'zini turli tarmoqlarda turlicha namoyon etadi, "ko'p qiyofali men" holati yuzaga keladi. Bu esa milliy o'zlikni barqaror tutish masalasini yanada murakkablashtiradi.

Milliy o'zlik – bu xalqning tarixiy xotirasi, tili, dini, urf-odatlar, an'analari, estetik didi, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy ong shakllarining uyg'un tizimidir [4]. U millatni boshqa etnoslardan farqlovchi ma'naviy identifikatsiya mezonini hisoblanadi. Falsafiy nuqtai nazardan, milliy o'zlik ikki asosiy qatlamda mavjud: tarixiy qatlam millatning o'z tarixini anglash, ajdodlar merosiga sadoqat; ma'naviy qatlam – zamonaviy ongda milliy qadriyatlarning yangicha talqinini shakllantirish. Milliy o'zlik jamiyat

barqarorligini ta'minlovchi ruhiy tayanchdir. U yo'qolgan jamiyat madaniy dezorientatsiyaga uchraydi, ijtimoiy birlik zaiflashadi. Shu bois, virtual makonda milliy o'zlikni asrash – ma'naviy mustaqillikni himoya qilish demakdir.

O'zbekiston misolida bu jarayon davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da ma'naviy qadriyatlar va milliy identitetni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [5]. Ma'naviy qadriyatlar va milliy identitetni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilishi milliy tiklanishning g'oyaviy poydevorini mustahkamlaydi. Bu yo'nalish jamiyatning ma'naviy barqarorligini, yosh avlodning milliy o'zligiga sodiqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqamli makon – qadriyatlar transformatsiyasi uchun eng faol muhitdir, chunki internet orqali turli millat va madaniyat vakillari bir platformada muloqot qiladi, natijada “global madaniy kod” [6] shakllanadi. Bu holatda milliy qadriyatlar global axborot oqimlari bilan to'qnashadi. Virtual makonda yuz berayotgan asosiy o'zgarishlar: individualizmning kuchayishi – ijtimoiy tarmoqlarda “men” ongining o'sishi jamoaviy qadriyatlarni zaiflashtirmoqda; axloqiy me'yorlarning nisbiylashuvi – internetdagi “erkinlik” tushunchasi ko'pincha ma'naviy chegaralarni buzmoqda; madaniy unifikatsiya – global brendlar, ommaviy madaniyat va “trend”lar milliy urf-odatlar o'rniga universallikni targ'ib qilmoqda.

Bu jarayonlar natijasida inson ongida qadriyatlar o'rtasidagi muvozanat buzilishiga olib keladi. Masalan, jamiyatimizda hurmat, kattaga izzat, oilaparvarlik kabi qadriyatlar global madaniyatda individual manfaatlar bilan almashtirilmoqda. Shunday ekan, virtual makonda qadriyatlar tizimini muvozanatda ushlab turish ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida tahlilga muhtoj voqeilikka aylandi.

Milliy o'zlik va qadriyatlar o'rtasidagi muvozanat deganda, raqamli dunyoda milliy identitetni saqlagan holda global axborot oqimlariga ochiq bo'lish jarayoni tushuniladi. Bu muvozanat buzilsa, jamiyatda madaniy assimilyatsiya va o'zlikni yo'qotish xavfi kuchayadi [7]. Bu fikrni dolzarb deb hisoblash mumkin, chunki raqamli dunyoda milliy identitetni asrash –

madaniy barqarorlikning kafolatidir. Agar muvozanat saqlanmasa, global axborot oqimlari milliy qadriyatlarni siqib chiqaradi. Shu bois, raqamli makonda milliy o'zlikni mustahkamlash, uni global madaniyat bilan uyg'unlashtirish strategik ma'naviy vazifa sifatida qaralishi lozim.

Bizningcha, virtual makonda muvozanatni ta'minlovchi bir nechta omillar mavjud:

- ✓ Milliy axborot siyosatini yuritish hamda milliy kontentimizni yaratish va targ'ib qilish orqali milliy qadriyatlarni ilgari surish.
- ✓ Yoshlar ongida tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish madaniyatini shakllantirish.
- ✓ Milliy kino, bloglar, veb-seriallar, elektron kitoblar orqali o'z qadriyatlarimizni jozibali shaklda ifodalash.
- ✓ Internet axloqining milliy axloqiy me'yorlar bilan uyg'unligini ta'minlash.

Falsafiy nuqtai nazardan, muvozanat – bu “dinamik barqarorlik”. U doimiy harakatda bo'lib, yangi sharoitlarda milliy qadriyatlar zamonaviy shakllarda qayta ifodalanadi. Masalan, qadimgi mehmondo'stlik qadriyati bugun “raqamli mehmondo'stlik” internetda hurmat, bag'rikenglik va madaniy muloqot shaklida davom etmoqda.

Milliy qadriyatlar raqamli makonda nafaqat himoya, balki faol targ'ibotni ham talab qiladi. Buning uchun quyidagi mexanizmlar muhimdir: axborot portallari, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar orqali milliy qadriyatlarni targ'ib etuvchi media mahsulotlarni ishlab chiqish; milliy qadriyatlarni “brend” sifatida ommalashtirish – masalan, milliy liboslar, o'zbek tili, tarixiy shaxslar obrazlarini zamonaviy formatda namoyish etish; onlayn kurslar, o'quv videolari, interaktiv darsliklar orqali ma'naviy tarbiya va milliy merosni o'qitish; yoshlarni zararli kontentdan himoya qilish, milliy qadriyatlar bilan mos kontentni tavsiya etuvchi algoritmlar yaratish [8].

Shuningdek, O'zbekiston sharoitida “Uzluksiz ma'naviy tarbiya” konsepsiyasi, “Ma'naviyat va ma'rifat” markazi, “O'zbekkino”, “Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi” kabi institutlar bu borada muhim harakatlantiruvchi kuchga aylanishi kerak. Virtual makon bugun

inson hayotining barcha sohalarini qamrab olgan yangi madaniy-ijtimoiy muhitdir. Unda milliy o'zlik va qadriyatlar tizimi sinovdan o'tmoqda. Bu sinovda millatning ma'naviy immuniteti, raqamli savodxonligi va madaniy ong darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy o'zlik va qadriyatlar muvozanatini saqlash bu statik holat emas, balki doimiy yangilanish jarayonidir.

Xulosa qilib aytganda, faqat milliy qadriyatlarga tayanib, ularni zamonaviy raqamli vositalar orqali ifodalagan jamiyatgina o'z o'zligini yo'qotmasdan, global maydonda raqobatbardosh bo'la oladi. Shunday qilib, virtual makonda milliy o'zlik va qadriyatlar muvozanatini ta'minlash bu O'zbekistonning ma'naviy suvereniteti, madaniy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyoti uchun zarur falsafiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.113.
2. Baudrillard J. Simulacres et Simulation. – Paris: Galilee, 1981. – P.211.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996. – P.116.
4. G'afforov A. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlar falsafasi. – T.: O'zbekiston, 2015. – B.54.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni. – T., 2022.
6. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980. – P.98.
7. Yusupov Sh. Globallashuv va ma'naviyat muammolari. – T.: Ma'naviyat, 2010. – B.19.
8. Nazarov H. Raqamli madaniyat va ijtimoiy ong transformatsiyasi. – T.: Fan, 2021. – B.16.

MILLIY KONTENTDA QADRIYATLARNI TARG‘IB QILISH: EHTIYOJ VA ZARURAT

Nazarqosimov Sarvar Inatillayevich,
sotsiologiya fanlari doktori (PhD), dotsent
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Globallashuv jarayoni va axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi natijasida dunyo axborot maydoni tubdan o‘zgardi. Har kuni milliardlab odamlar ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar va media kontent orqali axborot oladi, qarashlarini shakllantiradi va qadriyatlarini belgilaydi. Bunday sharoitda milliy qadriyatlarimizni asrash va ularni yangi avlod ongiga singdirishning an‘anaviy usullari etarli bo‘lmay qolmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oyalarni milliy kontent orqali targ‘ib qilish strategiyasi davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Milliy qadriyatlar bu xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va ma‘naviy-axloqiy qarashlarini mujassamlashtirgan tushunchalar majmuasidir. Ular jamiyatning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash bilan birga, shaxsning dunyoqarashini shakllantiradi, ijtimoiy barqarorlik va milliy xavfsizlikni ta‘minlaydi.

“Hozir dunyoda axborot xuruji, gibrid urushlar shiddat bilan kechmoqda. Bu jarayonda inson e‘tibori, diqqatini jalb etish bosh maqsadga aylangan. Ana shunday kurash maydonida har bir davlat, har bir xalq o‘zligini saqlab qolishi, o‘z milliy manfaatlarini himoya qilishi uchun jamiyatda siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy bilim va tafakkur darajasi nihoyatda yuqori bo‘lishi lozim. Aks holda, yot va noxolis axborotlar demokratik jarayonlarni izdan chiqarishi, insoniyatni boshi berk ko‘chaga etaklashi hech gap emas. Xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni bunday salbiy axborotlar ta‘siridan asrash uchun o‘z milliy axborot makonimiz bo‘lishi va ushbu manbalar milliy kontent bilan to‘ldirilishi lozim”[1]. Shaxsning identikligi masalasi ham o‘rganilishi zarur bo‘lgan masaladir.

“Sotsiomadaniy identifikatsiya- bu shaxsning mavjud sotsiumda turli madaniy xususiyatlarni o‘zida jamlaganligi va shuning asnosida undagi

sotsial birliklarga tegishli ekanligi anglash, his etishdir”[2]. Shaxsning identkligini saqlab qolish qanchalik muhim ekanligi, ijobiy o‘zgarishlar hisobiga boyib borishi alohida ahamiyat kasb etadi.

“Madaniy xilma-xillik insoniyatning umumiy merosi bo‘lib, uni asrab-avaylash va targ‘ib etish har bir davlatning ustuvor vazifasidir”[3]. Xalqlar madaniy xilma-xilligini asrab avaylash hamda kelajak avlodga etkazib berish muhimdir. Madaniy xilma-xillikning asosiy targ‘iboti bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlardagi milliy kontetntlarning sifatiga bog‘liqdir. Eng asosiysi auditoriyaga ega bo‘lish uchun ijtimoiy tarmoqlarga mos targ‘ibot vositalardan foydalanish, ommabopligiga erishish muhimdir.

Mashhur yozuvchimiz Tohir Malikni quyidagi fikrlari qanchalik muhim ekanligini unutmasligimiz kerak. “Televizor va internetda ko‘radigan har bir sahna – bu tarbiya. Agar u bizning qadriyatlarimizni aks ettirmasa, bizni boshqalar tarbiyalaydi.” Ushbu fikrlar bugun o‘zining dolzarbligi bilan ahamiyatlidir.

Raqamli davrda esa qadriyatlar targ‘iboti quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Vizuallik va qisqalik tamoyili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davrida kontent iste‘molchilari, ayniqsa yoshlar auditoriyasining psixologik xususiyatlariga mos keluvchi eng muhim metodlardan biridir. Bugungi raqamli makonda insonning diqqat e‘tibori o‘rtacha 8–12 soniya davomida faol bo‘ladi. Shu sababli ma‘naviy-ma‘rifiy mazmundagi xabarlar ham qisqa, mazmunan zich va vizual elementlarga boy bo‘lishi talab etiladi. Vizuallik orqali inson miyasi axborotni 60 000-marta tezroq qayta ishlaydi, bu esa qadriyatlar mazmunining chuqurroq anglanishiga xizmat qiladi. Infografika, qisqa videoroliklar, animatsion sahnalar yoki raqamli afishalar shaklida berilgan kontent an‘anaviy matndan ko‘ra kuchliroq ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada, “tez iste‘mol qilinadigan” media muhiti sharoitida milliy g‘oyalar ham osonroq singdiriladi.

Interaktivlik – bu zamonaviy kontent siyosatining markaziy tamoyillaridan bo‘lib, u foydalanuvchini faqat passiv tomoshabin emas,

balki faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb etishni nazarda tutadi. Interaktiv modelda auditoriya faqat tayyor ma'lumotni qabul qilmaydi, balki savollar beradi, javob izlaydi, bahs yuritadi va o'z hissasini qo'shadi.

Bunday yondashuv psixologik jihatdan "egalik effekti"ni keltirib chiqaradi – ya'ni, inson o'zi ishtirok etgan yoki ta'sir ko'rsatgan qadriyatni ko'proq qadrlaydi va unga sodiq qoladi. Interaktiv platformalar (masalan, onlayn viktorinalar, muhokama forumlari, ijtimoiy tarmoqlarda ovoz berish mexanizmlari, forumlar) orqali yoshlar qadriyatlar haqida chuqurroq fikr yuritadi va ularni ongli ravishda qabul qiladi.

Gamifikatsiya – bu qadriyatlar targ'ibotiga o'yin mexanikasini integratsiya qilish tamoyilidir. Ilmiy nuqtai nazardan, inson miyasi mukofot va rag'bat tizimiga sezgir bo'lgani sababli, o'yin elementlari motivatsiyani kuchaytiradi va bilimni uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam beradi. Masalan, axloqiy qarorlar asosida rivojlanadigan interaktiv o'yinlar, topshiriq bajarilganda beriladigan "rag'bat ballari" yoki "virtual mukofotlar" nafaqat ma'naviy bilimni chuqurlashtiradi, balki yoshlar orasida qadriyatlarni qiziqarli jarayon sifatida qabul qilishni ta'minlaydi. Bu usul Janubiy Koreya, Yaponiya va Yevropaning ayrim mamlakatlarida ta'lim tizimiga ham joriy qilingan.

Tarmoq effekti tamoyili shuni anglatadiki, qadriyatlar targ'iboti faqat yuqoridan pastga – davlat yoki ta'lim tizimi orqali emas, balki ijtimoiy aloqalar tarmog'i orqali ham tarqaladi. Bu "**peer-to-peer**" modelida har bir shaxs qadriyat tashuvchisiga aylanadi va o'z ijtimoiy tarmog'i ichida ularni tarqatadi. Ijtimoiy psixologiyada bu "ijtimoiy tasdiqlash effekti" (social proof) deb ataladi – insonlar eng avvalo o'z doiralarida ko'rgan qadriyatlarni qabul qilishga moyildir. Shuning uchun ham zamonaviy kontent strategiyasida bloggerlar, influencerslar, onlayn jamoalar va tengdoshlar guruhi muhim rol o'ynaydi. Ular orqali milliy g'oya nafaqat keng auditoriyaga tarqaladi, balki organik tarzda singdiriladi.

Ushbu to'rtta tamoyil bir-birini to'ldiradi va raqamli davrda qadriyatlar targ'ibotining kompleks strategiyasini tashkil etadi. Vizuallik e'tibor jalb qiladi, interaktivlik ishtirokni oshiradi, gamifikatsiya jarayonni qiziqarli qiladi, tarmoq effekti esa ularni keng ommaga tabiiy ravishda

yoyadi. Shu tarzda milliy g'oyalar faqat etkazilmaydi, balki ongli ravishda qabul qilinadi va ijtimoiy muhitda mustahkamlanadi. Shu bois bugungi kunda kontent siyosatini yaratishda ijtimoiy tarmoqlardagi xatti-harakatlar, vizual estetikasi va psixologik ta'sir mexanizmlarini chuqur o'rganish zarur.

AQShda patriotizm va milliy qadriyatlar targ'iboti davlat siyosatining ajralmas qismidir. Har bir maktabda darslar oldidan madhiyani kuylash, bayroqni hurmat qilish, "sodiqlik qasami"ni aytish majburiydir. Media sanoatida ham har bir film, serial yoki o'yin orqasida "amerikalik orzu" g'oyasi turadi.

Yaponiyada 1-6-sinflarda majburiy tarzda "Dōtoku" – "axloqiy yo'l" fani o'qitiladi. Bu darslarda bolalar jamiyatda qanday muomala qilish, tabiatga va kattalarga qanday munosabatda bo'lishni o'rganadi.

Koreyada milliy g'oya asosan ommaviy media orqali singdiriladi. "Hallyu" – koreys madaniy to'lqini nafaqat musiqada va seriallarda, balki texnologik mahsulotlarda ham aks etadi.

Xitoyda vatanparvarlik nafaqat davlatga, balki oilaga, tilga va yashayotgan joyga bo'lgan sadoqat sifatida targ'ib qilinadi. Ta'lim jarayonida tarixiy voqealar va milliy qahramonlar haqida muntazam darslar o'tiladi.

Yevropa davlatlari esa yoshlarni axborot oqimida soxta qadriyatlar bilan haqiqiysini farqlashni o'rgatadi. Media savodxonlik fanlari maktab dasturiga kiritilgan.

Raqamli globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni targ'ib qilish nafaqat madaniy-ma'naviy zarurat, balki milliy xavfsizlikning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Axborot oqimi nihoyatda shiddat bilan kuchayib borayotgan hozirgi davrda milliy kontent orqali o'zligimizni, tarixiy xotiramizni va ma'naviy merosimizni asrab-avaylash, ularni yosh avlod ongiga chuqur singdirish jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining kafolatidir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar targ'iboti samaradorligi ularni etkazishning shakl va uslublariga bevosita bog'liqdir. Vizuallik, interaktivlik, gamifikatsiya va tarmoq effekti kabi tamoyillar asosida yaratilgan kontent zamonaviy auditoriyaning psixologik va kommunikativ ehtiyojlariga moslashadi, bu esa milliy g'oyalarni ongli ravishda qabul qilish va ularni ijtimoiy muhitda mustahkamlash imkonini beradi

Shuningdek, ilgʻor xorijiy tajriba ham shuni koʻrsatadiki, davlat siyosatida milliy qadriyatlarni media, taʼlim va texnologik mahsulotlar orqali tizimli tarzda targʻib etish kuchli fuqarolik ongini, ijtimoiy birlikni va mafkuraviy immunitetni shakllantiradi. Demak, Oʻzbekiston sharoitida ham milliy kontentni rivojlantirish strategiyasi kompleks yondashuvni, zamonaviy kommunikatsion mexanizmlarni va yoshlar ehtiyojiga mos innovatsion uslublarni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy kontentda qadriyatlarni targʻib qilish – bu anʼanaviy merosni zamonaviy texnologiyalar bilan uygʻunlashtirgan holda, milliy oʻzlikni mustahkamlash, maʼnaviy barkamollikni taʼminlash va kelajak avlodni global axborot oqimida oʻz yoʻlidan adashmaydigan, ongli shaxs sifatida shakllantirish jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muratova.N Milliy kontent: u oʻzi nima, qanday zarurati bor?// <https://yuz.uz/uz/news/milliy-kontent>
2. K.Kalonov. Madaniyat sotsiologiyasi. T.: Innovatsiya-Ziyo nashriyoti, 2020. b-98
3. UNESCO Madaniy xilma-xillik deklaratsiyasi (2001)

INSON SALOMATLIGIDA MILLIY QADRIYATLARNING IJOBIY TAʼSIRI

Rizoqulov Muhammad Alisher oʻgʻli,
*Toshkent davlat tibbiyot universiteti,
1-bosqich talabasi*

Inson salomatligi haqida oʻylaganimizda, koʻpincha koʻz oldimizga vrach, dori, shifoxona va analizlar keladi. Lekin salomatlik bular bilan cheklanmaydi. Butunjahon sogʻliqni saqlash tashkiloti salomatlikni shunday tushuntiradi: “Salomatlik — bu faqat kasallik yoki dardning yoʻqligigina emas, balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlikning toʻla

holatidir.”[1] Demak, inson nafaqat kasal bo‘lmasligi, balki o‘zini yaxshi his qilishi, kayfiyati joyida bo‘lishi, odamlar bilan munosabatlari yaxshi bo‘lishi ham salomatlikning bir qismidir. Shuning uchun ham odamning qayerda yashashi, atrofi qanday bo‘lishi, kimlar bilan gaplashishi va kimga suyanishi juda muhim. JSST bu narsalarni “sog‘liqning ijtimoiy omillari” deb atab, shunday deydi: “Sog‘liqning ijtimoiy omillari — bu odamlar tug‘iladigan, ulg‘ayadigan, yashaydigan, ishlaydigan va qarib boradigan sharoitlar hisoblanadi.”[2] Ana shu sharoitlar ichida milliy qadriyatlarimiz alohida o‘rin tutadi. Biz uchun oila muqaddasligi, kattalarga hurmat, kichikka izzat, qo‘ni-qo‘shnichilik, mehmondo‘stlik, halol rizq, mehnatsevarlik, toza va ozoda yurish, sog‘lom ovqatlanish, tabiatni asrash kabi qadriyatlar shunchaki odat emas, hayotimizni tartibga soladigan ichki qoida hisoblanadi. Bu qoidalar odamni ko‘p yomon odatlardan qaytaradi, hayotiga ma’no beradi, boshqalarga foyda keltirishga undaydi va shu orqali salomatlikni ham asraydi.

Olimlar ham salomatlik faqat kasallik yo‘qligi emasligini aytishadi; ular odamning ichki holati, hayotga qarashi ham muhim deb hisoblaydi. Bu haqda taniqli tadqiqotchi Aaron Antonovskiy shunday yozadi: “Koherentlig (sense of coherence) — bu insonda hayotga nisbatan uzluksiz, barqaror, ammo dinamik ishonch hissi qay darajada mavjudligini ifodalovchi umumiy yo‘nalishdir.”[3] Oddiy qilib aytganda, inson hayotini tushunsa, unga ma’no topsa, o‘zini boshqara olishiga ishonsa, uning sog‘ligi ham mustahkamroq bo‘ladi. Milliy qadriyatlarimiz esa aynan shu ishonchni va hayot mazmunini beradigan asosiy manbadir. “Barchasi yaxshilikka”, “boshga tushsa – bardosh”, “har bir ishning o‘z hikmati bor” degan xalqona qarashlar ko‘p sinovlarga chidashga yordam beradi, ichki ruhni mustahkamlaydi.

Bu qadriyatlarni bolaga birinchi bo‘lib o‘rgatadigan joy — oila. Bola dunyoni birinchi bor oila orqali tanlaydi, mehr, ishonch, e’tibor va g‘amxo‘rlikni ham avval oila ichida his qiladi. Shuning uchun oila muhitining sog‘lom bo‘lishi bevosita bola ruhiy salomatligiga ta’sir qiladi. Bu haqida mashhur psixolog Uri Bronfenbrenner shunday deydi: “Oilalar — shaxsning qobiliyati va xarakterini shakllantirish uchun ma’lum bo‘lgan

eng qudratli, eng insonparvar va, shubhasiz, eng tejamkor tizimdir.”[4] Agar ota-ona mehribon bo‘lsa, er-xotin bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lsa, qarindosh-urug‘ bilan rishtalar uzilmasa, bu muhitda ulg‘aygan bola o‘zini “kerakli”, “sevilgan” deb his qiladi. Bunday bola kelajakda o‘ziga ishongan, boshqalarni ham qadrlaydigan, ruhiy jihatdan barqaror inson bo‘lib voyaga etadi. Aksincha, oila ichida doimiy janjal, tahqir, zo‘ravonlik bo‘lsa, bu bola ruhida chuqur iz qoldiradi.

O‘zbek ma’rifatparvari Abdulla Avloniy tarbiyaning ahamiyatini juda aniq ifodalab bergan: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.”[5] Bu so‘zlar tarbiyaning faqat alohida bola uchun emas, butun xalq kelajagi uchun hal qiluvchi masala ekanini ko‘rsatadi. Shunday ekan, milliy qadriyatlarga tayanib qurilgan mustahkam oila — ruhiy salomatlikning eng muhim kafolatlaridan biridir.

Oila bilan bir qatorda, mahalla va qo‘ni-qo‘shnichilik ham bizning hayotimizda katta rol o‘ynaydi. Mahalla — bu faqat geografik joy emas, balki “katta oila”dir. Mahallada odamlar bir-birining quvonchi va g‘amiga sherik bo‘ladi, to‘yda elkadosh, azada dalda, hashar va boshqa ishlarda esa hamkor bo‘ladi. Zamonaviy olimlar bunday yaqin aloqalarni “ijtimoiy boylik” deb atashadi. Bu haqida Robert Putnam shunday deb yozadi: “Ijtimoiy kapital – jamiyat tuzilishining tarmoqlar, me’yorlar va ijtimoiy ishonch kabi xususiyatlari bo‘lib, ular o‘zaro hamkorlik va muvofiqlashuvni osonlashtirib, umumiy manfaatga xizmat qiladi.”[6] Demak, mahalladagi “ko‘maklashish”, “bir-birini o‘ylash” odatlari nafaqat odob belgisi, balki sog‘lom jamiyat belgisidir. Chunki odam yolg‘iz qolganda, muammolarini hech kim bilan bo‘lisha olmaganda, uning ruhiy bosimi ortadi. Aksincha, yonida dardi bilan o‘rtoqlashadigan, yordam qo‘lini cho‘zadigan, “senga yordam kerakmi?” deb so‘raydigan odamlar bo‘lsa, u o‘zini yanada yaxshi his qiladi. Shu fikrni juda ko‘p tadqiqotchi olimlar ham tasdiqlaydi: “Ijtimoiy munosabatlar va mansublik hissi jismoniy hamda ruhiy salomatlikka kuchli ta’sir ko‘rsatishi keng e’tirof etilgan.”[7]

ZJV5401

Milliy qadriyatlarimizning yana bir muhim tomoni — ma'naviy-axloqiy fazilatlar: halollik, poklik, saxovat, muruvvat, birovning haqiga tegmaslik, keksalarni e'zozlash va boshqalar. Bular odamning kundalik qarorlariga ta'sir qiladi: ishini qanday qiladi, pulni qanday topadi, boshqalarga qanday munosabatda bo'ladi. Agar inson halol mehnat qilib, halol rizq esa, u o'zini vijdonan ham engilroq his qiladi. Vijdon azobi, qo'rquv, yashirin gunohlar ruhiy salomatlikni emiradi, halol hayot esa bunday ichki ziddiyatlarni kamaytiradi. Ma'naviy qadriyatlar hayotga ma'no berib, "mening yashashimning foydasi bor" degan tuyg'uni kuchaytiradi. Bu haqida olib borilgan tadqiqotlarda ham shunday xulosa qilinadi: "Kuchli koherentlig hissi muvaffaqiyatli qarish va hayotdan yuqori darajadagi qoniqish hissiga hissa qo'shadi." [8] Demak, ma'naviy qadriyatlar nafaqat yosh, balki keksalik davrida ham ruhiy ravshanlik va hayotdan mamnunlikni oshiradi.

Milliy turmush tarzimiz ham jismoniy salomatlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mehnatsevarlik, harakatchanlik, hasharlarda qatnashish, ko'cha va hovlini supurish, sayr qilish, raqs va xalq o'yinlarida harakat qilish odam organizmi uchun foydali. Bu ishlar sport zaliga borishdan ko'ra tabiiyroq va ko'pchilik uchun osonroq. Nomoddiy madaniy meros bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar buni quyidagicha ta'riflaydi: "Nomoddiy madaniy meros sog'lom jamoalar va oilalar hamda barqaror turmush manbalarining muhim tarkibiy qismidir." [9] Bayramlar, marosimlar, xalq o'yinlari, milliy taomlar tayyorlash va mehmon kutish madaniyati — bularning hammasi avloddan-avlodga o'tadigan "tirik meros" bo'lib, agar ularni oqilona saqlasak, sog'lom hayot tarzini ham davom ettiradi. Albatta, har bir odatni me'yori bilan tutish kerak: juda yog'li taomni ortiqcha eyish, kechasi tinimsiz ovqatlanish yoki faqat "taom ko'p bo'lsa yaxshi" deb o'ylash salbiy ta'sir qilishi mumkin. Lekin isrof qilmaslik, tabiiy mahsulotga tayanish, me'yorni bilish kabi qadriyatlar aslida salomatlikni asrashga xizmat qiladi.

Biroq ba'zi qadriyat va iboralar noto'g'ri tushunilganda salbiy oqibatlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, "odamlar nima deydi", "uyat bo'ladi" degan gap ba'zan insonni shifokor yoki psixolog oldiga borishdan

to'xtatib qo'yadi. Ruhiy muammolarni "uyat" deb o'ylab, ichida saqlab yurish, hech kimga aytmalik kasallikni yanada chuqurlashtirishi mumkin. JSST ruhiy salomatlik bo'yicha hisobotlarida "stigma" — ya'ni odamlarni ruhiy muammosi tufayli yomon ko'rish va kamsitishning oqibatlari haqida ogohlantiradi: "Stigma – kamsitish va chetlatishning asosiy sabablaridan biri bo'lib, inson huquqlarining buzilishiga hissa qo'shadi." [10] Shuning uchun "uyat" degan so'zni "shifokorga borish uyat", "muammomni aytish uyat" tarzida emas, balki "yomon ish qilish uyat, lekin dardingni aytib, davolanish uyat emas" tarzida tushuntirish kerak. Milliy qadriyatlarimizni shunday talqin qilsak, ular odamni davolanishdan to'xtatmaydi, aksincha, bir-biriga yordam berishga undaydi.

Bugungi globallashuv davrida dunyoning turli odatlari, reklamalari, ko'ngilxushlik shakllari tez kirib kelmoqda. Ulardan ba'zilar foydali bo'lishi mumkin: sport, sog'lom ovqatlanish, bilim olish. Lekin boshqalari — chekishni "zamonaviylik" sifatida ko'rsatish, mastlikni "bayram kayfiyati" deb targ'ib qilish, kechasi uxlamay telefonga termulib o'tirish, ijtimoiy tarmoqlarda soatlab bekor o'tirish — salomatlikni buzadi. JSST ham sog'liqning ijtimoiy omillarini sanab o'tar ekan, siyosat, axborot, reklama va jamiyatdagi me'yorlarning sog'liqqa bevosita ta'siri borligini ta'kidlaydi [11] Shunday vaziyatda milliy qadriyatlarimiz bizni himoya qiladigan qalqon bo'lishi mumkin, lekin agar biz ularni to'g'ri tushunsak va zamonga mos talqin qilsak. Masalan, mahallani "odamlarni kuzatib, g'iybat qilish joyi" emas, balki "bir-birini qo'llab-quvvatlash va yordam berish joyi" sifatida ko'rsak; mehmondo'stlikni "mehmonga ortiqcha ovqat tiqishtirish" emas, balki "mehr, suhbat, duolar ulashish" deb bilsak; "odamlar nima deydi" iborasini "yomon ish qilma, chunki boshqalarga zarar etkazasan" ma'nosida tushunsak, ular salomatlikka ijobiy ta'sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar — bu faqat urf-odat yoki marosimlar emas. Ular insonning ruhiy dunyosini mustahkamlaydi, hayotiga ma'no beradi, oilada mehr va ishonch muhitini yaratadi, mahallada bir-biriga tayanch bo'lishni o'rgatadi, toza va harakatchan turmush tarziga undaydi, halollik va saxovat orqali ichki xotirjamlikni oshiradi. JSST ta'rifiga ko'ra salomatlik jismoniy, ruhiy va ijtimoiy

farovonlikning birligi bo'lsa, milliy qadriyatlarimiz ana shu birlikni ushlab turadigan ko'rinmas ustunlar deyish mumkin. Agar har bir oila, har bir mahalla va har bir maktab bu qadriyatlarni zamonaviy tibbiy va psixologik bilimlar bilan uyg'unlashtirsa, jamiyatimizda jismonan baquvvat, ruhiy jihatdan barqaror, bir-biriga begona bo'lmagan sog'lom avlod voyaga etadi. Bu esa butun xalqning bardavom salomatligi va baxtli kelajagi uchun eng katta kafolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Health Organization. Constitution of the World Health Organization. – New York: WHO, 1946.
2. World Health Organization. Social Determinants of Health. – Geneva: WHO, 2008.
3. Antonovsky A. Unraveling the Mystery of Health: How People Manage Stress and Stay Well. – San Francisco: Jossey-Bass, 1987
4. Bronfenbrenner U., cited in: Rarick T. Fatherhood: the Antidote to the Poverty Problem // *MercatorNet*. – 2016. – 29 November.
5. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1992
6. Putnam R. D. Bowling Alone: America's Declining Social Capital // *Journal of Democracy*. – 1995. – Vol. 6, No. 1. – P. 65–78.)
7. Berkman L. F., Glass T. Social Integration, Social Networks, Social Support, and Health // Berkman L. F., Kawachi I. (eds.). *Social Epidemiology*. – New York: Oxford University Press, 2000. – P. 137–173.
8. Kocjan J. Strong Sense of Coherence Contributes to Successful Aging and Higher Satisfaction with Life // *Journal of Education, Health and Sport*. – 2017. – Vol. 7, No. 7. – P. 537–544.)
9. UNESCO Chair in Living Heritage and Sustainable Livelihoods. About Living Heritage. – Prince George: UNBC, 2022.
10. World Health Organization. *Mental Health: New Understanding, New Hope*. – Geneva: WHO, 2001.
11. World Health Organization. Social Determinants of Health. – Geneva: WHO, 2008.

ZJV5401

AXBOROTLASHGAN JAMOCIYATDA MILLIY QADRIYATLAR VA GLOBAL MADANIYAT O‘ZARO MUNOSABATI

Nurullayeva Zulxumor Seydamatovna,
University of Business and Science
Toshkent filiali dotsenti v.b.

ZJV5401

XXI asrga kelib insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi bo‘ldi. “Axborotlashgan jamiyat” atamasi bugungi kunda ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarning markaziga aylandi. “Bu jarayon nafaqat iqtisodiy tizimni, balki madaniyat va ma’naviyat sohasini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, milliy qadriyatlar tizimi global axborot maydonidagi raqamli madaniyat bilan keskin to‘qnashuv holatiga kelmoqda” [1]. Fikrimizcha, axborotlashgan jamiyat insoniyat tafakkurini yangi bosqichga olib chiqdi, biroq bu jarayon milliy qadriyatlar uchun sinov davrini ham boshlab berdi. Raqamli madaniyatning kuchayishi milliy o‘zlikni yo‘qotmasdan, uni zamonaviy texnologik shaklda ifoda etishni talab qiladi.

“Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi”da ma’naviy qadriyatlar va milliy identitetni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [2]. Shu nuqtai nazardan, axborotlashgan jamiyatda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy raqamli shaklda ifoda etish va global madaniyat bilan muvozanatli integratsiya qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Axborotlashgan jamiyat – bu axborot ishlab chiqarish, qayta ishlash va uzatish ijtimoiy hayotning barcha sohalarini belgilaydigan yangi bosqichdir. Bu jamiyatda axborot eng muhim iqtisodiy va madaniy resursga aylanadi[3]. Axborotlashgan jamiyat inson faoliyatining barcha jabhalarida yangicha tafakkurni shakllantirmoqda. Axborotning asosiy resursga aylanishi nafaqat iqtisodiy o‘rishni, balki madaniy rivojlanish, ta’lim, siyosat va ma’naviyatning ham zamonaviy modelini yaratishga imkon beruvchi jarayondir. Manuel Kastels “Axborot asri” asarida bu jarayonni “tarmoqlashgan jamiyat” deb ataydi va uning asosida kommunikatsiyaning yangi modeli – raqamli tarmoqlar turganini ta’kidlaydi [4]. Shu orqali inson

tafakkuri, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy munosabatlar yangi shaklga ega bo'lmoqda.

Axborotlashgan jamiyatda madaniyatning eng muhim belgisi – virtual madaniyatdir. Virtual madaniyat inson faoliyatining yangi makonini – raqamli fazoni yaratadi. Bu fazoda milliy va global qadriyatlar o'zaro to'qnashadi, sintezlanadi yoki qarama-qarshi yo'nalishda rivojlanadi. Shu sababli, axborotlashgan jamiyatda madaniy jarayonlarni boshqarish faqat texnologik emas, balki falsafiy yondashuvni ham talab qiladi [5]. virtual madaniyat insoniyat ongida yangi kommunikativ va estetik fazoni vujudga keltirdi. Raqamli makon endilikda nafaqat axborot almashinuvi, balki ma'naviy o'zaro ta'sir maydoniga aylandi. Unda milliy va global qadriyatlar sintezi yangi madaniy gibridlikni yuzaga keltiradi. Shu bois madaniy jarayonlarni boshqarishda texnologik innovatsiyalar bilan bir qatorda falsafiy, axloqiy va ma'naviy mezonlarga tayangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi, diniy va axloqiy tamoyillarini o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Ular jamiyatni birlashtiruvchi, milliy o'zlikni saqlovchi asosiy g'oyaviy manba sanaladi. O'zbekiston tarixida bu qadriyatlar asrlar davomida ma'naviyat, din, urf-odat, san'at va adabiyot orqali mustahkamlanib kelgan. Milliy qadriyatlar tizimi insonning o'zligini anglashida, jamiyatda ma'naviy birlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, global madaniyat bosimi ostida ularni asrab qolish, yangicha ifoda etish muhim falsafiy va strategik vazifadir.

Bugungi axborot makonida milliy qadriyatlar ko'p hollarda tijoratlashtirilgan, soddalashtirilgan yoki g'arbona turmush tarzi bilan raqobat holatiga tushmoqda. Natijada ayrim yoshlar ongida ma'naviy identitet inqirozi, o'z millatiga nisbatan befarqlik kuzatilmoqda [6]. Bugungi axborot makonida milliy qadriyatlarning tijoratlashuvi va g'arbona madaniyat bilan raqobati jamiyat ma'naviy muvozanatini zaiflashtirdi. Ayniqsa, yoshlar orasida identitet inqirozi kuchayib, milliy g'urur va tarixiy xotira qadrsizlanish xavfi paydo bo'ldi. Shu bois axborot siyosatida milliy kontentni rivojlantirish, ma'naviy immunitetni

mustahkamlash va yoshlar ongida milliy qadriyatlarga sodiqlikni kuchaytirish zarurdir.

Globallashuv jarayoni axborot texnologiyalari orqali jahon miqyosidagi madaniy aloqalarni kuchaytirdi. Biroq bu jarayon milliy madaniyatlar o'rtasidagi tenglikni emas, balki G'arbning madaniy ustunligini mustahkamladi [7]. Globallashuv jarayonining axborot texnologiyalari orqali kengayishi madaniy almashinuv imkoniyatlarini oshirgan bo'lsa-da, u asosan G'arb madaniyati uchun qulay sharoit yaratdi. Natijada, mahalliy madaniyatlar ko'pincha iste'molchi madaniyat soyasida qolmoqda. Shu sababli, milliy madaniy siyosat global maydonda tenglik va o'zlikni saqlashga qaratilgan strategik yondashuvni talab qiladi. Global madaniyatning asosiy xususiyatlari – iste'molchi qadriyatlari, individualizm, texnologik tafakkur va ommaviylikdir. Bu qadriyatlar televideniye, kino, ijtimoiy tarmoqlar va reklama orqali ommalashmoqda. Natijada milliy qadriyatlar fonida yangi “gibrid madaniyat” paydo bo'lmoqda.

Shu bilan birga, global madaniyatning ijobiy jihatlarini ham inkor etib bo'lmaydi. U madaniy xilma-xillik, yangicha ijodiy shakllar, madaniyatlararo muloqot uchun imkoniyatlar yaratib berdi. O'zbek kinosi, musiqasi yoki moda san'ati global platformalarda o'z auditoriyasiga ega bo'ldi. Bu esa milliy qadriyatlarning yangi kommunikativ shaklda namoyon bo'lishidir [8]. Fikrimizcha, o'zbek kinosi, musiqasi va moda san'atining global platformalarda tan olinishi milliy madaniyatning yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Bu holat milliy qadriyatlarning zamonaviy ifoda shakllarida qayta talqin qilinishi, raqamli kommunikatsiya vositasida jahon madaniy maydonida faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda madaniy diplomatiya samaradorligini oshiradi.

Axborotlashgan jamiyatda milliy va global qadriyatlar o'zaro dialektik munosabatda mavjud. Biri boshqasini inkor etmaydi, aksincha, ular o'zaro ta'sirda yangi sintez hosil qiladi. Bu sintez “raqamli identitet” yoki “madaniy gibridlik” shaklida namoyon bo'ladi [9]. Ushbu fikrni qo'llab-quvvatlab, axborotlashgan jamiyatda milliy va global qadriyatlar o'zaro boyituvchi jarayon sifatida namoyon bo'layotganini ta'kidlaydi.

Raqamli identitet insonning madaniy o'zligini saqlagan holda global makonda faol ishtirok etishiga imkon yaratadi. Shu bois, madaniy gibridlik zamonaviy sivilizatsiyaning yangi ijtimoiy-estetik shakli sifatida qadriyatlar uyg'unligini ifodalaydi.

O'zbek tili raqamli makonda faollashib, yangi so'z boyligini yaratmoqda. Milliy bayramlar, qadimiy urf-odatlar internet orqali global miqyosda targ'ib etilmoqda. Shu bilan birga, global axborot oqimlari orqali yoshlarning dunyoqarashi kengaymoqda. Biroq bu jarayonning salbiy oqibatlari ham mavjud: ma'naviy nisbiylik, an'anaviy qadriyatlarning zaiflashuvi, iste'molchi ongining kuchayishi. Shuning uchun milliy qadriyatlarni zamonaviy kontekstda qayta talqin qilish zarur. Bu jarayonni davlat siyosati, ta'lim tizimi va madaniy siyosat orqali boshqarish muhim [10]. Milliy qadriyatlar va global madaniyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarbdir:

1. Milliy kontent siyosatini rivojlantirish. Axborot makonida milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi media platformalarni qo'llab-quvvatlash, raqamli madaniyatda o'zbek tilining mavqeyini mustahkamlash zarur.

2. Ta'lim va tarbiya tizimida raqamli ma'naviyatni shakllantirish. Yoshlar uchun internet madaniyati, axborot tanqidiyligi va milliy g'ururni uyg'otuvchi darsliklar, dasturlar joriy etilishi lozim.

3. Madaniy immunitetni kuchaytirish. Jamiyat a'zolarida g'arbona ommaviy madaniyatga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish, o'z milliy qadriyatlarini raqamli makonda faol himoya qilish g'oyasini targ'ib etish muhim.

4. Global hamkorlikni madaniy tenglik asosida yo'lga qo'yish. Xalqaro madaniy loyihalarda o'zbek madaniy merosini targ'ib etish, "soft power" vositalaridan foydalanish zarur.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida milliy qadriyatlar va global madaniyat o'zaro munosabati murakkab, lekin ijodiy jarayondir. Global madaniyat ta'siri ostida milliy qadriyatlar zaiflashishi mumkin, biroq ularni raqamli shaklda qayta talqin qilish orqali yangi madaniy uyg'onish bosqichi yuzaga keladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, milliy qadriyatlarni asrab qolish uchun ularni zamonaviy raqamli ifodaga ega qilish, yoshlarning ongida madaniy immunitetni mustahkamlash va milliy kontent siyosatini kuchaytirish zarur. Shu tarzda, axborotlashgan jamiyatda milliy qadriyatlar va global madaniyat o'rtasida barqaror muvozanat faqat texnologik emas, balki falsafiy, ma'naviy va mafkuraviy asoslarda ta'minlanadi. Bu esa Yangi O'zbekistonning madaniy siyosati va ma'naviy yangilanish strategiyasi uchun muhim g'oyaviy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toffler, A. The Third Wave. New York: Bantam Books, 1980. – P.116.
2. “Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi” (2022–2026). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi nashriyoti, 2022.
3. Bell, D. The Coming of Post-Industrial Society. New York: Basic Books, 1973. – P.13.
4. Castells, M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 2000. – P.151.
5. Habermas, J. The Structural Transformation of the Public Sphere. Cambridge: Polity Press, 1991.
6. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.116.
7. Robertson, R. Globalization: Social Theory and Global Culture. London: Sage, 1992. – P.46.
8. Appadurai, A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996. –P.93.
9. Bauman, Z. Liquid Modernity. Cambridge: Polity Press, 2000. – P.36.
10. Rahmonov, A. Raqamli madaniyat va milliy o'zlik muammolari. Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2023. – B.78.

QADRIYATLAR TARG‘IBOTIDA “AQL MARKAZLARI”NING O‘RNI (AQSHDAGI KONSERVATIV MARKAZLAR MISOLIDA)

Turayev Abrar Saloxiddinovich,

siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,

Neokonservatizm XX asr o‘rtalaridan boshlab AQShda shakllangan siyosiy-mafkuraviy yo‘nalish bo‘lib, u liberal demokratiya, inson huquqlari, erkinlik, milliy suverenitet va xalqaro tartibni mustahkamlashni asosiy tamoyil qilib oladi. Neokonservatorlar global maydonda demokratik qadriyatlarni tarqatish va himoya qilishga, shuningdek ichki siyosatda milliy qadriyatlar, oilaviy an‘analari va milliy identitetni mustahkamlashga katta e‘tibor qaratadi.

Ushbu yo‘nalishning samarali faoliyati “aql markazlari” (think tanklar) orqali amalga oshiriladi. “Aql markazlari” – bu ilmiy-tadqiqot institutlari bo‘lib, ular siyosiy tahlillar, siyosatni shakllantirish va jamoatchilik fikrini boshqarishda muhim vosita hisoblanadi. AQShda Amerika tadbirkorlik instituti (American Enterprise Institute (AEI), Meros jamg‘armasi (Heritage Foundation), Gudzon instituti (Hudson Institute) kabi markazlar neokonservatizmning nazariy va amaliy asoslarini yaratadi, ichki va tashqi siyosatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

AQSh neokonservatorlari mamlakat siyosatida xalqaro huquq, demokratiya, inson huquqlari va erkinlik kabi universal qadriyatlarga alohida urg‘u beradi. Ularning Amerika tadbirkorlik instituti, Meros jamg‘armasi, Gudzon instituti kabi “aql markazlari” ichki hamda tashqi siyosatni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu tashkilotlar nafaqat AQSh jamiyatining asosiy tamoyillarini himoya qilishga intiladi, balki global miqyosda demokratiya va inson huquqlari kabi qadriyatlarni ommalashtirishni maqsad qiladi.

Neokonservativ markazlar milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishda demokratiya, erkinlik va inson huquqlari prinsiplarini ustun qo‘yadi. Shu bilan birga, milliy identitet va an‘analarni saqlashni ham muhim deb hisoblaydi, lekin bu jarayonni global demokratik tamoyillar bilan

uyg'unlashtirishga intiladi. Masalan, Meros jamg'armasi prezidenti K.Roberts oilaviy qadriyatlarni "Amerika ajibligining asosiy manbai" deb ataydi va ularni milliy siyosatning markaziga qo'yadi

Shuningdek, **Amerika birinchi siyosat instituti** (America First Policy Institute (AFPI) 250-yillik nishonlash doirasida "America 250 Civics Education Coalition" tashabbusini ilgari surib, yoshlarni Amerika qadriyatlari va asosiy prinsiplariga sodiq etishtirishga chaqiradi [1].

AFPI Amerika siyosatida konservativ tamoyillarni targ'ib qilishga yo'naltirilgan tashkilot bo'lib, u o'z faoliyatini asosan milliy manfaatlarni himoya qilish va amerikaliklarning milliy qadriyatlarini mustahkamlashga qaratgan. AFPI 2025-yilda AQSh mustaqilligini nishonlash doirasida "America 250 Civics Education Coalition" nomli yirik ta'lim tashabbusini ilgari surdi. Bu yoshlarni Amerika asosiy qadriyatlari ruhida tarbiyalashda yangi yondashuv bo'lib, fuqarolik ma'rifati va milliy birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli ijtimoiy ta'lim loyihasidir. Ushbu tashabbusning asosiy maqsadi yosh avlodni Amerika tarixining eng muhim qadriyatlari, demokratiya asoslari, konstitutsiya printsiplari va fuqarolik mas'uliyati bilan chuqur tanishtirishdir.

"America 250 Civics Education Coalition" 40 dan ortiq konservativ ta'lim, madaniyat va siyosiy tashkilotlarni birlashtirib, milliy birdamlik va fuqarolik ongini oshirishga xizmat qiluvchi ko'p qirrali ta'lim dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Bu tashabbus orqali yoshlar nafaqat Amerika tarixidan bilim olishadi, balki ularning yurtiga bo'lgan sadoqati, fuqarolik faolligi va milliy identiteti yanada mustahkamlanadi.

Tashabbus doirasida o'quv dasturlari maktab va oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan materiallarni ishlab chiqish, onlayn kurslar tashkil etish, interaktiv loyihalar va viktorinalar o'tkazish kabi ko'plab faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu dasturlar yoshlarni Amerika konstitutsiyasining asosiy tamoyillari bo'lgan erkinlik, tenglik, qonun ustuvorligi va fuqarolik huquqlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Shuningdek, tashabbus yoshlarni tarixiy shaxslar, jumladan AQSh mustaqillik deklaratsiyasi mualliflari, milliy qahramonlar va demokratik qadriyatlarni himoya qilgan arboblardan tanishtirishni o'z

ichiga oladi. Bu orqali yoshlar o'z tarixlari va milliy qadriyatlari bilan faxrlanishni o'rganadilar.

AFPIning ushbu tashabbusi milliy siyosatda yoshlarni faol fuqarolar sifatida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi. Demokratik davlatda yoshlarning siyosiy faolligi va fuqarolik ongining yuqori bo'lishi barqarorlik va rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, "America 250 Civics Education Coalition" yosh avlodga nafaqat tarixiy bilimlarni etkazib berish, balki ularni milliy qadriyatlarni qadrlashga, jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarga hissa qo'shishga rag'batlantirishni maqsad qiladi.

Bundan tashqari, tashabbusda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish nazarda tutilgan. Interaktiv veb-platformalar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o'rtasida ta'limning samaradorligi oshiriladi, ular o'zaro fikr almashish, muhokama qilish va milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda faol ishtirok etadi. Bu tashabbusning dolzarbligi ayniqsa hozirgi global siyosiy murakkabliklar, ijtimoiy bo'linishlar va fuqarolik ongining pasayishi davrida yanada oshmoqda.

Neokonservatorlar milliy suverenitetni himoya qilishni siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'radi. Meros jamg'armasining "Project 2025" loyihasi AQShning tashqi siyosatini qayta shakllantirish va milliy suverenitetni mustahkamlashni, shuningdek global demokratik qadriyatlarni targ'ib qilishni asosiy vazifa qilib belgilaydi [2].

Neokonservativ "aql markazlari" yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Ular o'zlarining ta'lim dasturlari orqali yoshlarni milliy identitetga sodiq, davlat manfaatlariga fidoyi bo'lishga yo'naltiradi. Ularning ta'lim dasturlarida patriotizm, milliy tarix, Amerika inqilobi, konstitutsiya, inson huquqlari va qonun ustuvorligi kabi asosiy qadriyatlarni mustahkamlashga katta e'tibor beriladi. Masalan, Meros jamg'armasining 2020-yilgi yillik hisobotida, "Restoring Civics Coalition" tashabbusi orqali o'qituvchilar va ota-onalarni "1619 Project" kabi tarixiy noto'g'ri tushunchalarga qarshi kurashishga chaqirgan. Bu tashabbus, yoshlarni an'anaviy AQSh qadriyatlari bilan tarbiyalashga qaratilgan edi [3].

AEI o'zining 2019-yilgi yillik hisobotida, identitet siyosati va soxta tarixga qarshi kurashishning muhimligini ta'kidlagan. Tashkilot, yoshlarni milliy birlik va fuqarolik mas'uliyatiga o'rgatishning zarurligini belgilab, bu borada o'zining ta'lim dasturlarini ishlab chiqdi [4].

Neokonservatorlar an'anaviy oilaviy va diniy qadriyatlarni mustahkamlashga ham katta e'tibor beradi. Amerika konservativ ittifoqi jamg'armasi (American Conservative Union Foundation – ACUF)ning 2021-yilgi hisobotida oila va diniy axloq yoshlarning ma'naviy poydevorini tashkil etishini, jamiyat barqarorligining muhim omili ekanini ta'kidlaydi. Mahalliy jamoalar va diniy tashkilotlar yoshlarni ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashda faol rol o'ynaydi [5].

“America 250 Civics Education Coalition” tashabbusi doirasida, 2025-yilda AQSh Ta'lim departamenti 40 dan ortiq konservativ tashkilotlarni birlashtirib, yoshlarni AQShning asosiy qadriyatlari bilan tanishtirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqdi. Bu tashabbus yoshlarni faol fuqarolar sifatida tarbiyalashni maqsad qiladi [6].

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari neokonservativ “aql markazlari”ning yoshlarni tarbiyalashdagi yana bir muhim yo'nalishi hisoblanadi. Meros jamg'armasi va AEI interaktiv veb-resurslar, video kontentlar, onlayn kurslar hamda ijtimoiy tarmoqlarda milliy va konservativ qadriyatlarni targ'ib qiluvchi platformalarni faol rivojlantiradi. Bu vositalar orqali yoshlar milliy ruhda tarbiyalanadi va tarbiyaviy jarayon samarali bo'ladi. Bundan tashqari, neokonservatorlar yoshlarni milliy qadriyatlarni ifodalovchi san'at va madaniyat sohalariga jalb qilishni qo'llab-quvvatlaydi. She'riyat, musiqiy va teatr tanlovlari, madaniy festivallar yoshlarning milliy o'zligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Meros jamg'armasi o'zining “Civics Lessons and Resources” tashabbusi doirasida o'quvchilarga fuqarolik ta'limi bo'yicha bepul onlayn resurslar taqdim etadi. Bu resurslar orasida “PragerU Kids”, “Americana Corner”, “Federalist Society”, “Jack Miller Center” va “The National Constitution Center” kabi platformalar mavjud bo'lib, ular videodarslar, interaktiv materiallar va o'quv qo'llanmalarni o'z ichiga oladi. Ushbu

platformalar orqali yoshlar AQSh tarixini, asosiy huquqiy hujjatlarni va fuqarolik mas'uliyatini o'rganishlari mumkin [7].

AEI o'zining "American Dream Initiative" dasturi orqali ta'lim tizimini isloh qilishni va fuqarolik mas'uliyatini oshirishni maqsad qilgan. Dastur doirasida, AEI turli tadbirlar, vebinarlar va nashrlar orqali yoshlarni ta'lim tizimining islohoti va fuqarolik mas'uliyatiga jalb etishga harakat qiladi [8].

Amerika merosi ta'lim jamg'armasi (American Heritage Education Foundation-AHEF) "America's Heritage: An Experiment in Self-Government" kabi bepul darsliklar va o'quv resurslarini taqdim etadi. Bu resurslar orqali o'quvchilar Amerika asosiy huquqiy hujjatlari, tarixiy voqealar va fuqarolik mas'uliyatini o'rganishlari mumkin [9].

AQSH neokonservativ "aql markazlari" va O'zbekistonda yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda umumiy tamoyillarga ega bo'lsa-da, ularning yondashuvlari tarixiy, madaniy va dini kontekstlarda sezilarli farq qiladi. AQShda yondashuv konservativ, patriarxal, fuqarolik va milliy xavfsizlikka urg'u berib, raqamli platformalar va madaniy tadbirlarga asoslangan bo'lsa, O'zbekistonda milliy tarix, madaniyat, til va diniy an'analarni tiklashga qaratilgan dasturlar ustuvor hisoblanadi.

Mamlakatimizda yoshlar orasida milliy til va tarixni keng targ'ib qilish, diniy va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashga katta e'tibor qaratiladi. Har ikki mamlakat uchun yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash milliy barqarorlik va rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, neokonservatizmida milliy va global qadriyatlarni uyg'unlashtirish muhim o'rin tutadi. Ushbu mafkuraviy oqim tarafdorlari demokratiya, inson huquqlari va milliy suverenitet tamoyillarini birgalikda targ'ib qilib, ichki siyosatda milliy identitet (o'zlik) va an'analarni mustahkamlashga katta e'tibor qaratadi. Neokonservativ "aql markazlari" siyosiy qarorlar qabul qilish va jamiyatda fuqarolik ongini shakllantirishda asosiy vosita sifatida faoliyat yuritadi. Ular ta'lim va siyosiy tadbirlar orqali yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan interaktiv onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar neokonservativ tashkilotlarning yoshlarni tarbiyalashdagi samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Bundan tashqari, neokonservatorlar an'anaviy oilaviy va diniy qadriyatlarni milliy barqarorlik va ma'naviy poydevor sifatida qadrlaydi, bu esa yoshlarning ma'naviy va madaniy o'sishini ta'minlaydi. AQSh va O'zbekiston yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda umumiy maqsadlarga ega bo'lsa-da, ularning yondashuvlari madaniy-tarixiy va siyosiy kontekstga ko'ra farqlanadi. Har ikki mamlakat uchun yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash milliy barqarorlik va rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Ammo, neokonservativ qarashlardagi muayyan manipulyativ yondashuvlarga sergaklikda munosabatda bo'lish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. The Washington Post. U.S. Department of Education Announces Initiative to Advance Civics Education in Partnership with Conservative Groups. <https://www.washingtonpost.com/education/2025/09/17/education-department-conservative-groups-civics-patriotism/>
2. Le Monde.fr. The Heritage Foundation, les missionnaires du trumpisme à l'assaut de l'Europe https://www.lemonde.fr/m-le-mag/article/2025/06/18/the-heritage-foundation-les-missionnaires-du-trumpisme-a-l-assaut-de-l-europe_6614138_4500055.html
3. Heritage Foundation. The Heritage Foundation 2020 Annual Report on the "Restoring Civics Coalition" Initiative <https://www.heritage.org/annual-report-2020/fighting-for-our-history-and-national-identity/>
4. American Enterprise Institute. AEI 2019 Report on Preparing Youth for Civic Education and National Unity <https://www.aei.org/research-products/report/civics-education-and-national-unity/>

5. American Conservative Union Foundation. ACUF 2021 Report on the Role of Family and Religious Morality in Youth Education // <https://www.conservative.org/oila-va-diniy-axloq-hisoboti-2021>

6. U.S. Department of Education. America 250 Civics Education Coalition Initiative in Collaboration with Conservative Organizations to Introduce Youth to American Values //: <https://www.ed.gov/news/press-releases/america-250-civics-education-coalition-launch>

7. Heritage Foundation. Civics Lessons and Resources // <https://www.heritage.org/curricula-resource-initiative/curriculum-library/civics-lessons-and-resources>

8. American Enterprise Institute. American Dream Initiative // <https://www.americandream.is/>
American Heritage Education Foundation. America's Heritage: An Experiment in Self-Government // <https://americanheritage.org/free-lesson-plan-americas-heritage-an-experiment-in-self-government/>

SUN'IY INTELLEKT VA SIYOSIY MADANIYAT: RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDAGI IMKONIYAT VA TAHDIDLAR

Uzoqov Ilhom Shoniyoz o'g'li,
*O'zbekiston Milliy universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Zamonaviy sharoitda Sun'iy intellekt (keyingi o'rinlarda SI) foydalanishning dolzarbligi bugungi global raqamli rivojlanish va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish jarayonlarida tobora kuchayib bormoqda. O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga – sun'iy intellekt davriga dadil qadam qo'yimoqda. Qaysi soha bo'lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo'ladi"[1]. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mamlakatimizda fuqarolar

siyosiy madaniyati rivojining raqamli transformatsiya jarayonlariga SI texnologiyalaridan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rgangan holda milliy modelni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Har qanday siyosiy tizimdagi muayyan siyosiy harakatlardagi qarashlar: aholi ongi, his-tuyg'ulari va baholash siyosiy madaniyatda o'z ifodasini topadi [2]. Siyosiy madaniyat fuqarolarning siyosiy ongi (siyosiy tizim, hokimiyat organlari, qonunlar va siyosiy institutlar haqidagi bilim, ma'lumot va tasavvurlari), siyosatga doir emotsional munosabatlari (vatanga muhabbat, milliy ramzlarga hurmati, siyosiy ishonchi, faollik darajasi), siyosiy faolligi (saylovlarda qatnashish, jamoatchilik faolligi, siyosiy partiyalar va harakatlarda ishtirok etish, fuqarolik tashabbuslari va jamoatchilik nazorati) hamda siyosiy qadriyatlar tizimi siyosiy axborot manbalariga munosabat, media-savodxonlik darajasini belgilaydi.

Zamonaviy media-makonda SI nafaqat axborot tarqatish, balki aholining siyosiy ongi va madaniyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy vosita sifatida shakllanmoqda.

Jumladan, bu kabi holatlarga Nepalda yoshlar tomonidan siyosiy rahbarni tayinlash bo'yicha siyosiy qaror qabul qilishda SIDan maslahatlar olganligi[3], saylov davrida SI orqali saylovchilar nomzodlar haqida axborot va tavsiyalar olganligi [4], Ispaniyada "Clara" nomli SI-assistent fuqarolarga siyosiy masalalar bo'yicha savollariga javob berib, qaror qabul qilishda yordam berganligi [5], shuningdek siyosiy jarayonlarda SI yordamida yaratilgan media materiallarni siyosiy qaror qabul qilishdagi ta'sirini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

SI texnologiyalarining taraqqiyoti aholining siyosiy ongi, qadriyatlari va faolligiga kompleks ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu ta'sirlarni kengroq o'rganish natijalari ularni shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Siyosiy madaniyatning kognitiv (bilishga oid) elementlariga ta'siri:

SI orqali axborotni filtrlash va personallashtirish natijasida fuqarolarning siyosiy voqelikni anglash va tahlil qilish imkoniyatlari kengayadi;

SI yordamida siyosiy ma'lumotlarni tahlil qilish va kontent tavsiyasi tizimlari orqali fuqarolarning siyosiy bilim va xabardorlik darajasi oshadi;

SI asosidagi ta'lim va o'quv platformalari (masalan, interaktiv simulyatsiyalar, adaptiv kurslar) orqali siyosiy savodxonlik va kritik fikrlash salohiyati rivojlanadi;

Siyosiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar manbalarining ko'payishi va raqamli kanallar orqali tezkor axborot olish imkoniyatlari yaratiladi.

2. Affektiv (emotsional va qadriyatli) yo'nalishdagi ta'sirlar:

SI yordamida ijtimoiy tarmoqlardagi siyosiy kayfiyatni tahlil qilish va maqsadli kontent orqali uni boshqarish imkoni tug'iladi;

Feyk axborot, "deepfake" videolar va manipulyativ kontent orqali siyosiy shaxslarga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat shakllantiriladi;

SI orqali ishonch yoki ishonchsizlik muhitini yaratish, ya'ni fuqarolarning siyosiy institutlar va rahbarlarga bo'lgan emotsional munosabatini shakllantirish imkoni paydo bo'ladi;

Global mediamakon orqali transmilliy siyosiy qadriyatlar va g'oyalarni singdirish, milliy siyosiy identifikatsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi yangi tendensiyalar yuzaga keladi.

3. Fuqarolarning siyosiy faolligi va ishtirokiga ta'siri:

Siyosiy kommunikatsiyani avtomatlashtirish (chat-botlar, raqamli tashviqot vositalari, onlayn forumlar) orqali fuqarolar bilan munosabatni individuallashtirish imkoniyati ortishi;

SI asosidagi raqamli vositalar orqali siyosiy ishtirokni rag'batlantirish yoki pasaytirish (onlayn ovoz berish, elektron petitsiyalar, raqamli mobilizatsiya va g'ayra);

Axborot tengsizligini qisqartirish yoki aksincha, uni kuchaytirish orqali turli ijtimoiy guruhlarining siyosiy ishtirok imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatish;

Siyosiy qaror qabul qilish jarayonlariga SI texnologiyalarini integratsiya qilish orqali fuqarolar xulq-atvori va siyosiy tanlovlarining modeli o'zgarishi.

Muallifning fikricha, sun'iy intellektning yuqorida qayd etilgan imkoniyatlari aholining siyosiy madaniyatini rivojlantirish, ya'ni axborotga

bo'lgan ochiqlik, tahliliy fikrlash va fuqarolik faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Biroq, shu bilan birga, sun'iy intellekt aholining siyosiy madaniyatiga bir qator yangi tahdidlarni ham keltirib chiqaradi. Jumladan:

1. Axborot manipulyatsiyasi va ma'lumot filtrlanishi. SI algoritmlari foydalanuvchining qiziqishlari asosida axborotni personallashtiradi. Bu holat "axborot ko'purchasi" (information bubble) yoki "exo kamera" (echo chamber) fenomenini yuzaga keltiradi [6]. Natijada fuqarolar faqat o'z dunyoqarashiga mos fikrlar bilan cheklanib, alternativ qarashlardan uziladi va siyosiy ong bir yoqlama shakllanadi;

2. Feyk axborot va "deepfake" texnologiyalari orqali ishonchni susayishi. SI yordamida yaratilgan soxta video, audio yoki matnlar (deepfake) orqali siyosiy shaxslar yoki voqealar haqidagi fikr sun'iy ravishda o'zgartiriladi [7]. Bu esa fuqarolarning siyosiy institutlar va OAVga bo'lgan ishonchini pasaytiradi hamda "haqiqat" va "manipulyatsiya"ni farqlashni qiyinlashtiradi;

3. Siyosiy ong va kayfiyatni sun'iy boshqarish. Ijtimoiy tarmoqlardagi SI algoritmlari foydalanuvchining hissiyot va kayfiyatini tahlil qilib, unga mos kontentni tavsiya etadi. Bu orqali fuqarolarning siyosiy kayfiyati va hatto ovoz berish qarorini manipulyatsiya qilish imkoniyati paydo bo'ladi;

4. Siyosiy qaror qabul qilishda inson mustaqilligining kamayishi. SI tavsiya tizimlari fuqarolarga muayyan nomzod yoki partiyaning qo'llab-quvvatlashni taklif qilishi mumkin. Bu holat insonning mustaqil siyosiy fikr yuritish qobiliyatini susaytiradi va qaror qabul qilish jarayonini algoritmlarga bog'lab qo'yadi;

5. Axborot tengsizligi va raqamli ajrim. SIDan foydalanish imkoniyatlari jamiyatda teng taqsimlanmagan. Raqamli savodxonligi past bo'lgan qatlamlar SI yaratgan kontentni tanqidiy baholay olmasligi sababli, siyosiy faollik va xabardorlik darajasi bo'yicha ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi tafovut chuqurlashadi;

6. Shaxsiy ma'lumotlar xavfi va siyosiy nazorat. SI fuqarolarning onlayn faoliyatini kuzatib, ularning siyosiy qarashlari haqida ma'lumot

to'play oladi. Ushbu ma'lumotlar siyosiy reklama, manipulyatsiya yoki hatto nazorat vositasi sifatida qo'llanilishi ehtimoli mavjud;

Sun'iy intellektning siyosiy jarayonlarga kirib borishi axborotni qayta ishlash va siyosiy bilimni oshirish imkoniyatini yaratsa-da, uning eng katta xavfi — insonning mustaqil siyosiy ongi va tanlov erkinligining susayishidir. Axborot manipulyatsiyasi, “exo kamera” effektlari va “deepfake” texnologiyalari orqali fuqarolarning siyosiy xulq-atvori algoritmlar ta'siriga tushib qolishi mumkin. Bu esa demokratik jarayonlarning tabiiylik va xolislik prinsiplariga xavf tug'diradi, siyosiy madaniyatning asosiy ustuni bo'lgan tanqidiy fikrlash va ongli ishtirokni zaiflashtiradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan SI imkoniyatlarini siyosiy jarayonlardagi ijobiy va salbiy ta'sirlarin o'rgangan holda O'zbekistonda raqamli ta'lim, mediasavodxonlik va axborot xavfsizligi sohalarida milliy modelni ishlab chiqish dolzarb ekanligini xulosa qilish mumkin.

Kelgusida O'zbekiston sharoitida SI texnologiyalarini siyosiy jarayonlarda samarali qo'llash hamda aholi siyosiy madaniyatini oshirishda vosita sifatida foydalanishda dastlab quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- Huquqiy asosni mustahkamlash — SIDan foydalanishda axloqiy va siyosiy mas'uliyatni belgilaydigan milliy strategik hujjat qabul qilish;
- Mediasavodxonlikni oshirish — fuqarolarning feyk axborot va manipulyatsiyani tanish ko'nikmasini shakllantirish;
- SI shaffofligini ta'minlash — davlat organlari va siyosiy institutlarda SI qarorlari ochiq va jamoatchilik nazoratida bo'lishi;
- Raqamli tenglikni ta'minlash — barcha qatlamlar uchun axborot va SI resurslariga teng kirish imkoni yaratish;
- Fuqarolik jamiyati hamkorligini kuchaytirish — SI siyosatida davlat, NNT va ilmiy muassasalar o'rtasida hamkorlikni kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish yangi bosqichga olib chiqiladi.

https://president.uz/uz/lists/view/8582?utm_source=chatgpt.com;

2. Almond, G.A. (1956). Comparative Political Systems. The Journal of Politics, 18(3), 391–409;

3. https://slguardian.org/nepals-gen-z-turns-to-chatgpt-to-choose-interim-leader-after-ousting-prime-minister/?utm_source=chatgpt.com#google_vignette;

4. “AI in the 2024 Brazilian elections”
https://www.dataprivacybr.org/wp-content/uploads/2024/11/AI-in-the-2024-brazilian-elections.pdf?utm_source=chatgpt.com;

5. Chatbots supporting participation in Spain and Colombia.
<https://www.madrid.es/portales/munimadrid/es/Inicio/Actualidad/Noticias/Nace-Clara-el-asistente-virtual-de-Decide-Madrid;>

6. Filter Bubbles and the Unfeeling: How AI for Social Media Can Foster Extremism and Polarization.
https://link.springer.com/article/10.1007/s13347-024-00758-4?utm_source=chatgpt.com;

7. Chesney, R., & Citron, D. (2019). Deep Fakes and the New Disinformation War. Foreign Affairs.

MILLIY KONTENTDA QADRIYATLARNI TARG'IB ETISH JARAYONIDA IJTIMOIIY-FALSAFIY TAFAKKURNING TRANSFORMATSIYASI

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich,

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal sur'atlar bilan rivojlanib, jamiyat hayoti barcha sohalarida tub o'zgarishlarni rag'batlantirmoqda. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyatda ("information society") qadriyatlar, ma'naviy-madaniy yo'nalishlar va tafakkur shakllanishi munosabati bilan muammolar murakkablashmoqda. O.G.Danilyan fikriga ko'ra "Axborotlashgan jamiyatda shaxsiy va ijtimoiy hayotning yangi sifati shakllanadi... Ijtimoiy o'zgarishlarning asosiy omili — bu axborotni ishlab chiqish va undan foydalanishdir. Nazariy bilim esa eng yuksak qadriyat sifatida yangi ijtimoiy tuzilma va boshqaruv modellarini shakllantirish omiliga aylanadi" [1].

Axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi, raqamli madaniyatning shakllanishi va global axborot makonining kengayishi natijasida shaxsning qadriyatlarga, ma'naviyatga va jamiyatga bo'lgan munosabati o'zgarib bormoqda. Shu jarayonda milliy kontent — ya'ni milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi media mahsulotlar, madaniy va axborot resurslari — shaxs tafakkurini shakllantirishda muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda. V.E.Chernikova fikriga ko'ra, "Axborotlashgan jamiyat madaniyatida an'anaviy qadriyatlarning barqaror ravishda emirilishi va ularning o'rnini ommaviy axborot jamiyatiga xos stereotiplar egallashi jarayoni kechmoqda"[2]. Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, milliy kontent — ya'ni milliy qadriyatlarni targ'ib etuvchi axborot vositalari, madaniy-ijodiy mahsulotlar, media va internet maydonlari — jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning (ya'ni shaxsning jamiyatga, qadriyatlarga, axborot makoniga munosabati) transformatsiyasida muhim vositaga aylanmoqda. Shu sababli milliy kontent orqali qadriyatlarni targ'ib etish jarayonida ijtimoiy-falsafiy tafakkur qanday o'zgarayotgani va bu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash lozim. Natijada,

milliy kontent faqat axborot manbai emas, balki jamiyatning ma'naviy-falsafiy rivojlanishida faol ishtirok etuvchi strategik resurs sifatida namoyon bo'ladi.

Qadriyatlar — jamiyat, shaxs va madaniyat uchligida tufayli harakatlanadigan bosh nazariy kategoriyadir. “Falsafiy lug‘at”da “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy sotsiologik va aksiologik tushuncha bo'lib, jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat va fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar hisoblanadi” [3] deb izohlanadi.

M.Namozova fikriga ko'ra, transformatsiya bir tizimning azaldan mavjud bo'lgan qonun qoidalarini ijtimoiy hayotda o'zgarishlarni yaratish, qabul qilish va o'zgartirish jarayoni bo'lsa, “qadriyatlar transformatsiyasi” — xalq mentalitetida yashab kelayotgan necha ming yillik qadriyatlar, an'analar yig'indisi o'rniga zamonaviy, badiiy-estetik qiymatga ega bo'lmagan “Ommaviy madaniyat”, “demokratiya eksporti”, “ommaviy qadriyatlar” ashyo-ne'matlari bo'lib, bugungi yoshlar jamiyati ma'naviy qadriyatlarining shakllanishiga asos bo'lmoqda. Shuningdek, qadriyatlarning transformatsiyasi jamiyat taraqqiyotining bir bosqichdan rivojlangan yangi bosqichiga o'tishida an'anaviy qadriyatlar, avlodlarning turmush tarzi odat va an'alarining yangi jamiyatga vorisiylik holatida yoshlar tomonidan o'zlashtirish jarayonidagi islohi nazarda tutiladi [4]

K.shu fikriga ko'ra “Axborot falsafasi shuni ilgari suradiki, qadriyatga axborot nuqtai nazaridan yondashuv axborotga asoslangan ekologik sivilizatsiya va barqaror rivojlanish nazariyalari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin” [5]. Shuningdek, texnologiyalar “haqiqat” va “ishonch” kabi asosiy axloqiy qadriyatlarga ta'sir qilmoqda: J.Dahaner va H.S.Saetra texnologiyalar axloqiy qadriyatlarni transformatsiya qilayotganligi ta'kidlaydi [6]. Milliy kontent — media,

madaniyat, ta'lim, internet orqali tarqaluvchi milliy ma'naviy orientirlar sistemi — axborotlashgan jamiyat sharoitida yangi o'zgarishlarga duch kelmoqda. Bu jarayonda qadriyatlar “tarqatiluvchi” emas, balki “muvofiglashtiriluvchi”, “transformatsiyalanuvchi” elementga aylanmoqda. Bugungu kunga kelib, an'anaviy qadriyatlar bilan innovatsion qadriyatlar o'rtasida ziddiyat paydo bo'lmoqda [7].

Milliy kontent atamasi ostida — milliy til, madaniyat, tarix, urf-odat, adabiyot, san'at orqali yaratilgan mahsulotlar tushuniladi. Bu mahsulotlar jamiyatda milliy identitetni mustahkamlash, ma'naviy uyg'unlikni ta'minlash funksiyasiga ega. Axborot makonida esa bu kontent turli platformalar (ijtimoiy tarmoqlar, video saytlar, mobil ilovalar) orqali tarqaladi va keng auditoriyani qamrab oladi.

Ijtimoiy-falsafiy tafakkur — shaxsning jamiyatga, madaniyatga, axborot makoniga va qadriyatlarga bo'lgan nazariy va amaliy munosabati; bu tafakkur orqali shaxs axborotni idrok qiladi, ma'naviy yo'l topadi, qaysi qadriyatlar bilan uyg'unlashishni belgilaydi. Axborotlashgan jamiyatda tafakkur uslubi ham o'zgarishga uchramoqda — masalan “clip-o'ylash” (clip thinking) tushunchasi paydo bo'lgan. Clip **tafakkur** — bu raqamli axborot makonida shakllanayotgan tafakkur uslubi bo'lib, ma'lumotni butun tizim sifatida emas, balki qisqa, tez o'zgaruvchan kesilgan bloklar (“kliplar”) shaklida idrok qilishga yo'naltirilgan. Bu tafakkur shaklida shaxs ma'lumotni ko'proq vizual va hissiy jihatdan qabul qiladi, tahlil va konseptual bog'lanishlarga kamroq e'tibor beradi.

Milliy kontent orqali qadriyatlarni targ'ib qilish jarayonida ijtimoiy-falsafiy tafakkur axborot texnologiyalari va media vositalarining ommaviylashuvi → tafakkur qisqa formatga, vizual elementlarga, tezlikka moslashmoqda, globalizatsiya va internet madaniyati (milliy identitet va qadriyatlar ziddiyatiga kirishi), Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar orasida “mass culture” elementlari kengayishi (qadriyatlar pluralizmi va fazoviy tarqalishi), milliy kontent yaratish va tarqatishda interaktivlik, foydalanuvchi ishtirokining ortishi (tafakkur aktiv modga o'tmoqda) kabi omillar ta'sirida transformatsiyalanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kunda axborotlashgan jamiyat sharoitida milliy kontent qadriyatlarni targ'ib etishda faqat passiv vosita emas, balki ijtimoiy-falsafiy tafakkurning transformatsiyalanuvchi maydoni hisoblanadi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, axborot texnologiyalari, tarmoqlanish, global madaniyat, yoshlar auditoriyasining yangi odatlari – bularning barchasi tafakkur uslubiga va qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun milliy kontent orqali qadriyatlarni targ'ib qilish jarayonida ijtimoiy-falsafiy tafakkurni shakllantirishga e'tibor qaratilishi lozim. Aks holda, qadriyatlarning yuzaki qolishi, milliy identitet va ma'naviy uyg'unlik zaiflashishi xavfi mavjud. Umuman olganda, milliy kontent ijtimoiy o'zgarishlar, tafakkur yangilanishi, qadriyatlar moslashuvi jarayonida markaziy omilga aylanmoqda. Ilmiy-amaliy nuqtai nazardan, unga sistematik yondashuv, strategik rejalashtirish va auditoriya (xususan yoshlar) bilan muloqot usullarini takomillashtirish zarur.

Adabiyotlar

1. O.G. Danilyan. Transformasiï sinnostey v informatsionnomu suspilstvi: bagatovimirnist ta rizonoporyadkovist. Visnik Natsionalnogo yuridichnogo universitetu imeni Yaroslava Mudrogo № 3 (46) 2020
2. V.E.Chernikova and others. Cultural and Value Dominants Of The Information Society. <https://www.europeanproceedings.com>
3. Falsafa qomusiy lug'ati. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" T.: 2004. B 276
4. Namozova M. Qadriyatlar va transformatsiya // Yangi O'zbekistonda ma'rifatli shaxs tarbiyasi: muammo va echimlar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Ganjina, 2023. – B. 535.
5. K.Wu, P.Wang. Philosophy of Information — Fundamental Transformation of Philosophy. <https://doi.org/10.3390/IS4SI-2017-03946>
6. M.B. Syzdykova. Philosophical analysis of traditional and innovative values in the southern regions of Kazakhstan. <https://doi.org/10.31489/2025hph1/351-362>

MILLIY QADRIYATLARNING ASOSLARI VA EVOLYUSIYASI

Sharifjon Ibrohimov Adhamjon o'g'li,
*ISFT (International school of Finance
Technology and Science) talabasi*

Milliy qadriyatlar har bir xalqning ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilaydigan, uning tarixiy tajribasi va madaniy merosini ifodalaydigan murakkab ijtimoiy-falsafiy tushunchadir. Jamiyatning barqaror va uyg'un rivojlanishi, milliy o'zligini saqlab qolishi ko'p jihatdan qadriyatlar tizimining mustahkamligiga bog'liqdir. Qadriyatlar inson faoliyatining barcha sohalarida—axloq, huquq, siyosat, iqtisodiyot, san'at—o'z aksini topadi va jamiyat ahvolini belgilovchi asosiy me'yorlarni tashkil etadi.[1]

Hozirgi zamon globallashtirish jarayonlari milliy qadriyatlarga yangicha munosabatni talab etmoqda. Bir tomondan, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi, axborot oqimining jadallashuvi insoniyatni umumiy qadriyatlar sari birlashtirmoqda. Ikkinchi tomondan, milliy o'ziga xoslik, an'analar va qadriyatlarning saqlanishi masalasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Shu bois, milliy qadriyatlarning tarixiy va falsafiy o'rganilishi zamonaviy fan uchun muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning ta'kidlashicha, “milliy qadriyatlarimiz bizning eng qimmatli boyligimiz, kelajak avlodlarga qoldiradigan eng ulug' merosimizdir”.[2] Bu fikr milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishning davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi milliy qadriyatlarning shakllanish jarayonini tarixiy va falsafiy kontekstda o'rganish, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ochib berishdan iboratdir.

Milliy qadriyatlar deganda ma'lum bir xalqning tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan, uning dunyoqarashi, turmush tarzi, axloqiy me'yorlari va madaniy an'analarini aks ettiruvchi qadriyatlar majmui tushuniladi. Amerikalik sotsiolog T. Parsonsning fikricha, qadriyatlar jamiyatning madaniy tizimining asosiy elementi bo'lib, ular ijtimoiy faoliyatning yo'nalishini belgilaydi.[3]

Milliy qadriyatlarning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ular uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi va avlodlardan avlodga o'tadi. Qadriyatlar mustahkamlanishi uchun asrlar kerak bo'ladi, ular xalqning ijtimoiy xotirasida saqlanadi va ma'naviy genofondini tashkil etadi.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlar birlamchi ijtimoiy institutlar—oila, mahalla, ta'lim muassasalari orqali uzatiladi. O'zbek jamiyatida oila milliy qadriyatlarni shakllantiruvchi asosiy institut hisoblanadi, bu erda bobolar-boboho, kattalar hurmati, urug'-aymoq birligi kabi qadriyatlar singdiriladi.

Uchinchidan, qadriyatlar nisbiy barqarorlikka ega bo'lsa-da, ular o'zgaruvchan xarakterga ham egadir. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlari qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatadi, lekin asosiy, markaziy qadriyatlar uzoq davrlar mobaynida saqlanib qoladi.

Falsafiy nuqtai nazardan qadriyatlar mavjud emas, balki ahamiyatga egadir. Nemis faylasufi G. Rikkertning ta'kidlashicha, qadriyatlar alohida borliq emas, balki voqelikni anglash va baholash usulidir.[4] Bu yondashuv qadriyatlarning subyektiv va obyektiv tomonlarini birlashtiradi: ular inson ongi mahsuli bo'lishiga qaramay, obyektiv ijtimoiy voqelik sifatida mavjud bo'ladi.

O'rta Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlari qadimiy davr sivilizatsiyalaridan boshlanib, o'rta asrlar islom madaniyati davrida yanada boyib, zamonaviy davrda yangi mazmun kasb etgan. Bu jarayon bir necha tarixiy bosqichlarga ajratish mumkin.

Qadimgi davr (miloddan avvalgi ming yilliklardan eramizning VII asrigacha). Bu davrda zardushtiylik dini O'rta Osiyo xalqlarining qadriyatlar tizimiga katta ta'sir ko'rsatgan. Zardushtiylikning asosiy qoidalari—yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi amal (humata, huxta, huvarshta)—keyinchalik o'zbek xalqining axloqiy me'yorlariga singan.[5] Ko'hna shaharlar—Afrosiyob, Marv, Xorazm—madaniyat va ilm markazlari bo'lib, bu erda insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik qadriyatlari shakllangan.

Islom madaniyati davri (VII—XIX asrlar). Islom dinining qabul qilinishi bilan O'rta Osiyo xalqlarining qadriyatlar tizimi yangi mazmunga ega bo'ldi. Islom ta'limoti—e'tiqod, ibodat, axloq, muomala sohalaridagi

qoidalar—xalqning turmush tarzi va dunyoqarashining ajralmas qismiga aylandi. Buyuk mutafakkirlar—Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek—ilm-fan va ma‘rifatning oliy qadriyatlar ekanligini asoslagan.[6]

Sharq Uyg‘onish davri namoyandalari—Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy—o‘z asarlarida insoniylik, mehr-oqibat, adolat, ilm-ma‘rifat qadriyatlarini ulug‘lagan. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida davlatchilik, adolat, xalqqa xizmat qilish muhim qadriyatlar sifatida bayon etilgan.[7]

Zamonaviy davr (XX—XXI asrlar). Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy qadriyatlarni qayta tiklash va rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Milliy g‘oya ishlab chiqilib, unda tarixiy meros, milliy an‘analar va zamonaviy taraqqiyot talablari uyg‘unlashtirildi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa me‘yoriy hujjatlarda milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilandi.[8]

Milliy qadriyatlarning falsafiy tahlili ularning ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlarini o‘rganishni taqozo etadi.

Ontologik jihat. Milliy qadriyatlar obyektiv ijtimoiy voqelik sifatida mavjud bo‘lib, ular jamiyatning moddiy va ma‘naviy hayotining barcha sohalarida o‘z aksini topadi. Qadriyatlar inson faoliyatining natijasi bo‘lishga qaramay, ular mustaqil mavjudlik kasb etadi va keyingi avlodlarga ta‘sir ko‘rsatadi. Rus faylasufi V.S.

Solovyovning fikricha, qadriyatlar absolyut va nisbiy, umumiy va xususiy tomonlarga ega bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.[9]

Gnoseologik jihat. Qadriyatlar insonning dunyoni bilish va anglash jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ular voqelikni idrok etish, baholash va talqin qilishning mezonlarini tashkil etadi. Nemis faylasufi M. Shelerning fikricha, qadriyatlar appriori xarakterga ega bo‘lib, ular tajriba oldidan mavjud bo‘ladi va tajribani shakllantiradi.[10]

Aksiologik jihat. Qadriyatlar inson va jamiyat uchun muhim va ahamiyatli narsalarni belgilaydi. Ular inson faoliyatining maqsadlari,

moddalari va usullarini aniqlash uchun asos bo'ladi. Amerikalik psixolog A. Maslouning ehtiyojlar piramidasi nazariyasiga ko'ra, inson rivojlanishining oliy bosqichi o'zini-o'zi anglash va ma'naviy qadriyatlarni royobga chiqarish bilan bog'liq.[11]

O'zbek xalqining milliy qadriyatlari O'rta Osiyoning geografik o'ri, tarixiy tajribasi, ko'p asrlik madaniy an'analari bilan shakllangan. Ularning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Oila qadriyatlari. O'zbek jamiyatida oila muqaddas institut sanaladi. Ota-onalarni hurmat qilish, kattalarni ezozlash, farzandlarni e'tibor bilan tarbiyalash, qarindosh-urug'larni qadrlash—bu qadriyatlar o'zbek oilasining asosini tashkil etadi. Oila ichida avloddan-avlodga milliy an'analari, urf-odatlar, til va madaniyat uzatiladi.

Jamoachilik va mahalla an'analari. Mahalla o'zbek jamiyatida muhim ijtimoiy institut bo'lib, u nafaqat turar-joy birligi, balki ma'naviy birlik va o'zaro yordam markazidir. Has'har (ko'pchilik mehnati), xayrixohlik, ko'shnilariga hurmat va qayg'usini bo'lishish mahalla qadriyatlarining asosini tashkil etadi.

Mehmondo'stlik va saxovat. O'zbek xalqi mehmondo'stligi bilan mashhur bo'lib, mehmon—Xudoning mehmoni, degan hikmat xalq orasida keng tarqalgan. Mehmonni hurmat bilan qabul qilish, unga eng yaxshisini taqdim etish milliy qadriyatning ajralmas qismidir.

Ilm-ma'rifatga intilish. O'rta Osiyoning buyuk alloma va mutafakkirlari merosidan kelib chiqqan holda, ilm va bilim olish o'zbek xalqining asosiy qadriyatlaridan biridir. "Ilm Xitoyda bo'lsa ham, borg'in va o'rgang'in" mazmunidagi hadis musulmon ma'rifati orasida ilm-ma'rifatning muhimligini ta'kidlaydi.

Vatanparvarlik va milliy g'urur. O'z Vataniga muhabbat, milliy tarixga hurmat, ona-tilni asrash o'zbek xalqining qadriyatlar tizimida alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida vatanparvarlik tuyg'ulari yanada mustahkamlandi.

Hozirgi zamon globallashuv jarayonlari milliy qadriyatlarga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi turli

zalqlarning qadriyatlarlari bilan tanishish imkoniyatini yaratmoqda. Bu jarayon insoniyatni umumbashariy qadriyatlar sari birlashtirishga xizmat qiladi—tinclilik, demokratiya, inson huquqlari, ekologik barqarorlik kabi qadriyatlar butun dunyo zalqlari uchun umumiy bo‘lib bormoqda.

Ikkinchi tomondan, globallashuv milliy madaniyatlarga unifikatsiya xavfini tug‘dirmoqda. Kuchliroq iqtisodiy va madaniy ta’sirga ega bo‘lgan davlatlarning qadriyatlarlari kuchsizroq madaniyatlarni bosib chiqarish havfi mavjud. Bu jarayon madaniy xilma-xillikning yo‘qolishiga, milliy o‘ziga xoslikning yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi bu muammolarga ongli ravishda yondashib, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirmoqda. Ta’lim tizimini takomillashtirish, milliy madaniyatni targ‘ib qilish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bu borada asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi.[12]

Fran-siyalik sotsiolog P. Burdyoning “madaniy kapital” tushunchasi milliy qadriyatlarning zamonaviy sharoitda saqlanishini anglashga yordam beradi. Madaniy kapital—bu bilim, ko‘nikma, madaniy an’analar va qadriyatlar majmui bo‘lib, u oila, ta’lim muassasalari va jamiyat orqali uzatiladi. Madaniy kapitalning boyligi jamiyatning ma’naviy salohiyatini belgilaydi.

Milliy qadriyatlar har bir xalqning ma’naviy-axloqiy asosini tashkil etuvchi, uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan murakkab ijtimoiy-falsafiy tizimdir.

Ular jamiyatning barqaror rivojlanishi, milliy o‘zligini saqlab qolishi, kelajak avlodlarning etuk shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur asosni yaratadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, milliy qadriyatlar tarixiy jarayonning mahsuli bo‘lib, ular har bir xalqning o‘ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va geografik sharoitlarida shakllanadi. O‘zbek xalqining milliy qadriyatlarlari qadimgi O‘rta Osiyo sivilizatsiyalaridan boshlab, islom madaniyati davrida boyigan va zamonaviy sharoitda yangi mazmun kasb etgan.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlarning falsafiy tahlili ularning ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlarini ochib beradi. Qadriyatlar obyektiv ijtimoiy voqelik sifatida mavjud bo‘lib, insonning dunyoni anglash va baholash jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Uchinchidan, globallashtirish sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Madaniy xilma-xillikni saqlash, milliy o‘ziga xoslikni qadrlash insoniyatning ma’naviy boyligini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularga tarixiy meros, madaniy an’analarni etkazish ta’lim tizimining ustuvor vazifasi bo‘lishi kerak. Oila, maktab, oliy o‘quv yurtlari, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar bu borada muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar—bu xalqning ma’naviy genofondi, uning tarixiy xotirasi va kelajak umididir. Ularni anglash, qadrlash va kelajak avlodlarga etkazish biz hammamizning muqaddas burchimizdir. Milliy qadriyatlar asosida qurilgan jamiyatgina barqaror taraqqiyotga erishishi va global o‘zgarishlar sharoitida o‘z o‘zligini saqlab qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar Ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — engilmas kuch. — T.: Ma’naviyat, 2008. — 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. — T.: O‘zbekiston, 2017. — 592 b.
3. Parsons T. The Social System. — New York: Free Press, 1951. — 575 p.
4. Rikkert G. Nauki o prirode i nauki o kulture. — M.: Respublika, 1998. — 413 s.
5. Boys M. Zoroastriysy. Verovaniya i obyichai. — SPb.: Sentr “Peterburgskoye Vostokovedeniye”, 1994. — 301 s.
6. Xayrullayev M.M. Farobiy va uning falsafiy merosi. — T.: Fan, 1975. — 246 b.
7. Navoiy A. Maxbub ul-kulub / Tanlangan asarlar. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. — 352 b.

8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 1997-yil 29-avgust. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.09.2020-y.
9. Solovyov V.S. Opravdaniye dobra. Nравstvennaya filosofiya. — M.: Respublika, 1996. — 479 s.
10. Sheler M. Formalizm v etike i materialnaya etika sennostey. — M.: Gnozis, 1994. — 490 s.
11. Maslow A.H. Motivation and Personality. — New York: Harper & Row, 1970. — 369 p.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019-yil 8-oktyabr, PF-5847-son.

MA’NAVIY MEROS VA TADBIRKORLIK MENEJMENTI: IJTIMOIY MAS’ULIYAT OMILI

Musurmonqulov Muhammad Ural o‘g‘li,

*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy
tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faqat iqtisodiy foyda olishga qaratilgan jarayon emas, balki ijtimoiy va ma’naviy mas’uliyatni ham o‘z ichiga oluvchi faoliyat turidir. O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida tadbirkorlikning ijtimoiy yo‘nalishini kuchaytirish, uni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masala hisoblanadi [1].

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida milliy o‘zligimizni, ma’naviy merosimizni asrab-avaylab, har bir islohotimizga inson omilini markazga qo‘yishimiz zarur” [2]. Shu bois, ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tadbirkorlik menejmenti iqtisodiy taraqqiyotning barqaror modeli sifatida ko‘rilmoqda.

Ma’naviy meros xalqning asrlar davomida to‘plagan tajribasi, axloqiy tamoyillari va hayot falsafasini ifodalaydi. Bu qadriyatlar zamonaviy menejmentda ham o‘z aksini topmoqda.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida inson faoliyatining eng muhim jihati — halollik va adolatga sodiqlik ekanligini ta’kidlagan[3]. Bugungi tadbirkorlik faoliyatida bu qadriyatlar korporativ etika va boshqaruv madaniyati shaklida ifodalanadi.

Tadbirkorlik menejmentida ma’naviy merosning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo’ladi:

birinchidan, halollik — tadbirkorlik faoliyatining eng muhim ma’naviy poydevoridir. U rahbar va xodimlar, tadbirkor va iste’molchi o’rtasida o’zaro ishonch muhitini yaratadi. Shaffof buxgalteriya, halol raqobat, soliqqa vijdonan yondashish, soxta ma’lumot bermaslik — bular halollikning bosh ko‘rinishlari.

Halollik qadriyati korporativ boshqaruvda “transparensiya” (ochiqlik) tamoyiliga asos bo’lib, investorlar va jamiyat oldida ishonch kapitalini shakllantiradi.

Masalan, Xalqaro Valyuta Fondi (IMF) tadqiqotlariga ko‘ra, halollik tamoyili yuqori bo‘lgan kompaniyalar uzoq muddatda 23 % gacha yuqori foyda marjasiga ega bo‘ladi, chunki mijoz va hamkorlar ishonchi iqtisodiy barqarorlikni oshiradi.

O‘zbekiston misolida, “Halol mehnat — halol daromad” shiori tadbirkorlik madaniyatining markazida turadi. Bu qadriyat o‘z navbatida davlatning “Halol sertifikat” tizimi joriy etilishi bilan amaliy tus oldi;

ikkinchidan, adolat — menejment tizimida resurslar, imkoniyatlar va mukofotlarning teng taqsimlanishini ta’minlaydi. Xodimlarning mehnati adolatli baholansa, ularning motivatsiyasi va sadoqati ortadi.

Adolat tamoyili asosida qurilgan tashkilotda inson kapitali asosiy boylik sifatida qaraladi. Masalan, Farobiy “Fozil shahar” asarida adolatni boshqaruvning asosi deb bilgan: “Adolat yo‘q joyda davlat ham, jamiyat ham barqaror bo‘la olmaydi”.

Tadbirkorlik menejmentida bu tamoyil “fair trade” (adolatli savdo), “equal opportunity” (teng imkoniyat), “non-discrimination policy” (kamsitmaslik siyosati) kabi yo‘nalishlarda ifodalanadi.

Shuningdek, adolatli boshqaruv iqtisodiy natijadan tashqari ijtimoiy ishonch kapitalini shakllantiradi – bu esa uzoq muddatli muvaffaqiyatning garovidir.;

uchunchidan, bag‘rikenglik — zamonaviy menejmentda inklyuzivlik (inclusive management) va multimadaniy hamkorlik tamoyillarining asosi hisoblanadi.

Bugungi kunda korporativ jamoalar turli millat, din, madaniyat, yosh va gender vakillaridan tashkil topgani sababli, bag‘rikenglik sog‘lom ijtimoiy muhitni ta’minlash uchun zarur. Bunday muhitda xodimlar o‘zini qadrlangan, fikri eshitiladigan shaxs sifatida his qiladi, bu esa ijodkorlik, innovatsiya va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. UNESCO (2024) hisobotiga ko‘ra, bag‘rikenglik siyosatini muvaffaqiyatli joriy etgan kompaniyalarda xodimlarning ishga sadoqati 40 % ga, mahsuldorlik esa 25 % ga oshgan.

O‘zbek xalqining ma’naviy merosida ham “Keng bag‘irli bo‘l” degan tamoyil qadimdan mavjud — bu qadriyat bugungi tadbirkorlik jamoalarida psixologik muvozanatni ta’minlaydi.;

to‘rtinchidan, mas’uliyat — Mas’uliyat qadriyati menejment falsafasini o‘zgartiradi — rahbarlar qaror qabul qilishda nafaqat “foйда”ni, balki “ta’sir”ni ham hisobga oladilar. Shunday qilib, ma’naviy merosga tayangan menejment modeli iqtisodiy foydadan tashqari, ijtimoiy ishonch kapitalini ham yaratadi, bu esa jamiyat barqarorligi va raqobatbardoshligini oshiradi.

Bu qadriyatlar iqtisodiy foydadan tashqari ijtimoiy ishonch kapitalini ham yaratadi [4].

Tadbirkorlik menejmentida ijtimoiy mas’uliyatning mohiyati ham alohida o‘rin tutadi. Ijtimoiy mas’uliyatli tadbirkorlik konsepsiyasi 20-asr oxirida G‘arbda shakllangan bo‘lsa-da, uning ildizlari Sharq madaniyati va o‘zbek xalqining ma’naviy merosida ancha chuqurdir [5].

Masalan, qadimiy “savdo odobi”, “halol mehnat” va “ahdga vafo” qadriyatlari hozirgi biznes etikasi bilan uyg‘unlikda rivojlanmoqda.

Ijtimoiy mas’uliyat quyidagi uch yo‘nalishda ko‘rinadi:

Iqtisodiy mas'uliyat – foyda olish bilan birga, jamiyatga iqtisodiy foyda keltirish.

Ijtimoiy mas'uliyat – xodimlar va aholining farovonligini oshirish, ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

Ekologik mas'uliyat – atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil texnologiyalarni joriy etish.

Porter va Kramer tomonidan ishlab chiqilgan “Shared Value” konsepsiyasida korxona iqtisodiy foyda bilan bir qatorda jamiyat uchun ham qiymat yaratishi lozimligi ta'kidlanadi [6]. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida ma'naviy merosga asoslangan boshqaruv modeli bilan uyg'unlashadi.

Ma'naviy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy mas'uliyatli menejment modelini ko'radigan bo'lsak, O'zbekiston sharoitida quyidagi model samarali natija beradi:

Etik liderlik — rahbar shaxsiy namunasi orqali ijtimoiy mas'uliyatni targ'ib etadi;

Axloqiy boshqaruv — korxonada halollik kodeksi, adolat tamoyili va shaffoflik siyosati joriy etiladi;

Jamiyat bilan hamkorlik — mahalliy aholi va ijtimoiy guruhlar manfaatlari hisobga olinadi;

Barqaror rivojlanish strategiyasi — foyda va ijtimoiy foyda uyg'unlashtiriladi [7].

Mazkur model tadbirkorlikni nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy jihatdan ham mas'uliyatli tizimga aylantiradi.

Shuningdek, O'zbekiston amaliyotida ma'naviy merosga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlikka e'tibor beradigan bo'lsak, so'nggi yillarda mamlakatimizda “Yashil iqtisodiyot”, “Mahallabay ishlash” va “Ayollar daftari” kabi ijtimoiy loyihalarda xususiy sektor faollashmoqda. Bu jarayonlarda ma'naviy qadriyatlar — mehr-oqibat, saxovat, hamjihatlik asosiy g'oya sifatida namoyon bo'lmoqda [8].

Misol uchun, tadbirkorlar mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish orqali nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy mas'uliyatni ham bajarishmoqda.

Bunday yondashuv milliy merosga tayanib, jamiyatda ishonchli va barqaror iqtisodiy muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ma'naviy meros va tadbirkorlik menejmentining uyg'unligi — bu nafaqat axloqiy zarurat, balki iqtisodiy taraqqiyotning barqaror omilidir. Ijtimoiy mas'uliyatli boshqaruv esa, korxona imijini mustahkamlaydi, xodimlar motivatsiyasini oshiradi, jamiyat bilan o'zaro ishonchni kuchaytiradi, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Shu sababli, O'zbekiston sharoitida ma'naviy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy mas'uliyatli tadbirkorlik modeli kelajak boshqaruv paradigmasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2022.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-iyuldagi "Ijtimoiy mas'uliyatli tadbirkorlikni rivojlantirish konsepsiyasi" qarori.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

4. Fayzullayev A. Menejment asoslari. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020.

5. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2015.

6. Alimov R. Milliy qadriyatlar va innovatsion boshqaruv. — "Iqtisodiyot va innovatsiyalar" jurnali, №2, 2022.

7. Porter M. & Kramer M. Creating Shared Value. — Harvard Business Review, 2011.

8. Khaydarov A. Ijtimoiy mas'uliyatli biznes modeli va uning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi. — "Taraqqiyot menejmenti" jurnali, 2023.

JADID MA'RIFATPARVARLARI O'ZBEK XALQNING MADANIY, MA'RIFIY VA RUHIY HAYOTIDAGI O'RNI.

Xotamov Shuxrat Nosirovich,
*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
Universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori, polkovnik.*

Ma'lumki, **“jadid”** so'zi **“yangilik”** ma'nosini anglatadi. Tarixda biror makon va zamon jamiyatning bir maromda kechayotgan hayotiga kirib kelgan yangilik katta qarshilikka uchramay qolmagan. Jamiyat va inson hayotining bir maromda kechishi, ertami-kechmi, tanazzulga olib boradi. Shuning uchun ham xalqning ildam ziyolilari jamiyat va inson hayotida kecha boshlagan tanazzulga qarshi kurashish yoki uning oldini olish uchun yangi g'oyalarni ishlab chiqishadi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O'rta Osiyoda shunday holat yuz berdi. Turkiston, Buxoro va Xivada, shuningdek, ayrim xorijiy Sharq mamlakatlarida junbushga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati katta to'siqlarga uchradi. Bugun biz, oradan yuz yildan ortiq vaqt o'tganidan keyin, Turkistonda M.Behbudiy rahbarligida yuzaga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati tarixini o'rganganimizda, ularning qanday murakkab sharoitda yangi maktablarni ochgani, milliy matbuotga asos solgani, yangi badiiy adabiyot va teatr san'atiga tamal toshini qo'yganini o'ylasak, ularning bu faoliyatlarini jasorat deb baholash lozim. Ammo masalaning boshqa tomoni shundaki, bu tarixiy haqiqat uzoq davrlar mobaynida tan olinmay keldi. Davlatimiz mustaqillikka erishganidan, jamiyatda jadid ma'rifatparvarlari faoliyatini o'rganishga ishtiyoq paydo bo'lganidan so'nggina bu harakat keng ko'lamda o'rganila boshlandi. Shu narsa quvonarliki, Turkistondagi jadid ma'rifatparvarlik harakatini o'rganishdek qutlug' ishga Yevropa va Amerika Qo'shma Shtatlaridagi olimlar ham zavq bilan qirishdilar. Hozir jadid ma'rifatparvarlik harakati va uning namoyandalari faoliyatini o'rganish xalqaro miqyosdagi muhim ilmiy-amaliy loyiha darajasiga ko'tarildi. O'zbek olimlari jadid ma'rifatparvarlik harakatining turli tomonlarini o'rganishda katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Qariyb barcha jadid yozuvchilarining asarlari

nashr etilib, xalqqa taqdim etildi. Yangi usul maktabi, milliy matbuot, adabiyot va teatr tarixini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab asarlar maydonga keldi. Ammo turli sabablarga ko'ra, bu harakatning hali tesha tegmagan qirralari, tomonlari ham yo'q emas.

1917-yilda Turkistonda 100 ta jadidlar maktabi bo'lgan va albatta, ulardagi o'qitish mullalar va musulmon ruhoniylari qarshiligiga uchrab turgan. Avval boshdanoq bu maktablar Yevropa maktablariga yaqin va ta'limni rivojlantirishga yordam beradi, deb qaralgan, lekin tez orada bunday yangi maktablar omma ongiga yangiliklar olib kirayotgani va yoshlarning savollari ko'payib ketayotgani, jumladan, milliy ong uyg'onayotgani fahmlangan. Va navbati bilan yopila boshlagan. Bunday maktablar juda ko'p narsa berayotgan edi. Albatta, aholi asta-sekin ota-ona savod chiqarish uchun farzandini qirq kun o'qitishi kerakligini tushuna boshladi, oddiy maktabda esa bola o'n yil o'tiradi, madrasada esa o'n-shn besh yil o'qiydi va faqat Qur'onni yod oladi. Yana maktabda xivich bilan savalash tizimi mavjud edi. Albatta, ular ayni maktablarni ustuvor ahamiyat berishi zarur bo'lgan muassasa deb tushungan, lekin aytib qo'yishim joizki, jadidlar harakatini keng miqyosli bo'lgan deyish xatodan boshqa narsa emas, chunki aholining aksariyat qismi musulmon ruhoniylari ta'sirida bo'lgan, jadidlar maktablarida tafakkuri rivojlangan va bu maktablarning istiqbolini tushungan kishilar farzandlari ta'lim olgan. Jadidlar maktablarini Yevropa maktablariga bevosita o'xshash bo'lgan, deyish qiyin, lekin ularda o'sha maktablarning dastlabki namunalari (proobraz) bor edi. Birinchidan, ular partalar bilan jihozlangan, bu maktablardagi bolalar musulmon maktablaridagi singari erda o'tirmagan va o'qituvchilar ularning boshi ustida kaltak o'ynatib turmagan. Jadidlar maktablarida kitoblar, keyinchalik esa xaritalar bo'lgan.

Bu o'rinda darsliklar nashr qilishda Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqorining xizmatlarini alohida e'tirof etish joiz. Dastlab darsliklar bo'lmagan. Ular Rossiyadan olib kelingan va tatar maktablariga mo'ljallangan bo'lgan. Ismoil Gasprinskiy bu masalada katta yordam ko'rsatgan. Jadidlar so'ngra o'zi darsliklar chop qilishga o'tgan. Munavvarqori va Behbudiy juda ko'p darsliklar yozgan. Masalan, "Kitobi

avval” yoki matematika, adabiyot, geografiya bo‘yicha darsliklarni olaylik. Albatta, ular qaysidir darajada Rossiya darsliklaridan o‘zlashtirilgan bo‘lishi mumkin, lekin shunga qaramay, bu juda katta olg‘a siljish edi. Jadid maktablari sinflarida globuslar turgan. Bu eski miqyoslar bilan solishtirganda, butunlay yangi narsa edi va albatta, ajoyib natijalar bergan.

Rus tili borasida shuni aytmoqchimanki, jadidlarning ko‘pchiligi bu tilni yaxshi bilgan. Til konsepsiyasi Behbudiyning “Bir til emas, to‘rt til kerak” deb nomlangan maqolasida ochib berilgan, ya’ni unga ko‘ra, Rossiya imperiyasida yashayotganimiz sababli, ayniqsa, rus tilini bilishimiz zarur. Biz harakatimiz taktikasini ishlab chiqish uchun qanday boshqarilayotganimizni tushunib olishimiz shart. Jadid maktablarida rus tili ham o‘qitilgan. Ular Yevropa adabiyotiga juda qiziqqan.

Hatto bunga Fitratning “Oila va oilani boshqarish tartibi” risolasini ham misol keltirishim mumkin. Albatta, risola musulmonlar hayoti va musulmon oilasi me’yorlarini bilishga asoslangan. Yuqorida aytib o‘tganimdek, muallif risolasida zamonaviy kishining oilasi, er-xotinning farzandlari bilan munosabatlari qanday bo‘lishiga oid Qur’on oyatlari va hadislarga tayangan. Bular barchasi taraqqiyparvarlik nuqtai nazaridan ko‘rsatib berilgan.

Ayni o‘rinda men yana bir narsani alohida ta’kidlab o‘tmoqchiman: jadidlar tadbirkorlar, savdogarlar, boshqa turli boy kishilar ko‘magida Turkiston yoshlarini chet ellarga o‘qishga jo‘natgan. Bilishimcha, 22 kishi Germaniyaga, xususan, Haydelberg universitetiga yuborilgan. Yana qanchadir kishi Rossiyaga borib o‘qigan. Darvoqe, 1917-yildan so‘ng Sovet hokimiyati bilan hamkorlik qilgan jadidlar Oktabrda davlat to‘ntarishidan so‘ng ma’rifatparvarlik va ta’lim muassasalarida ishlagan. Yoshlarni chet ellarga o‘qishga jo‘natish davom etavergan. Bu ishda ularning xizmatlari katta edi. O‘qishga yuborilgan yoshlarning hammasi ham uni bitira olmagan. Ular orasida Saratov universitetini huquqshunoslik ixtisosi bo‘yicha bitirgan Ubaydulla Xo‘jaev ham bor edi. Iqtisodiyot universitetlarini bitirgan boshqa jadidlar ham bo‘lgan. Ammo qozoq jadidlari orasida Rossiyaning Moskva va Sankt-Peterburg universitetlarida o‘qiganlari Turkiston jadidlaridan ancha ko‘p bo‘lgan.

Xususan, Fitratning “Raxbari najot” asari to‘la ravishda ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlanadi. Ayniqsa, asarning uchinchi bobi oila, bola tarbiyasi, axloq-odob mavzulariga bag‘ishlangan bo‘lib, bu masalalar Hozirgi davrda ham katta ma’rifiy ahamiyatga egadir. Fitrat ota-onaning vazifasi o‘z bolalarini etuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi, bunda ayniqsa, uch tarbiyaga:

Birinchisi- jismoniy tarbiya — salomatlik, ikkinchisi- aqliy tarbiya — sog‘lom fikrlilik, uchinchisi- axloqiy tarbiya — axloqiy sano, ya’ni axloqiy poklikka e’tibor berish kerakligi ta’kidlanadi.

Asarning «Bola tarbiyasi» masalalari bobida quyidagilar ko‘rsatib o‘tiladi. Tarbiyai avlod: «Oila vazifalaridan biri avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Yosh avlodni tarbiyalash hayotiy vazifalardan bo‘lib hisoblanadi. Ma’lumki, dunyo kurashning umumiy maydoniga o‘xshaydi va bu maydonning pahlavonlari insonlardir. Har bir kishi barkamollik yoshiga etgach, u o‘z saodati ta’mini uchun shu maydonga kirmasdan iloji yo‘qdir. Bu kurashda g‘olib chiqish uchun uch xil o‘lchov quroli (Salohi masseh)ga ega bo‘lish kerak. 1. Salomatlik; 2. Sog‘lom fikr (nuqsonsiz fikr, ya’ni yuqori iste’dod); 3. Axloqi sano (oliy darajali axloq, ya’ni axloqi poklik). Fitrat «Har bir kishi shu uch quroldan birisisiz maydonga kirsam, albatta mag‘lub bo‘lishi tabiiydir, deb aytib, bu bilan uch tarbiyani doimo qo‘shib olib borish kerakligini, agar bu tarbiyalarning birontasi kam bo‘lsa, etuk kishi tarbiyalab bo‘lmasligini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Yana aytadiki: «Agar har bir ota o‘z farzandining badbaxt bo‘lishini xohlamasa, uni bu maydonning g‘olibi qilib tayyorlashi kerak. Farzandingizni jismoniy, aqliy, ruhiy tomondan barkamollikka etkazing va jamiyatning qobil a’zosiga aylanishi uchun g‘amxo‘rlik qiling».

U bola tarbiyasi faqat oiladagina olib borilmasdan, bu ish bilan keng jamoatchilik, davlat ham shug‘ullanishi kerakligini, chunki davlatning kelajagi mana shu yoshlar qo‘lida bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi. «Bolalarni barkamol qilib etkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo‘lmasdan, butun qavm a’zolari javobgardirlar, chunki yoshlar Har tomonlama etuk inson bo‘lib tarbiyalansa, qavmning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘ladi».

Ko‘rinib turibdiki, jadidchilarning bir vakili misoli yoshlarni yangi jamiyat qurishga da’vat etadi. El-yurtning baxti, saodati, istiqloli uchun kurashishga da’vat etadi. U «Xalq baxti uchun kurashmagan yoshlarni bo‘shang, jasoratsiz», deb tushunadi.

Mustaqillik, demokratiya, ozodlik g‘oyalari jadidchilarning butun faoliyati va barcha asarlari va maqolalarida bosh maqsad bo‘lib qolganligi bilan hozirgi yoshlarimizga, ularning mustaqil Yangi O‘zbekistonning rivojlantirishlarida ibrat-namunadir. Jadidchilar maorif sohasida ishlagan kishilarning boshini silagan, maorifni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan, hammaga birdek ozodlik yo‘lini ko‘rsatgan. Ozodlikni tezlikda ro‘yobga chiqarishga harakat qilgan atoqli ma’rifatparvar o‘qituvchi bo‘lishlari bilan birga ularning ustozi ham hisoblanadilar.

Xulosa qilib shu narsalarni yodda tutmoq kerakki mamlakat ozodligi va mustaqilligi hamma narsadan ustun. Bugungi kunda erishgan mustaqilligimiz uchun ajdodlarimiz o‘zlarining hayotlarini tikkanlarini yodda tutmoq kerak. Mustaqillik, demokratiya, ozodlik g‘oyalari jadidchilarning butun faoliyati va barcha asarlari va maqolalarida bosh maqsad bo‘lib qolganligi bilan hozirgi yoshlarimizga, ularning mustaqil Yangi O‘zbekistonning rivojlantirishlarida ibrat-namunadir.

Shuningdek, jadidchilarimiz Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lponlar yaratgan maktablar hamda yozgan asarlari bugungi yoshlarimizning ma’naviyatini boyitishda o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitratning “Raxbari najot” asari. T 2000
2. Ziyo Sayd, O‘zbek vaqtli matbuotiga oid materiallar T., 1927;
3. Cho‘lpon, Asarlar, 1 — 2-j.lar, T. 1994; Rajabova R. va b., O‘zbekiston tarixi (1917-1993-y.), T., 1994;
4. Xo‘jaev F., Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, T., 1997; 5. Validiy, Bo‘linganni bo‘ri er (Xotiralar), T., 1997,
6. Avloniy A., Tanlangan asarlar, 1—2-j. lar, T., 1998;

- 7.O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, T., 1998;
- 8.Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, T., 1999;
- 9.Behbudiy M., Tanlangan asarlar, T., 1999;
- 10.Fitrat, Tanlangan asarlar, 1—2-b. lar, T., 2000;
- 11.Damir Sattorovning tarix fanlari doktori Dilorom A'zamovna Alimova bilan suhbat — (1991)

UMUMINSONIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROSNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Shodiyona Javliyeva,
*ISFT (International school of Finance
Technology and Science) talabasi*

Insoniyatning mavjudligi va taraqqiyoti doimo ikki asosiy ustunga – moddiy boylik va ma'naviy asosga tayanib kelgan. Ammo moddiy boyliklar va texnologiya yutuqlari o'tkinchi bo'lsa-da, umuminsoniy qadriyatlar va boy ma'naviy meros har bir jamiyatning kelajagini belgilaydigan eng muhim kapitallardan hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo keskin o'zgarishlar, ziddiyatlar va axloqiy tanazzul xavfi bilan yuzlashayotgan bir paytda, insoniyatning eng azaliy va universal tamoyillari – umuminsoniy qadriyatlarga qaytish zarurati har qachongidan ham dolzarbdir. Ushbu qadriyatlar har bir shaxsning ichki dunyosida yuksalishga, ularni bir-biri bilan bog'laydigan ishonch, hurmat va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qiladi[1].

Qadriyatlar tizimi – bu ma'naviy merosning asosi bo'lib, u jamiyatning o'tmishdagi donoligi, tajribasi va yutuqlarini o'zida mujassam etadi, kelajak avlodlarga o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish tuyg'usini singdiradi. Shu boisdan, mazkur tadqiqotning maqsadi umuminsoniy qadriyatlarning inson hayotidagi amaliy o'rnini chuqur tahlil qilish, ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyoti

va barqarorligini ta'minlashdagi funksiyanal ahamiyatini asoslash hamda ularning o'zaro dialektik bog'liqligini ilmiy jihatdan yoritishdan iboratdir. Ushbu mavzuni chuqur o'rganish jamiyat rivojlanishi uchun ma'naviy ustunlarga tayanishning nazariy va amaliy ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy meros muammosi falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va pedagogika kabi ko'plab ijtimoiy fanlar kesishmasida yotadi. Jumladan, Immanuil Kantning «*Sof aql tanqidi*» asarida insonning axloqiy burch va universal qonunlarga rioya etish zaruriyati haqidagi g'oyalari umuminsoniy qadriyatlarning nazariy asosini tashkil etadi. Sotsiologik nuqtai nazardan esa Emil Dyurkgeym o'zining «*Ijtimoiy mehnat taqsimoti*» asarida jamiyatning mustaxkamligi umumiy qadriyatlar va kollektiv ong asosida ta'minlanishini ko'rsatib bergan[2].

O'zbekistonlik olimlardan Islom Karimovning asarlarida ma'naviy meros, milliy o'zlikni anglash va Vatan ravnaqi g'oyalari umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qilingan. Shuningdek, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobiy, Imom Buxoriy kabi Sharq mutafakkirlarining asarlari inson kamoloti, adolat va ilm-ma'rifatni targ'ib qilish orqali butun dunyo uchun umuminsoniy mezonlarni shakllantirgan.

Tadqiqotning metodologik asosini dialektik yondashuv tashkil etadi. Bu yondashuv umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy meros o'rtasidagi o'zaro ta'sir, sabab va oqibat munosabatlarini har tomonlama o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, tizimli tahlil usuli orqali ushbu tushunchalarning jamiyatning turli ijtimoiy institutlari (oilaviy, ta'limiy, siyosiy) faoliyatidagi funksiyalar rolini aniqlash imkoni yaratildi. Tarixiy-qiyyosiy tahlil usuli turli tarixiy davrlarda va madaniyatlarda ushbu qadriyatlarga bo'lgan munosabatni o'rganishda qo'llanildi. Sotsiologik so'rovlar va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli yordamida esa umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan siyosatning jamiyat farovonligiga ta'siri ko'rsatildi.

Adolat, halollik va mas'uliyat kabi qadriyatlarga asoslangan shaxs o'z faoliyatida samarali bo'ladi, bu esa jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi[3].

Jumladan, korrupsiyaning past darajasi va ta'limga yuqori e'tibor doimo umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi bilan bog'liqdir. Ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri esa milliy g'urur va tarixiy ong orqali amalga oshadi. O'z tarixiga hurmat bilan qaragan xalq kelajakni qurishga ham mas'uliyat bilan yondashadi.

O'zbekiston misolida, Islom Karimovning milliy qadriyatlarni tiklashga qaratilgan siyosati va keyingi yillarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga berilgan e'tibor ijtimoiy barqarorlikning asosiy omili bo'ldi.

1-jadval: Umuminsoniy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi ta'sir mexanizmi

Umuminsoniy qadriyat	Inson hayotidagi o'rni	Jamiyat taraqqiyotiga ta'siri
Adolat	Shaxsiy qadr-qimmat hissi, qonunga hurmat	Huquqiy ustuvorlik, ijtimoiy tenglik, korrupsiya darajasining pasayishi, investitsiya muhitining yaxshilanishi
Halollik va mas'uliyat	Shaxsiy samaradorlik, ishonchli munosabatlar	Ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishi
Ba'g'rikenglik	Turli fikr va madaniyatlarga hurmat	Millatlararo totuvlik, xalqaro hamkorlik, tinchlik va osoyishtalik
Insonparvarlik	Mehribonlik, rahm-shavqat	Ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishi, aholining turmush darajasi oshishi

2-jadval: Ma'naviy merosni targ'ib qilish va ijtimoiy barqarorlik ko'rsatkichlari (shartli misol)

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2023-yil	O'zgarish (%)
Madaniyat va san'atga investitsiya (mlrd so'm)	150	450	+200%
Yoshlarning ijtimoiy faollik indeksi (0–100)	55	78	+41.8%
Oilaviy ajrimlar soni (ming)	35.2	28.5	-19.1%
Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar soni (ming)	12.4	45.1	+263.7%

Izoh: Jadvaldagi ma'lumotlar nazariy asosda keltirilgan bo'lib, ma'naviy meros targ'iboti bilan ijtimoiy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, umuminsoniy qadriyatlar nafaqat nazariy tushunchalar to'plami, balki har bir inson hayotining ma'no-mohiyatini

belgilaydigan, jamiyatning esa yashash qobiliyatini ta'minlaydigan fundamental asosdir.

Ushbu qadriyatlar – inson huquqlariga hurmat, adolatga intilish, mas'uliyatni his qilish, bag'rikenglik va halollik – shaxsning ichki komilligini oshiradi, uning ijtimoiy faoliyatida samaradorlikni kafolatlaydi va pirovardida barcha ijtimoiy munosabatlarni sog'lomlashtiradi.

Ma'naviy meros esa umuminsoniy qadriyatlarni milliy zamin va tarixiy tajriba orqali o'zlashtirish vositasidir. Mutafakkirlar asarlari, milliy an'analar, madaniy yodgorliklar xalqning "o'zlik kodi"ni aks ettiradi. Bu meros yosh avlodga kimligini anglatib, ularda milliy g'urur va Vatan oldidagi mas'uliyat tuyg'usini shakllantiradi.

Shunday qilib, jamiyat taraqqiyoti uchun iqtisodiy islohotlar qanchalik muhim bo'lmasin, ularning barqarorligi doimo umuminsoniy qadriyatlar va boy ma'naviy merosga tayangan axloqiy asos bilan bog'liq bo'ladi.

Kelajak avlodlarga moddiy farovonlik bilan birga, yuksak ma'naviyatni ham meros qilib qoldirish – bugungi kunning eng muhim strategik vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kant, I. — *Sof aql tanqidi* — Moskva: Nauka, 1994, B. 121–135.
2. Dyurkgeym, E. — *Ijtimoiy mehnat taqsimoti* — Parij: Presses Universitaires de France, 2023, B. 98–105.
3. Navoiy, A. — *Mahbub ul-Kulub* — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011, B. 32–40.
4. Fayziyev, T. — *Ma'naviyat va qadriyatlar falsafasi* — Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2017, B. 77–88.
5. Farobiy, A.N. — *Fozil odamlar shahri* — Toshkent: Sharq, 1993, B. 19–25.
6. Tursunov, E. — *Globalashuv va milliy ma'naviyat muammolari* — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020, B. 110–120.

MUNDARIJA

№	Muallif, maqola mavzusi	
	Kirish. Hasanov Otabek Abdurashidovich, <i>Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari</i>	3
I. MILLIY QADRIYATLARNING TARIXIY VA FALSAFIY ILDIZLARI		
1.	Qiyom Nazarov, falsafa fanlari doktori, professor <i>Millat qadri va “milliy qadriyatlar” tushunchasi.</i>	5
2.	Muhammadjon Quronov, pedagogika fanlari doktori, professor, Sherzod Jumanov, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa (PhD)doktori, Toshkent kimyo xalqaro universiteti Samarqand filialining dotsenti v.b. Shavkat Ahrolov – Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti. <i>O'zbek pedagogikasida xulqni modellashtirish masalasi: XVIII va XXI asrlar ko'zgusiga bir nazar</i>	20
3.	Lalixon Muxamedjanova, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori. <i>Milliy axloqning mohiyati va global kontekstdagi o'rni</i>	27
4.	Omonov Qudratulla Sharipovich, filologiya fanlari doktori, professor <i>Qadimgi turkiy xalqlar lisoniy manzarasida alp er to'nga shaxsiyati</i>	38
5.	Shahlo Ahrorova, Falsafa doktori(PhD), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi. <i>Milliy, umuminsoniy va diniy qadriyatlar uyg'unligini anglashning mohiyati</i>	43

6.	Gulnoza Nurtoeva , Jizzax viloyati Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari birlashmasi raisi Iste'mol madaniyati – madaniy saviyamiz in'ikosimi?	46
7.	Alisher Atayev Rizoqulovich. Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi. <i>Milliy qadriyatlarning jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit shakllanishiga ta'siri</i>	50
8.	Abdullaxo'jayev Adxamxo'ja Isaxo'ja o'g'li , Qo'qon Universiteti o'qituvchisi <i>Ibratning ma'naviy yuksalishga oid qarashlari-jadidchilik va modernizatsiya</i>	58
9.	Sodiqova Malika Kzimjon qizi , TDIU Andijon fakulteti talabasi <i>Milliy qadriyatlarning tarixiy va flsafiy ildizlari</i>	66
10.	Qutlimuratov Baxitbay Xojabaevich Nukus davlat texnika universiteti Katta o'qituvchi Abdiev Jenisbay Genjebaevich Nukus davlat texnika universiteti Assistent o'qituvchi <i>Qoraqalpoq milliy qadriyatlarining tarixiy va falsafiy ildizlari</i>	71
11.	Matkarimova Sayyora Shavkatbek qizi , Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d., (PhD), <i>Ma'naviy meros yosh avlodni tarbiyalab, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlaydi</i>	75
12.	Adilova Rayxon Xamidovna , O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti <i>Milliy qadriyatlarning tarixiy va falsafiy ildizlari ibn sino talqinida</i>	83

13.	Ashurov Ma'rufjon Abdumutalibovich , Andijon davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va musiqa ta'limi kafedrası professori. <i>O'zbek xalq musiqa ijodida milliy qadriyatlarning tarixiy-falsafiy talqini: maqom san'ati misolida</i>	87
14.	G'ulom Bobojonov , filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Yangi asr universiteti dotsenti <i>Vatanning ma'naviy istehkomlari</i>	92
15.	Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li , Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali o'qituvchisi <i>O'zbek xalqining an'anaviy marosim va urf-odatlarining tarixiy asoslari va rivojlanish falsafiy tahlili (Sovet davri, Mustaqillik davri misolida)</i>	96
16.	Ergashev Urolbek Berkinovich , falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti (DSc) mustaqil izlanuvchisi, TIFT universiteti katta o'qituvchisi. <i>Ahmad Toshko'prizoda ma'naviy-axloqiy qarashlarining jamiyat hayotidagi o'rni</i>	104
17.	G'afforova Ismigul Nurillo qizi , O'zbekiston Milliy universiteti talabasi <i>Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni</i>	108
18.	Mavlonova O'g'iloy Hamdamovna , ZARMED universiteti Buxoro kampusi Tillar kafedrası mudiri f.f.f.d. (PhD), professor <i>Milliy qadriyatlarning tarixiy va falsafiy ildizlari</i>	112
19.	Teshaboyev Abbas Xoldorjon o'g'li , falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), Namangan davlat universiteti katta-o'qituvchisi <i>Mahallaning insonlar hayotidagi o'rni va ahamiyati (ijtimoiy-falsafiy tahlil)</i>	117

20.	Tojiyev F.H. Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti, o'qituvchisi <i>So'fi Olloyor ma'naviy merosida tasavvufiy-ruhiy holatning aks ettirilishi</i>	122
21.	Ro'ziyev Navro'z Ixtiyor o'g'li , Toshkent Davlat Tibbiyot Universteti o'qituvchisi, 2- Mamsoatov Ozodbek Shamsiddin o'g'li bosqich talabasi <i>Turkiy xalq dostonlarida oilaviy, ahloqiy munosabatlar va qadriyatlarning o'rni</i>	127
22.	Baxtiyorov Mansurbek Botir o'g'li , ISFT (International school of Finance Technology and Science) talabasi <i>Nizomulmulkning "siyosatnoma" asarida turkiy davlatchilik falsafasi</i>	134
23.	Soliyeva Zarina Botirovna , Samarqand davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi. <i>O'zlikni anglash va ijtimoiy mas'uliyat: haydegger falsafasida "das man" va "qarorli bo'lish"</i>	141
24.	Закиров Шакирджан Мамажанович , доцент Ангренского Университета Джураев Аваз Ахмеджанович , доцент Ангренского Университета <i>Значение творчества Суфи Аллаера в развитии духовности общества</i>	146
25.	Xoliqov Umidjon Qo'chqarovich , Guliston davlat pedagogika institute v.b. dotsenti <i>O'zbekistonda milliy qadriyatlarning shaxmat tarixi va falsafiy o'rni.</i>	150
26.	Sharifjon Ibrohimov Adhamjon o'g'li , ISFT (International school of Finance Technology and Science) talabasi <i>Milliy qadriyatlarning asoslari va evolyusiyasi</i>	159

II. MA'NAVIY MEROSNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

27.	Mavrulov Abduxalil , tarix fanlari doktori, professor <i>Yangi O'zbekistonda milliy qadriyatlar va ma'naviy meros uyg'unligi masalasiga doir</i>	166
28.	Qo'chqorov Rahmon O'rmonovich , TDYuU dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi <i>O'zbek ayollarining milliy qadriyat va ma'naviy merosimizni boyitishga qo'shgan hissalar</i>	174
29.	Suvanov Ilhom Abdixalilovich , Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti Ilmiy kotibi, falsafa fanlari doktori(DSc), katta ilmiy xodim <i>Milliy o'zlikni anglashning asoslari</i>	184
30.	Xolikov Ishkabil , O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti professori, tarix fanlari doktori <i>Milliy – umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi – vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevorining kafolati</i>	188
31.	Abdullayev Temur Bobir o'g'li , Guliston davlat universiteti o'qituvchisi <i>Jamiyat taraqqiyotida milliy ma'naviy merosning falsafiy ahamiyati</i>	194
32.	M.X.To'xtayeva , University of Management and Future Technologies Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsenti <i>Islom olamining buyuk muhaddisi Imom Buxoriyning yoshlarga qoldirgan ma'naviy durdonasi</i>	201
33.	Kuraxmedov Azamat Erkinovich , SamDCHTI dotsenti <i>Ma'rifatparvar-turkiston jadidlarining siyosiy qarashlari</i>	204

34.	Rustamaliyev Mirjalol Hayrullo o'g'li , Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) <i>Jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda ma'naviy tamoyillarning huquqiy integratsiyasi</i>	208
35.	Manzura Ibragimova Marat qizi , O'zbekiston ISFT (International school of Technology and science) institut talabasi <i>Jamiyat ma'naviy rivojlanishining strategik yo'nalishlari</i>	219
36.	Turg'unboyeva Madina Xolmurza qizi , Guliston Davlat Pedagogika Insituti magistranti. <i>Ma'naviy Merosning Jamiyat Taraqqiyotidagi Ahamiyati</i>	225
37.	Eshankulova Ma'mura Davlatovna , Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi <i>Milliy meros va ma'naviy yuksalishning o'zaro bog'liqligi</i>	229
38.	Norqulov Aziz O'ktamqulovich , Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti. <i>Mustahkam ma'naviy rishta jamiyat taraqqiyotining poydevoriga aylanadi</i>	233
39.	Saodatova Lola Musurmonovna , mustaqil tadqiqotchi <i>Ma'naviy tarbiya va sun'iy intellekt: ma'naviy tarbiya uzluksizligini ta'minlashning innovatsion asosi</i>	239
40.	Таирова Юлия Рафаэлевна , Базовый докторант Государственной академии хореографии Узбекистана <i>Танцевальные традиции кашкадарьи как отражение духовного наследия в общественном развитии</i>	247
41.	To'laboyeva Shoira Abdulhamidovna , Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi <i>Yangi o'zbekiston g'oyasida sadoqat tushunchasining falsafiy talqini</i>	252

42.	Qulmatov Norqobil Eshmamatovich, S D V M Ch B U T F. katta o‘qituvchi. Rizzaev Shavkatjon Rixsiboevich, S D V M Ch B U T F. Assistent <i>Ijtimoiylashuv davrida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma’naviy merosning jamiyat hayotidagi o‘rni</i>	260
43.	Maxamatkarimov Muzaffar Abdukarim o‘g‘li, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi mutaxassisi <i>Globalashuv davrida oilada milliy-ma’naviy va zamonaviy qadriyatlarning shakllanishining sotsiopsixologik tendensiyalari</i>	264
III. YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH ASOSIDA MILLIY O‘ZLIKNI YUKSALTIRISH TEXNOLOGIYALARI		
44.	Akramova Shaxnoza Abrorovna - pedagogika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti <i>Globalashuv davrida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari</i>	273
45.	Musaev Mansur Tursunpo‘latovich, siyosiy fanlari doktori (DSc), dotsent. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti <i>Missionerlikning noan’anaviy ko‘rinishlari va uni yoshlar faoliyatda namoyon bo‘lishi</i>	280
46.	M.Bo‘ronov, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori <i>Internetomaniya giyohvandlikdir</i>	287
47.	Azimov Ulug‘bek Abduxalilovich, Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, dotsent, Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro institute <i>Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida milliy o‘zlikni yuksaltirish</i>	293

48.	Dexkanov Narimon Burxonjonovich , siyosiy fanlar doktori, professori. Namangan davlat universiteti <i>Yoshlarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o‘rn</i>	297
49.	Qasimov Nodir Ulug‘ovich , Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yoshlar masalalari va ma’naviy tarbiya boshqarmasi boshlig‘i. Kuchkarov Xudaynazar Muhiddinovich Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti <i>Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning ma’naviy-ma’rifiy omillari</i>	304
50.	Niyozova Shohista Nusratilloevna , Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Buxoro viloyati bo‘limi rahbari v.v.b. <i>Yoshlar tarbiyasi va uning ijtimoiy ahamiyati</i>	310
51.	Baxtiyor Axtamovich Omonov , siyosiy fanlar doktori, professor O‘zbekiston milliy universiteti <i>O‘zbekistonda yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muammo va yechimlar</i>	315
52.	Jo‘rayeva Shaxlo Baxtiyor qizi , University of Business and Science Toshkent filiali “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi <i>“Kibersport orqali yoshlarning global raqamli jamiyatga integratsiya qilishning ijtimoiy-falsafiy mohiyati”</i>	323
53.	Alisher Atayev Rizoqulovich , Renessans Ta’lim Universiteti Ijtimoiy-Siyosiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi <i>Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitning ahamiyati.</i>	329
54.	Kurbanov Djamshid Djurayevich, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), Buxoro davlat pedagogika instituti. <i>Yoshlarni komillikka yetaklashda abu hafs al-kabirning axloqiy qarashlari</i>	338

55.	Madaminova Yarkinoy Saparbayevna , Urganch davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi <i>Umumta’lim maktablarida texnologiya darslarida milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirish</i>	343
56.	Obidjon G‘ayratovich G‘ulamov , TAQU v.b.dotsenti <i>Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda ijtimoiy va madaniy omillar ning o‘rni va ahamiyati</i>	348
57.	Niyozova Shohista Nusratilloevna , Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Buxoro viloyati bo‘limi rahbari v.v.b. <i>Oila – davlat va jamiyatning asosiy poydevori</i>	353
58.	Mirzayev Gulom Rizoqulovich , tarix fanlari doktori (DSc), dotsent, mayor Jamoat xavfsizligi universiteti . <i>O‘zbekiston tarixi – yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim manbaidir</i>	357
59.	Abdumannatov Elbek Abdumajitovich , pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), SamDPI <i>Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda turizm pedagogikasining ma’rifiy imkoniyatlari va ularni rivojlantirish yo‘llari</i>	368
60.	Normuratov Botir Ravshanovich , Denov tadbirkotlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti <i>Yilqichilikni rivojlantirish va uni yoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyati</i>	372
61.	Tursunova Feruza Tursunovna , O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi <i>Sun’iy intellekt va til vositasida jamiyatda ijtimoiy me’yorlarning shakllanishi</i>	379
62.	Uralov Dilshodbek , dotsenti v.b. Alfiraganus universiteti <i>Ibn Sino axloqiy qarashlarining jamiyat taraqqiyotidagi roli</i>	384

63.	Nuutonova Xilola Lochinbekovna , Urganch RANCH texnologiya universiteti o'qituvchisi <i>Mahmudxo'ja Behbudiy qarashlari asosida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash</i>	390
64.	Xakimova Oqilaxon Odiljon qizi, Farg'ona davlat universiteti magistranti. <i>Boshlang'ich ta'lim tizimida milliy o'zlikni yuksaltirish va mustaqil fikrlashni tarbiyalashning metodik asoslari</i>	395
65.	Yaxyayev Dilmurod Karimovich , Uchtepa tumani 238-son umum o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi <i>Milliy o'yinlar orqali yoshlarni ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish</i>	399
66.	Ulug'ov Abduraim Xamzayevich , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori PhD), Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali <i>Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda bag'rikyenglik madaniyatini yuksaltirishning stratyegik vazifalari</i>	401
67.	Мунира Холмирзаева , студентка Термезского государственного педагогического института <i>Технологии укрепления национального самосознания при воспитании молодежи в духе национальных ценностей</i>	409
68.	Rajabova Zuhra Sa'dullayevna , t.f.f.d.(PhD), dotsent Urganch Ranch texnologiya universiteti <i>Mahmud az-zamahshariy va uning ilm-fan rivojlanishidagi o'rni</i>	414
69.	Meylimuxametov Elyor Akbarovich , Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy- ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi. <i>Milliy qadriyatlar va raqamli texnologiyalar asosida yoshlar ma'naviy tarbiyasi hamda milliy o'zlikni shakllantirish</i>	417

70.	Shavkat Ahralov , Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti. <i>Abduxoliq G‘ijduvoni triadasi va muvaffaqiyatli yoshlar tarbiyasi</i>	430
71.	Hayitmurodov Ilxom , Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi mas’ul xodimi <i>Milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar: yangi avlod tarbiyasining falsafasi</i>	434
72.	Abdullayev Sardorbek Usmonxudjayevich , sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent IIV Akademiyasi <i>Yangi O‘zbekistonda ma’naviy meros yoxud ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashning ijtimoiy omillari</i>	438
73.	Жумева Дилафруз Абдужалиловна , Магистрант кафедры педагогики НПУУз имени Низами <i>Формирование проектной компетентности будущих педагогов на основе национальных ценностей</i>	441
74.	Malikova Dildoraxon Qobilovna , Maktabgacha ta’lim instituti Ma’naviyat-ma’rifat va iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo‘limi mutaxassisi <i>Oliy ta’lim muassasalarida milliy o‘zlikni tarbiyalashda tutoring o‘rni</i>	446
75.	Kamoliddinov Shavkat Jamshid o‘g‘li , Termiz davlat pedagogika instituti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich , Termiz davlat pedagogika instituti Falsafa va ma’naviyat asoslari kafedrasida katta o‘qituvchisi <i>“Yoshlarning ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda milliy g‘oyaning roli.”</i>	450

76.	Yusupov Axrorjon Qurbonovich , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD), Qo'qon davlat universiteti <i>Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida milliy o'zlikni yuksaltirish.</i>	455
77.	San'atbek Muzaffarov , O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti <i>Yoshlarning ijtimoiy startaplardagi yetakchilik qobiliyati va volontyorlik</i>	462
78.	Ismailov Dilshod Baxriddinovich , Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchi <i>Davlat fuqarolik xizmatchilarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mezonlari</i>	467
79.	Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna , pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Andijon davlat pedagogika instituti <i>Axloqiy immunitetni shakllantirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati</i>	476
80.	Aliyeva Dilbar Valiyevna , Alfraganus universiteti katta o'qituvchi, <i>Yoshlarda vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda interfaol ta'lim texnologiyasining o'rni</i>	481
81.	Azizov Ma'rufxo'ja Ahmadxonovich , Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), University of Business and Science Toshkent filiali <i>Sportchilarda milliy g'urur va milliy iftixorni shakllantirishning pedagogik asoslari</i>	487

82.	Xalilova Charosxon Omonboy qizi , Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs magistranti <i>talabalarda estetik madaniyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari</i>	495
83.	Ergasheva Go‘zal Maxkambayevna , «International School of Finance Technology and Science» instituti dotsenti <i>Yoshlarning ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o‘rni</i>	498
84.	Axmedov J.K , p.f.b.f.d. (PhD), dotsent. O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali. <i>Kurash xalqimizning ruhiyati, ma’naviyati va urf-odatlarining tayanch vositalaridan biri.</i>	505
85.	Salaeva Laylo Shavkatovna , O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchisi <i>Yoshlarni mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni</i>	512
86.	Oblomuradova Xabiba Naimovna , falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), TDYU dotsenti <i>Yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardagi mafkuraviy xurujlardan himoya qilish texnologiyalari</i>	517
87.	Rasulov Rustambek Odilovich , falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Fan va texnologiyalar universiteti <i>Yangi ma’naviy oqimlar: raqamli axloq, virtual ong, kiber-madaniyat va texnogen insonparvarlik</i>	520
88.	Ro‘ziyeva Nafosat Abdumumin qizi , Navoiy innovatsiyalar universiteti “Ijtimoiy- gumanitar fanlar” kafedrası o‘qituvchisi	534

	<i>Talabalarda milliy o'zlikni anglashning psixologik xususiyatlari</i>	
89.	Otamuratov Sarvar Sadullayevich , sociologiya fanlari doktori, professor, Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti <i>Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari</i>	539
IV. MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN TARAQQIYOT OMILLARI		
90.	Bo'ri Qodirov , tarix fanlari nomzodi, dotsent. Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i <i>Milliy qadriyatlarga asoslangan taraqqiyot omillari</i>	541
91.	Rashidov Rustam Rasulovich , Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, Alfraganus universiteti professori v.b., fan doktori (DSc). <i>Ta'lim va ma'rifiy ishlarni yuksaltirish bo'yicha o'zbekiston tajribasi: amaliy ishlardan global tashabbuslar sari</i>	550
92.	Yakubov Sobirjon Salimovich , Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi <i>O'zbek tili – vatandoshlarni birlashtiruvchi vosita sifatida</i>	553
93.	Xoliqov Yunus Ortiqovich , Samarqand davlat chet tillar instituti professori, falsafa fanlari doktori (DSc) <i>Jamiyatda millatlararo muloqot</i>	561
94.	Nishonov Sarvar Jasur o'g'li , Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsenti, Rixsiboyeva Solixa Bobir qizi , Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi <i>O'rta asr sharq mutafakkirlarining milliy qadriyatlarga asoslangan iii renessans tamadduniga falsafiy ta'siri</i>	567

95.	Hamrayev Bobomurod Shodavlatovich , Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi <i>Milliy qadriyatlarga asoslangan islohotlarni amalga oshirishda ma'rifatli jamiyatning qaror topishi.</i>	572
96.	Yusupov Axrorjon Qurbonovich , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD, Qo'qon davlat universiteti <i>Milliy o'zlikni anglashda siyosiy-mafkuraviy ongning ijtimoiy ahamiyati</i>	574
97.	Axrarova Sevar Axmedovna , TDTU, f.f.d (DSc), professor v.b Ziyayev Farxod, GQ va KI fakulteti talabasi <i>Jamiyatning milliy qadriyatlarga asoslangan taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni</i>	584
98.	Ashurov Abror Uralovich , falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, University of Business and Science Toshkent filiali <i>Yoshlarda milliy qadriyatlar asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish</i>	586
99.	Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich , Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), University of Business and Science Toshkent filiali <i>Milliy qadriyatlar va modernizatsiya o'rtasidagi uyg'unlik: falsafiy yondashuv</i>	594
100.	Ergasheva Go'zal Maxkambayevna , - «International School of Finance Technology and Science» instituti dotsenti <i>Yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni</i>	598
101.	Mahkamova Difuza Jo'raqulovna , Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Oyina.uz portali bo'limi mutaxassisi, <i>Ehtiyojmand shaxslarga ko'mak berish – o'zbek xalqining ma'naviy qadriyati sifatida</i>	611

102.	Mansurova Malohat Yunus qizi , Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Navoiy davlat universiteti kata o'qituvchisi <i>Ijtimoiy boshqaruv jarayonida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning o'rni</i>	620
103.	Rajabov Mahmud Panji o'g'li , Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi <i>Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni yoshlar ongiga singdirishning falsafiy, ma'rifiy va amaliy asoslari</i>	623
104.	Muhiddinova Sarvinoz Nodirjon qizi , Ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar instituti 1-kurs tayanch doktoranti. <i>Xitoy milliy qadriyatlarida axloqning o'rni</i>	628
105.	Mansurova Malohat Yunus qizi , Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Navoiy davlat universiteti Napasova Madina Xalil qizi , Navoiy davlat universiteti talabasi <i>Ijtimoiy-pedagogik faoliyatda insonparvarlik tamoyili milliy qadriyatlar orqali rivojlantirish</i>	632
106.	Nurullayeva Gulnora Uktamovna , Turon universiteti assistent o'qituvchisi <i>Tarixiy merosdan kelajakka yo'l</i>	634
107.	Xaitov Lazizbek Azamatovich , BuxDU dotsenti (PhD) Farhodov Ramazon Farhod o'g'li , BuxDU talabasi <i>Milliy qadriyatlarning tarixiy va falsafiy ildizlari</i>	638
108.	Saatova Zulayxa Ochilovna , Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi <i>Genetik monopulyatsiyalashning milliy qadriyatlarga ta'siri</i>	641
109.	G'oyibnazarov Rahmatilla , Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi <i>Globalashuv jarayoni sharoitida yoshlar faolligini oshirish yo'llari</i>	647

110.	Nurmatov Kamariddin Shamsiyevich , Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi <i>Ijtimoiy adolat konsepsiyasining falsafiy ahamiyati</i>	650
V. MILLIY KONTENTDA QADRIYATLARNI TARG‘IB QILISH MASALALARI		
111.	Abduxoliq Tashanov , bo‘lim boshlig‘i f.f.d.(DSc), dotsent Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti <i>Buzg‘unchi g‘oyalarning milliy qadriyatlar tizimiga salbiy ta’siri</i>	654
112.	Eshonqulov Laziz Azamatovich , PHD, I.F.F.D <i>Milliy qadriyatlarning davlatlar iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri</i>	661
113.	Tadjibayeva Dilnavoz Ozodovna , Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi, TDYU dotsenti <i>milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishda blogerlar faoliyatidan foydalanish masalasi</i>	666
114.	Yo‘ldosheva Dilobar Jaxongir qizi , O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi, mustaqil journalist milliy qadriyatlarni o‘rganishda media va soft power strategiyasining o‘rni	671
115.	Kenjayeva Dilrabo Rominovna , University of Business and Science Toshkent filiali dotsenti <i>Virtual makonda milliy o‘zlik va qadriyatlar muvozanati masalasi</i>	674
116.	Nazarqosimov Sarvar Inatillayevich , sotsiologiya fanlari doktori (PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti <i>Milliy kontentda qadriyatlarni targ‘ib qilish: ehtiyoj va zarurat</i>	679
117.	Rizoqulov Muhammad Alisher o‘g‘li , Toshkent davlat tibbiyot universiteti, 1-bosqich talabasi <i>Inson salomatligida milliy qadriyatlarning ijobiy ta’siri</i>	683

118.	Nurullayeva Zulxumor Seydamatovna , University of Business and Science Toshkent filiali dotsenti v.b. <i>Axborotlashgan jamociyatda milliy qadriyatlar va global madaniyat o‘zaro munosabati</i>	685
119.	Turayev Abrar Saloxiddinovich , siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori(PhD) Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, <i>Qadriyatlar targ‘ibotida “aql markazlari”ning o‘rni (aqshdagi konservativ markazlar misolida)</i>	694
120.	Uzoqov Ilhom Shoniyoz o‘g‘li , O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi <i>Sun‘iy intellekt va siyosiy madaniyat: raqamli transformatsiya sharoitidagi imkoniyat va tahdidlar</i>	700
121.	Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich , Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institute mustaqil tadqiqotchisi <i>Milliy kontentda qadriyatlarni targ‘ib etish jarayonida ijtimoiy-falsafiy tafakkurning transformatsiyasi</i>	706
122.	Sharifjon Ibrohimov Adhamjon o‘g‘li , ISFT (International school of Finance Technology and Science) talabasi <i>Milliy qadriyatlarning asoslari va evolyusiyasi</i>	710
123.	Musurmonqulov Muhammad Ural o‘g‘li , Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi <i>Ma‘naviy meros va tadbirkorlik menejmenti: ijtimoiy mas‘uliyat omili</i>	716
124.	Xotamov Shuxrat Nosirovich , O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, polkovnik. <i>Jadid ma‘rifatparvarlari o‘zbek xalqning madaniy, ma‘rifiy va ruhiy hayotidagi o‘rni.</i>	718
125.	Shodiyna Javliyeva , ISFT (International school of Finance Technology and Science) talabasi <i>Umuminsoniy qadriyatlar va ma‘naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati</i>	726

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROSNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Noshir: Zayniev F.

Dizayner: Zayniev S.

Nashriyot raqami: AI № № 189562. 01.09.2025-yil
Tashkent sharhi, Yakkasaray tumani, Yakkasaray MFY,
Xushtepa ko'chasi, 6-uy

Bosishga 15.11.2025-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108. 1/16

«Times New Roman» garniturasida.

Ofset bosma ushida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 49, Buyurtma № 47

Adadi nusxa 100 nusxada

“BIZNES POLIGRAF” bosmaxonasida chop etilgan.

Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Katta Qozirabad, 65
Telefon +998 91 242-12-23